

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI  
VAZIRLIGI**

**2024**

**QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI  
YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH  
MILLIY MARKAZI**

**respublika ilmiy-amaliy anjuman**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR  
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING TENDENSIYALARI  
VA TEXNOLOGIYALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR**



**QASHQADARYO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**“BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XXI ASR  
KO‘NIKIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TENDENSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI:  
MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI  
(QARSHI SHAHRI, 2024-YIL 30-APREL)

**“ТЕНДЕНЦИИ И ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ  
XXI ВЕКА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ:  
ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ”**

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
(ГОРОД КАРШИ, 30-АПРЕЛЬ 2024-ГОД)

**“TENDENCES AND TECHNOLOGIES OF DEVELOPING XXI  
ST CENTURY SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS:  
LOCAL AND FOREIGN EXPERIENCES”**

REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE  
(KARSHI CITY, APRIL 30, 2024)

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, Qashqadaryo viloyat PYMO‘MM, 1276-bet.

Ushbu to'plamda Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tomonidan tashkil etilgan – “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyaning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va texnologiyalari, xalqaro tajribalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 4K modeli asosida o'qitishga doir kompetentligini rivojlantirishga doir zamonaviy metodika va strategiyalar, boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etishning istiqbol rejalarini, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviylikini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik masalalari hamda intensiv usullari, natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni joriy etish tendensiyalariga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirishdan iborat.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan umumta'lim maktab o'qituvchilari, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi va oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, mazkur sohaga doir ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar va talabalar foydalanishlari mumkin.

#### **MAS'UL MUHARRIR:**

A.S.Mallayev Qashqadaryo viloyat PYMO‘MM direktori, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

#### **TAQRIZCHILAR:**

L.M.Umarov Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Uzluksiz kasbiy ta'lim bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
M.B.Raximqulova Samarqand VPYMO‘MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.n. dotsent

#### **Tahrir hay'ati a'zolari:**

Shodiyeva M.J Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini mudiri, pfd (DSc), v/b professor  
Qosimova G.I Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini dotsenti, pffd (PhD)  
Shaxmurodova D.A Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini v/b dotsenti  
Abduholiqova M.B Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini v/b dotsenti  
Azizova D.Y Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Zaripova M.Q Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Rasulova S.M Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Irisova S.R Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Yuldasheva Yu.J Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Karimova U.Sh Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Raximova R.B Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Xolmatova G.I Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini katta o'qituvchisi  
Ergasheva M.N Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini o'qituvchisi  
Rajabova X.H Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini o'qituvchisi

Konferensiya materiallari Qashqadaryo viloyat PYMO‘MM ilmiy-metodik kengashi yig'ilishining 2024-yil 29-martdagi 2-sonli bayoniga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir.

## SO'Z BOSHI

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini, xususan, ta'limning asosiy va hal qiluvchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, murabbiy va pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va madaniyat sohasini uzviy rivojlantirish va ularni doimiy takomillashtirish ishlari davlat siyosatining asosiy va ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanganligi ta'lim-tarbiya sohasiga alohida e'tibor berilishi yangilanayotgan O'zbekistonda ta'limning yangi "o'zbek modeli" yaratilayotganligidan dalolatdir.

Bugungi kunda butun dunyoda ro'y berayotgan globallashtirish sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy etib borish uchun har tomonlama modernizatsiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida ko'plab vazifalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabr kuni "O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash haqidagi PF-158-sonli Farmon imzolandi. Bu esa ta'lim sohasida ham ko'plab vazifalarni amalga oshirish shartini qo'ydi.

Asosiy e'tibor yosh avlodga ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli va zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarni o'rgatish, yosh avlodning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishlarida, ularning milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatli vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishlarida kuchli ijtimoiy ximoya, sifatli ta'lim, zamonaviy bilim va tajribalar muhim ahamiyatga ega. Bunda albatta pedagog o'qituvchilarning kasbiy salohiyati muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 18-yanvardagi 16-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2024-yilda mamlakatimizda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy hamda ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga ko'ra Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tomonidan 2024 yil 30-aprel kuni "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning tendensiyalari va texnologiyalari: mahalliy va xorijiy tajribalar" mavzusida respublika (oflayn va onlayn) ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyaning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va texnologiyalari, xalqaro tajribalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 4K modeli asosida o'qitishga doir kompetentligini rivojlantirishga doir zamonaviy metodika va strategiyalar, boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etishning istiqbol rejalari, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik masalalari hamda intensiv usullari, natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni joriy etish tendensiyalariga doir xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarni to'plash, tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirishdan iborat.

Konferensiya uchun jami 218 ta maqola qabul qilindi (shundan 30 nafar ilmiy daraja va unvonga ega bo'lganlar). Konferensiyada oliy ta'lim muassasalaridan jami 24 nafar professor-o'qituvchi, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutidan 3 nafar ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchi, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridan jami 112 nafar professor-o'qituvchi, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan jami 40 nafar, mustaqil izlanuvchi, doktorant va talabalardan jami 36 nafar, Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan jami 3 nafar tarbiyachilar maqola bilan ishtirok etdi.



Konferensiya to‘plamiga kiritilgan maqolalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta‘lim dasturlari va yangi davlat ta‘lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishining pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. To‘plam professor-o‘qituvchilar, iqtidorli talabalar, ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini yoritishda nazariy-metodologik manbaa bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori f.m.f.n., dotsent A.S.Mallayev**

**I-SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR  
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA  
TEXNOLOGIYALAR, XALQARO TAJRIBALAR**

**ZAMONAVIY MAKTAB MENEJERLARINI TAYYORLASHNING DOLZARB  
MUAMMOLARI**

**Xalimov Muxammad Raximberdiyevich,**

A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Xalq ta‘limi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi direktori

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktab ta‘limi sifatini ta‘minlashda boshqaruv samaradorligining o‘rni, boshqaruv samaradorligiga erishish uchun umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari rahbarlarining menejerlik xususiyatiga ega bo‘lish zarurati, menejerga qo‘yiladigan talablar, ularning funktsiya va vazifalari, zamonaviy menejerlarni tayyorlashning shart-sharoitlari xususida fikr yuritilgan hamda menejer tushunchasiga aniqlik kiritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Maktab, direktor, rahbar xodimlar, menejer, boshqaruv samaradorligi, ta‘lim sifati, jamoa.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022 yil 11 maydagi PF-134-son, “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023 yil 26 maydagi PF-79-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 25-dekabrda 681-son qaroriga asosan maktab direktori lavozimiga nomzodlar menejerlik sertifikatini olish uchun A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida maxsus pullik dasturlar asosida jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘nikmalariga o‘qitilishi, o‘qitish yakuni bo‘yicha maktab direktori lavozimiga nomzodlarning boshqaruv sohasiga oid bilim va ko‘nikmalari baholanadi hamda natijasi bo‘yicha menejerlik sertifikati berilishi belgilangan.

Mazkur kurslarni tashkil etishda maqsadida Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida maktab direktorlarini tayyorlash bo‘yicha “Menejerlik o‘quv kurslari” tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi hamda xorijiy tajribalar o‘rganildi. Aksariyat xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilganda maktab direktorlarini tayyorlash tizimida direktorning kasb standari asosida olib borilishi aniqlandi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktorining kasb standarti bir qator davlatlarning kasb standartlari bilan taqqoslandi:

<b>O‘zbekiston</b>	<b>Birlashgan Arab Amirliklari</b>	<b>Singapur</b>	<b>Avstraliya</b>
--------------------	--	-----------------	-------------------

Umumiy oʻrta taʼlim muassasasini rivojlantirish va oʻquv-tarbiya jarayonini boshqarish	Professional va etikaviy liderlik	Strategik rejalashtirish va boshqarish	Oʻqitish va oʻrganishda etakchilik
Oʻzini va oʻqituvchilar kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish	Strategik liderlik	Xodimlarni rivojlantirish va boshqarish	Oʻzini va boshqalarni rivojlantirish
Inson resurslarini boshqarish	Taʼlim boʻyicha liderlik	Maktabdagi jarayonlar va resurslarni boshqarish	Etakchilikni takomillashtirish, innovatsiyalar va oʻzgarishlar
Ish yuritish va hisobot	Jarayonni boshqarishda liderlik		Maktab jamoasiga rahbarlik qilish
Jamoatchilik va ota-onalar bilan oʻzaro munosabat/hamkorlik			Jamiyat (jamoatchilik)ni jalb qilish va ular bilan ishlash

Oʻzbekistonda ham umumiy oʻrta taʼlim maktabi direktorining kasb standarti ishlab chiqilgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligining Kasb standartlari reyestri (<https://profstandart.mehnat.uz/uz>) portaliga joylashtirilgan.

Dunyo qiyofasi tez oʻzgarayotgan bugungi davrda davlatlar va jamiyatlar xalqaro maydonda tan olinishi hamda oʻzligini saqlab qolishi uchun inson kapitalini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratmoqda.

Bunga asosiy sabab 2030-yilga kelib, dunyo boʻylab 800 millionga yaqin ish oʻrni yoʻqoladi va mashinalar tomonidan egallab olinadi, sunʼiy intellekt taxminan 2029-yilda inson darajasiga yetadi. Yana shuni aytish kerakki, 2045-yilga borib biz sivilizatsiyamizning inson biologik mashinasi intellektini milliard barobarga oshiramiz [2;4].

Bu esa koʻplab davlatlarning oʻz aholisi yuqori intellektga ega boʻlishidan manfaatdorligini kuchaytirishi natijasida taʼlim sifatini oshirishga boʻlgan yangi islohotlarning boshlanishiga sabab boʻldi. Jahonda yuz berayotgan ushbu tendensiyalar insonlarda sifatli taʼlim olishga boʻlgan ehtiyojning ortib borishiga olib keldi. Dunyo hamjamiyatdagi mazkur jarayonlardan kelib chiqib mamlakatimizda ham davlat tomonidan taʼlim sifatini oshirishga boʻlgan keng koʻlamli islohotlar boshlab yuborildi.

Bugungi kunda yurtimizda maktab taʼlimi sifatini oshirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribalar oʻrganilgan holda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini taʼminlash uchun, avvalo, boshqaruv samaradorligini oshirish muhim omil ekanligi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, maktablarda samarali boshqaruvni tashkil qilish uchun ayni vaqtda zamonaviy menejrlarni tayyorlash zarurati yuzaga kelgan.

Har bir maktab oʻziga xos xususiyat, qadriyatlarga ega va u turli sharoitlarda faoliyat yuritadi, shuning uchun maktab menejeri oʻzining yetakchilik funksiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishi ijtimoiy hamjamiyatning turli taʼsirlariga bogʻliq. Bunday xilma-xillik sharoitida tegishli kasbiy malakaga ega boʻlgan, sifatli va muvaffaqiyatli demokratik muloqotni amalga oshiruvchi hamda pedagog xodimlarining kasbiy takomillashuvi va rivojlanishi ustida ish olib boruvchi, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishonchga asoslangan hamkorlik oʻrnata olish xususiyatiga ega boʻlish orqali yanada samaradorlikka erishish mumkin.

Maktab menejeri doimiy ravishda yetakchi va taʼlim jarayonining tashkilotchisi roʻlini oʻynaydi, shu sababdan ular shaxslararo munosabatlar va boshqaruv sohasida yaxshi tayyorgarlik koʻrishi juda muhimdir. Maktab menejerining asosiy vazifalaridan biri, albatta, xodimlar oʻrtasida ijobiy muhitni shakllantirish, sifatli muloqot qobiliyatlari va usullaridan foydalangan


holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish, xodimlarni rag'batlantirish, kichik yutug'i uchun ham e'tirof etish, ularga shaxsiy namuna bo'lish yaxshi ish natijalari uchun zarur shartdir.

Shuningdek, zamonaviy maktab menejerlari o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari darajasini oshirish maqsadida o'qituvchilarni boshqarish uchun ko'proq yetakchilik strategiyalaridan foydalanadilar hamda kuchli pedagogik jamoani shakllantirish yo'lida ta'lim ekspertlari va mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlaydi. Bunday maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda maktab direktori (menejeri)dan liderlik va qaror qabul qilish qobiliyati talab etiladi. Direktor qaror qabul qilishda jamoaning fikri inobatga olinganligini ularga bildirishi o'ziga nisbatan jamoa ishonchini mustahkamlashga olib keladi [1;48]. Shu bois bugungi kunda zamonaviy menejerdan strategik boshqaruvni amalga oshirish, maktab faoliyatini strategik rejalashtirish talab etiladi.

Maktablarda strategik rejalashtirish menejerning turli omillarni inobatga olgan holda o'zining va o'qituvchilar faoliyatini har xil turdagi innovatsion ishlar orqali yaxshilash uchun strategik hamda tanqidiy fikrlagan paytidan boshlanadi. Barcha o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun motivatsion muhitni ta'minlash maktabning o'qituvchilar o'z imkoniyatlarini eng yaxshi tarzda namoyon eta oladigan joyga aylanishining asosiy shartidir va shundagina o'quvchilar eng yaxshi ta'lim natijalariga erishishlari mumkin [4;1236].

Demak, bugungi kun maktab direktori menejer bo'lishi kerak. Shu o'rinda "menejer" o'zi kim? – degan savol tug'iladi. Keling, ushbu savolga javob izlab ko'ramiz. "Menejer – bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassisdir" [8;123]. "Menejer – ma'murdan boshqacharoq. U boshqarmaydi, buyruq bermaydi, balki boshqalarga yetakchilik qiladi. Ular unga nisbatan tobe emas, balki ergashuvchilardir" [6;214-215]. "Menejer uchun jamoa – asosiy tayanchdir, shuning uchun jamoa ishini oqilona tashkil etish uning dolzarb vazifasi hisoblanadi" [7;303].


Menejer o'zining asosiy funksional vazifalarini (1-rasm) [3; 67-76] mas'uliyat va mahorat bilan o'z vaqtida bajaradigan bo'lsa, boshqaruv samaradorligiga erishish orqali ta'lim sifatini ta'minlaydi.



**1-rasm. Menejerning asosiy funksional vazifalari.**


Ta'lim sifatini ta'minlash uchun zamonaviy menejerlarni tayyorlash jarayonida ular tomonidan ishlarni to'g'ri tashkillashtirish (2-rasm) [3;71] va o'z vazifalarini (3-rasm) [5; 133] katta ishtiyok hamda yuqori salohiyat bilan bajara olish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

### **Tashkiliy jarayon menejerlik korpusi ishining bosqichlari**



**2-rasm. Tashkiliy jarayon menejerlik korpusi ishining bosqichlari.**

### **Menejer faoliyati davomida bajarish kerak bo'lgan vazifalar**



**3-rasm. Menejering vazifasi.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktab rahbar xodimlarida menejerlikka xos xususiyatlarni shakllantirish bugunning dolzarb masalasidir va bu jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur. Mazkur vazifani bajarish uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida shu yo'nalishda yangi strategiyalarni belgilab olish va zamon talablari asosida takomillashtirib borish kerak bo'ladi.

Yana shuni aytish joizki, zamonaviy menejer kuchli jamoani shakllantiradi va jamoada o'zidan kuchlilar bilan birga ishlashdan qo'rqmaydi, balki ular uchun ham munosib ro'l topib beradi. Bu maktab jozibadorligining oshishiga sabab bo'ladi hamda ta'lim sifatining ta'minlanishiga zamin yaratadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Crum, K. S., Sherman, W. H., & Myran, S. (2009). Best practices of successful elementary school leaders. *Journal of Educational Administration*. 48(1), 48-63. <http://dx.doi.org/10.1108/09578231011015412>.
2. Gartner. (2017). Applying artificial intelligence to drive business transformation: A Gartner trend insight report. Retrieved from <https://www.gartner.com/en/documents/3792874/applying-artificial-intelligence-to-rive-business-trans>. p 4.
3. Maxkamova M. va b. Menejment / O'quv qo'llanma. – T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007, 200 bet. – 71, 67-76-b.
4. Semir Sejtanić. Strategies for efficient management by school managers at elementary schools. Article in *International Journal of Advanced Research*. May 2017, pp. 1236. DOI: 10.21474/IJAR01/4237#sthash.e0e2a3fl.dpuf
5. Valijonov R. va boshq. Menejment asoslari: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik / R. Valijonov, O.Qobulov, A. Ergashev. – T.: “Sharq”, 2002. 208 bet. – 133 b.
6. Yo'ldoshev N.K. Menejment asoslari va biznes reja: darslik / N.K.Yo'ldoshev, S.Sh.Yusupov, G.E.Zaxidov. – Toshkent: – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 252 bet. – 214-215-b.
7. Yo'ldoshev, N.K. Menejment: darslik / N.K. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov. – Toshkent: – “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 392 bet. – 303-b.
8. Zayavitdinova N.M. Menejment: o'quv qo'llanma / N.M. Zayavitdinova, D.M. Artikova, S.Sh. Xodjiyeva, – Toshkent: “Turon Nashriyot”, 2021. – 160 bet. – 123-b.
9. [https://www.aitsl.edu.au/docs/default-source/national-policy-framework/australian-professional-standard-for-principals-and-the-leadership-profiles.pdf?sfvrsn=c07eff3c\\_26](https://www.aitsl.edu.au/docs/default-source/national-policy-framework/australian-professional-standard-for-principals-and-the-leadership-profiles.pdf?sfvrsn=c07eff3c_26)

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA 4K KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK JARAYONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Safarova Roxat Gaybillaevna

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti  
“Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi” bo'limi boshlig'i, p.f.d.,prof.*

**Annotatsiya.** Xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda O'zbekiston xalqining o'ziga xos tajribasi, madaniyati, mentalitetidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarini tadbiq etish taqozo qilinmoqda. O'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyor, raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlari uchun XXI-asr kompetensiyalarini o'zbek xalqi va O'zbekiston jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan ko'nikmalar bilan boyitish zaruriyati mavjud. Buning uchun o'quvchilar muntazam tarzda rivojlanishlari, intellektual faollik ko'rsatish tajribasiga ega bolishlari, o'z dunyoqarashlarini boyitishlari lozim.

**Kalit so'zlar:** soft skills, tanqidiy tafakkur, kreativlik, hamkorlikda ishlash, kompetensiya, kommunikativ layoqat, refleksiya.

Yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, migratsiya jarayoni, demografik muammolar O'zbekiston jamiyatining ma'naviy intellektual hayoti va ishlab chiqarish munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda butun jahon miqyosida texnologik taraqqiyotning 4-bosqichi davom etmoqda. Aksariyat faoliyat usullarini sun'iy intellekt vositalari ya'ni robotlar bajarmoqda. Bu esa o'quvchilarni hayotga tayyorlash maqsadida vujudga keladigan muammolarni yechishga ko'maklashadigan ko'nikmalar bilan qurollantirishni talab qilmoqda. Ushbu ko'nikmalar “soft skills” ya'ni moslashuvchan barqaror ko'nikmalar sifatida talqin etilmoqda. Ular rivojlanib qat'iylashgan kasbiy ko'nikmalarga aylanadi. Bu ko'nikmalar to'rt

guruhga mujassamlashtirilgan. Bugungi kunda fan va ta'limda ushbu ko'nikmalarni 4K kompetensiyalari sifatida talqin etish tajribasi shakllangan.

Dastlabki muhim kompetensiya tanqidiy tafakkurga ega bo'lishdir. Ikkinchisi esa kreativ fikrlash tajribasini o'zlashtirishdan iborat. Uchinchi muhim kompetensiya - kommunikativ layoqatga egalik. To'rtinchisi kollaborativ kompetensiya, ya'ni hamkorlikka kirishish layoqatiga egalik. Dastlab, tanqidiy hamda kreativ tafakkurga ega bo'lish bilan bog'liq bir qator ko'nikmalarni rivojlantirish ehtiyoji vujudga keldi. Bunday ehtiyoj XXI-asrning 15-yillaridan boshlab kuchaya boshladi. Natijada didaktik vositalarga o'quvchilarning tanqidiy hamda kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv mavzulari va materiallarini singdirishga bo'lgan intilishlar namoyon bo'la boshladi. Pedagogika fanida esa o'quvchilarning tanqidiy hamda kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Bunday tadqiqotlar sirasiga G.Akromova, G.Yusupova, A.Boltayeva, F.Esanova, O.Qoraxonova, G.Ibragimovalarning doktorlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar bugungi kunda izchil davom ettirilmoqda.

Agar ta'lim jarayonida 4K kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilmasa, o'quvchilarning bilish faoliyatini jadallashtirish, ularni mikrosotsiumga samarali tayyorlash maqsadiga erishib bo'lmaydi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning o'z rivojlanish traektoriyalarini tanlashlari, kasbiy qiziqish va tafakkurga ega bo'lishlari, o'z layoqatlariga ko'ra kasb tanlashlari uchun ham 4K kompetensiyalari nihoyatda zarur hisoblanadi. Aks holda ular o'z oldilariga maqsad qo'yish, shaxsiy motivlarini namoyon qilish ko'nikmasiga ega bo'lmaydilar. Biz uzoq yillar davomida o'quvchilarning akademik bilimlarini rivojlantirishga harakat qildik. Bugungi kunda katta va o'rta avlodning samarali faoliyat ko'rsatish uchun akademik bilimlari yetarlidir. Biroq kichik avlodda amaliy tajribalar, zarur kompetensiyalarning yetarlicha shakllanmaganligi kuzatilyapti. Mustaqil, kreativ fikrga ega bo'lmagan yoshlar boshqalarning fikrini tahlil qilmasdan turib aynan ko'chirib olish, xalqimiz va millatimiz uchun yot bo'lgan madaniy stereotiplarga ko'r-ko'rona amal qilishlari ayon bo'lmoqda. Bu esa ijtimoiy-madaniy munosabatlarda bo'shliqlarni vujudga keltirib, fan-texnika taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu o'z navbatida ta'lim jarayoni oldiga o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish vazifasini qo'moqda. Buning uchun birinchi navbatda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarda XXI-asr ko'nikmalarini integratsiyalashtirgan holda taqdim etish lozim. Har bir o'quv predmeti bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarda XXI-asr ko'nikmalari negizida 4K kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ko'nikmalarni shakllantirish asosida o'quvchilar bosqichma-bosqich rivojlanib, o'zlarining shaxsiy nuqtai nazarlari va kasbiy tanloviga ega bo'ladilar. Bunda o'quv jarayonida 4K kompetensiyalarini tadrijiy tarzda shakllantirish mexanizmlariga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat pedagogik tajribalarni o'rganish shuni ko'rsarmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchilarga har darsda 4K kompetensiyalari tarkibiga kiradigan ko'nikmalar tizimli tarzda shakllantiriladi. Bunday yondashuvni Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy ta'lim tizimlarida ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 4K kompetensiyalarini muntazam, tizimli tarzda shakllantirish kerak. O'quvchilarda 4K kompetensiyalarini shakllantirishda Singapur va Rossiya tajribalariga tayanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tiizimida bir qator islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga bo'lgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Birinchi navbatda o'quv dasturlari va darsliklar mazmuniga imkon qadar ko'proq XXI-asr ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv materiallari va mavzularini kiritish taqozo qilinmoqda. Buning uchun birinchi navbatda o'quvchilarning kognitiv, hissiy-emotsional sohalari ham rivojlantirish talab qilinadi. Chunki o'quvchilarning kognitiv sohalari bilan hissiy-emotsional sohalari bir-birini taqozo etadi.

O'quvchilar bosqichma-bosqich tahlil qilish, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, o'z oldiga maqsadlar qo'yish, o'z faoliyatini refleksiyalash, o'z-o'zi va sinfdoshlarining faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'qituvchi muntazam tarzda o'quvchilarning mavjud ko'nikmalarini tashxislab ular oldiga har doim yuqoriroq talablar qo'yishi lozim. O'quvchilarda 4K kompetensiyasini shakllantirishda Singapur tajribasini qo'llash alohida ahamiyatga ega bo'lib unda XXI-asr ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan har bir o'quv predmeti bo'yicha aniq metodika tavsiya qilingan. Ushbu metodikaning asosini o'quvchini o'ylash, mulohaza yuritish, fikrlashga undash tashkil etadi. O'quvchi darsda o'z sinfdoshlariga savollar berishi, ularning javoblarini tahlil qilishi, sinfdoshlari va o'qituvchi bilan dialogga kirishishi muhim hisoblanadi. Ushbu metodikaning asosiy yutug'i shundaki, u o'quvchiga ta'lim beruvchi tarkibiy instrumentga ega, uning asosini guruhli ish shakli hamda juftliklarda ishlash tashkil etadi. O'qituvchi esa o'quvchilarning javoblarini navbatma-navbat tinglash asosida ularda 4K kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini nazorat qiladi. Ayni bir o'quvchini turli guruhlarga jalb etish orqali ularda shakllangan ko'nikmalarining sifati va samaradorligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

Bu jarayonda sinfdagi o'quvchilarning aksariyat qismi o'z fikrini bayon qilish, voqelikni aniq tasavvur etish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlikga kirishish, o'zaro bir-birini tinglash, o'z xatolarini aniqlash va tuzatish, o'z bilimlarini boyitish va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. XXI-asr ko'nikmalarini o'z ichiga olgan 4K kompetensiyalari boshlang'ich sinfdan boshlab rivojlantirish shuning uchun ham zarurki, mazkur kompetensiyalar har bir shaxs hayotida muhim o'rin egallab, uning mikrosotsiumda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuni haqli ravishda ta'kidlash kerakki, respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablari, unda qo'llaniladigan o'quv metodik ta'minoti o'quvchilarda 4K kompetensiyalarini ta'minlashga yetarlicha tayyor emas. Biroq o'quvchilarning tanqidiy, kreativ, kommunikativ, kollaborativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muayyan izlanishlar, ishlanmalar, metodikalar vujudga kelmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, XXI-asr ko'nikmalarini o'zida mujasamlashtirgan 4K kompetensiyalari ta'lim mazmunining yetakchi qismini tashkil etishi lozim. Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarning funksional savodxonligi bilan bir qatorda o'quv jarayonining asosiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiyalarning tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarda iqtisodiy, AKT, matematik hamda tabiiy bilimlarga oid savodxonlikni shakllantirish talab qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdullayev F.R. (2023). O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligini baholash // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar, 1(1), 10–17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737>
2. Trilling, Bernie and Fadel, Charles: *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*, Jossey-Bass (publisher), 2009. [ISBN 978-0-470-55362-6](https://doi.org/10.1002/9780470553626). Retrieved 2016-03-13
3. Shodiyeva M. J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING 4K MODELI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI**

ABDULLAYEVA BARNO SAYFUTDINOVNA

Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor

**Annotatsiya.** Asosiy e'tibor yosh avlodga ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli va zamonaviy ta'lim-tarbiya berishga, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarni

o'rgatish, yosh avlodning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishlarida, ularning milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatli vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishlarida kuchli ijtimoiy himoya, sifatli ta'lim, zamonaviy bilim va tajribalar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bilimga asoslangan iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish fenomenining ustuvorligi davrida bo'lajak kadrlarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** ta'limiy ko'nikmalar; savodxonlik ko'nikmalari, hayotiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, aloqa, axborot savodxonligi, media savodxonligi, texnologiya savodxonligi, moslashuvchanlik, yetakchilik, tashabbuskorlik, samaradorlik, ijtimoiy ko'nikmalar.

XXI asr ko'nikmalari – bu bugungi bo'lajak kadrlar axborot asrida o'z martabalarida muvaffaqiyatga erishishlari kerak bo'lgan 12 ta qobiliyatdir. Bular: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, aloqa, axborot savodxonligi, media savodxonligi, texnologiya savodxonligi, moslashuvchanlik, yetakchilik, tashabbuskorlik, samaradorlik, ijtimoiy ko'nikmalar.

XXI asr ko'nikmalarining har biri uchta toifadan biriga bo'lingan: ta'limiy ko'nikmalar; savodxonlik ko'nikmalari; hayotiy ko'nikmalar.

Ta'limiy ko'nikmalar (4K) o'quvchilarga zamonaviy ish muhitiga moslashish va yaxshilash uchun zarur bo'lgan aqliy jarayonlar haqida o'rgatadi.

Savodxonlik ko'nikmalari (IMT) o'quvchilar faktlarni, ma'lumotlarni va texnologiyalarni qanday ajrata olishlariga qaratilgan. Ishonchli manbalar va faktik ma'lumotlarni aniqlashga katta e'tibor qaratilib, uni internetni to'ldirib borayotgan noto'g'ri ma'lumotlardan ajratib turadi.

Hayotiy ko'nikmalar (FLIPS) o'quvchilarning kundalik hayotining nomoddiy elementlarini ko'rib chiqadi. Bu nomoddiy elementlar ham shaxsiy, ham kasbiy fazilatlarga qaratilgan.

Umuman olganda, bu ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi karerasiga hissa qo'shadigan XXI asrning o'n ikki ko'nikmalarini qamrab oladi. Bu martabaga tayyorlik ko'nikmalarining to'liq nazorat ro'yxati emas, lekin ular XXI asr ko'nikmalariga mos keladigan karera (martaba)ga tayyorgarlik ko'nikmalaridir.

4K – XXI asrning eng mashhur qobiliyatlari hisoblanadi. Bu ko'nikmalar, shuningdek, o'rganish qobiliyatlari deb ataladi. Ular, shuningdek, shaxsning martaba intilishlariga qarab, ahamiyati jihatidan farq qiladi. XXI asrning 4K ko'nikmalari quyidagilardir:

Tanqidiy fikrlash: muammolarga yechim topish.

Ijodkorlik: cheksiz fikrlash.

Hamkorlik: boshqalar bilan ishlash.

Muloqot: boshqalar bilan gaplashish, ular bilan munosabat va aloqaga kirisha olish.

Tanqidiy fikrlash (ingl. critical thinking) – narsa va hodisalarni oqilona xulosalar chiqarish bilan tahlil qilishda foydalaniladigan va asoslangan baholar, talqinlar berishga, shuningdek, olingan natijalarni vaziyatlar va muammolarga qo'llash imkonini beradigan mulohazalar tizimi. Umumiy ma'noda tanqidiy fikrlash deganda tanqiddan oldingi fikrlashdan ko'ra yuqoriroq darajada fikrlash ko'zda tutiladi.

Kreativlik tushunchasi (lot., ingl. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin.

Kommunikativlik – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot tuplash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish. Kommunikativ kompetensiya — o'quvchilarda guruhlarda va jamoalarda ijodiy ishlay olish,



hamkorlik qila olish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari va kompetentlilik darajalarini shakllantirish bo'yicha tarix fani ta'limi maqsadlarini va baholash mezonlarini aniqroq va yaqqolroq belgilovchi quyidagi tamoyillar belgilandi.

**Kollaboratsiya** (collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi. Hamkorlik – bu umumiy maqsadlarga erishish uchun har qanday sohada ikki yoki undan ortiq tomonlarning (ham odamlar, ham tashkilotlar) birgalikdagi faoliyati jarayoni. *Kollaboratsiya* – o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish, hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Bu ko'nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Bu ko'nikmalarni qanday qilib egallash va eng muhimi bu ko'nikmalarga erishilganligini qanday qilib baholash mumkin? Tadqiqotchi F.R.Abdullayevning fikricha, XXI asr ko'nikmalariga erishilganligini baholashni amalga oshirishda XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud bo'lgan malaka standartlarini (21st Century Success Skills Standarts, 21CSSS) ko'rib chiqish lozim, chunki bu malaka standartlaridan baholash uchun mezonlarni aniqlashtirib olishda foydalanish mumkin [1; 11-b.].

Bu standartlar o'quvchilarning maktabdan ishga (ish faoliyatiga) muvaffaqiyatli o'tishlari uchun zarur bo'lgan asosiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko'nikmalarga qaratilgan. XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun beshta standart mavjud bo'lib, ular quyidagilar [1; 12-b.]:

- 1-standart: shaxsiy muvaffaqiyatning o'ziga xos xususiyatlari.
- 2-standart: muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlarni tadqiq qilish.
- 3-standart: tanqidiy fikrlash va axborotlar tahlilining obyektivligi.
- 4-standart: muammolarni o'zaro bo'g'lash orqali ularni hal qilish.
- 5-standart: boshqalar bilan muloqot qilish va hamkorlikda ishlash.

Har bir standart o'quvchilarning muvaffaqiyatli deb topilishi uchun erishishi kerak bo'lgan asosiy maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar va maqsadlar XXI asr muvaffaqiyati ko'nikmalari imtihonida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan talablarning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bunda o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash ko'nikmalari, jamoada ishlay olish, muloqotga kirisha olish, insonlar bilan aloqa o'rnatish olish ko'nikmalarini shakllantirishga doir o'quv topshiriqlarini qo'llash va ushbu topshiriqlar asosida baholash jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat ko'zlangan natijani erishish imkonini beradi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, sifatli ta'limni ta'minlash orqali yangisha tafakkurni rivojlantirish, boshlang'ish ta'limdanoq o'quvchilarda mustaqil o'qish va o'rganish ko'nikmalarini tarkib toptirish, kompetensiyaviy yondashuvga ustuvorlik berish orqali ta'lim oluvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda albatta pedagog o'qituvchilarning kasbiy salohiyati muhim hisoblanadi, shundan kelib chiqib, respublikamizda maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etilgan bo'lib, "hayot davomida ta'lim olish" g'oyasi asosida malaka oshirish tizimi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga transformatsiya qilindi.

Kattalarni o'qitish va ularga ta'lim berish hayot davomida ta'lim olishning muhim qismi bo'lib hisoblanadi va hozirgi zamonda bunday ta'lim butun dunyodagi insonlar va jamiyat duch kelayotgan masalalarni yechishda muhim rol o'ynamoqda. YUNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha 2009-yil dekabrda o'tkazilgan oltinchi Xalqaro konferensiyasida (CONFINTEA VI) aytilishicha, kattalar o'qishi va ularga ta'lim berish insonlarga o'z haq-huquqlarini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish hamda o'z taqdirining egasi bo'lishlari uchun zarur bilim, malakalarni egallash, fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga imkoniyat yaratadi [4].

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida kreativ, nostandart fikrlaydigan, o'z sohasida yangi usullarni taklif qila oladigan professional mutaxassislariga ehtiyoj tobora ortmoqda. Har bir soha uchun kadrlarni tayyorlash ta'lim beruvchining zimmasiga yuklatilgan vazifadir. Shunga muvofiq, ta'lim beruvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish omillaridan biri – andragogik tamoyillarga tayanish bo'lsa,

andragogikaning o'ziga xos xususiyati esa, uzluksiz ta'lim jarayonida kattalarni o'qitish nazariyasi va metodikasi hisoblanadi.

Bu esa, o'z navbatida o'qituvchining mustaqil va uzluksiz o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishning:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'z faoliyatlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish ko'nikmasini egallash;
- umumiy va xususiy kompetensiyalarni egallash kabi vazifalarni ilgari suradi.

O'qituvchilarning mustaqil va uzluksiz o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishi ularning o'z kasbiy tajribalarini tahlil qilish va baholash, shuningdek, o'zini o'zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatishlarimiz natijasida o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga yangi nuqtai nazarni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va amaliyotining rivojlanishi;
- axborotlashgan jamiyat sharoitida o'qituvchining bilimlarni o'zlashtirish va berishdagi

yangi roli;

- bilimlar haqidagi yangi tasavvurlar.

Mutaxassislar katta yoshdagi insonlarga nisbatan uzluksiz ta'limni "ham umumiy va maxsus o'quv muassasalarining istalgan turi, ham shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish vositasi sifatida bilim va malakalarini takomillashtirish va unga ega bo'lishdagi tizimlashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tushunmoq zarur"ligini ta'kidlaydilar [3, 18-b.].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kunda zamonaviy o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi – yangi avlod darsliklarini samarali o'qitish omili sifatida qaralmoqda. Yangi avlod darsliklari o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'qituvchidan kasbiy va metodik tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga ega bo'lishni talab qiladi. Partnership for 21st Century Skills tomonidan raqamli jamiyatda samarali faoliyat olib borish, ijtimoiy va kasbiy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun talab qilinadigan mahorat va kompetensiyalar (Four Cs) quyidagilarni o'z ichiga oladi: collaboration (hamkorlik), communication (muloqot), critical thinking (tanqidiy tafakkur), creativity (ijodkorlik). O'quvchilarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchilar kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlarni egallashi, o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish asosida ularning o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirishi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi hamda ta'limiy muhitni shakllantirishi zarur. Bunda o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini, ta'lim jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning zamonaviy talablarga asoslangan zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, bugungi globallashtirish davrida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishlari muhim hisoblanadi.

Shunga muvofiq, XXI asr ko'nikmalariga ega mutaxassis tayyorlash maqsadi nafaqat ta'lim mazmunini, balki o'qituvchi faoliyati, o'qitish usullari va axborot-ta'lim muhitini tashkil qilish jarayonini ham o'zgartirishga olib keladi. Mamlakatimizning milliy ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajriba hamda sohaga oid ilmiy tadqiqotlar asosida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha kompetensiyalarni ishlab chiqish va ta'lim standartlariga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kiritish vazifasi kompetensiyalarning to'liq tasnifini tuzish hamda hayot davomida ta'lim paradigmasi kontekstida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, shaxsda XXI asrning

eng muhim ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim strategiyasini yaratish bilan bevosita bog'liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev F.R. (2023). O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligini baholash // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar, 1(1), 10–17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737>
2. Trilling, Bernie and Fadel, Charles: *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*, Jossey-Bass (publisher), 2009. ISBN 978-0-470-55362-6. Retrieved 2016-03-13
3. Shodiyeva M. J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.
4. Международная конференция по образованию взрослых CONFINTEA VI [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unesco.org/ru/confinteavi> (дата обращения: 14.09.2017).
5. <https://www.icevonline.com/blog/what-are-21st-century-skills>

### ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ИДЕИ И ТЕХНОЛОГИИ

Марчук Светлана Владимировна

преподаватель-исследователь,

ст. преподаватель кафедры русского языка как иностранного и методики его преподавания;

Санкт-Петербургский государственный университет;

г. Санкт-Петербург, Россия,

[lanaimage21@gmail.com](mailto:lanaimage21@gmail.com)

**Аннотация.** Статья посвящена вопросам применения цифровой образовательной среды для формирования коммуникативных компетенций. Выявляются особенности мультимедийного образования с учётом анализа когнитивных умений. Предложены методы интерактивного способа обучения посредством педагогического сайта <https://russian-teacher.ru>, разработанного автором.

**Ключевые слова:** цифровая образовательная среда; коммуникативные компетенции; педагогические условия; интерактивный педагогический сайт.

*Svetlana Vladimirovna Marchuk*

research teacher,

Senior Lecturer of the Department of Russian as a Foreign Language and Teaching Methods;

St. Petersburg State University;

г. St. Petersburg, Russia,

[lanaimage21@gmail.com](mailto:lanaimage21@gmail.com)

### BUILDING COMMUNICATIVE COMPETENCIES IN THE DIGITAL ENVIRONMENT: IDEAS AND TECHNOLOGIES

**Abstract.** The article is devoted to the application of digital educational environment for the formation of communicative competences. The peculiarities of multimedia education are revealed taking into account the analysis of cognitive skills. The methods of interactive way of learning through the pedagogical site <https://russian-teacher.ru> developed by the author are proposed.

**Keywords:** digital educational environment; communicative competences; pedagogical conditions; interactive pedagogical website.

Взаимодействие педагогики и цифровой образовательной среды (ЦОС) нами будет рассматриваться для формирования коммуникативных компетенций. Концептуальный анализ данного вопроса заключается в представлении идей и технологий цифрового образования, где сущностью является целевая деятельность обучающегося, а внутренней мотивацией должно быть стремление к равенству знаний ученика с педагогом (Л.Н.Толстой), оптимизирующее соотношение обучения и развития обучающихся (Л. С. Выготский). При этом соблюдается принцип позитивного результата, основанный на идее экстраполяции настоящего в ближайшее будущее согласно теории психофизической активности Н. А. Бернштейна. Учитывая позицию К.Д. Ушинского, при обучении необходимо опираться на анатомию, физиологию, психологию, логику, философию, географию, изучающую землю как жилище человека и человека как жильца земного шара, статистику, историю в общем восприятии и историю воспитания. Во всех этих науках обнаруживаются свойства предмета воспитания, т.е. человека [1, С. 390]. Значит, создавая релевантные педагогические условия, преподаватель должен знать закономерности психофизических явлений и обучать с учётом природосообразности, и культуросообразности своей деятельности; при этом «учитель должен сознательно идти в ногу с современностью, проникаться и вдохновляться пробудившимися в ней силами» (А. Дистерверг).

Так, обучая иностранных студентов русскому языку как иностранному, преподаватели часто, работая в паре, при передаче группы ориентируются на страницы учебника. «Пройдя» весь учебник, студенты часто не владеют намеченными умениями, заикливаются на выполнении упражнений. Это становится условным рефлексом, но при вопросе: «Нравится ли обучаться по учебнику» 80% опрошенных из 40 студентов ответили, что обучаться только по учебнику скучно и не продуктивно.

Иначе говоря, преподаватель создаёт форма обучения через диалог культур, на основе которой, по теории Библера рождается новое знание, где преподаватель управляет не учеником, как объектом, а процессом создания «живого знания», постоянно дополняющего себя.

Действительность открывает перед нами возможность включать в педагогические условия цифровую среду, не как отдельное дополнительное средство, а как сферическое пространство, в котором создаётся модель желаемого и полезного для освоения программы.

Проектирование комплекса педагогических условий осуществляется как:

1) *представление* содержания языкового образования в цифровой форме, где допускается участие всех субъектов *в наполнении* этого контента; *проектирования* критериев отбора, а также *самоорганизации* опыта аудирования обучающимися;

2) диалогичный формат общения субъектов образования благодаря структурированной цифровой среде как способу обучения, позволяющего частичное участие в целеполагании, самостоятельном подборе методов обучения и форм самоконтроля с целью диагностики затруднений.

Значительный вклад в вопросы применения цифровой образовательной среды внесли В.А. Ясвин, который разработал подход векторного моделирования [2]. В.И. Панова – управление в сфере ЦОС [3], И.А. Баева выделила субъектные составляющие [4]. Исследуя общий аспект, каждый рассматривает его в своей траектории. Однако основным препятствием в достижении инновационных эффектов становится перенос прежней методологии в новые условия образования личности в цифровом мире, как считает Т.Н. Носкова [5].

На рис.1 представлена общая схема модели педагогического сайта, с помощью которого преподаватель по факту практической деятельности способен интегрировать разнообразные и дидактические средства, информационные ресурсы, осуществлять техническое обеспечение сетевого сотворчества; предлагать и использовать авторский характер педагогической деятельности для каждого субъекта образования;



взаимодействовать с обучающимся в диалоговом режиме для оперативного получения актуальной консультации .

Добавим, что это особым образом структурированное культурологическое пространство, снабжённое цифровыми ресурсами, для содержательной, процессуальной и организационной открытости, обеспеченной формами обучения; допускающей широкое вхождение образования в сетевое взаимодействие с культурными партнёрами.




Рис. 1 Схема Педагогической модели при создании обучающего интерактивного продукта

Педагогами-исследователями проведено диагностическое исследование понимания сущности педагогического управления и выявлены структурные компоненты: ценностно-целевой [6, С.69–78.]; информационно-содержательный; организационно-деятельностный; контрольно-оценочный, однако расширение границ в интерпретации педагогического управления ЦОС становится многоканальным, что важно учитывать [7,71].

Наше видение внедрения ЦОС в педагогические условия при формировании коммуникативных компетенций обусловлено конкретными интерактивными методами, которые объединены в единый сайт, названный *интерактивный педагогический сайт (ИПС)* <https://russian-teacher.ru>. Коммуникативные компетенции для более чёткого восприятия дополнены экспликацией понятия. На Рис. 2 «График успеваемости и качества. «Живой диалог» на горизонтальной оси отчётливо видно, что результат в экспериментальной группе превышает на 50% результат в контрольной группе. Этот приём является инновацией, как и создание самого ИПС, принципиально отличающегося от образовательных сайтов.



Рис. 3 График успеваемости и качества. Живой диалог [8]

Предлагаются приёмы «От простого к сложному», проектная работа «Учим слова быстро», создаётся поэтапно хрестоматийная антология для изучения культурных ценностей нашей страны и др.

Таким образом, *интерактивный педагогический сайт (ИПС)*, являясь многофункциональным мультимедийным образовательным средством, помогает создавать зону ближайшего развития обучающихся для самоорганизации их когнитивных умений и обеспечения мотивации участников «диалога Культур». Этот способ обучения, которым управляет преподаватель, служит основным многофункциональным конструктом, определяется научностью, системностью, творчеством, дифференцированным подходом, возможностью делиться опытом и материалом с коллегами, а также обеспечивает информационную безопасность в рамках своего аспекта обучения в цифровом пространстве.

### **Литература**

1. Ушинский К. Д. Избранные педагогические сочинения в 2 т. Т. 2 / сост. Э.Д. Днепров. М.: Педагогика, 1974. 438 с.
2. Ясвин В. А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. М.: Смысл; 2001. 365 с.
3. Панов В. И. Психодидактика образовательных систем: теория и практика. СПб.: Питер; 2007. 352 с.
4. Баева И. А. Экспертная оценка состояния образовательной среды на предмет комфортности и безопасности / И. А. Баева, Е. Б. Лактионова // Психологическая наука и образование. – 2013. – Т. 18, № 6. – С. 5-12
5. Носкова Т. Н. Цифровая образовательная среда: методологический аспект запуска инноваций / Т. Н. Носкова // Информатика и образование. – 2023. – Т. 38, № 6. – С. 45-51
6. Никифорова Е. А., Петрова Е. Г., Шилова О. Н. Цифровая образовательная среда школы и ее влияние на социальные установки обучающихся // Непрерывное образование. 2021. № 1 (35). С. 69–78.
7. Куликова С. С. Педагогическое управление в цифровой образовательной среде: вопросы профессиональной подготовки будущих педагогов / С. С. Куликова, О. В. Яковлева // Образование и наука. – 2022. – Т. 24, № 2. – С. 48-83.
8. Марчук С. В. Описание эксперимента: эффективность применения интерактивного педагогического сайта преподавателем РКИ / С. В. Марчук // Открытое образование. – 2023. – Т. 27, № 1. – С. 61-76

## **O‘QITUVCHILARNI KASBIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI BELGILASHDA KOGNITIV KOMPETENTLILIKNING O‘RNI**

**Ibragimov A’lamjon Amrilloevich,  
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o‘rgatish milliy markazi direktori,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘qituvchi o‘zining uzluksiz kasbiy rivojlanishi strategiyasi, mohiyatini anglashi, loyihalashi va amalga oshirishida kognitiv kompetentlilik bosh omil sifatida qaralgan hamda uning mazmuni, tuzilmasi, tashkil etuvchilari sohaga doir nazariy yondashuvlar tahlili asosida keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv kompetensiya, kognitiv kompetentlilik, tuzilma, tuzilma tashkil etuvchilari, motivlashtirish, axborot, faoliyat, refleksiv.

В статье на основе анализа теоретических подходов в области непрерывного профессионального развития рассматриваются вопросы понимания педагогом развития когнитивной компетентности как ключевого фактора в проектировании и его реализации, а также раскрываются сущность, структура и содержание данного понятия.

**Ключевые слова:** когнитивная компетенция, когнитивная компетентность, структура, составляющие структуры, мотивация, информация, деятельность, рефлексивность.

The article considers cognitive competence as a key factor in understanding, designing and implementing the essence of continuous professional development of the teacher, and its content, structure, founders are based on the analysis of theoretical approaches to the field.

**Keywords:** cognitive competence, cognitive competence, structure, structure constituents, motivating, information, activity, reflexive.

Kasbiy kompetentlilik o'qituvchi uchun intilishi lozim bo'lgan cho'qqi va faoliyatining konseptual loyihasi sifatida qaralishi, pedagog xodim esa doimo turli murakkablikdagi kasbiy vazifalar hamda pedagogik vaziyatlarning maqbul yechimini topishga layoqatli, yangiliklar uchun ochiq, tashabbuskor, intiluvchan bo'lishi darkor. Demak, ayni shu jarayon o'qituvchidan o'z faoliyatiga munosabatini o'zgartirishni, zaruriyat tug'ilganda, qayta qurishni talab etadi. Bu esa tizimning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'rganishlarimiz doirasi kognitiv kompetensiya va kognitiv kompetentlilik sifatlarini aniqlashga yo'naltirilganligi bois quyida, aynan shu tushunchalarni izohlovchi ishlanmalarga diqqat qaratamiz.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda "kognitiv kompetensiya" va "kognitiv kompetentlilik" atamalariga oid muayyan ta'riflar berilgan bo'lsa-da, ularga ham "kompetensiya" va "kompetentlilik" atamalariga yagona ma'noni beruvchi tugallangan izoh bo'lmaganligi singari aniq to'xtamga kelingan yondashuvlar mavjud emasligi aniqlandi.

Jumladan, kognitiv kompetensiyaga quyidagicha ta'riflar berilgan:

"o'quvchining kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy hayotiga doir bilish faoliyatini rivojlantirish, tashkillashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qobiliyatiga ega bo'lishi darajasida hozirligini ifodalovchi ta'lim natijasi; ta'lim darajasini doimiy oshirib borishga tayyorlik; shaxsiy salohiyati, refleksiya hamda yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtira olishining namoyishi" [10, 301-b.];

"Bilim darajasini doimiy oshirib borishga tayyorlik, shaxsiy salohiyatining muhimligini anglashi va uni namoyishiga ehtiyoji, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish layoqati, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati" [5, 63-b.];

"Axborotning global manbalaridagi zaruriy ma'lumotlarni tezkor topish, muhimlarini shu yerda va hozir ajratib olish, tahlillash, xotiradan ularga yaqin ma'lumotlarni izlash hamda topilganlariga sintezlash, tasavvur va assosiativ aloqadorliklarni ishga solish, muammoni aniqlash, farazni ilgari surish, amaliyotda sinab ko'rish, yechimni shakllantirish va taqdim etish ko'nikmasi" [8];

"Bilish hamda funksional kompetensiyalarni rivojlantirish orqali samarali ravishda fikrlash va harakatlanish qobiliyati" [10, 298-bet.].

Ta'lim sohasini ilmiy o'rganishga katta hissa qo'shgan olimlardan biri L.Lyubimov [7, 17-bet.] "Umumiy ta'limni modernizatsiyalashning mualliflik konsepsiyasi. Shiorlar, chaqiriqlar va nasihatlar, lekin quyidagi savollarga javoblar bilan: Nimani bajarish kerak? Nima uchun bajarish kerak? Buni qanday bajarish mumkin?" nomli tahliliy ishlanmasida kognitiv kompetensiyalar haqida mushohada qilar ekan, maktab islohoti va ta'lim sifati monitoringini olib borishga bo'lgan ehtiyoj yuzasidan vujudga kelgan TIMSS, PIRLS, PISA kabi xalqaro tadqiqotlar natijalarini iqtisodiy yuksalish bilan o'zaro bog'liqligi yetakchi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilganligini bildiradi. Uning fikricha, mazkur monitoringlar natijalari davlatning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishi uchun ahamiyatli bo'lgan aholi intellektining darajasi va millatning kognitiv kompetensiyalari tengligini aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi. Faqatgina maktab mazkur kompetensiyalar "fabrikasi" bo'lib xizmat qila oladi.

Kognitiv kompetentlilik Ye.V.Vyazovaning talqinida "o'quvchining haqiqiy borliqdagi obyektlarga nisbatan mustaqil reproduktiv va produktiv bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar majmuini egallaganligi" [3, 10-bet.] shaklida ifodalansa, L.A.Osipova

“Shaxsning o‘quv jarayoni yoki boshqa faoliyatidagi muammoli masalalarni muvaffaqiyatli yechimiga erishishida o‘z salohiyatini (o‘quv faoliyati texnologiyasini bilishi, bilimni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasi, o‘quv faoliyatini mustaqil tashkillashtirish tajribasi) ro‘yobga chiqarishga tayyorligi va intilishini ta‘minlovchi integral xususiyati” [8-9 bet.] sifatida e‘tirof etadi. Shuningdek, I.G.Lipatnikova, T.Yu.Parshina tadqiqotlarida “Shaxsning mustaqil ta‘lim, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga bo‘lgan tayyorligini ta‘minlovchi integral xususiyati” [6, 3-bet.], D.V.Dudkoning izlanishlarida esa “Pedagogning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi, uni doimiy rivojlantirish, kasbiy faoliyati davomida ijodiy qarorlar qabul qilish layoqati”, deya izohlanadi [4, 67-bet.].


Yuqorida keltirilgan fikrlar, tahlillar va shaxsiy izlanishlar [1, 2] natijasiga ko‘ra, o‘qituvchining kognitiv kompetensiyasi va kompetentligi atamalarini ta‘riflash imkoni paydo bo‘ldi:

o‘qituvchining kognitiv kompetensiyasi – bilish jarayonlarini faollashtirish orqali kasbiy faoliyatini samarali olib borishga tayyorligi, yuksak vazifasini anglay olishi va mustaqil ravishda bilimni rivojlantirib borish qobiliyatidir.

O‘qituvchining kognitiv kompetentligi – uning kognitiv kompetensiyalar yig‘indisini aniq voqelik obyektlari bilan bog‘liqlikda egallaganligi hamda kasbiy faoliyatida samarali namoyon bo‘lishi.

Pedagog xodimlar faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyati ularning kasbiy tayyorgarligi, malakaga egalik darajasi, zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan ijodiy yondashishi, o‘z ustida qunt va izchillik bilan ishlashi asosida ta‘minlanadi. Pedagog xodimlar kognitiv kompetentligining yuqori darajasiga erishish pedagogik hamjamiyat, hamkasblari tomonidan tan olinishi, kasbiy faoliyatga qo‘yilayotgan talablarga muvofiqligi, individual kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish, o‘z salohiyatini amalga oshirish bilan ifodalanadi.

Keltirilgan mulohazalar hamda sohaga doir nuqtai nazarlar tahlili asosida kognitiv kompetentlik tuzilmasining motivlashtirish, axborot, faoliyat va refleksiv tashkil etuvchilardan iborat tarkibdan shakllanishi o‘qituvchining kasbiy-pedagogik qobiliyatlariga korrelyativligini ifodalaydi, degan xulosaga kelishga imkon berdi (1-rasm).



### 1-rasm. O‘qituvchining kognitiv kompetentligi tuzilmasi

Kognitiv kompetentlik tuzilmasidagi motivlashtirish tashkil etuvchisi o‘qituvchining kasbiy rivojlanish jarayonida o‘z faoliyatiga nisbatan ijobiy ichki yo‘nalganlik, shaxsiy qiziqish, intilish, bilish, ijtimoiy, shaxsiy kamolot, maqsad qo‘ya olish, uni ro‘yobga chiqarish, o‘z-o‘zini anglash, rivojlantirish, namoyon qilish, isbotlash, tan olinish, missiyasini uddalash va yuksaklikka erishish singari motivlari yig‘indisini ifodalaydi. Mazkur komponent o‘qituvchining ehtiyojlari, qadriyatlari, motivlari, ta‘lim maqsadlari hamda vazifalarini bajarishdagi o‘rnining idroki asosida uzluksiz kasbiy o‘shishga motivatsion tayyorligini bildiradi. Chunki, aynan shu



sifatlar o'qituvchi harakatlarini tutashtiruvchi halqa vazifasini o'taydi va bilish jarayonlarini faollashtirish orqali bilimi, yangilarini egallashi, qiziqishlari darajasi, qobiliyati, muvaffaqiyatlari, faoliyatini sifatli olib borishga intilishi, o'ziga bo'lgan ishonchi va imkoniyatlarini anglashga imkon yaratadi.

Tuzilmaning axborot tashkil etuvchisi yangi bilimlarni o'zlashtirishda tegishli ma'lumotlarni izlash, tanlash, tahlillash, umumlashtirish, ajratish va ular bilan amaliyotni amalga oshirish ko'nikmasini ifodalaydi.

O'qituvchining bilim, ko'nikma, malakalarini uyg'unlashtirish, o'zini shaxs sifatida amalga oshirish, kasbiy faoliyatini modellashtirish, loyihalash, natijalarini bashoratlash, harakatlarini ongli ravishda dalillash, bilimlarini yangi bosqichga ko'tarish tuzilmaning faoliyat tashkil etuvchisini izohlaydi.

Kognitiv kompetentlikning refleksiv tashkil etuvchisi o'qituvchining o'z-o'zini bilish, kognitiv faollik vaziyatiga kirish, o'zini pedagogik faoliyatning subyekti sifatida tahlillash, uni anglash, samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, tajribalariga murojaat etish, harakatlarining motivlarini tushunish, ichki dunyosiga nazar tashlash, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini baholash, konstruktiv muloqotni o'rnatish kabi sifatlarini belgilaydi.

Xulosaga kelish mumkinki, kognitiv kompetentlik o'qituvchining o'zini bilish subyekti sifatida anglashi, bilimlarini yangi bosqichga ko'tarishga intilishi, uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligi, faoliyatiga doir ehtiyojlarini aniqlash, qanoatlantirish, rivojlantirishi, axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish ko'nikmasi, kasbiga qadriyat sifatida qarashi, qiziqishlari va motivlarini belgilaydi. Kognitiv kompetentlik o'qituvchining faniga va kasbiy rivojlanishiga doir umumiy, maxsus va amaliy bilimlari uyg'unligini ta'minlovchi nazariy, metodik, texnologik va huquqiy-me'yoriy bilimlarining bir butunligini ifodalaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Amrilloevich I. A. Cognitive Research in Education: Foreign Experience //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – С. 1-4. 157.
2. Amrilloevich I. A. COGNITIVE COMPETENT AS A KEY FACTOR IN THE CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A TEACHER //湖南大学 学报 (自然科学版). – 2022. – Т. 49. – №. 01.
3. Вязовова Е. В. Формирование когнитивной компетентности у учащихся на основе альтернативного выбора учебных действий (на примере обучения математике): автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2007. – 23 с.
4. Дудко Д.В. Когнитивная компетентность личности будущего педагога и динамика её формирования // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена. – С.Петербург, 2008. – № 63-2. – С. 63-67.
5. Зеер Э.Ф. Психология личностно ориентированного профессионального образования. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. проф.-пед. ун-та, 2000. – 258 с.
6. Липатникова И.Г., Паршина Т.Ю. Формирование когнитивной компетентности в процессе обучения студентов педагогических вузов элементарной математике // Современные проблемы науки и образования (электронный журнал). – 2012. – № 1.– С. 1-8. – URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=5492>
7. Любимов Л.Л. Авторская концепция модернизации объёга образования. Без лозунгов, призывов и наставлений, но с ответами на вопросы: Что надо делать? Почему это надо делать? Как это можно сделать? / Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики», Институт образования. – М.: НИУ ВШЭ, 2020. – 80 с. – (Современная аналитика образования. № 2 (32)).
8. Любимов Л.Л. Когнитивные компетенции [Электрон ресурс]. – URL:<https://alma-mater-spb.ru/wp-content/uploads/2013/08/Когнитивные-компетенции.pdf>
9. Осипова Л. А. Информационно-образовательные проекты как средство формирования у студентов когнитивной компетентности: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Брянск, 2008. – 22 с.

10. Потанина О. В. Когнитивная компетенция будущего инженера: сущность, структура, содержание // Вестник Башкирского университета. Раздел “Педагогика и психология”. – Уфа, 2009. – Т. 14. – № 1. – С. 298-301.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBALAR SHODIYEVA MATLUBA JO‘RAYEVNA**

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,  
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrasini mudiri  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalar va xalqaro tajribalar batafsil bayon qilingan. Shuningdek, XXI asr ko‘nikmalarining turlari va mazmun mohiyati keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** XXI asr kompetensiyalari, smart-kompetensiyalar, soft skills, muloqot kompetensiyalari, raqamli kompetensiyalar, o‘quv-kognitiv.

Bilim jadallik bilan butun dunyoda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Ilm-fan, kommunikatsiyalar va hisoblash texnologiyalaridagi jadal innovatsiyalar bilimlardan foydalanish va jahon iqtisodiyotida to‘liqroq ishtirok etish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bilimga asoslangan iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o‘tayotgan, shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlar jahon bozorlarida yanada raqobatbardosh bo‘lish va global axborot jamiyatida ishtirok etish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda inson kapitalini oshirish, bo‘lajak mutaxassis kadrlarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Jahon amaliyotida ta‘lim oluvchilarda XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish borasida bir qancha fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan, smart-kompetensiyalar, soft skills, muloqot kompetensiyalari, ma‘ruza qilishga oid kompetensiyalar [9], raqamli kompetensiyalar [11] faol tadqiq etilmoqda va amaliyot bilan integratsiya qilinmoqda.

“Kompetensiya” tushunchasi Amerika maktabi vakillaridan biri pedagog va psixolog Robert White tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, muallif kompetensiyani “atrof-muhitga ta‘sir o‘tkazish, shaxs erkinligini amalga oshirishning potensial imkoniyati yoki qobiliyati” sifatida ta‘riflaydi [4].

Ingliz tadqiqotchisi John Raven kompetensiyani “ma‘lum bir sohada muayyan bir harakatni bajarish uchun zarur bo‘lgan hamda sohaviy bilimlar, fanga doir ko‘nikmalar, fikrlash uslublari, shuningdek o‘z harakatlari uchun javobgarlikni anglash kabilarni o‘z ichiga olgan xususiy qobiliyat” sifatida talqin qiladi tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlik, o‘ziga ishonch, qat‘iyatlilik, birgalikda ishlash qobiliyati, shaxsiy mas‘uliyatdan iborat kompetensiyalarni tizimlashtiradi [7].

Rus tadqiqotchisi A.V.Xutorskoyning so‘zlariga ko‘ra, kompetensiya – “ta‘lim oluvchining kasbiy tayyorgarligi uchun oldindan belgilangan ijtimoiy talab va meyorlar”dir [10]. A.V.Xutorskoy kompetensiyalarning quyidagi uchta darajasini aniqlashtirdi:

1. Tayanch, metapredmet, eng umumiy kompetensiyalar (qadriyatlar-qiymat-mohiyat, umummadaniy, o‘quv-kognitiv, axborot, kommunikativ, ijtimoiy mehnat, shaxsiy rivojlanish).
2. Predmetlararo, fanlararo kompetensiyalar (muayyan fanlar hamda o‘quv predmetlari kesishmasida).
3. Subpredmet (muayyan o‘quv predmeti doirasida).

I.A.Zimnyaya kompetensiyalarning quyidagi uch turini umumlashtirishga erishdi: 1) shaxsning o‘ziga tegishli bo‘lgan kompetensiyalar; 2) shaxs va ijtimoiy muhitning korrelyatsiyasi (o‘zaro ta‘siri) bilan bog‘liq kompetensiyalar; 3) insonning kasbiy-hayotiy faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar [5].

Amerikalik tadqiqotchi Tom Peters XXI asrda sanoat va kompaniyalar, tashkilotlarning muvaffaqiyati mutaxassislarining quyidagi kompetensiyalariga uzviy bog‘liqligini qayd etadi: o‘z ishiga bo‘lgan ishtiyoqni namoyish etish; strategik tafakkur; keng fikrlash; boshlagan ishini oxiriga yetkaza olish; o‘zgalarni ilhomlantira olish; stress-menejment.

Tadqiqotchilar Bernie Trilling va Charles Fadel tomonidan 7Cs – kompetensiyalar tizimi ishlab chiqildi: Critical thinking (tanqidiy fikrlash) va muammolarni hal qilish; Creativity (ijodkorlik); Collaboration (hamkorlik); Information and media literacy (axborot va media-savodxonlik); Computing and ICT literacy (kompyuter va AKT savodxonligi); Cross-cultural understanding (madaniyatlararo o‘zaro tushunish); Career and learning self-reliance (hayot va kasb uchun zarur kompetensiyalar).

Tadqiqotchi N.Muslimov tadqiqotida kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega ijodiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni ijodiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanishi yoritilgan [6; 9-b.].

Yevropa Kengashi “kompetensiya” atamasining bir nechta ta’riflarini taklif qiladi: mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, jamoa, guruhning qarorlarni qabul qilish jarayonida ishtirok etish, konflikt-menejment, nizolarni hal qilish, siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar; polilingvistik, ko‘pmadaniyatli jamiyatning semantik xususiyatlari bilan bog‘liq kompetensiyalar; muloqot kompetensiyalari; jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotdan foydalanish ko‘nikmalari; tanqidiy baholash ko‘nikmalari; shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyat kontekstida hayot davomida ta’lim olish kompetensiyalari [2].

“Tayanch kompetensiyalarni aniqlash va saralash” nomli Yevropa loyihasida (DeSeCo) kompetensiyalar “jamiyatning samarali faoliyat yuritishi va hayotiy muvaffaqiyatlarning omili” sifatida baholanadi.

Yuksak sur’atlarda o‘zgarib borayotgan raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish hamda XXI asrga tayyorlik masalasiga yo‘naltirilgan xalqaro harakat shaklida tashkil etilgan XXI asr ko‘nikmalari yo‘lida hamkorlik uyushmasi (Partnership for 21st Century Skills, P21) XXI asr kompetensiyalari ijtimoiy va kasbiy hayotda davlat idoralari, korxonalar rahbarlari, xodimlar, mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatga erishish uchun talab qilinadigan mahorat, ko‘nikma va kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi deb hisoblaydi va tadqiqotlar davomida (Four Cs) kompetensiyalar tizimini ishlab chiqdi: Collaboration (hamkorlik); Communication (muloqot); Critical thinking (tanqidiy tafakkur); Creativity (ijodkorlik) [12].

Kanada davlati 2014 yilda XXI asrning universal kompetensiyalarini aniqlash va o‘lchash bo‘yicha yangi yondashuvni qo‘lladi. XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishning Kanada modeli funksional savodxonlik (o‘qish va matematik) va asosiy maktab fanlarini to‘ldiruvchi sifatida quyidagi 6 ta kompetensiyalar guruhini o‘z ichiga oladi: character education (o‘zgaruvchan va noaniq sharoitlarda konstruktiv harakat qilish qobiliyati sifatida “xarakter tarbiyasi”, qat’iyatlilik, moslashuvchanlik, shaxsiy rivojlanish qadriyatlarini); citizenship education (fuqarolik savodxonligi); collaboration (hamkorlik); creativity (ijodkorlik); communication (muloqot kompetensiyasi); critical thinking (tanqidiy fikrlash) va problem solving (muammolarni yechish ko‘nikmalari). So‘nggi yillarda Ontario, Britaniya Kolumbiyasi, Alberta, Kvebek provinsiyalarining PISA bo‘yicha namoyon etgan eng yaxshi natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning asosiy kompetensiyalar bo‘yicha kasbiy mahoratini oshirish ularning o‘quvchilarida shu kabi kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi [13].

Finlyandiyaning milliy ta’lim standartlarida (2014) esa 7 ta kompetensiya o‘z aksini topgan: barqaror kelajakni barpo etishda ishtirok etish; tafakkur, o‘qishni o‘rganish; madaniy kompetensiyalar, hamkorlik, muloqot; o‘zi haqida g‘amxo‘rlik qilish, kundalik hayotini tashkil qilish; multisavodxonlik; IT-savodxonlik; karyera va tadbirkorlik.

Xitoy Xalq Respublikasining ta’lim tizimi XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishning 6 ta aspektini umumlashtiradi: gumanitar kontekst: madaniyatni to‘plash, umuminsoniy

qadriyatlar, estetik tafakkur; ilmiy yondashuv, ratsional tafakkur, tanqidiy tafakkur, yangi narsalarni o'zlashtirishda jasorat; o'quv qobiliyatlari, yangiliklarga ochiqlik, o'z-o'zini baholash, ma'lumotlar bilan ishlash; sog'lom turmush tarzi, hayotni qadriyat sifatida tan olish, shaxsning yaxlitligiga e'tibor, self-menejment; mas'uliyatni qabul qilish, ijtimoiy mas'uliyat, milliy o'ziga xoslik, xalqaro madaniy kontekstni tushunish; innovatsiya, amaliylik, problem solving, amaliy texnologiyalarni bilish [8].

World Economic Forum (Jahon iqtisodiy forumi) hamda Future of Jobs report (Kelajakda ish o'rinlari hisoboti) tashkilotlari tomonidan xalqaro tadqiqotlar asosida hamda turli sohalar vakillari ish beruvchi-drayverlar ishtirokida kelajakda dolzarb ahamiyat kasb etadigan 35 ta eng muhim kompetensiyalar tizimi shakllantirildi.

#### **Qobiliyatlar:**

Kognitiv qobiliyatlar (kognitiv moslashuvchanlik, kreativlik, mantiqiy argumentatsiya, muammolarga sensitivlik, matematik argumentatsiya, vizualizatsiya).

#### **Tayanch ko'nikmalar:**

Kontent-kompetensiyalar (faol o'rganish, og'zaki muloqot, faol o'qish, yozma muloqot, axborot savodxonligi).

Jarayonga oid ko'nikmalar (faol tinglash, tanqidiy tafakkur, o'z-o'zini va boshqalarni tahlil qilish).

Ijtimoiy ko'nikmalar (murakkab vazifalarni yechish kompetensiyalari, koordinatsiya, emotsional intellekt, muzokaralar olib borish, boshqalarga o'rgatish).

#### **Kross-funksional kompetensiyalar:**

Tizimli ko'nikmalar (qarorlar qabul qilish, tizimli tahlil).

Resurslarni boshqarish (moliyaviy, moddiy, inson resurslari, taym-menedjment).

Texnologik savodxonlik (texnologik savodxonlik, operatsion savodxonlik, mijozga yo'naltirilganlik, texnik muammolarni tashxislash).

2015 yilda bo'lib o'tgan Jahon Iqtisodiy Forumida XXI asrda ta'lim muhitini tashkil etishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ma'ruzada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim bo'lgan kompetensiyalar qayd qilindi: Literacy and numeracy; Scientific literacy; ICT literacy; Financial literacy; Cultural literacy; Civic literacy; Critical thinking/problem solving; Communication; Collaboration; Creativity; Initiative; Persistence; Adaptability; Curiosity; Leadership; Social and cultural awareness [3].

2017 yilda Yevropa Komissiyasining Tadqiqotlar Markazi (Joint Research Centre) tomonidan axborot kompetensiyalarining quyidagi majmui e'lon qilindi: axborot savodxonligi (ma'lumotlarni va raqamli kontentni qidirish va filtrlash, raqamli kontentni baholash, ma'lumotlarni boshqarish); muloqot va kollaboratsiya (raqamli texnologiyalar orqali hamkorlik, kommunikatsiya, ma'lumot almashinuv, networking, raqamli identifikatsiya); raqamli kontentni yaratish (raqamli kontentni rivojlantirish, kontentni qayta ishlash, mualliflik huquqi, litsenziyalar, dasturlash); xavfsizlik (qurilmalarni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish); muammolarni hal qilish (texnik muammolarni hal qilish, ehtiyojlar va texnologik javoblarni aniqlash, raqamli texnologiyalardan ijodiy foydalanish) [15].

“World Economic Forum” – butun dunyo iqtisodiy forumidagi “Ta'limga yangicha qarash” mavzusidagi ma'ruzada yangi model taqdim etilgan. Unda ta'limning barcha bosqichida shakllangan ko'nikmalar uch turga ajratilgan: fundamental bilimlar (savodxonlik); kompetensiyalar; shaxsiy sifatlar.

Modelda XXI asrda ta'lim oluvchilar egallashi zarur bo'lgan 16 ta ko'nikmalar quyidagicha tavsiflanadi:

Fundamental bilimlar: til savodxonligi, matematik, tabiiy-ilmiy, IT-savodxonlik, moliyaviy, madaniy va fuqarolik.

Kompetensiyalar: tanqidiy fikrlash (muammolarga yechim topish), kreativlik, kommunikatsiya, kooperatsiya.

Shaxsiy sifatlar: qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, moslashuvchanlik, liderlik, ijtimoiy va madaniy ma'rifatparvarlik.

Modelning eng asosiy qismini “4K” kompetensiyalari egallaydi: ijodiy va tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik (birgalikda harakat qilish va sheriklik). Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, tanqidiy va kreativ fikrlash jahon ta’lim amaliyotida XXI asr tayanch kompetensiyalari yoki ayrim holatlarda ko’nikmalari, deb e’tirof etiladi. Mazkur ko’nikmalar ba’zan universal yoki “moslashuvchan” (soft skills) deb ham qo’llaniladi.

XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirish bo’yicha O’zbekiston tajribasida ham quyidagi ko’nikmalarni shakllantirishning dolzarbligi aks etadi: axborot savodxonligi, axborotlar bilan ishlash, muammoni hal qila olish, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, moslashuvchanlik, muloqot qilish, samaradorlik, yuqori fikrlash darajasi (tanqidiy fikrlash), ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash, liderlik, jamoada ishlay olish, jamoa oldida ma’ruza qila olish, o’z-o’zini anglash va empatiya, o’z-o’zini nazorat qilish, qat’iyatlik, xotirjamlik, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish, shaxslararo muloqot, chidamlilik, mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, mustaqil fikrlash; yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritish; ijodiy faoliyatni to’g’ri rejalashtirish, erishilgan natijani tanqidiy baholash va o’z mehnatidan zavqlana olish; konstruktiv fikrlash, g’oyalarni amaliyotga tatbiq etish; loyihalash va tadqiqotchilik ko’nikmalarini egallash.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirish bo’lajak kadrlarda quyidagi XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirish ko’zlangan natijalarga erishish imkonini beradi degan xulosaga kelish imkonini berdi: muayyan maqsadga nisbatan qadriyatlar va munosabatlarni aniqroq tushunishga moyillik; o’z faoliyatini nazorat qilish moyillik; mustaqil o’rganish istagi va qobiliyati; fikr-mulohazalarni izlash va undan foydalanish; o’ziga ishonch; o’zini boshqarish; moslashuvchanlik; maqsadlarga erishish bilan bog’liq muammolarga e’tibor; fikrlashning mustaqilligi, o’ziga xosligi; tanqidiy fikrlash; murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlik; har qanday bahsli yoki tashvishli holat ustida ishlashga tayyorlik; atrof-muhitni o’rganish, uning imkoniyatlari va resurslarini (ham moddiy, ham insoniy) aniqlash; subyektiv baholashlarga tayanishga va o’rtacha tavakkal qilishga tayyorlik; maqsadlarga erishish uchun yangi g’oyalar va innovatsiyalardan foydalanishga tayyorlik; innovatsiyalardan qanday foydalanishni bilish; jamiyatning innovatsiyalarga ijobiy munosabatiga ishonch; o’zaro manfaatli munosabat va keng istiqbol; qat’iylik; resurslardan foydalanish; to’g’ri qaror qabul qilish qobiliyati; shaxsiy javobgarlik; maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash qobiliyati; maqsadga erishish uchun boshqa odamlarni birgalikda ishlashga undash qobiliyati; boshqa odamlarni tinglash va ularning aytganlarini hisobga olish qobiliyati; mojarolarni hal qilish va kelishmovchiliklarni yumshatish qobiliyati; samarali ishlash qobiliyati; boshqalarning turli xil turmush tarziga nisbatan bag’rikenglik; tashkiliy va rejalashtirish bilan shug’ullanish istagi.

Ta’lim oluvchilarda XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirish tajribasining forsait tahlili xalqaro ta’lim jarayonida bir qator umumiylik mavjudligini ko’rsatdi:

universal kompetensiyalar tizimi, ularni ta’lim mazmuniga tatbiq etish zaruriyati;

universal kompetensiyalar sohalararo, predmetlararo, predmet kompetensiyalar bo’yicha tasniflangan;

kompetensiyalarni tasniflashda tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, shuningdek, forsait prognozlar, demografik omillar, mamlakatning geosiyosiy xususiyatlari e’tiborga olingan;

universal, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish davriyligi ta’lim oluvchining xususiyatlariga (yosh, bilish va o’rganish ehtiyoji, shaxsiy kasbiy va hayotiy maqsadlari) mos tarzda joylashtirilgan;

kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida mamlakatning innovatsion taraqqiyoti, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi hamda ta’limning natijadorligini ta’minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi;

ta’lim kontentini, o’quv materialining mazmunini shakllantirishda ta’lim oluvchining ehtiyojlariga tayanish, individuallik, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv tamoyili rivojlantirilgan;

o’quv dasturlarida fan, ta’lim, ishlab chiqarishning o’zaro bog’liqligini ta’minlashga intilish mavjud;

kontentlarda raqamli texnologiyalar, liderlik, madaniyatlararo muloqot, hamkorlik va tanqidiy fikrlashga oid kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, ta‘lim tizimi amaliyotida ta‘lim oluvchilarda kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor, raqamli kompetensiyalar va matematik savodxonlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor beriladi. Bu omillar innovatsion iqtisodiyot kontekstida tashkilotlarning ish jarayonlari, biznes modellari va mahsulotlarida innovatsion yondashuvlar, XXI asrdagi global tendensiyalar va xalqaro yetakchi kompaniyalarning kutuv va umidlariga mos keladi.

**Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki**, dunyo mamlakatlarining ta‘lim tizimidagi asosiy ko‘nikmalar tizimining tahlil natijalarini umumlashtirish atrofida dunyo bilan hamnafas yashay oladigan, barqaror rivojlanish tamoyillarini anglaydigan, madaniyatlararo muloqotning xususiyatlarini tushunadigan, kasbiy faoliyatda zarur professional ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan shaxsning har tomonlama rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ta‘limning konseptual tamoyillarini davlat va jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishiga muvofiqligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Dahlman, Carl; Anderson, Thomas. 2000. Korea and the Knowledge-based Economy : Making the Transition. Washington, DC: World Bank and OECD. © World Bank.
2. Hutmacher, Walo. Key competencies for Europe // General Report of the Symposium. Berne, Switzerland, 27-30 March, 1996. Council for Cultural Co-operation (CDCC) // A Secondary Education for Europe. Strasbourg, 1997. - 16-18 p.
3. New Vision for Education Unlocking the Potential of Technology. World Economic Forum. Geneva. 2015. 32p.
4. White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence // Psychological Review. – 1959, Vol. 66, №. 5. – P. 297–333.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал "Эйдос". 2006. 5 мая. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm> (мурожаат санаси 15.09.2019 г.).
6. Муслимов Н., М.Усмонбоева, Д.Сайфулов, А.Тўраев. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув-методик қўлланма. -Т.: 2015. – 120 б.
7. Равен, Джон. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация / Дж. Равен. – М., 2002. – 396 с.
8. Универсальные компетентности и новая грамотность: от лозунгов к реальности / под ред. М. Добряковой, И. Фрумина. М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2020. — 472 с. ISBN 978-5-7598-2177-9
9. Федорова В.П. Формирование нарративной компетенции как способа моделирования вторичного языкового сознания (английский язык, языковой вуз): Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02: Москва, 2004. - 194 с.
10. Хуторской, А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты [Электронный ресурс] / А.В. Хуторской // Интернет-журнал «Эйдос». – 2002. – 23 апреля. – Режим доступа: <http://eidos.ru/journal/2002/0423.htm> (мурожаат санаси 17.09.2019).
11. Шарипова О.М. Модель компетенций для персонала в условиях цифровизации и Индустрии 4.0 // Креативная экономика. 2019. Том 13. № 12. – С. 2411-2420.
12. <http://www.21stcenturyskills.org>.
13. <https://ncee.org/center-on-international-education-benchmarking/top-performing-countries/canada-overview/>
14. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/13845> License: CC BY 3.0 IGO.” URI <http://hdl.handle.net/10986/13845>
15. [http://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/bitstream/JRC106281/web-digcomp2.1pdf\\_\(online\).pdf](http://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/bitstream/JRC106281/web-digcomp2.1pdf_(online).pdf).



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI INDIVIDUALLASHTIRISH MUAMMOLARI

Nurullayeva Shaxlo Uktamovna  
Qarshi davlat univrsiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)  
Annotatsiya

Oliy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil ta'limini ularning individual xususiyatlari, qiziqishlariga muvofiq tashkil etish ularning ilmiy-pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqolada talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish yo'llari, usullari va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, oliy ta'lim, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, ta'limni individuallashtirish, loyihalashtirish, differensiallashtirish.

### **Аннотация**

В процессе высшего образования организация самостоятельного обучения студентов с учетом их индивидуальных особенностей и интересов служит основой эффективной организации их научно-педагогической деятельности. В статье представлена информация о путях, методах и значении индивидуализации самостоятельного обучения студентов.

**Ключевые слова:** образование, высшее образование, индивидуальное обучение, самостоятельное образование, индивидуализация образования, проектирование, дифференциация.

### **Annotation**

In the process of higher education, the organization of independent learning of students, taking into account their individual characteristics and interests, serves as the basis for the effective organization of their scientific and pedagogical activities. The article provides information about the ways, methods and importance of individualizing students' independent learning.

**Key words:** education, higher education, individual training, independent education, individualization of education, design, differentiation.

**Individual ta'lim** – o'quv jarayonining tashkiliy shakli, modeli bo'lib, unda o'qituvchi faqat bitta o'quvchi bilan ishlaydi yoki o'quvchi o'zi uchun mo'ljallangan alohida o'quv materiali bilan ishlaydi. O'quv materiali sifatida kitob, kompyuter yoki boshqa o'quv dasturlaridan foydalanish mumkin.

Ta'limni individuallashtirish o'ziga xos ijobiy jihatlarga ega bo'lib, ularning eng asosiysi o'quv materiali mazmuni, metodlari, o'quv jarayoni mazmunini to'laligicha o'quvchining individual xususiyatlariga moslashtirish imkoniyati mavjuddir. Ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarining "bilmaslik"dan "bilish"ga tomon harakati nazorat qilib boriladi, mustaqil bilim o'zlashtirish jarayoni korreksiya qilib turiladi, doimiy o'zgaruvchan meyorlar va talablariga moslashtirib boriladi. Bularning barchasi talabalarga o'zlari uchun mos va qiziqarli bo'lgan faoliyat turini tanlashga, o'zlari uchun qulay vaqt doirasida ishlashga, topshiriqlarni mustaqil ravishda murakkablashtirib borishlariga imkon beradi. O'qituvchi uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish jarayoni murakkablik qilsada, ammo mustaqil ta'lim faoliyatining maqsadli va samarali kechishini ta'minlashga yordam beradi. Chunki, individuallashtirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarining qiziqishlari va imkoniyatlariga ko'ra tabaqalashtirgan holda tashkil etiladi.

Mustaqil ta'lim jarayoniga individual yondashuv – pedagogikaning umumiy tamoyillariga mos bo'lib, birinchidan, talabalarining individual psixologik va pedagogik xususiyatlariga mos ravishda mustaqil ta'lim modellarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi;

Ikkinchidan, talabalarining individual qobiliyatlarini, rivojlanish yo'nalishlarini inobatga olishni anglatadi;

Uchinchidan, talabalar bilan o'zaro muloqot o'rnatishda ularning psixologik holatlarini to'g'ri baholashni nazarda tutadi;

Mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarga quyiladigan umumiy talablar emas, balki har bir talabaga alohida belgilangan talab va topshiriqlar asosida rivojlantirishga yondashuvni belgilab beradi.

Mustaqil ta'limni individuallashtirish – bu talabalarning individual sifatlarini, psixologik-pedagogik xususiyatlariga asoslanuvchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish va tashkil etish jarayonidir. Ushbu jarayon o'z ichiga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi turli o'quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlarini qamrab oladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan individual ta'lim texnologiyasida individual yondashuv va individual ta'lim topshiriqlari ustuvorlik qiladi.

Umumiy holda olib qaraydigan bo'lsa, ta'limga individual yondashuv bugungi kunda ko'plab ta'lim texnologiyalarida ustuvorlik qiladi. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy maqsadlaridan biri ham bilim oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bilim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ko'ra ham topshiriqlar ko'pincha tabaqalashtirib beriladi. Ammo mustaqil ta'lim topshiriqlarida bugungi kundagi umumiy yondashuv ko'proq kuzatiladi. Vaholanki, mustaqil bajariluvchi topshiriqlarda individuallik ustuvorlik qilishi ularni mazmunan va natijadorlik nuqtai nazaridan takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ta'limni individuallashtirish muammosi o'tgan asrning boshlaridayoq ko'zga tashlanib, YE. Parkxarst tomonidan 1919 yilda Dalton shahrida (AQSH) sinf-dars tizimining o'rniga o'quvchilarning o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus reja asosida amalga oshiriladigan individual mustaqil ishlaridan foydalanish nazariyasi taklif etiladi. Mazkur nazariya Dalton-plan deb nom oldi. Ushbu nazariyaga ko'ra o'quvchilar kunning birinchi yarmida o'zlari uchun individual ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida hech qanday dars jadvalarisiz mustaqil ishlarni amalga oshiradigan bo'lsalar, kunning ikkinchi yarmida qiziqishlariga ko'ra guruhlarda ta'lim olishlari nazarda tutilgan. Guruhdagi mashg'ulotlar ham erkin bo'lib, kichik guruhlarga yoki juftlikka birlashib ishlash, o'z xohishlari va qiziqishlariga ko'ra mashg'ulotlarni tanlash imkoniyati berilgan.

Rossiyada esa o'tgan asrning 20-yillarida loyiha metodi ta'limni individuallashtirishga qaratilgan o'quv jarayoni sifatida ishlab chiqildi. Bunga ko'ra, loyiha metodi – ta'limga majmuaviy yondashuvni ifodalab, o'quvchilarga o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish imkonini beruvchi metoddir. Bunda o'quvchilar o'z individualliklarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bugungi kunda mustaqil ta'lim sohasini loyihalashtirish muammosi yana kun tartibiga qaytib, ushbu metod individual yondashuvda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Demak, mustaqil ta'limni individuallashtirish bu o'quv-biluv jarayonining maqsadi, mazmuni, metod va vositalarini qamrab oluvchi dinamik tizimdir. Uning asosiy maqsadi talabalarning individualligini saqlagan holda potensial imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, uni amalga oshirish davomida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabalarning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilim o'zlashtirish darajalariga ko'ra differensiallashtirish;
- o'quv topshiriqlarini tabaqalashtirib ishlab chiqish;
- o'zlashtirishdagi turli darajalarni inobatga olgan holda ta'lim metodlari va topshiriqlarini muvofiqlashtirish;
- talabalarning individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- o'quv-biluv jarayoniga doir motivatsiyasini rivojlantirish;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini ma'ruza va amaliy mashg'ulot mazmuni bilan integratsiyalash;
- topshiriqlar berishda talabalarning individual rivojlanish tempini inobatga olish va rivojlantirish;

• talabalarning individual rivojlanishining dts talablari asosida umumiy rivojlanishiga adekvat tarzda amalga oshirilishini ta'minlash.

Oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limini individuallashtirish talabalarning mustaqil bilim olish, tadqiqiy faoliyatni amalga oshirish va eng asosiysi, fan va texnologiyalar tezkorlik bilan rivojlanayotgan bugungi davrga moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нуруллаева Ш.У. Педагогик таълим жараёнини моделлаштириш ва лойиҳалаштириш йўллари. Замонавий бошланғич таълим: инновациялар, муаммолар ва ривожланиш йўллари. Халқаро илмий-амалий анжуман. Термиз. 2023. Б. 23-27.

2. Нуруллаева Ш.У. Инновацион таълим муҳотида педагогик моделлаштириш муаммолари. Тасвирий санъат таълими узвийлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари: муаммолар ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий конференция. Қарши, 2023. Б. 10-13.

3. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Mechanisms of self-development in pedagogical activity. E- Global Congress Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference. Date: 19th February, 2023. P. 9-15.

4. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Modern pedagogical models of professional training of future teachers in Uzbekistan. Excerpts from Uzbekistan. The special periodical journal of Uzbekistan writers and scholars held in Egypt Alexandria University. Alexandria University, 2022. P. 95-97.

5. Nurullaeva Shakhlo Uktamovna. Pedagogical conflicts, ways to resolve them and positive aspects of conflicts. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 19, | December, 2023. P. 88-91.

#### RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINFLARINING AQLIY TAFAKKURINI FANLAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi .

[kabrorxonovna@mail.ru](mailto:kabrorxonovna@mail.ru). Tel: +998974451446

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasini mudiri, pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Kamolova Nodirabegim Lutfullo qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

[kamolovanodirabegim1@gmail.com](mailto:kamolovanodirabegim1@gmail.com) Tel: +998505538656

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy tafakkurini fanlar vositasida shakllantirish, "Tarbiya" fanining joriy etilishi, "Tarbiya fani darsliklari va ularning o'quvchilar tafakkurini shakllantirishdagi o'rni masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** darslik, o'quv materiallari, aqliy tafakkur, tarbiya, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование психического мышления учащихся начальных классов посредством науки, внедрение науки «Образование», учебников науки «Образование» и их роль в формировании мышления учащихся.

**Ключевые слова:** учебник, учебные материалы, умственное мышление, образование, сотрудничество, коммуникативное, творческое мышление, критическое мышление.

**Abstract:** This article examines the formation of the mental thinking of primary school students through science, the introduction of the science of "Education", the textbooks of the science of "Education" and their role in the formation of students' thinking.

**Key words:** textbook, educational materials, mental thinking, education, collaboration, communicative, creative thinking, critical thinking.

Bugun jahon hamjamiyatida davlat va jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida ta'lim tizimida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarning aqliy tafakkurini, tafakkur tizimi va tezligini shakllantirish, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash muhim sanaladi. Ta'lim tizimining dunyo amaliyotida o'qitish metodikasini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida zamonaviy texnologiyalarini joriy etishga ta'lim sifatini ta'minlashning yetakchi omili sifatida qaraladi. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi o'quvchilarning nafaqat zamon bilan hamnafas bo'lgan holda ta'lim-tarbiya olishlarida, balki, ularda yana bir qator ijobiy fazilatlar shakllanishi jihatidan ham muhim sanaladi. Yaqin yillar oralig'ida raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi bilan birgalikda bir qator o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. Jumladan, maktablarda yangi o'quv fanlari joriy etildi va bir qator fanlar qisqartirildi. Joriy etilgan fanlar uchun yangi darsliklar yaratildi. Shu jumladan, 2020-yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish choralari to'g'risida"gi qarori loyihasini jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qildi. Ushbu qarorga ko'ra joriy etilayotgan "Tarbiya" fani umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amalga bo'lgan "Odobnoma", " Vatan tuyg'usi", "Dunyo dinlari tarixi", "Milliy istiqloq g'oyasi" kabi fanlarni birlashtirgan holatda joriy etilishi ko'zda tutilgan. 2020-yil 6-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 422-son qaroriga muvofiq "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorda "Tarbiya" fani yuzaasidan o'quv materiallari, darsliklar yaratish, ushbu fandan maktabda qaysi fan mutaxassislari dars berishlari kabi masalalar belgilab qo'yilgan. Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanning asosiy maqsadi bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol , xalqning ma'naviy boy merosiga umumbashariy qadriyatlariga, urf-odat, ana'nalariga tayanib ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash hisoblanadi. "Tarbiya" fani darsliklari boshlang'ich sinflar uchun ilk marotaba 2020- yilda nashr etilgan. Amaldagi darsliklar esa 2023-yilda nashr etilgan.

Darslik-davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablar asosida belgilangan milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o'zlashtirishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr hisoblanadi. Hozirgi kunda amalga bo'lgan darsliklar 4K modeli asosida ishlab chiqilgan. 4K modeli bu o'qitishning yangi tamoyillarini o'z ichiga oladi. Ya'ni bu ta'moyilga ko'ra, o'quvchilarga faqat nazariy ma'lumotlarni yodlatish emas, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalar shakllantirish ham muhim sanaladi. 4K modeli o'z ichiga quyidagi 4 ta asosiy tamoyilni oladi:

**Kollaboratsiya- bu tamoyilga ko'ra** darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik- bu tamoyilga ko'ra esa** o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

**Kreativ fikrlash-** o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni turli vaziyatlarda duch kelgan muammolarga ijodiy yondashishni shakllantiradi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash-** ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

"Tarbiya" fani darsliklarini tayyorlashda Yaponiyaning "Axloq ta'lim", Singapurning "Fe'l atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Xalq ta'lim" va

“Tafakkur” fanlari yaqindan o’rganilgan. Quyida keltirilgan davlatlar bugungi kunda yoshlarining tarbiyasi, bilimliligi va aholisining faol fuqarolik tamoyillariga asoslangan holda hayot kechirishi bilan butun dunyoga o’rnak bo’la olyapti desak mubolag’a bo’lmaydi. Aynan “Tarbiya” darsliklarining ilg’or xorijiy tajribalar asosida tuzilishi kulgusida yurtimiz yoshlarining yanada barkamol, har tomonlama salohiyatli va faol fuqarolar bo’lib shakllanishlarini belgilab beradi. Darsliklarda o’quvchilarni xorijiy tajribalar bilan bir qatorda milliylikimizga, azaliy ana’nalarimizga, xalqimizning necha ming yillar davomida shakllanib avloddan avlodga o’tib kelayotgan urf-odatlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga ham alohida e’tibor qaratilgan. Yangi davr darsliklarini o’qib-o’rganish davomida o’quvchilarda bir qator tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi:

- 1.Axborot bilan ishlash;
- 2.O’zini o’zi rivojlantirish;
- 3.Ijtimoiy faol fuqarolik;
- 4.Milliy va umummadaniy;
- 5.Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish;

Darsliklar o’quvchilarda muvaffaqiyatli motivlar uyg’onadi, ularni faol fuqarolik pozitsiyasida shakllantiradi. Yangi darsliklarning avvalgi darsliklardan yana bir farqi shundaki bu darsliklarda o’quv fani mohiyati 50% amaliy, 50% nazariy asosga qurilgan. Aynan “Tarbiya” darsliklarida “role-model” pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Ya’ni “namuna keltirish”- bunda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijalarga erishgan insonlarning yutuqlari tahlil qilinadi. Aslini olganda eng yaxshi tarbiya bu yaxshi namuna bo’la olishdir. O’z faoliyatida yuksak natijalarga erishgan insonlar hayotini va muvaffaqiyat sirlarini tahlil qilish o’quvchilar tafakkurida muvaffaqiyatga erishish motivini shakllantirishda eng yaxshi usul hisoblanadi. Bundan tashqari darsliklar yorqin, rangli rasmlarga boy tarzda tuzilgan. Har bir bo’limga mos fonlar tanlangan. Bu o’quvchilarda ma’lum bir qadriyatlarni shakllantiradi. Har bir mavzuga mos bo’lgan multimedia va audiomatnlar, turli ertaklarning elektron va audiomatnli ko’rinishlari berilgan. Bu ham yangi zamonaviy texnologiyalardan unumli va samarali foydalana olishlariga asos bo’lib xizmat qiladi. Bugungi davrning eng dolzarb masalalaridan biri bu maktab yoshidagi bolalarning me’yoridan ko’p turli tarmoqlarda, video o’yinlarda o’zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflashlaridir. Ularni bu faoliyat turidan cheklash juda qiyin masala. Shuning uchun, ularni cheklash bilan emas, to’g’ri yo’naltirish orqali masalaga yechim topish mumkin. “Tarbiya” fanida odob-axloq masalalari bilan bir qatorda insonlarning fuqaro sifatida amal qilishlari zarur bo’lgan huquqlari, burchlari va majburiyatlari masalariga ham to’xtalib o’tiladi.

Abdulla Avloniy takidlaganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Bugun jahonning rivojlangan mamlakatlarida ham dolzarb muammoga aylangan masala bor. U ham bo’lsa yoshlar tarbiyasi. Zero tarbiya bo’lmagan yerda nafaqat ta’lim, balki, rivojlanish ham bo’lmaydi. “Tarbiya” fanining joriy etilishi esa davlatimizning bu borada qilgan eng katta islohoti deb aytish mumkin. Bu fan nafaqat milliylik, o’zlikni anglash, o’quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi, shu bilan birga, bugungi globallashuv davrida insoniyat duch kelayotgan masalalarning

to’g’ri yechimini topish uchun ham o’quvchilarda ushbu vaziyatlarga qarshi immunitet hosil qiladi. Zero, insonlar hayotidagi ko’plab muammolarga o’sha vaziyatda qanday qaror chiqarishni bilmaganliklari uchun duch keladilar. Tarixda ham ko’plab o’zining ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari bilan hozirgi kunda ham e’tirof etib kelinayotgan olimlar va mutaffakirlar tarbiya ta’sirida bolaning yetuk va foydali kishi bo’lib yetishishini ta’kidlab o’tgan. Tarbiya insonlarning jamiyatda o’zining munosi o’rnini topishiga, yaxshi odat va ijobiy fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, tarbiya faning joriy etilishi natijasida o’quvchilar tarbiyasida ijobiy o’zgarishlarning amalga oshishiga erishish va aqliy tafakkurini yanada yaxshiroq rivojlantirilishni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror.
2. “Umumiy o’rta ta’lim maktablarida tarbiya fanining joriy etilishi”. Sultanova.N.R-maqola.
3. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni.
4. “O’rta umumta’lim maktablarida tarbiya darslarining joriy etilganligi va ahamiyati”. Mohidil Yo’ldosheva-maqola.
5. O.V.Usmanov, Y.V.Risyukova. “Tarbiya” 3-sinf darsligi.2023-yil.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

Klaraxon Mavlonova,  
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
Ona tili ta’limi kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

***Annotatsiya:** Boshlang‘ich ta’lim jarayonida kichik maktab yoshidan o‘quvchilarda yetakchilik va tadbirkorlik, moliyaviy savodxonlik, media va axborot savodxonligi, zo‘ravonlik va unga qarshi kurashish hamda global fuqarolik ko‘nikmalarini shakllantirish muhim talablardan biri sanaladi. Mazkur maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida moliyaviy savodxonlik ko‘nikmasini shakllantirish haqidagi amaliy tavsiyalar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** XXI asr ko‘nikmalari, ona tili va o‘qish savodxonligi, jamg‘arma, nutqiy ko‘nikmalar, moliyaviy savodxonlik.*

Didakt olimlar iqtisodiy tarbiya vazifalari sifatida o‘quvchilarda iqtisodiy ongning izchillik bilan rivojlantirib borish; kasb tanlashga ongli munosabatda bo‘lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo‘jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash; o‘quvchilarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mas’uliyatsizlik, mehnatdagi tartibsizlik, bekorchilik va boqimandalik kayfiyatiga, isrofgarchilik va beparvolikka murosasiz munosabatda bo‘lish hissini tarbiyalash kabilarni belgilashadi.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, aholi o‘z mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanish, o‘z xarajatlari va jamg‘armalarini rejalash tirish, investitsiyalashni ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, favqulodda vaziyatlar uchun zarur bo‘lgan mablag‘ jamg‘arish borasida yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganlari sababli samarasiz qarorlar qabul qilishadi va o‘zlarining moddiy farovonligini oshirish uchun salohiyatlari, imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydilar. Mutaxassislar tomonidan insonlarning qabul qilayotgan moliyaviy qarorlari samaradorligini oshirish uchun moliyaviy savodxonlik tizimini joriy etish zarurligi ta’kidlanadi. Darhaqiqat, ta’lim jarayonida mazkur ko‘nikmalarga izchillik va uzviylik prinsiplari asosida alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bu borada boshlang‘ich ta’limdagi ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining imkoniyatlari katta deyish mumkin. Chunki mazkur fan doirasida ishlab chiqilgan darsliklardan o‘quvchilarning moliyaviy savodxonlik, tejamkorlik hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bir qator nutqiy mavzular o‘rin olgan. Quyida 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligiga kiritilgan “Jamg‘arma pullarim” nomli nutqiy mavzu doirasida berilgan o‘quv topshiriqlari mazmuni va ularni amalga oshirish yo‘llari haqida so‘z boradi.



Nutqiy mavzuning maqsadi pulni jamg'arish, jamg'arma va undan foydalanish bilan bog'liq tasavvurlarni kengaytirish, ushbu jarayonda faol qo'llanadigan til birliklaridan foydalanishga o'rgatish, berilgan mashq va topshiriqlar yordamida og'zaki, yozma, o'qib va tinglab tushunish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

### 1-soat

#### Kirish

Nutqiy mavzu e'lon qilinadi.

*Sizning ham jamg'arma pullaringiz bormi?*

*Ularni qanday jamg'arasiz?*

*Nima uchun jamg'armangiz bo'lishini xohlaysiz?*

#### Asosiy qism

*Rasmlarni diqqat bilan kuzating.*

*Savollarga javob bering.*


*Pulga nimalarni sotib olish mumkin?*

*1. Pulni nimalarga sarflaymiz?*


*Nima maqsadda?*

Ushbu savolga javob berishda har bir o'quvchidan pulni qanday sarflash haqida so'raladi. O'quvchilar pulni kimdan olishlari, nima maqsadda olishlari haqida gapirib berishlari kerak.

Pulga nimalarni sotib olish mumkin?



Pulga nimalarni sotib olib bo'lmaydi?



*2. O'ylab ko'ring-chi, pulga hamma narsani sotib olish mumkinmi? Fikringizni isbotlang.*

Pulga nimalarni sotib olish mumkinligi haqida suhbat quriladi, shundan so'ng pulga nimalarni sotib olib bo'lmisligi haqida ma'lumot beriladi. O'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri javob sari yo'naltirib boradi, ammo to'g'ri javobni aytmasligi kerak. Ushbu savolga javob berishda darslikda berilgan rasmdan foydalanish lozim.

*3. Ayting-chi, nimalarni sotib olib bo'lmaydi?*

Ushbu savolga javob berish uchun shunday vaziyatga har bir o'quvchining o'zini tushirish yaxshi natija beradi. O'quvchi o'zi tushgan vaziyatdan kelib chiqqan holda javoblarni berishi, xulosalarni chiqarib olishiga imkon yaratib berish kerak.

Berilgan rasmlar yordamida suhbat olib boriladi. Har o'quvchi o'z javobini izohlashi, nima uchun shunday o'ylayotgani haqida gapirishi kerak. Agar o'quvchilar buni noto'g'ri deb bilsalar, o'qituvchi ulardan buning izohini so'rashi, nima uchun ushbu tanlov amalga oshirilganini tushuntirib berishi kerak.

*Jadvalni to'ldiring.*

Sotib olish mumkin	Sotib olish mumkin emas
O'yinchoq	Vaqt

Ushbu topshiriq asosida o'quvchilarning yuqorida o'zlari bildirgan fikrlarini yozma ifodalash ko'nikmasi shakllantiriladi. O'quvchilar berilgan rasmlar hamda o'zlari aytgan fikrlar asosida jadvalni to'ldirishi zarur.

O'qituvchi o'quvchilarning jadvallarini ko'rib chiqadi, har bir o'quvchi hech bo'lmaganda darslikdan tashqari bitta yangi so'z yozishi kerakligini aytadi.

*Daftaringizga namunadagidek gaplar tuzib yozing.*

*Namuna: Vaqtni pulga sotib olib bo'lmaydi.*

Ushbu topshiriq ham jadval ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni matn ko'rinishida ifodalash bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'zlari tuzgan gaplarni o'qib beradilar. O'qituvchi ularning uslubi, imloviy va ishoraviy xatolarini ko'rib chiqib baholaydi.

## **2-soat**

### **Kirish**

*Pulni tejash, iqtisod qilish deganda nimani tushunasiz?*

“Iqtisod” so'ziga alohida to'xtaladi, uning ma'nosi tushuntiriladi.

### **Asosiy qism.**

*“Pulning qopqonlari” matnini tinglang. Savollarga javob bering.*

O'quvchilar audiomatni tinglash jarayoniga tayyorlanadi. Diqqat bilan eshitish, kerakli o'rinlarni qayd etib borish, kalit so'zlarni yozib olish kabi topshiriqlarni bajarib borishlari mumkin.

## **PULNING “QOPQON”LARI**

Albatta, xasislik va pulni yaxshi ko'rish yomon illat. Shu bilan birga, pulni noo'rin ishlatib, isrof qilish ham gunoh. Odam pulni to'g'ri ishlatishni, uni turli “qopqon”lardan asrashni bilishi kerak. Xo'sh, bu “qopqon”lar nima?

“Qopqon”larning eng kattasi reklamadir. Har kuni televizor va ko'chada turli reklama roliklari va bannerlarni ko'rasiz. Bu reklamalar odamni shu qadar o'ziga rom qiladiki, siz o'sha mahsulotni shu zahoti sotib olishni istab qolasiz. Unutmang, reklamalar ehtiyojimizdan ortig'ini xarid qilishga undaydi. Ya'ni sizga shu narsa kerak bo'lmasa ham, reklama uni juda kerakli narsadek ko'rsatadi. Shunday vaqtda o'zingizga “Shu narsa chindan ham menga kerakmi?” deya savol bering. Masalan, shu reklama qilingan telefon sizning telefoningizdan qanchalar farq qiladi? U nimasi bilan afzal? Shu afzalliklar rostdan ham sizga kerakmi?

Supermarketlar ham “qopqon”ning bir turidir. Supermarketning ichidagi har bir jihoz, har bir mahsulot shunday joylashtirilganki, unga kirgan odam, albatta, keragidan ko'p pul sarflaydi. Qimmatbaho va “yoqimtoy” mahsulotlar ko'rinib turadigan joyda, arzon narsalar esa rastalarning bir burchagida turadi. Mahsulotga yopishtirilgan “Bizda chegirma!”, “Super aksiya!” degan yozuvlar ham xaridorni o'ziga jalb qiladi. Aslida, 5000 so'mlik narsani 4 999 so'm deb “aldashmoqchi” ham bo'lishadi. Hatto, supermarketda jaranglab turuvchi musiqalar ham odamning ruhiyatiga ta'sir qilib, “yana ko'proq narsa sotib ol” deb turar ekan! Shuning uchun supermarketga faqat olinadigan narsalarning ro'yxati bilan kiring va faqat ro'yxatdagilarni oling.

Bolalar, o'ylab ko'ring, balki boshqa “qopqon”lar ham bordir? Endi bu “qopqon”lardan ehtiyot bo'lishda ota-onangizga ham ko'maklashing.

***“Jajji akademik”dan olindi.***

*1. Xasis odam qanday bo'ladi? Xasis odam bilan tejamkor odamning farqi bormi? Izohlang.*

Savolga berilgan javoblar natijasida o'quvchilar xasis va tejamkor odamning o'zaro farqini anglab olishi, tejamkorlik odamga xos fazilat ekani, xasislik esa illat ekanini tushunish olishlari kerak.

*2. Pulning “qopqonlari”dan eng kattasi qaysi ekan?*

Ochiq ko'rinishda berilgan ma'lumot aytiladi. Nima uchun reklamalar “pulning qopqoni” deya atalishiga asos keltiriladi.

*3. Keyingi qopqon qaysi? U haqida nimalarni bilib oldingiz?*

Ochiq ko‘rinishda berilgan ma‘lumot aniqlanadi, u haqida bilib olganlari to‘g‘risida gapirib beradilar.

4. O‘ylab ko‘ring, balki boshqa “qopqon”lar ham bordir? Ular nimalar?

Bundan tashqari yana nimalar pulni o‘ylamay sarflab yuborishga sababchi bo‘lishi mumkinligi o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilar shaxsiy hayotlaridan kelib chiqqan holda javob beradilar. O‘qituvchi chiqarilayotgan xulosalarning to‘g‘ri yoki xato ekanini aniqlashtirishga yordam beradi.

5. Ayting-chi, boy bo‘lish yaxshimi yoki yomonmi? Javobingizni izohlang.

Ushbu savolga javob berish o‘quvchilardan kengroq mushohada qilishni talab qiladi. O‘qituvchi suhbat jarayonini shunday olib borishi kerakki, suhbat so‘ngida o‘quvchilar inson qachon haqiqiy boy va baxtli bo‘lishi mumkinligini anglab yetishi kerak.

### **To‘g‘ri javobni aniqlang.**

*Albatta, xasislik va pulni yaxshi ko‘rish – illat. Ushbu gapdagi “illat” so‘zining matndagi ma‘nosini aniqlang.*

A. Xastalik B. Jinoyat D. Kamchilik E. Gunoh

Berilgan so‘zning bir necha xil ma‘nolari borligi tushuntiriladi, matnda aynan kamchilik ma‘nosida kelayotganini aniqlash uchun ko‘rsatmalar beriladi.

### **Noto‘g‘ri fikrlarni aniqlang.**

- Reklamalar ehtiyojimizdan ortig‘ini xarid qilishga undaydi.
- Qimmatbaho va “yoqimtoy” mahsulotlar rastalarning bir burchagida turadi.
- Ayrim hollarda pulni noo‘rin ishlatish mumkin.
- Supermarketga faqat olinadigan narsalar ro‘yxati bilan kirish kerak.

Avval o‘quvchilarning fikrlari tinglanadi. Shundan so‘ng har bir berilgan fikr alohida tavsiflanadi, nima uchun to‘g‘ri yoki xato ekaniga matndan asoslar keltiriladi.

1. Matn mazmunini ochuvchi kalit so‘zlarni yozing.

Bunda yuqorida audiomatni tinglash jarayonida amalga oshirilgan faoliyat, ya‘ni kalit so‘zlarni yozib olish foyda berishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarning yozgan kalit so‘zlarini tahlil qiladi, nima uchun ushbu so‘z kalit vazifasini bajarayotganini izohlashlarini so‘raydi.

2. Faraz qiling, mahsulotlar do‘konidasiz. “Yoqimtoy” mahsulotlar ro‘yxatini tuzing va yozing.

O‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan mahsulot nomlarini yozadilar. O‘qituvchi ushbu nomlarning ro‘yxat ko‘rinishida xatosiz, imkon qadar o‘zbek tilidagi so‘zlar yordamida berilayotganiga ahamiyat beradi.


3. So‘zlarga mos qo‘shimchalarni qo‘shib, yangi so‘z yasang.

Berilgan asos va qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilish jarayoni yodga olinadi. Har bir qo‘shimcha qaysi so‘zga mos kelishi aniqlanadi, ushbu qo‘shimchalar yordamida yana qanday so‘zlar yasash mumkinligi haqida ma‘lumotlar beriladi.

“Jamg‘arma pullarim” mavzusi 7 soatdan iborat bo‘lib, keyingi soatlarda “Bir bor ekan, pul bor ekan” hikoyasi, “Yaxshi do‘stlar bor ekan” she‘rini o‘qib tushunishga oid topshiriqlar, “Kommunal to‘lovlarni qisqartira olamiz” mavzusidagi loyiha ishi berilgan.

Loyiha ishi uchun quyidagi vaziyat berilgan: “Ota-onangiz oylik daromadining katta qismini kommunal to‘lovlar uchun sarflashini bilasiz. Ba‘zan ta‘minotchidan qarz ham bo‘lib qolishadi. Lekin siz ularga yordam berishingiz mumkin. Buning uchun elektr, suv va tabiiy gazdan samarali foydalanish mumkinligi haqida tavsiyalar tayyorlang”.

Loyihani yaratishga yordam sifatida berilgan topshiriqni bajarish mumkin. Bu o‘quvchilar fikrlarini tartibli tarzda ifodalashlariga yordam beradi. Har bir







yurtimizda tadbiq etmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu qaror asosida O‘zbekistonda TIMSS xalqaro tadqiqoti joriy etilishi belgilab qo‘yildi:

**TIMSS bu** — “Trends in International Mathematics and Science Study”, ya’ni 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

TIMSS baholash dasturi Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA - International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan ilk bora 1995-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ishtirok etishni xohlagan davlatlarda har 4 yilda bir marta o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgan.

TIMSS dasturida 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o‘qituvchilar salohiyati, o‘quvchilarning oilalari bilan bog‘liq omillar o‘rganiladi.

**Matematik savodxonlik** - bu shaxsning matematikani turli kontekstlarda shakllantirish, qo‘llash va sharhlash qobiliyati. U matematik fikrlash, hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish uchun matematik tushunchalar, protseduralar, usullar, faktlar va vositalardan foydalanishni, shuningdek, matematik muammoning natijaviy yechimini talqin qilishni o‘z ichiga oladi.

2019-yilda o‘tkazilgan yettinchi davra TIMSS tadqiqotida 67 ta mamlakat ishtirok etgan va Singapur, Gong Kong, Koreya Respublikasi, Xitoy Taypeyi, Yaponiya kabi davlatlar eng yuqori natijalarni egallagan.

2023-yilda o‘tkazilgan sakkizinchi davrilikda esa O‘zbekiston ilk marotaba ishtirok etdi.

O‘zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan davlatlarning ta’lim sohasidagi ilg‘or va bizga mos tajribalarini mamlakat ta’lim tizimida qo‘llash, o‘quvchilarimizning natijalarini boshqa davlatlar o‘quvchilari natijalari bilan taqqoslash hamda kelgusi islohotlarda inobatga olish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

TIMSS 2023 o‘quvchilarning baholash interfeysi, ob’ektlari va faol ob’ektlari bilan o‘zaro munosabatlarining keng qamrovli ketma-ketligi sifatida o‘quvchilarning javoblari ma’lumotlari va voqealar jurnali ma’lumotlarini qamrab oladi va har bir o‘quvchi baholashdan qanday o‘tgani haqida to‘liq tarixni taqdim etadi. To‘plangan ballning jarayoniy ma’lumotlari o‘quvchilarning baholashda ishtirok etishini tushunish imkonini beradi va qaysi o‘quvchilar yondashuvlari muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligini aniqlashga yordam beradi bu esa o‘z navbatida matematika fanini o‘qitishni yaxshilanishiga yordam beradi.

**TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to‘plamiga quyidagilar kiradi:**

- kognitiv va ma’lumotlar sohasiga tegishli testlar;
- anketalar (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ta’lim muassasasi ma’muriyati,
- ta’lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
- uslubiy ta’minot (o‘rganishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha milliy koordinatorlar uchun yo‘riqnoma, namuna olish bo‘yicha qo‘llanma, maktab koordinatorlari uchun qo‘llanma, test o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma, bepul javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo‘yicha qo‘llanma, ma’lumotlarni kiritish bo‘yicha qo‘llanma va boshqalar);

- dasturiy ta’minot (sinflar va o‘quvchilarni tanlash uchun, ma’lumotlarni kiritish uchun).

**Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:**

- o'quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;
- xalqaro testlar mazmunining aksariyat ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materialga maksimal darajada mos kelishi;
- testlarning o'zaro aloqasini ta'minlash;
- tekshirilayotgan mazmunning matematika ta'limini rivojlantirish nuqtai nazaridan ahamiyati;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, test ishlab chiqilgan yutuqlarni baholash;
- ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi.
- 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika fanidan baholash uchun test topshiriqlarini berishda belgilangan tildan foydalaniladi. Bu nazariya o'quvchilarga cheklangan vazifalarni bajarish asosida va ularning shaxsiy xususiyatlarini, o'qituvchilar va ta'lim muassasalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda (anketaga javoblariga qarab ) javob berishga imkon beradi.
- 4-8-sinf o'quvchilari uchun matematika fani bo'yicha xalqaro test sinovlari natijalari alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. O'rganish natijalarini statistik qayta ishlash natijasida har bir o'quvchiga matematika fanidan topshiriqlarni bajarish uchun alohida 1000 ballik tizimda ball qo'yiladi.
- 4 va 8-sinf o'quvchilarining xalqaro natijalar shkalasi tadqiqotda qatnashgan barcha mamlakatlarning o'rtacha ballarining o'rtacha qiymati 100 standart og'ish bilan 500 deb olinganligini.

**Larina, Galina Sergeevna** o'zining tadqiqot ishida TIMSS xalqaro baholash dasturi, matematikani o'qitish amaliyoti va o'quvchilar yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlik, xalqaro dasturning natijalari asosida matematika o'qitish amaliyotining tavsifiy tahlilini yoritgan. Larina, Galina Sergeevna ilmiy ishining dolzarbligi o'qituvchilarning matematika darslarida kundalik hayot kontekstidan qanday foydalanishini o'rganish zarurati bilan bog'liq.

Pedagogika fanlari doktori Puzatix, Aleksandr Nikolaevich o'zining ilmiy ishida TIMSS xalqaro baholash dasturida yo'l qo'yiladigan xatolarning metodologik asoslari va ularni bartaraf etish mexanizmi haqida fikr bildiradi. Uning fikricha maktab ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirilmaganligi, samarali fikrlashni rivojlantirishga e'tibor yo'qligi, kompetensiyaga asoslangan paradigma va maktab ta'limining bilim paradigmasi tuzilmaganligi va amal qilinmaganligi, maktablar doirasida olingan nazoratlar faqat o'quvchilarni reproduktiv fikrlashdan tashqariga olib chiqilmaganligini xalqaro baholash dasturida munosib o'rin eganlab bilmaslikka asos bo'ladi.

**Karnauxova Marina Vladimirovna** o'zining ilmiy ishida didaktik nazoratning turli modellari va ta'lim sifatini oshirishning quyidagi zaruriy vazifalarni belgilab beradi:

- monitoring qilish tizimlarini, shuningdek, jahonning yetakchi mutaxassisleri, jumladan, mamlakatimiz mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik o'lchovlarning samarali texnologiyalaridan foydalanish natijalarini o'rganish, siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- barcha bitiruvchilari uchun yakuniy attestatsiyani o'tkazishda bir xil qoidalarni kafolatlovchi zamonaviy o'lchov vositasi sifatida yagona davlat imtihonini o'tkazish uchun nazorat-o'lchov materiallarini ishlab chiqish;
- standartlarni ishlab chiqish bo'yicha jahon va Yevropa talablarini belgilashda umumiy, kasbiy va qo'shimcha ta'limdan foydalanish;
- ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha davlat tizimlari faoliyatini takomillashtirishning keyingi yo'nalishlarini, shuningdek, asr boshidagi ta'lim sifatini baholashning global tizimini diversifikatsiyalash jarayonini belgilab olish;
- asosiy qonuniyat va omillarni aniqlash, yagona jahon ta'lim makonida baholash tizimini diversifikatsiya qilish mexanizmlari va tendentsiyalarini ochib berish.

Jahon ta'limida Lesley University olimi **Jennifer Anne Evans** matematika baholash tizimi haqida ilg'or fikrlarni ilgari surgan.



Tadqiqotchi baholash tizimini ikki o'lovga bo'ladi: mazmunli va kognitiv. Uning fikricha matematikani o'rganib o'tib, mazmun o'lovini vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan matematik ko'nikmalar yoki tushunchalarga ishora qilish lozim (masalan, ko'paytirish, perimetr va boshqalar).

Jennifer Anne Evans tadqiqot ishida mazmunli va kognitiv o'lovdagi topshiriqlarni alohida ajratib ko'rsatgan.

<b>4-sinf matematika mazmunli o'lov</b>	<b>4-sinf matematika kognitiv o'lov</b>
Raqqamlar (50%)	Bilish (40%)
Geometrik shakllar va o'lovlar (35%)	Qo'llash (40%)
Ma'lumotlarni ko'rsatish (15%)	Mulohaza yuritish (20%)

“**Bilish**” bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni [takroran aytib berish](#), standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiiy atamalar va o'lov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

“**Qo'llash**” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“**Mulohaza yuritish**”ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv [muassasasi imkoniyati](#), o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan.

Georgia State University olimi Michael Nguyen-Quan TIMSS 2015: Influences of Student and Classroom Related Background Variables on Eighth-Grade Mathematics Achievement in Asean+3 (APT) Countries nomli ilmiy ishda TIMSS topshiriqlarini bajarish mexanizimini ishlab chiqish juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha TIMSS muhitiga o'qituvchi va o'quvchini birdek olib kirish lozim. Olim tadqiqotida o'qituvchi va o'quvchi uchun yaratgan qo'llanmasida quyidagi kichik savollariga javob berishga harakat qildi:

- o'quvchilarning jinsi, matematikani o'rganishdagi o'ziga bo'lgan ishonchi, matematikani o'rganishni qadrlashi, matematikani o'rganishni yoqtirishi, matematikani o'rganishdan zavqlanishi, uy vazifasini bajarishga sarflangan vaqti va darslikda o'tkaziladigan vaqt kabilar sakkizinchi sinf matematika ballariga qay darajada ta'sir qilishi;

- ota-onalarning o'quvchilarning uy resurslari, jumladan, kompyuterga kirishi qay darajadali;

- ta'lim darajasi va o'z o'qish xonasiga ega bo'lish;

- o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, jinsi, yillar tajribasi, mutaxassisligi qay darajada ekanligi;

- sinf xususiyatlari, jumladan, kompyuterlarning umumiy soni.

Olimning fikricha, jahonda matematik bilimni yuqori darajada bo'lishi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

TIMSS 2023 baholashning raqamli formati bugungi kun o'quvchilarning baholashga qiziqishi va motivatsiyasini rag'batlantiradi va o'z navbatida o'quvchilarning *nimani* bilishi va *bajara* olishi haqida yaxshiroq ma'lumot beradi. Bundan tashqari, raqamli format TIMSS ga qog'oz va qalam formatida baholash qiyin bo'lgan kognitiv sohalarini baholash imkonini beradi. Masalan, TIMSS testlarida o'quvchilar matematika muammolarini hal qilish yoki virtual tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish uchun jarayon ko'nikmalari va kontent bilimlarini birlashtiradi va qo'llaydi.

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berish uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitivli bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida TIMSS xalqaro tadqiqoti O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Endilikda, O'zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashdi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendentsiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015 yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

O'zbekiston TIMSS xalqaro tadqiqotida qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zbekiston ilk bora 2023-yilda TIMSS xalqaro baholashda ishtirok etdi. Bu mazkur xalqaro baholashning 8-davriyligi bo'lib, O'zbekistondan jami 74 ta hudud tanlab olindi.



Ma'lumotlar bilan ishlash (20%)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ma'lumotlarni o'qish va tasvirlash.</li> <li>2. Ma'lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va taqqoslash.</li> </ol>
---------------------------------	--

**O'quvchilar populyatsiyasini (guruhini) maqsadli baholash.** TIMSS 2023 baholashlari guruhga moslashtirilgan dizaynga asoslanadi, bu baholashning qiyinligi va o'quvchilarning erishgan yutuqlari o'rtasida yaxshiroq moslikni ta'minlaydi va o'z navbatida barcha yutuq darajalarida yaxshiroq o'lchashni ta'minlaydi.

TIMSS 2023 taqvimining yillik tayyorgalik bosqichi			
2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Fevral - 1/2-Milliy tadqiqot koordinatorlarining birlashgan yig'ilishi	Mart-aprel - ommaviy sinov	Ma'lumotlar yig'ish	Dekabr - Natijalar e'lon qilindi

TIMSS bo'yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta'lim jarayoniga tadbiiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo'ysinishni talab etsadi.

Biz ham xalq ta'limida TIMSSga doir topshiriqlarni tizimli qilib olish va o'quvchilarni shu testlarga tayyorlash uchun maxsus elektron testlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

**Trends in Mathematics and Science Study**

**TIMSS**

**“Kretiv topshiriqlar”  
elektron axborot-ta'lim  
resursi**

**Boshlash**

**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

#### 2023-yildagi TIMSS testlar banki.

Testlarni tuzishda quyidagi asosiy komponentlar va tamoyillar inobatga olindi:


- o'quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;
- ularning mazmuni ishtirokchi mamlakatlarning o'rganilayotgan materiallariga maksimal darajada mos kelishi;
- tekshirilayotgan o'quv materialining matematika ta'limini rivojlantirish nuqtai nazaridan ahamiyati;
- topshiriqlarning o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi;
- topshiriqlarning ommaviy ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Matematika bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda biz har xil turdagi topshiriqlarni qo'lladik (javoblarni tanlash, qisqa va to'liq javob, amaliy topshiriqlar bilan).



Quyidagi mavzular bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi: sonlar, algebra, o'lchovlar, geometriya, ma'lumotlar bilan ishlash.

Quyidagi ko'nikmalar baholanadi: faktlar va protseduralarni bilish, tushunchalardan foydalanish, muntazam muammolarni hal qilish, tahlil qilish, farazlar, baholash, dalillar va boshqalar.




### Raqaamlar va miqdorlarga doir topshiriq

Topshiriq raqaamlar va miqdorlarni topishga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchi raqamlarni yozma holatda o'qiydi va natijasini topadi. Har bir topshiriq uchun 4 ball ajratilgan. Umumiy natija oxirida % da chiqadi. Keyingi topshiriq fazoviy munosabatlar va geometrik shakllarga doir bo'lib, o'quvchi shartga asosan qaysi shakldan birini buklaganda ikkita uchburchak va 1 ta to'rtburchakka ega bo'lishini topib belgilaydi.



### Fazoviy munosabatlar va geometrik shakllarga doir topshiriq.

Mulohazalar, raqaamlar va miqdorlar uyg'unligida berilgan keyingi topshiriq tasvirlar orqali berilgan bo'lib, berilgan summaga mos xarid qilish lozim. O'quvchini mulohazaga chorlovchi bu topshiriq qiziqarliligi bilan qolganlaridan farqlanadi.



### Mulohaza asoslangan rasmiy test

Diagrammaga doir berilgan topshiriqlar o'quvchilarni mulohaza qilishga chorlaydi. Bu topshiriqning asosiy vazifasi, o'quvchi masalani to'g'ri anglash, mevalar nisbatini to'g'ri topib, diagrammada to'g'ri joylashtirish imkoniyatini beradi.




Adobe Flash Player 11


Файл Просмотр Управление Справка

# TIMSS

25 TOPSHIRIQLAR

Sobir uyida tug'ilgan kunini nishonlamoqchi bo'ldi. U turli mevalardan olib keldi. Sobirning kelgan do'stlari 45 ta. U do'stlariga o'zlari yoqtirgan mevani tanlashlari mumkinligini aytdi.

Mevalar	Mevani tanlagan o'quvchi soni
	30 olma
	10 apelsin
	5 nok



Vaqt: 19:03 | 4 -topshiriq | Tekshirish

Adobe Flash Player 11

Файл Просмотр Управление Справка




Adobe Flash Player 11


Файл Просмотр Управление Справка

# TIMSS

25 TOPSHIRIQLAR

Sobir uyida tug'ilgan kunini nishonlamoqchi bo'ldi. U turli mevalardan olib keldi. Sobirning kelgan do'stlari 45 ta. U do'stlariga o'zlari yoqtirgan mevani tanlashlari mumkinligini aytdi.

Mevalar	Mevani tanlagan o'quvchi soni
	30 olma
	10 apelsin
	5 nok



Vaqt: 18:32 | 4 -topshiriq | Tekshirish




Adobe Flash Player 11

Файл Просмотр Управление Справка

### Diagrammaga doir, mulohazali, ijodiy topshiriq

Berilgan topshiridagi masala mazmuni: Sobir uyida tug'ilgan kunini nishonlamoqchi bo'ldi. U turli mevalardan olib keldi. Sobirning kelgan do'stlari 45 ta. U do'stlariga o'zlari yoqtirgan mevani tanlashlari mumkinligini aytdi.

*Ular mevani quyidagicha tanlashdi:*

Mevalar	Mevani tanlagan o'quvchilar soni
	30
	10
	5

O'quvchilar jadval asosida diagrammani to'ldirishadi. Ajratilgan meva ustiga bosilsa, o'sha meva bilan diagrammani xoxlagan qismini to'ldirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Qolaversa, keyingi topshiriq aynan yuqoridagi topshiriq davomi bo'lib, nisbat asosida kerakli son tanlanadi.



Файл Просмотр Управление Справка

# TIMSS

25 TOPSHIRIQLAR

Siz ziyofat uchun 225 dona meva sotib olmoqchisiz. Sinfingiz natijalariga ko'ra nechtdan mevalar sotib olishingiz kerak?

Mevalar	Mevani tanlagan o'quvchi soni
	30 olma
	10 apelsin
	5 nok

javob  olma 

javob  apelsin 

javob  nok 

7 8 9 -  
4 5 6 =  
1 2 3  $\times$   
0 , OK

1 2 3 4 5  
6 7 8 9 10  
11 12 13 14 15  
16 17 18 19 20  
21 22 23 24 25

Vaqt: 17:12 | 5 -topshiriq | (Tekshirish) 

### Axborot bilan ishlashga qaratilgan topshiriq

Ilmiy adabiyotlarda o'quv jarayonining dastlabki bosqichi o'rganilayotgan mavzu doirasida axborotlar to'plash bilan xarakterlanishi ta'kidlab o'tilgan. Ma'lumki, boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan o'quv fanlari ta'limning keyingi bosqichlarida o'rganiladigan fanlar uchun propedevtik va tayanch materiallar (fanlar yuzasidan qat'iy algoritm asosida, aniq maqsad sari quyi bosqichda o'rganiladigan axborotlar) bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Xususan, boshlang'ich sinflarda matematika fani topshiriqlarni algebra, geometriya, informatika kabi fanlar uchun propedevtik materiallar (ushbu fan sohalari bo'yicha o'quv axborotlari) bilan ishlash (axborotlar to'plash asosida o'zlashtirish, birlamchi qayta ishlov berish asosida qo'llay olish) ga o'rgatishning dastlabki bosqichi sifatida xarakterlanadi. Shuning uchun o'quvchilarda axborotlar bilan ishlash, tayanch kompetensiyasini shakllantirishda matematika fani ustuvor hisoblanadi.

Ta'lim sifatini baholash tizimida o'quvchilarning o'zgaruvchan hayotiy sharoitlarda murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini baholashga tayyorlash ayniqsa matematika tabiiy fanga doir ko'nikmalari shakllantirish doim asosiy masala bo'lib qolmog'i lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. -T: "Zamin nashr", Toshkent, 2021.
2. Azizzodjayeva N.N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. - T.: 2007. - 14 - 23-bet.
3. Abduqodirov A.A., Hayitov A.G., Shodiyev A.A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. - 76 b.
4. Abdullayeva B.S., Saidova M.J., Dilova N.G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021, - 300 b.
5. Saidova M.J. Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish. Darslik. 2022, - 305 b.
6. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. -1088 p.
7. Hutchison, D., Schagen I. Comparisons between PISA and TIMSS – Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.
8. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education, 2015, 32-33-p.

9. TIMSS 2011 User Guide for the International Database Released Items. Maths - Eighth Grade. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
10. TIMSS 2011 User Guide for the International Database Released Items. Science - Fourth Grade. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
11. TIMSS 2011 User Guide for the International Database Released Items. Science - Eighth Grade. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
12. Сборник тестовых заданий TIMSS для учащихся 4-х и 8-х классов. АО Информационно-аналитический центр»: Астана, 2016 -537 с.
13. Ларина, Галина Сергеевна Использование контекста повседневной жизни в обучении математике в основной школе: Международная перспектива. Док дисс автореферата. 13.00.00. 2018 7-Б.

## VARIATIV TA'LIMNING MAZMUNI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Oripova Nodima Xalilovna, Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri, p.f.d. (DSc), professor*  
*Ibragimova Dilnavoz Hazratqulovna, Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada variativ ta'limning mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari, variativ ta'limni tashkil etish borasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar sharhi bayon qilingan. Shuningdek, variativ ta'limning yondashuvlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tilgan: motivatsion, refleksivlik, adekvatlilik, akmeologik, integrativlik, differensiallikning mazmuni keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** variativlik, variativ ta'lim, ta'lim jarayoni, motivatsion, refleksivlik, adekvatlilik, akmeologik, integrativlik, differensiallik.

**Аннотация:** в статье рассмотрено содержание вариативного образования и его особенности, сделан обзор научных исследований, проводимых по организации вариативного образования. Также в качестве подходов вариативного обучения упоминаются: мотивационный, рефлексивный, адекватный, акмеологический, интегративный и содержательно-дифференциационный.

**Ключевые слова:** вариативность, вариативное обучение, образовательный процесс, мотивация, рефлексивность, адекватность, акмеологический, интегративный, дифференцированный.

**Abstract:** this article describes the content of varied education and its specific features, the review of scientific research conducted on the organization of varied education. Also, the following are mentioned as the approaches of variable education: motivational, reflexive, adequate, acmeological, integrative, and the content of differentiation.

**Key words:** variation, variational education, educational process, motivational, reflexivity, adequacy, acmeological, integrative, differentiation.

Ma'lum bo'lishicha, shu paytgacha jahonning ko'plab olimlari variativ ta'lim shakllari, uning mazmuni va modelini yaratish borasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, variativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashda MDH davlatlari olimlaridan V.V.Pikan, A.G. Asmolov, YE.I.Sanina, L.I.Kulagina, YE.V. Kleymenova, A.V. Zolotareva, T.V.Jivokoreneva, I.A. Galatskova, I.M.Gopbatkinalarning yondashuvlari diqqatga sazovor.

Nomlari keltirilgan ushbu olimlarning deyarli ko'pchiligi variativ ta'limni zamonaviy ijtimoiy madaniy muhitdagi ahamiyatini yuqori baholab, uni shaxsdagi individual ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etadilar.

Variativ ta'lim ( ta'lim jarayonini pedagogik boshqarishning zamonaviy ko'rinishi bo'lib, u ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishining o'zaro bog'liq funksiyalarini amalga oshiradigan o'zgaruvchan ta'lim shakli [3; 144-6.].

I.A.Galatskovaning tadqiqot ishida o'quvchilarni maktab muhitiga moslashuvchanligini ta'minlashda variativ modellashtirishning yo'nalishlari tadqiq etilgan. Shuningdek, tadqiqotchi ushbu izlanishida o'qituvchilar egallashi lozim bo'lgan psixologik-pedagogik kompetentlik, variativ ta'limni tashkil etish aspektlari, bosqichlari haqida fikr yuritadi [2; 27-6.].

Ye. I.Sanina, A.M.Maskayevalar "Вариативное обучение как одно из направлений модернизации образования" nomli maqolasida variativ ta'limni ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishi deb hisoblaydilar. Shuningdek, izlanuvchilar ushbu maqolasida variativ ta'limning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, uning nisbatan yangi tushuncha ekanligini va ta'lim muhitida takomillashib borayotganligini e'tirof etadilar. Ularning fikricha, variativ ta'lim jarayonida tanlov muhim hisoblanadi va u variativ ta'limning asosiy kategoriyasidir. O'quvchi bu jarayonda quyidagilarni: ta'lim muassasasi, fan, o'quv reja, fan dasturi, fanlar, elektiv kurslar, o'quv jarayonining turlarini tanlashi mumkin [4; 7-10-6].

Psixolog A.G.Asmolov variativ ta'lim haqida fikr bildirar ekan, uni shaxsga o'z taqdirini tanlash imkoniyatlarini taqdim etadigan ta'lim turi deb e'tirof etadi. Shuningdek, A.G.Asmolov variativ ta'limni muqobil ta'limdan farqli jihati sifatida shaxsga o'zgaruvchan dunyoda bilimlarni tushunish va tajriba orttirish usullarini egallash, hayot yo'lini to'g'ri tanlash, o'zini o'zi rivojlantirishga qaratilgan jarayon sifatida tushuntiradi.

Variativ ta'lim – shaxsni turli xil hayotiy vaziyatlar, holatlarga yo'naltirish va insonlarning ko'p asrlar davomida to'plagan tajribalari, fikrlash usullari, qobiliyatlarini o'zlashtirishga yordam beradi, deb tushuntiradi [70; 264-6.].

pedagogik e'tiqodni shakllantirishning yondashuvlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz:

motivatsion – talabalarning variativ ta'lim muhitida o'qish, o'z ustida mustaqil ishlash, auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan qiziqishini oshirishga e'tibor qaratiladi;

refleksivlik – bo'lajak o'qituvchining shu kungacha o'z faoliyati natijalariga e'tiborini qaratishi, erishgan yutuqlari va kamchiliklarini qayta ko'rib chiqish, tahlil qila olishiga undash;

adekvatlilik – bunda talabaning shaxsiy fazilatlarini tanlagan kasbiga mos holda rivojlantirish nazarda tutiladi. Talabaning xohish-istaklari, intilish va qiziqishlari o'zi tanlagan kasbi yuzasidan rivojlanib borishi darkor. Buning uchun oliy ta'lim jarayonidayoq talabada pedagogik imij va pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq;

akmeologik – talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, e'tiqodini yuksaltirish, ularni jamiyatning yuqori darajada fikrlaydigan a'zosiga aylantirishdan iborat. Shu bilan birga, akmeologik yondashuvning yana bir muhim vazifasi – talabalarni ijtimoiy hayotda uchraydigan qiyinchilik yoki muammolarga nisbatan o'zlari mustaqil va oqilona yechim topish, qaror qabul qilishga da'vat etishdan iborat;

integrativlik – variativ ta'lim muhitida o'quv-tarbiyaviy jarayonning o'zaro uyg'unligini ta'minlash va bu jarayonda talabaning kasbiy qiziqishlariga mos keladigan integrativ usul va vositalarni tatbiq etish;

differensiallik – variativ ta'lim muhitining asosiy yondashuvlaridan biri hisoblanadi, unda o'quv-tarbiyaviy jarayon tabaqalashtirilgan ta'lim asosida tashkil etilishiga erishiladi. Bu oliy ta'lim jarayonida o'quv jarayonini ixtisoslashish, xususan, bir xil o'quv elementlaridan iborat bo'lgan tizimning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajratib o'qitish hisoblanadi. Differensiallik ta'lim jarayonida muayyan ta'lim shakli funksiyasining kengayishi, samaradorligining oshirishi va bu funksiyalarni uning tarkibiy qismlari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liq holda amalga oshiriladi;

pozitivlik – ta’lim oluvchilar kayfiyatining yuqori bo’lishini ta’minlash, talaba ruhiyatidagi tushkun kayfiyatni oldini olish. Ushbu komponent ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligining yuqori bo’lishi, bilimlarning tez va oson o’zlashtirilishi hamda darslarning qiziqarli bo’lishini ta’minlaydi. Ba’zan turli sabablarga ko’ra talabada tushkun kayfiyat holati kuzatiladi. Shunday jarayonda mahoratli pedagog turli yo’llar bilan talabadagi tushkun kayfiyatni bartaf etadi va darsining yuqori darajada o’zlashtirishini ta’minlaydi. Ayniqsa, talabadagi pozitivlik kayfiyati ularda ijodkorlik, kreativlik sifatlarining hosil bo’lishiga yordam beradi;

kreativlik – variativ ta’lim jarayonida talaba uchun kreativ muhitni yaratish asosida ularning yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib borish, kreativ xatti-harakatlarini qo’llab-quvvatlash, kreativ faoliyatni pedagogik faoliyatning muhim elementi ekanligini talabaga anglatish.

Bizga ma’lumki, har qanday jarayon ma’lum bir komponentlar birligidan tashkil topadi. Xuddi shunday talabalar pedagogik e’tiqodini shakllantirish jarayoni ham bir qancha komponentlar ishtirokida amalga oshadi. Ular o’z vazifasiga ko’ra, boshqaruvchi, tayyorlovchi, uzatuvchi, talab qo’yuvchi, nazorat qiluvchi, ta’minlovchi, saralovchi, tashuvchi kabi funksiyalarni bajaradi.

Bu borada talabalarning pedagogik e’tiqodini shakllantirish jarayonini harakatga keltiruvchi komponentlar quyidagilar hisoblanadi: davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, oila, OTM, kadrlar buyurtmachisi, professor-o’qituvchilar. Mazkur komponentlar o’zaro aloqadorlikda jarayonni harakatga keltiradi. Demak, bu jarayonda har bir komponent o’z vazifasidan kelib chiqqan holda tashkiliy-metodik, boshqaruv kabi ishlarni to’laqonli bajarsagina jarayon muvaffaqiyatli ishlaydi.

Quyida jarayon komponentlarining vazifalariga to’xtalib o’tamiz:

Davlat va jamiyat – uzluksiz ta’lim, oila, kadrlar buyurtmachilari, jamoat tashkilotlari oldiga aniq va istiqbolli talablarni qo’yadi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi. Shuningdek, ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan shaxslarning huquqiy, iqtisodiy va siyosiy muhofazasini kafolatlaydi, talaba-yoshlarning bandligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mazkur mexanizm OTM oldiga jamiyatdagi o’zgarishlar, yangiliklarga xos kadrlar tayyorlash, ularning qiziqishlarini ruyobga chiqarishni o’z zimmasiga oladi.

OTM – talabalarni kasbiy faoliyat va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, ularning ilmiy, siyosiy, axloqiy, mafkuraviy, huquqiy ongi va dunyoqarashini yuksaltiradi. Shuningdek, u talaba-yoshlarni jamiyatda sodir bo’layotgan voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan munosabati, ishtirokini tarkib toptiradi. OTMda axborotlarni izlash va ulardan foydalanish hamda eng so’nggi texnologiyalardan foydalanish ko’nikmasini hosil qiladi. U talabani turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladi va bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etadi.

Kadrlar buyurtmachisi – bitiruvchilarni ish bilan ta’minlaydi. OTMga fan-ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi integratsiyani takomillashtirish yuzasidan takliflar beradi. OTM talabalarning amaliyotlarini o’tashlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi, ustoz-shogird tizimini yo’lga qo’yadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, talabalarda pedagogik e’tiqodni shakllantirish jarayoni bevosita ularning pedagogik bilimlarni egallashi bilan bog’liq hisoblanadi. Pedagogik bilimlarni hosil qilish esa ma’lum bir ko’rinishdagi variativ ta’lim shakllaridan foydalanish natijasida hosil qilinadi. Ayni kunlarda butun dunyo ta’lim tizimida quyidagi ta’lim shakllardan foydalanib kelinmoqda: dual ta’lim, integrativ ta’lim, innovatsion ta’lim, muammoli ta’lim, virtual ta’lim kabilar. Ushbu ta’lim turlarining har biri o’ziga xos afzallik va qulayliklar, imkoniyatlarga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Асмолов А. Г. Психология XXI века и рождение вариативного образовательного пространства России // Новое время – новая дидактика: Педагогические идеи Л. В.

Занкова и школьная практика. Сборник статей, посвященных 100-летию со дня рождения Л. В. Занкова. – Москва, «Федоров», 2001. – С. 264.

2. Галацкова И.А. Моделирование вариативных образовательных маршрутов учащихся как средства обеспечения адаптивности школьной среды. Автореферат. – Ульяновск: 2010. – С. 27.

3. Пикан В.В. Технология вариативного обучения – Москва: Перспектива, 2008. – С. 144.

4. Санина Е. И., Маскаева А. М. “Вариативное обучение как одно из направлений модернизации образования”. Москва, “Преподаватель XXI века”. - № 4. - 2010. – С.7-10.

## **O‘QUVCHILARDA XXI ASR KO‘NIKMALARINING SHAKLLANGANLIGINI BAHOLASH**

ABDULLAYEV Farrux Rustam o‘g‘li  
"Salam-school" maktabi direktori,  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish va uni baholash, Blum taksonomiyasi va undan baholashda foydalanish, XXI asrda muvaffaqiyatga erishish standartlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bir nechta tavsiyalar beril o‘tilgan.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье представлена информация о формировании у учащихся навыков XXI века и их оценке, таксономии Блюма и ее использовании в оценивании, стандартах успешности в XXI веке, даны несколько рекомендаций по формированию у учащихся навыков XXI века.

**Ключевые слова.** Навыки XXI века, таксономия, знание, анализ, критическое мышление, творчество, грамотность, стандарты навыков успеха 21 века.

### **ANNOTATION**

The article provides information on the formation of 21st century skills in students and their assessment, Bloom's taxonomy and its use in assessment, standards of success in the 21st century, and several recommendations are given on the formation of 21st century skills in students.

**Keywords.** 21st century skills, taxonomy, knowledge, analysis, critical thinking, creativity, literacy, 21st Century Success Skills standards.

XXI asr ko‘nikmalari (21CS) hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ta‘lim tizimlarida ta‘lim maqsadlari sifatida mustahkam o‘rnashgan, ammo ularning o‘qitish va baholash amaliyotida amalda qo‘llanilishi ortda qolmoqda. To‘g‘ri javob berishdan ko‘ra, qanday qilib javob olishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan ushbu o‘quv maqsadlari ta‘lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.

Kelgusi avlod kelajakda hatto, bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarda ishlaydi. O‘quvchilarga nimani o‘ylashni emas, qanday o‘ylashni o‘rgatishga ularni tayyorlash ta‘limning oldida turgan bugungi kun talabidir. Shu sababli, ta‘lim tizimlari o‘quvchilarning o‘z bilimlarini qo‘llash zarurligiga tobora ko‘proq e‘tibor qaratayotgani sababli, 21CSga e‘tibor kuchaydi. Ta‘limda o‘quvchilarda 21CS ning shakllanganligi nisbatan kam baholagan. Hozirda biz buni baholashga qay darajada erishayapmiz? Javobi oddiy: biz bunga deyarli erishmayapmiz. XXI asr ko‘nikmalari nima? Ular XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan muhim hayotiy ko‘nikmalardir. XXI asr ko‘nikmalari bilimlar iqtisodiyotida eng ko‘p talab qilinadigan ko‘nikmalardir [qarang, 1].

Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi (1-rasm) [qarang, 2].

Bu ko'nikmalarning barchasi yuqori darajadagi fikrlashga asoslangan. Bu ko'nikmalarni qanday qilib egallash va eng muhimi bu ko'nikmalarga erishilganligini qanday qilib baholash mumkin? Buning uchun XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud bo'lgan malaka standartlarini (21st Century Success Skills Standarts, 21CSSS) ko'rib chiqishimiz lozim, chunki bu malaka standartlaridan baholash uchun me'zonlarni aniqlashtirib olishda foydalanish mumkin.

Bu standartlar o'quvchilarning maktabdan ishga (ish faoliyatiga) muvaffaqiyatli o'tishlari uchun zarur bo'lgan asosiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko'nikmalarga qaratilgan. XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun beshta standart mavjud bo'lib [qarang, 3], ular (2-rasm).

Har bir standart talabalarning muvaffaqiyatli deb topilishi uchun erishishi kerak bo'lgan asosiy maqsadlarni o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar va maqsadlar 21-asr muvaffaqiyati ko'nikmalari imtihonida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan talablarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlangan standartlar va maqsadlar asosida o'quvchilar o'rtasida XXI asr muvaffaqiyati ko'nikmalari imtihoni (21st Century Success Skills Exam) o'tkaziladi.


Ta'limda murakkab ko'nikmalar majmui tomon global siljish mavjud muammolarni hamkorlikda hal qilish mumkinligini bildiradi. Bunday ko'nikmalarni baholash muammosi ko'nikmalarni qanday o'rgatish kerakligini ishlab chiqishdan oldin ham bo'lgan.

Tadqiqotchilar ushbu "XXI asr ko'nikmalari (21CS)"ning mohiyatini va o'quv dasturlari bilan bog'liq bo'lmagan o'qitish usullari qanday qilib oddiy shakldan murakkab shakllarga o'tishini aniqlashlari mumkin. 1900-yillarda baholash usullarida bajarilgan ish, bilim va shaxsiyatni aniqlashga yordam bergani kabi, baholashning hozirgi yondashuvlari 21-asrning ushbu ko'nikmalarini aniqlashga yordam berishi lozim.

Ammo bu o'ziga xos qiyinchiliklarsiz amalga oshmaydi. Birinchidan, ko'nikma yoki "konstrukt"ni aniqlashdir. Zaruriy o'quv ko'nikmalarini aniqlash nafaqat baholash yondashuvini belgilaydi, balki o'qitish metodikasi va ta'limiy natijalarga ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'tgan asrning 50-60 yillarida Benjamin Blum tomonidan taklif etilgan va 2001-yilga kelib qayta takomillashtirilgan Blum taksonomiyasi hozirda baholash yo'nalishida keng qo'llanilmoqda. Blum taksonomiyani rivojlantirishdan maqsad o'quvchilarning xattiharakatlarini tasniflash ekanligini ta'kidlaydi. Maqsadli xatti-harakatlar o'qitish jarayonida harakat, fikr yoki hissiyot sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, Blum taksonomiyasidan maqsad o'quvchilarning maqsadli xulq-atvori bilan ularning ma'lum bir o'qitish jarayonidan keyingi haqiqiy xatti-harakatlari o'rtasidagi farqni obyektiv ravishda ochib berishdan iborat. Shunday qilib, o'quvchilarning ishlash ko'rsatkichlari kuzatiladi [4, 6-7 b.].


Blum va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya 1990-yillargacha saqlanib qoldi. Biroq, o'tgan vaqt ichida texnologiya va boshqa sohalarning jadal rivojlanishi va o'zgarishiga moslashish zarurati paydo bo'ldi. Anderson va Kravol taksonomiyani ko'rib chiqqandan so'ng taksonomiyaning yangilanishi kerak bo'lgan jihatlarini aniqladilar. Yangi texnologiyalar davrida Blum taksonomiyasining kamchiliklarini bartaraf etish taksonomiyaga zaruriy yangilanishlarni kiritish orqali amalga oshirildi [5, 768-b.]



**1-rasm.** XXI asrda muvaffaqiyatga erishish standartlari

Taksonomiyaning qayta ko'rib chiqilgan versiyasi dastlabki taksonomiyada bo'lgani kabi oltita asosiy kognitiv jarayonlardan iborat. Blum taksonomiyasini qo'llash (*application*), tahlil qilish (*analysis*) va baholash (*evaluation*) bosqichlarning funksiyalari va ko'lami saqlanib qolgan va bular *amalda qo'llash, tahlil qilish va baholash (apply, analyze, evaluate)* ga o'zgartirildi. Ya'ni otlar fe'llarga o'zgartirildi.

*Sintez* bosqichi *baholash* bosqichiga, baholash bosqichi esa *yaratish* bosqichiga almashtirildi.



**2-rasm.** Blum taksonomiyasining dastlabki va yangilangan talqini

*Eslab qolish bosqichi* aniq ma'lumotlarning belgilarini bilish, ular bilan bog'liq bo'lgan murojaatlarni eslab qolish, oson o'rganiladigan materiallarni tanib olish, oddiy atamalar va



murakkab bo'lmagan oddiy shakllar va texnologik ma'lumotlarning umumiy ma'nolarini eslab qolish kabi asosiy subkognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Eslab qolish bosqichi, shuningdek, uzoq muddatli xotirada ma'lumotni eslab qolish, aniqlash va eslab qolish bilan bog'liq kognitiv jarayonlar sodir bo'ladigan bosqichdir.

*Tushunish bosqichida* axborot talqin qilinadi va uzatiladi. Bu bosqichda og'zaki malakalar qatoriga kiruvchi metafora, ramz, ironiya kabi tushunchalarni tushunish, matematik amallarni ramziy tilga o'tkazish kabi jarayonlar sodir bo'ladi. Tushunish - olingan bilimlarni sharhlash va o'rgangan narsalariga asoslanib, yangi bilimlar haqida bashorat qilish qobiliyatidir. Ushbu bosqichda olingan bilimlar haqida gapirishdan tashqari, yozma yoki grafik tilda berilgan xabarlarni sharhlash, misol qilish, tasniflash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, taqqoslash va tushuntirish kabi aqliy jarayonlar sodir bo'ladi.

*Qo'llash bosqichi* umumiy qoidani yoki umumlashtirilgan usulni mavhumlashtirishni va ma'lum bir bilimga diqqatni jamlashni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dastur harakatni bajarish yoki amalga oshirishdir.

*Tahlil* deganda, bir butundan tashkil topgan axborotni uning qismlariga ajratish qobiliyati tushuniladi. Ushbu turkumga shuningdek, axborot qanday to'planishini bashorat qilish va ma'lumot qanday boshqarilishini aniqlash kabi aqliy jarayonlar kiradi.



**3-rasm.** Blum taksonomiyasi va XXI asr ko'nikmalari elementlari orasidagi o'zaro bog'liqlik

*Baholash* - bu maqsad uchun berilgan material yoki usulning qiymati haqida xulosa chiqarish qobiliyati. *Baholash bosqichida* shaxs standartlar va mezonlar bo'yicha olgan ma'lumotlarini qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, hukm qilish va tanqid qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shu bilan birga, u da'volardagi mantiqiy noaniqlik va kamchiliklar yuzasidan fikr bildirish qobiliyatiga ega bo'ladi [qarang, 6].

*Yaratish* - bu avvalgi bilimlardan hosil bo'lgan qismlardan foydalangan holda yangi mahsulot yoki g'oyani yaratish bosqichidir. Ushbu bosqichda muhim bo'lgan narsa - original mahsulot/g'oyani yaratish yoki bir butunni tashkil etuvchi qismlarni birlashtirish qobiliyati.

Ushbu bosqichda odam yangi va original mahsulotni loyihalash va yaratish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bir necha bosqichli savollar tizimining asosiy maqsadlari:

o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnatish olish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat. Qachonki, o'qituvchi o'quvchining chuqur o'ylash jarayonini bosqichma-bosqich rag'batlantirib borsa yuqoridagi maqsadlarga erishish mumkin. Shuning uchun Blum fikrlash jarayonini sistemalashtirgan holda bir necha bosqichli savollar tizimini ishlab chiqqan.

Blum taksonomiyasi asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini baholash imkoniyatini ko'rib chiqar ekanmiz, ular orasidagi quyidagicha bog'lanishga guvoh bo'lamiz [qarang, 7, 8, 15-b] (4-rasm).

Yuqoridagi o'zaro bog'liqlikdan kelib chiqsak, Blum taksonomiyasining har bir pog'onasidan XXI asr ko'nikmalarining tegishli elementlarini baholashda foydalanish mumkin. Demak, biz baholashni bir necha usullarda amalga oshiramiz, eng avvalo, kundalik dars jarayonidagi formativ baholash jarayonida, undan keyin esa kengroq qamrovda o'tkaziladigan summativ baholashlarda (nazorat ishlari, ta'lim sifati monitoringi, imtihonlar)da amalga oshiramiz. Bunda biz ushbu baholash jarayonlari uchun tuzilayotgan nazorat materiallari mazmunini fikrlash darajalari (Blum taksonomiyasi) asosida XXI asr ko'nikmalarini baholashga qaratilgan topshiriqlari bilan boyitishimiz zarur bo'ladi. Bunday mashqlarni ishlab chiqish uchun ushbu kalit so'z va iboralardan foydalanish mumkin [qarang, 9], [qarang, 10].



4-rasm: Blum taksonomiyasi asosida baholash topshiriqlarini tuzish

Ushbu fe'llarning har birini "yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati" deb tasniflash mumkin. Bu kabi fe'llardan dars uchun o'quv maqsadlarini belgilashda va o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda foydalanish zarur. O'quvchilarni eslab qolish, tushunish, amalda qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratishga o'rgatish ularga umrining oxirigacha foyda keltiradi. Ko'rib turganingizdek, XXI asr ko'nikmalari va Blum taksonomiyasi bir-birini qamrab oladigan, to'ldiradigan ko'nikma va tushunchalarni o'z ichiga olgan.

Xulosa shuki, baholash "ta'limning richagi" va u ta'lim sifatini boshqaradi. Blum taksonomiyasi asosida dars mashg'ulotlarining o'quv maqsadlarini belgilasak, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqsak va ushbu topshiriqlar asosida baholash jarayonlarini tashkil etsak, yuqorida aytib o'tilgan XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarimizda rivojlantirishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Zero, bu ko'nikmalar XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim hayotiy ko'nikmalardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. [https://en.wikipedia.org/wiki/21st\\_century\\_skills](https://en.wikipedia.org/wiki/21st_century_skills)
2. <https://www.aeseducation.com/blog/what-are-21st-century-skills>
3. Katie Schneider, "What Is the 21st Century Success Skills Exam?" <https://www.aeseducation.com/blog/21st-century-skills-assessment>
4. Anderson L. W., Krathwohl D. R., and Bloom B. S. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. 2011.
5. Ari A. Finding acceptance of Bloom's revised cognitive taxonomy on the international stage and in Turkey. Kuram ve Uygulamada Eğitim Bilimleri, 2011. 11(2): 767-772
6. Bloom B.S. Taxonomy of educational objectives – The classification of educational goals – Handbook 1: Cognitive domain. London: Longmans, Green & Co.Ltd. 1956
7. <https://www.youtube.com/watch?v=5ysfp8eSxz4>
8. Marlene Scardamalia "Assessment and Teaching of 21st Century Skills" ([http://dx.doi.org/10.1007/978-94-007-2324-5\\_5](http://dx.doi.org/10.1007/978-94-007-2324-5_5))
9. Bloom's Taxonomy of Measurable Verbs, <https://bit.ly/3FyX8nw>
10. Bloom's Taxonomy Verbs For Critical Thinking, <https://bit.ly/2EcTOWx>

#### **BOSHLANG'ICH TA'LIM YANGI AVLOD DARSLIKLARINI ZAMONAVIY METODIKALAR ASOSIDA O'QITISHNING ISTIQBOL REJALARI**

**Rasulev T. Q. - Qashqadaryo PYAMO'MM  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim  
menejmenti kafedrasi mudiri.**

##### **Annotatsiya:**

Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Darsliklar ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak. Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani va amaliyotda qo'llanilishiga qadar amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosati, davlat ta'lim standartlari, bilim, malaka, ko'nikma, darslik, o'quv adabiyotlari, seminar-trening.

##### **Абстрактный:**

Качественное образование в школах во многом зависит от создаваемых учебников. Учебники должны соответствовать образовательным стандартам, заинтересовывать ученика и вызывать у него любовь к науке. В данной статье описаны реформы, которые проводились до того, как учебники для начальной школы были радикально обновлены и внедрены в практику.

**Ключевые слова:** Закон «Об образовании», единая государственная политика в области образования, государственные образовательные стандарты, знания, квалификации, навыки, учебники, учебная литература, семинары-тренинги.

**Abstract:**

Quality education in schools largely depends on the textbooks created. Textbooks must meet educational standards, interest the student and arouse his love for science. This article describes the reforms that were carried out before primary school textbooks were radically updated and put into practice.

**Key words:** Law “On Education”, unified state policy in the field of education, state educational standards, knowledge, qualifications, skills, textbooks, educational literature, training seminars.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 26-moddasi “Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari” deb nomlangan quyidagilar belgilab quyilgan:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruv organlari o‘z vakolatlari doirasida:

- ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;
- ta’lim sohasidagi vakolat tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;
- davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta’lim talablari ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni tasdiqlaydi;
- ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;
- o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan amaldagi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga Davlat ta’lim standartlariga binoan darslik va o‘quv adabiyotlar tayyorlash va nashr qilish huquqiga ega vakolatli boshqaruv organi sifatida 2022 - yildan Yangi avlod darsliklarini tayyorlash va nashr qilish faoliyatini yo‘lga qo‘ygan.

Ta’lim tizimini boshqarishning asosiy maqsadi ta’lim sohasida samaradorlikka erishishdir. So‘ngi o‘n yil davomida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan isohatlarning bosh maqsadi Respublika ta’lim tizimida, xususan maktab ta’limida samaradorlikka va natijaviylikka erishishdir. Maktab ta’limida yuqori natijaga erishish, maktab ta’lim tizimida ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liqdir. Bu jarayon bir qator muhim obektiv va subektiv omillarga bog‘liqdir. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- umumiy o‘rta ta’lim maktablarining moddiy texnik ba’zasini yaratilishi;
- yetuk pedagogik, o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash;
- kadrlarni to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga qo‘yish;
- jumladan, boshqaruv kadrlarini (menedjir) to‘g‘ri tanlash;
- ta’lim jarayoniga ilg‘or, pedagogik va axborat texnologiyalarini qo‘llash;
- ta’lim jarayonini uslubiy (moddiy) ta’minotini yaxshi yo‘lga qo‘yish;
- jumladan amaldagi Davlat ta’lim standartlari asosida yaratilgan darsliklar va ularni o‘qitish metodikalarini yuqori sifatda yaratilishi va nashr qilinishi;
- maktab kutubxonasi (ARM)da darslik va qo‘llanmalarni yetarli darajada (nusxada) bo‘lishi;
- maktab jamoasini ijro intizomiga va Odob axloq qoyidalariga qat’iy amal qilishi, yuqori darajali davomat ko‘rsatgichiga erishilishi;
- fan to‘garaklari va ijodiyot to‘garaklarini muntazam ishlashi va boshqa bir qator omillarga bog‘liqdir.

Yuqorida qayd etilgan, maktab ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlashga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardin biri bu - **maktab darsliklaridir**. Maktab darsliklari har 3-5 yilda DTS va davlat dasturlari asosida yaratiladi. Darsliklarni va o'quv adabiyotlarini sifatli va yetarli darajada yaratilishiga "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 26-moddasiga binoan Respublika Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi vakolatli davlat boshqaruv organi sifatida asosiy ma'sul hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat Ta'lim Standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 6-aprel 187-son Qarori asosida maktab darsliklari yaratilgan bo'lsa, keyingi davr uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05. 2022 yildagi "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturini tastiqlash to'g'risida"gi 187-son farmoni asosida darslik va qo'llanmalar yaratilishi ko'zda tutilgan.

Maktab darsliklari masalasi hamisha davlat rahbari e'tiborida bo'lib kelmoqda. 2022 - yil sentyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirigi bilan davlat rahbari adminstratsiyasida "Darsliklarni takomillashtirish ishchi guruhi" tuzilgan edi. Prezidentning bosh g'oyalari ta'lim sifatini yaxshilash bo'lganligi uchun ham maktab darsliklari masalasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi paytda butun maktab ta'limini isloh qilishga davlat siyosati darajasida qarab kelinmoqda. Bu jarayonda 1-sinfdan boshlab 11-sinfgacha bo'lgan maktab darsliklar, metodika va dasturlarni yangilash ishlari amalga oshirishga kirishildi. O'tgan ikki yilda 1-4 sinflari darsliklari va metodikasi tayyorlandi va 2022-yil 29-dekabrda kongresslar saroyida yangi avlod darsliklari tagdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu tagdimot ishida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtrok etdi va yangi darsliklar bilan tanishdi.

Maktab darsliklarini yaratish faqat birgina Prezident andminstratsiyasi qoshidagi "Darsliklarni takomillashtirish ishchi guruhi" tomonidan emas, balki keng jamoatchilikni fikri, taklif va g'oyalari hisobga olingan holda yaratildi. Shu maqsadda Prezident admnstrsiyasi tomonidan Maxsus portal yaratilib keng jamoatchilikni fikri o'rganildi. Jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda ishchi guruh ichida bir nechta kichik guruhlar tashkil qilinib darsliklar sifatini yaxshilashga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

2023-yil iyul-avgust oyida Respublika bo'yicha barcha viloyatlarni boshlang'ich ta'lim mutaxassislari ishtrokida yangi avlod darsliklarini o'qitish metodikasini o'rgatish maqsadda seminar tashkil etildi. Avgust oyida viloyatlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan smenar trening o'tkazilib, yangi avlod darsliklarini o'qitishga metodik tavsiyalar berildi. Shuningdek, 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Respublika bo'ylab barcha maktablarda Yangi avlod darsliklarini o'qitish boshlandi.

Yangi avlod darsliklarini xususiyati va yutuqlari haqida fikr bildiradigan bo'lsak quyidagilarni etirof etish mumkin:

- yangi avlod darsliklari – XI asr ko'nikmalariga o'rgatish;
- avtoritar ta'lim tizimidan voz kechish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish;
- bilim berishni ko'nikma o'rgatish bilan teng barobar olib borishga erishish;
- yangi darsliklarni yaratish ochiq va shaffof bo'lganligi;
- kitoblar ijarasi bepul qilingani;
- darsliklarni sifatli qog'ozda va yorqin ranglarda ishlanganligi;
- darsliklarga kiritilgan materiallar maxsus kodlarga joylanganligi va x.k.lar.

Darsliklar joriy o'quv yili uch chorgi davomida o'qitish jarayonini kuzatish, boshlang'ich sinflarda dars berayotgan 100 nafarga yaqin o'qituvchilar 200 nafardan ortiq maktab rahbarlari bilan o'tkazilgan suhbat, so'rovnoma, kuzatish va jamoatchilik, jumladan o'quvchilarning ota-onalari fikrini o'rganish jarayonida yangi darsliklarni mazmuni va sifati bilan bog'liq quyidagi masalalar oydinlashdi:

- kitoblar soni yetarli emasliki, o'qituvchilarga darslik berilmaganligi;
- maktablar kitobxonasi, ARMdagi kitoblar zaxirasi yo'qligi;
- yangi darsliklarni o'qitish metodikasi haligacha yaratilmaganligi;

- yangi avlod darsliklari mualliflari ichida tajribali, oliy toyifali maktab o'qituvchilari va o'qitish metodikasi (didaktika) sohasidagi yetakchi olimlar yo'qligi;
- darsliklarga kirilgan mavzular ketma ketligi mukammal mantiqiy darajada emasligi;
- darsliklarda gramatik xatolar kupligi;
- 3-4 sinf matematikasida murakkab masalalar, ko'p xonali sonlar bilan bijariladigan masalalar kirilganligi.

Ayrim darsliklardagi materiallarda Rossiya va Qozog'iston Respublikalari tajribalar asosida kiritilganligi va boshqalarni etirof qilish mumkin.

Joriy o'quv yili yakuniga binoan Respublika miqyosida va har bir viloyat miqyosida o'quv yili davomida yangi darsliklarni o'qitgan, boshlang'ich ta'lim sohasida ishlagan yetakchi boshlang'ich sinf o'qituvchilar bilan o'qitish davomida ko'zga tashlangan yutuqlar va muammolarni aniqlash, o'rganish maqsadida seminar-treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunday seminarlarni o'tkazishda milliy markazlarning Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedralari professor-o'qituvchilari metodistlar guruhlarini bilan hamkorlikda tashabbuskor bo'lishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RBQ-637.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 son Farmoni va 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884 son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori.

4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-apreldagi "Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 281-son qarorida belgilangan "Umumta'lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Nizom. <https://lex.uz/uz/docs/-4273357>

#### **Elektron resurslar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portali: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **O'QITUVCHINING ILMIY METODIK MAQOLALARDAN FOYDALANISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

**Raximqulova Maxbuba Baxronovna**

Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsenti  
tel: +998(91)7016499

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kun muammosi ya'ni, o'qituvchining ilmiy maqolalardan foydalanishi hamda o'z faniga tatbiq qila olishi haqida ma'lumot berilgan. Shu bilan birga malaka oshirish tizimida mashg'ulot davomida maqola bilan ishlash texnologiyasining texnologik xaritasi ham yangi mazmunda keltirilgan. Shu bilan birga "Muammoga asoslangan ta'lim" texnologiyasining afzalliklari va salbiy tomonlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maqola, texnologiya, muammoga asoslangan ta'lim, xorijiy metodikalar, XXI asr ko'nikmalari, dars rejasi



**Аннотация.** В статье рассматривается проблема сегодняшнего дня то есть то, как учитель может использовать научные статьи, а также применять их в своей науке. При этом технологическая карта технологии работы со статьей при обучении в системе повышения квалификации также представлена в новом содержании. В то же время дается информация о преимуществах и недостатках технологии проблемного обучения.

**Ключевые слова:** статья, технология, проблемная обучения, зарубежные методики, навыки XXI века, план урока.

**Annotation.** The article describes the problem of today, namely, the teacher's use of scientific papers and the ability to apply them to his or her fan. At the same time, a technological map of the technology of working with an article during training in the training system is presented in a new context. At the same time, information is provided about the advantages and disadvantages of "Problem-Based Learning" technology.

**Keywords:** article, technology, problem-based, foreign methodologies, 21st century skills, lesson plan

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish [2] degan maqsad qo‘yilgan.

Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonuni 5-bob “Pedagog xodimlarning majburiyatlari” 46-moddasida “o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi ...” deb belgilab berilgan [1]. Umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari hozirgi vaqtda bir yil davomida 36 soat onlayn yoki offlayn o‘qib 18 ball kreditli sertifikatga ega bo‘lishayapti. 36 soat davomida o‘qituvchi pedagogning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari, pedagog mas‘uliyati va moslashuvchanlik, inklyziv ta‘limni joriy etish masalalari, ta‘limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o‘qitishning dolzarb masalalari, o‘quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari modullari asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy metodikalar asosida ularning kasbiy faoliyatiga doir kompetentligini rivojlantirishdan iboratdir [3].

**Metodlar.** Har bir texnologiyaning o‘ziga yarasha yondashuvi bo‘lgani kabi “Muammoga asoslangan ta‘lim”ning afzalliklari haqida fikrlar va debatlar mavjud. Muammoga asoslangan ta‘lim, o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini o‘rganish va tadqiq qilish jarayonlariga muvaffaqiyatli o‘rganishga e‘tibor beradi. Bu usul, o‘quvchilarga aktual ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, muhokama qilish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va o‘z fikrlarini ifoda qilish imkonini beradi. Muammoga asoslangan ta‘limning afzalliklariga to‘xtalib o‘tamiz. Muammoga asoslangan ta‘limda hamkorlikda o‘rganish, o‘quvchilar guruh bo‘lib vazifa bajarish va bir-biri bilan hamkorlik qilishni o‘rganishadi. Bu xususiyat, o‘quvchilarning ijtimoiy hamkorlik, qo‘shnilar bilan ishlash va jamoatchilikni rivojlantirish imkonini beradi. O‘quvchining iqtidorini oshirish ham bu texnologiyada katta ahamiyatga ega. Bu usul, o‘quvchilarning iqtidorini va qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar, o‘zlarining qiziqtirgan sohalarida o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini ifoda qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Muammoga asoslangan ta‘limda o‘quvchilarni nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish va ularning o‘rganish



jarayonida amaliyot bilan bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Bu usul, o'quvchilarning o'z mehnatlarini va o'zlashtirishlarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning yana bir afzalligi o'quvchilarning muhokama qilish, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan bo'lishidir. O'quvchilar, muhokama qilish va argumentlarni rivojlantirish jarayonlarida o'z fikrlarini ifoda qilishni o'rganishadi.

Muammoga asoslangan ta'limning afzalliklari bilan birga o'ziga yarasha bir nechta kamchiliklari mavjud. Muammoga asoslangan ta'limning amaliyotga yo'naltirish va o'quvchilarning birlashgan o'rganishga muvofiqligi uchun katta resurslar va tayyorlash talab qilinadi. Bu usulning amaliyotga o'tkazilishi uchun laboratoriyalar, ma'lumotlar bazalari, amaliyot vositalari va o'qitish vositalari bo'lishi kerak. Bu resurslar tayyorlashni tashkil etilishi muammo bo'lishi mumkin.

Ushbu ta'limning o'quvchilar uchun individual qiyinchiliklar ham mavjuddir. Muammoga asoslangan ta'limda o'quvchilar birlashgan o'rganishga yoki o'zlashtirish va ijodiy fikrlashga boshqalar bilan ishlashga ixtisoslashgan bo'lib, individual o'quvchilar uchun qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu usulda, har bir o'quvchi o'zlashtirish va o'z fikrlarini ifoda qilish yo'lidagi barcha muammosini yechishga tayyor bo'lishi kerak. Undan tashqari muammoga asoslangan ta'limning boshqa bir kamchiligi, o'quvchilarni baholash va natijalarni o'rganish jarayonidagi muammo bo'lishi mumkin. Bu usul, o'quvchilarning muhokama qilish, ijodiy fikrlash va o'zlashtirish jarayonlarini baholashning traditsional usullari bilan mos kelishi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Muammoga asoslangan ta'lim, o'quvchilarga faol qatnashish va birlashgan o'rganishni talab qiladi. Ba'zida, o'quvchilar bu usuldan qatnashishga yoki o'zlashtirishga qiziqmasligi yoki bu usulni qabul qilmasligi mumkin. Bu usul barcha o'quvchilar uchun qiziqarli va qatnashishni rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak.

Muammoga asoslangan ta'limning muhim bir kamchiligi, o'quvchilarning ijodiy fikrlash va o'zlashtirish jarayonlariga muvofiq tarbiya muhitini o'rnatishning qiyinliklari bo'lishi mumkin. O'quvchilar uchun o'z fikrlarini ifoda qilish va qo'shnilar bilan ishlash imkoniyatlarini beruvchi tinchlik va qo'llab-quvvatlash muhitining yaratilishi kerak. Bu kamchiliklar, muammoga asoslangan ta'limning amaliyotga tatbiq etilishi va natijalarni o'rganish jarayonlarida muammo yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, bu usulni amaliyotda tashkil qilish va muammolarini hal qilish uchun murojaat qilinadigan yo'nalishlar va strategiyalar kerak bo'ladi.

**Natijalar.** Tinglovchilar bu davrda xorijiy metodikalar, yangi ta'lim texnologiyalari, didaktik o'yinlar hamda treninglarni tashkil etishni o'rganishadi. O'qituvchilarni darslarda mustaqil ishlashga va mustaqil fikrlashlari uchun ularga darslarda turli topshiriqlar beriladi, ko'rgazmali va tarqatma materiallar beriladi. Darslar tashkil qilinishida albatta XXI asr ko'nikmalarini singdirishdan boshlanadi. Zamonaviy ta'limda XXI asr konikmalarisiz o'qituvchi ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatishi katta muammo sifatida qaralmoqda. Xo'sh, XXI asr ko'nikmalariga qanday ko'nikmalarni kiritishimiz mumkin. Undan avval zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri, ya'ni "Muammoga asoslangan ta'lim"dir. Muammoga asoslangan ta'limda 8 ta muhim element bo'lib, ular quyidagilardir:

- o'quv dasturi tarkibi;
- XXI asr mahorati (ko'nikmalar);
- bilishi kerak;
- yo'naltiruvchi savollar;
- o'quvchi fikri va tanlovi;
- qiyin (chuqurlashtirilgan) savollar;
- bir-birini kuzatish va tahlil qilish;
- o'quvchilar tomonidan taqdim etiladigan mahsulot (amaliy dars, taqdimot, vosita).

Zamonaviy dars tashkil qilishimizda mana shu muammoli ta'limning 8 ta elementlarga e'tibor berib tashkil etiladi, ayniqsa XXI asr ko'nikmalari ahamiyatgi molikdir. XXI asr ko'nikmalarini egallagan o'quvchi zamon talabidagi barkamol avlod, kelajagimiz quruvchi

bo'lib etishadi. XXI asr ko'nikmalari (4K) to'rtta bo'lib ular kommunikativlik, kollobaratsiya, kreativlik va kretik fikrlashlardir.

**Munozara.** Umuman olganda ilmiy maqolalardan foydalanib o'zining faniga tatbiq qila olish ko'nikmasini shakllantirishda o'qituvchi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyaga ega bo'lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, maktab o'qituvchilari qanchalik kommunikativ bo'lsa, jamoada ishlash ko'nikmasi rivojlangan bo'lsa, kreativ, tashabbuskor, ta'lim tizimidagi yangiliklarga tayyor bo'lsa, tanqidiy fikrlay olsa shu o'qituvchining faoliyati sarmazmun, o'quvchilari esa yangicha fikrlaydigan bilimli insonlar bo'lib yetishadilar. Buning uchun o'qituvchi yuqorida berilgan tavsiyalar asosida doim o'z ustida ishlashi, o'qituvchi sifatida uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishlari lozim.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni.
3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish shaklidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari guruhlari uchun ishchi-o'quv dasturi. Samarqand, 2023-yil
4. Baxronovna, R. M. . (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish. *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>
5. Raximqulova M. Ta'limga innovatsion yondashuv-o'qitish samaradorligini oshirish omili sifatida //Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2021. – C. 118-121.
6. Jamilovna N. D. Boshlang'ich ta'limdagi sinf rahbarlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning roli (malaka oshirish kurslar misolida) //Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 124-129.
7. Baxronovna, R. M. . (2023). Boshlang'ich ta'limda xorijiy metodikalar asosida o'qish savodxonligini oshirish. *Fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi*, 408-411. Retrieved from <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1196>

## **FANLARNING TA'LIM OLUVCHILAR KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHGA ASOSLANGAN O'QUV TEZAVRUSINI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI**

**Ruzikulova Nigora Shuxratovna**  
**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti (DSc),**  
**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash tendensiyalari meta-tahliliga ko'ra aniqlandiki, ta'lim oluvchilarning kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha ta'limiy muhitni tashkil etish nafaqat ta'lim kontentini balki uni taqdim etishning tashkiliy-tuzilmaviy shakllarini ham ko'rib chiqishni talab qiladi.

Fanlarning o'quv tezavrusini shakllantirish o'qitishda axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiladi. Fanlarning o'quv tezavrusini shakllantirish masalalari qator ilmiy ishlarda o'rganilgan bo'lib izohli lug'atlarda tezavrus so'zi biron-bir ilm-fan sohasiga oid so'zlar mavzu tartibida joylashtirilgan va ular o'rtasida semantik (jins-tur, sinonimik va b.) munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'at [2] sifatida ta'riflanadi.

So'ngi yillarda ta'lim tizimiga axborotli yondashuv bo'yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Bu yondashuv nuqtai nazaridan o'qitish tezavrus shakllantirishga qaratilgan axborotli jarayon deb qaraladi [8].

Pedagogikada tezaurus tushunchasi L.T.Turbovich tomonidan tavsiya etilgan o'qitishning axborotli-semantik modelida paydo bo'lgan. Muallif ushbu modelda tezaurusni shaxs xotirasida mujassamlangan va saqlab qolingani tushunchalar, baholash va me'yorlar, shu jumladan, harakatlar sxemasi zaxirasi deb ta'riflaydi. Ushbu modelga muvofiq, shaxsning ongini shakllantirish uning tushunchaviy psixologik tezaurusini shakllantirish bilan ayniylashtiriladi [6].

Tadqiqotlarda ta'lim oluvchilar o'zlashtirish jarayonining talablarini qondirish uchun ta'lim tezaurusini loyihalash tamoyillari taklif qilingan. Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish kontseptual rekursiya va takrorlanishning oldini olish, belgilangan tushunchalar sonini cheklashning oldini olish, kontseptsiyalarni aniqlash, ma'lumotlarni to'ldirish va tartiblashning samarali protseduralari va algoritmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi, tushunchalar kiritilishi mumkin bo'lgan boshlang'ich pozitsiyasini topishga imkon beradi. Bu fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirish zaruratini ifodalaydi.

O'zlashtirilgan axborotlarni barcha hayotiy faoliyatlar davomida qo'llay olishda albatta tayanch tushunchalar, ma'lumot, faktlar, tavsiflarga tayaniladi. Tushunchalar bilishning elementar ob'ekti bo'lib, subyekt va obyekt xususiyatlarining o'ziga xos kombinatsiyasini ifodalaydi. Ma'lum bir tushuncha turli fan doirasida ba'zan turli kontekstda o'rganiladi shuningdek, bir xil tushunchalar boshqa kontekstlarda va kundalik tilda mavjud bo'lgan ma'nodan chetga chiqishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ma'nolarni berishiga ahamiyat qaratiladi.

Ta'lim oluvchilar (o'quvchilar, talabalar) o'rganadigan fanlar soni va undagi ma'lumotlar hajmi ortishi bilan ma'lum va noma'lum tushunchalar muvozanati asta-sekin o'zgaradi.

Adabiyotlarda shaxsning bilim darajasi shaxsiy tezaurus orqali baholanishi mumkinligi ta'kidlanadi [1].

Fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirishda pedagogik tezaurus tushunchasi ko'rib chiqiladi.

A.A.Miroshnichenko [7] pedagogik tezaurusni tuzish texnologiyasi doirasida ish olib borib, pedagogikada tezaurusni ikki guruxga: shaxsiy tezaurus va o'quv tezaurusga ajratib o'rganishning maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xar bir shaxs ma'lum bir tezaurusga ega, u butun hayoti davomida ichki va tashki omillar ta'siri ostida shakllanadi.

A.A.Miroshnichenkoning [7] fikriga ko'ra o'quv tezaurusi, - bu yangi bilimlarni ochishga yo'naltirilgan, barcha ko'nikmalarni, barcha operatsiyalarni o'z ichiga olgan faoliyat vositasi, bu talim oluvchiga o'z faoliyatini tashkil qilishga, tuzatishga, tartibga solishga yordam beruvchi vosita, bu talim oluvchini eng kam kuch va vaqt sarflash bilan belgilangan natijalarga eltuvchi vosita. O'quv tezaurusi, avvalo deskriptorlarni — tayanch tushunchalar va berilgan tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi [4].

Demak, A.A.Miroshnichenko fikrini va ta'limga faoliyatli yondashuvni [7] e'tiborga olsak, o'quv tezaurusining mazmuniga o'quv fanining tayanch tushunchalari — deskriptorlar bilan bir katorda o'quv faoliyat usullari (umum o'quv faoliyat usullari, ma'lum bir fan bo'yicha umum faoliyat usullari, ma'lum bir fanning alohida bo'limlariga xos faoliyat usullari asosiy masalalarni yechish bo'yicha xususiy faoliyat usullari), xar bir mavzu buyicha asosiy masalalar tizimiva bu masalalarni yechish buyicha faoliyat usullari kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

P.Pushkareva [10] o'quv fani tezaurusini tuzish bo'yicha taqqoslamali-tezaurusli metodni taklif qilgan. Bu metodning mohiyati quyidagidan iborat: dastlab fanlarni o'qitishda foydalaniladigan adabiyotlar saralanadi va bu adabiyotlardan foydalanib, tayanch suzlar va iboralar ajratiladi xamda deskriptorlar ro'yxati shakllantiriladi. Keyin esa bu ro'yxat DTS talablari bilan taqqoslanadi, har bir integrativ fanlarni o'qitish nuqtai nazardan tuzilgan deskriptorlar taxdil qilinadi va zarur bo'lsa, tuzatishlar kiritiladi, talim oluvchilarda shakllantirilishi zarur bo'lgan umummadaniy va umumkasbiy kompetensiyalarga mos deskriptorlar saralanadi.

Mavzu doirasida ishlab chiqilgan tezaurus talaba qanday tushuncha va xususiyatlarni bilishi kerakligi, u qanday asosiy masalalarni hal qila olishi, ushbu asosiy masalalarni hal qilish uchun faoliyat usullarini tasvirlashga yordam beradi [5].

Mavzu doirasida tezaurus ishlab chiqish o'qituvchilarning o'quv ma'lumotlarining tuzilishi va ularni tanlash bo'yicha tayyorgarligiga bog'liq. Belgilangan ta'lim ma'lumotlarini ishlab chiqish va taqdim etish uchun o'quv tezaurusi taklif etiladi. O'quv tezaurusi ko'plab ta'liy elementlarni va ular orasidagi aloqalarni ifodalaydi.

O'quv tezaurusini shakllantirishda o'qituvchi o'quv fanining mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablarni (Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlar va boshqalar), ta'limni differentsiallashtirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini hisobga olishi kerak. Natijada, ta'lim tezaurusi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Birinchi, invariant tezaurus, uning mazmuni barcha talabalar uchun yagona talablar bilan belgilanadi. Ikkinchi, o'zgaruvchan tezaurus o'qitishning differentsiallanish yo'nalishlariga muvofiq invariant tezaurusni to'ldiradi. Uchinchi, adaptiv tezaurus birinchi ikki komponentni ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlariga moslashishini ta'minlaydi. Invariant va o'zgaruvchan tezaurusning mazmuni ko'p jihatdan berilgan ta'lim ma'lumotlari bilan belgilanadi [7].

O'quv tezaurusining asosi o'zgaruvchan tezaurusdir. O'zgaruvchan tezaurusni shakllantirishda o'qituvchi harakatlarining subyektivligi butun ta'lim tezaurusining buzilishiga olib keladi. O'qituvchining kasbiy faoliyati asosida adaptiv tezauriyani shakllantirishga tayyorgarligi rivojlanib boradi. O'quv tezaurusini ishlab chiqishda o'qituvchi o'zgarmas va o'zgaruvchan tezauriyalarning mazmuni, ularning ta'lim oluvchilar shaxsiy tezaurisi bilan optimal munosabati haqida ma'lumotlarni bilishi kerak. Ya'ni, o'qituvchi ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlariga va ta'lim ehtiyojlariga moslashtiriladigan ta'lim elementlarining tuzilmalari haqida o'quv ma'lumotlariga ega bo'lishi kerak [7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, fanlarning ta'lim oluvchilar kompetentligini rivojlantirishga asoslangan o'quv tezaurusini shakllantirishda,

soha bo'yicha tushunchalarni ta'lim berish maqsadlari nuqtayi nazaridan ko'ri chiqish;

tushunchalarni tartibga solishning mavjud tamoyillari aniqlash;

ommabop tezaurilar rekursiyadan himoyalanganligini hisobga olish;

tezaurusni to'ldirish va tartiblash usullari ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, fanlarning o'quv tezaurusini shakllantirishda:

1. Tushunchalar ularning qismlari orqali aniqlanadi (masalan, aylana – hamma nuqtalari markazdan baravar uzoqlikda bo'lgan yopiq egri chiziq; kub – hamma tomoni teng kvadratdan iborat olti yoqli geometrik shakl). Bunda, o'quvchi (talaba) tushunchani uning qismlarini tushunmaguncha taniy olmaydi.

2. Tushunchani unga qarama-qarshi ma'noli tushuncha bilan asoslash (taqqoslash, ifodalash, aniqlashtirish). Bunda, tushuncha haqidagi kontseptsiyani tushunish uchun foydalanuvchi qarama-qarshi tushunchani bilishi (anglashi, tan olishi) kerak.

3. Ma'lum tushuncha haqidagi turli izohlar (ta'riflar, konsepsiyalar) orasidan adekvat (адекват (лот. *adaequatus* — тенглашган, мос, айнан бир, ўхшаш) — билиш назариясида нарса ва ҳодисаларнинг хоссалари ва алоқаларини уларнинг объектив мазмунига тўғри келадиган, аниқ ва мос қилиб олиш. Инсон онги объектив борлиқни ижтимоий амалиёт асосида адекват акс эттира боради [3] ) bo'lgan izohlar (ta'riflar, konsepsiyalar) ni aniqlash (asoslash, ko'rib chiqish).

4. Ba'zan tushunchalar qayta izohlash (ta'riflash, to'ldirish) qo'llab-quvvatlamaydi. Ularning ta'riflari mutlaqdir va ularni ta'lim oluvchining bilim darajasiga moslashtirib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aitchison J. and Gilchrist A., *Thesaurus Construction and Use: A Practical Manual*, London: Aslib, 1997, 212 p.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2006-2008-yil. [www.ziyounet.com](http://www.ziyounet.com)

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2000 y. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

4. Turg'unbojev R.M. Matematik analiz fanining o'quv tezaurusini shakllantirish va uning ahamiyati. Mug'allim hem uzluksiz bilimlendirio'. Ilmiy-metodikaliq jurnal. №2. 2012. 127-132-b.
5. Turgunbaev R.M. Thesaurus approach: on the formation of mathematical competence and competence of future engineers. Current research journal of pedagogics 2(7): 26-33, July 2021. DOI: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-07-07>. ISSN 2767-3278. 26-33-b.
6. Кожокаръ О.П. Тематический тезаурус как средство развития понятийного мышления в процессе подготовки будущих учителей. //Вестник Сургутского педагогического университета. 2009. №2. С. 95-99.
7. Мирошниченко А.А., Мирошниченко И.Л. Тезаурус как модель задаваемой учебной информации. Международный научно-исследовательский журнал. Екатеринбург – 2016. № 12 (54). Часть 4. Декабрь. 56-58-b. DOI: 10.18454/IRJ.2016.54.236
8. Пак Н.И. О концепции информационного подхода в обучении // Вестник КГПУ им. В.П.Астафьева. 2011. № 1. С. 91-98.
9. Пушкарева Т.П. Формирование интегрированного тезауруса как результат обучения математике//Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В.П. Астафьева 2012, №2.С.132-137
10. Пушкарева Т.П. Особенности обучения математиков условиях информационного общества// Приволжский научный вестник. № 3 (7) – 2012

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR

Mardankulov Jasur Amirddinovich,

Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodiikalarga o'rgatish milliy markazi, p.f.f.d., (PhD).

**Annotatsiya.** Ta'lim muassasalari pedagoglari innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari, samarali shakl, metod va vositalari, kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarni samarali, maqsadli qo'llash malakalari, ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribalarini boyitadi. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion xarakter, sub'ektiv yangilik, mahalliy yangilik, shartli yangilik, gnostik-dinamik, individual faoliyatli, ko'p sub'ektli, insonparvarlik, individual-ijodiy.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Марданкулов Жасур Амирддинович,

Джизакский областной национальный центр подготовки педагогов по новым методикам, п.ф.ф.д., (Phd).

**Аннотация.** Педагоги образовательных учреждений обогащают свой опыт сущности, теоретических основ, эффективных форм, методов и инструментов инновационных образовательных технологий, навыков эффективного и целенаправленного применения педагогических технологий в профессиональной деятельности, рационального проектирования образовательного процесса. Также важно обеспечить активность студентов в учебном процессе, повысить качество образования, повысить эффективность.

**Ключевые слова:** инновация, инновационный характер, субъективная инновация, локальная инновация, условная инновация, гностико-динамическая, индивидуальная деятельность, многопредметная, гуманитарная, индивидуально-творческая.

## INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM

**Mardankulov Jasur Amirddinovich,**

Jizzakh region national center for training pedagogues in new methods, p.f.f.d., (PhD)

**Annotation.** Pedagogues of educational institutions enrich their experience of the essence, theoretical foundations, effective forms, methods and tools of innovative educational technologies, the skills of effective and purposeful application of pedagogical technologies in professional activities, and the rational design of the educational process. It is also important to ensure students' activities in the teaching process, improve the quality of education, and increase efficiency.

**Key words:** innovation, innovative character, subjective innovation, local innovation, conditional innovation, gnostic-dynamic, individual activity, multi-subject, humanitarian, individual-creative.

Ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan[1].

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni, mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflashga, shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi[2].

Ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondashuvlar kuzatilai. Ular: gnostik-dinamik, individual faoliyatli, ko'p sub'ektli (dialogik), insonparvarlik, individual-ijodiy.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.



Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi: yangilikni qo'llashga tayyorgarligi, pedagogik yangiliklarni qabul qilish, novatorlik darajasi, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi va ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma va malakani egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Pedagogik innovatsion faoliyat quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi: ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish, pedagogik tadqiqot metodlarini egallash, mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati, tajriba – sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish, o'zidan boshqa tadqiqotchi – pedagoglar tajribalarini qo'llay olish, hamkasblar bilan hamkorlik, fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik, ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish, yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib boorish[3].

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o'zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlar: yangi g'oyaning tug'ilishi yoki yangilik mohiyatini yorituvchi konsepsiyaning ishlab chiqilishi bosqichi, yangi g'oyaga tayangan holda yangilikning asoslanishi, asoslangan yangilikning amaliyotda qo'llanishi, yangilikning yoyilishi va keng ko'lamda amaliyotga tadbiiq etilishi, yangilikning tegishli sohada hukmronlik qilishi, muqobillik, almashtirish orqali sohada yangilikni qo'llash doirasini qisqartirish.

Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi.

Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishida pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi.

Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish unda yangilikni amaliyotga tadbiiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi. Mazkur talqinqa ko'ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega: faoliyat tuzilmasi, sub'ektiv tuzilma, darajali tuzilma, g'oyaviy tuzilma, davriylik tuzilmasi, boshqaruv tuzilmasi, tashkiliy tuzilma.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo'ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to'rtta qonuniyat xarakterli sanaladi:

Keskin beqarorlik qonuniyati – pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar o'zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e'tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati – yangilikning hayotiyiligini ifodalaydi, unga ko'ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o'ta tezkor yoki tezkor ravishda amaliyotga tatbiiq etiladi.

Qoliplashtirish(stereotiplashtirish) qonuniyati – aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiiq etish yo'lida faollik ko'rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g'oyalar yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirishsh yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z

mohiyatiga ko‘ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalarining o‘zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya’ni:

- tayyor metodik tavsiyanoma yoki mavjud innovatsiyalardan foydalaniladi;
- mavjud tizimga yangi g‘oyalarni, metodlarni kiritadi;
- yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi;
- pedagog o‘qitish va tarbiyalashga oid o‘z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi[4].

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro‘y beradi.

**Keys bayoni.** Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko‘rinishi bo‘lib, u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.

**Keys topshirig‘i:** ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish yo‘lida amalga oshiriladigan vazifalarni bosqichlar bo‘yicha belgilang:

<b>Bosqichlar</b>	<b>Vazifalar</b>
1-bosqich	talabalar faoliyatini nazorat qilish;
2-bosqich	talabalar faoliyatini tashxislash;
3-bosqich	loyihani yaratish;
4-bosqich	pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash;
5-bosqich	pedagogik jarayonni tashkil etish

**Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:**

**O‘qituvchining yechimi:**

**1. Keys bayoni.** Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Har bir turga oid ta’lim innovatsiyalari ham bir necha guruhlarga bo‘linadi.

**Keys topshirig‘i:** berilgan ta’lim innovatsiyalarini tegishli turlar bo‘yicha belgilang.

**Ta’lim innovatsiyalari:**

1. Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan innovatsiyalar;
2. O‘zlashtirilgan innovatsiyalar;
3. Modifikasiyalangan innovatsiyalar;
4. Ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar;
5. Modul innovatsiyalari;
6. Radikal innovatsiyalar;
7. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
8. Kombinasiyalangan innovatsiyalar;
9. Tarmoq (lokal) innovatsiyalari;
10. Tizim innovatsiyalari.

Ta’lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta’lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Ta’lim muassasalari pedagoglari innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari, samarali shakl, metod va vositalari, kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarni samarali, maqsadli qo‘llash malakalariga ega bo‘ladi, ta’lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga

doir tajribalarini boyitadi. Shuningdek, o'qitish jarayonida o'quvchilarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar/ Darslik – T.: O'qituvchi nashriyoti, 2004.
3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metedik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
4. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari/ O'quv qo'llanma – T.: 2006. – 260 b.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTEGRATSIYAGA OID FANNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA MASALALARI**

**Nigora Kenjaboyeva**

**Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dotsenti, (PhD)**

**Annotatsiya.** Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, Milliy o'quv dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda, pedogogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot komminikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

**Kalit so'zlar.** Didaktik o'yinlar, dunyoqarash, zehn, o'quv faoliyati, mashg'ulot, aqliy faoliyat, pedagogik texnologiya.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, O'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarini tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u

Haqiqatdan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Shuning uchun ham ta'lim ishiga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'lim ishiga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barcha- sini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'r-ganish kabi zarur yumushlari ko'p.

Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, O'qish dan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z- o'zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

O'qish darslarida bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin. O'qish darslarini tashkil etishning qanday hollarida suhbat usuli qo'llaniladi. Uni qo'yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim? Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O'quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo'lsa o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evritsik izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi.

Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

-mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi O'quvchilarga aniq tushuntirilgan borishi;

-mashq ustidan sinf o'quvchilar jamoasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;

-topshiriq butun sinf o'quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo'lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o'quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o'quvchining zerikmasligini, zo'riqmasligini ta'kidlagan.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, multimedia, kodaskop, filmoskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.

3. Matnni nima maqsadda O'qish ingliz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang.

4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.

5. Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang.

6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydala nishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

O'quvchilarda estetik rivojlanish va O'qish madaniyatini shakllanishida ifodali O'qish jarayonidagi emotsional idrok katta ahamiyatga ega. Shuningdek, O'qish texnikasiga ham e'tibor qaratish zarur.

Matnni qayta hikoyalashda shu rejadan foydalanish mumkinligini tekshiring.

Hikoyaning rejasini tuzish

1. Hikoyaning hammasini o'qing. Uning qismlarini belgilang. Boshlanishi va tugashini qalam bilan belgilang. Hikoyani qanday qismlarga bo'ldingiz?

2. Birinchi qismni o'qing, undagi bosh g'oyani qalam bilan belgilang va shu qismga sarlavha qo'ying.

3. Shunday yo'l bilan boshqa qismlarga ham sarlav'a qo'yishga harakat qiling. Rejani yozing. O'qing. O'ylang. Reja muhim tomonlarni o'z ichiga olganiga, asosiy tomonlar qolib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.

Qisqacha qayta hikoyalashni tuzish

1. Hikoya rejasini tuzing. Rejaning birinchi punkti va birinchi qismdan uncha muhim bo'lmagan, faqat bosh g'oyani to'ldirishga xizmat qiladigan 23 ta gaplarni ajrating. Matnni shu gaplarsiz o'qing.

2. Boshqa qismlar bilan ham xuddi shu ishni takrorlang.

3. Rejaga qarab hikoyani qisqacha hikoya qiling.

4. Hikoyaning asosiy qismini e'tibordan chetda qoldirmasdan yanada qisqaroq aytish imkoniyatlarini qidiring.

O'quvchilar bilimini hisobga olish va tekshirishning zamonaviy shakli bo'lgan matnlardan keng foydalanish, o'quvchi rivojlanishini hisobga olib, aniq maqsad asosida guruhda

ishlash muvofaqqiyatliroq, Bunday ish turining afzalligi shundaki, o'qituvchi darsga tayyorlanishda aniq maqsadga ega bo'ladi va ishi ancha engillashadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // J. Xalq ta'limi. – 2001. - №1. – 34-37-betlar.
2. Nishonaliev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar // J. Xalq ta'limi. 1999. - №6.- 28-31 b
3. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi. – Ma'rifat, 1999-y. 17-mart. № 9. 5-bet.
4. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati.// “Xalq ta'limi”, 1999-y, 1-son, 100-bet.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya asoslari // “Maktab va hayot” jurnaliga ilova. – T.: O'zPFITI, 2003-y. – 32 b.

### **САМОСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГОВ КАК ФАКТОР И ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ**

Аннаева Лола Расуловна-старший преподаватель Национального центра обучения новым методикам педагогов Кашкадарьинской области  
+99891 214 88 81

**Аннотация.** Статья посвящена проблеме мотивации педагогов к непрерывному профессиональному совершенствованию. Показана взаимосвязь мотивации и качества образования. Представлены направления происходящих изменений в системе повышения квалификации педагогических кадров, организации методической работы, системе оценивания педагогического труда, способствующих реализации личностного потенциала педагогов, его стремлению к самосовершенствованию как главному фактору достижения качественных результатов.

**Ключевые слова:** самосовершенствование, мотивация, качество образования, повышение квалификации

**Аннотация.**Мақола о'qituvchilarni doimiy ravishda malakasini oshirishga rag'batlantirish muammosiga bag'ishlangan. Motivatsiya va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimi, uslubiy ishlarni tashkil etish, pedagogik mehnatni baholash tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning yo'nalishlari o'qituvchilarning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga, ularning o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi asosiy omil sifatida belgilandi. sifatli natijalarga erishishda taqdim etiladi.

**Калит so'zlar:** o'z-o'zini takomillashtirish, motivatsiya, ta'lim sifati, malaka oshirish

**Annotation.** The article is devoted to the problem of motivating teachers for continuous professional improvement. The relationship between motivation and quality of education is shown. The directions of ongoing changes in the system of advanced training of teaching staff, the organization of methodological work, the system of assessing teaching work, which contribute to the realization of the personal potential of teachers, their desire for self-improvement as the main factor in achieving quality results are presented.

**Key words:** self-improvement, motivation, quality of education, advanced training

Повышение профессионального уровня педагогов и формирование педагогического корпуса, соответствующего запросам современной жизни и этапу модернизации образования, бесспорно, является необходимым условием реализации целей и задач Государственной политики Республики Узбекистан в системе образования.

Согласно Указа Президента Республики Узбекистан № УП-134 «Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 – 2026 годах»



Государство обращает огромное внимание на повышение авторитета профессии учителя и качественного состава педагогов, а также формирование знаний и навыков учащихся школ, их воспитание в духе преданности национальным и общечеловеческим ценностям.

Предпринимаемые процессы по улучшению качества образования отражаются в Постановлении Президента Республики Узбекистан за № ПП-5712 «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030г», где особое внимание уделяется совершенствованию методики обучения, поэтапному внедрению принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса и внедрению современных международных систем оценивания и инновационных проектов в сферу народного образования, являющиеся приоритетными направлениями.

Инновационный характер перемен привнес коррективы в перечень профессиональных компетенций педагога (способность самостоятельно приобретать новые знания и умения, управлять проектами, разрабатывать учебно-методические материалы и др.).

Перед учителем сегодня стоят задачи повышенной сложности. Нужно не только много знать по своему предмету, но и постоянно пополнять знания. Нужно не только прекрасно владеть методикой преподавания, но и непрерывно её совершенствовать. Нужно быть готовым к любым вызовам времени, к решению принципиально новых задач по формированию и развитию функциональной грамотности школьников. Успех в этом деле зависит от наличия фундаментальных качеств личности каждого педагога, его стремления к рефлексии, саморазвитию, его мотивов и стремлений к постоянному самосовершенствованию. А значит должна быть изначально определена не только цель, но и система моральных и материальных стимулов.

В контексте происходящих изменений целью системы повышения квалификации становится создание организационных и содержательных условий для достижения высокого уровня квалификации педагога как профессионала, мотивированного на личностный рост, изменение и развитие себя в ходе профессиональной деятельности.

Стратегия обновления системы повышения квалификации сфокусирована как на повышение качества курсовой подготовки, так и на развитие потребности работников образования в профессиональном росте. По мнению канадского ученого Майкла Фуллана – «Внутренняя мотивация, улучшение преподавания, командная работа и всеобщий охват – решающие условия успешности целостной реформы. Причины неудач реформирования многих систем – в игнорировании этих принципов».

В науке под системой мотивации профессионального роста педагогов понимается совокупность связанных между собой элементов, упорядочивающих процесс формирования устойчивых мотивов по достижению личностно значимых целей в профессиональной деятельности. Оптимизация системы мотивации профессионального роста педагогов может быть достигнута путем реализации комплекса мер, побуждающих развитие мотивов профессионального роста у педагогов. Мотивации и мотивам посвящено большое количество монографий (В.Г. Асеев, В.К. Вилюнас, В.И. Ковалев, А.Н. Леонтьев, М.Ш. Магомед Эминов, П.В. Симонов, А.А. Файзуллаев, Дж. Атkinson, Г. Холл, К. Мадсен, А.Маслоу, Х.Хекхаузен и др.). Пирамида потребностей А.Маслоу позволяет понять, что потребности в уважении, самоуважении, признании со стороны других, в претворении в жизнь своего личностного потенциала – это есть потребности роста. Нужны соответствующие условия.

Создание условий для личностного роста и творческой самореализации педагогов, обеспечивающих переживание успеха и формирующих стремление к саморазвитию, а также черты зрелой личности, происходит через организацию командного взаимодействия в контексте формирования единого ценностно-смыслового пространства. Не случайно в числе приоритетов модернизации системы повышения квалификации – развитие социального и профессионального партнерства, проектной культуры педагогов, научно-методического сопровождения экспериментальной деятельности, формирование

профессиональных педагогических сообществ. В перечень новых направлений деятельности центров повышения квалификации прочно вошли дистанционное обучение, вебинары, онлайн консультации и др. Такие формы расцениваются как своеобразный механизм «гибкого реагирования» на запросы методического и технологического характера.

Согласно Постановления Президента Республики Узбекистан от 21 января 2021 года № ПП- 4963 «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности и внедрению системы непрерывного профессионального развития в сфере народного образования» срок и форма обучения на курсах повышения квалификации изменились, появилась возможность выбора формы обучения, педагоги работают под девизом «Обучение на протяжении всей жизни» (LLL). Это важный фактор, способствующий неустанной работе педагога над собой, повышением своего профессионального уровня.

Диагностика мотивов обучения, удовлетворенности курсами становится важной составляющей частью мониторинга оценки эффективности курсовой подготовки. Многолетний опыт работы и анализ ответов слушателей позволяет сделать вывод о том, что большая часть из них хотят лучше разобраться в проблемах модернизации образования, получить информацию об обновленном содержании учебного предмета, международном опыте организации процесса обучения. И тот факт, что практически все слушатели считают наиболее удобными формами повышения квалификации как в онлайн формате, так и обучение в Центрах повышения квалификации, это, конечно же, накладывает особую меру ответственности за эффективность деятельности этой системы. Индикатором творческой активности в послекурсовой период является желание педагогов поделиться своими впечатлениями о курсах с коллегами и представить им новые знания, идеи, подходы. Примечательно, что на вопрос «Вы поделились новыми идеями, собственными впечатлениями о курсах на педагогическом совете, заседании методического объединения?» большинство педагогов отвечают утвердительно. Практически каждым вторым слушателем проводятся мастер-классы на уровне школы, каждым пятым – на уровне района или области, такие же показатели отмечаются и по выступлениям на конференциях и семинарах.

Представление учителя о степени успешности собственной профессиональной деятельности, мотивирующее его включение в систему непрерывного повышения своего профессионального роста, есть результат взаимодействия многих слагаемых, которые отражают взаимодействие учителя с социумом в целом и его конкретными представителями.

Существенными стимулами повышения квалификации является также аттестация учителей, повышение заработной платы. Следует помнить, что мотивация обучения достаточно подвижна. Чем разнообразнее стимулы мотивации, тем динамичнее происходит проявление ориентации учителей на повышение квалификации, а значит и больше ожиданий и реальных возможностей от качества предоставляемых ими образовательных услуг. Акцент на мотивацию саморазвития и самообучения педагогов обеспечивает правильный фокус и ориентир в разработке новых подходов к системе непрерывного повышения квалификации, в том числе и на уровне любой организации образования. Система внутришкольной методической работы должна быть способна соответствовать вызовам времени в готовности к созданию и реализации новых подходов, стимулирующих профессиональное развитие педагогов с учетом современных требований. Приоритет в методической работе сегодня должен быть отдан формам, ориентированным на активизацию самостоятельной профессиональной деятельности педагогического работника, обеспечивающей его профессиональное самовыражение, анализ достоинств и недостатков собственной профессиональной деятельности, а также и коллег. Главное – научить педагога использовать свои профессиональные и личностные резервы.

Опыт, полученный в процессе повышения квалификации, предназначен для применения в школьной практике. Именно соблюдение данного подхода и есть основа для мотивации профессионального развития педагога. Главными условиями, обеспечивающими эффект мотивации к самосовершенствованию, являются: ориентация на участников, на проблемы значимые для школы и для конкретных учителей, на развитие представлений о желательных преобразованиях в школе, о том, какой школа будет в будущем. Полученный в процессе повышения квалификации опыт должен иметь практическую значимость и быть применим в школьной практике. Должна быть мотивация на наиболее эффективное выполнение задач школы. И если мечта об успехе превращается в конкретные дела, то успех придет обязательно как единственно возможный результат корпоративной зрелости коллектива. Обновление системы не должно стать формальным действием, а отвечать действительным потребностям коллектива, желающего достичь более высоких результатов в своей педагогической деятельности. Активность личности в таком обучении обеспечивается за счет совместной деятельности и общения, проблемности, связи теории и практики.

Стимулированию мотивации к непрерывному профессиональному развитию педагога способствуют и происходящие изменения в оценке его деятельности, смещение акцентов с позиции контроля на оказание помощи.

#### Литература

1. Указ Президента № УП-134 «Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 – 2026 годах».
2. Постановление Президента № ПП-5712 «Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030г.»
3. Фуллан, М. Выбор ложных движущих сил для реформы целостной системы [Текст]/М. Фуллан, //Вопросы образования. – 2011. №4.
4. Жайтапова, А.А. Моделирование и мониторинг профессионального роста учителей в системе повышения квалификации [Текст/ А.А. Жайтапова. Алматы РИПК СО. 2006, С.3536.
5. Баймолдаев, Т.М. Педагогический менеджмент и управление развитием образования [Текст] /Т.М. Баймолдаев, В.И. Безруков, И.А. Носков, Н.А. Соловова. – - Самара., 2007.С. – 294297.
6. Теория и технология образования. Вестник «Өрлеу»-kst 2(8)/2015

## TECHNIQUES FOR DEVELOPING LIFE SKILLS IN STUDENTS

Oqboyeva Zulfiya Bobonazarovna  
Senior teacher in KRNCTENM

Life skills help prepare children to direct various tasks they will come across at different stages of life and allow them to lead healthy and happy lives. Start introducing young children to new areas of learning from a young age to ensure that they will have acquired the necessary skills to successfully cope. Life Skills are the skills which are required by one to adapt to rapidly changing environment, both social and physical. These are skills which equip individuals to deal effectively with lead them to success and accomplishment. In this article the importance of life skills has been discussed and some techniques are suggested to develop the life skills among secondary school students.

Following are some techniques to enhance life skills in students:

**Debates:** Debate is a form of discussion. In this technique, the topic chosen for the discussion is controversial in nature. It is a group technique and the students of a class are divided into two group. It allows the students to defend a position (favour or against). Debate is a useful technique to help students in practising and learning different life skills.

**Riddles and Puzzles:** A riddle is a type of statement, question or phrase, whose purpose is to make the person think. A puzzle on the other hand, is a type of game, problem, or toy, the purpose of which is to test a person's logical reasoning. These techniques enable students to assess outcomes, compare ideas, synthesise information and draw conclusion from a given piece of knowledge. Riddles and puzzles serve both the purposes of entertainment and development of core life skills needed for leading a happy life.

**Seminar:** Seminar is also a group technique in which students are given a theme or topic for discussion. It is a technique, which uses scientific approach for the analysis of a problem chosen for the seminar. The seminar may be organised in a variety of ways depending upon its objective and the resources available. Seminar is a useful technique for promoting life skills like critical thinking, synthesis and evaluation, effective communication and collaboration, and inter-personal relationship among students.

**Quiz:** A quiz is a kind of brain teaser. It is benefit of questions which can be used for assessing students on different domains. It is a helpful technique to arouse interest in students to learn more effectively and make improvements subsequently. Quiz can be organised at different levels and for different purposes. In the area of life skills, the quiz technique can be used to enhance students' social efficiency, intellectual abilities, and emotional maturity. It can be used to help students learn and practise the social skills and thinking skills.

**Brain Storming:** "Brain storming is an approach to increase creativity and openness for problem-solving" (David,2008). Brain storming is based on the assumption that when the students are provided an opportunity to interact in a free environment, they are able to generate more creative ideas. The ideas generated by one person stimulate others thinking process. The exchange of ideas creates a situation of discussion and spontaneous thinking.

**Story Telling:** A story is told or read by students or teachers by using pictures, books, comics, slides, etc. Story telling is an art and this technique is a skilful teaching process. It develops the power of imagination among the students. Stories are motivating and can help develop positive attitudes. It enhances students' communication skills and listening skills.it helps students developing moral values, social values and cultural values.

**Role-playing:** It provides an excellent opportunity for developing various life skills, especially empathy as in role-playing students has to play the role of another person. A student learns how one might handle a potential situation in real life. This helps in increasing insight into one's feelings.

**Buzz Group:** Students during this activity are divided into small groups of five or six members and they have to carry out a task. By doing so, students know each other better and learn to help their peers.

**Games:** Games promote active learning, decision- making, discussion, and fun. It promptly competition among participants as they work hard to prove their talents. It enables students to use their knowledge, attitude, and skills.

**Situation Analysis:** During situation analysis, students are allowed to explore problems and safely test solutions. It provides opportunities to work hard, share feelings and develop critical thinking.

Other important methods to facilitate life skills learning include peer-supported learning, practical community development projects, and audio-visual activities i.e., music, dance, and theatre.

Remember, every life skill you teach today is a stepping-stone to a brighter, more spirited future for every child. These skills not only prepare them for real- world challenges but also foster confidence, responsibility, and independence. Each skill plays an essential role in shaping a well- rounded individual.

#### References

1. Mahajan G, (2022). *Life Skills Education*. Shipra Publication. Rajiv Gandhi National Institute of Youth Development.

2. David Brown, (2008). A program for life skills training through interdisciplinary group processes. Cambridge University Press.

3. McKay, P., & Guse, J. (2007). *Five Minute Activities for Young Learners* (Cambridge handbooks for language teachers). Cambridge: Cambridge University Press.

## **YOSHLARDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSION TA'LIMNING ROLI**

**Haydarov Yuldash Hazratovich,**

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasini mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Maqolada fanlararo integratsiyaning o'quvchilarda XXI-asr ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Darslarda integratsion yondashuv bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan. O'quvchilarni fanlararo integratsiyadan foydalanib kreativ fikrlashga o'rgatishga oid yorqin misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** XXI- asr ko'nikmalari, integratsiya, psixologiya, xotira, tahlil, ta'lim, tarbiya, motivatsiya, sezgi, hissiyot, tuyg'u, ong, kreativ fikrlash, dunyoqarash.

Yangi O'zbekistonda yosh avlodni XXI-asr ko'nikmalari asosida tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshlang'ich sinflardan boshlab rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb vazifasiga aylandi. Shu boisdan ham muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish..." [1.21-b]. da fanlararo integratsiyadan foydalanish ham ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ustuvor vazifani to'la-to'kis bajarish uchun Yurtboshimiz yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishganlarining sarchashmalaridayoq, 2016- yil 30-dekabrda mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvda yurtimiz ziyolilarini ilm-fan yutuqlari sohasida erishilgan natijalarni Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilishga qaratishni ta'kidladilar. Nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tadbiiq etish va mamlakatimizni yanada taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun intellektual salohiyatdan unumli foydalanishga chaqirdilar va "Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq" [2.168-b]. ligini ta'kidlab o'tdilar.

Bu borada fanlararo integratsiya ham muhim rol o'ynaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi fanlarni boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiyada o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Tarixiy tadqiqotlar jarayonida tarixiy voqea-hodisalarning inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganishga e'tibor beriladimi?" – degan savol ham berilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida bunday holatlarning ilk tarixiy asarlarda ham kam bo'lsada uchrashini aytib o'tmoqchimiz.

Tarixiy tadqiqotlarda va tarixiy voqea-hodisalar mazmun-mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirishda psixologiyani qo'llanilishi ommaviy harakatlar, inqiloblar, xalqaro munosabatlar, harbiy to'qnashuvlar va boshqa shu kabi tarixiy jarayonlarning ichki ruhiy holati haqida ham to'laroq tasavvur hosil qilishiga yordam beradi hamda tadqiqot va o'quv jarayonlariga kreativ yondashuvlar imkoniyatini yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida ijtimoiy voqea-hodisalarning kelib chiqish sabablari, insoniyat jamiyati hayotiga ta'siri masalalarini tushuntirishda psixologiya kategoriyalari (xotira, idrok, tasavvur, diqqat) dan unumli foydalanib, o'quvchilarning kreativ fikrlashiga imkoniyat yaratiladi.

XIX asrda psixologiya fanida insonni ong boshqaradi, degan tushuncha mavjud edi. Bugungi kunga kelib insonni xotira boshqarishi birlamchi ahamiyat kasb etayotganligi fanimizga ayon bo'lib bormoqda. Xotira esa motivatsiya, hissiyot va tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi.

Buning yorqin misoli boshlang'ich sinflarda ijtimoiy voqea-hodisalar haqida ma'lumot berish jarayonida o'quvchilar ongida "xotira urushlari" paydo bo'lishidir. Bosqinchilik urushlari, davlatlar o'rtasidagi ayrim to'qnashuvlarning sabab va oqibatlari haqida tahliliy ma'lumotlar berilmasa, o'quvchilar yosh xususiyatlariga mos bilim va ko'nikmalarni egallamasalar, ularning ongida ayrim salbiy tushunchalar ("xotira urushlari") paydo bo'lishi mumkin. Bunday holatning yuzaga kelmasligi uchun psixologiya fani kategoriyalaridan unumli foydalanish zarur bo'ladi. Masalan, "Tarbiya" darslarida ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish jarayonida qiyosiy tahlillardan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashiga keng yo'l ochadi. Turli davlatlarning "milliy" tarixi boshqa davlatning "milliy" tarixiga mos kelmasligi mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari o'quvchilar ongi va qalbida "xotira urushlari" kelib chiqishining oldini olish uchun o'z bayonlarida o'quvchi-yoshlarning sezgilariga kuchli ta'sir etadigan, ularda his-hayajon uyg'otadigan masalalarni psixologiya fanining imkoniyatlaridan foydalanib, ularning xotirasiga moslashtirgan holda bayon qilishlari lozim. Eng muhimi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi lozim. "Ulug'imsan vatanim!", "Baxt oiladan boshlanadi" kabi mavzularni o'tish o'quvchi-yoshlar ongi va qalbida vatanga, yurt taqdiriga daxldorlik hislarini kuchaytirish bilan birga ularda ona vatan kelajagiga ishonch ruhini kuchaytirishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 9-mayda "Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaning 75-yilligi va "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan tantanali marosimda so'zlagan nutqida O'zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushidagi buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini ko'rsatuvchi ilmiy izlanishlar natijasida topilgan yangi ma'lumotlarni keltirdilar. [3.10-b]. Bu yangi ma'lumotlarni o'rgatar ekansiz, o'quvchilar O'zbekiston xalqining fidoyiligi, frontdagi janglarda ko'rsatgan qahramonligi va oxirgi bir burda nonini ham qardosh xalqlar bilan baham ko'rganligi haqidagi yangi ma'lumotlardan yanada ruhlansalar, tarixda ro'y bergan istilochilik urushlari, fashistlarning insonlarga nisbatan shafqatsiz siyosati ularning ongida nafratlanish tuyg'ularini keltirib chiqaradi. "Tarbiya" fani o'qituvchisi fashizm kirdikorlarida nemis xalqining aybi yo'qligini o'quvchilarga aniq misollar orqali tushuntirib berishi lozim. Ana shundagina o'quvchilarda nemis xalqi urush aybdori emasligi, bu buyuk xalqning o'zbek xalqi bilan doimiy hamkorlikda yashab kelayotganligini tushunib yetadilar. "Tarbiya" fanini o'qitishda Ikkinchi jahon urushida 301 nafar o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganligi haqidagi yangi ma'lumotlar qaerdan paydo bo'lganligi o'quvchilarni qiziqtiradi. 21 nafar (oldingi darsliklarda 280 nafar deyilgan) o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar arxiv hujjatlarini qayta o'rganish, ilmiy izlanishlar olib borish natijasida aniqlanganligi o'quvchilar ongi va qalbiga singdiriladi. Ikkinchi jahon urushi davridagi asirlar, konslagerlarda qiynoqqa solinganlar taqdirini ham o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashiga mos ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiq. Hatto "Ilhaq", "O'zbekiston-101" filmlaridan lavhalar ko'rsatib, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi tomonidan tahliliy, mulohazalarga boy tushunchalar berilishi lozim. Bunda dars o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashlariga yo'naltirilishi yaxshi samara beradi.

Yoshlar ruhiyatida "xotira urushlari" ning kelib chiqishining oldini olishda tarbiya fanining psixologiya fani bilan integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli olimlarimiz R. Ishmuhamedov va M. Yuldashevlar takidlaganidek, hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun, yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak [4.11-b]. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib ilm-fan va ta'limda integratsiya jarayonlarini yanada kuchaytirish mumkin. Shundagina yoshlar ruhiyatida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan "xotira urushlari" ning oldini ola olamiz.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda "Ulug'imsan vatanim!" mavzusiga oid quyidagi savollarga javob topish talab etilishi mumkin:



- ✚ Vatan tushunchasini qanday izohlaysiz?
- ✚ Nega «Ona Vatan» deb ataymiz?
- ✚ «O'zingiz tug'ilgan qishloq vatanimning bir bo'lagi» deganda nimani tushunasiz?

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar dunyoqarashini bugungi zamon talablari darajasida shakllantirishda psixologiya fanining kategoriyalaridan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Yuksak ma'naviyatli va intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, jahon raqobatiga bardosh beradigan va jahon standartlariga mos kadrlarni tayyorlashdek ustuvor vazifa esa tarixiy xotirasi metindek mustahkam insonlarni tarbiyalashni talab etadi. Fanlararo integratsiyadan foydalanish esa ta'lim sifatini hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarishga keng imkoniyat yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Yangi O'zbekiston", 2022- yil 21- dekabr.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, "O'zbekiston", 2017, 168-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev. Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabani 75 yilligi va "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan 2020-yil 9-maydagi tantanali marosimda so'zlangan nutq. "Yangi O'zbekiston", 2020-yil 10-may
4. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar T., 2016, 11 bet

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TABIIY BILIMLARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**

**Yo'ldosheva Hosiyat Madat qizi**

**Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda kompyuter-texnologiyalarning ahamiyati, va ularning afzalliklari haqida so'z boradi. Bugungi kunda fan va texnika innovatsiyalar jadal rivojlanmoqda. Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'zining alohida ekanligi urg'u ostiga olingan.

**Kalit so'zlar:** bilim, ko'nikma, malaka, kompyuter vositalari, proektor, elektron doska, maxsus ilovalar.

Jamiyat taraqqiyotidagi islohotlar zamonaviy texnologiyaga bo'lgan talabni oshirib bormoqda. Uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida moddiy-texnik bazani yaxshilashga e'tibor qaratilayotgani ham shundan. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani, jumladan, "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" borasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun talay ko'rsatmalar ta'kidlab o'tilgan.[1]

Darhaqiqat, har qanday yurt o'z kelajagini bolalar va yoshlarning bugungi tarbiyasiga qarab belgilaydi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan maqsad, ularda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, pedagoglarning o'zlariga ham bu borada yetarli malakaga ega emasligi dolzarb muammo hisoblanadi.[2] Binobarin, uzluksiz ta'limni innovatsion rivojlantirishda zamonaviy yondashuv eng avvalo boshlang'ich ta'lim tizimida o'z aksini topmogi zarur.

Yosh avlodning texnik vositalarga bo'lgan qiziqishi va undan foydalanishi dunyo miqyosida o'sib borayotir. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy texnikadan cheklash orqali emas, ulardan to'g'ri foydalanishiga erishish muammoning yechimini belgilaydi. Bunda pedagog-muallimlar bilan bir qatorda ota-onalarning ham maqsadli munosabatlari muhim

omildir. Aytaylik, hozirda uyali aloqa vositalari, mobil telefonlarsiz hayotini tasavvur etolmaydigan ota-onalar va pedagoglar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular hatto jajji bolalariga ham o'yinchoq, ovunchoq sifatida, ba'zan esa muloqot uchun bu vositalarni farzandlariga olib beradilar. Bolalar ham 3-4 yoshdan boshlab bemaol kompyuter tugmachalari orqali o'zlariga kerakli o'yinlar, rasmlarni topadi, teleko'rsatuvlarga qiziqishi ortadi. [3] Bu tabiiy jarayon tobora jamiyat ehtiyojiga aylanmoqda. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalaridanoq bolalarni zamonaviy texnologiya, texnika vositalaridan o'z intellektual salohiyati, qobiliyati va bilimni oshirishi maqsadida foydalanishga o'rgatib borish zamonaviy yondashuvdir. Bunda avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim-malakalari, mahoratlari muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinflarning har bir sinfi uchun (masalan, 1-sinf, 2-sinf, 3-sinf, 3-sinf, 4-sinflarga mos) dasturlar yaratish nafaqat o'quvchi qiziqishi uchun, balki texnika asrining talabi hamdir. Garchi bunday audio resurslar, multimediali mashg'ulotlar namunasining tayyor nusxalari mavjud bo'lsa ham, uni qo'llay bilish, muhimi esa har bir pedagogning o'zi mustaqil ijodiy ravishda yarata olishi samarali natija beradi.[4] Bu ta'lim tizimiga, XXI asrda boshlang'ich ta'lim va raqamli texnologiyaning muhim sharti bo'libgina qolmay, Yangi O'zbekistondagi Uchinchi Renessans poydevorining asoslaridan biri hamdir.

O'zbekiston respublikasi prizidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon va Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda jahon ta'limi standartlariga muvofiq keluvchi uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratish bosh maqsad qilib belgilab olingan.[5] Bo'lajak mutaxassis uchun oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish jarayoni – bu insonda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan shaxsiy sifatleri, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davri hisoblanadi.[6]

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik jarayonni kompetentli yondashuv asosida tashkil etish shaxsning ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik hamda o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Avvallari radio, televizor, videomagnitofon, kinoprojektor, diaproyektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o'z zimmasiga oldi. Birgina kompyuterning o'zi o'ndan ortiq vositaning o'rnini bosmoqda.[7] Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Ta'limni modernizatsiyalash strategiyasida barcha darajalarda o'qitish uslublari va texnologiyalarini o'zgartirish, axborotni tahlil qilish, o'z-o'zini o'rganish, talabalarning mustaqil ishlarini rag'batlantirish, mas'uliyatli tanlov va mas'uliyatli faoliyat tajribasin shakllantirishning amaliy ko'nikmalarini shakllantiradiganlarning og'irligini oshirish zarurligi ta'kidlangan.[8] Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qurilgan talabalarga yo'naltirilgan ta'limga ehtiyoj bor edi. Demak, kimyo fanidan kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o'rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz. Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, projektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi.[9]

Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;

- uskunaviy dasturiy ta'minot;
- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqa, fizik modellar, geografik haritalar, ekran protsessorlari, kimyoviy tajribalar, virtual laboratoriyalar va x.k.

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. Ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalari axborotlashtirishni;
- o'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

-ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birlashuvini; - pedagoglar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

-ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.[10] Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot, texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi. Balki elektron ta'lim (AKTga asoslangan ta'lim), ayniqsa o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa muhim bo'lgan sohalarda, hech qachon yuzma- yuz holatda ta'lim berishning o'rnini bosa olmas, shunga qaramasdan, elektron ta'lim, ta'lim jarayonining juda muhim qismi bo'lib bormoqda. Bugungi kunda talabalarga sifatli ta'lim berishni tashkil qilishda ilmiy texnika taraqqiyoti mahsuli bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalari va uning moddiy asosi kompyuterlar xizmatidan keng foydalanib elektron darslik va qo'llanmalar tashkil etish va internet manbalaridan hamda masofadan o'qitishning dasturiy vositalaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Buning uchun jahon andozalariga javob beruvchi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish zarur. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat etish, ular tomonidan egallagan bilim, malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayeva, D. U. (2023). Noorganik kimyo fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va fan yangiliklaridan samarali foydalanishning ahamiyati.

Экономика и социум, (3-2 (106)), 84-88.

2. Djurayeva, D. (2023). IT Language and computer science. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(15), 75-80.

3. Umarjonovna, D. D. (2023). Ekologiya fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning samarasi. Scientific Impulse, 1(9), 1240-1245.

4. Olimjonovich, M. Q., & Umarjonovna, D. D. (2023). Texnik yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni kredit-modul tizimi shartlari asosida o'qitish.

Scientific Impulse, 1(9), 1506-1512.

5. Джураева, Д. У. (2023). РОЛЬ Зеленых растений в охране атмосферного воздуха. journal of innovations in scientific and educational research, 6(4), 574-578.

6. Джураева Д. (2023). Разработка методов эффективного использования виртуальных лабораторий в химии. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(14), 54-57.

7. Джураева Д. (2023). Обучение методам эффективного использования виртуальных лабораторий в химии. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(15), 16-19.
8. Джураева, Д. У. (2022). Анализ и использование интерактивных методов при выполнении лабораторных работ по химии Отамирзаев Самаджон Олимжон угли.
9. Bakhridinov, N. S., & DJuraeva, D. U. (2023). Efficiency of Using Apatite in Obtaining Epa. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 291-297.
10. Djurayeva, D. (2023). Modern environmental problems and solutions. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(12), 13-17.
11. Djurayeva, D. (2023). Kimyo fanidan virtual laboratoriyalardan samarali foydalanish usullarini yaratish. *Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-29.
12. Djurayeva, D., & Fayzullayeva, S. (2023). Kimyo fanini o'qitishda kredit modul asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish. *Наука и технология в современном мире*, 2(12), 9-11.
13. Umarjonovna, D. D. (2023). Interactive Methodology of Teaching the Science of Environmental Protection to School in Educational Institutions. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 295-302.
14. Umarjonovna, D. D. (2023). The Role of Green Plants in Protecting the Environment. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 303-306.
15. Umarjonovna, D. D., & Akbaraliyeva, Y. M. (2023). Global Environmental Problems and Their Solution. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(3), 326-330.
- Umarjonovna, D. D. (2023). Elekt Energetikasi Yo'nalishida Tahsil Oluvchi Talabalarga Ekologiya Fanining O'rni Va Ahamiyati. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(1), 77-8

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MANTIQUIY TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI**

*Jurayeva Dilafruz*

*Samarqand viloyati Pedagogika markazi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada hozirgi davr boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirida mantiqiy topshiriqlarning ahamiyati yoritilgan. Mantiq tushunchasi, uning tarixi haqida ma'lumot berilgan. Dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan mantiqiy topshiriqlardan misollar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, mantiq, savodxonlik, o'quvchi, tadqiqotlar, metodika, o'qitish, o'yin, topshiriq.

Zamonaviy jamiyatda insonning o'ziga xosligi, individualligi tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat maktab oldiga o'quvchilar shaxsini ularning tabiiy salohiyati asosida, tarixiy-madaniy qadriyatlar, xalq an'analari hamda ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda rivojlantirish vazifasini qo'yadi va bu vazifani bajarish mas'uliyatini qo'yadi.

Boshlang'ich sinflarda matematik ta'lim o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishga, o'z g'oyalari mustaqil ifodalay olishga, bilimlarni faoliyat jarayoniga tadbiiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 997-sonli qarorida PIRLS (boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash), TIMSS (4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash), PISA (15 yoshli o'quvchilarning

o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash), TALIS (rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish) kabi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilangan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasi bo'yicha umumiy psixologik-pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinflar o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, unga ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatdan ajralgan holda qarash mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi maktab matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir yoki matematikadan tayyorligidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) o'qitish metodikasida o'zining munosib aksini topishi lozim.

Mantiq, logika — to'g'ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiq o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqqa oid dastlabki fikrlar Qadimiy Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Qadimda mantiq falsafa tarkibida bo'lgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Yunon falsafasida mantiq masalalari dastlab Parmenidning "Tabiat to'g'risida" asarida, Eleylik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta'limotida u yoki bu darajada ko'rib chiqilgan. Aristotelgacha bo'lgan mantiqiy ta'limotlar ichida Demokritning mantiqiy ta'limoti, Sokrashnchnt induktiv metodi va Platon dialektikasi diqqatga sazovor. Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Aristotel nomi bilan bog'likdir. U birinchi bo'lib mantiq o'rganadigan masalalar doirasini aniqlab berdi. Uning "Kategoriyalar", "Talqin haqida", "Birinchi analitika", "Ikkinchi analitika", "Sofistik raddiyalar haqida", "Topika" nomli asarlari mantiq masalalariga bag'ishlangan. Aristotel mantiqni "ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi", "chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi" fan sifatida ta'riflaydi. Aristoteldan so'ng mantiq, asosan, stoiklar maktabi vakillarining, Epikur, skeptiklar ta'limotlarida rivojlantirilgan. Stoiklar mantiq ning maqsadi inson aqlini xatolardan asrash va haqiqatga erishishdir, deb bilishgan.

Keyinchalik Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ham mantiq ilmi shakllandi. O'rta Osiyoda ham falsafa va M. mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi. Bunda Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bedil kabi buyuk mutafakkirlarning xizmati katta bo'ldi. Farobiy o'zining "Mantiqqa kirish", "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarlarida mantiq masalalariga ilmiy bilish metodlari deb qaragan. Forobiy fikricha, mantiq insonlarni bilish jarayonidagi turli xato va adashishlardan saqlaydi. Forobiy tushuncha, hukm va ularning turlari, xulosa chiqarish, sillogizm va uning figuralari, moduslarini tahlil qildi. Sillogizm va isbotlash usuli eng to'g'ri, haqiqatga olib keluvchi usul deb hisobladi. Ibn Sinoning "Kitob ashshifo", "Kitob annajot", "Donishnoma" asarlarida mantiqqa doir fikrlari bayon etilgan. "Mantiq bilangan (bilimlar) yordamida bilinmaganlarni qanday qilib aniqlashni ko'rsatadigan, haqiqat va haqiqatsifat bilim va yolg'on nima ekanligini hamda ular qanday turlarga ega ekanligini aniqlab beradigan ilmdir", degan edi Ibn Sino. U mantiq ilmini barcha ilmlarning muqaddimasi, ularni egallashning zarur sharti sifatida talqin etdi.

*Sonlarni og'zaki ko'paytirishda mantiqiy usuldan foydalanish*

O'quvchilarda og'zaki hisoblash ko'nikmalarini takomillashtirishda ham biz mantiqiy usullardan foydalanishimiz mumkin.

Masalan: ikki xonali sonni 11 ga ko'paytirishni quyidagicha bajaramiz:

$$32 * 11$$

Mazkur ifodani bajarish uchun birinchi ko'paytuvchining xona birliklarini qo'shamiz, ya'ni  $3+2=5$ , 5 ni 3 va 2 ning o'rtasiga joylashtiramiz.

$$32 * 11 = 352$$

Topshiriqni murakkablashtiramiz:

$$85 * 11$$

8 va 5 ning yig'indisi 13, biroq ko'paytma 8135 emas! 13 sonini xona birliklariga ajratamiz: 1 o'nlik va 3 birlik. Oldingi misoldagidek 3 birlikni birinchi qo'shiluvchining o'rtasiga yozamiz, 1 o'nlikni esa 8 birlikka qo'shamiz va 9 birlikni hosil qilamiz.

$$85*11=935$$

Xuddi shu usulda uch xonali va undan katta sonlarni ham hisoblashimiz mumkin. Masalan:

$$314*11$$

Ifodaning javobi 3 bilan boshlanadi, 4 bilan tugaydi. Bu ifodada ham birinchi ko'paytuvchini hosil qilgan sonlarni bir biriga qo'shamiz,  $3+1=4$  va  $1+4=5$ . Birinchi yig'indi 4 va ikkinchi yig'indi 5 ni birinchi ko'paytuvchining orasiga joylashtiramiz, natija:

$$314*11=3454$$

O'quvchilarimizga og'zaki hisoblash ko'nikmalarini mantiqiy fikrlash orqali o'rgatib borishimiz mumkin.

#### *Mantiqiy fikrlashga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish*

Sonlar tarkibini mustahkamlash va takrorlashda "O'ylab top!", "Estafeta", "Arifmetik labirint" kabi o'yinlardan foydalaniladi.

Masalan: "O'ylab top!" o'yinini o'tkazishda bolalarga 8 sonini qanday ikki qo'shiluvchidan hosil qilish mumkinligini topish taklif qilinadi. Eng ko'p holni topgan o'quvchi yutib chiqadi.

#### *"Estafeta" o'yini*

Didaktik topshiriq: O'quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka, ziyraklikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash.

O'yin bayoni: Bu o'yin uchun quyidagi jihozlarni tayyorlash lozim: magnit doska, qalin qog'ozdan yasalgan qayiqchalar, ularning cho'ntakchasiga solib qo'yish uchun misollar yozilgan varaqlar.

O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Kim quyidagi misolni birinchi yechsa, o'sha o'quvchi oldinda suzib kelayotgan bo'ladi, g'oliblar shu tariqa ketma-ket aniqlanadi. O'yinda kim misolning javobini tez topsa o'sha o'quvchining kemasi oldinda suzib kelayapti deb o'quvchilarni rag'batlantirilib borilsa, o'quvchilar qiziqishi shuncha ortadi.

#### *"Qurilishga sayohat" o'yini*

Didaktik topshiriq: O'quvchilarni matematika darslarida hayot bilan bog'lab o'qitishdagi faolligini oshirish.

O'yin topshirig'i: O'quvchilarni matematika darslarida turmush bilan bog'lab o'qitish va kasb-hunarga qiziqishini orttirish.

O'yin bayoni: Bu o'yin 2-sinfda 1000 ichida ularning o'z fikrlarini aniq, ravon, to'g'ri va tushunarli bayon etish, kuzatuvchanlik, birodarlik, topqirlik, hozirjavoblik fazilatlarini boyitib borishga yordam beradi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, matematika darslarida og'zaki hisoblashga o'rgatishda didaktik o'yinlarning ham o'zni benihoya kattadir. Darslarda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish o'quvchilarni nafaqat faollikka, topqirlikka balki, ularning og'zaki nutqini ham oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu o'yin to'rt amalni o'rganilgandan so'ng mustahkamlash bosqichida o'tkazilishi mumkin.

O'yin bayoni: Bu o'yin uchun quyidagi jihozlarni tayyorlash lozim: magnit doska, qalin qog'ozdan yasalgan qayiqchalar, ularning cho'ntakchasiga solib qo'yish uchun misollar yozilgan varaqlar. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Kim quyidagi misolni birinchi yechsa, o'sha o'quvchi oldinda suzib ketayotgan bo'ladi, g'oliblar shu tariqa ketma-ket aniqlanadi. O'yinda kim misolning javobini tez topsa, o'sha o'quvchining kemasi oldinda suzib ketayapti deb o'quvchilarni rag'batlantirib borilsa, o'quvchilar qiziqishi shuncha ortadi.

#### *"Quvnoq vagonlar" o'yini*

Yuk tashuvchi poyezdlar vagonlariga sabzavotlar, mevalar yuklab ularni bir shahardan ikkinchi shaharga jo'natish mumkin. O'quvchilar misollarni javobini topib, necha kilogramm jo'natilayotganini chaqqonlik bilan aytib berishlari lozim. Bu bilan bolalarning massa o'lchov birliklari haqida olgan bilimlari mustahkamlanib boriladi.

### *“Xo‘p” o‘yini*

Matematika faniga oid juda ko‘p o‘yinlar mavjud. Ulardan biri “Xo‘p” o‘yini. Bu o‘yin quyidagicha o‘ynaladi:

Bu o‘yinda ikki o‘yinchidan tortib, istalgancha o‘yinchi ishtirok etishi mumkin. O‘yinni boshqaruvchi qatnashchilarga shartni tushuntiradi. Bunda 1 dan boshlab natural sonlarni sanash lozim. Har 3 ga karrali son kelganda, bu sonni aytmay “Xo‘p” deyish kerak. Agar qatnashchi 3 ga karrali sonni aytib qo‘ysa yoki to‘xtab qolsa, u yutqazadi va o‘yinni tark etadi. Qolgan o‘yinchilar o‘yinni yana kelgan sonidan boshlab davom ettiradi. O‘yin bitta qatnashchi qolguncha davom etadi va u g‘olib sanaladi.

Masalan: 1, 2, xo‘p, 4, 5, xo‘p, 7, 8, xo‘p, 10, 11, xo‘p, 13, 14, xo‘p, 16, ...

### *“Matematik atamalar” o‘yini*

Bu o‘yinda ham bir necha kishi ishtirok etishi mumkin. Qatnashchilar bir qator bo‘lib turishadi va navbat bilan har bir qatnashchi matematika faniga oid atamalarni aytishadi. Bunda bir qatnashchi aytgan atamani boshqa qatnashchi aytib qo‘ysa, u o‘yinni tark etadi. Agar qatnashchi atama bilmay 5 soniya to‘xtab qolsa ham u o‘yinni tark etadi. O‘yin bitta g‘olib qolguncha davom etadi.

Masalan: Son, kesma, natural son, modul, uzunlik, qo‘shish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirish, parabola, to‘g‘ri chiziq, uchburchak, to‘rtburchak, ...

O‘quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to‘g‘ri, aniq, qisqa matematik nutqni o‘stirish masalasi uzviy ravishda bog‘langandir. Matematika o‘qitishning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarga hisoblash, o‘lchash va grafik ko‘nikmalarning ma‘lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo‘lib, ko‘p marta takrorlash hisobiga avtomatizmga yetkazildi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtda boshlang‘ich matematika kursini o‘rganishni faqatgina ko‘nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o‘zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas. O‘quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishda kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o‘rganishlari, shuningdek, og‘zaki va yozma xulosalar chiqarishni o‘rganishlari kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO`YU uchun darslik.) Toshkent. —Fan va texnologiya; 2005 yil.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. —Ilm Ziyos; 2005 yil
3. Y.I Perelmen «Qiziqarli matematika». Toshkent. 2012 yil

## **MATEMATIKA DARSLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ZAMONAVIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH**

Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna  
+998972456806

Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida STEAM texnologiyasini qo‘llash yo‘nalishlar ko‘rsatilgan holda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, matematika, STEAM, zamonaviy ko‘nikmalar, 4K modeli.



“Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir”, degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Shuning uchun bu sohaning barcha bosqichlari tubdan isloh qilinib, kompleks rivojlantirilmoqda. Mamlakatimizning Taraqqiyot strategiyasida to’rtinchi ustuvor yo’nalish aynan ta’lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

STEAM an’anaviy o’qitishga muqobil zamonaviy yondashuv hisoblanadi. STEAM – so’zining bosh harflari - Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san’at) va Mathematics (matematika)ni anglatadi. Boshlang’ich sinflarda ilg’or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi avlod darsliklariga o’quvchilarning ilmiy-texnika yo’nalishlarida 4K modeli asosida kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ishlari, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ish va o’qish jarayonlarida duch keladigan muammo va qiyinchiliklarga yechim topish, ijodkorona yondashuv, muloqot qila olish, jamoada ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltiruvchi o’quv topshiriqlari kiritilgan.

STEAM ta’limi bilim, ko’nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog’liqligini ko’rsatish orqali sinfdagi dars mashg’ulotlari va maktabdan tashqari ta’lim jarayonida o’quvchilarning o’quv tadqiqotlarini o’tkazish, tajribalarni bajarib ko’rish, loyihalashtirishga yo’naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Quyida matematika darsida ”Massa birliklari” mavzusida STEAM texnologiyasini qo’llash imkoniyatlarini ko’rsatib o’tamiz.

S–tabiiy fanlar: Tarozi rasmini ko’rsatib, “Nima?”, “Qachon?”, “Qayerda” so’rovnomalar o’tkazish. Tarozi, uni nimalarni o’lchashda ishlatishimiz, qayerda ishlatilishi haqida ma’lumotlar berilib, tarozi modeli yaratish.



T–texnologiya: Qo’lda tarozi yasab narsalarni o’lchab ko’rish.



E – muhandislik: Og‘zaki yoki yozma ravishda misol keltiring.  
- Kelgusida qanday tarozi ixtiro qilgan bo‘lar edingiz?  
Guruh a‘zolari turli tarozilar yasab ko‘rsatadilar.



A – san‘at. Tarozi rasmini chizish.



Yoki massa, tarozi bilan bog‘liq qo‘shiq, she‘r, topishmoq, tabrik, devoriy gazeta tayyorlang.  
Masalan: Oz qo‘ysang, sol deb aytadi  
Ko‘p bo‘lsa, ol deb aytadi.



M–matematika: Amaliy ish: kitobingiz og‘irligini o‘lchang, daftar va ruchkangizni og‘irligini o‘lchab bir-birlariga solishtiring.

STEAM beshta fanning har birini alohida o‘rganish o‘rniga, ularni yagona o‘quv tizimiga birlashtiradi. STEAM ta‘limida beshta sohani yagona ta‘lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan.

Xulosa shundaki, STEAM texnologiyasini tatbiq etishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-texnik kasb tanlash motivatsiyasini oshirish, innovatsion yechimlarni moslashtirish va topish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. N.N.Azizxomayeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

3. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023

Darsliklar:

1. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

2. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA KASRLAR MAVZUSINI MUSTAHKAMLASHDA "BINGO" O'YINIDAN FOYDALANISH**

**Umarova Matlyuba Yusufjonovna**  
**Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi**  
**matematika fani o'qituvchisi**

**Annotatsiy.** Ushbu maqolada ta'limda "bingo" o'yini va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Hamda boshlang'ich sinflar matematika darslarida kasrlar mavzusini mustahkamlashda "Bingo" o'yinidan foydalanish bo'yicha tavsiya berilgan. Bu metod orqali o'qituvchilar ham kam energiya va kam kuch orqali ma'lumotlarni o'quvchilarga osongina yetkazib bera oladi.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, tarbiya, metod, matematika, o'yin, bingo, kasr, ulush, qism.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – bu ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum bir ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchilar faolyatini nazorat etish, ular tomonidan egallagan bilim ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash ta'lim metodiga bog'liq.

Ta'lim metodi – ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi hamkorlik faoliyatidek murakkab jarayonning asosi hisoblanadi. Ta'lim metodini asosiy qoidasi ta'lim berish maqsadiga mos kelishidir. Masalan, bingo o'yinli metodlardan o'quv mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, rivojlantirishga, ijodiy fikrlash qobilyatini o'stirishga yordam beradi. Bunday darslarga tahsil oluvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Tahsil oluvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashishi bingo o'yinli mashg'ulotlarni namoyon etadi.

Bingo o'yinli mashg'ulotlarni ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar; ijodiy o'yinlar; ishbilarmon o'yinlar; konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. Bingo o'yinli mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilar darsda faol ishtirok etadilar. Buning uchun o'quvchilar zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, bundan tashqari, ularda guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam berish tushunchalari shakllangan bo'lishi lozim. Bingo o'yinli mashg'ulotlar o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganilayotgan o'quv predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni yordam beradi.

Bingo o'yinli ta'lim usuli samaradorligining asosiy mezonlari quyidagilardir:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi; uni qo'llashda soddalik va osonlik; nafaqat yaxshi natijalarni, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta'minlay olishi.

O'qituvchi - pedagog bingo o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi bingo talablarga rioya qilishi talab etiladi:

- ✓ bingo o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;
- ✓ jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;
- ✓ barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq me’yorlariga mos kelishi;
- ✓ o‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;
- ✓ mashg‘ulot davomida bingo tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaqt va kuch sarflanishiga erishish.

Quyida boshlang‘ich sinflarda kasrlar mavzusini mustahkamlashda “bingo” o‘yinidan foydalanish bo‘yicha tavsiya beramiz.

O‘quvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dasturga binoan 3-sinfdan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo‘lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushga ko‘ra sonning o‘zini topish bilan tanishadilar.

4-sinfda birning ulushi, bir necha ulushi va uning yozma ko‘rinishi tasavvurlariga ega bo‘ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog‘langan.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo‘laklarga bo‘lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi.

Boshlang‘ich sinfdan oldin, ya’ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang‘ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo‘laklarga bo‘lib ko‘rgan va boshlang‘ich tushunchalarni olgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan, ularning yozilishi bilan tanishtirish, taqqoslashni o‘rganish, sonning ulushlari va ulush bo‘yicha sonni topishga doir masalalarni yechish ko‘zda tutiladi, aytib o‘tilgan barcha masalalar ko‘rgazmali qilib ochib beriladi.

Kasrlar mavzusini mustahkamlashda “bingo” o‘yinidan foydalanish uchun quyidagi jadvalni har bir partaga tarqatiladi, bu o‘yinda o‘quvchilar juftliklarda ishlashlari taklif etiladi.

<b>B</b>	<b>I</b>	<b>N</b>	<b>G</b>	<b>O</b>

O‘quvchilar diqqat bilan jadvalga qaraydilar, o‘qituvchi ketma-ket bir nechta kasr sonlarni ifodalaydigan gaplarni aytib boradi, o‘quvchilar aytilgan gap qaysi rasmga mos kelsa, uni o‘chirib boradilar. O‘qituvchi 15 ta kasr sonni (ulushni) ifodalaydigan gap aytadi, u aytgan gaplar yordamida jadvalning ixtiyoriy biror satri yoki ustuni to‘lishi kerak, qaysi guruh buni birinchi bajarsa, o‘sha guruh g‘olib xisoblanadi.

Masalan:

1. 7 ta kitobimning 4 tasi ertak kitob.
2. Buketdagi 9 ta guldan 4 tasi qizil rangli.

3. 10 ta qalamimdan 9 tasini ishlatganman.
4. 7 ta ko‘yilagimdan 2 tasi kuzgi
5. Oyim o‘tgan 6 oyning deyarli 5 oyida ish bilan band bo‘ldi.
6. Jami 10 jo‘jalarimning 3 tasi yo‘qolib qoldi.
7. 5 ta bormog‘imning 3 tasida uzuk bor.
8. Tortning 6 dan 1 qismi menga tegdi.
9. Tadbirdan qatnashgan 9 ta o‘quvchidan 5 tasi qiz bolalar.
10. Adham nonning yarmini yeb qo‘yibdi.
11. Dasturxonga qoyilgan 7 ta piyoladan 5 tasi qizil rangli.
12. Haftaning bir kuni dam olish kuni bo‘ladi.
13. 7 yoshimni 3 yilida bog‘chada yurganman.
14. Oiladagi jami 8 kishining 3 tasi maktabga boradi.
15. 9 ta xonadondan birida hech kim yo‘q.

O‘qituvchi bu gaplarni o‘qib tugatganida (aniqrog‘i 14-da) jadvalning 4-satri to‘lishi kerak. Buni to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar g‘olib xisoblanadi.

O‘qituvchi bunday gaplar sonini ko‘paytirishi yoki boshqacha talqinda berishi ham mumkin.

Ta‘lim va tarbiya vositasi sifatida bingo o‘yinli o‘quv mashg‘ulotlaridan foydalanish ham o‘qituvchi, ham o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.V.Repyova. *Matematika*. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
2. I.V.Repyova. *Matematika*. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
3. Jumayev M.E Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘YU uchun darslik). – T.: “Turon iqbol” 2020.

### **HOZIRGI DAVRDA RIVOJLANGAN XORIJ DAVLATLARIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMINING TUTGAN O‘RNI, AHAMIYATI VA FAOLIYAT DOIRASI**

Boymurodova Sadoqat Istam qizi

BuxDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi davrda rivojlangan xorij davlatlarda boshlang‘ich ta‘lim tizimi haqida ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, ularning ahamiyati, ustuvorliklari va ta‘lim tizimidagi davlat siyosati haqida fikrlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson kapitali, jamiyat rivoji, Finlyandiya tajribasi, Germaniya tajribasi, AQSH tajribasi, Janubiy Kareya ta‘limi, STEM ta‘limi

**Abstract:** This article provides information about the primary education system in developed foreign countries, their importance, priorities, and state policy in the education system.

**Key words:** human capital, community development, Finnish experience, German experience, USA experience, South Korean education, STEM education

Bugungi kunda jamiyatimiz rivoji ta‘lim tizimidagi davlat siyosatiga chambarchas bog‘liqdir. Har bir davlat o‘z ta‘lim tizimining qanday holatda ekanligini bilib olishidagi birinchi omil bu boshqa rivojlangan davlatlar tizimini o‘rganib chiqishdir. Xo‘sh rivojlangan xorij davlatlari ta‘lim tizimini o‘rganish nima beradi?

Rivojlangan davlatlar, xususan, Finlyandiya, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda demokratiya va jamiyatning rivojlanishini ko‘rishimiz mumkin va buning asosiy poydevori - yaxshi ta‘lim tizimi - fuqarolar o‘rtasida demokratik qarorlar olish, huquqiy tushunchalar va jamiyatda to‘g‘ri tartibni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jamiyatning o‘zini rivojlantirishda muhim asosdir. Bundan tashqari bunday davlatlar innovatsiyalar va madaniy rivojlanishning taraqqiyoti bilan o‘ziga xosdir. Sifatli ta‘lim tizimi, yangi g‘oyalar va

innovatsiyalarni olib kelishda muhim rolni o'ynaydi. Bu, madaniy va texnologik rivojlanishni mustahkamlaydi va davlatni dunyoda rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kirish uchun tayyorlaydi.

Finlandiyada boshlang'ich ta'lim tizimi dunyoda ommabop va yuqori sifatli ta'lim modeli sifatida taniladi. Bu ta'lim tizimi barcha o'quvchilarga o'zlarining salohiyatlarini rivojlantirishga e'tibor beradi va insonlarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi[1]. Quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

**To'g'ri, qulaylik va egalik:** Finlandiyada o'quvchilar barcha maktablarda birida bir xil darajadagi ta'lim olishadi. Barcha o'quvchilar uchun ta'lim huquqi ta'minlanadi va har bir oilaga ta'limni ta'minlash uchun yordam beriladi.

**O'qishning o'yligi:** Finlandiyada boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarga o'qishga ilg'or o'ylashlarni rivojlantirishga e'tibor beradi. Bu tizimda o'quvchilar o'ylash, muhokama qilish va mantiqiy rivojlanishni o'rganishadi.

**O'qish usullari:** Finlandiyadagi boshlang'ich ta'lim tizimida darslar amaliy va nazariy tajriba asosida olib boriladi. Guruh ishlari, ko'nikmalar va o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarga o'rganishda va ish yuritishda qo'llaniladi.

**O'qish va o'qitishning integranganligi:** O'qituvchilar o'quvchilarga yengil va qiziqarli darslar tashkil etishda va ta'lim jarayonini personal rivojlanishiga mos ravishda qo'llab-quvvatlaydilar.

**Ta'lim muassasalari:** Finlandiyada boshlang'ich ta'lim muassasalari ta'limning amaliy va innovatsion jihatlari bilan mashhurdir. Ularning o'zaro hamkorlik qilish va o'quvchilarga eng yaxshi ta'limni ta'minlashda ko'rsatilgan jiddiy ko'rinishga e'tibor beriladi.

**Baholash sistemasi:** Finlandiyadagi boshlang'ich ta'limda baholash tizimi o'quvchilarning o'zlarining rivojlanish darajasi, individual o'zlashtirilishi va umumiy o'zlashtirilishiga e'tibor beradi. Bu tizimda test sinovlarining o'rni kamdir va o'quvchilarga o'zlarining rivojlanishiga tushunarli e'tibor qaratiladi. Finlandiyada boshlang'ich ta'lim tizimi dunyodagi boshqa mamlakatlarga o'xshash ta'limning arzon va yuqori sifatini ta'minlashda mashhurdir.

Germaniyadagi ta'lim tizimi "duale" ta'lim modeli bilan mashhurdir. Bu model o'quvchilarga teorik bilimni o'rganish uchun akademik darslar beriladi, shuningdek, o'quvchilarning amaliyot bilimlarini o'rganish va amalga oshirishlari uchun amaliy mashg'ulotlar, yani, "musteri" ta'limi amalga oshiriladi. Bu usul o'quvchilarga zarur bilimlarni o'rgatishda va kasb-topish jarayonlarini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Duale ta'lim tizimi ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Bu tizim orqali o'quvchilar savodxonada amaliy ish bilan tanishishlari, va tajribalarini o'zlashtirishlari mumkin. Keyingi davrda, ularga ish joylarida karyera rivojlanishi uchun imkoniyat beriladi. Bundan tashqari, Germaniyadagi ta'lim tizimi o'quvchilarga yoshlikdan o'rganganlarini qabul qilish va ta'limni ixtisoslashtirish imkoniyatlarini ta'minlashga ham e'tibor beradi. Bu o'quvchilarga maktabdan chiqib, amaliy hayotga tayyorlanishlarini va karyera rivojlanishlariga yordam beradi.

AQSh ta'limi dunyoda eng mashhur va o'rganilgan tizimlardan biri hisoblanadi. Bu tizim o'zining yuqori sifatli ta'limni, keng xilma-xil ta'lim muhitini va innovatsion metodlarni taqdim etish bilan taniladi. AQSh ta'lim tizimi haqida mashhur bo'lgan bir nechta asosiy xususiyatlar quyidagilardir:

**Universitetlar:** AQShda ko'p miqdorda universitetlar, kollejlari va akademiyalar mavjud. Bu o'rganish muassasalari dunyoda eng yuqori standartlarga ega bo'lib, xalqaro darajada taniladi.

**Ta'lim tarmoqlari:** AQSh tarmoqlari bo'yicha tuzilgan va boshqa mamlakatlarga ta'sir ko'rsatgan "common core" qo'llanmasi bilan mashhur. Bu qo'llanma bo'yicha o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan davlat standartlari asosida o'quvchilarni ta'lim bilan ta'minlashni maqsad qiladi.

**Ta'lim innovatsiyalari:** AQSh ta'lim tizimi tez-tez yangiliklar va innovatsiyalarga oid muhitni taklif etadi. Bunday yangiliklar o'z ichiga texnologiya, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy muammolar, o'quv usullari va boshqa sohalar bo'yicha yangi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

**STEM ta'limi:** AQSh ta'lim tizimida STEM (ilm-fan, texnologiya, injeneriya va matematika) sohasiga katta e'tibor beriladi. Bu soha o'quvchilarga innovatsion va nazariy bilimni rivojlantirish, masofaviy ta'limni ko'paytirish va yangi texnologiyalarni o'rganish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, AQSh ta'lim tizimi o'quvchilarga ijtimoiy va ma'naviy ma'lumotlarni ham oshirishga diqqat beradi va o'quvchilarni fuqarolar sifatida muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashga asoslangan ta'lim tizimini o'z ichiga oladi.

Janubiy Koreyada ta'lim, inson kapitali rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lib, davlatning yuqori darajadagi ilmiy, texnologik, va ma'naviy rivojlanishiga oid asosiy omil hisoblanadi.

Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimi, uzoq va tarixiy urf-odatlariga ega. O'z davri bo'ylab, ta'lim sohasida yuqori darajadagi tajribaga ega bo'lgan. Xalqaro natijalar hisobiga, Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalari va ko'plab oliy maktablari dunyoda tanilgan va yuqori reytinglarda joylashgan.

Janubiy Koreyada ta'lim sohasidagi yutuqlar, kompyuter texnologiyalari, inson resurslari boshqarish, iqtisodiyot, va innovatsion texnologiyalar sohasida ko'plab yo'nalishlarda o'ziga xosdir. Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalari, inson resurslari boshqarish, matematika, kimyo, biologiya, va texnologiya sohasida xalqaro sertifikatlar olishda muvaffaqiyatli bo'lgan.

Shuningdek, Janubiy Koreya xalqaro ta'lim tizimi, o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash, ijodiylikni oshirish, va insoniy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayon davlatning ta'lim va ma'naviy tarbiyani jahon miqyosida yuqori darajada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Bular bilan birga, Janubiy Koreya ta'lim tizimi davlat siyosati va ma'naviy muhitining o'ziga xosliklari bilan mashhur. Ta'lim tizimining innovatsion taraqqiyoti va ta'limning sifati, inson kapitalini rivojlantirishda markaziy o'rin egallab kelmoqda.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3180 son Qarori.

2. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y.

3. Mitina L.M. "Mehnat psixologiyasi va o'qituvchining malakasini oshirish". M.: Akademiya, 2004.

4. A. Xoliqov. "Pedagogik mahorat" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011

5. Adizova, N. B., Boymurodova, S. I., & To'rayev, S. D. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda ta'sir etuvchi omillar. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 548-548.

6. Sadoqat, B. (2022). O'qish darslarida aqliy tarbiyani shakllantirish texnologiyasi. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 82-84.

7. BI, B. S. O. (2023). Methods of effectively organizing reading literacy lessons for primary school students. *Confrencea*, 12(12), 185-188.

8. MX, B. S. S. (2023). The role of interactive methods in improving the effectiveness of primary education. *Confrencea*, 12(12), 189-192.

9. Boymurodova, S. I. (2023). Methodology of an innovative approach to effective organization of mother tongue lessons in primary grades. *Confrencea*, 12(12), 180-184.



10. SI, S. B., & Jumabayeva, M. R. Theoretical foundations of the formation of creative abilities of primary school students.

## **“XXI ASR KO‘NIKMALARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING MAKTABDA TARBIYA DARSLARIDA SHAKLLANISHI**

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha,  
boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi  
Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna

### **Annotatsiya**

Bugungi bolajonlarning ertaga qanday inson bo‘lishi ko‘p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o‘tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog‘liqdir. XXI asrda yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati va prinsiplari. Bola tarbiyasi prinsiplari. Masalan: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o‘rgatish, odatlantirish, o‘rni kelganda nasihat qilish, tarbiya berish, unga munosabatni o‘zgartirish, ishontirish, rag‘batlantirish, qoralash kabi usullar.

**Tayanch iboralar:** *Oila, bola, tarbiya, XXI asp kompetentsiyalari, yoshga bog‘liq jihatlar, ko‘nikma..*

### **XXI asrda yosh avlodni tarbiyalash usullari va vositalari**

*Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta‘sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q.*

**N.I. Novikov**

Bugungi bolajonlarning ertaga qanday inson bo‘lishi ko‘p jihatdan bolalik deb atalgan bu davrning qanday o‘tgani, uning ongi va qalbiga atrof-muhitdan nimalarni olib kirganiga bog‘liqdir. Bolaga munosabatda avvalo uning yosh darajasini inobatga olish kerak, uni yoshiga ko‘ra taxminan quyidagicha taqsimlash mumkin:

Tarbiyaning yoshga bog‘liq jihatlar:

1. Uch yoshgacha
2. Uchdan yetti yoshgacha
3. Yettidan o‘n yoshgacha
4. O‘ndan – o‘n to‘rt yoshgacha
5. O‘n to‘rtidan-o‘n sakkiz yoshgacha

Bolaning 3-7 yosh oralig‘i alohida ahamiyatga ega. Bu davrda bolada zamon tushunchasi haqida to‘g‘ri tushunchalarni shakllantirish uchun unga yolg‘on gapirmaslik, savollariga to‘g‘ri, jiddiy javob berish kerak. Bundan tashqari bolalarda gigienik ko‘nikmalarni go‘dakligidanoq shakllantirish kerak 2-2, 5 yoshidan yuz-qo‘l yuvishni eslatib turish, nazorat qilish va ko‘maklashish zarur. Tozallikka rioya qilish faqat bolaning sog‘lig‘ini saqlash uchungina emas balki uni kelajakda ham pokiza bo‘lishining omilidir. Bolani 2 yoshidan tishlarini tozalashga o‘rgatish kerak. To‘g‘ri uyushtirilgan kun tartibi katta ahamiyatga ega. Bolani aniq belgilangan vaqtda ovqatlantirish kerak, pala-partish ovqatlantirish bolalar salomatligiga yomon ta‘sir qiladi. Yosh bolalarning nerv sistemasi juda ta‘sirchan bo‘ladi. Bolalar darrov charchab qoladilar va dam olishga ehtiyoj sezadilar. Dam olishning eng muhim turi uxlash. Bola har doim bir vaqtda uxlashi lozim. Tungi va kunduzgi, uyqu muddati bolaning yoshiga bog‘liq. Nimjon bolalar ko‘proq uxlashi lozim, uyqudan oldin ochiq havoda sayr qilish foydali, kechki ovqat yotishdan 1-1,5 soat oldin berilishi kerak.

Bola sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va uni har tomonlama rivojlantirishda chiniqtirish muhim rol o‘ynaydi. 2-3 yashar bolalarning toza havo bilan chiniqishi muhimdir. Bundan tashqari quyosh vannalari suv bilan chiniqtirish ham juda foydali. Yosh bolalarni maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida tarbiya qilish, ularni oilada tarbiyalashga qaraganda bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bola uchun yasli-bog‘cha tanlashda “moda orqasidan quvmaslik, sportni yoki chet tilini o‘rgatadigan bog‘chani qidirmaslik kerak. Uyingizga yaqin bo‘lgan yasli-bog‘cha eng qulay va hammasidan yaxshi bo‘ladi. Uy sharoitida

ba'zi bir ko'nikmalarni o'zlashtirgan bola bog'chaga borganda qiynalmaydi. Qoshiqdan mustaqil foydalanishni bilgan, o'zlari kiyinadigan va yechinadigan bolalar bog'chada o'zlarini dadil his qiladilar va tez ko'nikadilar. Bundan tashqari bola hayotini o'yin va o'yinchoqlarsiz, ertaklar va musiqasiz — fantaziyasiz va ijodiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'yin va o'yinchoqlar olamida yayrab yashagan bolaning hayotini ma'naviy to'laqon deyish mumkin. Bolaga o'yinchoq tanlayotganda uning yoshi, qiziqishi va sharoiti ko'zda tutiladi.

Yoshi katta bo'lishi bilan o'g'il bolalar texnikaga oid ayniqsa transport va shu kabi o'yinchoqlarga qiziqishi ortadi, bu o'yinchoqlar bolalarda turli kasb va mutaxassisliklarga qiziqish tug'diradi, ota-ona bu qiziqishni vaqtida payqab, rag'batlantirishi kerak. Qo'g'irchoqlar qizlarning sevimli o'yinchoqlaridir, 1-2 yoshli qizchalar ko'zi ochilib yumiladigan, "Ingalaydigan qo'g'irchoqlarni yaxshi ko'radilar. 1-4 yoshli qiz bolalarga plastmassadan qilingan kiyimsiz qo'g'irchoqlar ma'qul, qizlar ularni o'zlari cho'miltiradilar, kiyintiradilar, yo'rgaklaydilar. Sport o'yinchoqlari (koptok, arg'imchoq, kabilar) bolalarni jismoniy baquvvat qilishga xizmat qiladi.

Musiqqa o'yinlari bolalarni badiiy qobiliyatlarini o'stiradi. Umuman olganda bolalar o'yinchoqlari shartli ravishda 3 ta guruhga ajratiladi:

1. Syujetli o'yinchoqlar
2. Quruvchilik o'yinchoqlari
3. Turli materialli o'yinchoqlar

Agar bolani yoshlikdan o'yinchoqlarini toza tutish, ehtiyot qilishga o'rgatib borilsa ular uy anjomlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Oilada bolaga tarbiya berishning qator o'ziga xos prinsiplari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ular quyidagicha: tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, tarbiyadagi birlik, ota-ona obro'si, mehnat tarbiyasi, ota-onaning bola tarbiyasini bog'cha, maktab va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borishi, ota-onaning barcha bolalarni teng ko'rishi, ularga adolatli munosabatda bo'lishi, tarbiyada bolaning o'sish va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, bola shaxsini hurmat qilish, unga talabchan bo'lish kabilardir. Buning uchun ba'zi tarbiya usullarini bilib qo'yish foydadan xoli emas.

## **XXI asrda yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati va prinsiplari**

### **Bola tarbiyasi prinsiplari.**

Masalan: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, tarbiya berish, unga munosabatni o'zgartirish, ishontirish, rag'batlantirish, qoralash kabi usullar.

Tarbiyada maqsadning aniqligi muhim o'rin tutadi maqsadimiz — barkamol avlodni tarbiyalash uni Vatanga muhabbat ruhida xalqning eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy an'analari ruhida, jamiyat uchun bilimdon va madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashdir.

“Agar siz fuqaroni tug'ib qo'yib, uni o'z mehringizdan benasib qilsangiz, marhamat qilib jamiyatni bu razil niyatingizdan ogoh etib qo'ying – deydi A.C.Makarenko “ota-ona mehridan benasib bolalar ko'pincha mayib kishilar bo'lib yetishadilar”.

Hamma bolaga bir ko'zda qarash.

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Hamma narsada bolaga muomalada, jazolashda, ta'sir o'tkazishda, birlik bo'lishi zarur. Ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani dadasi ta'qiqlab qo'yadi. Bolalar talabchan otasi bilan kam talabchan onasi va umuman talabchan bo'lmagan buvisi o'rtasida o'zlaricha yo'l topadilar. Kattalar o'rtasidagi kelishmovchilikni ko'rib bolalar mug'ombirlik, aldanchilik, xushomadgo'ylikka o'rganadi. Ayrim ota-onalar bolaga haddan tashqari mehribonlik qilib, giringitton bo'ladilar, uning hamma vazifalarini o'zlari bajarishadi, barcha injiqlik va o'jarliklarini ko'tarishadi, natijada bola noshud, bemehr bo'lib o'sadi. Ota-onaning hamma bolalariga bir xil bo'lishi, tarbiyaning muhim shartlaridan bo'lib, opa ukalarning ahil, bir-biriga mehribon, oqibatli bo'lishiga olib keladi, bola nazarida ota-onaning obro'si oshadi, odamlar bilan hisoblashishga, ularning ko'nglini ranjitmaslikka, odamlarni qadrlashga o'rgatadi. Bir ota, bir onaning farzandlari fe'l-atvori jihatdan bir-biriga o'xshamaydi, ota-ona bolalarning sho'xini ham,

qobilini ham bir xil mehr bilan sevishi, kattasini katta, kichigini kichik o'rnida bilib har birini o'ziga qarab muomala qilishi lozim. Birini ikkinchisidan ortiq ko'rish yaramaydi. Tarbiya avvalo oilada, bog'chada, so'ng maktabda, jamoatchilik tomonidan muntazam ravishda olib boriladi, tarbiyalashning muhim xususiyatlaridan biri, uni uzluksiz olib borishdir. Ba'zan onalar ikkinchi farzandni ko'rishgach kattasi g'ashlik qilayotganini aytib qolishadi, buning oldini olish uchun to'ng'ichga endi aka, opa bo'lganini aytish, ukasini boqishda yordamlashishi kerakligini tushuntirish lozim. Tarbiyada har bir bolaga alohida muomala, munosabat, e'tibor kerak. "U bolaku, bolaga bo'laveradi", "yumalab, sumalab katta bo'lsa rizqini topib yer", "hammasiga keyin o'zi o'rganib ketadi", kabi fikrlarni qo'yib, bolani tug'ilganidan voyaga yetkuncha tarbiyalab borish kerak. Bolaning tabiiy ehtiyoji bo'lgan narsalarni ta'qiqlash yaramaydi, bolani tez o'sayotgan organizmni harakat qilib turishni talab qiladi. Bola o'jarlik bilan gapga quloq solmaydi, yig'laydi va asabiylashadi. Keyinchalik esa vazmin, uyatchan bolaga qo'pol muomila qilinsa u juda qo'rqqoq bo'lib qoladi, hayotda mustaqil yashashga qiynaladi.

### **XXI asrning o'ziga xos jihatlari. Ular nimani taqozo etadi?**

So'nggi yillarda o'zbek oilasida yuz bergan o'zgarishlar.

Respublikamizda yangi asrning birinchi yili — "Onalar va bolalar" yilida amalga oshirilgan ishlarning ijobiy ta'siri yurtimizda yashayotgan barcha insonlar taqdirida, har bir oila, har bir xonadon hayotida o'z aksini topdi. Bu esa mamlakatimizda Sog'lom avlod — Sog'lom oila — Sog'lom jamiyat g'oyasining izchillik bilan amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

"Ona va bola" Davlat dasturiga ko'ra tug'ish yoshidagi ayollarning deyarli 99% to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va zarur hollarda davolashga yo'naltirilishi tashkil qilindi.

Uzoq tarixiy va mustahkam poydevorga ega bo'lgan o'zbek oilasi, uning o'ziga xos milliy xususiyatlarini butunlay yo'q qilish, insoniyat xotirasidan o'chirib tashlash uchun o'zgaralar hech qanday kuch topa olmadi. Tarixan qisqa 14 yil ichida o'zbek oilasi hayotida mislsiz o'zgarishlar yuz berdi:

*Birinchiidan*— mustaqillik sharofati bilan oila va uning manfaatlarini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oila tarbiyasi kommunistik g'oyalardan tozalanib, milliy tarbiya mezonlari asosida amalga oshirila boshlandi.

*Ikkinchiidan*— qonun ustivorligini ta'minlash oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi.

*Uchinchiidan*— oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, nogironlar, yetim-yesirlar, yolg'iz keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

*To'rtinchiidan* — Yurtboshimiz aytganidek, "Ayolsiz oila, oilasiz davlat, jamiyat bo'lmasligi o'z isbotini topdi".

*Beshinchiidan*— Birinchi Prezidentimiz tashabbuslari bilan 1998 yil "Oila yili", 1999 yil "Ayollar yili", 2000 yil "Sog'lom avlod yili", 2001 yil "Onalar va bolalar yili", 2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'tirof etilishi va shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi.

*Oltinchiidan* — Muhtaram Birinchi Prezidentimizning 1995 yil 2 martdagi farmonlariga binoan, Respublika xotin-qizlar qo'mitasi raisligiga Bosh vazir o'rinbosari, tuman, shahar, viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, raislariga hokim o'rinbosarlari maqomlari berildi.

*Yettinchiidan*— oila, xotin-qizlar, bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi 10 dan ortiq jamoat tashkilotlari tashkil etildi. Darhaqiqat, XXI asr o'zbek oilasi mustahkamligi, barqarorligi, farovonligi bilan yer kurrasidagi barcha oilalar uchun namuna maktabi bo'lmog'i lozim.

Aytish joizki, agar ota-onalar o'zlari baxtli bo'lishmasa, hayotdan minnatdor bo'lgan bolani tarbiyalay olishmaydi.

Baxt meros bo'lib o'tadi.

Ko'pchilik ota-onalar muammolar faqat farzandlarida deb, o'zlarini esa begunoh sanashadi.

Keyin esa bir xil vaziyatda bir-biriga zid ikki xil shaxs shakllanayotganidan nolishadi: biri – muvaffaqiyatli va o'ziga ishonadigan, boshqasi esa aksincha komplekslarga to'la,

“ichimdagini top” va agressiv. Axir bu kimgadir e’tibor va muhabbat berilmagani, biroq bu faktni nazardan chetda qoldirilganini namoyish etuvchi faktku.

Bolani ovqatlantirish, kiyintirishning o’zi yetarli emas.

Bu g’amxo’rlik xolos, tarbiya emas. Afsuski, ko’pchilik ota-onalar buni yetarli sanaydilar.

Nima eksang – shuni o’rasan.

Farzandimiz qariganimizda biz unga bolaligida qanday munosabatda bo’lsak xuddi shunday munosabat bildiradi.

Maktab ta’limi standart fanlarni o’rganish bilan cheklanmasligi lozim.

Bolalar nazariyani yodlagandan ko’ra amaliyotda va katta hayotda amalga oshirishi mumkin bo’lgan bilimlarni olishi muhimroq. Masalan, mas’uliyatlilik, qat’iylik, kelisha olish va o’zgalarning vaqtini qadrlashni o’rganish.

Bolaning yomon baho haqidagi kuchli xavotiri ota-onaning bahoga bo’lgan munosabatining aks ettiradi.

Agar ota-onalar bolaning o’qish, sportdagi muvaffaqiyatsizliklariga xotirjam munosabat bildirsa, bolalar ham xatolarini xuddi shunday qabul qiladi. Ular ham xotirjam, o’zlariga ishonadi, oson ta’lim olib, muvaffaqiyatli odamga aylanadi.

Bolani xarakteri uchun emas, xatti-harakati uchun jazolash kerak.

Agar farzandingiz siz so’ragan ishni bajarmasa, ovozingizning boricha baqirib, vaziyatga fojia tusini bermaslik kerak: «Sen kimga o’xshayapsan?!» Buning o’rniga bolaga uning aybi nima ekanini tinchgina tushuntirish, planshet yoki kompyuter kabi mukofotidan mahrum etish lozim. Ana shunda bolalar o’z xatti-harakatlari uchun mas’ul bo’lishni o’rganadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

##### **I. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild. T., O’zbekiston, 2017.

##### **II. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O’zbekiston, 2019.

##### **III. Mavzuga doir adabiyotlar**

3. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. /Monografiya. -T.: Fan, 1995 y. -127 b.

4. Zunnunov A. O’zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O’qituvchi, 1997 y. -272 b.

##### **IV. Elektron ta’lim resurslari**

<https://lex.uz/docs/-4885018>

## **STEAM XALQARO TADQIQOTINI QO’LLASHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI**

Shoimov Anvar Mamarizayevich,  
Qashqadaryo VPYMO’M markazi

“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedra mudiri, dotsent  
[shoimovanvar1298@gmail.com](mailto:shoimovanvar1298@gmail.com)

**Annotatsiya.** Steam xalqaro tadqiqotini qo’llashda fanlararo integratsiyaning ahamiyati, dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash, hayotiyli va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to’garak mashg’ulotlarini yo’lga qo’yish bilan bir qatorda o’quv-tarbiya jarayonini sifat jihatidan yanada yaxshilash, nazorat materiallarini kompetentlik va ijodiy fikrlashini baholashga qaratish, o’quvchilarning natijalarini doimiy tahlil qilib borish kabi dolzarb vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so’zlar:** Steam xalqaro tadqiqoti, innovatsion ta’lim, uzluksiz ta’lim, o’quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri, intellektual xususiyatlari, S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [PF-5712-son Farmoni](#)ga ko‘ra innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda intensiv til, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini o‘rganish, STEAM pedagogika asoslarini o‘zlashtirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi masalalar vazifa qilib olindi. Shuningdek, Konsepsiyada O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur **reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish** tog‘risida alohida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash va ta’lim samaradorligini oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur: har bir o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri, intellektual xususiyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda o‘qishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchang motivasiyani shakllantirish; iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilarni tanlash va individual yondashish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish; yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullarini va yo‘nalishlarini joriy etish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda STEAM texnologiyasini qo‘llash ko‘zlangan natijaga erishish imkonini beradi. STEAM – hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko‘rinadi, lekin uni alohida ko‘radigan bo‘lsak sodda va aniq ekanligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san’ati, ijod, matematika. STEAM xalqaro baholash dasturini qo‘llash uchun maktab ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani amalga oshirish lozimdir. STEAM – fanlararo integratsiya yondashuvga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorligidagi faoliyati hisoblanadi. STEAM o‘quvchilarda muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash, dizayn asoslarini tushunish kabi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

«Integratsiya» so‘zi lotincha *integratio* – tiklash, to‘ldirish, «integer» butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi: *birinchidan*, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarining bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; *ikkinchidan*, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: *boshlang‘ich*, tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtiradi; *oralik* – predmetlar bo‘limlarini bo‘lish integratsiyasi; *yakuniy* – tabiatshunoslikni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta’limni to‘liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi fikrlari asos qilib olinishi mumkin. Bu fikrlarni mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir. Y.A.Samarin o‘xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi: lokal (mahalliy, ma’lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegishli bo‘lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o‘xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Integratsiyani yo‘lga qo‘yishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

birinchidan, gumanitarlash, ya’ni tabiiy-ilmiy va gumanitar bilimlarni “tabiat va inson” tizimida integrallash;

ikkinchidan, tabiatdagi mavjud aloqalarni o‘quvchilarga o‘rgatish orqali shaxsni shakllantirish;

uchinchidan, o'quvchilar tafakkurida tabiat haqidagi konkret bilimlarni shakllantirish ustuvorligi;

to'rtinchidan, kelgusida ilmiy izlanishga mos keluvchi turli sohalardan materialni tanlash.

Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usuli va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi – ko'p maqsadli va rang barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi.

Integratsiyalashgan mashg'ulotlar quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi:

- ko'p predmetlilik – bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash;
- chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;
- asosiy (o'zak) fanlar – zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalar;
- kompleks obyektlarni o'rganish, bu – «koinot», «odam», «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish;
- mahalliy (tabiiy – ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o'rnini chambarchas bog'liq;
- tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo'lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko'rgazmalar asosida integratsiya, didaktik tizimida (o'qituvchi va o'quvchining faoliyati);
- ko'rgazmali yondashishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko'rinishlari, namunali qiroat bilan o'qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish;
- har bir o'quv predmetini o'qiyotgan paytda o'quvchilarga tog'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurining rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa shuki, maktab mashg'ulotlari mazmunini tadqiqotlarga tayyorgarlikka yo'naltirish, maktab pedagog jamoasi va o'quvchilar orasida ijodiy muhitni kuchaytirish, dars jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlash, hayotiyligi va amaliy ahamiyati yuqori, zamonaviy to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish bilan bir qatorda o'quv-tarbiya jarayonini sifat jihatidan yanada yaxshilash, nazorat materiallarini kompetentlik va ijodiy fikrlashini baholashga qaratish, o'quvchilarning natijalarini doimiy tahlil qilib borish kabi dolzarb vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash (matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) / Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2019. -112 bet.

3. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) / U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. –T.: Sarq, 2019. –91 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz).

5. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz).

## STEM TA‘LIMI VA UNING AFZALLIKLARI

S.M.Rasulova

Qashqadaryo VPYMO‘MM

“Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim” kafedrası katta o‘qituvchisi

### Аннотация

Ushbu tezisdá STEM ta‘limiy yondashuvi o‘quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon berishga, qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchida qiziquvchanlikni rivojlantirish haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** STEM, STREM, STEAM, robot, modellashtirish, dizayn loyihalashtirish.

### Аннотация

В этой тезиси образовательный подход STEM позволяет ученикам систематически изучать мир, логически наблюдать происходящие вокруг процессы, понимать их взаимосвязи, открывать для себя новое, необычное и интересное. Дана информация о развитии любознательности к предмету.

**Ключевые слова:** STEM, СТРЕМ, STEAM, робот, моделирование, проектирование.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2018-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”ning II bo‘lim, 11 - bandida – umumiy o‘rta ta‘limning yangi davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta‘limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta‘lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEM ta‘limi yo‘nalishida o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma‘lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo‘llash uchun malakalarga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va dizayn loyihalashtirishlari yetakchi o‘rinni egallamoqda.

Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun ko‘proq texnik ta‘lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta‘limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo‘shadigan yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash imkonini bermoqda.

Ma‘lumki, zamonaviy ta‘lim tizimi, an‘anaviy ta‘limdan farqli o‘laroq, amaliyotda o‘rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o‘quvchilar robototexnika va dasturlashni o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko‘rib turadilar.

### STEAM NIMA?

• STEM ta‘limi o‘quvchilarning muammolarga fanlararo nuqtai nazardan qarashga va ta‘limning yaxlit yondashuvi bilan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga imkon beradi.


• STEM ta‘limi, maktabgacha bo‘lgan ta‘limdan oliy ta‘limgacha bo‘lgan butun ta‘lim jarayonini qamrab oladigan fanlararo yondashuv sifatida qabul qilingan.



STEM ta'limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta'lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta'lim tizimining eng katta muammosidir.

Shu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.



STEM atamasi ilk bor AQShda maktab dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlaridagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib, atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga "R" – robotics – robototexnikani qo'shib, STREM deb "A" - art - san'atni qo'shib, STEAM deb atala boshlandi.

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'ymoqda. Bu esa o'quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil qiladi.

STEM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEM ta'limi o'quvchining rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, texnologiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematik hisob-kitoblar bilan bog'langandir.

STEM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o'quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishini va kelajakda to'g'ri kasb tanlashga zamin yaratadi.

Shunga ko'ra dunyoning ko'pgina mamlakatlarida STEM ta'limiy yondashuvga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Yevropaning 10 dan ortiq mamlakatlari (Avstriya, Germaniya,

Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Irlandiya, Ispaniya va boshqalar) milliy strategiya va tashabbuslarida bu hisobga olingan.

STEM ta'limni amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish lozim. Masalan, bunda AQSH tajribasidan ijodiy ravishda foydalanish mumkin.

#### **STEM ta'limining afzalliklari:**

- ta'limni o'quv fanlari bo'yicha emas, "mavzular" bo'yicha integratsiyalash;
- ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;
- texnik tafakkurni rivojlantirish va muammolarni yechish;
- o'z kuchiga ishonish hissini ortishi;
- faol kommunikatsiya va jamoada ishlash;
- texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish;
- loyihalarni ishlab chiqishda kreativ va innovatsion yondashuv;
- ta'lim va karyera orasidagi ko'pri;
- o'quvchilarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlash;
- STEM to'garaklarida amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini

mustahkamlash.

STEM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, texnologiya fani darslarida STEM ta'limi bilan o'zaro integratsiyalashgan holda harakatlanuvchi raketalar, avtomobillar, robototexnika va boshqa amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Texnologiya fani insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishga yordam beruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar voyaga yetib qaysi kasbni egallashmasin, kim bo'lmasin, texnologiya fanidan olgan bilim va ko'nikmalarini uyda, oilada, ish faoliyatida albatta foydalanadi.

O'quvchilar texnologiya fani darslarida materiallarga ishlov berish, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Bizning darsliklarimiz mazmunan "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" "Qishloq xo'jaligi texnologiyalari" yo'nalishlari asosida mavzular berilgan. Darslikka kiritilgan bo'limlar bo'yicha o'quvchilar uchun kasb-hunarlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Rivojlangan davlatlar Texnologiya fani darsliklari mazmuni o'rganilib, tahlil qilinganda ma'lum bo'ldiki, ulardagi mazmun to'laqonli bizning darsliklarimiz mazmuniga mos holda berilgan. Farqli jihati shundaki, ularda bizdagi barcha yo'nalish va bo'limlar alohida darsliklar sifatida nashr qilingan. Bu esa birinchi tomondan o'quvchilar uchun foydalanish jihatidan qulay, ikkinchi tomondan esa mazmunan ko'proq ma'lumotlarni kiritish imkoniyatiga egaligidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Richard Arum, Melisa Velez. Improving Learning Environment: School Discipline and Comparative Perspective. Stanford University Press, USA 2012.

2. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.

3. Ivanova M.I. Razvitie nauchno-obrazovatelnoy sistema Germanii v yedinom yevropeyskom obrazovatelnom prostranstve. Diss. ... kand. ped. nauk. –Rostov D., 2000. – 239 s.

4. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016. –279b.

5. Tohirov O.O. Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. // O'quv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2019.-134 b.

### **Internet resurslari:**

1. [www.dr.rtm.uz](http://www.dr.rtm.uz)
2. [www.texnologiya.zn.uz](http://www.texnologiya.zn.uz)
3. [www.Avloniy.uz](http://www.Avloniy.uz).

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUV**

*X.Beknazarova,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta‘lim  
metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi  
Inatillayeva Gulnur,  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari, boshlang‘ich sinflarda foydalanish mumkin bo‘lgan innovatsion texnologiyalarning turli xil tamoyillari, shuningdek, boshlang‘ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma‘lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiya, innovatsiya, interfaol metodlar, pedagogik tamoyillar, innovatsion kasbiy faoliyat, innovatsion yondashuv.

Ta‘lim jarayonida ilg‘or va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda ushbu jarayon sifatini yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev innovatsiya haqida shunday deydilar; ”Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi. Bu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lolmaymiz. Shuning uchun ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak”.

Bundan bir necha yil oldin, “innovatsiya” so‘zi ko‘pchilik uchun notanish tushuncha edi. Xorijdan kirib kelgan bu atama ko‘p o‘tmay, Yangi O‘zbekiston islohotlari avvalida rivojlana boshlagan. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda, “yangilik kiritish” degan ma‘noni anglatadi. Innovatsion ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta‘lim texnologiyalari deb ataladi. “Innovatsion ta‘lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi” da qo‘llanilgan. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari hozirgi kunda ta‘lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va turli xil metodlarni qo‘llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo‘llash ta‘lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning o‘qish motivlarini o‘stiradi.

Tadqiqotchilardan A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P Stepanov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar:

1. Yangilikning individual mikrosathi
2. Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta‘siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta‘siri, ularning birligi, raqobati va natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashidir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining to‘rtta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- Faoliyatni amalga oshirish qonini;
- Qoliplashtirish qonuni;

- Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytish qonuni.

Hozirgi kunda dars jarayonlarida turli xil multimedia ilovalaridan keng foydalanish ham o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshirmoqda. Bunda biz o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslub va metodlardan o'rinli ravishda foydalana bilishimiz lozim. Darslarni "Bumerang" texnologiyasi, "Arra", "O'z o'ringni top", "Nima uchun", "Zinama- zina", "Omadli charxpalak" kabi metodlari, "She'ni tikla" kabi didaktik o'yinlaridan foydalanib o'tish darsning samaradorligini oshiradi.

"Zinama- zina" metodi.

Bunda uch nafar o'quvchi sinf to'riga boradi, o'qituvchi tomonidan savollar o'qiladi. Birinchi javob bergan o'quvchi bir qadam oldinga keladi. O'yin shu holatda davom ettiriladi, qadamma- qadam birinchi bo'lib doska oldiga, ya'ni marraga yetib kelgan o'quvchi g'olib sanaladi.

"Videotopishmoq" metodi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari kompyuter, televideniye, radio, slayd, video yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beradigan izohlarsiz bir qancha videolavha namoyish etiladi;
2. O'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
3. Jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
4. O'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Ushbu metod asosida mavzuga oid kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr- mulohazalarini bildirishadi.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalar asosida ta'lim berish yurtimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o'taydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuxamedov R. va b. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste'dod, 2008.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2004. -102 b.
3. M.E.Jumayev, M.Y.Yuldasheva, B.U.Mingbayeva, G.A.Mamatova "Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" metodik qo'llanma – T.: 2017 y

#### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI O'STIRISHDA ONA TILI DARSLARIDAGI LOYIHA ISHLARINING O'RNI**

Xolmatova Guzal Islomovna

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi

**guzal.xolmatova.89@bk.ru**

**Annotatsiya.** Maqolada o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda Loyihaga asoslangan ta'limning o'rni va muvaffaqiyatga erishish standartlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikasiya, ta'lim, tarbiya, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat, tanqidiy fikr, hamkorlikda ishlash, kommunikativlik, loyihaga asoslangan ta'lim, metodika.

Boshlang'ich sinf o'quvchining shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy faoliyatni, ishtiyoqini, qiziqishini samarali rivojlantirish uchun avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z ijodiy qobiliyatlarini mustaqil ravishda namoyish etish imkoniga ega bo'lgan shart-

sharoitlarni, dars mashg'ulotlarida o'ziga bo'lgan ishonchini, berilayotgan ijodiy vazifalarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilishini ta'minlash va ijodiy muhitni yaratish muhim. Hozirgi zamon darsliklari o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari bilan ishlay boshladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarda eng kerakli bo'lgan kommunikativlik, hamkorlikda ishlash, kreativlik, kritiklik, tadqiqotchilik, o'zini o'zi boshqarish va xulosalash kabi ko'nikmalarni loyihaga asoslangan ta'lim rivojlantirishga xizmat qiladi. Fikrlash faoliyatini, tanqidiy fikrlashni, yangi bilim va qobiliyatlarni izlash va topish istagi zamonaviy insonning eng muhim xislatlari hisoblanadi. Loyiha o'qitishning pedagogik texnologiyasi maktab o'quvchilari orasida ushbu fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Loyihaga asoslangan ta'lim bilim olishning samarali va qiziqarli usulidir. Unda ta'lim oluvchilar o'z hayotida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni chuqurroq egallaydilar. Loyihaga asoslangan ta'limda ta'lim oluvchi passiv emas, faol bo'ladi, loyiha ularning qalbi va ongini o'ziga jalb qiladi va o'rganish uchun real hayotiy muammolar yechimini topishga undaydi. Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasida o'quvchilar dars jarayonida tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilishni, hamkorlikda ishlash va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lib boradi.

Loyiha asosida o'qitishning afzalliklaridan biri bu fanlararo mutanosiblik bo'lib, bitta loyihada turli fanlar doirasida bir nechta yechim bo'lishi mumkin. Talabalar muammolarni hal qilishda o'zlarining strategiyalari va yondashuvlarini erkin tanlaydilar, bu ularning keng dunyoqarashiga ta'sir qiladi. Yana bir muhimlik ijodkorlik va tasavvurni rag'batlantirishidir. Bunda talaba mavjud qiyinchilik, uni takomillashtirish ruhi orqali o'zining mukammallik standartlari doirasida ishlay boshlaydi. O'quvchilar loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasida loyiha bajarish orqali turli xil savol-javoblarni topish bilan birgalikda, bilim, ko'nikmaga ega bo'lib borishadi. Ko'plab mutaxassislar talabalar uchun muhimligini va akademik, shaxsiy va hissiy darajada erishilgan yaxshi natijalarni anglagani uchun loyiha asosida ta'lim barcha qatlamda izdoshlarini ko'paytirmoqda. Loyiha asosida o'qitish - bu yangi ta'lim yo'nalishi va biz uning samarali ekanligini inkor eta olmaymiz.

Bunday faoliyat zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu sizga barcha muammolarni, bolalarning bilim bo'shliqlarini bartaraf etish imkonini beradi. Maktabda o'qitish texnologiyasi mustaqil ishlamasdan mumkin emas, chunki o'qituvchiga iste'dodli va iqtidorli bolalarni aniqlash imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Agustina, L. (2012). Loyihaga asoslangan ta'lim . Jurnal Linguistik Terapan. 2014-yil 31 oktyabr.
2. JamolJalolov (2012) Chettili o'qitishmetodikasi . – T.: O'qituvchi. 3-b
3. <https://www.youtube.com/embed/ZMxQVvZsIDI>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/loyihaga-asoslangan-ta-lim>.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XXI ASR TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BILIMINI RIVOJLANTIRISH

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, "Kompyuter tizimlari" kafedra o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Kompyuter texnologiyalarini yosh avlodga boshlang'ich sinf paytlaridanoq o'rgatishning qanchalik to'g'ri ekanligi to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, ta'lim to'g'risidagi qonun, boshlang'ich sinf, kompyuter kursi, kompyuter texnologiyasi, axborot texnologiyalari.

Ta'lim olish barcha uchun zarur bo'lgan jarayon hisoblanadi. Har bir inson tug'ilganidan boshlab tashqi olamdan nimadir o'rganib boraveradi. 7-8 yoshlarga yetganida esa dastlabki ta'limni olish uchun maktabga borish boshlaydi. O'zbekistonda ham ta'lim to'g'risida bir qancha qonun va farmonlar mavjud.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga imzo qo'yildi. Bu albatta biz yoshlar uchun muhim qadam hisoblanadi. Men shuni aytishim kerakki, ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish kerak, chunki ta'lim tizimi samarali olib borilsa mamlakat rivojlanadi. Mana shu kundan boshlab Yaponiya, Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi va samarali o'qitish tubdan o'zgardi. Ta'lim mamlakat kelajagining hayot-mamotidir. Har bir davlat aynan kuchli ta'lim tizimini yaratish va uni muntazam takomillashtirib borish haqida bosh qotiradi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuni 1997-yil qabul qilingan bo'lib, bugungi zamon shiddatlariga, umuman yangilanish, rivojlanishlarga javob bermay qolgan edi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 11 bob, 75 ta moddadan iborat bo'lib, amaldagi qonunning 34 ta moddasidan 33 tasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi, ta'lim sohasidagi faoliyati, jumladan ta'limning turlari, shakllari, tizimni boshqarish, sifatni nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizmlarini ta'minlashdan iboratdir. Qonunning asosiy jihatlaridan yana biri shuki, mamlakatimizda ta'limni tashkil etishda alohida etibor qaratib kelinayotgan ta'lim va tarbiyaga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilishi, shu paytgacha asosiy prinsip sifatida belgilanmagan edi. Endilikda ushbu prinsip qonun bilan belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo'lgan 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi [1].

Ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
  - professional ta'lim;
  - oliy ta'lim;
  - oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
  - maktabdan tashqari ta'lim.

Hozirgi XXI asr - axborot texnologiyalari asrida barcha yo'nalish va sohalarga kompyuter texnologiyalari kirib bordi. Hayotimizni kompyutersiz tasavvur qilishimiz qiyin. Deyarli barcha hujjatli ishlarni kompyuterda bajaramiz, xoh u ma'lumot to'ldirish bo'lsin, xoh u ma'lumot almashish bo'lsin. Kompyuter texnologiyasidan foydalanishni o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatish, ularda XXI asr ko'nikmalarini hosil qilish juda muhimdir. Buning uchun ularga maktab davridanoq, ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'qiydigan vaqtdayoq kompyuter ilmlarini o'rgatish kerak.





1-rasm. Bolalarga kompyuter kurslarini tashkil etish.



2-rasm. Kompyuter dasturlash darslaridan lavhalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kompyuter kurslarini tashkil etish va ularga kompyuter bo'yicha fundament bilimlarni berish kelajakda kompyuterning kuchliroq bilimlarini o'rganishlarga yordam beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmlarini rivojlantirishda juda muhim bosqich vazifasini o'taydi.

Kompyuterni yaxshi o'rgangan o'quvchi kelajakda ma'lumotlar almashish va hujjatlar bilan ishlashda hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi. Yosh avlodga boshlang'ich sinf paytidayoq kompyuter kurslarini boshlash va o'rgatish kelajakda barcha sohalar uchun yetuk kompyuterchi kadrlarni tayyorlashda juda foydali hisoblanadi. Hattoki, ular ichidan kuchli dasturchilarni ham tayyorlashda fundament bilim vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat maktab darslarida, balki maktabdan keyingi kurslarda va uyda ham qo'shimcha darslarni tashkil etish



maqsadga muvofiqdir. Chunki endigina shakllanishni boshlagan yosh avlod bunday o'quv kurslarini yaxshi o'zlashtirish qobiliyatiga egadir. Bu esa ularda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Normurodova Aqida Yigitali qizi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati. "O'zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.

2. Ismailov Murodulla Kaxramonovich. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

### **"MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" ASOSIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Elmurodova Dilnoza Shuhrat qizi**  
**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi keng yoritilgan. Shuningdek, muammoli masalalarni yechish usuliga ko'ra muammoli ta'limning darajalari va muammoli masalalarni yechish usullari, metodlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** muammoli ta'lim texnologiyalari, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, metodika, munozara, integratsiyalash, evristik vazifalar, guruhlar ishini tashkil qilish, axborotlar bilan ishlash, kreativ, tahlil qilish, kognitiv, evristik, tadqiqot, dasturlashtirilgan vazifalar.

Bugungi globallashtirish sharoiti va o'zgaruvchan muhitda tanqidiy tafakkur, o'zgarishlarni boshqarish, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Postindustrial iqtisodiyot va inson kapitalini oshirish zaruriyati jamoada samarali faoliyat olib borish, kishilar bilan muloqotga kirishish, ular bilan samarali aloqa o'rnatish, maqsadlarga erishishning nostandart usullarini taqdim qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishning ustuvorligini belgilaydi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish va talqin qilishdan iborat tizimli jarayon natijasida mustaqil fikrning hosil bo'lishi nuqtai nazaridan mazkur ko'nikmani rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llashning imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash (critical thinking) XXI asrning eng muhim va zaruriy ko'nikmalaridan biri sifatida bugungi taraqqiyot va bilimga asoslangan iqtisodiyot davrida bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish muammolari o'zining ilmiy, nazariy va amaliy xususiyatiga ega soha ekanligi o'z asosini topgan. Mazkur mulohazalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotlarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni o'qitish, ularni kasbiy va metodik tayyorlash jarayonida umumta'lim muassasalarining modernizatsiya qilingan o'quv dasturi va yangi avlod darsliklarini o'qitish metodikasi, shuningdek, 4K modelining tarkibiy qismi bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz.

Muammoga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini tashkil etuvchi o'qitish usullarini tizimlashtirishda turli yondashuvlarga – o'qituvchining o'quv materialiga kirishi va talabalarning tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil qilishi, talabalarning muammoli vazifalarda va mustaqil ta'lim faoliyatida ishtirok etishi sifatida namoyon bo'lgan asosiy yondashuvlarga tayanilgan, ular o'qituvchining o'quv materialiga kirishining to'rtta turi (muammoli bayon qilish, monologik taqdimot, dialogik taqdimot, mantiqiy taqdimot), talabalarning tanqidiy fikrlash jarayonini tashkil qilishining to'rtta turi (munozara, integratsiyalash, evristik vazifalar, guruhlar ishini tashkil qilish) hamda talabalarning muammoli vazifalarda ishtirok etishining to'rtta turi (axborotlar bilan ishlash, kreativ, tahlil qilish, kognitiv) va mustaqil ta'lim faoliyatining uch turini (evristik, tadqiqot, dasturlashtirilgan vazifalar) ifodalaydi.

\_\_\_\_-jadval

**Muammoli masalalarni yechish usuliga ko‘ra muammoli ta’limning darajalari va muammoli masalalarni yechish usullari**

Muammoli ta’limning darajalari	Muammoli masalalarni yechish usullari
O‘qituvchining o‘zi muammoni shakllantiradi va uni mustaqil ravishda hal qiladi	Muammo bayoni
O‘qituvchi mustaqil ravishda muammo qo‘yadi, yechimiga esa talabalar bilan birgalikda erishiladi	Qisman qidirish usullari – hamkorlikda o‘rganish
O‘qituvchi muammoni tuzadi, yechimiga esa talabalar mustaqil ravishda erishadilar	O‘qish, o‘rganish
Talabalar masalani tuzadilar va uning yechimini topadilar	Ijodiy ta’lim

Talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini o‘rganish natijalaridan kelib chiqib, "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ning asosiy shakllari quyidagicha belgilandi: mustaqil tadqiqot faoliyati, talabalar tajribasi, ekskursiya va dalillarni to‘plash, loyihalash va modellashtirish, suhbat, hikoya, muammoli vaziyat, evristik o‘yin, aqliy hujum (fikriy hujum), hikoya, kichik ma’ruza, evristik suhbat, muammoli vaziyat, qisman qidiruv, evristik suhbatni muammoli masalalar va vazifalarni hal qilish bilan uyg‘unlashtirish, guruh bilan ishlash, hamkorlikda ishlash.

Quyida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir mualliflik metodlari va uni amalga oshirish metodikasini keltiramiz. Mazkur metodika orqali muammoli ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini o‘quv va kognitiv faoliyatning muammoli ta’lim mazmuni bilan protsessual o‘zaro va ratsional ta’sirini optimal loyihalash hamda talabalarning kollabratsiya-kooperatsiya va dispozitsiyasi imkoniyatlarini mustaqil, kreativ, analitik va reflektiv fikrlash shakllariga bosqichma-bosqich adaptiv uyg‘unlashtirish asosida rivojlantirishga erishish mumkin.

**1-metod: "Evristik transduksiya" metodi ("Heuristic transduction" method).**

**Maqsadi:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ning axborotlar bilan ishlash, akademik harakatchanlik, izlanish imkoniyatidan foydalanish.

**Mexanizmi.** Mazkur metod qismlarni, jarayonlarni bir integral tizimdan ikkinchisiga o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi sxema asosida tashkil qilinadi: matn → tasavvur → o‘quv vazifasi → hayotiy voqealar yoki muammoli vaziyatlar. Metodni amalga oshirish algoritmi:

1-bosqich: Talabalarga mavzu yuzasidan o‘quv materiallari yozilgan matn taqdim etiladi;

2-bosqich: Talabalar matn bilan tanishgach, o‘zlashtirgan bilimlarini tasavvurga aylantirish vazifasi beriladi, ya’ni ensiklopedik bilimni rasm ko‘rinishida tasvirlash (bu ongli ravishda tasvirlash, vaziyatlarni faol tasavvur qilish, xotiralar, g‘oyalarni boshqarish imkonini beradi);

3-bosqich: biror vazifaga aylantirish;

4-bosqich: hayotiy voqealar yoki muayyan muammoli vaziyatlar bilan bog‘lash;

5-bosqich: ijtimoiy voqelik bilan bog‘liqligini aniqlash so‘raladi.

Buni individual, kichik guruhlarda yoki jamoaviy bajariladi va taqdimot qilinadi.

**Natija:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining tarkibiy qismi bo‘lgan ma’lumotlarga ulanish va kombinatsiya – umumlashirish, ma’lumotlarni izchil, samarali birlashtirish; transformatsiya (qayta qurish) – mavjud bilimlarni yangi ma’lumotlarga o‘zgartirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

**2-metod: "Ideomotor harakat" metodi ("Ideomotor movement" method).**

**Maqsadi:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan "Muammoli ta’lim texnologiyalari"ning o‘z fikrini aniq, ishonchli, ravon ifoda etish va dalillash imkoniyatidan foydalanish.

**Mexanizmi.** Mazkur metod "Qarang→fikrlang→o'ylang" harakatlar ketma-ketligida amalga oshiriladi. Metodni quyidagi algoritm asosida amalga oshirish mumkin:

1-bosqich: Talabalarga turli rasmlar yoki filmdan parchalarni ko'rsatib, "Nimani ko'ryapsiz?" degan savol bilan murojaat qilinadi. Talabalarning dastlabki fikrlari aniqlanadi.

2-bosqich: Ikkinchi bosqichda "Bu haqda nima deb o'ylaysiz?" degan savol orqali ularni mulohazaning keyingi bosqichiga taklif qiladi.

3-bosqich: "Bu sizni nima haqida o'ylashga majbur qilyapti?" kabi savol orqali talabalar fikrlashining davomiyligiga erishiladi.

4-bosqich: "Ko'rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom ettiring". Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirib, "Yana nima?" deb so'rash mumkin.

5-bosqich: "Bu haqida nima deb o'ylaysiz?", "Qanday xulosa chiqarish mumkin?". "Demak, ... qilish mumkin emas", "Demak, shunday... yo'l tutish kerak". Bunda talabalar xulosalarni ishlab chiqishi muhim hisoblanadi.

6-bosqich: "Nega?", "Bularning barchasi qancha davom etadi?", "Agar qoidalar buzilsa, nima bo'ladi?", "Buni qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin?".

**Natija:** bu orqali talabalar fikrlashining davomiyligiga erishiladi, shuningdek, tizimli, turli yondashuvlarga ko'ra o'z mulohazalarini davom ettirish, mustaqil qaror qabul qilishga, muammoli vaziyatda muammolarni bartaraf etishga tayyorlash mumkin. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining tarkibiy qismi bo'lgan tahlil qilish ya'ni: munosabatlar va tushunchalarni aniqlash – elementlarning aloqadorlik usullarini aniqlash; asosiy g'oyalarni aniqlash – markaziy elementni aniqlash, masalan, ma'lumotlardagi asosiy g'oyalar ierarxiyasi yoki sabablarni tartibga solish; xatolikni aniqlash – noto'g'ri axborotlar yoki boshqa xatolarni aniqlash va ularni tuzatish ko'nikmalari rivojlanadi.

### **3-metod. "Fikrlar dinamikasi" metodi ("Dynamics of thoughts" method).**

**Maqsad:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan "Muammoli ta'lim texnologiyalari"ning axborotlar bilan ishlash, akademik harakatchanlik, konstruktiv munosabatlarni o'rnatish imkoniyatidan foydalanish.

**Mexanizmi.** Metodni quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1-usul: Biror voqeaning ma'lum qismi o'qib eshittirilgach, talabalarning dastlabki fikrlari so'raladi (voqeaning rivoji yoki qahramonning holati, fazilatlar, keyingi hayoti va hokazolarni ham so'rab aniqlash mumkin).

2-usul: Shundan so'ng matnni o'qish davom ettiriladi va talabalarning fikrlari (fikrlari o'zgarganligi aniqlanadi) so'raladi.

3-usul: Shu tariqa matn oz-ozdan o'qib boriladi va talabalar fikrining dinamikligi, fikrlash o'zgarishini aniqlab boriladi. Bunda "Aytingchi, nima o'zgardi?", "Aytingchi, nega o'zgardi?", "Aytingchi, endi nima o'zgardi?", "Aytingchi, endi nega bunday o'ylayapsiz?" kabi savollar berish mumkin.

**Natija:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining tarkibiy qismi bo'lgan tahlil qilish ya'ni: mavjud ma'lumotlarni aniqlashtirish; atributlar va tarkibiy qismlarni aniqlash – biror narsaning xususiyatlarini yoki qismlarini aniqlash; munosabatlar va tushunchalarni aniqlash – elementlarning aloqadorlik usullarini aniqlash; asosiy g'oyalarni aniqlash – markaziy elementni aniqlash, masalan, ma'lumotlardagi asosiy g'oyalar ierarxiyasi yoki sabablarni tartibga solish; xatolikni aniqlash – noto'g'ri axborotlar yoki boshqa xatolarni aniqlash va ularni tuzatish ko'nikmalari rivojlanadi.

### **4-metod: "Aglyutinativ tasavvur" metodi ("Agglutinative imagination" method).**

**Maqsad:** talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan "Muammoli ta'lim texnologiyalari"ning o'z fikrini aniq, ishonchli, ravon ifoda etish va dalillash imkoniyatidan foydalanish. Mazkur metod mustaqil o'rganish, boshqa tasvirlarning qismlaridan yangi tasvirni yaratish, reallikda bog'lanmagan narsalar va xususiyatlarni bog'lash maqsadida tashkil qilinadi.

**Mexanizmi.** Metodni amalga oshirish algoritmi:

1-usul: Talabalarga predmet yoki hodisalar namoyish qilinadi va ularni diqqat bilan kuzatish taklif qilinadi.

2-usul: Talabalardan ikkita predmet yoki ikkita hodisani taqqoslash soʻraladi (oʻzaro bogʻliq jihatlari, ularni bogʻlab turuvchi jihatlari, oʻzaro farqi, oʻzaro oʻxshash jihatlari va hk.).

3-usul: Aniqlangan dalillar, qarorlar, xulosalar taqdimot qilinadi.

**Natija:** talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarining tarkibiy qismi boʻlgan integratsiyalash yaʼni: maʼlumotlarga ulanish va kombinatsiya – umumlashtirish, maʼlumotlarni izchil, samarali birlashtirish koʻnikmalari rivojlanadi.

**5-metod: "5T" metodi ("5T" method).**

**Maqsad:** talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga moʻljallangan "Muammoli taʼlim texnologiyalari"ning axborotlar bilan ishlash, akademik harakatchanlik, izlanish, oʻz oʻzini rivojlantirish imkoniyatidan foydalanish.

**Mexanizmi:**

1T – Taqqoslang.

2T – Tahlil qiling.

3T – Tizimlashtiring.

4T – Toʻldiring.

5T – Tanqidiy yondashing.

Topshiriq: talabalarga ijodiy matn yaratish vazifasi beriladi, bunda:

1-usul: Talabalarga ikkita rasm koʻrsatib, ularni kuzatish, taqqoslash, talqin qilish soʻraladi.

2-usul: Tahlil qilinadi.

3-usul: Shundan soʻng topshiriq boshida yaratilgan matnni 1 ta gap bilan davom ettirish, mazkur gap tarkibida koʻrsatilgan ikkita rasmdagi predmet ishtirok etishi soʻraladi.

4-usul: Shu tariqa talabalarga ikkitadan rasm koʻrsatib boriladi, talabalar esa matnni rasmdagi predmet ishtirokida gap tuzish orqali davom ettirib boradilar.

5-usul: Eng kritik yondashuvga asoslangan matn saralab olinadi.

**Natija:** talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarining tarkibiy qismi boʻlgan kreativ (yaratuvchanlik) yaʼni: yangi maʼlumot yoki gʻoyalarni yaratish; ishlab chiqish – qoʻshimcha tafsilotlar, misollar yoki boshqa tegishli maʼlumotlarni aniqlash va tushuntirish; kuzatish, taqqoslash va tahlil qilish jarayonida yangi yoki nostandart gʻoyalarni yaratish koʻnikmalari rivojlanadi.

**6-metod. "Juftlikda oʻqish va jamoada umumlashtirish" metodi ("Reading in pairs and summarizing in a team" method).**

**Maqsadi:** talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga moʻljallangan "Muammoli taʼlim texnologiyalari"ning oʻz fikrini aniq, ishonchli, ravon ifoda etish va dalillash imkoniyatidan foydalanish.

**Mexanizmi:**

1-usul: Talabalar kichik guruhlarga boʻlinib, oʻquv materialini (yoki biror axborot, maʼlumotni) oʻqib, mazmunini muhokama qilishadi.

2-usul: kichik guruhlarda tahlil qilingan materiallar jamoada muhokama qilinib, umumlashtiriladi.

3-usul: Quyidagi savollar orqali talabalarni fikrlashga, oʻz qaror va xulosalarini bayon qilishga undash mumkin:

Bu nuqtai nazarga yana nimalarni qoʻshimcha qilsa boʻladi?

Bu fikrda nimalar inobatga olinmagan?

4-usul: Bunda talabalarga oʻz faoliyatlarini baholash uchun quyidagi mezonlar taqdim qilinadi (mazkur mezonlar yozilgan jadvalga talabalar tasdiq yoki inkor belgisini qoʻyib boradilar):

oʻz qarashlarini shakllantirish va oʻz nuqtai nazarlarini tushuntirish;

sabablar va oqibatlarini aniqlash;

fikrlarni baholash va ularni solishtirish;

savollar berish;  
natijalarni oldindan ilmiy prognozlash;  
muammolarni va ularga yechimlarni aniqlash;  
real hayotda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab muammolar va vaziyatlarga yechim topish;  
muqobil nuqtai nazarlarni tasavvur etish, tadqiq qilish va tanqid qilish;  
fikrga qo'shilmaslik imkoniyati;  
chuqur mushohada qilish.

**Natija:** mazkur metod orqali bir vaqtda talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining tarkibiy qismi bo'lgan bir qancha ko'nikmalar rivojlanadi:

faraz qilish (bashoratlash) ko'nikmalari: ma'lumotni tanlab olish – alohida holatda ahamiyatsiz bo'lgan barcha ma'lumotlarni filtrlash; muammoni aniqlash – ehtiyojlarni, qarama-qarshiliklarni, tushunarsiz vaziyatlarni aniqlash; bashorat qilish – voqealar yoki vaziyatlarning oqibatlarini oldindan bilish; axborot to'plash ko'nikmalari: fikrlash jarayoni uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniqlashtirish; kuzatish; tashkiliy ko'nikmalar: axborotdan samarali foydalanish – taqqoslash, ya'ni obyektlar orasidagi yoki o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash; taqdimot – shaklni o'zgartirish; tahlil qilish ko'nikmalari: mavjud ma'lumotlarni aniqlashtirish; munosabatlar va tushunchalarni aniqlash – elementlarning aloqadorlik usullarini aniqlash; asosiy g'oyalarni aniqlash; xatolikni aniqlash – noto'g'ri axborotlar yoki boshqa xatolarni aniqlash va ularni tuzatish; kreativ (yaratuvchanlik) ko'nikmalari: yangi ma'lumot yoki g'oyalarni yaratish; ishlab chiqish – qo'shimcha tafsilotlar, misollar yoki boshqa tegishli ma'lumotlarni aniqlash va tushuntirish; integratsiyalash ko'nikmalari: ma'lumotlarga ulanish va kombinatsiya – umumlashtirish, ma'lumotlarni izchil, samarali birlashtirish; transformatsiya (qayta qurish) – mavjud bilimlarni yangi ma'lumotlarga o'zgartirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalarni tanqidiy fikrlash jarayonining o'ziga xosligini inobatga olgan holda, talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan pedagogik, texnologik va metodik ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni tavsiya qilamiz:

**1-tavsiya: bilimlarni tizimli oshirib borish.** Atrofimizdagi olam, bizni o'rab turgan dunyo haqida fikr yuritish, tanqidiy fikrlash uchun katta miqdordagi ma'lumotlar (big data), ensiklopedik (qomusiy) bilim (tushunish, uddalash, mohirlik, qobiliyat)larga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar, axborotlar, bilimlarning ko'pligi kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, talqin qilish, baholash imkoniyatini kengaytiradi. Bunda quyidagilar bilimlarni oshirish vositalari sifatida xizmat qiladi: badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish; hujjatli filmlarni ko'rish; turli sohalar bo'yicha mutaxassislar va muvaffaqiyatga erishgan insonlarning ma'ruza va tavsiyalarini tinglash (onlayn va oflayn); atrofdagi insonlarni kuzatish – bu ularning harakatlarining sababini tushunishga va turli vaziyatlarda o'zaro ta'sir strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi; insonlar bilan suhbatlashish, ularning fikri va tajribasini o'rganish – bu har qanday masala bo'yicha o'z pozitsiyasini ishlab chiqish yoki aniqlashtirishga imkon beradi.

**2-tavsiya: savol berishni shakllantirish (savol berishga odatlanish).** Qiziqish va har bir obyektning mohiyatini bilishga intilish tanqidiy fikrlashning asosi bo'lib, bu ehtiyojlarni qondirish uchun savollarni to'g'ri shakllantira olish zarur. Bunda quyidagi mashqlar tavsiya qilinadi: turli mavzularda savollar berishni mashq qilish (o'qilgan kitoblar, filmlar, rasmlar, dunyoda hamda atrofimizda yuz berayotgan voqealar va hokazolar asosida); savolni, muammoni turli yondashuvlarga ko'ra o'rganish;

**3-tavsiya: matnlarni o'qish va tahlil qilish.** Turli matnlar, axborotlar, ma'lumotlarni o'qish va ularni tahlil qilish tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

**4-tavsiya: doimo muqobil (alternativ) ma'lumot manbalariga murojaat qilish.** Tanqidiy fikrlash muammo haqida har xil, ba'zan qarama-qarshi fikrlar bilan tanishishni taqozo etadi. Muammoni o'rganayotganda turli xil manbalarga murojaat qilish, ishonchli ma'lumotlarni (tasdiqlangan rasmiy manbalardan olingan va aniq faktlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar) o'rganish, olingan ma'lumotlarni taqqoslash, uning izchilligi, to'liqligi, ishonchligini baholash, nomuvofiqligini aniqlash tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim asosi bo'lib xizmat qiladi.

**5-tavsiya: variantlarni topish.** Tanqidiy fikrlash muayyan omillarga bog‘liq holda vaziyatni rivojlantirishning turli xil variantlarini ko‘rishni va ushbu variantlardan eng maqbul, qulay va samaralisini ajratib olishni anglatadi. Bu jarayonni quyidagicha amalga oshirish mumkin: har qanday vaziyatda harakatlarning oqibatlarini bashorat qilish (bashorat qilishni o‘rganish); qaror qabul qilishda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha oqibatlarni bashorat qilish, ro‘yxatini shakllantirish, ularning har birini baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar xavfini qanday kamaytirish haqida o‘ylash; qiyin vaziyatlarni o‘ylab topish va muammolarning mumkin bo‘lgan yechimlarining ro‘yxatini tuzish; kitobdagi yoki filmlardagi personajlarning syujet rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarini tahlil qilish; qahramon hayotini yaxshi yoki yomon tomoniga o‘zgartiradigan muqobil ssenariylarni ishlab chiqish.

**5-tavsiya: xatolarni tahlil qilish.** Har bir xatoni tahlil qilishda konstruktiv yondoshish: uni topish, kelib chiqish sabablarini aniqlash va baholash, qanday qilib unga yechim torish mumkinligi haqida variantlarni topish.

**6-tavsiya: nimani yodda tutish kerakligini bilish.** Dunyoqarashni kengaytirish (intilish), turli mavzular va hodisalar haqida ko‘proq bilish, savollar berish, matnni tahlil qilishni va turli xil ssenariylarni ishlab chiqishni o‘rganish muhim, biroq nimani yodda tutish kerakligiga ahamiyat berish lozim.

**7-tavsiya: maxsus mashqlar va texnikalar.** Rebus, boshqotirmalar va mantiqiy o‘yinlar, topishmoqlar va jumboqlarni yechish, mantiq va tasavvurni rivojlantiradigan stol o‘yinlari, noan’anaviy fikrlashni rivojlantirish usullari diqqatni jamlaydi va mantiqni rivojlantiradi, fikrlash tezligini yaxshilaydi, asosiyni ikkinchi darajalidan ajratishga o‘rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ashurova Z.M. Muammoli ta’lim texnologiyalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari // Scientific progress. Volume 2. ISSUE 7. 2021. -P. 794-800.

2. Antonio Vega (2017). Critical thinking: indispensable in school. 12/01/2017. Ele Sapiens. www.elesapiens.com

3. [Gaipova S.K., Ibadullayeva M.D., Hayitboyev N.S.](#) Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi // "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5. -P.945-950. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)

4. 4. S.Gupta, R.Bustrom. [Technology-Mediated Learning: A Comprehensive Theoretical Model // Business Journal of the AIS. 1 September, 2009.](#) Elektron resurs: <https://www.semanticscholar.org/paper/Technology-Mediated-Learning%3A-A-Comprehensive-Model-Gupta-Bostrom/0fd4f69ae15d917ae832817a6c50e42e45ced95d>

5. Djuraev R.X., Mirzaev Ch.E., Rahimov B.X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish jarayonini kompleks loyihalash // Uzluksiz ta’lim. – T.: 2008. - №3. – B. 14-22.

## **ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA TEXNALOGIYALARNI INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA JORIY ETISH**

**Ergasheva Anbar Shaymardan qizi  
Xalqaro innovatsion universitet, o‘qituvchi**

**Annotatsiya.** Zamon shiddat bilan rivojlangan sari barcha sohalarda ham o‘zgarishlar yuz beradi. Pedagogik jarayon ham bundan mustasno emas. Shunday vaqtda innovatsion ta’lim sharoiti va qonuniy asoslarini tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, pedagogik innovatsiya.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G‘arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan.

Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan.

Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta'lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e'tibor yanada kuchaytirildi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi: a) Gendr pedagogikasi; b) Evristik pedagogika; v) Majburiy pedagogika; g) Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi.

O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lim mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

- Ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda vertual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin.

- O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lim, evristik ta'lim, darajalangan ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, interfaol ta'lim, informal ta'lim, rasmiy ta'lim, norasmiy ta'lim turlari bilan izohlanadi.

- O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

- O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin.

1. Aktiv metod. Bu metod ni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va voqelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi.

2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi.

3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi.

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin. a) Standart dars – dars ichidagi struktura o'zgarmaydi. b) Nostandart dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi. v) Vertual dars – yani masofadan o'qitish. Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va



vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iborat bo'lib, innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy o'quv yurti o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. 4.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI**

Ahmadjonova Umida Tojimumurodovna  
Jizzax politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda xalqaro tadqiqot materiallaridan foydalanishning afzalliklari, PIRLS xalqaro baholash tadqiqotining ahamiyati, mazkur materiallardan o'qish savodxonligi darslarida foydalanish natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, xalqaro baholash tadqiqotlari, PIRLS xalqaro baholash dasturi, o'qish savodxonligi, matnni o'qish va tushunish.

**Kirish.** Bugungi shiddatli davr har bir ta'lim olayotgan shaxslardan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori boshlang'ich ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan.

Ta'lim-o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi

Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham, prezident: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi",—deb ta'kidlaganlarida[1] "Uchinchi Renessans poydevori"ni ta'lim islohotlarida ko'rdi.

Ta'lim jarayoni uzluksiz bo'lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog'liqdir.

Haqiqatan ham, ta'limga zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qo'yilgan o'quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, har bir rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'limida alohida ustivorlikka ega jihatlar mavjud. Jumladan, Xitoyda 6 yoshga to'lgan bolalar boshlang'ich maktab yoki o'rta maktabga kiradilar va u yerda 6 yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabda bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi[3].

Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosidan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istibolli kelajakka eltadi. Ta'lim tarbiya-bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak.

**Metodologiya.** Ta'lim sifatini baholash bo'yicha turli xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksar hollarda, ta'lim tizimi jadal o'zgarib borayotgan jamiyat talablariga javob berishga ulgurmayapti va o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyati, jamoada ishlash hamda kundalik hayotda va ishlab chiqarishda foydalaniladigan yangidan-yangi texnologiyalarga moslashish kabi zarur ko'nikmalarni shakllantira olmayapti. Bilimlarni baholash usullarini isloh qilish ta'lim sohasidagi har qanday tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu o'zgarishlar maktab bitiruvchilarini munosib hayot uchun zarur bo'lgan malakalar bilan qurollantira oladi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni ko'rib chiqib, natijalarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, dunyo mamlakatlarida maktab o'quvchilarining o'qishda erishadigan natijalariga qo'yiladigan talablar, o'quv dasturlari va darsliklarning boy tahliliy materiallari pedagogik baholash sifatining xalqaro standartlarini ommalashtirishga, monitoring tadqiqotlari madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

XXI asr ko'nikmalari (21CS) hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarida ta'lim maqsadlari sifatida mustahkam o'rnashgan, ammo ularning o'qitish va baholash amaliyotida amalda qo'llanilishi ortda qolmoqda. To'g'ri javob berishdan ko'ra, qanday qilib javob olishni birinchi o'ringa qo'yadigan ushbu o'quv maqsadlari ta'lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo'yimoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.

Kelgusi avlod kelajakda hatto, bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarda ishlaydi. O'quvchilarga nimani o'ylashni emas, qanday o'ylashni o'rgatishga ularni tayyorlash ta'limning oldida turgan bugungi kun talabidir. Shu sababli, ta'lim tizimlari o'quvchilarning o'z bilimlarini qo'llash zarurligiga tobora ko'proq e'tibor qaratayotgani sababli, 21CSga e'tibor kuchaydi. Ta'limda o'quvchilarda 21CS ning shakllanganligi nisbatan kam baholagan. Hozirda biz buni baholashga qay darajada erishayapmiz? Javobi oddiy: biz bunga deyarli erishmayapmiz. XXI asr ko'nikmalari nima? Ular XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim hayotiy ko'nikmalardir. XXI asr ko'nikmalari bilimlar iqtisodiyotida eng ko'p talab qilinadigan ko'nikmalardir.

Bir necha bosqichli savollar tizimining asosiy maqsadlari: o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalariga oid bo'lgan tanqidiy fikrlashni hosil qilishga yordam berish, ijodkorlik, muloqot o'rnata olish, o'zaro hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammolarni yechish

va maqsadli obyektiv yechimlarni topishdan iborat. Qachonki, o'qituvchi o'quvchining chuqur o'ylash jarayonini bosqichma-bosqich rag'batlantirib borsa yuqoridagi maqsadlarga erishish mumkin[4].

Yurtimizda ta'lim sifatini baholash markazlari tomonidan olib boriladigan ta'lim sifati bo'yicha ma'lum monitoringlarning aksariyati umumiy konseptual yondashuvlardan va xalqaro tadqiqotlar vositalarining alohida elementlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda O'zbekistonning ishtirok etishi mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi[2].

O'zbekistonning ta'lim sifatini baholovchi xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda ishtirok etishi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar mamlakatimizda ta'limning sifati va uning jahon ta'lim tizimidagi nisbiy mavqeini baholashga imkon beradi. Baholash tadqiqotida ishtirok etuvchi turli mamlakatlarning o'quv dasturlari, darsliklari va o'quvchilarning o'qishda erishgan natijalariga qo'yiladigan talablariga oid boy tahliliy materiallar mazkur mamlakat mutaxassislariga ta'lim mazmunini isloh qilish va ta'lim standartlarini yaratish borasida asosli qarorlar qabul qilishga yo'l ochadi.

Dunyoning yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik baholash texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasida baholashning milliy tizimini yaratish imkonini beradi.

Quyida boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS xalqaro dasturini o'qish savodxonligi darslariga tatbiq etish usullarini ko'rib chiqamiz.

PIRLS-matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro loyihasi turli mamlakatlardagi boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish sifatini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotlar har besh yilda bir marta o'tkaziladi.

Tadqiqot doirasida 4-sinfni tamomlayotgan o'quvchilarning o'qish sifati sinovdan o'tkaziladi, chunki mazkur to'rtinchi yil bolalar rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi-bu vaqtga kelib o'quvchilar o'qish savodxonligini shu darajada egallashi kerakki, bu malaka ta'lim olishning keyingi bosqichi uchun asosiy vositaga aylanishi zarur.

O'qish savodxonligi akademik muvaffaqiyatning asosidir va PIRLS yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan strategiyalarning o'zlashtirishga qay darajada ta'sir qilishini o'rganish uchun qimmatli vositadir. PIRLS baholash dasturi o'qishning asosiy maqsadlari-badiiy o'qishda tajriba orttirish, ma'lumotga ega bo'lish va undan foydalanish hamda internetda ma'lumot qidirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli tizimga asoslangan.

PIRLS tadqiqotlari o'quvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlari paytida va maktabdan tashqarida eng ko'p ishlatiladigan o'qishning ikki turini baholaydi:

- adabiy o'qish borasida tajriba orttirish maqsadida o'qish;
- ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish uchun o'qish.

Tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot matnlarini o'qishda o'qish qobiliyatlari to'rt guruhda baholanadi:

- aniq shaklda berilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- axborotni sharhlash va umumlashtirish;
- matnning mazmuni, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.

**Natija va muhokama.** 4-sinf o'qish va savodxonlik darslarida tadqiqot materiallaridan muntazam foydalanish natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, to'rtinchi sinf o'quvchilarining 38 foizi nafaqat matndan ma'lumotni o'qishni, balki ushbu ma'lumotni jiddiy aqliy qayta ishlashni talab qiladigan o'ta murakkab darajadagi savollarga javob bera oladilar.

Ular 800-1000 soʻzdan iborat matnlarni bemaʼlol oʻqiydilar, mazmunini tushunadilar va sharhlay oladilar.

PIRLS xalqaro baholash mashqlaridan savodxonlik darslarida foydalanish natijalari shuni koʻrsatadiki, boshlangʻich 4-sinf oʻquvchilarining matnlarni oʻqish, bu matnlardan shaxsiy tajriba va bilimlarini oshirish maqsadida foydalanish borasida tayyorgarligi nisbatan past.

Xalqaro testning individual topshiriqlarini bajarish bosqichi tahlil qilinganda oʻquvchilar duch kelgan baʼzi qiyinchiliklar aniqlandi. Xususan, natijalarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, har qanday maʼlumotni aniqlashtirish kerak boʻlganda matnga murojaat qilish odatining shakllanmaganligi ikkita tipik muammoga olib keladi:

birinchidan, oʻquvchilar matnda keltirilgan maʼlumotlarni va oʻzlarining shaxsiy tajribalari asosida egalik qiladigan maʼlumotlarni (taxminan 37%) yaxshi farqlamaydilar,

ikkinchidan, matndagi maʼlumotlarni taxminan, noaniq oʻzlashtirish bilan cheklanadilar (taxminan 26%).

Bolalarga savollarga javob berishda doimiy ravishda matnga murojaat qilish, topshiriqlar qanday shakllantirilganiga eʼtibor qaratishni oʻrgatish juda muhim, chunki topshiriqlar deyarli har doim “Matnga tayanib...”, “Matnga asoslanib...”, “Matnda nima deyilgan...” shaklida beriladi.

Agar savol batafsil javobni talab qilsa, oʻquvchilar (65% gacha) fikrlarni yozma ravishda ifodalash jarayoni bilan bogʻliq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Oʻqilgan matnni yaxshi tushunadigan oʻquvchilar, koʻp hollarda, oʻz fikrlarini ifoda etishda qiynalغانining guvohi boʻlishimiz mumkin. Ular topshiriqda qoʻyilgan savolga javobni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan: “Kichkina qiz – ushbu hikoyadagi muhim timsol. Nima sababdan sodir boʻlgan barcha voqealarda uning oʻrni juda muhimligini tushuntiring”, “Nega fermerning doʻsti burgutni uchishga majburlash uchun togʻlarga olib chiqdi? Ikkita sababni ayting”, “Nima uchun shisha idishga tuproq va qumni navbatma-navbat qatlam shaklida solish muhimligini tushuntiring”, “Nima uchun yomgʻir chuvalchangi ustida oʻtkazilgan tajribada kartoshka va piyoz boʻlaklarini yerning yuqori qatlamiga qoʻyish muhimligini tushuntiring”.

Aynan qoʻyilgan savolga javob berish oʻquvchilarda qiyinchilik tugʻdiradi. “Ushbu uchta tajribadan qaysi biri sizga juda qiziq tuyuldi? Javobingizni tushuntirish uchun matndan foydalaning”, “Matnning yogʻoch bitlarini oʻrganishga bagʻishlangan qismidagi rasmga qarang. Ushbu rasm sizga tajriba oʻtkazish uchun nima qilish kerakligini tushunishga qanday yordam beradi?”

Bolalar oʻzining javobini batafsil yozishga qiynalishining sabablaridan birini shunday izohlash mumkin, yaʼni bolalar javobning aniqligi va javobni imlo qoidalariga muvofiq shakllantirish oʻrtasidagi muvozanatni saqlashda qiynaladilar, bunda javoblarni baholashda imlo xatolari hisobga olinmasligini yodda saqlash muhim.

Oʻquvchilar, shuningdek, “savol ichidagi savollar”ni oʻz ichiga olgan koʻp qismli javobni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarishda qiyinchilikka duch kelishadi, masalan, “Hikoyaning boshida va oxirida loy boʻlagi turlicha his-tuygʻularga ega edi. Ularni tasvirlab bering. Uning his-tuygʻulari nima uchun oʻzgarganini tushuntiring”, “Azizaning harakatlaridan siz uning feʼlatvorini bilib oldingiz. Aziza xarakteriga xos boʻlgan bitta xususiyatni yozing. Javobingizni asoslash uchun uning qilgan ishidan ikkita misol yozing”. Bolalar topshiriqning barcha qismlarini bajarmaydilar, faqat topshiriqda berilgan savollarning bir qismiga javob beradilar.

Yana bir muammo javoblardagi baʼzi rasmiyatchilik bilan bogʻliq: baʼzida bolalar savolni shunchaki koʻchirib yozadilar, baʼzida ikkita misol keltirilishi kerak boʻlgan topshiriqlarda ular birinchi misolni ikkinchi qatorga ham koʻchirib yozadilar, bunda ular vaqt yoʻqotadilar va, tabiiyki, takrorlangan javob uchun ball olmaydilar.

Natijalarni tahlil qilishda qayd etilgan yana bir muammo oʻgʻil va qiz bolalar natijalarida farq borligi (qizlarning oʻrtacha ballari oʻgʻil bolalarning oʻrtacha ballaridan yuqori) bilan bogʻliq. Shu bilan birga, 4-sinf oʻquvchilari bilan taqqoslaganda, nisbatan kichik sinflar oʻrtasida bu boʻshliq darajasi ortgan. Olingan natijalar oʻgʻil bolalarning oʻqishga boʻlgan

qiziqishini rivojlantirish, ularga turli xil o'qish strategiyalarini o'rgatish va hokazolar uchun maxsus harakatlar zarurligini ko'rsatadi.

Natijalarni tahlil qilishda bizni nafaqat o'rtacha ball qiziqirdi, balki eng zaif va eng kuchli o'quvchilar (yuqorida tavsiflanganlardan) o'qilgan matnni idrok qilishning qaysi darajasiga erishishiga ham e'tibor qaratdik. Eng zaif o'quvchilarning besh foizi o'rtacha 355 va undan past ballni (ushbu ko'rsatkich past darajaga to'g'ri keladi), eng kuchli o'quvchilarning to'qson besh foizi o'rtacha 522 va undan yuqori ballni (yuqori darajaga to'g'ri keladi) ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, 2016- yildagi yuqori natijalar Shimoliy Irlandiya (673 ball), Angliya (678 ball) va Singapur (687 ball)ning eng yaxshi o'quvchilari tomonidan namoyish etilgan edi[5].

Bu shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'zlarining ilg'or o'quvchilariga o'qish savodxonligi darajasini yanada rivojlantirish uchun nisbatan murakkab topshiriqlar berib borishlari kerak.

Bu borada A.Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan "STesting" elektron innovatsion platformasi o'qituvchilar uchun juda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa** shuki, baholash "ta'limning richagi" va u ta'lim sifatini boshqaradi. Blum taksonomiyasi asosida dars mashg'ulotlarining o'quv maqsadlarini belgilasak, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqsak va ushbu topshiriqlar asosida baholash jarayonlarini tashkil etsak, yuqorida aytib o'tilgan XXI asr ko'nikmalarini o'quvchilarimizda rivojlantirishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Zero, bu ko'nikmalar XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan eng muhim hayotiy ko'nikmalardir.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020 <https://daryo.uz/2020/09/30/shavkat-mirziyoyev-oqituvchi-va-murabbiylarni-kasb-bayrami-bilan-tabrikladi>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8- dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/docs/4097073>
3. Ochildiyeva Mushtariy, & Parpiyev Odiljon. (2023). Boshlang'ich ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 1(1), 640–644. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.666>
4. Абдуллаев Ф.Р. Ўқувчиларда XXI аср кўникмаларининг шаклланганлигини баҳолаш // Педагогик ва психологик тадқиқотлар. № 1 (2023) Б. 10-17. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7548737>
5. Muazzamxon Xodjayeva, & Odiljon Parpiyev. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va savodxonlik darajasini oshirishda xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 1(1), 914–918. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.758>

#### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ANALITIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM  
stajiyor o'qituvchisi Qaxxorova M.U

#### **Annotasiya:**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining analitik fikrlash faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash,

o'quvchilar analitik fikrlash faoliyatini rivojlantirishga doir innovasion faoliyatga tayyorlash, o'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovasion texnologiyalardan foydalanishga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** analitik fikrlash, innovasion faoliyat, hamkorlik faoliyat, ijodkor shaxs, ijodiy yondashuv, ijodiy qobiliyat, rivojlanish darajasi.

### **Kirish.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali o'quvchi yoshlarni boshlang'ich sinflardan o'qish savodxonligi ko'nikmalarini oshirishning didaktik imkoniyatlari ortadi.

Analitik ko'nikmalar kasbiy pedagogik kompetentsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, ular nafaqat tahlil qilish, balki axborotni sintez qilish, uni yangi yuqori nazariy darajaga ko'tarishdir. Analitik ko'nikmalar-bu pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan ko'nikmalari namoyon bo'ladigan va amaliyotdan bilimlar olinadigan bilim jarayonlari tizimi. O'quvchilarning axborot savodxonligini oshirish uchun axborot-tahlil ko'nikmalarini shakllantirish muammosi ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolganligi bejiz emas.

Analitik tafakkur-muammolarni aniqlash, katta ma'lumotlar bloklarini kichikroq qismlarga ajratish, individual faktlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va olingan ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Insonga bir nechta fikrlash turlari berilgan, lekin biri doimo boshqalardan ustun turadi.

Analitik fikrlash ketma-ketlikdir. Unga moyil bo'lgan odamlar katta ma'lumot blokini qayta ishlaydilar, uni asosiy qismlarga ajratadilar va har bir komponentni bosqichma-bosqich tekshiradilar. Buning uchun ularda mantiqiy fikrlash ham rivojlangan bo'lishi kerak. Analitik fikrlash qobiliyatlari bugungi ilg'or texnologiya ish joyida, xususan, o'qituvchilik kasbida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, analitik fikrlash qobiliyatlari o'qituvchi yoki o'qituvchi stajyorlariga o'zgaruvchan tendentsiya dunyosining tezkor axborot asrida ma'lumot to'plash, ifodalash, tasavvur qilish va murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Tafakkur turlari ichida analitik tafakkur o'zining muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Avvalo, tafakkurning analitik turi mantiqiy tafakkur va tanqidiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Analitik tafakkur tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining bir qismidir. Uning xususiyatlari odamning muammo yoki vaziyatni juda astoydil o'rganishi yoki batafsil rejalar tuzishi, bir vaqtning o'zida barcha ma'lumotlarni tahlil qilishi va barcha afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olishi bilan namoyon bo'ladi.

Analitik fikrlashni rivojlantirish juda muhim masala, chunki ma'lumotni yaxshiroq tushunish, eslab qolish va o'zlashtirish, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish uchun har birimizdan tahliliy qobiliyatlarni talab qiladi. Analitik fikrlashni shakllantirish inson uchun odatiy kundalik hayotida, o'qishda va kasbiy faoliyatida foydalidir.

Analitik fikrlashni shakllantirish quyidagilar uchun talab qilinadi:

- asosiy va ikkinchi darajali tushunchalarni tez aniqlash;
- murakkab maishiy, hayotiy va kasbiy muammolar va vazifalarni hal qilish;
- davom etayotgan tadbirlarda afzallik va kamchiliklarni izlash;
- cheklovlar va imkoniyatlarni aniqlash;

- olingan tajribani tahlil qilish;
- asosli xulosalar yaratish;
- statistik ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilish;
- haqiqiy maqsadlardan kelib chiqib, ish faoliyatni rejalashtirish;
- maqsadlarga erishish jarayonini bosqichma-bosqich vakolatli taqsimlash.

Analitik fikrlashni rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: krossvordlar, boshqotirma va topishmoqlar yechish, mantiqiy o'yinlar o'ynash, kvestlar (jumladan, ob'ektlarni qidirish) yoki strategiyalar kabi o'quv kompyuter o'yinlarini o'ynash, yangiliklarni tomosha qilish, ya'ni uni shunchaki tanqidiy nuqtai nazardan qabul qilmasdan, balki faktlarni tahlil qilib, sabab-oqibat munosabatlarini qidirib, xulosalar chiqarish, kitoblar o'qish, jumladan, detektiv va fantastik adabiyotga, masalan, Robert Xaynlin, Erl Gardner, Agata Kristi va boshqa mualliflarning asarlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Casestudy" uslubi: nazariya, amaliyot, tajriba. –T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2012.
2. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish / –Farg'ona: FarDU, 2008.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar / –T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat /T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyotjamg'armasi" nashriyoti. 2006.
5. Zunnunov A. va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000.
6. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika / O'quv qo'llanma. –Toshkent: Fan, 2004.
7. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika / O'quv qo'llanma

#### O'ZBEK TILI DARSLARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

*Qashqadaryo VPYMO MM Metodik xizmat  
ko'rsatish bo'limi o'zbek tili fani metodisti  
O'Imomnazarova*

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoning ijrosini ta'minlash maqsadida "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Bu mamlakatimizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro' e'tiborini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ-nutqiy tamoyili, o'quv mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, sayohat darslari.

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim asosiy tayanch bosqich bo'lib, bu bosqichda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanidan o'quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og'zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi. O'qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo'llash malakasi shakllantiriladi.

O'zbek tili darslarida amalga oshirish lozim bo'lgan asosiy masala ona tilisi o'zga bo'lgan o'quvchilarda o'zbek tiliga qiziqish va e'tibor hissini muntazam sur'atda o'stirib borish, o'zbek tilida so'zlashish, ularga tilning, urf-odatlarining, o'zbek madaniyati va boy adabiy merosining ahamiyatini, turli mavzularda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat. Shu sababli ham o'quvchilarda o'zbek tili fanini o'qitishda yangi innovatsion texnologiyalarga ehtiyoj bor. Ana



shunday ehtiyojni qondirishda pedagoglar tomonidan 4 K modeliga asoslanib, har bir dars jarayonining bosqichlarida ushbu ko'nikmalarni qo'llash va bu orqali o'quvchida jamoada ishlash, suhbatdoshining fikrini tinglay olish, o'z fikrini tanqidiy, noodatiy tarzda aks ettira olish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Buning uchun dars jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil etish muhim hisoblanadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi ta'lim tizimimiz avvalgi ta'lim tizimimizdan tubdan farq qiladi. Bugungi o'qituvchi darsni eskicha qarashlar asosida tashkil etadigan bo'lsa, birinchi navbatda, dars sifatiga ta'sir qiladi, ikkinchidan, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari pasayishiga olib keladi, uchinchidan, ta'lim tizimi buni qabul qilmaydi. Qisqacha sharhlaydigan bo'lsak, o'qituvchidan noan'anaviy dars o'tish talab etiladi. Shuningdek, bugungi o'qituvchi ma'ruzachi emas, balki boshqaruvchi hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi ko'pi bilan 10 daqiqagacha gapiradigan bo'lsa, qolgan vaqt davomida o'quvchi gapiradi. Buni qanday izohlaymiz. XXI asr o'qituvchilarining barchasida XXI asr ko'nikmalari shakllangan bo'lib, ayni vaqtda o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, an'anaviy ta'lim va noan'anaviy ta'lim bir biridan tubdan farq qiladi. Jumladan,

<b>an'anaviy ta'lim</b>	<b>noan'anaviy ta'lim</b>
o'qituvchi hamma narsani biladi	o'quvchi bilmaydi
o'qituvchi bilim beradi	o'quvchi tayyor holatda bilim oladi
o'qituvchi gapiradi	o'quvchi tinglaydi
o'qituvchi boshqaradi	o'quvchi aytilganni bajaradi
o'qituvchi shart belgilaydi	o'quvchi shartni qabul qiladi
o'qituvchi faol	o'quvchi passiv
o'qituvchi ta'lim mazmunini tanlaydi	o'quvchi moslashadi
o'qituvchi avtoritar	o'quvchi erkin emas
o'qituvchi subyekt	o'quvchi obyekt

Zamonaviy yondashuv asosida 4K ilg'or ta'lim modeli hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak:

- ❖ kompleks vazifalarni hal qilish;
  - ❖ bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;
  - ❖ ijodiy fikrlash;
  - ❖ insonlar bilan hamkorlik qilish;
  - ❖ jamoada ishlash;
  - ❖ o'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish;
  - ❖ diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish.
- Shu o'rinda savol tug'iladi. 4K qanday shakllantiriladi?
- ✚ o'quv mashg'ulotlari davomida;
  - ✚ amaliy mashg'ulotlarda;
  - ✚ sinfdan tashqari mashg'ulotlarda;
  - ✚ sayohat darslarida.

Bugungi kunda 6-7-10 sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim olib kelmoqdalar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni, bu tamoyilda shunchaki ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

O'quv mashg'ulotlari davomida **“Pazl”** metodidan foydalish orqali o'quvchilarda 4Kni shakllantirish mumkin. Ushbu metod o'quvchilarni mantiqiy va izchil fikrlashga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishga o'rgatadi hamda berilgan muammo yechimini topishda kreativ yondashishga, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi. Masalan, 6-sinf o'zbek tili darsligidagi

“Samarqandning yuragi” mavzusini o‘qitishda “Pazl” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. O‘quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi. Guruhga ajratishda Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek va Registon nomlari o‘quvchilar tomonidan ketma-ket sanash orqali o‘sha nomdagi guruhga ajratiladi. O‘quvchilar 1-guruh “Amir Temur”, 2-guruh “Mirzo Ulug‘bek”, 3-guruh “Registon” nomli guruhlarga jamlanadi.

2. Har bir guruhga guruh nomi bilan bog‘liq bo‘lgan har xil (siniqlar ko‘rinishda) qirqilgan rasmlar tarqatiladi.



3. Birinchi bosqichda rasmlar yig‘ilib, o‘z holiga keltiriladi.

4. Ikkinchi bosqichda “Amir Temur” va “Mirzo Ulug‘bek” guruhlari ularning hayoti va faoliyati haqida kichik matn yaratishsa, “Registon” guruhi uning tarixi haqida matn yaratadi.

5. Keyingi topshiriq yaratgan matnlarining ichidan uzoq o‘tgan zamon fe'llarini topishlari lozim.

6. Guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi va o‘quvchilar baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida 4 K modelidan foydalanish orqali o‘quvchilarda muloqot qilish, jamoa bo‘lib ishlash, tanqidiy fikrlash hamda kreativ fikrlash bo‘yicha ko‘nikmalar shakllanib, buning natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarga yechim topish yo‘llarini shakllantirishga, kreativlik fikrlashga o‘rgatamiz. Shuningdek, ularda qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat‘iyatlilik, moslashuvchanlik, liderlik qobiliyatlarini shakllantirishga erishamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. -Toshkent: Durdona, 2021.

2. Dushaeva N. Ona tili darslarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish. Internet materiali.

3. Karimova L. Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda 4 k modelining ahamiyati. – Buxoro: 2024.

### **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY TASAVVURLARINI TA‘LIMIY O‘YINLAR ORQALI OSHIRISH**

**Xolmatova Go‘zal Islomovna**

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

**guzal.xolmatova.89@bk.ru**

**Annotatsiya:** Dunyoda boshlang‘ich ta‘limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish jarayoni modelini yaratish, kichik yoshdagi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarining didaktik pedagogik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantiruvchi ta‘lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni yaratish zaruriyatini izohlaydi.

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy fikrlash, qobiliyat, ijodiy tasavvur, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur.

Respublikamizda umumta‘lim muassasalari o‘quvchilarining erkin, mustaqil fikrlash, atrofda voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini

rivojlantirish, ijodiy tafakkuri va tasavvuri rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy texnik bazasi yaratilgan. Bunda “yoshlarni jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, vatanga sodiq, qa‘tiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bunda shaxsning intellektual sifatlarini shakllantirish, tajriba va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘lim jarayonida ijodiy fikrlashga o‘rgatish masalalari bo‘yicha respublikamiz olimlari N.G.Alovutdinova, A.Ya.Bobomurodova, T.U.Ziyadova, R.Ibragimov, N.A.Qosimova, U.A.Masharipova, Sh.U.Nurullaeva, A.Q.Nisanbaeva, O.Oxunjonova, A.Teshaboev, A.R.Hamroev, N.A.Xamedova, M.Z.Hamdama kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlarda ijodiy fikrlash faoliyatining muayyan tarmoqlari ko‘rsatib o‘tilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirishning hozirgi holatini o‘rganish, amaliyotdagi darsliklarni tahlil qilish, umumlashtirish, “ijodiy tasavvur” tushunchasini pedagogik yoritib berish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish davrida ularning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning o‘quv-metodik ta‘minotini yaratish; boshlang‘ich sinflarda an‘anaviy kommunikativ metodlarning elektron didaktik vositalar bilan uzviy aloqasini ta‘minlash asosida o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish; boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslari jarayonida o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish samaradorligini baholash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ijodiy tasavvurini rivojlantirish savod o‘rgatish davrida, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar kesimida, ixtiyoriy tarzda tanlangan o‘quvchilar guruhi bilan tashkil topgan maxsus mashg‘ulotlarda rasm kompozitsiyalari asosida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatini shakllantirish; tasavvurini boyitish orqali fikrlash quvvatini to‘ldirish; ijodiy tasavvuri, fantaziyaviyligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish; ertak, hikoya qaxramonlari, tabiat manzaralari tasviridan sinfdan tashqari o‘qish darslarida qo‘llanilishi mo‘ljallangan metodik tavsiyalar vositasida kerakli bilimni ta‘minlash; ijodiy topshiriqlar berish va topshiriqlarning bajarilish jarayonini tahlil qilish orqali kerakli bilimlarni egallashga ko‘maklashish maqsadida bir qator amaliy ishlarni bajarish nazarda tutilgan.

Ijodiy tasavvur tajriba va voqelikning o‘zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat faoliyat bo‘lib, uning natijasida san‘at, adabiyot, texnika sohalarida yangiliklar yaratiladigan, qonuniyatlar, xususiyatlar, yangi dalillar aniqlanadigan, asl va takrorlanmas qadriyatlar yaratiladigan, shuningdek, ma‘naviy-madaniy va moddiy dunyoning yangilanishi ro‘y beradigan tadqiqot usullari demakdir.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro faol muloqot, o‘quvchilarning yetakchilik qilishi, bir-biri bilan fikr va tajriba almashishi, o‘rganilayotgan mavzu yoki o‘quv materiali bo‘yicha mustaqil fikrlashi, o‘z qarashlarini ilgari surishi, ularni dalillashi, himoya qilishi va ma‘lum xulosalarga kelishi asosida ta‘lim maqsadlariga erishish talab qilinmoqda. Maqsadli yo‘naltirilgan rasm kompozitsiyalari va topshiriqli metodikalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta‘limini tashkil etish yuqorida qayd etilgan talablarga muvofiqlikni ta‘minlaydi.

Umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy tasavvurini shakllantirish va rivojlantirish jarayon samaradorligini oshirishda zamonaviy, innovatsion pedagogik, psixologik, didaktik, metodik yondashuvlar asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ijodiy tasavvurni rivojlantirish samaradorligini oshirish imkonini beradigan “Raqamlar joylashuvi”, “Shakllarni davom ettir”, “Ranglarini moslashtir”, “Tasavvuringizni ishga soling”, “O‘ylab ko‘ring” va “Rasmdagi kamchiliklarni to‘ldiring” kabi topshiriqlarni mavzu va mashg‘ulot maqsadidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining motivatsiyasini oshirish, ta‘lim jarayonining metodik ta‘minotini boyitish va o‘quvchilarning ulardan amaliyotda foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish imkoni yaratildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan to'g'ri, o'z o'rnida, maqsadli hamda unumli foydalanish kompetensiyasini takomillashtirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmanova U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tasavvurini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // O'zMU habarlari. –Toshkent.– 2018.
2. Usmanova U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning afzalligi // Ta'lim, fan va innovasiya. – Toshkent. – 2018.
3. Usmanova U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent. - 2018. №2. –B 85-88. (13.00.00; №17). 4
4. M.E.Jumaev. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha o'quv – uslubiy majmua. II qism. Toshkent, 2018.
5. Tolipov F., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI CHET EL METODIKALARINING TADBIQI**

**Karimova Nozima Hamzayevna**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi

**Madraximova Inobat Bahodirovna**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Finladiya ta'lim tizimi va uning yurtimiz ta'lim tizimimizga joriy qilinishining afzalliklari, farqli tomonlari, yutuq va kamchiliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, PISA, Finlandiya ta'limi, o'qitishning tahliliy usullari, o'qitish metodikasi

O'zbekistonda ta'lim metodikasi va tizimi tez-tez almashtirib turadi. Bundan avval respublika boshqa mamlakatlarning ta'lim tajribasini birdaniga va tayyorgarliksiz joriy qilganiga guvoh bo'lganmiz. Yaqinda Finlandiya metodikasi O'zbekistonda joriy qilinishi haqida xabarlar tarqalgandi. Finladiya ta'lim tizimi termini qaysidir ma'noda to'liq emas buni ta'lim berish muhiti va tajribasi desak to'g'ri bo'ladi va uni bitta davlat bilan bog'lay olmaymiz. Gap agar bolaga ma'lum bir ko'nikma beradigan metodikava darsliklar haqida ketayotga bo'lsa, ular yangi o'quv yilidan 1-4-sinflarda joriy qilinadi. Darsliklar Finlandiya metodlari asosida mahalliy mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan va Finlandiya ekspertizasidan o'tgan. O'qituvchilarning tayyorgarligiga kelsak, avgust oyining o'rtalarida ustozlarga yangi metodikalarni o'rgatish bo'yicha trenerlar tayyorlanadi va ular o'quv yilining boshida hamda o'quv yili davomida hududlarda o'qituvchilarga ushbu metodikani o'rgatishadi.

Finlyandiya Ta'lim va madaniyat vazirligi sayti, ma'lumotiga ko'ra mamlakatdagi ta'lim tizimi bir necha bo'g'indan iborat. Maktabgacha ta'lim pulli va uning narxi oilaning moddiy farovonligidan kelib chiqib belgilanadi. Undan keyin bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov bosqichi bo'lib, u bepul. Taqqoslash uchun, O'zbekistonda ham «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq bir yillik majburiy maktabgacha tayyorlov ko'zda tutilgan.

Finlyandiyada bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim olti yil davom etadi. 7-sinflardan boshlab bolalar o'rta ta'limning uch yil davom etadigan birinchi bosqichiga o'tadi. Boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning birinchi bosqichida barcha bir xil ta'lim olishi kerak: bolalarni, bizning ixtisoslashtirilgan maktablarimizdagi amaliyotdan farqli

ravishda, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab ajratish mumkin emas. Boshlang'ich maktabda bolalar bilan faqat bitta o'qituvchi ishlasa, o'rta maktabda har bir fan bo'yicha alohida o'qituvchi dars beradi.

O'quv yili 38 hafta, har bir dars 45 daqiqa davom etadi. Bolalar til, matematika, tabiiy fanlar va salomatlik haqidagi fan, din va etika, tarix va jamiyatshunoslik, san'at, ro'zg'orshunoslik va jismoniy tarbiya, shuningdek, o'z tanlovi bo'yicha boshqa fanlarni o'rganadi. Bundan tashqari, funksional va metakognitiv ko'nikmalar hamda kasb tanlovi bo'yicha maslahatlashuvlar uchun maxsus soatlar ajratiladi. O'quvchiga beriladigan haftalik yuklama, Yevropaning boshqa davlatlari bilan taqqoslaganda, past: 1 va 2-sinflarda minimal yuklama 20 soatni tashkil etadi va katta sinflarda 27 soatgacha ko'payadi taqqoslash uchun: O'zbekistonda bu yuklama haftasiga 22 soatdan 34 soatgacha yetadi. Maktablarda kiyim bo'yicha talab yo'q, darsliklar va tushlik bepul beriladi, darslar orasidagi uzoq tanaffuslar esa bolalarga o'ynash va dam olish imkonini beradi.

«Ta'limdagi fin mo'jizasi» haqida ilk bor 2000 yili, o'quvchilarning ta'limdagi ko'rsatkichlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur — PISA'ning birinchi natijalari e'lon qilinganida gapirilgan edi. Finlyandiya o'qish savodxonligi bo'yicha tadqiqotda qatnashgan 32 mamlakat orasida 546 ball bilan (o'rtacha ball — 500) birinchi, matematik savodxonlik bo'yicha 536 ball bilan (Gonkong, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yangi Zelandiyadan keyin) beshinchi va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha (Janubiy Koreya, Yaponiya va Gonkongdan keyin) to'rtinchi o'rinni egallagan edi. PISAning keyingi sikllarida ham, natijalarning pasayish va Osiyo mamlakatlari (Shanxay, Gonkong, Tayvan, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya)ning reytingi o'sishi tendensiyasini kuzatish mumkin bo'lsa-da, Finlyandiya baribir yuqori o'rinlarni egallagan.

Finlyandiyada darsliklar Sanoma Pro, Ota va yoki Edita kabi ko'plab nashriyotlar tomonidan ishlab chiqiladi. Nashriyotlar odatda o'z mahsulotlari namunalarini maktablarga yuboradi, shuningdek, pedagoglarni bozorda mavjud mahsulotlar bilan tanishib, o'z tanlovini amalga oshirishi uchun yangi darsliklarning taqdimotlariga taklif qiladi. Xarid qilinadigan darsliklar masalasidagi hal qiluvchi qaror maktab direktorlari va munitsipalitetlar rahbariyati tomonidan qabul qilinadi. Maktablar darsliklarni o'quvchilarga bepul taqdim etadi va kelgusi avlod o'quvchilari ham ushbu darsliklardan foydalana olishlari uchun ehtiyotkorlik bilan foydalanishni so'raydi. Ko'plab nashriyotlar darsliklarning raqamli talqinini va darsliklarga ilova qilish mumkin bo'lgan boshqa ko'plab resurslarni ham taqdim etadi.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, darsliklar umumta'lim maktabida hal qiluvchi rolni o'ynaydi va aksariyat o'qituvchilar uchun «o'quv dasturining ekvivalenti»ga aylanadi.

Darhaqiqat, ta'lim tizimi — masalan, ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, ta'lim muassasalari, baholash tizimi, tizimda ishlovchi mutaxassislar, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi bir-biri bilan o'zaro bog'liq unsurlardan iborat murakkab bir mexanizm bo'lib, ushbu zanjirning bir yoki bir necha pog'onasini ularning boshqa unsurlar bilan munosabatlarini inobatga olmay ko'chirish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Butun tizimni kontekstni inobatga olmay ko'r-ko'rona ko'chirish ham salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Timoti Uoker. “Finlandiya ta'lim mo'jizasi”, “Global books”, 2023 y.
2. Ta'lim tog'risidagi qonun, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son, lex.uz
3. Gazette.uz

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOLALARNI BADIY ADABIYOTGA O'RGATISH ASOSIDA ZAMONAVIY BILIM VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH**

Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi  
BuxDPI, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi.  
Xakimova Nazira

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bolalarida badiiy adabiyotni tarkib toptirish orqali ularda axloqiy, aqliy va estetik tarbiyani shakllantirish, nutqini har tomonlama rivojlantirish asosida zamonaviy bilimlarni shakllantirish va badiiy adabiyot lug'at boyligini oshirishda katta ta'sir etuvchi vosita ekanligi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy adabiyot, bolalar, bilim, ko'nikma, malaka, o'zbek xalq ertaklari, kitob, muloqot, bilish jarayonlari, hikoya, zamonaviylik.

Boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyot muhim omil sifatida qaraladi bunda bolalarda nutqiy bilim bilan birga lug'at boyligi ham oshib boradi. Shuni inobatga olib aytish mumkinki, badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida insonni fikrlashga dunyo qarashini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotini, kishilarning ichki dunyosini tushunishni, o'zaro muloqotda yordam beradi. Maktablarda Nutq o'stirishning bir bo'limi „Badiiy adabiyot bilan tanishtirish“dir. Bu bo'limda bolalarni badiiy adabiyotga o'rgatish shart-sharoitlari haqida ma'lumotlar berilib o'tilgan. Badiiy adabiyot tarbiyalanuvchilarga hayotni tushuntiradi va shu orqali tarbiyalanuvchining hayotiy tajribasining ortib borishida ta'sir etadi. Badiiy adabiyot ertaklaridagi qahramonlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Badiiy adabiyot orqali tarbiyalanuvchilar: yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg'on, saxiy-baxil kabi so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. Badiiy adabiyotdagi hikoya orqali tarbiyalanuvchilarda so'z boyligini boyitishda, so'zlarning ma'nosini anglashlarida va bu so'zlarni o'z muloqotlarida ishlatishlarida; she'rlardan esa musiqaga nisbatan muhabbatni uyg'otishda, musiqaning biror turiga qiziqish bildirishida yordam beradi. Badiiy adabiyot tarbiyalanuvchilarda ta'lim - tarbiyani shakllantirishdan tashqari, u tarbiyalanuvchilarda psixik jarayonlarini tarkib topishida ham yordam beradi. Badiiy adabiyot tarbiyalanuvchining his-tuyg'ularini rivojlantiradi, hayolini tarbiyalaydi, diqqatini jamlashga yordam beradi, narsa va buyumlarni idrok qiladi, tafakkur rivojlanishi bilan bir qatorda so'z boyligi ham ortib boradi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash: turli mavzudagi ertak, hikoyalar, shuningdek, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar, hikoyalar orqali rivojlantiriladi. Badiiy adabiyotni tarbiyalanuvchilarda o'rgatishda kitobning ham o'rni beqiyosdir. Dono xalqimiz bejizga aytishmaydi: „Kitobdan yaxshi do'st yo'q“ deb. Kitob orqali tarbiyalanuvchilar juda ko'p narsalarni o'qib, o'ganishadi. Kichik yoshli bolalarga rasmiy ertak kitoblardan foydalaniladilar. Rasmiy ertaklardagi rasmlar orqali tarbiyalanuvchilarda kitobga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Katta yoshli bolalarda esa turli ertak kitoblardan foydalaniladilar. Buning sababi esa bu guruhlardagi tarbiyalanuvchilari o'qishni, ertakni davom ettirishni, o'zlaridan yangi ertak to'qishni bilishadi. O'zbek xalq ertaklari va xorijiy ertaklar bilan ham tarbiyalanuvchilarga badiiy adabiyotni o'rgatish mumkin. Tarbiyachi o'zbek xalq ertaklarini yoki xorijiy ertaklarini zo'r intanatsiya bilan qahramonlarning ovozlari, xatti-harakatlarini rollarga kirib ko'rsatib bersa, tarbiyalanuvchida ertakka nisbatan qiziqish va o'zi ham qahramonga taqlid qilishga kirishadi. Masalan; „Echki va uning bolalari“ ertagiga kelsak, tarbiyachi bo'ringa echki ovozi qilib, eshikni taqillatishida barcha tarbiyalanuvchilarning diqqati bo'ringa ovoziga qaratiladi. Bolalar hayollarida o'zlari bo'ri bo'lib, uning ovozi qilib ko'rganday bo'lishadi. Tarbiyalanuvchilarda ertakka bo'lgan qiziqishini albatta tarbiyachi uyg'otadi. Tarbiyachining ertakni qanday aytib berishi bu bog'liq bo'ladi. Rus mumtoz adabiyoti namoyondalaridan A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, L.N. Tolstoy va boshqa yozuvchilarning asarlari o'qib beriladi. O'zbek yozuvchilari, shoirlaridan Q. Hikmat, G'.G'ulom, I. Muslim, P. Mo'min va boshqalarning asarlari bolalarga aytib beriladi. Hikoya - biron bir voqeaning mustaqil tuzilgan keng qamrovli bayonidir. Bolalarning o'zlari ham eshitgan yoki o'zlaridan irod qilib hikoya tuzish kabi mashg'ulotlarni tashkil etish orqali ularda erkin fikrlashi, yovoyilikni yo'qolishi, jamoada o'z nutqini bayon etishi mumkin. Bunday ishlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi boshligida bajariladi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarda bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish bolalarni milliy qadryatlarimiz an'analarimiz asosida ta'komillashadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotga o'rgatish katta ahamiyatga ega. Bola borki, har doim biror narsani bilishga, tushunishga intiladi. Shuning uchun ham pedagoglar va ayniqsa onalar bolalariga ko'proq kitob o'qib berishlari kerak. Kitob ichida to'la bilim bor. Bu bilimni bolalarga yetkazish birinchi navbatda tarbiyachi va ota-onalarga bog'liqdir. Badiiy adabiyot bilan tanishtirishda tarbiyalanuvchilar buyuk allomalarimizni, madaniyatimizni, milliy bayramlarimizni, tarixini, millatini bilib oladi. Badiiy adabiyot orqali bolalarda fikrlar dunyosi rivojlanadi, tabiiyki keng fikr yurutadigan insonda albatta badiiy adabiyotga nisbatan mehrning ildizlarini ko'rishimiz mumkin. Adabiyot bevosita sof va tiniq fikrlar asosida zamonaviy bilimlarni ham rivojlantiradi. Zamonaviy bilimlar zamirida ilk tushunchalar insonning keng tafakuri yotadi. Badiiy adabiyotga oid asarlarda, darsliklarda „badiiy adabiyotning predmeti — inson“ deb ko'rsatiladi. Biroq mazkur fikrni tor tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki adabiyot insonni alohida (izolyatsiya qilingan holda) emas, balki jamiyat, tabiat (bir so'z bilan aytganda — borliq) bilan uzviy aloqada o'rganadi. Zero, insonning o'zini ulardan holi, izolyatsiya qilingan holda tasavvur etib bo'lmaydi, inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Modomiki adabiyotning predmeti ham, uning yaratuvchisi ham inson ekan, adabiyotning ijtimoiy bo'lmasligi mumkin emas. Nima uchun asar yoziladi, nima uchun ijodkor asarni yozishga kirishadi? Axir kundalik turmushda duch kelgan odamlar, hodisalar uning qalb qozonida, aql-idrokida qaynamadimi, uni yozmasa bo'lmaydigan holatga keltirib, qo'lga qalam olishga majbur qilmadimi? Demak, xohlasak-xohlamasak, genetik jihatdan adabiyot ijtimoiy hodisa ekan. Biroq yaratilishi jihatidan, dunyoga munosabat, o'sha dunyo tufayli paydo bo'lgan hissiyotlar, fikrlar nuqtayi nazaridan tom ma'noda shaxsiy hodisadir.

#### **Foydalanadigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022— 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.

Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;

3. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue:12. 5-9p

4. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi, Raqamlashtirish sharoitida bo'lajak tarbiyachi pedagoglarning kasbiy malakalarini ta'limda baholash“. Spanish international scientific online conference Prospects and main trends in modern science. Part 7 December 29th Collections of scientific works madrid 2023 97-100b. <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10145>

5. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi Innovative developments and research in education International scientific-online conference 40 Page maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilari faoliyat samaradorligini oshirishda tizimli yondashuv tamoyillari BuxDPI Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

#### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA TEXNOLOGIYALAR, XALQARO TAJRIBALAR**

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi G.X.Shodiyeva  
BuxDPI II bosqich talabasi D.V.Ergasheva



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish: zamonaviy tendensiyalar va texnologiyalar, xalqaro tajribalar haqida ma‘lumot berildi.

**Kalit so‘zlar:** PIRLS, PISA, TIMSS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta‘lim tizimi, o‘qish savodxonligi.

XXI asrga kelib O‘zbekiston Respublikasi boshlang‘ich ta‘lim tizimida juda ko‘p o‘zgarishlar amalga oshirildi. Yangiliklarning kiritilishi ta‘lim sifatini xalqaro talablar darajasiga yetkazishdan iborat. Hozirda ta‘lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan ko‘plab me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning zahirida ham boshlang‘ich ta‘limga yangicha yondashuvni olib kirish va sifat samaradorlikni oshirish asosiy maqsad qilib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan ”Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmonida qator maqsadlar berilgan bo‘lib, ta‘limda qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Qator me‘yoriy-huquqiy asoslar boshlang‘ich ta‘lim jarayoni rivojida bir qancha bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan ko‘plab omillarni aniqlab, bugungi kunda shu muammoni yechish yo‘llarini topishni taqozo qiladi. Bu bo‘shliqlar bevosita boshlang‘ich ta‘limning ko‘plab jarayonlarini qamrab oladi:

- yangi avlod darsliklarini yaratish;
- ta‘lim jarayonidagi dastur mazmuni va bilimni berish faoliyatining o‘zgarishi;
- xalqaro baholash dasturi mazmunini ta‘lim jarayoniga olib kirish;
- zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin. 1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta‘lim sohasiga oid ko‘plab mavzular bo‘yicha o‘ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o‘tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o‘qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta‘limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo‘nalishlarda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, umuman olganda ta‘lim olish jarayonida qerishgan yutuqlarini baholab kelmoqda. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Bu dasturning muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to‘ladi. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA)-15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishishda ham xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko‘payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2006-yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda o‘tkaziladigan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan. Ayni paytda maktablar zamonaviy kompyuterlar, interaktiv jihozlar, elektron resurslar, internet tarmog‘i bilan ta‘minlangan. Bu esa maktab o‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni

joriy etishga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalariga tobora ko'proq qaram bo'lib borayotgan dunyoda talabalar va o'qituvchilar ularni yaxshi bilishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalar: Yangi avlod darsliklari Milliy dastur va Raqamli texnologiyalar integratsiyasi; Buxoro -2023 " Boshlang'ich ta'limda sifat va samaradorlikni oshirishning asosiy tamoyillari . M.I. Daminov .

2. Boshlang'ich ta'limda xalqaro baxolash tajribasi: muammo, yechimlar va istiqbollari; Buxoro -2022. "Boshlang'ich ta'limda xalqaro baxolash tizimi" M.J. Yarashov. BuxDU o'qituvchisi .

3. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar; 2023-yil 12-son.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA TEXNOLOGIYALAR**

Xoliyorova E'zoza – Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi

Qarshi (O'zbekiston) E-mail: [ezoza19maktab@gmail.com](mailto:ezoza19maktab@gmail.com)

[Tel:+998908901629](tel:+998908901629)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari tog'risidagi umumiy xulosalarga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** pedagogic texnologiyalar, bilim, innovatsion texnologiyalar.

**Аннотация:** Данная статья посвящена общим выводам о современных педагогических технологиях, методах и формах организации образовательного процесса в начальных классах.

**Ключевые слова:** педагогические технологии, знания, инновационные технологии.

**Abstract:** This article is devoted to general conclusions about modern pedagogical technologies, methods and forms of organizing the educational process in primary classes.

**Key words:** pedagogical technologies, knowledge, innovative technologies

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan Xalqaro ta'lim konsepsiyasida sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Unda ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'limda fanlarni innovatsiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish, o'quvchilarda integratsiyalashgan ta'limni rivojlantirish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogic tizimning imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ta'lim tizimlarining xalqarolashuvi jarayonlari milliy ta'lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, hozirgi kunda maktablarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarash, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiyalash orqali jahon innovatsion integrativ ta'lim muhitini kengaytirish, akmeologik yondashuv asosida innovatsion-kasbiy o'sish dinamikasini maqbullashtirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, o'qitish mazmuni va sifatini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini integratsiyalash, o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan o'rinli va samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. "Maktab o'qituvchilarini belgilangan xalqaro standartlar asosida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishini

ta'minlash ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan". Bu o'z navbatida ta'lim muassasasida yagona o'quv-me'yoriy hujjatlarni fanlar integratsiyasi asosida takomillashtiri zaruriyatini yaratib beradi.

Pedagogik texnologiya" tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish. Pedagogika o'z metodlarini yo'q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o'quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi. 2. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi.

3. Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. Respublikamiz istiqloлга erishgan hozirgi davrda shaxsiga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsiga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsiga bo'lgan talablarni va unga bo'lgan izzat-hurmatni birga qo'shish – ikki xil zarur shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, konkurslar o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda innovatsion texnologiyalaridan "Hazil minuti", "5 sekund o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi" kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi. Zamonaviy texnologiyalar va tendensiyalar

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va talabalarga ham barcha fanlarda qo'llansa, darsning o'zlashtirish sifati yanada o'sishini ko'rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R. Mavlonova, N. Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
2. „Informatika va axborot texnologiyalarining dolzarb muammolari“ mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2023-yil

Xoliyorova E. (261-265-betlar)

3. Muxtorova L. A. (2017). Boshlang'ich sinflarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari. Апробация, (2), 93-94.

## **II-SHO'BA: BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING 4K MODELI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: ZAMONAVIY METODIKA VA STRATEGIYALAR**

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA 4K MODELI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI**

**SHODIYEVA MATLUBA JO'RAYEVNA**

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi,  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasini mudiri  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida 4k modeli asosida o'qitishga doir kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari keng yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari modelining forsait tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** XXI asr ko'nikmalari, pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya, trayektoriya, ta'lim patternlari, raqamli ma'lumot (big data).

Yangilanayotgan O'zbekistonni va uning istiqbolini isloh etilayotgan ta'lim-tarbiya va ilm-fansiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mamlakatimizda ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha va maktab ta'limi tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish, pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirish, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini uzviy takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Asosiy e'tibor yosh avlodga ta'lim tizimining barcha bosqichlarida sifatli va zamonaviy ta'lim-tarbiya berish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarini o'rgatish, ularda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda sifatli ta'lim, zamonaviy bilim va tajribalar muhim ahamiyatga ega. Bunda albatta pedagog o'qituvchilarning kasbiy salohiyati muhim hisoblanadi, shundan kelib chiqib, respublikamizda maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etilgan bo'lib, "hayot davomida ta'lim olish" g'oyasi asosida malaka oshirish tizimi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimiga transformatsiya qilingan.

Ko'rinadiki, jamiyat ehtiyojlari o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning maqsadi va mazmunini o'zgartiradi, jamiyat, fan va ta'limning yangi yo'nalishlari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanganligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarni ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytiradi.

Bugungi globallashuv davrida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanganlik darajasiga nisbatan zamonaviy talablarni belgilashda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim subyekti bo'lgan o'qituvchilarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, zamonaviy jamiyat hayotga kirib kelayotgan avlodga yangi talablarni qo'yimoqda. XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lish va o'z harakatlarini rejalashtirish, hayotiy va ta'limiy muammolarni hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni topish, o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning axborot modelini yaratish va yangi texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat: umumiy madaniyati va bilimdonligi, bilimlarni mustaqil qo'llash va bilish qobiliyati; o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yashashga va harakat qilishga tayyorlik; yangi bilimlarni kashf etish; o'zini o'zi baholash orqali o'quv jarayonida ishtirok etish; mustaqillik, tashabbuskorlik, samaradorlik, mas'uliyat, keyingi ta'limga tayyorlik kabi fazilatlar mavjudligi.

Ikkinchidan, 2030 yilda ta'lim tizimida faol pedagogik va tashkiliy-texnologik transformatsiya yuz beradi. Globallashuv jarayonida internet, sun'iy intellekt texnologiyalari jadal kirib kelayotgan, ta'limda pedagogik, texnologik va ijtimoiy transformatsiyalar yuz berayotgan bir vaqtda o'quvchining raqamli portreti qanday bo'lishi yoki maktab o'quvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspertlar fikricha, yangi davr o'quvchilari: akademik bilimga ega, bazaviy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay oladi; kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallab, zarur holatlarda murakkab nostandart masala va muammolarni yecha oladi; kreativ fikrlaydi, yuzaga kelgan muammoni matematik va mantiqiy qonuniyat asosida ijodiy yondoshgan holda hal etadi; yuqori saviyadagi shaxsiy sifatlarga, ya'ni tez o'zgaradigan muhitga moslashuvchan, jamoa bilan tez til topishadigan, yuqori madaniyatga va intellektga, liderlik kompetensiyalariga ega bo'ladi; axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori saviyada egallaydi; bir nechta xorijiy tillarni biladi.

Uchinchidan, o'quvchilar kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal qilishda o'qish va yozish ko'nikmalari, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi, moliyaviy savodxonlik, madaniy va fuqarolik savodxonligi kabi tayanch ko'nikmalardan foydalanadilar. O'quvchilar murakkabroq muammolarni tanqidiy fikrlash, kreativlik (ijodiy fikrlash), muloqot qilish ko'nikmalari, jamoada ishlash ko'nikmalari kabi kompetensiyalar orqali hal qilishadi.

To'rtinchidan, XXI asr o'quvchisi individual (har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlari, alohida xususiyatlariga mos), differensial (tabaqalashtirilgan), variativ (o'quvchilarning alohida qiziqishlariga mos) va intensiv (eng ko'p natija beradigan, sermahsul, serunum) dasturlar asosida o'qiydi.

Beshinchidan, XXI asr o'quvchisi quyidagi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim: Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlash va baholash bo'yicha xalqaro dastur; Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4-sinf va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash bo'yicha xalqaro monitoring; The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini aniqlash va baholash bo'yicha xalqaro dastur.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining modeli qanday bo'lishini forsayt prognoz qilish mumkin:

1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yuqori darajada biladi.
2. Katta hajmdagi raqamli ma'lumot (big data) bilan ishlay oladi.
3. Tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarning haqiqiy manbalari bilan ishlash kompetensiyalarini yuqori darajada egallaydi.
4. Ta'lim trayektoriyasini loyihalashtirish va rejalashtirish, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish borasida professional.
5. Katta hajmdagi bilimlar, axborot paketlari bilan ishlaydi va bu borada ustozlik qila oladi.
6. Ta'lim patternlarini (ta'lim patternlari – insonning kundalik hayotidagi faoliyatining instinkt darajasidagi avtomatlashtirilgan sxemasi yoki modellaridan faol foydalanish, ma'lum bir amallarni qandaydir chastotada qayta-qayta bajarish, mana shu harakatlardan sodir bo'ladigan ma'lumot birligi) matematik va psixologik jihatlarini tahlil qila oladi.
7. Ta'lim berishning har xil shakllaridan, faoliyatning to'ldirilgan borliq prinsipidagi simulyatorlaridan, ma'lum bir kompetensiyalarni shakllantirish uchun virtual o'yinlardan foydalanadi.
8. O'qitish jarayonini har bir o'quvchining imkoniyat va qobiliyatlariga moslashtirilgan, individual o'quv reja asosida tashkil etadi.
9. O'quvchilar bilimni baholashda birinchi o'ringa o'quvchining shaxsiy sifatlari, ko'nikmalari, ya'ni tanqidiy fikrlash, jamoa oldida ma'ruza qila olish, jamoada ishlay olish,

liderlik, savodxonlik darajasi, kitobxonlik, jismoniy faollik darajalari, nostandart sharoitdan chiqib keta olish, kutilmagan muammolarni yechishda kreativlik kabi sifatlarni hisobga oladi.

10. O'quvchining barcha sa'yi harakatlari va ta'lim trayektoriyasini mustaqil ta'lim olishga yo'naltiradi.

11. Kasbga yo'naltirish masalasini ham o'ziga xos uslubda hal etadi. Ma'lum bir hajmdagi ko'nikmalarni egallagan o'quvchiga kasbning andozasini qiyoslab ko'rish imkoniyatini yaratadi.

12. O'qitish jarayonini 4k modeli asosida loyihalaydi va intensiv tashkil qiladi.

Nazariy tahlil, shaxsiy kuzatishlarimiz natijalari va yuqorida bildirilgan fikrlarga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiga va ularning o'qituvchilariga qo'yiladigan talablarni umumlashtirib, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlar asosida o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni quyidagi yo'nalishlarda belgilash maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi [4]:

1. Kasbiy faoliyat sohasiga taalluqli bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Bu kasbiy faoliyat doirasida samarali mehnat qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik), shaxsiy (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon eta olish), maxsus yoki kasbiy (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish), texnologik (zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish va ulardan foydalana olish) va ekstremal (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish) kompetensiyalarni anglatadi. Bular akademik, professional malakalar, o'qituvchilik tajribasi va sohada ish tajribasining oshishiga olib keladi.

2. Kasbiy faoliyat sohasida yuqori natijalarga erishishga taalluqli bo'lgan akmekompetensiyalarni rivojlantirish. Bular yangi bilimlar olish va mavjud bilimlarni yangi talablarga moslashtirish, professional va kasbiy o'sish bilan bog'liq doimo o'zgarib turadigan vaziyatga moslashish va hayoti davomida bilim olish orqali o'zining mehnat va iqtisodiy harakatchanligini oshirish, eng yuqori cho'qqigacha erishish uchun zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida 4K modeli asosida o'qitishga doir kompetentlikni o'z navbatida tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'lib o'rganish mumkin.

Tayanch kompetensiyalar:

O'zini o'zi rivojlantirish: mustaqil ta'lim orqali kasbiy va shaxsiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Intellectual: aqliy faoliyat usullaridan foydalanish, kreativ, mantiqiy, tahliliy-tanqidiy, ijodiy fikr yuritish, innovatsiyani qabul qila olish, tavakkal qilish, innovatsion faoliyat yuritish.

Global: axborotlarni tanlash, konstruksiyalash, o'quv jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash.

Kommunikativ: o'z fikrini aytish, taqdimot qilish, isbotlash, o'zgarar fikrini tinglash, tahlil qilish, munosabat bildirish, muloqotni yo'lga qo'ya olish, madaniyatlararo hamda shaxslararo muloqotlarda bemalol ishtirok eta olish.

Ijtimoiy: jamoada ishlash, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish, kichik guruhlarda ishlash, noverbal xatti-harakatlar imkoniyatlaridan foydalana olish, hamkorlari bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish va davom ettira olish, liderlik qobiliyatlari va tashabbuskorlikni namoyon etish.

Boshqarish: ta'lim-tarbiya jarayonida texnik va innovatsion texnologiyalardan uyg'un foydalangan holda darslarda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

Diagnostik: ta'lim-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida loyihalash, innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan darslardan kutiladigan va kafolatlangan natijalarni bashorat qilish.

Mustaqil izlanish: kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida o'z kasbiy malakasi va pedagogik mahoratini orttirish maqsadida rejali izlanish olib borish, analogni qo'llash (uzluksiz).

Korreksion: ta'lim-tarbiya jarayonidan kutilgan natijaga erishish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga barham berish maqsadida o'z ustida tizimli ishlash.

Ilg'or ish tajribalarini o'rganish va amaliyotda qo'llash: o'zi o'qitadigan fani bo'yicha texnik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan moderator o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish va amaliyotda qo'llash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda o'z fani bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil qilishga doir xususiy kompetensiyalarni rivojlantirishga erishishni ko'zda tutish lozim.

Xususiy kompetensiyalar:

Media: mutaxassisligi bo'yicha axborotni qidirish, baholash, qayta ishlash, saqlash, ularni jamlash va qo'llay olish, yangi materiallarni yaratish, internet materiallaridan foydalanish.

Metodologik: o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qitish jarayonini tashkil etishning didaktik asoslarini egallash.

Loyihalash: kompetensiyaviy yondashuvning konseptual asoslari e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash, shaxsiy faoliyatni rejalashtirish, vazifalarni belgilay olish, rejani amalga oshirishdagi davomiy harakatlarni aniqlash va rejalashtira olish.

Ilmiy-tadqiqotchilik: ma'lumotlarni izlash, uni baholash, tahlil qilish, taqqoslash, hodisalarni o'zaro bog'lab tekshirish, fikriy tadqiqot qilish, bitta muammoning ko'plab yechimlarini izlash.

Kasbiy: o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash metodikasiga ega bo'lish, jamoani shakllantira olish, o'quvchilarda asosiy va hayotiy bilimlarni berish mahorati, ish joyidagi harakat rejimlarini belgilash, muammoni hal qilish, o'rganilgan narsalarni o'qitish faoliyatida qo'llash.

O'qitishning metodik va didaktik ta'minotini yaratish: dars berayotgan fani yuzasidan zamon talabi asosida dars loyihasi, ta'limiy o'yin va o'quv topshiriqlari, mustaqil ish uchun mashqlar, savol va testlar, o'qitish vositalari va hokazolarni yarata olish.

Konstruktiv: kompetensiyaviy yondashuvning konseptual asoslari e'tiborga olingan holda texnik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadida o'quv materiallariga ishlov berish.

Bizning fikrimizcha, bu ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos keladi.

Xulosa shuki, pedagogning kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlaridagi ijobiy o'zgarishlar ta'lim oluvchilarning 4K modelida belgilangan XXI asr ko'nikmalarini egallashi, pirovardida ta'limning sifat va samaradorligini oshishi, ta'lim muassasasi muvaffaqiyatining pedagogik kafolatidir. Shundan kelib chiqib, globallasuv davrida o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, milliy va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo'lidan borishni taqozo qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Asqarova O.M., Abdullayeva M.A., Boltaeva M. Andragogika // o'quv qo'llanma. Namangan.: "Namangan" nashriyoti, 2014. 114-b.

2. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, May 19-22 2015, Incheon, Republic of Korea.

3. Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan.dokt.diss...avtoreferati...(DSc). Samarqand. 2018. 56-b.

4. Shodiyeva M.J. Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped.fanl.dokt. diss... (DSc). – T.: 2022, – 386 b.



5. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari // Zamonaviy ta'lim. – Toshkent, 2021. – 4 (101)-son. – B.58-64. (13.00.00; №10).

6. Международная конференция по образованию взрослых CONFINTEA VI [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unesco.org/ru/confinteavi> (дата обращения: 14.09.2017).

## **ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARGA ASOSLANGAN YANGI AVLOD O'QUV DASTURLARI USTIDA ISHLASH**

Qosimova Gavhar Islomovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrası dotsenti, P.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilganligi. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilganligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy darslik, kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, tanqidiy fikrlash.

Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqtirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak.

4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Aslida matematikada faqat misol va masalalar emas, balki to'g'ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Kitobda shunday o'yinlar borki, ular o'quvchini jamoaviy bo'lib ishlashga o'rgatadi. Jamoada o'z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi. Avvalgi darsliklarda pul bilan bog'liq mavzular yo'q edi. 3-sinfning matematika darsligiga esa ana shunday mavzu ham kiritilgan. Undagi masalalar hayotiy misollar bilan berilgani esa o'quvchini yanada qiziqtiriyapti. Ular nafaqat pulning son qiymatiga, balki uni qayerda ishlab chiqarilishi va unda nimalar tasvirlanganiga ham e'tibor berishadi.

Matematika darsligidagi masalalar tabaqalashtirish ko'rinishida berilgan, ya'ni ular osonidan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. O'zim ham ko'p yillar davomida maktabda dars berganman. Tabiiyki, o'quvchilarning bilim darajalari turlicha bo'ladi. Oson ko'rinishidagi masalalar ko'p bo'lgani uchun o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan iqtidorli o'quvchilar uchun qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishimizga to'g'ri kelardi. Yangi chop etilgan matematika darsligida esa o'qituvchi o'quvchisining bilim darajasiga qarab, misollarni taqsimlab berishi mumkin. Har bir o'quvchi barcha masalalarni yechimini topishi shart emas. Ularni darsdan tashqari, mustaqil bajarsa ham bo'ladi.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, o'tgan vaqtda darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1–4-sinf darsliklari yangidan tayyorlandi.

Yangi darsliklardagi topshiriq va vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarimizda boshlang'ich sinflarda bilimni baholaydigan PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlarning masalalarini yechish malaka ko'nikmasi shakllanadi.

Bir qator ilg'or xorijiy davlatlarda informatika fanini kichik yoshdan o'qitish yo'lga qo'yilgan. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo mamlakatlarning ko'pida dasturlash asoslarini 1-sinfdan boshlab o'qitiladi. Bizda ham shu

yangilikni joriy qilish uchun ilg'or xorijiy tajriba asosida 1-sinf uchun yangi zamonaviy informatika darsligi yaratildi.

Darsliklar zamonaviy axborot jamiyatiga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakani shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish uchun ijodiy fikrlash, muloqot qilish va samarali hamkorlik kabilarni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ushbu ko'nikmalarni egallash o'quvchilarga o'zgaruvchan dunyoda faol ishtirok etish, muammolarni hal qilishda analitik yondashuvni qo'llash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishga tayyor bo'lishni o'rgatadi.

### **“Videotopishmoq” metodi**

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- Tinglovchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- Tinglovchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

**Navro'z udumlari** (foydalanish uchun matnlar)

*Navro'z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi. Ginali odamlar Navro'z kuni yarashadi.*

*Navro'z arafasida keksalar maxsus idishlarga yetti xil don ekib, ularning unib chiqishiga qarab, kuzda olinadigan hosil cho'g'ini chamalashgan.*

*Ba'zi joylarda esa Navro'z kunlarida paydo bo'lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go'yo yil seryog'in va barakali bo'lar ekan.*

*Navro'z kunlari bog'dagi o'rik daraxtlariga arqon solib arg'imchoq yasaladi. Qizjuvonlar yig'ilishib, navbatma-navbat arg'imchoq uchadilar. Navro'zda arg'imchoq uchsa bir yillik gunohi to'kiladi deyilgan.*

Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. Tinglovchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so'z boyligi oshadi.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart –sharoitlarga yetib bormoqda...Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz. Yaponiya ta'lim tizimi Yaponiya ta'limida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q. chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlarichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliyo'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir

etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat. Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi. Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi.

Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan. Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni –Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan.

Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat vaularada o'quvchilarning 88 foizi o'qiydi. Ta'lim muassasalarini davlat va shahar buudjetlari moliyalashtiradi, Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta'limga sarflanadi. 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag'lar va xayriya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Mamlakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi.

Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko'chirish uskunlari juda ko'p joylashtirilgan. Chunki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang'ich maktabda har yil sinf o'qituvchisi o'zgaradi. Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq.

Ko'paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining, Hisobot kartasi yuritilishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti - harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchog'ini tariflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir.

Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi. AQSH da ta'lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniya ta'lim tizimi: Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligiva qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassalaridan iborat.

Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab ; maxsus maktab. Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir.

Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud.

Fransiya ta'lim tiizimi: Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko'rsatadi.

Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo'llab-quvvatlash -ta'lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta'lim rektoratlarini.

2. Ekspertiza qilish -vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.

3. Baholash -tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol, kadrlar.

4. Nazorat qilish -tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar. Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma -xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga jalb etishga ta'sir qiladi.

Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang'ich sinfdan o'qiydi. Bu boshlang'ich sinflar odatda alohida boshlang'ich maktab sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo'ladi. Keyingi bosqich o'rta ta'lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o'qiydi va yakunida to'liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yo'nalishdagi litseylarda o'qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi. O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmog'i lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zlashtirish, yangi-yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirish. Ayni damda AQSH pedagogikasidagi: 1. Bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch

ruhiyatida tarbiyalash. 2.O'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash 3.Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik 4.O'quvchini ilkdavridanoq kasbga yo'naltirish 5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta'limidagi :

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash

2. Kichkintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;

3.O'quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan etibor;

4. O'qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;

5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar. Germaniya ta'limidagi :

1. Tabaqallashtirib o'qitishga kuchli e'tibor; 2.O'quvchilarni mehnat ta'limini mustahkamlash 3. Kasbga yo'naltirish. Fransiya ta'limidagi:

1. Maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;

2. Boshlang'ich ta'limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish

3. O'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgasmn katta e'tibor.

4. O'quv muassasalarinig turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta'limga ham ko'chib bormoqda. Albatta ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.

O'zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko'rishi kerak.YA'ni bu yilgi 3-sinf o'quvchilarimiz 2021-yilda 4-sinf bo'ladi. Bu o'quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o'rtoqlashishga to'g'ri keladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) -Toshkent: 1995-yil

2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.

3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang'ich ta'lim“ jurnali. 2019-yil. 12-son.

5. R.Ilashova. Amerika maktablarida.-, , Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019-yil. 3-son.;

6. Qosimova G. Boshlang'ich sinflarda Ona tili va Matematikadan sinfdan tashqari ishlar: o'quv qo'llanma. – T.: "Big makro world" MCHJ. 2023. -158 b.

7. Qosimova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish: monografiya. – T.: "Fan va ta'lim". 2023. -121 b.

8. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.

9. Begimqulov U. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – T.: TDPU, 2007. – 305 b.

10. Yevropa Kommissiyasi (2020): Ta'lim va O'qitish 2020 Dasturi, "O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish" Mavzuiy Ishchi Guruhi, Limassoldagi Tenghuquqli tahlil olish to'g'risidagi hisoboti, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.

11. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlantirish Tashkiloti(OECD) (2015): Samarali o'qituvchilarni ishga yollash, ularni rivojlantirish va ushlab qolish – Yakuniy hisobot.

#### **O'QUV JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARNING RIVOJLANTIRUVCHI USULLAR**

O.P. Aslonova.

Qarshi innovatsion ta'lim universiteti o'qituvchisi

Mazkur maqolada ta'lim oluvchilarning har tomonlama rivojlanishida turli usullardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, rivojlanish, tafakkur, ta'lim-tarbiya.

#### Аннотация

В данной статье рассматривается важность использования различных методов во всестороннем развитии учащихся.

Ключевые слова: личность, развитие, мышление, образование.

#### Annotation

This article discusses the importance of using various methods in the all-round development of students.

Key words: personality, development, thinking, education.

Ta'lim yosh avlodni mutsaqil hayotga tayyorlashning asosiy komponentlaridan biridir. Mutsaqillik yillarida jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'yayotgan talablari, ilm-fan taraqqiyoti natijasida umumta'lim maktablaridagi ta'lim mazmunida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilish faoliyatini faollashtirish, tafakkur tezligini shakllantirishda ta'lim jarayoni katta imkoniyatlarga ega. O'quvchilarni tafakkur tezligini shakllantirish ularning nutqi va ijodkorligini rivojlantirish ustida ishlash demakdir.

O'quvchilarni tafakkur tezligini rivojlantirishga o'rgatish shunday pedagogik jarayonki, buning natijasida ularda o'z fikrlarini aniq bayon qilish, narsa va hodisalarning turli-tuman xususiyatlarini anglatish, kuzatuvchanlik, sezgirlikni, intuitsiyani tarkib toptirish orqali bilish faoliyatini rivojlantirishga erishiladi.

O'quvchilarni tafakkur tezligini shakllantirish jarayonini tashkil etish uchun ta'lim jarayonida uzoq yillardan buyon shakllanib kelayotgan stereotipni – maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar bilan bir qatorda, ta'lim jarayonida yangi vositalardan foydalanib, o'quv faoliyatini tashkil etishga yangicha, ijodiy yondashish talab etiladi.

Shunga ko'ra biz tafakkur tezligini shakllantirishda o'ziga xos topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz

Boshlang'ich sinflarda tafakkur tezligini shakllantirishda beriladigan topshiriqlar yosh avlodga fundamental bilim berish jarayoniga kompleks yondashuv muammosini, tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkur tezligini shakllantirishda muayyan didaktik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur usullar o'quvchilar bilim o'zlashtirishlarida ijobiy natijalar berish bilan birga, ularning tafakkur tezligini rivojlantirishga ham yordam beradi. Quyida o'quvchilar tafakkur tezligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarni taklif etamiz.

1. "Tezkor sinov" usuli. O'quvchining har biriga varaqda yozilgan matn berildi va quyidagi yo'riqnoma amalga oshirildi: Sizga berilgan matndan bir joyda kelgan "l" harfini toping va o'chiring, masalan, kalla, salla, malla... va hako'zolar.

Bu usul 3 marta 5 minutdan o'tkazildi. Mashqni guruhiy tarzda o'tkazish ham mumkin. Bunda mashq asta-sekin takomillashtirilib boriladi. Mashq davomiyligi 5 minutdan oshmaydi. Matn ko'lami 4-5 ta gapdan iborat bo'ldi.

Topshiriq natijalarini ishtirokchilarning o'zlari o'rtoqlarining javoblarini tekshirishlari bilan mashg'ulot qiziqarli o'tadi. Bunda bolalarning o'zlari ko'p xato qilgan tengdoshlariga "jarima" solishlari ham ularni yo'naltirib boradi.

2. "Ziyrak bo'l" usuli. Bunda predmetlar va hodisalarning muhim belgilarini ajratish malakasi talab qilinadi. O'quvchilarga ikkita ayiqcha rasmi xavola etiladi. Ularning o'rtasidagi mavjud bir nechta farqni topish va har bir farqni topganda uni qog'ozga biror belgi bilan qayd etib qo'yish topshirig'i beriladi.

3. "Sanash" usuli. O'quvchilarga 1 dan 20 gacha bo'lgan harflarni sanash, dastlab alifbo tartibida yozish, so'ngra esa teskari tartibida yozish talab etiladi. Bu mashqda o'quvchilar

«A» deb ayta boshlanganida qog'ozga 20-harfni yozadi «B» deganda 19-harfni va h.k. Topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va xatolar soni sanaladi.

4. "Ona tabiat aksiyasi" usuli. O'quvchilarga maxsus varaqa taklif qilinadi. O'quvchilardan uchadigan va uchmaydigan qushlarni belgilash (chiz, bo'ya, sana) talab etiladi. Chumchuq, tovuq, qarg'a, pingvin, zog'cha, o'rdak, burgut, kurka, lochin, g'oz. Kim to'g'ri va tez bajarsa aksiyani qo'lga kiritadi.

5. "Binoni tez tikla" usuli. Bunda sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhga savollar yozilgan "g'isht"chalar taklif qilinadi. Bunda g'ishtchalardagi savollarga tezkorlik bilan javob berish talab etiladi. Savolga to'g'ri javob bergan o'quvchi o'z binosini tiklash uchun g'ishtchani tezlikda doskadagi tiklanmagan binoga yopishtirib qo'yadi. O'yin bino tiklanguncha davom etadi.

6. "Nostandart topshiriq" usuli.

Obyektlarning umumiy belgilarini topishga oid topshiriq

Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta obyektни olib o'zaro o'xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qilishni topshirish lozim. Masalan, Samolyot va tadbir

Yuqoridagi usullarni qo'llashda o'qituvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarligiga, bilim o'zlashtirish darajasiga moslab foydalanishi talab etiladi. Shuningdek, har bir usul o'quvchilarda tafakkur tezligini rivojlanishiga xizmat qilishiga erishishni ko'zda tutmog'i shart. Chunki tafakkur tezligini shakllantirishning zarurati quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi avvalo, o'quvchida o'z fikrlarini kengaytirishga zamin yaratadi.
- ikkinchidan, o'quvchi muhim voqea yoki kashfiyot avvalo insonning botinida yuzaga kelishini tezlikda tushunadi.

- uchinchidan, boshqalarning tajribasi va shaxsiy tajribasi o'rtasida, ishonchi va xatosi o'rtasida, tayyor bilim va yangi bilimlar o'rtasida farqni tez anglashiga va muvozanat saqlashga urinadi;

- to'rtinchidan, o'quvchi muayayn masalani yechish uchun keraksiz faktlar va ma'lumotlar bilan miyasini to'ldirmaydi. Dunyoni o'rganar ekan eng avvalo hodisalar, narsa-buyumlar o'rtasidagi sabab-oqibatni tez fahmlashga urinadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda barkamol avlod ta'lim-tarbiyasida tafakkur tezligini shakllantirishning o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois har bir o'qituvchi bu masalaga ma'suliyat bilan yondoshmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aslonova O.P. Ta'lim jarayonida o'qituvchining tafakkur tezligi hamda uning amaliyot bilan uyg'unligi.// O'zMU xabarlari. –Toshkent, 2017.№1/5. –B. 121-124b

2. Ne'matova G. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'quvchining mustaqil faoliyati. – T.: RTM, 2001. – 24b.

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA UYGUN VAZIFALAR ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodiklarga

o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

Qoraboyev Husniddin Kamolovich

[qoraboyev.husniddin@mail.ru](mailto:qoraboyev.husniddin@mail.ru)

<tel:+998979213029>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda 4K ko'nikmalarining mazmuni sharhlangan. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida uygun vazifalar asosida 4K ko'nikmalarini shakllantirishning metodik shrtlari bayon qilingan. Boshlang'ich ta'limda 4K ko'nikmalarining tarkibi va mazmuni sharhlangan. O'quvchilarda 4K ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirilgan.



**Kalit soʻzlar:** Uyga vazifa, 4K, koʻnikma, kreativlik, kritik fikrlash, hamkorlik, samarali natija.

**Abstract:** This article describes the content of 4K skills in elementary grades. The methodical conditions for the formation of 4K skills based on homework in elementary school reading literacy classes are described. The structure and content of 4K skills in primary education are explained. Methodical recommendations for the development of 4K skills in students are given.

**Keywords:** Homework, 4K, skills, creativity, critical thinking, collaboration, productive output.

**Аннотация:** В данной статье описывается содержание навыков работы с 4К в начальных классах. Описаны методические условия формирования навыков 4К на основе домашнего задания на занятиях по читательской грамоте в начальной школе. Объясняются структура и содержание навыков 4К в начальном образовании. Даны методические рекомендации по развитию навыков работы с 4К у студентов.

**Ключевые слова:** домашнее задание, 4К, навыки, креативность, критическое мышление, сотрудничество, продуктивный результат.

Dunyo taʼlim tizimida shaxsning maʼnaviy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan jarayonlar, ijtimoiy- madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida takomillashtirilib borilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb eʼlon qilinib, taʼlim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan kelib chiqqan holda metodik muammolar hal etilmoqda va hayotga tadbiiq etilmoqda. Jumladan, boshlangʻich taʼlimning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan gʻoyalar, yangicha yondashuvlar oʻzining ijobiy samarasini bermoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 28-fevraldagi “2022 - 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga eʼtibor va sifatli taʼlim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida” gi PF-27-sonli Farmoning 8- bandida “ 2023-2024 oʻquv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻquvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ koʻnikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa boʻlib ishlash, tadqiqotchilik kabi koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan taʼlim dasturlari amaliyotga kiritilsin”- deb belgilab qoʻyilgan. Bunda umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining 1- 4-sinflarida oʻquvchilarni ilgʻor xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar boʻyicha oʻqitish yoʻlga qoʻyilishi taʼkidlangan.

Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunning 9- moddasida “Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan”- deb taʼkidlangan.[1.9]

Mazkur vazifalarni samarali hal qilish uchun yangi darsliklar taʼlim oluvchilarda XXI asr koʻnikmalarini shakllantirishda “4K” modelini (kritik fikrlash, kreativlik, kollaborasiya, kommunikasiya) qoʻllash orqali oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Taʼlim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun – mohiyati oʻz taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qoʻygan mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik ruhida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi qilib voyaga yetkazish zarurligini koʻrsatmoqda.[3.81] Bugun “Yangi Oʻzbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu gʻoya asosida maktabgacha va maktab taʼlimi tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida taʼlim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning moddiy-maʼnaviy sharoiti tubdan yaxshilanib, maktablarda taʼlim-tarbiya sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Boshlangʻich sinflar uchun ushbu yangi darsliklar oʻquvchilarni har tomonlama rivojlantirish, nafaqat bilim, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kelajak avlodning bilim olish darajasini yuksaltirish, ta'lim tizimini mazmunan takomillashtirishda darsliklar ta'minotini yaxshilash, yangi avlod darsliklari hamda o'quv qo'llanmalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bugungi talab ham o'quvchi-yoshlarni mantiqiy, tanqidiy fikrlashga, zamon bilan hamnafas bo'lishga, dars jarayonida faol bo'lishga undamoqda.


O'quvchilarni muvaffaqiyatga eltadigan, o'z salohiyatini to'liq ochishga tayyorlaydigan zamonaviy o'quv-metodik majmuadan foydalanish imkonini beradi. Dastur doirasida ishlab chiqilgan yangi o'quv materiallari yodlashga asoslangan an'anaviy ta'limdan voz kechishni taqozo etadi. Milliy miqyosda amaliy, keng qamrovli va tizimli o'qitish usuliga o'tishni qo'llab-quvvatlaydi.

Ahamiyatli jihati shundaki, dars jarayonida o'qituvchi emas, balki ko'proq o'quvchi gapirishi, faol bo'lishi talab etiladi. O'qituvchilar o'quvchiga yo'naltirilgan pedagogikaga o'rgatiladi. Mutaxassislarga tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, XXI asrning boshqa ilg'or ko'nikmalarini o'zlashtirishda ko'maklashadi, O'quvchilarga esa zamonaviy va sifatli bilim olish, muvaffaqiyatga erishishida yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim bugungi kun o'quvchilariga quyidagilarni o'rgatishi kerak:

1. Kompleks vazifalarni hal qilish;
2. Bilimlar, mantiq, tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy fikrlash, fikr-mulohazalarni shakllantirib, qaror qabul qilish;
3. Ijodiy fikrlash;
4. Insonlar bilan hamkorlik qilish;
5. Jamoada ishlash;
6. O'zining va boshqalarning emotsiyalarini (his-tuyg'ularini) to'g'ri baholash, ularni boshqarish, emotsional intellektga ega bo'lish;
7. Diqqatni bir vazifadan boshqasiga tez qarata olish, moslashuvchan bo'lish. Buning uchun ta'lim jarayonida "4K" modelini qo'llash kerak.

Agar biz boshlang'ich ta'lim jarayonidan boshlab "4K" kompetensiyalari rivojlanishini istasak, ta'lim muhitining holati, o'quv jarayonini tashkil etish usullari, kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish va o'qitish texnologiyalari va usullari, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar shakllariga e'tibor qaratishimiz kerak.



### 1- chizma. "4 K" ko'nikmasi

**Tanqidiy fikrlash-** bu mustaqil fikrlaydigan shaxsdir. U boshqa odamlarning fikrlarini o'zlashtirmaydi, u har doim o'z fikriga ega va ularni dalillar bilan isbotlay oladi.[3.104]

Tanqidiy fikrlash elementlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;
- tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish;
- maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil

xulosalar chiqarish qobiliyati;

- o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;
- o'rganilayotgan predmetga turli nuqtaliy nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;
- strategik fikrlash.

**Kreativlik** (Ijodkorlik) ko'nikmasi- ijodiy fikrlash, muammolarga nostandart yondoshish, murakkab vaziyatlarga samarali yechim topish shu bilan birga insonni mashinadan va sun'iy intellektdan ajratib turadigan narsadir.[3.98]

Kreativ fikrlash elementlari quydagilardan iborat:

- qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati;
- tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;
- g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtaliy nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

**Muloqot qilish ko'nikmasi**- muloqot qilish qobiliyati hayot davomida zarur bo'lgan mahoratdir. Muloqotsiz maktabda ham, universitetda ham, ishda ham, shaxslararo ham munosabat qilolmaysiz.[3.123]

Kommunikativlik (Muloqot qilish) ko'nikmasi quydagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- muloqotdan cho'chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik;
- muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;
- muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;
- muloqot qoidalari ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- boshqa odamlarning fikrini tinglashni o'rganish;
- o'zining ijobiy obrazi shakllanishini ta'minlash;
- o'z fikr va his-tuyg'ularini ifodalash amaliyoti;
- taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
- o'z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
- katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko'nikmasi - hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda yordamni qabul qiling, bironing nuqtai nazarini qabul qiling, o'zingizni himoya qiling. Bir so'z bilan hamkorlikda ishlashga harakat qiling.[3.302]

**Kollaboratsiya** (jamoaga bo'lib ishlash) ko'nikmasi quydagi elementlardan tashkil topgan:

- umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini qurish qobiliyati;
- ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni umumiy maqsadlarni muvofiq qilib, muzokaralar olibborish, o'z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;
- o'z rejalari va g'oyalarni amalga oshirish uchun yetakchilik ko'nikmalarini va o'z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;
- o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

- mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

4K ko'nikmalarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantirish uchun O'qish savodxonligi darslarida beriladigan uyga vazifalarning ham o'rni beqiyosdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarining matn bilan bog'liq ravishda uyga vazifa berish, tushuntirish va uy vazifasini so'rash bosqichlarini samarali tashkil etish kerakligi matn ustidagi ishlarning strategik maqsadlardan biri doirasida (*o'quvchida matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan sifat ko'rsatkichlariga erishish; uni ongli kitobxon darajasiga yetkazish; mustaqil o'quv-biluv (kognitiv) faoliyatini shakllantirish, matnda aks etgan axborotning o'zlashtirilishiga ichki ehtiyoj uyg'otish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish, o'quvchida elementar matniy va adabiy tushunchalarni shakllantirish, ijodiy faoliyatga undash*) rejalashtirilishi, shu maqsadlardan kelib chiqqan holda aniq taktik maqsadlarning belgilanishi, bosqich bemaqsad shunchaki dars o'tiladigan qolipga tushib qolmasligi zarurligini taqozo qiladi.[2.89]



## 2-chizma. Boshlang'ich ta'limda 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan uyga vazifalarning tasnifi.

Adabiy ta'limning boshlang'ich bosqichida o'qilgan asarlar yuzasidan uy vazifasi sifatida:

- sinfda o'tilgan mavzuni uyda qayta o'qish;
- o'qiganlarining rejasini tuzish va reja asosida qayta ijodiy hikoyalash;
- asar yuzasidan uning matnini takrorlashga emas, mustaqil mulohaza yuritib, o'z fikrini aytishga undovchi mantiqli savollar tuzish va ularga javob berish;
- sinfdan tashqari o'qiladigan asarlar ustida ishlash uchun topshiriqlar berish;
- mustaqil ishlar;
- lug'at bilan ishlash;
- yozma va og'zaki insho;
- matnni bo'laklarga ajratish va ularning mazmuniga mos sarlavha topish;
- asar matni qismlari bo'yicha sarlavhalar tavsiya etib, mavjud matnni shu sarlavhalarga mos tarzda bo'laklarga bo'lishni talab qilish;
- har bir bo'lakning rejasini tuzish va shu reja asosida gapirishga tayyorlanish;
- ertak, topishmoq, she'r va hikoyalar to'qish;
- asarlar matni yuzasidan tayyorlangan suratlar ustida ishlash;
- matn yuzasidan berilgan savol-topshiriqlar bo'yicha og'zaki va yozma ishlar berish mumkin. [3.400]

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarining matn bilan bog'liq ravishda uyga vazifa berish, tushuntirish va uy vazifasini so'rash bosqichlarini samarali tashkil etish kerakligi matn ustidagi ishlarning strategik maqsadlardan biri doirasida (*o'quvchida matn ustida*

*ishlashdan ko'zlanadigan sifat ko'rsatkichlariga erishish; uni ongli kitobxon darajasiga yetkazish; mustaqil o'quv-biluv (kognitiv) faoliyatini shakllantirish, matnda aks etgan axborotning o'zlashtirilishiga ichki ehtiyoj uyg'otish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish, o'quvchida elementar matniy va adabiy tushunchalarni shakllantirish, ijodiy faoliyatga undash) rejalashtirilishi, shu maqsadlardan kelib chiqqan holda aniq taktik maqsadlarning belgilanishi, bosqich bemaqsad shunchaki dars o'tiladigan qolipga tushib qolmasligi zarurligini taqozo qiladi.[4.232]*

Boshlang'ich sinflarda uyga vazifa berish va uy vazifasini so'rash o'qish darslarining sifati va samaradorligini oshiruvchi omil sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning kognitiv va kreativ hislatlarini oshirgan holda mustaqil fikrlash layoqatlarini shakllantirish orqali tafakkurini o'stirish uchun xizmat qiladi, ta'lim olishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatlarini tarbiyalaydi, aqliy faolligini kuchaytiradi, matnlarni o'qib o'rganish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi; o'quvchilarning yosh kitobxon sifatida matnni o'qib-o'rganish, boshqalarning nazorati va ko'magisiz shug'ullanish, tadqiq etish, hamda qaror qabul qilish, o'z-o'zini baholash kabi malakalarni singdiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RBQ – 637-son Qonuni. – Toshkent, – "O'zbekiston" NMIU, 2020. – B. 10–12. <https://lex.uz>.
2. To'xliyev B. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Qozoqbo'y Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak, 2016. – 462 b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. – 354 b.
5. O'qish savodxonligi: Umumiy o'ta ta'lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik/ U.B.Aydarova -Toshkent: "Novda Edutainment" 2023. -80 b.
6. O'qish savodxonligi: Umumiy o'ta ta'lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. I qism / M.E.Toirova -Toshkent: "Novda Edutainment" 2023. -80 b.

## **O'QITUVCHILARNING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

**Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna**

Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Boboqulova Nafosat Qaxorovna**

Angor tumanidagi 3-sonli ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yosh avlod bilan ishlash metodikasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilar o'qishning "pastdan tepaga" modeli–matnini tushunishi hamda kognitivizm nazariyasi to'qrisida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** kitobxonlik madaniyati, adiblar asari, matn ma'nosi, "pastdan tepaga" modeli–matni, kognitivizm nazariyasi.

## **ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛИТЕРАТУРНО-РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ**

#### **Аннотация**

В статье методическая работа с подрастающими поколениями и развитием культуры чтения в современных начальных школах, модельно-текстовое понимание чтения «снизу вверх» учащихся младших классов, теория когнитивизма.

**Ключевые слова.** культура чтения, литературное произведение, смысл текста, модель-текст «снизу вверх», теория когнитивизма.

## **Theoretical and methodological foundations of the development of literary and speech competence of teachers**

### **Abstract**

The article discusses the methodology of working with the young generation and the development of reading culture of future elementary school teachers, the "bottom-up" reading model-text understanding of elementary school students, and the theory of cognitivism.

**Key words.** reading culture, literary work, text meaning, "bottom-up" model-text, theory of cognitivism.

Ma'lumki, ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi. Jumladan, Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni bunyod etilayotgani, u yerda adabiyotimizning buyuk namoyandalariga bag'ishlab yodgorlik majmualari o'rnatilayotgani, shuningdek, Namangan viloyatida ulkan ma'rifatparvar Ibrat domla, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar Hamid Olimjon, Zulfiya va Sharof Rashidov, Xorazm viloyatida otashnafas hofiz Komiljon Otaniyozov, Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish ishlari olib borilayotganini qayd etish lozim. Qolaversa, yosh shoir va adiblar, aktyor, rassom va qo'shiqchilar, jurnalistlarning iste'dodini yuzaga chiqarish, ularga e'tibor ko'rsatish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ko'plab chora va tadbirlarni amalga oshirilayotganining yagona sababi shundaki, adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligi qayta-qayta yodimizga kelaveradi.

Darhaqiqat, adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga qaratilayotgan bunday sa'y-harakatlar bugungi kunda o'z samarasini berayotganiga ko'zni quvontiradi. Zero, bunday targ'ibot va tashviqot ishlari ta'lim sohasida ham sezilarli darajada o'z natijasini ko'rsatmoqda. Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishlari buyuk mutafakkirlarimiz ijodiga bo'lgan hurmat va e'tibor tuyg'ularini shakllantirib kelmoqda. Jumladan, bu kabi sa'y-harakatlar bo'lajak o'qituvchilar uchun ham unib-o'sib kelayotgan yosh avlod bilan ishlashda katta mas'uliyat ekanligini bilgan holda astoydil intilayotganlari o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy sababi shundaki, ularning bilim va salohiyatlari qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, o'quvchilarning ham fikrlay olish darajasi yuqori darajada aks etadi.

O'quvchilarga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerakligini unutmashimiz lozim. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning har jabhada faol bo'lib, o'z ustida tinmay ishlashi kerakligini anglatadi. O'zbek adabiyoti ta'limida mazmuniy uzviylikni ta'minlashda tabiiyki, o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o'qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi. Davlat ta'lim standartida o'quvchi badiiy asarni to'liq o'qishi ko'nikmasini shakllantirishni alohida qayd etilgan. Bunda o'qituvchilarga o'quvchilar o'qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro'yxati beriladi. O'qituvchi tavsiya qilingan ro'yxatdagi adiblar va asarlarni o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'zi tanlaydi. Bunda o'quv

yili davomida o'tilgan asarlar soni muhim rol o'ynamaydi, tanlangan asarlar to'liq o'qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

An'anaviy qarashlar tarafdorlari bo'lgan olimlar mutolaaning **"pastdan tepaga"** yoki tilga asoslangan modelini ishlab chiqqanlar. Ushbu model mutolaa jarayonini kichik ko'nikmalar yig'indisi sifatiga qarashga asoslangan bo'lib, unga ko'ra o'quvchi matn bilan ishlashda harflardan (tovushlardan) so'zlar, so'zlardan gaplar, gaplardan abzatslar yasash orqali matndagi ma'noni chiqarishga harakat qiladi. Matn ma'nosi undagi alohida olingan kichkina elementlar (tovushlar, harflar, so'zlar, gaplar) ma'nolarining avtomatik yig'indisidan iboratdir va matnni tushunish uchun har bir element ma'nosini tushunish yetarli hisoblanadi. Tushunish jarayonida grafik simvollarni og'zaki nutqqa aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'quvchi harflar yordamida ifodalangan matnlarni talaffuz qilishi va eshtishi kerak. Malaka oshgani sari bu jarayon avtomatlashadi: o'quvchi matnni ovoz chiqarib o'qimasa ham—ichida o'qiydi va tushunadi. O'qishning **"pastdan tepaga"** (inglizcha *"bottom-up"*) modeli—matnni tushunishda uning eng kichik elementlaridan (bo'laklaridan) kattaroq elementlariga harakat qilish orqali ma'no chiqarish.

Matn

Gaplar

Jumlalar

So'zlar

Harflar

#### *O'qishning "pastdan-tepaga" modeli*

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni o'qishga o'rgatish aynan —pastdan-tepaga modeliga asoslanib tashkil qilingan: o'quvchilarga har bir harfni tanish, uni talaffuz qilish va yozish o'rgatiladi, so'ng shu harf ishtirok etgan bo'g'inlar, so'zlar, gaplar va kichik matnlarni o'qishga o'rgatiladi, bunda o'quvchilardan ovoz chiqarib o'qish so'raladi.

*Umumta'lim maktablarining 1-sinfi uchun "Alifbe" darsligida o'qishning "pastdan-tepaga" modeli* shu bilan birga, mutolaa jarayonining an'anaviy qarashlaridagi zaif nuqta —bu o'qish jarayonida o'quvchi shaxsiyatining, uning dunyoqarashi, undagi mavjud bilimlar majmui rolini hisobga olmaslikdir. An'anaviy qarashlarning bu zaif jihatiga javob o'laroq kognitiv qarashlar yuzaga keldi.

**Kognitivizm** (inglizcha *cognitivism*, lotincha —*cognoscere*) —bilmoq so'zidan) — psixologiya va pedagogikadagi yetakchi nazariyalardan biri. Ushbu nazariya tarafdorlar fikricha, inson miyasi —qora quti va o'rganish jarayonini samarali tashkil qilish uchun uning uchida qanday jarayonlar sodir bo'lishini tushunish kerak. Bilim— bu —sxemalar yig'indisi va bu sxemalar yangi ma'lumotni qabul qilish jarayoniga ta'sir qiladi: insonda uning sxemasiga mos tushadigan ma'lumotni qabul qilish va o'zlashtirish jarayoni samaraliroq kechadi, yangi ma'lumotlarning o'rganuvchi tomonidan qayta ishlanishi esa o'z navbatida sxemalarni u yoki bu darajada o'zgartiradi. Kognitivizm nazariyasi asoschilari: Marriner Merill (*Marriner Merill*), Charlz Reygelyut (*Charles Reigeluth*), Robert Geyn (*Robert Gagné*), Jerom Bruner (*Jerome Bruner*) va boshqalar.

An'anaviy qarashlardan farqli o'laroq, kognitiv qarashlar tarafdorlarining fikriga ko'ra, mutolaa— bu faol jarayon va bu jarayonning markazida matn emas, o'quvchi turadi. Matnni tushunish o'quvchida mavjud sxemalarga tayanadi va bu sxemalar matnni tushunish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilmasa, tushunish jarayoni ro'y bermaydi.

Kognitiv qarashlar tarafdorlari bo'lgan olimlar mutolaaning **"tepadan-pastga"** yoki bilimga asoslangan modelini ishlab chiqqanlar. Ushbu modelga ko'ra, matn bilan ishlashni —psixolingvistik topishmoq o'yini sifatida tushunish mumkin, ya'ni mutolaa jarayonida o'quvchi o'zida mavjud bilimlarni ishga solib, matndan anglashiladigan ma'noni oldindan bashorat qiladi (gipotezalar — taxminlar yaratadi) hamda matnning sintaktik, semantik va fonologik belgilari asosida bu bashoratlarini tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Bu jarayonda matnni



o'qishdan maqsad muhim rol o'ynaydi va matnni tushunishga ta'sir qiladi. O'qishning **“tepadan pastga”** (inglizcha *“top-down”*) modeli—matnni tushunishda o'quvchi matndan anglashiladigan ma'noni oldindan—bashorat qilishi va mutolaa jarayonida bu bashoratlarni tasdiqlashi yoki inkor qilishidan iborat.

IV sinf o'quvchilari matnni ifodali o'qiy olishlari asarda ishtirok etuvchi shaxslar haqida hikoya qilib berish uchun material to'plash, ularning xatti-harakatlarini baholash, ularga nisbatan o'z munosabatini ifodalay olish, adabiy qahramon haqida ixcham hikoya tuzish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish lozim. Boshlang'ich sinflarda ko'proq xalq og'zaki ijodiga oid poetik janrlar: ertak, maqol, topishmoqlardan foydalaniladi. Mavzu doirasiga ko'ra esa ularda mehnat, baxt, Vatan, oila, inson ma'naviyatidagi ezgu va yomon xususiyatlar tarzida yoritilgan. Demak, boshlang'ich sinflardayoq bolalarning badiiy-estetik didi hamda kitobxonlik madaniyatining shakllanishini kuzatishimiz mumkin.

O'qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagi xotiranoma juda foydali hisoblanadi.

1. Hikoyani o'qi.
2. Uni qismlarga ajrat.
3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top.
4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y.
5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. O'yinlarni psixologik-pedagogik tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari o'qituvchining o'yinni tashkil qilish va o'tkazishga metodik tayyorgarligi:

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshi, o'ziga xos psixologik va tipologik xususiyatlarini o'rganish o'yinning maqsadi, vazifasi va mazmuniga xos rejalashtirish;
- o'quvchilarning hayotiy tajribalari, xohish-istaklari, qiziqishlari va iste'dodlarini inobatga olgan holda o'yinni rejalashtirish;
- texnik vositalardan, turli ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'yinlarni ko'rsatish va tushuntirish;
- o'yin jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi;
- o'tkazilayotgan o'yinning o'quvchilarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini pedagogik tahlil qilishdan iboratdir.

O'zbek xalq o'yinlarini tanlashga qo'yiladigan talablar quyidagilarni hosil qiladi:

- o'yinlar mazmunining hayotiyligi va haqqoniyligi;
- mazmuni bo'yicha mosligi;
- sujetning soddaligi, qiziqarliligi va hissiyotlilikligi;
- o'yinda faol bo'lish, sezgirlilik, ijodkorlikni, o'tkir zehn va kuzatuvchanlikni va shu bilan bir qatorda diqqat e'tiborlilikni talab qilish alohida ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini to'la namoyon etish uchun turli metodlardan unumli foydalanishlari kichik yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajalarini yanada samarali bo'lishiga sabab bo'ladi. Chunki “Yoshlikda olgan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir” deb bejizga aytilmagan. Bugungi kunda yosh avlodning iste'dodi va iqtidorini to'la namoyon etishda, dastlab pedagogik faoliyatlari jarayonida ular bilan do'stona munosabat o'rnatish orqali ham katta natijalarga erishishga olib keladi. O'quvchilarning kitobga mehr qo'yishlari ham o'qituvchining bilim salohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan zamonaviy o'qituvchidan bilim, iste'dod, qobiliyat va tafakkurini o'z ish faoliyatlarida o'quv-tarbiya jarayonlarining insonparvarlashuviga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda yondashishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.

3. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. Boshlang'ich sinf uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1980. – 118 bet.

4. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn otqali integratsiyalab o'qish metodikasini takomillashtirish. T. 2019. – 112 bet.

5. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi: an'anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent – 2020. 160 bet.

6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2010. 157 bet.

7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. 2018. 351 bet.

## TA'LIM JARAYONIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi

Mingyasharova Sevara Abdulla qizi

Termiz muhandislik-texnologiya instituti 1-bosqich talabasi

Yo'ldoshev Sardor Husan o'g'li

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohatlar talablariga to'la javob beruvchi shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi pedagog shaxslarni shakllantirishning kasbiy pedagogik-psixologik kompetensiyalarni rovojlantirish asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Kasbiy kompetensiya, nazriya, pedagogika, metodika.

### **Abstract**

This article is carried out in today's society fully responsive to the requirements of the increasing reforms, as well as the demands placed on the qualifications of specialists in the labor market the basics of developing professional pedagogical-psychological competences for the formation of effective pedagogical persons at the level of.

**Keywords:** Professional competence, theory, pedagogy, methodology.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qat'iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga egabo'lish.

-maxsus pedagogik kompetensiyaga ega bo'lish Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq. - Ijtimoiy pedagogik kompetensiyaga ega bo'lish

- ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi.

Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning faqatgina kasb va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi. Buning uchun

u

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;
- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Talabalarga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqgira olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

*Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati* shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

*U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi:*

- Ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;
- Tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- O'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash;

*Ta'limga texnologik yondoshuv. Tarbiyalash texnologiyasi* - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

*Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi* - har tomonlama yondoshuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi; Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga. Shaxsning ma'lum sifatleri amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir

vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalarigaolib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. – T.: 2020.– 174 b.
2. X.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: “Kasbiy ta'lim pedagogikasi”. Metodik qo'llanma. – T. 2019 y.
3. N.A.Muslimov Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish T.,Fan 2021.
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2022. –128 b.
5. Azizkhojaeva N.N. Pedagogical technology and pedagogical skills. - T .: 2018. - 174 p.
6. Mingyasharova S.A. Bo'lajak muhandis texnologlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion asoslari - Multidisciplinary Scientific Journal. 2023. – 210b

#### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA O'ZIGA XOS TRENINGLARNI AMALGA OSHIRILGANDA TA'LIM MUHITI**

Qosimova Gavhar Islomovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrası dotsenti, P.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari ko'rib chiqiladi, bu esa quyidagilarga imkon beradi ta'lim natijalarini aniqlash, shuningdek, maktabning ta'lim muhitini makon sifatida shakllantirish shaxsiyatni ijtimoiy, psixologik, pedagogik takomillashtirish va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining vakolatlarini shakllantirish.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, ta'lim muhiti.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim modelini rivojlantirishga turtki beradigan bir qator ta'lim yo'nalishlarini shakllantirildi. Axborot jamiyatning mavjudligi, tushunchasi va ko'payishining asosiy shakliga aylanadi. Ta'lim paradigmasi rasmiylashtirilgan o'quv jarayonidan shaxsning rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirish tushunchalariga o'tadi, shaxsga yo'naltirilgan va gumanistik yo'naltirilgan ta'lim yangilanadi. Ta'lim jarayonlari tobora universal, axborotlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan bo'lib bormoqda.

Integratsiya jarayonlari va kompetentsiyaga asoslangan kampaniya barcha ta'lim sohalariga kirib bormoqda.

Axborot asrida aniq va chuqur bilimlar endi haqiqiy hayotda bitiruvchilar duch keladigan ko'plab muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon bermaydi. Birok kishi nafaqat maxsus ma'lumotlarga ega bo'lishi, balki axborot oqimlariga yo'naltirish, harakatchanlik qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak yangi hayotiy muhitlar, yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish, o'z-o'zini o'rganish, samarali bilimlarni yoki boshqa manbalarni topish. Shunday qilib, inson (talaba) ning hayotdagi (ta'lim muhiti) kompetentsiyasi tushunchasi paydo bo'ladi.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijalarini aniqlashga imkon beradi zarur shaxslar va zamonaviy jamiyat tomonidan talab katta. Talabalarning malakasini shakllantirish bugungi kunda ta'limning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv-bu sifatli ta'limni ta'minlash zarurati va axborot hajmini yanada oshirish orqali ushbu muammoni an'anaviy tarzda hal qilishning iloji yo'qligi o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish usuli, assimilyatsiya qilinishi kerak. Ushbu yondashuv ta'lim natijalariga qaratilgan bo'lib, ularni quyidagicha ko'rib chiqmaydi o'rganilgan ma'lumotlarning yig'indisi va turli xil qiyin vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati sifatida, ta'lim natijasi ta'lim tizimidan tashqarida ham ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda.

M. P. Skatkin, I. Y. Lerner, V. V. Kraevskiy, G. P. Shchedrovitskiy, V. V. Davidov kabi mahalliy pedagoglar. Ushbu yo'nalishda o'quv texnologiyalari ishlab chiqildi. Biroq, ushbu ishlanmalar qo'llanilmadi namunaviy o'quv dasturlari, standartlar, baholash protseduralarini tuzishda. Umumlashtirilgan bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'zlashtirish shartlari asosida qurilgan o'quv jarayoni hamma narsa dolzarb edi qaerda. Ta'limning rivojlanayotgan modellari ushbu umumlashtirilgan o'quv birliklarining o'quv mazmuni va texnologik bazasini namoyish etdi.

Vakolatlar va ta'limni bog'lash g'oyalari olimlar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar o'rtasida tortishuv va munozaralarga sabab bo'ldi. V. M. Shepelning asarlarida kompetentsiyani aniqlashda bilim, ko'nikma, tajriba birligi, bilimlardan foydalanishga nazariy va amaliy tayyorgarlik kiritilgan [12]. B. C. Bezrukova belgilaydi. kompetentsiya "professional vakolatli hukmlar, baholar, fikrlarni bildirishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish" sifatida [1]. V. A. Deminning fikricha, kompetentsiya-bu mahorat darajasi muayyan vakolatlariga muvofiqlik darajasini aks ettiruvchi va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda konstruktiv harakat qilishga imkon beradigan shaxslar [4].

Biroz boshqacha tarzda N. V. Koryakovtseva tomonidan belgilanadi o'quv kompetentsiyasi, o'z o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish, o'quv maqsadlari va vazifalarini belgilash, boshqarish usullarini tanlash qobiliyati sifatida va uning mahsuldorligining asosiy komponenti bo'yicha olingan natijalarni baholash [7, 42-65]. Ta'limdagi kompetentsiyaga asoslangan yondashuv har doim shaxsiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'z kelajagini qurishga qaratilgan

"Boshlang'ich, asosiy va o'rta maktablardagi o'quv jarayoni. Eksperimental ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar"[8, 3] o'quvchining malakasi quyidagi qobiliyat sifatida belgilanadi o'z mahsulotingizni yaratish, boshqalar tomonidan idrok etishga yo'naltirilgan va taqdim etilgan inson tomonidan idrok qilinishi. Kompetentsiyaning bunday formulasi ijtimoiy kompetentsiyaga o'xshaydi, u quyidagilarni belgilaydi boshqa odamlarning pozitsiyasini, kommunikativ va ob'ektiv kompetentsiyani hisobga olgan holda jamiyatda harakat qilish qobiliyati.

Ta'lim kompetentsiyalari me'yoriy va har doim o'quvchilarning fazilatlarini modellashtiradi, ular realistik va shaxsga qaratilgan. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv talaba uchun jamiyat va ta'lim talablarini birlashtiradi. Ta'lim mazmuni o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy voqelikka muvofiq yangilanadi va natijada ushbu yangi voqelikka zarur ko'nikmalar, faoliyat shakllari va munosabat yuklari bilan kirishga imkon beradigan vakolatlarni shakllantirish zarurati tug'iladi. Haqiqiy hayotdan kelib chiqadigan ushbu yondashuv mavhum fazilatlarini emas, balki talaba faoliyatida talab qilinadigan Zunlarning haqiqiy zarur yukini

baholashi kerak. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda yangi ta'lim muhiti shakllanmoqda, bu esa o'quvchining haqiqiy harakatlari makonini, kelajakda samarali o'quv ishlarining talabalar tashabbuslarini vujudga keltirishga imkon beradi ichki (maktab) va tashqi (jamoat) bozorda raqobatlashishi va baholanishi kerak

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarda asosiy kompetentsiyalarni shakllantirish bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida o'quv mazmunini yangilashga yordam berishi kerak. Asosiy vakolatlar integral tabiatga ega va ta'limning intellektual va mahorat tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ta'lim mazmuni amaliy, kognitiv, qiymatga yo'naltirilgan va kommunikativ vazifalar bilan to'ldirilishi kerak.

S. E. Shishovning asarlarida asosiy ta'lim kompetentsiyalari quyidagicha ko'rib chiqiladi:

jihatlarini:

- 1) motivatsion (talaba kompetentsiyani ko'rsatishga tayyor);
- 2) kognitiv (talaba bilim va kompetentsiya mazmuniga ega);
- 3) xulq-atvor (turli sharoitlarda kompetentsiyani namoyon etish tajribasi mavjud);
- 4) qiymat-semantik (talaba kompetentsiya mazmuni va uning ob'ekti to'g'risida o'z fikriga ega ilovalar);
- 5) hissiy-irodali (talaba o'zboshimchalik bilan kompetentsiya jarayoni va natijasini tartibga soladi).

Ko'plab zamonaviy o'qituvchi-tadqiqotchilar, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus ta'lim muhitini tashkil qilmasdan, boshlang'ich o'quvchining asosiy kompetentsiyalari tizimini shakllantirish bo'yicha barcha ishlar samarasiz bo'lishi mumkinligiga ishonishadi. Ta'lim muhiti unga kiritilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga xosdir. Agar biz kompetentsiyaga asoslangan yondashuv haqida gapiradigan bo'lsak, unda ta'lim muhiti uni boshlang'ich ta'lim mazmunida samarali amalga oshirish uchun zarur pedagogik, psixologik, tashkiliy sharoitlarni yaratadi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ta'lim muhitini o'zgartiradi va uni yosh o'quvchining asosiy kompetentsiyalari tizimini samarali shakllantirish mumkin bo'lgan maxsus psixologik pedagogik, ijtimoiy va jismoniy makon sifatida shakllantiradi

Ta'lim muhiti boshlang'ich maktabning ichki hayotining ajralmas, sifat tavsifi sifatida taqdim etilishi mumkin:

- bolaning shaxsiy tajribasini, asosiy vakolatlar tizimini shakllantirishning maqsad va vazifalari aniqlandi;

- o'quv dasturlari darajasida o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal qiluvchi vositalar, darslarda ishlarni tashkil etish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turini tanlash, baholash sifati, bolalar o'rtasidagi norasmiy munosabatlar uslubi namoyish etildi;

- shaxsning rivojlanishi va uning tajribasiga ta'siri mazmunli baholandi

Agar boshlang'ich sinflarda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, unda quyidagi bosqichlarda uning ta'lim muhitini rivojlantirish mumkin:

1. Dizayn bosqichi. Strukturani shakllantirishning kontseptual asoslarini shakllantirish ta'lim tashkiloti.

2. Modellashtirish bosqichi. Ta'lim sharoitlarining umumiy pozitsiyalarini konkretlashtirish va o'zaro bog'liqlik har bir sinfning imkoniyatlari.

3. Psixologik va pedagogik faoliyatni tekshirish bosqichi. Ta'limni tekshirish muassasalar uning dolzarb va loyihalashtirilgan holatlariga muvofiqligi to'g'risida.

Ta'lim muhiti o'quv jarayonining har bir ishtirokchisi tomonidan tuzatiladi va kompetentsiyaga asoslangan yondashuv atrof-muhitning yaxlitligi kabi sifat xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi ta'lim tashkiloti, ta'lim muassasasining avtonomiyasi, yangilik va ijtimoiy o'zgarishlarga ochiqlik. Keling, boshlang'ich maktabda ta'lim muhitini yaratishning asosiy tamoyillarini nomlaylik, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv asosida ishlaydi:

O'quvchining o'z ta'limi sub'ekti sifatida faoliyat printsiplari;

tabiatga muvofiqlik printsiplari;  
tanlash erkinligi printsiplari;  
ochiqlik printsiplari; gumanizm printsiplari.[2, 64-65].

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limning zamonaviy ta'lim dasturlari bolada shaxsiyat tajribasining bir qismi sifatida asosiy vakolatlar tizimini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega:

1. Zamonaviy pedagogikada kompetentsiyaga asoslangan yondashuv dunyodagi dolzarb tendentsiyalardan biridir ta'lim mazmunini qurish uchun. Bu shaxsda asosiy narsalarni shakllantirish g'oyasiga asoslanadi shaxsning o'ziga xos universal fazilatlar sifatida vakolatlar. Ushbu yondashuvda ta'lim natijalari bilim sifatida emas, balki turli xil sharoitlarda keng bilimlardan foydalangan holda harakat qilish qobiliyati sifatida muhimdir.

2. Kompetentsiya-bu bilim, ko'nikma, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va tajriba tizimi sifatida ta'limning maqsadi.

3. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ustun bo'lgan ta'lim mazmuni insoniyatning ijtimoiy-madaniy tajribasi sifatida shakllangan shaxsning o'z tajribasiga o'tish jarayonida qurilgan maxsus ta'lim muhiti.

4. Boshlang'ich ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirish shaxsni ijtimoiy, psixologik, pedagogik takomillashtirish va boshlang'ich maktab o'quvchilarining vakolatlarini shakllantirish maydoni bo'lgan ta'lim muhitini shakllantirishni talab qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Богданова, Л.А. Модернизация содержания образования как фактор формирования личности младшего школьника: Дис. ... канд. пед. наук / Л.А. Богданова. – Кемерово, 2003. – 134 с.

2. Дахин, А.Н. Компетенция и компетентность: сколько их у российского школьника? // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2007. – № 2. – С. 42-47.

3. Демин В.А. Профессиональная компетентность специалиста: понятие и виды // Стандарты и мониторинг. – 2000. – №4. – С. 38.

4. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании / И.А. Зимняя. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2007. – 337 с.

5. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 5. – С. 34-42.

6. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2005. – 104 b.

7. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.

8. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world //Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.

9. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school//ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37- 41.

#### **BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING MATNINI ANGLASH VA TUSHUNISH DARAJALARINI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

*QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va*



**Annotatsiya:** Maqola “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matni anglash va tushunish darajalarini aniqlashning nazariy asoslari” mavzusida yozilgan bo‘lib, unda matnning mazmun-mohiyati, matn bilan ishlash, matni anglash va tushunish bosqichlari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** matn, anglash, tushunish, boshlang‘ich, yechim, bosqich, omil, usul, intensiv usul, ekstensiv usul.

**Аннотация:** Статья написана на тему «Теоретические основы определения уровней понимания и понимания текста учащимися начальных классов», в ней содержатся представления о содержании текста, работе с текстом, этапах понимания и понимание текста.

**Ключевые слова:** текст, понимание, понимание, начало, решение, этап, фактор, метод, интенсивный метод, экстенсивный метод.

**Abstract:** The article is written on the topic "Theoretical foundations of determining the levels of comprehension and understanding of the text of primary school students", it contains ideas about the content of the text, working with the text, and the stages of understanding and understanding the text.

**Key words:** text, comprehension, understanding, beginning, solution, stage, factor, method, intensive method, extensive method.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Ayni paytda, zamonaviy dunyo amaliyoti matni tushunish mezoniga qaratilgan. Ko‘p mamlakatlarda muntazam ravishda o‘tkaziladigan o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha topshiriqlar o‘qish savodxonligi mezoniga asoslanadi. O‘qish savodxonligi o‘quvchining yozma matnlarni tushuna olishi, matn ustida fikr yurita olish, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida, bilim va imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanishi, jarayonlarga faol ishtirok etish qobiliyatiga ega bo‘lish hisoblanadi

O‘rganish jarayoni davomli, hamda yig‘ilib boradigan jarayon bo‘ladi. Butun o‘quv yili davomida ma‘lum malakaning qismlari o‘rganilib yakunda u ko‘nikma yoki malaka darajasiga yetib boradi. O‘qish savodxonligi fanining boshqa fanlardan farqi shundaki bu fan doirasida o‘quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, xususan, badiiy matnlar bilan ham. Matn o‘qiladi, dars tugaydi shu bilan bu matn o‘rganilgan deb hisoblanib keyingi darsda boshqa matnga o‘tib ketilaveradi. Aslida bunday bo‘lmasligi kerak. O‘qish deganda biror matnning syujetlarini eslab qolish, unda qanday voqealar sodir bo‘lgani, kim qanday kiyimda yoki qanday yoshda ekanini bilib olish tushunilmaydi. Agar shunday bo‘lganda matn orqali o‘rganish, o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan, natijada esa boshqa shu turdagi asarlarni o‘qib tushunishga yordam beruvchi ko‘plab jihatlar “qolib ketar”di. Matn ustida amalga oshiriladigan har qanday harakat yaxshiroq o‘qiydigan bo‘lishga, tilning turli jilolanishlarini, ma‘no nozikliklarini yaxshiroq his qila olish imkonini oshirib boraveradi. Yechim juda sodda va oddiy bo‘lishi kerak, axir biz o‘quvchilar bilan birga harakatlanamiz. Biz uchun hamma o‘quvchilar imkon qadar teng darajada “yur”ishlari lozim. Lekin biz bularning barchasidan avval matndagi syujet ketma-ketligi, matn qahramonlari ismi va ularning harakatlarini o‘rganishdan boshqa yana qaysi ko‘nikmalarni shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz kerakligini aniqlashtirishimiz kerak.

Matn bilan ishlaganda quyidagi tartibda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Matn ma‘lumotlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida xulosalar chiqarish.
2. Matndagi voqealarning sabab-oqibatini tushunish.
3. O‘quvchi lug‘atida notanish bo‘lgan so‘z va birikmalarning ma‘nosini taxmin qilish.
4. Matndagi grammatik ko‘rsatkichlarning ma‘nosini tushunish.
5. Matn hamda berilgan rasmlarni o‘zaro moslashtira olish.

6. Matndagi voqealarni hayotda duch kelgan vaziyatlari bilan qiyoslash.

7. Matndagi voqealarni tanqidiy tahlil qilish va baholash.

**Matnni anglash va tushunish bu** – o‘qigan, o‘rganganlarini ongli ravishda tahlil qilish, farqlash, muvofiqlashtirish, baho berish, xulosa chiqarish va qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Matnni anglash va tushinishni bosqichlari:

1-bosqich: matnni o‘qish;

2-bosqich: so‘zning matndagi ma‘nolarini anglash;

3-bosqich: rasmlarda, chizmalarda ifodalangan ma‘lumotni tushunish va so‘zlarning o‘zaro mazmuniy bog‘lanishini, birliklarning matndagi vazifasini idrok etish;

4-bosqich: matndagi umumiy va yashirin ma‘nolarni tushunish, matn maqsadini anglash, matndagi ma‘lumotdan real hayotiy vaziyatda foydalana olish;

5-bosqich: matnga aynan shu mavzuda yozilgan boshqa matnlar bilan qiyoslab baho bera olish.

6-bosqich: matn g‘oyasini anglash va matndan xulosa chiqarish.

Hammada ham matnni anglash va tushunish bosqichlar bir xil amalga oshavermaydi. Bir xil matnni o‘qib chiqqan o‘quvchilar har xil tushunishining amaliyotda ko‘rganmiz.

Bu jarayon o‘quvchining fiziologik va psixologik holatlariga bevosita bog‘liqdir. O‘quvchini matnni o‘qigandan so‘ng qabul qilish qobiliyati, ruhiy yoki jismoniy holatlariga bog‘liq bo‘ladi. Undan tashqari, matnni o‘qib tushunishga bir qancha omillar ta‘sir etishi mumkin.

O‘quvchilar o‘qib tushunish malakalarini baholashda salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar matn omillari, o‘quvchi omillari, vazifa omillaridir.

Matnga bog‘liq bo‘lgan omillar: matn tilining tushunarsizligi, uslubining murakkabligi, matn turlari va unda mavzular bilan bog‘liq omillar.

O‘quvchi omili - o‘rganuvchi bilan bog‘liq omillar: o‘quvchining yoshi, fiziologik, psixologik holati, tajribasi va bilim darajasi bilan bog‘liq omillar.

Vazifa omillari – berilgan topshiriq bilan bog‘liq omillar: topshiriqlar hajmi, miqdori, mazmunining aniq, lo‘nda yoki tushunarsiz ifodalanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

Yuqoridagi omillarni o‘rgangan holda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash jarayonida anglash va tushunish darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishga, baholashda foydalaniladigan matnlarni tanlashga, matn asosida topshiriqlar tuzishga alohida e‘tibor bilan yondashish kerak bo‘ladi.

Shvetsariyalik psixolog J.Piajening fikricha, o‘quvchini baholash jarayonida o‘quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mezonlar belgilanishi kerak bo‘ladi.

Har bir o‘rganuvchi fikrini og‘zaki va yozma tartibda ifodalashi, o‘zgalar fikrini yoki matndagi ma‘lumotni idrok etishi psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Baholash uchun tanlangan vositalar, o‘quvchi nutqiy malakasi va tafakkurini rivojlantirishga, ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan mos bo‘lishi kerak. O‘quvchilarda mustaqil fikrlarini bayon etishga, matndagi ma‘lumotlarni anglash va tushunish darajalarini oshirishga yo‘naltirilishi darkor.

O‘quv matnlari bilan ishlashda anglash va tushunish darajasini oshirishda quyidagi aqliy bosqichlariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

1) Ma‘lumot ma‘nosini aniqlash;

2) kerakli ma‘lumotlarni belgilab borish;

3) matndagi muhim ma‘lumotlarning ketma-ketligiga e‘tibor qaratish;

4) matndagi asosiy dalillarni tizimlashtirish

5) matn g‘oyasini aniqlash va xulosa chiqarish.

Sanab o‘tilgan bosqichlarning har biri o‘z ichiga mayda jarayonlarni oladi - ma‘no jihatdan chegaralanganlik, ma‘no kashf etadigan jummalarni alohida ajratish va shu kabilar. Mayda jarayonlarning soni va amalga oshirilish davomiyligi o‘quvchining qobiliyati, ruhiy faoliyatining rivojlanganlik darajasi va o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi kabi omillarga bog‘liq.

Shuni ta'kidlash muhimki, o'quv matni bilan ishlash samaradorligi o'quvchining tayyorgarlik darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu bog'liqlik ruhiy faoliyatning intellektual va kognitiv ko'rinishlarigagina taalluqli emas: u inson shaxsi faoliyatining barcha qirralarini qamrab oladi. Ruhiy faoliyatning boshlang'ich holatini tahlil qilish natijasida o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlab olish imkoni mavjud. O'quvchining individual xususiyatlari, aynan bilim darajasi esa o'z navbatida o'qituvchining ta'lim olish tizimini to'g'ri tanlashi - nimani o'rgatish, o'quv materiallarini tez hamda ravon usulda yetkazishga da'vat etadi.

O'quv matni o'quvchining o'quv faoliyati uchun zarur bo'ladigandagi ba'zi ruhiy jarayonlarni "ishga tushirib yuborish" xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, taqdim etilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish darajasini oshirishi va idrok etish samaradorligini ko'tarishi kerak. Bu o'quvchini o'rganilayotgan materialni chuqurroq o'rganish, mohiyatini anglashga o'rgatadi. Yuqorida qayd etib o'tilgan natijalarga faqat o'quvchi taqdim etiladigan o'quv matni ustida ishlashga ruhiy jihatdan va bilim nuqtai nazaridan tayyor bo'lsagina erishish mumkin.

Har qanday o'quv matnining asosiy vazifasi – ta'lim oluvchilarga axborot yetkazishdir. Matnga joylashtirilgan axborot hajmi matnning axborot bilan boyitilganligi deyiladi. Ammo matnda yangi, foydali, keyingi mavzularni ham o'zlashtirishga asos bo'la oladigan axborotning mavjudligi matnning axborotlilikini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Axborotlilikning muhim qismlari sifatida turli ko'chirma, iqtibos, ko'rsatkichlar jamlanmasi va shunga o'xshash, taqdim etiladigan materialni to'ldirmaydigan, ammo o'quvchini yangi ma'lumot olish uchun zarur manbalarga yo'naltiradigan qismlarni ham keltirish mumkin.

O'quv matnlarning axborotlilik darajasini oshirishning ikkita usuli mavjud. Bu usullarning har biri o'quv matnlarini nisbatan keng o'quvchilar auditoriyasiga moslashtirish hamda matnni bilim va axborot olishning universal manbasiga aylantirishni maqsad qiladi. Bu usullar quyidagilardir:

1. Intensiv usul. Mazkur usul o'quv matnidagi barcha axborotlarni to'liq saqlagan holda matnning hajmini qisqartirish. Bunda matn "ixchamlashgan", kam hajm bilan ko'proq ma'lumot bera olish darajasiga keltirilgan bo'ladi. Mazkur o'quv matnidan foydalanish uchun o'quvchi intellektual jihatdan tayyorlangan va diqqatni jam qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

2. Ekstensiv usul o'quv matnidagi axborotning miqdorini oshirishga asoslanadi. Bunda o'quv matni orqali yetkaziladigan material detallari negizida quriladi va mavzuni chuqur hamda har tomonlama o'rganishga imkoniyat yaratadi.

O'quv matnlarining axborotlilik darajasini oshirishda matnning komponentlari ham muhim ahamiyatga ega. Matnning tarkibiy qismlariga manbalardan iqtibos, ko'chirma, kursiv bilan belgilangan qismlar, qalin shrift bilan alohida olingan jumlar va shunga o'xshash matn elementlari kiradi. Mazkur elementlar o'quvchining e'tiborini tortish, muayyan muhim ma'lumotga qaratish, ko'proq va kengroq ma'lumot olish uchun zarur bo'lgan manbalarga o'quvchi diqqatini yo'naltirish kabi vazifalarni bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ta'lim jarayonlarida matnlarning axborotlilik darajasini ayrim o'quv dasturlari uchun intensiv usulda, ba'zi o'quv dasturlari uchun esa ekstensiv usulda oshirish maqsadga muvofiq sanaladi. Muhimi, o'quv matnlarining axborot bilan boyitilganlik darajasining eng yuqori bo'lishiga erishish lozim. Matnning axborot bilan boyitilmaganligi o'quvchining mavzu bo'yicha ma'lumot olishiga salbiy ta'sir ko'rsatgani holda o'rganilayotgan obyektga bo'lgan qiziqishining kamayishiga olib keladi. Bu esa o'quvchining ruhiy faoliyatini passivlashtiradi. Matnning o'zlashtirilishi mavzuning o'rganilishiga asos bo'ladi. Alohida mavzularni o'rganib borish jarayonida o'quvchi muayyan o'quv fanini o'zlashtira boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 2020, 23-sentabr. O'RQ-637-son.

2. Shaxmurodova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini anglash va tushunish darajalarini baholashning metodikasini takomillashtirish: o'quv qo'llanma. – Qarshi.: "Big makro world" MCHJ. 2013. -130 b.
3. Shaxmurodova D., Qosimova G. Umumiy pedagogika: o'quv qo'llanma. – Qarshi.: "Big makro world" MCHJ. 2013. -196 b.
4. [https://t.me/trm\\_metodika\\_uz](https://t.me/trm_metodika_uz)

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA KRITIK VA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası v/b dotsenti  
Shaxmurodova Diljahon Almardonovna*

**Annotatsiya:** Maqola boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda kritik va kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish xususida bo'lib, maqolada kreativ va kritik fikrlash ko'nikmasining mazmun-mohiyati va bu kabi ko'nikmalarni rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, kommunikativlik, kolloborativ, kritik, ko'nikma.

**Аннотация:** В статье речь идет о развитии навыков критического и творческого мышления при преподавании предметов начального образования, в статье рассматривается сущность навыков творческого и критического мышления и развитие таких навыков.

**Ключевые слова:** Креативность, коммуникативность, сотрудничество, критическое мышление, умение.

**Abstract:** The article deals with the development of critical and creative thinking skills when teaching primary education subjects; the article discusses the essence of creative and critical thinking skills and the development of such skills.

**Key words:** Creativity, communication, cooperation, critical thinking, skill.

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'lim ekanligini e'tiborga olgan holda aynan kreativ va kritik fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar hamda kreativ va kritik fikrlash ko'nikmalari bilan birga milliy urf-odatlar va qadryatlarni hurmat qilishi, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, fuqarolik burch va masuliyatini shakllangan bo'lib voyaga yetishlari kerak.

Darhaqiqat bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan, hayotda duch keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topa oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va

qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlardan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlik va kritik fikrlashni talab etadi. Avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi va yana albatta o'zida insonparvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishiga alohida ahamiyat berish zarur.

Bugungi kunda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim, chunki u murakkab va axborotga boy dunyoda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi va muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu ta'lim, martaba muvaffaqiyati va kundalik hayotda qimmatli mahorat bo'lib, odamlarga turli kontekstlarda yanada aniqroq va tanqidiy fikr yuritish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni eslab qolishdan tashqariga bilim bilan faol shug'ullanishga undaydi. U o'rganishga bo'lgan ochlikni va sinfdan tashqariga chiqadigan intellektual qiziqishni rivojlantiradi.

Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

K. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar D. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

1) o'zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo'lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida

o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi: «O'quvchining o'quv-biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o'quv material va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta'lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko'ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo'lgan muhitda o'quvchi o'quv topshiriqlarini oson o'zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko'rgan o'quvchi yanada murakkab bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi». O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr "laboratoriyasi"ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir.

Buyuk olim V.A.Slastinin ijodkorlikning asosiy xislatlarini quyidagicha belgilagan: shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi, qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati;

Kreativ salohiyatga ega o'quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shuning uchun ham kreativ ta'lim texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari faoliyati davomida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda tarbiyachi yo'naltiruvchi, o'quvchi ijodiy loyihalovchi sifatida ishtirok etadi.

O'qituvchining ham dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning darsda berilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishlari, qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni, darsda "bir xillik" dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish va qiziqtirish;
- O'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish, rag'batlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish uchun tavsiyalar:

- Yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashingizdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, yangi mavzuni bayon qilishingizda o'z aksini topsin. O'quvchi uchun yangilik bo'lsin. Bu o'quvchida a'lo kayfiyatni va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Sinf xonasi o'quvchiga yoqadigan bo'lishi kerak. Sinf xonasining o'quvchiga yoqadigan qilib bezatilishi uning o'zini erkin va qulay his qilishiga yordam beradi.

- Darsni audio va videolardan foydalanib o'tish kerak.

- Darsni hayotga bog'lab o'tish kerak. O'quvchi faqat sinfdan o'tirishi kerak emas, vaqti bilan tashqariga olib chiqib dars o'tish ham yaxshi samara beradi. O'quvchi o'zi hayotida ana shu o'rganganlarini qo'llaydi.

- Darslarda sahna ko'rinishlardan foydalanish kerak. O'quvchi keng doirada o'zini tutishni o'rganadi.

- Mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalanish. Masalan, bitta hikoya uchun 5 ta rasm. O'quvchi hikoyaning mazmuniga qarab rasmlarni o'rniga qo'yadi.

- Darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning. O'rganish jarayoni xursandchilik bilan o'tadi. O'quvchini qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

- Ijodkorligini oshirish uchun o'quvchi mavzuga mos ko'rgazmalarni ko'rib tursin, mavzudagi voqea-hodisani tasavvur qila olsin. Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- O'quvchining diqqatini jalb qilishda ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak. Masalan, taqdimot qilib ko'rsatish.

- Darsni ertak sifatida olib borish, qiziqarli hikoyaga bog'lab o'tish, o'quvchining yoqtirgan filmiga bog'lab o'tish ham o'quvchining darsga qiziqishini oshiradi.

- Darsda o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang. O'quvchi fikrini erkin aytsin. Bunda guruhlar bilan ishlash metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

- Toqatli bo'lish kerak. Bu o'quvchiga darrov baho berib qo'yishdan saqlaydi. Yana kechirimlilik, mehribonlik, mas'uliyat va o'quvchini eshita olish-bu o'quvchini fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishiga yordam beruvchi omil hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Boymurodova, X.Sattorova, Sh.Muslimova, F.Karimova. 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma/- T.: "Sharq", 2017/ - 240-b.

2. Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova, Fayoza Raxmatova, Namoz Rasulov, Nurjahan Abdullayeva. O'zbek tili 3 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. - 128 b.

3. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" "Nihol" nashryoti, -T.2013 y.

4. N.N.Azizxo'jayeva, Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz) – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti

3. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz) – O'zbekiston axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

4. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz) – Respublika bolalar kutubxonasi.

5. [erp.maktab.uz](http://erp.maktab.uz) – Xalq ta'limini boshqarish tizimi

#### **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

Yakibova Dilorom Sharifovna

Termiz davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologik kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari, pedagog olimlarning ilmiy qarashlari, pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** texnologik kompetentlik tushunchasi, pedagoglar ish faoliyati, kasbiy mahorat, kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar.

#### **ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ УЧИТЕЛЕЙ**

Якибова Дилором Шарифовна

Старший преподаватель кафедры образования «Бошлангич» Термезского государственного университета

**Аннотации.** В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия технологической компетентности, научные взгляды учёных-педагогов, пути дальнейшего



совершенствования работы педагогов, а также способы формирования технологической компетентности у учителей начальной школы.

**Ключевые слова.** понятие технологической компетентности, трудовой деятельности педагогов, профессиональных навыков, профессионально-педагогических знаний, навыков и квалификации.

## WAYS OF FORMING TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS

**Yakibova Dilorom Sharifovna**

**Senior teacher of the Boshlang'ich Education Department of Termiz State University**

**Abstract.** This article discusses the theoretical foundations of the concept of technological competence, the scientific views of pedagogic scientists, ways to further improve the work of pedagogues, and ways to form technological competence among elementary school teachers.

**Key words.** the concept of technological competence, work activities of pedagogues, professional skills, professional-pedagogical knowledge, skills and qualifications.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o'qituvchilarning o'rni benihoya kattadir. Olimlar ta'kidlaganlaridek, "O'quvchilarni o'qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart". Shu sababli pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini samarali olib borishini ta'minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetenti muhim o'rin egallaydi.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallab turgan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan noaniq, ya'ni muammoli vaziyatlar vujudga kelganda ish beradigan malakalarga alohida ahamiyat berish hamda egallangan bilimlarni kundalik turmush ijara yonida qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni tarbiyalashdan iboratdir.

«Kompetentlik» (ingl. «competence» – «qobilyat») – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, maxorat va iqtidorni namoyon eta olish. «Kompetentlik» tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. «Kompetent» so'zi lotincha «copeto» so'zidan olingan bo'lib, «erishyapman, munosibman» degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi. E.Zeer, D.Zavodchikovlar «kompetent» atamasiga mutaxassisning o'z faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan xatti-harakatlar yig'indisi deb qarashadi. [3]

Ogayo shtati universiteti olimlari kompetentlik tushunchasini shaxsning ma'lum sohada samarali ishlashi uchun kerak bo'lgan ko'nikma va malakalar to'plami deb hisoblaydilar. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik olim R.Meers "kompetentlik-bo'lajak mutaxassisning qandaydir ma'lum baholash mezonlariga javob berishi emas, balki uni ishlab chiqishda qo'llab, isbotlashidir", degan xulosani beradi. [4]

Pedagogning kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko'nikma, qobiliyat, qarashlari, malakasi va ta'lim berish qobiliyatlarining nomoyon bo'lishini belgilab beradigan shaxsiy sifatleri va qadriyatlar yig'indisini tushunamiz.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy axborot vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir.

«Texnologik kompetentlik» tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatining tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalarning jami kiritiladi. [4]

Pedagog faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishi, ta'lim berishni va ta'lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta'limda qulaylikni ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarning bilim olishga qiziqishini, aqliy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan shu ma'lum bo'ladiki, pedagog texnologik kompetentligi va mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o'zgatiradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z mutaxassisliklari bo'yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosida o'qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo'lishlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni texnologik kompetentligini shakllantiruvchi omillar quyidagilardir:

- Dars — munozara;
- Seminar-treninglar;
- Noan'anaviy darslar;
- Sayohat-ekskursiyalar;
- Amaliy darslar.

Oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan har bir dars nafaqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pedagogik bilim olishlarini ta'minlashi balki, ularda pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan o'z faoliyatlarida foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ta'lim jarayonida pedagogik talablarga mos texnologiyalardan foydalanishni tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- taqdim etilayotgan axborot resurslari ishonchli, tegishli sohaning hozirgi zamon holatiga mos, tizimli va ketma-ket, ko'rgazmali, amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;

- taqdimot materiallari ilmiyligi va qabul qilinishi osonligining o'zaro optimal variantida berilishi;

- taqdimot materiallarining bayon etilishi talabaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.[4]

Amaliy mashg'ulotlarda Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning texnologik kompetentlik darajasini rivojlantirish:

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini tashkil etishning mazmuni va shakliga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni o'zlashtirish, tahlil qilish va baholashga;

- pedagogik-psixologik hamda maxsus fanlarni o'qitish metodikasiga oid nazariy bilimlarni mustahkamlashiga;

- tegishli kafedralarning ish tajribasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, «Ustoz-shogird» tizimi asosidagi faoliyatni o'rganish, tahlil qilishga;

- fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni loyihalashtirish, o'quv me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Bo'lajak pedagoglarning kompetentlikka, mahoratga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida mezonlar ishlab chiqish zarur.[5]

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda pedagogning ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, interfaol usullarni o'zlashtirishi, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga

yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'ituvchidan texnologik kompetentlikni hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni
3. Xulkaroy Usmon ҚЫЗЫ Babaeva i Gulxayo Muxammadaminovna Toychieva (2023 g.). Texnologiya kompetentnaya rivojlantirishning pedagogika asoslari. Akademicheskie issledovaniya v oblasti pedagogicheskix nauk, 4 (Konferensiya TMA), 124-130.
4. Dilafuz Pirmanovna Nazarova (2021). Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirish yo'llari. Scientific progress, 2 (8), 748-751.
5. N. Muslimov, M. Usmonboeva. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent – 2015
6. D.Yakibova. Bo'lajak texnologiya o'qituvchisining texnologik kompetentligi mohiyati va strukturasi. Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023 yil, 17 noyabr. Buxoro-2023, 845-849-b.
7. D.Yakibova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining texnologik kompetentligini rivojlantirish. Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 19 | 2023. 68-73-b.
8. D.Yakibova. Bo'lajak texnologiya o'qituvchisining texnologik kompetentligi. «Tarbiya fani:yoshlar tafakkurini rivojlantirishning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy amaliy konferensiyasi. Toshkent.: 2023 yil. 22 noyabr.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING 4 K MODELI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH .ZAMONAVIY METODIKA VA STRATEGIYALAR**

Qashqadaryo viloyati, Ko'kdala tumani 6-o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Chorshanbiyeva Sayyora Shodmonovna .

**Annotatsiya .** Ushbu maqolada maktablarda “4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni qo'llash usullari yoritib, o'quvchilarni kreativ, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatishda xizmat qiladigan zamonaviy metodlar nazariy va amaliy jihatdan tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, 4 K modeli , kollaborativlik,kommunikativlik, kritik (tanqidiy ) fikrlash,kreativlik.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tassavur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi.Ayni shu pallada bola o'zida <<o'quvchi shaxs >> ni yaratadi , maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedogogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy , tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Maktab va maktabgacha ta'lim tizimni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsuyasida o'qitish metodikasini takomilashtirish vazifasi belgilangan.Shunga muvofiq , darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan , ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4 –sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlanadi .

O'quv metodik komplekslar faol o'quv jarayoni uchun to'liq materiallar to'plami: darsliklari mashq daftarlar , o'qituvchi uchun uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek , Estudy electron ta'lim platformasi ham ushbu tizimga uyg'un tarzda kiritilgan. U boshlang'ich ta'lim fanlar , bo'yicha o'quv kurslarini hamda egallagan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o'yinli vazifalarni o'z ichiga oladi .

Yangi yondashuv qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig'ilgan 300 dan ortiq trener o'qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi barcha o'qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

Yangi innavatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi , fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portiretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innavatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa , ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga nafaqat bilim berish , balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat .

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim ola boshladi . darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4 K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlash yoki shyunchaki o'qish/yozish ni o'rganish bilan cheklanmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

“4K” modeliga asoslangan innavatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan , o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqat ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri.

1-4 – sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari “4K”modeliga asoslangan innavasion yondashuvni taqdim etadi.

Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib , quyidagi asosiy kompetensu=iyalarni o'z ichiga oladi.

**Kollaborasiya:** Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab- quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kollaborasiya- hamkorlik bu jamoada ishlash ko'nikmasi , Topshiriqni bajarayotganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari , bironing g'oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga asoslangan , o'zaro hamkorlik qilish , samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishni shakllantirishdir.

Hamkorlik texnologiyasida o'quvchilar topshiriqni nafaqat birgalikda bajarish, balki birgalikda o'rganish, bir tomonga harakat qilish, o'zaro tushunishga o'tish, asosiysi, erkin fikrlashdan iborat .

Hamkorlikda o'qitish o'quvchi shaxsiga yunaltirilgan texnologiyadir.

#### **Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari:**

- 1.Hamkorlikda fikr almashish
- 2.Suhbat
- 3.Munozara
- 4.Muhokama
- 5.Erkin ishlash
- 6.Tahlil
- 7.Amaliy vazifalarni bajarish
- 8.O'zaro hurmat
- 9.Mustaqil fikr bildirish

**Shuningdek tahlillarga ko'ra hamkorlik texnologiyasida o'quvchilarda quyidagi imkoniyatlarni berishi aniqlangan .**

O'quvchilar o'z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

O'quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash , ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**Kommunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq , ravshan ifodalashga ,suhbatdoshni tinglashga va tushunishga ,ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi .

Kommunikativlik- muloqot qilish qobiliyati , o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish , ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganishdir.

Kommunikativlik- darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash , suhbatdoshni tinglash va tushunish , ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kommunikativ muloqatda masalan:

Sinfingiz bilan birga “Do’konda ”,”Kutubxonada”, mavzusida sahna ko’rinishi tayyorlang.

Bir kishi sotuvchi , bir kishi xaridor va h k..... kabi sahna ko’rinishlari asosida o’quvchilar muloqatga kirishish qobiliyatlari shakllantiriladi.

**Kreativ fikrlash** – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar , innavasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

**Kreativ fikrlashga misollar:**

‘Bahor’ so’zi ishtirokida so’z birikmalari va gaplar tuzib yozing . Matn yarating.

Harbiy xizmatdagi akangizga xat yoki xabar yozing.

Xat yozish rejasi;

- 1 . Salomlashish
2. Akangizdan hol-ahvol so’rash va uydagi holatlar haqida axborot berish .
- 3.Siz ham xarbiy xizmatga borishni xohlashingiz haqida yozish .
4. Xayrlashuv

**Kritik (tanqidiy ) fikrlash** ; Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirish o'z ichida oladi . O'quvchilar muammolariga tahliliy nuqtayi nazaridan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi .

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angiya , Finlandiya , Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarida 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

PISA, PIRLS kabi xalqaro retinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda '4K'ni o'z ichiga olgan muloqot , tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuninh uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishayapti.

“4K” modeliga asoslangan innavatsion yondashuv maktablarida qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etilmaydi. Masalan ,o'quvchilarda tanqidiy fiukrlash qobiliyati savol – topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi.maktablarda bu usullarniu ishlatish uchun sharoit yuq deb aytish notug'ri.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev aytganidek, “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bolishi kerak ”(1).

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kogniotiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi natijalarga asoslanadi.

**TURKISTONDA TA'LIMGA OID ISLOHOTLARNING DAVRIY MATBUOTDAGI IFODASI (“Oyna” jurnali misolida)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiya va o'qitish bilan bog'liq faoliyatlari davriy matbuot bo'lgan – "Oyna" jurnalidagi ifodalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, muallim bo'lgan zot, ilm, iymon, vijdon, sa'y, g'ayrat, adab, tarbiyat, nomus, iymon xosiyatlari, boshqa ilm, hilm, sabr, tahammul, husni xulq, islom sifatleri, mumtoz va hokazo.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется деятельность туркестанских просветителей, связанная с образованием и обучением, в периодическом издании - журнале «Ойна».

**Ключевые слова:** Туркестан, учитель, знания, вера, совесть, усилия, энтузиазм, манеры, образование, честь, качества веры, другие знания, знания, терпение, терпимость, хорошее поведение, исламские качества, классические и др.

**Abstract:** In this article, the activities of Turkestan enlighteners related to education and training are scientifically analyzed in the periodical press - "Oyna" magazine.

**Key words:** Turkestan, a teacher, knowledge, faith, conscience, effort, enthusiasm, manners, education, honor, qualities of faith, other knowledge, knowledge, patience, tolerance, good behavior, Islamic qualities, classical, etc.

Dunyo tamaddunida sharq ma'rifatparvar pedagoglari faoliyatining o'ziga xos yuksak o'rni bor. Ajdodlarimizning Turkiston yoshlarini o'qitish, ta'lim-tarbiya berish, diniy va dunyoviy fanlarni o'rgatishga oid faoliyatlari, xususan, Sharqda ta'limning renessans davri bo'lgan jadidchilik harakati davri matbuotda turlicha ifodasiga ega. Jadid ma'rifatparvarlarining otasi deya e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyna" jurnalini ta'sis qilgan. Mana shu "Oyna" jurnalida ma'rifatparvar vatandoshlarimizning ta'lim tizimida qilgan islohotlari doimiy ravishda aks etib borgan. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi parchani keltiramiz:

"Faqat taraqqiy va taolo, maktab va madrasalarning ko'pligiga bo'lmayincha, balki nizom va tartiblik bo'lub, yaxshi idora etilmog'i ila bo'ludur. Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyini ibtidoiy maktabdan boshlarlar. Haqiqatan, taraqqiy va taolo birinchi yo'l va asos maktabdur. Maktab isloh qilinsa umum ishlar isloh va tartibga kirdi, deb bo'ludur. Chunki kamroq bo'lsa ham isloh qilingan maktabdan chiqqan bolalar islohparvar bo'ladurlar".<sup>[2]</sup>

Jurnalni chiqarishda M.Behbudiyga maktab, madrasa muallimlari, elga tanilgan adiblar, ilm ahllari hamkorlik qilganlar. Uning jadid safdoshlaridan biri Sadridin Ayniy edi. Ayniyning ilmiy-ijodiy merosini adabiyot, tarix, pedagogika yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridagina emas, balki tilshunoslik jabhasidan ham baholash lozim bo'ladi. Uning ulug'ligi ham, tengsizligi ham ana shunda – u boshqa birovlar uddalay olishga aql bovar qilmaydigan ishlarni qoyillatib bajarishga qodir bilim va salohiyat sohibi edi. Ayniy ilm va ijod uchun tug'ilganligini bilar, shuning uchun butun kuch-quvvati, qobiliyatini ilm-fan, adabiyot ravnaqiga bag'ishlagandi. U Turkistonning milliy va diniy zaminda taraqqiy etmog'ini ko'zlagan. Shu bois o'lka taraqqiyotining jadidlar nazarda tutgan bu ikki asosiy yo'nalishiga daxldor muammolar "Oyna" jurnalining ham diqqat markazida turgan. Quyidagi misralar fikrimiz dalilidir: "Qaysi bir millatkim o'z tilini begona lug'atlardan ozod saqlasa va o'z millatini muhofaza qilsa din va oyinini qo'ldan bermaydur. Ammo biz turkistonliklar esa g'aflat va jaholatimizning ko'pligi sababli, bu muhim masaladan ham bexabarmiz. O'z tilimizda turkiycha va arabcha so'zlar bor bo'lgan suratda yana havasaki rus yo farangi so'zlarini o'rtaga suqib iste'mol qilarmiz".<sup>[3]</sup>

<sup>2</sup> Rajabzoda Niyoziy "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li". "Oyna" jurnali 1914, 38-son, 906-911-betlar.

<sup>3</sup> Sadridin Ayniy "Har millat o'z tili ila faxr etar". "Oyna" jurnali 1914, 35-son, 836-838-betlar.

Vatanparvarlik, millatparvarlik g'oyalarini, betakror tarixiy madaniy merosimizni keng targ'ib qilish – „Oyna“ ning muhim xususiyatidir. Bu fazilatni jadid safdoshlari qalamiga mansub bir qancha maqolalardan yaqqol his etish mumkin. „Oyna“ tub aholini zamonaviy ilm-u urfonni taraqqiy ettirishga, ta'lim tizimini takomillashtirishga da'vat etib, „har millat o'z ilmi ila faxr etar“, deya uqtirgan. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Chunonchi: “Turkiston yoshlari maktabi ibtidoiyaning ko'paymog'iga harakat qilub, jarida vositasi ila milliy, diniy ishlarimizning isloh yo'lini ko'rsataversalar, oz zamonda Turkistonimiz ham madaniyatli mamlakatlar qatoriga kirub, hayot va mamot masalasidan iborat bo'lgan huquqi madaniya va milliya kabi shaylardan xabardor bo'lub ketishimiz shubhasizdur”.[<sup>4</sup>]

Turkistondagi tub aholini zamonaviy ilmu urfondan, ma'rifatdan bahramand etish maqsadida nashr qilingan „Oyna“ jurnalining asosiy diqqatini o'lkadagi milliy ta'lim tizimini yangilashga yo'naltirgan. Jurnal sahifalarida chop qilingan materiallarning aksariyati maorifga aloqador bo'lib u jamoatchilik o'rtasida ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni o'rgatuvchi yangi „usuli jadid“ maktablarini tashviq qildi, bunday maktablar uchun darsliklar, bilimdon muallimlar tayyorlash vazifasini eslatib turdi, milliy o'zlikni anglash muammolariga katta e'tibor berdi. Mahmudxo'ja Behbudiy noshirlik, muharrirlik vazifalarini ado etish bilan birga, jurnalning qariyb har bir sonida dolzarb mavzulardagi sermazmun, sara maqolalar bilan ko'rinib turgan. Behbudiyning “O'quvchilarga yordam kerak” maqolasida fikrimiz dalili ochiq bayon etilgan: “Maktab va madrasalarning usuli ta'limini isloh qilmoq kerakligi ko'zi ochiq kishilarga mavlumdir. Ammo bu islohotni kim ijro etar? Kim o'qitar? Zamonga ilmiy diniy va zamoniylar kerak. Oni o'zi bo'lurmi? Mana bu savollarga javob lozim, hech nimarsa kerak yo'q. Otabobodan qolgan nimarsadan boshqa har shayi bid'at va zalolat deganlarni o'z holig'a qo'yimoq kerak. Chunki alar o'ylamasdan va ba'zilari muhokama va mulohazasiz so'ylaydur. Shariatga har bir naf'lik ilmni o'qumoq qarz va lozimdur”.[<sup>5</sup>]

Ma'lumki, o'z faoliyatini ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar harakati o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Ular barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Bu borada ayniqsa muallimlarni har tomonlama ilmi bo'lishlari ta'kidlangan. Sog'lom, aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi insonlar bo'lishida muallimlarning xizmati cheksiz ekanligi e'tirof etilgan. Sog'lom farzandlarni tarbiyalashda ustozlar bilan bir qatorda otanonalar ham o'z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarni egallashga yordam berishlarini ta'kidlaganlar. Jadidlar otanonalar o'z farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini uqtirganlar. Quyidagi jumlar fikrimizning dalilidir: “Muallim bo'lgan zot ilm, iymon, vijdon, sa'y, g'ayrat, adab, tarbiyat va nomusdan, iymon xosiyatlaridan boshqa ilm, hilm, sabr, tahammul va husni xulqdek islom sifatleri ila mumtoz bo'lmasa – ul muallimdan shogirdlar bahra ololmaydurlar. Chunki muallim atfoli bashar uchun modari adab maqomidadur. Bul taqdirda ota, ona va muallim har qandoq sifat ila mavsuf bo'lur”.[<sup>6</sup>]

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, millatimizning otalari bo'lgan Turkiston ma'rifatparvarlari nafaqat ta'lim-tarbiya tizimini balki siyosiy-ijtimoiy sohani shu bilan birga matbuot sohasini ham isloh qilishdi. Ularning yurt ravnaqi uchun amalga oshirgan barcha faoliyatlari “Hurriyat”, “Buxoro axbori” kabi gazetalarda hamda “Oyna” kabi jurnallarda doimiy ravishda o'z ifodasini topdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 
- <sup>4</sup> “O'z bayramlarimizni ehtirom etmoq kerak”. “Oyna” jurnali 1914, 35-son, 826-827-betlar.  
<sup>5</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy “O'quvchilarga yordam kerak”. “Oyna” jurnali 1914, 31-son, 601-604-betlar.  
<sup>6</sup> Muhammad Sa'id “Adab va tarbiya”. “Oyna” jurnali 1914, 27-son, 509-512-betlar.



1. Rajabzoda Niyoziy “Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo‘li”. “Oyna” jurnali 1914, 38-son, 906-911-betlar.
2. Sadridin Ayniy “Har millat o‘z tili ila faxr etar”. “Oyna” jurnali 1914, 35-son, 836-838-betlar.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy “O‘quvchilarga yordam kerak”. “Oyna” jurnali 1914, 31-son, 601-604-betlar.
4. Muhammad Sa‘id “Adab va tarbiya”. “Oyna” jurnali 1914, 27-son, 509-512-betlar.
5. M.Xayrullayev. “Ma’naviyat yulduzlari”. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. 359-bet.
6. M.Abdurashidxonov. “Xotiralarimdan” (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq. 2001.108-109-betlar.
7. H.Komilova “Jadidlar faoliyatida ma‘rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari”. 2021. 160-bet

#### **4”K” MODEL-SIFATLI TA’LIMDA BOSH OMIL (TARBIYA VA ONA TILI, FANLARI INTEGRATSIYASI MISOLIDA)**

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna  
Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazi  
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Annotasiya :** Maqolada ona tili, tarbiya fanini zamon va makon kontekstida integrativ o‘qitish masalalari yoritilgan. O‘quvchilarni fanlararo integratsiyadan foydalanib kreativ fikrlashga o‘rgatishga oid yorqin misollar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** integrasiya, zamon va makon, islohot, sifatli ta’lim, yangi O‘zbekiston, strategiya, innovasiya, kreativlik, kollobaratsiya, kommunikativlik.

Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoga o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog‘lom e‘tiqodlilik, ma‘rifatparvarlik, milliy va diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy-fuqaroviy, yuksak ma‘naviy fazilatlarini shakllantirish dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni bunyod etishga kirishgan ilk kunlardan o‘q yosh avlod tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratdilar va bu masala hayot-mamot masalasi ekanligini qayd etdilar: ”Ma‘lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI- asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada mutlaqo bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. [1.504-505-b]

Navoiy hazratlari bu dunyoga kelib, inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va ezguliklar o‘ziga kasb qilib olmagan ,yani yuqtirmagan kishi poklanish maqsadida hammoga kirib ,u yerdan nopok chiqqan kimsaga o‘xshatib quyidagi misralarni keltirgan.

Kamol et kasbkim,olam uyidin,sanga farz o‘lmag‘ay, g‘amnok chiqmoq,  
Jahondin notomom o‘tmoq baayni,zarur hamomdan nopok chiqmoq.[2]

Fikrimizcha, hazrat Navoiyining bu o‘lmas fikrlari quyidagi savollarimizga javob bo‘ladi.

Yangilangan O‘zbekiston ta’lim tizimiga “4 k” modeli shiddat bilan kirib keldi.

“1k”- Tanqidiy fikrlash (kritichiskoe mishlenie);

“2k”-kreativ fikrlash (kreativnoe mishlenie);

“3 k”- kollobaratsiya ,yani jamoa bilan ishlash (kollektivnoe zanyatie)

“4 k”-kommunikativlik –muloqotga kiritish ( kommunikasiya).

O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1.Inson boshqalarga nimasi bilan naf keltiradi?

2.Insonning hayotida yashashdan maqsadi nima?

Hazrat Navoiyining yuqorida keltirgan ilk misralarni integrasion ta'limga qaratib Tarbiya fani bilan bog'laymiz. Bizga ma'lumki, Tarbiya fanidan nafaqat bilim beriladi, balki o'quvchilar ijtimoiy hayotga faol tayyorlanadi. Ya'ni o'quvchilar fikr berishga emas, fikrlashga o'rgatiladi.

**Integrasiya qayerda?** Bu haqda shoir keng mulohaza qiladi. O'quvchilarni ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar mohiyatiga diqqat qilish va quruq gap bilan emas, balki amaliy ishlar bilan jalb etishga undaydi. Inson degan nomni ko'tarib yurgan shaxsga fikran bunday murojaat qiladi. Ya'ni dunyoga kelgan har bitta shaxs o'zida vatanga daxldorik tuyg'ularni singdirishi kerak. Birinchi navbatda yoshlarimiz har tomonlama chuqur bilimlarni o'rganishlari, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi, o'z ona tilini sevishi, milliy an'analar va qadriyatlarini ulug'lash kabi fazilatlarga ega bo'lishlari darkor. Aks holda Hazrati Navoiyi aytganidek, hammomga kirib yuvinmasdan, poklanmasdan chiqib ketgandek bo'ladi. O'quvchilar tomonidan ilgari surilgan shu fikr tanqidiy fikrlashning yaqqol namunasi hisoblanadi (**"1k" misolida**).

O'quvchilarga kreativ (ijodiy) fikrlashga jalb qilish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilinadi. **Alisher Navoiyi zamonasiga tushib qolsangiz, u yerdan nimani olib kelgan bo'lardingiz ("2 k" misolida).**

Biz mutaxassis sifaida bilamizki, Tarbiya darsliklariga ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy (1878-1934) bobomizning hikmatli so'zlari asos qilib olingan.

Misol uchun:

Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lg'usi balo sanga,

Vujudi tarbiyat topsa bulur ur raxnoma sanga.

Tarbiyat topsa, temirchining bolasi bo'lg'usi olim,

Axloqi buzulsa, Luqmoni Hakim o'g'li ham bo'lg'usi zolim [3].

(Turkiy guliston yoxud axloq asaridan). Bu o'quvchilari jamoa bilan ishlashga yo'naltirilgan **"3k" ga misol** bo'la oladi.

O'quvchilarning hammasida ham notiqlik qobiliyati rivojlangan bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar bilsa-da, fikrini erkin va mustaqil bayon eta olmaydi. Jamoada ishlash sog'lom raqobat muhitini yaratadi va shunday o'quvchilarga erkin so'zlashishi uchun imkon yaratadi. O'quvchilarning o'zaro bir-birini tinglashi, fikrini hurmat qilishi hamda sog'lom raqobat asosida muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa **"4 k" ga misol** bo'la oladi. Yani muloqotga kirishuvchanlikka misol bo'la oladi.

O'rta va yuqori sinflarda ona tili va Tarbiya faniga kiritilgan mavzularni o'rganish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkurga ega bo'lish, jamoada hamkorlik qila olish, mas'uliyat va majburiyatlarga amal qilish, jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallay olish, ijtimoiy borliqni his qilish va undan zavqlana olishga o'rgatiladi. Bitiruvchi sinflarda esa yuqorida keltirilgan "4k" modelini o'rgatish natijasida mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olish, bilimni muntazam oshirib borishni tizimlashtirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, yurt taqdiriga daxldorlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish bilan birga ularni targ'ib qila olish singari BKM va kompetensiyalarga ega bo'lishadi.

Umumiy o'rta maktablarida ta'lim olish va uning sifatiga bo'lgan qat'iy talabni maktab rahbariyati, o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan doimo ehtiyojga aylantirilsa, o'zining ustida muntazam ishlayotgan o'qituvchi munosib rag'batlantirib borilsa, aksincha o'zini rivojlanishiga e'tiborsiz o'qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhiti shakllantirilsa, o'qituvchida o'z ustida muntazam ishlash, ya'ni bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi.

Masalan, "Tarbiya" darslarida ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish jarayonida qiyosiy tahlillardan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashiga keng yo'l ochadi. Turli davlatlarning "milliy" tarixi boshqa davlatning "milliy" tarixiga mos kelmasligi mumkin. Eng muhimi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi lozim. "Ulug'imsan vatanim!", "Baxt oiladan boshlanadi" kabi mavzularni o'tish o'quvchi- yoshlar ongi

va qalbida vatanga,yurt taqdiriga daxldorlik hislarini kuchaytirish bilan birga ularda ona vatan kelajagiga ishonch ruhini kuchaytirishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda,o'quvchilar dunyoqarashini bugungi zamon talablari darajasida shakllantirishda psixologiya fanining kategoriyalaridan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Yuksak ma'naviyatli va intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, jahon raqobatiga bardosh beradigan va jahon standartlariga mos kadrlarni tayyorlashdek ustuvor vazifa esa tarixiy xotirasi metindek mustahkam insonlarni tarbiyalashni talab etadi.Fanlararo integratsiyadan foydalanish esa ta'lim sifatini hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarishga keng imkoniyat yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.M.Mirziyoyev.Milliy taraqqiyotni qatiyat biln davom ettirib,yangi bosqichga kotaramiz.504-505 bet,I-Jild.

2.A.Avloniy.Turkiy guliston yoxud axloq asari,1915 yil,5-bob.

3.Bobomurod Erali. "Bashariyat ma'naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasida A.Navoiyi merosining ahamiyati".respublika ilmiy-amaliy anjuman materiali

### **BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY MASALALARNI O'RGANISH USULLARI**

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi  
Qahhorjonova Qurbonoy Farruxjon qizi

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda mantiqiy masalalarni oson qiynalmasdan yechilishi uchun yo'llar,masalalar ball olish uchun emas,hayotda shunday vaziyatga duch kelsa,hayotga tadbiiq qilish kerakligi haqida,masalalar kundalik uchraydigan vaziyatlardan kelib chiqib yasalishi kerakligi haqida gapboradi.

**Kalit so'zlar:** Matematika, masala, amaliy, hayotiy, PISA, aqliy, fikrlash, o'quvchi, mustaqillik erkinlik, tadbiiq.

**Аннотация:** В этой статье учащимся рассказывается, как легко и без затруднений решать логические задачи, задачи не предназначены для набора баллов, их следует применять в жизни, если они сталкиваются с такой ситуацией в жизни, а задачи следует составлять на основе повседневных ситуаций.

**Ключевые слова:** Математика, задача, практика, жизнь, PISA, умственное, мышление, ученик, самостоятельность, свобода, применение.

**Abstract:** In this article, students are told how to solve logical problems easily without difficulty, problems are not for scoring points, they should be applied to life if they encounter such a situation in life, and problems should be made based on everyday situations.

**Keywords:** Mathematics, problem, practical, life, PISA, mental, thinking, student, independence, freedom, application.

Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarining o'sishida muhim ro'l o'ynaydi.

Boshlang'ich sinfga kelgan har bir o'quvchi matematika darslarini masalalar bilan boshlaydi,misol uchun „senda 6ta olmang bor,undan iktasini menga berding senda nechta qoldi”ga o'xshash ular tushunadigan,biladigan narsalar bilan aytsak ular tushunadi darov yechadi. Bolalarda „berish -ayruv”amali ekanligi, „olish-qo'shuv” amali ekanligini tushuna boshlaydi, ya'ni sekin asta arifmetik amallarni bajarishni o'rganadi. Masalalar hayotiy kundalik

uchraydigan hodisalar orqali tuzulsa o'quvchi tassavurida uni hosil qilishi, yechimini yechishi osonlashadi. Yana bir usuli amalda ko'rsatib berilishi, misol uchun „Anvarda 5 000 so'm puli bor, u muzqaymoq olmoqchi uning sevimli muzqaymog'iga puli yetmayapti, keyin u o'rtog'i Azizdan 3000 olib turdi, uning sevimli muzqaymog'I qancha tuadi?“ kabi masalalarni bolaga bersak va shuni pul orqali amalini sinfdagi bolalar bilan ko'rsatsak bolaning fikrlash qobiliyati ham yaxshilanadi, tasavvuri ham shakllanadi, ham dars qiziqarli, keyingi masalar shunga o'xshagan bo'lsa, unda tasavvur bor darrov yechadi. Masalar borgan sari qiyinlashadi, mantiqan o'ylaydigan, aqlini oshiradigan bo'adi, uni yecha olishi uchun avvalo oson masalalarni mazmunini tushuna olishi kerak, ya'ni mantiqiy masalalarda so'z o'yini bo'ladi, masala mazmuni tushunilsa javobi masala ichida joylashgan bo'ladi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rushlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni fikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir narsani anglab yetishimiz kerak masala yechtirishdan maqsad :bola hayotda bu masalalarni tadbiiq eta olishi ,masaladagi vaziyat boshiga kelsa uni qanday yechgan bo'lsa hayotda kelgan shunday vaziyatni ham shunday yechishi,qiynalmasdan shu vaziyatdan chiqib kestishi deb o'ylayman,shuning uchun ham masalalar hayotiy vaziyatlardan tuzilsa yechish ham,uni hayotga tadbiiq qilish ham to'g'ri bo'ladi.Xalqaro PISA tadqiqotlari masalalari ham,bu fikrimning yaqol dalili,biz masalalar yechimini shu kungacha ham formulaga solib o'rganganmiz, nazariy bilmimiz boshqa davlatlarga qaraganda juda yaxshi,ya'ni chuqurlashtirib o'qitamiz,achiq bo'lsa ham aytaylik shu kungacha masala yechsak ball olish uchun yechaamiz,bunaqa vaziyatga duch kelsak hayotda qanday yo'l tutishimiz haqida o'ylamaganmiz,balki shu uchun ham PISA tadqiqotlarda qatnashimiz past najiga erishdik.Bolalar bir loy desak uni qanday shaklga kelishi ustozlar qo'lida,ya'ni ularga qanday yo'lni ko'rsatsak shu yo'l bilan ketadi,o'rgatish usulimizni o'zgartirishimiz kerak.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Gavhar Ergasheva Saidova „Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalar yechishni o'rgatish’’2021-yil
2. SHodiyeva Muxlisa „Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni mantiqiy masalalarni o'rgatish usullari’’

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi  
**Urinova Durdona Olimovna**

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi  
kafedrasida o'qituvchisi **Xudayqulova F.B**  
[fazilatxudayqulova@gmail.com](mailto:fazilatxudayqulova@gmail.com)

**Annotasiya:** O'shbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarni baholovchi tizimlar, ularning samaradorligi, ananaviy baholash tizimi, shuningdek formativ, summativ, "Evaluation", "Assessment", diagnostik baholash, NRT (Norm referenced test— normaga asoslangan testlar), authentic (haqiqiy baholash) tizimi, faoliyatga asoslangan baholash va selektiv javobni baholash kabi baholashning turli ko'rinishlari va ularning samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining baholash tizimlari, ananaviy baholash, formativ baholash, summativ baholash, "Evaluation", "Assessment", diagnostik baholash, NRT, authentic baholash, faoliyatga asoslangan baholash, selektiv javobni baholash.

**Abstract:** This article examines primary school student evaluation systems, their effectiveness, traditional evaluation system, as well as formative, summative, "Evaluation", "Assessment", diagnostic evaluation, NRT (Norm referenced test— norm-based tests), authentic ( It discusses different forms of assessment and their effectiveness, such as authentic assessment) system, activity-based assessment and selective response assessment.

**Key words:** assessment systems of primary school students, traditional assessment, formative assessment, summative assessment, "Evaluation", "Assessment", diagnostic assessment, NRT, authentic assessment, activity-based assessment, selective response assessment.

**Kirish:** So'nggi yillarda respublikamizda ta'lim sohalarida bir qancha o'zgartirishlarni kuzatish mumkin. Bu o'zgarishlar qonun doirasida belgilanib, 2022 - 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash qarori qabul qilindi. Qarorga asosan 2024- yil 1- sentyabrga qadar Milliy o'quv dasturining ta'lim jarayoniga to'liq joriy etilishi belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kun maktablari aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasiga mo'ljallangan bo'lib, murakkab dastur asosida tuzilganligi, nazariya va amaliyotning uzviy bog'lanmagani, o'quv dasturlarida izzatliq uzviylik yo'qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Amaldagi davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarida o'quvchilarni ta'limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash, erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirish masalasi e'tibordan chetda qolayotganini tanqid qilindi. Bunday holatlarga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o'qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish va joriy o'quv yillari davomida uni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish lozimligi ta'kidlandi. Bunga asosan boshlang'ich va yuqori sinflar uchun turli baholash tizimlari ishlab chiqildi, shuningdek chet el baholash tizimlari ham qisman joriy etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga javob bera oladigan bugungi kun o'quvchisini shakllantirish asosiy o'rinlarni egallaydi.

Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish maqsad qilib belgilangan. Bunga asosan, turli baholash tizimlari, e-maktab tizimi davlatimizda joriy etildi.

**Asosiy qism:** Ko'p yillar davomida boshlang'ich va yuqori sinflarni ta'lim tizimini baholashda an'anaviy baholash usulidan ya'ni, besh ballik baholash sistemasidan foydalanib kelingan.

2023- yil sentyabr oyida 100 ballik baholash mezoni - formativ baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligining 284- buyrug'iga asosan joriy etildi.

Formativ baholash kunlik 10 ballik baholash shaklida - o'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra 6 ball, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishiga ko'ra 4 ballik shaklida baholanishi ko'zda tutilmoqda.

Formativ baholash yuzasidan bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. (Bell & Cowie, 2001; Torrance & Pryor, 2001; Wiliam, 201; Izzatova X.) Formativ kunlik baholash shakli bo'lsa, Summativ baholash o'quv dasturining bo'lim va boblari, choraklik, o'quv yili oxirida amalga oshiriladi. Summativ baholash BSB, CHSB va loyiha ishlari shaklida o'tkaziladi. Yarim yillik, yoki yillik baholashda o'quvchilarning CHSB da yig'gan ballari + BSB da yig'gan ballari + FB da yig'gan ballari + loyiha ishida yig'gan ballari umumiy hisoblanib qo'yiladi. Summativ baholash haqida ham bir qancha olimlar fikr bildirishgan. ( Martin Storksdieck Jill K. Stein Toni Dancu, Izzatova X).

Ingiliz o'qituvchilari uchun keng tarqalgan "Assessment" va "Evaluation" baholash o'zbek tilida "baholash" deb tarjima qilinadi, lekin "Assessment" - bu o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish, «Evaluation» - o'zlashtirib bo'lingan bilimlar natijalarni baholash (Masalan: DTM testlari) .Ikkisining ham birlashtiruvchi tomoni—mezonlardan foydalanishni talab qiladi, dalillarga asoslanadi. Bugungi kun uchun bu baholash tizimlari eng yangi atamalardan bo'lsa ham, xorijda joriy etilishi uzoq tarixga ega bo'lgan inqiroz diagnostikalarining eng so'nggisidir (Altbach 1980; Klark 1989; Enders 1999; Musselin 2007).

Diagnostik va NRT (Norm referenced test— normaga asoslangan testlar) bir biridan unchalik darajada farq qilmaydi. Xorijda NRT baholash bog'chaga, maktabga, sinfdan- sinfga o'tishda qo'llaniladi. NRT testlariga IQ testlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

NRT testlari haqida Nitko (1970) shunday "muayyan sharoitlarda shaxsning test natijalarini keng talqin qilish uchun mezonga asoslangan ma'lumotlar ham, me'yorlarga asoslangan ma'lumotlar ham zarur" degan fikrni ilgari surgan. [81-bet.]

Authentic ( haqiqiy) baholash tizimi— Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kunikmasini tekshirishdir. Authentic ( haqiqiy) baholashni bir qancha olimlar o'rganishgan. Jumladan, unga: "Autentik baholash – o'quvchining sinfda olgan bilim va ko'nikmalarini turli kontekstlarga, ssenariylarga va vaziyatlarga muvaffaqiyatli o'tkaza olishini baholaydi", deya izoh beriladi.

Faoliyatga asoslangan baholash ham authentic (haqiqiy) baholashga o'xshaydi, farqli tomoni faoliyatga asoslangan baholash boshlang'ich sinf o'quvchilarining olayotgan bilimni o'sha paytning o'zida, real vaziyatda qo'llashga imkon beradi.

Baholashning turli shakllarini o'rgangan Kristofer Pappas "Faoliyatga asoslangan baholash - bu bilimlarni egallashni tekshirish o'rniga, kimningdir o'z bilimlarini real dunyoda qo'llash qobiliyatini o'lchashga qaratilgan baholash yondashuvidir",—deydi.

Selektiv javobni belgilash ( tanlangan javobni belgilash) bu baholash tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir nechta tanlov mos keladigan va to'g'ri/noto'g'ri savollar kabi variantlar keltirilgan shaklida bo'ladi. Bu baholash tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqan fikrlashga undaydi. Bu baholash tizimida javoblar mantiqan o'ylanadigan, bir biriga variantlar bir qarashda mos keladigan shaklda bo'ladi.

**Xulosa:** "Assessment" va "Evaluation" baholash mezonlari O'zbekistonda bir qancha ko'rinishlarda qullaniladi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholashda " Assessment" baholashni har darsda qo'llashimiz o'quvchilarni yangi mavzuni yuqori darajada egallashga mezon yaratadi. Agarda, biz "Assessment" baholashni Formativ baholash bilan birlashtirsak ( ya'ni o'quvchilarning darsda qatnashishiga ko'ra 6 ballik baholashni, 4 ballik shaklida qilib, qolgan 2 ballik baholashni yanggi mavzu bayonidagi o'quvchining ishtirokiga va tushunishiga oid aynan savollar orqali baholash) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yanggi mavzuni o'zlashtirish kunikmasini oshirishga yordam beradi. "Evaluation" baholash tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda ikki yoki uchta maktablar o'rtasida sog'lom raqobat olib borish, ya'ni olgan bilimlarini sog'lom tekshirish orqali amalga oshirilsa o'quvchilarning rivojlanishi yanada oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Summativ baholash jarayonida NRT testlaridan olib borish aqliy rivojlanishga, mantiqiy fikrlash oshishiga, diqqat, idrok, tafakkur kabi bilish jarayonlarini kengaytirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda barcha baholash tizimlarini pedagoglar o'rnida qullashi boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlanishiga, bilimlarini mukammal o'zlashtirishiga va xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli o'rinlarni egallashiga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Storksdieck, M., Stein, J. K. & Dancu, T. (2006). Joriy ilm-fan va texnologiya markazida, Boston, Annapolis, MD, Fan muzeyida joriy sog'liqni saqlash fanida jamoatchilik ishtirokining umumiy bahosi: Texnik hisobot. Innovatsiyalarni o'rganish instituti.
2. Silke Gülder, Research fellow; Dagmar Simon, Head of Research Group; Marc Torca, Research fellow. Social Science Research Center, Research Group "Science Policy Studies", Berlin
3. Van Valkenburgh, Marilyn W., "A Study of the Relationship between Norm-Referenced Tests and Criterion-Referenced Tests" (1974). Dissertations. 2896. <https://scholarworks.wmich.edu/dissertations/2896>
4. Authentic Assessment. [<https://www.njit.edu/ite/authentic-assessment>.]
5. O'zbekiston Respublikasi Pirizdenti Farmoni—2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
6. Худайкулова, Ф. Б. (2022). ЛАБОРАТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 48-53.
7. Худайкулова, Ф. Б. (2022). ЛАБОРАТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 48-53.
8. Salovatova Madinabonu Ulug'bek Qizi, & Xudayqulova Fazilat Bo'Riyevna (2024). AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI, KAMCHILIKLARI VA QULAYLIKLARI. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 18), 703-705. doi: 10.5281/zenodo.10806301
9. Bo'rievna, K. F. (2023). THE LIFE, WORK AND WORK OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR THE WORK" BOBURNAMA". *PEDAGOG*, 6(2), 570-572.

#### **O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

Sodiqova Dilfuza Ropijonovna – JDPU Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarda mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo'llari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** mustaqil fikrlash, shakllantirish, rivojlantirish, ta'lim, tarbiya, ma'naviy, axloqiy, layoqat

**Аннотация:** В данной статье упомянуты эффективные способы формирования и развития самостоятельного мышления учащихся.

**Ключевые слова:** самостоятельное мышление, формирование, развитие, воспитание, воспитание, духовные, нравственные, способности.

**Abstract:** This article mentions effective ways to form and develop students' independent thinking.

**Key words:** independent thinking, formation, development, education, education, spiritual, moral, abilities.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan jadal islohatlar natijasida Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratilmoqda. Shu o'rinda bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning oldiga qo'yilgan maqsadi, ta'lim-tarbiya jarayonlari ilmiy asosda, uzliksiz tarzda tashkil etilgandagina kuchli ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruxan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga



ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishdan iboratdir. Ijodkor, faol, mustakil fikrlovchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun ta'lim tizimida muhim o'zgarishlar va qayta kurish hayotiy zarurat bo'lib qolmokda. Shu boisdan, ta'limda tub o'zgarishlar yasash, faol, ijodkor, aql-zakovatli, ziyoli mutaxassislarni tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratish bugungi kunining dolzarb vazifalaridan biri sifatida maydonga chikmoqda.

Ma'lumki, mustaqil fikrlovchi, aqlan yetuk, ruhan tetik, ma'nun barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasi insoniyatning paydo bo'lishi davridan boshlangan bo'lib, u shu davrlar oralig'ida bosqichma-bosqich rivojlanib kelmokda. Mustakil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bilan bog'lik ibtidoiy tushunchalar bugungi kunda ham kadimiy reliktlar tarzida talkin etilmokda.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yurtimizda yashab ijod etgan mutafakkirlarimiz tomonidan xam o'z davrida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalashda o'qitishning qanday usul va vo-sitalaridan foydalanish lozimligi borasida ahamiyatli fikr-muloxazalar o'rta tashlangan. Jumladan, qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy o'z asarlarida bu boradagi masalalarga alohida to'xtalib, o'quvchi shaxsi, tafak-kurini rivojlantirish uchun ta'lim berishda ko'prok qaysi tomonlarga e'tibor berish kerakligini bayon qiladi.[1] Xususan, olimning ta'kidlashicha, o'qitishda yodlatish emas, balki tushunish, mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish yuliga amal qilish muximdir.

Abdulla Avloniy esa "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taxlil qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan muqaddas vazifadir" [2]. Bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. O'z mustaqil fikriga ega bo'lgan, o'z kuchiga, o'zi tanlagan yo'lining to'g'riligiga ishongan inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi. U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho'chimaydi, balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarni o'zida shakllantirib boradi. Fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to'g'ri anglashga, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning oldida turgan quyidagi dolzarb muammolarni belgilash mumkin:

– ta'lim maskanlarida o'quvchilarni o'qitish, shaxs sifatida shakllantirish (ijtimoiylashuv) jarayonini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan metodlar (uslublar, shakllar), vositalar, usullarni yangi mazmun bilan boyitish, monologik o'qitish tizimidan dialogik, innovatsion (yangilikka asoslangan), hamkorlik (o'qituvchi bilan talabalar faoliyatini uyg'unlashtirish) singari ta'limning yangi turlariga o'tish;

– mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv rejasi, dasturi va ularga asoslanib chop qilinadigan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ishlanmalar, ma'ruza matnlarini qaytadan ko'rib chiqish, ularni mamlakatimiz hududlari xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, yanada puxtalashtirish, mutaxassislikka bevosita aloqasi bo'lmagan o'quv fanlarini (materiallarini) oqilona qisqartirish va ta'limda inson omilini hisobga olish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchida fikrlashni shakllantirish, ularni ijodiy izlanishga o'rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirishga erishish;

– ta'lim muassasalarida iste'dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish, ularda iste'dod topshiriqlari rang-barangligini ta'minlash va ularni yechishni uddalash layoqatini shakllantirish, ijodiy unsurlarning mavjudligi va uzluksizligini anglab yetish, bashorat qilish layoqatini rivojlantirish, o'quvchini nostandart topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish, ijodiy izlanishni xohish, layoqat, mayl va motividan kelib chiqqan holda tashkil qilishni yo'lga qo'yishdir[1].

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo'llaydi.[3] Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar.

Bu hol esa, insonda faqat shaxsiy manfaatlar doirasida faoliyat yuritish bilan cheklanish, ijtimoiy muammolarni tushunmaslik va ularni hal qilishga layoqatsizlik kabi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga va oqibatda fikriy qaramlikka olib keladi. O'quvchilarning fikr doirasi ongli dunyoqarashini o'stirish ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. Ana shu vazifani uddalashda o'quvchining mustaqil faoliyati ko'pqirrali samara keltiradi. Tafakkur dunyosi rivojlangan, mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlar o'z bilimlariga ishonchi, shaxsiy fikri, e'tiqodlariga sobitligi jamiyatimizni yanada taraqqiy ettirishda, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'zlarining beqiyos yordamlarini ko'rsatadi.[4]

Xulosa qilib aytganda ta'limining ilk bosqichlardanoq, mustaqil fikrlash va yangicha tafakkur hamda turli munosabatlar, holatlar va vaziyatlarni to'g'ri idrok etishga tayyor bo'lgan intellektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Umarov B.M., va b. "Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni shakllantirishning ayrim psixologik jihatlari". // Zamonaviy ta'lim., 2017/3
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash: (Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) – T.: Sharq, 2000. – 112 b
3. Sodikova, D. (2020). Formation of creative relationship through students using the creativity of eastern thinkers. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2020(1), 104-110
4. Sodiqova, D. (2019). PECULIARITIES OF FORMING CREATIVE ATTITUDE TO THOUGHTS OF STUDENTS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

#### **MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNI NUTQIY NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA NUTQ O'STIRISH VA LOGOPEDIYA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

Farmonova Saodat Sheraliyevna  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Ravshanova Orasta Rasul qizi  
BuxDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish nutq tovushlarini o'rgatish metodikasi. Hozirda maktabgacha ta'lim tizimidagi Interfaol usullar, maktab yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash texnologiyalaridan samarali foydalanish usul va vositalari metodikalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, nutqiy nuqsonlar, ilg'or tajriba, Interfaol, pedagogik mahorat, professional ta'lim-tarbiya, nutqiy tayyorlash, nazariy metodika, Innovatsion yangi metodlar.

Ta'lim sohasidagi tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning —...Yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, - degan mulohazalarga javoban shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, pedagogika sirlarini urganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi ta'lim jarayonida asosiy muammolardan biri bo'lib sanaladi.

Hozirgi vaqtda har bir logopedning zamonaviy, ilg'or korreksion texnologiya va metodlarni bilishi, ularni amaliy kasbiy faoliyatda qo'llashi masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Logopedik korreksion texnologiya har bir bolaning individual kognitiv

qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'zini shaxs sifatida bilishga, o'zini o'zi anglashiga, nazariy tafakkur va ongni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

#### LOGOPEDIK METODLAR:

- Innovatsion
- Interfaol
- A'naviy

Nutq insonda ilk yoshlardan oq shakllanib, umri davomida boyib boradi. Nutq rivojlanishining eng faol davri maktabgacha va maktab yoshida kechadi. Chunonchi, bolalar tomonidan maktabgacha yoshda nutqning asosiy poydevori shakllanar ekan, demak bevosita bolalar nutqini rivojlantirish metodikasida mazkur holatni inobatga olgan holda asosiy diqqat-e'tibor aynan shu yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va korreksiya qilishga qaratilishi lozim.

Logoped. + O'quvchi + Logopedik interfaol metodlar

–korreksion ish jarayonida o'qchilar hamda logoped o'rtasidagi faollikni oshirish orqali bolalardagi mavjud nutqiy muammolarni bartaraf etish va korreksiyalashni faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlardir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim va tarbiya ishining keng dasturini amalga oshiradi va bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi.

Logopedik interfaol metodlarning imkoniyatlari:

- ★ Logopedik mashg'ulotlarga motivatsiya oshirish.
- ★ Bola faoliyati va uning ob'ektiv rivojlanishi nazorat qilish.
- ★ Logopedik an'anaviy o'yin faoliyatini turfa xil mazmunli voqealar bilan boyitish.

Nutq komponentlarini akuslik vizualizatsiyasiga erishish. Ammo har bir mashg'ulotni oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq qiziqarli o'tkazish. Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil boshqalarni rivojlantirish. O'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Logopedik mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish

Bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi interfaol usullar qo'llaniladi.

- O'yin terapiyasi (o'yin usullari, ertak terapiyasi, qum terapiyasi

-Kinezioterapevtik usullar (tuzatish ritmi, psixogimnastika, logoritm, fonetik ritm, kinesiologiya).

-Psixokorrektiv usullar (dramatizatsiya, pantomima, teatrlashtirish, spektakl, spektakl, dialoglar (suhbatlar, muhokamalar, suhbatlar, muammoli masalalar), biodrama

-Axborot va kompyuter texnologiyalari: video-sayohat, multfilm tomosha qilish, topshiriq va dasturlarni ishlab chiqish, audio ertak tinglash, keyin eshutilganlar muhokamasi.

-Art terapiya elementlari: rasm chizish, modellashtirish, qo'g'irchoq terapiyasi, musiqa terapiyasi, raqs terapiyasi

Logopedik innovatsion texnologiyalar

- Artterapiya

Su-djok terapiya

•Logopedik va barmoq massajining zamonaviy texnologiyalari.

• Tanagayo'llangan texnikalar (телесноориентированные техники)

• Neyrogimnastika

• Sensor tarbiyaning zamonaviy texnologiyalari

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi nutq kamchiliklarini bartaraf etishga qaratilgan mashg'ulot jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirishiga, bolalarda mustaqillik va ijodiy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab yoshdagi bolalarni nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishda logopedik mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish mashg'ulot jarayonlarida nutq tovushlarini interfaol usullarda o'rgatish bolalarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishni oshiradi, nutq kamchiliklarini bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. M.Y. Ayupova, Sh.D. Aripova LOGOPEDIYA "TO'G'RI TALAFFUZ QILAMIZ VA YOZAMIZ "

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.

3. "Tayyorlov guruh o'qituvchilari uchun nutq o'stirish mashg'uloti ishlanmalari (metodik qo'llanma) Tuzuvchilar: F.R.Qodirova, M.Fayzullaeva, M. Rustamova. T.2010.

4. "Innovatsion yangi metodlar" Logopediya kafedrasida o'qituvchisi: Mamatova A.B

### "WAYS OF USING DIDACTIC PRINCIPLES IN FORMING THE THINKING OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT OF PRE-SCHOOL AGE"

Bukhara state Pedagogy Institute  
Preschool education department teacher  
Nematova Shirinoy Nizamiddinovna  
Rahmonova Dilnoza Asrorovna,  
a student of the Bukhara State Pedagogical Institute

**Abstract :** This in the article before school age in hearing defect has been the children intellectual potential and thinking in formation didactic from principles efficient use method, method , tools showing passed. Didactic from the games use through in hearing defect has been the children thinking development issues cause passed .

**Key words :** Surdopedagogy , didactic principle , algorithmic method, creative activity, thinking , attention .

Current in the day our society for each bilaterally advanced science and technology development to life can apply mature qualified personnel to prepare important from issues is one Deaf children special of boarding schools main task - separate to help needs the children independent to life preparation of the child to know in the activity disadvantages eliminate reach , in it all members functions active respectively improvement , mental processes positive content finding , deficiency there is in children Independent Our country for the most necessary main qualities , perfection and moral custom and qualities from forming consists of

Sign language pedagogy methods in hearing defect has been the children study them teaching relatively high to the step raise as well this category individuals upcoming in life own place to find succeeded to be very necessary Of this for series method and from the roads is used . Deaf children at school education content means education in the process students take over to get must has been knowledge , skill and of qualifications known one volume and system is understood . of education content deaf of students each bilaterally development basis organization is enough

Thinking in development exercises from ordinary complex only observed . For this reason training sequence without changing training transition to the goal is appropriate . If the child has an assignment if he doesn't understand again repeat explain Next to the task transition for simple assignments done to be a must Of course the work during the child encouraging to go it is necessary

Thinking development for to the children basically picture demonstrative games we give can In this initially simple then complicated from the games we use An example as first "the fourth" to the child plus " game let's play can In this to the child one type incoming items is displayed only this from pridmets three of them one to class belongs to if another to the family belongs to one item will be and this pictures of the child next to put from which " Which one

excess and what for ?" said question we give and this child from pictures which one excess that it is says and what for this that he chose the reason explaining will give . That's why As a result, we are in the child thinking to do abilities where level that identify if the child is has one the game good if he does to him next the game we will teach you if you do it if not again we will explain and again let's play game during of the child spirit not sinking for him encouraging let's go it is necessary Because incentive the child the psyche carrying him to the game to study has been interest more increases and from peers mold not to leave movement does To the child his defect never when don't mention then the child is free thinking to conduct and thinking the product to others to the teacher to say not afraid Free thinking to do while of children creative abilities corrects . In child education efficiency increases .

The child is simple the game assignments right do it received after to him a little complicated games we give can In these games to the child different will show pictures through appeal what we do can For example , " less find part " , " pictures in order place " , " in the picture to the subject suitable picture the pair found draw " , " a picture continue make " , " forms by filling subject harvest do " , " study to the folder what placement need " , " don't look against meaningful find pictures " , " circles in red paint " , "geometric shape using subject harvest do " , " gestures right put example solve " and that's it such as one how much games our conduct possible

Complicated game being conducted at the time of the child attention one in the place to be and teacher educator to him by helping standing it is necessary For example to the child staying lying down items one how many i.e dish trays picture study weapons picture home of equipment staying lying down picture giving of them which one The question is that for the plus v anima is given and own in place to the child help giving let's go it is necessary The child shortcoming telling achievements cause let's go and own in place the child encouraging we will go . Games group by doing transfer is also somewhat good the result giving the child is his own his opinion to say independent statement to do fear believing hesitation my opinion error if ducky hesitating to hear can Such cases to them group members help will give . To the teacher want to say has been the word teammates with together say take possible then the child his opinion supporting powered up own in place encourage and then the child from the teacher fearless and himself from the game received the conclusion or problem solving personal his opinion I don't believe statement do it starts

Weak listener or deaf the children in education in them positive adjectives in formation didactic in implementing the principles didactic from the games wide use can Because weak listener ie in hearing defect there is to the children something topic something thing about imagination harvest in doing to him that's it to the topic belongs to picture showing that's it thing event about information only if he says this of the child understand easy will pass and in memory of the child this topic good is stored . Didactic principles Many children through information sure and right if he understands again another didactic principle his to hear perception by developing will come . Other didactic principle through of the child speech connection communication to accelerate service does Correction orientation principle in the child healthy to the parties to rely on in the child compensator the way to ensure mean holds So so each one principle of the child different qualities development and in formation important importance occupation is enough

#### **List of used literature**

- 1.“Ilk qadam” davlat o’quv dasturi. T. 2022 yil
- 2.Boymurodova G. T. Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 5. – C. 29-34.
- 3.Boymurodova G. T. O ‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJANTIRISH MASALALARI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.54. 99.132 Nizomiy nomidag iTDPU Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va menejmenti kafedراسi dotsenti, pfn (DSc) GT Boymurodova //Научно-практическая конференция. – 2022.

4. Ne'matova Shirinoy Nizomiddinovna. (2023). KORREKSION PEDAGOGIKADA BOLALARNING MULOQOT KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH. *Journal of New Century Innovations*, 26(3), 163–166. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/5008>

5. Ne'matova Shirinoy Nizomiddinovna. (2022). "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI KORREKSIYALASHDA PEDAGOGY TEXNOLOGIYALAR". *E Conference Zone*, 38–40. Retrieved from <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/215>

**$LSim(1, L) = \{F(x) = rgx : \forall x \in L, g \in O(1, L), r \in Q, r > 0\}$  AKS  
ETTIRISHLAR (CHIZIQLI O'XSHASHLIKLAR) GRUPPASINING TA'RIFI**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti(stajyor)  
Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna

**Annotatsiya:** Maqolada  $L = Q(\sqrt{3})$  maydon ustida  $\langle x, y \rangle_1 = x \cdot y$  va  $\langle x, y \rangle_2 = x_1 y_1 - 3x_2 y_2$  formalar bilan aniqlangan 2-o'lchovli bichiziqli metrik fazolarda tartib bilan berilgan  $m$  ta nuqtadan iborat ketma-ketliklarning geometriyalari rivojlantirilgan. Evklid va Psevdo-evklid geometriyalarida ratsional sonlar ustida 2-o'lchovli  $a + b\sqrt{3}$  sonlar maydonining geometriyasi qaralgan.

**Kalit so'zlar:** maydon, skalyar ko'paytma, ortogonal akslantirish, invariant funksiya, ketma-ketlik, kompozitsiya

**Аннотация:** В диссертации  $L = Q(\sqrt{3})$  развиты геометрии  $\langle x, y \rangle_1 = x \cdot y$  последовательностей, состоящих из  $m$  точек, заданных по порядку на поле и  $\langle x, y \rangle_2 = x_1 y_1 - 3x_2 y_2$  в двумерных билинейных метрических пространствах, определяемых формами. В евклидовой и псевдоевклидовой геометрии рассматривается геометрия двумерного числового поля над рациональными числами.

**Ключевые слова:** поле, скалярное умножение, ортогональное отражение, инвариантная функция, последовательность, композиция.

**Abstract:** In the dissertation  $L = Q(\sqrt{3})$ , geometries of sequences  $\langle x, y \rangle_1 = x \cdot y$  consisting of  $m$  points given in order on the field  $\langle x, y \rangle_2 = x_1 y_1 - 3x_2 y_2$  and in 2-dimensional bilinear metric spaces defined by forms are developed. In Euclidean and Pseudo-Euclidean geometries, the geometry of the 2-dimensional number field over rational numbers is considered.

**Key words:** area, scalar multiplication, orthogonal reflection, invariant function, sequence, composition

$G = LSim(1, L) = \{f : L \rightarrow L \mid f(x) = rgx, g \in O(1, L), r \in Q, r > 0\}$  to'plamning kompozitsiya amaliga ko'ra gruppа ekanligini ko'rsatamiz.  $G$  to'plamda "o" kompozitsiya amali berilgan bo'lsin.  $f_1, f_2 \in G$  elementlar uchun 'o' amali quyidagicha  $(f_1 \circ f_2)(x) = f_1(f_2(x)) = f_1(r_2 g_2 x) = r_1 g_1 r_2 g_2 x = r_1 r_2 g_1 g_2 x$  aniqlanadi.  $G = LSim(1, K)$  to'plamni 'o' amaliga nisbatan gruppа shartlariga tekshiramiz:

1.  $f_1, f_2, f_3 \in G$  elementlar uchun quyidagi  $(f_1 \circ f_2) \circ f_3 = f_1 \circ (f_2 \circ f_3)$  tenglik o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. Tenglikning chap tomonidan quyidagi  $((f_1 \circ f_2) \circ f_3)(x) = (f_1 \circ f_2)(f_3(x)) = f_1(f_2(f_3(x)))$  (1)

tenglik kelib chiqadi. Tenglikning o'ng tomonidan quyidagi  
 $(f_1 \circ (f_2 \circ f_3))(x) = f_1 \circ (f_2(f_3(x))) = f_1(f_2(f_3(x)))$  (2)

tenglik kelib chiqadi. Yuqoridagi (1) va (2) tengliklardan assosiativlik o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

2.  $\exists f_0 \in G, \forall f \in G, f_0 = r_0 g_0 x, \forall x \in K, f(x) = rgx, \forall x \in K$ , elementlar uchun quyidagi

$$f_0 \circ f = f \circ f_0 = f \quad (*)$$

tenglikning o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. Tenglikning chap tomonidan quyidagi  
 $(f_0 \circ f)(x) = f_0(f(x)) = f_0(rgx) = r_0 g_0 rgx = rgx$  tenglik kelib chiqadi.

Tenglikdan ko'rinadiki  $r_0 g_0 = 1$  ekanligi kelib chiqadi. Demak  $f_0 = r_0 g_0 x = x$  ko'rinishida ekan. Tenglikning o'ng tomonidan quyidagi  
 $(f \circ f_0)(x) = f(f_0(x)) = f(r_0 g_0 x) = r g r_0 g_0 x = rgx$  tenglik kelib chiqadi. Tenglikdan ko'rinadiki  $r_0 g_0 = 1$  ekanligi kelib chiqadi. Demak  $f_0 = r_0 g_0 x = x$  ko'rinishida ekan. Demak (\*) tenglik o'rinli ekan.

3. Ixtiyoriy bir  $f \in G$  berilgan bo'lsin. Ko'rsatamizki, shunday bir yagona  $f_1 \in G$  element mavjudki, quyidagi

$$f \circ f_1 = f_1 \circ f = f \quad (**)$$

tengliklar o'rinli bo'ladi. Tengliklarning chap tomonidan quyidagi

$$(f \circ f_1)(x) = f(f_1(x)) = f(r_1 g_1 x) = r g r_1 g_1 x = x \quad (1)$$

tengliklar kelib chiqadi. Tengliklardan ko'rinadiki  $r_1 g_1 = \frac{g^{-1}}{r}$  ekanligi va

$f_1(x) = \frac{g^{-1}}{r} x$  ko'rinishda ekanligi kelib chiqadi, bu yerda  $g^{-1} \in O(1, L)$  element  $g \in G$  elementning  $G$  gruppada teskarisi. (1) tenglikning o'ng tomonidan quyidagi

$$(f_1 \circ f)(x) = f_1(f(x)) = f_1(rgx) = r_1 g_1 rgx = x \quad (2)$$

tengliklar kelib chiqadi. Tengliklardan ko'rinadiki  $r_1 g_1 = \frac{g^{-1}}{r}$  ekanligi va

$f_1(x) = \frac{g^{-1}}{r} x$  ko'rinishda ekanligi kelib chiqadi. (1) va (2) tengliklardan ko'rinadiki (\*\*)

tengliklarni qanoatlantiruvchi yagona  $f_1 \in LSim(1, K)$  bo'lib,  $f_1(x) = \frac{g^{-1}}{r} x$  ko'rinishga ega.

Demak  $(LSim(1, L); \circ)$  juftlik gruppasi tashkil etadi.

**Xulosa:**  $L = Q(\sqrt{3})$  maydon ustida ikkinchi skalyar ko'paytma ta'rifi berilib,  $\{L, \langle x, y \rangle_2\}$  bichizikli metrik fazoning geometriyasi o'rganildi. Bu fazoda  $\langle x, y \rangle_1$  bichizikli forma yordamida  $G = O(2, L)$ ,  $G = SO(2, L)$ ,  $G = MSO(2, L)$  harakat gruppalari uchun  $m$ -ketma-ketliklarning  $G$ -ekvivalentlik problemi yechildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar/Spisok literatury / References

1. А.Г.Курош. Олий алгебра курси. Тошкент, Ўқитувчи 1976. 15b



2. Оональных чисел, Итоги науки и техн. Сер. Современ. Мат. И её прил. Темат. Обз., 2021, том 197,46-55, DOI:<https://doi.org/10/36535/0233-6723-2021-197-46>
3. Ж.Хожиев , А.С.Файнлеб Алгебра ва сонлар назарияси курси Тошкент, Ўзбекистон 2001, 46б
4. Р.И.Искандаров, Р.Назаров Алгебра ва сонлар назарияси Тошкент, Ўқитувчи 1977
5. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, F.H.Haydarov Algebra va sonlar nazariyasi Toshkent ,Tafakkur – bo’stoni 2019

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA SHE’R YOZISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

**Raxmanova Nafisa Azatbekovna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi  
(nafisa @cspi.uz) <https://orcid.org/0009-0002-9793-3415>*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 4-sinf ona tili darsligida berilgan “Ijodkorlik soati. Loyiha ishi” mavzusi uchun ishlab chiqilgan “She’r yozishni xohlayman” loyiha ishi texnologiyasi yoritilgan. Sinfda bajariladigan loyiha ishi davomida o‘quvchilar to‘rtta ko‘nikmani o‘zlashtiradilar va she’r yozish texnikasi bilan tanishadilar.

**Kalit so‘zlar:** she’r, vazn, bo‘g‘in, turoq, qofiya.

**Annotation.** This article highlights the technology of project work “I want to write a poem”, developed for the theme “The Hour of Creativity. Project work”. which is presented in the native language textbook for grade 4. During project work in class, students will master four skills and become familiar with the technique of writing poetry.

**Key words:** poem, poetic meters, syllable, pause, rhyme.

Hozirgi paytda o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltiradigan loyihalar metodidan boshlang‘ich sinflarda ham keng qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich sinfda loyiha sifatida taklif qilinayotgan mavzular o‘quvchilarning yoshiga mos, sodda, jo‘n va tushunarli bo‘lishi kerak, chunki ular darsda bajariladigan yoki bir kunga mo‘ljallangan oddiy loyihalarni bajarishlari mumkin. Eng ko‘p qo‘llanadigan loyihalarga tabiatni kuzatish loyihalari, hikoya yaratish loyihalari, konstruktiv loyihalar, o‘yin loyihalari, sayohat loyihalari kiradi. 1-3 - sinflarda samarali qo‘llanadigan hikoya yaratish loyihasi, o‘z navbatida, og‘zaki hikoya, rasm-hikoya, musiqa jo‘rligida ijro etiladigan hikoya kabi turlarga bo‘linadi [3, 22-23]. Bu loyihalar, shubhasiz, o‘quvchining tabiat, jamiyat, oila, Vatan haqidagi tushunchalarini shakllantiradi, ijodiy tafakkurini o‘stiradi. 4-sinf o‘quvchilariga o‘qish va ona tili darslarida tavsiya etilayotgan loyihalar ichida she’r to‘qish loyihasi ham bor [1,19]. She’r to‘qish jarayoni hikoya yaratishdan ancha murakkab ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bunday loyihani amalga oshirish o‘qituvchi – o‘quvchi yoki ota-ona – farzand hamkorligiga asoslanadi. Loyiha ishining muvaffaqiyati o‘quvchilarda she’r yozish ko‘nikmasini shakllantirishga bog‘liqdir.

Ma‘lumki, loyihaviy faoliyatning asosiy shartlaridan biri – natijaga erishish uchun loyiha bosqichlari, maqsadi, shartlari oldindan ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida she’r yozish ko‘nikmasini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan loyiha “She’r yozishni xohlayman” deb ataladi. Uning muvaffaqiyati o‘qituvchining ijodiy faolligiga bog‘liq. 4-sinf ona tili darsligida berilgan “Ijodkorlik soati. Loyiha ishi” mavzusi uchun ishlab chiqilgan loyiha ishi to‘rtta ko‘nikmadan iborat [2, 33-35].

**“She’r yozishni xohlayman” loyihasi**

**Maqsad:** barmoq vazni, turoq, qofiyadosh so‘zlar haqida tushuncha berish, she’r yozish ko‘nikmasini hosil qilish.

**Loyiha sharti:** ijodiy – amaliy jarayon 4 ta ko‘nikmadan iborat. Barchasi o‘qituvchi rahbarligida sinfda bajariladi.

**1 – ko‘nikma sharti.** O‘quvchilar yod olgan she‘rdan parcha taqdim etiladi. Har bir misradagi bo‘g‘inlar miqdori aniqlanadi. Birinchi misrada nechta bo‘g‘in bo‘lsa, keyingi misralarda ham shuncha bo‘g‘in bo‘ladi. Bir misrada odatda ikkita turoq keladi. Turoq deb kichik to‘xtam bilan ajratiladigan bo‘g‘inlar yig‘indisiga aytiladi.

*Gullarga suv // tashiyman, (7) (4+5)*

*Qo‘lda jajji // chelagim. (7) (4+5)*

*Charchamayman // sira ham, (7) (4+5)*

*Juda kuchli // bilagim. (7) (4+5)*

**2 – ko‘nikma sharti.** O‘quvchi berilgan so‘zlarga uchtdan qofiyadosh tanlab, jadvalni to‘ldiradi. Qofiyadosh so‘zlarning oxirgi tovushlari bir xil bo‘ladi.

chelak	bilak	kerak	terak
oftob			
salom			
bahor			

**3 – ko‘nikma sharti.** O‘quvchilarga tanish she‘rning matni beriladi. Ular tushirib qoldirilgan so‘zlarni oldingi misradagi qofiyadoshiga moslab tiklaydilar va nuqtalar o‘rniga qo‘yadilar.

*Namuna:*

*Uchib yurar mayin shamollar, (a)*

*Yelpib-yelpib anhor yuzini. (b)*

*Qirg‘oqlarda soyabon ..... (a) tollar*

*O‘ynar - suvda ko‘rar ..... (b) o‘zini*

**4 – ko‘nikma sharti.** O‘quvchilarga tanish she‘rning bir bandi olinadi. Qog‘ozga ayrim so‘zlari tushirib qoldirilgan holda yoziladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rniga o‘zlari lozim deb topgan so‘zlarni qo‘yib, bahor mavzusida she‘r “yozadilar”. Dastlabki she‘rning vazni, turoqlari, qofiyalanish tartibi saqlanadi. Namuna:

..... shamollar (a) 4+5

..... yuzini. (b) 4+5

..... tollar, (a) 4+5

..... o‘zini. (b) 4+5

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni berib, ularni fikrlashga, tabiat manzarani ko‘z oldiga keltirishga undaydi: Bahorda qanday shamol esadi? Sovuqmi, iliqmi? Bahorda yog‘gan yomg‘ir nimalarning yuzini yuvadi? Qirg‘oqdagi majnuntol sochini tarayotgan qizlarga o‘xshaydimi? Bahorda qushlar nega ko‘p sayraydi? Ularning tinimsiz sayrashi maqtanchoq yoki bijildoq bolalarga o‘xshaydimi?

O‘qituvchi yordamida o‘quvchi tomonidan yozilgan ilk she‘r quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

*Tongda esdi mayin shamollar,*

*Yomg‘ir yuvdi maysa yuzini.*

*Sochin tarar qirg‘oqda tollar,*

*Sayrar qushlar maqtab o‘zini.*

Loyihani baholashda o‘quvchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan juz‘iy kamchiliklarga e‘tibor bermaslik lozim. Eng yaxshi loyiha ishini maqtash, rag‘batlantirish va ommalashtirish kerak. O‘quvchi o‘zi yozgan she‘rni sinfdoshlari yoki oila davrasida ifodali o‘qib berar ekan, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. She‘rni tushunishni, she‘riy nutq bilan so‘zlashuv nutqini farqlashni o‘rganadi.

Uyga vazifa qilib do‘stlik haqida to‘rt qator she‘r to‘qish topshirilgan. She‘r yozishga tayyorgarlik do‘stlik haqida yozilgan she‘rlarni topib o‘qishdan boshlanadi. O‘quvchi “Do‘stlik nimaga o‘xshaydi?”, “Inson do‘stsiz yashay oladimi?” degan savollarga javob izlaydi. O‘zining xulosalarini to‘rt misraga joylaydi. Sinfdan bajarilgan loyiha ishi, shubhasiz, unga qo‘l keladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili.4-sinf. IV qism. - Toshkent, “Novda”, 2023.

2. Sabitova T., Raxmanova N.A., Ona tili va adabiyot ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. - T.: 2021.

3. Xallayev A., Xudoynazarov E. Boshlang'ich sinflarda loyihalardan foydalanish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: 2019.

## SHAXS KAMOLOTIDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA UNGA RAHBARLIK QILISH

Raxmonova Sojida Muxammadovna  
Buxoro davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi,  
Idiyeva Oydin Sherali qizi  
Buxoro davlat Pedagogika Instituti talabasi  
[raxmonovasojida9@gmail.com](mailto:raxmonovasojida9@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari istirokchisi bugungi kun zamonaviy o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlari hamda qobiliyatlari, ta'lim muvaffaqiyatidagi o'rni, pedagogning kasbiy salohiyatini shakllantirish, bolalarning ijobiy shakllanishida muhitning ahamiyati, ijtimoiy tajribalarining oshishiga qaratilgan faoliyatlar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy faoliyat, kasbiy salohiyat, ijodiy izlanuvchanlik, faoliyat, mahorat, muvaffaqiyat, intellekt, barkamol shaxs, ijodiy qobiliyat.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, sifatini oshirish, jismoniy barkamol, intellektual salohiyatli komil shaxsni tarbiyalash, mehnat bozoriga raqobatbardosh yoshlarni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, bugungi davr talabiga javob bera oladigan zamonaviy ta'lim tizimni yaratish ustuvor dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirmoqdi.. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalashda va maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va m'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi” deb alohida ta'kidladi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Tarbiya biz bilamizki, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi va eng muhim omil sanaladi. “Tarbiya” arabcha so'z bo'lib, o'stirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan ma'nolarni bildiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari bilan tarbiyachilar shug'ullanar ekan, eng avvalo ularning o'zi yuqori salohiyatli, kasbiy bilimga ega, intellektli shuningdek, haqiqiy bola yetaklovchi, ziyo tarqatuvchi shaxs bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki o'qituvchining ta'lim-tarbiyadagi yo'l qo'ygan xatolari yillar o'tib bolada namoyon bo'ladi.

O'qituvchilik – bu san'at, ammo u tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyatga ega emas, balki uning zamirida tinimsiz izlanish, mashaqqat, hamda ijodiy mehnat yotadi. Pedagogning mahorati hammada xar xil bo'lib, u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tarkib topadi va rivojlanib mukammallashib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida o'zaro samimiy, jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga qaratilgan yaqin hamkorlik o'rnatilishi ahamiyatlidir. Shundagina bola o'zligini namoyon qiladi, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishni boshlaydi. Bola mustaqil bo'lishga, erkin muloqotga, hamkorlikka, ijodkorlikka, o'zining faoliyatini nazorat qilishga, natijalar olishga o'rgana boshlaydi. Bu faoliyatlar esa bolaning keying ijtimoiy muhitlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Ta'limiy faoliyat samaradorligi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanib boradi, deb ta'kidlanadi.

Pedagogda quyidagi qobiliyatlar mavjud bo'lishi lozim;

- Akademik qobiliyati
- Didaktik qobiliyat
- Nutq qobiliyati
- Avtoritar qobiliyati
- Perseptiv qobiliyat
- Diqqatni teng taqsimlash qobiliyati
- Ijodiy qobiliyat
- Kommunikativ qobiliyat kabilar.

Shuningdek bolaning ijobiy shakllanishida muhitning ahamiyati beqiyosdir. Bola kamolotiga ta'sir etuvchi omillardan biri muhit sanaladi. Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhitga mansubdir. Muhit - bu insonga tabiiy ta'sir etadigan vositalar, omillar majmui tushuniladi.

Insonning rivojlanishi juda murakkab va qarama-qarshiliklardan iborat jarayondir. Bola o'z rivojlanishi jarayonida turli xil faoliyat ya'ni o'yin, o'qish, sport turlariga hamda muloqatga kirishadi. Bu esa ularning ijtimoiy tajribalarining oshishiga yordam beradi. Bolaning dunyoga kelishidan tortib uning butun umri jarayonida yuqoridagi faktorlar ya'ni faoliyat va muloqat bir-birini to'ldirib bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. Bola rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchi-bu qarama qarshilikdir. U tashqi va ichki ta'sirlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi ta'sirlarga insonni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyat kirsam, ichki ta'sirlarga biologik va irsiy faktorlar kiradi.

Shaxsni tarbiyalash, kamol toptirish ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni sanalib, shuning uchun qadimdan ushbu ma'suliyatli faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari jalb etilgandir. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bolaning kamol topishida ijtimoiy muhitlar qanchali to'g'ri tashkil etiladigan bo'lsa, pedagogning ta'sir doirasi qanchali yuqori bo'ladigan bo'lsa, bola har bir faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi. Muvaffaqiyat kaliti sifatida esa beixtiyor ijtimoiy pedagoglarga, ya'ni zahmatkash o'qituvchilarga murojaat qilaslarni imkoni yo'q.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan bugungi kunning zamonaviy, bilimli, kasbiy salohiyatli o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglab olish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.X. To'xtaxodjayevarning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376
3. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayevar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.

6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: "Noshir" 2011 y. -140 bet.
8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2017 y. -434 bet.
11. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12  
<https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISH MASALALARI**

Dehqonboyev Muhammad  
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti  
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etish masalalari hamda PIRLS tadqiqotining mazmuni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro tadqiqotlar, ta'lim tizimi, o'quvchilar, maktab, xorij tajribasi

Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritilar ekan, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq, deb hisoblash mumkin. Hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri xalqaro, chet el tajribasi ya'ni, ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish desak to'g'ri bo'ladi. Buning yaqqol isboti "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" sini tasdiqlanishidir.

Ushbu konsepsiyada quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, "shu bilan birga O'zbekiston respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir, shuningdek:

- uzluksiz ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayonida individallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- xalq ta'limi sohasidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish odinga maqsad qilib qo'yildi va vazifalarni bajarish bo'yicha ilk qadamlar tashlanmoqda"[3]

Xuddi shunday xalqaro tajribalardan yana biri Koreya davlatining tajribasi hisoblangan va barchaga ma'lum bo'lgan kredit-modul tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'satdiki, kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligidan ham, bu xalqaro hamda ilg'or tajriba

ayrim oliy o'quv yurtlarimizda tashkil etildi. O'quv yurtlarida ta'lim kredit-modul tizimini joriy etish bilanoq, ta'limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko'zga tashlana boshladi. Demakki, bu kabi yaxshi samara beradigan, o'z sinovidan o'tgan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o'zlashlashtirib boriladi va o'ylaymizki, ta'lim tizimimizni modernizatsiya qilishda o'zining samaradorligi bilan namoyon bo'ladi.

Hozirda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot bosqichiga nazar soladigan bo'lsak ularning rivojlanishi va taraqqiyotga erishishi ko'pgina omillarning hissasi evaziga rivojlangan. Iqtisod, siyosat va eng asosiysi ta'limni rivojlantirgan. Misol uchun Yaponiya, Janubiy Koreya, Angliya, Germaniya va Amerka Qo'shma Shtatlari siz o'ylashingiz mumkin bu davlatlarning ba'zilar boshqa zaif davlatlarning evaziga rivojlangan deb lekin agar ular bilmsiz yoki siyosati bo'lmaganda oddiy davlatlardan farqi bo'lmasdi. Shu o'rinda bizning mamlakatimizda hozirda ta'lim tizimining o'zgarish bosqichida va bu bosqichda ta'lim sifatini oshirish kerak.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.[4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga[1] muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Konsepsiya doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq[2]:

o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment – PISA);

boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS);

Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish qarori bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kiritildi.

Tadqiqot ishi davomida PISA dasturi tajribasini tahlil qilish va undan milliy baholash tizimini takomillashtirishda foydalanish muammolariga alohida to'htalib o'tilgan. Shunday

bo'lsada, dunyoda o'zining qamrovi ortib borayotgan boshqa dasturlar, ya'ni PIRLS, TIMSS va TALIS xalqaro dasturlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bu bizha PISA dasturining boshqa dasturlaridan farqli jihatlari va afzalliklari haqida yaxshiroq tushunishizga yordam beradi.

PIRLS [6] (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA–International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.[5]

Yurtimizdagi ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olinadi, ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'linadi, ta'lim sifatini oshirish, xalqari miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonlik darajalarining shakllanganligini bilish, salohiyati va savodxonlik darajalarining shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosida, xorijiy mamlakatlardagi tengdoshlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori
3. Pardayeva M.U. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari. // Наука и образование Том. 1 № 4 (2020)
4. Xalqaro baholash dasturlari: afzalliklari va imkoniyatlari, B. Xodjayev, 2019
5. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailova, J.R.Narziyeva, X.P.Axmedov, G.O.Tog'ayeva, O'quvchilar savodxonligini oshirish baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi (qo'llanma) 2019
6. Aksel Paulsen , Soren Overgaard , Jens Martin , Quality of data entry using Single Entry , Double Entry and Automated forms Processing - an example based on a study of patient



## **4”K” MODELI-SIFATLI TA’LIMDA BOSH OMIL**

**(Tarbiya va ona tili, fanlari integratsiyasi misolida)**

Abdullayeva Muxayyo Iskandarovna

Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish Milliy markazi  
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasida katta o’qituvchisi

**Annotasiya :** Maqolada ona tili, tarbiya fanini zamon va makon kontekstida integrativ o’qitish masalalari yoritilgan. O’quvchilarni fanlararo integratsiyadan foydalanib kreativ fikrlashga o’rgatishga oid yorqin misollar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** integrasiya, zamon va makon, islohot, sifatli ta’lim, yangi O’zbekiston, strategiya, innovasiya, kreativlik, kollobaratsiya, kommunikativlik.

Bugungi kunda shiddat bilan o’zgarayotgan dunyoga o’quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog’lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, milliy va diniy bag’rikenglik, ijtimoiy-fuqaroviy, yuksak ma’naviy fazilatlarini shakllantirish dolzarb vazifalar bo’lib qolmoqda.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yangi O’zbekistonni bunyod etishga kirishgan ilk kunlardan oq yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdilar va bu masala hayot-mamot masalasi ekanligini qayd etdilar: ”Ma’lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI- asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya mukammal bo’lishi uchun esa bu masalada mutlaqo bo’shliq paydo bo’lishiga yo’l qo’yib bo’maydi”. [1.504-505-b]

Navoiy hazratlari bu dunyoga kelib, inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va ezguliklar o’ziga kasb qilib olmagan ,yani yuqtirmagan kishi poklanish maqsadida hammoga kirib ,u yerdan nopok chiqqan kimsaga o’xshatib quyidagi misralarni keltirgan.

Kamol et kasbkim,olam uyidin,sanga farz o’l mag’ay, g’amnok chiqmoq,

Jahondin notomom o’l tmoq baayni,zarur hamomdan nopok chiqmoq.[2]

Fikrimizcha, hazrat Navoiyining bu o’lmas fikrlari quyidagi savollarimizga javob bo’ladi.

Yangilangan O’zbekiston ta’lim tizimiga “4 k” modeli shiddat bilan kirib keldi.

“1k”- Tanqidiy fikrlash (kritichiskoe mishlenie);

“2k”-kreativ fikrlash (kreativnoe mishlenie);

“3 k”- kollobaratsiya ,yani jamoa bilan ishlash (kollektivnoe zanyatie)

“4 k”-kommunikativlik –muloqotga kiritish ( kommunikasiya).

O’quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1.Inson boshqalarga nimasi bilan naf keltiradi?

2.Insonning hayotida yashashdan maqsadi nima?

Hazrat Navoiyining yuqorida keltirgan ilk misralarni integrasion ta’limga qaratib Tarbiya fani bilan bog’laymiz. Bizga ma’lumki,Tarbiya fanidan nafaqat bilim beriladi, balki o’quvchilar ijtimoiy hayotga faol tayyorlanadi. Ya’ni o’quvchilar fikr berishga emas, fikrlashga o’rgatiladi.

**Integrasiya qayerda?** Bu haqda shoir keng mulohaza qiladi. O’quvchilarni ro’y berayotgan ijobiy o’zgarishlar mohiyatiga diqqat qilish va quruq gap bilan emas, balki amaliy ishlar bilan jalb etishga undaydi. Inson degan nomni ko’tarib yurgan shaxsga fikran bunday murojaat qiladi. Ya’ni dunyoga kelgan har bitta shaxs o’zida vatanga daxldorik tuyg’ularni singdirishi kerak. Birinchi navbatda yoshlarimiz har tomonlama chuqur bilimlarni o’rganishlari, o’z kasbining mohir ustasi bo’lishi, o’z ona tilini sevishi, milliy an’analar va qadriyatlarini ulug’lash kabi fazilatlariga ega bo’lishlari darkor. Aks holda Hazrati Navoiyi aytganidek, hammomga kirib yuvinmasdan, poklanmasdan chiqib ketgandek bo’ladi. O’quvchilar tomonidan ilgari surilgan shu fikr tanqidiy fikrlashning yaqqol namunasi hisoblanadi (**“1k” misolida**).

O'quvchilarga kreativ (ijodiy) fikrlashga jalb qilish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilinadi. **Alisher Navoiyi zamonasiga tushib qolsangiz, u yerdan nimani olib kelgan bo'lardingiz ("2 k" misolida).**

Biz mutaxassis sifaida bilamizki, Tarbiya darsliklariga ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy (1878-1934) bobomizning hikmatli so'zlari asos qilib olingan.

Misol uchun:

Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lg'usi balo sanga,

Vujudi tarbiyat topsa bulur ur raxnoma sanga.

Tarbiyat topsa, temirchining bolasi bo'lg'usi olim,

Axloqi buzulsa, Luqmoni Hakim o'g'li ham bo'lg'usi zolim [3].

(Turkiy guliston yoxud axloq asaridan). Bu o'quvchilari jamoa bilan ishlashga yo'naltirilgan **"3k" ga misol** bo'la oladi.

O'quvchilarning hammasida ham notiqlik qobiliyati rivojlangan bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar bilsa-da, fikrini erkin va mustaqil bayon eta olmaydi. Jamoada ishlash sog'lom raqobat muhitini yaratadi va shunday o'quvchilarga erkin so'zlashishi uchun imkon yaratadi. O'quvchilarning o'zaro bir-birini tinglashi, fikrini hurmat qilishi hamda sog'lom raqobat asosida muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa **"4 k" ga misol** bo'la oladi. Yani muloqotga kirishuvchanlikka misol bo'la oladi.

O'rta va yuqori sinflarda ona tili va Tarbiya faniga kiritilgan mavzularni o'rganish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkurga ega bo'lish, jamoada hamkorlik qila olish, mas'uliyat va majburiyatlarga amal qilish, jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallay olish, ijtimoiy borliqni his qilish va undan zavqlana olishga o'rgatiladi. Bitiruvchi sinflarda esa yuqorida keltirilgan "4k" modelini o'rgatish natijasida mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olish, bilimni muntazam oshirib borishni tizimlashtirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, yurt taqdiriga daxldorlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lish bilan birga ularni targ'ib qila olish singari BKM va kompetensiyalarga ega bo'lishadi.

Umumiy o'rta maktablarida ta'lim olish va uning sifatiga bo'lgan qat'iy talabni maktab rahbariyati, o'quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan doimo ehtiyojga aylantirilsa, o'zining ustida muntazam ishlayotgan o'qituvchi munosib rag'batlantirib borilsa, aksincha o'zini rivojlanishiga e'tiborsiz o'qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhiti shakllantirilsa, o'qituvchida o'z ustida muntazam ishlash, ya'ni bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi.

Masalan, "Tarbiya" darslarida ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish jarayonida qiyosiy tahlillardan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashiga keng yo'l ochadi. Turli davlatlarning "milliy" tarixi boshqa davlatning "milliy" tarixiga mos kelmasligi mumkin. Eng muhimi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi lozim. "Ulug'imsan vatanim!", "Baxt oiladan boshlanadi" kabi mavzularni o'tish o'quvchi- yoshlar ongi va qalbida vatanga, yurt taqdiriga daxldorlik hislarini kuchaytirish bilan birga ularda ona vatan kelajagiga ishonch ruhini kuchaytirishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar dunyoqarashini bugungi zamon talablari darajasida shakllantirishda psixologiya fanining kategoriyalaridan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Yuksak ma'naviyatli va intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, jahon raqobatiga bardosh beradigan va jahon standartlariga mos kadrlarni tayyorlashdek ustuvor vazifa esa tarixiy xotirasi metindek mustahkam insonlarni tarbiyalashni talab etadi. Fanlararo integratsiyadan foydalanish esa ta'lim sifatini hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarishga keng imkoniyat yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyotni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kotaramiz. 504-505 bet, I-Jild.

2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq asari, 1915 yil, 5-bob.

3. Bobomurod Erali. “Bashariyat ma’naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasida A.Navoiy merosining ahamiyati”. respublika ilmiy-amaliy anjuman materiali

## **JISMONIY TARBIYA MASALALARINING SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA YORITILISHI**

Allayorova Latofat Jo’rayevna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani  
42-maktab jismoniy tarbiya fani oliy toifali o’qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

O’quvchilarni jismoniy tarbiyalashning mazmuni hamda Sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Muslihiddin Sa’diy asarlari, xalq og’zaki ijodida qay tarqia yoritilganli ochib berilgan.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR:**

Jismoniy tarbiya, chiniqish, inson salomatligi, mardlik, Abu Ali Ibn Sino, Muslihiddin Sa’diy, xalq og’zaki ijodi, dostonlar, Alpomish.

Jismoniy tarbiya o’quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon bo’lib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Ya’ni jismoniy tarbiyaning oldiga qo’ygan eng katta maqsadi – sog’lom avlodni voyaga yetkazishdir.

Sog’lom avlod deganda biz ham jismoniy, ham ma’naviy tomondan yetuk, har ishga qodir, ilg’or madaniyatli kishilarni ko’zda tutamiz. Darhaqiqat, shunday noyob fazilatlarga ega avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan xalq kelajakka ochiq ko’z, yorug’ yuz, katta ishonch bilan qaraydi.

Insonning kuch, qudrati, qobiliyatlarini tahlil etganda, u uchga bo’linadi:

- jismoniy;
- aqliy;
- axloqiy.

Shunga binoan, insonning bu kuch –qobiliyatlarining taraqqiysi, yuksalishini ta’min etadigan tarbiya ham uch qismga ajratiladi: badan tarbiyasi, aql tarbiyasi, axloq tarbiyasi.

Jismoniy tarbiya inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, hayotda hamma insonning mukammal sog’-salomatlikka, kuch –quvvatga ega bo’lish ehtiyoji bor. Ikkinchidan, tan sog’lig’i fikr va axloqning ham sog’lig’ini ta’min etadi.

Jismoniy tarbiya masalasiga xalq og’zaki ijodida ham, Sharq mutafakkirlarining asarlarida keng bayon etiladi. Jumladan, o’zbek xalqining “Alpomish”, “Go’ro’gli” kabi dostonlarida ham o’z ifodasini topgan.

“Alpomish” dostonida Hakimbiy (Alpomish)ning jismoniy mashq qilishi, tabiat qo’ynida voyaga yetganligini, uning alpligi quyidagicha tasvirlanadi: “Alpinbiyning bobosidan qolgan o’n to’rt botmon birinchidan bo’lgan parli yoyi bor edi. Shunda yetti yashar bola Hakimbek o’n to’rt botmon yoyi qo’lda ushlab ko’tarib tortdi, tortib qo’yib yubordi. Yoyning o’qi yashinday bo’lib ketdi. Asqar tog’ining katta cho’qqilarini yulib ketdi, ovozasini olamga yoyildi. Shunda barcha xaloyiq yig’ilib kelib aytdi: Dunyoda bir kam to’qson alp o’tdi, alplarning boshlig’i Rustami doston, oxiri bu Alpomish alp bo’lsin”.

Abu Ali Ibn Sino butun musulmon Sharqining ulkan qomusiy aqli, jahon ilmi va madaniyatining eng mashhur namoyondalaridan biridir. Ibn Sino o’rta asr fanining turli sohalari-falsafa, tibbiyot, tabiatshunoslik, badiiy adabiyot bo’yicha yozgan asarlari bilan madaniyatimiz tarixida ulkan o’chmas iz qoldirdi, uning rivojiga katta hissa qo’shdi. O’z davrida “Shayx-urrais” (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlandi.

Ta’lim-tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya sohasidagi buyuk xizmatlaridan biridir. Ibn Sino “Tadbiru manozil”, “Tib qonunlari” asarlarida bola katta bo’lguncha uning jismoniy kamolotiga alohida e’tibor berish lozim. Ulug’ mutafakkir

jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi inson hech qanday davolanishga muhtojlik sezmaydi. Jismoniy mashg'ulot inson ruhini tetiklashtiradi. Ammo jismoniy mashg'ulotlar ortiqcha bo'lmasligi ham kerak, aks holda badanning tezda charchab qolishiga olib keladi. Jismoniy mashg'ulotlardan butunlay voz kechish esa, badanning qarib tezda ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Har bir inson o'zining xulq-atvori, imkoniyatlari, qobiliyati, hohishiga qarab jismoniy mashg'ulot turini belgilab olishi kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino: "Badantarbiya –sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir",- deydi, bu fikr: "Kimki qilsa harakat-sog'lig'ida bo'lar harakat"- degan naqlni eslatadi.

Riyozatsiz yotishdan ko'p topma rohat,

Bu rohatdan topolmassan hech bir manfaat.

Jim yotsang ifloz xilt-la to'lar badan,

G'izocha hech hozirlanmas biror maskan.

Abu ali Ibn Sino insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarni sanab o'tar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi:

1. Jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat.

2. Aqllilik- biror ishni bajarishda shoshma –shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

3. Ziyraklik- sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Muslihiddin Sa'diy Sharq mumtoz madaniyatining butun dunyoga mashhur yirik namoyondalaridandir. Sa'diyning "Guliston" asari tarbiyaviy, pand-nasihatdan iborat hikoya va hikmatlar to'plamidir. Adib bu asarida jahongashtalik yillarida hayotda ko'rgan, bilgan voqealarini bayon etadi, ulardan axloqiy xulosalar chiqardi, hayotda yo'ldan adashganlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, buni o'zining burchi deb biladi.

Sa'diy barkamol insonning haqiqiy ma'naviy qiyofasi uning aqli, bilimi va hunarida, sof insoniy fazilatlar-jasurlik, lutfi karam, odamiylik, mehr-shafqat ko'rsatishida deb biladi.

Sa'diy o'zining "Guliston" asarida inson kamolotida jismoniy yetuklik asosiy omillardan biri sifatida qaraydi. Masalan, har qanday davrda ham ulug'lanadigan mardlik, chaqqonlik, jasurlik, kuchlilik har bir yigir egallashi zarur bo'lgan xislat sifatida talqin etiladi. Bu xislatlar inson gavdasiga emas, uni egallab olishiga bog'liqdir. Ana shunday jasurlik, epchillikni ko'rsatuvchi xislatlar ulug'langan hikoyatlar asarda anchagina berilgan. Har bir hikoyatda chiniqish, jismoniy tarbiyaning inson salomatligiga naqadar foydaliligi bilan birga, insonda o'ziga ishonch, shod yashash ishtiyoqi, kelajakka umid bilan qarash qanchalik ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko'rsatib berilgan.

Buyuk mutafakkirlamizdan Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Sa'diy Sheroziylarning jismoniy tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va o'quvchi-yoshlarning jismoniy kamolotida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Goncharova O.V. "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish". T., O'zDJTI matbaa nashriyoti bo'limi, 2005 y. 57-b.

2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Prof. R.Salomovning umumiy tahriri ostida. 1 tom. T., "ITA Press" nashr., 2014. 78-b.

## **QOBILIYAT TUSHUNCHASINING ILMIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI**

Bozorova Yulduz Etolmasovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani  
24-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya.** Maqolada qobiliyat tushunchasi mazmuni, qobiliyat turlari, psixologiyada qobiliyatlar tushunchasida doir ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Qobiliyat, psixologik xususiyat, faoliyat, bilim, ko'nikma, malakalar, qobiliyat turlari.

Ma'lumki, turli kishilarni bir xil sharoitlarga va vaziyatlarga qo'yilganda ular turli muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bunday paytlarda "qobiliyatlar" tushunchasiga suyanamiz va muvaffaqiyat asosini qobiliyat deb tushuntiramiz. Bu tushunchadan ba'zi odamlarni yangilikni boshqalardan ko'ra tezroq va yaxshiroq o'zlashtirganlarida ham foydalanamiz. Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilar qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emosiya, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchidir.

Psixologiyada qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida tafovutlanadigan xislatlar fazilatlar yotadi. Shuning uchun har bir shaxsda bir xil natija bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin ular o'rtasidagi farqlar sifat va miqdor jihatidan bo'lishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatlarining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdor tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin o'quvchi shaxsini qanday individual psixologik xususiyatlari faoliyatni qay darajada bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarni qanchalik tez, yengil va mustahkam egallab olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi inson psixologik xususiyatlarining yig'indisi sifatida ko'riladi. Bir xususiyatlarni o'rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari mavjud, buni odam o'zida chindan qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirishi mumkin.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohasida (pedagog, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o'zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o'lchash muammosi bilan ko'proq chet el psixologlari (Kettell, Termen, Spirmen) va boshqalar shug'ullanganlar. Ular kattalarda kobiliyatni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanganlar. Bolaning aqliy iste'dod koeffisienti

I Q aqliy yoshi

Bolaning haqiqiy yoshi

Bu usul odamning aqliy qobiliyatlar egasi ekanligini emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashdirib bo'lmaydigan biror bir xildagi ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar borligini namoyon qiladi.

L.S.Vigotskiy bu usulni tanqid qilib, o'zining kelajak taraqqiyot zonasini belgilash "metodi" deb ataladigan usulini taklif qildi. Qobiliyatlar odamning faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar tasnifi

*Psixologiya fanida qobiliyatlar quyidagicha tavsiflanadi:*

1.Tabiiy qobiliyatlar odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

2.Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

3.Umumiy qobiliyatlar insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy ijodiy, sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir.

Ayrim adabiyotlarda umumiy qobiliyatlar mohiyati turlicha talqin qilinadi. Jumladan, umumiy qobiliyat deganda muvaffaqiyatli ravishda bilim olishni ta'minlaydigan shaxsning yuksak intellektual taraqqiyoti tushuniladi. Biroq bunday tushuncha tor va noto'g'ridir, chunki intellektual taraqqiyot faqat ixtiyoriy faoliyat uchun umuman talab qilinadi, xolos. Umumiy qobiliyat faoliyatning hamma turlariga jumladan amaliy faoliyatga ham ta'sir qiladi, deb hisoblovchi psixologlar topildi. Ammo bu fikrda qarama-qarshilik mavjud, agar umumiy qobiliyat universal ahamiyatga ega bo'lgan ekan, unda qandaydir maxsus qobiliyatlar haqida gapirib o'tirishning hojati yo'q.

Nihoyat, shunday psixologlar ham borki, ular faqat maxsus qobiliyatlarni tan oladilar. Umumiy qobiliyat haqida gapirganda ham maxsus qobiliyatlar yig'indisi ta'sirini ko'zda tutadilar. Kishining turli-tuman faoliyatlari orasida bittasi asosiy yoki yetakchi faoliyat sharoitida shaxsning maxsus taraqqiyotini belgilovchi faoliyat bo'lib ajralib turadi. Bu faoliyat tug'ma spesifik zehn nishonalari mos tushishi mumkin.

Hamma maxsus qobiliyatlarni, inson faoliyatining asosiy turlarini uch turga: fan, san'at, amaliyotga ajratish mumkin. Shunga binoan qobiliyatni milliy, badiiy va amaliy deb klassifikatsiyalash mumkin. Bu turlarning har biri o'z navbatida mayda turlarga bo'linadi.

Ilmiy qobiliyat abstrakt, evristik fikrlashning yuksak rivojlangan bo'lishini, og'zaki mantiqiy xotirani, qat'iyat va sabr-toqatni talab qiladi. Bu qobiliyatga quyidagi mayda qobiliyatlar kiradi: fizik, matematik qobiliyat, ximiya, filosofiya, tarix, biologiya fanlariga nisbatan bo'lgan qobiliyatlar.

Badiiy qobiliyat sensor obrazli fikrlashning alohida rivojlangan bo'limini, o'tkir emosional ta'sirchanlik va reaktivlikni talab qiladi. Bu qobiliyatga tasvirlash, musiqaviy, artistik va adabiy qobiliyatlar kiradi.

Amaliy qobiliyat praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar mavhum, mantiqiy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi.

O'quv qobiliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxs - shakllanishi, pedagogik ta'sirlar samaradorligini ortishida ijobiy rol o'ynaydi. Ijodiy qobiliyatlar moddiy va ma'naviy madaniyat asarlarini yaratish, yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari psixologik diagnostikasi va korreksion ishlar. –T.: «O'qituvchi», 2005 y.
2. Qoplonova M., Avlayev O.U. Rahbar shaxsining psixologik jihatlari.-T, 2006 y.
3. Niyazmetova G. Shaxsni o'rganish metodikalari.-T.: 2000
4. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, Mumtoz so'z nashriyoti, 2010

#### **RAHBARGA XOS LIDERLIK SIFATLARI**

Maxammadiyeva Nasiba Xasanovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman  
42-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasini boshqaruvchi rahbar shaxsi va undagi liderlik sifatleri haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Maktab rahbarlari, pedagog, pedagog faoliyati, rahbar reytingi, lider, motiv.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda xalq ta'limi sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida maktab rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan inson kamolatiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishi lozim. Har bir pedagog o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoa tashkilotchilari bo'lgan insonlar ta'sirida amalga oshiradi. Pedagogning faoliyatiga ta'lim muassasidagi bugungi sharoit va jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarni amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamoadagi ruhiy muhit o'z hukmini o'tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. G'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir.



Ta'lim muassasalaridagi mutaxassislarning salohiyati mazkur muassasa rahbarlarining reytingini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Rahbar ma'lum hukmronlikka ega bo'lishi uchun 3 xil yo'nalishdagi resurslarni bilishi kerak:

1. Liderning o'ziga bog'liq bo'lmagan, lekin uning rasmiy pozitsiyasiga xos bo'lgan resurslar.

2. Liderning shaxsi bilan (bog'liq) belgilanadigan tasir vositalari (masalan uning imidji bilan bog'liq resurslar).

3. Aniq nutq yoki nutq yordamida amalga oshiriladigan ta'sir. Bunda ko'proq liderning boshqalarni ishonтира olish qobiliyati hisobga olinadi.

4. Jazolashning yakka, rag'batlantirishning esa hamma ishtrokida amalga oshirilishi yaxshi natija beradi.

Rahbar faoliyati asosiy yo'nalishlari: rejalashtirish, tashkillashtirish, xodimlarda turli motivlarni hosil qilinishi, nazorat.

Xodimlarda motivlarni hosil qilish, ularda rahbarning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga nisbatan moyillik paydo qilishdir. Mazkur yo'nalishdagi to'siqlarni o'z vaqtida hal qilish uchun quyidagi sifatlar rahbar uchun muhim hisoblanadi:

1. Ishda to'g'ri yo'lni tanlay olish, vaziyatni pedagogik tahlil qila olish, vaziyatdan to'g'ri chiqa olish, har bir ishga ijobiy yondoshish, o'zining shaxsiy ibrati va ishga bo'lgan munosabati bilan pedagogik jamoani ortidan ergashtira bilishi.

2. Pedagogik mahorat va boshqara olish mahorati, fan yutiqlarini o'zlashtirishi, ichki imkoniyatlarni qidirib topishi va amalga tadbiiq qilishi.

3. Umummadaniylik, ziyoliylik va o'qituvchi shaxsini hurmat qilish.

4. Tashkilotchilik qobiliyati, har bir xodimga uning imkoniyatlaridan kelib chiqib vazifalar berish va muomala qilish. Jamoa ishonchiga kirish, aytilgan takliflar va qabul qilingan qarorlarni o'z vaqtida bajarishga erishish.

5. Kommunikativlik, odamlar bilan o'zaro samimiy munosabat o'rnatish, muloqatga kirishish, jamoani ishonтира bilish va zaruriyat tug'ulganda amaliy yordam berish.

6. Nutq madaniyatiga ega bo'lish, qisqa lo'nda va obrazli fikr yuritish.

Rahbar ishdagi samaradorlikka erishish va xodimlarning ishonchini qozonishi uning xodimlar bilan bo'ladigan munosabatiga kup jihatdan bog'liqdir. Munosabatlar kuyidagilardir:

- Rasmiy munosabat;
- Tenglik munosabati;
- Mansabdorligini sezdirib turuvchi buyruqsimon munosabat;
- Rahbar va xodim o'rtasidagi chegarani ushlab turuvchi pardali munosabat;
- Yoqtirish yoki yoqtirmasligiga ko'ra bo'ladigan munosabat.

Odil rahbar harqanday vaziyatda xodimlar bilan do'stona munosabatda bo'la oladi.

Xodimlarning rahbardan kutuvlari:

1. So'z va ish birligini kutish;

2. Har xodim rahbarini obro'li bo'lishini kutadi;

3. Chiroyli imdjini (tashqi qiyofasi) kutadi.

4. Har bir xodim rahbar o'zi uchun himoyachi bo'lishini kutadi.

5. Har bir xodim lavozimga bosqichma-bosqich ko'tarilishini kutadi.

Shu kutuvlar amalga oshmagan chog'da rahbar faoliyati faqat qilingan ishlarning tahlilidan iborat bo'lib qoladi xolos. Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab o'qituvchilik kasbining ahamiyati va nufuzini yuqori ko'tarish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar izchillik bilan ro'yobga chiqarildi. Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan pedagoglarning moddiy turmush sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbilar amalga oshirilmogda. Bu chora-tadbirlar zamirida umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, ta'lim-tarbiya masalalarini faollikka asoslangan tamoyillarga o'tkazish, o'sib kelayotgan yosh

avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqbol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida gap boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-iqbol" 2006.-592-bet.
2. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, H.M. Tojiboyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-standart". 2012 -98 bet.
3. R. X. Djurayev, S.T. Turg'unov, N. Q. Ahmedova Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) T.: 2013. 140 b.
4. R. X. Djurayev, S. T. Turg'unov. Ta'lim menejmenti. T.: "Voris-nashriyot" 2006, 257-b.

## **O 'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH ISHLARI**

Xalimov Hasan G'ulomovich  
Qashqadaryo viloyati PYAMO'MM Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish  
metodikasi kafedresi o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada kasbga yo'naltirish ishlari va o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Kasb-hunar, kasbga yo'naltirish, texnologiya darslari, mehnat tarbiyasi, uzviylik.

O'quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo'llash uchun zarur bo'ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan texnologiya ta'limi mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi mashg'ulotlaridagi (texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jaligi bo'limlari)dagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish hamda o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan so'rovnomalar o'tkazish orqali o'quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini aniqlagan holda ulardaga mazkur qiziqish, qobiliyat va moyillikdarini rivojlantirish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya ta'limi darslari va barcha shakllardagi ishlarning chuqur ichki mohiyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish hamda individual qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Respublikamiz ta'lim mazmuni tubdan isloh etilayotgan bugungi kunda o'quvchilarning texnik ijodkorlik mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar ham yangi asoslarda qayta ishlanmoqda. So'nggi yillarda, asosan, yangi va takomillashtirilgan ko'rsatmali qo'llanmalar va ta'limning texnik vositalari, maktab ustaxonalari uchun texnologik moslamalar, xomiy korxonalarda xo'jalik hisobidan amalga oshiriluvchi tadqiqot ishlari doirasida, amalga oshiriluvchi mavzular texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilar texnik ijodkorligining ob'yektlari bo'lmoqda.

Pedagog olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, biz quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik:

o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va moyilliklarini aniqlab ularni uyg'unlashtirib jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarni tanlab, ertangi kunda davlat va jamiyatning rivojlanishiga o'zlari ongli tarzda tanlagan kasblari bilan o'z hissasini qo'shishlari ularning o'zlari mustaqil tanlagan kasb-hunarlari doirasida faoliyat ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi,

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida kasb-hunar tanlashda o'quvchilarning moyilliklarini aniqlab ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini uyg'unlashtirish katta hayotga kirib kelayotgan yoshlar kelajakda o'z kasblarining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlari, ertangi kunda o'quvchilar tanlagan kasblaridan afsus qilmaslikka va tanlayotgan kasblari yuzasidan rejalashtirayotgan g'oyalarini amalga oshirishda yordam berishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya ta'limi darslarini o'tish vaqtida amaliy ishlarni bajarish mobaynida o'quvchilarning amaliy pishiriqlarni bajarishlari natijasida qaysi kasblarga nisbatan qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklari borligini aniqlasa bo'lar ekan. O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'llash ishlarini uyushtirishda sinf rahbari, maktab psixologi, o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis (o'qituvchi) hamda texnologiya fani o'qituvchisi asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Albatta, u o'z faoliyatini dastlab davlat ta'lim standartaari (DTS) asosida olib borishi talab etiladi. Zero, texnologiya ta'limining vazifalari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida ifodalangan. Ushbu hujjatlarda maktabdagi mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi izchil ta'riflanib, uning mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirish, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport xizmat ko'rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirish, o'qish va foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilish, ongli tarzda kasb tanlash va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iboratligi ta'kidlangan.

Texnologiya ta'limi darslarida mehnat ta'limi va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruhga birlashtirishni taqozo etadi. Jumladan:

Umumiy o'rta ta'lim vazifalar:

- o'quvchilarda xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi ishchilar, texniklar, muhandislar mehnat faoliyatining mazmuni haqidagi, asbob-uskunalar (mexanizmlar va mashinalar), texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarishning tashkil etilishi haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirish hamda chuqurlashtirish;

- o'quvchilarni texnikadagi ilg'or texnologik g'oyalar evolyusiyasining yo'llari, hozirgi zamon ishlab chiqarishida fan- texnika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni mamlakatimizda yoshlarning ommaviy, ilmiy va texnik ijodkorligining tashkil etilish shakllari bilan tanishtirish, texnika madaniyati malakalarini tarkib toptirish va takomillashtirish, ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ishlash qoidalari, o'quvchini qiziqtirgan fan, texnika va ishlab chiqarish, texnologik masalalar bo'yicha zarur ilmiy-texnik axborotlar olish yo'llarini tushuntirish;

- hozirgi zamon ishlab chiqarishida ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini tashkil etish asoslari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni mazkur mintaqadagi hunar ta'limi tizimi, tuman(shahar)dagi ishchi kasbining qiziqarli jihatlari bilan tanishtirish kabilar.

Tarbiyaviy vazifalar:

- o'quvchilarda bilishga intilish, texnik havaskorlik va mazkur mintaqadagi texnika hamda ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

- mahalliy fabrikalar, korxonalar, qishloq xo'jaligi sohasida, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot instetutlarida faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali ustalar, fan, texnika va ishlab chiqarishning taniqli mutaxassislariga chuqur hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

- o'quvchilarda hayotda, mehnatda, o'qishda, mustaqil bilim olishda, birga yashaydigan kishilarga, o'rtoqlarga munosabatda, mahalliy ishlab chiqarishdagi eng hurmatli mutaxassislarga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

- kishilar mehnati natijalariga ongli munosabat, isrofgarchilikka murosasizlik, tabiatga tejimli munosabatni tarbiyalash, iqtisodiy va ekologik tarbiya berish;

- mehnatga ijodiy munosabat, mahalliy ishlab chiqarishdagi ilg'orlarning mehnat usullari, mahalliy korxonalaridagi ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarining mavzular rejalari,

mazkur mintaqa uchun yetakchi tarmoqlarda band bo'lgan kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalash; aniq ish o'rnida ishlashga ongli ehtiyojni oshirish;

- mahalliy korxonalar, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlar, mahalliy ishlab chiqarishdagi kasblar tarixi hamda mehnat faxriylariga hurmatni kuchaytirish.

Mana shu barcha pedagogik vazifalarni hal qilishda o'quvchilar bilan olib boriladigan dars va darsdan tashqari ishlar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning umumiy prinsiplari asosda yo'lga qo'yilishi kerak. Ushbu xususiyatlarning biri — dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning barchasi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning umumiy vazifalariga bo'ysunishi. Ularning boshqa bir xususiyati shundaki, o'quvchilar ko'pincha ancha kuch va vaqtni talab qiladigan texnik ijodkorlik yoki qishloq xo'jalik tajribachiligida fan, texnika, ishlab chiqarishning biror tarmog'iga qiziqishlari tufayli vujudga kelgan o'z xohishlari bilan qatnashadilar, Shunga ko'ra ixtiyoriy tashabbus o'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunar tanlashga yo'naltirishning eng muhim talablaridan biri deb hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.

2. Safarova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiiq etish yo'llari. T.: Fan. 2005.

3. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.

#### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING 4K MODELINI ASOSIDA O'QITISH**

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
"Kompyuter tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham katta e'tibor berilmoqda. Maktab ta'lim bosqichida bilim olayotgan o'quvchilarga har tomonlama sharoitlarni yaratib berish, o'quv qurollari va darsliklarni ta'minlab berish borasida keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Maktab bosqichidagi barcha sinf o'quvchilarini, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelini tadbiiq etish va bu modeldan foydalanish borasida harakatlar davom etmoqda. Ushbu maqolada shu harakatlar va ularning natijasi to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, 4K modeli, innovatsion yondashuv, ko'nikma, tabiiy-ilmiy savodxonlik, fikr, his-tuyg'u, konsepsiya.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasini bo'lgani uchun ham nozik e'tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o'zida "o'quvchi shaxsi"ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo'lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to'plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g'oyaviy, tarbiyaviy va ma'rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi, to'g'riligi, halolligi, izlanishi, tashabbuskorligi va ixtirochiligida ko'rish mumkin. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad XXI asr o'quvchisi portretida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirishda "4K" ko'nikmalarini rivojlantirish davr talabi. Bunda ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

O'quvchi olamni anglashi, tasavvurining kengayishi va bilimlar poydevorini qurishning eng muhim bosqichi bu boshlang'ich ta'lim davri hisoblanadi. Bu davrda bola "o'quvchi shaxsi"ni yaratadi, maktabga va ta'lim olishga nisbatan qiziqishni uyg'otish, o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin va tushunarli tarzda bayon etish, notanish muammolarni ijodiy hal qilish hamda kelgusi rejalar uchun ichki motivni to'play boshlaydi. Bu esa, o'qituvchilarga innovasion yondashuv va zamonaviy pedagogika asosida o'qitishni talab etadi [1].

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'proq e'tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Avvalo 4K modeli nima ekanligini bilib olishimiz kerak. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kollaborasiya** – darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik** – darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

**Kreativ fikrlash** – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

**Kritik fikrlash** – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Bu 4K modelini har birining o'z harakat ketma-ketligi va natija turlari mavjud bo'lib, to'rttala kompetensiya bir maqsadni amalga oshirishga mo'ljallangan.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq eng mashhur kasblar: IT mutaxassisleri, katta ma'lumot muhandislari, dasturchilar bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimi robototexnika, dasturlash, modellashtirish doiralarning ko'plab sonining paydo bo'lishi bilan bunday ijtimoiy talabga javob beradi. Biroq, ilmiy va texnik bilimlarning tanqisligi ko'nikmalari talabga ega bo'ladi. XXI asrning ko'nikmalari bu alohida sohadir, hozir u turli darajalarda faol muhokama qilinmoqda. Konsepsiyaning mohiyati shundan iboratki, sanoat davrida savodxonlikni belgilovchi asosiy ko'nikmalar o'qish, yozish va arifmetika edi. XXI asrda urg'u tanqidiy fikrlash qobiliyatiga, o'zaro ta'sir o'tkazish va muloqot qilish qobiliyatiga, biznesga ijodiy yondashishga yo'naltirilgan [2].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayoni, ayniqsa, boshlang'ich sinflarga 4K modelini qo'llash juda ham kerakli va foydalidir. Chunki O'zbekiston ta'lim tizimida ta'lim berish jarayoni boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Shaxs umri davomida oladigan bilimlarini eng avvalo boshlang'ich sinfdan boshlaydi, boshlang'ich sinfdan ularga fundament bilimlar beriladi. Bu esa kelajakda oladigan bilimlari uchun ko'nikma vazifasini o'taydi. Shu sababdan boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qib o'rganishi uchun zarur bo'lgan barcha texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sangirova Zamira Bozorboyevna. O'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda "4K" modelining ahamiyati. "Raqamli ta'limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish yo'llari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2023-yil. 231-bet.

2. Bozorova Muxtaram Jo'raqulovna. Steam texnologiyasi – kelajak ta'limi. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 17-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. 10-qism. 2020-yil. 162-bet.

### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING 4K MODELINI ASOSIDA O'QITISHGA DOIR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH : ZAMONAVIY METODIKA VA TENDENSIYALAR**

Matluba To'qiyeva Boqiyevna.  
Xalqaro innovasion universiteti katta o'qituvchisi  
Qarshiyeva Soxiba Uroq qizi  
Xalqaro innovatsion universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimiz boshlang'ich ta'lim tizimida 4K modelidan foydalanish va ushbu jarayonda kompetentlikni rivojlantirish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Talim, 4K, bilim, ko'nikma, kognitiv, kollaborasiya, kommunikativ, kreativ fikrlash, bolalar.

Dunyoda texnologiyalarning rivojlanishi, globallashtirish, demografik muammolar jamiyatni faol ravishda o'zgartirmoqda. Bugungi globallashtirish davrida ta'limning o'tgan asrda shakllangan bilim va ko'nikmalari bizning davrimizda muvaffaqiyat qozonish uchun yetarli emas. Ta'lim tizimi ham o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqmoqda va ta'lim dasturlarida tobora keng ko'lamli ko'nikmalarni o'z ichiga olmoqda. Eng muhimi, ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, muammolarni hal qilish qobiliyatidir. YUNESKO tomonidan qabul qilingan ta'lim sohasidagi asosiy xalqaro hujjatda "barqaror rivojlanish maqsadlari"<sup>7</sup> tasvirlangan va kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvorni o'rganish natijalari aniqlangan. So'nggi bir necha yil ichida butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'limda XXI asrning zamonaviy kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga harakat qilib, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda noan'anaviy yo'nalishdan foydalanilmoqda. XXI asrning turli xil ko'nikmalari va ta'lim natijalarida ushbu ko'nikmalarining turli xil qoidalariga qaramay, ularning to'plami ancha barqaror bo'lib qolmoqda. Mavjud ko'nikmalarga yoki savodxonlikka qo'shimcha ravishda, Partnership for 21st Century Learning XXI asr ko'nikmalari uchun asos yaratadi, unda "innovatsion ko'nikmalar" — tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, kreativlik va innovatsiya, muloqot va hamkorlikning ko'plab ko'nikmalari o'rin olgan.

Zamonaviy ta'limda yetakchilik qilayotgan-Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Vetnamning ta'lim yutuqlari reytingda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Tadqiqotchilar ushbu mamlakatlarning ta'lim siyosati va ta'lim standartlarini belgilaydigan hujjatlarni o'rganib chiqdilar va o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan eng keng tarqalgan kompetensiyalar, qadriyatlar, munosabatlar va boshqa ta'lim natijalarini aniqladilar. Ular orasida

---

<sup>7</sup> UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. — 2017

birinchi o‘rinlarni tanqidiy va innovatsion yoki kreativ fikrlash, o‘zini boshqarish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati egallayd

Boshlang‘ich ta‘lim – shaxs shakllanishi davrining eng muhim bosqichi. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham nozik e‘tibor talab etadi. Ayni shu pallada bola o‘zida «o‘quvchi shaxsi»ni yaratadi, maktabga va ta‘lim olishga nisbatan qiziqishni, mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Bu esa, zamonaviy pedagogika oldidagi doimiy va murakkab masala sifatida darsliklarning g‘oyaviy, tarbiyaviy va ma‘rifiy saviyasiga jiddiy yondashishni talab etadi.

Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e‘tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

“Barchamizga ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim – o‘quvchi shaxsi shakllanishining poydevori hisoblanadi.”<sup>8</sup> Chunki bu davrida bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallasi bo‘lgani uchun ham alohida e‘tibor talab etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, bola o‘zining o‘quvchi ekanligini his qila boshlaydi, ta‘lim olishga va birinchi ustoziga nisbatan mehrni tuyadi, ilm yo‘lidagi kelgusi natijalar uchun harakat qila boshlaydi. “4K” modeli ta‘lim tizimiga zamonaviy yondashuv bo‘lib, zamonaviy ta‘lim tizimida 4K modelidan foydalanishda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlasga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi.

Kollaborasiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko‘nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishni shakllantirishdir.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati, o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir.

Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun‘iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib, o‘quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishga inkon yaratishini hisobga olsak, maktabdagi har bir darsni o‘quvchilar faqat fan mazmunini o‘zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan jarayonga aylantirishimiz zarur

Tanqidiy fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

---

<sup>8</sup> Jabborova O. Boshlang‘ich ta‘limning innovatsion texnologiyalari.-Toshkent,2023

Kollaborativlik, ya'ni hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesotti universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. "O'tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan aniqlash, amaliy faoliyatni tashkil etish g'oyasini ilgari surg'ach, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya mamlakatlari ta'lim muassasalarida bu goyalar keng qo'llanila boshlagan."<sup>9</sup>

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlik muhitini yaratish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoani rivojlantirish nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu nazariyaning mohiyati insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o'rin tutishiga asoslanadi. Har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi. Bizning fikrimizcha, jamoaning ijodiy salohiyatidan foydalanish orqali shaxsga o'z qobiliyatlarini ochish, shaxs sifatida namoyon bo'lish imkoniyatini berish mumkin. O'quvchi turli vaziyatda o'z fikrini dadil bayon etadi, axborotni qidiradi, olingan ma'lumotlarni ongli va obyektiv baholashni o'rganadi.

Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining hamkorlikda ishlash, ya'ni kolloborativ bo'limi yuqori samaradorlikka ega. O'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud: guruhlarda o'qitish (R.Slavin)da o'quvchilar teng sonli ikki guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi. R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi etarli emas. O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosbata esa, sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. Bahsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib, qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishidir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Bahsli, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Inson muammo bilan yuzma-yuz (to'qnash) kelgandagina fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud bilimlar bilan fikrlab amallar bajara boshlab, saviyaga mos darajadagi xulosalarga kela boshlaydi. O'quvchilar o'zlari bajargan topshiriqlarni qanday qilib bajarganliklarini aytib, tushuntirib bera olishlari lozim. Muammo hal qilish jarayonidagi tushunmay qolgan o'rinlarini o'z so'zlari bilan ifodalab bera olishi o'qituvchi uchun muhimdir. Nemis pedagogi Disterveg bekorga "Noqobil o'qituvchi haqiqatni aytadi qo'yadi, yaxshi o'qituvchi esa, uni topishini o'rgatadi"<sup>10</sup> deb aytmagan. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi faqat mavzuni tushuntirib berish emas, masalani to'g'ri qo'ya bilishi, o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира olishi, uning tuyg'ularini bezovta qila bilishi va muammoni hal etishda hamkor sifatida qatnashishdan iborat. Bola faoliyati erkin bo'lsa, hurligiga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg'usi paydo bo'ladi. Bahs jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligi bolani mutelikdan, ko'r-ko'rona itoatdan qutqaradi. Dars bir maqsad sari itilayotgan hamkorlikning yagona faoliyatiga aylanadi. Hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiyimiz" metodi hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiyimiz" metodi 1987-yili Minnesot universiteti

<sup>9</sup> Moiseyuk N. E. Pedagogika: darslik. nafaqa. – M.: Granma, 1999.

<sup>10</sup> Hasaboyev J va bowq.Pedagogika fanidan izohli lug'at.-Toshkent,2009 3.



professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqni ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilish natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, agar biz o'quvchilarga ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini ular doimiy ravishda bajarishlari uchun tashkil etishimiz kerak. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar maktab darslari orqali nafaqat mavzu mazmunini o'zlashtirishlari, balki mustaqil ravishda bilim olish va yaratish qobiliyatini rivojlantirishi va eng muhimi, o'zlarini boshqarishni va jamoada ishlashni o'rganishi mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. — 2017
2. Hasaboyev J va bowq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -Toshkent, 2009 3.
3. Jabborova O. Boshlang'ich ta'limning innovatsion texnologiyalari. -Toshkent, 2023
4. Moiseyuk N. E. Pedagogika: darslik. nafaqa. – M.: Granma, 1999. 348 b
5. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ..diss. –T.: 2007, -315 b.

### **MILLIY DASTUR TALABLARI ASOSIDA BOSHLANG 'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Abduxolikova Marhabo

Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazini

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim

kafedrasining katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy fikrlash, barkamol inson, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ta'lim va tarbiya samaradorligi, fikrlash.

Hozirgi kunning talabi barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish, o'quvchilar bilan ishlashning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilishni taqa zo etadi. Shunga ko'ra, kichik yoshdagi o'quvchilarni fikrlash, izlanish va aniq maq sad sari intilib ongli ravishda bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta' lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishini talab etadi. Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishdir.

Ta'lim va tarbiya siyosati ayni vaqtda yangi ijtimoiy tartibni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz, tezda qayta quradigan va g'oyalarni yaratish orqali qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini topadigan shaxslarni talab qilmoqda. Zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishni ustuvor vazifa sifatida qo'yimoqda. O'qituvchilar, ularning fikricha, o'quv jarayonini qurish va loyihalash uchun eng maqbul bo'lgan o'qitish usullari va texnologiyalarini tanlash imkoniyatiga ega. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi o'quvchilarning nafaqat o'qishda, balki keyingi hayotida ham zarur bo'lgan aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdir (aniq qaror qabul qilish, ma'lumotlar bilan ishlash, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati), va hokazo.

Barkamol avlodning har tomonlama kamol toptirilishining asosi bola hayotining dastlabki yillarda, boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bolalarni fikrlashga o'rgatish, o'z fikrini bayon qila olishi hamda berilgan fikrlar yuzasidan tanqidiy fikrlay olishi boshlang'ich sinf o'qituvchining vazifalaridan sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchining sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning aqliy, jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari o'quvchilarning nutq boyligiga, ravon va chiroyli gapirishiga alohida e'tibor qaratiladi. Jamoa bo'lib ishlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga, boshqa fikrlarga tanqidiy qarashga, fikrlarini himoya qilish ko'nikmasi hosil qilinadi.

**Tanqidiy fikrlash-** bu berilgan fikrlar (ma'lumotlar) davrasidan chetga (kengroq bo'lgan holda) chiqaradigan fikr (ma'lumotlarning) mavjudligini idrok qildirish va bunga erishish. Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni kengaytirish borasida yangi o'lchovlarni yaratish, tegishli muammolarni izlash va ular optimal yechimlarini topish.

Tanqidiy fikrlash- bu axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni.

Tanqidiy fikrlash- bu fikr va imkoniyatlarni murakkab ijodiy yaxlit holga keltirish axborot va konsepsiyalarning mohiyatini o'zgartirib, ularni qaytadan mushohada etish jarayoni.

Tanqidiy fikrlash- to'g'ri tuzilgan pedagogik jarayonning natijasi bo'lib, unda o'qitishning maqsadi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar:

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik qayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas. Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Shunga ko'ra Devid Klusterning tanqidiy fikrlash haqida bildirgan qimmatli mulohazalaridan foydalanish mumkin. Birinchi bosqich (ongli ish) – tayyorgarlik, yangi g'oyaning yalt etib paydo bo'lishidan oldin bajariladigan alohida faoliyat holati. Ikkinchi bosqich (anglab yetilmagan ish) – pishib yetilish, muammoni yechish ustida bajariladigan anglanmagan ish, yo'naltiruvchi g'oyaning inkubatsion davri. Uchinchi bosqich (anglanmagan holatni anglangan holatga aylantirish) – ilhomlanish, anglanmagan ish natijasida ong doirasiga kashfiyot g'oyasining dastlabki – gipotetik holda tushunilishi. To'rtinchi bosqich (ongli ish) – g'oyani rivojlantirish, uni oxirgi ko'rinishda rasmiylashtirish va tekshirish.

Fikr inson faoliyati, uning o'zligini kuchi, qudratini, o'zigini tashkil qiluvchi ma'naviy insoniy sifatdir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lganligi uchun fikr rivojining tarixi inson munosabatini, xayotning belilovchi asosiy ijtimoiy tamoyillar tarixiga bog'liq. Inson yaritishilining ilk davrlarida fikr tabiatdagi jarayonlarini anglash ulardan yashash uchun foydalanish va o'zini muhofaza qilish shaqlida bo'lgan. Shu tariqa inson fikri rivojlanib inson mehnatining boshqa moddiy-ma'naviy ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Fikr nima? Fikr inson miyasida ma'nolarning o'zaro bog'lantirilishi va rivojlantirilishi. Biz eng zamonaviy ta'rif. Fikr bosqichlari:

Anglash, mushohada, tafakkurdan iborat. Shu 3 narsadan iborat: Fikr ravshanlashuvi, Mushohada, Anglash. Fikrning quvvati-uning ilmiyligi, chuqurligi, fikrning ziynati, ezgu niyat, maqsadga bag'ishlanganligi, kengligi (keng qamrovligi) fikrga softligi-poklik, aniq sohaga yo'nalganligidir. Fikrlashning xronologik, muammoli, gipotetin, evristik, intuktiv, xokazo turlari mavjud. Umuman fikrlash turlarini tizimiga solinsa asossauiyatiya sabab va oqibat mantiqiy fikrlashlarga bo'linadi. Fikr tarbiyasi haqida buyuk pedagog A.Avloniy "Fikr tarbiyasida eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib, kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir deydi. Fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir. Dars ila ikkisi bir biridan ayrilmaydurgan, birining vujud

biriga joylashgan. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar deydi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Tafakkur" jurnalining bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatda. Demak, inson o'z hayoti va faoliyatini mazmunli o'tkazish uchun avvalo o'zini o'rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo'lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muhim o'rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo'ylik, to'g'rilik, uzoqni ko'ra bilish, nafsning kuyiga tushmaslik kabi xususiyatlarni amalga oshirishi mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlashning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- o'quvchilarning mashg'ulotlardagi faolligini ta'minlash;
- o'quvchilarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish kerak;
- har bir o'quvchining tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch qissini uyqotish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonining muayyan jihatlari quyidagi asoslarga tayanadi:

- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar almashinuvini tashkil qilish;
- o'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- o'quv jarayonini baholash;
- O'quvchilarning amaliy, ijodiy, mustaqil ishlari, imkon qadar individual bo'lishi uchun sharoit yaratish talab etiladi.

Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni taqil qilish va izoqlash, g'oyalarini tahlil qilish, o'rganilayotgan hikoyalarni o'z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi.

O'quvchilarga g'oyalar, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi boqlanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Tadbiiq qilishga qaratilgan savollar o'qish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini yechish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Tahlil etishga qaratilgan savollar o'quvchilardan u yoki bu voqeaning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi. Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi pedagoglar tomonidan maxsus turdagi topshiriqlar, mustaqil faoliyat turlarini bajarish orqali ro'yobga chiqariladi va ularning samaradorligi muayyan mezonlar yordami bilan amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni to'laqonli tarzda o'quvchiga yo'naltirilsa, uning ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamo yillar asosida tashkil etilsa, bunday ta'lim natijalari, birinchi navbatda, o'quvchi shaxsining o'zini, shu bilan bir qatorda, davlat, jamiyat hamda fan va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko'tariladi. Ta'lim jarayoni o'quvchilar tomo nidan tanlangan turli yo'llarga moslashtirilib, takomillashtirilib borilgandagina ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga zamin yaratiladi. Misol tariqasida qo'yidagi usullardan foydalanish mumkin.

### **“Qarang — fikrlang — o‘yoning” usuli**

Uni maktabda emas, balki kundalik oilaviy muhitda ishlatish yaxshiroqdir, chunki o‘rganishdagi eng yaxshi narsalar tabiiy sharoitda sodir bo‘ladi. Bu qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Agar siz hayvonot bog‘iga borib, bolangizdan: “Senga nima yoqdi, nimani ko‘rding?” deb so‘rasangiz va u sizga batafsil javob bera olmasa, demak, uning miyasi siz istagan yangi holatlarni eslab qolmagan. Xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanmagan kattalar ham bor. Jamoa, rahbar, turmush o‘rtoq, pul bilan bo‘lgan munosabatlarda biz bir xil narsani boshdan kechiramiz. Bir xil vaziyatlar takrorlanaveradi va biz nimani o‘zgartirish kerakligini tushunolmaymiz.

Navbatda kutib turgan joyda bolangizga savollar bering:

1. Nimani ko‘ryapsan?
2. Bu haqda nima deb o‘ylaysan?
3. Bu seni nima haqida o‘ylashga majbur qilyapti?

Ko‘rayotgan tafsilotlarni muhokama qilishni davom eting. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantira turib, “Yana nima?” deb so‘rang.

“Bu haqida nima deb o‘ylaysan?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?”. Miya xulosalarni ishlab chiqarishi kerak. “Demak, ... qilish kerakmas”, “Demak, shunday... yo‘l tutish kerak”.

Bolada qanday savollar tug‘iladi? “Nega???” , “Bularning barchasi qancha davom etadi?”, “Agar qoidalar buzilsa, nima bo‘ladi?”, “Buni qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin?”.

Bu taksida yurganda, ekskursiyalarda, mehmonga borganda, fotosuratlarini tomosha qilganda o‘ynash mumkin bo‘lgan o‘yin. Bolalar kam savol berishsa, bu ongning qiziquvchanligi u qadar rivojlanmaganligini anglatadi, buning ustida ko‘proq ishlash kerak. Bolalar bilan bu kabi suhbatlar tez-tez bo‘lib tursa, shuncha yaxshi bo‘ladi.

### **“Men ilgari shunday deb o‘ylar edim ... Endi esa ... deb o‘ylayman” usuli**

Bunda biz refleksiyaga e‘tibor qaratamiz. Tafakkur qilishni bilmagan bola maktabda ham, uyda ham o‘qimaydi. Uning miyasi yangi bilimlarni, taraqqiyotni, fikrlash o‘zgarishini muhurlashga o‘rganmagan.

Biz maktabdan qaytyapmiz, yoki toqqa boryapmiz yoki vrachlik punktidan chiqdik. “Aytchi, nima o‘zgardi”.

“Men ilgari piyozli bo‘g‘irsoqlar mazali emas deb o‘ylardim. Bugun esa buvimnikida mehmonda men ularni yedim va ular juda mazali edi. Mana, ularni qanday pishirish kerak”.

“Ilgari men yo‘lbarlar faqat sariq qora chiziqli bo‘lishadi deb o‘ylardim. Endi men ularning oq rangli va qora chiziqlar bilan ham bo‘lishini bilaman”.

Bunda ish turlarini muntazam o‘zgartirib turishga qulay vaziyat vujudga keltiriladi. O‘quvchi faoliyatining har xil turlarini uyg‘unlashtirish zaruriyati hamda barcha faoliyat turlarining muvofiqlashtirili shi ularda rang-barang tipdagi talablarning hosil bo‘lishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi. Shu bilan birga o‘z-o‘ziga talabchanlik va mas‘uliyat hissini tarbiyalaydi.

Shu munosabat bilan tarbiyalanuvchilar:

- o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish;
- o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e‘tibor bilan tinglash;
- o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki har bir o‘quvchi mavjud bo‘lgan barcha nazariy bilimlarni, amaliy ma‘lumotlarni, ko‘nikma va qobiliyatlarni birlashtirgan integral kognitiv maydonni yaratadi. Agar o‘quvchi tanqidiy fikr yuritsa, u darsning istalgan bosqichiga osongina kiradi. Har bir bosqich vazifalarini bajarishga qaratilgan o‘ziga xos uslubiy uslublarga ega. Ularni birlashtirib, o‘qituvchi o‘quvchilarning yetuklik darajasi, darsning maqsadi va o‘quv material hajmiga mos ravishda darslarni rejalashtirishi mumkin. Tanqidiy fikrlashning har bir usuli va strategiyasi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga

qaratilgandir. Shuning uchun ham darsni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Undan tashqari o'qituvchi o'zaro tajriba almashishlari va yangiliklar yaratishini davrning o'zi taqazo etayapti. Shunga ko'ra, darslarni ham yangicha usullardan foydalanib o'tish, ijodkor, izlanuvchi, savodli kitobxonni etishtirish, tanqidiy fikrlash orqali mustaqil fikrlash malakasi shakllantirish va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma maslisidagi nutqi.- T.: O'zbekiston, 2016.-56 bet.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarliklar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.102 bet.

3. Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 2006 y.

### **XXI ASR KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI BILAN HAMKOLIKDA ISHLASH SHARTLARI**

Abduxolikova Marhabo

Qashqadaryo viloyat pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazini

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim

kafedrasining katta

o'qituvchisi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida darslarni tashkil etish borasida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga boshlang'ich sinflar o'quvchilari bilan guruh tarzida ishlash yo'llari va shartlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy dars, ta'lim jarayoni, boshlang'ich sinflar o'quvchilari, maqsad, guruh tartibi.

Shiddatli globallashtirish davrida mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda ulkan islohotlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan islohotlarning bosh omili inson va uning manfaatlari hisoblanadi. Shu jumladan, ta'lim-tarbiya sohasida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlari tomonidan Yangi O'zbekistonda yoshlarning aqliy, ma'naviy-ma'rifiy va jismoniy kamoloti taraqqiyoti, ularning zamon talablariga mos bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, iqtidor va qobiliyatlarini namoyon qilishlari va yanada rivojlantirishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar ko'lami kengaytirilmoqda.

Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish, darslik hamda o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda, savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholashning yangi tizimini joriy etish bilan birga, o'qituvchilarga o'quvchilar bilimini formativ baholashga o'rgatishning innovatsion yo'llarini o'rgatish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish jamiyat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyati mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, boshlang'ich ta'lim tizimida xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish – o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada

o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon- e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi.

Zamonaviy darsning muhim talablaridan yana biri, bu maqsadni aniq qo'yish va kafolatgan natijaga erishish yo'llarini qidirishdir. Maqsad shubhasiz,

1. Tarbiyaviy
2. Ta'limiy
3. Rivojlantiruvchi maqsadlardan iborat bo'ladi.

Shubhasiz, har bir zamonaviy dars ushbu maqsadlar asosida tashkil etilishi va olib borilishi kerak. Dars o'quvchini tarbiyalay olishi, ta'lim berishi va olingan bilimlarni yoki ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak.

Darsning mazmuni, tizimi va o'qitish usullarining tanlanishi ko'p jihatdan o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. O'quvchi qancha yosh bo'lsa, ular shunchalik kam hajmdagi materiallarni o'zlashtirishlari mumkin bo'lib, darsning tuzilishi va yangi usullari shunchalik xilma-xil bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqati yetarlicha ixtiyoriy emas, idroki yetarlicha maqsadga yo'llangan emas, tafakkurlari ma'lum darajada konkret irodaviy ko'rinishlarda barqaror emas. Shuning uchun o'quvchilarni xilma-xil faoliyat turlariga jalb etish, ko'rgazmalilikdan keng foydalanish, o'yin elementlarini kiritish, yangi materialni o'rganish va o'tilganlarni mustahkamlash uchun optimal meyorini aniqlash kerak. Bularning barchasi darsning mazmuni va tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Katta yoshli o'quvchilar bilan olib boriladigan darslar ancha murakkab, ular ma'ruza, nazorat, so'rash, laboratoriya ishlari ko'rinishida bo'lishi mumkin.

So'nggi yillardagi izlanishlar, yuqorida qayd etilgan dars tiplarini talabga javob bermasligini, endi mashg'ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga harakat qilish lozimligini ta'kidlashmoqda. Chunki bunday mashg'ulotlarda natija oldindan kafolatlanadi, kafolatlangan natija uchun maqsad oydinlashtiriladi va o'quv jarayonini amalga oshiruvchi texnologiyalar belgilanadi. Bunday mashg'ulotda o'qituvchi yo'naltiruvchi, o'quvchi esa bajaruvchi – boshqaruvchi rolida bo'ladi. Bunday darslarda egallangan bilimlar ijodiy, ko'nikma va malaka unumli bo'ladi. Ammo innovatsion texnologiyalarni qo'llashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olmoq darkor.

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo'llaydi. O'quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o'qitish metodlari samarali natijalarni beradi. O'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish metodlaridan biri "Hamkolikda kichik guruhlarda ishlash" metodidir. Bunda o'quvchilar hamkolikda kichik guruhlariga bo'linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o'rganishga, o'rganganlarini o'z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi. Qolaversa o'quvchilarni hamkorlikda ishlab qo'yilgan muammolarni xal qilishga o'rgatadi. O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini o'stirishda quyidagi tartibda ish olib borish lozim. 1. O'quvchilar guruhi oldiga muammoli topshiriqlar va savollar qo'yiladi hamda ularni fikrlashga undovchi savollar beriladi: Siz nima deb o'ylaysiz? Sizing fikringizcha qanday va qanaqa bo'lishi kerak? Kabi savollar. 2. O'quvchilar o'zaro fikrlab olishlari uchun ma'lum bir vaqt beriladi. 3. O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlariga imkon beriladi va fikrlarini asoslilikini tekshirish uchun nega bunday deb o'ylaysiz? Nimaga bunday xulosaga keldingiz? Kabi savollarni berish mumkin. 4. Bildirilgan fikrlar bo'yicha guruhdagi boshqa o'quvchilarning fikrlari borligi va kim aytilgan fikrlarni ma'qullamasligi bo'yicha savollar bilan murojat qilinadi. 5. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgaldikda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qiladi va fikrlarni umumlashtiradi. 6. Qabul qilingan, umumlashtirilgan fikrlarga o'quvchilarning

munosabati o'rganiladi va fikrlar tinglanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda hamkolikda kichik guruhlarda ishlashning quyidagi: «Aqliy hujum», «Rolli o'yinlar», «Munozara-ringi», «Yechimlar daraxti», «Sinkveyn» va boshqa shakllarini misol qilib keltirish mumkin.

Bugungi kunda tadqiqotchi olimlar hamkolikda kichik guruhlarda ishlash an'anaviy frontal o'qitishdan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi, deyдилar:

Hamkolikdagi ishda o'quvchilar faol ishtirok etadilar, o'ziga berilgan topshiriq ustida mustaqil fikrlab, ishlaydilar.

Hamkolikda guruh ishida o'quvchilar o'z o'rtoqlari bilan birgalikda ishtirok etadilar. Ular o'zgalar tomonidan bildirgan fikr-mulohazalarni birgalikda muhokama qiladilar. Fikrlarni tushunishga erishish uchun o'quvchilar bir-birlarini e'tibor bilan tinglashga o'rganadilar. Bir-birlariga savollar beradilar va o'zaro yordamlashishga odatlanadilar.

Alohida iqtidorga ega bo'lgan o'quvchilar guruhdoshlarining e'tiborlarini jalb qilmagan holda o'z bilimdonliklarini namoyon qilishga erishadilar. Ba'zi o'quvchilar o'zgalarning «o'zini ko'rsatmoqchi», «o'qituvchining erkatoyi» kabi so'zlarni eshitishni istamay, o'z qobiliyatini ko'rsatishdan cho'chidi. Guruhli ishlash jarayonida esa bu muammo o'z-o'zidan bartaraf etiladi. A'lochi o'quvchilar esa o'z bilimlari va tajribalaridan hamkolik guruhdoshlari bahramand bo'layotganligidan ruhlanadilar.

O'quvchilar hamkolikda guruhda ishlash davomida o'zlarini ancha erkin tutadilar. Noto'g'ri javob berib, uyalishdan cho'chidigan bolalar ham o'z bilimni namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. U o'zi fikri boshqalar tomonidan qadrlanayotganligiga ishonch hosil qiladi. Bu jarayonda sinfdagi tortinchoq o'quvchilar ham ancha faollashadilar. Hamkolikda guruh bo'lib ishlash ularda o'zlariga ishonch hissini tug'diradi. 4-5 o'quvchidan iborat guruhda tortinchoq o'quvchi o'zini 34-35 o'quvchi oldida javob berish holatidan ko'ra erkinroq sezadi.

Boshlang'ich sinflarda hamkolikda guruhlarda ishlash joyini tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Hamkolikda guruhlardagi ish odatdagi sinf joylashishiga o'zgartirish kiritishni talab qiladi. Quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi:

1. Guruhda qanday ish bilan mashg'ul bo'ladi;
2. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sinfdagi yura olishlari mumkin bo'lsin;
3. Guruh o'quvchilari bir-birlarini ko'rishlari va tinglashlari mumkin bo'lsin;
4. Guruhlarga iloji boricha rang-barang didaktik materiallar tarqatilishi kerak;
5. Boshqa turli qo'llanma va materiallardan foydalanish qulay bo'lsin.

Guruhlarga topshiriqlar yozma yo'riqnoma shaklida berilganda, u quyidagi talablarga javob berishi kerak: yo'riqnoma har bir o'quvchiga tushunarli tilda yozilishi, kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'qituvchi yordamisiz foydalana olishi uchun aniq va mufassal bo'lishi; topshiriq bilan birga yozma ishni bajarish uchun kerakli material va varoqlar berilishi; kutiladigan natijalar aniq ko'rsatilishi lozim.

O'quvchilar hamkolikda guruhda ishlash davomida quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

- topshiriqlarni bajarishda guruhning barcha a'zolari bilan teng ishtirok etish;
- har bir o'quvchi zarur bo'lganda o'qituvchidan kerakli yordam olishi;
- har bir o'quvchi o'rtoqlariga ko'maklashishi;
- jamoaning har bir a'zosi gurudagilarning fikrini tinglashi kerak.

Ta'lim oluvchilarni guruhlarga belgilari bo'yicha (a) ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo'yicha tuzilgan aralash guruhli; o'quv darajasi yutuqlari bo'yicha; psixologik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelishi darajasi bo'yicha), soni bo'yicha ( a) 2- 5 kishilik - uncha katta bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun; b) 5 - 7 kishilik - murakkab vazifalar uchun); vaqt bo'yicha bo'lish mumkin.

Dastlab boshlang'ich sinflarda guruh o'qituvchi tomonidan tuziladi. Keyinchalik o'quvchilarda guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'lgach, ular bilan turli didaktik o'yinlar, dars munozaralari tashkil qilish mumkin. Guruh tuzishning bir qator usullari mavjud. Ular jumlasiga «Sherigingni top», «Cho'p tanlash», «Yoqtirganingni tanla» metodlarini kiritish mumkin. Birinchi marta guruh sharoitida ishlashni tashkil qilib, o'quvchilarni bunday ishlashga ko'niktirib olgandan so'ng o'qituvchi guruhni tashkil qilishning turli shakllaridan, o'yin usullaridan

foydalanishi mumkin. Kichik guruhlariga bo'lish yo'llaridan ayrimlarini misol qilib keltirish mumkin.

Guruh tuzishning «Sherigingni top» usuli. Sinf o'quvchilari to'rtta kichik guruhga ajratiladi. Bunda o'quvchilar guruhlariga birlashishi uchun fasl, ertakdagi qahramonlar nomlari qayd etilgan tarqatmalarni olishadi. Masalan, "Yoz", "Kuz",

"Qish", "Bahor" kabi so'zlar qayd qilingan tarqatmalarni olgan o'quvchilar to'rt fasl nomi bo'yicha to'rtta guruhga bo'linishadi yoki ertak qahramonlari «Rustamxon», "Donishmand", "Olim", "Bog'bon" kabi so'zlar yozilgan tarqatmalar ham o'quvchilarni guruhlariga birlashtirishga xizmat qiladi. Mana shu tarzda guruh tuzish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaganda quyidagi metodlardan foylanishlari maqsadga muvofiq. Bu metodlar bugungi kunning zamonaviy metodlari hisoblanib, ularni qo'llash natijasida o'quvchilarda aqliy faollik o'sadi, tashabbuskorlik shakllanadi, xotiralari ishga tushadi, o'z fikrlarini og'zaki bayon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, bunday faoliyatlarda o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va usullarni tanlab, ta'lim jarayonida qo'llay olishi, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero pedagogning dars jarayonida moxirlik bilan qo'llayotgan dars berish usullari o'quvchilarning hamkolikda fikr almashish, bir-birining mushohadasidan xulosa chiqarish, o'zaro hurmat, ijodiy-tanqidiy fikrlashlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma maslisidagi nutqi.- T.: O'zbekiston, 2016.-56 bet.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.102 bet.

3. Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 2006 y.

## **O'QUVCHILARDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNING SAMARA DORLIGINI OSHIRISH**

Zamira Yo'ldosheva Norboyevna  
Qashqadaryo viloyati maktabgacha  
va maktab ta'limiga qarashli  
9- maktab oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasining istiqloqligiga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va madaniyat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga



bogiiq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi boigan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish lozim. Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jam g'armalari, qoinitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, 4 maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozolar bevosita ta'sir ko'Tsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhim. Tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib amalga joriy etishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi - shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Xullas, tarbiyaning negizida quyidagilar yotadi: - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish; - o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish. malaka hosil qildirish va estetik tushunchalarini shakllantirish; - har bir o'smimning bilimdonligini va ijodiy inkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini tirli sohalarga yo'naltirish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzagi chiqarish va yanada qo'lab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash; - insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kam sitishW a toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositaari (nohaqljtka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka tqatozlik) keng qo'llanishi lozim. vatanparvarlik, dunyoviy fiki'lasY, jamiyatimizda 5 yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqi, davlati himoyasi uchun hamisha shay b o iib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gcrbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash; - qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mainlakatning ravnaqi, msoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya; - mustaqil davlatimiz - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirish kerak; - turmushda eng oliy qadriyat hisoblanmish mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish; - sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi boiish istagini shakllantirish; - yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga oigatish. Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha boiishi lozim : - tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish; - yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish; - milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish; - shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda boiish. Amalda tarbiyaviy jarayonning yaxlit va uzluksiz ishiga turl

## **O'QUVCHILARDA YO'NALTIRILGAN TARBIYA MAQSADLARINI ISHLAB CHIQUISHNING ROLI**

G'apporova Fazilat Muxammadiyevna

Tarbiya - bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga hos jihatlarni, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Mana shu tarbiyaning asosiy manbai - shaxslar bo'lib qoladi - bu jamiyat va individning o'zidir. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va qadriyatlarini tizimida individual va ijtimoiylik nisbatlari muammosi tarbiya nazariyasida markaziy muammo hisoblanadi. Jamiyat va shaxs bir-biri bilan qanday munosabatda bo'ladi? Shaxs jamiyatdan tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzot hisoblanadi, jamiyat esa o'z navbatida shaxslardan tashkil topadi. U shaxslar o'zaro munosabatlari jarayoni natijasi va jarayonining o'zidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo'q va demak, jamiyat ularga bog'liq bo'ladi. Ba'zida, shaxsni mikrosotsitsi, jamiyatni esa makrosotsitsi, deb ataydilar. Bu bilan materiya harakatlanishining ijtimoiy shakli, ikki asosiy tarkibiy qismi to'g'risida gap borayotganligini ta'kidlaydilar. Shaxs va jamiyatning yaqin bir-biriga bog'liqligi turli tomonlardan qaralishi mumkin. Biroq, shaxs va jamiyat bir narsa va bir xilda o'xshash bo'lishi nimasi bilan farq qiladi? Uning farqi hajmiga aloqador bo'ladimi (kichik shaxs-katta jamiyat qabilida) yoki yana boshqa muhim farqi bormi, degan savollarga javob berish uchun o'zaro bog'liqlik mana shu doiradan chiqishi muhim. Mana shu ijtimoiy subyektlar funksiyalarining o'ziga xosligi nimalardan iborat? Shaxs jamiyat emas. U jamiyatda paydo bo'lib, o'zini amalga oshirish jarayonida madaniyatini o'zgartiradi, ba'zan madaniyati rivojlanishida shunchalik ilgari ketadiki o'n yillar, ba'zida hatto asrlar davomida jamiyat xotirasida qoladi. O'zida jamiyat madaniyatining in'omlarini mujassam etganligi sababli, shaxs ijtimoiy tajribani yangicha talqin qilishda, m a'naviy va moddiy qimmatliklarni yaratishda, qayta anglashda mustaqil avtonom bo'lib qoladi. Bunday shaxs o'zining zamondoshlari uchun m a'lum bo'lgan yoki begona tajribani olib kiradi, faqat vaqt o'tishi bilan asta-sekin jamiyatga kirib boradi. Bunday shaxs o'zini jamiyatga qarshi qo'yishi, unga qarshi chiqishi va u bilan kurashishga kirishishi mumkin. Jamiyat bu shaxs yoki shaxslar to'plami emas. Jamiyat - bu qadriyatlar o'z maktabini yaratadigan, har qanday subyektni xizmat qilishga majbur etishga intiluvchi, o'zining mavjudligini saqlab qolish uchun shaxsni yutib yuborishga qodir, o'zini harakatlantiruvchi ijtimoiy birlikdir. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat 9 insonlar to'plagan madaniyatni saqlab qolish va odamga yetkazish usuli demakdir. Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy subyekti sifatida ishtirok etadilar. Hatto eng qulay ijtimoiy sharoitlarda ham (hatto eng noqulay ijtimoiy sharoitlarda ham) ular birlashmaydilar va ular o'rtasidagi farq kamaymaydi. M a'lum sharoitlarda ular birbirlariga qarama-qarshi turishlari mumkin. Tarbiya, jamiyatdagi hodisa sifatida, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va m a'naviylikida ishtirok etishi murakkab qaramaqarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi. Tarbiya, ijtimoiy hodisa sifatida, uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi: 1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirishning amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar. 2. Tarbiya - doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud bo'ladi. U jamiyatning mavjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanganligi uchun ham zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklar va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya, o'qitishning bir qismi sifatida, ta'limni ham o'z ichiga oladi. 3. Tarbiya - ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning har bir bosqichida o'zining vazifasi, mazmuni va shakllari

bo'yicha aniq tarixiy xususiyatga ega bo'ladi. U jamiyat hayoti xususiyati va tashkil 10 etilishi bilan bogliq boiganligi uchun o'z davrining ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Sinfli jamiyatda turli sinflar, qatlamlar va guruhlarda bolalarni tarbiyalashning asosiy tendensiyalari ba'zan qarama-qarshi bo'ladi. 4. O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash - ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o'zlashtirishlari hisobiga, ularning katta avlod ijtimoiy munosabatlariga, munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zamon faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi.

Kattalar va bolalar o'zaro ijtimoiy munosabatlari va o'zaro aloqalari, ta'sirlari har doim ularni bolalar yoki kattalar anglab yetishlaridan qat'iy nazar, tarbiyaviy yoki tarbiyalovchi hisoblanadi. Eng umumiy shakllarida bu o'zaro munosabatlar, bolalar hayoti, sog'iigi va ozuqalanishlarini ta'minlashga, jamiyatda ularning o'rnini va ularning ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan.

Kattalar bolalar bilan o'zlarining tarbiyaviy munosabatlarini anglab yetishlari va bolalarda u yoki bu sifatlarini shakllantirish maqsadlarini o'z oldilariga qo'yar ekanlar, ularning munosabatlari yanada pedagogik, anglab yetilgan maqsadga yo'naltirilgan tus oladi. Kattalarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab etishlari asosida jamiyatda bolalar va jamiyat manfaatlari yo'nalishida tarbiyalash qonunlaridan tushunilgan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi. Katta avlod tarbiyalash munosabatlari tajribalarini umumlashtirishga, ularda namoyon bo'ladigan tendensiyalar, aloqalar, qonunlarni o'rganishga, ulardan shaxsni shakllantirish maqsadlarida foydalanishga ongli ravishda murojaat etadi. Mana shu asosda pedagogika - tarbiya qonunlari to'g'risidagi va bolalar hayoti va faoliyatini ongli ravishda hamda maqsadga muvofiq boshqarish maqsadlarida, ulardan foydalanish to'g'risidagi fan yuzaga keladi.

## **O'QUVCHILARDA YO'NALTIRILGAN TARBIYA MAQSADLARINI ISHLAB CHIQUVCHINING AHAMIYATI**

Oynazarova Fazilat Xonnazarovna

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash - ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o'zlashtirishlari hisobiga, ularning katta avlod ijtimoiy munosabatlariga, munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zamon faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi. Kattalar va bolalar o'zaro ijtimoiy munosabatlari va o'zaro aloqalari, ta'sirlari har doim ularni bolalar yoki kattalar anglab yetishlaridan qat'iy nazar, tarbiyaviy yoki tarbiyalovchi hisoblanadi. Eng umumiy shakllarida bu o'zaro munosabatlar, bolalar hayoti, sog'iigi va ozuqalanishlarini ta'minlashga, jamiyatda ularning o'rnini va ularning ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan. Kattalar bolalar bilan o'zlarining tarbiyaviy munosabatlarini anglab yetishlari va bolalarda u yoki bu sifatlarini shakllantirish maqsadlarini o'z oldilariga qo'yar ekanlar, ularning munosabatlari yanada pedagogik, anglab yetilgan maqsadga yo'naltirilgan tus oladi. Kattalarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab etishlari asosida jamiyatda bolalar va jamiyat manfaatlari yo'nalishida tarbiyalash qonunlaridan tushunilgan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi. Katta avlod tarbiyalash munosabatlari tajribalarini umumlashtirishga, ularda namoyon bo'ladigan tendensiyalar, aloqalar, qonunlarni o'rganishga, ulardan shaxsni shakllantirish maqsadlarida foydalanishga ongli ravishda murojaat etadi. Mana shu asosda pedagogika - tarbiya qonunlari to'g'risidagi va bolalar hayoti va faoliyatini ongli ravishda hamda maqsadga muvofiq boshqarish maqsadlarida, ulardan foydalanish to'g'risidagi fan yuzaga keladi. Shunday qilib, tarbiya - ijtimoiy hodisa - jamiyat va individning hayotini ta'minlash usuli sifatida zarurdir. U mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayot tarzi natijasidagi aniq tarixiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirishning asosiy mezonlari shaxsning xususiyatlari va sifatlari hayot talablariga mos kelish darajasi hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida butun ijtimoiy hayotning tabiiy bir qismidir. Shuning uchun uning

qarama-qarshiliklari ijtimoiy hayotning eng umumiy qarama-qarshiliklarining ifodasi hisoblanadi. Tarbiya aks ettiradigan bunday qarama-qarshiliklar qatoriga qotib va eskitib qolgan ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ortga surishi natijasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar kiradi. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy tarbiyada o'sib kelayotgan avlodni tayyorlashga konservativ yondashishlar mustahkam o'mashib olishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bizning jamiyatimizda mustaqillik davrigacha ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish kuchlarining faqat davlat mulkchiligi asosida tashkil etilishi ishlab chiqarish o'sishini ortga surishga olib keldi. Davlat mulkchiligi va rejalashtirilishi ustunligi ijodiy shaxs faolligi va tashabbuskorligiga ko'pincha to'sqinlik qiladi.

Xalq ta'limi tizimida bu o'zining mazmuni, shakli va metodlari qandaydir rasmiylashtirish hamda bir xilligi bilan ifodalanadi. Tarbiyadagi boshqa bir qarama-qarshilik hayot talablari va shaxsning ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarligi darajasi o'rtasida yuzaga keladi. Hayot talablarini anglab yetish, mana shu talablar asosida tarbiya mazmunini va tashkil etilishini ko'ra bilish ilmiy-texnik taraqqiyot keskin rivojlanishidan ortda qoladi. Ushbu qarama-qarshilik chuqurlashib borgan sari o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy tayyorlashga xalaqit qiluvchi "qalpoq" va konservativ holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda yo'qotish zarur bo'ladi. Uni hal etish ta'lim va tarbiya mazmunini muntazam va mos ravishda hal etishni, ta'lim va tarbiya metodlarini hayot talablariga javob bera oladigan qilishni talab etadi. Mana shu holat ijtimoiy hayot yangi sharoitlari va unga bolalarni tayyorlash bilan uning eskitib qolgan usullari o'rtasidagi qarama-qarshilik hisoblanadi.

Tarbiyadagi uchinchi qarama-qarshilik - insondagi mavjud tabiat kuchlari, inson tabiati rivojlanishi, uning cheklanmagan imkoniyatlari bilan jamiyat ijtimoiy hayotidagi bu rivojlanish cheklovi sabab bo'luvchi, dasturlashtiruvchi sharoitlar o'rtasida yuzaga keladi. 12 Erkinlikni cheklovchi, avtoritar jamiyat iste'dodlarni so'ndiradi, odamlarni buzadi, iltifotli mansabdorlarga va befarq rasmiyatchilarga, ishlab chiqarish jarayonining bir ortiqcha qismiga, ijtimoiy hayotda to'siqqa aylantiradi. Demokratik jamiyat esa moddiy-texnik bazasini rivojlantira borib, turli ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib, har bir inson shaxsining ijtimoiy hayot talablariga mos va o'zida mavjud tabiiy kuch, iste'dod va qobiliyatlarga nisbatan rivojlanishiga haqiqiy sharoit yaratadi. Tarbiyaning to'rtinchi qarama-qarshiligi - bolaning faol tabiati, uning ijtimoiy hayotda, turli munosabatlarda, muomalalarda ishtirok etishga intilishi bilan hayot jarayonida amaliy, haqiqiy ishtirok etish uchun tajriba, bilimlari, malaka va ko'nikmalari yetishmasligi va uning tabiiy hamda ijtimoiy yetuk emasligi o'rtasida kuzatiladi. Ushbu qarama-qarshi 1 ik bolalar uchun idrok etishga, tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga haqiqiy harakatlantiruvchi kuch, rag'bat hisoblanadi. U bolani faqat tarbiyaviy o'zaro munosabatlar obyekt sifatida emas, balki subyekti sifatida ham ijtimoiy hayotda ishtirok etishga ta'limtarbiyaviy tayyorlashga sabab boladi.

## **JAMIYYATDA TARBIYA TIZIMINI IJTIMOYLASHTIRISH**

Xushvaqova Gulbahor Xushmatovna  
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar  
maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
19- umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tarbiya tizimining rivojlanishi uchta jarayonning rivojlanishida aks ettiriladi - ijtimoiylashtirish, o'zini tarbiyalash va kasbiy ta'sir ko'rsatish. Bu jarayonlar uchta asosiy subyektlar shaxsi bilan shakllanuvchi - jamiyat, individning o'zi va pedagogning bir obyekt bilan o'zaro munosabatlari davomida amalga oshiriladi. Jamiyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi tarbiya nazariyasida juda keng foydalaniladi.

Tadqiqotchilar uni qadriyatli ko'rsatmalari va tarbiyalash tamoyillariga qarab tushuntiradilar. Hatto bu borada ma'lum an'analar yuzaga kelgan, katta ilmiy material ham to'plangan. Sotsiologik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiylashtirish juda faol tahlil qilinadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayotda jamiyat va shaxs 13 rolini talqin qilish albatta. qarama-qarshi

boigan ijtimoiylashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Qattiq ijtimoiylashtirish deb ataluvchi konsepsiya tarafdorlari, funksional maktab vakillari bu jarayonni shaxsni ijtimoiy tizimga to'la jalb etish sifatida belgilaydi. Sotsiologiya ijtimoiylashtirishni tahlil qilishda, "moslashish", "qulaylik", "tenglik" kabi muvozanat tushunchalariga tayanadi. Ularning tadqiqotlaridagi asosiy vazifa - individlarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hisoblanadi. Bu konsepsiyaga "yangi insonparvarlashtirish" tarafdorlari qarshil chiqadi. Ular ijtimoiylashtirishda o'z qobiliyatlari va layoqatlarini yaratuvchi shaxsni hamda shaxsning o'zini amalga oshirishi va o'zini namoyon etishiga to'sqinlik qilayotgan elementlarni tanqidiy yengishni ko'radilar. Biroq, birinchi holatda, ma'lum tarzda ishlab chiqilgan muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchi holatda, "ijtimoiylashtirish va shaxs" tushunchalarini to'la adashtirish sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimidagi ijtimoiylashtirish deyarli chiqarib tashlashga, uning o'zini tarbiyalash bilan almashtirishga, tarbiyachi kasbiyligiga esa shakllanayotgan shaxsning mustaqilligini ta'minlash vazifasini yuklatishga harakat qilinmoqda. Birinchi nuqtai nazar ijtimoiy hayot taraqqiy etgan asoslarini qayta ishlab chiqish muammosiga e'tiborni kuchaytiradi, ikkinchisi esa madaniy ijodkorlik shaxsi ijodiy qobiliyatlariga erkinlik berishga qaratilgan. Ma'lumki, bu ikki qarama-qarshi nuqtai nazarlardan birortasi ham amaliy hollarda tarbiya amaliyotini takomillashtirishga olib kelmaydi. To'g'ri, shaxs ichki dunyosini ijtimoiy manfaatlar bilan to'la bog'lab qo'yishga yo'l qo'yish mumkin emas.

Lekin baribir jamiyat insonga ta'sir ko'rsatadi va ta'sir ko'rsatishni hisobga olmay bo'lmaydi. Ijtimoiylashtirish - muhit, jamiyatning shaxsiga ta'siri demakdir. Shu bilan birga ta'sir ko'rsatish shaxsning tashkil topishida juda zarur hisoblanadi. Jamiyat - umuman alohida kuch - o'ziga xos insoniy munosabatlar va o'zaro aloqalardir. Bu narsalar bo'lmasa, odam 14 ham baribir muhitga juda moslasha oladigan hayvonligicha qoladi. Muomalalar davomida yuzaga keladigan insonlar munosabatlari - mana shu jamiyat demakdir. Biz ijtimoiylashtirish to'g'risida gapirar ekanmiz, odam ham, guruh ham, biomuhit, kosmos ham inson ko'ziga ko'rinib va uning qalbida aks etib, maqsadga muvofiq bo'lmasa ham, insonga maxsus emas, faqat tasodifiy (ko'rinishi bo'yicha, mohiyati bo'yicha esa muqarrar va qonuniy) ta'sir ko'rsatib shaxsni shakllantiradi. Haqiqatda ko'zga ko'rinmas ta'sir ko'rsatish - nazorat qilib bo'lmaydigan jarayon. Muhitning u yoki bu elementlari qachon, qanday ketma-ketlikda, qanday nisbatlarda shaxs bilan munosabatlarga kirishishini bilib bo'lmaydi.

Hatto ularning har birini aniqlash ham mumkin emas. Biroq muhit shaxs uchun shakllanib bo'lgan dunyoqarashiga yot bo'lgan faoliyat sharoitlari va tamoyillarini majbur qilishda quvonchni his etish qiyin bo'ladi. Agarda dunyoqarashi shakllanmagan bo'lsa, unda ham odamdan noqulay muhit ta'siridan qoniqishni talab qilib boimaydi. Odam o'zi o'z hayotini tashkil etadi, u nima qilishi kerakligini o'zi tanlaydi: dunyoga qarab agarda unda okz hayotini ko'rsa xursand bo'ladi. Biroq taqdir shaxsni tanlash imkoniyatini chegaralaydi. U boshqalar tomonidan amalga oshirilgan, avvalgi avlod tanlagan mavjud vaziyatni odam oldiga qobyadi, u bilan bahslashib bo'lmaydi. Uni meros kabi, shaxsiy turmushning bir qismi yoki asosi sifatida qabul qilish va mana shu tajribaga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak.

Muhit o'zida insonga monand axborotlarni yetkazadi, shaxs yuzaga kelishi to'g'risida ma'lumotlar beradi, shu bilan birga bu axborotlarni insonga majburlamaydi. Xohlovchilar uni o'zlashtirishi mumkin. Shunda uning hayoti taqdirga qarshi bo'lib qolmaydi, taqdiri rivojlanishiga to'siq bo'lmaydi. Uning dunyoga munosabati, quvonchli yoki alamli ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, mazmuni bo'yicha ancha chuqur bo'ladi. Shuning uchun jamiyat go'yoki tabiiy ravishda bolaga o'zining yaxshi tomonini namoyon etishga, unga "kulib boqishga" harakat qiladi. Mana shu hayotga kirib kelayotgan insonga o'ziga

## **TARBIYA TIZIMIDA PEDAGOGIK TIZIMNING ROLI**

Ochilova Nafisa Abdiyevna  
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani  
Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga  
qarashli 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

L. N. Tolstoy shunday yozadi: “Tarbiya, biz o‘qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o‘zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo‘qoladi va hayot to‘g‘risidagi masala qoladi: O‘zim qanday yashashim kerak!” Bunday tarbiya to‘g‘risidagi masala shunga qaramay yeehilmay qoladi. Hatto “O‘zimiz qanday yashashimiz kerak!” degan savolni his etishga e‘tiborni jalb etib ham, biz boshqa savollardan xoli bo‘lmaymiz: “Odamlar orasida qanday yashash kerak?”, “O‘z hayot talablarini o‘zganing hayot talablari bilan mos kelishi qobiliyatiga qanday qilib ega bo‘lish mumkin?” Oxirgi savolni hal etishda, odam (birinchi navbatda bola, lekin ba‘zida kattalar ham) ichki va tashqi ta‘sirni tizimlashtirishga, ularga mos ravishda javob qaytarib, shaxs shakllanishini tushunishga yordam beruvchi pedagog, o‘qituvchi ko‘magiga muhtoj bo‘ladi. O‘qituvchiga zamonaviy talablar, asosan uch oliy vazifani qamrab oladi. Ular: 1) fan bo‘yicha, 2) pedagogik, 3) oldindan berilgan samara bilan mos ravishda o‘qish jarayonini loyihalashtira bilish malakalariga ega bo‘lish shartidan iborat. Ushbu vaziyatda O‘qituvchi haqida gap boradi. Agarda tarbiyachi o‘qitish bo‘yicha uy vazifalarini bajara olmaydi deb, hisoblasak, unga kamroq talablar qo‘yish kerak. Lekin shu yerda bir gapni aytib o‘tish kerak. “Bolaning aqliy rivojlanishi asosi bo‘lib xizmat qiluvchi, uning jismoniy rivojlanishi shartlari bilan tanish boim agan ayol, aniq va to‘g‘ri harakat qila olmaydi, - deb yozadi K. Setkin. - O‘qitish texnik metodlarini bilmagan ayol, bolaning okn marta o‘z onasi bo‘lsa ham (hatto shunday mumkin bo‘lmagan holatda ham) haqiqiy insonni tarbiyalay olmaydi, bola tarbiyasini unga ishonib boim aydi”. Shunday qilib, Klara Setkin nuqtai nazaridan ona qanchalik mehribon, bolasini sevadigan va sevimli odam bo‘lmasin, “o‘qitish texnik metodlari”ni bilmas ekan, bola tarbiyasi jarayonidan chetlashtirilishi kerak. Bu nuqtai nazarda tarbiya 18 masalasiga kasbiy tayyorgarlikni talab etuvchi juda muhim ish sifatida qaralmoqda. Tarbiyachi bu yerda yaqqol o‘qitish vazifasini ham bajaradi. Kasbiy tarbiyachi zarurmi? Albatta, chunki murakkab tizim - tarbiyalash tizimi faoliyati to‘g‘risida gap bonnoqda, u tizim turli subyektlari harakatlariga rahbarlik qilishi va boshqarishi kerak. Tarbiyachi inson hayotida baxtli bolalik rolini tushunib, individni shakllantirish jarayonini madaniyatga, ijtimoiy hayot qarama-qarshiliklariga va bilimga yo‘naltirishi kerak. Natijada, bola va hayot ittifoqi yanada keng va chuqur bo‘lishiga yordam berib, bu ittifoqning buzilmasligi maqsadini ko‘zlash kerak. Inson rivojlanishi jarayonini maksimal evolyutsion, minimal inqirozli qilish - pedagogning san‘ati mana shundan iborat. Kasbiy tarbiyachi shakllanayotgan shaxs oldida ma‘lum majburiyatlarga ega bolgani holda, jamiyat oldida ham shunday mas‘uliyatga ega bo‘ladi. Jamiyat asosan, yangi insonning o‘sishi jarayonini ta‘minlaydi, shuning uchun u yangi a‘zosi ijtimoiy munosabatlarga qodir, yuzaga kelgan munosabatlar tuzilishida yashay olishga va keraklicha rivojlana olishga tayyor bolishiga ishonishga haqlidir. Turli milliy madaniyatlar doirasida pedagogika an‘anaviy ravishda faqat jamiyat oldida va aksincha, faqat shaxs oldida ancha mas‘uliyatliroq sifatida tushunilishi mumkin. Haqiqatda esa, kasbiy, ya‘ni pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni takomillashtirishni faqatgina ikkala manfaatdor taraflar talab va ehtiyojlariga yo‘naltirishda amalga oshirish mumkin. Munosabatlar maqsadlari qanchalik ta‘sirchan bo‘lmasin, pedagog ular bilan o‘z ishida tarbiyalanuvchi qiziqishlari, huquqi erkinligini poymol qilishini oqiab boimaydi. Pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning maqsadi - jamiyat manfaatlarini maksimal hisobga olib, shaxsning maksimal mumkin bo‘lgan rivojlanishini ta‘minlashdan iborat. Jamiyat tomonidan ijodiy individuallikka ehtiyoj sezilsa, unda pedagogning vazifasi osonlashadi, chunki ushbu holatda ijtimoiylashtirish va pedagogik ta‘sir ko‘rsatish jarayoni bir yo‘nalishda boradi.

Jamiyat shaxs qobiliyatlarini cheklamaydigan, uning o‘sishiga to‘siq bo‘lmaydigan bunday vaziyatni qurish zarur bo‘ladi. Bunday vaziyat muvofiqli pedagogik jarayonning majburiy sharti hisoblanadi. Shaxs rivojlanishining eng erta bosqichlarida uning jamiyat ehtiyojlariga munosabati shakllana boshlaydi. Bu munosabat tarbiyalanuvchining birinchi pedagoglari - ota-onalarining ortiqcha e‘tiborliliklari sababli egoistik ko‘rinish olishi mumkin. Ko‘pchilik ota-onalar o‘z bolalarining barcha talablarini bajarishga harakat qiladilar va to‘laqonli hayotga tayyorlashning asosiy yo‘li mana shundan iborat deb hisoblaydilar. Bunday tarbiyachilar jamiyat oldidagi o‘z mas‘uliyat lari to‘g‘risidagi tasavvurlarini yo‘qotadilar. Ba‘zan bu holat hattoki

anglab yetishgan bo'lsa ham, bolaga mehr qo'ygan tarbiyachilarni xavotirga solmaydi, ular faqat o'z vazifalarini faqat bir yoqlama tushunadilar - ovqat yana ovqat berish va yana berish. Biroq tarbiyachining jamiyatga nisbatan mas'uliyatsizligi oxir-oqibat tarbiyalanuvchining halokatiga olib keladi, chunki o'zini amalga oshirishga kam moslashgan iste'molchini yaratadi, shunday qilib u to'la hayotga tayyor bo'lmaydi. Shunday qilib, kasbiy tarbiyachi shaxs oldida ham, jamiyat oldida ham javobgar hisoblanadi. Bu majburiyatlarini buzganda, tarbiyachi ijtimoiy hayot buzilishi va shaxsning inqiroziga sabab bo'ladi. Inson psixikasi asosi deb haqqi ravishda hisoblanuvchi odamning mustaqil va oqilona harakatlarni amalga oshirishga qobiliyati ijtimoiy muhitda juda ko'p sonli omillar bilan shakllantiriladi. Shuning uchun u hech qachon faqat kasbiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qaralishi mumkin emas. Pedagoglik kasbi o'zi ustida mustaqil ishlashida tarbiyalanuvchining ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirmay, bolani yuzaki ta'sirlardan himoya qilib va zehnini rivojlantirib borib, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarda me'yori topishida ifodalanadi.

## **TARBIYA TIZIMIDA INNOVATSIYALAR DAVR TALABI**

Pattillayeva Gulshoda Egamberdi qizi Qashqadaryo viloyati  
Kasbi tumani maktabgacha va maktab  
ta'limi bo'limiga qarashli 39 - umumiy o'rta ta'lim  
maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tarbiya tizimida innovatsiyalar Maktabda innovatsiyalar masalasini muhokama etganda, tarbiya tizimlarida innovatsiyalar tashkil topishi tob'g'risidagi masalalarni gapirib o'tmay bo'lmaydi. Lekin buning uchun avval, tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatlarida ko'rib chiqishda innovatsiyalar yuzaga kelishini o'rganamiz. Shunday qilib, pedagogikada "tarbiya" kategoriyasining bir vaqtda bir necha tushunchalari mavjud tarbiyani o'rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo'yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish, eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o'qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to'g'ri bo'ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rinish boshlaydi.

Tarbiya tizimi tushunchasining o'zi esa - o'zining avtonomligi va ko'rib chiqish o'zligiga xosligini yo'qotadi va didaktika ichiga "tortib kiritilgan" bo'lib qoladi. Tarbiya jarayoni o'zining o'ziga xosligini "saqlab qolish" uchun "Tarbiya, tarbiya... tarbiya!" monografiya hammualliflari V.A. Carakovskiy, Novikova, Selivanova kabi mashhur estoniyalik pedagog va psixolog O. Yo. Laymcte taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini "Laymete bolyicha" qaraydigan bo'lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan psixologopedagogik, boshqa tomondan esa - ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida tarbiya tizimi o'quvchilarga faqat didaktik sifatida emas (o'qituvchilar, darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida ham, bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali ham ta'sir ko'rsatadi; ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, har bir ta'lim muassasalarida tashkil topadigan ma'lum psixologik muhit orqali ta'sir ko'rsatadi. "Didaktik tizim" tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan. Maktabning didaktik tizimi ta'lim nuqsadlari, o'qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o'rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari kabilarni belgilash orqali o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizimning o'zi tarbiyaviy tizimning didaktik tizimida ishtirok etadi, ya'ni uning tizimi hisoblanadi.

Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi birinchi navbatda, o'quvchilarda, o'zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o'z o'rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida

amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog'liq dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'liq.

Shunday qilib, xususan tarbiya tizimi innovatsiyalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida, har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo'ladi: yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ulaming beshtasini alohida urg'u bilan ko'rsatadilar: 1. Bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko'rinishini shakllantirish. 2. Fuqarolik o'zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish. 3. Bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo'lgan xulqni shakllantirish. O'sib kelayotgan kelajak avlodda, shaxs xususiyatlari sifatida prespektivlikni, "ijodkorlik"ni shakllantirish. 5. CTz-obzini anglashni shakllantirish, o'zini amalga oshirishda bolaga yordam ko'satish. Albatta, bu masalalar ro'yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham, mana shu vazifalarning o'zi yuqorida sanab o'atilgan tarbiyalash vazifalarining "alohidaligini" ko'rsatadi. Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlarning turli jihatlarida innovatsiyalar yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish kabi, ushbu masalada, tarbiya tizimini falsafiy va texnologik jihatlarida ko'rib chiqishda tarbiyaviy innovatsiyalarni qo'lib o'rganamiz.

Tarbiya tizimini ko'ib chiqishning falsafiy jihati - tarbiyaning mazmun-maqсадlarini asoslashni, uni konkretlashtirish va tarbiyaning kcrakli mazmuni bilan aloqasini asoslab berishni ko'zda tutadi. Biz avval aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida, tarbiya tizimida ikki turlicha boigan konseptual (ko'p jihatdan qarama-qarshi) yondashishlar mavjud. Birinchi yondashish tarbiya - bu bola shaxsiga o'ziga xos mazmunga ega boigan (falsafiy-pedagogik, g'oyaviy, psixologik-pedagogik, ma'naviy va boshqa), ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya m a'lum shakllarda (frontal, guruhli, individual) va m a'lum metodlar bilan amalga oshiriladi.

"Tarbiya ta'sir ko'rsatish sifatida" mana shu paradigmasida pedagog barcha choralar bilan samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga erishishi kerak. U (pedagog) o'zi beixtiyor, bolalar va ota-onalarning teng qimmatli ishtirokisiz, mana shu tizimda asosiy subyekt bo'lib qoladi, chunki bolalar "olib boruvchilar" ro'ida ishtirok etadilar. Va, albatta, tarbiyada teng huqunqli sherik hisoblanmaydilar. Bu yerda bola "tarbiya predmeti" sifatida ishtirok etadi va bolaning faolligi sifatida subyektivlik to'g'risidagi murojaat har gal "kerakligini faol o'zlashtirish" yoki adaptiv faollik deb ataluvchi xususiyatga ega bo'adi. Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan to'g'ri\*idan-to'g'ri bog'liq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, m a'naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarning inson tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Umumiy qabul qilingan tip asosida aytadigan bo'lsak - bolani tarbiyalash (mana shu tushuntirilishda) - uni kattalar dunyosiga olib kirish. uni umumiy qonunlar bo'yicha "birga kabi" yashashga o'rgatish demakdir.

## **TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SHAXSI.**

Qurbonova Tamara Xòjanazarovna Qashqadaryo viloyati  
Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bòlimiga qarashli  
47 - umumiy òrta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf òqituvchisi

O'qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, o'quvchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, o'quvchilar esa faqatgina «obyekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda o'quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Y.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika



tamoyillariga asoslangan o'qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi, u quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi:

Sinf (guruh, oqim) yagona o'quv reja, yagona o'quv dasturlar va yagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

Mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanning bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi;

O'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modeliga alohida e'tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismdan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning

keskin yuksalish davrigacha (XX asrning birinchi yarmigacha), fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyutsion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Shuning uchun ketma-ket keluvchi avlodlarning rivojlanish darajasi deyarli farq qilmas edi. Bunday sharoitlarda Y.A.Komenskiyning o'qitishning avtoritar texnologiyasi, an'anaviy «sinf-dars» tizimi dunyoga keldi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida (XX asrning ikkinchi yarmi), fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi. Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallashga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'rlashdan to'la voz kechish;

hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;

har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;

yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar)

shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,

o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;  
xatoga yo'l qo'yish huquqi;  
o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi  
pedagog va o'quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan zo'ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo'ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o'qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;

o'quv materialiga qiziqish uyg'otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag'batlantirish;

o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanishh;

jamo'a orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta'minlash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta'lim tizimida o'quv fanidan o'quvchiga emas, o'quvchidan o'quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo'ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

o'rtacha o'quvchiga yo'naltirishdan voz kechish;

shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;

shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo'ladi:

har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o'quvchilar iste'dodli degan ishonch bo'lishi kerak.

shaxsga, yutuqni ma'qullovchi, qo'llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratishh, ya'ni o'qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.

bevosita majburlashga yo'l qo'yimaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg'u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.

pedagogik jarayonda, o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishh va ko'maklashish.

Oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi uchun, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

ishbilarmonlik o'yinlari;

muammoli o'qitish;

tabaqalashtirilgan o'qitish;

dasturlashtirilgan o'qitish;

kompyuterlashtirilgan o'qitish;

modulli o'qitish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti jadallashtirilgan davrida rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash to'g'ri bo'lar edi.

Qadimiy faylasuf Sokrat o'z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F.Kvantilian har bir shogirdga e'tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O'rta asr Sharqining buyuk olim-mutafakkirlari tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgin. Asrlar, mingyillar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizatsiya shakllanib keldi.

Millatimiz shakllanishi bilan birgalikda xalqimizning mentaliteti insonga muhabbat va hurmat ko'rsatish, unga yordamlashish xislatlari asosida yuzaga chiqdi. Eng avvalo, yoshlarimizga nisbatan muhabbat yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqimiz bolalarga «siz» deb munosabat qilur, kattalar ularga birinchi bo'lib «salom» berur.

Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g'oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» bobida yoritilgan. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarning o'zagi shaxslar o'rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi. Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so'z odam haqida», «So'kmoq va la'natlamoq ta'qiqlanganligi haqida» boblarida namoyon etilgan. Unda shaxsni so'kish uni o'ldirish bilan tenglashtirilgan.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, ajoyib shaxsiy fazilatlariga asoslangan ta'limimiz, jahon fanning shakllanishiga va rivoji o'zining munosib xissa qo'shgani bilan ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino, A.Beruniy, Al-Xorazmiy, M.Ulug'bek, Al-Buxoriy, A.G'ijduvoni, B.Naqshbandiy, A.Navoiy, Z.Bobir kabi buyuk ajdodlarimizning ta'limoti, jahon sivilizatsiyasidagi bebaho ulushini bugungi kunda butun dunyo tan olmoqda.

Pedagogika fanining rivojlanishiga Yevropa buyuk pedagog-olimlari hissa qo'shgan, jumladan: italiyalik Vittarino di Feltre, fransuz Fransua Rable, ingliz Tomas More, nemis A.Distruverg, rus K.D.Ushinskiy va boshqalarni ta'kidlab o'tish mumkin.

Bular gumanistik tarbiyani, mustaqil fikrlashni rivojlanishini, ijodni, faolligini, ko'rgazma materiallarni keng foydalanishini, nazariy ta'limni mehnat bilan bog'lanish tarafdori edilar. Ular pedagogik jarayonda o'quvchilarni subyekt deb hisoblar edilar.

**II.** Pedagogika fani O'zbekistonda shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi e'tirof etilgan bir davrda erkin shaxsni rivojlantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va printsiplarini jumbuljam o'rganadi.

Bugun pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish texnologik yondashuv asosida olib borilishi lozim yoxud pedagogika mutlaq texnologik fandır va u ta'lim fazosining barcha qatlamlarini qamrab oladi.

Pedagogika fani predmeti jamiyat extiyoji va rivojlanayotgan shaxs qiziqishiga hamohang holda sun'iy tarbiyaviy jarayonni ko'rish qonuniyatlarini o'rganish va bu jarayonni amalga oshirish hisoblanadi. Ana shu sun'iy tarbiyaviy tizim "pedagogik tizim", unda kechadigan jarayonlar esa "pedagogik texnologiya" deb ataladi. Pedagogik tizim tashqarisida hech qanday maqsadli ta'lim-tarbiya jarayoni kechmaydi yoxud pedagogik texnologiya bu amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizim loyixasidir. Uning asosida "tashxisli maqsad", "ta'lim-tarbiya mazmuni", "didaktik jarayonlar", "ob'ektiv nazorat", "ta'lim standartlari" kabi nazariy tushunchalar yotadi. Bu nazariyalar pedagogik texnologiyaning metodologik jihatlarini o'zida aks ettiradi va yangi tadqiqot yo'nalishlari belgilab beradi.

Pedagogik texnologiyaning metodikadan farqli tomoni shuki, u ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalab beradi va «o'qituvchi-pedagogik jarayon-o'quvchi» funktsional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi. Shu nuqtai nazardan pedagogik tadqiqotlar maqsadi ana shu tizimga yo'naltirilishi kerak, ya'ni:

-ta'limni rivojlantirishning yangi bosqichida pedagogik texnologiya mohiyati va muammolarini ko'p bosqichli ta'lim tizimi uchun tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ishlab chiqish:

-ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini tahlil qilish asosida pedagogik texnologiyalar loyihalarini yangilab va boyitib borish;

-o'qituvchi faoliyatini yangi pedagogik texnologik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish;

-«o'qituvchi-texnolog» kasbi tavsifnomasini yaratishh;

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: “SHarq” nashriyot matbaa kontserni, 1997.
2. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.- T: O‘zbekiston, 1992.-78 b.
3. N.N. Azizxo‘jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIIY ASOSLARI

Kurbonova Tamara Xòjanazarova  
Qashqadaryo viloyati Chiroqch tumani maktabgacha  
va maktab ta'limi bòlimiga qarashli  
117 - umumiy òrta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf òqituvchisi

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta‘lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Ma‘lumotlilik asosida yotuvchi bosh g‘oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan, qanoatli, o‘zgalar fikrini xurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxs sifatlarini ko‘zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qay darajada ta‘limni texnologiyalashtirish bilan bog‘liq.

- *Pedagogik texnologiyaning farqli xussiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:*
- *o‘quv jarayonning qayta takrorlanish imkoniyati;*
- *uzluksiz teskari aloqani ta‘minlash, o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritish o‘rgatuvchi sikllarning mavjudligi;*
- *o‘qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishishni kafolatlaydi.*

Dastlab “texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “texos” (techne) – san‘at, hunar va “logos” (logos) – fan so‘zlaridan tashkil topib “hunar fani” ma‘nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob‘ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta‘sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Anna shu ta‘rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chirish mumkin, ya‘ni: PT – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatish va aks ta‘sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishining kafolatlaydigan jarayondir.

Yuqorida keltirilgan ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta‘riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko‘pdir. Pedagogik adabiyotlarda “texnologiya” atamasining xilma-xil ko‘rinishlarini uchratish mumkin: “o‘qitish texnologiyasi”, “O‘quv jarayoni texnologiyasi” va hokazo.

PT o‘qitish jarayonining o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etish shartlarini aniqlashtirish, mavjud imkoniyatlarni hisobga logan holda belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlaydi. Yoxud PT o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta‘limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir.

Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, smaradorligi, oldindan loyihalash zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi.

Ob'ektiv borliqni o'rganishning tizimli yondasis metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tusuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: "O'qitish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini nima real tavsiflash o'sa, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa. Bu alohida fan.

PTni fan sifatida e'tirof etish G.K.Selevko tomonidan ham ma'qullandi: "Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda o'llaniladigan usullar, printsiplar va regulativlar sifatida ham real o'qitish jarayoni sifatida mavjuddir".

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, PT belgilangan boslang'ich maqsad va mazmun asosida o'quv jarayonini loyihalash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jihatdan to'g'ri, lekin teranroq fikr yuritilsa uning bir yoqlamaliligi ko'zga taslanadi yoki bunday yondashuvlarda o'quvchi shaxsi inkor etilayapti. Bu kamchiliklarni birinchi bo'lib akademik V.P.Bespalko payqadi va o'zining yirik asarida "PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir" deb ta'rifladi.

**II.** Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi PTning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Fikrimizcha, yangi PT fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullastirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiya o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga, faqat o'quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqariluvchilik tamoyilining ahamiyati shu bilan belgilanadi. Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil o'qitishning joriy natijalarini ko'p bosqichli diagnostik (tashxisiy) tekshiruvlar o'tkazish imkoniyatini, - ko'zda tutadi butun o'qitish davrida o'qitish jarayonini boshqarish asosan didaktik testlardan foydalanib amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida didaktik testlardan foydalanish, teskari aloqani ta'minlaydi. Teskari aloqa natijalarining tahlili, ko'zlangan natijaga erishish uchun vositalar va uslublarni o'zgartirish orqali o'qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Boshqarilish tamoyili, o'qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi.

***Sifatli loyihalangan o'quv jarayonining o'qitish jarayonini sifatli boshqarish, rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatidir.***

Yangi PT nimani anglatadi? Bu savolning yechimini izlashga harakat qilamiz.

Birinchi, PT ta'lim (tarbiya) jarayoni uchun loyihalash va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Binobarin, har bir jamiyat shaxshni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o'quv yurti) mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. "Maqsad" esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: "o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitdan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilandi. Demak ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar

(sanoat, qisloq ho‘jaligi, elektron, axborot va bosqa) kirib kelmoqda. Ro‘y berayotgan sifatiy o‘zgarishlar shundan dalolat beradiki, endilikda “o‘rganishh”ning birlamchi jarayonlari an‘anaviy metodika va o‘qitish vositalari romiga sig‘may, o‘quvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoldi. Yangi metodikalarni talab etadigan va ta‘lim jarayonining ajralmas qismigsa aylanib borayotgan va unga o‘zining ma‘lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, aaborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi PTni real voqelikka aylantirdi.

PT mohiyat jihatdan bosqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, cunki ular ham bosqalari qatori o‘z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma‘lum “material” bilan ish ko‘radi. Biroq PT inson ongi bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishhi bilan ishlab chiqarish, biologik, Hatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos tomonlari – tarbiya komponentlarini mujassamlastirganidir.

PT boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an‘anaviy o‘quv jarayoniga, uning samaradorligini oshirishga ta‘sir ko‘rshatisning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Afsuki, bu jarayon hozirgi ta‘lim tizimida juda qiyin kechayapti, haqiqiy kompyuterli PT o‘zining ilmiy ishlanmasini kutayapti.

Axborotli texnologiya PTning tarkibiy qismi, texnik vositalarning mukammallasgan zamonaviy turi sifatida ta‘lim jarayonida qo‘llanila boshlandi. Kelajakda iqtisodiy bo‘hronlar ortda qolib o‘quv yurtlari dasturli “mashina” bilan yetarli darajada ta‘minlanadi. Shundagina axborotli texnologiya asosida o‘quvchi (talaba)larning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi va u o‘qituvchining yaqin ko‘makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to‘liq bajarishi mumkin.

## TA‘LIMNI TEXNOLOGIYALASTIRISH

Djalilova Oqila Xolmaxmatovna

Qashqadaryo viloyati

Kitob tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli

48-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**TA‘LIMNI TEXNOLOGIYALASTIRISH** ob‘ektiv jarayon ekanligini, zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo‘nalisi bilan belgtlanasini e‘tirof etgan holda PTning o‘ziga xos tomonlari va yaqin kelajakda u bilan bog‘liq vazifalarni quyidagica belgilas mumkin:

1) ko‘p bosqichli ta‘lim tizimida PTning o‘rnini asoslas va zaruriy tavsiyanomalar islab ciqish;

2) zamonaviy sanoat, tibbiyot, iqtisodiyot, ekologiya kabi sohalar bilan PTlarni muntazam ravisda yangilab boris va tabaqalastirilgan yondasuv asosida ularni qo‘llas mezonlarini aniqlas;

3) istiqbolli o‘qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg‘or PTlarni loyihalas, amaliyotga joriy etish, ommalastiris va samarasini aniqlas;

4) tegisli bosqaruv organlari (Ta‘lim markazlari) tomonidan o‘quv muassasalari faoliyatida yangi PTlarni tatbiq etilis darajasini nazorat qilish va baholas;

5) respublikamizdagi oliy (o‘rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvcilarni malaka osiris va qayta tayyorlash kurslarida ilg‘or pedagog va axborot texnologiyalari bo‘yica yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirisni uzluksiz tashkil etish;

6) oliy o‘quv yurtlari talabalari, ayniqsa mutaxassis-pedagog (iqtisodci-pedagog, huquqsunos-pedagog, muhandis-pedagog va bosqa)lar uchun 40 soat hajmida PT nazariyasi va amaliyoti bo‘yica maxsus kurs joriy etish;

7) respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar is uslublarini muntazam ravishda o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni yangi pedagogik texnologiya darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;

8) o'qituvchi faoliyatini pedagogik texnologiya qonuniyatlariga moslashtirish muammolari va bosqalar.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va hayotga tatbiq etish muammosi mamlakatimizda ham rivojlangan davlatlar qatori yangi korxonalar – "Pedagogik texnologiya Davlat Markazi"ni tuzishni taqozo etadi. Agar shunday Markaz tashkil etilsa, birinchi navbatda "portlash effekti" sari yo'lni qisqartirishga hissa qo'shgan bo'lardi. Uchinchi ming yillikda ta'lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilasga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba yoshlarda hurfiylilik, bilimga ekanlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatardi.

**III.** Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilayapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, mavkuraviy sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyati tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan tarbiya tajribalarini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng qo'yildi.

So'rovlar tuzumi davrida barha ijtimoiy fanlar kabi pedagogika ham kommunistik mafkura qobig'i bilan o'ralgan, uning rivojlanish me'yori cheklangan, ilg'or chet el g'oyalari esa burjua g'oyalari, deb tanqid qilinardi va rad etildi. Holbuki har qanday g'oya ham o'zida ma'lum bir ijobiy jihatlarni mujassamlashtirishi mumkin, ularni amaliyotga joriy etish foydadan holi emas edi. Jumladan, pedagogik texnologiya (PT) ham burjua didaktikasiga tegisli yo'nalis sifatida qarab kelindi va bu muammoni tadqiqot ob'ektiga aylantirishning iloji yo'q edi.

Bugun mamlakatimiz istiqloli sarofati tufayli barha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Pedagogika fani va amaliyotida qo'llanilayotgan «pedagogik texnologiya» atamasi inglizcha "an edecational tecnology" so'zidan olingan bo'lib, aynan tarjimasi "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi. Pedagogika fanida pedagogik texnologiya tushunchasini ta'riflashda hali yagona bir fikrga kelinganicha yo'q.

Ayrim amaliyotchi pedagoglar "pedagogik texnologiya" deganda texnologik yondashuvga asoslanmagan (ba'zi foydali, samarali usullarni yoki o'qitish jarayonida texnik vositalarni qo'llashni) tushunadilar. Vaholanki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar, xususiyatlarga ega bo'lgan, tizimli, texnologik yondashuvga asoslanadi. U, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining maxsuli; texnokratik ilmiy fikr /ong/ning ta'lim sohasidagi loyihasi, ta'lim jarayonini ma'lum darajada standartlashtirish, takrorlanadigan pedagogik jarayon (tsikl)ga aylantirishdir.

Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik jarayon (tsiklni) yaratish oson ish emas. Bunga o'quv-tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materiallarining har xilligi, talabalarning bilim o'zlashtirish qobiliyatlarini xotira xususiyatlari bir xil emasligi kabi qator faktorlar sabab bo'ladi. Shunga qaramay rivojlangan mamlakatlarda olimlar pedagogik texnologiya usulini shlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya usuli qayta takrorlanadigan pedagogik tsikl bo'lib, ta'lim olishda rejalashtirilgan natijalarni kafolatlaydi.

Pedagogik amaliyotlarda pedagogik texnologiya tushunchasiga berilgan ta'riflarni va uning muhim belgilari, xususiyatlarini quyida umumlashtirilgan holda keliramiz.

YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif: «Pedagogik texnologiya-bu, ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir». /Progremmsivnie pedagogicheskie texnologii, Toshkent, 1999,3-bet/.

Boshqa mualliflarning ta'riflari.

-pedagogik texnologiya-amaliyotda joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir;

-pedagogik texnologiya-ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir;

-pedagogik texnologiya oldindan belgilangan, loyixalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini izchil oshirish kabilar.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni hali poyoniga etmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun avvalo, pedagogik texnologiya usulining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaning muxim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:

-ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;

-tizimli yondashuv asosida talabaning o'qish-bilish faoliyati tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;

-ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'ektiv baholash;

-ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;

-ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);

-ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;

-ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan xarakatlari shaklida juda oydinlashtirish:

-talabaning faolligiga tayanib o'qitish;

-bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab tuzatib borish;

-shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;

-belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;

-ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi;

-ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga doir mavjud ta'riflar hamda pedagogik texnologiya usulining muhim belgilari, xususiyatlarini umumlashtirilgan holda keltirdik. Ma'lumki, mantik faniga ko'ra, biror tushunchaga ilmiy ta'rif berish uchun ta'rifda tur va jins tushunchalar keltirilishi va ta'riflanayotgan tur tushunchasi jins tushunchaga kiradigan boshqa tur tushunchalardan farqini ko'rsatuvchi muhim belgilari ko'rsatilishi talab etiladi.

YUNESKOning ta'rifida «pedagogik texnologiya»-tur tushuncha, «tizimli metod»-jins tushuncha hisoblanadi. Ta'rifda pedagogik texnologiya usulini o'qitishning boshqa usullaridan farqini ko'rsatuvchi ayrim belgilari ham /ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnik vositalar va inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olish; o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llash ko'rsatilgan.

Lekin bizningcha, YUNESKO ta'rifida pedagogik texnologiyani ta'limning boshqa usullaridan keskin farqini yaqqol ko'rsatuvchi: «ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuv; ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash» muhim belgilar aks etmagan. Jins tushuncha sifatida ishlatilgan «tizimli metod» atamasi ham bitta metod /ya'ni tizimli metod/ ma'nosini bildiradi.

Pedagogik texnologiya-tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir. Bunday usul va metodlarni ishlab chiqish pedagogik texnologiya nazariyasi va metodikasining vazifasidir.

Pedagogik texnologiya-ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakli, xajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv



qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik amaliyot jarayonlarini belgilash va tasvirlash; o'quvchi yoki talaba kelgusi faoliyatida duch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash; o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmuni /o'quv rejasi, o'quv elementlari, ularning mantiqiy tuzilmasi, o'quv dasturlari, darsliklarini/ belgilash; o'quv yuklamasi bolaning kuchiga moslik darajasini va talabning o'zlashtirish tezligini aniqlash; ta'lim –tarbiyaning shakllari va vositalari /o'quv qo'llanmalari, ta'lim tarbiyaning texnik vositalari/ni tayyorlashh; o'quv jarayonining motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida predmetning mazmuniga kiritish uchun qo'shimcha ravishda vaziyatli matnlar, testlar tayyorlashh; shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimini ishlab chiqi; ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasi, sifatini baholash mezonlariga mos ravishda talabning bilim va malakalarni egallash sifatini ob'ektiv baholash uchun test /nazorat/ vazifalarini tayyorlashh; darsda va darsdan tashqari o'quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish, mustaqil mashg'ulotlarning tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish kabilar ham pedagogik texnologiyaning vazifalari hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi ta'lim-tarbiya amaliyotida eng samarali va tejamli o'quv jarayonlarini shaxsni kasb egasi sifatida shakllantiruvchi pedagogik, psixologik qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, matematika, kibernetika, informatika va boshqa fanlarning qonuniyatlaridan foydalanishh yo'llarini aniqlashdan iborat.

Pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti quyidagi qonuniyat va printsiplarga asoslanadi.

- ta'lim-tarbiya jarayoni tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi va birligi;
- ta'lim jarayonini optimallashtirish: qulay sharoit yaratib, oz vaqt, kam kuch sarflab, yuqori natijaga erishish;
- zamonaviylik pedagogik amaliyotga ilmiy asoslangan didaktik yangiliklarni, yangi tartib-qoidalarni joriy etishh, ta'lim mazmunini uzluksiz yangilab zamonaviylashtirib borish;
- ilmiylik: ta'lim-tarbiyada yangi shakl vositalar, faol metodlar, didaktik materiallarni qo'llash, uzluksiz izlanish, tadqiqot;
- talaba va qo'ituvchi faoliyatini oqilona uyushtirish: o'qituvchi ta'lim maqsadini, mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi; o'quvchining manfaatdorligi, qiziqishi va intiluvchanligi;
- pedagogik jarayonni jadallashtirish; axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanishh samaradorligini oshiruvchi didaktik materiallarni ishlab chiqish va keng qo'llash;
- o'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik baza yaratishh;
- pedagogik jarayon natijalarini xolisona va ob'ektiv baholash, test usuli, reyting tizimi, talabalning bilim va kunikmalarini egallash jarayonini nazorat qilishh, baholashni avtomatlashtiri;
- ta'lim-tarbiyaning tabiatga mosligi;
- ta'lim-tarbiyaning jamiyatga moslashuvi va boshqalar.

Printsip-lotinch «boshlanish» degan ma'noni anglatadi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan uning metodikasiga qo'yiladigan talablar, printsiplar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar, «pedagogik texnologiyaning tamoyillari: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning mahsuldorligi, teskari alokaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi» kabilar deb talqin qilinadi. Pedagogik texnologiyaning printsiplari:

- pedagogik jarayonni loyihalashda pedagogik tizimning optimalligi, maqbulligi;
- ta'lim-tarbiya natijasining kafolatligi;
- pedagogik jarayonning bir butunligi va tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi;
- o'qituvchi va o'quvchi faolligining uyg'unligi, tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil qilishh;

-inson va texnika resurslari, optimal vositalarni qo'llash;  
-pedagogik jarayonni modellashtirish kabilar.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: "SHarq" nashriyot matbaa kontserni, 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.- T: O'zbekiston, 1992.-78 b.

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TURKUMLASHTIRISH

Mirzayeva Aziza Boboqulovna Qashqadaryo viloyati  
Kasbi tumani maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
4 - umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

Qator yillar davomida pedagogik texnologiya nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda o'rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda ham imkoniyatlar mavjud. Nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi zamonaviy pedagogik texnologiyaning mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin: qo'llanish darajasiga ko'ra, falsafiy asosiga ko'ra, yetakchi omiliga ko'ra, ilmiy konsepsiyasiga концепциясига ko'ra, anglash faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga ko'ra va boshqalar.

Pedagogik texnologiya, o'z tamoyillariga, binoan, tegishli tabiiy qobiliyatga va zaruriy o'qituvchilik ish tajribasiga ega bo'lgan yetuk pedagoglar tomonidan loyihalanadi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o'rgatuvchi sikl sifatida ro'yobga chiqariladigan o'quv jarayonini yaratishga imkon beradilar.

Qayta takrorlanadigan o'qitish shakli sifatida, qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibi (tuzilmasi) 1.5-rasmda tasvir etilgan. Pedagogik texnologiya quyidagi asosiy elementlardan iborat:

O'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish. Ularni o'lchash va baholash mezonlarini o'rnatish;

O'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan, o'quv jarayonini ishlab chiqish va aniq tasvirlash;

Butun o'quv jarayonini, o'qitish natijalariga kafolatli erishishga qaratish;

Pedagogik texnologiyalarni yaratishh amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'ta aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish uchun, amerikalik pedagog-olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'lchov mezonlarini o'rnatish va ularni baholash ishlab chiqilgan diagnostik testlar yordamida bajariladi.

Bunda, har bir o'quv materialining minimal o'zlashtirilish darajasini belgilash muhit ahamiyatga ega. Butun o'quv jarayoni, unga qaratilgan taqdiridagina, o'quv maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

O'quv jarayonini o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirish, o'quv rejasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Birinchi navbatda o'quv rejadagi har bir fanning, mutaxassis tayyorlashdagi o'rni va va ahamiyatini aniq o'rnatish zarur. Bu esa, Davlat ta'lim standartlari va mutaxassis faoliyatining chuqur tahlili asosida bajariladi. O'quv fanining mutaxassis tayyorlashdagi rolga ko'ra, mashg'ulotlar turlari – ma'ruzaviy, amaliy (seminar), laboratoriya, mustaqil ishlar orasidagi munosabatlar o'rnatiladi.

Shu bilan bir qatorda Oliy maktab o'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga, auditoriya soatlari va mustaqil ish uchun ajratilgan soatlar orastdagi nisbatlarni maqbullashtirish ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim kursi oshishi bilan mustaqil ishlash malakalari va zaruriyati oshib boradi. Zero, ta'lim kursi oshishi bilan, malakalarni shakllantirish mutaxassis kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarish talablari oshib boradi.

O'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi, keyingi omil, o'quv grafigini maqbullashtirish hisoblanadi. O'qitish jarayonining samaradorligi nuqtai nazardan, bir haftaga ajratilgan auditoriya soatlarning eng kam miqdori to'rt soatni tashkil etishi kerak. Haftalik auditoriya soatlari bundan kam bo'lgan fanlar uchun o'quv jarayonini blokli tashkil etish tavsiya etiladi. O'quv maqsadlariga erishishda, o'quv jarayonining muhim tarkibiy elementi sifatida, o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga alohida o'rin ajratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari samarali hisoblanadi. O'qitishning ushbu texnologiyalari, talabaning tabiiy qobiliyati darajasida fanlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratadilar, shaxs rivojiga imkoniyat tug'diradilar.

O'qitishning rejalashtirilgan natijalariga kafolatli erishish, o'qitish jarayonini texnologik tashkil etish va boshqaruvchanligi orqali ta'minlanadi.

O'qitish jarayoni sifati, olingan bilim va malakalarni muntazam joriy diagnostik testlar o'tkazish, o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar vosita va usullari yordamida tuzatishlar kiritish, orqali ta'minlanadi. Rejalashtirilgan natijalarga erishilganlik, yaknuniy nazorat orqali baholanadi.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish-texnikaviy sohaning jarayonlariga xos barcha texnologik belgilarga ega, shu jumladan uning qayta takrorlanishi, ushbu belgi, tuzilgan pedagogik-texnologik xaritalarni qo'llash orqali ta'minlanadi. Shuning uchun pedagogik texnologiyada, o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga kafolatli erishishni ta'minlash imkoniyati mavjud.

Pedagogik texnologiyaning farqli xussiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonning qayta takrorlanish imkoniyati;
- uzluksiz teskari aloqani ta'minlash, o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish o'rgatuvchi sikllarning mavjudligi;
- o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya usuli tizimli, texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Sistema /tizim/ yunoncha so'z bo'lib, yaxlit tuzilma, qismlardan tuzilgan, birikkan ma'nosini anglatadi.

Pedagogik tizim-pedagogik texnologiyaning asosi, zamini hisoblanadi. Pedagogik tizim-bir butun, harakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib: o'quvchi /1/, Ta'lim-tarbiyaning maqsadi /2/, mazmuni /3/, o'quv jarayoni /4/, o'qituvchi yoki texnik vositalar /5/ va ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllaridan /6/ tuzildi. /Bespalko V.P. «Slagaemqe pedagogicheskoj texnologii», M. 1989, 6-7- betlar/.

Ta'lim tarbiyaning maqsadi ob'ektiv harakterga ega. U har bir jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlaridan hosil bo'ladi, ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida umumiy tarzda ifodalandi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi tizim xosil qiluvchilik xususiyatiga ega. Pedagogik tizimning barcha qismlari ta'limning maqsadiga bog'lik va uni ruyobga chiqarishga xizmat qiladi. Shaxsni, mutaxassisni shakllantirish maqsadi ta'limning mazmuni /o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar/ni belgilaydi.

Pedagogik tizim didaktik vazifa va ta'lim texnologiyasini o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni-didaktik vazifa; didaktik jarayon, o'qituvchi va texnik vositalar, ta'lim-tarbiya shakllari usullari-ta'lim texnologiyasiga kiradi. Pedagogik amaliyotda didaktik vazifani ta'lim texnologiyasi yordamchi o'quvchi, talaba o'zlashtirib oladi.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, u birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash va so'ngra, sinfda, auditoriyada o'quvchilar bilan birga

loyihani qayta ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu masalani “didaktik vazifa”, “ta’lim texnologiyasi” tushunchalarini qo’llash bilan hal etish mumkin.

Ikkinchidan, an’anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o’qituvchi dars o’tishi uchun tuzilsa, pedagogik texnologiya-o’quvchini o’quv-bilish faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyaning muxim belgisi-maqсад hosil qilish jarayonidir. An’anaviy pedagogikada “pedagogik maqsad” masalasiga nazariyachilar ham, amaliyotchilar ham kam e’tibor beradi, maqsad-metodik adabiyotlarda ham noaniq ifodalanib, unga erishish darajasi ham sub’ektiv baholanadi.

1. N.N. Azizxo’jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.

2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

## **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARGA HAR TOMONLAMA YONDOSHISH**

Saitova Nafosat Baxriddinovna  
Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani maktabgacha  
va maktab ta’limi bo’limiga qarashli  
4 - umumiy o’rta ta’lim maktabi Ingliz tili fani o’qituvchisi

Pedagogik texnologiyada – pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo’lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o’zlashtirish sifatini ob’ektiv baholash nazarda tutiladi.

Nihoyat to’rtinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonlari tuzilishi va mazmuni jixatidan yaxlitligi-pedagogik texnologiyani ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim printsiplari hisoblanadi. Yaxlitlik printsiplari, shuningdek, ta’limning har turi bo’yicha bo’lajak pedagogik tizimning loyihasini ishlab chiqayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari (chorak, semestr, o’quv yili davomida ham, shuningdek butun ta’lim davomida ham) o’zaro ta’sirda bo’lishiga erishish zarur.

Pedagogik tizimning bir elementi, masalan maqsadi o’zgarsa uning boshqa qismlari (mazmuni, shakllari, jarayonlar) ham o’zgaradi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini xis etadigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo’ydi. Demak, Milliy dastur bizda ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinayapti. Faqat ijtimoiy (davlat) buyurtmasigina ta’lim va tarbiyaning umumiy maqsad va vazmfalarini aniq belgilab beradi yoki oliy (umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar) ta’lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Quyida barcha ta’lim turlari uchun umumiy bo’lgan pedagogik tizimi loyihasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta’lim sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi har qanday pedagogik tizim o’zaro bog’liq bo’lgan quyidagi invariantiv elementlardan tashkil topishini ko’rsatib beradi: 1-talabalar; 2-ta’lim /tarbiya/ maqsadlari; 3-ta’lim /tarbiya/ mazmuni; 4-didaktik jarayon; 5-tashkiliy shakllari; 6-pedagog.

Be pedagogik tizim, har qanday nazariyaga xos bo’lgani kabi, quyidagi ikki tushunchani qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik texnologiyasi. Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining har qanday sohasi kabi aniq maqsad va unda erishish uchun shart-sharoitlar hamda bu faoliyatlar uchun axborotlar (mazmun) bo’lishi kerak.

Didaktik masalalarni hal etish maqsadi shaxs sifatlarini shakllantirish uchun zarurat bo’lsa, shart-sharoitlar-talabalarning boshlang’ich sifat ko’rsatkichlari, axborot esa o’quv predmetining mazmunidir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizmda o'ziga mos keladigan PT elementlari bilan hal qilinadi, ular: didaktik jarayon pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari hamda o'qitishning tashkil qilish shakllari. Yuqorida ijtimoiy buyurtma yo'nalishi didaktik masalalarga qaratilgan va bu bejiz emas: ta'lim har doim jamiyat talablarini qondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki intuiitiv (ichki his bilan, sezib) tarzda tez yoki sekinlik bilan bu talablarga mos holda tuzatila boriladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, pedagog-metodistlar hozirga qadar didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan PTni ishlab chiqishga kam e'tibor berayotirlar. Shu nuqtai nazardan Milliy dastur ijtimoiy buyurtma sifatida yangi PTni yaratish va amaliyotga joriy etish majburiyatini yukladi.

PTga "yangi" so'zining qo'shib ishlatilishi nazariyani olimlar va o'qituvchilarni bir qadar o'ulantiqirib qo'ydi, endilkda ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashga eskicha yondashish mumkin emasligini anglab etmoqdalar. Shunday ekan PTni qanday yangilash mumkin? E'tiborni yuqorida keltirilgan pedagogik tizim tuzilishiga qarataylik. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini ko'rsatadi va ta'lim tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. "Maqsad" (2) esa pedagogik tizimning bosh bo'g'ini hisoblanib, u qolgan elementlarni o'z navbatida yangilash zaruriyatini keltirib chiqaradi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni "O'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilanadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi yangilandi, unga mos holda mazmunning yangilanishi tabiiydir. Ta'lim mazmuni o'quv dasturlari, qo'llanma va dasrliklarda o'z ifodasini topadi. Shu munsoabat bilan fan sohalari bo'yicha ta'lim mazmunini ishlab chiqish ishlari amalga oshirildi.

Pedagogik tizmda didaktik masalalarning o'z echimlarini topishi Milliy dastur g'oyalarini ro'yobga chiqarishning muhim bosqichidir.

Agar pedagog qo'lida bilimga chanqoq, iqtidorli talaba o'quvchilar, fan maqsadiga mos mazmun-dastur, o'quv qo'llanma, dasrliklar mavjud bo'lsa, u didaktik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllaridan samarali foydalanib yangi PTni amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etish mumkin.

Shunday qilib, ta'lim taraqqiyotining xaqqoniy xarakterlantiruvchi kuchi sifatida mavjud didaktik masalalar va unga mos keladigan pedagogik texnologiya asosida oqilona qurilgan pedagogik tizim xizmat qiladi.

5.O'qish, o'qitish-inson faoliyatining boshqa sohalari singari ijtimoiy foydali faoliyatdir, garchi uning samarasi darhol bevosita ko'zga tashlanmasa ham. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayotgani va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farqlanadi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagog yuqorida ta'lim usullari rivojlanishiga shu nuqtai nazardan qarab, uni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1-muallim "o'z kuchi bilan o'qitish bosqichi, ya'ni o'quvchi uchun axborot manbai – o'qituvchi bo'lishi.

2-o'quv kitoblari, dasrliklar yaratilgan va keng qo'llanilgan bosqich;

3-audiovizual vositalar qo'llanilgan bosqich;

4-o'qitishni boshqarishda oddiy avtomatlash vositalarini qo'llash bosqichi;

5-o'qitishni hozirgi zamonaviy EXMLar vositasida boshqarishni avtomatlashtirish bosqichi.

Insoniyatning rivojlanish dasrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarda assotsiatsiya bir-birini eslat. O'zaro bog'lish orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi, boyiydi. Bu jarayon borgan sari tobora tezlasha boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o'qituvchi o'z kuchiga, o'z bilimi va maxoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo'lyozma kitoblar yaratildi, lekin o'quvchi ularning mazmunini o'qituvchi faoliyati vositasida o'zlashtiradi. Bunday holat XVII asrgacha-Ya.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quvchi ta'lim olishi uchun darslik zarurligini isbotlaguncha davom etdi. Yana bir qancha to'siqlarni bartaraf etib, darsliklar Evropa mamlakatlarida XU111 asrda keng qo'llanila boshlandi.

2-bosqich-qog'oz o'quv kitobi davri xali nihoyasiga etkazilgani yo'q, darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi xamon mukammal emas. Lekin o'qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta'lim vositalari maktablarga jadal kirib kelmoqda.

O'quv kitoblarini joriy etish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo'lgan. Keyingi davrlarda ham ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar kurashsiz, oson bo'lmagan. Hozirgi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruxida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlatirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust. Vaholanki 1-bosqich o'quv vositalari o'qituvchidan ko'p mehnat talab etadi va o'quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lmaydi.

Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mexnatining samarasi ortib, yangi texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasini rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Ta'lim O'zbekiston davlati siyosatining ustivor sohasiga aylandi, ulkan ishlar rejalashtirilmoqda, davlat byudjetidan bu soxaga katta mablag'lar ajratilmoqda. Milliy dasturda rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi kun tartibiga qo'yildi. Ilgarigi pedagogik texnologiyalar bilan bu vazifalarni bajarib bo'ladi? 3,4-pedagogik bosqichlarni chetlab, 5-EXMlarga asoslanib pedagogik texnologiya vositalari va metodlarini o'zlashtirishga o'tish mumkinmi? Tajriba bu savolga ijobiy javob beradi.

Hozirgi kunlarda ko'pchilik sinf xonalariga kirib ta'lim jarayonini kuzatgan kishi mavjud pedagogik tizim birinchi va ikkinchi bosqichlarga xos ekanligiga ishonch hosil qiladi. Vaholanki, hozirgi paytda ayrim umumiy ta'lim maktablarida pedagogik tizimni uchinchi, to'rtinchi bosqichlar darajasida tashkil etish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar mavjud.

Shuni ta'kidlash lozimki, kompyuterlarni sotib olib, sinf xonasiga o'rnatish bilan o'qitishning beshinchi bomqichi vujudga kela qolmaydi. Pedagogik texnologiyani loyihalash va qo'llash yaxlit jarayonligini doimo yodda tutish va uni amalga oshirishga xarakat qilish, intilish lozim. Agar pedagogik tizimda ta'limning texnik vositasi sifatida kompyuter ishlatiladigan bo'lsa, pedagogik tizimning boshqa elementlari ham shunga mos ravishda tashkil etilishi kerak, shundagina kompyuterning barcha didaktik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan yangi, takomillashgan pedagogik texnologiya hosil bo'ladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1.N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.

2.Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

### **ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARGA AN'ANAVIY YONDOSHUV**

Radjabova Mahmuda Manatqulovna  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani maktabgacha  
va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
4 maktab boshlang'ich sinf metod  
birlashma rahbari

Milliy mustaqillik qo'liga kiritilishi bilan istiqbol yo'llarimiz, milliy g'oya va mafkuramiz aniq qilib belgilab olindi. Biz o'z ta'limi-tarbiyaviy maqsadimiz va vazifalarimiz, uni amalga oshirish dasturlarimizni belgilab oldik. Prezidentimizning ma'naviy mafkuraviy, barkamol avlodni voyaga etkazish borasida bir qator asarlarida ushbu yo'nalishdagi davlat siyosati ustivor masala ekanligi bir necha bor ta'kidlab o'tiladi. Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlarini, ma'naviy yodgorliklar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilinadigan "Kadrlar tayyorlashh Milliy dasturi"da ushbu maqsad yoritib berilgan. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham etuk, yuksak malakali, ma'naviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashhdan iboratdir.

Pedagogika fani va amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. Bulardan biri an'anaviy yondashuv.

**An'anaviy yondashuv.** Uning asosiy xususiyati-o'qituvchi ma'lum axborotni, gapirib beradi, tushuntiradi, talaba esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Talabada bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pina yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Talaba savol berilganda eslashi ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, talabani o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimizning o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatiimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan –texnika talablari-ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlashh, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etishh lozim.

An'anaviy ta'lim bir qator salbiy tomonlari mavjud. Ba'zan yosh o'qituvchilar va amaliyotga chiqqan talabalar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l quyilganligining guvohi bo'lamiz. Yosh o'qituvchilar va talabalar faoliyatida yo'l qo'yilayotgan xatolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1.Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni talabalar aslida nima qilishhlari va nimani o'rganishhlari aniq belgilanmaydi.

2.Ta'lim maqsadining talabalar darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.

3.O'rganishh uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

4.O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar talabani darsda bilimlarni samarali o'rganishhini ta'minlamaydi.

5.Dars rejasida ko'rsatilgan talabalar dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Umuman tuzilgan rejalar qayta ko'rib chiqilishhi va xatolarni bartaraf etishh ustida ishlanishi lozim.

Dars rejasi sizni va sizning talablaringizni ma'lum natijalarga erishishingizga asos bo'lishi lozim. Darsni shunday rejalashtirish lozimki uni boshqacha yo'l bilan amalga oshirishga o'rin qolmasin. O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki, unda nima qilinishi mo'ljallanayotganligini aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin.

An'anaviy o'qitish asosan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish asosini, Y.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ilmiylik;
- tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi va shakllanmaydi);
- uzviylik va tizimlilik;
- o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga);
- mustahkamlash (takrorlash, takrorlash ...)
- onglilik va faollik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'rvonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv-ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs (3.1.-rasm).

Mumtoz an'anaviy «sinf-dars» tizimi - bu bayon etishning ma'ruzaviy usuli va kitob bilan mustaqil ishlashni o'z ichiga oladi (didaxografiya).

Zamonaviy an'anaviy o'qitish esa, o'qitishning texnik vositalarini qo'llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga tabaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-xunar kollejlari, akademik litseylarda taxsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarni qo'ymoqda. Masalan, ushbu o'quv muassasalari uchun davlat ta'lim standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlarini va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish bugungi kun talablariga javob bermog'i lozim. Har biri turli variantlarda bo'lsagina, maqsadga to'g'ri xizmat qila oladi.

O'quv –tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Milliy dasturda bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

Ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim – tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metod va usullar tizimini, ta'limning metodik usullarini, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari va vositalarini, o'quvchilarning ijobiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadini, yakuniy natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni tuzishda an'anaviy ta'lim va tarbiya metod va usullaridan qanday foydalanish mumkin. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning “Yangi uyni qurmasdan eskisini buzmaylik” iborasi ta'lim tizimiga ham bevosita taalluqlidir. O'quvchilar bilan an'anaviy o'qitish usulida bevosita aloqa, og'zaki so'rov, yozma ishlar olish, insho olish, mustaqil ishlar, rasm chizish, chizmachilik, amaliy ishlarni qog'oz, yog'och, yung, metall, plastmassa materiallaridan tayyorlash, she'r, monologlarni og'zaki bayon etish va boshqalarni albatta, ta'lim texnologiyasi metod va usullari bilan qo'shib foydalanamiz. Chunki har qanday interfaol usulini olib qarasak, (“Munozara”, “Klaster”, “Ajurli arra” yoki “Kichik guruhlar”da ishlash), hammasi an'anaviy ta'lim metod va usullarini qo'llashni talab etadi. Bu fikrimizning isbotini o'quv qo'llanmaning uchinchi qismida guvoh bo'lasiz.

Hozirgacha o'qituvchi – pedagoglarimiz tomonidan foydalanib kelingan va hozir ham darsda foydalanishga aksariyat o'qituvchilar qo'llayotgan an'anaviy metod va usullar haqida qisman to'xtalamiz:

O'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Metod va usullar o'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtirishiga, ularda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga yordam



beradi. O'qitish metod va usullarini tanlashda o'qitiladigan fanning xarakteri, bolalar va talabalarning yoshlik xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi.

Ta'lim metodlari va usullarini tanlash o'qituvchi tomonidan darsda hal qilinishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Ya'ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo'llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylangan va samarali usullar va metodlarni tanlash juda muhimdir.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'lidir.

## **AN'ANAVIY O'QITISH METODLARI**

Saitova Nazokat Baxriddinovna.

Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bōlimiga qarashli 4-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

An'anaviy o'qitish metodlarini bilish manba'lari bo'yicha quyidagi uch guruhga bo'linadi:

Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi, maktab tajriba yer uchastkasidagi amaliy ishlar).

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. O'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalarni bajaradi.

Biz o'qitish metodlarini sanash orqali o'qitish metodlaridan I. Yangi bilimlar berish metodi haqida to'xtalmoqdamiz. Bu metod o'z vazifasiga ko'ra tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruzasi kabi metodlar yig'indisidir. Quyida shu metodlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Tushuntirish ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etishdir. Bu metodni qo'llash uchun avvalo o'qituvchi yangi materialni o'tishda o'qitadigan o'quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Darsni qiziqarli, mazmunli bo'lishini, o'quvchi va talabalarning psixologik yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda diqqatini jalb eta olishi, o'qituvchining nutqi yorqin, tushunarli bo'lishi zarur.

Og'zaki bayon qilish metodining keyingi usuli bu hikoyadir. Hikoya – xabar shaklidagi yangi materialni yoritish usuli bo'lib, undan hamma sinflarda foydalansa bo'ladi. Hikoya metodini qo'llashda uning g'oyaviy yo'nalishini ta'minlash, yetarli miqdordagi yorqin va ishonarli misollar, dalillar, to'g'ri, tekshirilgan ma'lumotlar berish, asosiy fikr va muhim jihatlar bayon qilinishi, hikoya tushunarli, sodda tilda aytilishi, o'quv materiali yorqin ifodalanishi kerak.

Maktab ma'ruzalaridan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi. Chunki ular hikoyaga nisbatan uzoqroq davom etadi. Ma'ruza – bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqan qurilishi, obrazli isbotlash va umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

Ma'ruza davomida beriladigan bilimni og'zaki bayon qilish, uzoq vaqt davomida o'quvchi – talabalarning diqqatini tutib turish hamda ularning fikrlashini faollashtirish, dalillash, isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi. Ma'ruzalarga asosan talaba va kollej, akademik litsey o'quvchilari jalb qilinadi. Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini oliy o'quv yurtiga o'qishga tayyorlash maqsadida ayrim fanlardan ma'ruzalar tashkil qilinadi. Ma'ruza rejasini aniq o'ylab, uni texnologiyalashtirish zarur. Reja bandlarining barchasida, ularning har birining maqsad, yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday

sur'atda o'qiladiki, talaba, o'quvchi ma'ruzaning muhim joylarini yozaolsinlar. Shuning uchun ham o'qituvchi ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, zarur bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun takrorlashi lozim. Ma'ruza zerikarli bo'lmasligi uchun talabalarning fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning bir necha xili mavjud bo'lib, ular yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llanilishi mumkin.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan talabalar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchi yoki talabaning fikrlash tizimini, yangi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo'llaganda savollarni qo'yish (yo'naltiruvchi, qo'shimcha, asosiy va h.k.z) talabalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan chiqqan xulosalarni muhokama qilib, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi mavzuni muhokama qilish uchun imkon beruvchi yordamchi, yo'naltiruvchi savollardan foydalanishi mumkin. Shunday suhbatlar tashkil qilish mumkinki, talabalar ilgari o'zlashtirgan bilimlarini eslaydilar, ularni tartibga soladilar, umumlashtiradilar, xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlar asosan tushuntirish xarakteriga ega bo'lib, oldin o'zlashtirgan bilimlarga suyanadi. Talabalar xotirasini faollashtirishni nazarda tutadi.

Suhbat uslubiga tarkibiy qism bo'lib kiruvchi usullardan foydalanishda o'qituvchining pedagogik nazokati yetakchi o'rin egallaydi.

Ayniqsa, yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalanish talabalarni og'zaki savollar orqali mavzuni muhokama qilish uchun qo'llaniladi. Bunday suhbat davomida savollar qisqa va aniq bo'lishi, talabaning fikrini uyg'otishi, o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni ongli ravishda tushunishga undashi kerak.

II. Ta'limning ko'rgazmali metodini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

ko'rgazmali usul;

namoyish etish usuli.

Ko'rgazmali usul talabalarga namoyish etiladigan qo'llanmalar – xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, buyuk mutafakkirlarning surati va boshqalarni ko'zda tutadi.

Namoyish qilish uslubiga odatda, tajriba asboblari, tajribalarning o'zi, shuningdek, diafilm, kinofilm ko'rsatishlarni ham kiritish mumkin. Bu uslubni qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi. Namoyish etishni qo'llashda ko'rinishni to'liq ta'minlash, ko'rilgan voqea va hodisalarni, natijalarni muhokama qilish zarur.

Keyingi yillarda pedagogika amaliyotida ko'rgazmali usul bir qator yangi vositalar bilan boyidi.

Darsda o'quv kinofilmlarini qo'llash ta'lim amaliyotida odatdagi hodisa bo'lib qoldi. Asosiy o'quv kinofilmlarining ro'yxati, har bir fanning o'quv dasturiga kiritilgan. Umumta'lim maktabi, kasb – hunar kolleji va litsey, hatto oliy o'quv yurtlari uchun hamma fanlarga taalluqli bo'lgan ko'plab kinofilmlar yaratildi. (Namoyish qilish uslubiga misol tariqasida biz tomonimizdan tayyorlangan "Tabiatshunoslik darslarida ovozli o'quv kinofilmlaridan va diafilmlaridan foydalanish" o'quv qo'llanmasini ko'rsatish mumkin. Toshkent, "O'qituvchi", 1979 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma).

Ta'limning ko'rgazmali uslublaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi.

III. O'qitishning amaliy metodlariga mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab tajriba uchastkasidagi ishlar kiradi.

Mashqlar deganda talaba va o'quvchilar bilimini mustahkamlash hamda amaliy faoliyatda ularni qo'llanish malakalarini hosil qilish uchun topshiriqlarni ko'p marta bajarishi tushuniladi. Har bir mashqni bajarish xarakteriga ko'ra og'zaki, yozma, grafik va o'quv – mehnat mashqlariga ajratish mumkin.

Amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga mo'ljallangan o'quv mashqlarini o'tkazishdan oldin ular mashq o'tkazilishi lozim bo'lgan mavzu haqida to'liq bilimga ega bo'lishlari kerak.

O'qitishning amaliy metodlarining yana bir muhim turi – laboratoriya ishlaridir. Laboratoriya ishi deb, shunday mashg'ulot turiga aytiladiki, bunda o'quvchi, talaba o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda maxsus asbob – uskunalarda turli tajribalar, kuzatishlar va o'lchashlar o'tkazadilar. Bunday mashg'ulotlar tabiiyot, umumtexnikaviy fanlarni va maxsus texnologiyani o'rganishda qo'llaniladi. Laboratoriya ishlari maxsus jihozlangan kabinetlarda, laboratoriyalarda, zarur asbob – uskunalariga ega bo'lgan sharoitda o'tkazilishi mumkin.

Laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida talabalar o'rganilayotgan obyektни kuzatadilar, ularni miqdoriy va sifat xarakteristikalarini aniqlaydilar. Laboratoriya ishlari nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Albatta, ilg'or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta'limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan demokratik xorijiy davlatlardan bundan 30-yillar muqaddam paydo bo'lgan va ular bu sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta'riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko'zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir.

#### **Adabiyotlar**

1. A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. - T., „O'qituvchi“, 1994. 16. A
2. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T., „O'qituvchi“, 1994. 17. U. 3. Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T., „Fan1“, 1994. 18. M. Xaydarov.

### **BUYUK BOBOKALONLARIMIZNING TARBIYA HAQIDAGI O'LMAS QARASHLARI**

Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi  
Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

**ANOTATSIYA:** Bu maqolada siz farobiy, yusuf hos hojib kaykavus, alesher navoiy kabi bobolarimizning qimmat baho fikrlari kiritilgan va ularning tarbiyadagi roliga urg'u berilgan.

Tarbiya — biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doim o muayyan rejaga ega bo'ladi va buning uchun maxsus vakolati mavjud bo'lgan khhilar tom onidan amalga oshiriladi H am m a davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni. bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O'z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo'lgan muayyan maqsadlarni qo'ygan davlatlarni ham ta'lim - tarbiya ishlariga befarq qaramagan. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiy. haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar q. lbida insoniylik urug'ining unishiga, katta hayot yo'liiga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo'lgan allom alarim izdan Bahovuddin N aqshband, Abu N asr Forob ;, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, U m ar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmori Jom iy, Jaloliddin Devoniy, M unaw arqori, Abdulla Avloniy, H am za H akirnzoda Niyoziy, Asqar Zim m m ov va boshqalarning ta'lim-tarbiya va m a'rifat haqidagi g'oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda m uhim omil b o 'lib hisoblanadi. Bahovuddin N aqshbandning ta'lim -tarbiya haqidagi fikrm ulohazalari va pand-u nasihatlari g'oyat qim matlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab, shunday degan edi: „Adab xulqni chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir... Adab saqlash -m uhabbat samarasi, yana m uhabbat daraxtining urug'i ham dir. Agar adabdan ozgina nuqsonga

yo'l qo'ysangiz ham , nimaiki qilsang, beadablik ko'rinadi. O dam o 'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozimki, toki odam larda unga tasarruf (ta'sir qilish) ta 'masi paydo bo'lmasin“. Abu Nasr Forobiy birinchi bo'lib ta 'iim va tarbiyaga ta 'rif bergan olimdir. „Ta 'iim so'z va o 'rganish bilangina am alga oshiriladi. Tarbiya esa, amaliyot, ish -tajriba bilan, ya'ni shu yo'l orqali amalga oshiriladi“, deydi u. Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir shaxs m unosib odam bo'lishi uchun unga ta 'iim va tarbiya zarurdir. U ta 'iim orqali nazariy kamolotga erishadi. Tarbiya orqali esa kishilar bilan m uloqotni, axloqiy qadr-qim m atri va am aliy faoliyatni o 'rganadi. Forobiy boialarning fe'l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida „qattiq“ yoki „yum shoq“ usullardan foydalanish kerak, deb hisoblaydi:

1. Tarbiyalanuvchilar o 'q is h -o 'rganishga m oyil b o 'lsa, ta 'lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llanadi.

2. Tarbiyalanuvchilar o 'zboshim cha, itoatsiz bo'lsa, qattiq usul qo'llanilishi lozim, degan fikrni bildiradi. Yusuf Xos Hojib tarbiyani juda murakkab jarayon deb tushunadi. U tarbiya kishini ezgulikka o 'rgatmog'i kerak. Ezguning har ishi chiroyli, har bir qadam i go'zal. Ezgulik aslo qarimaydi. Tarbiya beldan m adorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan orom ni talab qiladi, degan fikrni bildiradi. Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan m ehribonlikni birga olib borishni ta 'kidlaydi: „Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o 'rganur, o 'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o 'z qo'ling bilan urmagil, m uallimlarning tayog i bilan qo'rqitgil. Bolalarga 15 m uallim lar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingning ko'nglida gina qolnmasin“. Abu Rayxon Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritir ekan, „Insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, Shuning uchun har bir inson yuksak axloql bo'lishi lozim “ , deydi. Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasi haqida fikr bildirir ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim deb topadi. „Bolaga munosib ism tanlash ota-onaning dastlabki oliyanob vazifasi, bola tarbiyasi bilan aw alo ota-ona shug'ullanishi kerak“, deydi. U m ar X ayyom ning ta 'kidlashicha, tarbiyaning m aqsadi „sog'lom fikr, ziyarak aql va o 'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakliantirishdan iborat bo'lm og'i kerak“. Faqat chuqur zehngina barkamol xalqni qondira oladigan ilhomga erishishi va uning yordami bilan yuksak aql-idrok, farog'atni hosil qilish m um kin, lekin shuning o 'zi kifoya qilmaydi, inson yuksak axloqqa ega bo'Mishi yaqinlarini sevishi lozim. Alisher Navoiy bola tarbiyasi bilan oila ham da m aktabda shug'ullanish, shuningdek, bola tarbiyasini olib borish jarayonida nam una uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg'u beradi. Tarbiya va ta 'lim ishlari o'qituvchi ham da ota-onalar tom onidan olib borilishi lozim. Mutafiakkir bolalar bilan munosabatda bo'lish chog'ida ular tom onidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jism oniy jazo berishdan saqlanish, aksincha, hushm uom alalik bilan y o i qo'yilgan xatolarning m ohiyatini ularga tushuntirish zam rligini, biroq bu o'rinda m a'lum me'yorga am al qilish zarurligini aytadi. Alisher Navoiy o 'qtuvchining, ayniqsa, talabchan bo'lish; bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida m uhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Alloma m a'lum fan asoslari yoki muayyan kasb-hunar sirlarini o'rganishga layoqatli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga alohida aham iyat berish jamiyat uchun katta foyda keltiradi, qobiliyatsizni tarbiyalashga urinish befoydadir, eegan xulosaga keladi va bu o'rinda quyidagilarni bayon etadi: Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zuimdir, qobiliyatsizga tarbiya — xayf. Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik bilan uni nobud qilmadegan fikrni bildiradi. A bdurahm on Jom iy, avvalo, tarbiya haqida fikr yuritir ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkam ol bo'lishini alohida ta 'kidlaydi. Jaloliddin Devoniy „Bolani tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasiga bogMiq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan, m uloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yom on tom ondan ta 'sir etadi. Bolada har kuni insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurm at qilish, to 'g'rilik va rostgo'ylikni o 'rganish, shirinsuxanlik, kam tarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turm ushda o 'rganiladi“, deydi.

1. A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., ..O'qituvchi", 1994. 16. A  
2. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T ., „O 'qituvchi", 1994. 17. U. 3. Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T ., ..Fan1', 1994. 18. M . Xaydarov.

## XXI ASR — INTELLEKTUAL ASR

Ergasheva Nafesa Ne'mat qizi  
Qashqadarya viloyati Qarshi shahar  
48-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

**Anatatsiya:** Biz intellektual inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz" biz maqolamizda manashu haqda suhbatlashamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 28-fevraldagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-27-sonli Farmoning 8- bandida " 2023-2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari amaliyotga kiritilsin"- deb belgilab qo'yilgan. Bunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1- 4-sinflarida o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yilishi ta'kidlangan.

Mamlakatim izning istiqboli ko'p jihatdan barkam ol intellektual salohiyatii avlodni shakllantirish va unga mos ta'lim - tarbiya olib borishga bog'liq va bunga mustaqil respublikamizdagi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning tezkor sur'atlar bilan rivojlanishi, fan-texnika va texnologiyalar sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning ta'lim -tarbiya sohasiga keng joriy etilishi asos bo'lmoqda. Bu asoslar o'z Vatanini va xalqini sevadigan, milliy mafkuramizga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishdek muammasini hal etishni ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasi gacha ko'tardi. Bu boradagi ishlarning ahamiyatligini Prezidentim iz quyidagicha ta'kidlagan edilar: „Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushinamiz".

1 Bu haqda O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi Qonuni, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa rne'yoriy hujjatlarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va shu asosda intellektual salohiyatii ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta'kidlangan. Ayniqsa, bu borada „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da „Xalqning boy intellektual merosi va umumiy bashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti“ ekanligi asoslangan. Insoniyat paydo bolibdiki, unda yashovchi ongli insonlar tinch va farovon, baxtli-saodatli, sihat-salomat umumiy kechirishni orzu qiladilar. Demak, baxtli, ma'nan va jismonan sog'lom hayot kechirish inson umumiy rining muammasini belgilaydi. Mustaqillik xalqimizning o'z turmush tarzini, ya'ni umumiy mazmunini belgilash muammasini berdi va ular milliy! igimizga xos turmush kechira boshladi. Bunday baxtni qo'lga kiritishimizda Yurtboshimizning milliy davlat siyosati asosiy omil bo'ldi. „Sog'lom hayot „ Sog'lom turmush tarzi“ „Sog'lom avlod“ „Sog'lom millat“ „Sog'lom e'tiqod“ „Sog'lom xalq“ „Sog'lom ong“ „Sog'lom muhit“ „Barkamol avlod“ va shu kabi tushunchalar xalqimiz turmush faoliyatining asosiga aylana boshladi. Bular Vatanimiz ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni

shakllantirish fan-texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim -tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andazalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Bunda „XXI asr — intellektual asr“ ning, ya'ni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzarb rluamrnolardan biri bo'lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi intellekt va bilimlar ro'yobga chiqariladi ham da iste'molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo vechimini hal etishda jamiyatni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lish, axborotlarni ishlab chiqish va undan rejalashtirilgan n iqsad area samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, shaxs tarbiyasi jarayoni ijtimoiy muammo bo'lib, uning yechimi esa har bir inson o'sha jamiyatning tuliq ongli faol a'zosi bolishligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, har doim ham inson ma'naviy kamoloti va intellektual salohiyatini, ya'ni inson dunyoqarashi darajasini to'g'ri belgilab olish imkonini beravermaydi. Hozirgi kunda har bir ta'lim jabhalarini 4K moduliz tasavvur etib bo'lmaydi. Tanqidiy fikrlash elementlarini tahlil qilishni, baholashni, tushuntirishni maqsadlarni belgilash, o'zini boshqara bilish, modellashtirish kabi ketma-ketligini quyidagilarda kurishimiz mumkin.

Tanqidiy fikrlash elementlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo'lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;
- baholash – kirish va chiqish ma'lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;
- tushuntirish – o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog'liq izchil matnlar qurish;
- maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;
- o'zini boshqara bilish – o'z-o'zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);
- modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;
- o'rganilayotgan predmetga turli nuqtalyi nazardan qarash amaliyoti;
- kuzatish va o'lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;
- muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;
- dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak intellektual salohiyatni o'stirish uchun tanqidiy fikirlash katta rol o'ynaydi. Chunki tanqid bilimlarning paydo bo'lishidir.

#### **Adabiyotlar**

- 1.A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., „O'qituvchi“, 1994. 16. A
2. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T., „O'qituvchi“, 1994. 17. U. 3.Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T., „Fan1“, 1994. 18. M. Xaydarov.

### **MA'NAVIY QADRIYATLAR — TA'LIM-TARBIYANING OMILI**

**Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi**

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

**Anatatsiya:** Ma'naviy qadriyatlar — ta'lim-tarbiyaning omili M am lakatim iz mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar o'zining ko'lamini va ahamiyati jihatidan tarixiy voqeadir.

Bu jarayonlar jamiyatimiz ma'naviy va ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. M am lakatim iz istiqbolining eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va

qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyirtgilar avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, har qanday jam iyyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Inson hayotida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, madaniy ehtiyojlarga talab undan ham kuchliroq ekanligini ta'kidlam oq zarur. „Madaniy iyyat“ tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Madaniy iyyat odarning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iym on-e'tiqodini butun qilishida yorqin nam oyon bo'ladi. Madaniy iyyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillar davornida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o'giti, Vatan tuyg'usi, bu hayotning ba'zida achchiq, ba'zida quvonchli saboqlari bilan qatraqatra bo'lib singib boradi. Biz milliy madaniy iyyatni har tom onlam a yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yarkanm iz, bugungi kunda madaniy iyyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi“. Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat madaniyatlarini yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, madaniy iyyat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining madaniy azm un-m ohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi, ya'ni: — tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar); — iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); — ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, ham korlik); — ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); — falsafiy qadriyatlar (g'oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar); 33 — badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat); -- diniy qadriyatlar (iym on, e'tiqod, vijdon. savob). Shu bilan birga, fanda qadriyatlarining milliy va umum insoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar madaniy iyyat bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (madaniy iyyat) boylıkları yig'indisidan iboratdir.

Qadriyatlar turli-tum an bo'lib, bular ichida „eng oliy qadriyat — inson“ hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining madaniy iyyat, tarixiy ham da ta'limiy jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlarga asoslanadi. Jam iyyatda milliy qadriyatlarini o'z qalbida madaniy ustahkam saqlash, atrof-m uhit, tabiat va hayotni go'zal, farovon qilish, dem okratiya asoslari ham da jam iyyatda amal qilayotgan progressiv g'oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyatini uning dastav al o'z o'ziga va shu jam iyyatga bo'lgan hurmati ham da madaniy unosabati, xulq-atvori bilan cham barehas bo'lgan bo'ladi. Bu insonga o'z xulq-atvorini tartibga solishi, o'ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga irnkon beradi. Insonning shaxsiy qadriyatini madaniy iyyat milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatli'dan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va madaniy iyyat pokligini ta'minlovchi bir buyuk rnanbadir.

Bir so'z bilan a>tganda, madaniy iyyat olim lar yuksak madaniy iyyat qadriyatlarini umum insoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar va targ'ib qildik. r. jam iyyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida madaniy iyyat omillarni yuksak baholadilar. Shu madaniy iyyat noda o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak madaniy iyyat-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jam iyyati tarixiy taraqqiyoti davom ida vujudga kelib, tarkib topgan, takom illashib kelgan madaniy iyyat va qoidalaridan iborat bo'lib, ular k ishilarining jam iyyatga bo'lgan niunosibailarini tartibga soladi. Bu madaniy iyyat va tartibqoidalar kishilardan jam iyyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lirilikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o'zgarm aguncha inson ham o'zgarmaydi. 34 O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: „Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur“. Axloq — inson hayotida o'z-o'zini idora qilish madaniy iyyat yorlarini, boshqalar bilan inunosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish madaniyatlarini o'rgatadi. Axloq — tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zam onlar uchun bir xil, o'zgarm as bo'lishi madaniy iyyat kin emas.

Muayyan jam iyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to 'g 'ri bo'lsa, boshqa davrga kelib noto 'g 'ri bo'lib qolishi m um kin. O 'zbekona, milliy axloqda otabobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doim o m adad bo'lib turgan ruhiy quw atlari jamuljamdir. M ustaqil mamlakatim izning kelajagi uchun m a'naviyati yuksak, barkam ol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtboshim iz „Yuksak rna naviyat: — yengilmas kuch“ degan hikm atli shiorni yanada balandroq ko'tardilarki, yuksak m a'naviyat m ustaqillikni m ustahkam lash, rivojlantirish uchun m uhim va zaruriy tam oyillardan biri bo'lib qoldi. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. C hunonchi, Kaykovusning „Qobusnom a", Sa'diyning „G uliston", „B o'ston", Am ir Tem urning „T em ur tuzuklari", A bdurahm on Jom iyning „Bahoristo n “ , Alisher Navoiyning „M ahbub ul-qulub“ , Husayn Voiz Koshifiyning „Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishim iz mumkin. O 'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta 'limtarbiya sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, m adaniyatim iz, milliy urf-odatlarga. e 'tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqiHigimizni m ustahkam - lashda o'z e 'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish m ahorati bilan ajralib turadilar. U lar jam iyatda, jam oada xalqlar va m illatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turm ush tarzini yaxshilashga qaratilgari m uhitni vujudga keltirishga intiladilar. 35 Komi! insonni shakllantirishda m aktabda, oilada sogiom m a'naviy muhit barqaror b o 'lishiga erishish m uhim aham iyatga ega Chunki sogiom m uhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topad . Kishi c 'z hayotida axloqiy karnolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o 'z xato-kam chiliklarini anglab boradi. Turon zaminiimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an 'analarga ega. Axloq-odob insonriing jam iyatga b o 'lgan m unosabatining negizini tashldl etadi. Shuning uchun ham o'quvchida jam iyatga b o 'lgan hurm atni yuksaltirish m ustaqilligim izni m ustahkam - lashga, axloqiy m adaniyat egasi boTishga, o'zini-o'zi anglab yetish.ga, yaxshi insonlarga b o ig a n e 'tiqodni rivojlantirishga olib keladi. M aktab o'quvchilari dars va darsdan tashqari jarayonlarda do'stlik, ham jihatlik, ham korlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, birovring dardiga darm on bo'lish kabi fazilatlar xalqimiz va miliatimi:' kuch-qudratining asosi, ijtim oiy-iqtisodiy, siyosiy tarafo iyotning negizi ekanligini o 'z o 'quvchila.riga tushuntirishlari darkor M a'naviy-axioqiy tarbiya — m a'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish ham da xulq-atvor ko'nikrnalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. M a'naviy-axioqiy tarbiyaning maqsadi: jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar, o 'z navbatida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jam iyatda yoshlarni o 'qitish va tarbiyalash ishlarining ham m asi yosh avlodda m a'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Yoshlarni m a'naviyaxioqiy tarbiyalash tuzim ini takom illashtirishda boshlang'ich m aktab rmuhim o 'rin egallaydi. Insonning jam iyatga b o 'lgan m unosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizom ni tarbiyalash, kornil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jam iyatga b o 'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir, lymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jam iyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoiadi. Shunday ekan, jam iyat va xalq m anfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish m as'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. 36 Y oshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob norm alari asosida ish yuritish bilan birga jam iyatga hurm at, mustaqillikni m ustahkam lash, insonlarga insoniy m unosabatda bo'lish kabi fazilatlarini singdirish taqozo etiladi. O 'quvchining jamiyatga bo'lgan m unosabatida milliy birlik, birdamlik va ham korlik tuyg'ulari, turli xalqlarga bo'lgan hurm at kabilar yaqqol nam oyon bo'lishi zarur. O'zbekiston mustaqilligi, yurtim iz ravnaqi yoshlarni o'qish, izlanish va m ehnatdan qochm aydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko'ra bugungi jam iyatim izda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o'lkaning haqiqiy egasi bo'lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg'urishi, erishgan yutuqlarini m ustahkam lashi lozim. D iyorim izda mustaqillik tantanasi tufayli ta 'lim -tarbiya tizim ida tub o'zgarishlar vujudga keldii. Milliy qadriyatlarni tiklash,



milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odobxloq an'analariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidir. O'lkam izda buyuk rejalar, bunyodkorlik ishlari aql-idrok, sabrquanoat bilan, tarixiy an'analarim iz, tajribalarim izni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda. Ana — Turki o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umumiy yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir. Odat („urf-odat“) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan: — kichiklarning kattalarga salom berishi; — erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish; — mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish; — bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan habar olish; — yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan. Agar ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning ham ma'naviy sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'naviy sohalarida, ya'ni: 37 — kishilar lumush; — mehnati; — xulq-atvori; — muloqoti; — oilaviy ma'nosabatlarda ko'proq mavjud boladi. Marosim — ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega boigan hayotiy tadbir. Masalan: — ism qo'yish marosimi: — nikohdan o'tish marosimi; — xotirlash marosimi; — urug' qadash marosimi; — o'rimga kirish marosimi va boshqalar. Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrami umumiy bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi

### Adabiyotlar

1. A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., „O'qituvchi“, 1994. 16. A
2. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T., „O'qituvchi“, 1994. 17. U. 3. Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T., „Fan1“, 1994. 18. M. Xaydarov.
3. A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., „O'qituvchi“, 1994. 16. A. K. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T., „O'qituvchi“, 1994. 17. U. Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T., „Fan1“, 1994.
4. M. Xaydarov. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanish. - T., „Yozuvchi“, 1995

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA 4 K MODEL ASOSIDA DARS JARAYONINI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Sultonova Dilnoza To'rayevna

G'uzor tuman 70-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-son Farmonining 1-ilovasi bilan “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Mutaxassislar fikricha, dastlab o'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalari, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi, moliyaviy, madaniy va fuqarolik savodxonligi, tanqidiy fikrlash, kreativlik (ijodiy fikrlash), muloqot qilish, jamoada ishlash kabi XXI asr ko'nikmalarini hamda qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iylik, moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyatlari kabi shaxsiy fazilatlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu kabi dolzarb vazifalarni bajarishda o'qitish jarayonining imkoniyati yuqori. Shu bois har bir pedagog globallashtirish davrida o'qitish jarayonini zamon talablari asosida

loyihalashtirish yuzasidan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. O'qitish jarayonini innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv, ilg'or xorijiy tajribalar va milliy uyg'unlikka ustuvorlik asosida loyihalashtirish yuzasidan metodik tayyorgarlikka ega bo'lish omillarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining samaradorligini ta'minlashga doir omillar ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Bular motivatsion omil, ijtimoiy omil, axborotli-mazmunli omil, faoliyatli omil, tashkiliy-metodik omil, didaktik omil [2; 58-b].

Loyihalashtirilgan dars asosida o'qituvchi dars jarayonini boshqarish yo'llarini belgilab oladi. Yangi materialni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini nazorat qiladi va bu nazorati zamirida o'quvchilar faoliyatini baholab oladi. Ana shu baholash natijasida bilim berish va bilim olish faoliyatini tekshirib, ko'zlangan maqsad nechog'li amalga oshganligini aniqlaydi.

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda, pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. O'qitish faoliyati uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra o'qitish jarayonining ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq.

Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri – o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishdan iboratligi ta'kidlab o'tildi. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish.

Loyihalash pedagogik faoliyatning murakkab ko'rinishi bo'lib, uni amalga oshirishda o'qitish jarayonining muhim qonuniyatlari inobatga olinishi zarur. Chunonchi:

- ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishi;
- tahsil oluvchilar faoliyati tafsifining ta'lim natijalariga bog'liqligi;
- tahsil oluvchilarning yosh va individual xususiyatlari bilan o'zaro muvofiq kelishi;
- ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilishini inobatga olish zarur.

O'qitish jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi.

O'qitish jarayonini loyihalashtirish uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini bajarishi tavsiya qilinadi:

- mavzu asosida darsning mazmunini tanlash;
- beriladigan nazariy bilim va uning amaliy jihatlarini belgilash;
- mavzuda aks etgan tayanch so'z va atamalarni aniqlash;
- maqsad, vazifa va o'quvchilarda shakllantirilishi ko'zda tutilgan tayanch va fanga oid kompetensiya elementlarini belgilab olish (kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta'lim standarti asosida);
- o'quv jarayonining ixchamlashtirilgan mazmunini tayyorlash (modellashtirish);
- o'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasini tanlab olish (darsdan ko'zlangan maqsadga muvofiq);
- bilim va tushunchalarni egallash, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun sarflanadigan vaqtni aniqlash (vaqtni taqsimlash);
- darsning maqsadiga ko'ra natijani belgilash (prognoz qilish);

- natijani olish uchun mashq va topshiriqlar, mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqish;
- o'qituvchi va o'quvchining kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish.

Innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalashtirilgan darsdan quyidagi natijalarga erishiladi:

O'qituvchi tomonidan:

- o'z fanini yaxlit holda tasavvur eta oladi va yaxlit o'quv jarayonini tashkil etadi;
- o'quv jarayoni bosqichlarining ketma-ketligi, izchilligini ta'min etadi;
- dars jarayonida vaqtdan unumli va o'rinli foydalanadi;
- darsning maqsadi va undan erishiladigan natijani aniqlay oladi;
- ta'limning mazmunini o'quvchi shaxsiga yo'naltira oladi, o'quvchi shaxsini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi;
- hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta oladi;
- o'quv jarayonini optimallashtirish imkoni tug'iladi;
- o'quvchilarga o'zlashtirgan bilimlarini amalda tatbiq etishi uchun tizimli imkoniyat yaratadi;
- dars jarayonini muayyan maqsadga yo'naltiradi;
- mavzuning mazmuni, uni o'zlashtirish usullarini o'quvchilarning imkoniyati va qiziqishlariga moslashtira oladi;
- o'quvchining bilim o'zlashtirish jarayonini faollashtirish uchun barcha imkoniyatlarni oldindan belgilay oladi;
- o'z faoliyatini va ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qila oladi;
- zamonaviy metodlarni qo'llash imkoni kengayadi;
- o'quvchi o'zi mustaqil ishlashi uchun muhit yaratadi;
- o'zini o'zi rivojlantiradi.

O'quvchilar tomonidan:

- ta'lim oluvchilar tayyor bilim bilan chegaralanib qolmasdan mustaqil o'rganadilar;
- fanga bo'lgan qiziqishlari kuchayadi;
- mustaqil, erkin, tanqidiy, ijodiy fikrlaydilar;
- doimiy izlanadilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar;
- o'ziga ishonish hissi uyg'onadi;
- o'z o'quv faoliyatini rejalashtiradilar va natijalarini tahlil qiladilar;
- o'z-o'zlarini nazorat qiladilar va baholaydilar.

Loyihalashtirilgan darsda o'quv jarayonining motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi o'ziga xos texnologik vazifalari o'z aksini topadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, xalqaro loyihalarda ishtirok etishga tayyorgarlik va o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga doir o'qitish jarayonini loyihalashtirish jarayonida ta'lim oluvchilarda quyidagi tayanch va hayotiy ko'nikmalarning shakllanishiga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

- tanqidiy fikrlash;
- jamoa oldida ma'ruza qila olish;
- jamoada ishlay olish;
- liderlik;
- nostandart sharoitdan chiqib keta olish;
- kreativlik asosida kutilmagan muammolarni yecha olish va hokazolar.

Xulosa shuki, o'quvchilarda mustaqil bilim o'zlashtirish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, bilim o'zlashtirish faoliyatini o'zi mustaqil bajara olishiga ishonitirish, eng asosiysi "Nimani, qanday o'rganish kerak?"ligini o'rgatish bu pedagogdan yuksak bilim va mahoratni talab etadi. Demak, har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, zamonaviy darsni tashkil qilish uchun intensiv usullarni tatbiq etishi, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish, xalqaro loyihalarda doimiy va samarali ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rishga doir o'qitish jarayonini loyihalashtirishi bir so'z bilan aytganda, innovatsion yondashishi muhimdir.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: ped.fan.nom. –Toshkent, 2011. 138 b.
3. Raxmonov I.Y. Geometriyani o'qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi: ped.fan.nom. –Toshkent, 2012. 150 b.
4. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) ...diss. – Toshkent, 2019. – 162 b.

### DARSLIKLARDA BERILGAN TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BOLAGA DARS JARAYONIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

*QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrasida o'qituvchisi  
Rajabova Xurshida Hakimovna  
Qarshi tumani 35-maktab boshlang'ich ta'lim  
o'qituvchisi Abdurahmonova Dilafuz*

**Annotatsiya:** zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, noan'anaviy dars, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, taqqoslashga o'rgatish, bolani ijodiy fikrlashga o'rgatish, tanqidiy fikr yuritish

**Kalit so'zlar:** kreativ yondashish, tanqidiy fikrlash, axborot vositalari, interfaol usullar, mustaqil fikrlash

**Аннотация:** современные информационные технологии, интерактивные методы, нетрадиционный урок, мозговой штурм, работа в малых группах, обучение сравнению, обучение ребенка творческому мышлению, критическому мышлению.

**Ключевые слова:** творческий подход, критическое мышление, информационные инструменты, интерактивные методы, самостоятельное мышление.

**Abstract:** modern information technologies, interactive methods, non-traditional lesson, brainstorming, working in small groups, teaching to compare, teaching a child to think creatively, critical thinking

**Key words:** creative approach, critical thinking, information tools, interactive methods, independent thinking

Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish ta'lim sifatiga e'tibor qaratish ta'lim muassasalari va pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ta'limning samaradorligini oshirish uchun olib borilayotgan ishlarni, shartli ravishda, ikkiga bo'lish mumkin: birinchisi, ta'limning (o'qitishning) faol metodlarini qo'llash, ikkinchisi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish. Albatta, bu ikkala yo'nalishda taklif qilinayotgan o'qitish usullari va vositalari uzoq yillar davomida qo'llanilib kelgan an'anaviy usullarni butunlay yaroqsiz ekanligiga ishora emas. Hozirgi kunda darsliklarimizda berilayotgan topshiriqlarni hisobga olib dars jarayonini noan'anaviy tashkil etish lozim. Bu jarayonda darsda foydalaniladigan metodlar va usullarning o'rni beqiyosdir. Ta'lim metodi o'z-o'zicha faol yoki passiv bo'la olmaydi. Keyingi yillarda faol metodlar deb ataluvchi metodlar o'quvchi va talabalarning bilish jarayonlarini to'g'ridan-to'g'ri faollashtirishga yo'naltirilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash yaxshi natijalar berishi ko'pgina psixolog – pedagog hamda metodistlar tomonidan isbotlangan.

Ta'limda interfaol metod – bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol degani bu - berilgan mavzuni o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro

hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko'nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o'rganish demakdir. Har bir o'quvchi qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Tanqidiy fikrlash kerakli ma'lumotlarni ortiqcha, asosiy ma'lumotni ikkinchi darajadan ajratib olishga, haqiqatni yolg'ondan ajratishga yordam beradi. Ushbu mahoratning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin: bu hayotda ham (masalan, o'z-o'zini tarbiyalashda) va ishda yordam beradi. O'zingiz xohlagan ma'lumotni topib, keyin o'z ishini baholay oladigan xodim qanchalik qadrlil ekanligini tasavvur qiling. Ijodkorlik odamga turli muammolarga nostandart echimlarni topishga imkon beradi. Ishda yoki maktabda bu mahorat juda zarur, chunki biz doimo muntazam ravishda hal qilinmaydigan vazifalarga duch kelamiz. Shaxsiy hayotda ijodkorlik odamga maqsadlarga erishish uchun ko'plab yo'llarni kashf etishga yordam beradi. Aloqa va hamkorlik. Nima uchun aloqa muhim ahamiyatga ega ekanligini batafsil tushuntirish shart emas deb hisoblayman. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Buning uchun mazkur fan o'qituvchisi har bir darsining qiziqarliligi va mazmundorligini ta'minlashga intilsa, har safar darsga mavzu doirasida muayyan yangilikni olib kirishga harakat qilsa, har bir bolaning individual xususiyatlarini e'tiborga olib, o'quvchilarning ozmi ko'pmi faolligini muttasil rag'batlantirib borsa, tabiiyki, o'z o'rnida o'quvchilar ham bu darsga intila boshlaydilar. O'qituvchining bunday natijaga erishishining yana bir omili – bu darsda o'qitishning zamonaviy metodlarini unumli qo'llashdir. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash orqali o'qituvchi yuqori samaradorlikka erishishi tajribada isbotlanmoqda. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol usullar o'quvchilardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishiga yordam beradi.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, boshlang'ich sinf

o'qituvchilari o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Bundan tashqari bolada o'zi mustaqil topshiriqni bajarish mustaqil izlanish orqali egallagan bilimi doimiy eslab qolishiga va keying topshiriqni bajarishga yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. Taqqoslash jarayonida bola salbiy va ijobiy xislatlarni ajratishga o'rganadi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilano'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga, kamil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratishimiz, ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Bola dars davomida olgan bilimni mustaqil hayotda qo'llash orqali berilgan muammoni bajara olishga o'rgatish. Bu esa buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonch garovidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchi mahрати. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. Jizzax 2017.
2. Xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsion muhitni yaratish: asosiy maqsad va vazifalar. Xalq ta'limi 2016 y 3-son Sh. Ergashev, A. Kolantarov.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari/ Darslik – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
4. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

#### **O'QUVCHILAR FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VA INTENSIFIKATSIYALASH ASOSIDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALA**

**Ergasheva Mahbuba Ne'mat qizi**

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi

**Anatatsiya** Muallif aksiomalar tizimini uch guruhga ajratadi. Birinchisi – pedagogik texnologiyalarni bir butun ta'limiy kenglikka qo'shish aksiomalari, ikkinchisi – o'quv jarayonini modellashtirish aksiomalari, uchinchisi – o'quv jarayonini me'yorlash aksiomalari. O'z navbatida ularning har biri o'ziga uchta aksiomalarni birlastiradi.

Birinchisi (A1) – pedagogik texnologiyaning ta'lim makoniga talab qo'yish aksiomasi; A2 – pedagogik texnologiyaning “o'qituvchi” tizimiga moslik aksiomasi; A3 – pedagogik texnologiyaning predmet metodikasi tizimiga nisbatan universallik aksiomiyasi.

Ikkinchi guruhga (A4) pedagogik texnologiya asosini tashkil etuvchi o'quv jarayoni modelini loyihalash aksiomasi kiritiladi. Bu axborotli model quyidagi parametrlar topshiriqlar yordamida tavsiflanadi:

1 - parametr (maqsadga joizlik) o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsad va yo'nalishini mikromaqsadlar tizimi ko'rinishida ifoda etadi.

2 - parametr (tasxis) mikromaqsadlarga erishish yoki erishmaslik dalili to'g'risida bosqaruv axborotlarni mujassamlastiradi.

3 - parametr (miqdorli o'lchov) o'quvchilarning mustaqil faoliyati xususiyatlari, xarakteri va hajmi haqida tasxisning muvaffaqiyatli o'tisini kafolatlas uchun yetarli bo'lgan mazmunli va sonli axborotlar beradi.

4 - parametr ( mantiqiy tuzilma) – bu o'qituvchining metodik fikrlarini o'quv jarayonining yaxlit va mantiqan ko'rsatmali iodeliga aylantiris bosqichini e'tiborga oladi va o'qituvchi mahoratining yuksak jarajasini belgilab beradi. Bu faoliyat shuncalik o'quv

jarayonining mantiqiy tuzilmasi fotografiyasi emas, balki maxsus shakllangan ischi maydon bo'lib, unda barca elementlar texnologik qonuniyatlar asosida ifodalanadi va ma'lum muolajalar yordamida yetarlicha muqobillashtiriladi.

5 - peremetr (tuzatish) pedagogik yaroqsizlik, ya'ni tashxisdan o'tmagan o'quvchilar haqida va tuzatisning metodik yo'llari to'g'risidagi axborotlarni tasvirlaydi.

Shuningdek, ikkinchi guruhga (A5) o'quv jarayoni modelining tashkil etuvchi ko'rsatgichlari tizimi yaxlitligi va takrorlanuvchanligi aksiomasi ham kiritiladi.

O'quv jarayonini texnologiyalashtirish ob'ekti har qanday predmetning o'quv mavzusi bo'lib qolisi kerak, uning hajmi esa qat'iyatligi bilan ajralib turadi: – 6-8 dars, maksimum – 22-24 dars. Ana su mavzu loyihasida bo'lajak o'quv jarayoni yuqori nomlangan beshta parametr yordamida yaxlit beriladi va aynan shu o'quv mavzusi har qaysi predmet bo'yicha o'quv jarayonini loyihalashga imkon beradigan bir xildagi muolajalar ko'rinishida texnologiyalashtirish va loyihalasning takrorlanuvchanligini ta'minlaydi.

Ikkinchi guruh tarkibiga kiradigan yana bir aksioma (A6) – bu o'quv jarayonining axbortli modelini texnologiyalashtirishdir. V.M.Monaxov tajribasida bir mavzu doirasida beshta parametrlarni o'zida mujassamlashtirgan o'quv jarayoni loyihashining texnologik xaritalari yaratilgan. Texnologiya o'qituvchini loyihalash muolajalari tizimi bilan qurollantirsa, texnologik xaritalar o'quv mavzusi bo'yicha o'quv jarayoni loyihashining pasporti sifatida kerak bo'ladi.

Muallif uchinchi guruh aksiomalarini (o'quv jarayoni loyihasini me'yorlas) pedagogik texnologiya mavjudligining asosiy mahsuloti sifatida tavsiflaydi. O'qituvchining kasbiy faoliyatini texnologiyalashtirish aksiomasini (A7) kasbiy faoliyatining quyidagi innovatsion komponentlariga tegishli:

- o'quv jarayoni loyihashining pedagogik g'oyalarini butun bir o'quv yili uchun o'qituvchi tomonidan o'z xususiy metodik tajribasiga, o'quv dasturi mazmuniga va davlat ta'lim standartlarini talablariga tayangan holda mikromaqsadlar ketma-ketligi ko'rinishida ifodalash kasbiy ko'nikmasi. Boshqaca qilib aytganda, bu – standart talablarini mikromaqsadlar tiliga o'tkazishning texnologik muolajasidir, mikromaqsad esa o'quvchilarning bilish va rivojlanish zinaasidir. Bu komponent bevosita an'anaviy o'quv mavzularini qaytadan tuzis bilan bog'liqdir.

- Texnologik xaritani loyihalash kasbiy ko'nikmasi. Bu jarayon pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, sababi o'qituvchi bo'lajak o'quv jarayonin oldinidan ko'ra biladi, o'z g'oyalarini texnologik xaritada qoidali tarzda tasvirlaydi. Ta'kidlas joizki, bu kasbiy ko'nikma yetarlicha murakkab, ko'p bosqichli, o'z mohiyatiga ko'ra integrativ bo'lib o'qituvchidan yaxshi rivojlangan refleks qobiliyatni talab etadi;

- darsning axborotli xaritasini konstruksiyalas kasbiy ko'nikmasi yoki bu xaritalar yig'indisi har bir o'quv mavzusi uchun bo'lajak o'quv jarayonining aniqlastirilgan loyihasi hisoblanadi;

- ikki pedagogik ob'ektni taqqoslash kasbiy ko'nikmasi: texnologik xaritalar ko'rinishidagi o'quv jarayoni loyihasi va ma'lum sinfda real o'quv jarayoni natijalari bilan birgalikda darsning axborotli xaritalar tizimi. Taqqoslashni aniq ko'rsatkichlar va texnologik muolajalar bo'yicha o'tkazis kerak. Qiyoslas muolajalari asosida taxshlas natijasiga ko'ra mazkur sinfda o'quv-tarbiyaviy faoliyat rivojini qayd etuvchi maxsus monitoring yotadi.

O'quv jarayoni loyihasini me'yorlas aksiomasining (A8) mohiyati quyidagilardan iborat: o'quv jarayoni loyihasi texnologik xarita tarzda tayyor bo'lgach, bevosita zaruriy hisoblar amalga osirilishi kerak: o'quv vaqti, didaktik axborotlar hajmi, uni o'zlashtirish tezligi, su o'quv mavzusi chegarasida o'quvchilarni rivojlantirishning metodik dasturiga ajratiladigan vaqt va bosqa.

Nihoyat, ucinci guruhning so'nggi aksiomasi shunday ifodalanadi: yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiyaning maqbul islati uhcun ishchi maydonni shakllantiris aksiomasi(A9). Har qanday pedagogik texnologiya bu aksioma talablarini bir vaqtning o'zida o'quvchilarning ham o'quv, ham umumiy yuklamasi bo'yicha qanoatlantirisi shart; darsning axborotli xaritasi ichida yos jihatidan o'z guruhi doirasida o'quvchilarni o'quv-bilish

faoliyatlarining asosiy turlari me'yorini saqlash zarur. Bu bevosita psixologik-pedagogik va fizio-gigienik me'yorlarini saqlashga ham tegislidir.

Shunday qilib, B. M. Monaxov tomonidan taklif etilgan to'qqizta didaktik aksiomalar bilan kitobxonlar tanish bo'ldi. Olimning ta'kidlasicha, bu aksiomalarni bajarish va ularga rioya qilish bevosita pedagogik texnologiyalarni loyihalas va ta'lim kengligiga asosli ravishda tatbiq etish imkonini tug'diradi.

**II.** Muammoli o'qitishning didaktik tizimida birmunca to'liq tadqiq qilingan tashkil etuvchisi muammoli ta'lim hisoblanadi. U o'rganuvchilarning fikrlas faoliyatini birmuncha faollastirishga, ularda muammoning yecimiga yondashishini shakllantirishga va nihoyat – ijodiy tafakkurini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir intellektual qiyinlasuvning maxsus vaziyatlarini – muammoli vaziyatlar va ularning yechimlarini tuzis yecimlarini tuzis bilan ta'minlanadi. Muammoli vaziyat o'qitish jarayonida muhim motiv va hayajonli vosita sanaladi. Uning samarasi to'g'risida A. M. Matyuskin, M. I. Maxmutov, I. Ya. Lerner kabi yirik olimlar o'z nazariyalarini yaratdilar.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi asosiy diqqat xatoliklarni izlab topish maqsadiga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jihatlariga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlastiradi: gnoseologik, metodik va o'quv. Gnoseologik xatolar bilishga oid xarakterdagi xatolar hisoblanib, bilimlar evolyutsiyasi jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi. Tadqiqotlarning ko'rsatisicha, o'quv jarayonida gnoseologik xatolardan foydalanish o'quvchi (talaba)larda borliqni tanqidiy musohadalar, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rlash ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, o'quv predmeti va fanga bo'lgan munosabatlarini o'zgartiradi: o'rganilayotgan fan mazmuni o'rganuvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzda, ijtimoiy maktab va yo'nalislar kurasi tarzda, odat va yangilanis qarama-qarsiligi sifatida turadi.

Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda – o'qitish xatolari natijasidir. O'quv xatolari maxsus taxsislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhlanadi va keyincalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalaniladi. Agar an'anviy o'qitishda bilmaslikdan bilishga o'tis standartli vaziyatlarni qo'llas bilan cegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda o'quvchining yaqindan rivojlanishi doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlastirish va noto'g'ri qo'llasga olib keladigan tanqidiy vaziyatlar – xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday saroitda bilmaslikdan bilishga o'tis sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanis mintaqasiga aylanadi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi – bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlastirilgan tizim muhim sanalgani kabi hozir ham, kelajakda ham pedagogik texnologiya samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan saroitga moslasa olis va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmali, mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modul tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onali, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'pazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va bosqa.

Mazmunli egiluvchanlik birinchi navbatda ta'lim mazmunini tabaqalastirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va modulli printsip asosida saralas evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihati bilan ta'minlanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholas tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilis faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va bosqa.



M. A. Cosanovning ta'kidlasicha, kasv maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazis quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli modullarini guruhlas yo'li bilan kursni to'liq, qisqargan va cuqurlastirilgan variantlarini islab ciqishni ta'minlaydigan dialiktik birlikda integratsiyalash va tabaqalastirisni amalga osiris;

- bilim darajasiga bog'liq holda o'quvchi (talaba)larning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlasi va ularning dastur bo'ylab individual siljisi sur'atini ta'minlanisi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarni yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilis faoliyatini boshqarishda o'quvchi isida maslahatci-koordinatsiyalovci vazifaga urg'uni ko'ciris;

- o'quv materialini bayon qilish tizligi va o'zlastiris darajasiga putur yetkazmagan holda o'qitish metodlari va sakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartiris;

Shu bilan birgalikda opponentlar tomonidan muammoli-modulli o'qitishning qator kamciliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil islari salmog'i birmunca katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantiqini inkor etish; o'quvchi (talaba)larni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'lmagan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarish; umumlasmaga ziyon yetkazadigan xususiy, aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlashh va masg'ulotni o'tkazisga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishhi.

Sanab o'tilgan kamciliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasini o'rnatish bosqichida birmunca aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan dazmollanib boradi. Suni eslatis joizki, u yoki bu texnologiyani "toza" holda joriy etish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo'qmi, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondasuviga va mavjud didaktik jarayonga tayanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalas quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilis faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzis. Misol uchun, matematika kursida bunday metodlarga matematik modellastiris, aksiomatik, koordinat, vektorli, mantiqiy metodlar kiradi;

- tayanchh muammoli modullarning mazmunini aniqlas. Saralashning muhim sarti bilis faoliyati metodlarining printsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olisni taqozo etadi:

- fundamental, uzviylik, uzluksizlik va ta'limni insonparvarlastiris;

- yechimi bilis faoliyati metodlarining mosini qo'llasni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarining o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

- ixtisosli va darajali tabaqalastirisni ta'minlasga yo'naltirilgan o'zgaruvcan modullarning mazmunini tanlas va hajmini aniqlas, Shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli-to'liq, qisqargan va cuqurlastirilgan variantlari bo'yica o'quvchi(talaba)larning yakka tartibda olg'a siljisi uchun saroitlar yaratish.

Muammoli modullarni qo'llas ko'lami quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullaridan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom – ma'lumot moduli sifatida bosqa fanlar doirasida, integratsiyalangan – integrativ kurs doirasida qo'llanisi lozim.

Sunday qilib, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini quyidagica izohlas mumkin: o'quvchi (talaba)larning talab etilgan darajada bilimdonligiga erisis uchun o'quv material mazmunini yirik tuzilmalas, unga mos holda o'qitish metodlari, vositalari va sakllarini tanlas amalga osirilib, ular o'quvchi(talaba)larni to'liq, qisqargan yoki cuqurlasgan o'qitish variantlarini mustaqil tanlas va o'qitishga yo'naltiriladi. Muallifning ta'kidlashicha,

muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha 70 foiz o'quv materialini yuqori darajada o'zlashtirilgan ( $K_a \geq 0,75$ ) va aniq o'rnatilgan kompetentlik darajani kafolatli ta'minlangan.

Muammoli vaziyatlar o'zida o'quvchining qiyinchilikni (muammoni) aniq yoki xira anglasini ifodalaydi va uni zabt etish yangi bilimlarni, yangi usul va harakatlarni izlab topishni talab etadi. Agar o'quvchida qiynalishlarni bartaraf etish yo'llarini qidirish uchun boslang'ich bilimlar yetishmasa, u muammoli vaziyatlarni qabul qila olmaydi va tabiiyki, tafakkurida kuras va qarama-qarsilik jarayoni kecmaydi.

Mavjud vaziyatlarning uch ko'rinishini keltirish mumkin:

1. Vaziyat ma'lum. Uni hal etish uchun sun'ga o'xshas aniq namunalar mavjud bo'ladi. Bunday holatda variantni yecis metodi standartli bo'lishi mumkin.

2. Vaziyat o'xshash. Bunday holatda uni sun'ga o'xshas bosqa vaziyatlar bilan taqqoslas zarur. Ular bir-biriga aynan o'xshas bo'lmasligi mumkin, biroq yaxlit asosga ega bo'lganligi uchun uning ko'rinishini o'zgartirib qaralayotgan vaziyatga yaqinlastirib maqbullashtiriladi va oqilona yecis yo'li topiladi.

3. Noma'lum vaziyat. Bunday vaziyat amaliy faoliyatda ucramaydi, uni bosqa qandaydir namuna bilan solishtirish imkoni yo'q. Su boisdan yecimning yangi metodini izlab topish zarur bo'ladi.

Muammoli vaziyatlar ta'lim maqsadini ko'zlab oldindan konstruksiyalanadi va o'qitish jarayonining ma'lum qismiga kiritiladi. Didaktik jarayonning motivatsiya bosqichi esa muammoli topsiriqlarni ko'proq darsning boslang'ich qismiga kiritishni va o'quvchilar diqqatini dars mavzusiga to'liq jalb etishni taqozo qiladi. O'quvchi ham o'z navbatida tanis vaziyatlardan yangi muammolarni ko'ra olisi, ob'ektning yangi vazifalarini, ob'ekt tuzilishini aniqlab olisi, muqobil yecimlarni topa bilishi kabi ijodiy faoliyatni namoyish qilishi kerak.

B. F. Shatalov texnologiyasining asosiy g'oyasi: darsda o'quvchilarning yalpi faolligini ta'minlaydigan o'quv faoliyati tizimi yaratiladi. O'quv faoliyatining andozasi asosida tayanch konspektlari (signallari) – o'quv materialining kodlashtirilgan ko'rsatmali chizmalari yotadi.

Tayanch – mo'ljalli harakatlarni asosi, bolaning ichki aqliy faoliyatini tashqi ko'rinishda tashkil etish usuli.

Tayanch signal – assotsiativ ramz (belgi, so'z, rasm, chizma, shakl va bosqa) bo'lib, ma'lum fikriy ma'noni bildiradi.

Tayanch konspekt – qisqaca sartli matn ko'rinishidagi tayanchli signallar tizimi bo'lib, yaxlit o'quv materialining o'zaro bog'liq elementlari sifatida tushunchalar, faktlar, g'oyalar tizimining ko'rsatmali konstruksiyasini o'zida aks ettiradi.

Bu texnologiyada o'qituvchi mehnati asosiy mavqeni egallaydi va bu mehnatga o'quvchilar ayrim hollardagina (nazorat, maslahat, yordam) jalb etiladi. Tayanch signallari yordamida o'qitish jarayoni qator bosqichlardan iborat:

1. Sinfda o'qitish: mavzu o'qituvchi tomonidan odatdagidek sinf doskasi yonida (bo'r, latta yordamida) tushuntiriladi, keyin esa tayanch konspektlar asosida mavzuni tushuntirish takrorlanadi. O'quvchilarning o'z konspektlari ustida mustaqil ishlashi ta'minlanadi va frontal tarzda bilimlar mustahkamlanadi.

2. Uyda mustaqil islas: tayanch konspektidagi kodlashtirilgan o'quv materiallarini o'quvchi darslik yordamida oydinlashtiradi.

3. Nazorat va baholash: mavzu bo'yicha o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari tashqi nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish yordamida teksiriladi. Nazorat shakli: tayanch konspekti bo'yicha yozma, mustaqil ish, og'zaki so'rov; juftli o'zaro nazorat, guruhli o'zaro nazorat.

IV. Ta'limiy uclik – “maqsad – jarayon (vosita) – natija” ning o'rta bo'g'iniga O'zbekistonlik va rossiyalik olimlar ko'proq e'tibor qaratishgan bo'lsa, amerikalik pedagoglar bu zanjirning ikki chetidagi xalqasini chuqur tadqiq qilishganlar. Ayniqsa Cikago universiteti professori Benjamin Blum rahbarligida o'tgan asrning 50 – yillarida “o'quv maqsadi

taksonomiyasi” konseptiyasining yaratilisi klassik tadqiqot sifatida e’tirof etildi va u bugun ham o’zining qiymatini yo’qotgani yo’q.

**“Taksonomiya” atamasi yunonca taxis (tartib bo’yicha joylasuv) va nomos (qonun)** so’zlaridan iborat bo’lib, ob’ektlarni o’zar aloqadorlik asosida tasniflas va tizimlashtirish ma’nosini anglatadi. Blum taksonomiyasi o’quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv(hissiy-qadriyatli), psixomotor(harakat)li.

1. Kognitiv soha. Bunga mavjud bilimlarni qayta tafakkurlas, ularni o’zlastirilgan harakat usullari bilan cag’istiris, ya’ni g’oyalar tuzis zaruriyatiga tegisli o’quv maqsadlari kiritiladi. Ular o’quvchining kundalik faoliyati uchun kerakli hisoblanib, o’quv dasturi va darsliklarda o’z ifodasini topadi.

2. Affektiv soha. Bunga qiziqis va moyilliklarni shakllantirish, u yoki bu sezgilar ta’sirida hayajonlanis, munosabatni shakllantirish, uni faoliyat davomida anglas va yuzaga chiqaris maqsadlari kiritiladi. Bosqaca qilib aytganda, ob’ektiv borliqqa bo’lgan hayajonli-shaxsiy munosabatlarni shakllantirish maqsadlari bu sohaning asosini tashkil etadi.

3. psixomotorli soha. Bunga u yoki bu motorli, manipulyativ faoliyat turlarini, asab muskullarni markazlastiris ko’nikmalarini shakllantirish bilan bog’liq maqsadlar kiritiladi. Misol uchun, mehnat ta’limi dasturida belgilangan o’quv maqsadlari aynan su sohaga tegislidir.

Blum taksonomiyasi quyidagi to’rt printsip asosida qurilgan:

amaliy: o’qutuvchi-amaliyotchi uchun taksonomiya samarali qurol bo’lisi, o’zida maqsadlar ierarxiasini ifodalasi lozim;

psixologik: taksonomiya zamonaviy psixologiya fani yutuqlariga tayanishi lozim;

mantiqiy: taksonomiya mantiqiy tugallangan va muayyan icki tuzilmaga ega bo’lisi lozim;

ob’ektivlik: maqsadlar ierarxiasini ular qadriyatlari ierarxiasini belgilamaydi.

Ayni shu prinsiplarga tayangan holda o’quv faoliyatining yuqorida ta’kidlangan turlari bo’yicha o’quv maqsadlari taksonomiyasi yaratildi.

Ma’lumki, pedagogik texnologiyaning o’ziga xos xususiyati oldindan o’rnatilgan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o’quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishdir. Ta’limni maqsadga ketma-ket yo’naltirish asosi tezkor tezkari aloqa hisoblanib o’quv jarayonining barca bo’g’inlariga kirib boradi. Shu boisdan ta’limga texnologik yondashuvda quyidagilar ajralib turadi:

maqsadlarni o’rganish va ularni mumkin qadar aniqlastirish (bu bosqichga o’qituvchi birinchi darajali ahamiyat beradi);

butun o’qis jarayonini o’quv maqsadlariga qat’iyan qaratish;

o’quv maqsadlarini mo’ljallash va shu tariqa natijalarni qo’lga kiritishga butun o’quv davomiyligini yo’naltirish;

joriy natijalarni baholash, o’rnatilgan maqsadlarga erishish borasida o’qitish jarayonini tuzatish;

natijalarni yakuniy baholash.

O’quv jarayonini texnologik jihatdan qurishing mohiyati aniq belgilangan maqsadlar sari harakatlanish hisoblanadi. Quyida bugungi kunda birmuncha keng tarqalgan B.Blum tizimining kognitiv sohasi bo’yicha o’quv maqsadlari taksonomiyasini keltiramiz. U o’zida olti toifadagi asosiy o’quv maqsadlarini qamrab oladi: bilish, anglash, qo’llash, tahlil, sintez va baholash.

1. Bilish. Bu daraja o’quv materiallarining asosiy unsurlarini eslas, tusunib yetish va qayta tiklasga yo’naltirilgan o’quv maqsadlarini islab ciqishni ko’zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uc toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritis mumkin:

- xususiyatli bilimlar(masalan, muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar);

- mulohazali bilimlar (masalan, yo’nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar);

- abstrakt bilimlar (masalan, printsiplar, aksiomalar, teoremlar, umumlasmalar, nazariyalar, tuzilmalar).

2. Anglas. Bu daraja o’zida uc toifadagi o’quv maqsadlarini mujassamlashtiradi:

- ko'ciris (yangi vaziyatlarni o'rganishda bilimlarni qo'llas ko'nikmasi);
- interpretatsiya (masalan, hisoblasda qo'lga kiritilgan natijani og'zaki tusuntirib beris);
- ekstropolyatsiya (masalan, egallangan bilimlarni o'xsas vaziyatlarga ko'ciris ko'nikmasi).

3. Qo'llas. Bu daraja, asosan, o'quvchida amaliy ko'nikmalarni skllantirisini nazarda tutadi (bilimlarni amaliyotga qo'llas qobiliyati):

- tushunchalarni qo'llash;
- algoritmlarni qo'llash;
- nazariyalarni qo'llash va hokazo.

4. Tahlil. Bu daraja o'quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo'yicha aniqlastiradi:

- unsurlar tahlili (butunni qismlarga bo'lis, ajratish);
- munosabatlar tahlili (unsurlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish);
- tamoyillar tahlili (unsurlarni tizimlastirish).

5. Sintezlas. Bu daraja "alohida qismlardan yaxlitini tuzish" ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi:

- g'oyalar sintezi (masalan, muammo yecimi bo'yicha bildirilgan g'oyalarning umumlashishi);
- mulohazalar sintezi (masalan, shaxs sifatlarining sakllanganlik darajalari, mezonlarini islab ciqish);
- tuzilma sintezi (masalan, ob'ekt ko'rinishi cizmasi, koordinat yordamida funktsiyani ifodalas).

6. Baholas. Bu toifa muayyan maqsad uchun u yoki bu materiallarning ahamiyatini baholash ko'nikmalarini nazarda tutadi. O'quvchi mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida icki bilish va isonclar (argumentlash, mantiq) hamda tasqi mezonlar (standartlar, qoida, me'yorlar)ga tayaniladi. Mezonlarni o'quvchining o'zi aniqlashi yoki tasqi tomondan berilisi mumkin. Bu daraja oldingi toifalar bo'yica o'quv natijalariga erisganligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Sunday qilib, har qanday o'quv predmeti maqsadlarini usbu taksonomiya asosida aniqlastiris mumkin. Buning uchun o'quv predmetlarining mavzu(bo'lim)lari vertikal ustunga yoziladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati turlari esa gorizonta ustunda qayd etiladi. Ular mantiqiy asosda ma'lum corrahada kesisadi va joriy o'quv maqsadiga erisis darajasi (bilis, aniqlas, qo'llas, tahlil) aniqlastiriladi.

Maxsus adabiyotlarda Blum taksonomiyasining turlica modifikatsiyalari keltiriladi. Gap sundaki, bu taksonomiya subhasiz, afzalliklarga ega bo'lisi bilan ba'zi bir nuqsonlardan xoli emas. Incunun, kognitiv sohasi bo'yica o'quv maqsadlarini tizimlastirisga da'vo qilayotgan taksonomiya bilish tuzilmasining qabullas, tafakkur, xotira kabi darajalarida qaralmagan, ba'zi bir o'quv maqsadlari aqliy faoliyatning turlicha darajalarida takrorlanadi. Shunga qaramasdan o'quv maqsadlarini fan mavzulari bo'yicha tasniflas o'qituvchiga o'z xususiy pedagogik faoliyatini to'g'ri belgilashga, o'quvchilarning nafaqat ichki holatini ifodalasga, balki tasqi namoyon bo'lishiga, shaxs sifatida sakllanishiga katta imkoniyat tug'diradi.

#### **Adabiyotlar**

- 1.A. J. Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., ..O'qituvchi", 1994. 16. A
2. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T ., ..O 'qituvchi", 1994. 17. U. 3.Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T ., ..Fan1', 1994. 18. M . Xaydarov.
- 3A. J . Jo'rayev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. -T., ..O'qituvchi", 1994. 16. A. K. Munawarov. Oila pedagogikasi. - T ., ..O 'qituvchi", 1994. 17. U. Mallvkamov. A xloq-odob saboqlari. - T ., ..Fan1', 1994.
- 4.N.N. Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2006 y.
- 5.Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.

## ZAMONAVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH

*Zaripova Muslima Qurbonovna*  
*QVPYMO'MM katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqola zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish mavzusida bo'lib, unda ta'limiy o'yinlar va bu o'yinlar orqali o'quvchilarda shakllantiriladiga ko'nikmalar xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'yin, 4K, Kreativlik, kommunikativlik, kolloborativ, kritik, ko'nikma.

**Аннотация:** Статья посвящена использованию обучающих игр в формировании современных умений, в которой говорится о умениях, которые формируются у учащихся посредством обучающих игр и этих игр.

**Ключевые слова:** игра, 4К, Креативность, коммуникативный, совместный, критический, навык.

**Аннотация:** Статья посвящена использованию обучающих игр в формировании современных умений, в которой говорится о умениях, которые формируются у учащихся посредством обучающих игр и этих игр.

**Ключевые слова:** игра, 4К, Креативность, коммуникативный, совместный, критический, навык.

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik ya'ni ta'limiy o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kritik fikrlash – ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Kreativ fikrlash – darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovasion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas va eng asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'lim ekanligini e'tiborga olgan holda aynan kreativ va kritik fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga shu bosqichda alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga nazariy va amaliy bilimlar hamda kreativ va kritik fikrlash ko'nikmalari bilan birga milliy urf-odatlar va qadryatlarni hurmat qilishi, ma'naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog'lom va barkamol, fuqarolik burch va masuliyatini shakllangan bo'lib voyaga yetishlari kerak.

Darhaqiqat bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan, hayotda duch keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topa oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab, yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham yosh avlodni rivojlangan huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash pedagog kadrlardan yangicha yondashuv hamda ijodkorlik, kreativlik va kritik fikrlashni talab etadi. Avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarda fikrlash qobiliyatini shakllantirishda tanlanadigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga va bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish hamda ilmiylik tamoyili asosida ishlab chiqish, nazariya bilan amaliyotning o'zaro aloqadorligini ta'minlanishi va yana albatta o'zida insonparvarlik va demokratik xususiyatlarni aks ettirishiga alohida ahamiyat berish zarur.

Bugungi kunda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim, chunki u murakkab va axborotga boy dunyoda samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi, ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi va muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu ta'lim, martaba muvaffaqiyati va kundalik hayotda qimmatli mahorat bo'lib, odamlarga turli kontekstlarda yanada aniqroq va tanqidiy fikr yuritish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarni eslab qolishdan tashqariga bilim bilan faol shug'ullanishga undaydi. U o'rganishga bo'lgan ochlikni va sinfdan tashqariga chiqadigan intellektual qiziqishni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni samarali qo'llash axborotni tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishda maqsadli va uslubiy yondashuvni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlashni mohirlik bilan qo'llash uchun quyida amaliy qadamlar keltirilgan:

**Muammo yoki savolni aniqlang:** E'tiboringizni talab qiladigan muammo yoki savolni aniq belgilashdan boshlang. Siz hal qilmoqchi bo'lgan yoki tushunmoqchi bo'lgan masala haqida aniq gapiring.

**Tegishli ma'lumotlarni to'plash:** Muammo yoki savolga tegishli ma'lumotlar, ma'lumotlar va tasdiqlovchi dalillarni to'plang. Ishonchli manbalarga ishonib va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqing.

**Savolning taxminlari:** Fikrlash jarayoniga yoki mavjud ma'lumotlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday asosiy taxminlar yoki noto'g'ri fikrlarni aniqlang. Obyektivlikni saqlash uchun ushbu taxminlarni diqqat bilan o'rganing.

**Ma'lumotni tahlil qilish:** Axborotni kichikroq qismlarga ajrating va har bir elementni sinchkovlik bilan tekshiring. Shakllar, aloqalar va kelishmovchiliklarni qidiring.

**Bir nechta nuqtai nazarni ko'rib chiqing:** Muammo yoki savol bilan bog'liq turli nuqtai nazar va dalillarni o'rganing. Boshqalar muammoga qanday yondashishlari mumkinligini ko'rib chiqing.

**Dalillarni baholash:** Sizning ixtiyoringizda bo'lgan dalillarning ishonchliligi, o'rinliligi va kalibrini baholang. Axborot manbalarining ishonchliligini va ma'lumotlaringizning aniqligini tasdiqlang.

**Shaxsiy nuqtai nazaringizni shakllantirish:** Tahlilingiz va baholashingiz asosida o'z nuqtai nazaringizni yoki gipotezangizni tuzing. O'z pozitsiyangizni yoki xulosangizni aniq ifodalang. O'z nuqtai nazaringizni yoki gipotezangizni sinchkovlik bilan tahlil qilish va baholash asosida shakllantiring. O'z nuqtai nazaringizni yoki yakuniy qaroringizni aniq ifoda eting.

**Fikr va mulohazalarni izlang:** O'z g'oyalaringizni boshqalar bilan baham ko'ring va konstruktiv tanqid va fikr bildirishni rag'batlantiring. Bu jarayon sizning fikringizni aniqlashtirishga va yashirin kamchiliklarni ochishga yordam beradi.

**Natijalarni ko'rib chiqing:** Qarorlaringiz yoki xulosalaringizning mumkin bo'lgan natijalari va oqibatlarini haqida o'ylab ko'ring. Ular turli manfaatdor tomonlarga yoki stsenariylarga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rib chiqing.

**Axborotli qarorlar qabul qiling:** Yaxshi qarorlar qabul qilish yoki tavsiyalar berish uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatingizdan foydalaning. Sizning tanlovingiz dalillar va asosli asoslarga asoslanganligiga ishonch hosil qiling.

**Mulohaza yuriting va o'rganing:** Keyinchalik natijalar bilan shug'ullaning. Samarali bo'lgan narsalarni baholang va yaxshilashdan foyda ko'radigan sohalarni aniqlang. Har doim esda tutingki, tanqidiy fikrlash doimiy ravishda o'sib boruvchi qobiliyatdir, uni doimiy amaliyot orqali oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kommunikativlik, kollobaratsiya, kritik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kundagi muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan islohotlarning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kritik va kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 2020, 23-sentabr. O'RQ-637-son.
2. Sharifzoda, S.O'., Xudoynazarov, E.M. *Pedagogika nazariyasi va tarixi* (II-qism) [Matn] : darslik / S.O'. Sharifzoda, E.M. Xudoynazarov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. - 286 b.
3. Ergasheva M. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2023-yil.
4. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023

### III SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOL REJALARI

#### BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOL REJALARI

XADICHA MUXAMMADIYEVA

TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti v.b. (PhD)

E-mail: [xadicha20182020@gmail.com](mailto:xadicha20182020@gmail.com)

**Annotation:** Ushbu maqolada Asosiy e‘tibor, tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. xalqaro tadqiqotlarni joriy etish yuksak, ma‘naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Integratsiya, pedagogik-psixolog fanlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, o‘zaro aloqadorlik, rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasi”da ta‘lim tizimida innovatsion rivojlantirishni amalga oshirish va “aqlli ta‘lim” konsepsiyasi asosida raqamli texnologiyaga o‘tish vazifalari belgilangan<sup>11</sup>.

Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion takomillashtirish masalasi bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy-metodik ishlanmalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turibdi. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi dinamik rivojlanib boruvchi jarayon bo‘lib, innovatsion jamiyat sharoitida uning asoslarini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish taqozo etiladi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion takomillashtirish asoslarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion nazariy masalalari. Ushbu masalalarni tadqiq etish va ular asosida muayyan nazariy hulosalarga kelish taqozo etiladi. Bunda hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim metodikasini takomillashtirishga qo‘yiladigan yangi talablarni belgilab olish, uning innovatsion xususiyatlarini aniqlash va mazkur jarayonni takomillashtirishda integratsiya omillarini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Bu masalalar bo‘yicha nazariy hulosalarga kelish boshlang‘ich ta‘lim metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish uchun keng imkoniyatlarni beradi.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o‘zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Jumladan ta‘lim tizimida ham. Davlatimiz rahbari tomonidan 202-yil 24 – dekabrda oliy ta‘lim tizimini tub ijoboy o‘zgarishlariga olib keladigan oliy ta‘lim muassasalariga moliyaviy akademik va tashkiliy boshqaruvda mustaqillik berish borasida ikkita tarixiy qaror imzolandi. Bu esa o‘z navbatida, oliy ta‘lim muassasalari boshqaruvida yangicha ta‘lim asosida yondashuvni talab etadi.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini),

oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o‘quv natijalarini amaldagi o‘quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunamiz.

---

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish Strategiyasi



Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash"(shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bolib, o'quv va oqitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushinchasi va malkasini oshirishga qaratilgan.

Formativ baholash o'qituvchilarga ham o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o'quv jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon.

Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlash. Shuning uchun

o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak.

O'quv maqsadlari rasmiy shaklda o'qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o'qituvchi norasmiy shaklda o'quvchilar bilan birgalikda o'quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin bo'ladi. Formativ baho o'quvchilar ta'lim jarayonida faol rol o'ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi.

Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlar (mexanizmlar) aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'quvchilar orasida o'z-o'zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag'batlantiriladi.

Marina Aleksandrovna Pinskaya, pedagogika fanlari nomzodi, tadqiqotchi "Baholashning yangi shakllari" kitobida quidagilarni yozadi: Formativ baholash

o'quv jarayoni nafaqat yakuniy bosqichda, balki boshlang'ich va o'rta bosqichda qanday o'tayotganiga tashxis qo'yish uchun zarur, va agar ma'lumotlar qoniqarsiz bo'lib chiqsa, olingan ma'lumotlar asosida kerakli ma'lumotlarni kiritish va ta'lim faoliyati sifatini oshirish uchun o'zgartirishlar kiritish mumkin. Formativ baholash butun o'quv dasturi o'riga individual o'quv mahoratiga yoki o'quv dasturidagi ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ushbu baholashlar ma'lum bir maqsad sari intilishni o'z ichiga olinishi uchun mo'ljallanadi deb aytadi.

Formativ baholashning eng foydali qismlaridan biri shundan iboratki, shakllantiruvchi baholashning yagona uslubi yo'q. Buning o'rniga mavjud bo'lgan yuzlab turli xil baholash usullari mavjud.

Har bir o'qituvchi potentsial shakllantiruvchi baholashning chuqur repertuarini ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar shakllantiruvchi baholashni o'quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish va o'zgartirishlari mumkin. Bu juda muhim, chunki tafovut o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi va o'qituvchining organilayotgan tushunchalarni to'g'ri baholashiga mos kelishini ta'minlaydi.

Variantlarga ega bo'lish, shuningdek, o'quvchilar yil davomida ularning shaxsiy imtiyozlari yoki kuchli tomonlariga va zaif tomonlariga tabiiy ravishda mos keladigan baholashning turlarini ko'rishlariga yordam beradi.

Formativ baholashning eng yaxshi turi - bu jalb qilish, o'quvchilarning kuchli tomonlariga moslashish va go'shimcha o'qitish yoki yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlash. Formativ baholash o'qituvchilar va o'quvchilar uchun juda ko'p ahamiyatga ega bo'lgan tasdiqlangan o'quv vositasidir.

O'qituvchilar kelgusidagi darslarga rahbarlik qilish, o'quvchilar uchun individual o'quv maqsadlarini ishlab chiqish va o'quvchilarga taqdim etilayotgan darslarning sifati to'g'risida gimmatli ma'lumotlarni olish uchun shakllantiruvchi baholashni ishlab chiqish va undan foydalanishlari mumkin.

Sinflarida muntazam, doimiy shakllantiruvchi baholashdan foydalanadigan o'qituvchilar, o'quvchilarning faolligi va o'qishi ortib borayotganligini aniqlaydilar.

O'qituvchilar shakllantiruvchi baholashdan olingan ma'lumotlardan butun guruh uchun ham, individual darslar uchun ham o'quy qo'llanmalarini o'zgartirish uchun foydalanishlari mumkin.

O'quvchilar shakllantiruvchi baholashda ular o'zlarining qaerdaligini har doim bilishlarini va o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tobora ko'proq anglab etishlari uchun foydali bo'ladi. Formativ baholashlarni tuzish oson, olish oson, to'plash oson va natijalardan foydalanish oson. Bunga qo'shimcha ravishda, ular bajarilishi uchun cheklangan vaqt talab etiladi. Formativ baholash o'quvchilarga individual maqsadlarni belgilashda yordam beradi va har kuni yutuqlarni kuzatib boradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, Shu bilan birga intellektual salohiyatning o'sishi, sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta'lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta'sir etadi.

Shuning uchun ham bugungi kunda ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biri ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil sifatida belgilab berilayapti.

Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki, ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta'lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma'noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Hayot ta'lim muassasalari oldiga yangi, mumkin bo'lmagandek tuyulgan vazifalarni, ya'ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni oldimizga qo'ymoqda.

Barcha yangiliklarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, o'tmish boylıklarga, tajribalarga e'tiqod ruhida tarbiyalangan, stabillikni yoqtiradigan keksa avlodni, shuningdek hech qanday o'zgarishlarni xohlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda "innovatsion jarayonlar orqasidan quvish" bugungi kun hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham tushunish zarur. Xohlaymizmi yoki yo'q bizning ta'lim muassasalari devorining orqasida bozor va bozor munosabatlari jarayoni ketayapti.

Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri bizga tegishlidir, chunki ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat tushunchasi ularni raqobat qobiliyati, ta'lim sifati, ijtimoiy buyurtmalar bularning hammasi turmushimizga kirib kelayapti.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'limsohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – T., 2020. – 28 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

3. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).

4. "PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam – "Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet.

5. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi: Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006.

6. Muxammadeva, X. K O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.

7. <http://www.tdi.uz/uz>Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

8. <http://markaz.tdi.uz/>– Ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi

## TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TIMSS XALQARO TADQIQOTI TOPSHIRIQLARINI TUZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**Jabbarova Zuhra Omondullayevna**

Jizzax viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi

Ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, ta'lim oluvchilarning ilmiy- tadqiqot va innovatsion faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ayniqsa yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligi inson kapitali o'sishining muhim omillaridan biridir.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development – OECD) o'tgan davr mobaynida moliyaviy sohada yuzaga kelgan turli muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib bormoqda. Ayniqsa, yangi asrostonasida ushbu tashkilot negizida dunyo ta'limining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi. Iqtisodiy tashkilotning ta'lim sohasiga murojaat etishining boisi, har qanday soha uchun kadrlar maktablarda, oddiy sinf xonalarda ulg'ayishidir. Shu ma'noda OECDdek ulkan tuzilma ham davlatlarning ta'lim tizimiga qancha mablag' sarflayotgani va ularnechog'li samara berayotgani reytingini tuzishga majbur bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqotga boshqa davlatlarning ham qiziqishi ortib, unda qatnasha boshladi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotining o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotida ishtirok etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrda 997-sonli qarori qabul qilindi [1].

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy- tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqarotadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019 yilning 29 aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Farmon bilan Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berdi:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonningbirinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining "Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi"ga muvofiq O'zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro

tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o'rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

IEA rahbariyati O'zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishidan mamnun ekanligini aytib, O'zbekistonning ta'lim sharoitiga TIMSSning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021-yil fevral oyida Germaniyaning Gamburg shahrida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig'ilishiga taklif qildi va Boston kolleji mutaxassisleri bilan turli xil baholash modellarini muhokama qilish, tadqiqotlar yo'nalishlarining afzallik va kamchiliklari haqida muhokamalar olib borish uchun qulay imkoniyat yaratib berilishi haqida ma'lum qildi [2].

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko'rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

PISA 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSSni bir-birini to'ldiruvchi dasturlar deb e'tirof etish mumkin.

PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo'ladi deb aytish mumkin.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Tadqiqotda, O'zbekistonning 4- va 8- sinf o'quvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4- va 8- sinf o'quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o'zlashtirishda qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston matematika va tabiiy fanlar o'qitish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar bor bo'lsa u nimalarda namoyon bo'ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha o'qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o'qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda ishtirok etish global miqyosda mamlakatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

TIMSS (Trends in International mathematics and science study) 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi bo'lib, bu tadqiqot to'rt yilda bir marta o'tkaziladi. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS - jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi.

Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillar o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi.

Mamlakatimiz maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlarini xalqaro o'rganishda ishtirok etish tajribasi o'quv dasturlarining mazmunini yangilashga yordam beradi. Xalqaro pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan Xalqaro matematika va tabiiy fanlarni o'rganish (TIMSS) dasturi 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy fanlarni o'qitish darajasini baholaydi.

Dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash uchun global resurs eng yaxshi xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan. TIMSS o'quvchilarning nazariy, amaliy va fikrlash kabi bilim sohalarida erishgan yutuqlarini baholaydi. "Bilim" bloki o'quvchidan raqamlar va oddiy geometrik raqamlarning xususiyatlari to'g'risida akademik bilimga ega bo'lishni, aniqlanishlarni takrorlashni va standart grafikalar va jadvallardan ma'lumotlarni olishni talab qiladigan matematikadan iborat. Tabiiy fanlarda individual organizmlar va materiallar, hodisalar va jarayonlarning xususiyatlari, tabiatshunoslik atamalari va birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etish kerak. Qo'llash uchun test topshiriqlarini bajarayotganda o'quvchilar matematik va tabiiy fanlarni turli xil hayotiy vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini namoyon etishlari, jadval va diagrammalar, diagrammalar va grafikalaridan ma'lumotlarni sharhlashlari va eksperimental ishlarni olib borishlari kerak.

Tasdiqlash bo'yicha topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash qobiliyatlarini ochib beradi. Fikrlashni talab qiladigan vazifalar, taklif qilinayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, hal qilinadigan qadamlar soni, matematikaning turli bo'limlari bilimlarini birlashtirish zarurati bilan bir-biridan farq qilishi mumkin. Tabiiy fanlar bo'yicha testlarni o'tkazish o'quvchilardan ba'zi hodisalarni tushuntirishni, xulosalarni asoslashni, tabiatshunoslikning turli sohalarini bo'yicha bilimlarni umumlashtirish va birlashtirishni talab qiladi[3].

#### ***TIMSS xalqaro testini ishlab chiqish tamoyillari:***

- tasdiqlangan kontent va ta'lim faoliyati turlarini etarli darajada qamrab olish;
- ko'pgina ishtirokchi mamlakatlarda o'rganilayotgan materialga xalqaro testlarning mazmuni maksimal darajada muvofiqligi;
- aloqa sinovlari ta'minlash;
- matematik va tabiiy fan ta'limining rivojlanishi nuqtai nazaridan sinovdan o'tgan tarkibning ahamiyati;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, ularning yutuqlarini baholash uchun test ishlab chiqildi;
- ommaviy tadqiqotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi;
- vazifalar turlari;
- javob tanlash bilan;
- qisqa va to'liq tarqatilgan javob bilan;
- amaliy vazifalar.


#### **Vazifalar turlari**

## Test topshiriqlari



*Matematik savodxonlik* – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qoʻllay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni oʻz ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi oʻrnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va oʻzini oʻzi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur boʻlgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Har bir davlat matematik savodxonlik yoki kompetentlik tushunchasi boʻyicha oʻz qarashlariga ega va unga kutilgan natija sifatida erishish uchun oʻz taʼlim jarayonini tashkil qiladi. Tarixan matematik savodxonlik yoki kompetentlik asosiy arifmetik koʻnikmalarga ega boʻlish, xususan, butun sonlar, oddiy va oʻnli kasrlar ustida qoʻshish, ayirish, koʻpaytirish va boʻlish amallarini bajarish, foizlarni hisoblash, sodda geometrik shakllarning yuzi va hajmlarini hisoblash kabi koʻnikmalarni oʻz ichiga olib kelgan. Oxirgi paytlarda esa raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi odamlarda maʼlumotlar oqimidan shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli maʼlumotlarni olish imkoniyatlarining paydo boʻlishi, turmushning sogʻliq va sarmoyalar bilan bogʻliq sohalarida, ob-havo va iqlim oʻzgarishlari, soliqqa tortish, davlat qarzi, aholi sonining oʻsishi, yuqumli kasalliklar epidemiyasining tarqalishi, jahon iqtisodiyoti kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan bogʻliq koʻnikmalarga boʻlgan ehtiyojlarni ham keltirib chiqardi. XXI asr hayotiy ehtiyojlarining bunday kun sayin oʻzgarib borishi esa oʻz navbatida matematik savodxonlik tushunchasining kengayib, takomillashib borishini taqozo etmoqda.



– inson faoliyatining turli jabhalari: shaxsiy hayot, kelajakdagi kasbiy faoliyat, oʻquv faoliyati, jamiyatdagi ijtimoiy hayot, fan va texnikaga doir turli kontekstlarda berilgan muammoli vaziyatlar mohiyatini oʻqib tushunish;

– berilgan vaziyatni tahlil qilish va unda keltirilgan muammoni aniqlash;

– muammo va vaziyatlarda berilgan matematik tuzilmalar (qonuniyatlar va munosabatlar)ni tanib olish;

- muammo va vaziyatlarni soddalashtirish, ularni alohida masalalarga bo‘lish;
- vaziyat tavsifida berilgan ma’lumotlardan amalda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, qayta ishlash va muammoni matematik masala ko‘rinishida ifodalash;
- muammoli vaziyatning muhim jihatlari aks ettirilgan matematik modelni tuzish.

*Matematikani qo‘llash:*

- amaliy matematik masalani yechish uchun o‘rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, g‘oyalar, qonuniyatlar, algoritmlar va metodlardan foydalanish;
- masalani yechishning muqobil usullarini tahlil qilish, tanlash va asoslash;
- masalani (muammoni) yechish jarayonida yangi matematik bilimlarni hosil qilish va ularni o‘zlashtirish;
- matematik taxminlarni ifodalash va tadqiq qilish, matematik asoslash, taqqoslash va baholash;
- masala yechishda mantiqiy, kreativ fikrlash, matematik mulohaza yuritish va ilmiy izlanish usullari: kuzatish, o‘lchash, tajriba o‘tkazish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiyalardan foydalanish;
- matematik tushunchalar orasidagi aloqalarni tanib olish va ularidan foydalanish;
- kundalik turmushda uchraydigan va boshqa fanlarga oid o‘quv va hayotiy vaziyatlarda matematikani qo‘llash;
- tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish, modellashtirish uchun turli matematik talqin usullaridan foydalanish.

*Yechimni talqin qilish:*

- amaliy masalaning matematik yechimidan olingan natijalar ustida fikr yuritish, matematik yechimni real muammo mazmuniga ko‘chirish va matematik masalada tasvirlangan real muammoga nisbatan uni talqin qilish va topilgan yechim muammoning haqiqiy yechimiga mosligini hamda yaqinligini baholash;
- matematik fikrni aniq, yozma va tasvirli ifodalash uchun matematika tilidan, belgi va timsollardan hamda kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish.

Matematik mulohaza yuritish va masalalar yechishda qo‘llaniladigan o‘quvchilarning aqliy faoliyat turlari:

- sodda xulosalar chiqarish;
- mos keladigan asoslashni tanlash;
- muammo mazmunidan kelib chiqib, matematik natija yoki xulosa ma’noga ega yoki ega emasligini tushuntirish;
- muammoni boshqa shaklda ifodalash, jumladan, uni matematik tushunchalarga moslashtirish va tegishli taxminlarni keltirish;
- ta’riflar, qoidalar va formulalarni, algoritmlarni va hisoblashlarni qo‘llash;
- real vaziyatga mos bo‘lgan va qurilgan matematik modelni asoslash; – matematik natijani yoki yechimni aniqlash uchun ishlatilgan jarayonlar va algoritmlar, modellarni tushuntirish va asoslash;
- muammoni yechish uchun model chegaralarini aniqlash;
- matematik natijani tushuntirishda va asoslashda matematik dalillar ustida fikr yuritish kabilardir.

Timss topshiriqlaridan namunalar

O‘quvchilar o‘zlarining bilim doirasidan tashqarida matematik kompetensiyalarini namoyon etganlarida bilish, qo‘llash va mulohaza yuritishni turli darajalarda amalga oshiradi.

"Bilish" sohasi o‘quvchilar bilishi kerak bo‘lgan dalillar, tushunchalar va protseduralarni qamrab oladi.


Quyida 4-sinflarda matematika fanidan o‘quvchilarning bilimni baholashga yo‘naltirilgan TIMSS test topshiriqlaridan namunalar, ya’ni "Natural sonlar", "Oddiy kasrlar", "Sonli ifoyalpir va tenglamalar" mavzulariga doir misollar, "Shakllarni tekislikda tasvirlash",

“Nuqtalar, kesmalar va burchaklar”, “O‘qish va ma’lumotlarni talqin qilish” mavzulariga doir masalalardan namunalar keltirilgan.

Ushbu mashq daftaridan 4-sinf matematika fanidan mavzularni takrorlash, darsdan tashqari va to‘garak mashg‘ulotlarida foydalinish tavsiya etiladi.

### MATEMATIKA

**1- topshiriq.** Azizada raqamli kartochkalar bor



U kartochkalar yordamida qaysi eng kichik uch xonali sonni ko‘rsata oladi? U har bir kartochkadan faqat bir marta foydalanishi mumkin.

Javob: \_\_\_\_\_

**2- topshiriq.**  $9 \cdot 22$  ga eng yaqin bo‘lgan javob qaysi? (C)

A)  $5 \cdot 20$       B)  $5 \cdot 25$       C)  $10 \cdot 20$       D)  $10 \cdot 25$

**3- topshiriq.**  $3 + 8 = \square + 6$

Tenglik to‘g‘ri bo‘lishi uchun bo‘sh katakchaga qaysi son yozilishi kerak? (5)

A) 17      B) 11      C) 7      D) 5      [4].

**4- topshiriq.** Qaysi sonda 8 raqami 800 ni bildiradi? (C)

A) 1468      B) 2587      C) 3809      D) 8634

**5- topshiriq.** 8 raqami 800 degan ma‘noni anglatadi? (yuzlik)

**6- topshiriq.** Daraxtning 4 ta shoxi bor. Har bir shoxida yana 4 tadan shoxchalari bor, bu shoxchalar ham yana 4 tadan mayda shoxchalarga bo‘lingan va ularning har birida bittadan olma bor. Barcha olmalar soni nechta?

( $4 \cdot 4 \cdot 4 = 64$ )

**7- topshiriq.** Ilhom bozordan 1 kg lik tarvuz olib keldi. Tarvuz 99% suvdan iborat edi. ilhom tarvuzni quyoshda unutib qoldirdi. Savol: quyoshdaqolib ketgandan so‘ng tarvuzning og‘irligi necha kg bo‘lib qoldi? (500 gr)

**8- topshiriq.**  $4 \cdot \underline{\quad} = 28$  Tenglik bo‘lishi uchun chiziqchga qaysi son qo‘shilish kerak?

**9- Topshiriq.** 1 ta bakteriya 1 sekundda 2 ta ga ko‘payadi. O‘sha 1 ta bakteriyani bir idishga solganimizda 1 soatda liq to‘ldi. Qancha vaqtda bakteriya idishning yarmiga keladi? [5].

(59 daqiqa 59 sekundda idish yarin bo‘ladi, 1 sekunddan keyin esa 2 taga ko‘payib idish to‘ladi.)

**10- topshiriq.** Sinfda 30 ta o‘quvchi o‘qiydi. Ularda 20 tasi rus tilini biladi. 18tasi ingliz tilini biladi. Savol: Nechtasi har ikkala tilni ham biladi?

(12 nafari rus tilini, 10 nafari ingliz tilini, 8 nafari har ikkalatilni biladi).

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, TIMSS tadqiqotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi o‘quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko‘rilarekan, bunga o‘ta mas‘uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o‘tkazish, o‘quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o‘quvchilarda maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997- sonli qarori.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF -5712-son Farmoni.

3. Ismoilov A.A. va boshq. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. Toshkent. Sharq. 2019

4. I.V.Repyova Matematika 2-sinf uchun darslik (2-qism), T.; “Novda Edutainment” 2023 y

5. I.V.Repyova Matematika 3-sinf uchun darslik, (1-qism) T.; “Novda Edutainment” 2023 y

6. <http://www.multimedia.uz> ([http:// www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)) - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi sayti.

7. [http:// www.rtm.uz](http://www.rtm.uz) – Respublika ta’lim markazi sayti

8. [http:// www.dtm.uz](http://www.dtm.uz) – Respublika test markazi sayti

## **BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISH**

*B.Mamatov*

*Qashqadaryo VPYMO‘MM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi”  
kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*S.Rasulova*

*Qashqadaryo VPYMO‘MM “Maktabgacha, boshlang‘ich  
va maxsus ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda o‘quvchilarning boshlang‘ich sinfligidayoq tadqiqotlar o‘tkazish, ilmiy jarayonlar haqida ma’lumot olish va ulardan foydalanishni o‘rganishlari lozimligi, bu ularning ilmiy nazariyalarni o‘rganish va ularni amaliyotga qo‘llashlari uchun zamin yaratishi, maktab boshlang‘ich sinflarida xalqaro tadqiqotlar o‘tkazishda, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va muntazam ma’lumot almashish kritik ahamiyatga ega ekanligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** internet, onlayn resurslar, tadqiqot dasturlari, virtual laboratoriya.

**Аннотация:** В этой тезиси утверждается, что учащиеся должны проводить исследования, узнавать о научных процессах и учиться их использовать в начальной школе, это создаст для них основу для изучения научных теорий и применения их на практике, в начальной школе при проведении международных исследований в сообщается, что сотрудничество и регулярный обмен информацией между учащимися и учителями имеют решающее значение.

**Ключевые слова:** Интернет, онлайн-ресурсы, исследовательские программы, виртуальная лаборатория.

Ta’lim texnologiyalari boshlang‘ich sinflarda tadqiqotlarni joriy etishning muhim vositasi bo‘lib, bu texnologiyalar virtual laboratoriyalar, tadqiqot dasturlaridan foydalanish, onlayn o‘quv materiallar va ko‘plab qator boshqa texnologiyalardan iborat bo‘lishi mumkin. Xalqaro tadqiqotlar o‘tkazishda, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kengayishi muhim hisoblanadi. Bu bir qator fan yo‘nalishlari, oliy ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida hamkorlik shakllarini qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda xalqaro tadqiqotlar o‘tkazish uchun, ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borishni tashkil etish kerak. Bu o‘quvchilarning o‘zlarining fikrlarini bayon eta olish, ilmiy jarayonni tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradi. Xalqaro tadqiqotlar o‘tkazilgandan so‘ng, o‘quvchilar va o‘qituvchilar natijalarni baholash kerak bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini va tadqiqotlarni o‘rganishda tajribalarini baholash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar va qo'shimcha tashriflar ta'minlanishi kerak. Bu oliy ta'lim muassasalarining, ilmiy institutlarining va korxonalarining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar o'tkazish jarayonida, o'quvchilarning ijtimoiy ma'naviyati va qadriyatlarini ham e'tiborga olingan holda o'sishini ta'minlash lozim. Bu o'quvchilarga global muammolarga qarshi e'tiborini qarata olish va muntazam tarbiya berish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, xalqaro ta'lim sohasidagi yangiliklarni kuzatish va o'rganish, xalqaro tadqiqotlar bilan bog'liq muhim ma'lumotlarga ega bo'lishga yordam beradi. Bu oliy ta'lim muassasalarining va tadqiqotchilar tomonidan xorijiy yangiliklardan foydalanish va ularga qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Maktab boshlang'ich sinflarida xalqaro tadqiqotlar bilan bog'lash, o'quvchilarni global muhitga kirish va turli xil mamlakatlardagi insonlar va ularning madaniyatlari bilan tanishishga imkoniyat yaratadi. Xalqaro tadqiqotlar o'tkazish jarayonida, maktab o'qituvchilari interaktiv o'qitish vositalaridan foydalanish, masalan, internet, onlayn resurslar, va tadqiqot dasturlari yordamida o'quvchilarni dunyoqarashni tushunishga yordam va ko'mak berish kerak.

O'quvchilarning boshlang'ich sinfligidayoq tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy jarayonlar haqida ma'lumot olish va ulardan foydalanishni o'rganishlari lozim. Bu ularning ilmiy nazariyalarni o'rganish va ularni amaliyotga qo'llashlari uchun zamin yaratadi. Maktab boshlang'ich sinflarida xalqaro tadqiqotlar o'tkazishda, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlik va muntazam ma'lumot almashish kritik ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarning xalqaro jamoatlarga qanday ta'sir ko'rsatishlari haqida tushunchalarini oshiradi. Maktab boshlang'ich sinflarida xalqaro tadqiqotlar o'tkazish jarayonida, o'quvchilarning ijtimoiy va madaniy aloqalari kengayadi. Bu ularning dunyo bilan bog'liq tushunchalarini oshiradi va turli insonlar bilan kommunikatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Texnologiyalardan foydalanish, masalan, interaktiv darsliklar, onlayn o'quv platformalari va video darslar, o'quvchilarga qiziqtiradigan va o'rganishni ko'proq maqbul qiladigan qulayliklar yaratadi. Har bir o'quvchi individual ehtiyojlariga va xususiyatlariga e'tibor berish juda muhimdir. Har bir o'quvchining o'zining rivojlanish bosqichlariga mos keladigan o'quv-uslubini va yondashuvni taqdim etishga harakat qilish kerak. O'quvchilar bilimni nazorat qilish va amaliyotlar bilan ta'minlanishi lozim. Nazorat qilish va amaliyotlar o'quvchilarga o'rgangan materialni o'zlashtirishga imkon beradi va qiziqishlarini oshiradi.

O'qituvchilar o'quvchilarga qulay ilmiy muhitni tashkil etish uchun harakat qilishi kerak. Bu ilmiy muhitni yaratish, o'quvchilar bilan turli savol-javoblar qilish va o'quvchilarni ilmiy sohalar bilan tanishtirish yordamida ularning tafakkur va ta'lim qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Guruh ishi va hamkorlik o'quv jarayonida juda muhim o'rin tutishi kerak. Guruh ishlarining o'quvchilar uchun motivatsion muhit yaratishi yuqori bo'ladi va ularning ko'p tomondan o'rganishini ta'minlaydi. O'qituvchilar o'quvchilarni o'z fikrlarini ifodalash, savollar berish va alternativ yechimlar qidirishga yo'naltirishlari kerak. Bu ularning kritik fikr va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilarni mustaqil o'rganish va o'zlarining o'rganish bilan bog'liq maqbul tanqidiy tajribalarni oshirish uchun yordam berish muhimdir. O'qituvchilar ularni o'zlarining o'rganish jarayonida qo'llab-quvvatlash va ularning o'zlashtirishni oshirish uchun o'zgaruvchiliklar va mantiqiy murojaatlar berishlari kerak. O'quvchilarga o'zgaruvchiliklarga mos va mantiqiy yondashuvlarga asoslangan holda fikrlashni o'rgatish va ta'lim berish juda muhimdir. Bu ularning mustaqil o'rganish va o'zlashtirish darajasini oshiradi.

Maktab boshlang'ich sinflarida xalqaro tadqiqotlar o'tkazishni o'rganishda, yuqorida keltirilgan rejalarni amalga oshirish va o'quvchilarga dunyo bilan bog'liq tushunchalarini oshirishga imkoniyat yaratish muhimdir. Bu ularning o'zlarini jahon bilan solishtirish va global muhitga ta'sir ko'rsatishlari uchun zamin yaratadi.

Bu istiqbol rejalari, boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlar joriy etishni o'rganishda muhimdir va turli sohalar uchun ta'limning sifatini oshirishga yordam berishi kutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. *"Around the World with Picture Books: A Proven Method for Using Multicultural Literature to Teach Social Studies and Geography"* by Jamie C. Martin
2. *"Teaching Global History: A Social Studies Approach"* by Alan J. Singer and Phyllis E. Leffler
3. *"Global Education Toolkit for Elementary Learners"* by Homa Sabet Tavangar and Becky Mladic-Morales
4. *"Teaching Tolerance: A Project of the Southern Poverty Law Center"*
5. *"The Global Education Toolkit for Elementary Schools"* by Neal A. Hohmann and Douglas R. Wartzok
6. *"Global Perspectives in the Early Years"* edited by Julie S. C. Cigman and Louise Swiniarski

### XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TOPSHIRIQLARI TAHLILI

*Umarov Sanjar Sunnatovich  
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlaridagi topshiriqlarning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. GMAT xalqaro baholash dasturining ma'lumotlar yetarliligi masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash dasturlari, GMAT, mantiqiy fikrlash, mantiqiy fikr yuritish, miqdoriy masalalarni yechish qobiliyati, ma'lumotlar yetarliligi tushunchasi

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о значении заданий в программах международного оценивания. Анализируются проблемы достаточности данных международной программы оценки GMAT.

**Ключевые слова:** международные производственные программы, GMAT, логическое мышление, логические рассуждения, проблемы решения критических задач, проблемы достаточности данных.

**Abstract:** This article provides information about the importance of tasks in international assessment programs in the development. Problems of data sufficiency of the international GMAT assessment program are analyzed.

**Key words:** international production programs, GMAT, logical thinking, logical reasoning, problems of solving critical problems, problems of data sufficiency.

Mamlakatimizning XXI asrdagi muvaffaqiyatli rivojlanishi zamon talablaridan har bir fanni talab qiladigan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun yetuk hayotiy ko'nikmali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni qondirish tomonidan qaralganda, hammasi yuqori sifatli mantiqiy tafakkur kompetentli o'qituvchilar ta'limiga bog'liq. "Matematikani o'rganish ta'limda tizimli rol o'ynaydi, insonning kognitiv qobiliyatlarini, shu jumladan mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi..." [1]. Shuni inobatga olgan holda, ta'limning ustuvor yo'nalishi - o'rganishga, o'qituvchilarning o'z ustida ishlash hamda o'z-o'zini rivojlantirishga va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga qodir bo'lgan o'qituvchilarning rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishdir.

Matematik masalalarni yechish jarayonida maktab o'quvchilarida fikrlash uslubi shakllanadi va bunda ular fikrlashning ma'lum sxemasiga amal qilishni, tarkibiy qismlarga aniq bo'linish va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar. simvolizmning to'g'riligini aniqlaydilar. Nostandart vazifalarni hal qilish bevosita shaxsning ijodkorligi bilan bog'liq, bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quv faoliyatining samaradorligi bunga bog'liq. Matematik qobiliyat - bu qizg'in va yaxshi tashkil etilgan ish. Muammolarni yechish qobiliyati

matematikani o'rganishning asosiy vositasidir. Aynan shu masala yuzasidan muhtaram Prezidentimizning 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli Prezident Farmoniga ko'ra, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab umumta'lim fanlar bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama to'lanishi belgilangan. Ushbu maqolada xalqaro sertifikat beruvchi Graduate Management Admission Test (GMAT) - kompyuterga moslashgan testdagi topshiriqlarni tahlil qilamiz. GMAT yozma ingliz tilidagi ma'lum tahliliy, yozish, miqdoriy, og'zaki va o'qish ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan. MBA dasturi kabi magistrlar bilim darajasini baholash va tahlil qilish dasturi. Bu ma'lum bir grammatikani bilishni va muayyan algebra, geometriya va arifmetikani bilishni talab qiladi. Sinov egasi bo'lgan Bitiruvchilarni boshqarish kengashi (GMAC) ma'lumotlariga ko'ra, GMAT tahliliy yozish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholaydi, shuningdek, ma'lumotlarning yetariligi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini hisobga oladi, bu esa o'rta maktabni va oliy ta'limni bitirayotgan bitiruvchilar uchun juda muhimdir. Yiliga besh martagacha, lekin jami sakkiz martadan ko'p bo'lmagan miqdorda olinishi mumkin. Urinishlar orasidagi interval kamida 16 kun bo'lishi kerak.

Dunyo bo'ylab taxminan 2300 dan ortiq biznes maktablarining 7000 dan ortiq dasturlari GMATni o'z dasturlari uchun tanlov mezonlarining bir qismi sifatida qabul qiladi. Biznes maktablari testdan MBA, Buxgalteriya magistri, Moliya magistri dasturlari va boshqalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli magistratura boshqaruv dasturlariga kirish mezoni sifatida foydalanadi. GMAT onlayn va dunyoning 114 mamlakatidagi standartlashtirilgan test markazlarida o'tkaziladi. GMAC ma'lumotlariga ko'ra, u imtihon biznes maktabi dasturlarida muvaffaqiyatni bashorat qilishini statistik tekshirish uchun doimiy ravishda haqiqiylik tadqiqotlarini olib boradi.

Sinov markazida test tanlashning uchta variant mavjud:

1) Analitik yozishni baholash, integratsiyalashgan fikrlash, miqdoriy, og'zaki (asl tartib).

2) Og'zaki, miqdoriy, integratsiyalashgan fikrlash, analitik yozishni baholash

3) Miqdoriy, og'zaki, integratsiyalashgan fikrlash, analitik yozishni baholash

2018-yil aprel oyida GMAC sinovni rasman yarim soatga qisqartirdi, og'zaki va miqdoriy bo'limlarni har biri 75 daqiqadan mos ravishda 65 va 62 daqiqaga qisqartirdi va ba'zi ko'rsatmalar oyna-panellarini qisqartirdi.

Analitik yozishni baholash (AWA)

Analitik yozishni 30 daqiqalik yozish vazifasidan iborat - argumentni tahlil qilish. Berilgan argumentning asosini tahlil qilish va bu dalilni tanqidiy yozishni bilish muhimdir. Inshoga ikkita mustaqil reyting beriladi va test topshiruvchining AWA ballini aniqlash uchun bu reytinglar birgalikda o'rtacha hisoblanadi. Bir baho kompyuterlashtirilgan o'qish bahosi orqali beriladi, ikkinchisi esa GMACdagi shaxs tomonidan beriladi, u kompyuterlashtirilgan ball nima ekanligini bilmasdan inshoni o'zi o'qiydi va baholaydi. Avtomatlashtirilgan esse-balling mexanizmi 50 dan ortiq tarkibiy va lingvistik xususiyatlarni, jumladan, fikrlarni tashkil etish, sintaktik xilma-xillik va mavzu tahlilini baholaydigan elektron tizimdir. Agar ikkita reyting bir necha ballga farq qilsa, tafovutni bartaraf etish va yakuniy ballni aniqlash uchun ekspert o'qituvchi tomonidan yana bir baho talab qilinadi.

Analitik yozishni baholash yarim ball oraliqda 0 (minimal) dan 6 (maksimal) gacha bo'lgan shakl bo'yicha baholanadi. 0 ball javobning bema'no, mavzudan tashqari yoki butunlay bo'sh ekanligini ko'rsatadi.

Integratsiyalashgan fikrlash bo'limi

Integratsiyalashgan mulohaza yuritish (IR) 2012-yil iyun oyida kiritilgan bo'lim bo'lib, test topshiruvchining bir nechta manbalardan bir nechta formatlarda taqdim etilgan ma'lumotlarni baholash qobiliyatini o'lchash uchun mo'ljallangan. Integratsiyalashgan fikrlash bo'limi tomonidan sinovdan o'tkazilayotgan ko'nikmalar butun dunyo bo'ylab 740 menejment fakulteti ishtirokida o'tkazilgan so'rovda hozirgi talabalar uchun muhim ekanligi aniqlandi. Integratsiyalashgan fikrlash bo'limi to'rt xil formatdagi 12 savoldan (ko'pincha bir nechta

qismlardan iborat): grafik talqin, ikki qisimli tahlil, jadval tahlili va ko'p manbali fikrlash. Integratsiyalashgan fikrlash ballari 1 dan 8 gacha. Analitik yozishni baholash (AWA) singari, bu bo'lim ham miqdoriy va og'zaki bo'limdan alohida baholanadi. IR va AWA bo'limlaridagi ishlash GMAT umumiy balliga hissa qo'shmaydi.

Integratsiyalashgan fikrlash bo'limi to'rtta savol turini o'z ichiga oladi: jadval tahlili, grafik talqini, ko'p manbali fikrlash va ikki qisimli tahlil. Jadvalni tahlil qilish bo'limida test topshiruvchilarga tahlil qilinishi kerak bo'lgan elektron jadvalga o'xshash saralanadigan ma'lumotlar jadvali taqdim etiladi. Har bir savolda qarama-qarshi javob variantlari (masalan, to'g'ri/noto'g'ri, ha/yo'q) bo'lgan bir nechta bayonotlar bo'ladi va test topshiruvchilar to'g'ri variantni tanlaydilar. Grafik talqini bo'yicha savollar test topshiruvchilardan grafik yoki grafik tasvirni sharhlashni so'raydi. Har bir savolda ochiluvchi menyular bilan bo'sh joyni to'ldirish bayonotlari ya'ni izoh yozish uchun matnga ajratilgan joylar mavjud; imtihon topshiruvchilar bayonotlarni to'g'ri ko'rsatadigan variantlarni tanlashlari kerak. Ko'p manbali fikrlash savollariga yorliqli sahifalarda taqdim etilgan ikki-uch ma'lumot manbasi hamroh bo'ladi. Test topshiruvchilar yorliqlarni bosadi va an'anaviy ko'p tanlovli yoki qarama-qarshi javobli (masalan, ha/yo'q, to'g'ri/noto'g'ri) savollarga javob berish uchun matn, diagramma va jadvallar birikmasi bo'lishi mumkin bo'lgan barcha tegishli ma'lumotlarni tekshiradi. Ikki qisimli tahlil savollari yechim uchun ikkita komponentni o'z ichiga oladi. Mumkin bo'lgan javoblar har bir komponent uchun ustun va mumkin bo'lgan variantlarga ega satrlar bilan jadval formatida berilgan. Test topshiruvchilar har bir ustun uchun bitta javobni tanlashlari kerak.

### **Miqdoriy bo'lim**

GMATning miqdorlar bilan ishlash bo'limi miqdoriy fikrlash, masalalarni hal qilish, grafik ma'lumotlarni sharhlash va muammoda berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va undan foydalanish qobiliyatini o'lchashga intiladi. Savollar ma'lum algebra, geometriya va arifmetika bo'yicha bilimlarni talab qiladi. Miqdoriy savollarning ikki turi mavjud: muammoni hal qilish va ma'lumotlarning yetarliligi. GMATning miqdorlar bilan ishlash bo'limida kalkulyatorlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Test topshiruvchilar matematika ishlarini test markazida ularga beriladigan marker ruchka va laminatlangan qog'oz yordamida qo'lda bajarishlari kerak. Ballar 0 dan 60 gacha, lekin GMAC faqat 6 dan 51 gacha ball haqida xabar beradi.

Masala yechish uchun savollar miqdoriy fikr yuritish va miqdoriy masalalarni yechish qobiliyatini tekshirish uchun mo'ljallangan. Ma'lumotlarning yetarliligi - bu GMATga xos bo'lgan savol turi bo'lib, miqdoriy muammoni tushunish va tahlil qilish, qaysi ma'lumotlar tegishli yoki ahamiyatsiz ekanligini aniqlash va muammoni hal qilish uchun qaysi nuqtada yetarli ma'lumot mavjudligini aniqlash yoki mavjud haqiqatni tan olish qobiliyatini o'lchash uchun mo'ljallangan. muayyan muammoni hal qilish uchun yetarli ma'lumot berilmagan.

### **Og'zaki bo'lim**

GMAT imtihonining og'zaki bo'limi quyidagi savol turlarini o'z ichiga oladi: o'qishni tushunish, tanqidiy fikrlash va jummalarni tuzatish. Har bir savol turi tanlash uchun beshta javob variantini beradi. Og'zaki ballar 0 dan 60 gacha; ammo 9 dan past yoki 44 dan yuqori ball kam uchraydi.

GMAC ma'lumotlariga ko'ra, o'qishni tushunish uchun savol turi ma'lumotni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini tekshiradi. O'qishni tushunish uchun bo'laklar birdan bir necha paragrafgacha bo'lishi mumkin. GMAC ma'lumotlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash savol turi fikrlash qobiliyatlarini baholaydi. GMAC ma'lumotlariga ko'ra, jummalarni tuzatish uchun savol turi grammatika va samarali muloqot qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadi. Mavjud javob variantlari orasidan imtihon topshiruvchi jumlaning maqsadini eng yaxshi ifodalovchi eng samarali konstruksiyani tanlashi kerak.

### **Hisoblash (quantitative)**

GMAT umumiy balli 200 dan 800 gacha bo'lib, miqdoriy va og'zaki bo'limlar bo'yicha ishlashni birgalikda o'lchaydi (AWA va IR bo'limlaridagi ko'rsatkichlar umumiy ballga hisoblanmaydi, bu bo'limlar alohida baholanadi). Ballar 10 lik bosqichlarda beriladi (masalan, 540, 550, 560, 570 va boshqalar).

Ballar taqsimoti standart og'ishi taxminan 120 ball bo'lgan qo'ng'iroq chizig'iga to'g'ri keladi, ya'ni imtihon oluvchilarning taxminan 68% 430 dan 670 gacha ball to'playdi.

Yakuniy ball faqat imtihon oluvchi javob bergan oxirgi savolga asoslanmaydi (ya'ni, savollarning kompyuterga moslashtirilgan taqdimoti orqali erishilgan savollarning qiyinlik darajasi). Ballarni yaratishda foydalaniladigan algoritim bundan ham murakkabroq. Imtihon oluvchi xato qilishi va noto'g'ri javob berishi mumkin va kompyuter bu elementni anomaliya deb tan oladi. Agar imtihon oluvchi birinchi savolni o'tkazib yuborsa, yakuniy ball diapazonning pastki yarmiga tushishi shart emas[7].

Imtihon yakunida imtihon topshiruvchiga to'plangan GMAT ballining norasmiy ko'rinishi ko'rsatiladi, so'ngra test markazida ballni saqlab qolish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ikki daqiqa vaqt beriladi.

GMAT miqdorlar bilan ishlash bo'limidagi ma'lumotlar yetariligi masalalari to'xtalib o'tamiz:

Masala yechish uchun savollar miqdoriy fikr yuritish va miqdoriy masalalarni yechish qobiliyatini tekshirish uchun mo'ljallangan. Ma'lumotlarning yetariligi - GMATga xos bo'lgan savol turi bo'lib, miqdoriy muammoni tushunish va tahlil qilish, qaysi ma'lumotlar tegishli yoki ahamiyatsiz ekanligini aniqlash va muammoni hal qilish uchun qaysi nuqtada yetarli ma'lumot mavjudligini aniqlash yoki mavjud haqiqatni tan olish qobiliyatini o'lchash uchun mo'ljallangan. muayyan muammoni hal qilish uchun yetarli ma'lumot berilmagan. Shu turdagi topshiriqlardan misol sifatida quyidagi masalani tahlil qilamiz:

*1-misol.  $5x+4=9$  bo'ladimi?*

(1)  $2x+1=3$

(2)  $(x-1)(x-2)=0$

A) (1) tasdiq har doim yetarli(savolga javob berish uchun), ammo (2) tasdiq har doim yetarli emas;

B) (2) tasdiq har doim yetarli, ammo (1) tasdiq har doim yetarli emas;

C) (1) va (2) tasdiqlar birgalikda yetarli, ammo alohida alohida yetarli emas;

D) Har bir tasdiq alohida-alohida yetarli;

E) (1) va (2) tasdiqlar birgalikda olinganda ham, alohida olinganda ham yetarli emas.

Javob: A) (1) tasdiq har doim yetarli, ammo (2) tasdiq har doim yetarli emas

Berilgan masalani tahlil qilsak (1) tasdiqdagi ma'lumotlar bilan 1-misoldagi savolga javob berish mumkin chunki  $x=1$   $5x+4$  ning qiymati 9 ga teng bo'ladi.

*2-misol.  $5x+4=9$  bo'ladimi?*

(1)  $(x-1)(x-2)=0$

(2)  $2x+1=7$

A) (1) tasdiq har doim yetarli, ammo (2) tasdiq har doim yetarli emas;

B) (2) tasdiq har doim yetarli, ammo (1) tasdiq har doim yetarli emas;

C) (1) va (2) tasdiqlar birgalikda yetarli, ammo alohida alohida yetarli emas;

D) Har bir tasdiq alohida-alohida yetarli;

E) (1) va (2) tasdiqlar birgalikda olinganda ham, alohida olinganda ham yetarli emas.

Javob: B) (2) tasdiq har doim yetarli, ammo (1) tasdiq har doim yetarli emas;

2-misolni tahlil qilsak (1) tasdiqdagi ma'lumotlar bilan 1-misoldagi savolga javob berish mumkin bo'lmaydi chunki  $x=1$  da  $5x+4$  ning qiymati 9 ga teng lekin  $x=2$  da  $5x+4$  ning qiymati 9 ga teng bo'lmaydi demak har doim bir xil javob berib bo'lmaydi (2) tasdiqdagi ma'lumotlar bilan 2-misoldagi savolga javob berish mumkin chunki  $x=3,5$  qiymatni  $5x+4$  ning ifodaga qo'ysak 9 ga teng bo'lmaydi deb aniq javob berishimiz mumkin.

Bu turdagi topshiriqlarni savollarga javob berishda savol o'quvchining analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, reflektiv va evristik ko'rinishdagi matematik tafakkur yurita olish va shu bilan birga shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini baholaydi.

**Xulosa.** Mantiqiy fikrlash fikr yuritish madaniyatini o'stirishga, muammo yechish uchun zarur bo'lgan bilimlar (ta'rif, qoida, hukm, dalil, qonun) ishga solishga, to'g'ri fikr

yuritishga, bahs munozara paytida o'zining va boshqalarning fikr – mulohazalariga tanqidiy munosabatda bo'lishga, tezkor javoblikka, suhbatdoshning fikr – mulohazalaridagi xatolarni anglashga yordam beradi. Shuningdek haqiqatni aniqlash, uni yoqlab chiqish, asoslash uchun mantiqiy qoidalardan foydalana bilish, o'z fikrini lo'nda va ishonarli qilib bayon etish ko'nikmalarini hosil qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son
2. Методика преподавания математики в средней школе: Общая методика. Учеб. пособие для студентов пед. «Математика» и «Физика» / А. Я. Блох, Е. С. Канин, Н. Г. Килина и др.; Сост. Р. С. Черкасов, А. А. Столяр. — М.: Просвещение, 1985. — 336 с.
3. Механизм творчества решения нестандартных задач [Электронный ресурс]: учебное пособие / В. В. Дрозина, В. Л. Дильман. — 2-е изд. (эл.). — М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2012. — 255с.: ил.— (Математическое мышление).
4. Фридман Л. М., Турецкий Е. Н. Как научиться решать задачи. Книга для учащихся старших классов средней школы. — 3-е изд., доп. — М.: Просвещение, 1989. — 192 с.
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda nostandart vazifalarning roli Fazilat Ikrom qizi To'rayeva - "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 February 2022 / Volume 3 Issue 2
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/GMAT> wikipediya materilalar to'plami
7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Graduate\\_Management\\_Admission\\_Test](https://en.wikipedia.org/wiki/Graduate_Management_Admission_Test)
8. <https://www.mba.com/explore-programs?nav=header> master of business administration (Biznes boshqaruvi magistri)
9. A. Satvoldiyev. "Mantiqiy fikrlash va matematika" Science and innovation international scientific journal Volume 1 Issue 7 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJALARINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURI**

*Samidjonova Muxabbat Xolikjonovna  
Namangan viloyati PYMO`MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim meodikalari kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS – xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalarini rivojlantirish haqida so'z yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** PIRLS, ta'lim yutuqlarini baholash, konseptual yondashuv, o'lchov mezonlari, bilim, ko'nikma va malakani baholash, savodxonlik va kompetensiyani baholash, elektron va interfaol topshiriqlar.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о развитии навыков чтения и понимания у учащихся начальных классов на основе международной программы оценивания PIRLS.

**Ключевые слова:** PIRLS, оценка образовательных достижений, концептуальный подход, критерии измерения, оценка знаний, умений и компетенций, оценка грамотности и компетентности, электронные и интерактивные задания.

**Abstract:** This article talks about the development of reading and comprehension levels of primary school students based on PIRLS - international assessment program.

**Key words:** PIRLS, educational achievement assessment, conceptual approach, measurement criteria, knowledge, skills and competence assessment, literacy and competency assessment, electronic and interactive assignments.

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim – bola hayotida muhim ahamiyatli, tubdan yangi bosqichdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim muassasasida tizimli bilim ola boshlaydi, uning tevarak olam bilan o'zaro munosabatlashuv sohasi kengayadi. Boshlang'ich ta'lim ta'limining keyingi barcha bosqichlaridan uchun asos hisoblanadi. Shunga bog'liq ravishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni egallashi, balki umume'tirof qilingan xalqaro ta'lim talablar va standartlarga muvofiq kasbiy faoliyatning muayyan usullari to'plamini ham chuqur o'zlashtirishi lozim.

Bugungi kunda, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. "PIRLS tadqiqot dasturi boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining (4 sinf) kitobxonlik darajasini baholaydi. Ya'ni o'quvchining matnni tushunishi va o'qish sifatini tahlilidir" [1]. PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. O'quvchilarga aynan PIRLS sinovlariga va muayyan dasturda yaxshi natija ko'rsatishga emas, balki, ularni maktabdan keyingi hayotga tayyorlanayotganini tushuntirishga e'tibor qaratish, o'qituvchilik faoliyatiga aniq mezonlar asosida tanlab olish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik jarayonida ta'lim tizimining kuchsiz tomonlariga e'tibor qaratib, kuchli tomonlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik hamda uni qadrlashi lozimligi hamda boshqa fikrlar bildirilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish darajasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Matnni o'qish va tushunishga o'quvchilar 1-sinf dan boshlab o'rgatiladi. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak degan savol tug'ilishi tabiiy. Boshlang'ich sinf darsliklari va internetdan o'quvchining yoshiga mos kichik hikoya va ertaklarni, she'rlarni yoki axborot matnlarini olib, dars jarayoni vaqti o'qish darslarida hamda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda matnni ifodali o'qish, matnning mazmunini tushunish malakalari shakllantirilib boriladi. Ayrim matnlar uyga vazifa qilib ham berilishi mumkin. Berilgan topshiriq matnlari asosida keyingi dars mashg'ulotida savol-javob va tahlillar o'tkaziladi. Matnni o'qigach, o'quvchilar matn mazmunini tushunish, xulosalar chiqarish, matn mazmunini tushuntirib berish, ma'lumotlarni izohlash, tahlil qilish, matn mazmunini baholash, matnda berilgan so'zlarni tahlil qilish, matn qurilishi yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish ko'nikmalariga ko'ra baholanadi.

O'qish savodxonligi fanida matnni o'qish va uning asosida mashq va topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchida o'qish ko'nikmasi rivojlantiriladi hamda tilga oid ko'nikmalar shakllantirib boriladi. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Matnlar va she'rlar bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy va informativ, ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. Darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan.

Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan "O'qish savodxonligi" darsliklarida ayrim mavzularda loyihalar ishlab chiqish topshiriqlari ham berilgan. Masalan "Ona tabiat" haqidagi matnni olaylik. Unda o'quvchiga tabiatni asrash uchun nimalar qilish mumkin? Isni nimadan boshlaysiz? Hamda bu ishlarni qilganingizdan so'ng nimalar o'zgaradi degan savollar hamda turli rasmlar berilgan. O'quvchilar o'z oila a'zolari yordamida loyiha tuzadilar va taqdimot qiladilar. Bu orqali o'quvchilar o'z fikrlarini taqdi etishni o'rganib boradilar. Bundan tashqari darslikda yana "Bahor" she'ri berilgan. [2.] O'quvchilar she'ri matnini ifodali o'qigach, she'rdagi bahor tasvirini ifodalovchi misralarning mazmunini o'z



soʻzlari bilan gapirib berishlari lozim. Oʻquvchiga sheʻrdan kelib chiqib turli topshiriqlar berilgan. Rustamning boshi qotdi. U sheʻrdagi ayrim jummalarga tushunmadi siz buni tushundingizmi kabi. Masalan, Koʻkda quyosh gulxan yoqdi

Soylar yana toʻlib oqdi.

Yoki, Chiqib xazon koʻrpidan

Boychechaklar kulib boqdi.

Oʻylab koʻringchi, quyoshning qoʻli boʻlmasa qanday qilib gulxan yoqadi?

Boychechaklar ham kuladimi?

Oʻz mustaqil fikringizni yozing.

Bu kabi topshiriqlarning barchasi boshlangʻich sif oʻquvchilarini PIRLS -xalqaro tadqiqotiga tayyorlab boradi. Albatta, maqsadga erishish uchun esa oʻqituvchidan biroz ijodiy yondashuv kerak boʻladi. Shuningdek, oʻquvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib mazkur hikoyalar asosida ishlangan multfilm, lavhalar koʻrsatish hamda oʻquvchilar ijrosida sahna koʻrinishlarini namoyish etish orqali ham oʻquvchining kitob oʻqishga boʻlgan ishtiyoqini oshirish mumkin. Bolaga bola tilida tushuntirish metodini tavsiya etish ham mumkin. Bunda isdeʻdodli oʻquvchilarni oʻqituvchi vazifasiga tayinlab, boshqa oʻquvchilarga rivoyat mazmuni tushuntiriladi, asardan parcha olinib, sahna koʻrinishlari ijro etiladi. Bu usuldan jahon miqyosida keng foydalaniladi. Oʻquvchi matn mazmunini tushunsa, sheʻriy va nasriy asarlarni janr xususiyatidan kelib chiqqan holda ifodali oʻqiy oladi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida matnni oʻqish va tushunish malakasini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dars jarayonida oʻquvchilar nutqining aniq va ravon boʻlishi, grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilgan boʻlishi, adabiy talaffuz qoidalariga boʻysunishiga eʻtibor qaratilishi zarur. Taʻlim yutuqlarini baholashdagi konseptual yondashuv, oʻlchov mezonlarini oʻziga xos tomonlari va xususiyatlarini hisobga olish, bilim, koʻnikma va malakani baholashdan savodxonlik va kompetensiyani baholashga oʻtish, baholash va uning mezonlarining konseptual chegaralarini oʻzgartirish, maʼnoli matnga ega hamda strukturali topshiriqlar miqdorini oshirish, elektron va interfaol topshiriqlar asosida texnologiyani oʻzgartirish, taʻlimdagi ustuvorlikni oʻzgartirib borish, savodxonlikni rivojlantirishga oʻtish kabi masalalar boshlangʻich taʻlim sifatini oshirishga qaratilgan.

#### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Xalq taʻlimi tizimida taʻlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. “ Oʻqish savodxonligi” 1-4-sinf darsliklari “Novda” nashriyoti 2023-yil

## **BOSHLANGʻICH TAʻLIMDA PIRLS BAHOLASH DASTURI VA UNING AHAMIYATI**

*Raximboyeva Gulsanam Gulmirza qizi  
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti  
boshlangʻich taʻlim fakulteti talabasi  
Ilmiy rahbar: Artikova Nargiz Shuxratovna  
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Boshlangʻich taʻlim nazariyasi kafedrasida oʻqituvchisi*

**Annotatsiya:** Oʻzbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umumeʻtirof etilishi yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda taʻlim olishini taʻminlash hamda olgan bilimlarini amalda qoʻllay olishi muhim ahamiyatga egadir.

**Kalit soʻzlar:** tadqiqot, PIRLS, oʻqish va tushunish, baholash, oʻquvchi, oʻqituvchi, savodxonlik, soʻrovnoma, kitob, raqamli qurilma, boshlangʻich taʻlim, ota-ona.

**Abstract:** Uzbekistan's participation in these researches and its results are widely recognized in the world community. It is important to ensure that the young generation can learn

new innovative methods based on international experiences and to be able to apply the acquired knowledge in practice.

**Keywords:** research, PIRLS, reading and comprehension, assessment, learner, teacher, literacy, survey, book, digital device, elementary education, parent.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimida turlicha yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim-tarbiya tizimiga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Buning sababi farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'an yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodlarini, intellektual salohiyatlarini yuzaga chiqarish, vatanga sadoqatli va fidoiy farzandlar o'stirishdan iborat.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazuvchi va islohotlarni amalga oshirishda yordam beruvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvir yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilindi.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarining 4.4 bandida Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bandidan biri “umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika amda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish” bo'lib, u jahonning ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalariga mos keladi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, ushbu tizimniqiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha

Zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta'limini boshqarish, tizimni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5538-sonli farmoni 5-bandida “o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda (PISA,TIMSS,PIRLS,va boshqalar) umumta'lim muassasalari o'quvchilarning ishtiroki tashkil etilishi belgilab qo'yilgan”.

PIRLS (Progress in International Reading an Literacy Study)-boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarning matnini o'qish va tushunish darajasini baholaydi. Mamlakatimiz yosh o'quvchilari PIRLS-2021 xalqaro baholash dasturida ishtirok etdi. 2021-yil ushbu baholash baholash dasturida 70dan ortiq davlat ishtirok etdi. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillard o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Ushbu baholash dasturi 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Bo'ston kollejidagi TIMSSva PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash hamma o'quvchilardan emas, balki tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishni baholashda asosan ikkita maqsadga ya'ni “badiiy tajriba orttirish”, “axboritni olish va undan foydalanish”ga qaratilgan. Tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va uni tahlil qilish uchun anketa so'rovnomalar orqali o'quvchining ma'lumotlari, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga , o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar haqida ma'lumotlar to'plashimiz mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra hozirgi davrda Rossiya va Singapur eng yuqori o'rinda turubdi. Bizning boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz ham bunday natijalarga erisha oladi.

Buning uchun avvalo, oilada kitobxonlikni targ'ib qilinsa, har bir uyda shaxsiy kutubxona bo'lsa, raqamli qurilmalar mavjud bo'lsa va ulardan faqatgina ilm olish uchungina foydalanilsa, ota-onalar ishlaridan farzandlari uchun ko'proq vaqt ajratib, farzandining nimalar bilan bandligiga qiziqsa, darslarini qilishga yordam berib, doimiy kuzatib borsa, 7yoshgacha bo'lgan farzandlarini, albatta, maktabgacha ta'lim muassasalari bilan band qilsava farzandlarning bo'sh vaqtlarini samarali va qiziqarli narsalar band qilishi zarur.

Oila muhiti qanday bo'lsa bola shu muhit asosida katta bo'ladi. Oiladan keyingi o'rinda, albatta, maktab turadi. Bolalarning xalqaro dasturlarda yaxshi natijalarga erishishi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham ularga sifatli bilim berishi, har o'quvchisi bilan alohida shug'ullanib ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda kasb yo'naltirishi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarini ham yaxshi o'qiydigan o'quvchilar qatoriga olib chiqishi kerak. Oila bilan maktab hamkorlikda ishlasa katta natijalarga erishiladi.

Bu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat bnuvuzini mustahkamlash bilan birga o'quvchilarning bilimni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b
2. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). PIRLS TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHDA “ORGANAYZER” METODIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1471-1475.
3. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). SHAXS KAMOLOTI VA FAOLIYAT (MULOQOT), ULARNI BOSHQARISH MA'RIFIY PEDAGOGIC MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 81-88.
4. Nargiz Shuxratovna, A. . (2022). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTUR TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(4), 1592–1594. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/2071>
5. Артикова Н. Ш. Бошланғич синф ўқувчиларини халқаро тадқиқотларда ўқиш саводхонлигини баҳолаш бўйча PIRLS дастурига //Таълимдаги инновациялар ва ислохотлар контекстида замонавий кластер тизими. – 2019. – Т. 2. – №. 1. – С. 53-55.

### **BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI VA AFZALLIKLARI**

*Jabbarova Zuhra Omondullayevna,  
Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga  
o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda xalqaro tadqiqot materiallaridan foydalanishning afzalliklari, mamlakatimiz ilk marta ishtirok etgan PIRLS xalqaro baholash tadqiqotining ahamiyati, mazkur materiallardan o'qish savodxonligi darslarida foydalanish natijasida erishilgan natijalar tahlili haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье размышляются преимущества использования материалов международных исследований в формировании и развитии читательской грамотности учащихся начальных классов, значение международного оценочного исследования PIRLS, в котором наша страна участвовала впервые, а также анализ полученных результатов. Достигнуты в результате использования этих материалов на занятиях по чтению.

**Annotation:** This article reflects on the advantages of using international research materials in the formation and development of reading literacy of primary school students, the

significance of the international assessment study PIRLS, in which our country participated for the first time, as well as an analysis of the results obtained. Achieved through the use of these materials in reading lessons.

Bugungi zamonaviy va tezkor taraqqiyot sari initilayotgan har bir jamiyatda har bir insonning kasbiy faoliyati va hayoti davomida texnogen komponentining rivoj topishi kuzatilmoqda. Shu boisdan ham nafaqat kelajak yillardagi yetuk mutaxassislarni, balki hozirgi vaqtdagi umumiy o'rta ta'limda tahsil olayotgan har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini bir necha fanlar bo'yicha o'tkir savodxon etib tayyorlashning ahamiyati yuksalib bormoqda. Shundan kelib chiqib, respublikaning Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida o'qitishning maqsadlarini kuchaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina davlatlari ta'lim tizimida o'z o'rnini mustahkam egallab kelayotgan xalqaro datsurlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual-ma'naviy darajasini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa, milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash bilan birga, ularning kreativligini va komponentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ylashga, fikrlay olish doirasini kengaytirishga, ya'ni intellektual-ma'naviy salohiyatini rivoj toptirishga yo'naltirilgan ekan, boshlang'ich sinflarda xalqaro dasturni kengroq ko'lamda tadbiq etish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Buni namuna tariqasida xalqaro baholash dasturining PIRLS dasturi bo'yicha qaralsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual-ma'naviy darajasini rivoj toptirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi mazkur xalqaro baholash dasturi (PIRSL)ni amaliyotda qo'llash va yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omili deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi[1].

O'zbekistonning ta'lim sifatini baholovchi xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda ishtirok etishi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar mamlakatimizda ta'limning sifati va uning jahon ta'lim tizimidagi nisbiy mavqeini baholashga imkon beradi. Baholash tadqiqotida ishtiroketuvchi turli mamlakatlarning o'quv dasturlari, darsliklari va o'quvchilarning o'qishda erishgan natijalariga qo'yiladigan talablariga oid boy tahliliy materiallar mazkur mamlakat mutaxassislariga ta'lim mazmunini isloh qilish va ta'lim standartlarini yaratish borasida asosli qarorlar qabul qilishga yo'l ochadi.

Dunyoning yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik baholash texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasida baholashning milliy tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash va 2030-yilga borib kuchli 30 talik davlatlar qatoriga kirishga erishish maqsadli yo'nalish etib belgilangan [2].

*Umumiy ta'lim sifatini xalqaro monitoring qilish tizimida ishtirok etishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:*

- o'tkazilgan tadqiqotlarning yuqori ilmiy va texnik sifati tufayli ta'lim tizimini isloh qilish uchun xalqaro tadqiqotlar natijalaridan foydalanish;
- boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash orqali ta'lim sifatini baholash imkoniyati;
- ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlar sifatini takomillashtirish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida yangi metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish.

*O'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra har bir mamlakat quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:*

- xalqaro miqyosda mamlakatning o'rtacha balli;  
- alohida guruhlar (gender farqlar, o'quv fani bo'limlari, o'quv faoliyati turlari va b.) bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar;

- o'quvchilarning o'qishda erishgan natijalari darajalari;  
- mamlakatda ta'limning o'zgarish tendensiyalari [3].  
- Ta'lim sifatini baholash bo'yicha asosiy xalqaro tadqiqotlar OECD Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Co-operation and Development) va IEA Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan olib boriladi.

- Umumiy o'rta ta'lim sifati bo'yicha uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqot – PISA, TIMSS va PIRLS bir-birini to'ldiradi. Ushbu uchta tadqiqotni bir vaqtning o'zida o'tkazish ta'lim tizimi haqida to'liqroq ma'lumot beradi va uning turli tomonlarini baholaydi. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlari natijalarini taqqoslashda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi va umumiy ta'lim sifatini xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim ustuvorliklari nuqtai nazaridan baholaydi. Quyida boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS xalqaro dasturini o'qish savodxonligi darslariga tatbiq etish usullarini ko'rib chiqamiz.

- PIRLS – matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro loyihasi turli mamlakatlardagi boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish sifatini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotlar har besh yilda bir marta o'tkaziladi, 2001- yildan boshlab esa IEA shafeligida amalga oshirib kelinmoqda. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Boston Chestnut Hill kollejiga (Massachusetts, AQSH) yuklatilgan. 2021- yilda IEA tomonidan o'tkazilgan tadqiqot PIRLS dasturining beshinchi siklidir. 2001-yildan beri PIRLS har besh yilda to'rtinchi sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Innovatsion onlayn o'qish ma'lumotlarini baholash ePIRLS tizimi 2016- yilda joriy etilgan.

- O'qish savodxonligi akademik muvaffaqiyatning asosidir va PIRLS yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan strategiyalarning o'zlashtirishga qay darajada ta'sir qilishini o'rganish uchun qimmatli vositadir. PIRLS baholash dasturi o'qishning asosiy maqsadlari – badiiy o'qishda tajriba orttirish, ma'lumotga ega bo'lish va undan foydalanish hamda internetda ma'lumot qidirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli tizimga asoslangan. 2021-yilning 5-14-aprel kunlari mamlakatimizda 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha ilk xalqaro tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5948 nafar 4-sinf o'quvchilari hamda ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etdi. 2023-yil 16-mayda Boston kolleji va IEA qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi PIRLSning 2021-yilgi xalqaro hisoboti natijalarini ommaga e'lon qildi.

- Tadqiqot doirasida 4-sinfni tamomlayotgan o'quvchilarning o'qish sifati sinovdan o'tkaziladi, chunki mazkur to'rtinchi yil bolalar rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi – bu vaqtga kelib o'quvchilar o'qish savodxonligini shu darajada egallashi kerakki, bu malaka ta'lim olishning keyingi bosqichi uchun asosiy vositaga aylanishi zarur.

- PIRLS tadqiqotlari o'quvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlari paytida va maktabdan tashqarida eng ko'p ishlatiladigan o'qishning ikki turini baholaydi:

➤ adabiy o'qish borasida tajriba orttirish maqsadida o'qish;

➤ ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish uchun o'qish. Tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot matnlarini o'qishda o'qish qobiliyatlari to'rt guruhda baholanadi:

✓ aniq shaklda berilgan ma'lumotlarni topish;

- ✓ xulosalarni shakllantirish;
- ✓ axborotni sharhlash va umumlashtirish;
- ✓ matnning mazmuni, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.
- ✓ 4-sinf o‘qish va savodxonlik darslarida tadqiqot materiallaridan muntazam

foydalanish natijasida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining 38 foizi nafaqat matndan ma’lumotni o‘qishni, balki ushbu ma’lumotni jiddiy aqliy qayta ishlashni talab qiladigan o‘ta murakkab darajadagi savollarga javob bera oladilar. Ular 800-1000 so‘zdan iborat matnlarni bemalol o‘qiydilar, mazmunini tushunadilar va sharhlay oladilar.

PIRLS xalqaro baholash mashqlaridan savodxonlik darslarida foydalanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnlarni o‘qish, bu matnlardan shaxsiy tajriba va bilimlarini oshirish maqsadida foydalanish borasida tayyorgarligi nisbatan past.

Xalqaro testning individual topshiriqlarini bajarish bosqichi tahlil qilinganda o‘quvchilar duch kelgan ba’zi qiyinchiliklar aniqlandi. Xususan, natijalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, har qanday ma’lumotni aniqlashtirish kerak bo‘lganda matnga murojaat qilish odatining shakllanmaganligi ikkita tipik muammoga olib keladi: birinchidan, o‘quvchilar matnda keltirilgan ma’lumotlarni va o‘zlarining shaxsiy tajribalari asosida egalik qiladigan ma’lumotlarni (taxminan 37%) yaxshi farqlamaydilar, ikkinchidan, matndagi ma’lumotlarni taxminan, noaniq o‘zlashtirish bilan cheklanadilar (taxminan 26%). Bolalarga savollarga javob berishda doimiy ravishda matnga murojaat qilish, topshiriqlar qanday shakllantirilganiga e’tibor qaratishni o‘rgatish juda muhim, chunki topshiriqlar deyarli har doim “Matnga tayanib...”, “Matnga asoslanib...”, “Matnda nima deyilgan...” shaklida beriladi.

4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlik ko‘rishda 3-mashq daftaridagi “Kichik loy bo‘lagi” matnidagi: Eski minoraning yuqori qismida ustaxona bor edi. Bu kulolchilik ustaxonasi bo‘lib, u yerda ko‘pgina rangli glazurlar, kulolchilik g‘ildiraklari, pishirish uchun pechka, quritish moslamasi va albatta loy bor edi. Deraza yonida og‘ir qopqoqli katta yog‘och sandiq turardi. Unda loy saqlanar edi. Quyi qavatning burchagida, eski loy bo‘lagi bor edi. U oxirgi marta qo‘lga olinib g‘ijimlanganligini zo‘rg‘a eslardi. Har kuni yog‘och qutining qopqog‘i ochilar edi. Qop yoki loy zuvalasini olish uchun qo‘llar cho‘zilar edi. Loy bo‘lagi ish bilan band bo‘lgan odamlarning quvnoq shovqinini eshitar edi. “Qachon mening navbatim keladi?” – degan savol uni qiziqtirardi. Har kuni qorong‘u qutida o‘tar va loy bo‘lagining umidi so‘ngan edi. Bir kuni ustaxonaga bir guruh bolalar jamoasi o‘z ustozini bilan kelib qolishdi. Ko‘plab qo‘llar qutiga uzatildi. Kichik loy bo‘lagimizga eng oxirida navbat yetdi, nihoyat u tashqariga chiqdi! “Bu menga katta imkoniyat!” – deb o‘yladi u, ko‘zlari nurdan qamashib. Bir bolakay loyni kulolchilik g‘ildiragiga qo‘ydi va uni bor kuchi bilan aylantirdi. “Bu zavqli!” – deb o‘yladi kichik loy bo‘lagi. Bolakay g‘ildirakni aylantirar ekan, loyni tepaga cho‘zishga urunib ko‘rdi. Loy bo‘lagi biror- bir buyumga aylanib qolishidan hayajonlanar edi. Lekin kosa yasashga urinishdan so‘ng bolakay to‘xtatdi. U loyni g‘ijimladi va uni yumaloq shaklga keltirdi.

Savollar:

1. Quyidagi gaplarni hikoyada sodir bo‘lgan voqelik ketma-ketligida raqamlab chiqing. 1-raqam siz uchun qo‘yilgan. “Qachon mening navbatim keladi?” Ko‘plab qo‘llar qutiga uzatildi.. Loy bo‘lagi biror- bir buyumga aylanib qolishidan hayajonlanar edi. Loy bo‘lagi qurib qoldi.

1. Loy bo‘lagi yog‘och qutida yotgan edi \_\_\_\_\_

2. Eski minora ustida qanday imorat bor edi \_\_\_\_\_

3. Nima uchun loy bo‘lagi yog‘och qutida uzoq vaqt davomida turgan edi? \_\_\_\_\_

4. Hikoya boshida loy bo‘lagi nimani orzu qilgan edi? \_\_\_\_\_

5. Nima uchun oxir oqibat loy bo'lagini yog'och qutidan olishdi?
  1. Qolgan barcha loy bo'laklari allaqachon ishlatilgan edi.
  2. Tepada, boshqa loy bo'laklarining ustida turgan edi.
  3. Bolakay ushbu loy bo'lagini oldi, chunki unga judayam yoqdi.
  4. O'qituvchi bolakayga ishlashi uchun unga ushbu loy bo'lagini olishni aytdi.
  6. Bolakay qaysi ishni e'tiborsizlik bilan bajardi?
    1. U loyni kulolchilik charxida qoldirdi.
    2. U charxni bor kuchi bilan qoldirdi.
    3. U loyni deraza yonida qoldirdi.
    4. U loyni g'ijimladi va urdi.
  7. Bolakay loy bo'lagini xavf ostida qoldirdi. Xavf nima edi? [4].

O'qish darsida o'tiladigan bir soat dars davomida o'quvchilarni matn bilan tanishtirish, uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, hikoyadan to'g'ri xulosa chiqarish va uni o'z hayotida tatbiq qilishga o'rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlarni bajarish katta foyda beradi. Bunday topshiriqlar o'quvchi bilim faoliyatini kengaytirib, tarbiyalanishiga yordam beradi.

Demak, o'qish darslarida o'quvchilar bilimni baholashda qo'llangan savol, test va topshiriqlar o'quvchining o'quv materialini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlab bilim ko'nikmalar va malakalarini shakllantiradi. Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yoshlarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta'lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko'rsatib beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Bolalar o'zining javobini batafsil yozishga qiynalishining sabablaridan birini shunday izohlash mumkinki, ya'ni bolalar javobning aniqligi va javobni imlo qoidalariga muvofiq shakllantirish o'rtasidagi muvozanatni saqlashda qiynaladilar, bunda javoblarni baholashda imlo xatolari hisobga olinmasligini yodda saqlash muhim.

O'quvchilar, shuningdek, "savol ichidagi savollar"ni o'z ichiga olgan ko'p qismli javobni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarishda qiynchilikka duch kelishadi, Bolalar topshiriqning barcha qismlarini bajarmaydilar, faqat topshiriqda berilgan savollarning bir qismiga javob beradilar.

Yana bir muammo javoblardagi ba'zi rasmiyatchilik bilan bog'liq: ba'zida bolalar savolni shunchaki ko'chirib yozadilar, ba'zida ikkita misol keltirilishi kerak bo'lgan topshiriqlarda ular birinchi misolni ikkinchi qatorga ham ko'chirib yozadilar, bunda ular vaqt yo'qotadilar va takrorlangan javob uchun ball olmaydilar [5].

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni ko'rib chiqib, natijalarni sarhisob qilinar ekan, shuni ta'kidlash joizki, dunyo mamlakatlarida maktab o'quvchilarining o'qishda erishadigan natijalariga qo'yiladigan talablar, o'quv dasturlari va darsliklarning boy tahliliy materiallari pedagogik baholash sifatining xalqaro standartlarini ommalashtirishga, monitoring tadqiqotlari madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda, kelajak davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

3. PIRLS tadqiqotida matnlar uchun belgilangan mezonlar va matn xaritasi (cyberleninka.ru)

4. X.Ahmedov “4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-mashq daftar” 09.06.2020-yil

5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. T., 2019-yil. “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.

## TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLAR

Axmadjonova Yorqinoy Tojimumurodovna  
Jizzax politexnika instituti

**Annotatsiya:** Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni ularda hosil qilishga yordam beradi. Bu dasturda qatnashish, testlarni o‘tkazish yoki o‘quvchilarni testga tayyorlash emas, bugungi kun talablariga javob beradigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni nazarda tutadi.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro tadqiqotlar, xalqaro baholash dasturi, ta’lim sifati, PIRLS, TIMSS, fanlararo integratsiya

**Kirish.** Ma'lumki, o‘zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

**Metodologiya.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishini talab etadi.

Sababi, XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma’lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma’lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma’lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi darajaga tushib qoldi. Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma’lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nim kosa”ni ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.[1] Chunki, ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari “XXI asr” ko‘nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarida ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O‘quvchida kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

Yuqoridagi talablar ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.



Shu maqsadda Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 8-dekabrida 997-sonli qarorni qabul qildi. [2]

Mazkur qarorda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholashni bugungi kun talablariga moslashtirish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarini pedagogik amaliyotda qo'llash innovatsion metod va texnologiyalarini ishlab chiqish, jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim muassasalari bilan ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish, ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, mazkur tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, olingan natijalarni boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim xizmatlari sifatini orttirish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifati ko'rsatkichi bo'yicha yuqori darajani egallash maqsadida o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi, strategik jihatdan juda ko'p va keng ko'lamdagi dolzarb muammolarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Qarorga ko'ra, quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi[3]:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS)- boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS)-4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA)-15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

Yuqoridagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi.[3]

❖ xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtirok etish;

❖ ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

❖ ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ❖ ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- ❖ ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- ❖ umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
- ❖ O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- ❖ xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohada ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- ❖ o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Buning uchun, 2019-yil 1-fevraliga qadar, Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi.[4]

- xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish;
- o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021-yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish;
- xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish;

Yuqoridagi vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida[5,6]

-O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy, mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish;

-xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash va amalga oshirish vazifalari yuklatiladi.

Yuqoridagi vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi, o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirish, kelgusida ularning ongli ravishda kasb tanlashi, mustaqil hayot va jamiyatda faol fuqoro sifatida o'z o'rnini topishiga imkon beradi.

**Natija va muhokama.** Ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi[1]?

- Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

- Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishga zamin bo'ladi.

- Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

- O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

- Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

- O'quvchilarning bilim darajasi miqdoriy ko'rsatkichini adolatli aniqlash va xalqaro miqyos bilan solishtirish imkonini tug'iladi.

- O'quvchilarning savodxonligi hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ota-onalar hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish amaliyoti kuchayadi.

- Umumta'lim maktablarida yaratilgan shart-sharoitlarni baholash yuzasidan miqdoriy ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egallayotgan mamlakatimiz siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, fan, texnika, texnologiyalar va ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan dunyo xalqlarining e'tiborini tortmoqda va e'tirof etilmoqda. Ijtimoiy sohada ustuvor yo'nalish sanalgan ta'lim tizimini ham o'z navbatida muayyan darajada modernizatsiyalash talab etiladi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarini zamon talablariga mos nazorat qilish va baholash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA, PIRLS TIMSS kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PIRLS -tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

TIMSS- dasturi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi.

PIRLS va TIMSS xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun nima qilish kerak?

Yaxshi natijalar ko'rsatish uchun hech bo'lmaganda ikki maqsadga ega bo'lish kerak: birinchisi, o'qituvchilar va ular ishlaydigan, foydalanadigan materiallarni tayyorlash.

Ikkinchisi, xalqaro tadqiqotlardagi natijalarni yaxshilash uchun o'qituvchilarni maqsadli tayyorlash va ta'lim jarayonida o'qitish metodikasi va ustuvor tamoyillarni o'zgartirish zarur.

Buning uchun biz o'qituvchilarni tayyorlashimiz, rivojlantiruvchi ta'limning yanada faol tizimini tatbiq etishimiz va o'qituvchilarni ta'lim jarayonida yanada muvaffaqiyatli foydalana oladigan materiallar bilan ta'minlashimiz kerak.

Eng muhimi va biz hozir to'g'ri yo'ldamiz, ancha oldin PIRLS va TIMSS tadqiqotlari topshiriqlari xususiyatlarini ochib beruvchi materiallar bilan to'plamlar chop ettirildi. Endi esa bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirib, paydo bo'layotgan muammolarni hal qilish ustida ishlash kerak

**Xulosa.** Shuning uchun maqsadga bosqichma-bosqich erishish, e'lon qilingan g'oya va islohotlarni joriy etish lozim. Boshqa tomondan, natijalarni batafsil muhokama qilish uchun jamoatchilik va professional hamjamiyatni tayyorlashimiz kerak. Mamlakatimiz ushbu tadqiqotlarda ilk marotaba ishtirok etayotgani uchun hozircha aniq natijalar yo'q va bir narsa deyish qiyin. Lekin bu bo'yicha ba'zi taxminlarni aytish mumkin. Matematika va tabiiy fanlar bo'yicha natijalar o'qish savodxonligi bo'yicha ko'rsatkichlardan yuqori bo'ladi deb o'ylaymiz. Chunki, mamlakatimiz yoshlari har yili kimyo va matematika fanlaridan xalqaro fan olimpiadalarida yuqori natijalarni qayd etib kelishmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Axmadjonova, Y. T. (2020). PISA-ta'lim sifatini oshirish mezon. Agrar fan nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari, 821, 824.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8- dekabrda 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, <https://lex.uz/docs/4097073>

3. Yaxshiyeva, Z. Z., Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Ta'lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383-385.

4. Axmadjonova, Y. T., Axmadjonova, U. T., & Yaxshiyeva, Z. Z. (2021). Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1563-1567.

5. Ахмаджонова, Ё. Т. (2021). PISA: «Студентов нужно научить думать, а не запоминать». Гуманитарный трактат, (101), 12-14.

6. Ahmedovna, S. S., & o'rqinoy Tojimurodovna, A. Y. (2021). PISA a criteria for improving the quality of education. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(05), 306-308.

7. Akhmadzhonova, Y. T., & Akhmadzhonova, U. T. (2021). "Press conference" in the delivering of chemistry. Экономика и социум, (3-1), 20-22.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISH**

*Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,  
"Kompyuter tizimlari" kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim olish darajasi va sifatini tekshirish hamda oshirish uchun O'zbekistonda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni bajarishda xalqaro tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda. Boshlang'ich sinf davri bu o'sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan bilimning fundament qismi hisoblanib, fundament bilim yaxshi bo'lsa keyingi bilimlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. O'zbekistonda xalqaro tadqiqotlarni joriy etish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, bu dasturga bir nechta kompetensiyalar kiritilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etish bo'yicha bajarilgan va bajarilayotgan ishlar, bu ishlarni bajarishga doir qabul qilingan qarorlar haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy markaz, PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS, EGRA, EGMA, xalqaro dastur, OECD, xalqaro assotsiatsiya, davriylik, savodxonlik, nutqiy ko'nikma.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [1].

PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnini o‘qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS - 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish;

PISA — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

EGRA - (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat.

EGMA - (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat.

PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo‘lib, Program for international student assessment – o‘quvchilarni baholash xalqaro dasturi degan ma‘noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo‘lib, u dunyo bo‘ylab 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an‘anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o‘tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo‘nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo‘nalish kiritiladi. 2022 - yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo‘nalish sifatida o‘quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o‘quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari baholanadi.

PIRLS - ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so‘zlaridan olingan bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qib tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISA dan farqli ravishda boshlang‘ich ta’limdagi 4-sinf o‘quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko‘nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang‘ich ta’limda tahsil olayotgan o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiy e‘tibor 4-sinf o‘quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o‘quvchilar o‘qish ko‘nikmasini hosil qilgan bo‘lib, endi bu ko‘nikmadan boshqa fanlarni o‘rganishda foydalanayotgan bo‘ladi So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqotdir. Mamlakatlardagi boshlang‘ich

maktab o'quvchilarining xususiyatlarini aniqlash va baholashga qaratilgan turli darajadagi yutuqlarga olib keladigan turli xil ta'lim tizimlari bilan bog'liq bo'lgan dastur. Albatta, bunday tadqiqot ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar va ularning ota-onalari uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar Xalqaro ta'lim assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtirilgan. PIRLS loyihasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tashkil etilgan. Xalqaro ekspertlarning fikricha, bugungi kunda maktab o'quvchilarining boshlang'ich maktabda keyingi ta'limdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yilgan. PIRLS 2016 da ishtirok etib, xalqaro tadqiqot PIRLS-2016 XEA ensiklopediyasi eng yaxshi o'quv dasturlari va ishlab chiqish tajribasi bo'yicha noyob axborot materiallarini taqdim etdi. PIRLS tadqiqoti O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ravon so'zlash darajasini xolisona baholash ta'limning ochiqligi va integratsiyasini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekistonni dunyoning yetakchi ta'lim tizimlari xalqaro hamjamiyatga kiritishga tayyorgarlik ko'rilmogda.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, ta'lim muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi.

TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan, bu 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha bilim sifati, darajasi, munosabati va qiziqishlarini aniqlaydi. U har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Ushbu tadqiqot ham PIRLS tadqiqoti singari maktab ma'muriyati va o'qituvchilari o'rtasida qo'shimcha so'rovlar o'tkazadi, fanga xalaqit beradigan asosiy omillarni aniqlab, ta'lim standartlarini taqqoslash imkonini beradi. TIMS 2015 so'roviga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya va Buyuk Britaniya ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bularda mamlakatlarda yuqori texnologiyalar, sanoatlashtirish muhim omil etib belgilangan. Guruhlar va sinflardagi talabalar soni esa 16 nafardan oshmaydi.

Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi.

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir. AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'quvchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining

nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır. EGMA bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim. EGMA quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam); qo'shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda.

TALIS - (ta'lim muassasalarida rahbarlar va o'qituvchilarning ta'lim va xalqaro xizmati) O'quv va ta'lim muhitini va ta'lim ish sharoitlarini tashkil etish. Ushbu tadqiqot birinchi marta 2008 yilda 24 kishi ishtirokida o'tkazilgan. Ikkinchi bosqich 2013-yilda o'tkazilgan va unda 3 ta davlat ishtirok etgan. 2018-yilda 46 davlat ishtirok etdi. TALIS tadqiqotning mohiyati o'qituvchilar bilan so'rov o'tkazishdan iborat. So'rovda asosan maktab boshqaruvi bo'yicha fikrlar maktab rahbarlari, direktorlar, o'qituvchining ish faoliyatini baholash, maktab muhiti va ularning ishidan qoniqish va ko'p madaniyatli muhitni baholash jarayoni ro'y beradi. O'qituvchilarning so'rovi shuni ko'rsatdiki, turli sohalar mavjud kasbiy rivojlanish, butun o'qituvchilik faoliyati, o'qitishni amalga oshirish o'qituvchining muayyan sinfdagi faoliyati va maktab bilan ijobiy munosabat jamiyatini tuzishga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, TALIS yagona so'rovlar jamoasidir. O'quv muhitini tashkil etish va o'qituvchilarning ish jarayoni va ta'lim muassasasini baholash muhim vazifadir [2].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilariga bo'lgan e'tibor kundan kunga oshib bormoqda. Ularning ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar, bino va maktablar, darsliklar va boshqalarga e'tibor kuchaymoqda. Shu bilan birga, ularning sifatli ta'lim olishi uchun xalqaro tadqiqotlardan ham keng foydalanilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xamidova Umida Abdukurimovna. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish". Fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 3-to'plam. 2022-yil. 246 bet.
2. <https://lex.uz/docs/-4097073>

### **ADABIYOT O'QITISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH**

*Achilova Emina Sa'dulloyevna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedراسi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, adabiyot fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, badiiy adabiyot mutolaasi va uning inson kamolotidagi o'rni, o'quvchilarni badiiy adabiyotga muhabbatini uyg'otishning usul va yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot o'qitish metodikasi, adabiy ta'lim, badiiy mutolaa, adabiy shakllar, xalqaro baholash tadqiqotlari, PISA.

Adabiyot insonni yaxlit va jonli tarzda o'rganadi, tahlil va tadqiq qiladi, tasvirlaydi: kitobxon ko'z o'ngida u fikrlovchi, harakat qiluvchi, his qiluvchi, o'z atrofidagi olamlar bilan jonli munosabatda bo'luvchi odam tarzida gavdalanadi. Shu sabab ham adabiyotda qayta yaratilgan olam aks ettiriladi. Shu fazilati bilan adabiyot – “insonshunoslik”dir.[1]

Adabiyot o'quvchini estetik jihatdan ham tarbiyalaydi. Muomala madaniyati, odob-axloq normalarini, hayot va jamiyat qonuniyatlarini tushuntiradi. Adabiyotning tasvir obyekti – hayot, tasvir predmeti - inson, vazifasi - inson tuyg'ularini tarbiyalashdir. Adabiyot hayotning so'z san'ati orqali insoniylashgan ifodasidir[2].

Maktabda adabiyot o'qitishning dolzarb vazifalaridan biri – bolalarni kitobxonlikka jalb qilish, yot g'oyalar va ommaviy madaniyatga ma'naviy immunitetini paydo qilish, malakali kitobxonni tarbiyalash, so'z san'atini tushunish va tahlil etish, badiiy va estetik didni yuksaltirishga qaratilgan. Adabiyot estetik didni tarbiyalash bilan bir qatorda o'quvchining tayanch kompetensiyalarini shakllantiradi. Berilgan matnlarni o'qish, tushunish, tahlil qilish asosida axborotlar bilan ishlash ko'nikmasi sayqallanib boradi. Badiiy va axborot matnlar bilan ishlash jarayonida, axborotlarni sintezlash, qayta hikoyalash, solishtirish natijasida o'quvchining kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi. Adabiyot jamiyat uchun kerak bo'ladigan, faol fuqarolik ko'nikmalariga ega shaxsni tarbiyalash ekan, zamonaviy maktab adabiyot fani oldiga o'quvchilarni faol fuqaro, ijtimoiylashgan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladigan hamda an'anaviy ta'lim paradigmasini o'zgartiruvchi, xalqaro standart talablariga mos keluvchi adabiy ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish kabi dolzarb masalalarning qo'yilishi nazariy va amaliy jihatdan asosli, deyish mumkin.

Zamonaviy maktab ta'limi paradigmasida adabiyot fanining mazmuni, ahamiyati, adabiyot darsining o'ziga xosligi va zamonaviyligi, maqsad va vazifalarini aks ettirishda hayot qonuniyatlari, jamiyat taraqqiyoti va shaxs rivojlanishiga asoslanishi bilan xarakterlanadi.

Zamonaviy maktab (tabaqalashtirilgan, ixtisoslashtirilgan, chuqurlashtirilgan) sharoitida adabiy ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va zamonaviy maktab adabiy ta'lim jarayonini loyihalash.

Zamonaviy maktab bu sifatli ta'lim, namunali boshqaruv, malakali mutaxassis, qulay infrastrukturaga ega bo'lgan ta'lim maskanidir[3].

Adabiyot o'quvchining ma'naviy qiyofasi, shaxsiy sifatleri hamda tayanch kompetensiyalarini shakllantiruvchi tayanch o'quv fanidir. Adabiyot o'quvchining hissiy-emotsional, estetik didini shakllantiradi, intellektual darajasini oshiradi, dunyoqarashi va ma'naviy olamini boyitadi.

Adabiyot o'quv fani sifatida o'quvchining intellektual, hissiy va axloqiy rivojlanishi, uning madaniy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilida so'zlash qobiliyati, nutqiy kompetentligi va tafakkur darajasini boyitadi. Adabiyotni o'rganar ekan, o'quvchi nafaqat uni tushunish, o'zini o'zi axloqiy va estetik jihatdan tahlil qilish, o'zini ichki qobiliyatlarini namoyon etish tajribasini ham egallaydi. Adabiyot o'quvchida adabiy til ko'nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy maktab ta'limi o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Adabiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, filologik fanlarni o'qitishda “Ona tili va adabiyoti”, “Rus tili va adabiyoti”, “Chet tili” fanlarining integratsiyasini tashkil etgan holda o'qitish adabiy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lug'atlarda “filologiya” termini tushunchasining o'zi “til – tilshunoslik va adabiyot, adabiyotshunoslik – adabiyot nazariyasi va tarixi haqidagi gumanitar fanlar guruhi” mazmunini anglatadi[4]. “Filologiya” o'quv fanlaridan “Ona tili va adabiyoti”, “Rus tili va adabiyoti”, “Chet tili” sohalarini o'z ichiga oladi.

Bizning nuqtai nazarimizcha, adabiyot darsliklarini yaratishda ona tili va boshqa dunyo tillarini o'rgatuvchi fanlar bilan integratsiyani tashkil etgan holda va hamkorlik tamoyiliga asoslanib mavzularning tanlanishi badiiy ta'limning o'qitish qamrovini kengaytiradi hamda o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini samarali tarzda shakllantiradi.



Keyingi yillarda maktab ta'limida fanlar bo'yicha o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi va xalqaro baholash tadqiqotlarida "XXI asr ko'nikmalari" tushunchasi ko'p ishlatilmoqda.

Ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

PISA xalqaro dasturida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmasini baholash ilk marta amalga oshirilayotgan bo'lib, bu OECDning kreativ fikrlashni rivojlantirishga qodir yangi pedagogikalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yangi loyihasidir. Bundan maqsad, faqat ijodkor shaxslarni ajratib olish emas, aksincha, o'quvchilar g'oyalarni qidirish, ifodalashda kreativ fikrlash qobiliyatining o'qitish yondashuvi, maktab faoliyati hamda ta'lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini tavsiflaydi. Kreativ fikrlash – bu nostandart vaziyatlarda yangi, optimal va samarali natijaviy yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha, bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan usullar deb qarashimiz kerak. Adabiyot darslari orqali o'quvchilarga beriladigan adabiy ta'lim, eng avvalo, o'quvchining turli shakl va ko'rinishdagi axborotlarni o'qib tushunish, tinglab tushunish qobiliyatlarini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Borisova N.V. M. Gorkiy v dnevnikax i proze M. Prishvina [Tekst] // Vestnik Yeletskego gos. un-ta. Filol. ser. Vip. 25. Yelets, YEGU im. I.A.Bunina, 2009. S. 175–182.
2. V.G.Belinskiy. Tanlangan asarlar. T., O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1955, 131-134-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zamonaviy maktab»larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. 2019 yil 26 noyabrdagi PQ-4537-son.
4. Boreyev Y.B. Adabiyot nazariyasi: Atamalarining ensiklopedik lug'ati. - M., 2003. - S. 491.

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO TADQIQOTLARNI JORIY ETISH MASALALARI**

*Dehqonboyev Muhammad  
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti  
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etish masalalari hamda PIRLS tadqiqotining mazmuni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro tadqiqotlar, ta'lim tizimi, o'quvchilar, maktab, xorij tajribasi

Ta'limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so'z yuritilar ekan, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o'zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq, deb hisoblash mumkin. Hozirda mamalakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri xalqaro, chet el tajribasi ya'ni, ta'limda o'z yo'nalishiga va uslubiga ega bo'lgan davlatlarning ilg'or tajribalarini olib kirish desak to'g'ri bo'ladi. Buning yaqqol isboti "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" sini tasdiqlanishidir.

Ushbu konsepsiyada quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, "shu bilan birga O'zbekiston respublikasining

2030-yilga kelib PISA (The Programme for International student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir, shuningdek:

- uzluksiz ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayonida individallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- xalq ta'limi sohasidagi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalarni bajarish odinga maqsad qilib qo'yildi va vazifalarni bajarish bo'yicha ilk qadamlar tashlanmoqda"[3]

Xuddi shunday xalqaro tajribalardan yana biri Koreya davlatining tajribasi hisoblangan va barchaga ma'lum bo'lgan kredit-modul tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'satdiki, kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara berganligidan ham, bu xalqaro hamda ilg'or tajriba ayrim oliy o'quv yurtlarimizda tashkil etildi. O'quv yurtlarida ta'lim kredit-modul tizimini joriy etish bilanoq, ta'limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko'zga tashlana boshladi. Demakki, bu kabi yaxshi samara beradigan, o'z sinovidan o'tgan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o'zlashlashtirib boriladi va o'ylaymizki, ta'lim tizimimizni modernizatsiya qilishda o'zining samaradorligi bilan namoyon bo'ladi.

Hozirda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot bosqichiga nazar soladigan bo'lsak ularning rivojlanishi va taraqqiyotga erishishi ko'pgina omillarning hissasi evaziga rivojlangan. Iqtisod, siyosat va eng asosiysi ta'limni rivojlantirgan. Misol uchun Yaponiya, Janubiy Koreya, Angliya, Germaniya va Amerka Qo'shma Shtatlari siz o'ylashingiz mumkin bu davlatlarning ba'zilari boshqa zaif davlatlarning evaziga rivojlangan deb lekin agar ular bilmsiz yoki siyosati bo'lmaganda oddiy davlatlardan farqi bo'lmasdi. Shu o'rinda bizning mamlakatimizda hozirda ta'lim tizimining o'zgarish bosqichida va bu bosqichda ta'lim sifatini oshirish kerak.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.[4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga[1] muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Konsepsiya doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning

ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq[2]:

o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment – PISA);

boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study TIMSS);

Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish qarori bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kiritildi.

Tadqiqot ishi davomida PISA dasturi tajribasini tahlil qilish va undan milliy baholash tizimini takomillashtirishda foydalanish muammolariga alohida to'htalib o'tilgan. Shunday bo'lsada, dunyoda o'zining qamrovi ortib borayotgan boshqa dasturlar, ya'ni PIRLS, TIMSS va TALIS xalqaro dasturlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Bu bizha PISA dasturining boshqa dasturlaridan farqli jihatlari va afzalliklari haqida yaxshiroq tushunishizga yordam beradi.

PIRLS [6] (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA–International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.[5]

Yurtimizdagi ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olinadi, ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'linadi, ta'lim sifatini oshirish, xalqari miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi, o'quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonlik darajalarining shakllanganligini bilish, salohiyati va savodxonlik darajalarining shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosida, xorijiy mamlakatlardagi tengdoshlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xalq ta’limi tizimidata’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori

9. Pardayeva M.U. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari. // Наука и образование Том. 1 № 4 (2020)

10. Xalqaro baholash dasturlari: afzalliklari va imkoniyatlari, B. Xodjayev, 2019

11. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailova, J.R.Narziyeva, X.P.Axmedov, G.O.Tog‘ayeva, O‘quvchilar savodxonligini oshirish baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi (qo‘llanma) 2019

12. Aksel Paulsen , Soren Overgaard , Jens Martin , Quality of data entry using Single Entry , Double Entry and Automated forms Processing - an example based on a study of patient reported outcomes . PloS ONE . www.plosone.org , April 2012, Volume 7 , Issue 4 , e35087, 2016

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Urinova Durdona Olimovna  
Chirchiq davlat pedagogika universitei  
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talaabasi  
Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi  
kafedrasini o‘qituvchisi Xudayqulova F.B  
[fazilatxudayqulova@gmail.com](mailto:fazilatxudayqulova@gmail.com)*

**Annotasiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich sinif o‘quvchilarni baholovchi tizimlar, ularning samaradorligi, ananaviy baholash tizimi, shuningdek formativ, summativ, “Evaluation”, “Assessment”, diagnostik baholash, NRT (Norm referenced test— normaga asoslangan testlar), authentic (haqiqiy baholash) tizimi, faoliyatga asoslangan baholash va selektiv javobni baholash kabi baholashning turli ko‘rinishlari va ularning samaradorligi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining baholash tizimlari, ananaviy baholash, formativ baholash, summativ baholash, “Evaluation”, “Assessment”, diagnostik baholash, NRT, authentic baholash, faoliyatga asoslangan baholash, selektiv javobni baholash.

**Abstract:** This article examines primary school student evaluation systems, their effectiveness, traditional evaluation system, as well as formative, summative, “Evaluation”, “Assessment”, diagnostic evaluation, NRT (Norm referenced test— norm-based tests), authentic ( It discusses different forms of assessment and their effectiveness, such as authentic assessment) system, activity-based assessment and selective response assessment.

**Key words:** assessment systems of primary school students, traditional assessment, formative assessment, summative assessment, “Evaluation”, “Assessment”, diagnostic assessment, NRT, authentic assessment, activity-based assessment, selective response assessment.

**Kirish:** So‘nggi yillarda respublikamizda ta’lim sohalarida bir qancha o‘zgartirishlarni kuzatish mumkin. Bu o‘zgarishlar qonun doirasida belgilanib, 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash qarori qabul qilindi. Qarorga asosan 2024- yil 1- sentyabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishi belgilangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kun maktablari aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasiga mo'ljallangan bo'lib, murakkab dastur asosida tuzilganligi, nazariya va amaliyotning uzviy bog'lanmagani, o'quv dasturlarida izchil uzviylik yo'qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Amaldagi davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarida o'quvchilarni ta'limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash, erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirish masalasi e'tibordan chetda qolayotganini tanqid qilindi. Bunday holatlarga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o'qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish va joriy o'quv yillari davomida uni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish lozimligi ta'kidlandi. Bunga asosan boshlang'ich va yuqori sinflar uchun turli baholash tizimlari ishlab chiqildi, shuningdek chet el baholash tizimlari ham qisman joriy etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlariga javob bera oladigan bugungi kun o'quvchisini shakllantirish asosiy o'rinlarni egallaydi.

Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirish maqsad qilib belgilangan. Bunga asosan, turli baholash tizimlari, e-maktab tizimi davlatimizda joriy etildi.

**Asosiy qism:** Ko'p yillar davomida boshlang'ich va yuqori sinflarni ta'lim tizimini baholashda an'anaviy baholash usulidan ya'ni, besh ballik baholash sistemasidan foydalanib kelingan.

2023- yil sentyabr oyida 100 ballik baholash mezon—formativ baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi ta'lim vazirligining 284- buyrug'iga asosan joriy etildi.

Formativ baholash kunlik 10 ballik baholash shaklida— o'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra 6 ball, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishiga ko'ra 4 ballik shaklida baholanishi ko'zda tutilmoqda.

Formativ baholash yuzasidan bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. (Bell & Cowie, 2001; Torrance & Pryor, 2001; Wiliam, 201; Izzatova X.) Formativ kunlik baholash shakli bo'lsa, Summativ baholash o'quv dasturining bo'lim va boblari, choraklik, o'quv yili oxirida amalga oshiriladi. Summativ baholash BSB, CHSB va loyiha ishlari shaklida o'tkaziladi. Yarim yillik, yoki yillik baholashda o'quvchilarning CHSB da yig'gan ballari + BSB da yig'gan ballari + FB da yig'gan ballari + loyiha ishida yig'gan ballari umumiy hisoblanib qo'yiladi. Summativ baholash haqida ham bir qancha olimlar fikr bildirishgan. ( Martin Storksdieck Jill K. Stein Toni Dancu, Izzatova X).

Ingiliz o'qituvchilari uchun keng tarqalgan "Assessment" va "Evaluation" baholash o'zbek tilida "baholash" deb tarjima qilinadi, lekin "Assessment" - bu o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish, «Evaluation» - o'zlashtirib bo'lingan bilimlar natijalarni baholash (Masalan: DTM testlari) .Ikkisining ham birlashtiruvchi tomoni—mezonlardan foydalanishni talab qiladi, dalillarga asoslanadi. Bugungi kun uchun bu baholash tizimlari eng yangi atamalardan bo'lsa ham, xorijda joriy etilishi uzoq tarixga ega bo'lgan inqiroz diagnostikalarining eng so'nggisidir (Altbach 1980; Klark 1989; Enders 1999; Musselin 2007).

Diagnostik va NRT (Norm referenced test— normaga asoslangan testlar) bir biridan unchalik darajada farq qilmaydi. Xorijda NRT baholash bog'chaga, maktabga, sinfdan- sinfga o'tishda qo'llaniladi. NRT testlariga IQ testlarini namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

NRT testlari haqida Nitko (1970) shunday "muayyan sharoitlarda shaxsning test natijalarini keng talqin qilish uchun mezonga asoslangan ma'lumotlar ham, me'yorlarga asoslangan ma'lumotlar ham zarur"degan fikrni ilgari surgan. [81-bet.]

Authentic ( haqiqiy) baholash tizimi— Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarda olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kunikmasini tekshirishdir. Authentic ( haqiqiy) baholashni bir qancha olimlar o'rganishgan. Jumladan, unga: "Autentik baholash –

o'quvchining sinfda olgan bilim va ko'nikmalarini turli kontekstlarga, ssenariylarga va vaziyatlarga muvaffaqiyatli o'tkaza olishini baholaydi", deya izoh beriladi.

Faoliyatga asoslangan baholash ham authentic (haqiqiy) baholashga o'xshaydi, farqli tomoni faoliyatga asoslangan baholash boshlang'ich sinf o'quvchilarining olayotgan bilimini o'sha paytning o'zida, real vaziyatda qo'llashga imkon beradi.

Baholashning turli shakllarini o'rgangan Kristofer Pappas "Faoliyatga asoslangan baholash - bu bilimlarni egallashni tekshirish o'rniga, kimningdir o'z bilimlarini real dunyoda qo'llash qobiliyatini o'lchashga qaratilgan baholash yondashuvidir",—deydi.

Selektiv javobni belgilash (tanlangan javobni belgilash) bu baholash tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilari bir nechta tanlov mos keladigan va to'g'ri/noto'g'ri savollar kabi variantlar keltirilgan shaklida bo'ladi. Bu baholash tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqan fikrlashga undaydi. Bu baholash tizimida javoblar mantiqan o'ylanadigan, bir biriga variantlar bir qarashda mos keladigan shaklida bo'ladi.

**Xulosa:** "Assessment" va "Evolution" baholash mezonlari O'zbekistonda bir qancha ko'rinishlarda qullaniladi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholashda "Assessment" baholashni har darsda qo'llashimiz o'quvchilarni yangi mavzuni yuqori darajada egallashga mezon yaratadi. Agarda, biz "Assessment" baholashni Formativ baholash bilan birlashtirsak (ya'ni o'quvchilarning darsda qatnashishiga ko'ra 6 ballik baholashni, 4 ballik shaklida qilib, qolgan 2 ballik baholashni yanggi mavzu bayonidagi o'quvchining ishtirokiga va tushunishiga oid aynan savollar orqali baholash) boshlang'ich sinf o'quvchilarining yanggi mavzuni o'zlashtirish kunikmasini oshirishga yordam beradi. "Evaluation" baholash tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholashda ikki yoki uchta maktablar o'rtasida sog'lom raqobat olib borish, ya'ni olgan bilimlarini sog'lom tekshirish orqali amalga oshirilsa o'quvchilarning rivojlanishi yanada oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini Summativ baholash jarayonida NRT testlaridan olib borish aqliy rivojlanishga, mantiqiy fikrlash oshishiga, diqqat, idrok, tafakkur kabi bilish jarayonlarini kengaytirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda barcha baholash tizimlarini pedagoglar o'rnida qullashi boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlanishiga, bilimlarini mukammal o'zlashtirishiga va xalqaro baholash tizimlarida muvaffaqiyatli o'rinlarni egallashiga asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Storksdieck, M., Stein, J. K. & Dancu, T. (2006). Joriy ilm-fan va texnologiya markazida, Boston, Annapolis, MD, Fan muzeyida joriy sog'liqni saqlash fanida jamoatchilik ishtirokining umumiy bahosi: Texnik hisobot. Innovatsiyalarni o'rganish instituti.

2. Silke Gü lker, Research fellow; Dagmar Simon, Head of Research Group; Marc Torka, Research fellow. Social Science Research Center, Research Group "Science Policy Studies", Berlin

3. Van Valkenburgh, Marilyn W., "A Study of the Relationship between Norm-Referenced Tests and Criterion-Referenced Tests" (1974). Dissertations. 2896. <https://scholarworks.wmich.edu/dissertations/2896>

4. Authentic Assessment. [<https://www.njit.edu/ite/authentic-assessment.>]

5. O'zbekiston Respublikasi Pirizdenti Farmoni—2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

#### **Interaktiv metodlar vositasida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning zaruriyati**

**Talaba: Xushvaitova M**

**Rahbar: O. Aslonova**

**Bugungi jamiyatda xilma-xil fikrlash muhitini vujudga keltirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarning o'rni beqiyosdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi, mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni**

**kamol toptirish, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash, respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining mustaqil fikrlash faoliyatini shakllantirib, muntazam rivojlantirib borish, "subyekt-subyekt" munosabatini amalda ta'minlash, natijada ularning ijodiy faolligi, izlanuvchanligi, irodaviy sifatleri, ishchanligi, e'tiqodini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.**

Mazkur vazifalarni bajarish ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlaridan keng qo'llashni taqozo etmoqda.

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jixati an'anaviy ta'lim shaklidan tubdan farq qilib o'quvchilarning mustaqilligi, o'quv faoliyatini ta'qiqlamasdan balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini xamkorlikda tashkil etish ularni faoliyatga ongli ravishda yo'llash, biror-bir faoliyatini buyruq orqali amalga oshirish emas, balki, samarali tashkil etish maqsadida o'quvchilarni fan asosidagi bilimlarni chuqur o'rganishga bo'lgan kiziqishini ortirish. Va o'quvchilarni yextiyoji, kiziqishi, imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash xuquqini berish sanaladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bunday pedagogik xolat yoki munosabat mazkur jarayonni interfaol metodlar orqali tashkil etishni va ularni keng qo'llashni takazo etadi.

Interfaol metodlarni to'g'ri tanlash, har tomonlama tahlil qilgan holda ilmiy tarzda o'zlashtirish, tatbiq etish yo'llarini qidirish o'z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Ta'limda axborot muxitining kun sayin kengayotganligini, o'quvchi-o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarining pastligi (ularni o'zgaruvchan sharoit, vaziyatlardan to'hri yul topib chiqa olishlari) kabi xolatlar ta'lim-tarbiya jarayoniga davr talabi nuqtai nazaridan yangicha qarashni, o'qitishning samarali yo'llarini ishlashni talab etadi. Interaktiv metodlarni o'rganish, amalda qo'llash ta'lim-tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqqan.

Interaktiv metodning mohiyati-ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchi-o'quvchilarning o'zlashtirish va uning natijalarini sur'atini tezlashtirish, natijalarini obyektiv, xolisona baxolay olish, ko'zlagan natijalarga erishishni kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonining barcha bosqichlarini aniq maqsad asosida kutilgan natijalarni beradigan tarzda tizimli loyixalash tushiniladi.

Interaktiv metodlaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkonini beradi:

- o'quvchilarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
  - mashgulotlarda faolligini ta'minlaydi
  - samarali munozaraga chorlaydi
- o'quvchilarga maksadlarini anglab olishga yordam beradi;
  - mashgulotlarda faoligini ta'minlaydi;
  - samarali munozaraga chorlaydi;
- o'quvchilarga muammo doirasida uz shaxsiy bilimlarini ifoda etishga yordam beradi;
  - o'quvchilarning mustaqil bilish motivatsiyasini qo'llab quvvatlaydi;
  - erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М.: ИРПО, 1996. - 366 с.
2. Bloom.B.S. a.o. Handbook on Formative and Summative Evolution of Student Learning. - N - Y.: McGraw-Hill, 1971. - 232 p.
3. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Qo'llanma. - T.: Nihol, 2013. - 278 b.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV-BILUV FAOLIYATINI BAHOLASH YO'LLARI

*Tosheva Dilafro'z*

*Qashqadaryo viloyat Koson tuman MMTB*

*Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish sho'bası metodisti*

**Annotatsiya:** maqolada o'quvchilar bilimni baholash va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyatini baholash yo'llari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** baholash, baho, kundalik, yakuniy, xulosa, bilim, ko'nikma, malaka.

**Аннотация:** в статье высказывается мнение о методах проверки знаний учащихся и оценки учебной деятельности младших школьников.

**Ключевые слова:** оценивание, оценка, дневник, итог, заключение, знания, умение, компетентность.

**Abstract:** the article expresses an opinion on methods for testing students' knowledge and assessing the educational activities of younger schoolchildren.

**Key words:** assessment, assessment, diary, result, conclusion, knowledge, skill, competence.

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilishni to'g'ri tashkil etish uchun u, bir tomondan, har tomonlama bo'lishi, ya'ni o'quvchilarning o'quv materialini o'rganishdagi o'quv faoliyatining hamma tomonlarini qamrab olishi, ikkinchi tomondan, differensiallangan bo'lishi, ya'ni programmaning har bir asosiy masalasini qamrab olishi zarur. Nazoratning bu tomonlarini ana shunday dialektik birlashtirishgina tegishli o'quv hamda tarbiyaviy samarani ta'minlashi mumkin.

Baholash - ta'lim jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birini qiyin, qaysi birini esa oson o'zlashtirilishi aniq ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'risi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysi qo'niqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy tasir ko'rsatadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik hamkorlik, o'zaro bir biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi. Ba'zan baholash



jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga xam erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb xam aytish mumkin. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotgani aniqlanadi. Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'rilishi kerak. Bu bilan talim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi. Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta'lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganligini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagi uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

Baholash tamoyillari va shakllari. Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

O'quv maqsadlariga asoslanganlik.

Haqiqiylik.

Haqqoniylik.

Ishonchlilik.

Qulaylik.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin.

1. Mezonga asoslangan baholash.

2. Meyorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash. Baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ko'nikma va malakalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlari aniq belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruxlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi.

Meyorga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat: - ta'lim beruvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi; - turli shart-sharoitlarga oson moslashtirish mumkin; - baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiy tarzda olinadi; - muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi; - baholash natijasida guruh ichidan ma'lum sondagilarni ajratib olish imkonini beradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish va baholashda ularning individual xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Tabiiyki, guruhdagi hamma o'quvchilarga bilimlarning hajmi va sifati jihatidan bir xil talablar qo'yiladi. Ammo, shu bilan birga, ba'zi hollarda ayrim o'quvchilarning jur'atsizlik yoki tortinchoqlik, sust fikrlash, o'ziga ortiqcha ishonish, jismoniy kamchilik kabi xislatlarini ham e'tiborga olish zarur. Biror uzrli sababga ko'ra ayrim o'quvchilarning vaqtincha qiyinchilikka tushib qolishini ham e'tiborga olish kerak.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "2022–2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
4. [https://t.me/edurtm\\_uz](https://t.me/edurtm_uz). XTV huzuridagi Respublika ta'lim markazi
5. <https://login.kundalik.com> – Kundalik.com platformasi

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI O'QUV MATNLARINI ANGLASH VA TUSHUNISHGA O'RGATISH**

*Qurbonova Gavhar Elamonovna  
Qarshi Shahar 41-maktab MMIBDO'*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limi tizimida ham tub islohotlar ro'y bermoqda. Yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, xalqaro baholash dasturlariga a'zolik va ularga tayyorgarlik bilan yangilanib bormoqda. Ta'lim mazmunini isloh qilish, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirish, o'quvchilarning xalqaro tadqiqotlarga muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 4-sinf bitiruvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

"O'qish savodxonligi" atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki "savodli o'qish"ni anglatadi. Unga ko'ra, o'quvchi matnlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o'z fikrini bayon eta olishi zarur. O'quvchilarda aynan shu jihatni, ya'ni kitobxonlik darajasini monitoring qiluvchi - bu xalqaro PIRLS tadqiqot metodidir.

Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganildi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.
2. Xulosalarni shakllantirish.
3. Ma'lumotlarni umumlashtira olish.
4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

O'quvchilarning matnni o'qish va savollarga javob berishlarida ba'zi topshiriqlarda tavsiya etilgan variantlardan birini tanlash nazarda tutilsa, boshqalarida mustaqil javob berish talab etiladi.

Natijalarni baholash tartibi PIRLSda bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- erkin javob berishga kerak bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 ball dan 3 ball gacha baholanadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashlari uchun badiiy asar tahlili jarayonida butun asar mohiyatini birdaniga emas, balki

asarning har bir qismi, agar u hajman katta bo'lsa, ma'nosini ochib berishga harakat qilinadi. Badiiy asar tahlili mantiqan tugal qismlari bo'yicha olib borilishi zarur.

PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir.

Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishonitirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

O'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari va shu asosda o'qish savodxonliklarini oshirishlari mumkin.

PIRLS xalqaro baholash dasturiga o'quvchilarni tayyorlash uchun avvalo, bolaning o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini egallash, matn ustida ishlash, she'r va kichik hajmdagi matnlarni yod olish, tushunganlarini gapirib berish kabi ish turlarini ko'proq o'tqazishga harakat qilish kerak. Bu dasturga tayyorlash va yaxshi natijaga erishish uchun o'qituvchilar o'quvchilarni turli yo'nalishlarda matn ustida ishlashga o'rgatishlari lozim.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyatning ustunligi har tomonlama samaralidir.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotigako'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bola tarbiyasi, uning dunyo qarashi va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish, o'quvchilar nutqini o'stirish xalqaro standartlarda alohida me'yor sifatida ishlab chiqilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish muhim omildir. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyishtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirilgan, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. Ma'lum bir badiiy asarni o'qish va uning tahliliga atroflicha yondashish orqali ba'zan o'qituvchi va o'rganuvchilar turli xil tafovutlarga duch kelishi mumkin. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilishga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yo'naltirishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda matnni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi matnni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning asosiy bosqichi matn tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolalar nasriy asarlarda aks ettirilgan voqea hodisalarga, unda ishtirok etayotgan qahramonlar orasida to'qnashuvlarning sabab va odatlari haqida fikrlab, mustaqil xulosalar chiqishlariga alohida ahamiyat berish, nasriy asarlarni so'zlab berishayotganlarida nutqlarida badiiy tasvir vositalaridan ijodiy foydalanishga ularda ishtirok etayotgan personaj ruhiy kechinmalarini tushunib ravon bayon etishlariga o'rgatish lozim.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida matn ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda turli ko'rinishdagi matnlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish lozim. Bu usullar o'quvchilarni matn mazmunini anglash va tushunishlari uchun xizmat qilsin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Ismailov D va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlash. Toshkent: Sharq, 2019
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

#### **TA'LIM SIFATINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIK KO'RISHDA MATN USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI**

*Siddiqova Umida Shermuhammadovna  
Kasbi tumani 30-maktab MMIBDO'*

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim - tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bugungi kunda maktabda o'qish va yozishni o'rganish ilmiy maqsadlar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Maktab o'z o'quvchilariga o'z bilimlarini kundalik hayotda qanday qo'llashni o'rgatishi kerak. O'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha matn o'quv jarayonida alohida o'rin tutadi. Bu nafaqat o'quv, balki shaxsning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaviy vazifalarni ham bajarishga yordam beradi. Badiiy matn izchil nutqni rivojlantirishda mashqlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Matnni idrok etish qobiliyatini takomillashtirishning asosiy usuli matnni tahlil qilishdir. O'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari va shu asosda o'qish savodxonliklarini oshirishlari mumkin.

O'quvchilarga matn turlari haqida ma'lumot berish, ularda matn turlarini farqlay olish ko'nikmasini hosil qilishi, matndagi asosiy va yordamchi fikrlarni bir – biridan ajrata olishni o'rgatishi kerak.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi ham aniqlaniladi va bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

**O'qish savodxonligida tekshiriluvchi beshta jihat:**

- Matn mazmunini to'liq tushunishi
- Matndagi axborotni topa olishi
- Matnni sharhlay olishi
- Matn mazmuni haqida fikr yuritishi
- Matn shakli haqida fikr yuritishi.

Bu jihatlar barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bir jihatini bilish, keyingi jihati uchun muhim hisoblanadi. Matnning har bir jihatini bilish, uning to'liq tushunilishini ta'minlaydi. O'quvchilar bilimini baholashga asoslangan xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan topshiriqlarda matnning barcha turlaridan foydalaniladi. Ba'zan matnning hech bir turiga mos kelmaydigan matn turlari ham uchraydi. Tadqiqotlar o'quvchilarning matn turlarini farqlay olish malakasini tekshirmaydi, balki matnni o'qish orqali turli hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan ma'lumotlarni tushunib olish va ahamiyatli jihatini ajrata olishini o'rganadi.

Quyida matn turlari haqidagi ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

**MATN TURLARI**

1. Yaxlit matnlar.
2. Tavsifiy matnlar (badiiy tavsifiy, texnik tavsifiy)
3. Hikoya matnlari (hikoya, hisobot, reportaj)
4. Tushuntiruvchi matnlar
5. Dalillovchi matnlar (izohlar, ilmiy xulosalar)
6. Yo'riqnomalar (qoida va ustavlar, qonunlar, ma'lum bir ishni bajarish uchun yo'riqnomalar)
7. Yaxlit bo'lmagan matnlar.
8. Grafiklar
9. Diagrammalar
10. Jadvallar
11. Kartalar
12. Formalar (anketa, soliqqa oid formalar, viza formalari, hisobchilikka oid formalar va hk.)
13. Axborot beruvchi qog'ozlar va e'lonlar.

Bitta matnni faqat bitta matn turi bo'yicha tahlil qilishning iloji yo'q, chunki bitta matnning o'zida matnning har xil turlari belgilari jamlanishi mumkin. Matnni o'rganish uchun ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi va mantiqiy ketma – ketligi, ma'lumotlarning haqqoniyligi, faktlarga asoslanganligi, badiiyliigi, yaxlit yoki yaxlit bo'lmaganligi kabi umumiy xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

Xulosa qilganda, dars jarayonida turli xildagi matnlar ustida ishlashga o'rgatishimiz, o'rgatish asnosida esa o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan foydalanishimiz lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. Ismailov D va boshqalar. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini aniqlash. Toshkent: Sharq, 2019
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.rtm.uz](http://www.rtm.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING O'QUV-BILUV FAOLIYATINI BAHOLASH

*Boboyeva Maftuna Qurbon qizi*  
*Nishon tumani ingliz tili o'qituvchisi*

O'quvchilarning bilim, o'quv hamda malakalarini nazorat qilish o'z vaqtida va tizimli ravishda o'tkazilgandagina zarur o'quv va tarbiyaviy samara beradi. O'qituvchi har bir o'quvchining muvaffaqiyatlari qanday ekanligini hamma vaqt bilishi kerak, shundagina u o'quvchilarning xatosini o'z vaqtida aniqlashi va uni tuzatishi, tegishli yordam ko'rsatish mumkin bo'ladi. O'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini nazorat qilish ular uchun o'quv mehnatining motivlarini ko'p jihatdan belgilaydigan rag'batlantiruvchi kuch bo'ladi. Zamonaviy ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish. Darhaqiqat, kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan hozirgi tezkor zamon ta'limdan faqatgina bilimli emas, balki bilimni hayotda qo'llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida bir qancha muhim vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda. O'zbek tilidagi manbalarda "baholash bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning ta'lim oluvchilarda shakllanganlik darajasini tekshirish, o'lchash jarayoni"<sup>12</sup> sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, baholash ilmiy adabiyotlarimizda umumiy qilib pedagogik nazorat deb nomlanadi. Pedagogik nazorat – o'quvchilarga ta'lim berish, o'qitish va tarbiyalash natijalarini ilmiy asoslangan nazorat qilish tizimidir.

Umuman, baholash umumiy o'rta ta'limda ta'lim oluvchilarning o'qitish jarayonida Davlat ta'lim standartlari va O'quv dasturlarida belgilangan malaka talablarini egallash darajasini aniqlovchi, tekshiruvchi mexanizm hamda mezon va tartiblardir.

Baholash tizimining ta'lim jarayonidagi asosiy vazifalarini quyidagicha muayyanlashtirish mumkin:

- o'zlashtirish darajasini aniqlash;
- bilim olishga qiziqishni rag'batlantirish;
- o'quvchining javobidagi xatoni ko'rsatish;
- bilim, ko'nikma va malakaning mustahkamlab borilishini ta'minlash;
- o'quvchining doimiy ravishda darsga tayyor holda kelishiga erishish;
- o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini o'zaro taqqoslash;
- o'quvchida akademik ko'nikma – axborot bilan ishlash, axloqiy yetuklik, matematik savodxonlik kabi sifatlarni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'quvchilar orasida o'zaro do'stona raqobat muhitini yaratish;
- bilim, ko'nikma va malaka shakllanishidagi ehtimoliy bo'shliqlarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish;
- bilim, ko'nikma va malaka rivojlanib borishini doimiy ravishda tahlil qilib borish;
- o'quvchining to'laqonli bilim olishi uchun qulay pedagogik-psixologik muhitni yaratishga erishish;
- o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasini baholashda xolislikka erishish;
- o'quvchining ahamiyatli, amaliy bilim, ko'nikma va malakasini baholashni ta'minlashga erishish;
- o'quvchini baholashda qulay metoddan foydalanishga erishish;
- o'quvchini bilim, ko'nikma va malaka saviyasiga ko'ra saralash;
- o'quvchini ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash;
- davlat ta'lim standartida belgilangan malaka talablarning bajarilishini nazorat qilib borish.

---

<sup>12</sup> Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademnashr 2020

Baho o'zi nima uchun kerak?

O'qituvchi uchun: uning metodikasi, ish faoliyati o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirish darajasini bilish uchun.

O'quvchi uchun: o'qish jarayonidagi intellektning rivojlanish darajasini bilish uchun.

O'qituvchi o'quvchi faoliyatini faqat, masalan, test yoki masala yechish orqali standart bitta usul orqali baholashi o'quvchi rivojlanishiga olib kelmaydi. Shuning uchun nostandart usullar, ya'ni loyihalar, uy tajribalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Yana bir usul bu o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi. Bunda berilgan nostandart topshiriqni o'quvchi qanday bajarganligiga o'zi adolatli baho qo'yishi kerak bo'ladi, bu uning o'z mehnatini baholashi va o'z ustida ishlashiga poydevor bo'ladi.

Baho ta'lim jarayonida aniqlangan bo'shliqlarni aniqlash va ularning ustida ishlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning bilim faoliyatini rivojlantirish va uni baholashda o'qituvchi ijodkor bo'lishi kerak. Qancha ko'p izlansa, qancha ijod qilsa, dars davomida turli metodlarni qo'llay bilsa elementar matematika va oliy matematika kurslarining nazariy asoslarini chuqur bilgan holda darslarni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning eng zamonaviy usullardan foydalanilgan holda tashkil eta olsa shundagina haqiqiy o'qituvchi nomiga sazovor bo'ladi.

#### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O'zbekiston”, 2022.
2. **Ismailov A.A., Karimova N.A., Haydarov B.Q., Ismailov SH.N.** Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. – T.: 2019.
3. **Ismailov A.A., Karimova N.A., Haydarov B.Q., Ismailov SH.N.** Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – T.: 2019.
4. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademya nashr 2020
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
8. [https://t.me/edurtm\\_uz](https://t.me/edurtm_uz). XTV huzuridagi Respublika ta'lim markazi

### TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI MATEMATIK SAVODXONLIKNI ANIQLASH OMILI SIFATIDA

*Usanova Muyassar*

*Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti*

*Boynazarova Munajat*

*Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada matematika fanining mazmun-mohiyati, o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishda TIMSS Xalqaro baholash dasturining o'rni xususida fikr-mulohazalar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** TIMSS, xalqaro baholash, matematik savodxonlik, ko'nikma, muammo

**Аннотация:** В статье содержатся комментарии о сущности математики, роли международной оценочной программы TIMSS в повышении математической грамотности учащихся.

**Ключевые слова:** TIMSS, международное оценивание, математическая грамотность, умение, проблема.

**Annotation:** The article contains comments on the essence of mathematics, the role of the TIMSS international assessment program in improving students' mathematical literacy.

**Keywords:** TIMSS, international assessment, mathematical literacy, skill, problem



Matematika fani kundalik hayotning asosi hisoblanadi. Matematika bizga kundalik vazifalar, ya'ni kompyuter, smartfon va televizor texnologiyalarini boshqarishda shuningdek ularni takomillashtirishda imkon yaratadi. Ushbu fan bizning hayotimizning barcha sohaslarini qamrab olganligi sababli, O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. 1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini aniqlashda TIMSS Xalqaro baholash dasturining o'rni beqiyosdir. TIMSS xalqaro tadqiqoti har 4 yil davomida 4-va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishtirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo'sinda maktabning boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Matematika fanlarga asoslangan bilim hamda ko'nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa "yoshlarni hayotga tayyorlash"da markaziy o'rinni egallaydi. Matematik savodxonlik deganda Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Quyida sizlarga 4-sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini aniqlashda TIMSS topshiriqlaridan namunalarni havola etsak:


I. Shokolad fabrikasi 1913-yilda ishga tushgan. Birinchi ishchi ularning egalari – er va xotin edi. Bugun korxonada 220 kishi ishlaydi.

1. 2020-yilda fabrikaning necha yilligi nishonlanadi?

2. Ushbu fabrika tashkil topgandan hozirgi kunga qadar nacha marotaba ishchilar soni ortgan?

II. Diagrammada futbol bo'yicha mashg'ulotda bir xil sonda gol kiritgan o'yinchilar soni tasvirlangan. Mashg'ulotning nechta ishtirokchisi gol kiritgan?

III. Iroda 100 gr konfet sotib oldi. Ushbu konfetni 1 kilosini narxi 20000 so'm. Iroda o'z xaridi uchun qancha pul to'ladi?





Boshlang'ich sinf o'quvchilariga maktab ostonasiga qadam qo'ygan davridan boshlab matematika faniga muhabbatni uyg'otmoq lozimdir. Zeroki matematikani chuqur bilish va kuchli ko'nikmalarni rivojlantirish barcha bolalarga foyda keltiradi. Sababi matematikani o'rganish muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, muammolarni hal qilish orqali qat'iyat va qat'iyatlilikni o'rgatadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori

2. **A.A.Ismailov, N.A.Karimova, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov.** "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash" – T.: 2019

#### **GLOBALLASHUV SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI PIRLS TADQIQOTIGA TAYYORLASH**

*Nizamova Sevara Bahodirovna  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish hamda boshlang'ich sinflarda badiiy asar matnini tahlil qilish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, PIRLS, o'qish sifati, badiiy asar, matn tahlili.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о подготовке к исследованиям PIRLS в начальных классах чтения и анализе художественных текстов в начальных классах.

**Ключевые слова:** текст, PIRLS, качество чтения, художественное произведение, анализ текста.

**Abstract:** This article provides information about preparing for PIRLS research in elementary reading grades and analyzing literary texts in elementary grades.

**Key words:** text, PIRLS, reading quality, work of fiction, text analysis.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Bugungi globallashuv sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Chunki ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bola tarbiyasi, uning dunyo qarashi va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish, o'quvchilar nutqini o'stirish xalqaro standartlarda alohida me'yor sifatida ishlab chiqilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinflarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish muhim omildir.

Mamlakatimizda o'quvchi yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy ustuvorlik asosida ta'lim tizimida tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Shunga muvofiq, endilikda respublikamizdagi boshlang'ich 4-sinf ta'lim oluvchilari matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) tadqiqotlarida ishtirok etadigan bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish

masalasini alohida ta'kidlab o'tdi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

PIRLS - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi. O'quvchilarning o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

O'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, ularni xalqaro tadqiqotga muvaffaqiyatli natijalarga erishishini ta'minlash uchun dars va darsdan tashqari o'qish soatlarida, to'garak mashg'ulotlarida, takrorlash darslarida PIRLS topshiriqlariga o'xshash vazifalardan foydalanish muhim omil sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini

tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034- son.

2. Progress in International Reading Literacy Study.
3. [www.milliy markaz.uz](http://www.milliy-markaz.uz)
4. [www.centroko.uz](http://www.centroko.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Rajabova Shohsanam Usmonovna  
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani  
45-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada PIRLS topshiriqlarini tayyorlashning metodik jihatlarini o'z aksini topgan va PIRLS topshiriqlarini tayyorlashning o'ziga xosligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, badiiy asar tahlili, kompetensiya, individual yondoshuv, dars, sinfdan tashqari o'qish, o'qish savodxonligi, samaradorlik, natija.

**Аннотация:** В данной статье отражены методические аспекты подготовки заданий PIRLS и обоснована уникальность подготовки заданий PIRLS.

**Ключевые слова:** образование, анализ художественного произведения, компетентность, индивидуальный подход, урок, внеклассное обучение, читательская грамотность, эффективность, результат.

**Abstract:** This article reflects the methodological aspects of preparing PIRLS tasks and substantiates the uniqueness of preparing PIRLS tasks.

**Key words:** education, analysis of a work of fiction, competence, individual approach, lesson, extracurricular education, reading literacy, efficiency, result.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun; Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida

o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.<sup>13</sup>

Dunyo davlatlari ta'lim tizimlari o'zaro uyg'un holda rivojlanishi uchun turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini baholashning umumiy dasturlari yaratilganio [Shunday dasturlardan biri bu](#) PIRLS.

PIRLS - (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya [Federatsiyasi](#) yetakchilik qilmoqda. Sodda tilda aytganda, PIRLS - o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajasini baholash. Maktab o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro dastur bo'yicha asosiy tayanch kompetentsiyalarini aniqlash va boshqa davlatlar o'quvchilari bilan taqqoslash, ularning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish, ilmiy-dastur va innovatsiya faoliyatini, ularning ijodiy ishlanmalari va g'oyalarini qo'llab- quvvatlash, shuningdek, o'rta ta'lim maktablarida o'qitish va ta'lim olish muhitini o'rganish uchun mazkur dastur natijalari ma'lumotlar bazasi vazifasini o'taydi. PIRLS va boshqa ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga [nima beradi](#), degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

2. Milliy ta'lim [tizimini isloh qilish](#), ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

3. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

4. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

5. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish [madaniyati rivojlanadi](#), ta'lim sifati xalqaro baholash standartlariga moslashadi;

6. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. PIRLS tadqiqotida o'quvchilar dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida ishlatadigan o'qishning ikki turi baholanadi:

1) o'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish ;  
2) ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqotning [konseptual qoidalariga muvofiq](#), badiiy va informatsion (ilmiy ommabop ) matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni [talqin va sintez qilish](#);
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash;

PIRLS da bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 [ball bilan baholanadi](#);
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-sonli farmoni.

- erkin javob berishg kerak bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha baholanadi.

PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning tayanch kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda savodxonlik (literacy) kontekstual ko'rsatkich aniqlashtirilib, o'quvchi maktab darsliklaridagi bilimlar bilangina emas, balki jamiyat hayotidagi zaruriy kompetensiyalarni parallel shakllantirib borishi takomillashtirilganligi bilan ham ifodalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034- son.

2. Inoyatov U., Xodjaev B. Umumta'limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning kontseptual asoslari // Xalq ta'limi j., №2 2016. –B. 7-15 b.;

4. N.G. Dilova Uzluksiz ta'lim jarayoni subektlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: muammolar va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. "Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni baholashda PIRLS tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlari" nomli tezisi 26.1.0.2020 y.

### **PISA\_ - O'QUVCHILARNI TA'LIM SOHASIDAGI YUTUQLARINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO DASTURINING AHAMIYATI**

*Sanayeva Zulayho Maxmadqulovna  
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani  
37-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezis "PISA\_ - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturining o'ziga xos xususiyatlari" xususida bo'lib, unda PISA tadqiqotining asosiy vazifasi, PISA tadqiqoti qanday xususiyatlarga ega ekanligi hamda O'zbekistonning ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishi to'g'risida fikr-mulohazalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** PISA, tadqiqot, baho, yo'nalish, innovatsion, kreativ fikrlash.

**Аннотация:** В данной дипломной работе на тему «PISA – особенности международной программы оценки достижений учащихся в сфере образования» даны мнения о ее участии.

**Ключевые слова:** PISA, исследование, оценка, направление, инновационное, творческое мышление.

**Abstract:** This thesis is about "PISA - the specific features of the international program for assessing the achievements of students in the field of education". opinions about his participation were given.

**Key words:** PISA, research, assessment, direction, innovative, creative thinking.

Mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarining o'rni beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq

qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. 4-yo'nalish esa innovatsion yo'nalish bo'lib, o'zgaruvchan xususiyatga ega. Ya'ni 2022 yilda 4-yo'nalish kretaiv fikrlash yo'nalishi bo'yicha baholangan bo'lsa, 2025 yilda raqamli dunyoda o'rganish yo'nalishida baholanadi.

Har bir topshiriq bir necha savolni o'z ichiga olgan bo'lib, savollar oddiy bitta yoki bir nechta to'g'ri javobli test, qisqa yoki mufassal javobli yopiq savol, shuningdek, mufassal javob berish lozim bo'lgan ochiq savol ko'rinishda berilgan.

Dunyo mamlakatlarida PISA dasturining natijalari asosida o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISAning asosiy vazifasi – mamlakatlarni ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;
- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamlil xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;
- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadi;

- o'quvchilarning «mustaqil hayotga tayyorlik» darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

- o'quvchilarning funksional savodxonligi (**insonlarning tashqi muhit va jamiyat bilan munosabatga kirishishi va tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati**), jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;

- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Bundan tashqari, PISA – 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchi-yoshlar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECDga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

Shu o'rinda, «O'zbekistonning ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishi nima beradi?» degan savol tug'ilishi tabiiy. PISA tadqiqotida ishtirok etish quyidagilarga imkon yaratib beradi:

- umumta'lim maktablari o'quvchilarining ta'limning keyingi bosqichini davom ettirishga, shuningdek mustaqil hayotga qay darajada tayyor ekanligini aniqlash;
- umumiy o'rta ta'limni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;
- o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish.

PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarning savodxonligi tekshirilibgina qolmasdan, yana qo'shimcha ravishda turli ijtimoiy so'rovnomalar orqali ularning o'qish shart-sharoitlari, muammo va yutuqlari ham o'rganiladi. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.



## Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori
2. A.A.Ismailov, N.A.Karimova, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" – T.: 2019
3. Internet resurslari

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH SOHASIDAGI PIRLS XALQARO DASTURINI AMALGA OSHIRISH: MILLIY YONDASHUV VA XALQARO TAJRIBALAR

*Rajabova Sojida Xudoyberdiyevna  
Qarshi shahar 15-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

### Rezyume

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholashning xalqaro (PIRLS) tadqiqotiga tayyorlash yuzasidan turli topshiriqlarni ishlab chiqishga doir metodik ko'rsatmalar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** o'qish savodxonligi, xalqaro (PIRLS) tadqiqot, badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishning yangi bosqichida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

**Badiiy tajriba orttirish.** Adabiyotni tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va badiiy shakllarni bilishi kerak. Yosh o'quvchilar uchun adabiyot hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg'ularni o'rganish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o'quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi. PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir [2].

**Axborot olish va undan foydalanish.** Axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishontirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin [2].

Umumta'lim muassasalarida xalqaro tadqiqotlar amaliyotiga asoslangan holda boshlang'ich ta'lim sifatini baholashga erishishda o'qituvchi o'quv jarayoniga kompleks tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashga doir topshiriqlarni ishlab

chiqishi va o'quv jarayonida qo'llashi muhim hisoblanadi. Bunda o'quv predmetining o'ziga xos jihatini, mashg'ulot o'tiladigan joy va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchilarning imkoniyati, ehtiyoji, hamkorlikdagi faoliyatini e'tiborga olish zarur. Bu o'rinda o'qituvchi ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash uchun dastlab bu jarayonga mas'ul bo'lgan pedagog xodimlarning xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish va amaliyotga joriy etish yuzasidan kompetentligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, quyida 4-sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) tadqiqotiga tayyorlash yuzasidan o'qish savodxonligining "Badiiy tajriba orttirish" turi bo'yicha turli topshiriqlarni ishlab chiqishga doir metodik ko'rsatmalarni qisqacha bayon etamiz.

### **Matni o'qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo'yicha topshiriqlar.**

#### **1-topshiriq. O'qish texnikasini tekshirish.**

Qishlog'imizda bittagina kuvi bor. U ham bo'lsa – O'g'lon momoniki. Shuning uchun kunora uni uyma-uy olib ketishadi. Suzma xaltamiz to'lgan kezlari enam qatiqqa ishora qiladilar:

– Bor, bolam. O'g'lon momongning kuvisiga chop! Tezda pishib olmasak, "qorin" bo'shab qoladi, - deyдилar.

Men O'g'lon momonikiga chopaman. Ukalarim bo'lsa, hali "sori moy"dan darak bo'lmasa ham, qo'llaridagi kulchalariga kuvi moy surkab yeyishga shay bo'lib turishadi.

O'g'lon momo ko'pni ko'rgan, yaxshi ayollardan. Kuvini menga berayotib bir hovuch sho'rtak qurut ham tutqazadilar.

– Uylaringga borguncha shimib borasan, - deb qo'shib qo'yadilar.

Qurutlarni ukalarimga, o'rtoqlarimga bo'lib beraman. Ba'zida o'zimga ham yetmay qoladi. Men esa, bundan xafa bo'lmayman. Chunki onam meni, "katta o'g'lim, dastyor o'g'lim", deb suyardilar-da!

Aslida katta bolalar kichiklarga mehribon bo'lishlari kerak-da, shunday emasmi?.(Ollonazar Ulug'ov)

#### **1-topshiriq.**

**1-vazifa.** Hikoya matnini sekin, yarim ovozda o'qib chiqing. O'qituvchining ishorasi bilan o'qiyotgan joyingizni belgilab qo'ying.

#### **2-topshiriq.**

**1-vazifa.** Matnning bu qismida insonlarning qanday fazilatlarini uchratish mumkin?

A) mehnatsevarlik;

B) mehribonlik;

V) halollik;

G) to'g'riso'zlik.

**2-vazifa.** Matnda sizning oldingi javoblaringizni tasdiqlovchi gaplarni belgilab chiqing va daftaringizga ko'chiring (Qurutlarni ukalarimga, o'rtoqlarimga bo'lib beraman. Ba'zida o'zimga ham yetmay qoladi. Men esa, bundan xafa bo'lmayman. Chunki onam meni, "katta o'g'lim, dastyor o'g'lim", deb suyardilar-da! Aslida katta bolalar kichiklarga mehribon bo'lishlari kerak-da, shunday emasmi?).

**3-vazifa.** Boshqa hikoyalarda ham insonlarning mehribonligi haqidagi voqealar uchraydimi? Qaysi hikoyalarda? Javobingizni yozing ("Polaponlar", Ollonazar Ulug'ov; "Oq so'yloq", Jek London).

**3-topshiriq.** Badiiy matnning alohida xususiyatlarini bilish, tilning tasviriy vositalarini anglash.

Kulrang ko'zi yaqinda ochilgan bo'lsa ham o'tkir edi. Hatto ko'zi ochilmagan paytda ham sezgirligi oqibatida ko'p narsalarning farqiga borardi. Avvalo u to'rt qarindoshlarining har bittasini ajrata olar edi. Hadeganda ularga tegishar, qitmirlilik qilar, mabodo urush chiqsa halitdan irillagudek bo'lar, bo'g'zida allanechuk qaltiroq boshlanardi. Ko'zi ochilmasdan ilgariroq u hidlari, harorati orqali mehr, yegulik va ardoqlash manbayi bo'lgan onasini boshqalardan



ajratardi. Ona bo'ri yumshoq tili bilan uni beozor yalab-yulqiganda u halovat topar va pinjiga suqilib orom uyqusiga ketardi.

Birinchi oy deyarli uyqu bilan o'tdi, ammo endi ko'zi ravshanlashib kamroq uxlaydigan bo'ldi va sekin-asta olam bilan tanisha boshladi. U yashayotgan olam zim-ziyo edi. Boshqa olamni bilmagani uchun ham buni bilolmasdi shekilli, tevarak nim qorong'u edi, ammo bundan ravshanroq yoki o'zgacha olam unga notanish edi. U yashayotgan dunyo behad tor – g'or bo'ri uyasining devorlari bilan chegaralanardi, bo'rivachcha tashqi olamning bepoyonligi xususida hech narsa bilmas, shuning uchun bu katalekdek diqqinapas uyada yashash azob bo'lib tuyulmas edi.

Darvoqe, ko'p o'tmay u o'zi yashayotgan olamning bir devor boshqalaridan farq qilishini payqab qoldi – bu g'orning og'zi edi, o'sha tomondan ichkariga nur yopilardi. Bu devorning boshqalariga o'xshamasligini u ba'zi narsalarni anglaydigan va o'z holicha bir nimalarni istaydigan bo'lmasidan avvalroq payqagan edi. Bu devor bo'ri bolasini ko'zi ochilmasdan ancha ilgari, ya'ni uni ko'rmagan paytlarda ham muttasil qiziqtirar edi. O'sha tomondan yopirilib kelayotgan nur uning yumuq ko'zlariga ta'sir qilar hamda behad yoqimli va shu bilan birga g'alati hislar qo'zg'atayotgan haroratli shu'lalardan qovog'i qimirlay boshlardi. U bamisli quyoshga talpingan kungaboqar singari borliq vujudi bilan istasa-istamasa shu nurga talpinar edi. (Jek London)

**1-vazifa.** Matndan bo'ri bolasi tasvirlangan gapni toping va daftaringizga ko'chiring.

A) Hatto ko'zi ochilmagan paytda ham sezgirligi oqibatida ko'p narsalarning farqiga borardi.

B) U yashayotgan olam zim-ziyo edi.

V) U yashayotgan dunyo behad tor-g'or bo'ri uyasining devorlari bilan chegaralanardi.

**2-vazifa.** Matndan bo'ri bolasining ona mehrini yorqin tasavvur etishga yordam beruvchi sifatlarni aniqlang va daftaringizga ko'chiring (hidlari, harorati orqali mehr, yegulik va ardoqlash manbayi bo'lgan ona).

**3-vazifa.** Matndan o'xshatish va jonlashtirishlar qo'llangan gaplarni toping va daftaringizga ko'chiring (katalekdek diqqinapas uya, yopirilib kelayotgan nur, haroratli shu'lalar, bamisoli quyoshga talpingan kungaboqar singari).

**4-vazifa.** Mazkur matnning turini aniqlang.

A) ertak;

B) qissa;

V) ilmiy-ommabop maqola;

D) masal.

Shuningdek, 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholash uchun Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) tadqiqotiga tayyorlash yuzasidan o'qish savodxonligining "Axborot olish va undan foydalanish" turi bo'yicha quyida turli topshiriqlarni ishlab chiqishga doir metodik ko'rsatmalarni qisqacha bayon etamiz.

**Turli o'qish savodxonligini baholashga doir topshiriqlar. Axborot beruvchi matn (1–4-topshiriqlar).**

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay 1336-yilning 9-aprelida Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xo'jailg'or qishlog'ida tavallud topgan. 1405-yilda O'trorda vafot etgan, jasadi Samarqandga keltirilib dafn etilgan.

O'zbek qomusiy olimi Ibrohim Mo'minovning ta'kidlashicha, sohibqiron Amir Temur ilm-fan, adabiyot va san'at fidoyilarini qadrlar, xususan, riyoziyot, handasa, me'morlik, geografiya, adabiyot, tarix, tibbiyot, musiqa, geologiya va din sohasidagi sohibi hunarlar bilan suhbatlashishni, bahslashishni, ulardan fikr-maslahat so'rashni o'zi uchun farz deb bilgan.

Zamondosh tarixchilarning e'tirof etishicha sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari – davlat, mamlakat va fuqarolar haqida g'amxo'rlik qilish bo'lgan. Jahongirlik qoidasi esa haqiqat –sihat-salomatlik, haqiqat – tartib, haqiqat – adolat deb tushunilgan.

Uning davlatdordlikdagi shiori: "Kuch – adolatdadir", "Rosti- rusti" ("To'g'rib o'lsang – qutulasan").

Uni mashhur qilgan asarlari: “Tuzuki Temuriy” (“Temur tuzuklari”), “Malfuzoti Temuriy” (“Temurning aytganlari”) va “Voqioti Temuriy” (“Temurning boshdan kechirganlari”).

Amir Temur odob-axloq, imon-e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida yuksaklikka va mukammallikka erishgan siymolardan biridir.

Amir Temurdagi sifatlar:

1. Beg‘arazlik va hammaga bir xil jiddiy va odil qarash.
2. Islom aqidalari va ta’limotiga qat’iy amal qilish.
3. Kambag‘allarga ko‘p xayr-ehson qilish.
4. Xaloyiqqa rahm qilish, birovga nohaq ozor yetkazmaslik va yordam so‘rab kelganga yordam berish.
5. Kundalik va dunyoviy ishlarga reja asosida, islomiy talablarni bajargandan keyin kirishish.
6. Haqiqatgo‘ylikka amal qilish, haqiqatni yolg‘ondan ajratishga erishish.
7. Va’daga vafo qilish.
8. O‘zini Allohning yerdagi mulkining posboni deb bilish.
9. Har doim Allohning farzi va payg‘ambarning sunnatiga amal qilish.
10. Insof va imonni buyuklikning qudratli zamini deb bilish.
11. Ilmli kishilarni, sayyidlar va shayxlarni e’zozlash.

Sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma’no o‘gitlarining har biri mazmun va ma’no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o‘gitlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goh sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Bu o‘gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, sehri tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan durdona – ma’rifatdir. Bu ma’rifat buyuk Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g‘olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o‘rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasida buzilmas do‘stlik, mehr-shafqat, odamiylik va odob-axloqni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag‘ishlangandir.

**Matnning ichidagi aniq ko‘rsatilgan axborotlarni topish.**

**1-topshiriq.** Sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlarini yozing.

**Izoh:** birinchidan, savolga javobni qidirish kerak. Ikkinchidan, javobni yozib olish kerak. Uchinchidan, kalit so‘zni qidirish uchun uning sinonimini topish kerak.

**Matnda ko‘rsatilgan axborotga asoslangan holda xulosa qilish.**

**2-topshiriq.** Amir Temur odob-axloq, imon-e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida yuksaklikka va mukammallikka erishgan siymolardan biri ekanligini isbotlovchi qanday sifatleri bo‘lgan?

**Izoh:** Savolga javob yozayotganda

Amir Temurning sifatlarini aytish bilan birga, uning odob-axloq, imon-e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida yuksaklikka va mukammallikka erishgan siymolardan biri ekanligini isbotlashga undovchi matn bilan munosabatga kirisha olish, fikr-mulohazalarini isbotlay olish kerak.

**Matnda berilgan axborotlarni birlashtirish va tushuntirish.**

**3-topshiriq.** Matnda “Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari benihoya katta” deb yozilgan. Amir Temurning shunday ishlarini namuna qilib ko‘rsating-ki, yuqoridagi fikrni isbotlasin.

Shu bilan birga matn shakli va mundarijasini baholay olishga doir topshiriqlar orqali ham o‘quvchilarning savodxonlik darajalari baholanadi.

O‘qituvchilarni ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

- loyihalash va tadqiqotchilik metodlari, muammoli ta’lim, loyihalash, hamkorlikda o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi hamda modulli ta’lim texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanish;

- o'qitishning dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakllaridan samarali foydalanish;

- PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning o'qish savodxonligiga qo'yilgan talablardan, ya'ni o'qish savodxonligining maqsadi va tushunish jarayonlaridan kelib chiqqan holda darslikdagi, sinfdan tashqari o'qish uchun foydalanilayotgan adabiyotlardagi matnlar yoki gazeta va jurnallarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'quvchilar uchun topshiriqlar tayyorlash va o'qish savodxonligini oshirish;

- ta'lim jarayonida mantiqiy savol-topshiriqlardan ko'proq foydalanish).

Xulosa shuki, o'qituvchilarni o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash sohasidagi xalqaro loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirishda o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish, o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish, o'quvchilarning o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan metodik tizimni yaratish, o'quvchilarning o'qish fanidan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish: ped. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) ...diss. – T.: 2019. – 162 b.

2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash / U.N.Tashkenbayevning umumiy tahriri ostida. –T.: Sarq, 2019. –91 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz).

4. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz).

## BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA VA TABIIY FAN DARSLARI JARAYONIDA TIMSSGA OID TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

*Nomozova Mohigul Qahramonovna*

*Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani*

*38-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Matematik va tabiiy savodxonlikni aniqlashda TIMSS xalqaro baholash dasturidan foydalanish” xususida bo'lib, unda o'quvchilarning matematik va tabiiy savodxonligini oshirishda TIMSS Xalqaro baholash dasturining o'rni xususida fikrlar qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** TIMSS, xalqaro baholash, matematik savodxonlik, ko'nikma, muammo.

**Аннотация:** Данная статья посвящена теме «Использование программы международной оценки TIMSS при определении математической и естественной грамотности», содержит мнения о роли программы международной оценки TIMSS в повышении математической и естественной грамотности учащихся.

**Ключевые слова:** TIMSS, международная оценка, математическая грамотность, навык, задача.

**Abstract:** This article is about "Using the TIMSS international assessment program in determining mathematical and natural literacy", it contains opinions about the role of the TIMSS international assessment program in improving the mathematical and natural literacy of students.

**Key words:** TIMSS, international assessment, mathematical literacy, skill, problem.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” qarori

bilan Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchiyoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash; O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash; xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish; o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlaridan etib belgilandi. Quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi: Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash; Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash; The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash; The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish; o'quvchilar mustaqil ta'lim olishlari uchun elektron shakldagi ta'limni rivojlantirish, unda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo'yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borish; o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun mustaqil ta'limni joriy etish; xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish yuzasidan malakali o'qituvchi-trenerlar bilan hamkorlikda hududlarda o'quvlar tashkil etish kabilar belgilangan.

Maktab matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi (inglizcha – TIMSS – Trends in Mathematics and Science Study) - bu dastur bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidan tashkillangan (IEA). Ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'limning 4-sinf o'quvchilari va 8-sinf o'quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamdamonitoring (inglizcha – TIMSS – Trends in Mathematics and Science Study) - bu dastur bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidantashkillangan (IEA). Ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'limning 4-sinf o'quvchilari va 8-sinf o'quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamdamilliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi. Ushbu tadqiqot 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Shu kunga qadar 6 marta o'tkazildi. 1995, 1999, 2003, 2007, 2011 va 2015 yillarda. 1995 yildan 3 marotaba (oxirgisi 2015 yilda) maktab bitiruvchilarining (Rossiyada 11-sinf, AQShda -12-sinf) yutuqlarini aniqlashni o'z ichiga olgan xolda kengaytirilgan tadqiqot ishlari (Advanced TIMSS) olib borildi.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta'limi sifatiga solishtirma baho berish.

Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularining bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishtirishga imkon beradi.

Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo'sinda maktabning boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Tadqiqot o'tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta'limning mazmun mohiyati va o'quv jarayoni, ta'lim muassasasi, o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning oilalari bilan bog'liq omillar qo'shimcha o'rganiladi. Xalqaro testga qo'shimcha bo'lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma'muriyati, o'quvchilar va o'qituvchilar so'rovnomadan o'tkaziladi.

Olingan ma'lumotlar test natijalariga ya'ni o'quvchilarning bilimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashga, tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarning matematika va tabiiy fanlarning holatini ko'rsatib berishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda va majmua ishlanmasida dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari va professional tashkilotlar ishtirok etadi. Ta'lim sohasidagi test xizmatlari: (ETS- Educational Testing Service SSHA), Kanadaning statistik markazi (Statistics Canada), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining Sekretariati (IEA, Niderland(gollandlar)lar), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlar markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya) va hokazo. Turli davlat mutaxassislarining koordinatsiyasini kuchaytirish uchun dunyoning yetuk mutaxassislaridan iborat bo'lgan maslahat qo'mitalari tashkil etildi. Hozirgi tadqiqot koordinatsiyasi Boston kollejida xalqaro koordinatsiya markazi tomonidan amalga oshirilgan. (ISC – International Study Center, Boston College SSHA) Rossiyada ushbu tadqiqot (ta'lim sifatini baholash markazi) Rossiya ta'lim akademiyasining fan, ta'lim mohiyati va uslubi instituti hamda fan va ta'lim vazirligi va regionlarning ta'lim boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tadqiqotning tasnifi TIMSS tadqiqotini ishlanmasiga asos qilib maxsus hujjat olingan "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications", unda ushbu yo'nalishlarga umumiy yondashgan holda matematika va tabiiy fanlarga test va test topshiriqlariga tushuncha berilgan, shuningdek o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlari namoyish etiladi, so'rovnoma davomida olinayotgan ma'lumotlar o'quvchiga, o'qituvchiga va ta'lim muassasiga berilgan tariflarning sanab o'tilgan turlari va topshiriqlari ko'rsatiladi.

Xalqaro TIMSS tadqiqoti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Test yutuqlari
- So'rovnomalar
- Uslubiy ta'minlanganligi
- Dastur ta'minoti

Xalqaro testlar quyidagi omillar orqali ishlab chiqiladi:

- Tekshirilayotgan ishlar va ta'lim turlarining mosligi
- Loyihada ishtirok etgan davlatlarning xalqaro testlariga mosligi
- Testlarning bir-biriga bog'liqligining ta'minoti.
- Tekshirilayotgan ishlarning yo'nalishlar bo'yicha mohiyati
- Testlarning o'quvchi yoshiga mosligi
- Ommaviy tadqiqotning qo'yilgan talablarga mosligi.

Yo'nalishlar bo'yicha har bir variantga baholash uchun matematika va tabiiy fanlardan savollar kiritilgan. Turli tipdagi topshiriqlar qo'llaniladi (qisqa, to'liq va mukammal javoblarni, amaliy topshiriqlarning javoblarini tanlagan holda).

4- va 8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlarning nazariyasidan foydalaniladi (inglizcha, ruscha). Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini (so'rovnomaga asosan) aniqlab beradi. Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4- va 8-sinflarda alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Statistik o'rganishlar natijasida har bir o'quvchini 1000 ballik shkala bo'yicha baholab, matematika va tabiiy fanlarga alohida ballar beriladi.

1995 yilda xalqaro shkalalar 4- va 8-sinflarda oʻrnatilgan. Bunda tadqiqotda ishtirok etgan davlatlarning oʻrtacha bali 500 ball deb hisobga olingan. Keyingi tadqiqot natijalari 1995 yilgi shkala boʻyicha oʻrnatilmoqda, bu natijalarni solishtirishga va ularning oʻzgarish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

50 dan ortiq mamlakatlar oʻquvchilarining bilim, koʻnikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilgʻor tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida oʻquvchilarning taʼlimiy yutuqlari: bilish, qoʻllash, mulohaza yuritish baholanadi.

**“Bilish” boʻlimi** oʻz ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan boʻlib, masalalar yechish oʻquvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, taʼriflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan maʼlumot olishni oʻz ichiga qamrab oladi. Oʻquvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, tabiiy-ilmiy atamalar va oʻlchov birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

**“Qoʻllash”**ga oid test topshiriqlarini bajarishda oʻquvchilar hayotiy vaziyatlarni oʻzida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni oʻtkazish koʻnikmalarini namoyish etishlari zarur.

**“Mulohaza yuritish”**ga oid topshiriqlar oʻquvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining koʻpligi, turli boʻlimlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. Oʻquv faoliyati turlari boʻyicha oʻquvchilarning oʻquv yutuqlarini baholashga qoʻshimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar boʻyicha berilayotgan taʼlim mazmuni, oʻquv jarayoni, oʻquv muassasasi imkoniyati, oʻqituvchilar salohiyati, oʻquvchilarning oilalari bilan bogʻliq omillar ham oʻrganiladi. Ushbu maʼlumotlar belgilangan fanlarni oʻzlashtirish holatini koʻrsatishda asos boʻladi. Tadqiqot toʻrt yilda bir marta dunyoning koʻplab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Taʼlim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Taʼlim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida oʻtkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qoʻmitalari tashkil etiladi.

Oʻqituvchilar oʻquvchilarning oʻquv faoliyati turlari (bilish, qoʻllash, mulohaza yuritish) boʻyicha oʻquv yutuqlarini baholashda oʻtgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensial rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida taʼlim jarayonida qoʻllashlari mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining oʻquvchilarning oʻquv yutuqlarini baholashning oʻziga xos yondashuvlarini tushinishni taʼminlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari taʼlim texnologiyalari va oʻqitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Matematika va fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish koʻplab mamlakatlarda ushbu fanlarning oʻquv dasturlarining eng muhim maqsadlaridan biridir. Uyda topshiriqlar bajarish oʻquvchilarga maktabda oʻrganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi va oʻqituvchilar uchun mavzu boʻyicha oʻqitish vaqtini uzaytiradi. Natijada, koʻp miqdorda uy vazifasi olgan oʻquvchilar kam miqdorda uyga vazifa olgan yoki umuman olmagan oʻquvchilarga qaraganda yuqori natijalarga erishishi kutiladi. Uy vazifasini bajarish anʼanalari koʻp mamlakatlar tomonidan keng tarqalgan. Baʼzi mamlakatlarda 4-sinfda ular kamdan-kam hollarda uyda, asosan tuzatuv maqsadlarida, individual oʻquvchilarni oʻzlarining tengdoshlari bilan materiallarni oʻzlashtirib olishlariga imkon berish uchun soʻraladilar.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 997-sonli qarori

4. A.A.Ismailov, G.Togʻayeva, S.Akbarova, D.Asqarova. “Xalqaro tadqiqotlarda oʻquvchilarning tabiiy fanlar boʻyicha savodxonligini baholash” – T.: 2019

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI

*Shaxmurodova Dilnoza Almardonovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 25-sonli  
umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashning asosiy bosqichlari, o'qish malakalarining sifatleri va ularni takomillashtirish yo'llari hamda boshlang'ich sinflarda badiiy asar matnini tahlil qilish usullari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, matn bosqichlari, o'qish sifati, badiiy asar, matn tahlili.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об основных этапах работы над текстом на уроках чтения в начальной школе, о качествах навыков чтения и способах их совершенствования, а также о способах анализа текста художественного произведения в начальной школе.

**Ключевые слова:** текст, этапы текста, качество чтения, художественное оформление, анализ текста.

**Abstract:** This article provides information on the main stages of working on a text in primary school reading lessons, the qualities of reading skills and ways to improve them, as well as ways to analyze the text of a work of art in primary school.

**Keywords:** text, text stages, reading quality, artwork, text analysis.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida ham tub islohotlar ro'y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta'minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bermoqda.

Respublikamiz boshlang'ich sinflar uchun milliy dastur va yangi avlod darsliklar yaratildi. Ona tili va o'qish savodxonligi dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalari audiomatnlardan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi.

Bunda o'quvchilar badiiy asarni quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilishlari:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfdagi o'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta'sirini ham hisobga olish zarur. O'quvchi matnni o'qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o'quvchilarda fikr uyg'onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Boshlang'ich sinflarda turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Bizga ma'lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob'ektiv mazmun va sub'ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni

muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o'qituvchining diqqat markazida turadi. O'quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o'ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqealar tasvirlanadi. Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o'quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, badiiy asarni tahlil qilishda o'quvchilarni asarning g'oyaviy yo'nalishini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Psixolog olimlarning ko'rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o'zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo'lib, asarga, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o'z ichiga olishi kerak. Kichik yoshdagi o'quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo'ladi.

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.
2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o'quvchilar o'z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so'z boyligi, tajriba yetishmaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko'rsatish va o'quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

1. O'quvchilar asar qahramoniga munosabatlarini ifodalashda u harakat qilgan sharoitni hisobga olmaydilar.

2. Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur.

O'qituvchi tuzilishi murakkab so'zlarni oldindan doskaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga xor bo'lib o'qitilishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato ikki xil yo'l bilan tuzatiladi: 1) O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, o'quvchini o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'rilash mumkin; 2) xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar o'qish sifatlaridan to'g'ri, me'yorida o'qishni egallagan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydi.

O'quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonidan nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.

2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyastiyasi va aniq dikstiya (burro gapirish) malakasini egallash.

3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki boshlang'ich sinflarda to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish vazifasi o'quvchilarda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish bilan matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi asarni tahlil qilishga qanday yondashishni belgilab beradi.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo'nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozitsiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va karakterli xususiyatlarini, asarning g'oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida



ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning harakterini aniqlab olishga yordam beradi

Tanlab o'qish - bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab - natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, 4 - sinfda "Oltin kuz" matnidan "Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarni topib o'qing" kabi.

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o'qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o'stirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2013- yil.
2. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 2016- yil.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Eshonqulov Qodir Parmonqulovich  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich  
ta'lim yo'nalishi talabasi.

#### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'qitish samaradorligini oshirishda metodlarning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, mas'ulyat, davr, bilim, uchun, jarayon, yangi , metod,, texnologiya, ibora, innovatsiya, qadam, zamonaviy, aqliy, yo'l, ko'nikma fikr, mulohaza, bayon, maktab.

Bugungi kunda ta'lim jarayonlarining sifatli va mazmunli bo'lishini ta'minlash uchun, innovatsion texnologiyalarning o'rni kattadir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'ulyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari ana shu davrda shakllanadi. Pedagog tomonidan qo'lanilayotgan har bir metod va texnologiya birinchi o'rinda dars jarayoniga, ikkinchi o'rinda esa o'quvchining yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini amalga oshiradi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlarga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma, va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat, bo'libgina qolmay o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, darsga bo'lgan qiziqishini orttirish, kelajakda yetuk va barkamol shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashishni ham o'z ichiga oladi. Har bir dars jarayoni oldidan, dars loyhasi ya'ni texnologik xaritasi tuzib olish talab etiladi.

Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir boshqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi boshqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari boshqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, samaradorlikka erishish va boshqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Dars jarayonida qo'llanilayotgan har bir texnologiya ya'ni metodning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bolishi hamda dars mavzusiga bog'liq bolishiga katta e'tibor qaratilmog'i lozim.

Shular jumlasidan, boshlang'ich sinflarda natijaviyligi kafolatlangan metodlar. "T" cizma, "Tushunchalar tahlili", "Chaynovord", "Venn diagrammasi", "O'rnini top", "Ortiqchasini top", "Buzuq uyali telefon", "Klaster", "Filvord", "Baliq skeleti", "Guruhingni aniqla", "Idrok xaritasi", "So'z ichida so'z", "Sinkveyn", "Quvnoq kartoshka", "Matn tahlili", "Latto", "Bashorat", "Kub", "Assasment texnikasi",

"Charxpalak" texnologiyasi butun darsda o'tkaziladigan jarayon bo'lib, u yangi mavzuni o'tishda qulay texnologiya hisoblanadi. Bundan guruhdagi ishtirokchilar o'qituvchi tomonidan berilgan tarqatmadagi ma'lum savolga javob berib qog'ozga o'z belgilarini qo'yishadi. Svollar varog'i qo'shni guruhdagi o'quvchilarga o'z belgisini qo'yish uchun yuboriladi. Shu tariqa bu savollar varog'i butun sinfni charxpalak aylanmasi yo'nalishida aylanib, so'ngra 1- chi uquvchiga qaytib keladi. U o'quvchi o'zining bergan javobini qo'ygan belgisiga qarab topdi, va o'rtoqlarining javoblari bilan taqqoslaydi. Shundan so'ng o'quvchi tomonidan to'g'ri savollar o'qiladi yoki, ekran orqali namoyish etiladi. O'quvchilar shu tariqa tekshirib baholanadi. Bu texnologiya faqatgina baholash jarayonini ham olib darsning o'tgan mavzuni takrorlash yoki, yangi mavzuni qo'llash mumkin.

"Chaynovord" ushbu metod chizmasi savollar va javoblar betidan iborat bo'lib, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'quvchi tomonidan javob beriladi. Faqat O'qituvchi savol tuzayotgan paytda shunga e'tibor berishi lozim, 1-savolning javobi qaysi harf bilan tugasa, 2-savolning javobi aynan shu harf bilan boshlanishi kerak.

"Assesment- o'z-o'zini taqdimot qilish, ma'lum sinovdan o'tish uchun qo'llanadigan baholash texnikasidir. Unda ma'lum bo'lim yakunida o'quvchilarning bo'limda o'rganganlarini baholashda yoki darsning mustahkamlash boshqichida va nazorat darslarida foydalanish mumkin. Bu texnikaning chizmasi namunadagidek tuziladi. Bunda topshiriqlar soni va saviyasiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

"Sinkveyn" so'zi "Besh qator" degan ma'noni anglatadi. Unda o'qituvchi faqat bitta ot so'z turkumiga oid so'zni o'quvchilarga taqdim etadi. O'quvchilar 2-qatorda shu so'zni ikkita sifat bilan, 3-qatorda esa shu so'z ishtirokida to'rt so'zli jumla yozadilar, 5-qatorda yuqoridagi so'zni boshqa bir ma'nodosh (sinonim)ga almashtirib yozadilar.

"Organayzer", bu metod tarmoqlashishning shunday turiki, unda faqat birlamchi yoki faqat ikkilamchi ma'lumotlar emas, balki ham, birlamchi, ham ikkilamchi ma'lumotlar ochiq qoldirib beriladi. O'quvchilar qaysi tarmoq ochiq bo'lsa, shu, joyning ma'lumotini topish kerak. Bunda ularga o'qituvchi tomonidan yozilgan ma'lumotlar yordam beradi.

Shu kabi metodlarning fanlar kesimida dars jarayoning qisqa mudatida foydalanish maqsadga muvofiq. Dars jarayonida qo'llanilgan har bir metodlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi va hech bir qiyinchiliksiz berilgan bilimlarni o'zlashtirib olishga yodda tutishga yordam beradi. Dars jarayonida metod qo'llashdan oldin o'qituvchi metodning mazmunini anglab olishi, dars jarayoning aynan qanaqa paytida mana shunaqa metodlarni qo'llash yaxshi samara berishini tahlil qilib o'rganib olishi lozim.

1. J. HASANBOYEV. X.A. TO'RAQULOV. I.SH. ALQAROV.  
N.O'.USMANOV  
"PEDAGOGIKA".  
2. Bexdu.uz.  
3. Internet ma'lumot.

#### IV SHO'BA: MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK MASALALARI HAMDA INTENSIV USULLARI

#### BARKAMOL AVLODNI TARBİYALASHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGINI TASHKIL ETISH AHAMIYATI

*Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna  
MTTDMQTMO instituti  
dotsenti, p.f.f.d.(PhD)*

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada MTTning ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlikdagi faoliyati mazmuni, bola tarbiyasida oilaning o'rni, ota-onalar bilan ishlash tamoyillari, ota-onalar pedagogik savodxonlikni oshirish shakllari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, bola, oila, ijtimoiylashuv, tarbiya, tarbiyachi, hamkorlik, rivojlanish, shart-sharoit, kompetentlik.

#### **Аннотация**

В данной статье представлена информация о содержании сотрудничества ДОО с родителями, роли семьи в воспитании детей, принципах работы с родителями, а также способах повышения педагогической грамотности родителей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, ребенок, семья, социализация, воспитание, воспитатель, сотрудничество, развитие, условие, компетентность.

#### **Annotation**

This article provides information about the content of cooperation between preschool educational institutions and parents, the role of the family in raising children, the principles of working with parents, as well as ways to improve the pedagogical literacy of parents/

**Key words:** preschool educational, child, family, socialization, education, teacher cooperation, development, conditions, competence

Zamonaviy jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat ta'lim dasturlari, talablari, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi Qonuni kabi hujjatlarning maqsadi ham voyaga yetmagan bolalarni ham jismoniy, ham aqliy, yuksak intellektual salohiyatga ega shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar, keng islohotlar ko'lami amalga oshirilmoqda. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Salohiyatga turli yo'llar bilan erishish mumkin. Davlat tomonidan oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yanada yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, pedagoglar va oila o'rtasida o'zaro ishonchli muhitni tashkil etish, hamkorlik va birgalikda ishlash talabini qo'yimoqda.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari Davlat talablari asosida bolalarni yuksak axloqiy qobiliyatga ega, intellektual salohiyatli, ijtimoiylashgan bolalarni maktabga sifatli tayyorlab berishga qaratilgan. Davlat tomonidan oila tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga yanada yangi vazifalarni qo'yish bilan birga, pedagoglar va oila o'rtasida o'zaro ishonchli muhitni tashkil etish, hamkorlik va birgalikda ishlash talabini qo'yimoqda.

Bugungi kunda oilaning jamiyatdagi o'rni, ta'sir imkoniyatlari biroz pasayganligi kuzatilmoqda. Pedagoglar tomonidan bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiya potensialining kamayganligi, uning roli o'zgarganligi aytilmoqda. Zamonaviy ota-onalarning bolalar bilan oila sharoitida shug'ullanishga vaqt yetishmovchiligi, bandlik, pedagogik kompetensiyaning yetishmasligi kabi sabablar, maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasida asosiy muammolardan hisoblanadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasida MTT pedagoglarining o'rni nihoyatda muhim, lekin har bir bola uchun yaxshi sharoitlarni tashkil etish, ularning tarbiyasida ota-onalarning ishtirok etish darajasini oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Bolaning yetarlicha to'liq ta'lim-tarbiya olishi oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining birgalikda harakatni amalga oshirish sharoitlarida muvaffaqiyatli kechadi.

Ma'lumki, bola 2-3 yoshidan boshlab, o'z ehtiyojlari, fikr va talablarini birmuncha aniq ifoda etadigan bo'lib qoladi. U ko'ziga ko'ringan, aqli yetgan narsalarni so'raydi va ularni sinchkovlik bilan tekshira boshlaydi. Ota-onalar milliy fazilatlarimizga muhabbat bilan qarash, razolatlardan nafrat qilish yo'llarini bolalarga o'rgatadilar.

Bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida oilaning tutgan o'rni beqiyosdir. Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichkina bolalar oilaga juda bog'lanib qolgan bo'ladi, chunki oila:

- Ularning jismoniy jihatdan barkamol bo'lishini, ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlaydi, sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladi;
- Ularning hissiy bardamligini, jumladan, mehr ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi, nimaning yaxshiligi, nimaning yomonligini doimo eslatib turadi;
- Ularning rivojlanishi shart-sharoitlarini ta'minlaydi.

Samarali faoliyat yuritish va oilani MTT ishiga jalb etish uchun pedagoglar o'zlari tarbiyalayotgan bolalarning birlamchi vazifalarini bilishlari, ularning oilasi va yaqin qarindoshlari haqida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari lozim. MTTga qatnayotgan bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun MTT xodimlariga quyidagi faoliyat yo'nalishlarini tavsiya etish mumkin:

1. Ota-onalarda MTT xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishni shakllantirish;
2. Bolaning imkoniyatlari, talab-ehtiyojlari va qiziqishlarni baholashda, uning MTT kirishiga ko'maklashish;
3. Ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish ota-onalarga uyda bola bilan mashg'ulot o'tkazish uchun zarur bo'lgan metodik usullarni o'rgatish;
4. Ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o'rgatish.

Yaponiyadagi birinchi bolalar bog'chasi amerikalik ayollar rahbarligida 1871 yilda Yokogamada, birinchi yapon bolalar bog'chasi 1894 yilda Tokioda tashkil etilgan, ammo bolani onadan bunday erta ajratish g'oyasi mashhur bo'lmagan. Birinchi Froebel tipidagi bolalar



bog'chasi 1876 yilda Tokioda tashkil etilgan. Uning asosiy g'oyasi - bolaning tashabbusi - bugungi kunda ham dolzarbdir. Birinchidan, kam ta'minlangan bolalar bog'chalari ochildi, 1900 yilda maktabgacha ta'limning milliy standartlari va bolalar bog'chalari uchun rasmiy qoidalar ishlab chiqildi. "1947 yilgi qonunga ko'ra, bolalar bog'chalari va bog'chalar boshlang'ich maktab tizimining bir qismiga aylandi ta'minlash, sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy aloqalarni tartibga solish, tegishli muhitni yaratish va boshqalar bilan tanishish, nutq va o'zini ifoda etishni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Jami 23 mingga yaqin parvarishlash markazlari mavjud bo'lib, ularning har birida o'rtacha 75 nafarga yaqin bola, har bir kattaga 10 nafar bola to'g'ri keladi. Rivojlanishda nuqsoni bor bolalar uchun maxsus muassasalar ham mavjud.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va pedagoglar mashg'ulotning yakunlovchi qismida qiziqarli metodlar asosida o'yinlarni tashkil etishlari lozim. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy faoliyat qismi bu o'yin hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim darsliklarida kunduzgi uyqusiz o'ytin 38 foizni tashkil etishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Aynan shu sababli ham tarbiyachi va pedagoglarda ijodiylik rivojlangan bo'lmog'i lozim, Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari mashg'ulot jarayonida „Bilaman“ o'yinini katta va tayyorlov guruhlarida qo'llashlari mumkin. Bunda istalgan bir buyumni qo'lga olamiz.

Masalan kitob har bir bola bilaman so'zidan keyin unga taaluqli bo'lgan bir xossani aytishi lozim. Bilaman unda yozuvlar bor, bilaman uning ranggi qizil, bilaman unda rasmlar bor kabi kitobga xos bo'lgan ma'lumotlarni aytish bolalarni fikrlashini rivojlantirib atrof muhitga nisbatan lug'at boyligi ko'payishiga ham yordam beradi. Xuddi shunda har bir mashg'ulot jarayonida guruhlar kesimida qiziqarli o'yin mashg'ulotlarini tashkil etish tarbiyachi va pedagoglarning o'zining ham kasbiy malakalari shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi va pedagoglar mashg'ulotning yakunlovchi qismida qiziqarli metodlar asosida o'yinlarni tashkil etishlari lozim. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy faoliyat qismi bu o'yin hisoblanadi. O'yin bir necha xil bo'ladi har bir mashg'ulot turiga qarab o'yinlarni tashkil etib borish lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //O'RQ-637-son 23.09.2020.

3. I.V. Grosheva, L.G. Yevstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V.

Pak, G.E. Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;

4. Bo'lajak tarbiyachi, pedagoglarning kasbiy malakalarini baholash mexanizmi Dilnoza Jo'rayeva Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani 17-noyabr 2023-yil

5. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish shart sharoitlari Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi Образование наука и инновационные идеи в мире <http://www.newjournal.org/> Выпуск журнала №-30 Часть-3\_ Октябрь -2023 97 2181-3187

#### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARNI TARBIYALASHDA QO'LYOZMALAR VA BADIY ADABIYOTNING O'RNI**

*Komilova Shahnozabonu  
Yangi asr universiteti Maktab  
va maktabgacha ta'lim kafedrasini  
o'qituvchisi.*

*Abdullayeva Mahliyo Axrorovna  
Yangi Asr Universiteti Maktabgacha  
Ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimiy qo‘lyozmalarda bola tarbiyasi to‘g‘risida so‘z boradi va bugungi kun maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tarbiyaviy jarayonlarda qo‘llanish usullari to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar.** Qo‘lyozma, tarbiya, tarbiyalanuvchi, maktabgacha ta‘lim tashkiloti, hadislar, maqollar, ertak, nutq, folklor, badiiy adabiyotlar .

**Аннотация.** В этой статье речь пойдет о воспитании ребенка в древних рукописях, а сегодня речь пойдет о методах применения воспитанников дошкольной образовательной организации в воспитательных процессах.

**Ключевые слова.** Рукопись, воспитание, воспитанник, дошкольная организация, хадисы.

**Annotation.** This article will talk about the upbringing of a child in ancient manuscripts, and today it will talk about the methods of application of preschoolers in educational processes.

**Keywords.** Manuscript, upbringing, upbringing, preschool organization, hadiths.

Davlatimiz rahbari yosh avlod ta‘limi va tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan fikr va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma‘naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozimligini ta‘kidlaganlar.

“Avesto” eng qadimiy dunyoviy dinlardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi. Avestoda quyosh hayot manbai o‘shish, ulg‘ayish, yashash uchun rag‘bat beruvchi ilohiy omil sifatida qaraladi. Ikkinchi tomondan, quyosh mehr, muruvvat, ezigulik butun borliqqa marhamat ko‘rsatuvchi sifatida ifoda etiladi.

Avesto odamlarni ezigulikka davat etuvchi yaxshilikni himoya qiluvchi yovuzlik va jaholatdan uzoqlashishiga chaqiruvchi g‘oyalarni ilgari suradi. Zardushtiylik dinining g‘oyalari xususida so‘z borganda ularning to‘g‘rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligi alohida takidlab o‘tish zarur . Zardushtiylik dinining g‘oyalariga ko‘ra shaxsning axloqiy xislatlarga ega. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ta‘lim va tarbiya berishda zardushtiylik dini g‘oyalarini ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Zardushtiylik g‘oyasining asosiy mazmuni xayrli ish, shirin so‘z, olijanob o‘y fikrdan iborat bo‘lib bu bolalar etiqodini tarbiyalashda as qotadi. Insonning asosiy burchi adolatli turmush tarzi bolmog‘i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alaba qilishi yolg‘on gapirmaslik so‘zining ustidan chiqish, faqat yaxshilik qilish kerak degan fikrlar ilgari surilgan. Ushbu fikrlardan kelib chiqib maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolaning ijtimoiylashuviga kirishuv jarayoni hisoblanib unda bolalarning ongiga yaxshilik yolg‘on gapirmaslik g‘oyalarini tushuntirib boriladi. Zardushtiylikda axloqning asosi saxovatlilik belgisi mehnat deb ko‘rsatilsa – ish yoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida axloqiy tarbiya shaxsni kamolotga yetishishi uchun yetaklaydigan birinchi muhit hisoblansa undan bolalarni to‘g‘rilikka o‘rgatish tarbiyachilar muhim vazifasi hisoblanadi. Axloq onglilik, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma‘lum xatti - harakat qoidalari tizimida namoyon bo‘ladi. Axloq kishining ichki olami, e‘tiqodi fazilatlarini sifatida mavjud bo‘lsa, odob shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq atvori, muomala munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma‘naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarga tarbiya berishda bizga qo‘l keladigan qo‘lyozma adabiyotlarimizdan Buxoriy hadislaridan va boshqa adabiyotlardan foydalanish mumkin.

Hadis-islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib Muhammad(S.A.V.) payg'ambarning hayoti va faoliyati shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

Imom Al-Buxoriy (asli ismi Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ibrohim Al- Buxoriy) 810-yil 21-iyulda Buxoroda tavallud topgan. Islom olamining yirik mutafakkiri muhadislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Imom Al- Buxoriy o'zining Al jome as- sahih asarida axloqiy tarbiya haqida fikrlar yuritgan. Imom al- Buxoriy axloqiy tarbiyaga oid ta'limotlarining markazida komillik insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari, bir-birlariga har doim yordam berish ahil totuv yashash kerakligi halol mehnat qilish, ezgulik, g'oyalari yotadi.

Bu g'oyalardan kelib chiqib bolalarga mehr -oqibat tuyg'ularini singdirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi

Bolalarni tarbiyalash jarayonini tashkil etishda Imom al-Buxoriy qalbi pok, iymonli atrofida qiladigan umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarnigina axloqan barkamol deb bildirgan fikrlaridan misollar keltirish mumkin.

Yana qo'shimcha qilib yoshlarning komol topishida diniy e'tiqodini shakllantirishda mutafakkirimizning "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur zero bu o'zingga sadaqadir. Ya'ni boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir. Islom insonning manman xudbin bo'lib faqat o'z manfaatini o'ylab ish tutishini maqul ko'rmaydi Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarini qadrlaydi." kabi keltirgan jumlaridan foydalanishimiz mumkin.

Ertak – xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aytib, o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko'zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash bo'lsa, ikkinchidan bo'lsa bolalarni dunyoqarashini hamda nutqini o'stirish, ularda diqqat, xotira, tasavvur va motivlarni shakllantirishdan iboratdir. Maqol xalq og'zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmunidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do'stlik va uni qadriga yetish, kamtarinlik, rostgo'ylik, halollikka o'rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo'lishga da'vat etilishi masalalari o'z aksini topgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shartsharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit bolalarda gapirish, atrofda qiladigan nomlash, nutqiy muomalaga kirishish istagini tug'dirishi kerak. Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o'rgatish. Monologik nutqni egallash bolalarni maktabga tayyorlash uchun muhimdir.

Maktabda esa bu fazilat mustahkamlanadi. Bog'lanishli nutq tafakkurning, uning turli xususiyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hikoya bolaning so'z boyligini hosil qilishiga, jumla tuza olishiga, mazmunni kompozitsiyaga sola olishiga yordam beradi. Bunda bolada ko'rgazmali bo'lmagan har qanday og'zaki hikoyani tinglay olish, ularni tushunish, so'ng esa tinglaganlariga taqlid qilish, ya'ni o'ziga ham qayta hikoya qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlari ham oddiy hikoyalar tuzish o'rgatiladi. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyalanuvchilar bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari bilan tanishtiriladi. Tarbiyachi bolalarda ayrim oddiy ko'nikmalarni tarbiyalaydi. Bular badiiy asarni tinglash va tushunish, uning qahramonlari to'g'risida mulohaza bildirish kabilardan iboratdir. Bolalar ayrim mazmunan sodda va oson she'rlarni eslab kolishlari, ifodali o'qishlari, yod aytishlari lozim.

Bu vazifalarning barchasi bolada axloqiy qiyofa va estetik tuyg'ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq.

Tarbiyachi har bir bolada suratlarni tomosha qilish va o'qishga qiziqish uyg'otishi, kitob bilan to'g'ri muomala qilishga, o'z bilimlarini o'rtoqlari bilan baham ko'rishga o'rgatishi kerak. Shunga erishish kerakki, bog'chada badiiy so'z bolalarning doimiy hamrohiga aylansin. U

kundalik soʻzlashuv nutqida yangrab tursin, tantanali, bayramona kayfiyat baxsh etsin, inssenirovkalar, dramalashtirilgan oʻyinlar, kinofilmlar orqali jonlanib, bolalar boʻsh vaqtini toʻldirib tursin. Yuqorida biz bolalar nutqini oʻstirishning yettita asosiy vazifasidan ikkitasini ajratib koʻrib chiqdik. Bu vazifalarning koʻpchiligi maktabgacha taʼlim muassasining barcha yosh guruhlarida hal etiladi. Faqat ularning aniq mazmuni har xil boʻladi. Chunki u bolalarning yosh imkoniyatlariga bogʻliqdir. Koʻrsatilgan vazifalarning har biri ham taʼlimiy, ham tarbiyaviy jihatga ega. Hulosa qilib aytadigan boʻlsak, 4-5 yoshli bolalar faol ravishda suhbatga kirishadilar, jamoaviy suhbatda ishtirok etishlari, ertak va qisqa hikoyalarni aytib berishlari, oʻyinchoqlar va rasmlardan foydalanib mustaqil ravishda hikoya tuzishlari mumkin. Biroq, ularning izchil nutqi hali ham nomukammal. Ular savollarni toʻgʻri shakllantirishni, oʻrtoqlarining javobini toʻldirishni va tuzatishni bilishmaydi.

Ularning hikoyalari koʻp hollarda kattalar modelini koʻchiradi, mantiqning buzilishini oʻz ichiga oladi, hikoya ichidagi gaplar koʻpincha faqat rasmiy (koʻproq, keyinroq) bogʻlanadi. Oʻrta maktabgacha yoshda matnni tushunish va tushunishda bolaning hayoti va adabiy tajribasining kengayishi bilan bogʻliq boʻlgan baʼzi oʻzgarishlar mavjud. Bolalar qahramonlarning harakatlarini toʻgʻri baholaydilar. Beshinchi yilda soʻzga munosabat, unga qiziqish, uni qayta-qayta takrorlash, tushunish istagi bor. 4-5 yoshli bolada idrok etilayotgan matnning semantik mazmunining yaxlit tasvirini shakllantirish mexanizmi toʻliq ishlay boshlaydi.

Adabiy asarni idrok etish, mazmuni bilan bir qatorda badiiy ifoda xususiyatlarini anglash qobiliyati oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi, u butun maktabgacha yoshda asta-sekin shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini bilish, soʻz haqida gʻoyalarni shakllantirish, uning semantikasini oʻzlashtirish, nutqning ifodali va obrazli vositalarini ajratish ona tilini bolalar bogʻchasida oʻzlashtirishga yordam beradi va shu bilan bolani tayyorlash muammosini hal qiladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini biz turli hadislar va qoʻlyozmalar asosida bilim berib tarbiyalasak, ularni yaxshilik va yomonlikni farqlashlariga va kelajakda ajdodlarimiz ruhida kamol topishlariga yoʻnaltirgan boʻlamiz. “Avesto” asari va Imom al-Buxoriy hadislaridan foydalanishlik esa bunga asos boʻladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Salimov O. U.- tahrir hayati raisi akademik.TOSHKENT 2021
2. Saidov A. X- taxrir hayati raisining oʻrinbosari akademik.Toshkent 2021
3. Jumaboyev M.- Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent 2006
- 4.Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur boʻstoni.

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING OILAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI**

*Rahmonova Dilafroʻz Baxronjon qizi  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi*

#### **Annotatsiya:**

Mazkur maqola mazmunida maktabgacha yoshdagi bolalarning oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavzusi bugungi kunning asosiy muammolaridan biri ekanligi izohlangan boʻlib, bu muammoning metodologik asoslari, mavzu muammosining natijalari, muammo muhokamasi hamda muammoning xulosasi haqida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** qadriyat, akseologiya, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyat, shaxsiy qadriyat, oilaviy qadriyat

#### **Аннотация:**

В содержании данной статьи поясняется, что тема возможностей дошкольников по развитию полноценных отношений с семьей является одной из главных проблем современности.

**Ключевые слова:** ценность, асеология, общечеловеческая ценность, национальная ценность, личностная ценность, семейная ценность.

**Annotation:**

In the content of this article, it is explained that the topic of preschool children's opportunities to develop valuable relationships with the family is one of the main problems of today.

**Key words:** value, axeology, universal value, national value, personal value, family value

Bugun haqiqatdan hayotimiz shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Keyingi paylarda gazetalarda, jurnallarda, televidiniyada milliy qadriyatlar mavzusi avvali vaqtlardanda ko'ra ko'p tilga olinayapti. Qaysidir manbalarda milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatimizni ijobiy ba'holashsa, qaysidir birida salbiy ba'holashadi. Balki chindan ham milliy qadriyatlar mavzusi bugunimiz uchun yetarlicha muammoga aylanib o'lgurgandir. Bu savollarga barham berish uchun farzandlarimizga qadriyatlarimizni yoshligidan tanitishimiz va qarlangan qadriyatlarimizni yetkazib berishimiz zarur. Quyida biz milliy qadriyatlarimiz bazilarini esga olamiz va bu orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga ijtimoiy tarbiya berishni maqsad qilamiz.

“Pedagogika: ensiklopediyasi”, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “Qadriyat”, “qadr”, “qadr qilmoq, qadriga yetmoq yoki qadrini bilmoq”, “qadr donlashmoq” va “qadr donlik” tushunchalariga izohli ta'riflar berilgan. Jumladan: “Qadriyat”-qiymat, ahamiyat, qimmatbaho buyumlar, xalq boyligi demakdir. Voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar (erkinlik, tinchlik, adolat, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma'naviy boyliklar) ga qadriyatlar deyiladi.

“Milliy qadriyatlar” - muayyan millatnirig tabiiy, tarixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar, yashayotgan hudud, madaniy-ma'naviy meros, milliy madaniyat, til, milliy ong, millat ruhi, tarixi, yashash tarzi, milliy umrguzaronlikni tartib-qoidalari hamda ular xususiyatlar, jihatlar va boshqalarning ijtimoiy ifodalaydigan tushunchadir. U umumijtimoiy tizimidagi xususiy bo'g'in, ya'ni millatga qadrlil bo'lgan qadriyatlaning eng umumiy jihatlarini aks ettiradi.

“Oilaviy qadriyatlar”-ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan e'tiqodlar, tamoyillar, urf-odatlar, hurmatli munosabatlar va mehr-oqibat to'plamiga nisbatan aytiladi. Birinchi axloqiy, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar uyda ota-onalarning farzandlariga yetkazadigan va o'z navbatida ota-bobolari, aka-ukalari, amakilari, amakilari va boshqa qarindoshlari yoki yaqinlari tomonidan o'rgatilgan ta'limotlar orqal o'rganiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, jumladan, pedagogika va psixologiyada oila, bolalarni oilada tarbiyalash masalalari dolzarb masalalar hisoblanib, mamlakatimiz olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lgan. Xususan, oilaning demografik muammolarini hal etish masalalari D. Sharipova, M. Inomova, X. Yo'ldoshev, M. Kaxxarova, oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi O. Musurmonova, X. Norqulov, oilaviy tarbiyaning psixologik asoslari V. Karimova, G'. Shoumarov, E. G'oziyev, S. Tadjiyeva va pedagogik masalalari O. Musurmonova, O. Xasanboyeva, M. Inomova, X. Tojiboyeva kabi olimlarimiz tomonidan keng qamrovli tadqiq etilgan.

Shuningdek, o'zbek adiblari va pedagoglari T.Malikning oila haqidagi qarashlari, xulosalari, maxsus tadqiqotlar natijalari bo'lmasada, muhim ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga molik manba sifatida oilaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanuvchilar uchun muayyan qiziqish uyg'otadi.

S. L. Frankning fikriga ko'ra “Oilaviy meyorlar va qoidalar bu-oila hayoti barpo etiladigan qadriyatli asoslardir. Oila a'zolarining voqelikni tushunishida oilada o'rnatilgan qoidalarga asoslangan huquq va majburiyatlarini anglashlari muhim hisoblanadi. Qoidalar oilaga yordam beradi, unga barqarorlik baxsh etadi. Oilada bu qoidalarning yetishmasligi dilxiralik va tortishuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Oilaviy qadriyatlar bu ochiq, ahamiyatli bo'lgan, oila davrasida ma'qullanadigan va shakllanib boradigan narsadir. Muvaffaqiyat va yutuqlarni

qadrlash, agar u haddan tashqari ifodalangan bo'lsa, perfekcionizmga – hayot va faoliyatning maksimal darajada yuqori standartlariga olib kelishi mumkin”.

P. F. Lesgaftning fikricha, oilaparvar insonni tarbiya qilish, gumanistik-pedagogik nuqtai nazaridan oilani qadriyatlar tuyg'usini kamol toptirishning yetakchi maqsadlarini, vazifalarini, mazmuni va metodlarini aniqlab beradi. Bolaning ulg'ayib borishi chog'ida, to'g'ri va mahsuldor tarbiyalash uchun ijtimoiy omillar, shu jumladan, oilada bola ishonishi mumkin bo'lgan yaqin insonning borligi yetakchi rol o'ynaydi.

V. A. Suxomlinskiy bola hayotida onaning tutgan o'rniga, shuningdek, oilada bolalarda ayolga, onaga bo'lgani kabi oliyanob munosabatni qaror toptirish masalasiga alohida ahamiyat qaratadi. Farzandlar tarbiyasida pedagog otaga maxsus rol ajratadi, uning roli bir so'z bilan ifodalanadi – mas'uliyat: ota fikr-o'y va xatti-harakatlarni intizomli qila oladi.

H. D. Norqulovning fikricha, “zamonaviy oilalar xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi (tashqi qoidalar va cheklovlarga bog'liq bo'lmagan holda mustaqilligi), shuning uchun oilani maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda (shu jumladan, undan tashqari tadbirlarda) jalb qilishning universal retsepti to'g'risida gapirish mumkin emas.

Tahlil natijalarini umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, tadqiqotchilarning oilani tarbiya muhiti sifatida o'rganib uni bolalarning kattalar bilan doimiy va faol muloqot qilish uchun optimal imkoniyatlarga ega bo'lgan betakror munosabatlar boshqa holatlarida qayta ishlanmaydigan, emotsional-psixologik mikroiklimning manbai deb hisoblash mumkin. Jamiyatda qadriyatlar o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun oila va ijtimoiy ta'lim muassasalari zamonaviy aksiologik yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni birlashtirib, ularni kelajakdagi ota-onalar roliga tayyorlagan holda ularda oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirib borish kerak bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.Hasanboyeva «Oila pedagogikasi» Darslik «Aloqachi» nashriyoti T.: 2007-yil 384 bet. (149-152)
2. G'. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sogunov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetovalar «Oila psixologiyasi» o`quv qo`llanma «Sharq», T.: 2008-yil 296 bet. (53-68)
3. O'. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonovlar «Pedagogika» darslik «Talqin» nashriyoti T.: 2008 - 288 bet. (232-235)
4. Matbua Ahmedova «Falsafa» darslik «O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti 2006-yil 496-bet (432-440)

## **BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING KASBIY KARYERASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

*S. B. Ashirova  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
tadqiqotchisi*

#### **Annotatsiya**

Maqola mazmunida ta'limda karyera tushunchasining mazmuni va mohiyati, fanda qo'llaniladigan karyera turlari va kasbiy karyerani hosil qilish shart-sharoitlari haqida so'z yuritilgan bo'lib bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy karerasini shakllantirishning mazmuni haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** karyera, professional karyera, ichki karyera, vertikal karyera, gorizantal karyera, markazga intiluvchan karyera, realistik tip, izlanuvchan tip, ijtimoiy tip, tadbikorlik tip, konvensional tip

#### **Аннотация**

В содержании статьи рассматриваются содержание и сущность понятия карьера в образовании, виды карьеры, применяемые в науке, и условия формирования



профессиональной карьеры, освещается содержание формирования профессиональной карьеры воспитателей будущих дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** карьера, профессиональная карьера, внутренняя карьера, вертикальная карьера, горизонтальная карьера, центростремительная карьера, реалистичный тип, исследовательский тип, социальный тип, предпринимательский тип, условный тип.

#### **Annotation**

The content of the article covers the content and essence of the concept of a career in education, the types of careers used in science and the conditions for the formation of a professional career, and the content of the formation of the professional career of Educators of future preschool educational organizations.

**Keywords:** career, professional career, domestic career, vertical career, gorizantal career, center-driven career, realistic type, sought-after type, social type, entrepreneur type, conventional type.

Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiiq etishda, inntellektual jamiyat qurishda bugungi pedagog-tarbiyachilar asosiy ma`sul shaxslar hisoblanadi. Chunki ularning kasbiy vazifasi hisoblangan murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni ilmi, tartib-intizomli, tarbiyali qilib voyaga yetkazishdek oliyjanab mas`uliyat bor. Ta`lim tizimida sodir bo`layotgan o`zgarishlar va yangilanishlar ta`lim oluvchilarga yangi bilim, ko`nikma va malakalarni berish bilan bir qatorda, yosh avlodning o`ziga va boshqalarga, jamiyatga, davlatga va tabiatga nisbatan o`zgarishlarni, vatanparvarlik g`oyalarini ularning ongiga va qalbiga singdirishni ham ko`zda tutadi. Demak pedagog-tarbiyachilar oldiga qo`yilgan murakkab, mas`uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarishlari uchun hamda ta`lim-tarbiya jarayoniga bo`lgan yangicha qarashlarni shakllantirishlari uchun azaliy va zamonaviy trayektoriyalardan biri hisoblangan karyeraga ehtiyoj sezadi.

**Karyera**-bu shaxsning o`rganishi, ish va hayotning boshqa jabhalari orqali metaforik "sayohat"i hisoblanadi. Karyera atamasining qo`llanilish usullari turli-tuman bo`lib uni aniqlashning bir qancha usullari mavjud.

Karyera muvaffaqiyati-bu mansab haqidagi akademik va mashhur manbalarda tez-tez ishlatiladigan atama bo`lib, bu shaxsni hozirgacha o`z ishi va hayotida muvaffaqiyatli deb ta`riflash mumkin bo`lgan daraja va usullarni anglatadi.

"Karyera" so`zi lotincha «*carrus*» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, aravaga ishora qiladi. Onlayn etimologiya lug`atida bu atama 1803-yildan boshlab "obro` " „odamning jamoat yoki kasbiy hayoti“degan ma`noni anglatuvchi semantik kengaytmanni ifodalay boshladi. U 1800-yilda nashr etilgan o`nlab kitoblarning asosiy baxs mavzularidan biri sifatida o`rganilib boshlandi. Jumladan Gyotening asosiy asarlaridan birida bu atamaning "adabiy karera", "biznes karyera" va "professional karera" turlari haqida ma`lumotlar kiritilgan.

XX asrning oxiriga kelib, keng ko`lamli o`zgarishlar yuzaga keldi buning natejasida kasblarning rejalashtirilishi yoki loyihalashtirilishining imkoni paydo bo`ldi. Shu nuqtai-nazardan, kasb-hunar bo`yicha maslahatchi va martaba maslahatchisi nomli yangi kasblar paydo bo`ldi. XX asr oxiri XXI asr boshlarida kattalar uchun ketma-ket yoki bir vaqtning o`zida ikki yoki bir nechta mavqega ega bo`lish odatiy hol aylanib qoldi. Iqtisodchi Richard Florida bu tendensiyani umumiy va aniqroq qilib " kreativ guruh" nomi bilan qayd etgan.

Mansabni boshqarish yoki karyera rivojlanishi shaxs tomonidan martabani faol va maqsadli boshqarishni tavsiflaydi. „Keryerani boshqarish ko`nikmalari“ni o`z ichiga olgan g`oyalar Blueprint modeli nomi bilan bir qancha rivojlangan davlatlarda ya`ni AQSh, Kanada, Avstraliya, Shotlandiya va Angliyada alohida e`tirof etildi. Blueprint modeli asosiy ko`nikmalarga hozirgi mavqei haqida fikr va mulohaza yuritishi, mehnat bozorini o`rganish, ta`lim zarurligini aniqlash karyerani o`zgartirish qobiliyati tushunchalari kiradi.

Amerikalik mashhur olim Behling va boshqalarning fikriga ko`ra, shaxsning biror bir jamoaga qo`shilish qarori uchta omildan biriga bog`liq bo`lishi mumkin, ya`ni ob`ektiv omil, sub`ektiv omil va tanqidiy aloqa.

**Ob`ektiv omil** ish oluvchining fikriga ko`ra ish beruvchilarning xati-harakatlari oqilona ekanligini taxmin qiladi. Shuning uchun tanlov ishning aniq foydasini ob`ektiv baholashdan keyin amalga oshiriladi. Ob`ektiv omilning asosiy faktorlari yuqori ish haqi, imtiyozlarning ko`pligi, joylashuvning qulayligi, martaba ko`tarilish imkoniyatlari va boshqalarni o`z ichiga olishi mumkin.

**Subyektiv omil** ish oluvchining qaror qabul qilishida ijtimoiy va psixologik omillar ustunlik qiladi. Ishning holati, tashkilotning obro`si va boshqa shunga o`xshash omillar muhim rol o`ynaydi.

**Tanqidiy aloqa** nomzodning tashkilot bilan o`zaro aloqada bo`lgan kuzatuvlari uning qaror qabul qilishda muhim rol o`ynaydi. Masalan, ish beruvchining nomzod bilan qanday aloqada bo`lishi, javobning tezkorligi va shunga o`xshash omillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariya tajribali mutaxassislar uchun ko`proq mos keladi.

Kasbni o`zgartirish mavqe va karyera boshqaruvining muhim jihati hisoblanadi. Umr davomida shaxs ham, mehnat bozori ham o`zgaradi; ko`p odamlar hayoti davomida kasblarini o`zgartirishni kutishi mumkin. AQSh davlati tajribasidagi Mehnat statistikasi byurosi tomonidan 1979-yilda yoshlar o`rtasida o`tkazilgan so`rovnomadan to`plangan ma`lumotlar shuni ko`rsatdiki, 18 yoshdan 38 yoshgacha bo`lgan shaxslar 10 dan ortiq ish joylariga ega bo`lishlari mumkin. Odamlar o`z kasblarini o`zgartirishi uchun turli sabablar bo`lishi mumkin. Bu sabablar orasida karyeraning o`zgarishi uzoq kutilgan ishdan bo`shatish natijasida yuzaga kelishi mumkin, boshqa paytlarda esa kutilmaganda va ogohlantirishsiz sodir bo`lishi ham mumkin.

Menejment sohasi bo`yicha o`tkazilgan so`rov mansab o`zgarishining quyidagi sabablarini ajratib ko`rsatadi.

- Tashkilotni qisqartirish yoki qayta qurilishi (54%).
- Yangi muammolar yoki yuzaga keladigan imkoniyatlarning qulayligi (30%).
- Yomon yoki samarasiz yetakchilik (25%).
- Menejer(lar) bilan yomon munosabatda bo`lish (22%).
- Ish yoki hayot muvozanatini yaxshilash uchun (21%).
- Hissiyotlarning tan olinmasligi natejasida (21%).
- Yaxshiroq kompensatsiya va imtiyozlar uchun (18%),
- Shaxsiy va tashkiliy qadriyatlarga yaxshiroq moslashish uchun (17%).
- Shaxsiy qobiliyatlarning tashkilot talabiga mos kelmasligi (16%).
- Tashkilotning moliyaviy beqarorligi (13%).
- Tashkilot boshqa joyga ko`chirilishi (12%).

1950-yil va 1960-yillarda odamlar odatda bir yoki ikkita tashkilotda bir vaqtning o`zida bir xil vazifada ishlaganlar va muvaffaqiyat tashkilot tomonidan belgilanagan. Masalan lavozimga ko`tarilish, ish haqining oshishi va boshqalar. Bunday an`anaviy karyera Donald Superning mavqe bosqichi modeli misolida izohlanadi. Superning chiziqli mavqe bosqichi modeli mansab barqarorligi, tashkiliy tuzilmalar kontekstida amalga oshirilishini taklif qiladi. Shaxslar ko`proq tashqi mukofotlarni qidirib, tashkilot boshqaruviga ko`tarilishga intilishadi.

Erta karyera muvaffaqiyati keyinchalik umidsizlikni keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa, insonning o`zini o`zi qadrlashi uning mavqe yoki yutuqlari bilan bog`liq bo`lgan faoliyatini tiklolmasligi bilan ifodalansa. Kasbiy muvaffaqiyat ba`zi sohalarda, ilmiy tadqiqotlarda va boshqa sohalardagi yutuqlar bilan ifodalanadi. Ko`pgina kuzatuvchilarning ta`kidlashicha, iqtisodiy va texnologik o`zgarishlarning tez sur`atlari tufayli mavqe oldingiga qaraganda kamroq da`vo qilinayotgan ekan. Bu shuni anglatadiki, karyerani boshqarish shaxsning ish beruvchi tashkiloti bilan emas, balki shaxsning javobgarligi bilan ko`proq bog`liq aniqrog`i "hayot uchun ish" tushunchasi o`tmishda qoldi. Bu martaba muvaffaqiyatining sub`ektiv mezonlariga ko`proq to`g`ri keladi va bularga ishdan qoniqish, mavqedan qoniqish, ish va hayot balansi, shaxsiy muvaffaqiyat hissi, shaxsiy qadriyatlariga mos keladigan ishga erishish nazarda tutiladi. Insonning o`z karyera muvaffaqiyatini baholashiga oila a`zolari, do`stlari, maktab yoki kollejdagi tengdoshlari kamkasblari va boshqalar yordam beradi. Shaxs o`zining



muvafaqqiyatlarining qanchalik darajada ekanligini va yaxshi ishlaganini ijtimoiy solishtirish orqali tushunib olishi mumkin.

Xodimlar bo'yicha menejer (xodimlar bo'limi boshlig'i, xodimlar bo'yicha boshqara boshlig'i) yangi xizmatchi (xodim) bilan tanishar ekan, dastlab uni ayni tashkilotda o'tashi mumkin bo'lgan karyeraning bosqichlari bilan tanishtirishi lozim. Bu o'z navbatida kasbiy faoliyatining maqsadini, o'sish darajasini va ixtisoslikning individual motivatsiyasini aniqlashtirishga yordam beradi. Kasbiy karyeraning bosqichlarini quydagi ko'rinishda qisqacha tartiblash mumkin. Kasbiy karyera tushunchasining negzida karerogramma tushunchasi ham ishlatiladi.

**Karerogramma**-bu bo'lajak mutaxassisni muqim bir ishda va bir joyda samarali natejaga erishishda qanaqa yo'lni bosib o'tishi uchun kerakli, zaruriy bilim hamda malakalar to'g'risidagi tasavvurlarning jamlanmasi demakdir.

Biz maqolaga xulosa va taklif sifatida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini ba'holash uchun yuqorida berilgan ma'lumotlarga asoslanib bu muammo boshqa sohalarda bo'lgani kabi pedagogika sohasida ham alohida o'rganilishi va tadqiqot ishi darajasiga olib chiqilishi kerak deb hisobladik. Bunday muammolarning keng o'rganilishi natejasida esa bo'lajak soha muataxassislarning talabalik davridan boshlab kasbiy karyeraga bo'lgan munosabatini to'g'ri shakllantirish imkonini beradi degan xulosaga keldik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Xodjaboyev, I. Husanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Fan va texnologiya" 2007-yil 192 bet.

2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o'quv qo'llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet

3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova "Kasbiy ta'lim metodikasi" darslik Buxoro "Durdona" 2020-yil 496 bet.

4. I. M. Sirojiddinova "Kasbiy ta'lim metodikasi" o'quv qo'llanma Andijon "Noshirlik" 2021-yil 220 bet.

5. M. T. Axmedova "Pedagogik kompetentlik" uslubiy qo'llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USULLARI**

**Eshova Dilbar Shonazarovna**

BuxDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Maxmudova Maftuna**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sahnalashtirish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari, hamda tashkil etish usullari.

**Kalit so'zlar:** Teatr, teatrlashtirilgan o'yin, sahnalashtirish, syujet, ssenariy, spektakl, qo'g'irchoq teatri, barmoq teatri, soya teatri, qo'lqop teatri, marionetkali (ipda boshqariladigan qo'g'irchoq) teatri, sahna atributi.

**Аннотация:** Способы, а также способы организации инсценирования детей и развития их творческих способностей в дошкольных образовательных учреждениях.

**Ключевые слова:** театр, театрализованная игра, инсценировка, сюжет, сценарий, спектакль, кукольный театр, пальчиковый театр, теневой театр, перчаточный театр, театр марионеток (кукла с управлением на нитке), сценический атрибут.

**Annotation:** Ways, as well as ways of organizing the dramatization of children and the development of their creative abilities in preschool educational institutions.

**Keywords:** Theater, theatrical play, dramatization, plot, script, performance, puppet theater, finger theater, shadow theater, glove theater, puppet theater (puppet with control on a string), stage attribute.

Teatr san'ati bolalar uchun tushunarli va o'zi ijro eta oladigan san'at turi, chunki uning asosida o'yin yotadi. Teatr tomoshabinga badiiy so'z, hatti-harakat, rang, musiqa bilan ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda yoshligidanoq teatrga qiziqishini shakllantirish kerak, teatrga borish, teatrlashtirilgan o'yinlarda, qiyin bo'lmagan spektakllarda ishtirok etishi juda muhim, bolalarning o'yinga bo'lgan ehtiyoji juda erta namoyon bo'ladi. 2-3 yoshdanoq bolalar qiziqish bilan maymoq ayiqni, qo'rqqoq quyonni, ayyor tulkini taqlid qilib ko'rsatadilar. Ular osonlik bilan bir obrazdan ikkinchi obrazga kirishadilar. Ularning harakatlari taqlid qilish, imitatsiya xarakterida, shu bilan birga juda emotsional holatda bo'ladi.

Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi - sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilishda quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Sahnalashtirish faoliyatida bolalar ijodiy faolligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish (ijodiy ijrolarni rag'batlantirish, qobiliyatini rivojlantirish, sahnaviy chiqishlarda erkin va dadil o'zini tutish, mimika, erkin harakatlar, intonatsiyalar va x.k. vositalari orqali improvizatsiyani paydo qilish )

2. Bolalarni teatr madaniyatiga jalb etish (teatr tuchunchasi bilan, teatr janrlari bilan, qo'g'irchoq teatri bilan tanishtirish.)

3. Pedagog teatrn boshqa faoliyat turlari bilan hamkorligini ta'minlashi (musiqa mashg'ulotlari, jismoniy harakatlar vaqtida, ekskursiyalar va boshqalar )

4. Kattalar va bolalar bilan hamkorlikda ishlashi uchun sharoitlar yaratish ( ota-onalar, hamkasb va katta guruh bolalari hamkorligida kichik guruh bolalariga spektakllar namoyish etish )

5. Kichik yoshdagi bolalarga hurmat va o'zini - o'zi tushunishi uchun yaxshi mikroklimat yaratish. Kichik yoshdagi bolalar-namoyishlardan minnatdor bo'ladigan tomoshabindir.

Kichik yoshdagi bolalarga oddiy qiziqib o'ynaydigan o'yinchoqlar bilan tomoshalar qo'ysa bo'ladi. Yangi o'yinchoqlar (qo'g'irchoq, kuchukcha, ayiqcha va x.k.) bolalarda zavq, qiziqish, hayratlanish hislarini uyg'otadi. Bolalar bog'chasida bolalar teatrn nimadan boshlash kerak? Bolalarni teatrlashtirilgan o'yin faoliyatiga jalb qilish kerak, uning uchun tarbiyachi rejissor bo'lishi va teatr tashkil eta olishi lozim.

MTTda bolalar oddiy vaziyatlarni o'yinchoqlar bilan ijro etishi, qo'shiq kuylashi, she'r, ertak, hikoyalar kabi tanish adabiy asarlarni sahnalashtiradilar. Yangi qo'g'irchoqni bolaga tanishtirish vaqtida oddiygina syujet o'ylab topish kerak, masalan: kuchukcha adashib qoldi va o'ziga haqiqiy do'st izlamoqda, qo'g'irchoq— kichkina qizaloq uni yaxshi ko'rish va parvarishlash kerak, ayiqcha asaldan ko'p yeganligi uchun oilaviy shifokor yordamiga muhtoj. Har qanday bola o'yinchoqlar yordamida oddiy harakatlardan asta-sekin kichkina qiyin bo'lmagan syujetlarni o'ynashi mumkin.

Keyinchalik esa ushbu syujetlar hayotiy malakaga tayangan holda rivojlanadi. Tarbiyachi-pedagog ham o'yinga qo'shiladi va ayrim rollarni ijro etadi, namuna sifatida ko'rsatadi, u yoki bu vaziyatda xohlagan harakat namunalarini ko'rsatib beradi, o'yin jarayonida improvizatsiya qiladi, ma'lum bir o'yinchoq nomidan gapiradi, bola fikrlashi, harakat qilishi, javob berishi uchun stimuly yaratadi. Bolalar teatri uyda, uni qanday tashkil etish kerak? Bolalarning sevimli o'yinchoq'idan ota-onalar uy teatri qahramonini yaratishi darkor, ushbu o'yinchoq bilan har kuni qiziqarli sarguzashtlar ro'y berishini kuzatish mumkin. Ota-onalar farzandining o'yinchoq qahramoni bilan muloqot doirasini boshqa o'yinchoqlarni qo'shgan holda kengaytirib borishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar bog'chasida bolalar teatri, ertaklar asosidagi turli xil teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarni o'ziga jalb etadi, chunki sahna ko'rinishlari tushunarli va qiziqarli.

Teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi, yaxshi bilan yomonni farqlashni, nutq, mimika, imo-ishora, muloqot

madaniyatini, malakalarini rivojlantiradi, bolani teatr san'atining sehrli olamiga olib kiradi. Bog'chada bunday o'yinchoqlar ishtirokidagi improvizatsiya-o'yinlari "o'yinchoq teatri" deb ataladi. Asosiysi— bolani improvizatsiya dialogiga qo'shish natijasida, o'yinchoq va bolaning harakatlari ortadi. Shu asnoda bola teatrlashtirilgan faoliyatda ma'lum bir o'yin usullarini o'rganadi, tasavvuri, fantaziyasi faollashadi, ijodkorlik elementlari namoyon bo'ladi. Bolalarga sahnalashtirish faoliyatida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda dramallashtirilgan ertak va o'yinchoqlar ishtirokidagi badiiy asarlar tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tanlangan sahna asarini ijro etish vaqtida asar qahramonlari gaplashishi, matnga mos ravishda harakatlanishi kerak.

Badiiy asarlarni sahnalashtirishda nafaqat oddiy o'yinchoqlardan, balki stol o'yinchoq teatridan ham foydalansa tarbiyachi oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. Teatrlashtirilgan spektaklni qanday tayyorlash kerak? Tarbiyachi har bir qahramon haqida fantaziya qilish, kichkina hikoya o'ylab topish mumkin. Bu bolalarda o'yin obrazlarini tasavvurlarini kengaytiradi. Bolalarni ijodiy mustaqilligini uyg'otish muhimdir, ularga harakatlarni ko'rsatib berishini taklif qilish mumkin, masalan; ayiqni yurishi (Ayiqpolvonlar qo'shig'ini ijro etib), chumchuqni uchishi (Jajji qushcha-qo'shig'ini kuylab), kapalaklarning engil qanot qoqishi (Kapalak- qo'shig'iga harakatlar bajarish va ijro etish) va x.k. Bola barcha harakatlarni mustaqil ko'rsata oladi. Katta guruh bog'cha bolalari syujet qahramonlarining kayfiyatini, ruhiy kechinmalarini ko'rsatib bera oladilar. Ular yoshligidanoq emotsional ifoda vositalarini egallashi uchun syujet qahramoni his-tuyg'ularini, mimika, imo-ishora, emotsiyalarini namoyish eta olishiga o'rganadilar. Personaj rolini o'rgatish jarayonida mashq qilish yaxshi natija beradi. Masalan: chipor tovuq oltin tuxum qo'yganida chol va kampirning quvonganini, sinib qolganida ularning xafa bo'lganini ko'rsatib berishni taklif qilish mumkin, bo'g'irsoqning qo'shig'ini kuylashini (o'ziga ishonch va dadillik bilan, hayron bo'lib, quvnoq, xafa bo'lib), yoki bo'rining (qo'rqinchli ovozda) ko'rsatib berishini taklif qilish mumkin. Mana shular bolalarni obrazga kirishiga yordam beradi.

Bolalarning teatrlashtirilgan o'yinlarga sekin-asta qo'shilishi ijobiy natijalar beradi. Olti yoshli bola nafaqat ishtirokchi va ma'lum bir rollarning ijrochisi bo'lishi, balki "rejissor" sifatida o'zi sahnalashtirishi va mustaqil "o'yinchoqlar teatri" yoki qo'g'irchoqlar teatri spektakllarini qo'yishi mumkin va tengdoshlari orasida tanish badiiy asarning syujetlari asosidagi dramatishtirish- o'yinning tashabbuskori va tashkilotchisi bo'lishi mumkin, ma'lum bir sahna obrazining xarakter xususiyatlarini ko'rsatib beradi va asosiysi, o'zini ko'rsata olish, muloqot qilish, o'z qahramoniga nisbatan shaxsiy munosabatini ko'rsatib berish ehtiyojini ro'yobga chiqaradi. Uyda va bolalar bog'chasida elementar teatrlashtirilgan faoliyat bolada teatrga san'at turi sifatida qiziqishini shakllanishiga, teatr haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishga, teatr terminologiyasi, teatr tomoshalarining estetik qabul qilishga olib keladi.

Bolalar uchun o'yin - bu jiddiy ish hisoblanadi va har bir bola o'yinlari teatrlashtirilgan o'yinlarga aylanib boradi. E'tibor bering, bola harakatlariga: u o'zi o'ynaydi, o'zi ovoz beradi, o'zining syujetlarini o'ylab topadi yoki tanish biror narsani o'ynadi. Shunday bo'lsada uning qahramonlari tanish ertaklar yoki o'yinchoqlar bo'lishi ham mumkin. Bolaga son, harf, tovush kabi abstrakt tushunchalarni tushuntirishga harakat qilib ko'ring. Ammo, tushunarsiz so'zlarning o'rniga bola qiziqarli odamchalar, hayvonchalar, qo'g'irchoqlar, askarchalarni ko'rasiz... Bir so'z bilan aytganda, zerikarli o'qish jarayoni quvnoq o'yinga aylanadi. Bolalar katta zavq bilan o'ynaydilar. Oldin tushunarsiz boshlagan matematik tushunchalardan haqiqiy ertakni yaratma bo'ladi, harflar esa o'z-o'zidan tanish so'zlarga aylanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kundagi maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va ta'lim-tarbiya berishda eng muvaffaqiyatli metodikalar, dasturlar, bolani rivojlantiruvchi teatrlashtirilgan o'yinlarga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa o'z navbatida kutilgan natijalarni beradi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 2019.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.

3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo`stoni 2013
4. D.Q.Asqarova "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o`rgatish" Metodik qo`llanma .Namangan-2018y.
5. Teshaboyeva "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o`rgatish" (o`quv qo`llanma). Toshkent,2020y.-114b.
6. Eshova D.Sh."Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o`rgatish"( o`quv qo`llanma) Buxoro."Durdona"2023y.
7. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T., 2008.
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz).
9. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
10. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
11. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING TAYYORLOV GURUHLARIDA QURISH-YASASHGA O'RGATISHNING METOD VA USULLARI

*D.Sh.Eshova*

*Buxoro pedagogika instituti  
Maktabgacha ta`lim kafedrası  
katta o`qituvchisi  
Qurbonova Dildora  
Maktabgacha ta`lim yo`nalishi  
1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tayyorlov guruh bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo`llari, qurish-yasash mashg`ulotlarini olib borish hamda tashkil etish usullari.*

**Kalit so`zlar:** *qurish-yasash, konstruktor o`yinlari, to`plamlar, tabiiy materiallar, tashlandiq materiallar, ijodiy ish, qurilish materiallari, texnik malaka*

**Аннотация:** *Пути развития творческих способностей детей подготовительной группы в дошкольных образовательных организациях, методы ведения и организации строительной деятельности.*

**Ключевые слова:** *строительство, строительные игры, наборы, натуральные материалы, выброшенные материалы, творчество, строительные материалы, технические навыки*

**Annotation:** *Ways to develop the creative abilities of preparatory group children in preschool educational organizations, methods of conducting and organizing construction activities.*

**Keywords:** *construction, building games, kits, natural materials, discarded materials, creativity, building materials, technical skills*

Tayyorlov guruh bolalari asosan qurish-yasashning quyidagi usulidan foydalanadilar, ya'ni tarbiyachining topshirig'i b'yicha bola o'z tasavvuriga tayangan holda rasm, foto-rasmlardan foydalanadi. Ko'pgina qurilma mavzusi beriladi. Katta guruhga qaraganda bu guruhga beriladigan shartlar murakkabdir. Namunalar ko'pincha rasm, foto-rasm bo'lib, bu rasmda bolalarning keraksiz ashyolardan, qurilish materialidan qurilgan qurilmalari aks etgan bo'ladi. Ba'zida tarbiyachining o'zi yasagan narsani namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Lekin

bu usul bu yoshdagi bolalarga to'g'ri kelmaydi. Tarbiyachi topshiriqni tushuntirayotganda qurish-yasashning yangi usulini qisman ko'rsatib o'tadi. Tayyorlov guruhidagi ekskursiya va suhbatlar bolalarni qurish-yasash obyektlari haqida tasavvur qilishlariga yordam beradi. Har bir sayohat bolalarning keyingi mashg'ulotga tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Shahar bo'ylab ekskursiyada tarbiyachi asosiy diqqatni maydon, ko'chalarning tuzilishiga, binolarning chiroyli qurilganligiga qaratadi. Tarbiyachi bolalar bilan biror bir maydonning fazoviy

joylashishini, binolarni tahlil qiladi. Mashg'ulotda esa topshiriqni tushuntirib, bolalar bilimni oshiradi. Mashg'ulotning boshida o'tkaziladigan suhbatlar bolalar bilimni faollashtiradi. Ko'prik qurayotganida tarbiyachi bolalarga eslatib o'tadi: ko'priklar har xil bo'ladi. Yo'lovchilar uchun va transport uchun ko'priklar. Mashg'ulotning boshida, kinoteatr qurishda tarbiyachi suhbat o'tkazib, binoning asosiy qismi tomoshabinlar zali, foyeni ajratadi, uning asosiy shakl, fazoviy joylashishini aniqlaydi. Agar boshqa mashg'ulot bo'lsa, tarbiyachi bolalardan o'ylagan qurilmalari, uning nima uchun qo'llanishi, tanlangan materiallar haqida gapirib berishni talab qiladi.

Qog'oz va tabiat materiallaridan qurish-yasash. Maktabgacha ta'lim muassasasida turli xil o'yinchoqlarni yasash uchun qog'ozdan, tabiiy materiallaridan keng foydalaniladi. Bolalarga qog'ozning turli xil turlari beriladi: vatman, karton, yupqa va turli qog'ozlar.

Tarbiyachi bolalar bilan birga tabiiy materiallarni tayyorlab, bir yil ichida ularni to'playdi. Yozda somon, manzarali daraxt mevalari, yong'oqlar teradilar. Mevalar urug'i yaxshilab yuvilib, quritiladi, bunday urug'lar maxsus qutilarda saqlanadi. Bu xildagi qo'llanmalarni yasash uchun: qog'oz, karton, plastilin, sim, gugurt cho'pi, yelim, qaychi kabi materiallardan ham foydalaniladi.

Qog'oz, tabiatdagi tashlandiq, materiallardir. Bu materiallardan bolalar bog'chasida turli-tuman o'yinchoqlar yasash jarayonida foydalaniladi. Bu jarayon faqatgina foydali bo'lib qolmay, balki qiziqarli hamda bolalar tomonidan sevib bajariladigan jarayondir. Bolalar xilma-xil turlardagi qog'ozlar bilan ishlaydilar. Xilma-xil tabiiy materiallari, manzarali daraxt mevalari, shox-shabbalar va boshqalarni tarbiyachi bolalar bilan birgalikda oldindan tayyorlab boradi. Masalan, urug'lar, danaklar yaxshilab yuvilib, quritilib yig'iladi. Kashtan daraxtdan to'kilishi bilan terib oladilar. Klen va yasen daraxtining urug'i esa qishda yig'iladi. Har bir tabiat materialining turi alohida qutichalarda saqlanadi. Shuningdek, ulardan o'yinchoqlar yasashda, yordamchi materiallar, qog'oz, karton, plastilin, simlar, yelim va mehnat qurollaridan: qaychi, bigiz, igna va boshqalar qo'llaniladi.

Dastlabki mashg'ulotda tarbiyachi bolalarga bir necha predmetlarni, qog'ozdan yasalgan o'yinchoqlarni ko'rsatib, uni buklab, yopishtirish orqali archani yasatish uchun o'yinchoq va sovg'alar uchun turli xil qiziqarli o'yinchoqlar yasash mumkinligi haqida gapirib beradi. Birinchi mashg'ulotdayoq bolalar tarbiyachining ko'rsatmasi va tushuntirishi asosida qog'ozni teng ikkiga buklashni o'rganadilar. Keyingi mashg'ulotlarda archa uchun o'yinchoq, sovg'a yasalgan paytlarda bu ko'nikma mustahkamlanadi. Mashg'ulotlarda uycha, avtobus, yuk mashinasini yasatganlarida bolalar tayyor elementlardan o'yinchoq yasash, asosiy qismga alohida detallarni yopishtirishni ham o'rganadilar. Masalan, uychaga - eshik, deraza; avtobusga - oyna, g'ildirak yopishtiradilar. Topshiriqning bunday turini bajarish faqat texnik malakalarni shakllantirib qolmay, balki bolalarning aqliy faoliyatini, mustaqil ishini ham rivojlantiradi. O'yinchoqni yasashdan avval bolalar qaysi qismni bir-biri bilan birlashtirishni, qaysi qismni yopishtirish kerakligini o'ylaydi.

Yoz paytida bolalar tabiiy materiallardan foydalana boshlaydilar. Avvalo, tarbiyachi bolalarni shu material bilan oldindan yasalgan sodda qurilmalar bilan tanishtirib, alohida predmetlarni, ular o'rtasidagi o'xshashlik, undan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi. Tabiiy material, qog'ozdan qurish-yasash mashg'uloti bilan qurilish materialidan qurish-yasash mashg'uloti almashinib turadi.

Tayyorlov guruhida bolalar katta texnik malakalarni talab qiluvchi ancha murakkab konstruksiyalarni o'zlashtirib boradilar. Shuning uchun tarbiyachi narsalar yasashni, uning bajarilish usullarini aniq tushuntirib, ko'rsatish uslubidan tez-tez foydalanadi. Tarbiyachi balkonli uyni qurish mavzusida avval ko'p qavatli, balkonli uy konstruksiyasini tayyor holda ko'rsatadi, so'ng ishini o'zi ko'rsatib, uyning qanday yasashini qog'ozni buklab, balkonlarini yasash uchun qirqib, uni tomini qanday joylashishini ko'rsatib beradi. Agar mashg'ulotda bolalar tanishish usulini qo'llasalar, tarbiyachi faqat namunani kuzatish va qisman ko'rsatish bilan cheklanadi xolos, yoki bolalar bilimni faollashtiruvchi savollar berishi mumkin. Archa

o'yinchog'ini yasash mashg'ulotida tarbiyachi bolalarga namunani ko'rsatgach, uni qanday qirqishni bolalardan so'raydi. Ular bunga javob beradilar, so'ng o'zlari mustaqil bajaradilar.

Agar yasalayotgan narsa, masalan, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ko'p vaqtni olsa, bolalar qiynalsalar, tarbiyachi mashg'ulotni ikkiga bo'lishi mumkin. Birinchi mashg'ulotda tarbiyachi kartondan yasalgan o'yinchoqlarni ko'rsatib, bugungi teatr o'yiniga ham xuddi shunday o'yinchoqlar yasashligini aytib o'tadi. Lekin bu o'yinchoqni chizib berish lozim, so'ng bolalar hayvonchani o'ylab topib, chizib bo'yaydilar. Ikkinchi mashg'ulotda bolalar tarbiyachining tushuntirishi va ko'rsatmasi asosida o'yinchoq yasaydilar.

O'yinchoq yasash mashg'uloti avvaldan tayyorlikni talab qiladi. Tarbiyachi bu ishga bolalarni jalb qiladi. Ular material tayyorlashga yordamlashadilar: qog'oz qirqadilar, shakli bo'yicha joylashtiradilar.

Bolalar o'z o'ylaganlari bo'yicha mashg'ulotning yaxshi o'tishi avvaldan ko'rilgan tayyorgarlikka bog'liq: bolalar materiallarni yasaydigan predmetlarini qanchalik tez topsalar, nima yasashlarini oldindan bilsalar, mashg'ulot shunchalik qiziqarli bo'ladi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun bolalar bilan turli o'lcham, turli shakldagi daraxt, gul, butalarning urug'larini, shox, makkajo'xorining doni, mosh va boshqa ko'pgina tabiiy materiallarni yig'adilar. Bolalar oldindan o'ylagan narsalari uchun materiallar yig'adilar. Tarbiyachi bolalarga yiqqan materialidan narsalar yasashni o'rgatadi, ya'ni bolalar diqqatini shu materiallar hayvonlarning figuralariga o'xshab ketishiga (yugurayotgan kiyik, tuyaqush, odamlar va hokazo) qaratadi. Bu narsalarni yasashda tarbiyachi ham ishtirok etishi mumkin. Bolalar tayyor figuralarni taglikka o'rnatayotganlarida tarbiyachi taglikni mix bilan teshib beradi yoki kapalaklarning qanotlarini shishkaga joylashtirib beradi. Bu barcha yasalgan narsalardan ko'rgazma uyushtiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qurish-yasash mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, ko'rgazmalarning rang-barangligi maktabga sifatli tayyorlashning yuqori natijasiga kafolatdir. Bu ko'rgazmalar bolalar ishining yanada yaxshi bo'lishiga yordam beradi va bolalarda qurish-yasash faoliyatiga qiziqish hissini, estetik didlarini yanada o'stiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
- 2.Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
- 3.Nurmatova M.SH. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.
- 4.Asqarova D.Q. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish.(metodik qo'llanma). Namangan, 2018y.-92b.
5. Nigmatova M.M. Tasviriy faoliyatga o'rgatish (o'quv qo'llanma) Toshkent 2020y.
6. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz).
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
8. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
9. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

#### **FASILITATSION YONDASHUVNING MAZMUNI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

Normatova Nilufar Komilovna.  
Qarshi davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti  
[nilufarkomilovna@gmail.com](mailto:nilufarkomilovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning moslashuvda fasilitatsion yondashuvning ahamiyati, bu yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim jarayoniga kirib kelishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** adaptatsiya, moslashuv, fasilitatsiya, osonlashtirish, hamkorlik, muammo, yondashuv.

**Аннотация:** в данной статье подробно рассматривается значение фасилитативного подхода в адаптации детей в дошкольных образовательных организациях, особенности этого подхода, его внедрение в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** адаптация, адаптация, содействие, содействие, сотрудничество, проблема, подход.

**Abstract:** in this article, the importance of the facilitative approach in the adaptation of children in preschool educational organizations, the specific features of this approach, and its introduction into the educational process are discussed in detail.

**Key words:** adaptation, adaptation, facilitation, facilitation, cooperation, problem, approach.

Maktabgacha ta'limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishga qaratilgan. Ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy muhim jihat - bu bolaning undagi pozitsiyasi, kattalarning bolalarga bo'lgan munosabati. Bolalar bilan muloqotda: "Uning yonida emas, uning ustida emas, balki birga!" konsepsiyasiga amal qilish kerak. Bundan maqsad bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalari orasida fasilitatsion yondashuvning afzalligi haqida fikr yuritmoqchimiz.

Yurtimizda fasilitatsiya texnologiyasi nisbatan yaqinda paydo bo'ldi, ammo tobora ommalashib bormoqda, chunki u inson hayotining ko'plab sohalarida yordam berish usuli hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar o'z oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish uchun sheriklik munosabatlarini yaratishda tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan hamkorlik olib boradilar. Bunda hamkorlik ishlarning yangi innovatsion usullari va shakllarini o'zlashtiradilar va amaliyotga tatbiq etadilar. Tarbiyalanuvchilarning shaxsiyati, uning bolalar va ota-onalar bilan muloqot qilish uslubi pedagogik yordam berishning muhim omillaridan hisoblanadi.

"Fasilitatsiya (ingliz tilidan facilitate – yordam berish, osonlashtirish) – raqib yoki kuzatuvchi sifatida harakat qilayotgan boshqa shaxs (yoki odamlar guruhi) timsolining ongida realizatsiyasi tufayli shaxs faoliyatining tezligi yoki unumdorligining oshish jarayonidir".

Birinchi marta "fasilitatsiya" atamasi N. Triplet tomonidan qo'llanildi, u velosipedchilarning ikkita jamoasi bilan tajriba o'tkazdi, unda u jamoalar bir-biri bilan soatga nisbatan tezroq raqobatlashayotganini aniqladi. N. Triplet 1898 - yilda o'z asarlarida bu tajribani tasvirlab bergan va bu hodisaga "sekundomer bilan poygalarida yetakchilik qilishning diagenik omili" nomini bergan. Bu kuzatuvni sinab ko'rish uchun Triplett o'sha yoshdagi bolalar bilan laboratoriya tajribasi o'tkazdi, unda ular avval tengdoshlari ko'z o'ngida, so'ngra yolg'iz o'zlari baliq ovlash ipini g'altakga o'rashdi. Ushbu tajriba shuni ko'rsatdiki, tengdoshlari ishtirokida bolalar topshiriqni yolg'izlikdan ko'ra tezroq bajarishadi. Boshqa tezlik eksperimentlari ham o'tkazildi, bu sub'ektlar oddiy ishlarni kuzatuvchi ishtirokida tezroq, lekin murakkab bo'lganlar bilan uzoqroq bajarishini ko'rsatdi. Keyinchalik eksperimental tarzda isbotlanganki, tashqi kuzatuvchilarning mavjudligi sub'ektlarda stressni keltirib chiqaradi: nafas olish va yurak urishi kuchaygan, qon bosimi ko'tarilgan va terlash kuchaygan, ya'ni kuzatuvchining mavjudligi muayyan vaziyatlarda vazifalarni bajarishga xalaqit beradi. Ushbu ta'sir ijtimoiy ingibitsion deb ataladi[1,102].

Keyinchalik, XX asrning 60-yillarida "Science" jurnalida amerikalik ijtimoiy psixolog Robert Zayots "Ijtimoiy qulaylik" maqolasida dominant reaksiya tushunchasiga murojaat qilib, bu ta'sirni nazariy jihatdan asoslab berdi. U boshqa odamlar ishtirokida odamning umumiy qo'zg'alish darajasini oshirish dominant javobga ta'sir qiladi, deb hisoblagan. Agar bu

reaktsiya faollashuv bo'lsa, unda ijtimoiy fasilitatsiya ta'siri kuzatiladi, agar ingibisyon bo'lsa, unda ijtimoiy ingibisyon ustunlik qiladi[2,144].

Psixologiyada fasilitatsiya C.Rojersning mijozga yo'naltirilgan psixoterapiyasi va ijobiy psixologiyasiga asoslangan uslub sifatida qo'llaniladi. Ushbu yo'nalishning asosiy g'oyasi insonni hurmat qilish va uning shaxsiy o'sishga intilishini rag'batlantirishdir. K. Rojers fasilitatorning shaxsiyati fasilitatsiya jarayonida katta rol o'ynaydi, deb hisoblardi. Psixologning asarlari ijtimoiy-pedagogik yordam berishning asosini tashkil etdi, bu ta'lim-tarbiya jarayonida bola shaxsiga bo'lgan munosabatni vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida belgilab berdi, bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi hamkorlik munosabatlariga yordam beradi, do'stona muhit va qulay ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratadi. "...Men o'rganishni fasilitatsion jarayonini o'zimiz yashashni o'rganishimiz va bolaning rivojlanishiga hissa qo'shishimiz mumkin bo'lgan jarayon sifatida qarayman. O'ylaymanki, osonlashtiruvchi ta'lim turi o'zgaruvchan jarayonda bo'lish, sinab ko'rish, qurish va bugungi kunda insoniyatni qiziqtirayotgan eng jiddiy savollarga moslashuvchan javoblarni topish imkonini beradi[4,229].

Fasilitatsion yondashuvda tarbiyachi guruh tadbirini rejalashtiradi va guruh maqsadlariga samarali erishish uchun tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Tarbiyachi jarayonga yo'naltirilgan bo'lib, konfliktli vaziyatlar va kelishmovchiliklarni hal qilishga yordam beradi, guruhda psixologik iqlimni saqlaydi, har bir guruh a'zosini jamoaviy ishlarga jalb qiladi va yuzaga kelgan muammoni guruhda hal qilishga yordam beradi. Guruh xolis bo'lishi va betaraflikni saqlashi kerak.

Fasilitatsiya inson hayotining ko'plab sohalorida: sotsiologiya, psixologiya, sport, biznesda yordam berish usuli sifatida qo'llaniladi. Va bu sohalarda yordam berishning asosiy maqsadi guruh a'zolarining samaradorligini oshirish, qarorlar sifatini oshirish, shuningdek, guruh a'zolarining shaxsiy qoniqishini oshirish va ularning salohiyatini ochish uchun to'g'ri usulni topishdir. So'nggi paytlarda "fasilitatsiya" atamasi pedagogika fanida faol qo'llanilmoqda.

O.N.Shahmatova nuqtai nazaridan pedagogik jarayon "ta'lim, o'qitish va tarbiyalash samaradorligini oshirish, pedagogik o'zaro ta'sir sub'ektlarining muloqot uslubi hamda o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlanishini ta'minlaydi". O.N.Shahmatova fasilitatsiyani o'qituvchi shaxsining muhim sifati sifatida belgilaydi, bu shaxslararo muloqotda namoyon bo'ladi va o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muallifning fikricha, fasilitatsiyaning muhim tarkibiy qismlari jozibadorlik, bag'rikenglik va qat'iyatlilikdir[4,120].

E.F. Zeerning fikricha, pedagogik ko'maklashish o'qituvchining o'ziga xos uslubi va shaxsiyati hisobiga ta'lim (tayyorlash, tarbiyalash) mahsuldorligini oshirish va kasbiy pedagogik jarayon sub'yektlarini rivojlantirishdir. Shunday qilib, pedagogik ko'maklashish – bu o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlarini oshirishdir. o'qituvchining talabalar bilan maxsus uslubda muloqot qilish orqali ta'lim samaradorligi va pedagogik jarayon sub'ektlarini rivojlantirish[3,175].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladi, o'z faoliyatini tashkil qilishni o'rganadi. Fasilitatsion yondashuv ko'plab omillarga bog'liq: maktabgacha ta'limni moddiy ta'minlash, guruhlardagi bolalar soni, ota-onalarning . pozitsiyasi va maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyati.

Ammo bolalar va ota-onalar bilan muloqotda asosiy rolni tarbiyachining shaxsiyati, uning kasbiy yaroqliligi, pedagogik mahorati, hayotiy pozitsiyalari, insoniyli va bola bilan muloqot qilish xarakteri o'ynaydi. Aynan shu omillar bolaning psixo-emotsional va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning psixologik adaptatsiyasi tarbiyachining munosabatiga va uning tanlagan yetakchilik uslubiga bog'liq. Shu sababli, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ota-onalarining hozirgi ehtiyojlarini hisobga oladigan va ularning faol pozitsiyasini shakllantirishga hissa qo'shadigan yangi, innovatsion yondashuv fasilitatsion texnologiyalarga qaratilgan.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida fasilitatsion yondashuv texnologiyasi - bu ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar falsafasi bo'lib, uning mohiyati ota-onalar yoki o'qituvchilar tomonidan bir xil darajada faol, ammo mustaqil bo'lgan, lekin bolaning ehtiyojlariga qaratilgan boshqa sub'ektlarni rag'batlantiradigan o'zaro munosabatlarni qurishdir. Oilaning manfaatlari va tarbiyachilarning imkoniyatlarining yig'indisidir.

Ushbu uyg'unlik maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolaning oilasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonini optimallashtiradi. Fasilitatsiya ta'lim jarayonida samarali hamkorlikni ta'minlaydi va maktabgacha tarbiyachilar va o'quvchilarning oilalari o'rtasidagi muloqot to'siqlarini yengib o'tishga imkon beradi. Tarbiyachilar har kuni ota-onalar bilan muloqot qilishadi. Muammolarni muhokama qilishda ko'pincha kelishmovchiliklar va tushunmovchiliklar paydo bo'ladi. Umumiy qarorga kelish uchun tarbiyachi muloqot ishtirokchilarining harakatlarini boshqarishi va muvofiqlashtirishida yetakch sifatida harakat qilishi kerak. Ota-onalar bilan ishlashning eng keng tarqalgan shakllari: so'rovlar, davra suhbatlari, rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, aqliy hujum, treninglar, shaxsiy misollar.

Fasilitatsiya funktsiyalari imkoniyatlarni rag'batlantirish va amalga oshirish, tashabbus va ilhom, yordam va qo'llab-quvvatlashdir. Fasilitatsiya shakllari - o'zaro ta'sir, hamkorlik, dialog.

Shunday qilib, fasilitatsion yondashuv - ta'lim jarayonini qurishning zamonaviy usuli bo'lib, u orqali bolalar va ularning ota-onalari birgalikda o'rganish jarayonining sheriklari va hammualliflari bo'lishadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarning ota-onalariga tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati bilan o'zaro aloqada bo'lish, muayyan ko'nikma va xulq-atvor shakllarini o'zlashtirish, bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan muayyan muammolarga salbiy munosabatni bartaraf etish imkonini beradi, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarning tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan bir qator talablar va uning tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari bilan munosabatlarni o'rnatish jarayonidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davydova O.I., Mayer A.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning hayotida ota-onalarni faollashtirish. O'quv va uslubiy qo'llanma. Barnaul, 2013., 102 b.
2. Davydova O.I., Mayer. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar yig'ilishlarida fasilitatsiya texnologiyalaridan qanday samarali foydalanish. O'quv va uslubiy qo'llanma. M.: Pedagogik ta'lim markazi, 2014. – 144c.
3. Zagorulya T. B. Pedagogik yordam tushunchasi: tushunchasi va mohiyati // Professor L. N. Kogan xotirasiga bag'ishlangan XX Xalqaro konferentsiya "Zamonaviy dunyoda madaniyat, shaxs, jamiyat: metodologiya, empirik tadqiqot tajribasi". – Ekaterinburg: UrFU, 2017. 175 b.
4. Shaxmatova O.N. "Pedagogik yordam: shakllanish va rivojlanish xususiyatlari" «Yangi pedagogik tadqiqotlar: [almanak] « Moskva ta'lim bo'limi, ilmiy tadqiqotlar. Taraqqiyot instituti prof. Ta'lim, Ijtimoiy fanlar instituti va tarbiyalang. boshqaruv. - Moskva, 2006.

#### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISH**

Saidova Dilorom Erkinovna  
Buxoro DPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
Najimova Sevara Jasur qizi  
Buxoro DPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi va maktabgacha ta'limning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat talablari. Maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. Musiqa mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi fanidan ta'lim mazmunining minimal hajmi. Tarbiyalanuvchilarning musiqa mashg'ulotlarida egallashi lozim bo'lgan

kompetentsiyalari. Musiqa mashg'ulotlari ta'limi dasturi mazmuni, mohiyati va tahlili. Mashg'ulotlar tahlili bayon etilgan

**Kalit so'zlar:** Musiqa, emotsional, tarbiya, estetik, demokratik, san'at, munosib, jamiyat, pedagogrepertuar, ma'naviyat.

**Аннотация:** В данной статье представлены методика организации музыкальных занятий и государственные требования дошкольного образования на основе компетентностного подхода. Минимальные требования к уровню подготовки учащихся в период дошкольного образования. Минимальный объем образовательного контента по теме «Методика проведения уроков музыки». Компетенции, которые студенты должны приобрести на занятиях музыкой. Содержание, сущность и анализ программы музыкального образования. Описан анализ тренинга

**Ключевые слова:** Музыка, эмоциональное, воспитание, эстетическое, демократическое, искусство, достойное, общество, педагог, репертуар, духовность

**Abstract:** In this article, the methodology of organizing music classes and State requirements of preschool education based on the competence approach are presented. Minimum requirements for the level of preparation of students during preschool education. The minimum amount of educational content in the subject of the methodology of conducting music lessons. Competencies that students should acquire in music classes. Content, essence and analysis of the music education program. The analysis of the training is described

**Key words:** Music, emotional, education, aesthetic, democratic, art, worthy, society, pedagogue, repertoire, spirituality.

Musiqa mashg'ulotlarini rejalashtirar ekan, pedagog bolalarning aqliy, jismoniy, emotsional yuklamalarini hisobga olishi kerak va shunga ko'ra o'rgatiladigan repertuar va faoliyat turlarini ketma – ketligini to'g'ri tuzishi kerak.

Har bir musiqa rahbari xar bir musiqa mashg'ulotini qiziqarli va bolalar xotirasida uzoq saqlanishi uchun ko'rgazmalardan unumli foydalanishni bilishi zarur. Mashg'ulotni tashkillashda musiqa rahbari quyidagilarni yoddan chiqarmasligi kerak:

- mashg'ulot bayoni, yangi qo'shiq, raqs xarakatlari, foydalaniladigan cholg'uasboblari uchun tayyorlangan ko'rgazmalar;
- qismlarni bir-biriga uzviy bog'lay olish;
- bolalarni qiziqtirish uchun ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga oligan holda sodda va past ohangda muloqatda bo'lish;
- texnika vositalaridan foydalana olish;
- musiqiy ta'limiy va didaktik o'yinlar yordamida bolalar bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borish;
- musiqaviy xarakatli o'yinlarni atributlar va o'yinchoqlar yordamida tashkillashtirish.

***Mashg'ulotni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak:***

- Musiqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompozitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish;
- Ovoz diapozonini kengaytirish mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallardan foydalanish;
- Qo'shiq kuylaganda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish;
- Laparlar va raqslarni ijro etganda atributlar (gullar, lentalar, v.b.) foydalanish;
- Bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda musiqali xarakatli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakat qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi.

**Nutqiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlash metodikasi**

Ma'lumki, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda, ularning nutqlarini tiklashda musiqa mashg'ulotlari katta o'rin tutadi. Bunday guruh bolalari bilan musiqa rahbari logopedmusiqa rahbari bilan hamkorlikda ishlasa o'z maqsadiga yetadi.

Nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqini tiklashda musiqa rahbarlari ko'proq logoritmikaga e'tibor qilishlari ko'zda tutiladi. Bunda:

- to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish;
- ovozni rivojlantirish ustida ishlash;
- temp va ritm ustida ishlash;
- eshitish va xotirani rivojlantirish;
- umumiy va maxsus motorikani rivojlantirish;
- so'zlarni xarakterlar bilan to'g'ri ishlay olish;
- intonatsiya va shu registrlar ustida ishlash;
- o'yinlar.

Bolalarning musiqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar yorqin va quvnoq ranglarni xush ko'radilar, ularda bu orqali quvnoqlik hissiyotlari rivojlanib boradi.

O'quv materialini murakkabligiga ko'ra xilma – xildir: ko'proq aqliy faoliyatni, diqqatni talab qiladigan vazifalarni mashg'ulotlar boshida berish kerak. Kuylashdan oldin murakkab jismoniy mashqlarni berish mumkin emas, chunki bunday mashqlar bolalarni nafas olishlarini qiyinlashtiradi. Amaliyotga ko'ra faoliyat turlarini quyidagicha berish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulot boshida kichik musiqiy – ritmik mashqlar, ular birorta raqs elementlari ham bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar bola diqqatini jamlaydi.

Ritmik mashqlardan so'ng bolalar o'tiradilar va musiqa tinglaydilar. Keyin esa qo'shiq kuylashga o'tadilar. Bolalar bir mashq davomida 2 – 3 ta qo'shiq kuylashadi. Masalan, marsh, raqs, qo'shiq jarayonida musiqa savodidan xabardor bo'ladilar. Bunday mashg'ulotlar **mavzuli mashg'ulotlar** deyiladi.

Yana biri bu **kompleks mashg'ulotlardir**. Bunda bolalar bilan faqat musiqa emas, balki, adabiyot va tasviriy san'at bilan shug'ullanadilar. Bunday mashg'ulotlar asosida uchta san'atni birlashtiruvchi badiiy obraz yotadi. Masalan, “Qish zavqi”, “Kuz keldi”, “Bahor”.

Musiqa mashg'ulotlari – har bir bolaning musiqiy qobiliyatini maqsadga muvofiq va har tomonlama ta'lim – tarbiya beruvchi mashg'ulotlardir. Ularda har xil faoliyat turlari: kuylash, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash, musiqa savodi bilan tanishtirish kabi faoliyatlarni uzviy bog'lab olib boradilar. Musiqa faoliyatini bajarish bolalarni faolroq bo'lishlariga asos bo'ladi. Tashkil etiladigan bayramlar ham qiziq va muvaffaqiyatliroq o'tadi.

Musiqa mashg'ulotlari butun guruh bilan bir vaqtda o'tkaziladi. Uning mazmuni va tuzilishi bolalar yoshi va beriladigan vazifalarga bog'liq.

Ilk yosh guruhida 10 – 13 daqiqa olib boriladi. Kichik guruhida 15 – 20 daqiqa olib boriladi. O'rta guruhida 20 – 25 daqiqa olib boriladi. Katta guruhda 25 – 30 daqiqa olib boriladi. Tayyorlov guruhida 30 – 35 daqiqa olib boriladi.

Musiqa mashg'ulotlar haftasiga ikki marta o'tkaziladi. Unda guruhning barcha bolalari ishtirok etadi. Musiqa mashg'ulotlari – musiqa tinglash, qo'shiq o'rgatish, musiqiy – ritmik harakatlar bajarish, raqsga tushish, musiqiy – didaktik o'yinlar, bolalar cholg'u asboblari chalishga o'rgatish va musiqaga oid ma'lumotlarni qamrab oladi. Har bir mashg'ulotdan mashg'ulotga sayin bolalarga musiqaviy ta'lim-tarbiya berishning qaysidir vazifasi hal etib boriladi. Musiqa rahbari ushbu ishda rahbarlik qiladi, to'g'ri yo'l ko'rsatib, maslahat va tavsiyalarini berib boradi.

Bolalarni bilim va malakalariga qo'yiladigan talablar har bir guruh uchun faoliyat turiga qarab tuziladi.

Bunday mashg'ulotlarning qiyinligi shundaki, bolalarning diqqatini bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga ko'chirish kerak bo'ladi. Shu ketma – ketlikni reja asosida amalga oshirish murakkabdir. Chunki bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olsak, ular bugun o'rgangan asarlarini keyingi safar unutishlari mumkin.

Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa rahbarining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat.

### **Bolalar repertuarini tanlashda qo'yiladigan zamonaviy talablar**

Mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqa merosini bolalarni idrok etish qobiliyati darajasida bosqichma – bosqich tadbiq etish nazarda tutiladi.

Ertalabki badan tarbiya, turli shakldagi mashg'ulotlar, mehnat, sayr, nafosat soatlari, o'yin kulgi, bayramlarga oid asarlarni aniq rejalashtirib, o'z o'rnida va me'yorida qo'llash "Milliy tafakkur" muammosining yechimiga erishishda muhim omil bo'ladi.

Avalambor musiqa repertuarlari bolajonlarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatini e'ozlanish, do'stlik, hamjihatlik, rahm – shafqat kabi xislatlar musiqaviy obrazlar orqali idrok etilishga qaratilgan. Bunda Respublika miqyosidagi ijodkor tarbiyachilarning ilg'or tajribalari natijasi, yangicha ishlash metodikasiga asoslangan musiqiy repertuarlari bolalarning yoshiga mos bo'lgan (bilim va malakalar darajasi, musiqaga munosabati, qiziqishi, qobiliyati, sog'lig'i, kayfiyati, bog'chadagi muhit va boshqalar)holatlarni musiqiy faoliyat turlarini hisobga olgan holda besh qismga bo'linadi. o'quv materiallari choraklarga taqsimlangan bo'lib, bolalarning mehr faoliyat turlariga muvofiq tanlanishi dastlabki bilim va ko'nikmalarni egallashda, ta'lim maqsadlarni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materiallarining mazmunidan kelib chiqish lozim. Bunda asarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning badiiy Qoyaviy saviyasi, bolalar yoshiga mosligi, asar mavzusining xilma – xilligi hisobga olinadi.

Ma'lumki, musiqiy faoliyat musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqiy ritmik harakat, bolalar cholg'u asboblari chalishni o'rganish kabi turlarga bo'linadi. Har bir faoliyat turi bolaning musiqiy didini rivojlantirishga yordam berib, ma'lum malakani shakllantiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasi musiqa rahbari tomonidan olib boriladi. Uning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni yoshligidan boshlab ularning dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib borish, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unlar tabiat, jamiyat, mahalla, ota-ona, ta'lim muassasasi va umuman olganda hayotda o'z o'rnini topishida ilk musiqiy tushunchalarni berishdan iborat. Musiqi tarbiyachisi musiqa mashg'ulotlari asosida bolalarga ta'lim va tarbiya berish borasida oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun eng avvalo, bolalarning musiqiy uquvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish uchun harakat qilishi lozim.

Mutaxassislar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining musiqiy uquv va qobiliyatlarini quyidagi faoliyat turlarida ajratgan holda tasnif etadilar.

Jumladan, tarbiyalanuvchilarning musiqiy tovushlarni baland-pastligini his etish qobiliyati;

musiqiy tovushlar rangini bir-biridan farqlanishini bilish;

bolalarni musiqaga mos harakat bajarishlarini xis etishlariga o'rgatish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlash, his etish va ifodalash; musiqa tinglash qobiliyatini o'stirish; jamoa bo'lib kuylash; aytim so'zlarini ma'no va mazmunini o'rganish uchun ularni mushohada qilish qobiliyatini o'stirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishning yana bir o'ziga xos shakli sifatida mashg'ulotlarda musiqiy faoliyaning barcha shakllarini musiqa rahbari tomonidan ishlatish talab etiladi. Garcha, tarbiyalanuvchida musiqa

mashg'ulotiga nisbatan qiziqish orsin. Shuningdek, musiqa rahbari tomonidan amalga oshirilganishlar musiqa mashg'uloti jarayonida rivojlanib borsin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari etib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Birinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borasida o'quvdasturda repertuar tanlashda ularning yoshiga xos jihatlarni e'tiboga olish;

Ikkinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida ularda musiqiy ohangga bo'lgan his-tuyg'ularni hosil qilish yo'li bilan Ona-Vatan, xalq, millatga nisbatan mehr-muhabbatni tarbiyalash, shu orqali ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;

Uchinchiidan, bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;

To'rtinchiidan, bolalar ovozi asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish hamda unga odatlantirish;

Beshinchiidan, tarbiyalanuvchilarni musiqiy asarlardan zavq olishlari, shu asosda ularning musiqiy did va badiiy fikr yuritishlarini rivojlantirish;

Oltinchiidan, musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs ifoda etishga o'rgatish;

Yettinchiidan, musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlar jo'rligida milliy ohang-kuy va musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;

Sakkizinchiidan, musiqa mashg'ulotlari mazmunini maktabgacha ta'lim muassasasi, Vatan, shahar, mahalla, tabiat, jamiyat hayoti bilan bog'lash, ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish. Turli ertaliklar, kontsertlar tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarida bola hayotini, tevarak-atrofnii musiqiy obrazlar orqali idrok etish uchun repertuar tanlash lozim bo'ladi. Olib boriladigan musiqiy tarbiya ishlarini badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshirish, musiqiy tarbiyaning ilg'or tajriba va turli metodlaridan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotini bolalarga badiiy-estetik zavq uyg'otishini, ularning his-tuyg'ularini shakllantirishda, ijodiy fikrlash qobiyati va nutqini o'stirishda xizmat qilishni ta'minlash lozim. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslardan ham foydalanish bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlikni shakllantirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu jarayon bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Anashu ishlar maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'limni va tarbiyani ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarini bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 2005
2. Omonullaeva D. Nazarov F. Burhonov D. Bolalar bog'chasida musiqa T.: O'qituvchi. 2000.
3. F.G. Nurullayev "Bolalarning musiqiy ta'limi" T.: O'qituvchi 2007 y
4. Abdurahmonova H.Sh. Bolalar bog'chasida musiqaviy o'yinlar va bayram ertaliklari. T.: O'qituvchi. 2011.
5. D.E. Saidova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma 2023
6. Saidova Dilorom Erkinovna Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishda musiqiy tarbiyaning ahamiyati "Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalarning yo'nalishlari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 29-noyabr

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ADAPTIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

*Normatova Nilufar Komilovna.*

Qarshi davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası doktoranti  
[nilufarkomilovna@gmail.com](mailto:nilufarkomilovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar adaptive ko'nikmalariga oid ilmiy ma'lumotlar berilgan bo'lib, adaptatsiya jarayoni borasidagi olimlar fikrlari va shaxs hayotida o'rni hamda ahamiyati borasidagi ma'lumotlar ilmiy-pedagogik jihatdantahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxs, adaptatsiya, moslashuv, osonlashtirish, hamkorlik, muammo, yondashuv.

Bizga yaxshi ma'lumki, jahonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga muvofiq, shaxsning atrofidagi dinamik xarakterga ega bo'lgan muhitga moslashuviga alohida talablar qo'yiladi. Shaxs rivojlanishi va shakllanishi davrida ijtimoiy va pedagogik ta'sirlarga alohida e'tibor berilishi talab etilishi lozim bo'lgan davr sifatida qayd etiluvchi maktabgacha yoshdagi bolalik davri tashqi ta'sirlarni qabul qilish uchun tayyorlikni shakllantirishda eng sezgir davr hisoblanadi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib amaliyotga joriy etilmoqda, bunga birgina misol: "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi" hamda Respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirilishidir. Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim - tarbiya olishini ta'minlash masalasi Davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmas vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan keng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish, maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-maydagi PQ- 4312- sonli qarorini imzoladi.

Bir so'z bilan aytganda mazkur konsepsiya maktabgacha talim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida har bir tarbiyachidan kasbiy mahoratlilikka ega bo'lishni hamda bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida kechadgian turli xil adaptatsion muammolarni xal etishni toqazo etadi.

Shaxsning adaptiv jarayonlari tug'ilganidan boshlab shakllana boshlaydi. Bola tug'ilgan vaqtida katta inqirozga uchraydi bu inqiroz bolani tashqi muhitga moslashishi ya'ni hayotini davom ettirishi uchun kurashishidan iborat jarayondir. Bola borliqni dunyoni his etar ekan ilk bor onasini taniydi so'ngra oila a'zolarini ta'niy boshlaydi. Bolani adaptiv jarayonlarini shakllana boshlashida dastlab onaning va oila a'zolarining o'rni muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida borliqni, jamiyat va tabiat undagi jamiki mavjudotlar, kishilar, narsa va jismlar haqidagi butun tasavvurga ega bo'lishni va ularga moslashish ko'nikmasini shakllantiradi.

Mavjud manbalarni o'rganish va tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki bolaning adaptiv jarayonlarini rivojlantirish va takomillashtirish qancha erta boshlansa, uning oilaga, tashqi muhitga, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ta'limiga hamda tengdoshlari va jamoaga moslashishi shunchalik oson kechadi. Bu esa bolani hayotda o'z o'rnini topishi,

do'stlar orttirishi, hunar o'rganishi, kasb tanlashi, ish faoliyati va yangi sharoitlarga tezda moslashishiga asos bo'ladi.

Yosh bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish, uning yangi shart-sharoitlarga moslashishi muammosi bilan birga keladi, chunki moslashish imkoniyatlari cheklangan. Bolada "Adaptatsiya sindromi" deb ataladigan kasallikning paydo bo'lishi uning oilani tark etishni psixologik istamasligini bevosita natijasidir. Bu o'zgarishlarning barchasi bolani bir vaqtning o'zida turib, unga stressli vaziyatni keltirib chiqaradi, bu esa maxsus tashkilotsiz kayfiyat, qo'rquv, ovqatdan bosh tortish kabi nevrotik reaksiyalarga olib kelishi mumkin.

Shaxsning adaptatsiyasi, moslashuvi muammosi uzoq vaqtdan beri olimlarimiz ilmiy tadqiqot mavzulari hamda ko'plab sohalarida asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan. Moslashuv nafaqat tez o'zgaruvchan dunyoda, balki kelajakda ham inson hayotiyligini saqlab qolishning eng haqiqiy usullaridan biri. Shaxsning yangi adaptatsiyani muhim muammolar qatoriga kiritish hayotning real talablari bilan ham, ilmiy bilimlarni rivojlantirish mantig'i bilan ham belgilanadi. Inson yaralibdiki dunyo yuzini ko'rishi bilan bu yorug' olamdagi jamiki narsalarga tabiatga, jamiyatga, havoga, suvga, tuproqqa, oila a'zolari: ota-onasiga, aka-ukasiga, opa-singlisiga, moslashib boradi. Moslashuv mexanizmlarini ochib berish insoniyatning jamiyat, tabiat va o'zi bilan munosabatlarining yangi shakllarini anglash, xulq-atvor dinamikasini bashorat qilish uchun kalit beradi. Borliqdagi barcha narsa va predmetlarga moslasish asosida inson bolasi o'sadi ulg'ayadi, yosh va individual xususiyatidan kelib chiqib ta'lim muassasalariga boraradi, u yerda ham ijtimoiy adaptatsiyani boshidan kechiradi. Barcha sohada ijtimoiy moslashish muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, bolalarni qanday qilib moslashishga o'rgatish mumkin? Shaxsda adaptivlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim.

Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi (lotincha adaptation-moslashish) ilmiy muomalaga dastlab nemis fiziologi X. Aubert tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida (1865 yil) a'zolarining tashqi muhit o'zgarishlariga moslashishini tavsiflash uchun qo'llanilgan. Fiziologiyada keng qo'llanilgach moslashuv xususiy ilmiy tushuncha sifatida qolsada, biologiyaning boshqa sohalarida ham qo'llangan. XX asrning o'rtalaridagina moslashuv atamasi tibbiyot, kibernetika, psixologiya va boshqa fanlarda qo'llandi va hozirda umumilmiy tavsifga egadir. [2;155 falsafa].

Adaptivlik shaxsni moslashtiruvchi kategoriya bo'lib, inson hayoti jarayonida ijtimoiy muhitga undagi voqea – hodisalarga jamiyatga va unda yashovchi jamiki mavjudotlarga moslashib boradi. Moslashish jarayonida inson bolasi individdan toki shaxs bo'lib yetishgunga qadar unda barcha psixologik jarayonlar shakllanadi: sezgi, diqqat, idrok, nutq, tafakkur, hayol, xotira. Buning natijasida inson tashqi muhitga moslashadi, ilm oladi, hunar o'rganadi, tengdoshlari bilan o'zaro muloqotga kirishadi.

Demak adaptatsiya – ijtimoiy moslashish bo'lib, insonlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni yuzaga keltiradi, ularni jamiyat va tabiatga to'g'ri va oqilona moslashishga o'rgatib boradi. Shaxsning moslashganlik darajasi uning jamiyatdagi o'rni, o'zini tutishi o'zgalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotida xatti – harakatlarida o'qish va ish uslublarida namoyon bo'ladi. Adaptivlik shaxsni hayotda o'z o'rnini topishida, muayyan bir kasb – hunarga ega bo'lishida, oila qurib hayot faoliyatini davom ettirishida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek adaptivlik moslashuvchanlikning muhim omili sifatida aks etadi.

Moslashuv hodisasining ko'plab ta'riflari mavjud: Moslashuv (adaptatsiya) – jonli sistemalarning tashqi muhit bilan munosabatida sodir bo'ladigan moslashuv jarayoni adaptogenezning ma'lum natijasi. [2;105].

Moslashuv–tabiat yoki jamiyat hayotida, insonning ma'naviy-ruhiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi [4;15].

Ijtimoiy moslashuv - bu insonning o'zgargan muhitga turli xil ijtimoiy vositalar yordamida faoliyat yuritishni o'z ichiga olgan guruh, jamoa, tashkilot, mintaqa) normalari va

qadriyatlarini, bu erda shakllangan ijtimoiy o'zaro ta'sir shakllarini (rasmiy va norasmiy aloqalar) qabul qilishdir, yetakchilik uslubi, oilaviy va mahalla munosabatlari va boshqalar.), shuningdek, moddiy faoliyatning shakllari va usullari (masalan, ishni professional tarzda bajarish usullari yoki oilaviy majburiyatlar).

A.G.Kovalev ijtimoiy moslashuvning ikkita shaklini ajratib turadi: faol, agar shaxs atrof muhitni o'zgartirish uchun unga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lsa (shu me'yorlar, qadriyatlar, o'zaro ta'sir shakllarini o'zlashtirishi kerak) va passiv, agar bunga intilmasa ta'sir va o'zgarish. Muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichi - bu ma'lum bir muhitda shaxsning yuqori ijtimoiy mavqeyi, shuningdek uning umuman ushbu muhitdan qoniqishidir (masalan, ish va uning sharoitlaridan qoniqish, ish haqi, tashkilot va hk). Kam ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichi - bu shaxsning boshqa ijtimoiy muhitga harakati (kadrlar almashinuvi, migratsiya va boshqalar) yoki deviant xatti-harakatlar [3; 203].

A.Georgievaning fikriga ko'ra, ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish, uning mohiyati insonning faol faoliyatiga asoslangan bo'lib, uning asosiy nuqtasi muhim ijtimoiy haqiqatni o'zgartirish zarurati hisoblanadi. Shu sababli, shaxsning ijtimoiy moslashuvi mexanizmlarini shakllantirish jarayoni shaxslarning barcha turdagi transformatsiyalaridan ajralmas bo'lib, uchta asosiy bosqichda sodir bo'ladi: uni tavsiflovchi faoliyat, aloqa, o'z-o'zini anglash.

Ijtimoiy faollik insonga moslashishni tashkil etishda yetakchi va o'ziga xos mexanizmdir. Uning bunday tarkibiy qismlari aloqa, o'yin, o'rganish, ishlash, to'liq ishtirok etishni amalga oshirish, shaxsning ijtimoiy muhitga faol moslashuvi kabi muhimdir

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirish muhim muammo ekanligini asoslash haqida gap borar ekan, mazkur holatda "ijtimoiy moslashtirish" tushunchasining pedagogik talqinini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanlari doktori N.M.Egamberdiyeva ta'kidlab o'tganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi – ta'lim-tarbiya ta'sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va qoidalarining o'zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi. Xulosa qilib aytganda, moslashuv, shu jumladan ijtimoiy moslashuvga aniq maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. [1;120].

Moslashuvga ehtiyoj shaxsda ma'lum bir tizim bilan kelishmovchilik sharoitidagi o'zaro ta'sir holatida paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida o'zgarishlarni talab etadi. Bu o'zgarishlar shaxsning o'z-o'zi yoki tizim bilan, bundan tashqari ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir tavsifi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni, shaxsning ijtimoiy moslashuvining boshlang'ich nuqtasi bo'lib tashqi muhitning o'zgarishi bilan avvalgi xulq-atvor samarasiz yoki kam samarali bo'lib qolishi natijasida aynan yangiliklar bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni yengishga nisbatan paydo bo'luvchi zarurat xizmat qiladi.

Bugungi kungacha ta'lim oluvchilarni ijtimoiy moslashtirishga doir qator modellar ishlab chiqilgan. Jumladan, D.V.Kolesov tomonidan ishlab chiqilgan moslashuv jarayonining bosqichli modeli o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olgan:

- muvozanatlashish – individ va muhit o'rtasida o'zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me'yorlariga nisbatan hurmat ko'rinishidagi muvozanatning vujudga kelishi;
- soxta adaptatsiya – sharoitga tashqi moslashuv va uning me'yorlariga nisbatan salbiy munosabat birligi;
- ko'nikish – yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;
- o'xshatish – individning psixik qayta oriyentatsiyasi, avvalgi qarashlar, oriyentatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi.[6;19].

Mazkur model shartli ko'rinishga ega bo'lib, bunda tasvirlangan moslashuv davrlari bir paytda amalga oshishi yoki bir-birining o'rnini to'ldirishi mumkin.

Bolalarda adaptivlikni rivojlantirishda avvalo atrof - muhitga bo'lgan ishonchni shakllantirish kerak, buning uchun quyidagilar zarur:

- ✓ bolalarni atrof olam bilan tanishtirish;



- ✓ bolalarning bir-biri bilan muloqotini tashkil etish;
- ✓ tarbiyachilar, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar xodimlari, metodistlar, psixolog bilan tanishtirish;

✓ bolalar bog'chasi va guruh bilan tanishish [6;20].

L.M.Luzina esa, moslashuvchan xulq-atvorning quyidagi strategiyalarini ishlab chiqqan:

- muhitdagi mavjud qadriyatlar tizimini faol o'zlashtirish;
- o'z-o'zini o'zgartirish;
- muhitdan chiqib ketish va yangisini izlash;
- muhit bilan aloqani uzish va o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lish;
- o'zining passiv representatsiyasi;
- muhitning shartlariga sust holda ko'nikish;
- tashqi o'zgarishlarni sust holda kutish;
- ichki o'zgarishlarni sust holda kutish.[5;18].

Bolalarda adaptivlik ko'nikmasini shakllantirishdan oldin guruhda qulay muhitni yaratish lozim. Bolaga qulay muhit yaratib berish orqali bolada moslashish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa bolani maktabgacha ta'lim tashkilotida erkin faoliyat yuritishga, bolalar bilan tezroq muloqotga kirishishiga, to'g'ri rejim asosida ovqatlanishiga, mashg'ulotlarni yaxshi o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 232 b
2. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.
3. Ковалев, А. Г. Шахс психологияси. / А.Г. Ковалев - М.: Мйсл, 1973. —341б.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 760 b. – B.
5. Лузина Л.М. Философски-антропологический подход в современной методологии воспитания: Дис. ... докт. пед. наук в виде научного доклада. – СПб., 1998.
6. Шепилова Н.А. Социально-педагогическая адаптация студентов вуза в процессе формирования их сенностного отношения к педагогической профессии: автореферат дис. ... канд. пед. наук. Магнитог. гос. ун-т. Магнитогорск, 2003. – 19 б.

### **BOLALARDA TADQIQIY-IJODIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI**

*Bo'riyeva Tursunoy Alisherovna  
Qarshi davlat universiteti,  
Maktabgacha ta'lim kafedrasida doktoranti  
(Tel: +998943395151)*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, ta'lim tarbiya masalalarini tabiat bilan uyg'unlikda olib borish, xususan bolalar tadqiqiy-ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishda rus va g'arb olimlarining fikr va qarashlari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Rus va g'arb tabiatshunos olimlarining tabiat bilan tanishtirish sohasiga oid asarlari yoritib o'tilgan. Ushbu qimmatli fikrlarning bugungi kunda ta'lim sohasidagi o'rni va ahamiyati, bola rivojlanishidagi roli yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yosh, tabiat, tevarak-atrof, ijod, tamoyil, fikr, g'oya, ma'rifat.

**Annotation:** this article contains thoughts and opinions of Russian and Western scientists on introducing preschool children to nature, carrying out educational issues in harmony

with nature, in particular, on the formation of children's research and creative skills. The works of Russian and Western naturalists in the field of introduction to nature are highlighted. The place and importance of these valuable ideas in the field of education today, their role in the development of the child has been highlighted.

**Key words:** preschool age, nature, environment, creativity, principle, thought, idea, enlightenment.

**Аннотация:** в данной статье даны размышления и размышления о взглядах и взглядах российских и западных ученых на приобщение дошкольников к природе, ведение вопросов воспитания в гармонии с природой, в частности, в формировании у детей исследовательско-творческих навыков. Освещены труды российских и западных ученых-естествоиспытателей в области ознакомления с природой. Освещается роль и значение этих ценных моментов в современном образовании, их роль в развитии ребенка.

**Ключевые слова:** дошкольный возраст, природа, окружающая среда, творчество, принцип, мысль, идея, просвещение.

Yosh avlodni tabiatga ehtiyotkorona munosabatini tarbiyalash va ta'lim tarbiyani tabiat bilan uyg'unlikda olib borish muammosi g'arb allomalarining ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Yan Amos Komenskiy birinchilardan bo'lib tarbiyani tabiat bilan uyg'un holda, ya'ni tarbiyani asoslashda tabiatga, uning umumiy qonuniyatlarga tayanish g'oyasini ilgari suradi. U bolalarni tarbiyalashda tabiatning o'rni va ahamiyatini o'zining bir nechta asarlarida ochib bergan. Buni uning bolalar uchun yaratgan kitoblarining nomlanishidan ham bilish mumkin. Masalan, 1-sinf uchun bitilgan kitobni "Gunafsha jo'yagi", 2-sinf uchun yaratilgan kitobini — "Atirgul tupi", 3-sinf kitobini — "Istirohat bog'i" deb nomlagan. Ushbu kitoblarda olim hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb qilish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, bu sohada bog'ning turli manzaralaridan namunalar olgan.

Y. A. Komenskey tabiatga monanadlik prinsipini tabiat va inson rivojlanishida universallik, mushtaraklik borligini aniqlab, inson kamol topishidagi yosh (bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yetuklik) davrlarini xarakterlab, ular ichida olti oy davom etadigan dastlabki davrni eng muhim bola organizmida jismoniy o'sish va his-tuyg'u organlarining rivojlanishi ro'y beradigan davr deb hisoblaydi. Mana shu davrda bolani pedagogik qobiliyati bo'lgan, o'z tarbiyalanuvchilarini sevadigan, dono, g'amxo'r onalar rahbarligidagi oilada, ya'ni onalar maktabida tarbiyalanishlari kerak deb hisoblaydi.

Y. A. Komenskeyning "Onalar maktabi" nomli asari maktabgacha tarbiya sohasiga oid dunyoda birinchi, maxsus dastur va qo'llanma hisoblanadi. Asarda bolalarning faoliyat turiga intilishlari, mehnatga muhabbat, tabiat, atrof-muhitni sevish va asrab avaylash, haqqoniylik, ozodalik, xushmuomalalik, adolatlilik va shu singari insoniy fazilatlarini tarbiyalash sohasida qimmatli tavsiyalar berilgan.

Y. A. Komenskeyning ta'kidlashicha inson tabiatning eng oliy mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib o'zi uchun kerakli bo'lgan hamma narsalarni bilib olishi mumkin. Komenskey o'zining "Buyuk didaktika", "Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi", "Fizika", "Falakiyot", "Onalar maktabi", "Tinchlik farishtasi" kabi asarlarida muhim pedagogik g'oyalarni ifodalagan.

Y.A. Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga qiyoslagan:

"Onalar maktabi"ni xushbo'y o'simliklar, go'zal tabiat, gullagan daraxtlar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorga o'xshatadi.

"Ona tili" maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi.

"Gimnaziya" dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasi"ga joylayotgan serhosil kuz faslini eslatadi.

"Akademiya" yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi. Komenskey onalar maktabi bolalarga konkret tasavvurlarni to'plashi uchun yordam berishi kerak, deb aytadi va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilishlari zarur bo'lgan atrof-muhit, tabiat haqidagi oddiy bilimlarni keng doirada batafsil yoritib bergan. Uning ta'kidlashicha

yeti yoshar bola tabiatshunoslik sohasida olov, hovo, suv va yer, yomg'ir, qor, muz, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar nima ekanligini bilishi, Quyosh va oy, yulduzlarni farqlay olishi, qaysi paytda kunlar uzun, qaysi paytda qisqa bo'lishini bilishi kerak. Geografiya sohasida esa bolalar shahar, qishloq, dala, bog' nima ekanligini tushunishi, o'zi yashab turgan qishlog'I yoki shahrini nomini bilishi, bundan tashqari yil fasllari, "soat", "kun", "xafta", "oy", "yil" atamalarini tushunishi kerak deb ta'lim beradi.

Komenskey pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, tabiatga oid 250 dan ortiq asar muallifi. Bundan eng yiriklari "Buyuk didaktika", "Pansofiya maktabi", "Onalar maktabi", "Yaxshi tashkil qilingan maktab qonunlari", "Hislar vositasida idrok qilinadigan narsalarning aksi" kabilardir.

**J. J. Russo (1712-1778)** – fransuz filosof-ma'rifatchisi. U ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos nazariya yaratgan.

Russoning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari uning dunyoqarashining asosi hisoblanadi. U kishi, inson biror jamiyatda yashashi kerak "tabiiy holat"ga qaytib bo'lmaydi, deb hisoblab, tabiatga yaqin ideal jamiyat haqidagi g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha tarbiyaning asosiy maqsadi mehnatsevar kishilarni yetishtirishdir.

Russoning pedagogikaga oid asarlarida, ayniqsa "Emil va tarbiya to'g'risida" nomli romanida tarbiya va yoshlarni tarbiyalashda Tabiatning o'rni va roli atroflicha yoritilgan. U ushbu asarida yoshlarni mehnatga tayyorlash zarurligini aytib, yoshlarni tarbiyalashda jismoniy, aqliy, axloqiy va mehnat tarbiyasining ahamiyatini, tabiat bilan muloqotda bo'lishining ahamiyati katta ekanligini ta'kidlaydi. Bu g'oyalar o'z davrining falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli fikrlaridan sanaladi.

**I.G. Pestaloststi (1746-1827)** – Shvetsariyalik atoqli pedagog, maktabgacha tarbiya nazariyasiga katta hissa qo'shgan buyuk allomalardan biri. I.G. Pestaloststi tarbiya jarayonining oldiga bolalarni jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyalash vazifasini qo'ydi. Aqliy tarbiya sohasida u pedagogika tarixida muhim ikkita qoidani aytib o'tgan. Birinchisi ta'lim jarayonida ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish zarurligini isbotlash va targ'ib qilishdir. Pestaloststi hissiy idrokni bilishning kaliti deb hisoblar va shuning uchun u bolalarda tabiatni kuzatish madaniyatini shakllantirish zarur, deb hisoblardi. Ikkinchisi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi edi. Bunda ta'lim jarayonini shunday tashkil qilish kerak ediki, bu narsa ma'lumotlarni to'plashgagina emas, balki bolalar qobiliyatini rivojlantirishga olib kelsin, yosh avlodni kelajakda mustaqil hayotga tayyorlasin.

Pestaloststining fikricha, tarbiyaning umumiy maqsadi insonlarning barcha tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini har tomonlama hamda uyg'un holda rivojlantirishdan iboratdir. Uning elementar ma'lumot nazariyasiga asosan tarbiyalash jarayoni oddiy elementlardan boshlanib, asta sekin murakkab darajaga ko'tarilib borishi kerak.

**F. Frebel (1782-1852)** - o'zining maktabgacha tarbiya nazariyasi bilan dunyoga mashhur bo'lgan nemis pedagogi.

F. Frebel tarbiya deganda insondagi faoliyat, bilish, badiiy va diniy kabi 4 ta tug'ma instinktlarni rivojlanishini tushunardi. U bola tarbiyasida tabiatga uyg'unlik prinsipini kashf qilib, bunda bolalardagi ilohiy ruhni aniqlash deb bilardi. Uning ta'kidlashiga ko'ra tarbiya insonga tabiat in'om etgan narsaga hech narsa qo'shmaydi, balki unda bo'lgan karakter xususiyatlarni rivojlantiradi, xolos.

Uning pedagogika sohasida katta dong taratishiga sabab, u birinchi bo'lib "bolalar bog'chasi" atamasini joriy etdi. Bolalarning tarbiyalanishida, jismoniy, aqliy, axloqiy, ma'naviy rivojlanishida murabbiylarning o'rni katta ekanligini ta'kidlab, bog'chalar bir bog'u, murabbiylar uning "bog'boni" deb ta'rif berdi.

**M. Montessori (1870-1952)** – Italiyalik atoqli psixiatr shifokor va pedagog, o'zining maktabgacha tarbiya sohasidagi ba'zi qimmatli fikrlari bilan dong taratgan olim. Montessori aqliy tarbiya o'rniga, tuyg'u organlarini tarbiyalashni birinchi o'ringa qo'yadi va buning uchun o'zi didaktik materiallar ishlab chiqdi va tadbiiq etdi. Mashqlar uchun aqliy jihatdan zaif bo'lgan bolalarga ishlatiladigan materialni asos qilib oldi. Mashqlar jarayonida ko'pincha predmetlarni

shakli, vazni va rangiga qarab farq qilish, xilma-xil ovoz va hidlarni bilish ko'nikmalariga qaratilgan edi.

Montessori ota-onalar va tarbiyachilarga quyidagicha maslahatlar beradi: "Bolaning o'zi sizga murojaat qilmaguncha, unga tegmang", "Hech qachon bola haqida negativ fikr bildirmang, na uning yonida, na uning orqasidan", "Faqat yaxshi bolani shakllantirishga diqqatingizni qarating, ana shunda «yomon bola» bo'lish imkoniyati shuncha kam joy qoladi", "bolaning atrofida ijobiy muhit yaratishga harakat qiling va bolaning ushbu muhitda erkin, faol harakat qilishiga imkon yarating", "Bolaning murojaatiga javob berish uchun doim tayyor turing. Uning murojaati hech qachon javobsiz qolmasin", "Xato qilgan bolaga uni tuzatishga imkon bering va uni hurmat qiling".

Montessori metodikasidan foydalanuvchi tarbiyachining asosiy vazifasi — bolaga o'z individualligini topish va namoyon etishga, o'z bilim olish usulini tanlashga yordam berishdan iborat.

**V. F. Odoyevskiy (1804-1869)** – pedagogika sohasida qimmatli fikrlar muallifi, bolalar yozuvchisi. Adibning "Fanlargacha bo'lgan fan" asarining "Bolalarga ilk bor ma'lumot berish davrida qo'llanilgan pedagogic usullar haqidagi tajriba" bo'limida bolalar tarbiyasida tabiatdan foydalanish metodini ilmiy jihatdan izohlab bergan. V. Odoyevskiy bolani tarbiyalash uchun botanikaga murojaat etadi. U tarbiyachilarga bolalarni o'simliklar bilan tanishtirishda biridan ikkinchisiga so'ngra uchinchisiga sakrab o'tmang. Faqat bolalarni hamma organlari yaxshi rivojlangan o'simliklar bilan tanishtiring. Tanishtirganda ham bola uni o'z ko'zi bilan ko'rsin. Siz faqat uni kuzatib, bolaning xatoga yo'l qo'ymaslik choralarni ko'ring. Bolalar bir nechta o'simliklarni kuzatib bo'lgach, uning fikrini jamlash maqsadida ko'rganlardan xulosa chiqarishga yordamlashing.

V. Odoyevskiyning xizmatlari shundan iboratki, rus pedagogikasida birinchilardan bo'lib, bolani tarbiyalashda tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati katta ekanligini izohlab bergan. Uni qanday amalga oshirish yo'l va usullarini ko'rsatib berdi.

**K. D. Ushinskiy (1824-1870)** – Rossiyada pedagogika sohasiga ulkan hissa qo'shgan atoqli pedagog. K. D. Ushinskiy pedagogika nazariyasining asosini tarbiyaning xalqchilik g'oyasi – tarixiy jarayonda mehnatkash xalqning yaratuvchanlik kuchini e'tirof etish tashkil qiladi, deydi. U "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli mashhur asarida har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini albatta hisobga olish zarurligi haqidagi eng muhim qoidani olg'a surdi va asoslab berdi.

K. D. Ushinskiy maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda tabiat bilan tanishtirishga, estetik va axloqiy tarbiyaga katta o'rin ajratdi. Uning fikricha bola faqat axloqiy tarbiya bilangina inson bo'lib shakllanadi. Bundan tashqari tarbiyaga doir asarlar bayonining soddaligi, ravshan va yuksak badiiyligi bilan ajralib turishi kerak, derdi. Uning o'zi ham bunga qat'iy rioya qilar edi. Shuning uchun uning "Ona tili" nomli asari bunday talablarga to'la javob beradi. Darslik mazmuning boyligi, tili va dizayni, metodikasi jihatidan o'z davrining eng namunali o'quv kitoblaridandir. U yoshlarni tarbiyalashda tabiat go'zalligiga yuksak baho berdi.

Bolalarni tabiatni sevishga va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirish yo'llarini ko'rsatdi. Bolalardagi kuzatish qobiliyatini oshirish, fikrlash xususiyatini rivojlantirish, tabiat haqidagi to'g'ri tushunchalarga ega bo'lish, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni payqay olish ruhida tarbiyalash lozimligini uqtirdi.

**A. S. Simonovich (1840-1933)** – ijtimoiy-pedagogik harakatning atoqli arbobi, yoshlarni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab hamkorligini yaxshi yo'lga qo'yish g'oyasini olg'a surgan olim. U bolalar bog'chasini "oila bilan maktab o'rtasidagi bog'lovchi halqa" deb hisonlab, bog'cha bolalarini maktabga o'qishga tayyorlash kerak, degan edi.

U bolalarni tabiat bilan tanishtirishda yaratilgan nazariya va amaliyotni bir-biri bilan bog'lab bolalar tarbiyasida foydalanish kerak, deb ta'kidlaydi. Uning "Bolalar bog'chasining maktab bilan aloqasi", "Kim tarbiyachi bo'la oladi?", "Vatanshunoslik", "Bolalar bog'chasi

haqida” nomli asarlarida bolalarni tarbiyalashda tabiat vositalaridan, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlardan foydalanish lozimligini ta’kidlab o’tadi.

A. S. Simonovich ijodining bosh markazida vatanshunoslik, harakatli o’yinlar, gimnastika, hikoya aytib berish, rasm chizish, konstruksiyalar qurish va boshqa ish turlari bo’yicha namunali metodik qo’llanmalar ishlab chiqdi va bolalarni shu ruhda tarbiyalashga undadi.

**Y. I. Tixiyeva (1867-1943)** – talantli, ijodkor pedagog-metodist, maorif sohasidagi jamoat arbobi. Y. I. Tixiyeva o’zining tarbiya sohasidagi qarashlari bilan boshqa boshqa metodistlardan ajralib turadi. U Ushinskiyning ta’lim tarbiyaga oid qarashlarini jon dildan qabul qiladi va uni keng targ’ib qiladi.

Y. I. Tixiyeva maktabgacha tarbiyada erkin tarbiya nazariyasiga qarshi chiqib, bolalarni tarbiyalash jarayonida ma’lum maqsad sari harakat qilish kerakligini, ko’r-ko’rona tarbiya jarayonini olib borish bolaning shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishini ta’kidlaydi. U bolalarni tarbiyalashda tabiat vositalaridan keng ko’lamda foydalanish zarurligini alohida ta’kidlab, shahar joylarda bunga sharoit kamligidan xafa bo’ladi. U “shahardagi baland imoratlar, tig’iz ko’chalar, ba’zi baland tosh uyumlari bolalarni na osmonni, no quyoshni ko’rolmay dog’da” yurishlarini aytib, bolalarni shakllanishida tabiatning roli beqiyos ekanligini aytadi. Buning uchun albatta bolalar atrofida, bog’cha maydonchalari bo’lishi kerakligini, bolalar bu maydonchalarda tabiatning barcha elementlari bilan tanishishi mumkin ekanligini uqtiradi.

U ekskursiyalar uyushtirish kerakligini, uning bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi rolini alohida ta’kidlab, shaharlarda buni uyushtirish qiyinligi, faqat muzey, istirohat bog’lariga olib borish bilan shug’ullanishlarini achinish bilan qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko’nikmalarini shakllantirish muammosi nafaqat bugungi zamonaviy ta’limning dolzarb muammolaridan biri, balki qadimgi davrlarda ham ushbu masala alloma va mutafakkirlarning diqqat markazida bo’lib kelgan. Ayniqsa, ularning “tarbiyani tabiat bilan uyg’un holda olib borish lozim” – degan fikrlari bugungi davr uchun o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Shu boisdan bu kabi g’oyalarni yosh avlodga o’rgatish va ularning tabiatga oid tadqiqiy-ijodiy ko’nikmalarini rivojlantirish pedagogik insonga oldidagi muhim vazifalardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Davletshin. M.G., Do’stmuhamedova Sh. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O’quv metodik qo’llanma. -T.: 2004. 129 b.
2. Хайдаров Қ., Нишонова С. Табиатшunosлик асослари ва болаларни атроф-табиат билан таништириш. -Т.: “Ўқитувчи” 1992. 177 б.
3. Xasanboeva O.U., Djaborova X.D. “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi”. - T.: “Cho’lpon” 2007. 128 b.
4. Юсупова П “Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш”ю –Т.: “Ўқитувчи” 1995. 235 б.

#### **BOLALARNI MATEMATIKAGA O’RGATISHDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI**

Sattorova Malikaxon Abdug’affor qizi  
Qarshi Xalqaro Universiteti  
Ijtimoiy gumanitar fanlar  
kafedراسi assistent o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktab va oila hamkorligi, bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari, maktabga tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar to’g’risida so’z boradi. MTT va maktab o’rtasidagi aloqa shakllari keng yoritib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Maktabgacha taʼlim tashkiloti, maktab, oila, hamkorlik, aloqa shakllari, olib boriladigan ishlar, maktabga tayyrolash vazifalari.

**Аннотация:** В данной статье организация дошкольного образования и школа и семья

сотрудничество, задачи подготовки детей к школе, работа, проводимая в группе подготовки к школе. Широко освещены формы связи ДОО со школой.

**Ключевые слово:** Организация дошкольного образования, школа, семья, сотрудничество, формы общения, деятельность, подготовительные задания к школе.

**Annotation:** In this article, preschool education organization and school and family cooperation, the tasks of preparing children for school, the work carried out in the school preparation group. The forms of communication between kinder garden and the school are widely covered.

**Keywords:** Organization of pre-school education, school, family, cooperation, forms of communication, activities, preparatory tasks for school.

Maktabgacha taʼlim tizimi uzluksiz taʼlim tizimining asosiy boʻgʻini, poydevori hisoblanadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha taʼlim tashkilotlari sonini koʻpaytirish hamda moddiy texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha taʼlim tashkilotlariga malakali pedagog kadrlarni yetkazib berish, bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash uchun kerakli boʻlgan barcha zamonaviy taʼlim dasturlari va tehnologiyalarni taʼlim tarbiya jarayoniga joriy etish dolzarb masala boʻlib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentabrda “Maktabgacha taʼlim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3955-sonli qarori, 2019-yil 8-may “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PQ-4312-sonli qarorlarida yuqorida keltirib oʻtilgan fikrlar oʻz aksini topgan.

Maktabgacha taʼlim sohasiga qaratilayotgan yuksak eʼtibor, sohani takomillashtirish yuzasidan qabul qilinayotgan qarorlardan koʻzlangan asosiy maqsad Respublikamizda sifatli maktabgacha taʼlim tizimini yaratishdir. Respublikamizda maktabgacha ijtimoiy tarbiya tashkilotlari taʼlim va tarbiya ishning keng dasturini amalga oshiradi va bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlaydi. Hozirgi vaqtda yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy oʻzgarishlar taʼlim butun tizimini yoshlar va bolalarni tarbiyalash, ularga taʼlim berish ishini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu vazifa taʼlimning boshlangʻich boʻgʻini boʻlgan maktabgacha tarbiya tashkilotlariga bevosita taalluqlidir. Ular hamisha maktab bilan uzviy bogʻlangan holda ishlab kelganlar. Bolalar bogʻchasi bilan maktab oʻrtasida oʻrnatilgan izchil aloqaning har tomonlamaligi bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir.

Izchillik – taʼlim tizimining barcha boʻgʻinlari oʻrtasida oʻzaro aloqa oʻrnatishdir. Bu bolalar bogʻchasi va maktabda olib boriladigan taʼlim va tarbiya ishlari mazmuni, uni amalga oshirish uslublarining oʻzaro bogʻliqligi bilan belgilanadi. Izchillik taraqqiyotning obyektiv qonuniyatdir. Taraqqiyot oʻzining yangi bosqichiga oʻtganda eski bosqichda bor narsalarni butunlay inkor etmoydi, balki oʻzidan oldingi bosqichlardagi muhim jihatlarni saqlab qolish va rivojlantirish orqali oʻzining keyingi bosqichlardagi taraqqiyotini taʼminlay boradi. Shunga binoan, bolalar bogʻchasi bilan maktab oʻrtasidagi bogʻliqlik bir tomondan, bolalarni maktab taʼlimi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga oʻtkazishni, ikkinchi tomondan, oʻqituvchining katta bogʻcha yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan oʻquv tarbiyaviy jarayonda samarali foydalanishni taqozo etadi. Bolalar bogʻchasi bilan maktab oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik katta bogʻcha yoshidagi bolalar va maktabning boshlangʻich sinf oʻquvchilariga taʼlim – tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha engillik bilan koʻchadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa oʻz navbatida maktabda oʻqishning birinchi kundan boshlab taʼlim tarbiya ishining samarasini oshiradi.

Zero, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lim olishga tayyorlashlari kerak. Bunda dasturlar mazmunida birlik o'rnatishga bog'cha yoshidagi bolalar bilan maktab yoshidagi bolalarning yoshlari, bilimlaridagi farq xususiyatlari e'tiborga olinishi kerak. Bog'cha yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim va tushunchalar mazmunini tevarak –atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar tashkil etadi. Bunday tasavvur va tushunchalarning bolalar tomonidan egallab olinishi, ya'ni bolalarda har xil sohalar bo'yicha o'zlashtirgan umumiy tasavvurlar sistemasi ularning kelajakda umumiy rivojlanishi uchun nihoyatda zarur bo'lib, busiz ular hozirgi zamon boshlang'ich sinf ta'limidagi kerakli bilimlarni egallay olmaydilar. Maktabda esa o'quvchilarning bilimi yangi bosqichga ko'ariladi va kengayadi, shu bilan birga ular egallayotgan bilimlarini nazariy jihatdan anglab boshlaydilar, ilmiy tushunchalarni shakllantirish maktabda olib boriladigan ta'lim – tarbiyaviy ishning markaziga qo'yiladi.

Maktabda bilimlar asosini egallash yanada aniqroq tusga kira boradi. Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi izchillik ta'limning shakl va uslublarida ham o'z aksini topadi. Ta'lim berish uslublaridagi izchillikning muhim sharti bolalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli egallab olishlariga erishish, bog'chada va maktabda ularning aqliy qobiliyatlarini va ijodiy faolliklarini o'stirishdir. Bolalar bog'chasi va maktabning boshlang'ich sinfida qo'llaniladigan jula ko'p usullar bir xil bo'lib, ular bolalarning aqliy axloqiy – irodaviy rivojlanishlarini yaxshilashga qaratilgan, shu bilan birga ularning yangi mazmundagi bilimlarni egallashga, amaliy faoliyatga, bilishga qiziqishini oshirib, o'qituvchi bilan dars jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning murakkabroq shakllarini egallab olishlarga yordam beradi. Tarbiyachining mashg'ulotlar jarayonida bolalarning amaliy faoliyatlariga, bilish jarayoniga bunday rahbarlik qilishi maktab va bog'cha o'rtasidagi ta'lim usulidagi izchillikning asosini tashkil etadi.

Maktabdagi dars, bolalar bog'chasidagi mashg'ulot birmuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega, shu bilan birga ta'limning tashkiliy asosida olib borilishida esa umumiylik sezilib turadi. Mashg'ulot va darslarning mazmuni aniq dastur asosida olib borilishi, aniq belgilangan vaqt ajratilishi, pedagogning rahbarlik roli, ta'limning ilmiy asoslangan metod va usullaridan foydalanish, ta'lim berish jarayonida bolalarda o'quv faoliyati elementlari, o'z hulqini ixtiyoriy boshqarish qobiliyati, ma'lum maqsadga qaratilgan aqliy ish bilan shug'ullanish qobiliyati tarbiyalab boriladi. Bular hammasi bolani maktab ta'limiga faol kirishib ketishga tayyorlaydi. Shunday qilib, bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasida ta'lim – tarbiya ishidagi izchillik bola shaxsini aniq maqsad bilan har tomonlama rivojlantirib borish imkonini yaratadi.

**Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar.** Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bog'chaning birinchi kichik guruhidan boshlanadi. Bolalarning 6 yoshdan maktabga borish munosabati bilan ularni maktabga tayyorlash ishiga o'rta va katta guruhlarda alohida e'tibor beriladi. Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning kun tartibini aniq, to'g'ri va mustaqil bajarishlariga talab ortadi. Mashg'ulotlarning samarali tashkil etilishiga, kunduzgi uyqu va sayrning etarli darajada yaxshi yo'lga qo'yilishiga katta e'tibor berish kerak. Bu sifatlar bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga zamin yaratadi.

Tayyorlov guruhiga kelganda bolaning har xil faoliyatlarda: o'z – o'ziga xizmat qilishda, navbatchilikda, tabiat qo'ynidagi mehnatida mustaqillik namoyon bo'la boshlaydi. Boladagi mustaqillik va tashkilotchilik qobiliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida ularning hamma faoliyatlarida shakllantirilib boriladi. Jismoniy tarbiya dasturini bajarish umumiy vazifalarni amalga oshirish bilan bir qatorda, bolalarda ertalabki badantarbiya va jismoniy mashg'ulotlarni bajonidil bajarish, o'z harakatlarini takomillashtirishga xohish tarbiyalanadi. Shuning uchun bolaning jismoniy, aqliy faolligini va ish qobiliyatini o'stiruvchi harakat faolligini rivojlantirish kerak. Bu guruhdagi bolalarni jismoniy mashqlarning sport turiga (suzish va shunga o'xshashlarga) jalb qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarning asosiy harakatini o'stiruvchi, jamoatchilikni, javobgarlik his etishni, chidamlilikni, mustaqillikni, uyushqoqlikni tarbiyalovchi harakatli o'yinlar kun tartibida katta o'rni egallaydi. Harakatli o'yinlarni boshqa

mashqlar bilan almashtirib borish hamma harakatlarni rivojlantirishning asosiy shartidir. To'g'ri tashkil etilgan sayr bolalarning jismoniy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Tarbiyachi bolalarning normal uxlashi va ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha g'amxo'rlik qilib boradi.

Ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyati hozirgi zamon ta'limiga xos prinsipdir. Bu bolalardagi bilimga qiziqish va bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Buning uchun bolalarga beriladigan bilim, malaka, ko'nikmalar ma'lum izchillik bilan taokmillashtirib boriladi. Natijada bolalar kattalarning ko'rsatmasi va namunasi bo'yicha ishda bolalar kattalarning ko'rsatmasi va namunasi bo'yicha ish harakatlarni bajarishga, oldin egallagan bilimlarini yangi faoliyatda qo'llashga, o'zining hulqi, ishi, hatti-xarakatini nazorat qilish va to'g'ri baholashga o'rganib boradilar.

Bolalarda topshiriqqa ongli munosabat shakllanadi. Tarbiyachining tushuntirish va ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglash, o'z ishida yaxshi natijaga erishishga intilishi, ma'lum tezlik va izchillikda diqqat bilan ishlash malakasi shakllanadi, ish qobiliyati orpadi. Tarbiyachi mashg'ulot paytida har bir bolaning diqqati, tafakkuri, xotirasi, bilim va malaka darajasidagi o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga oladi. Ta'lim jarayoniga alohida yondashish aqliy vazifalarni, ularni bajarish usullarini murakkablashtirib borishni sekin-asta amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, bola biror narsani o'zicha hikoya qilib bera olmasa, tarbiyachi unga mavzuga doir, reja beradi, keyinchalik ishni mustaqil bajarish-ni topshiradi. Alohida yopdashish orqali tortinchoq, sust bolalar faollashtirib boriladi, materialni yaxshi o'zlashtiradigan bolalarga topshiriq murakkablashtiriladi. Maktabga tayyorlov guruhida qo'llaniladigan metodlarning o'ziga xos tomoni bor. Ko'rgazmali metodlar bu erda faqat harakat usulida ishlatilmay, shu bilan birla bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirish uchun ham qo'llaniladi. Masalan, manzarali rasm chizish mashg'ulotida namunani ko'rsatishdan mashg'ulotning boshida xotirani, xayol ob;razini jonlantirish uchun foydalyaniladi, mashg'ulotning oxirida esa o'zining bajargan ishini, rasmni to'g'ri bajarganini tekshirish uchun namuna bilan taqqoslab ko'rish maqsadida foydalaniladi.

Bilimlarni bolalar puxta o'zlashtirib olishlari, ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida amaliy va o'yin metodlarini ko'rgazmali metod bilan to'g'ri qo'shib olib borishda og'zaki metod katta ahamiyatga ega. Uyin metodlari, ayniqsa didaktik o'yinlar metodi ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki ta'lim o'yinlar, ayniqsa didaktik o'yinlar orqali olib borilganda bolalar o'quv vazifasini yaxshiroq anglab oladilar, bu ulardagi ixtiyoriy diqqatni oshiradi, faoliyatini faollashtirib, bilishga qiziqishini kuchaytiradi. Rivojlantiruvchi ta'lim prinsipini amalga oshirishda tarbiyachining bolalar faoliyatiga rahbarligi va uni to'g'ri baholab borishi muhim ahamiyatga ega. Chunki bunda faqat ishning natijasigina baholanmay, balki bu ishni bajarishda bolalarning aqliy faoliyati, mustaqilligi, ishtiyoq bilan, jondildan harakat qilganliklari ham e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining bolalar ishini baholashga pedagogik nazokat bilan yondashishi natijasida ular o'zlarining yutuq va kamchiliklarini tushunib oladilar va kelgusida yaxshiroq natijalarga erishish uchun harakat qiladilar. Bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda tahlil qilish: solishtirish, taqqoslash, nazorat qilib borish o'quv faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan malakalarni shakllantiradi. Tarbiyachi bolalarni bajarilgan ishlarni tahlil qilishga o'rgatar ekan, avvalo o'zi namuna beradi, keyin reja tuzib beradi va shundan keyin bolalar o'zlari va o'rtoqlarining ishini mustaqil tahlil qilib, uni baholaydigan bo'lib qoladilar. Maktabga tayyorlov guruhida bolalarning mashg'ulotda uyushqoqlik bilan shug'ullanishlariga talab ortadi. Bolalarning ish joyini tayyorlab olish, kerakli materiallarni to'g'ri joylashtirish, ishni ma'lum ketma-ketlik bilan bajarish kabi malakalarni egallab olishlari aqliy mehnat malakasini shakllantiradi. Shuning uchun bolalarni bo'lajak faoliyat uchun zarur bo'ladigan ana shu ishlarga o'rgatib boriladi. Bolalarni mashg'ulotlardagi hulqiga ham talab ortadi. To'g'ri o'tirish, o'zini batartib tutish diqqat bilai quloq solish, boshqalarning gapini bo'lmaslik, o'rtoqlarining javobini to'ldirish va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bu yoshdagi bolalarga axloqiy va mehnat tarbiyasi berish dasturi murakkablashadi; o'z tengdoshlari va kattalar bilan munosabati shakllantiriladi, insoniy xislarni tarbiyalash kuchaytiriladi. Xulq normalari



qoidalarini egallab olishlariga, kundalik hayotda uchrab turadigan odob, ahloq doirasidagi vazifalarni hal qilishiga e'tibor beriladi.

**Bolalarni maktab va o'quvchilar hayoti bilan tanishtirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchisi va bog'chani tayyorlov guruhi tarbiyachisi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo'yicha ekskursiya uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o'tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o'quvchilari bilan tanishadilar, ular bog'cha bolalariga o'zlarining maktabdagi o'qishlari, ishlari to'g'risida gapirib beradilar; o'quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko'rsatadilar

Ish shakli quyidagicha bo'lishi mumkin: sinfda «Rasmga Qarab so'zlab berish» mavzusidagi dars \_ mashg'ulotni birga o'tkazish.

- Sport maydonchasida yoki sport zalida maktabdagi jismoniy tarbiya mashg'ulotini birga bajarish;

- birinchi sinf o'quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarning birgalikdagi ko'rgazmasini tashkil etish;

- maktab ustaxonasida o'quvchilarning mehnat mashg'ulotini kuzatish. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan o'yinchoqlarni bog'cha bolalariga sovg'a qilishadi;

- maktabda o'qiyotgan bolalar o'z bog'chasiga kelishadi; «Maktab» o'yinini tashkil etish.

Bolalar bog'chasi tarbiyachisi va boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatida izchillik yaqqol namoyon bo'ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi. Maktab bilan bog'cha o'rtasidagi aloqa mustahkam bo'lgandagina bola tarbiyasidan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

**Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari.** Bog'cha va maktab o'rtasidagi aloqa ikki yo'nalishda olib boriladi:

- Bolalar bog'chasi bilan maktabning pedagoglar jamoasi o'rtasidagi aloqa.

- Bog'cha bolalari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini bir-birlariga yaqinlashtirish.

Tarbiyachilar boshlang'ich sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning mazmuni, o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar, natijada bog'chada bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar. Bolalar bog'chasi bilan maktab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan bog'cha o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun bolalar bog'chasi va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil -qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

**Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari yuqoridagi vazifalarga qarab belgilanadi.** Bolalar bog'chasi bilan maktab pedagogik tashviqot metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari bolalar bog'chasi maktabga tayyorlov guruhi tarbiyachisining va birinchi sinf o'qituvchisini bog'chani maktabga tayyorlov guruhida va birinchi sinfda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1 sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1 sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Mana shunday usulda ish olib borilganda o'qituvchi va tarbiyachilar maktabni 1 sinf va bog'chani tayyorlov guruhidagi bolalarga xos bo'lgan yosh xususiyatlarini, ularning ruhiy tabiatini, aqliy va ijtimoiy rivojlanishlarini tushunib, ularni maktabga tayyorlov masalalarini yaxshiroq anglab olishlarida yordam beradi. Bu maqsadni amalga oshirishda bog'cha bilan maktab o'rtasida quyidagicha konkret aloqa shakllari o'rnatiladi: o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni maktabga tayyorlash va uzviylik masalalari

bo'yicha, bolalarni maktabga tayyorlash masalasi bo'yicha birgalikda o'tkaziladigan tadbirlarning mosligini muhokama qilish uchun seminar, pedagogik kengashlarda qatnashish, shuningdek bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning bog'chadan maktabga o'tishlaridagi ruhiy qiyinchiliklar, maktab sharoitiga qiynalmay moslashishlaripa yordam beruvchi omillar bo'yicha tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan leksiylar orqali tajriba almashuv va boshqalar kiradi.

Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi bog'chaning tayyorlov guruhida va maktabning 1 sinfida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi. Bu masalada bog'chaning tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni kuzatadilar va dars, mashg'ulotlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muhokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar—praktikumlarda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1 sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar. Yuqorida keltirilgan hamma ish shakllari va mazmunini amalga oshirishdan asosiy maqsad ilgari surilayotgan masalani har tomonlama tahlil qilish, uni hal etishda uchraydigan kamchiliklarni aniqlash, bolalar bog'chasi va maktabda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdir. Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomondan, o'qituvchi bog'chaning tayyorlov guruhiga borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomondan tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilari birinchi sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolalarni maktabga kuzatishda har bir bolaga aniq tavsifnoma beriladi. Bu tavsifnomada tarbiyachi har bir bolaning rivojlanishi-dagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib beradi, bu o'qituvchiga bola bilan munosabatda bo'lganda pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri yondashishda yordam beradi. Tarbiyachi ham o'z navbatida 1 sinfga borgan bolalari bilan izchil ravishda aloqa bog'lab boradi, darslarda bevosita qatnashib qanday o'qiyotganlari, xulqi, o'qishdagi muvaffaqiyatsizliklrgi sababini o'qituvchidan so'rash orqali ham aniqlab boradi.

Bular hammasi tarbiyachini bolalar bilan olib borgan ta'lim-tarbiyaviy ishidagi yutuq va kamchiliklarni bilib olishga imkon yaratadi. Tarbiyachi va o'qituvchilar ilg'or tajribalarni tarqatish, tashviqot, targ'ibot qilish maqsadida shahar, rayon konferensiyalarida qatnashib fikr almashadilar.

Bolalar bog'chasi bilan maktab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim. Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi aloqa izchil amalga oshirib borilishi, u uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi, amalga oshiriladigan ishlar, hal etiladigan masalalar rejali tusda bo'lishi zarur. Hamkorlik asosini birgalikda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bos h vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqti, bajarish uchun javobgar shaxslar ko'rsatilishi lozim.

Maktab bilan bog'cha yil davomida mana shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar yaxshi natija beradi. Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: maktabga ekskursiya uyushtirish, maktab muzeyiga, sinf xonasiga, kutubxona, ustaxonaga borish, birgalikdagi mashg'ulotlar, bayram ertaliklari, musiqiy-badiiy kechalar o'tkazish, rasmlar hamda loy va plastilindan yasalgan o'yinchoqlar ko'rgazmasini tashkil etish va boshqalardir.

Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirib borilsa, birgalikdagi ishlar bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning maktabda qiynalmay o'qib ketishlarida yaxshi samaralar beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika.- T.: 2013 Darslik

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risidagi Nizom. T., 2017 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son

4. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan.

5. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. 2022 yil

6. To‘xtaxodjayeva M.X va boshqalar „Pedagogika“ T. O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2010 y., 356b.

## **BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA IJTIMOY MUHITNI O‘RNI**

*Ochilova Mohinur Pirnazar qizi*

*Qarshi xalqaro universiteti*

*Ijtimoiy gumanitar fanlar*

*kafedrası assistent o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining maktab ta’limiga o‘tishida ijtimoiy muhitning roli, vazifalari va o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, ijtimoiy muhit, ota-ona, maxsus tayyorgarlik.

**Аннотация:** В данной статье говорится о роли задачах и социальной среды в переходе детей дошкольной образовательной организации к школьному образованию.

**Ключевые слова:** дошкольная образовательная организация, школа, социальная среда, родители, специальная подготовка.

**Abstract:** This article talks about the role, tasks and role of the social environment in the transition of the children of the preschool education organization to school education.

**Key words:** Preschool educational organization, school, social environment, parents, special training.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimida ko‘plab islohotlar bo‘lmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining eng muhim vazifalaridan biri bu bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlab berish hisoblanadi. Bunda uning jismoniy, ruhiy, aqliy, axloqiy jihatdan tayyorligi juda muhimdir. Maktabga tayyor bola bilim olishni istaydi, chunki bolada odamlar jamoasida aniq o‘rin egalash istagi tuziladi. Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir.

Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o‘zgaradi. Ya’ni asosiy faoliyati o‘yin bo‘lgan bolaning endi kun tartibi va ta’lim olish shakli o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni qabul qilish bola uchun ancha muammolarni keltirib chiqaradi. Bolalarda ruhiy, psixologik va axloqiy jihatdan ma’lum muammolar yuzaga keladi. Bolalar agar maktabga tayyor holda kelmasa ularda tez charchash, tez-tez kasal bo‘lish, darslardan tezda bezish va vazifalarni bajarishdan bosh tortish holatlari yuzaga keladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi bolalarni maktab ta’limiga o‘tishida ko‘prik vazifasini o‘taydi. Aqliy faoliyati yaxshi rivojlangan bolada yangi bilimlarni o‘zlashtirish oson kechadi.

Yetakchi mutaxassislarining fikriga ko‘ra «Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruhiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurining, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab kolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi. Bolalarni maktabda o'qishning samaradorligini ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi.

Maktabda o'qishga tayyorgarlik - maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yiladigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talabalarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial psixologik o'rni, u bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim. Yangi vazifa va burchlardan kelib chiqadi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntayeva va boshkalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarda: «Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik" va «Maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik MTning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon buladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvafaqqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas.

Agar bola zarur malaka va ko'nikmalar zahirasiga ega bo'lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo'lsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo'lmasa, maktabda o'qib ketishi qiyin kechadi. Agar o'qituvchi yoki ota-ona uni o'qishga qiziqтира olmasalar, o'quv vazifalarini zo'rma-zo'raki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo'ladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni hohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yul quyilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi.

- Birorta gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o'qiysan?
- Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?
- Maktabga borsang, hamma bu qiligingdan kulishadi!
- Hech narsani bilmaysan, maktabga borsang seni haydab yuborishadi!

Bu kabi noto'g'ri gaplar bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin. Shunday qo'rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda shubhasiz, murakkab jarayondir. Ota-onalar har bir bola ruxiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bulishini yodda tutishlari lozim. Bolalarni maktabga tayyorlash maqsadida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni bolalar tomonidan anglanishi lozim bo'lgan narsa va buyumlarning nomlari, hodisalarning xususiyatlari va sifatlarini o'z ichiga oladi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalarni maktabga jismoniy, aqliy, psixologik jihatdan tayyorligi shaxs ta'lim-tarbiyasi va kamoloti uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti,

maktab va oila hamkorligi muhim ahamiyatga egadir. Bu hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilganda ma'lum maqsadlarga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Djamilova N.N Bolalar jismoniy tarbiyasi. T.: 2020y
2. G.Tulenova. X,Xo'jaev.P, Xo'jaeva. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi".T.: Ilm ziyo. 2012y.
3. A.N.Normurodov "Jismoniy tarbiya" T.: O'zbekiston2011.
4. Makamjonov.K, Salomov.R, Ikromov.I "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metdikasi" Iqtisod-Moliya 2008y.

### **BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING O'RNINI**

S.Irisova

Qashqadaryo viloyati VPYMO'MM o'qituvchisi

#### **Annotatsiya:**

Maqolada Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish usullari, shaxsga yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, shaxsga nisbatan ta'lim maqsadi ko'rsatib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim,ta'lim-tarbiya,tarbiyachi bola,pedagogik texnologiya,redagogik o'yinlar, "men "konsepsiyasi.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalaridan biri ta'limning barcha bo'g'inlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangicha pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishdan iboratdir.

Davr ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan eski ish uslublaridan voz kechib milliy qadriyatlarimiz asosida mustaqillik mafkurasiga tayanib pedagogik va psixologik uslublarni an'anaviy ish shakllaridan noan'anaviylarga o'tishni talab etadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosan pedagogik o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda, bilim va tushunchalarni puxta o'rganib olishlarida, idroki va xotirasini mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga qulay sharoit yaratadi.

Bolalarda qiziquvchanlik kuchli, ammo ular uzoq muddat diqqatini bir narsaga jalb qila olmaydi, tezda zerikadi, o'ynagisi keladi. Shu bois ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar, tadbirlar o'yin ko'rinishida, bolalarni ochiqchasiga majburlashni istisno qiladigan shakllarda 20-25 daqiqadan oshmaydigan davomiylikda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq.

Bolalarning ishonuvchanligini hisobga olib, tarbiyaviy tadbirda ko'proq ijobiy mazmundagi axborotlar bo'lishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarni bir-biridan farqlaydigan asosiy xususiyatlardan biri uning bola shaxsiga yo'naltirilganlik darajasidir. Shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarning markazida o'sayotgan inson, uning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas'uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. "Rivojlanish", "Erkinlik", "Mustaqillik", "Ijod", "O'ziga xoslik" shaxsga yo'naltirilgan ta'limning kalit so'zlari hisoblanadi.

Shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilar:

- bolaning shaxslik, intellektual, kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustuvorligi;
- uning yutuq va muvaffaqiyatlari motivasiyasi, individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligiga urg'u berish;
- bolaning o'zligini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarishga urg'u berish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro sheriklik harakatlari;

- bolalarga tanlash erkinligi va ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qabul qilingan qaror uchun shaxsiy mas'uliyatni yuklash;
- ta'limiy vaziyatlar va voqealarni o'zidan o'tkazish hamda hissiy munosabat.
- bolaga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi shundaki, bola kimningdi istagi, buyurtmasiga ko'ra emas, o'z imkoniyatlari, salohiyati, tabiati xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaga shaxs sifatida insoniylik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish – shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning hal qiluvchi talabi, kommunikativ asosidir. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- shaxsga nisbatan ta'lim maqsadi sifatida yangicha munosabat, ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum sub'yektga yo'naltirilganligi;
- pedagogik munosabatlarning insoniyligi, demokratlashtirilganligi;
- to'g'ridan-to'g'ri majburlash uslubidan hozirgi sharoitda samara keltirmaydigan yo'l sifatida voz kechish;
- bolaning xususiy va yosh jihatlarini hisobna olish tamoyiliga yangicha nuqtai nazar;
- ijobiy “MEN” konsepsiyasini shakllantirish.
- shaxsga yangicha nuqtai nazar quyidagilardan tashkil topadi:
- shaxs paydo bo'ladi, ilk bolalikda namoyon etiladi;
- shaxs pedagogik jarayonning ob'ekti emas, sub'yektidir;
- shaxs – ta'lim tizimining maqsadi, u boshqa maqsadlarga erishish vositasi emas;
- hamma bola birdek iste'dodli;
- oliy insoniy qadriyatlar (mehr-oqibat, muhabbat, mehnatsevarlik, insof, g'urur, fuqarolik hissi va boshqalar) shaxsning ustuvor xususiyatlaridandir.

So'nggi tadqiqotlarda keltirilishicha, bolaga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar dasturdagi bolalarga nisbatan ancha qobiliyatli bo'lib chiqadilar va ularning kattalarning ruxsati, ma'qullashiga nisbatan e'tiborlari kamayadi.

Pedagog tomonidan bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning amalga oshirilishida quyidagilarni bilish lozim:

- Har bir bolaga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
- Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bola o'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.
- Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar etkazmaydigan tarzda bartaraf etish;

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. “Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, “Qarshi Davlat universiteti” nashriyoti, 2010.- 296 b.
2. Ma'murov B.B. Shaxs ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. / “Uzluksiz ta'lim” jurnali, 2008 yil, №6, 16-19-betlar.
3. Rahmonqulova Z. va boshq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarini o'qitish bo'yicha seminar modullari (Majmua).- T., 2010, 150 b.
4. Safarova R. va boshq. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T., “FAN” nashriyoti, 2005.- 256 b.

#### **UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada MTT tarbiyachilarining metodik kompetentligini takomillashtirish usullari, metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojning yetarlicha shakllantirish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiyachi- pedagog, pedagogik mahurat, nazariy metodik tayyorgarlik, amaliy tayyorgarlik.

Tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo‘yilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir tarbiyachi-pedagog metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun ma‘lum darajada o‘z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi.

Tarbiyachi-pedagoglarda o‘z metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, tarbiyachi-pedagoglarda o‘z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qiziqish shakllanadi, bu o‘z navbatida tarbiyachi-pedagoglarda mustaqil ta‘lim olish ya‘ni mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga, bu orqali tarbiyachi-pedagoglarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi. Tarbiyachilar uchun tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkil etish va ularda mustaqillik hamda tashabbuskorlikni tarkib toptiruvchi metodikalarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Ma‘lumki, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida hayotiy tajriba yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ularning harakati, ta‘lim-tarbiyaviy faoliyatini pedagog-tarbiyachilar boshqarishiga muhtojdirlar.

Ayni paytda ulardagi faollik va mustaqillikka intilishni rag‘batlantirish va rivojlantirish pedagog-tarbiyachining birinchi galdagi vazifasidir. Tarbiyalanuvchilar faoliyatiga pedagogik rabarlik qilish, ularning mustaqilligini ta‘minlash, bolaning har bir muvaffaqiyatini rag‘batlantirishni pedagog-tarbiyachi nazarda tutishi kerak. Bu har bir bolaning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilarning mahorati tarbiyalanuvchilarni qiziqarli mashg‘ulotlarga jalb qilib, ularni topshiriqlarni bajarganda muntazam rag‘batlantirish maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bu o‘z navbatida har bir pedagogdan ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni, yuksak ma‘naviy yetuk va mahoratli bo‘lishni, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni mukammal egallashni, shuningdek, globallashtirish sharoitida har bir tarbiyachidan zamonaviy metodik tayyorgarlikka ega bo‘lishini talab etmoqda. Ilmiy tadqiqotlar tahlili va kuzatilgan tajribalar asosida metodik tayyorgarlikning nazariy va amaliy jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Nazariy metodik tayyorgarlik – bu tegishli fanni oqitishning umumiy qonuniyatlari, tushunchalari va nazariyalari, shuningdek, fanning mazmunini bilishning ma‘lum darajasiga ega bo‘lishdir. Shu bilan birga tarbiyachining mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tushuncha va usulni, pedagogik harakatlarni tavsiflash, o‘quv materiallarining izchilligi va ilmiyligini, ularning o‘quvchilar uchun tushunarli ekanligini tahlil qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Nazariy tayyorgarlik fanning nazariy asoslarini bilishdir.

Tarbiyachining amaliy tayyorgarligi – bu tarbiyachining o‘quv jarayonida pedagogik muammolarni hal qilishga tayyorligidir.

Shunga muvofiq zamonaviy tarbiyachi o‘qitish jarayonini tashkil qilishni, darsning mohiyati va vazifalarini chuqur anglashi va bu vazifalarni ado etish uchun darsning mazmuni,

maqsadga erishish yo'llari, vositalarini puxta belgilab olishi kerak. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tarbiyachi ta'limning mazmun-mohiyatini yoritib berishga doir barcha pedagogik tushunchalarni bilishi, shundan kelib chiqadigan didaktik va metodik talablarni bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan uyg'unligini ta'minlash prinsipiga qat'iy amal qilish kerak. Bola rivojiga individual yondashuv, shaxsiyatini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, his-tuyg'ularini e'tiborga olish zarur. Shu asosda tarbiyachilarning tarbiyaviy ishlarining mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini o'zlashtirishlariga erishiladi.

Tarbiyachilar bolalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish metodlarini ham egallashlari lozim. Bularning barchasi tarbiyalanuvchilarda ma'naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish bilan bir qatorda, ularning xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarini oldini olish, ularni bartaraf qilish tajribasiga ham ega bo'lishlari kerak. Ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotiga yangi kelgan bolalarda tortinchoqlik, injiqlik, guruh hayotiga moslashmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bunday holatlarni bartaraf etish, bolalarni jamoa hayotiga moslashtirish, ularni muloqot vaziyatlariga olib kirish, ruhiy osoyishaliklarini ta'minlash pedagog-tarbiyachilarning muhim vazifalari sirasiga kiradi. Bolalar xarakteridagi salbiy jihatlarni bartaraf qilishga ko'maklashish, ularni to'g'rilik va haqgo'ylikka o'rgatish, irodasini mustahkamlash pedagog-tarbiyachilarning muhim vazifalaridandir. Bunda tarbiyachilar jamoaviy ta'sir ko'rsatish metodidan foydalanishlari kerak.

Tarbiyachilar bolalarni tevarak-atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ularni shu jarayonda ishtirok etishlari uchun tayyorlashi kerak. Bolalar oldiga aniq, o'rtacha murakkablikdagi vazifalar qo'yilgandagina, ularda tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, faollik ko'rsatish istagi namoyon bo'ladi. Natijada bolada mas'uliyat hissi paydo bo'ladi, tarbiyachi tomonidan bildirilgan ishonchni oqlashga intiladi. Bolalarning o'z oldilariga qo'yilgan topshiriqlarni bajara olishlari ularning xulq-atvorlari tartibga solinishiga ko'maklashadi. Buning natijasida ularda xarakter, irodaviy xislatlar mustahkamlanadi.

Bolalar xulq-atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish orqali tarbiyachi ularni rag'batlantirib, kamchiliklarini bartaraf etishga erishadi. Biroq bolaning kamchiliklarini muntazam ta'kidlayverish ijobiy natija bermasligini pedagog-tarbiyachilar ongiga yetkazish lozim.

Bolalarning xulq-atvorini shakllantirish uchun pedagog-tarbiyachi mehribon va talabchan bo'lishi kerak. Bola xulq-atvoridagi tortinchoqlik, loqaydlik, o'yinqaroqlik, qaysarlik kabi xislatlarni tarbiyachilar ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilish natijasida bartaraf qilishlari talab etiladi.

MTT ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda ota-onalar hamda mahalla bilan hamkorlikni amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda mehnatsevarlik, sinchkovlik, ziyraklik, ishchanlik, mas'uliyatlilik kabi axloqiy sifatlarni qaror toptirishda pedagog-tarbiyachining o'rni beqiyos bo'lib, bunday mas'uliyatli vazifani ular oliy pedagogik ta'lim tashkilotlarida o'qish jarayonidayoq anglab yetishlari kerak.

Bundan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar oldiga qo'yiladigan vazifalar murakkab va ko'p qirralidir. Shuning uchun ham tarbiyachilar va rahbar xodimlarda ilmiy dunyoqarash asoslari, yuksak ma'naviy xislatlar, jamoa, jamiyatda o'zini tuta bilish ko'nikma va odatlarini tarkib toptirish sohasida tizimli tarzda ish olib borish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muayyan prinsiplarga tayanish zarurligini tarbiyachilarga talabalik davridayoq yetkazish muhim ahamiyatga ega. Ommaviy tadbirlar, bayram kechalari, turli ekskursiyalar bolalarning ma'naviy olami, dunyoqarashini kengaytirishi tarbiyachilarning ongiga yetkazilishi, ularni shunday tadbirlarni



o'tkazishga tayyorlashga xizmat qiladigan pedagogik jarayonlarni tizimli tarzda tashkil etish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyaviy ishlarning bolalar ilgari o'zlashtirgan bilimlari, odatlari hamda egallagan hayotiy tajribalariga tayanib olib borilishi zarurligi pedagoglarga uqtiriladi. Ular shu asosda bolalarga ko'rsatadigan pedagogik ta'sirning murakkab shakllarini o'zlashtiradilar, ilgari o'zlashtirilgan bilimlari, xulq-atvor mezonlari va qoidalari bilan yangi o'zlashtirayotganlarini uyg'unlashtiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachisining ish rejasida aniq, muayyan aloqadorlik va izchillikka ega bo'lgan tadbirlarni nazarda tutish muhim hisoblanadi. Ushbu tizim, birinchi navbatda, maktabgacha ta'limning ta'lim-tarbiya tizimini ifodalashi, bolalarni milliy va umuminsoniy, ma'naviy, axloqiy g'oyalarni hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Shu bilan bir qatorda, unda bolalar guruhi ishining o'ziga xos xususiyatlari, tarkib topgan an'analar, pedagog-tarbiyachining ish uslubi, uning boshqalarnikidan farq qiladigan metodikasi o'z aksini topishi lozim.

MTT da pedagogik jarayonlarini boshqarish murakkab pedagogik vazifa hisoblanadi, unda bolalarning yosh xususiyatlari hamda individual qobiliyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim jarayonini tashkil etishning mazmuni, usul va metodlari har bir guruh tarbiyalanuvchilarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu belgilar bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgaradi.

MTT pedagog-tarbiyachilarining ta'lim-tarbiyaviy faoliyati mazmunini tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Tarbiyalanuvchilarning yosh guruhlariga qarab, ta'lim-tarbiya shakllari va metodlari ham o'zgaradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga tushunchalar va ma'lumotlarni kengroq izohlash talab etiladi. Bolalarga, birinchi navbatda, xulq-atvor me'yorlariga amal qilish zarurligi uqtiriladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim jarayonidan boshlab, zarur me'yorlar bolaning xulq-atvoriga singdiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. T.: 2022.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiriy asoslari – T.: 2006. – 163 b.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH**

Bekmuradova Dilnoza Pirimovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti  
kafedrasi katta o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yoshdagi bolalar, yetakchi faoliyat, tafakkur, tasvirlash faoliyati.

Ko'pgina psixologik tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanish darajasi yuqori ekanligi aniqlangan. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalar yoshi nafaqat tashqi vizual xususiyatlarni muvaffaqiyatli o'rganishi mumkin ob'ektlar va hodisalar, balki ularning ichki muhim aloqalari bolalarda umumiy fikrlashni rivojlantirish uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning tafakkuridagi o'zgarish, birinchi navbatda, fikrlash va nutq o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi bilan bog'liq. SHuni ta'kidlash kerakki, bolaning tafakkuri, erta bolalik davridan farqli o'laroq, maktabgacha yoshda g'oyalarga asoslanadi.

Tasvirlar va g'oyalar bilan ishlash bolaning fikrlashini vaziyatdan tashqari qiladi va bilim chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu vaqtda bolaning voqelikni bilishi kontseptual emas, balki vizual-majoziy shaklda sodir bo'ladi. Aynan majoziy bilish shakllarini o'zlashtirish bolani mantiqning ob'ektiv qonunlarini tushunishga olib keladi va kontseptual fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, vizual-samarali va vizual-majoziy fikrlash, go'yo nutq orqali maktabgacha yoshdagi bolaning mantiqiy tafakkurini yanada rivojlantirishga tayyorlaydi.

Maktabga tayyorlov guruhi dasturlarida bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada rivojlangan bilish jarayonlari talab etiladi. 6–7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalarnigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog'liqligi va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6–7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning yuqori darajasiga erishadi va ko'rgazmali-obrazli tafakkuri orqali atrof olamdagi predmetlar xususiyatlari va ular orasidagi aloqadorlikni ajrata oladi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyati va ularning psixologik xususiyati;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim mashg'ulotlari va uning psixologik xususiyatlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat mashg'ulotlari va ularning psixologik xususiyatlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalar asab tizimi rivojlanishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi (idroki, nutqi, taffakurning rivojlanishi, hissiyotlari va onning rivojlanishi).

Ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda ularga xos bo'lgan mana shu pedagogik tabiiy-ruhiy xususiyatlarni inobatga olish bu borada muvaffaqiyatga erishish garovidir [ ].

Tafakkurni jismoniy harakat bilan tenglashtirishga ishonish bolalarda ularning ongini rivojlantirishning normal bosqichi sifatida kuzatiladi. Bu vaqtda maktabgacha tarbiyachi uning fikrlari va umidlari u bilan sodir bo'layotgan voqealarning sabablariga bevosita ta'sir qilishi va hayotini o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishi mumkinligiga ishonadi.

Maktabgacha yoshdagi davr yetakchi faoliyat o'yin ekanligi bilan tavsiflanadi. Didaktik o'yinda fidjet yangi bilim va ko'nikmalarni osonroq o'rganadi. O'yin daqiqalari yordamida diqqatni jalb qilish va ushlab turish, yangi materialni o'rganish va yodlash osonroq. O'yin jarayoni qiziqish uyg'otadi, faollikni qo'zg'atadi, fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ota-onalar va tarbiyachilar o'yinlar va kichik rivojlanish vazifalari yordamida bola bilan samarali va qiziqarli muloqot qilishlari mumkin .

Bunday tadbirlarda ishtirok etish orqali bola o'zi uchun voqelikning izchil rasmini qurishga, ob'ektlarning funktsiyalarini tushunishga, tashqi aloqalarni o'rnatishga, shuningdek ob'ektlarning maqsadini o'rnatishga harakat qiladi. Asosiy vosita, bu ishda yordamchi, uning so'rovidir. So'roq - bu o'sib borayotgan bolaning atrofidagi hamma narsa, jumladan, odamlar dunyosi bilan tanishish uchun tabiiy sovg'asi. Savol kognitiv funktsiyaga ega, qiziquvchanlikni, dunyo tartibining asoslarini tushunish istagini anglatadi..

Uni amalga oshirishda besh yoshni burilish nuqtasi deb atash mumkin. Buning sababi shundaki, aynan shu davrda unga ta'sir qiluvchi hodisalarning paydo bo'lishining tashqi sabablari ularning paydo bo'lishining ichki manbalarining chiqishi bilan almashtiriladi. Bu davrda sababiy bog'liqlikni tushunishning rivojlanishi quyidagi yo'nalishlarda boradi:

- sabablarni tushunish tushuntirish bilan almashtiriladi;
- bola bitta sababni emas, balki umumlashtirilgan naqshni aks ettira boshlaydi.

Shu sababli, sabablar bolaning atrofidagi dunyo hayoti va faoliyatidagi universal qonuniyatlarni aks ettirish jarayonini bir butun sifatida tashkil etish, yanada aniqroq tushuntirish

qobiliyatiga ega bo'ladi. Sabab-oqibatni tushunish qobiliyati maktabgacha yoshdagi bolaning ma'no va mazmun, so'zlar va haqiqiy harakatlar va boshqalar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni sezishni boshlash qobiliyatini ko'rsatadi. (tanqidiy fikrlash), bu yaqin kelajakda uning ongini rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Bolaning fikrlashi g'oyalarga asoslanadi. Bola hozirgi paytda idrok etmayotgan narsa haqida o'ylashi mumkin, lekin o'z amaliyotidan eslab qoladi. Tasvirlar va g'oyalar bilan ishlash bolaning tafakkurini ekstrasituatsion qiladi, idrok etilgan vaziyatdan tashqariga chiqadi va bilim chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Fikrlash eng yuqori kognitiv jarayondir. Bu yangi bilimlarni kashf etishni, inson tomonidan voqelikni ijodiy aks ettirish va o'zgartirishning faol shaklini anglatadi. Tafakkurning boshqa psixik jarayonlardan farqi shundaki, u deyarli har doim muammoli vaziyatning mavjudligi, hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa bilan bog'liq.

Tafakkur - g'oyalar harakati, narsalarning mohiyatini ochish. Uning natijasi tasvir emas, balki qandaydir fikr, g'oyadir. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda tilni o'zlashtirish va grammatik tuzilishning o'ziga xos xususiyatlari bolalarga erkin gapirish, fikr yuritish, so'rash, rejalashtirish va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bolaning ongi savolni hal qilish uchun ko'p harakat qiladi, garchi javob noto'g'ri bo'lishi mumkin. To'plangan tajriba bolaning turli xil murakkablikdagi mazmunni tushunish qobiliyatini oshiradi, bu mantiqiy fikrlash rivojlanishining ko'rsatkichlaridan biridir. Bola, birinchidan, idrok etilgan butunning qismlari o'rtasida, ikkinchidan, yangi ob'ekt va u allaqachon ega bo'lgan bilimlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda muvaffaqiyat qozonganida tushunish haqida gapirish mumkin.

Bolalar tafakkurining rivojlanishi tizimli ravishda sodir bo'ladi. U kattalar tomonidan nazorat qilinadi, bolani tarbiyalaydi va o'rgatadi. Bolaning tajribasidan kelib chiqib, kattalar unga o'zlarining bilim va ko'nikmalarini o'tkazadilar, unga o'zboshimchalik bilan o'ylay olmagan va jamiyatimizning ko'plab avlodlarining mehnat va ilmiy izlanishlari jarayonida shakllangan tushunchalarni aytadilar.

Tegishli pedagogik ishlarni tashkil etish bilan maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlari chegaralari sifat jihatidan kengayadi. Bola tabiat va ijtimoiy hayotning ko'plab hodisalari haqida bir qator tabiiy tushunchalarni oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning bilimi nafaqat kengroq, balki chuqurroq bo'ladi. Maktabgacha tarbiyachi narsalarning ichki xususiyatlariga, turli hodisalarning yashirin sabablariga qiziqish bildiradi boshlaydi.

## **ILK YOSHDAGI BOLALAR BILAN ISHLASH**

Muxsinova Umriya Barnoyevna  
Buxoro davlat pedagogikaga instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari va bu jarayonda mashg'ulotlarning, axloqning va tarbiya shaklining roli haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** insonparvarlik, vatanparvarlik, bolalardagi xarakter, baynalmilal tarbiya, mashg'ulot.

## **РАБОТА С ДЕТЬМИ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА**

Мухсинова Умрия Барноевна  
Бухарский государственный педагогический институт  
Преподаватель кафедры  
дошкольного образования

**Аннотация:** В статье представлена информация об особенностях работы с детьми младшего школьного возраста и роли обучения, этики и формы обучения. в этом процессе предоставляется информация.

**Ключевые слова:** гуманизм, патриотизм, детский характер, международное образование, обучение.

## **WORKING WITH CHILDREN OF PRIMARY AGE**

**Mukhsinova Umriya Barnoyevna**

Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Preschool Education

**Abstract:** This article provides information about the specific features of working with children of primary school age and the role of training, ethics and the form of education in this process. information is provided.

**Key words:** humanitarianism, patriotism, children's character, international education, training.

### **KIRISH**

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan ishlash jarayonida asosiy e'tibor ularning axloqi va ular bilab o'tkaziladigan turli xildagi mashg'ulotlarga qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulq-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi. Buning uchun bolalarni yaxshi ishlarni qilishga o'rgatib borish kerak. Insonparvarlikni tarbiyalashda bolalarning yoshini e'tiborga olish zarur. Kichik bolaga yaxshi bo'l deganingiz bilan yaxshi bo'lib qolmaydi, chunki unda yaxshilik bilan yomonlikni to'g'ri tahlil qilish hayotiy tajribasi yetishmaydi. Bu yoshda bolalar yaxshi ishlar qilishga o'rgatiladi: yiqilib tushgan bolani turg'azib qo'yishga yordam berish, uning ustki kiyimlarini qoqib qo'yish, yupatish, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish, o'yinchog'ini o'rtog'iga berib turish, tik turgan kishiga joy ko'rsatish, eng muhimi boshqalarga ko'rsatilgan xizmatdan xursand bo'lishga o'rgatish.

Kamtarlik, to'g'rilik, halollik va quvnoqlik xususiyatlarini tarbiyalash. Bu xususiyatlar sog'lom shaxsni tarbiyalashning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Kamtarlik har bir kishining eng muhim va olijanob fazilatlaridan biridir. Bu asosan maktab yoshidan tarbiyalanadi. Ammo maktabgacha yoshidan boshlab, bolalarga kamtarlik hissini singdirish, manmanlik, takabburlik va maqtanchoqlikni yo'qotib borish zarur.

### **ASOSIY QISM**

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarini boshqa bolalardan ustun qo'yishga urinadilar, ba'zan ota-onalarining kasbi bilan ham maqtanadilar. Bunday holatda bolalarning ota-onalari bilan tegishli ish olib borish, har bir kasbning zarurligi va muhimligi to'g'risida aniq misollar bilan tushuntirish zarur. Bolalar ayrim ishlarning uddasidan chiqib, boshqa bolalarni kamsitsalar, tarbiyachi bolaga biror narsani bilmagan o'rtog'iga o'rgatish kerakligini, o'z-o'zini maqtash yarashmasligini tushuntiradi.

Sofdillik va rostgo'ylikni tarbiyalash yolg'onchilik va vijdonsizlik paydo bo'lishining oldini olish va unga qarshi kurash bilan uzviy bog'liqdir. Ba'zi bolalar o'zlari to'qigan, kattalardati eshitgan ertaklarini tushlarida ko'rgandek qilib ko'rsatishga. urinadilar. Bunday holda ham urushmasdan «Ertak» to'qishni yaxshi bilgani uchun maqtash kerak.

Shunday qilib, bolalardagi xarakterning ijobiy namunalarini, ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda axloqiy tarbiyaning hamma samarali usullari bilan tarbiyalanib borilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Vatansparvarlikni tarbiyalash. Vatansparvarlik ijtimoiy tarixiy va axloqiy his-tuyg'ular sifatida odamning ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Ibtidoiy jamoa tuzumida vatansparvarlik faqat o'z urug'doshlariga, ona yeriga, urf-odatlariga bog'liq his bo'lgan bo'lsa, sinflar paydo bo'lishi bilan vatansparvarlik g'oyalari chuqurlashib, ijtimoiy hayotning tobora ko'proq sohalariga chuqurroq kirib bordi. Davrlar o'tishi bilan bu tuyg'u buyuk qudratga aylandi.

Vatanga muhabbatni tarbiyalash. Vatanga muhabbat - eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalminalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketgan. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum

izchillik bilan tarbiyalanib boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissi ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi.

Baynalminal tarbiya. Bizning respublikamiz o'z mohiyati bilan baynalminaldir. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda baynalminalchilik, xalqlar do'stligi hislarini tarbiyalab borish muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat va xalqlarga ijobiy munosabat, turli xalqlar hayotiga qiziqish hissini paydo qilish maqsadi yotadi.<sup>14</sup> Bunday his-tuyg'ularni rivojlantirish asosan taqlid qilish orqali mukammallashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga baynalminalchilik his-tuyg'ulari asosini shakllantirishda qardosh jumhuriyatlarda yashaydigan har bir millat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish; maxsus mashg'ulotlarda ularning urf-odatlarini, madaniyati, san'ati, tabiati to'g'risidagi adabiyotlarni o'qib berish, suhbat o'tkazish, rasmlar ko'rsatish, filmlar namoyish etish, millat bolalari hayoti to'g'risidagi hikoyalarni o'qib berish foydali bo'ladi.

Mashg'ulot ta'lim muassasida bolalarga ta'lim berishning asosiy shaklidir. Mashg'ulot - pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan frontal holda xabardor qilishidir. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy gigenik, xulq madaniyati, gaplashish nutqi, sanoq-hisob harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasida ta'limni tashkil etish shaklidir.

Ta'lim shakli deganda ta'lim beruvchi pedagog va bolalarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi va kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladi. Ta'lim shakli bolalar soni, pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyatiga, o'tkazish joyiga shuningdek, kun tarkibida egallagan o'rniga qarab bir-biridan farq qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasida ta'limning frontal (umumiy), jamoaviy va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, bolalarga ta'lim berish ishlari ekskursiya, didaktik o'yinlar orqali kun davomida bolalarning mashg'ulotdan tashqari har xil faoliyatlarida, ularning o'yinlariga rahbarlik qilish jarayonida amalga oshirilib boriadi. Mashg'ulot maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiydir: unda dastur mazmuni belgilab berilgan, kun tartibida unga malum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etadi. O'quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJA**

Mashg'ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg'ulot orqali bolalar o'quv malakasini egallab oladilar. Ularda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Izchillik bilan ta'lim berish natijasida bilimga qiziqishlar rivojlana boradi. Bolalarga bilim berishning jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga ega: birgalikdagi faoliyatda bolalar bir-birlariga faol ta'sir etishadi, o'z tashabbusi, topog'onligini namoyon qilish imkoniyati tug'iladi. Bolalar oldiga umumiy zo'r berishning talab etuvchi vazifa qo'yilganda birgalikda qayg'urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi. Ekskursiyalar, rasm qirqib yopishtirish, qurish yasash ishlarini birgalikda bajarish, umumiy raqs-o'yinlarini ijro etish, badiiy asarlarni eshitish, o'qishda paydo bo'lgan birgalikdagi kechinmalar bolalarning biriashgan do'stona jamoasini yaratishga yordam beradi. Mashg'ulotda ta'lim berish orqali bolalarda maktabdagi o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, javobgarlik hissi, o'zini tuta olish, mehnat qilishga intilish odati, topshirilgan ishni bajarish kabi to'g'ri sifatlar hosil qilinadi.

Bolalarni maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyorlashni ularning boshlang'ich sinflarda dastur materialni yaxshi o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi bilim va malakalar mashg'ulotlar jarayonida hosil qilinadi.<sup>15</sup> Mashg'ulotlarda bolalarda mustaqil fikr yuritish malakasi tarkib toptiriladi, tarbiyachilarga quloq solish, ularning fikriga ergashish, hikoya qilinayotgan

---

<sup>14</sup> .Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.-T.:Manaviyat, 2003.

<sup>15</sup> .Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.2017-yil

hikoyalardan voqeadagi asosiy g'oyalarni ajrata olish, qisqacha umumlashtirish kabi malakalarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi.

Mashg'ulotda tarbiya vazifalari hal etiladi. Mashg'ulot bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya dasturida har bir yosh guruhda hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va vaqti belgilab qo'yilgan. Tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar orqali bolalarda tashabbuskorlik va mustaqillik, bilimga qiziquvchanlik, faol ta-fakkur qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish kabi malakalar tarbiyalab boriladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, javobgarlik, xissi takomillashtirilib boriladi, ularda mehnat qilish malakasi va xohishi tarbiyalanadi.

Bolalarni mustaqillikka o'rgatish ishi muntazam amalga oshirib boriladi. MTMda kichkintoylarni tevarak-atrofdagi hayot, tabiat bilan tanishtirish, ularning nutqini, eng oddiy matematik tasavvurlarini o'stirish mashg'ulotlari, musiqa mashg'ulotlari, qurish-yasash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari olib boriladi. Ilk yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar katta yoshdagi kishilarning har bir bola bilan rejali suratda muomalada bo'lishidan iborat bo'lib, bu mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning nutqi va harakatini rivojlantirib borishdir; bu esa bolalarni mashg'ulotlarga tayyorlash bosqichidir; go'daklar ixtiyoriy diqqat o'sib borgan sari, bunday mashg'ulotlar bir necha bola bilan, keyinchalik esa butun guruh bolalari bilan bir yo'la olib boriladi.

Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola maTum natijaga erishish uchun intiladi, bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rnini dasturning har xil boTimlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur.

Mashg'ulotlarni kunning birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, chunki birinchidan, bola ertalabki soatlarda aqliy vazifani yaxshi bajara oladi, xona tabiiy yorugTik bilan yaxshi ta'minlangan bo'ladi. Har bir yosh guruhida necha marta mashg'ulot o'tkazilishi, uning mazmuni va har bir mashg'ulot yosh guruhlari bo'yicha necha daqiqa davom etishi MTM tarbiya dasturida ularning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda belgilab berilgan. Birinchi kichik guruhda mashg'ulot bolalarni ikki guruhga bo'lgan holda o'tiladi. Guruhlardagi bolalar soni har doim bir xil bo'ladi. Mashg'ulot jadvalini tuzganda haftada bolalarning ish qobiliyati yuqoriroq bo'ladigan kun tanlanadi. Ma'lumki haftaning o'rtalarida (seshanba, chorshanba, payshanba) bolalarning ish qobiliyati yuqori bo'lar ekan, bu kunlarga bolalarning aktiv faoliyatini talab etuvchi murakkabroq mashg'ulot tanlanadi (elementar matematika, nutqni rivojiantirish, savodga o'rgatish va h.k). Jadval tuzganda bu mashg'ulotlarni birinchi qo'yish kerak, bolalardan ko'p harakat qilishni, hissiy nagruzkani talab etuvchi mashg'ulotlar (musiqa, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat) ikkinchi qilib qo'yildi.

Bolalar o'zlashtirib oladigan bilimlar mazmuni tarbiyalovchi bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tabiat haqidagi bilimlarning (bular tabiatga muhabbat uyg'otadi, o'simliklar va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash hissini tarbiyalaydi), tarkib toptirishni nazarda tutadi: bilimlarni o'zlashtirib olish asosida bolalarda jonajon shahriga, o'z vataniga, xalqiga muhabbat, ulug' kishilarga muhabbat va hurmat, o'lkaning ijtimoiy hayotiga qiziqish paydo bo'ladi.<sup>16</sup>

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ijtimoiy hodisalar, voqealar to'g'risida, umumlashgan tasavvurlar tarkib topadi. Masalan, qo'shni o'lkalardagi bolalarning hayoti, oddiy kishilarning mehnati, boshqa xalqlarning hayoti va do'stligi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keladi. Tarbiyachi yangi mashg'ulotlarning mazmunini belgilar ekan, ular u yoki bu mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanday bog'lanishini o'ylab ko'radi. Masalan, oshpaz, kutubxonachi bilan o'qituvchining mehnati haqidagi bilimlar xilma-xil mehnat turlari haqidagi ma'lumotlar sistemasining bir qismidir. Pochtadagi turli xodimlar mehnati haqidagi

---

<sup>16</sup> .Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.-T.:Manaviyat, 2003.

bilimlar - ijtimoiy mehnatning jamoa xarakteri to'g'risidagi bilimlar sistemasining bir qismi. Mehnatning ijtimoiy xarakteri, mohiyatini tushunish uchun bola shunga o'xshash ko'pdan ko'p mehnat turlari bilan tanishishi lozim. Mashg'ulot quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bolalarga yangi bilim beruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad - ularni yangi bilimlardan xabardor qilish, tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, voqealar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash va kengaytirishdir. Bunday mashg'ulotlarga yangi obyektни kuzatish, hikoya qilib so'zlab berish va boshqalar kiradi. Mazkur mashg'ulotlar hamma yosh guruhlarida o'tkaziladi.

2. Bolalarning to'plagan bilim va tajribalarini mustahkamlovchi va sistemaga soluvchi mashg'ulotlar. Undan ko'zlangan asosiy maqsad idrok etilgan narsalarning anglab olish va dastlabki umumlashtirishga o'rgatishdir. Buning uchun tanish obyekt kuzatiladi, ikki narsa, solishtiriladi (xona o'simliklari, daraxtlar, hayvonlar), didaktik o'yinlar, suhbatlar o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotni o'tkazish orqali tarbiyachi bolalar nimani yaxshi o'zlashtirib olgan-u, nima yaxshi o'zlashtirilmaganini bilib oladi. Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida bolalarning bilimni yangi narsalar - detallar bilan boyitib boradi.

3. Bolalarning bilimni sinovchi mashg'ulotlar. Bunday mashg'ulotlardan maqsad tarbiyachi bolalar dastur bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va malakalarni o'zlashtirib oladilarmi-yo'qmi, shuni bilib oladi va o'zining bo'lajak ish mazmuni, metodini belgilaydi. Mashg'ulotning tarbiyachi o'z xohishi bilan kvartal, yarim yil va yilning oxirida, shuningdek mudira va metodistning iltimosiga binoan o'tkazishi mumkin.

4. Kompleks mujassam mashg'ulotlar bolalar bog'chasi tajribasida keng tarqalgan bo'lib, bunday mashg'ulotlarda bolalarga yangi bilim beriladi, egallangan bilimlar mustahkamlanadi va takrorlanadi, sistemaga solinadi, olgan bilim va malakalarni amalda qo'llashga o'rgatiladi. MTMda tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, tevarak-atrofdagi ijtimoiy hayot va tabiat bilan tanishtirish, nutqni o'stirish, savod o'rgatish, eng oddiy matematik tasavvurlarni rivojlantirish, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Mashg'ulotga to'g'ri tayyorgarlik ko'rib, uyushgan holda o'tkazilganda bolalar oldiga ma'lum aqliy vazifa qo'yilgan taqdirda, ularning fikrlash faoliyati rivojlanadi. Aqliy vazifalarning birligi va muayyan qiyinchilik bolalarni uyushtiradi va ularning diqqatini ma'lum tomonga yo'naltiradi. Eng avvalo, bolaning aqliy vazifani hal etish yo'lidagi qiyinchilikni yengish imkoniyati tug'iladi, natijada bolada faoliyatga qiziqish uyg'onib, u malakani egallash uchun mustaqil intiladi, o'ylaydi va vazifaning uddasidan chiqish uchun fahm-farosatini ishga soladi.

Nusxa olish tarzidagi vazifani bajarish natijasida bola tarbiyachi ko'rsatmasi va namunasiga qarab malaka va ko'nikmalarni o'rganadi. Bu bolalarni amaliy va aqliy faoliyat usullarini egallab olishlari uchun zarurdir, Bolalar qalamni, mo'yqalamni, qaychini ushlashni, rasm chizish, narsa yasash, solishtirish, umumlashtirish, abstraktiyalashni o'rganadilar. Tarbiyachi bir narsaning takrorlanaverishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Mashg'ulotning tuzilishi: Mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega: bolalarni uyushtirish, asosiy qism, yakunlovchi qism. Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi puxta o'ylanib olinishi kerak. Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar, tarbiyachini e'tibor bilan tinglab, o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar. Bolalarni uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni yig'ib, ularning mashg'ulotga tayyorligini tekshiradi: tashqi ko'rinishi, joy-joyiga to'g'ri o'tirishganligi, diqqatini to'plaganini sinab ko'radi. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi, buning uchun bolalarning yoshi, qiziqishi, faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Kichik guruh bolalarida mashg'ulotga qiziqish uyg'otish uchun bolalarni qiziqtiradigan mazmundagi, kutilmagan, topishmoqli usullardan foydalanadi. «Quloq solinglar-chi, kimdir eshik qoqyapti! Bu qo'g'irchoq biznikiga mehmonga kelibdi», - deb mashg'ulotni boshlash mumkin. Bolalarning narsalar va ularning nimaga ishlatilishi to'g'risidagi tasavvurini tartibga soluvchi mashg'ulot mana shunday boshlanadi. Katta guruhlarda qanday mashg'ulot bo'lishini tarbiyachi bolalarga oldindan aytib qo'yadi. Bu bolalarning bo'lajak mashg'ulotga qiziqishini

orttiradi. Masalan, mustaqillik maydoniga ekskursiyaga borishni bolalarga bir hafta oldin aytib o'tadi va ularga rasmlarni ko'rishni, ota-onasi bilan sayr qilganda nimalarni ko'rganini eslashni taklif etadi. Bolalar bu kunni zo'r qiziqish bilan kutishadi.

Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalar mashg'ulotning zarurligi va majburiyligini tushunishlari, unga ongli ravishda tayyorlanishlari zarur. Asosiy qism. Mashg'ulotda bolalarga yangi bilim beriladi, topshiriqni bajarish yuzasidan yo'I-yo'riq ko'rsatiladi, qiynalgan bolalarga yordam beriladi. Bolalar bilan bo'ladigan jamoachilik munosabatlari alohida munosabat bilan qo'shib olib boriladi.<sup>17</sup> Topshiriqni bajarishni hamma bolalar uddalay olishlari uchun tarbiyachi har xil metod va usullarni qo'llaydi. Mashg'ulotning boshlanishidanoq bolalarning diqqatini tashkil eta bilish kerak. Bu bolalar oldiga qo'yilgan aqliy vazifaga bog'liq. Bolalarga qanday ishlar olib borish zarurligi ko'rsatiladi va tushuntiriladi, ularni ayrim bolalarga alohida takrorlash shart emas, balki hamma bolalarni e'tibor bilan eshitib o'tirishga o'rgatish kerak, zarurat tug'ilsagina takrorlash mumkin. Bog'chadagi bolalar o'qish, yozishni bilmaganlari uchun o'tilgan materialni qaytarib mustahkamlay olmaydilar, shuning uchun bolalarga berilgan bilimni mustahkamlash uchun tarbiyachi takrorlash va mashq qildirish usullaridan foydalanadi. Mexanik qaytarish, yodlatishdan qochish kerak, chunki anglab olinmagan material tezda esdan chiqadi. Qaytarish, mashq qildirishda tarbiyachi fikrlarni to'ldirib, tartibga solib boradi, bu bolalarda bilimga qiziqish uyg'otadi va shu narsa to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtiradi.


Mashg'ulotni dastur maqsadi va bolalar yoshiga qarab mustahkamlashning har xil usullari qo'llaniladi. Bolalar o'zlashtirib olishi va javob qilishi kerak bo'lgan material so'z orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun u yoki bu ishni bajarishda bolalardan uni qanday amalga oshirmoqchi ekanini so'z bilan tushuntirib berish talab etiladi (masalan, son-sanoqqa o'rgatishda, qurish-yasashda, rasm chizganda qanday qilishi, qanday tartib bilan bajarishi, buning uchun qanday materialdan foydalanishni tushuntirib berishi talab etiladi).

Mustahkamlash jarayonida didaktik material bilan bajariladigan mashq aqliy vazifani o'z ichiga olsa, bolalarda mustaqillikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, son-sanoq mashg'ulotida bolalar sanash material bilan o'zlari mashqlarni mustaqil bajarishadi: tarbiyachining topshirig'iga qarab narsalar sonini kamaytirishadi yoki ko'paytirishadi. Buning uchun o'yinchoqlardan ham foydalanish mumkin. Mashg'ulot davomida pedagog hamma bolalar faol qatnashishini va ishni o'z vaqtida puxta amalga oshirishlarini nazorat qilib boradi. Agar mashg'ulot yakka tartibda olib boriladigan bo'lsa (rasm, loy va plastilindan narsalar yasash, qurish-yasash, konstruksiyalash), bolalar ishni har xil vaqtda bajarganliklari uchun tarbiyachi mashg'ulot tugashiga bir necha daqiqa qolganda mashg'ulotni tugatish kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi.

---

<sup>17</sup> Норбошева, М. А. (2021). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.88.050> Норбошева Мехри Ачиловна ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси мудири Психология фанлари номзоди, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 165-169.





Mashg'ulotni tugatayotib, tarbiyachi o'tkazilgan mashg'ulotga yakun yasaydi: bajarilgan ishni bolalar bilan birgalikda baholaydi, bolalarning mashg'ulotda qatnashganini gapiradi, ba'zan kelgusi mashg'ulotda nimalar o'tishlarini aytadi. Bolalarning o'quv faoliyatini yaxshi egallab olishlari ular bilimini to'g'ri baholashga bog'liq. Qo'yilgan vazifaning bajarilishiga qarab baho berilishi kerak. Bolaning ishini to'g'ri baholab, «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» deyish bola uchun oddiy maqtovdan ancha qimmatlidir. Ish qanchalik yaxshi tahlil qilinsa, u bolaning kelgusida ishini tuzatib olishiga yaxshiroq imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotdan keyin tarbiyachi bolalarni o'yinga taklif etadi, boshqa mashg'ulot bo'lmasa, sayrga tayyorlanishadi.

Mashg'ulotda tarbiyachining bolalarga qo'yadigan talabi ularning yoshi va imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Birinchi kichik guruh bolalarini ikkiga bo'lib mashg'ulot o'tiladi. Tarbiyachi birinchi guruh bolalari bilan mashg'ulot o'tkazganda ikkinchi guruh bolalariga enaga qarab turadi. Tarbiyachi mashg'ulot paytida hamma bolalarning faol qatnashishlariga harakat qiladi: savolga to'g'ri javob berishlarini, tayyorlanishi kerak bo'lgan jihozlar, bolalar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar (agar bunga zarurat bo'lsa), mashg'ulotning borishi va tarbiyachi foydalanadigan metodik usullar ko'rsatiladi.

Mashg'ulot jarayonini bayon etib yozishda mashg'ulotning boshi va oxirida (yakun chiqarish va keyingi faoliyat turiga o'tishda) bolalarni uyushtirishni alohida ajratib ko'rsatish kerak. Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun jihozlarni o'z vaqtida tayyorlash zarur. Ularni tanlash mashg'ulotning mazmuniga va tarbiyachi belgilagan metodik usullarga bog'liq. Odatda metodika kabinetida «MTMda ta'lim -tarbiya dasturi»ning hamma bo'limlari bo'yicha metodik qo'llanmalar bo'ladi. Yetishmaganini tarbiyachi o'zi tayyorlaydi, ba'zan bu ishga katta va tayyorlov guruhlari bolalarini jalb etadi. Mashg'ulot uchun kerakli materiallarni bir kun ilgari tayyorlaydi, uning buzuvchi emasligini, didaktik materiallar hamma bolalar uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

Agar tarbiyachi ekskursiya o'tkazadigan bo'lsa, u oldindan ekskursiya o'tkaziladigan joyga borib kelishi, kuzatish uchun obyekt tanlashi, bolalarni qanday joylashtirishni o'ylab qo'yishi, eng yaqin va xavfsiz marshrutni tanlashi kerak. Mayda sanoq material!, rasm mashg'uloti, applikasiya, qurish-yasash uchun materiallar, she'r, ertak matnlari oldindan tayyorlab qo'yiladi. Ba'zi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ancha oldin boshlanadi. Masalan, kichik guruh bolalariga ekish yoki ko'chat o'tkazishga qiziqish uyg'otish uchun ularga ko'karib turgan o'simlikni ko'rsatish kerak. Buning uchun uni avval yetishtirish zarur. Navbatchilar mashg'ulotga kerakli jihozlarni tayyorlaydilar, stol, stullarni qulay qilib joylashtiradilar, qo'llanma va, materiallarni qo'yib chiqadilar. Jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlaridan oldin bolalar poyabzalni almashtiradilar, sport formasini kiyadilar.

## XULOSA

Mashg'ulotlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi. Tarbiyachi MTMDa asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati - uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi - bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir, Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta'lim yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki, bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma'naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo'r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo'lish - fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-361 sonli qarori-T: 2018-yil 9-sentyabr.
2. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" Fan va texnologiya. T.2017-yil.
3. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari.-T.:Manaviyat, 2003.
4. Xalilova D.F. "Bolajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv." PEDAGOGS Jurnal, 7(1),172-175. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index/.php ped article/view/465>
5. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). Извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>
6. Eshmurodov, O. (2022). Ўзбек оиласи мустақкамлигини таъминлашда миллий кадрятларнинг ўрни . Журнал педагогика и психологии в современном образовании, 2(6)Извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>
7. Норбошева, м. А. (2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири: doi: <https://doi.org/10.53885/edinres>. 2021.26. 88.050 Норбошева Мехри Ачилвна ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси мудири Психология фанлари номзоди, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 165-169.
8. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.
9. Narbasheva, M. A. (2021). FOLK GAMES SERVES AS A PSYCHOSOCIAL DEVICE. Theoretical & Applied Science, (8), 220-225.
10. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(1), 728-732.

## MAKTABGACHA TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARI

**Tojimurodova Ma'mura Fayzirahmon qizi**  
**Juraeva Dilso'z Komiljon qizi**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha va  
boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)  
yo'nalishi 2- kurs talabalari  
Ilmiy rahbar Boshlang'ich ta'lim nazariyasi  
kafedrası o'qituvchisi  
Artikova Nargiz Shuxratovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarini kelib chiqish tarixi, tarqalishi va rivojlanish asoslari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek davlatimiz rahbarini Maktabgacha ta'lim sohasi bilan bog'liq imzolagan qarorlari ko'rsatilgan. Ushbu sohaga kiritilgan o'zgarishlar va davlat tomonida berilayotkan e'tibor yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim muassasasi, davlat, "Yo'l xaritasi".

### **Kirish**

Insonni har tomonlama barkamol trabiya etish, jamiyat oldidagi eng dolzarb masala sifatida qaralib, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini mutassil izlaganlar. Yosh avlodni barkamol va yetuk bilimli bo'lib ulg'ayishida maktabgacha ta'lim muassasalari katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim muassasasi, shuningdek, bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab yoki o'yin maktabi sifatida ham tanilgan, bolalarga boshlang'ich maktabda majburiy ta'limni boshlashdan oldin erta bolalik davridagi ta'limni taklif qiladigan ta'lim muassasasi. U davlat yoki xususiy bo'lishi mumkin va davlat mablag'lari hisobidan subsidiyalanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarini o'z paydo bo'lish tarixi bor, Maktab uyda o'qish va yozishni o'rgangan bolalar uchun cheklangan davrda yetim bolalar yoki fabrikalarda ishlaydigan ayollarning bolalari uchun o'quv maskanini ochishga urinishlar ko'p bo'lgan.

1779-yilda Iogann Fridrix Oberlin va Luiza Scheppler Strassburgda ota-onalari kun davomida bo'lmagan maktabgacha yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik qilish va o'qitish uchun dastlabki muassasaga asos solishdi. Taxminan bir vaqtning o'zida, 1780-yilda, xuddi shunday chaqaloqlar muassasalari Bavariyada tashkil etilgan 1802-yilda Pauline zur Lippe Detmolda maktabgacha ta'lim markazini tashkil etdi. 1816-yilda faylasuf va pedagog Robert Ouen Shotlandiyaning Nyu-Lanark shahrida birinchi ingliz va ehtimol global miqyosda birinchi chaqaloqlar maktabini ochdi. Ouen tegirmon kooperativlari bilan birgalikda bolalarning har qanday mehnatga layoqatli bo'lishlari uchun bolalarga yaxshi axloqiy ta'lim berishni xohladi. Uning tizimi asosan savodxonlik va hisob-kitoblarga ega bo'lgan itoatkor bolalarni voyaga yetkazishda muvaffaqiyat qozondi. Samuel Uilderspin 1819-yilda Londonda o'zining birinchi bolalar maktabini ochdi va yana yuzlab maktablarni tashkil etdi. U ushbu mavzu bo'yicha ko'plab asarlar nashr etdi va uning ishi butun Angliya va undan uzoqdagi bolalar maktablari uchun namuna bo'ldi.

Maktabgacha ta'limga davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi. Maktabgacha ta'lim. Uzlüksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”, - deb ta’kidlagan edi.

Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli matabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

- maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

Boshlang‘ich maktabga rasmiy kirishdan bir yil oldin maktabgacha ta’lim muassasalarida ishtirok etish darajasi ta’sirchan 72% ni tashkil etadi, bunda mintaqaviy va gender nomutanosibligi past. Bu yaqinda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun (2019-yil) bilan mustahkamlangan, davlatning majburiy bepul maktabgacha ta’limni ta’minlashga bo‘lgan qat’iy intilishidan dalolatdir. Shu bilan birga, davlatning namunali majburiyatidan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasalariga davomatni besh yoshga yetkazish bo‘yicha keyingi ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Ushbu sohaga e’tiborni kuchaytirish lozim, chunki davlatning kelajagi yoshlar qo‘lida.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

3. Lex.uz

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Karimova Umida Sharipovna  
QVPYMO‘MM Maktabgacha,  
boshlang‘ich va maxsus ta’lim  
kafedrası o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining metodik kompetentligini takomillashtirish usullari yoritilgan

**Kalit so‘zlar:** Konseptuallik, innovatsion texnologiyalar, izchillik, boshqarish qobiliyati

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish psixofizik yosh xususiyatlari tufayli o'z faoliyatini osongina o'zgartiradigan maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan doimo ijobiy qabul qilinadi. O'z navbatida, tarbiyachilar jamoasining tashabbusi ota-onalar jamoatchiligining aksariyat qismiga yoqadi va MTT hamda tarbiyalanuvchilar oilalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini takomillashtirish zarurati nuqtai nazaridan ushbu jarayon ham ahamiyatlidir.

Mazmuni bilan farq qiladigan va maktabgacha ta'lim amaliyotiga tatbiq etiladigan innovatsion pedagogik yechimlarni izchil amalga oshirilishini ta'minlash uchun ko'rib chiqilayotgan g'oya va loyihalarning bir qator talablarga muvofiqligini nazorat qilish muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yuqori sifatli yangiliklar quyidagilar bilan ajralib turadi.

1. Konseptuallik – mazmuni usulni amaliy amalga oshirish xususiyatlarini aniqlaydigan asosli uslubiy konsepsiyaning mavjudligi.

2. Izchillik – yangilikning yaxlitligi, uning elementlarining izchilligi va o'zaro bog'liqligi.

3. Boshqarish qobiliyati – qiyinchiliklar tug'ilganda va sharoitlar o'zgarganda texnologiya tarkibiy qismlarini o'zgartirish qobiliyati. Innovatsiyalarning ushbu talabga muvofiqligi tarbiyachilar uchun individual komponentni hisobga olgan holda maqsadlar qo'yish, vazifalarni ishlab chiqish va strategiyani izchil amalga oshirish imkoniyatini kafolatlaydi.

4. Reproduktivlik – innovatsion ta'lim yechimi tarbiyachining shaxsiy xususiyatlaridan va guruhdagi ta'lim sharoitidagi o'zgarishlardan qat'iy nazar, uni kerakli darajada takrorlash imkoniyati bilan ajralib turadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion faoliyat qanday amalga oshiriladi?

Har qanday yangilik – bu tubdan yangi tarkibiy qismni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof-muhitda sifatli o'zgarishlar yuz beradi. Texnologiya, o'z navbatida, ma'lum bir biznes, hunarmandchilik yoki san'atda ishlatiladigan turli xil texnikalar to'plamidir. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy tarkibiy qismlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jamoalar bolalarni tarbiyalash va intellektual rivojlanishining boshqa maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan farq qiladigan so'nggi modellarini ishlab chiqmoqdalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qanday innovatsion texnologiyalar qo'llaniladi?

Bugungi kunga qadar keng maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir qancha ta'lim texnologiyalari qo'llanilmoqda. Ular orasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- sog'liqni saqlash texnologiyalari;
- loyiha faoliyati bilan bog'liq texnologiyalar;
- loyiha faoliyatida foydalaniladigan texnologiyalar;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar;
- o'yin texnologiyalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda va bu tendensiya tobora kuchayib bormoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar bu faoliyatni o'z tarbiyalanuvchilari bilan birgalikda olib boradilar. Umuman maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xususan, turli xil loyihalar ustida ishlash bolani ong ostiga mahkam o'rnatishgan bilimlarni egallashiga olib keladi.

O'quv loyihalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. "O'yin" – o'yinlar, raqslar, hayajonli o'yin-kulgular shaklida guruhda o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

2. "Ekskursiya" – loyihalari, ularning maqsadi atrofda dunyo va jamiyatni har tomonlama hamda ko'p qirrali o'rganishdir.

3. "Hikoya", bu orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini nutq, vokal, yozuv va boshqalar orqali tushuntirishga o'rganadilar.

4. Bolani o‘z mehnati bilan foydali narsalarni yaratishga o‘rgatishga qaratilgan “konstruktiv”: qush uyi qurish, gul ekish va hokazolar.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi innovatsion ta‘lim texnologiyalari bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uning o‘ziga va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini oshirishga, mustaqil va mas‘uliyatli bo‘lishga yordam beradi. Bolalar dunyoni o‘yin orqali kashf etadilar va ular olgan bilimlarini amalda qo‘llashga harakat qiladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018.

2. Takomillashgan “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.

3. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta‘lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i T.2023

### **MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA MILLIY O‘YINLARNING AHAMIYATI**

Raximova Ra‘no Baxodirovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM katta  
o‘qituvchisi

**annotatsiya.** maqolada maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarning rivojlanishida milliy o‘yinlarning ahamiyati haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.

**kalit so‘zlar.** o‘yin, milliy o‘yinlar, bola rivojlanishi, milliy urf-odatlar, milliy an‘analar.

dunyo xalqlari nima uchun millatlarga ajratiladi? millat kim yoki nima o‘zi? bu – juda qiziqarli va o‘z o‘rnida jiddiy mulohazalar talab qiladigan savollar bo‘lib, ularga javob topish uchun ko‘hna tarixning nafaqat zarvaraqlarini, balki erk va hurlik qoni bilan qog‘ozga tushirilgan bitiklarni ham sinchiklab ko‘zdan kechirmoq lozim.

o‘zbekiston milliy ensiklopediyasida unga shunday ta‘rif berilgan: “millat- uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o‘zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho‘qqisi, o‘ziga xos madaniyat, ong va mintalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli. millat kishilarning jips tarixiy birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg‘unligi va mushtarakligi demakdir”. bu ixcham, ensiklopedik izoh.

faqatgina bir millatga xos urf-odatlar, an‘analar borki, ular boshqalarda yo‘qligi uchun ham ana shu xalq dunyoda o‘ziga yarasha maqom, nom, alohida xususiyatlarga ega. ular haqida minglab asarlar yaratish mumkin. fudbol ibtidosi inglizlarni, katak yubka kiyish shotlandlarni, eyfel minorasi fransuzlarni, bryus li chinlarni, saukele qozoqlari korrida ispanlarni, “ramayana”, “mahabhorat” dostonlari yaratilgandan beri o‘ynab kelinayotgan shaxmat hindlarni, karate yaponlarni yodga soladi. bunday namunalarni ko‘plab keltirish mumkin. birisini gapirsang, ikkinchisi qolib ketadigandek go‘yo. keltirilgan misollar orasida milliy o‘yin va sport turlari ham bor.

xo‘sh, o‘zimiz o‘zbekligimizni boshqalarga qanday qilib etkazamiz va ular bu xususda qay tarzda xabar topishgan? boshqa millat kishilarining o‘zbeklar haqidagi fikrlari qanday va ularning mazkur munosabatida sportning moddiy va ma‘naviy yuki qay darajada? ayrimlar amir temurni yodga olishadi, boshqalar imom al-buxoriy, alisher navoiy va boburni o‘zbekning buyuk namoyandalari safiga qo‘yadilar. kurash, do‘ppi, atlas samarqandu buxorolar ham jaranglab chiqadi ularning zamonlaridan. aslida ham ularni tarix va bugun, ajdodlar va avlodlar, keksalar va yoshlar, qolaversa, ona-vatan va o‘zga yurtlarni bir-biriga chambarchas bog‘lab turguvchi ijtimoiy-ma‘rifiy ko‘prik deyish mumkin.

kichik maktab yoshi - bilim, ko‘nikma va malakalar tarkib topishining, tasovvur hamda

tushunchalar hosil bo'lishining boshlang'ich darajasidir. xuddi mana shu davrda o'g'il va qizlarning muntazam hamda izchil tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. kichik maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash tizimida o'yinlar katta ahamiyat kasb etadi. har xil o'yinlarda topog'onlik va mehnatga munosabat hamda, bolalarning harakter va qobilyatlari dars usuliyati nuqtai nazarida, xatto, eng ma'qul bo'lgan bir xil sharoitdagiga nisbatan ancha yaroqli ko'rinadi.

to'g'ri o'tkazilgan o'yin ko'p narsani o'rgatishga yordam beradi. bolalarning barcha yosh bosqichlarida ularga ishonch va xaqiqat sifatida hizmat qilgan hamda ularning zexni va bilimiga intilishi lozim bo'lgan o'yinlarga qiziqtirish susayib bormoqda. vaholanki, bolalarni o'yinlarni kuch-quvvat va kulgi baxsh etadigan hilma-xil, jo'shqin va erkin vaziyatlarga olib kirish hamda jafokash pedagogning asosiy savollariga tegishli javoblarni ana shu vaziyatda izlash kerak.

v.a.suxamlinskiy o'yinlarida bolalar dunyoni ko'rishni shaxsning ijadiy qobilyatlari aks etishini, o'yinlarsiz haqiqiy barkamollik ham bo'lmasligini o'qtirgan edi.

hozirgi sharoitda o'zbek xalq o'yinlarining asosiy vazifasi o'z mazmuni va usuliyati bilan bolalarning jamiyatimiz talablariga muvofiq yo'sinda tarbiyalanishi ta'minlash, ularda ahloqiy, irodaviy sifatlarni rivojlantirish, ijadkor va bunyodkorlarga xos ko'nikma hamda, malakalarni, vatanparvar fuqorolarga xos fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

qadimgi tarbiya tizimida o'yinlardan shaxsni shakllantirish vositasi sifatida keng foydalanilgan.

qadimgi faylasuflardan arastu ham bolalarni bo'sh vaqti xushnud o'tkazish uchun o'yinlardan foydalanish zarurligini, chunki o'yinlar dilhushlikdan iborat bo'lib, xordiq chiqarishga yordam berishni uqtirgan. o'rta asrlardagi pedagoglar bolalarni jismoniy kamol toptirish uchun katta g'amxo'rlik ko'rsatganlaridek jismoniy tarbiya usuliyatini ishlab chiqib, undan o'yinlarga katta o'rin berganlar.

rossiyada tarbiyaviy maqsadlarda xalq o'yinlaridan foydalanish haqidagi g'oyalarni v.g.belinskiy, n.a.dobrolyubov, n.g.chernishevskiy olg'a surdilar. ular xalq o'yinlarini ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi, deb hisoblaganlar hamda yuqori baholaganlar.

e.a.pokrovskiyning maxsus kitobi («detskiye igrbi, i preimushestvenno russkiye») rossiyadagi va boshqa xalqlardagi o'yinlarning mohiyatini yoritishga bag'ishlangan edi. c.a.shmakov o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalab, shunday deb yozgan edi: «o'yin go'yo soyadek, bola bilan birga tug'ilgan, uning hamrohi, ishonchli do'stiga aylangan. lekin bu uni uzoq yil davom etishi uchun yaxshi deb hisoblaymiz. o'yin juda katta, ba'zan ko'z ilg'amas tarbiyaviy tomoni, g'oyat keng pedagogik imkoniyatlari tufayli insonlar e'tiborini tortadi.».

o'zbek xalq o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida gap borar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ular eng avvalo ularda o'z qishlog'iga, shahriga, vataniga va u yerda yashovchi barcha xalqlarga muhabbat, hurmat hamda ehtirom hislarini, milliy g'ururni tarbiyalaydi. eng muhimi o'zbek xalqining milliy madaniyatiga, o'tmishdagi va hozirgi turmushidagi milliy an'analari hamda san'atiga muhabbat uyg'otadi. shuningdek o'quvchilarni halollikka, saxovatli bo'lishga o'rgatadi, kattalarni tajribasini bolalar va yoshlarga o'tkazishning vositasida xizmat qiladi. qizlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi, ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o'zaro hamkor bo'lishlariga yordam beradi.

o'zbek xalq o'yinlari orasida g'oyaviy-siyosiy, aqliy, ahloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya bilan bog'lik, o'yinlar bor. xalq milliy o'yinlari tarkibida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir. bu to'g'risida mutaxassis va taniqli olimlar usmonxujayev.t.s., nasriddinov.f.n., atayev.a.k., xoldorov.t., abdumalikov.r va boshqalar mufassal bayon etganlar.

o'zbek xalq o'yinlari jarayonida o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashi ularda kishilarning mehnatdagi qaxramonligi va go'zalligini tarbiyalashning dastlabki kurtaklari hisoblanadi.

o'yin jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, ijod, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishning vositasi, nihoyat, quvonchli va zavq-shavq manbai bo'lgan mehnat xususiyatlariga doir tushunchalar shakllanadi, ular jamoa mehnatining bilib oladilar. o'zbek xalq

o'yinlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilish imkoniyatlari va tafakkurini rivojlantirish, ular xotirasini buyumlar hamda tabiat-ijtimoiy hayot voqealari to'g'risidagi turli ma'lumotlar bilan boyitish, so'z boyligini kamaytirish, ma'naviy qiziqish va ehtiyojlarini tarbiyalashning ajoyib manbai hisoblanadi.

o'zbek xalq o'yinlarning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlarini o'quvchilarda qat'iylik va dalillik kabi iroda sifatleri shakllanishida ko'rish mumkin. shuningdek o'quvchilarda sezgi, diqqat, idrok, xotira, xayol singari psixik jarayonlarning amalga oshirishining ayrim xususiyatlarini tahlil qilishda hamda o'zbek xalq o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlari yaqqolroq anglanadi. o'yin jarayonida idrok kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ko'zatuvchanlikni tarbiyalaydi. jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida bolada shuningdek harakat xotirasi ham rivojlanadi. kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy tarbiya darslarida, tahlil, sentez va taqqoslash usullarini egallab oladilar. 8-12 yosh bolalar bilan eng oddiy harakatlar yurish, yugurish va ulotirishni tahlil qilib turishni p.f.lestgaft ham qayd qilgan edi.

jismoniy tarbiya darslari kichik maktab yoshdagi o'quvchilar nutqini rivojlanishiga ancha ta'sir ko'rsatadi. kuy va so'zlar aytib o'ynaydigan o'yinlarda bolalar ma'lum bir so'zlarni («g'ozlar-oqqushlar», «biz quvnoq bolalarmiz») yoki hamma so'zlarni bir ritmda birgalashib, aniq quvnoqlik bilan talaffuz qilishlari, so'z bilan harakatni birga qo'shish, o'z so'zlariga muayyan ma'no berishlari («qopqoq», «kimning ovozi, top», «ayyor tulki») kerak.

kichik maktab yoshidagi bolalarda irodani tarkib topishi munosabati bilan ixtiyoriy xulq-atvor rivojlanadi. bunga maktab va uydagi mehnat faoliyati, jismoniy mashqlar va o'yinlar yordam beradi. kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy, alokiy, estetik rivojlanishda o'yinlar katta ahamiyatga ega. a.s.makarenkoning fikricha, aynan o'yinda bolalarning kuch-g'ayrati nomoyon bo'ladi, faolligi rivojlanadi, quvonch tuyg'usi paydo bo'ladi.

o'yin ephillik, chamalash, mo'ljallash kabi sifatlarini rivojlantiradi. ular jismoniy tarbiya darslarida qo'llash quyidagi xulosaga olib keladi: qadimgi xalq o'yinlarini jismoniy tarbiya darslarida qo'llash o'quvchilarda juda katta qiziqish uyg'otadi, natijada ularning jismoniy, aqliy, irodaviy xislatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi.

o'yin davomida bolalar yuradilar, sakraydilar, yuguradilar, o'rmaydilar, biror bir buyumni irg'itadilar, natijada ularning mushaklari va sezgi organlari rivojlanadi, organizmni hayot faoliyati yanada oshadi. o'yinda bolalarning irodasi, o'z harakatlarini o'yin qoidalariga bo'ysundira olish ko'nikmasi shakllanadi, u o'zini qo'pol hatti - harakatlardan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga (yashirinish, yugurish, tutib olish, tez fikrlash, og'ir ahvoldan qutilib ketish chorasini topishga) o'rgatadi.

o'yinlar shug'ullanuvchilarni aniq psixologik streatipi shakllanishining o'ziga xos modelidir, harakat malakalarini shakllanishiga, harakat tayyorgarlik darajasi va harakat sifatleri rivojlanishining ko'tarilishiga imkon beradi.

Xulosa shuki, o'yinning tushunchasi juda keng, yosh bolaning oddiy harakatidan, to sport faoliyati harakati takomillashigacha har xil xodisalarni qamrab oladi. o'yinlar insoniyatning eng birinchi rivojlanish bosqichida hayot malakalari harakat sifatleri, harakat malakalarining eng muhim vositasi sifatida rivojlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmonxo'jayev t.s., x.a.meyliyev. "milliy harakatli o'yinlar". tosh. "o'qituvchi", 2000 y.
2. Usmonxo'jayev t.s., meylijev x.a. "500 harakatli o'yinlar". t. "bekinmachoq". 2001.
3. O'zbek bolalar o'yin folklori: tabiati, to'planishi, nashri va o'rganilishi muammolari mavzusidagi 2008 yil-yoshlar yiliga bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari. buxoro-2008.
4. Safarova n. o'zbek bolalar o'yin folklori tabiati. toshkent. fan. 2008.31-35-bet.

#### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MILLIY XALQ O'YINLARINI O'TKAZISH METODIKASI**

**Raximova Ra'no Baxodirovna**  
QVPYMO'MM katta o'qituvchisi



**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy xalq o'yinlarini o'tkazish metodikasi va mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan xalq o'yinlaridan namunalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Tarbiyachi, xalq o'yinlari, tarbiya, jismoniy va aqliy rivojlanish, bola organizmi.

Tarbiyachi har bir mashg'ulotda bola organizmiga har tomonlama ta'sir etib, turli mashq va harakatli o'yinlarni tanlashi, shuningdek, o'yinlarni o'tkazish metodikasini o'zgartirib turishi zarur.

Mashg'ulotda, shuningdek turli o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'rganiladigan materialning metodik jihatdan izchil bo'lishiga e'tibor berilishi lozim. Bu, birinchidan, mashg'ulotning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish, ikkinchidan, mashg'ulot materiallarining to'la o'tilishiga erishish, uchinchidan, butun mashg'ulot davomida har bir mashqni muayyan me'yorda to'g'ri olib borish imkonini beradi.

Agar mashg'ulot boshida yoki o'rtalarida zo'r e'tibor berishni va moslashtirilgan murakkab harakatlar qilishni talab etadigan o'yin va mashqlar o'tkazilgan bo'lsa, mashg'ulot oxirida tarbiyalanuvchilarning charchagan organizmini birmuncha tinch holatga keltirishga yordam beradigan o'yin va mashqlarni o'tkazish kerak. Masalan, mashg'ulot boshida bolalar diqqatini to'plash uchun "O'ylab top" yoki "Tezda hamma joy-joyiga", "Man qilingan harakat" singari o'yinlar o'ynalgan bo'lsa, mashg'ulotning asosiy qismida yanada harakatchanroq o'yinlarni – "Quvnoq bolalar", "Qoch bola, kalxat keldi" kabi o'yinlarni o'tkazish tavsiya etiladi. O'rta yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan mashg'ulotning asosiy qismida "Cho'pon, qo'y va bo'ri", "Oq tosh", "Oq ayiqlar" va boshqa o'yinlarni o'tkazish tavsiya qilinadi. Mashg'ulotning yakunlovchi qismida kam harakatli "Pat", "Pr-r-r..." (qush uchishini eslatadigan tovush) va boshqa shular kabi o'yinlarni o'tkazish lozim.

Agar butun mashg'ulot davomida faqat o'yin materiallaridan iborat bo'lsa, serharakatli o'yinlarni kam harakatli o'yinlar bilan, aksincha bir xil xarakterdagi o'yinni ikkinchi xil xarakterdagi o'yin bilan navbatma-navbat almashtirib o'tkazish kerak.

Agar tarbiyachi sport turlaridan biri texnikasining ayrim elementini o'yin yordamida bolalarga o'rgatish yuzasidan o'z oldiga muayyan maqsad va vazifalar qo'yadigan bo'lsa, u o'yin materialining mazmuni va yo'nalishini puxta o'ylab chiqishi zarur.

Masalan, "Topni onaboshiga berma" yoki "To'p ilish" o'yinlari yordamida bolalarga to'p uzatish va ilib olishni o'rgatish belgilangan bo'lsa, bu vazifani faqat shu o'yinlarni o'ynash usuli bilangina hal etib bo'lmaydi. Chunki o'ynayotganlarning asosiy e'tibori to'pni tez uzatish va ilib olish bilan band bo'lib, texnika elementlarining to'g'ri bajarilishiga rioya qilinmaydi. Agar bu vazifa tegishli metodik ko'rsatmalarga amal qilib va ba'zi bir o'zgarishlar kiritib o'tkaziladigan o'yin-estafeta yordamida bajarilsa, maqsadga erishish mumkin.

O'yinlovchilarni charchatib qo'ymaslik uchun hayajonli va ermak o'yinlarni ko'p o'tazavermasdan, ularni bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va organizmining imkoniyatini hisobga olgan holda boshqa xil o'yin va mashqlar bilan qo'shib olib bo'rish kerak.

Hushyor tarbiyachi ayrim bolalardagi charchash belgilarini (rang o'chishini, harakatlardagi sustlik va o'yinni davom ettirishni sitamaslikni) hamma vaqt osongina sezadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotining muhim xususiyatlaridan biri vaqtdan bir me'yorda ro'g'ri foydalanishdir. Bunday qilish mashg'ulotni puxta o'tish imkonini beradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni mashg'ulotga aktiv qatnashtirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek hamma tarbiyalanuvchilarga beriladigan topshiriqlarning bir me'yorda bo'lishiga erishishi lozim.

Bunga har bir o'yin va har bir qatnashchi uchun vaqtni aniq taqsimlash yo'li bilan erishish mumkin. Agar o'yinlovchilar soni juda ko'p bo'lsa, bir necha guruh yoki jamoa tuzish, topshiriqni bajarish uchun beriladigan vaqtni qisqartirish lozim.

O'yin paytida o'yin qoidalarini buzgan qatnashchilarni o'yindan chiqarib yuborishga emas, balki, yaxshisi, ularga jarima ochkolari berishga e'tibor berish kerak.

Tarbiyachi sport bazasining imkoniyatlarini va tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olib, Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturida tavsiya etilgan o'yinlarni o'zgartirishi va ularga qo'shimchalar kiritishi mumkin.

Harakatli o'yinlarni o'quv yilining choraklari bo'yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitini hisobga olish kerak. Masalan, O'zbekiston sharoitida ikkinchi chorakdan boshqa barcha choraklarda mashg'ulotni ochiq havoda o'tkazish mumkin. Biroq, yaxshi ob-havo sharoitiga mo'ljallangan "Dasta chikaldak", "Oq tosh", "Qoziq o'yini", "Tegizsang minasan", "Bayroq uchun kurashish" singari o'yinlarni rejalashtirganda ehtiyot uchun bu o'yinlar o'rniga binoda o'tkazilishi mumkin bo'lgan o'yinlarni ham mo'ljallab qo'yish darkor.

Har bir chorak oxiri uchun belgilangan nazorat mashqlarga bog'lab turli jismoniy mashqlar kompleksidan iborat bo'lgan o'yinlarni kiritish lozim. Bunday o'yinlar tarbiyalanuvchilarning tayyorgarligini, orttirgan malakasini hamda ular harakatlarining tezligi va uyushqoqligini tekshirishga yordam beradi.

O'yin vaziyatida taktik fikr yuritishni o'stirish uchun o'yin sharoitiga yaqinlashtirilgan sharoitda, bolalarga o'yinningayrim texnik usullarini o'rgatishda o'yinga "raqib" o'yinchini kiritish kerak.

Bolalar uchun harakatli o'yinlarning roli ularda muayyan jismoniy xislatlar hosil qilish va bu xislatlarni o'stirish bilangina chegaralanmaydi. Harakatli o'yinlardan bolalarni intizomli qilib tarbiyalash va jamoada o'zini to'g'ri tuta bilishga o'rgatish uchun ham foydalanish mumkin. Xuddi mana shunday kollektivda bolalar birgalikda harakat qilish va o'z o'rtoqlariga yordam berishga o'rganadilar.

Shu maqsadda, "Musiqaga jo'r qilib yurish", "Karusel", "O'ylab top", "Kimning ovozi" singari mashhur o'yinlardan, shuningdek, "O'razan-bo'razan", "Pat", "Pr-r-r...", "Oq terakmi, ko'k terak" kabi milliy o'yinlardan foydalanish mumkin.

Bu o'yinlar juda oddiy bo'lib, ulardan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, ayniqsa, mashg'ulotning boshlari va oxirlarida muvaffaqiyatli foydalanilmoqda.

Turli xil harakatlarda bolalarda ijodiy xayol va mustaqillikni o'stirishga yaxshi yordam beradigan "Pr-r-r...", "Pat", "Kim keldi" singari syujetli o'yinlarni tanlash va o'tkazish ham juda muhimdir.

### **"OQ SHOLI- KO'K SHOLI "**

"Oq sholi- ko'k sholi" o'yini shu usulda o'ynalishi bilan diqqatni tortadi. O'yinning nomi ramziydir. Chunki guruch donalari o'z boshog'ida bir-biriga yopishib turgani kabi o'yinda ham o'quvchilar bir-birini orqalab ko'tarishgan holatda o'zaro yopishib o'ynashadi. Bu o'yinda bir o'quvchi "oq sholi"- qish ramzini, ikkinchi o'quvchi esa "ko'k sholi" – ko'klam, bahor ramzini ifodalab kelib, o'yin vositasida bolalarning jismoniy kuch-qudrati, chidami, so'zga chechanligi sinovdan o'tkaziladi. Shu orqali qish va ko'klam to'qnashuvi, o'zaro kurashi, g'alaba uchun intilishi, hukmronlik qilishga harakat qilishi tasvirlab ko'rsatildi. Binobarin, qo'shiqni kim tugatsa, o'sha g'olib hisoblanadi. Ko'rinyaptiki, qo'shiq "ko'k sholi" deb tugayapti. Bu esa ko'klamning qish ustidan g'alaba muqarrarligini, tabiatning fasllar o'zgarishi xuddi o'yin kabi birin-ketinlik bilan orqama-orqa kelishini bildiradi.



**O'Y O'YLASH o'yini (Vatanparvarlik tarbiyasiga oid)**

O'ylay bilish –katta san'at, uning vositasida voqelikni idrok qilish yo'li ochiladi. Bu o'yinda ham shunday bo'layotir. O'yinchi shundachi o'ylamayotir, balki o'yiga parvoz berganidan yuksak tog' hayolini chulg'agan. Tog' bag'ridagi qo'ychi va qo'ylar –mehnatkash inson va el boyligi unga muqaddas tuyulganidan, ular bir ipga tizilganday oqibatda shularga zavol keltirmoqchi bo'lgan dushmanga nafrat va qasos o'yiga ulanib, bolalar ma'naviy qiyofasini namoyish etuvchi jozibali o'yinga aylangan. Bu o'yinlarning barchasida vatanparvarlik yuqori darajaga ko'tarilgan.

Bolalar o'ylari haqida qo'shiqlarda shunday ifodalanadi:

O'y o'ylasang,  
O'ying o'ngisan.  
Tog' bag'rida yotib olsa,  
Qo'ychi o'ngisan.  
Qo'ylaringni birga boqaylik,  
Dushmanlarning ko'kragiga,  
O'tlar yoqaylik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar mashg'ulotda bir qancha o'yin o'tilsa, ular turli xarakterda bo'lishi, ularga kiritiladigan mashqlar va harakat elementlari bir xil bo'lmasligi lozim. Tarbiyachi har bir mashg'ulotning konkret vazifasini nazarda tutib birorta harakatli o'yinning asosiy vazifasini aniqlashi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Usmonxo'jayev T.S., X.A.Meyliyev. "Milliy harakatli o'yinlar". Tosh. "O'qituvchi", 2000 y.
2. Usmonxo'jayev T.S., Meyliyev X.A. va bosh. "500 harakatli o'yinlar". T. "Bekinmashoq". 2001.
3. O'zbek bolalar o'yin folklori: tabiati, to'planishi, nashri va o'rganilishi muammolari mavzusidagi 2008 yil-Yoshlar yiliga bag'ishlangan Respublika ilmiy-nazariy va amaliy konferensiya materiallari. Buxoro-2008.
4. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklori tabiati. Toshkent. Fan. 2008.31-35-bet.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

S.R.Irisova  
QVVPYMO'MM o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyat, tayanch kompetensiyalar

Bugungi kunda har bir bola kattalarning e'tiborida bo'lib uning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida barkamol rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish muhim vazifadir. Pedagog faqat bola pedagogikasi va psixologiyasi bo'yicha bilimlarga, faqat bola rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lum miqdordagi bilimlarga ega bo'lishi kerak emas. Axir, har bir bola yagona va har bir kichkintoyga bo'lgan munosabat boshqacha bo'ladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga muvofiq shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlanish markazlarida amalga oshirishda ta'lim jarayonida bolaning bir vaqtning o'zida o'ynashi, rivojlanishi va o'rganishi uchun imkoniyat yaratish hamda pedagog tomonidan bolalarni kuzatib borish va har bir bola to'g'risidagi ma'lumotni tahlil qilish, zarur bo'lsa, uni yo'naltirish, qo'llab-quvvatlashi nazarda tutilish kerak bo'ladi.

Kuzatuvlar pedagogga bola to'g'risida ancha ma'lumot olishga yordam beradi, ya'ni, boladan nimani kutish, undan nimani talab qilish, bola bilan muloqotda nimani o'zgartirish kerakligi va unga qanday maqsadlar qo'yish kerakligini.

Kuzatish diqqat maqsadli, mazmunli va tizimli bo'lishi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rivojlanish markazlarida ta'limiy jarayonlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish markazlari bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhitidir.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv uslubi – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim rivojlanish markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim “bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo'naltirilishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi: bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturiga muvofiq rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'limiy jarayonni tashkil etish o'z tamoyillariga ega.

Misol tariqasida o'zini namoyon qilish tamoyilini ko'rib chiqaylik. Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Bunda pedagogning bolaga topshiriq berilganda uni o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni qabul qilish va bajarish, o'z xohish istaklari, qiziqishlarini bildirish, boshqalarga namuna bo'lishga harakat qilishi, vazifani bajarib bo'lgach shaxsiy qaror qabul qilishlarini rag'batlantirishi muhimdir.

Individuallik tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda ta'lim tashkilotining asosiy vazifasi bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratishdir. Rivojlanish markazlarida ta'limiy faoliyatni tashkil etishda bolaning individual xususiyatlarini(fe'l atvori, odatlari, qiziqishi, rivojlanishida bo'shliq tomoni, intilishi) hisobga olish uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish demakligini nazarda tutiladi.

Tanlash tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va sub'ektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emasligi, bola doimiy ravishda tanlashi, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda sub'ektiv vakolatlarga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogik jihatdan ma'qulligi, aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda *rivojlantirish markazlari* zarurligi inobatga olinadi.

Ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili asosida ta'limiy jarayon tashkil etilganda pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o'zini-o'zi anglash va o'zini “men”ligiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashqi ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Rivojlanish markazlarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv uslubining texnologiyalarini qo'llash har bir bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi.

Tadqiqot texnologiyasi orqali bolalar "Fan va tabiat" markazida mustaqil izlanib ko'rish, tajriba orqali xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Bunda bolalarga tayyor bilim berilmaydi. Muammolarni izlash, kashfiyot orqali o'rganish, tajriba o'tkazishga sharoit yaratiladi.

Kommunikativ texnologiyasi orqali bolaga o'z fikrini bayon etish, bahslashish, munozara yuritish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o'rgatiladi.

O'yin texnologiyasi orqali o'yin davomida bilim, malaka, ko'nikmaga ega bo'lish uchun sharoit yaratiladi. Ta'limiy o'yinlar, voqeaband o'yinlar tashkil etiladi.

Refleksiya texnologiyasi orqali bolalarga savollar berilib ularni fikr yuritishga, uni tahlil qilishga o'rgatiladi.

Xulosa qilinganda pedagoglar shaxsga yo'naltirilgan ta'limda bolaning qiziqishlari, moyilligi, ehtiyojlari, istaklari qondirilishi, ijodiy salohiyatini rivojlantirilishi, shaxsiy fazilatlarini (*faoliyati, tashabbusi, mustaqilligi, ijodkorlik*) shakllantirilishi muhim ahamiyatga egaligini doimo nazarda tutishlari lozim.

## **SAN'AT-IJTIMOIIY ONG VA INSON FAOLIYATINING O'ZIGA XOS SHAKLIDIR**

Yuldasheva Yulduz Javliyevna  
QVPMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson hayotida san'atning o'rni yoritib berilgan. San'at va uning turlari, tarixi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** san'at, go'zallik, nafasat, did, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, qo'g'irchoq teatri.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. "San'at" tushunchasi insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi, ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir.

**San'atning ikki turi farqlanadi:** amaliy va badiiy (nafis). Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari

ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san'at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi.

Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalrni qo'zg'atadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi. **San'atning turli ko'rinishlari** voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali; badiiy adabiyot so'z, obrazlar orqali; tasviriy san'atda bo'yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalantiriladi; teatrda pe'esa qahramonlarining siymosi aktyorlar orqali namoyon bo'ladi. Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchi o'rin tutadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqadan foydalanish, bu, kichkintoylarni yoshligidan boshlab musiqaga oshno qilib tarbiyalash demakdir. O'z navbatida shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ya'ni, kichik yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos o'rni bor. Kichkintoylarning estetik madaniyatini rivojlantirishda qo'g'irchoq teatrining munosib o'rni borligini hisobga olgan holda dasturlarni shunga mos ravishda tayyorlash kerak.

Qo'g'irchoq teatri o'ziga xos o'yin-kulgi vositasi bo'lib, xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, axloq normalari, turli munosabatlarini satira va yumor orqali namoyish etish san'ati sanaladi. Qo'g'irchoq teatrining tarixiy-genetik ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Uning ilk ildizlari ajdodlarimizning o'tmishdagi urf-odatlar va marosimlariga bog'liq bo'lib, ibtidoiy insonning tabiat hodisalari oldida o'zini ojiz sezib, turli ma'budlarga sig'inishi, tabiiy ko'ringan hodisalarni ta'riflash maqsadida yasalgan ramziy shakllarga, totem sanalgan hayvonlar qiyofasini aks ettiruvchi niqoblarni kiyib, ritual raqsga tushishi hodisalari pirovardida qo'g'irchoq teatri yuzaga kela boshlagan.

**San'at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilgan ijod mahsulidir. San'at asarida shaxsning o'ziga xos iste'dodi namoyon bo'ladi.** San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. "San'at" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan.

**"San'at" tushunchasi** insonning go'zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o'zlashtirish (va o'zgartirish)ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi sifatida vujudga kelgan jami narsalar tushuniladi, ya'ni, go'zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san'atga aloqadordir.

**San'atning ikki turi farqlanadi:** amaliy va badiiy (nafis).

Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi. Ba'zi san'at turlari tasvirlasa, boshqalari ifodalaydi. Aytaylik, musiqa-ifoda san'at kompozitor ohanglar orqali kechinmalarni ifodalaydi va shu ohanglar ruhiyatimizda muayyan bir kayfiyat hosil qiladi.

Rassomlik bilan haykaltaroshlik tasviriy san'at turlari bo'lib, unda biror manzara, holat musavvir qalbini junbishga keltirib, qalbida muayyan kechinmalrni qo'zg'atadi va musavvir o'sha manzarani rang-tasvirga muhrlaydi. Shu tariqa san'at asarlari ruhiyatimizga oziq beradi.

**San'atning turli ko'rinishlari** voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'ziga xos usullar yordamida aks ettiradi. Masalan, musiqada tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali; badiiy adabiyot so'z, obrazlar orqali; tasviriy san'atda bo'yoqlar yordamida muayyan hissiy obraz gavdalantiriladi; teatrda pg'esa qahramonlarining siymosi aktyorlar orqali namoyon bo'ladi.

Mavjud san'at turlari orasida badiiy adabiyot yetakchi o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyot universal bilish va ifoda vositasi bo'lmish so'z bilan ish ko'radi.

**San'at tarixi-** qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni, shuningdek, kishilar ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. San'at ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan o'zining predmeti, mazmuni, voqelikni ifoda etish usuli va uslubi, ijtimoiy hayotda tutgan o'rni hamda vazifalari jihatidan farq qiladi. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. U inson uchun estetik zavq-shavq manbai, inson hayotiga go'zallik baxsh etadi, odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi.

Hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi hamdir. Hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi. Tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi. Odamlar orasidagi ma'naviy ko'priklarni, muloqot vositasi bo'lib, odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, san'at jamiyat ma'naviy hayotining boshqa xodisalari (fan, mafkura, axloq) ma'lum darajada bog'liqdir. San'atning maqsadi dunyoni badiiy o'zlashtirish, odamga lazzat baxsh eta oladigan, uni ma'naviy boyita oladigan asarlar yaratish yo'li bilan kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Inson san'atdan estetik zavq, bitmas-tuganmas ijodiy kuch-qudrat oladi va shu ma'noda san'at ma'naviy yuksalishning eng ta'sirchan quroliga aylanadi, biroq eng ahamiyatli jihati shundaki, u inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-sonli qaror. 2019 yil 8 may.

2. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son.

3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi- T.:2022

4. Djurayeva B.R. Tojiboyeva H.M. Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T.: 2015. 106b

#### **MTTDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA IJODIY YONDASHUV**

S.Irisova

QVPYMO'MM katta o'qituvchisi

#### **Annotatsiya:**

Maqolada pedagogik innovatsiya, Integratsiya asosida ta'lim berish bola shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishi, STEAM-ta'limi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan

**Kalit so'zlar:** pedagogik innovatsiya, Integratsiya, bola shaxsi, kasbiy tayyorgarlik, Ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuvi.

O'zbekistonning kelajagi uning taraqqiyoti va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlar bilimdonligi kasb tayyorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Ta'lim muassasalariga berilayotgan ta'lim sifati ta'lim beruvchilarning pedagogik bilim saviyasi, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lishi zarurdir. Ta'lim samaradorligini oshirishning o'ziga xos usullari bir muncha.

Pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlashlari bolaga ta'lim berishlari uchun yangilik va texnologiya bo'lishi shart. Mana shunga ko'ra pedagogik innovatsiya ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Integratsiya asosida ta'lim berish bola shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, mashg'ulotlarda faol ishtirokning yuza kelishi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi.

Integratsiya asosida ta'lim berish qay tarzda amalga oshiriladi. Integratsiya asosi etib, bir mashg'ulotning mazmuni va uni o'tkazish tartibi olinadi, uni boyitish uchun boshqa metodikalarni jalb qilishimiz ham mumkin.

Bugungi kunda STEAM-ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga

integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi.

**STEAM** (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - can'at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

**STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:**

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash; -Dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

**STEAM** yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

**O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish.** Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'prik va yo'llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayt sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi.

**Faol muloqot va jamoaviy ish.** STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqqmaslikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.

**Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish.** Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM –bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar.


**Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar.** STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test vatakomillashtirish. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O'z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi. SHunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo'llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin.

Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Bunda bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'zlari javob topishiga yordam berish muhim ahamiyatga ega. Negaki, savolga javob izlash barobarida bolada qiziqish, dalillash va e'tibor berish avtomatik tarzda faollashadi. Bunda tarbiyachining roli savolni soddalashtirmasdan va bolani



ko'p axborot bilan chalg'itmasdan uni qoniqtiradigan javob topish yo'llarini birgalashib qidirishdan iboratdir. Integratsiya g'oyasi maktabgacha ta'limda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosida bolaning har tomonlama rivojlanish g'oyasi yotadi. Maktabgacha ta'limda tabiat va jamiyatning qonunlariga bolalarning shaxsiy munosabatlarini shakllantirish, ularda fikrlash qobiliyatini shakllantirish integratsiyalashgan ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Masalan, bola jonli tabiatni aks ettirishda ishga solib raqamlardan foydalangan holda quyidagilarni bajarishi mumkin:



Ushbu tafakkurini rivojlantirishni mashq qiladilar va ularni bo'yashadi, bo'yalgan rasmda tabiat manzarasi hosil bo'ladi. Bolalarda matematik malakalarini shakllantirish bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash, uni g'aroiyibotlaridan boxabar bo'lish imkoni tug'iladi, ona tabiat go'zalligiga muhabbat uyg'onadi.

"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at markazida bir bola qog'oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog'ozdan qaychi bilan o'zi o'ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar markazida bir bola to'rtta yog'och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo'lakli karton qog'ozli tasvirni tuzishni ma'qul ko'radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so'ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to'g'ridan to'g'ri yordam beradi. Bunday yo'l tutish tufayli bola yaxshi sur'atda o'sib-ulg'ayishi mumkin. Integratsiya g'oyasi maktabgacha ta'limda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asosida bolaning har tomonlama rivojlanish g'oyasi yotadi.

## QO'G'IRCHOQ TEATRI ORQALI BOLALARDAGI IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKILANTIRISH

**Yuldasheva Yulduz Javliyevna**

Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus  
ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada qo'g'irchoq teatri orqali bolalardagi ijodkorlik qobiliyatlarini shakillantirish borasida ma'lumotlar bayon etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda teatrlashtirilgan tomoshalarning o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** yosh avlod, qo'g'irchoq teatri, ijodkorlik, qo'lqop qo'g'irchoq, soyali qo'g'irchoqlar.

Bugungi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol inson qilib kamol toptirish jamiyatimizning ustuvor vazifalaridandir. Bu borada kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Uning samarali rivoji uzluksiz ravishda ta'lim sohasiga singib borayotgan islohotlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bu kabi islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad yosh avlodning tarbiyasiga atroflicha yondashish, turli yosh guruhdagi bolalarning bilim doirasini kengaytirish, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu jarayon jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy rivoji borasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga har tomonlama e'tibor berish zaruratini kun tartibiga olib chiqadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini ko'p qirrali, deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda teatrlashtirilgan tomoshalar – qo'g'irchoq, stol teatrlari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Teatrlashtirilgan tomoshalar bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lish, ularning «tili»da fikr almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, bolalarni ishontirish, voqea-hodisalarga nisbatan xis-tuyg'ularini bildira olish xususiyatiga ko'ra pedagogik ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda teatrlashtirilgan tomoshalar bolalarning iqtidori, ob'yektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratish bilan yanada ahamiyatlidir. Bolalarni milliy ma'daniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni rivojlantirish davlat talablarining maqsadidir. Bolaga maktabgacha yoshida berilgan bilim uning butun hayoti davomida yetakchi o'rinni egallaydi.

Bu hayotiy zaruriyat, «Ilk qadam» davlat dasturining asosini tashkil etadi. Jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar ko'lami, rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti asrida ota-onalar farzandlariga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, ularning yoshiga munosib va o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda kerakli ta'lim-tarbiyani berib borish, ma'naviyati yuksak, har tomonlama yetuk inson qilib voyaga yetkazish lozimligini tobora anglab yetmoqdalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak-atrofnii o'rganishdagi bog'lanishli nutqini rivojlantirish, aqliy rivojlanish xususiyatlari, bolalarning harakat salohiyatini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi, bolalarning tasviriy savodxonlik, ekologik tushunchalarini shakllantirish, teatr masalalari, talabalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash, bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish, bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalash biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir. Bunda stol teatri, qo'g'irchoq teatri vositasida bolaning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, hayot haqidagi tasavvurlari, taassurotlari, u yoki bu hodisalarni tushunish, go'zallikni ko'ra bilish va his etishga mas'uliyat hissi oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda teatrlashtirilgan tomoshalar (stol va qo'g'irchoq teatrlari) vositasida axloqiy sifatlarni shakllantirishda qo'g'irchoqlarning xatti-harakatlariga munosabat bildirish, bolalarda teatr ko'rish odobi hamda go'zallikni ko'ra bilish hissini uyg'otuvchi samarali ishlar amalga oshiriladi.

Hattoki, tili endigina chiqib, so'zlarni buzib gapirayotgan bolajonlar tarbiyasida ham teatrlashtirilgan tomoshalarning o'rni beqiyosdir. Chunki bolalar oddiygina salomlashish, hayrlashish odobini teatr qahramonlaridan o'rganishlari ehtimoldan xoli emas. Teatrlashtirilgan tomoshalar (qo'g'irchoq teatrlar) dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan ma'lum. Ular jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Shunday bo'lsa-da, qo'g'irchoq teatrining to'rt turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar;
- soyal qo'g'irchoqlar;
- ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlar;
- aktyori ko'rinadigan qo'g'irchoqlar.

Har bir teatr turidagi tomoshalarda sahna bezaklari, ulardagi xilma-xil ranglar va albatta undagi qahramonlar bola tafakkurini shakllantiribgina qolmay, uning dunyoqarashini o'zgartirib, go'zallikka intilishi, fikrlash doirasining kengayishiga yordam beradi. Qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar ikki xil bo'ladi: barmoqli va barmoqsiz qo'g'irchoqlar. Barmoqsiz

qo'ldopni yasashda eski qo'ldopcha ashyo bo'la oladi. Bunday o'yinchoqlarni bolalarning o'zlari ham yasashlari mumkin.

Qo'ldop qo'g'irchoqning boshi, katta barmoq esa burun bo'lib xizmat qiladi. Qo'ldopni to'liq hayvonga aylantirish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o'taydi. Qo'ldop qo'g'irchoq tanasi bo'lishi, unga bosh va boshqa detallarni birlashtirish mumkin. Qo'ldop topilmasa, unda to'qilgan eski buyum yoki matodan foydalanish ham mumkin. Bunda barmoq o'rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo'yiladi.

Barmoqli qo'ldop qahramonlarini eski qo'ldoplardan tayyorlasa bo'ladi. Agar eski qo'ldop topilmasa, uni tikish mumkin. Bolalarga tavsiya etiladigan qo'ldopning andozasi besh barmoqli emas, to'rt barmoqli bo'lishi mumkin. Detaillarni bolalar bichib, halqa choki bilan tikadilar. Bosh qismini chizib yoki tikib, belgilangan joyga birlashtirib qo'yish mumkin.

Qo'g'irchoqning asl nusxasini eski qo'ldopdan tiksa bo'ladi. Qo'ldopga paypoqdan o'zgina ulab qo'yilsa, uni qo'lga kiyish, tugmachadan ko'zlari qilib qo'yilsa, qo'l barmoqlari harakati bilan gapirayotgan harakat holatini ko'rsatish mumkin. Soyali qo'g'irchoqlar qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqlardan emas, balki shakllardan iborat o'yinchoqlar o'ynaladi. Tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rishi mumkin. Soya teatr uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o'zlari chizib, qirqa oladilar.

Bolalarga shakllarning boshlari, dumlarini qimirlatadigan qilishni o'rgatish kerak. Buning uchun tarbiyachi yordamida detallar simlar bilan birlashtirilib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi. Yillar o'tib iplar yordamida harakatlanadigan qo'g'irchoqlar urf bo'lib borgan. Teatrning bu turida ko'proq xalq mifologiyasi yoritib berilgan. Hozirgacha yetib kelgan ipli qo'g'irchoq tomoshasida dev, yalmog'iz kabi qadimiy obrazlarni ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan teatr turlaridan tubdan farq qiluvchi yana bir teatr turi bu aktyori ko'rinadigan qo'g'irchoq teatridir.

Teatrning bu turi Yaponiyada keng tarqalgan. Bunda sahnadagi har bir qo'g'irchoqni uch nafardan aktyor boshqaradi. Qo'g'irchoqning boshi, qo'li va oyog'i uchun alohida sim tortilgan bo'lib, ularni aktyorlar boshqaradi. Teatr qiziqarli bo'lishi va tomoshabin e'tiborini chalg'itmaslik uchun aktyorlar bir xilda kiyinib olishadi. Teatr binolarining bugungi qiyofasi va o'ziga xos sahna ko'rinishlari tarixi qadimgi Yunonistonga borib taqaladi.

Usti yopilgan sahnalar dastlab qadimgi Rimda vujudga kelgan, deb taxmin qilinadi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, teatrning nafaqat sahna qismi, balki butun amfiteatrning usti ham yopiq bo'lgan. Teatr sahnalaridagi chodirlar atrofda qiluvchilarni tashqi ta'sirlardan, xususan, shamol va yomg'irdan himoya qilgan. Dastlab Rim teatrlarida parda paydo bo'lganligi tarixchilar tomonidan e'tirof etiladi.

Pardaning vujudga kelishi, albatta, sahnada qandaydir bezaklar bo'lganidan darak beradi. O'sha davrlarda odamlar o'zlari bilganicha turli xil ko'cha namoyishlarini to'da-to'da bo'lib yig'ilib o'tkazib kelishgan. Bu borada B.Ibragimovning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: «Xalq ko'pincha turli bayramlar, Dionis sharafiga uyushtirilgan ko'cha namoyishlari, sport bellashuvlariga to'plangan. Shuning uchun bunday tomoshalar hammaga ko'rinarli bo'lishi uchun ko'proq tepaliklar yoki tog'lar etagida tashkil etilgan. Shunda tomoshabinlar o'ziga qulay bo'lgan tabiiy yondovlarga joylashib, bemalol tadbirlar guvohi bo'lganlar.

Keyingi yillarda katta tadbirlarda, Navro'z bayramlarida, 1 iyun – Bolalarni himoya qilish kunida bolalarni jalb qilish maqsadida parklarda, hiyobonlarda teatrlashtirilgan tomoshalardan parchalar ko'rsatish udumga aylandi.

Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar estetik didini oshirishda, dunyoqarashining kengayishida yordam beradi. Teatrlashtirilgan tomoshalar komil inson tarbiyasi uchun zarur bo'lgan vosita sifatida dunyo sivilizatsiyasida mavjud. Har bir teatrlashtirilgan tomosha o'ziga xos va mos milliy xarakterga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan tomoshalarni tashkil etish bolalarni Vatanni sevishga, ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanishlariga,

dunyoqarashlarining kengayishiga, axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar bolalarni erkin ishlatishlari, ya'ni har xil ertak qahramonlari timsolida teatrlashtirilgan tomoshalarni o'zlariga rol berib, axloqiy yo'naltirib va albatta rag'batlantirib borishlari zarur. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida teatrlashgan tomoshalar uchun kerakli jihozlar, qahramonlar kiyimlari va kichik bo'lsa ham sahna bo'lishi kerak. Bunday tomoshalarni tashkil etish bolalarni xotirasi rivojlanishida ham yaxshi samara beradi.

Ayniqsa, ular qiziqib tinglaydigan yoki tomosha qiladigan qahramonlar rollarini jonu dillari bilan ijro etishadi va matnlarini ham tezda yodlashadi. Bolalarning bir-birlariga bo'lgan ishonchi, katta-kichikni hurmat qilishi, do'stlikka bo'lgan sadoqatini mustahkamlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-sonli qaror. 2019 yil 8 may.

2.O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son.

3.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi– T.:2022

4. Djurayeva B.R. Tojiboyeva H.M. Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T.: 2015. 106-b.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TEATR TURLARI**

**Yuldasheva Yulduz Javliyevna**

Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM

Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedراسi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bilan tashkil etiladigan teatr turlari va ularni sahnalashtirish haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ko'ngil ochish soatlari, teatrlar, teatrlar turlari, sahnalashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'ngil ochish soatlarida quyidagi teatr turlaridan foydalaniladilar:

- 1.Soya teatri;
- 2.Stol teatri;
- 3.Barmoq teatri;
- 4.Paxmoq teatri;
- 5.Qo'g'irchoq qo'lqop teatri.

**Soya teatri** – qo'g'irchoq teatrining o'ziga hos turlaridan hisoblanadi. Unda qo'g'irchoqlar emas balki shakllardan iborat o'yinchoqlar o'ynaydi. Tomosha qiluvchilar saxna ro'parasida o'tirib, ekranda yorug'lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko'rishi mumkin.

Soya teatr uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o'zlari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllarni boshlari dumlarini qimirlatadigan qilishni o'rgatish kerak, buning uchun tarbiyachi yordamida detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi. Harakatlanuvchi qismlar qattiq simdan tayyorlanadi. Bunday o'yinchoqlarni shablon yordamida yoki o'zlari o'ylab, siluet chizadilar. Bolalar detallarni qirqib bolganlaridan so'ng figuraga ko'zini qilish kerakligi taklif etiladi. Tarbiyachi ko'z o'rnini o'tkir asbob bilan teshib beradi, bolalar qalam yoki mo'yqalam tayoqchasi bilan teshikchani kengaytiradi va yaltiroq qog'oz bilan ko'zini yelimlaydi. Bolalar yelimga qora bo'yoq aralashtirib ko'zini chizib qo'yishlari mumkin.

Teatrni ko'rsatishlari uchun tarbiyachi ekranni yupqa matodan yoki kalka qog'ozidan 2x1,5 metrli ramkaga sirib tayyorlanadi. 100 voltli lampa kerak. Chiroq quti ichiga joylashtiriladi, ichini qora rangga bo'yaladi. Tarang qilib sirilgan matoga qog'ozdan dekoratsiya jihozini applikasiya qilib qo'yish mumkin. Bolalar o'zlari tayyorlagan figuralarni ekranda

ko'rib, shodliklari beqiyos bo'ladiki, ularning kichik shakllari mo'jiza bo'lib ko'rinadi. Soya teatrini bolalarga kattalar qo'yib beradilar.

Avvalo karton yoki faner orqali ekran yasali, ekranni yupqa oq doka surp bilan tortib mahkamlanadi. So'ngra har bir guruh yoshiga mos ravishda ertakni tanlab uning qahramonlarini kartonga tushirib, juda ehtiyotkorlik bilan qirqiladi. Keyin uni qora guash bilan bo'yaladi va qirqiladi. So'ngra chiroq ya'ni yorug'lik tushirib, sahnalashtirilgan ertak namoyish qilinadi.



**Stol teatri.** Stol teatrining bir necha turi mavjud: birida pesa oddiy sahnada-pardasiz shirmada, boshqasi qutichaga o'xshash sahnada (karton teatr), uchinchi yassi teatrda, sahna ikki bo'lak kartondan qilinadi. Bu teatrlardagi «artistlar» qo'l bilan, tagliklar, sim va magnit orqali turlicha harakat qiladi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi, so'ngra unga mos personajlar tayyorlanadi. Jonivorlar shakllarini bolalar badiiy kitoblardan kalkaga ko'chirishlari mumkin.

Kalkadagi rasmni nusxa qog'oz yordamida ikkita oq qog'ozga tushiriladi. Bu rasmlarni rangli qalam bilan bo'yab, bittasini kartonga yopishtiriladi va kartonni shu rasm konturi bo'ylab qirqiladi. Kartonning ikkinchi tomoniga ikkinchi rasm yopishtiriladi, shu bilan figura tayyor hisoblanadi. Shundan so'ng yarimta g'altak va cho'p orqali balandligi 9-10 sm bo'lgan taglik tayyorlanadi. Cho'pning uchiga figura o'rnatiladi, g'altak yiqilib tushmasligi uchun uning tagiga doira qilib qirqilgan karton yopishtiriladi<sup>18</sup>.



Sahna-shirma figuraning tagligi ko'rinmasligi uchun butunlikda qilinadi. Shirmani bo'yash yoki unga rangli qog'oz yopishtirish kerak. Shirmadan 20-22 sm oraliq dekoratsiya o'rnatiladi. Agarda o'rmon, dala, daryo, tog'larni tasvirlash lozim bo'lsa, muvofiq keluvchi suratni topib, unga oq ramka qilish, rasmni kartonga yopishtirish kerak. Dekoratsiyani yarim doira shaklida egish ham mumkin. Sahna-shirma stol ustiga qo'yiladi, uning orqasida esa figuralarni yurgazadigan va ular uchun gapiradigan o'quvchilar turadi. Agarda pesa davomida

<sup>18</sup>M.Nurmatova, Sh.Xasanova, D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. «Cho'lpon». T., 2010 y.

dekoratsiya o'zgarib turishi kerak bo'lsa, kitob sifatli qilib birlashtirilgan kartonga yopishtirilishi lozim. Uning har bir sahifasida bitta dekoratsiya bo'ladi.

Agar quyovni yasash kerak bo'lsa, avval butun figurani, so'ngra uning oldingi oyog'ini bir oz uzunroq yasab qirqib olinadi. Bu old oyoqqa sim o'tkaziladi. U mana shu sim vositasida boshqariladi. Tayyorlab qo'yilgan old oyoqqa teshik qilinib ip o'tkaziladi, ipning bir uchi oyoqqa bir parcha qog'oz bilan tutashtiriladi va ipning ikkinchi uchi figuradan o'tkazilib tarangroq qilib tortiladi va figuraning ich tomoniga yopishtirib qo'yiladi. Quyida ertak asosida stol teatri qahramonlari namunalari berilgan:

Karton teatring jihozlari. Karton teatrdan yasalgan yassi


va hajmli qo'g'irchoq figuralar ishtirok etadi. Bir tomonlama shakllar ip, sim va shu kabilarda yordamida faqat bir tomonga harakat qiladi. Karton teatrdan yuqoridan turib ip, sim bilan boshqariladigan shakllar ham qatnashadi, ular yengil harakat qiladilar, burila oladilar. Saxna uch bo'lak karton yoki fanerdan yasaladi. Saxnaning asosiy qismlari: orqa devor, pol va oldi peshtoqli devordir. Devorlarga ikki tomondan karton polosalar yopishtiriladi, bu polosalarga dekoratsiyalar osiladi. Dekoratsiyalarni ularning o'zlaridan kattaroq kartonga yopishtirish kerak, chunki ularda osgichlar qirqiladi. Pardaning rasmi ham o'zidan kattaroq kartonga yopishtiriladi, bu uni ko'tarish va tushirishga qulaydir. Ko'pgina spektakllar uchun harakatlanuvchi dekoratsiyalar kerak bo'ladi. Bunday dekoratsiya shakllarning tez harakat qilayotganligini bildirish uchun qo'llaniladi. Harakatlanuvchi dekoratsiya 3-4 metrli qog'oz lentadan ishlanib, orqa devorga qilingan teshikdan o'tkaziladi va kerak vaqtda tortib, harakatga keltiriladi.

Aytaylik, figura chap tomonga harakat qildirilmoqchi bo'lsa, dekoratsiya o'ng tomonga tortilib tez harakat qilayotgandek tasavvur hosil qilinadi. Sahna boshqacha qurilishi ham mumkin, bunday holda uning old qismi trilyajga o'xshaydi. Unda peshtoq-sahna oynasi qirqiladi. Bunday holda oyna orqasida undan 2-3 sm oraliqda ingichka dumaloq cho'p o'rnatiladi. Cho'pni o'rnatishdan oldin unga 10 tacha sim aylanalar kirgizilib, ularga suriladigan parda o'rnatiladi. Parda burma bo'lishi uchun kengroq bo'lishi kerak. Punktir bilan agarda ijrochilarning qo'lini yashirishning xojati bo'lmasa, olib tashlanishi oson 9-10 smli bo'lgan taxtacha ko'rsatilgan.

Sahna bunday qurilganda dekoratsiyalar ko'p qavatli parda ko'rinishiga ega bo'ladi yoki karton doiraga joylashadi. Bu doira ingichka mixda aylanib, dekoratsiyani tezda almashtirish, ba'zi hollarda harakatlanuvchi dekoratsiyani ko'rsatish imkonini beradi. Dekoratsiyalarning tez almashishi uchun ularni kanselyariya nakolkasiga o'xshash vertushkaga o'rnatiladi. Bu doira taxtaga o'rnatilgan bir bo'lak yo'g'on simdir. Doira yoki vetushka orqasiga doka yoki tyul tortilgan uch ost ramkadan iborat parda joylanadi. Doka ko'k yoki och ko'k rangga bo'yaladi. Bunday to'siqdan ijrochilar saxnani bemalol ko'rib tura oladilar va shakllarni ishonch bilan boshqara oladilar.

Sahnani yoritish katta ahamiyatga egadir. Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular sahnani yoritsin-u nuri tomoshabinlarga tushmasin.

Musiqqa barcha teatr postanovkalarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, spektakl musiqali kirishdan boshlanadi. Musiqali tanaffus vaqtida dekoratsiya almashadi. Tovush va yorug'lik effekti bilan birikkan musiqqa «Fonus xayol» teatrida ham, stol teatrida ham mukammal badiiy tasvirni yaratish imkonini beradi. Bu teatrlarda ovozga taqlid qilish, xo'rozning qichqirishi, mushukning miyovlashi, ayiqning o'kirishi hamda shovqin effektlari-yog'ayotgan yomg'ir ovozi, parovozning pishillashi va shu kabilardan foydalaniladi.



4.





**Barmoq teatri:** Barmoq teatri qahramonlarini qog'ozdan yasash mumkin. Bukichik konus va silindr shaklidagi barmoqqa kiyish uchun yasalgan. Qog'ozdan odam, xayvonlarning kichik shaklida barmoqqa tasvirini tayyorlab, uni barmoqqa qog'ozdan uzuk shaklida yasalgan qog'oz xalqaga yelimlab, barmoqqa kiyib olinadi. Teatr qahramonlarini kichik qutichalardan ham yasash mumkin. Qutichalarning tag tomonidan barmoqni kirgizish uchun joy tayyorlab, qutichaga xohlagan qiyofa berish mumkin. Qutichaning qulay tomonidan barmoq sig'adigan kichik teshikcha qilib qo'yiladi, masalan: gugurt qutisidan, kublardan, dumaloq shakldagi qutichalardan va boshqalardan.

Barmoq teatri uchun turli xil gazlamalardan foydalanish ancha keng tarqalgan. Bunda gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va uning teskari tomonidan tikib, so'ngra o'ngiga ag'dariladi, qolgan joyi tikib chiqiladi. Bolalarga andozaning teskari tomonidan tikishni, ko'z, qosh, burun, og'iz kabilarni tikish yoki yopishtirish kerakligini aytib, ularni bajarishga undash mumkin. Bolalar mustaqil soch, jiyak, lenta va to'rdan bezaklarni o'zlari tikadilar. Paralondan ham barmoq teatri qahramonlarini yasash mumkin. Paralondan turli qahramonlarning bosh qismini tayyorlab, barmoqqa kiygazish joyini qilib, qahramonlarni bezatishda matolardan ham foydalanish mumkin. Maktabga tayyorlov guruxi bolalari ishtirokida barmoqqa kiyish uchun qahramonni barmoqqa mos qilib bichib, usti tomonidan «halqa» choki bilan, ba'zan esa to'g'ri chok bilan ichki tomonidan tikib, o'ngi tomoniga o'giriladi. Detallarni bolalar o'zlari tugmacha, jun iplar yordamida jihozlaydilar.

Barmoq teatrini qog'oz quyucasidan ham yasash mumkin. Bunda qog'ozdan silindr shaklini yasab, barmoqqa mos qilib qog'oz quyqani silinrga kirgizib, co'ng hohlagan shaklni yasash mumkin. Qurigandan keyin bosh qismlarni bo'yash lozim. Ularga ba'zi detallarni qog'ozdan qirqib, yelimlab qo'ysa bo'ladi. Masalan: quloqlarni, ko'zlarni esa tugmachadan, matolardan, turli iplardan sochlarni qilish mumkin. Bunday o'yinchoqlarni katta maktabgacha yoshdagi bolalar mustaqil bajaradilar. Kartonga chizib qirqilgan shakllardan: qizcha, qushcha, hayvonlar boshining orqa tomoniga kichik karton kog'oz qoldig'idan barmoq sig'ulik qilib yopishtirib qo'yish mumkin. Barmoq teatri boshqa teatrlar kabidir, lekin uning farqi shundaki har bir ertak qahramoni bolalarning barmoqlariga mos kichik yoki ertak ko'rsatuvchining barmog'iga to'g'ri keladigan qilib tayyorlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish, ularning milliy qadriyatlar, an'analarimiz haqida yanada teran mushohada yuritishlari maqsadida turli ertaklar, hikoyalar o'qib berish, asar qahramonlari orqali ularda insoniy fazilatlarni shakllantirish samarali natija beradi. Teatrlashgan tomoshalar namoyishini maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etish. Katta yoshdagi tarbiyalanuvchilar tomonidan sahnalashtirilgan asarlar ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish maqsadida ta'lim muassasalari boshqa tarbiyalanuvchilari uchun namoyish etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda nafaqat aktyorlik mahoratini sinovdan o'tkazayotgan bolalarning sahna mahoratlari, balki tomoshabin oldida o'zini tutishi, berilgan obrazlarni to'laligicha ochib berish kabi ijodiy fazilatlari shakllanadi.

Shunga muvofiq, maktabgacha ta'lim muassasalarida kunning ikkinchi yarmida ko'ngilochar tadbirlarning tashkil etilishi, kitobxonlik kunlarini o'tkazish va o'qigan ertakhikoyalari asosida bolalarning o'zlari ishtirokida sahnalashtirilgan tomoshalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4312-sonli qaror. 2019 yil 8 may.
2. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi– T.:2022

4. Djurayeva B.R. Tojiboyeva H.M. Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. T.: 2015. 106-b.

## MTT TARBIYALANUVCHILARIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA KO'RGAZMALILIK METODINING O'RNI

Raximova Ra'no Baxodirovna

Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim  
kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mtt tarbiyalanuvchilarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko'rgazmalilik metodining o'ri haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Vatan, vatanparvarlik, islohotlar, bolajonlar, metod, ko'rgazmalilik.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga olib keldi. Ma'lumki, har bir jamiyatning ongli qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi uchun qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi.

Bu avvalo kelajak avlodning ana shu o'zgarishlarga dadil moslasha oladigan yuksak bilim, mahorat, keng dunyoqarash va vatanparvar inson bo'lishini talab etadi. Mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu yosh avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liq. Zero, ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan yurtimizda o'z vatanini ardoqlaydigan, tanlagan yo'ldan qaytmaydigan, vatan sha'nini har narsadan ustun deb biladigan yoshlarning bo'lishi davr talabidir.

Vatanparvar, mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlargina yurtimiz farovonligini yuksaklarga ko'tara oladi. Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning va Prezidentimiz da'vatlarining mohiyatini ham, ma'naviyati teran, boshqalar fikriga ergashmaydigan, vatanparvar avlodni yetishtirish masalasi tashkil etadi, vatanparvar insongina turli yot oqim va mafkuralarga qarshi kurasha oladi, yurt manfaati va ravnaqini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yadi.


Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlardan asosiy maqsad ham xalqimiz ongi va shuurida saqlanib kelayotgan vatanga muhabbat tushunchalarini yosh avlodga singdirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, mamlakatimiz kelajagini belgilay oladigan barkamol hamda vatanparvar shaxsni shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashda xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab-avaylab kelayotgan ilmiy bilim xazinalariga, boy qadimiy merosimizga asoslaniladi. Chunki, ota-bobolarimiz hayot tajribalari natijasida yaratgan o'git va pandnomalarida, dunyoviy bilimlarida vatanni asrash, ulug'lash kabi insonparvarlik g'oyalari mavjudki, ular nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Ayniqsa, o'zbek xalqining faxri va g'ururi hisoblangan Shiroq, To'maris, Muqanna, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabi vatanparvar, vatan uchun jonini ayamagan insonlarning hayot yo'li va faoliyatini o'rganish hamda vatanparvarlik maktabi tarbiyasidan o'rnak olishni yo'lga qo'yish bugungi davr talabidir.

Yosh avlod ongiga vatan nima ekanligini kengroq targ'ib qilish, inson uchun vatanning yagona ekanini anglatish ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir.

«Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Filofosiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.





Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi. Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi» maqoli ilmiy asosga ega ekan.

## Namoyish metodi

o'rganilayotgan ob'yekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy ob'yektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi.

Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'yektlarning sub'yekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa mashg'ulot taxtasiga chizish yoki tarbiyachining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois tarbiyachilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan ob'yektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Bu metod yordamida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni mustaqil ravishda ob'yektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan tarbiyachining bilish jarayoni mohiyatan tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.

## Tasvir

(illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.


Tasvirning samarasi ko'pincha tarbiyachi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish

jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'yekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, mashg'ulot jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi tarbiyalanuvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob'yektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.



Tarbiyachi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og'zaki, ko'rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

### **VATANPARVARLIK BURCHAGINI TASHKIL ETISH FOYDALANILADIGAN KO'RGAZMALAR**

## **Allomalar**



# ona –yurt



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlatimizda islohotlarning natijasi tufayli ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, milliylik tiklanib, moddiy va



ma'naviy qadriyatlarning yangi qirralari ochildi. Shuningdek, mustaqillik yillarida tarbiyalanuvchilar uchun yildan yilga qulay ta'lim sharoitlari yaratilmoqda. Shu bilan birga o'tmish madaniy merosimizni o'rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o'tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Jumladan, o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyotimiz uchun ham qimmatli qadriyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oripova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanga e'tiqodni shakllantirish Ped. fan. nomz... diss.- T., 2008.- 140 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.
3. "Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, "Qarshi Davlat universiteti" nashriyoti, 2010.
4. Xo'jayev R. va boshqalar. "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. T.; "Cho'lpon nomidagi - matbaa ijodiyot uyi", 2010.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TO'GARAKLARNING AHAMIYATI

**U.SH.Karimova**  
QVPYMO'MM o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada MTT tarbiyachilarining maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari, hamda MTTda to'garak ishlarini tashkil etish yo'llari yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** Mustaqil badiiy ijodiy faoliyat, ijodkorlik ko'nikmalari, go'zallik muhiti, ijodiy munosabat, faollik, mustaqil fikrlash, bola ijodkorligi, voqelikni idrok qilish, emotsional ta'sir, fantaziya.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolajonlarni har tomonlama intellektual, estetik jihatdan shakllanishiga sharoit yaratish, rivojlangan ijodiy shaxs bo'lib voyaga yetishlariga yordam tashabbusni rivojlantirish, fantastika, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik, [har xil to'garak turlari](#) va amaliy faoliyat jarayonida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish bugungi kundagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning **ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar** bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O'yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.



Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini aniqlash. Tashhisning maqsadi bolaning qaysi turiga ko'proq mos kelishi va u qanday tasavvur paydo bo'lganligini aniqlashdir. Bu maxsus testlarni o'tkazadigan psixologlar yordamida amalga oshirilishi mumkin, natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlarni tanlash mumkin bo'ladi. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, uch yoshga kelib, barcha bolalarda tasviriy san'at qobiliyati taxminan bir xil darajada rivojlana boradi. Shuning uchun, bolaning maxsus iste'dodini ko'rsatishini kutib va bundan keyin uni rivojlantirish kerak emas. Badiiy qobiliyatni rivojlantirish uchun har bir bola uchun bir nechta oddiy sharoitlarga rioya qilish mumkin. Siz o'zingizning qadamingiz bilan harakat qilishingiz kerak: boshida, bolani chizish bilan qiziqtirish, keyin uni hayoliy tasvirlarni ko'chirishga qiziqish ko'rsatish va faqat chuqurroq o'qish uchun bolaning tasviriy san'at asoslarini o'rgatishni boshlashi aniq bo'lganidan keyin uni qo'llab-quvvatlash, bolaning faoliyatini maqtash va uni rag'batlantirishni unutmaslik lozim.

**Bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish** bolalar musiqa asarlari va asboblari bilan tanishishdan boshlanadi. MTT tarbiyachilar bilan ushbu tasavvurlarni qaysi tarkibga olib keladiganini tahlil qilish foydali bo'lsa, birgalikda tadqiq qilish tavsiya etiladi. Ota-onalar bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etishi kerak.

Ijodiy qobiliyatlari intellektual rivojlanish bilan bir xil muhim rol o'ynaydi. Axir biz bilimni aqliy uchun oziq-ovqat deb hisoblasak, unda ijodkorlik ruh uchun oziq-ovqat deb nomlanishi mumkin. Bolalarda ijodiy faollikni o'stirish jarayonida oddiy mehnat ko'nikmalari, zaruriy ahloqiy sifatlar : [mustaqillik](#), maqsadga intilish, topshirilgan ish uchun ma'suliyatni xis qilish, qat'iylilik, tengdoshlarga xushmolalik sifatatlari shakllantiriladi.

- Bolalarni mehnat faoliyatiga rahbarlik qilish uchun:
  - mashg'ulotlar orqali xosil bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish
  - Mehnatga nisbatan [muhabbatni tarbiyalash](#)
  - Ijodiy faollikka oid ko'nikmalarni shakllantirish
  - Buyumlar tayorlash jarayonini rejalashtirish
  - Badiiy didini o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilayotgan turli to'garaklar bolalarning har tomonlama kamol topishiga, aqlan, jismonan, ma'nan tarbiyalanishiga yordam beradi, bolalarda badiiy ijodkorlikni o'stiradi, ularni o'rab turgan go'zallik muhitini chuqur his etishga o'rgatadi, o'z mehnati, ijodidan zavqlanish, mehnatdan qochmaslik, ilm olishga, turli tillarni bilishga, ijod qilishga qiziqish, bo'sh vaqtini bekor o'tkazmaslik kabi sifatatlarni shakllantiradi.

Darhaqiqat, maktabgacha yoshdagi bolalarni turli to'garaklarda shug'ullantirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarini o'sishi, dunyoqarashini shakllanishi, ijobiy xulq-atvor odatlarini o'zlashtirilishi rivojlanishiga erishiladi.

Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda tarbiyachilar yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar bolalar bilan turli xil ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar to'garak ishlari deb ataladi. To'garaklar MTTda bolalarni tarbiyalash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ishlardan bolalar shaxsini kamol toptirish maqsadida keng foydalaniladi.

**To'garaklar** maxsus tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya va madaniy ishlardan iboratdir. Bularga bolalar badiiy ijod to'garaklari, sport to'garaklari, ilmiy to'garaklar kabilari kiradi.

To'garaklar o'ziga xos xususiyatlari bilan mashg'ulotlardan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy asosda tashkil qilinadi. Ota-onalar farzandlarini o'z qiziqish va layoqatlariga qarab MTTdagi

turli to'garaklarga qo'yadilar, mashg'ulotdan tashqari vaqtda o'tkazilayotgan ommaviy va yakka tartibdagi ishlarda ham o'z istaklari bilan qatnashadilar.

To'garaklarning yana bir xususiyati shundaki, bu ishda bolalarning mustaqil ishlari asosiy o'rin tutadi. To'garaklarda mustaqil ishlar uchun imkoniyatlar yaratiladi.

To'garaklar mashg'ulotda olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini mustahkamlaydi va to'ldiradi, bolalarni pedagogik ta'sirga to'la jalb etishga, mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt ichida amalga oshirish qiyin bo'lgan ishlar amalga oshiriladi.

To'garaklardagi ishlar jarayonida mehnat va o'quv mashg'ulotlari bilan o'yin-kulgu, hordiq chiqarish tadbirlari o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak.

To'garakdagi ishlardan ko'zda tutilgan maqsad bolalarda turli sohalar bo'yicha qiziqishlarni yuzaga keltirish, ularni rivojlantirish va tarbiyalashdir. Bolalarning hayotini chinakamiga madaniy qilish, ularni jamoa bo'lib yashashga, ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir.

To'garakdagi ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bu muammolarni ijobiy hal qilish uchun to'garakdagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash;

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;

- pedagoglar va bolalar orasidagi o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish.

Bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, nafosat, ekologik, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan shakllangan kishilar qilib tarbiyalash mashg'ulot jarayonida boshlanadi. Biroq bolalarning kundalik o'sib borayotgan ehtiyojlari, qiziqishlarini faqat mashg'ulot jarayonida olib borib bo'lmaydi. Bunday ko'p qirrali qiziqishlarni to'garakdagi ijodiy ishlar bilan uzviy bog'lash asosidagiina qondirish mumkin.

To'garaklar bolalar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'lashga zamin yaratadi.

To'garakdagi ishlarning tarbiyaviy ta'siri bolalar jamoasining xilma-xil ishlarini qanday yo'lga qo'yishlariga bog'liqdir. Mashg'ulotdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki har xil bolalarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning qiziqishlari, mayillari, tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Mashg'ulotdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong va axloq odatlarini tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

To'garaklar bolalarni ijodkorlikka da'vat etuvchi tarbiyaviy maskandir. Bolalarning to'garaklardagi faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sish samarasi yuqori bo'ladi. Ular orqali bolalar jamoada ishlashni o'rganadilar, ijtimoiy mehnat, ijod, yaratuvchanlik quvonchini his qiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysinishga, jamoa bo'lib ishlashga odatlanadilar. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tashkil etiladigan to'garaklar faoliyati unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

**To'garaklar** – bolalarning turli xil qiziqish, istak va xohishlarini qondirish, qobiliyatlarini o'stirishni ko'zda tutuvchi ommaviy-ixtiyoriy birlashmadir. To'garaklar faoliyat darajasining kengligi va ko'p qirraligi bilan ajralib turadi. Bir to'garakda 10-15 nafar yoki undan ko'proq bolalar qatnashi mumkin.

To'garaklar bolalarning qiziqish va istaklari asosida tashkil qilinadi. Asosiy maqsad, vazifa bolalarning ijod, fan, texnika va san'atga bo'lgan qiziqishlarini qondirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, bilimlarini chuqurlashtirish va amalda sinab ko'rish, ijodkorlik sifatlarini shakllantirishdan iborat.

**Ilmiy to'garaklar** – ularning asosiy maqsadi to'garak a'zolarining ma'lum o'quv predmetiga bo'lgan qiziqishlariga tayangan holda, ular bilimni kengaytirish, chuqurlashtirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil ishlarni o'rgatish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

**Sport to'garaklari.** Jismoniy tarbiya sportlarining turlari juda ko'p. Ularning maqsadi bolalarni jismoniy chiniqtirish, sog'ligini muhofaza qilish, sohalar bo'yicha qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnat va Vatan mudofaasiga amaliy tayyorlashdan iborat.

**Badiiy to'garaklar** – adabiyot, musiqa, drama, tasviriy san'at kabilar bolalar o'rtasida badiiy havaskorlikni o'stirish, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta'lim natijasida ularda maktabgacha yoshdan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko'rsatadi. Ijodkorlik maktabgacha yoshdagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladi. Albatta bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomik, psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ZAMONAVIY YONDOSHU

**Rahmatova Mukambar Jahongir qizi**

Ilmiy rahbar: Mahmudova Zilola  
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda  
(xorijiy til) yo'nalish talabasi

### **Annotatsiya:**

Quyidagi keltirilgan maqolada maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yilgan zamonaviy ta'lim tizimidagi muammolar va ularning yechimlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-ma'naviy, malakali, davr talabi, ko'zda tutildi, yaratish dasturi, muqobil dastur.

Bilamizki, jajji kichkintoylarimiz haqida davlatimiz qayg'uradi. Ya'ni ularning ijtimoiy-ma'naviy hayot darajalarining yuksalishi, ta'lim tizimining raqobatdoshligi, bolalarning ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Bu borada davlatimiz ta'lim sohasini tubdan o'zgartirishi, ta'lim sifatini yaxshilashi, kelajakni yuzi bo'lgan bolajonlarning jismoniy barkamol qilib shakllantirish, bolajonlar uchun aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va tarbiyachilarni malakali qilib tayyorlash kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bugungi kun uchun davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimi ko'zda tutildi.

Lekin, shuni ko'rish mumkinki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlarida o'sishi holati kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tizimidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda Respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga misol maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, bolajonlar juda eski jihozlardan faydalanilishidagi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi. Misol uchun, Janubiy Koreya davlatida davlat bog'chalarini nodavlat bog'chalariga qaraganda ancha qimmat turadi. Koreyalik mutaxassislar fikricha, buning sababi davlat bog'chalarida olim va olimalarning jiddiy e'tibori, tizimda amalga oshirilayotgan yangiliklarni amaliyotda qo'llab, kutilgan natijaga erisha olishida, deb hisoblashadi. Bizda esa faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi. Shunga jumladan; Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Shu tariqa qonunlar joriy qilindi;

1) O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;  
maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### **Yechim**

Bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olishni darajasini oshirish uchun nodavlat ta’lim muassasalari ochishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash zarurdir. Bugungi kunda Respublika bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 33 942 tani tashkil etmoqda (6780 tasi davlat va 27162 tasi nodavlat). Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 847 tasi xususiy, 1388 tasi davlat-xususiy sherikchilik asosidagi va 24 927 tasi oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etadi. Ma’lumot uchun aytib o‘tish lozimki, bugungi kunda Respublika bo‘yicha 2 930 844 nafar 3-7 yoshli bolalarning 2 168 825 nafari yoki 74,0 foizi maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan. Jahon banki bilan hamkorlikda “Bolani erta rivojlantirish” loyihasi doirasida Namangan va Samarqand viloyatlarida “Ilk rivojlanish markazlari” 3 ta model bo‘yicha faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

### **Xulosa**

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta’limdagi muammolarni ko‘rib chiqib, ularni muhokama qilib va ularga doir qonunlar joriy etilganligi shu qonunga muvofiq Davlatimiz rahbari maktabgacha ta’limga chuqurroq e’tibor qaratganliklari va bolajonlar uchun turli-xil shart-sharoitlar yaratilganligi, eng muhim vazifalar ustuvor vazifalar hisoblanganligi bolajonlar “Yunisef” xalqaro bolalar tashkiloti Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko‘magi yordamida “Ko‘p tilli inklyuziv ta’lim guruhlari” tashkil etildi.

### **Foydalanilgan manbalar**

1. <https://uzlidep.uz/uz/positionparty/72>
2. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2734>
3. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2734>
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maktabgacha\\_ta'lim](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maktabgacha_ta'lim)

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI YARATISH**

**Shamsiddinova Gulida Zahriddin qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

3-kurs talabasi

*Ilmiy rahbar:* Alikulova Muxayyo Sherovna

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola mazmunida Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni yaratish mazmuni, rivojlantiruvchi muhit faoliyatini “Ilk qadam” dasturi asosida yo‘lga qo‘yish va uni ta’lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to‘laqonli ishlab ketishida metodik ta’minot va metodik yordamning o‘rni belgilab olish haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Ilk qadam”, metod, metodologiya, uslub, tashkilot, bola tarbiyasi, barkamol avlod, rivojlantiruvchi muhit, muhit

### **Аннотация**

В содержании данной статьи содержание создания развивающей среды в дошкольной образовательной организации, налаживание развивающей среды деятельности на основе программы «Первый шаг» и применение ее в образовательном



процессе, методическое обеспечение полноценного освоения программы и ведутся разговоры об определении роли методического обеспечения.

**Ключевые слова:** «Первый шаг», метод, методика, стиль, организация, образование ребенка, зрелое поколение, развивающая среда, среда.

#### **Annotation**

In the content of this article, the content of creating a developmental environment in a preschool educational organization, establishing developmental environment activities based on the "First Step" program and applying it to the educational process, methodological support for the full development of the program and there is talk about determining the role of methodical support.

**Key words:** "First step", method, methodology, style, organization, child education, mature generation, developmental environment, environment

Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan juda ko'p o'zgarishlar ro'y berayotganligi sababli, fanni rivojlantiruvchi muhitning rivojlanishi ta'limga asoslangan bo'lishi kerak va shuning uchun uning sifatiga qo'yiladigan talablar ham ortishi kerak. Bu muammoni hal qilish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit har biri o'ziga xos funktsional rolni bajaradigan turli elementlardan iborat bo'lishi lozim va bu rivojlantiruvchi muhit bolaning keyingi ta'limiy faoliyati uchun zarur zamin hozirlaydi. Ijobiy natijaga erishish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida muayyan shart-sharoitlarni yaratish uchun butun pedagogik jarayon bilan bog'liq bo'lgan tizimini takomillashtirishdan boshlash zarur. Xususan, bolalar faoliyatini rivojlantirish uchun eng avvalo yaxshi muhitni tashkil qilish kerak.

**Sub'yektni rivojlantiruvchi muhit** - bu bolaning rivojlanishi uchun moddiy ob'ektlar, bolalar uchun turli xil faoliyat turlarini ta'minlashning sub'ekti va ijtimoiy vositalari to'plami demakdir. Bu bolalar to'liq o'sishi va atrofda dunyo bilan tanishishi, u bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishi va mustaqillikni o'rganishi uchun kerak. Bu mustaqillik, tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi va bolalarga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

**Rivojlantiruvchi muhit** - bolaning boshqa odamlar bilan hissiy va amaliy munosabati tajribasini yaxshilaydi, shuningdek, guruhdagi barcha bolalarning kognitiv faolligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mazkur yoshdagi bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- katta bolalar maydonchasi;
- o'yin jihozlari;
- o'yinchoqlar;
- turli turdagi o'yin jihozlari;

Rivojlantiruvchi muhit- ta'limni rivojlantirishning maksimal darajada amalga oshirilishini ta'minlashga majburdir. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va unda amalga oshirilgan faoliyat quyidagilarni anglatishi kerak:

- ta'lim jarayoni amalga oshiriladigan barcha binolarda bolalar uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning moyilligi, qiziqishlari va faollik darajasini hisobga olgan holda o'z shaxsiyatini rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi;
- bolalar uchun o'yinlar, kitoblar, o'yinchoqlar, qo'llanmalar va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan materiallardan cheksiz foydalanishning ta'minlanganligi;
- atrof-muhitni bolalarning hissiy, kognitiv va motorli faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradigan elementlar bilan boyitilganligi;

Rivojlantiruvchi muhitda umumiy faoliyatni tashkil etish jarayonida kognitiv faoliyatni faollashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan materiallarni tanlash kerak. Ular texnik qurilmalar, magnitlar, o'yinchoqlar, kattalashtiruvchi ko'zoynaklar, buloqlar, stakanlar, modellar, tarozilar bo'lishi mumkin, shuningdek, tajriba va o'rganish uchun turli xil tabiiy

materiallarni taqdim etishingiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit hisoblangan har bir ta'limiy faoliyat "Ilk qadam" o'quv metodik dastur asosida tashkil etiladi.

1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, dasturni to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olish;

2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratish;

Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan o'tonalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)

2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)

3. San'at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)

4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz. (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)

5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish - yasash ham matematika bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalarni o'yin jarayonida tinglansa "Menga yashil rang kerak", "Men yasagan uycha ikki qavatli", "Seniki kichkina, meniki esa kattakon", "Meni mashinamga 10 ta odam sig'adi" degan jummalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo'shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo'llab-quvvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Yuqorida izohi keltirib o'tilgan markazlar faoliyati bolani maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhit vazifasini bajarib, shu o'rinda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik xaritasini il ova qilib o'tishni joiz deb bildik. Zero, mazkur yoshdagi bolaning rivojlanish xaritasi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatlilik va samaradorligini aniqlaydi. Masalan boladagi,

1. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish
3. Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari
4. Bilim olish (anglash orqali rivojlanish)
5. Ijodiy rivojlanish kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy me'zonlar

sanaladi.

O'quv yili yakuniga yetgandan so'ng maktabga tayyorlov guruhi bo'yicha o'tkazilgan monitoringa asosan amalga oshirilgan ishlarni kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o'tkaziladi va bu orqali MTTning keyingi o'quv yiliga mo'ljallangan ustivor vazifalarini belgilaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari" 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.

4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Nazarova Dilfuza Yuldosh qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

3-kurs talabasi

*Ilmiy rahbar:* Alikulova Muxayyo Sherovna

#### **Annotatsiya**

Maqola mazmunida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy tahlili yoritilgan bo'lib maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish o'ziga xos xususiyatlari hamda ta'lim jarayoning qoidalari, usullari va tashkil etilish shakllari haqida mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy qobiliyat, ta'lim-tarbiya jarayoni, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy fazilatlar

#### **Аннотация**

В содержании статьи освещен научно-теоретический анализ проблемы развития творческих способностей у дошкольников и особенности развития творческих способностей у дошкольников, а также комментарии к правилам, методам и формам организации учебного процесса.

**Ключевые слова:** творческие способности, учебный процесс, творческая деятельность, творчество, самообразование, нравственные качества.

#### **Annotation**

In the content of the article, the scientific-theoretical analysis of the problem of developing creative abilities in preschool children is highlighted, and the specific features of developing creative abilities in preschool children, as well as comments on the rules, methods and forms of organization of the educational process are highlighted.

**Key words:** creative ability, educational process, creative activity, creativity, self-education, moral

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini shaqllantirish bolalarda tevarak-atrofdagi narsalarga ijodiy munosabatni tarbiyalashda, faollikni va mustaqil fikrlashni taqozo etadi. Bu bilan bolalarimizda aql-idrokni, o'tkir zehnni, ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalab boramiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini o'rganar ekanmiz enf avallo mazkur mavzuning asosiy qismlariga va ularning mazmuniga e'tibor qaratishimiz lozim.

**Ijod**-insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'yektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.

**Ijodiy faoliyat** - bu barcha ruh va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq, bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati - ilhomlanishi, shuningdek, ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahdi bilan hal etishga bo'lgan istaklari majmuasi.

**Ijodiy qobiliyatlar** - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma) qobiliyatlaridir.

**Ijodkorlik** - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi inson tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq, o'ziga xos fikrlash modeli.

**Ijodkorlik** - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur.

**Ijodkorlik** - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zlashtirishni uddalay olish maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va uzlikni anglashdir.

**Ijodkorlik** - bu insoniyatni bir necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne'mati bo'lib, bugungi kunda insoniyat yaratayotgan barcha moddiy hamda ma'naviy boyliklar esa ana shu oliy ne'matning u yoki bu kurinishidir, ya'ni mahsulidir.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish birinchi o'rinda atrofdagi predmet va hodisalardagi o'ziga xosliklarni kuzatish malakasi xarakterni belgisini ajrata olishni o'rgatishdan boshlanadi. Bunda albatta bolaning yoshini hisobga olish lozim, chunki 3-4 yoshli boladan murakkab syujetni sur'atni talab qilib bo'lmaydi, xatto bolani juda erta o'qitish boshlangan bo'lsa ham. Uning tafakkuri ham katta maktabgacha yoshidagi bola bemalol hal qila olishi mumkin bo'lgan vazifani qilish darajasida rivojlanmagan. Shu narsa aniqki, bir xil yoshdagi bolalar doim ham bir xil rivojlanishda bo'lmaydi. Pedagog hech qachon buni unitmasligi lozim, zero, individual yondoshuv samarali ta'lim tarbiyaning oltin kalitidir. Tasviriy qobiliyatning rivojlanishning birinchi bosqichi bolaning ilk bora tasviriy faoliyat qurollari bo'lmish-qalam, qog'oz, loy bo'lagi kabilar bilan tanishgan davrdan boshlanadi. Pedagogik adabiyotlarda bu davr "tasvirlashgacha" bo'lgan davr deyiladi chunki hali biror bir predmetni tasvirlashga xohish ham, tasvir g'oyasi ham bo'lmaydi. Bola bu paytda material xususiyatlari bilan tanishadi, turli ko'p harakatlarini o'zlashtiradi tasviriy shakllarni yaratish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi.

Agar material 5-6 va 3-4 yoshli bolalar qo‘liga berilsa, katta bolalar malakani tez o‘zlashtiradi chunki atrof olamni bilishga bo‘lgan intilish ularda ko‘proq.

"Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o‘yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalarni badiiy ijodiy qobiliyatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har-xil rasmlarni ko‘rish tufayli bola o‘yinchoq yasashdan oddin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarini o‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

**Birinchi bosqichda** bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

**Ikkinchi bosqichda** bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

**Uchinchi bosqich** - bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, goho o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotlanligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti-harakatlarini ma'qullaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o‘xshagan ishlarni bajaradi.

Mashg‘ulotda har doim ham bir xildagi o‘yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg‘ulot oldidan bolalarning ruhini ko‘taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o‘qib berishimiz, qo‘shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo‘yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim. Tasviriy faoliyatning har bir turi bolalarda aqliy faollikni, ijodkorlikni, badiiy didni va boshqa fazilatlarini tarbiyalash imkonini beradi. Bunday fazilatlarisiz ijtimoiy faol shaxsning dastlabki asoslarini shakllantirib bo‘lmaydi. Faoliyatning barcha turlari bolada tasviriy ifodaning yangi usullarini izlashga mustaqil yondashishni shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O‘yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshi samara beruvchi yo‘nalish sanaladi.

Tashhisning maqsadi bolaning qaysi turiga ko‘proq mos kelishi va unda qanday tasavvur paydo bo‘lganligini aniqlashdir. Bu maxsus testlarni o‘tkazadigan psixologlar

yordamida amalga oshirilishi mumkin, natijada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlarni tanlash mumkin. Shuningdek, bolaning imkoniyatlarini mustaqil ravishda aniqlash, unga turli tadbirlarni taqdim etish va eng qiziqarli sabablarni kuzatish mumkin. Qanday tasavvur paydo bo'lganini ham belgilab oling, o'yinda xatti-harakat bilan ham mumkin. Yuqori darajadagi hayoliy tasvirlarni ishlash qobiliyatini ko'rsatadi, ularni birlashgan tasvirlar yoki sub'ektlardan kompilyatsiya qilish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlari ham aniqlash mumkin va ularning asl qobiliyatidan qat'i nazar, rivojlantirish kerak.

Agar chaqaloqlarning ijodiy rivojlanishi ob'ektlarni kuzatish va manipulyatsiyalash orqali sodir bo'lsa, ko'proq kattalar bolalarining rivojlanishi ularning his-tuyg'ularini o'zlari uchun mavjud vositalar orqali yetkazish uchun urinishlari orqali amalga oshiriladi. Oddiy qilib aytganda, kuzatish bosqichi asta-sekin harakatga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning *ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan* bolalar o'yinlarini uslubiy jihatdan taklif qiladi. Bolalar nafaqat topshiriqlarni bajarishni o'rganishadi, teatr tomoshalarida ishtirok etishadi, tasavvurni rivojlanishadi, badiiy ko'rish, asarlarning yaxlitligini idrok etish qobiliyatini, imvoza qobiliyatini rivojlantiradi. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, uch yoshga kelib, barcha bolalarda tasviriy san'at qobiliyati taxminan bir xil darajada. Shuning uchun, bolaning maxsus iste'dodini ko'rsatishini kuting va bundan keyin uni rivojlantirish kerak emas. Badiiy qobiliyatni rivojlantirish uchun har bir bola uchun bir nechta oddiy sharoitlarga rioya qilish mumkin. Siz o'zingizning qadamingiz bilan harakat qilishingiz kerak: boshida, bolani chizish bilan qiziqtirish, keyin uni hayoliy tasvirlarni ko'chirishga qiziqish ko'rsatish va faqat chuqurroq o'qish uchun bolaning tasviriy san'at asoslarini o'rgatishni boshlashi aniq bo'lganidan keyin uni qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

**Bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish** bolalar musiqa asarlari va asboblari bilan tanishishdan boshlanadi. Maktabgacha tarbiyachilar bilan ushbu tasavvurlarni qaysi tarkibga olib keladiganini tahlil qilish foydali bo'lsa, birgalikda tadqiq qilish tavsiya etiladi. Ota-onalar bolaning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etishi kerak. Agar ular musiqa olamida ishtirok etmasalar va musiqachini tarbiyalamoqchi bo'lsalar ham, bu yo'nalishda bolaga murojaat qilish kerak. Masalan, oddiy o'yinlardan boshlashingiz kerak, masalan, qo'shiqlarni chalish bilan qo'shiqni takrorlash, bolalar qo'shiqlarini kuylash. Bundan tashqari, musiqa qulog'ini rivojlantirish uchun maxsus metodlardan foydalangan holda vazifalarni murakkablashtirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O. A. Maxmudova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi" o'quv qo'llanma T.: "Niso poligraf" 2019-yil

2. D. F. Khalilova Formation of social competence of future educators in preschool educational organizations. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 3 march 2023-yil

3. D. F. Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. Science and innovation international scientific journal Volume 2 issue 1 january 2023. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 21813337 | SCIENTISTS.UZ. 412-414.

4. D. F. Xalilova "Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv" "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181 4027 SJIF: 4.995 / www.pedagoglar.uz Volume - 7, Issue- 1, April -2022 166.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN ORQALI RIVOJLANTIRISH**

**Z. Aljonova**  
Shahrisabz tuman 30-DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:**

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning asosiy vositasi o'yin ekanligi, oyinlarning mohiyati, mazmuni va ulardan foydalanish haqida batafsil ma'lumotlar ko'rsatilgan

**Kalit so'zlar:** so'zlar: bola, tarbiyachi, maktabgacha ta'lim, ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar,

Bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, shuning uchun uni quyidagicha turkumlarga ajratiladi:

1. Ijodiy o'yinlar;
2. Qoidali o'yinlar;

**Ijodiy o'yinlarni** bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi.

Ijodiy o'yinlarga dramalashgan o'yinlar, qurilish o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar kiradi.

**Qoidali o'yinlarning** mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanishi bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun, uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatdan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil qilingan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yinda organizmga xos bo'lgan ehtiyoj qoniqtiriladi, hayotiy faollik, bardoshlilik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatga, ijtimoiy hayotga, kishilarni qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga taqlid qilish orqali, dastlabki orzular paydo bo'ladi.

Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar ham qilinadi. Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu - ta'lim faqat o'yindan iborat bo'lishi kerak degani emas. Ta'lim turli-tuman usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan bog'liq holda, ahloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin, bolada yaxshi fazilatlarini, ulug'vor orzular va intilishlarni, qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'yinda bola o'z hulqini boshqarishga, qiyinchilikni yengishga, o'z maqsadiga qat'iy turib yetishishga o'rganadi.

O'yin mehnat vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar, bu bilan ular kattalarning harakatigagina taqlid qilib qolmasdan, balki, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish, hohishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan

texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar. O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy xayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda, harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

MTTda ta'lim-tarbiya jarayonida har kungi kun tartibga ovqatlanish, badantarbiya, mashg'ulotlar o'tkazish bilan bir qatorda o'yin ham kiritilgan. O'yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O'yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin o'tkaziladi. Ertalab rolli o'yinlar, qurish-yasash, harakatli (to'p bilan) o'yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi. Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar o'tkaziladi. Ular asosan mashg'ulotning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Ochiq havodagi o'yinlarga yugurish, otish, sirpanish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, qoidali o'yinlar («Ayyor tulki», «Oq terakmi, ko'k terak») kiradi. Shuningdek, qurilish, rolli, sport o'yinlari, tabiiy materiallar bilan o'ynaladigan o'yinlar (qum, suv, loy bilan), didaktik o'yinlar, bolalarning harakatini rivojlantiruvchi o'yinlar, dramalashtirilgan o'yinlar bo'ladi. Tarbiyachi hamma o'yinlarga rahbarlik qiladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilishli o'yinlar, ertak bo'yicha qo'yiladigan o'yinlar, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va hokazolar kiradi. O'yinlarning turlari, mazmuni ularni har bir yosh guruhlari bo'yicha tashkil etishni taqozo qiladi.

Xullas, o'yin maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning egallagan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TARBIYALASH**

**Dildora Haqberdiyeva**

Koson tumanidagi 32-DMTT  
tayyorlov 2- guruh tarbiyachisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish usullari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik innovatsion texnologiya tayyorgarlik, rejalashtirish, joriy etish

Bugungi kunda Respublikamizning barcha sohalarida kabi maktabgacha ta'lim sohasi ham chuqur islohotlarni boshidan kechirmoqda. Bunda asosiy maqsad shuki, maktabgacha ta'lim faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, o'quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini, hamda shaklini yangilash evaziga sifat samaradorligini oshirishga erishishdan iborat. Pedagogik innovatsion texnologiya - bu tarbiyachi tomonidan tarbiyalash vositalari yordamida tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish hamda bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Bu vazifani bajarish uchun hozirgi zamon maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyachi va pedagoglardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, innovatsion pedagogik metodlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglashlari va ulardan o'z faoliyatlarida mohirona foydalanadigan bo'lishlarini taqozo etadi.

Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganligi innovatsion jarayon subyekti va innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion jarayon subyekti deganda, ta'lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar (direktor, metodistlar, tarbiyachilar, otaonalar, homiyar) va



ta'limni boshqarish organlari tushuniladi. Ular harakatining birligi ma'lum bir natijalarga erishishga olib keladi.



Ta'lim muassasasidagi innovatsion faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va tashkil etilganligi innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishini oqilona tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mazkur holat har bir alohida harakat tuzulishini inobatga olishni taqozo etadi. Innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi motiv - maqsad - vazifa - shakl - metod - natija kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi. "Innovatsion faoliyat - tarbiyachining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U tarbiyachi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi. Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi.

Pedagogik innovatsiya ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala yechimiga yo'naltirilganligi sababli tarbiyachidan yangicha yondashuvni talab qiladi. Tarbiyachi innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud.

Masalan, A.Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash uch bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. Tarbiyachini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi qiyinligi, ya'ni tarbiyachilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir.

Maktabga tayyorlash jarayonida bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olishni unutmaslik kerak. Ularni oddiy, oson va vaqtni kam oladigan turlaridan tortib asta-sekin murakkab didaktik o'yinlar o'tkazib borish yaxshi natija beradi. Bunday ish tutish, bir tomondan bolalarning dunyoqarashi va ongini kengaytirsa, boshqa tomondan, ularning bayon etish qobiliyatini kuchaytiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarbiyachi mashg'ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Agar biz o'z ishimizda shu narsani amalga oshira olsak, yangi innovatsion texnologiyani qo'llagan bo'lamiz.

Tarbiyachi kerakli interfaol metodlarni berilmoqchi bo'lingan bilim hamda mavzu asosida belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda tanlay olishi zarur. O'z navbatida bu metodlardan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga e'tibor qilish talab etiladi:



- bolalarning o‘yin faoliyatlari uchun kun tartibiga ko‘ra ajratilgan vaqtdan, o‘yinni rivojlantirish uchun qulay sharoit ajratish va undan to‘liq foydalanish;
- o‘yinga rahbarlik qilishda bolalarni har tomonlama rivojlantirishni va o‘yinlarning har xil turini mustaqil tashkil etish ko‘nikmasini shakllantirishni amalga oshirish;
- o‘yinlarni bolalarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olib tashkil etish;
- o‘yindan bolalar hayotini tashkil etish shaklida foydalanib, bolalarning o‘yindagi hayotlari qiziqarli,
- mazmunli bo‘lishga, o‘yinda xatti-harakatning jamoa shaklining mustahkamlanishiga erishish.

Bolalarni o‘yinda birlashtirishning xilma xil ko‘rinishlaridan foydalanib guruhlar, kichik guruhlar, hamkorlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish; o‘yinlarda bolalarning jo‘shqin faoliyatlari hamda o‘yin anjomlarini tayyorlab olish knikmalarini rivojlantirishiga erishishga harakat qilinadi.



Xulosa shuki, har qanday innovatsion yangilik zaminida biror - bir g‘oya yotadi. Pedagogik texnologiya tarbiyalanuvchilarning mashg‘ulot jarayoniga faol qatnashishi va mashg‘ulotga qiziqishini orttiradi. Mashg‘ulotlarning qanchalik samaradorli bo‘lishi albatta birinchi galda biz – bo‘lg‘usi pedagoglarga - qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanishimizga bog‘liqdir. Demak, biz oz faoliyatimizda bir xil yoki bir-biriga o‘xshash usullar bilan chegaralanib qolmay, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishimiz bugunning dolzarb talabidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabr-dagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan qayta nashr) – T.:2022.

## NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN UZLUKSIZ TA‘LIM

*Gulamova Dilnoza Nizamitdinovna*

Qarshi shahar 46-maktab, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

*Rashidova Madina Azamat qizi*

Qarshi shahar 9-DMTT ingliz tili o‘qituvchisi

*Shamatova Gavhar Muradovna*

Qarshi shahar 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi,

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda yurtimizda barcha ta‘lim muassasalarida, ya‘ni maktabda, litsey va kollejda, texnikum, universitet va institutlarda barcha uchun ta‘lim berish jarayoni yo‘lga qo‘yilgan. Bunday ta‘lim jarayonlarining barchasi natijaga yo‘naltirilgan bo‘lib, har bir ta‘lim muassasasini tugatgan bitiruvchi ma‘lum bir ma‘lumotga va kasb hunarga ega bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** uzluksiz ta‘lim, oliy ta‘lim muassasasi, kadr, iqtisodiyot, shakl, texnologiya, mutaxassis, tadqiqot, model, muhokama, qat‘iyat, ilova.

**Аннотация:** В настоящее время процесс всеобщего образования налажен во всех учебных заведениях нашей страны, то есть в школах, лицеях и колледжах, техникумах, университетах и институтах. Все подобные образовательные процессы ориентированы на результат, и выпускник каждого учебного заведения будет обладать определенными знаниями и профессией.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, вуз, кадры, экономика, форма, технология, эксперт, исследование, модель, обсуждение, определение, применение.

**Annotation:** Currently, the process of providing education for all has been established in all educational institutions in our country, that is, in schools, lyceums and colleges, technical schools, universities and institutes. All such educational processes are result-oriented, and the graduate of each educational institution will have a certain knowledge and profession.

**Keywords:** continuing education, higher education institution, personnel, economy, form, technology, expert, research, model, discussion, determination, application.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori oliy ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma‘no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik yo‘nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi [1].

“Natijaga yo‘naltirilgan uzluksiz ta‘lim” (NYUT) atamasi ta‘lim tizimida qabul qilingan yangilik va tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Bu model o‘qituvchilar va tadqiqotchilar tomonidan ta‘limning o‘zining muhim asoslari bilan ta‘minlanishini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan. NYUTning asosiy maqsadi o‘quvchilarning o‘zlashtirishini oshirish va o‘rganish natijalariga muvofiq ta‘lim jarayonini moslashtirishdir. Bu model o‘quvchilarning o‘rganishni tashkil etish va ta‘lim natijalarini ta‘minlashga qaratilgan.

NYUT modeli o‘quvchilarning o‘zlashtirishini muhokama etish, mustaqil ish yuritish va shaxsiy rivojlanishiga ega bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu model o‘quvchilarga ta‘lim jarayonida o‘zlashtirish, qat‘iyat va o‘rganish natijalarini o‘rganish va takrorlash, o‘rganishni o‘rganish va o‘zlashtirishni o‘rganish uchun ilova etishni ta‘minlaydi.

NYUT modeli o‘rganishning yangi uslublarini o‘quvchilar bilan bahslashuvchi, o‘rganish va o‘zlashtirishni mustaqil ravishda ta‘minlovchi va o‘quvchilarning o‘z fikr-mulohazalarini muhokama etishga va izlashga imkon beruvchi o‘qituvchilar tomonidan ishlab



chiqilgan. Bu model o'quvchilarning o'zlarini o'rganish jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

“Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim” (NYUT) konseptining ahamiyati ta'limning samaradorligini oshirishda va o'quvchilar uchun o'rganishning sifatini yuqori darajada ta'minlashda yashirin. Quyidagi sabablarga ko'ra, NYUT modeli ta'lim sohasida katta ahamiyatga ega:

O'quvchilarga muvofiq ta'lim berish: NYUT modeli o'quvchilarning individual talablarini hisobga olib, ta'limni ularning o'zlashtirishiga muvofiq yo'nalishga olib keladi.

O'rganishning mustaqil ravishda rivojlanishi: Bu model o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini ifoda etish, mustaqil ish bajarish va o'rganish natijalariga qarab ta'lim jarayonini o'rganishga yordam beradi.

O'rganishni mustaqil ravishda amalga oshirish: NYUT modeli o'quvchilarga o'z o'rganish yo'nalishlarini o'rganish, qat'iyat va o'rganish natijalarini baholash uchun zarur bo'lgan tushunchalarni o'rganishda yordam beradi.

O'quvchilarning o'rganish natijalariga e'tibor berish: NYUT modeli o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirish va o'rganish natijalarini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni kuchli, mustaqil o'rganishga oshirish: Bu model o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini muhokama etish, o'rganish va o'zlashtirishni o'rganish va o'zlashtirishni o'rganish uchun ilova etishni ta'minlaydi.

Natijada, “Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim” modeli o'quvchilarni mustaqil o'rganish va o'zlashtirishga olib keladi, shuningdek, ta'lim tizimini samarador va kengaytirishga yordam beradi. Bu esa ta'limning o'quvchilar uchun samarali va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

“Natijaga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim” (NYUT) amaliyotga o'tkazilishi uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

Ta'lim dasturi tuzilishi: NYUT ni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim dasturini tuzish uchun o'quvchilarning o'zlashtirishini ta'minlovchi, ularning o'rganishni oshirishga yordam beruvchi darsliklar va boshqa ta'lim materiallari tuziladi.

Dars va o'quv mashg'ulotlari: NYUT modeli o'quvchilarning o'zlashtirishini oshirishga yordam beradigan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun muhimdir. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil ravishda ishlashiga imkon beradi.

O'quv usullarini o'zgartirish: NYUT modeli o'quv usullarini o'zgartirishni talab qiladi, masalan, o'quvchi-ustoz munosabatlari, guruh ishlari, ilmiy tadqiqotlar va boshqa faoliyatlar orqali o'rganishni o'zlashtirish.

O'quv jarayonini baholash: NYUT modelining samaradorligini baholash uchun o'quvchilarning o'rganish natijalarini mustaqil ravishda baholash talab etiladi.

Mustaqil ish yuritish: NYUT modeli o'quvchilarga o'z fikr-mulohazalarini ifoda etish, mustaqil ish yuritish va o'zlashtirishni o'rganishga imkon beradi.

Ta'limni mustaqil ravishda rivojlantirish: NYUT modeli o'quvchilarni o'z fikr-mulohazalarini muhokama etish, o'rganish va o'zlashtirishni o'rganish va o'zlashtirishni o'rganish uchun ilova etishni ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda ta'lim tizimi juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ta'lim tizimida bosqichma-bosqichlik tamoyili mavjud bo'lib, unga ko'ra tarbiya olish MTTda, ya'ni bog'chada boshlanadi. So'ngra esa ta'lim jarayoniga o'tib, maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasasigacha davom etadi. Maktabda o'rta ta'lim berish boshlanib, oliy ta'lim muassasasida oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni berishgacha bo'lgan jarayonlar kiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'.U.Qurbonova. O'zbekistonda mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimi taraqqiyotining pedagogik omillari. SCIENTIFIC PROGRESS 2022yil. 118 bet

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INTENSIV USULLARNING O'RNI

*Gulamova Dilnoza Nizamitdinovna*

Qarshi shahar 46-maktab, boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Rashidova Madina Azamat qizi*

Qarshi shahar 9-DMTT ingliz tili o'qituvchisi

*Shamatova Gavhar Muradovna*

Qarshi shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi,

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'limda va boshlang'ich ta'limda bilim olayotgan o'quvchilarni o'qitishda bilim olish darajasi oshishi uchun har tomonlama imkoniyatlarni hisobga olish kerak. Bunda ularning qobiliyati, bilim olish imkoniyati, darajasi va boshqalar. Ushbu maqolada shu haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** intensiv usul, tez, jadal, qizg'in, serunum, foydali, intensiv metod, boshlang'ich ta'lim.

**Аннотация:** При обучении учащихся дошкольного и начального образования необходимо учитывать все возможности для повышения уровня обучения. В этом их способности, доступ к образованию, уровень и т. д. Эта статья об этом.

**Ключевые слова:** интенсивный метод, быстрый, интенсивный, интенсивный, сыворотка, полезный, интенсивный метод, начальное образование.

**Annotation:** It is necessary to take into account all possibilities for the increase in the level of learning in the education of students in pre-school education and primary education. In this, their ability, access to education, level, etc. This article is about that.

**Keywords:** intensive method, fast, intensive, intensive, serunum, useful, intensive method, primary education.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim, ya'ni bog'chada hamda boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga yetuk mutaxassislar va pedagog-o'qituvchilar tomonidan bilim berilmoqda. Ularning yetarli darajada bilim olishi uchun barcha usul va metodlardan foydalanilmoqda. Shu bilan birga o'quvchilarning bilim olish imkoniyati va darajasi ham inobatga olinadi.

O'quvchilarga ta'lim berish jarayonida bir nechta intensiv usul va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Intensiv usul haqida gapirishdan avval intensiv so'zining ma'nosiga to'xtalib o'tmoq lozim. Intensiv so'zining ma'nosi bu — tez, jadal, qizg'in, serunum, foydali degan ma'nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, intensiv usul bu tezkor usul, foydali usul ma'nolarini bildiradi.

Boshlang'ich sinflarga asosan harflarni va raqamlarni tanishtirish hamda ularni yozishni, hisoblashni o'rgatish amalga oshiriladi. Chunki, o'quvchi boshlang'ich sinfda harflarni va raqamlarni tanisa, keyinchalik yoshi ulg'ayish davomida oladigan bilimlari uchun fundament, boshlang'ich vazifasini o'taydi. Bu borada bir nechta intensiv usullar mavjud bo'lib, bunday usullardan birini tahlil qilib ko'ramiz. Aytaylik, o'quvchilarga hisoblashni o'rgatish kerak. Endigina maktabga yoki bog'chaga borayotgan bola uchun matematika va hisoblash amallarining hech qanday qizig'i yo'q. Demak avval ularning qiziqishini uyg'otish kerak hamda hisoblashni o'rgatish jarayoni davomida qiziqarli usullardan foydalanib boraverish zarur. Masalan, multfilm qahramonlaridan foydalanishimiz mumkin.

$$2+2=\square$$



1-rasm. Matematik hisoblash jarayoni (2+2ni).

$$1+4=\square$$



2-rasm. Matematik hisoblash jarayoni (1+4ni).

$$3-1=\square$$



Boshlang'ich sinflarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan yana bir qancha intensiv usul va metodlar mavjud. Ularning qay birini qo'llash muhim emas. Eng muhimi bu usullarning ta'lim jarayoniga foyda bera olishi hisoblanadi.

Ta'lim muassasalari ichida maktab eng birinchi ilm va bilim beruvchi dargoh hisoblanadi. U yerda har bir kishi fundament, muhim va dastlabki bilimlarni o'rganadi. Bu bilimlar keyinchalik oladigan ilmlar va kelajakdagi ishlari uchun tayanch vazifasini o'taydi. Bola maktab davrida dastlabki bilim va ko'nikmalarni chuqur egallasa, bu narsa keyinchalik uning hayotida juda yaxshi asqotadi.

Hozirgi XXI asr — Axborot texnologiyalari asrida barcha joylarda, ishxonalarda, tashkilotlarda, bozorlarda, do'konlarda, shuningdek, maktablarda ham kompyuterlar mavjuddir. Bu esa maktablarda dars jarayonlarini olib borishda kompyuterdan foydalanishni, ya'ni maktablarda raqamli texnologiyalarni joriy etishni amalga oshirishda ancha yordam beradi [1].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimining nafaqat maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida, balki boshqa ko'plab bosqichlarida ham ta'lim jarayoniga ijobiy natija bera oladigan intensiv usullarni qo'llash zarurdir. Hozirgi XXI asr axborot texnologiyalari asrida asosan axborot texnologiyalariga bog'liq bo'lgan untensiv usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlodning axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, telefon va OAVga bo'lgan qiziqishi juda katta. Shu bilan birga bunday texnologiyalarning o'quvchilar ongiga kirib borishdagi ahamiyati ulkandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sunatov J.T. Maktablarda raqamli texnologiyalarni joriy etish. “Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023.

### **V-SHU'BA: NATIJAGA YO'NALTIRILGAN UZLUKSIZ TA'LIMNI JORIY ETISH TENDENSIYALARI**

#### **RAHBARNING PEDAGOGIK JAMOA A'ZOLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATI**

Yu.G'. Mahmudov,  
Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori;  
A. Eshqoraev,  
Termiz muhandislik texnologiya instituti katta o'qituvchisi.

**Annotasiya.** Maqolada rahbarning pedagogik jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabati ijobiy bo'lish uchun har qanday rahbar boshqaruvning tajribasi asosidagi tavsiyalarga amal qilishi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, jamoa, qadr-qimmat, munosabat, faoliyat, ta'sir, muvaffaqiyat, e'tibor, sabr, rig'batlantirish, jiddiy, xavotir, tanqid, samimiy, tajriba, yutuq.

#### **ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ РУКОВОДИТЕЛЯ С ЧЛЕНАМИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СООБЩЕСТВА**

**Ю.Г. Махмудов, профессор Термезского государственного университета,  
доктор педагогических наук;  
А. Эшкораев, старший преподаватель Термезского инженерно-технологического института.**

**Аннотация.** В статье поясняется, что для того, чтобы взаимодействие руководителя с членами педагогического коллектива было позитивным, любой руководитель должен следовать рекомендациям, основанным на опыте руководства.

**Ключевые слова:** лидер, команда, достоинство, отношение, активность, влияние, успех, внимание, терпение, мотивация, серьезность, беспокойство, критика, искренность, опыт, достижение.

## INTERACTION OF THE LEADER WITH MEMBERS OF THE TEACHING COMMUNITY

**Yu.G. Makhmudov, professor of Termez State University, Doctor of Pedagogical Sciences;**

**A. Eshkoraev, senior lecturer at Termez Engineering and Technology Institute.**

**Annotation.** The article explains that in order for the leader's interaction with members of the teaching staff to be positive, any leader must follow recommendations based on management experience.

**Key words:** leader, team, dignity, attitude, activity, influence, success, attention, patience, motivation, seriousness, anxiety, criticism, sincerity, experience, achievement.

Har bir jamoa a'zosining shaxsiy qadr-qimmati – rahbar uchun daxlsiz. O'zaro munosabatlarda jamoa a'zolari shaxsiyatiga biron-bir ehtiyojsizlikka yo'l qo'yish, uning fuqarolik huquqini cheklash mumkin emas. Qadr – o'z insonlik sha'nini tan olish.

Rahbar va pedagogik jamoa a'zolari o'rtasidagi rasmiy, norasmiy munosabatlarning mustahkamligi pedagogik jamoa a'zolarining birgalikdagi mehnat faoliyatidan qanchalik darajada ma'naviy qoniqish hosil qilishlariga bog'liq. Agar ular o'ziga nisbatan adolatli va to'g'ri munosabat mavjudligiga ishonqiramasalar, unda bu ularning o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir etadi. Oqibatda rahbar o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Pirovard natijada, rahbar nizolar, kelishmovchiliklarni chetlab o'ta olmaydi.

Pedagogik jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabat ijobiy bo'lishi uchun har qanday rahbar, shu jumladan, ta'lim sohasidagi, boshqaruvning jahon tajribasi asosidagi quyidagicha tavsiyalarga amal qilishi maqsadga muvofiq: *Хар бир ишда адолатли бўлиш*. Сизни яхши бўлганлигингиз ёки жазодан кўркқанлигингиз учун эмас, балки ҳар иккиси ҳам адолатли тақсимлангани учун ҳурмат қиладилар.

1. Xodimlarga e'tiborli bo'lish. Ular bilan samimiy qiziqing. Ular haqida iloji boricha ko'proq bilishga harakat qiling: oilasi, qiziqishi, muammolari va h.k. qiyin daqiqalarda ularga yordam qo'lini cho'zing, qo'llab-quvvatlang.

2. Pedagogik jamoa a'zolari bilan muloqotda voizlik qilishdan saqlanish. Sabrli tinglovchi bo'lish. Boshqalarni o'zi haqida so'zlashga rag'batlantirish. Yodda tuting, inson uchun o'z nomining yangrashi inson nutqi tovushlari ichida eng yoqimli va muhim sadodir.

3. Sertabassum bo'lish. Sizning jiddiyligingiz atrofdagilarni xavotirga soladi va nari itaradi.

4. Tanqidda juda xushyor bo'lish. Pedagogik jamoa a'zosining dilini og'ritmang. Tanqid qilishdan oldin unga o'z kamchiligini aytishdan tortinmang. Pedagogik jamoa a'zolariga o'z xatolarini tushuntirishda pardali qilib, muloyimlik bilan munosabatda bo'ling.

5. Inonni har safar, garchi ozgina yutuqqa erishgan bo'lsa-da, tez-tez maqtab turish. Pedagogik jamoa a'zosining xatosi va adashishligini ta'kidlashga to'g'ri kelgan hollarda, Siz uning yutuqlarini ko'rsatishdan va afzalliklarini samimiy tan olishdan boshlang.

6. Hech kimga buyruq ohangi yoqmaydi, buni doimo esda tuting. Buyruq berish o'rniga savol berish uslubidan foydalaning. Masalan, "Shunday qiling" o'rniga "Siz nima deb o'ylaysiz, shunday qilsa, yaxshi bo'lsa kerak?"

7. Ko'pincha o'zingizni pedagogik jamoa a'zosining o'rniga qo'yib ko'ring. Muammo va topshiriqqa uning nuqtai nazari bilan qarashga harakat qiling, xodimlar nuqtai



nazari va fikr-mulohazasiga hurmat bilan munosabatda bo'ling. Shunday qilingki, bo'ysunuvchi uchun sizning aytganingizni bajarish malol kelmasin.

8. Jamoa a'zolariga nisbatan murabbiylik vazifasini bajaring. Ularning qobiliyatini rivojlantiring va murakkab masalalarni birgalikda muhokama qiling.

9. Vakolat, mas'uliyat doirasini, ishlab chiqarishdan kutilayotgan natijalarni aniq tavsiflang. Ikki tomonlama aloqa va o'z pedagogik jamoa a'zolaringiz ma'lumotlaridan foydalaning.

### **Адабиётлар**

1. Ахлидинов Р. Ш. Система управления образовательным учреждением. - Ташкент: Укитувчи, 2002.

2. Миркасымов М. А. Работа по повышению квалификации и переквалификации педагогических работников. -Ташкент: Узбекистан, 1992.

## **MUHAMMAD ISMOIL SHE'RIYATIDA TUYG'ULAR REALIZMI**

Otajon NOROV,  
Qashqadaryo viloyat PYAMO'MM  
tillarni o'qitish metodikasi  
kafedrasini mudiri, dotsent.

**Аннотасија:** Mazkur maqolada M. Ismoil she'riyatning shakliy-uslubiy, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Jumladan, XX asr intihosi va yangi asr ostonasida yuzaga kelgan badiiy tafakkurdagi misli ko'rilmagan o'zgarishlar falsafiy qamrov darajasini tubdan isloh qilish imkonini berdi. Natijada she'r va shoirlik ulkan masala, mas'uliyat ekanligi borasida atroflicha mushohada yuritildi.

**Kalit so'zlar:** so'z, ruh, poetika, moddiyat, falsafa, struktura, axloq, kompozitsiya, kechinma.

She'r va shaxsiyat uyg'un bo'lgandagina haqiqiy ijodga aylanadi. Chunki shaxs she'rsiz butun bo'lmaganidek, she'r ham shaxssiz kemptikdir. Keyingi yillar she'riyati mavzularini kuzatar ekanmiz, xayolimizni bitta narsa band etadi: chinakam ijodkor uchun hamma eshiklar ochiq, faqat mardona ijod qilish malakasini egallagan bo'lsin. Ana shunday tiniq tuyg'ulari, hikoyalari, qissa-yu, qo'shiqlari bilan el dardini kuylab, o'ziga xos o'rin egallagan, o'zining o'quvchilarini topgan asarlar yaratgan Muhammad Ismoilni e'tirof etish mumkin. Odam davrning farzandi bo'lgani kabi, she'r ham davrning bir o'zi sanaladi. Ayniqsa, u o'z tabiatiga ko'ra sadoqatda bo'lsa. Muhammad Ismoil lirikasida ikki xususiyat e'tiborga sazovordir.

1. Iymon va vatanarvarlik haqidagi manzumalar. 2. Muhabbat va tabiat haqidagi manzumalar. Bular bir-biriga juda tafovutdir. Aynan shoirning o'zi ta'kidlaganidek, kim va nima haqida yozsa "yurakdan o'tkazib, iztirob va og'riqlarni his qilib" yozadi. She'r va shoirlik haqida mulohaza yuritgan adabiyotshunos N. Jabborov yozganidek: "Men kuchliroq sev" to'plamidagi she'rlarida ruh ifodasi kuchli ekani kuzatiladi"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, asl she'r sog'inchi barchamizni hamma vaqt, har zamonda o'ziga ohanrabodek mahliyo etishi turgan gap. Biz tadqiq qilayotganimiz M. Ismoilning she'rlarida tuyg'ular realizmini o'rganish bosh maqsadimiz sanaladi. Xo'sh, tuyg'usiz she'r, tuyg'usiz ilhom, tuyg'usiz kechinma bo'lishi mumkinmi? Yo'q! Chunki har qanday ilhom tuyg'u shalolasi orqali yuzaga chiqadi. Bu bir xil kehadigan biologik jarayon emas. Bu psixologik jarayon hamdir. Aytish joiz, M. Ismoil lirikasida iymon, bo'lganda ham katta e'tiqod, iymonli e'tiqod mavzulari, achchiq va iztirobli kechinmalar, o'tkir falsafiy-estetik mushohadalar negizida she'r bo'lib jaranglaydi. Bunga quyidagi "Rafiqamga" nomli she'rida hayot atalmish sirlı jumboqning pastu balandlarini o'z yuragidan o'tkazib, yozganligini shohidi bo'ldik:

So'z olami kengdir, yonmasang berkdir,  
Har bir so'z olovda, jonim garovda.

<sup>1</sup>Jabborov N. Замон, мезон, шеърят. –Т., "Ф.Ғуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", -Б. 26.

Tangrim, shoirlik bu – isyon va erkdir,  
Iymondir, bu – umr degan sarobda.  
Kimdir qasr qurdi, kim bo‘ldi dongdor  
Kimnidir ko‘ksida tangaday nishon.  
Ko‘ylak keltirsam gar, sevma – dedim yor,  
– Sevgi ramzi emas, bermoq oshu non<sup>2</sup>.

Shoir so‘zning olam bepayon ekanligini ta’kidlarkan, uning zamirida faqat olov kabi yonish, to‘lg‘onish, o‘zini, o‘zligini tanish bilan, o‘ziga yo‘l topish lozimligini ta’kidlamoqda. Binobarin, “*Tangrim, shoirlik bu – isyon va erkdir*” misrasida ko‘ngil cheksizlikka talpinishi, uning jamiki iqtidori Yaratganni tanish, unga chindan e’tiqod qo‘yish, iymon bilan yashashga o‘rganish, o‘rgatish to‘g‘risida ichki hasratlarini o‘rtoqlashmoqda. She’rning nomi “Rafiqamga” deb qo‘yilgani bilan u yerda obrazlilik ko‘ngilning istaklari – uyda ham, ko‘chada ham mukammallikni sog‘inishi, o‘z hayot yo‘lida halol bayroq ostida adolatli yashashni shiorga aylantirish chindan ham istayotganini his qilish qiyin emas. Axir, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, **“har bir kuningiz adolatga tayanib, adolat bilan yashash, halol va pok umr kechirish”** lozimligi kunimizda har birimizga kuchu g‘ayrat bag‘ishlamoqda emasmi?

Abu Ali ibn Sino she’riyat haqida to‘xtalarkan: “Yunonlar o‘zlarining muayyan bir istaklarini she’r bilan ifodalashga intilganlar. Ular har bir maqsadni alohida-alohida vazn bilan chegaralaganlar. Ana shunday she’r turlarining birini tragediya deb ataydilar. Uning go‘zal va yoqimli vazni bor, u o‘zida yaxshilik va yaxshi odamlar bilan insoniy fazilatlarni qamrab olgan bo‘lib, unda o‘shalar kuylanadi. Bu barcha tavsiflarning ustiga ustak boshliq bo‘rttirilib madh etilishi nazarda tutiladi”<sup>3</sup>. Ko‘rinadiki, buyuk tabobat ilmi bilimdoni bo‘lishi bilan bir qatorda ruhiyat kashshofi hamdir. Uning bu mulohazalari asrlar davomida bizga ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

V.G.Belinskiy she’riyatning 4 ta buyuk cho‘qqisi haqidagi gapirganda, albatta, Pushkinni rus she’riyatiga bergan asosiy sabab ijtimoiy-falsafiy-madaniy-siyosiy hayot tarzimidir, deya yuksak baho beradi. Bizning adabiyotimizda Cho‘lpon, Oybek,, G‘.G‘ulom avlodidan keyin E.Vohidov, A.Oripovlarning har biri o‘ziga xos cho‘qqilarni zabt etdi. She’riyat atalmish bebaho, betimsol mamlakatni o‘z ovozi bilan taraqqiy toptirdi, gullatdi, yashnatdi, tarixiy hodisaga aylanib ketishiga erishdilar. Bular keyingi avlod hayotida chuqur iz qoldirdi va buning natijasida M.Ismoil kabi shoirlar maydonga chiqishiga turtki bo‘ldilar. Axir, har qanday iste’dod – o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi mustahakam, irodali ko‘prikdir. Busiz hayot kemtik va rangsizdir. M.Ismoil lirikasida tuyg‘ularning haqqoniy, samimiy ifodasi yorqin poetik obrazlarda suratlanganini zamonning o‘zi bugun isbotlab bermoqda.

Men tadqiqotchi sifatida keyingi o‘n-o‘n besh yillik she’riyat mundarijasi bilan yaqindan tanishib chiqdim. Har bir yangi nomni tahlil qilib ko‘rganimda o‘ziga xos usul va ovozga, poetik mahoratga, tuyg‘uni chinakam she’r darajasiga olib chiqishga bo‘lgan izlanishlarini topdim. M.Ismoil real hayot manzaralarini suratlar ekan, Vatan, oila, sadoqat, muhabbat, Vatanparvarlik kabi o‘lmas, abadiy mavzularni she’rga solganini angladim. Demak, shoir tuyg‘ulari, qalbi nedandir bezovta: iztirob shaksiz Vatanni obod ko‘rishlikda, va, boshqalarni ham milliy tuyg‘ularni teran idrok tarozusida bilib olishga chaqiriq “Iqror” manzumasida qabarib ko‘rinadi:

Ayon bo‘ldi barchasi,  
Ne bor, bari ilohiy.  
Dil ilohning sharpasi,  
Oyat singari oliy.  
Qaro g‘amdan tolganda,  
So‘nggi umid cheksa “oh”.  
Oyni ko‘rib qolganda,

---

<sup>2</sup>Исmoil M. Мени кучлирок сев. –Т., “Шарк”. 2012. –Б. 56.

<sup>3</sup>Абу Али ибн Сино. Шеър хақида умумий тушунча, шеърлий форма ҳамда юнон шеър навлари хақида.

Манба: [www.e-adabiyot.uz/](http://www.e-adabiyot.uz/)

Dersan: – “Yaratgan Olloh”<sup>4</sup>.

Men bunday o'tlig' satrlarni keyingi yillar she'riyati manzaralarida noyob hodisa ekanligini shohidi bo'ldim. Dunyoni bilishga shoshilgan qalblargina yuqoridagi “iqror”ga ro'baro' keladi. Shoir neki mo'jiza bor, barchasi ilohiy demoqda. Aytish joiz, Oyat singari oliy kechinma faqat ko'ngildagina mavj urishini bot-bot ta'qidlaydi. Shoir nazdida Oyni yaratgan Alloh taolo barchasining “ustasi” ekanini uqtiradi. Bu teran tuyg'ular kashfidan dillarimiz poklanadi. Yaratganga yanada shukrona keltirib yashashimizga yo'l ochadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni xohlardimki, Muhammad Ismoil lirikasida mudomi qalb dialektikasi yaqqol bo'y ko'rsatadi. Ayniqsa, iymon va e'tiqod maslagi bir bo'lgan Shaxslargina adabiyotda o'z so'zi va o'rniga ega. Bir paytlar she'rni qanday yozish kerakligi xususida bosh qotirgan ijodkor, bugun she'rni qanday tushunish mumkinligini ham bizga o'rgatmoqda. E'tiborlisi, vaqt oliy hakam, uni o'z qonunlari bor. Biz taxmin va istaklar ketidan biron baland so'z aytish ham nisbiydir. Zero, shoir so'zi o'zi kabi to'g'ri, o'zi kabi halol, o'zi kabi ohanrabodir.

### Adabiyotlar

1. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. –T., “G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti”, -B. 26.

2. Ismoil M. Meni kuchliroq sev. –T., “Sharq”. 2012. –B. 56.

3. Abu Ali ibn Sino. She'r haqida umumiy tushuncha, she'riy forma hamda yunon she'r navlari haqida. Manba: [www.e-adabiyot.uz/](http://www.e-adabiyot.uz/)

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMI KASBIY MULOQOTINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ю.Ф. Махмудов,

TerDU professori, pedagogika fanlari doktori;

Dj.X. Allayorov,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi jamoat tartibini saqlash bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

**Аннотасија.** Мақоллада ички ишлар органи ходими касбий мулоқотининг психологик жиҳатлари солиштириши, тahlil, синтез, мавҳумлаш, умумлаштириш каби услублар асосида йоритилган.

**Калит со'злар:** мантиқ, со'з, нутқ, фаoliyat, услуб, маъмуни, buyum, narsa, hodisa, voqea, fikr, солиштириш, синтез, jarayon, xususiyat, fikr, isbot, ishontirish.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Ю.Г. Махмудов, профессор ТерГУ, доктор педагогических наук;

Дж.Х. Аллаёров, начальник отдела общественного порядка Управления координации внутренних дел Яккасарайского района города Ташкента, подполковник.

**Аннотасија.** В статье описаны психологические аспекты профессионального общения сотрудника органа внутренних дел на основе таких методов, как сравнение, анализ, синтез, абстрагирование, обобщение.

Ключевые слова: логика, слово, речь, деятельность, стиль, содержание, предмет, вещь, событие, событие, мысль, сравнение, синтез, процесс, особенность, мысль, доказательство, убеждение.

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL COMMUNICATION OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

<sup>4</sup>Исmoil M. Мени кучлироқ сев. –Т., “Шарқ”. 2012. –Б. 56.

Yu.G. Makhmudov, professor at TerSU, Doctor of Pedagogical Sciences;  
Dj.H. Allayorov, head of the public order department of the Department for  
Coordination of Internal Affairs of the Yakkasaray district of Tashkent, lieutenant colonel.

**Annotation.** The article describes the psychological aspects of professional communication of an internal affairs officer based on methods such as comparison, analysis, synthesis, abstraction, generalization.

**Key words:** logic, word, speech, activity, style, content, subject, thing, event, event, thought, comparison, synthesis, process, feature, thought, proof, belief.

Ichki ishlar organlari xodimlarining nutqida har bir soʻz mantiqan asoslangan taqdirdagina, uning ta'siri boʻladi. Nutqni toʻgʻri ifodalash uchun fikrlar aniq, ketma-ket izchil boʻlishi lozim. Mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, mujmal gaplar boʻlmasligi kerak.

Ichki ishlar organlari xodimlarining mantiqiy fikrlash uslublariga solishtirish, tahlil, sintez, mavhumlash, umumlashtirish kabilarni kiritish mumkin va ularning nutq faoliyatini toʻgʻri tashkil etishdagi oʻrni muhim ahamiyatga ega.

**Solishtirish** – bu uslub yordamida xodim taqqoslanadigan buyum, narsa, hodisalar va voqea haqidagi fikrlar uchun muhim ahamiyatli boʻlgan belgilariga qarab amalga oshiriladi.

**Tahlil** - shunday bir mantiqiy uslubdirki, uning yordami bilan xodim ishga tegishli buyumlarni, hodisalarni, voqea va jarayonlarning fikran qismlarga boʻlib, xususiyatlarini va muhim belgilarini ajratadi.

**Sintez** – tahlil bilan boʻlingan qismlarni shu uslub yordamida fikran birlashtiriladi va bir butun holga keltiriladi.

**Mavhumlash** – bu uslub yordamida xodim ishga tegishli narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning muhim xususiyatlarini fikran qismlarga ajratadi va ikkinchi darajali xususiyatlardan chetlashtiradi.

**Umumlashtirish** – mazkur uslub yordamida xodim ishga tegishli jinsdosh narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning umumiy xususiyatlarini fikran birlashtiradi.

Ushbu uslublardan unumli foydalangan holda fikr yuritish xar bir xodimni oʻz soha yoʻnalishida olib borayotgan xizmatini toʻgʻri tashkil etishi va oʻz fikr mulohazalarini mantiqan izchil bayon etishiga asos boʻladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari fuqarolar bilan tushuntirish ishlari olib borishda quyidagi uslublardan foydalanishlari maqsadga muvofiq:

1. **Koʻrsatish** – bevosita idrok etilayotgan predmet bilan tanishuvning eng sodda usuli. Xodim oʻz nutqini koʻzgazmali qurol asosida olib borganda, fikrini fuqarolar ongiga chuqur etib borishiga erishadi. Masalan, yoʻl patrul xizmati xodimlari, yongʻin xavfsizligi, profilaktika noziri va boshqa xizmat xodimlari fuqarolarga u yoki bu masalada tushuntirish ishlari olib borishida koʻrgazmalilik uslubidan foydalanishi maqsadga muvofiq.

2. **Tasvirlash** – xodim fikr yuritayotgan u yoki bu voqeaning belgilarini birma-bir sanab koʻrsatishidan iborat boʻlib, u sodir etilgan jinoyat tafsilotlarini toʻgʻri tahlil qilishiga yordam beradi.

3. **Aqliy xulosa** – bu usul yordamida u yoki bu xildagi muhokamalardan xulosa chiqariladi. Ma'lumki, aqliy xulosaning uchta turi bor: deduktiv, induktiv va analogiya.

Deduktiv xulosada fikr umumiydan xususiyya qarab rivojlanadi: induktiv xulosada esa fikr xususiyyan umumiylikka qarab boradi: analogik xulosada fikr xususiyyan xususiyya qarab boradi. Mazkur xulosa chiqarish uslublari tergovchi uchun jinoyat ishini ochishda tasmol (taxmin)lar qoʻyishda muhim hisoblanadi.

4. **Isbot, ishontirish, dalillash**, – har bir fikrning muhim belgisi. Har qanday mantiqiy dalil uch qismdan iborat boʻladi: tezis, asoslar (dalillar yoki sabablar), muhokama.

Isbot tezisining haqiqatligini asoslab berish uchun bir qancha zarur qoidalarga rioya etish zarur:

- tezis aniq va ravshan ta'riflangan bo'lmog'i lozim;
- isbotning boshidan oxirigacha tezis aynan birday bo'lishi kerak;
- tezisni mustahkamlash uchun keltirilgan dalillar shubhadan holi, chin dalillar bo'lishi

shart;

- dalillar tezis uchun etarli asos bo'lishi kerak;
- dalillar rostligidan qat'i nazar, mustahkam sur'atda qayd etilishi zarur.

Ushbu mantiqiy va psixologik qoidalarni bilish har bir ichki ishlar organlari xodimlari uchun zaruriy element bo'lib hisoblanadi. Buni egallash uchun esa til, ya'ni grammatika qoidalarini, mantiq va psixologiya fanlarini yaxshi bilish lozim.

Ichki ishlar organlari xodimlarining jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurash ishlarini amalga oshirishda turli kasb egalari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi, ularning o'zaro bir-birlari bilan bog'liq ekanligi mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi. Shu sababli ichki ishlar organlari xodimlarining muomalasi, nutqi turli soha kasb egalari va guruhlariga qarab ularga mo'ljallab tashkil etilishi, tuzilishi lozim

### **Adabiyotlar**

1. Ахлидинов Р. Ш. Система управления образовательным учреждением. - Ташкент: Укитувчи, 2002.

2. Миркасымов М. А. Работа по повышению квалификации и переквалификации педагогических работников. -Ташкент: Узбекистан, 1992.

## **AMALIY AHAMIYATGA EGA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR MASALALARINI YECHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

N.Dilmuradov

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi professori

X.U.Chuyanov

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

Hozirgi zamonaviy sharoitda differensial tenglamalar kursini o'rganishda nazariy material murakkablashishi bilan birga amaliy mazmundagi masalalarning murakkablik darajasi oshib borish barobarida ba'zi sohalarda tadbirlari ko'p ko'zatiladi. Bu borada talabalarga birinchi va ikkinchi tartibli differensial tenglamalarning deyarli har bir turi uchun ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda amaliy ahamiyatga ega masalalarni yechish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilib, mustaqil fikr yuritish va izlanish takliflari beriladi.

Amaliy mazmundagi masalalardan foydalanish, shubhasiz talabalarni "Differensial tenglamalar" modulini o'rganishga bo'lgan qiziqishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki talabalar fan sohasida o'rganilayotgan tushunchalarning vizual ko'rinishini ko'rsatish natijasida, ularning mavzuni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va bu "Differensial tenglamalar" modulini o'rganishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jahonda o'qitishning yangi masofadan o'qitish shaklida ta'lim jarayonini tashkil etish o'qituvchi ma'ruzalarning nazariy va amaliy resurslari mazmunini sinchkovlik bilan tanlashi, uni ixcham, lekin ayni paytda tushunarli bo'lishini, bu ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda raqamli texnologiyalarning ajralmas qismlarini vosita sifatida foydalanishni talab etadi.

Bu masalalarni talabalarining o'zi odatiy usullarda yechganda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi va ko'p vaqt sarflaydi. Raqamli texnologiyalar tizimidan foydalanganda yechim oson va kam vaqt sarflangan holda topiladi. Bu esa kompyuter va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish bilan bir qatorda talabalarining raqamli kompetentligi shakllanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikr va masalalardan ma'lum bo'ldiki, har bir o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'limni loyihalash bosqichida amalga oshirilayotgan

vazifalar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga imkoniyat yaratadi degan xulosaga kelish mumkin.

Ta'lim jarayonini raqamli texnologiya asosida loyihalashda har bir holatlarni puxta bajarilishi sifatli ta'lim berish va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishni kafolatlaydi.

Amaldagi raqamli resurslar talabaga auditoriyadan tashqarida ta'lim olishga imkon beradi, shu bilan birga, oddiy bilim manbasidan axborot-ta'lim muhiti asosiga o'tish va uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq yangi didaktik funksiyalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa ochiq faoliyatga asoslangan raqamlashtirilgan ta'lim hisoblanadi.

Differensial tenglamalar fanidan ma'lum bir mavzu bo'yicha asosiy ma'lumot materialini tushuntirishga turli xil yondashuvlar (misollar bilan matnlar, asosiy materialni tavsiflovchi kitob, o'qituvchining audio tushuntirishlari hamda video resurs) yordamida amalga oshirish mumkin;

Rivojlanish xarakteriga ega bo'lgan turli xil vazifalar bilan turli metodlarni tanlash, masalan "Ta'lim faoliyatidagi motivatsiyaviy bosqich", "Bilimlarni yangilash va sinovdagi o'quv harakatlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish" "Kashfiyot"larni yaratishga imkon beradi. O'qitish texnologiyasi, o'quv-uslubiy majmua, raqamli ta'lim resurslari oliy matematika fani "Differensial tenglamalar" modulidagi mavzularni qamrab olishida quyidagi vazifalarni bajarish muhim hisoblanadi:

raqamli ta'lim muhiti bilan bog'liq modelni tanlash va uning ma'lum bir mavzu bo'yicha matematikani o'qitishdagi afzalliklarini asoslash;

fan, meta-mavzu va shaxsiy ta'lim natijalarini belgilashga muvofiq o'quv mashg'uloti turini belgilash;

talabalarni guruhlarga ajratish va har bir guruhni tanlashni asoslash. O'quv mashg'ulotining bosqichlariga muvofiq har bir guruh uchun aniq topshiriqni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar yozish;

o'quv mashg'ulotida kutilayotgan natijani aniqlash mezonlari asosida baholash;

asosiy mazmun bo'yicha guruhda ishlash va yakuniy vazifani bajarish topshiriqlar tuzish;

o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini tuzish va o'qitishning har bir bosqichi va undagi baholash tizimini batafsil tavsiflash bilan modul mavzularini qamrab olinishi shu bilan birgalikda raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda mavzular yuzasidan bilimni shakllanishiga bir omil bo'lib, ularning mazmunini chuqurroq tushunishiga va kasbiy faoliyatida ham amaliy ko'nikma bo'ladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Dilmurodov N., Chuyanov X.U. "Maple tizimi yordamida transsendent tenglamalarni tekshirish" FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy- uslubiy jurnal 6-son 2021.

2. Chuyanov X.U. "Differensial tenglamalarini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida yechish metodikasi", Муг'аллим һәм узликсиз билимлендирио' илмий методологик журнал. № 2- 2022 йил.

3. Баракаев М. ва б. Замонавийлашув шароитида математика фанини ўқитиш технологиялари (Умумтаълим мактаблари ўқитувчилари учун методик қўлланма) - Т.:, 2017 йил, "Зухра Барака бизнес" МЧЖ босмахонаси, 130 бет.

4. Chuyanov X.U. "Differensial tenglamalar modulini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning matematik va kompyuter kompetensiyalar integratsiyasi" nomli maqola, "Pedagogik innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari:muammolar va yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani Jizzax shahri, 2022 yil 5-oktabr.

5. Dilmurodov N., Chuyanov X.U. Differensial tenglamalarga oid masalalarni yechishda maple dasturiy ta'minotining imkoniyatlari. "Aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llash: xalqaro tajribalar, rivojlanish strategiyalari, intensiv usul va vositalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi 2023-yil 26-aprel

6. Chuyanov X.U. "Raqamli texnologiyalar asosida oliy matematika fanining oddiy differensial tenglamalar modulini o'qitish metodikasi" Elektron ta'lim jurnal. Navoiy 2023 iyun.

## UZLUKSIZ TA'LIM YAXLIT MAKONINI MODELLASHTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

*Umarov Lutfillo Murodilloyevich Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni YMO 'MM  
"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus fanlar" kafedrasida dotsenti (PhD).*

*E-mail: [umarovlutfulla275@gmail.com](mailto:umarovlutfulla275@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy ta'limning mohiyatini ko'rib chiqishda muallif yangi tushunchalarning hosil bo'lishi; hosila tushunchalarni aniqlash, farazni ilgari surish va asoslash; muallif tomonidan ilmiy-nazariy va amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning integratsiyalashgan tizimi sifatida ko'rilgan uzluksiz kasbiy ta'lim rivojlanishi tamoyillarini belgilashga tayangan. Nazariy tadqiqotning pirovard maqsadi tushunchalarning yagona konseptual tizimini aniqlash va yaratishdan iborat bo'lib, uning yordamida uzluksiz kasbiy ta'limning yaxlit makonini pedagogik modellashtirish amalga oshirilganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirishning tanlangan nazariy-metodologik asoslari shaxsning madaniy-ta'limiy makonda ko'p o'lchovli harakatini ta'minlaydi va bunday harakat uchun optimal shart-sharoitlar yaratadi. Tizim tashkil qiluvchi omil bo'lib uzluksiz kasbiy ta'lim makonining yaxlitligi hamda modellashtirilayotgan makonda quyi tizimlar va jarayonlarning integratsiyasi hisoblanadi. Bularni A.N. Nyudyurmagedovning uzluksiz pedagogik ta'lim misolidagi tadqiqoti tasdiqlaydi, bunday ta'lim asosini muallif «...OTMdan oldingi, OTMda va OTMdan keyingi pedagogik ta'limdagi uzluksiz va dinamik jarayonlar» tashkil qiladi deb belgilagan.

«Uzluksiz kasbiy ta'lim» tushunchasi polisemantik tushuncha sifatida tadqiq qilingan, uning mazmuni quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- qamrovi bo'yicha keng qamrovli, vaqt bo'yicha individuallashgan, sur'atlari va yo'nalganligi bo'yicha har bir talabaga o'z ta'lim trayektoriyasini amalga oshirish imkonini beradigan ta'lim (mazmunli yondashuv);

talabaga ta'lim olish texnologiyasini tanlash imkoniyatini beradigan ta'lim olish texnologiyasi (protessual yondashuv);

- umumiy maqsadlar va vazifalar bilan birlashgan, mazmuni integratsiyalashgan va uning innovatsiyalarga qaratilganligi, uzluksiz ta'lim texnologiyalari tamoyillariga muvofiq qurilgan turli darajadagi vorisiylikka asoslangan kasbiy ta'lim dasturlari va ta'lim standartlari tizimi (tizimli yondashuv);

shaxsning ta'limiy ehtiyojlarining rivojlanishi yo'nalishini ochib beradigan va shaxs rivojlanishiga qaratilgan yaxlit tizimni amalga oshiradigan ijtimoiy institut sifatida ta'limga yangi metodologik yondashuvni aks ettiradigan ijtimoiy-pedagogik kategoriya.

Tadqiqot mantig'ida turli ta'lim shakllarida turli ta'limning daraja va yo'nalishlarda uzluksiz parallel yoki ketma-ketlikda kasbiy ta'lim olish ochib beriladi, u kasbiy va ta'lim trayektoriyalarini almashtirish, nazariy qoidalar, tushunchalar apparatini, vorisiylik, integratsiyani amalga oshirish texnologiyalarini yangilash va boyitish imkonini yaratadigan uni amalga oshirishning yagona metodologiyasida birlashgan.

Tadqiqot kontekstida uzluksiz kasbiy ta'lim makoni rasmiy (bizning tadqiqotda) ta'lim bilan birga amalga oshadigan formal (rasmiy), noformal (norasmiy) va informal (standart ta'lim muhitidan tashqaridagi) ta'limning mumkin bo'lgan integratsiyasi sifatida ko'rilgan.

Uzluksiz kasbiy ta'lim yaxlit makonini yaratishga integrativ yondashuvni amalga oshirishda muallif uning afzalliklarini ta'minlaydigan quyidagi majburiy shartlarni aniqlagan:

Ilmiy va kasbiy faoliyatning har xil turlariga kiritish uchun zarur bo'lgan ta'limga ochiq va uzluksiz kirishni kafolatlaydigan asosiy bilim, ko'nikma va malakalarni doimiy ravishda egallash va yangilash uchun integrativ tashkiliy-pedagogik va meyoriy-huquqiy shart-

sharoitlarni yaratish.

Inson resurslariga (talabalar, o'qituvchilar) bilim investitsiyalari hajmini, kasbiy ta'limga bo'lgan talabni va talabalarining intellektual salohiyatini oshiradigan uzluksiz kasbiy ta'limning har qanday bosqichida xavf-xatarsiz kirish va chiqish imkoniyati.

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish metodologiyasini amalga oshirish samaradorligini ta'minlaydigan innovatsion ta'lim foliyatini rivojlantirish.

Talabalarga fuqaroviy mutaxassislikka ega bo'lish individual trayektoriyasini tanlash va oliy ta'lim bilan bir vaqtda yangi malakalarga ega bo'lish imkonini beradigan o'quv-metodik ta'minot mazmunining integratsiyasi.

Pedagogik olib borish (hamkorlik qilish), ustozlik qilish, tyutorlik qo'llab-quvvatlash, maslahat berish va talabalar kasbiy-amaliy faoliyatini amalga oshirish, ta'lim olish imkoniyatlari, ilmiy va kasbiy o'sish to'g'risida erkin ma'lumot olishni ta'minlashga qaratilgan o'qituvchilarning ilmiy-kasbiy, psixologik-pedagogik va kasbiy-sohaviy hamkorligining samaradorligi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim fenomenini tadqiq qilish amaliyotida muallif tomonidan YE.V.Bondarevskaya, V.F.Zeyer, D.M.Mallayev, G.V.Muxammetzyanova, A.M. Novikov, N.K. Sergeev, YE.V. Tkachenkolar ilmiy maktablari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tajribasidan foydalanilgan, ular ilmiy faoliyatining mazmuni integratsiyalashgan bilim va ko'nikma, kasbiy kompetensiyalar va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirish metodologiyasidan iborat. Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirish va uning amal qilishi davomida uning rivojlanish ichki salohiyati to'plangan: vorisiylikka asoslangan innovatsion loyihalar ishlab chiqilgan, talabalarining qadriyatlariga yo'nalganligini faol qayta anglash jarayoni sodir bo'lgan.

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirishning yetakchi nazariy tamoyillari sifatida quyidagilar tanlangan: turli shakllardagi kasbiy (yo'nalish bo'yicha) ta'lim darajalarining integratsiyasini (vorisiylikni) ta'minlaydigan integrativlik tamoyili; turli yo'nalishdagi dasturlar bo'yicha kasbiy ta'lim asosida amalga oshiriladigan to'ldirish tamoyili; talabalar talab qilib oladigan yangi kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan mohirona harakat qilish tamoyili; uzluksiz kasbiy ta'lim yaxlit makonini yaratish imkonini beradigan ta'lim dasturlarining vorisiylik tamoyili.

Integrativlik mutaxassisni tayyorlashning tuzilishi, mazmuni va natijasiining tavsifi sifatida tadqiq qilingan, bu nazariy va amaliy tayyorlashning birligi, ta'limning amalga oshirilayotgan darajalarining mazmuni, shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega kompetensiyalar majmuini shakllantirish, foydalanilayotgan texnologiyalarning integrativ harakterini ta'minlaydigan ta'lim makoni quyi tuzilishlarining bog'langan holatini belgilaydi.

Bunday yondashuv «integratsiya» tushunchasini tadqiq qilinayotgan mavzu kontekstida quyidagicha aniqlash imkonini bergan. Uzluksiz kasbiy ta'lim makoni doirasida integratsiya – bu dialektik jihatdan o'zaro bog'liq va tabaqalashtirilgan jarayon hamda talabani nazariy va amaliy tayyorlash, uning shaxsiy va kasbiy jihatdan shakllanishining tashkiliy tuzilishi, mazmuni, texnologiyalarining umumlashishi darajasi, kompleksligi, yaxlitligi va o'zaro bir-birini shartlab berishining ortishi bilan birga yaratilayotgan makon ishtirokchilarining umumiy pedagogik va metodologik asosda o'zaro boyishining natijasidir. Ushbu ta'rif o'tkazilgan tadqiqot asosida berilgan va ko'rib chiqilayotgan tushunchaning ma'nosini modellashtirilayotgan uzluksiz kasbiy ta'lim makon doirasidan tashqarida to'liq ochib berishga da'vo qilmaydi.

Tanlab olingan tushunchalarga tayanish hozirgi davr sharoitida integratsiya ta'limning barcha darajalarining o'zaro bir-biriga o'tishi va o'zaro bir-birini boyitishini ifodalab, ta'limning xarakteri va mazmunining o'zgarishi, ixtisosliklarning kengayishi va kattalashishi, yangi integratsiyalashgan ixtisosliklar va ularning yiriklashtirilgan guruhlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonini modellashtirishning yetakchi nazariy tamoyillaridan biri insonparvarlashtirish (gumanizatsiya) tamoyili bo'lib, u quyidagilarga asoslangan innovatsion makonni yaratish yo'li bilan shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga



qaratilganligini aks ettiradi:

- yuqori malakali professionalning har tomonlama rivojlangan shaxsini tayyorlashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali mazmuni boyitishga;
- birgaliklikdagi faoliyatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, pedagogik hamkorlik tamoyili va insonparvar munosabatlarni shakllantirishga asoslangan ta'limning natijalaridan talabalarning qoniqishini oshirishga;
- kasbiy, malakaviy va xizmat darajasining (karyeraning) o'sish kafolatlarini ta'minlashga;
- kasbiy ta'limning gumanitarlashishini kengaytirishga.

Insonparvarlashtirish tamoyili kasbiy ta'lim mazmunini gumanitar o'quv fanlar va yo'nalishlarining muayyan majmuasi bilan to'yintirish va shaxs ijtimoiy muhofazasini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi.

Uzluksiz kasbiy ta'lim makonining ochiqligi tamoyili talabalarga quyidagilarni taqdim qiladi: kasbiy ta'limning har qanday bosqichida qo'shimcha dasturlarni o'zlashtirish huquqi; individual ta'lim trayektoriyalarini qurishga rivojlangan subyektiv tayyorlik; kasbiy jihatdan doimiy takomillashishga intilish.

Kasbiy ta'limning meyoriy tavsifi sifatidagi uning standartlashtirilganligi tegishli davlat, idoraviy meyoriy hujjatlarda aks ettirilgan kasbiy tayyorlashning darajasi, mazmuni va sifatiga qo'yilgan talablar va meyorlarni majburiy bajarilishi shart bo'lgan. Ta'lim mazmunining integrativligi va kompetentlik darajasiga talablar uzluksiz kasbiy ta'limning modellashtirilayotgan makonining tizim tashkil qiluvchi omili hisoblangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Jo'rayev R., Yuldashev M., Rahmonqulova N., Bahromov A., Zokirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2014, –160 b.
2. Olimov Q.T. va boshqalar. Kasb ta'limi metodikasi. Darslik. "Fan texnologiyalari nashriyoti". –T.: 2016. 328 b.

### **TALABALARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

Zuhra Choriyeva

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM v.b dotsenti

Zebo Baxtiyorova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti BT 1-kurs talabasi

#### **Annotatsiya**

Maqolada talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyalari masalasi yoritilgan. Bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar hamda ilmiy asoslangan takliflar, ilmiy xulosalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, interfaol ta'lim, mashg'ulot, auditoriya, fasilatator

#### **Аннотация**

В статье освещен вопрос технологий подготовки студентов к инновационной деятельности. Освещены проблемы в этой области и рекомендации по их устранению, а также научно обоснованные предложения, научные выводы.

**Ключевые слова:** образование, интерактивное обучение, тренинг, аудитория, ведущий.

#### **Annotation**

The article covers the issue of technologies for preparing students for innovative activities. Problems in this area and recommendations for their elimination, as well as scientifically based proposals, scientific conclusions are highlighted.

**Key words:** education, interactive learning, training, audience, facilitator

Hozirgi tez rivojlanib borayotgan zamonda yurtimizda turli sohalarda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Ta'lim sohasi ham mustasno emas, albatta. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonini yanada rivojlantirish maqsadida bilimli, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, mehnat bozoridagi raqobatdosh munosabatlarga dosh bera olish bozor munosabatlarida pedagoglardan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish va kasbiy sifatlarni rivojlantirib borish, ta'lim jarayonida kreativ va integratsion yondashuvni amalda qo'llay olish kabi xususiyatlarni talab qiladi. Kompetentlik va integratsiya kabi tushunchalar yurtimizga kirib kelganiga uzoq yillar bo'lmagan bo'lsa-da, ta'lim jarayoniga tez sur'atlarda singib ketishga ulgurdi. Xususan, kompetentlik kutilmagan holatlar, noan'anaviy vaziyatlarda mutaxassislarining o'zini qanday tutishi, ular bilan muloqot olib borishi va munosabatga kirishishi bo'lsa, integratsiya shaxsning integrativ xususiyatlarini, ya'ni egallagan bilimi, ko'nikma, malaka, amaliy tajriba, qobiliyat kabi shaxsiy sifatlarini ifodalaydi. Integrativ yondashuv esa shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashga va uni kuchaytirishga zamin yaratadi.

Yurtimizda tub islohotlar olib borilishi mobaynida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo'li tanlab olindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli qarorida belgilangan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sohasidagi islohotlar davlat prinsiplari asosida olib borilishi, bo'lajak pedagoglarni shakllantirish vazifalari ko'zda tutilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatdosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va shu kabi bir qancha vazifalar ilgari surilgan.

Interfaol ta'lim — talaba shaxsi o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarining o'quv muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq holda o'rganish jarayonidir. To'laqonli interfaol o'qitishda uning ishtirokchilari jismoniy va ijtimoiy faol bo'lib, bilish jarayonida qatnashadilar. Interfaol ta'lim jarayonida talabalarning jismoniy faolliklari, joy almashtirish, yozish, eshitish, sxema chizishda, to'ldirishda; ijtimoiy faolliklari savol berishda, javob berishda, fikr almashishda; bilish jarayoni o'qituvchi bayoniga qo'shimcha kiritishlari, muammolar yechimini topishlarida namoyon bo'ladi.

Interfaol o'qitish bir vaqtda uchta vazifani bajaradi:

birinchidan, o'quv jarayonidagi holat va o'quv axborotini o'zlashtirish bilan bog'liq bilish faoliyatini tashkil etish;

ikkinchidan, auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish bilan kommunikativ xususiyatlarni rivojlantirish;

uchinchidan, jamiyatda yashash uchun kerak bo'ladigan fazilatlarni shakllantirish.

Interfaol topshiriqlarni bajarishda barcha talabalar bir-birini to'ldirgan holda qatnashadi. Ijodiy xarakterdagi topshiriqlar — har qanday interfaol o'qitish usulining asosini tashkil etadi.

Interfaol o'qitishning asosiy shakl va metodlari: talabalarning bilish faoliyatlarini majburiy ravishda faollashtirish; imkon qadar talabalarni ko'proq vaqt davomida faol bo'lishga jalb etish; muammolar yechimini yuqori darajada diqqatni to'plab mustaqil (individual yoki guruh bo'lib) ravishda topish; ruhiy holat ko'tarilib, talabalar irodasini ishga solishga erishish; o'qituvchi va talaba orasida uzluksiz ishlaydigan to'g'ridan to'g'ri va qayta aloqa bog'lash; o'qituvchini o'quv jarayonining fasilatatori sifatida rolini o'zgartirish kabilarni kiritish mumkin. Talabalarga auditoriyada boshlang'ich sinf o'quvchilariga interfaol ta'lim asosidagi mashg'ulot jarayonining asosiy bosqichlari bosqichma-bosqich o'rgatiladi: 1. Salomlashish. 2. Kirish so'zi. 3. Qoidalarni ishlab chiqish. 4. Tanishuv (muzyorar). 5. Kutiladigan natijalar. 6. Kichik guruhlariga ajratish. 7. Kichik guruhlar ishini tashkil qilish. 8. Taqdimotlar. 9. Kichik ma'ruzalar. 10. Muhokamalar o'tkazish. 11. Xulosalar va vazifalarni belgilash. 12. Mashg'ulotni yakunlash.

Boshlang'ich sinflarda foydalanish imkoniyati keng bo'lgan, amaliyot uchun zarur bo'lgan interfaol mashqlardan namunalar keltirib o'tamiz:

### **“Xo‘p” mashqi**

O‘quvchilar ushbu mashqni bajarishda o‘z partalarida doimgidek o‘tirishlari mumkinligini tushunishlari kerak. Ushbu mashqda fanlararo bog‘lanish mavjud bo‘lib, o‘quvchilar tezlik bilan bajarishlari, diqqatni jamlash talab etiladi.

Mashqning tavsifi: O‘quvchilar birin-ketin 1,2,3,4 kabi sonlarni sanab ketadilar, ammo har safar beshlik sonlarga kelganda raqam o‘rniga “xo‘p” so‘zini aytish lozim. Masalan: 1,2,3,4, “xo‘p” 6,7,8,9, “xo‘p” kabi.....

Mazkur o‘yinda har bir beshlikda “xo‘p” so‘zini aytmasdan 5,10,15,20,25,30 kabi sonlarni aytib yuborganlar, o‘yindan chiqadi. Ushbu mashqda butun sinf qatnashadi.

### **“Bayroqcha kimda?”**

O‘quvchilar mashqni tez bajarilishini tushunib olishlari, vaqtdan unumli foydalanishni o‘rganishlari darkor.

Mashqning tavsifi: o‘quvchilar partama-parta o‘tirgan holda ushbu mashqni bajarishlari mumkin. Guruhlarga bo‘linib olib borish, musobaqa sifatida uyushtirish mumkin. Birinchi o‘quvchiga bayroqcha beriladi. U topshiriqni bajarib, ikkinchisiga topshiradi. Topshiriq maqol, mavzuga oid atamalarni aytib berishdan iborat bo‘lishi, o‘tilgan mavzularga doir so‘z va tushunchalarni takrorlash bo‘lishi mumkin, aytolmagan o‘quvchi mashqdan chiqadi.

“Bayroqcha” o‘quvchilar qo‘lidan qo‘liga o‘tadi. Topshiriqni bajarolmay qolgan guruh bayroqchani narigi guruhga beradi.

### **“Estafeta “ mashqi**

Ushbu mashqlar musobaqa sifatida xattaxtaga so‘z yozish, she‘r aytish misolida yoki parta boshidan oxirigacha ko‘ptok yoki g‘ildirak yumalatish sifatida bajarilishi mumkin.

Mazkur mashqlar qiziqarli, harakatli bo‘lib, mashq boshidan oxirigacha o‘quvchilar bir-biri bilan inoq, hamjihat bo‘ladilar.

### **“Poyezd” mashqi.**

O‘quvchilarga mashq haqida ma’lumot beriladi.

Mashqning tavsifi: o‘quvchilar partadan tashqariga chiqib, bir qator bo‘lib tiziladilar. Keyingi qadam: o‘quvchilar poyezdga o‘xshab birin-ketin partalar orasidagi yo‘laklardan yuradilar. O‘qituvchi ular “poyezd bo‘lib” yurayotganlarida “poyez bo‘lib yuramiz, poyez bo‘lib yuramiz, uch burchakka bo‘linamiz” deganida 3 tadan turib olishlari lozim bo‘ladi. Ortib qolgan yoki burchaklarga bo‘lina olmagan o‘quvchilar o‘z joylariga o‘tiradilar.

Ushbu harakatli mashq o‘quvchilar miya faoliyatini yaxshilaydi, kayfiyatini ko‘taradi. Ishchanlik va hamjihatlikni oshiradi.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim shakl va metodlaridan foydalanish tajribasi quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo‘lmoqda:

1. Boshlang‘ich sinflarda interfaol ta’lim shakllaridan foydalanish o‘quvchilarning motivini oshishiga olib keladi.
2. Darslarning qiziqarli o‘tishiga erishiladi.
3. O‘quvchilarning jismoniy va ijtimoiy faolligi oshadi.
4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari oz vaqt ichida ko‘p ma’lumot oladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. Bepalko V.P. Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 192
3. Ishmuhammedov R.J.. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T. Nizomiy nomidagi TDPU.2004. -44 b.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. Nizomiy nomidagi TDPU. 2003 y. -174 b.
5. Tolipov O‘. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005. -205 b.

## **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI YANGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA O'RGATISHNING SHAKLLARI**

**Xaydarova Mehriniso Boboqulovna:** Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi o'qituvchisi .

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining darslarda pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanishidagi metod va shakllar haqida tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье даны рекомендации по методам и формам использования педагогических инновационных технологий на уроках будущими учителями начальных классов.

**Annotation:** This article provides recommendations on the methods and forms of the use of pedagogical innovative technologies in the lessons of teachers of the future primary class.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, novator, intellekt, pedagogika, ta'lim, didaktik o'yinlar.

**Ключевые слова:** новаторские, новаторские, интеллектуальные, педагогические, воспитательные, дидактические игры.

**Key words:** innovation, innovator, intelligence, pedagogy, education, didactic games.

Mamlakatimizda istiqloqlarning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davomi, ham uni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruhi va talabiga mos zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi.

O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keying bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday

oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, va u haqiqatan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40-45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. M.E.Jumayev. Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T.: ILM ZIYO, 2013.-232 b.

2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001

3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.T., 2003-yil

4. Azizxo'jaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar– Toshkent, 2002-yil

5. Хайдарова, X. (2020). РАЗВИТИЕ ВИРТУАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ

6.N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) T.: "O'qituvchi" 1996-y. -512b.

7.uchun darslik.) T.: "Fan va texnologiya" 2022-y.

8. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008-yil

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK SHAKLLAR TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH**

**Urazova Zulfiya Murtazayevna**

Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, p.f.n.,

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida geometrik jism tushunchasini rivojlantirish hamda fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayoni yoritilgan.

**Kalit so'z:** fazoviy munosabat, geometrik shakl, obyekt, tushuncha, tasavvur, taqqoslash.

## РАЗВИТИЕ ПОНЯТИЯ О ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ФОРМ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация:** В данной статье описан процесс развития понятия о геометрических фигурах и формирования представления о пространственных отношениях у будущих учителей начальной школы.

**Ключевые слова:** пространственные отношения, геометрическая фигура, предмет, понятие, воображение, сравнение.

## DEVELOPING THE CONCEPT OF GEOMETRIC SHAPES IN PRIMARY GRADES

**Abstract:** This article describes the process of developing the concept of geometric shapes and forming ideas about spatial relationships among future primary school teachers.

**Key words:** spatial relationships, geometric figure, object, concept, imagination, comparison.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanishdan ko'zlangan maqsad atrofimizni o'rab turgan tabiat, unda ro'y beradigan hodisa, voqealarni va jamiyatdagi o'zgarishlarni anglash, tushunib yetish jarayonini zamonaviy usullar vositasida tez yetkazib berishdan iboratdir.

Odamlar tashqi dunyoni turlicha talqin qiladilar va ular haqida turlicha bilimga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham atrofimizdagi olam va undagi hodisalarni o'quvchilar anglashi uchun turli axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Maktabda o'qib yurgan bolalar buyum va narsalarning geometrik tuzilishi haqida ozmi-ko'p tasavvurga ega bo'ladilar. Ularning bilim va malakalari hali sodda, g'o'r bo'lsada ba'zi buyum va narsalarni tuzilishiga, ko'rinishiga qarab farqlay oladilar. Shuningdek, aytilgan gaplarni eshitib qaysi buyum haqida gan ketayotganini anglaydilar va bir to'p buyumlar orasidan o'ziga tanish bo'lganini ajrata oladilar. Bizning maqsadimiz mana shu holatni yanada kuchaytirish, takomillashtirish va tartibga solishdan iborat.

Atrofimizni o'rab turgan borliqdagi barcha buyum va narsalar qaysidir ma'noda o'zaro munosabatda bo'ladilar. Bunday munosabatlarni sodda ko'z bilan bir qarashda aniqlash qiyin, chunki bu munosabatlar buyumlarning joylashuvida, o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi[2;4]. Natijada, esa geometrik jism tushunchasi shakllanadi. Umuman, bizga tanish bo'lgan barcha buyumlar geometrik jismlardir. Ammo ularni aniqlash, farqlash va biror xossasiga qarab guruhlariga ajratish uchun aqliy faoliyat zarur. Shu sababli o'qitish jarayoni shakllanib borayotgan bilimlarga mos holda tashkil qilinishi lozim va geometrik jismlar bilan bajariladigan almashtirishlar, harakatlar tushunarli bo'lishi muhim. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, o'quvchilar uchun fazoviy tushunchalar va munosabatlar haqida tasavvur berish davomida ixtiyoriy buyumlar orasida, ularni qaysi xususiyatlari bo'yicha taqqoslanayotganiga qarab bir necha xil munosabatlar o'rnatilishi mumkinligini tushunish kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, fazoviy munosabatlar buyumlarning o'zaro joylashuviga, buyumlar shakliga, bir buyumning ikkinchisiga qay darajada aloqadorligiga, biror guruhga tegishli yoki yo'qligi kabi taqqoslashlar yordamida o'rnatiladi.

Psixologik va metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitishning dastlabki pallalarida geometrik tushunchalar faqat gap-so'zlar orqali, og'zaki ifodalangan bo'lib, o'quvchilar tasavvurida aniq, bir geometrik shakl yoki buyum hali o'zining haqiqiy ta'rifiga mos kelmagan bo'ladi. Fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqar ekanmiz, bolalarning u yoki bu fazoviy belgi yoki munosabat bilan

tanishuvi, asosan kuzatish orqali amalga oshiriladi, [2;97] degan xulosaga tayandik. Kuzatish jarayoni esa o'qituvchining gap-so'zlari bilan amalga oshiriladi. Fazoviy belgi va munosabatlarni kuzatish davomida bolalar ularni qabul qilishga o'rganadilar, ya'ni turli tasvir, shakllarida ko'radilar va o'qiydilar.

Fazoviy munosabatlarni so'z bilan ifodalash haqida gapirilganda, biz shu munosabatni o'quvchilar tasavvurida yetarli darajada ochib beradigan so'zlar bog'lashini nazarda tutamiz. "Munosabat" so'zini biz, barcha sinflarda to'plamlarning tartiblangan juftligini belgilash uchun emas, balki boshqa so'z birikmalari bilan birgalikda, qaralayotgan figuralar orasidagi bog'lanishni xarakterlovchi tushuncha (masalan, kesishish munosabati) sifatida ishlatdik. Tajribalarga asoslanib, shuni aytish mumkinki, munosabatni yuqoridagi ma'noda 2-sinfdanoq qo'llash mumkin ekan. Birdaniga "fazoviy munosabatlar" so'z birikmasini ishlatish maqsadga muvofiq emas. Ammo ta'kidlash lozimki, figuralar orasidagi har bir aniq munosabatni tushunish, o'rganish va o'zlashtirish jarayonida fazoviy obyektlarning geometrik xususiyatlari ko'rina boshlaydi.

Holat munosabatlari haqidagi tasavvurlar shakllanishida va ri-vojlantirishida bolalarning diqqati shu munosabatlarni o'rnatish uchun ma'lum bir aniq obyekt mavjudligini his qilishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Obyektlarning o'zaro joylashuvi "tepada", "pastda", "yonida", "bir tomonida" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Holat munosabati ko'pincha qaralayotgan obyektlarning umumiy elementlari borligi bilan xarakterlanadi va "tegishli", "ustida yotadi", "kesishadi" so'zlari bilan ifodalanadi [3;34].

Tartib munosabatining shakllanishi qandaydir usulda berilgan obyektlar qatori bilan yoki berilgan to'plamni tartiblashga imkon beriladigan alomatlar bog'liq. Tartiblash alomatlari turli-tuman bo'ladi: kuzatuvchiga nisbatan joylashish tartibi, obyektlarni o'lchamlarga nisbatan tartiblash va hokazo. Asosiy g'oyasi moslik tushunchasi bilan bog'lik, munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish uchun shu moslikda qatnashayotgan figuralar yoki to'plamlarning bir-biriga mos keluvchi elementlarini qidirib topish muhimdir. Shuningdek, o'quvchilarga qaralayotgan moslik bo'yicha bir obyektga bitta yoki bir nechta, bir nechta obyektga bitta obyekt mos kelishi mumkinligini tushuntirish lozim.

Bunday munosabatlarni o'rganar ekanmiz, ular nafaqat figuralar, buyumlar, figura elementlari orasida, balki tabiati bir-biridan tamomila farq qiluvchi obyektlar orasida ham o'rnatilishi mumkinligini ta'kidlaymiz. Fazoviy munosabatlar haqida tasavvur hosil qilish jarayonini boshqarish mumkin.

Xulosa o'rnida, o'quvchilarni o'qitish tizimini shunday tashkil etish lozimki, ular qaysi jarayonlar qanday ketma-ketlikda bajarilishini yaxshi o'zlashtirsinlar. Shuningdek, har bir amal va jarayon o'qituvchi nazorati ostida bajarilishi muhim. Bunday amal va jarayonlar qaralayotgan tushunchalar ma'nosini ochib berishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Bikbayeva N.U. va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish: O'rta va oliy ped.o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. /Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z., Qosimov X. –T.: O'qituvchi, 1995. - 183 b.

2. Galkina O.I. Razvitiye prostranstvennix predstavleniy u detey v nachalnoy shkole.- M.,1961. -126 s.

3. E.Yangabayeva, Z.Urazova. Boshlang'ich sinflarda geometrik elementlarni o'rganishda fazoviy munosabatlar (metodik qo'llanma) "Ma'rifat-madadkor" nashriyoti, T-2003 y.

## **YOSHLARNING KELAJAK ISTIQBOLINI SHAKLLANTIRISH TARAQQIYOT ASOSIDIR**

Urazova Zulfiya Murtazaevna p.f.n, dotsent  
Yangi asr universiteti "Maktab va maktabgacha ta'lim" kafedrasida [zulyamurtazaevna@gmail.com](mailto:zulyamurtazaevna@gmail.com)

## Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, bugungi kunda yoshlar iqtidorini qo'llab-quvvatlash, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini samarali tadbirlar bilan band qilish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, yoshlar, huquqiy madaniyat, tarbiya, tafakkur, ma'naviyat, iqtidor.

Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor - inson omili, uning intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, avvalo, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan murakkab bir sharoitda huquqiy himoya asoslarini yaratib berish ham muhim ahamiyat kashf etmoqda. Mustaqillik davrida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bu borada mamlakatda keng faoliyat olib borayotgan O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatining asosiy maqsadi – yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berishdan iborat deb belgilangan[2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bu borada "Bizning asosiy vazifamiz, – dedi mamlakatimiz rahbari, – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz" ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 406-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yil 19-martda ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim besh tashabbus", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 133-F sonli Farmoyishi muhim ahamiyatga ega[2]. Taraqqiyot rejalarining samarali ijrosini ta'minlash maqsadga erishishning aniq mazmuni bo'ladi. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga, unumli faoliyatiga barakali sifat beradigan, ular uchun jonkuyarlik va fidoyilik bilan amaliy munosabatdagi barcha muassasalar, boshqarmalar, korxonalar-tashkilotlar zimmasida yuksak ma'suliyatlar, qarzdorlik, insonparvarlik burchlari mavjud.

Yoshlarning kelajak istiqboli ravshanligini ta'minlashga barcha tarmoq va sohalar mas'uldir. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidilarga qarshi immunitetni shakllantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun muhim ahamiyatga ega. Mamlakat umumiy aholisining taxminan 58,4 foizini 30 yoshgacha bo'lgan qatlam vakillari tashkil etadi. Shu sababdan, respublikamizda yoshlarga oid siyosat – davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat



manfaatlari yo'lida to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Yoshlar jamiyatning eng faol qatlami hisoblanib, ular ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi eng salohiyatli kuchdir. Harakatlar strategiyasi doirasida "Yoshlar – kelajak bunyodkori", "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Aqlli shahar" kabi keng qamrovli dasturlarni amalga oshirishda tashabbuskor, har bir masalaga yangicha yondashadigan yoshlarning ishtirokining ta'minlanishi ham bejiz emas. Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlangan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar yoshlar va yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish masalasi hukumat darajasida muhim va ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Yoshlarni ta'lim bilan to'liq qamrab olish orqali bandlikni ta'minlash muhim o'rin tutadiki, zamonaviy texnika va texnologiyalarni egallagan, bozor iqtisodiyoti, huquqiy davlat mazmun-mohiyatini tushungan malakali kadrlar ertangi kunning hal qiluvchi kuchiga aylanadi.

Zero, mamlakatimiz taraqqiyoti, iqtisodiy yuksalishida yoshlarni o'qishga, ishga joylashtirishning ahamiyati katta[5]. Yoshlarni kasbga yo'naltirish orqali yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldi olinadi, shuningdek, yoshlarning kelajakka ishonchi mustahkamlanadi. Mazkur jarayonni inobatga olib, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va jamiyatda o'z o'rnini topa olishiga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Shunday zarurat tufayli yurtimiz taqdirini ishonchli qo'llarga topshirish uchun yoshlarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish, dunyoga yangicha yondashuv, teran aql va tafakkur kuchi bilan voqea va hodisalarni baholay oladigan, mas'uliyatni anglaydigan, loqaydlik va befarqlikka qarshi tura oladigan yoshlar tarbiyalanishi ushbu muammoni hal etishning muhim omilidir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda yoshlar iqtidorini qo'llab-quvvatlash, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtlarini samarali tadbirlar bilan band qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning ta'sirchan usullarini ishlab chiqish, davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, qisqa qilib aytganda, har tomonlama sog'lom hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish va ularning manfaatini himoya qilishda jamoatchilikning rolini oshirish yosh avlodni ajdodlarimiz orzu qilgan barkamol avlod darajasiga yetishishini kafolatlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017-yil 20-sentabr. №189 (6883).

2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2019-yil 7-may PQ-4307-son. // Toshkent, Xalq so'zi. 2019-yil. 4-may. № 78 (6710).

3. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 2018-yil 29-iyun / Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild. – T.: O'zbekiston, 2018. 492-bet.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi. gazetasi, 2018-yil 15-iyul. 1-2-betlar.

5. Kurakov, L. P. Iqtisodiyot va huquq: lug'at-ma'lumotnoma. - M.: Universitet va maktab. V. L. Kurakov, A. L. Kurakov. 2004.

#### **MA'LUMOTLAR BAZASINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH**

*Ismoilov Sobir Kenjayevich*

*Qashqadaryo VPYMO'M markazi katta o'qituvchisi*

*Kenjayeva Bonu Sobir qizi Qarshi shahar 15 maktab o'qituvchisi*

Axborot texnologiyalarning rivojlanishi va axborot oqimlarining tobora ortib borishi, ma'lumotlarning tez o'zgarishi kabi xolatlar insoniyatni bu ma'lumotlarni o'z vaqtida qayta ishlash choralarini qidirib topishga undaydi. Ma'lumotlarni saqlash, o'zlash va qayta ishlash uchun ma'lumotlar bazasi (MB)ni yaratish, so'ngra undan keng foydalanish bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ma'lumotlar bazasi bu o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'lumotlar majmuasi bo'lib, u ko'rilayotgan ob'ektlarning xususiyatini, xolatini va ob'ektlar o'rtasidagi munosabatni ma'lum sohada tavsiflaydi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda inson xayotida MBda kerakli axborotlarni saqlash va undan oqilona foydalanish juda muhim rol o'ynaydi. Sababi jamiyat taraqqiyotining qaysi jabxasiga nazar solmaylik o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olish uchun albatta, MBga murojaat qilishga majbur bo'lamiz. Demak, MBni tashkil qilish axborot almashuv texnologiyasining eng dolzarb hal qilinadigan muammolaridan biriga aylanib borayotgani davr taqozasidir.

Ma'lumki, MB tushunchasi fanga kirib kelgunga qadar, ma'lumotlardan turli ko'rinishda foydalanish juda qiyin edi. Dastur tuzuvchilar ma'lumotlarni shunday tashkil qilar edilarki u faqat qaralayotgan masala uchungina o'rinli bo'lardi. Xar bir yangi masalani hal qilishda ma'lumotlar qaytadan tashkil qilinar va bu xol yaratilgan dasturlardan foydalanishni qiyinlashtirar edi.

Bugungi kunda ma'lumotlarni eng ishonchli saqlaydigan vositalardan biri esa hozirgi zamon kompyuterlaridir. Kompyuterlarda saqlanadigan MB - bu maxsus formatga ega bo'lgan muayyan tuzilmali fayl demakdir. Kompyuter xotirasida xar bir fayl, yozuv deb ataladigan bir xil turdagi qismlardan iborat bo'ladi. Yozuv- o'zaro bog'langan ma'lumotlarning bir qismidir. Fayldagi yozuvlar soni, qaralayotgan ma'lumotning ulchoviga bog'liq. Xar bir yozuv esa maydon deb ataladigan bo'laklardan tashkil topadi. Maydon ma'lumotlarning imkoni boricha, qisqa to'plamidan iborat bo'lishi lozim. Xar bir maydon, o'zi ifodalaydigan ma'lumotlariga ko'ra biror nomga ega bo'ladi.

- *Исполнимость -Bajarilishlik, foydalanuvchi so'roviga hozir javoblik bilan mulqotga kirishish*

★ *Минимальная повторяемость-Минимал takrorlanishlik MBdaga ma'lumot iloji boricha kam takrorlanishi lozim, aks, xolda ma'lumotlarni izlash susayadi.*

★ *Yaxlitlik -axborotni MBda saqlash iloji boricha Ma'lumotlar orasidagi bog'liqlikni asragan xolda bo'lgani, ayni muddao.*

★ *Безопасность- Xavfsizlik MB ruxsat berilmagan kirishdan ishonchli ximoya qilingan bo'lishi lozim. Faqat foydalanuvchi va tegishli tashkilotgina ma'lumotlarga ko'ra olish va foydalanish xuquqiga egalik qilishi mumkin.*

### **Ma'lumotlar bazasi administratori**

Ma'lumotlar bazasi administratori - bu muassasa ma'lumotlarini yoki uning sistemasi bilan bog'liq bo'lgan biror qismini ximoya qiladigan javobgar shaxs. U barcha ma'lumotlar tuzilishi nazoratini amalga oshiradi. Shuni esda tutmoq lozimki ma'lumotlarni ximoya qilish va ularga egalik qilish bir narsa emas. Bank boshqaruvchisi bankka qo'yilgan narsalarga ximoyachi bo'ladi, lekin qimmat baxo narsalarga bo'lmaydi. Boshqarma yoki ayrim shaxs ma'lumotlar egasi bo'lishi mumkin. Ma'lumotlar bazasi administratori ma'lumotlar saqlanishiga javob beradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ma'lumotlardan ularni foydalanishga ruxsat olgan shaxslargina foydalanishi mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki administrator ma'lumotlar bazasini boshqaruv funktsiyalarini bajarib turib uning ichida nima yozilganligini bilmaydi. Unga ma'lumki, misol uchun to'lov yozuvi tarkibida ish haqi ma'lumotlari elementi bo'lsin, lekin u bu elementda yozilgan ma'lumot kattaligini bildirmaydi. Bu elementni o'qimaslik uchun, u maxsus usullar bilan ximoya qilishi mumkin. Agar ish haqi ma'lumotlar elementining o'lchami (kattaligi)ni 6 raqamdan 7 raqamgacha ko'paytirish kerak bo'lsa, bunday o'zgarishni faqat ma'lumotlar bazasi administratori qilishi mumkin.

“Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari bilan ishlash texnologiyasi” mavzusida MBdan foydalanuvchilar asosan MB bilan ishlash va uning xavfsizligi haqida o’rganadilar.

Bundan tashqari dasturlash texnologiyasi bilan tanishadi. Umuman olganda ushbu maqola foydalanuvchilarga “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan olgan nazariy va amaliy bilimlarimizni yanada mustaxkamlashga yordam berdi.

### **Adabiyotlar**

1. Экономическая информатика -учебник / под ред. И.П. КосареВ и Л.В. Еремина -М -Финансы и статистика, 2002, стр. 523-563
2. А.А.Козырев Информационные технологии в экономике и управлении. Учебник/ 2000
3. Б.Ю. Ходиев, А. А. Мусалиев, Б. А. Бегалов Введение в информационные системы и технологии -Учебное пособие. Т. -«ТГЭУ» 2002.-156с.
4. А.Г. Юркин. Задачник по программированию. Учебное пособие. Питер .Минск:2002.
5. Ричард, Хезфилд, Лоуренс-Кирби. Искусство программирования на С. ДиаСофт Питер:2001.

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

Хо‘jamberdiyeva Sarvinoz Keldiyarovna  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Pedagogika va o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari batafsil keltirilgan. Shuningdek, divergent va konvergent tafakkurning mazmun mohiyati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** divergent, konvergent, ijodiy fikrlash, ijodiy g‘oya, divergentlik, noan’anaviy yechim, kognitiv jarayon.

Bugungi kunda o‘quvchilar o‘z o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, o‘zini o‘zi rivojlantirishi, katta ma’lumotlar (big data) bilan ishlay olishi va o‘z o‘zini baholay olishi lozim. Ta’lim jarayonida mustaqil o‘rganish, zarur ma’lumotlarni izlash, saralash va to‘plash, farazlarni ilgari surish, xulosalar chiqarish va taqqoslash qobiliyatini shakllantiradigan usullardan foydalanish dolzarb bo‘lib, bu esa divergentlikni talab etadi.

Psixologiya faniga birinchi marta “divergent va konvergent fikrlash” tushunchalari aql-idrok tuzilishi modelining yaratuvchisi sifatida tanilgan, shuningdek, xotira, fikrlash, e’tibor, ijodkorlik va temperament nuqtai nazaridan aql bo‘yicha tadqiqotlar bilan shug‘ullangan olim — amerikalik psixolog va professor J.P.Gilford tomonidan kiritilgan bo‘lib, olimning ta’kidlashicha, inson miya faoliyatining bu shakli muammoni hal qilishning asosiy usullarini o‘zgartirishga imkon beradi.

Divergent fikrlash (lot. *divergere* — ajralish) ijodiy fikrlash usuli bo‘lib, odatda muammo va vazifalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Bu bir xil muammoning ko‘plab yechimlarini topishdan iborat. Shuningdek, divergent fikrlash — bu ko‘plab mumkin bo‘lgan yechimlarni o‘rganish orqali ijodiy g‘oyalarni yaratish uchun ishlatiladigan fikrlash jarayoni yoki usuli.

“Divergent tafakkur” tushunchasi umumiy holda muqobillikni ko‘ra olish qobiliyatida o‘z aksini topadi, divergentlik esa muammoni hal qilishning bir necha usullarini ko‘rishga imkon beradigan maxsus fikrlash sifatidir. Aslida, “divergent tafakkur – muammoni hal qilishning bir necha usulini topa olish qobiliyati, javoblar va yechimlarning o‘zgaruvchanligini ko‘ra olish qobiliyatidir” [3; 13-b.].

Divergent fikrlash to'rtta asosiy xususiyatga ega:  
Ravonlik — bir nechta g'oyalari va yechimlarni tezda shakllantirish qobiliyati;  
Nostandart — boshqalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni shakllantirish qobiliyati;  
Moslashuvchanlik — bir vaqtning o'zida muammoni hal qilishning turli usullari haqida o'ylash qobiliyati;

Mutaxassislik – g'oyaning tafsiloti haqida fikr yuritish emas, balki uning timsolini topish qobiliyatidir.

Ma'lumki, ilmiy izlanishlarda, boshqaruv tizimida, siyosatda, iqtisodiyotda ko'pchilik muammolarning bir emas bir necha yechimi mavjud bo'ladi. Divergent tafakkur ijodkorlik komponentlaridan biridir.

Divergent fikrlash muammo oldindan taklif qilingan, uning yechimini izlab topishning aniq belgilangan usuli yo'qligida namoyon bo'lsa, konvergent fikrlash esa faqat bitta to'g'ri yechimni tanlash uchun barcha mavjud vazifalarni tahlil qilishga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Konvergent fikrlash oldindan ma'lum bo'lgan muammoning sodda yechimiga yo'naltirilgan bo'ladi, shuningdek, konvergent fikrlash shaxs intellektini, divergent fikrlash esa kreativlikni belgilashga xizmat qiladi.

Divergent fikrlash jarayonidan so'ng g'oyalari va ma'lumotlar konvergent fikrlash orqali tartibga solinadi va tuziladi, shu bilan birga qaror qabul qilish strategiyalari qo'llanilib, muhim jihati shundaki, u bitta eng yaxshi va to'g'ri javobga olib keladi.

Konvergent fikrlash (lot. convergere — yaqinlashish) aniq masalani yechish uchun oldindan o'rganilgan algoritmlardan aniq foydalanish strategiyasiga asoslanadi, ya'ni bu masalani hal qilish uchun elementar operatsiyalar ketma-ketligi va mazmuni bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Konvergent fikrlash ko'pincha divergent fikrlash bilan birgalikda qo'llanilib, tezlik, aniqlik va mantiqqa urg'u beradi va asosiy e'tiborni ma'lum usullarni tanib olishga, qayta qo'llashga va saqlangan ma'lumotlarni to'plashga qaratadi. Konvergent fikrlash bilim bilan bog'liq, chunki u mavjud bilimlarni standart "protsedura"lar yordamida "manipulyatsiya" qilishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, divergent va konvergent tafakkur muammoni hal qilish va ijodkorlik uchun hal qiluvchi ikkita kognitiv jarayon hisoblanadi: divergent fikrlash noan'anaviy yechimlarni o'rganib, turli xil g'oyalarni yaratadi, konvergent fikrlash esa eng yaxshi yechimni topish imkoniyatini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish: ped.fanl.fals.fanl.doktori diss.avtor. -T.: 2017. 50-b.
2. Aslonova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fanl.fals.fanl.doktori diss.avtor. -T.: 2019. 64-b.
3. Yo'ldoshev J. Masalalar yechish bo'yicha praktikum (Masalalar orqali divergent tafakkurni rivojlantirish usullari) / o'quv qo'llanma / Qarshi: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2021. 116 b.

### **TA'LIMDA JARAYONIDAGI UZVIYLIKNING SHAXS MAS'ULIYATLILIGINI OSHIRISHDA IJTIMOY-PEDAGOGIK IMKONIYATI**

*Muhammadiyah Manzura Maratovna, Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs mas'uliyati muammosi, ta'limda jarayonidagi uzviylikning shaxs mas'uliyatligini oshirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari, shaxs

mas'uliyatini oshirishda zamonaviy pedagogik va metodik tadqiqotlarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari borasidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Shaxs ,mezon ,talab ,mas'uliyat ,axloq ,nazorat ,odat,javobgarlik ,fazilat ,inson ,ong .

Maktabgacha ta'lim davriga nisbatan kichik maktab yoshi mas'uliyatli vazifalar tizimi, tartib-intizom va javobgarlik hissi, topshiriqlar va o'z xatti-harakatiga nisbatan javobgarlikning yuqoriligi bilan birmuncha farq qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning barchasi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan va barcha bolalar ham oilada o'ziga xos mas'uliyatlar tizimiga jalb etilmaydi. Ushbu nuqtai nazardan doimiy erkin (qat'iy kun tartibisiz yoki qat'iy topshiriqlarsiz) muhitda tarbiyalangan bola boshlang'ich ta'lim jarayonidagi muhitga adaptatsiyasi bir muncha og'irroq kechadi. Bolalarda mas'uliyatlilik elementlarini shakllantirishni ta'lim jarayonidagi uzviylik asosida, ya'ni, maktabga tayyorlov davridanoq boshlash boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonini hamda bolalarning maktabga tayyorlov davrini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

O'z vaqtida amalga oshirilmagan tayyorlov mashg'ulotlari ta'lim jarayonini uzviyligining keyingi bosqichida o'quvchilarning yangi muhitga adaptatsiyasi va mas'uliyatlilikning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sh.Nurullayeva tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida 1-sinf o'quvchilarining maktabdagi faoliyatlari davomida quyidagi qator muammolar yuzaga kelishini bayon etadi:

7. Maktabning mas'uliyat talab etuvchi muhitiga moslasha olmaslik. Ya'ni oila muhitida yoki MTTda har qanday jiddiy, mas'uliyatli vazifalardan holi bo'lgan bolalar uchun yangi muhitga moslashishi qiyin kechadi.

8. O'qituvchi qo'yayotgan talablarning qat'iyigidan cho'chish. Ba'zan o'qituvchining tajribasizligi natijasida o'quvchilarga meyordan ortiq topshiriqlarning berilishi yoki topshiriqlarning bola yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lmasligi ushbu muammoni keltirib chiqaradi.

9. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga tayyorgarlikning pastligi yoki tengdoshlariga nisbatan o'zini past baholash. Bu holat ayniqsa MTT ga qamrab olinmagan bolalarda ko'proq kuzatiladi.

10. Qat'iy talablar belgilangan yangi kun tartibiga moslasha olmaslik. MTT dagi yoki oilada tarbiyalanayotgan bola kun tartibining maktabga qatnay boshlagan o'quvchi kun tartibidan keskin farqlanishi va ushbu holatga bolaning tayyor emasligi mazkur muammoni keltirib chiqarishi mumkin.

11. O'qituvchi yoki sinfdoshlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining keskinlashishi. Maktab muhitiga moslasha olmaslik bolaning atrofida qilargalarga nisbatan ham munosabatning yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

12. Psixologik zo'riqishlar natijasida bola salomatligi va ta'lim sifatining pasayishi. Yuqoridagi muammolarning o'z vaqtida bartaraf etilmasligi, avvalo, bola salomatligi yomonlashuviga, turli xildagi psixologik zo'riqishlar yuzaga kelishiga hamda o'z navbatida ta'lim sifatining past bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. [1; 28-b.]

Bunday muammolarning kelib chiqish sabablari quyidagicha guruhlanadi:

4. **Subyektiv sabablar:** o'quvchidagi egotsentriзмning kuchliligi, mas'uliyatni tan olmaslik, o'yinqaroqlik, oila a'zolarining mehrini suiste'mol qilish va h.k.

5. **Pedagogik sabablar:** maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning MTT ga to'liq qamrab olinmaganligi, MTT da maktabga tayyorlov bosqichining noto'g'ri tashkil etilishi yoki o'qituvchining tajribasizligi va sh.k.

6. **Ijtimoiy sabablar:** ota-onalarning bola uchun mas'uliyatli bo'lgan ushbu davrga nisbatan loqaydligi, bola ijtimoiylashuv jarayonining qiyin kechishi, bolani o'rab turgan muhitning maktab hayoti bilan aloqasining yomonligi.

Demak, ta'lim jarayonidagi uzviylikni ta'minlashda maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan bola hayotidagi psixologik-pedagogik muammolarni bartaraf etish uchun ham ana shu yo'nalishda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, birinchidan, psixologning

o'qituvchilar, ularning ota-onalari yoki MTT tarbiyachilari bilan hamkorlikda 1-sinf o'quvchilariga mo'ljallab olib boradigan ishlarini rivojlantirish kerak.

Ikkinchidan, o'qituvchining psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarligini takomillashtirish lozim.

Uchinchidan, har bir o'quvchida o'ziga xos qobiliyat nishonalarini aniqlash va uni rivojlantirish mumkin ekanligiga o'quvchining o'zida ishonch hosil qilish kerak.

To'rtinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarni kengaytirish lozim.

Beshinchidan, bolada maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab uni o'rab turgan muhit – o'quvchilar jamoasi, o'rtoqlari, oila a'zolari orqali bilim olishga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, maktabga va bilim olishga nisbatan mehrini uyg'otish lozim. [1; 29-b.]

Yuqoridagi qarashlar tahlili maktabga tayyorlov davridanoq kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlilikni shakllantirish jarayonini tashkil etish mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarida mas'uliyatlilikka doir dastlabki axloqiy tasavvurlarini shakllantirish jarayonida quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiq:

- namunani tanlash;
- namunaga ko'ra harakatlanish;
- emotsional komfort holati;
- namunani takrorlash;
- virtual stereotipni ishlab chiqish;
- odatiy harakatlarning ijtimoiy ahamiyat kasb etishini his etish;
- bir xil holatlarda talabning paydo bo'lishi va ularga tayanish;
- shaxsiy motivatsiyaning shakllanganligi. [3;76-b.]

Bundan shunday pedagogik qoida kelib chiqadi: axloqiy tasavvurlar bola ongiga kattalar tomonidan shakllantirilmaydi, ular bolaning ongiga kattalar tomonidan mohirona taqdim etiladi va u xatti-harakatlar, munosabatlarni tahlil etish asosida shakllanadi.

Mazkur jarayonda badiiy adabiyot materiallari, illyustratsiyalar, kuzatuv, qoidali o'yinlar asosida ma'naviy-axloqiy qoida va meyorlar bilan tanishtirish bo'yicha majmuaviy mashg'ulotlar orqali kattalar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalardan foydalaniladi.

Shuningdek bolalarda mas'uliyatli xatti-harakatlarga nisbatan amaliy ko'nikmalarni shakllantirib borishda, subyekt-subyekt o'zaro harakatlar jarayonida amalga oshadi. Undan asosiy maqsad o'z faoliyatini rejalashtira olish va natijani bashoratlay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat edi. Mazkur jarayonda muammoli holatlarni paydo etib, uni bola uchun tahlil qilish, bolalar uchun tushunarli va yaqin bo'lgan mavzularga oid majmuaviy topshiriqlar: "Oila", "Kasb" hamda majmuaviy syujetli didaktik o'yinlar, stimul beruvchi pedagogik metodlardan foydalanish asosiy yo'nalishdagi ishlar hisoblanadi.

Muammoli holatlardan foydalanish bolaga bilimlarni anglangan holda o'zlashtirish imkoniyatini beradi va zarurat bo'lganida ulardan mustaqil faoliyatning yangi sharoitlarida foydalanishi mumkin.

Maktabga o'tish yoshidagi bolalar o'yinlarida muammoli holatlarni yaratish, ulardan mazkur holatdan chiqishni mustaqil tahlil qila olish va yechimini topish vositalarini aniqlashni talab etadi. Bu esa o'z navbatida bolani maktab ta'limiga tayyorlashga yordam beradi, bolada ko'nikma, mustaqil fikrlash, o'z hatti-xarakterlariga nisbatan javobgarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga imkon beradi.

Har qanday muammoli vaziyat uchun xos bo'lgan uchta asosiy komponent mavjud:

4. Yangi harakat usuliga talab yoki zarurat;
5. Topilishi lozim bo'lgan noma'lum va u har doim qandaydir darajada umumlashtirish bilan tavsiflanadi;
6. Bolaning imkoniyatlari – faol izlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaning mavjudligi.[ 3;79-b]

Bu jarayonni samarali amalga oshirilishida bolaga ta'lim jarayonida muammoli vaziyatga tushish imkoniyatini berish lozim, mazkur holatda u:

- faol subyekt sifatida o'zi harakatlanadi;
- savollar va muammolarni o'zi ko'radi;
- yechish jarayoniga, ijodiy izlanishlarga o'zi kirishib ketadi.[3;80-b]

Bilim berilishi kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlilikni shakllantirish metodikasini amalga oshirishning zaruriy sharti hisoblanadi, lekin u yetarli sharti emas. Buning uchun muayyan ko'nikma va qobiliyatlarni tarbiyalash talab etiladi. Shu sababdan, ta'lim jarayonida maktabgacha va maktab davri uzviyligini muvaffaqiyatli tashkil etilishi, bolalarda faoliyat turlariga nisbatan mas'uliyatlilikni shakllantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati :**

4. Nurullayeva Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish. Monografiya. Qarshi: Nasaf, 2021. – 125 b.

5. Матюхина М.В. Мотивация учения младших школьников / М.В. Матюхина. - Москва: Педагогика, 1984. - 144 с.

6. Muhammadiyeva M.M. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida faoliyatlat integratsiyasi jarayonida mas'uliyatlilikni shakllantirish metodikasi” Ped.fan.fal.dok. ... diss. Q.: 2021-141 b.

## **ZAMONAVIY BOSHQARUVDA RAHBAR SHAXSI -- LIDER VA RAHBARLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIIYATI**

*B.E.Yuldashev Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi dosenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Boshqaruv tizimini takomillashtirishda rahbar zimmasiga tushadigan ma'suliyat boshqalarga nisbatan bir necha karra zalvorliroq hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida zamonaviy boshqaruv tizimiga yuqori tashkilotlarning ko'rsatma va direktiv hujjatlaridagi vazifalarni ko'r-ko'rona bajaradigan rahbarlar emas, balki o'z faoliyatiga tanqidiy baho beradigan, har bir ishga ijodiy yondashadigan, yangi tafakkurdagi zamon ta'labiga javob bera oladigan, pedagogika, psixologiya, zamonaviy menijirlik sa'atidan xabardor bo'lgan va ulardan mohirona foydalana biladigan, shuningdek, mukammal shaxsiy fazilatlariga, o'ziga xos xususiyatlarga, boshqaruvchilik qobiliyatiga, muayyan muomala madaniyatiga, g'oyaviy-siyosiy tushunchaga ega xodimlar tayinlanishi lozim.

Qadimda va ayniqsa, o'rta asrlarda, shakllangan davlatlar, imperiyalar faoliyati murakkab tashkilotlarni boshqarish amaliyotidan darak beradi. Turkistonda Amir Temur hukmronligi vaqtida barpo etilgan va bugungi kungacha saqlanib kelayotgan tarixiy obidalarning yaratilishi turli kasb egalarining o'zaro munosabatlari rasmiy tarzda shakllanganligidan va ularni ma'lum bir maqsad sari olib borishda liderlik san'ati yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi zamon fanida “rahbar”, “lider” yoki “liderlik uslubi” va “rahbarlik uslubi” tushunchalarining nisbati yo'nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ayrim mutaxasislarning fikriga ko'ra, liderlik jamoa faoliyatining samaradorligini oshirishda rahbarlik tushunchasini to'ldiradi. G.Kuns va S.O.Dannellarning aniqlashicha, “agar bo'ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarsha ko'ra boshqarilsa, ular o'z imkoniyatlarining taxminana 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya'ni o'z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o'z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo'ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur”.

Rahbarlik — odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funksiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va

shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Shaxsning jamoaga ta'siri liderlik, rahbarlik kabi tushunchalar orqali ifoda qilinishi mumkin. Lekin, rahbarlik va liderlik bir-biridan farq qiladi. Eng asosiy farqi shundaki, rahbar jamoada rasmiy munosabatlarni, lider esa jamoa ichidagi ma'lum bir guruhlarda, ma'lum yo‘nalishlar bo‘yicha, norasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va boshchilik qiladi.

Ko‘pchilik mutaxassislar rahbarlik uslublarini tasniflashda mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik bilan kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e‘tibor berishadi. Shundan kelib chiqqan holda, rahbarning boshqaruv faoliyati uslublarining mazmun va mohiyatiga to‘xtalib o‘tish mumkin.

\*Avtoritar (direktiv) uslubda rahbar o‘z irodasini qo‘l ostidagilarga ma'muriy kuch vositasida o‘tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo‘rqitish, rag‘batlantirish va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu xil boshqaruvchilik bevosita buyruq va farmoishlar berishga asoslanib, boshliqqa so‘zsiz bo‘ysunishni taqozo etadi. Jamoa a'zolarining bevosita muloqotda bo‘lishini chegaralab qo‘yadi. Bu “ajratib tashla va hukmronlik qil” tamoyiliga asoslangan shavqatsizlarcha uslubdir.

\* Liberal (erkin ish yuritish) uslubi rahbarning o‘z qarorlarini tavsiyalar ko‘rinishida berishi, xodimlarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbar vositachi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, xodimlarga keng doirada mustaqillik, to‘la erkinlik berish bilan bir qatorda ularning harakatlariga kam e‘tibor beradi va nazoratni sustlik bilan amalga oshiradi.

\* Demokratik (kollegial) uslubda rahbar o‘z faoliyatini o‘zining jamoasi a'zolariga tayangan holda, jamoa fikrini inobatga olib amalga oshiradi. Rahbar o‘zini jamoaning bir a'zosi sifatida tutadi, uning oldida har bir xodim o‘zini erkin his qiladi va turli masalalar yuzasidan fikrlarini bemalol ifodalaydi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshqaruv faoliyatining uslubi ko‘p darajali asoslarni qamrab oluvchi murakkab tizim hisoblanadi. Rahbarlik uslublarining zamonaviy tez o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘zgarishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi bilan, shuningdek, rahbarning shaxsiy xususiyatlarining yoshiga bog‘liq holda o‘zgarishi, professional boshqaruv faoliyati ko‘nikma va malakalari, rivojlanishining ijtimoiy vaziyati, oilaviy holati, ma'lumoti va boshqa sabablar bilan belgilanadi.

Xulosa shuki, bugungi kunda rahbar kadrlar faoliyati samarali bo‘lishi uchun, avvalo, ularni tanlash prinsiplarini yangilash va qonuniy asoslarini takomillashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu ma'noda rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida, birinchidan, ular ongiga har qanday rahbar xalq oldida, yurt oldida hisobdor, javobgar ekanligi hissini singdirish kerak. Ikkinchidan, ularni rahbarlikka oid bilimlar, ayniqsa, rahbarlikda muvaffaqiyatga erishishga olib keladigan va muvaffaqiyatli rahbarlikka to‘sqinlik qiladigan shaxs xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirish lozim. Uchinchidan, har bir rahbar kadrlarni zamonaviy rahbar kadrlarga qo‘yiladigan talablar va mas'uliyat mezonlaridan xabardor qilish darkor. To‘rtinchidan, muvaffaqiyatli rahbarlikka erishish uchun rahbar faoliyatida adolatlilik, odillik singari zarur sifatlar aks etishi kerak. Beshinchidan, har bir rahbar aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning samarali usullarini bilishi muhim. Oltinchidan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kid-laganidek, “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 6.
2. Chori Nasriddinov. Inson, ong, hayot. – T.: “O‘zbekiston”, 2010.
3. Narzulla Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.
4. R.X.Djuraev, S.T.Turg‘unov. Ta'lim menejmenti. –T.: “Voris nashriyot”, 2006.
5. Sh.E.Qurbonov, E.A.Seytxalilov. Ta'lim sifatini boshqarish. –T.: “Turon-Iqbol”, 2006.



## **HOZIRGI ZAMON FIZIKASINING ASOSIY MUAMMOLARI**

Termiz muhanlislik-texnologiya instituti.P.F.D.O‘.N.Sultonova.  
Termiz muhanlislik-texnologiya instituti 3-kurs talabasi M.Qodirova.

Annotasiya: Mavzuni yoritish davomida fizika fanidagi yaratilmagan muammoli mavzular ixtirolar har bir ilm ahlini o‘ziga jalb eta oladi .Hozirgi glaballashuv davrida ,4-renesansga qadam qo‘ yar ekanmiz yoshlarimiz tayyor bilimlarni o‘rganish bilan chegaralanib qolmasliklari lozim. yoshlarimiz kelajak poydevorimiz quruvchilari kompetent yoshlar bo‘lmog‘I zaryr.Biz ilm ahli olim-y olimalari yoshlarimiz oldiga shunday muammoni qo‘yaylikki , muammoni yechimini topishga barcha yoshlarimiz o‘zlarini bag‘ishlasin,muammoni yechimini topish uchu izlansin kerak bo‘ganda ilm ahllarining oldilariga borishga oshiqsin.Sundagina bizning yoshlarimiz yangi ishga kirishayotgan kridi-moduli ta‘lim tizimii zarur ekanligini anglashdi.’Shu bois maqolada yoshlarimizni muammoli fizikaning movjud ekanligi yoshlarimiz prizidentimiz aytganlaridek bizdan-da bilimdondir,talabalarimiz izlanishlar olib borib yangi Ozbekistonimizni jahon arenalariga ko‘tarilishiga o‘zining ilm zakovati bilan hissasini qo‘shmog‘I zarur deb bilaman shu bois maqolani yozishi, muammolar to‘plamini yaratishni maqsad qilib yoritishga harakat qildim maqola maqsadi shu bo‘lib yechimni toppish yoshlarimiz zimmasiga yuklanadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar: muammolar, yechimlar, istiqbollari shundadir.

Mavzu maqsadi: Muammoli fizikaning movjud ekanligi va uni yoritish va uni yechimini topish jamiyatning rivojlanish qonunlarini bilishning va amaliyotda qo‘llanishining asosi bo‘lib hisoblanadi talabaning bilish jarayoning asosi ekanlig shundadir.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Fizika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa fizika fanini o‘qitish metodikasining mazmunini ham takomillashtirilishni, talabalarni yangiliklarga qiziqishini ,izlanuvchan bo‘lishini talab etadi . Ushbu maqola Prezidentin qarorining yechimi bo‘lib xizmat qiladi

Mavzu bayoni.Texnika oliy ta‘lim muassasalarida fizikaning qonunlarini o‘rganish unung yechimlarini aniqlash o‘qitish metodikasini takomillashtirishning va muammoli ta‘limni davlat siyosati talablaridan, dolzarbligidan kelib chiqib, quyidagicha takomillashtirilish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan ta‘lim sohasi, kadrlarni tayyorlashdagi muhim yangiliklar, yondaShuvlar, yangi zamonaviy texnik yo‘nalishdagi kasblarning vujudga kelishi jamiyatimiz rivojlanishi uchun uning ahamiyatli ekanligi bilan bog‘liqligidir; [12]

ikkinchidan, iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot natijasida ta‘lim egallovchi ma‘lum davrdan boshlab talaba faoliyatining alohida mustaqil sohalarning biriga aylanib keyingi renesansga uzatadi; [12]

uchinchidan, Muammoli ta‘lim talabaning intellektual, innovatsion qobiliyatini shakllantirish, uning madaniy va ijtimoiy siyosiy, ishlab chiqarish, ma‘rifiy hayotidagi ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan harakatlar yig‘indisidir;

Fizikaning eng muxim fundamental muammolaridan biri elementar zarralar sohasida materiyani o‘rgnishdir. Bu sohada 1964 yilda Gell-Man tomonidan taklif etilgan gipoteza e‘tiborga loyiq. Bu gipotezaga asosan barcha mezonlarni, barionlarni va rezonanslarni kvarklar deb nomlangan uch zarra va antikvarklar deb atalgan uch zarraning turli kombinatsiyalardagi bog‘lanishi tarzida vujudga keltirish mumkin. Agar bu gipoteza tasdiqlansa, hozirgacha ma‘lum bo‘lgan elementar zarralar massalari spektrini nazariy aniqlash masalasi muammolarning eng dolzarbidir hanuzgacha bu ilmiy tushincha o‘z yechimini topgan emas. Kvarklar va boshqa fundamental zarralar massalarining eng yuqori chegarassi bor-yo‘qligi ham aniq emas. O‘zaro

tortishishning kvant nazariyasini yaratish sohasidagi masalalar ham o'z yechimini topgan emas.[1,2]

Sh borada zarralar bilan bog'liq bo'lgan astronomiya sohasidagi muammolarni ham su rukunga qo'shish maqsadga muvofiqdir. Astrofizika sohasida ham bir qancha muammolar mavjud. Katta zichlik va bosimlarda neytron yulduz va qora teshik ichidagi materiyaning holati hozirgacha aniq emas. Kvazarlar va radio galaktikaning tabiati hamda o'tayangi yulduzlardagi chaqnashlar va  $\gamma$  nurlarning sochilishi ham muammo bo'lib qolmoda[6,10.].

Termoyadro reaksiyalarida quyoshdan kelayotgan neytrinolarning qayd qilingan soni nazariya bo'yicha hisoblanganidan kamligini tushunib bo'lmaydi. O'tayangi yulduzlardagi chaqnashlarda hosil bo'ladigan kosmik nurlar (zaryadlangan zarralar)ni tezlatish mexanizmi va pulsarlarning elektromagnit nurlanishi mexanizmlari oxirigacha aniqlanmagan. Shu bilan birga koinot evolyutsiyasi muammolarini hal qilish endi boshlandi ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda hamma ilm ahli izlanishni davom etdirmoqda.

Yadro fizikasi sohasida ham bir qancha muammolar mavjuddir. Bular atoriga kuchli o'zaro ta'sir nazariyasining yo'qligi hamda nazariy izlanishlar natijasida aniqlangan atom tartibi 114 dan 126 gacha bo'lgan ko'p yashaydigan elementlarni eksperimental tasdiqlash kabi masalalar ham o'z yechimini topgan emas .

Hal qilinishi zarur bo'lgan masalalardan biri boshqariladigan termoyadro sintezi muammosidir. Deyteriy-tritiyning issiq plazmasi yaratish bo'yicha nazariy va eksperimental izlanishlar keng miyosda olib borilmoda.[5.9.]

Kvant elektronikasi sohasida bir nechta muammolarni hal qilish zarur. Lazerlar bilan moddalarni termoyadro haroratigacha qizdirish kosmosda aloqani amalga oshirish shular jumlasiga kiradi. Hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy muammolar atoriga lazer nurlar quvvatini oshirish va to'liq uzunligini diapazonini kengaytirish hamda rentgen va  $\gamma$ -lazerlarni yaratish kabi masalalardir hal etilmagan muammolardir.[10]

Qattiq jismlar fizikasi sohasidagi muammolarga, mexanik mustaxkamlik, issiqlikka chidamli, elektrik, optik va magnit hossalari bo'yicha ekstremal (eng past yoki eng yuqori) xususiyatlarga ega bo'lgan materiallarni yaratish masalasi kiradi. Yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan materiallarni hosil qilish elektr energiyasini o'zoq masofalarga ortiqcha energiya sarflamasdan o'zatish imkoniyatini beradi. Ishonchli va miniatyur yarimo'tkazgichli qurilmalar yaratishning yangi fizik uslublarini ishlab chiqish zarur yuqori bosimli va o'ta past harortli muhitlarni yaratish uslublari ishlab chiqilishi kerak va xakozo.[8]

### **lanuHozirgi zamon fizikasining asosiy muammolari**


■ Fizikaning eng muxim fundamental muammolaridan biri elementar zarralar sohasida materiyaning o'rganishidir. Astrofizika sohasida katta zichlik va bosimlarda neytron yulduz va qora tuynik ichidagi materiyaning holati hozirgacha aniq emas.

■ Yadro fizikasi sohasida ham bir qancha muammolar mavjuddir. Bular qatoriga kuchli o'zaro ta'sir nazariyasining yo'qligidir.


■ Kvant elektronikasi sohasida bir nechta muammolarni hal qilish zarur. Lazerlar bilan moddalarni termoyadro haroratigacha qizdirish, kosmosda aloqani amalga oshirish shular jumlasiga kiradi.

■ Qattiq jismlar fizikasi sohasidagi muammolarga, mexanik mustaxkamlik, issiqlikka chidamli, elektrik, Optik va magnit hossalari bo'yicha ekstremal (eng past yoki eng yuqori) xususiyatlarga ega bo'lgan materiallarni yaratish masalasi kiradi.

■ Yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan materiallarni hosil qilish, elektr energiyasini o'zoq masofalarga ortiqcha energiya sarflamasdan o'zatish imkoniyatini beradi.




Molekula yoki atomlar o'lchamidagi materiallar bilan ish olib borishni o'rganadigan soxa.



### **Nanomashtabning mashtablari**

bir nanometr (nm) metrning milliardinchi qismiga teng  
odam sochining qiymati taxminan 100000 nanometrغا teng  
nanomashtabga nisbatan yuqori turadigan mashtab mikromashtab xisoblanadi  
atom mashtabi xam nanomashtabga yaqin





### Uglerod nanotrubbkalari

bu trubkalar molekulyar masshtabdagi materiallarga kiradi tarkibida grafit uglerodi bo'lib ajoyib xossalarga ega

Xulosa Mazkur yo'nalishda, 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2021 yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarida akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida" giPQ-60son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonining ijrsi bo'la oladi ,bu maqola bilan tanishgan yoshlarimiz bilimning izidan obro' e'tibor kelishi kelajakda yetuk kadr bo'lishini anglab yetadi.[

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi t. 1-3 M. Nauka, –1998 y.
2. Nazarov U.K. va boshq. Umumiy fizika kursi 1 k T. O'zbekiston 2011y.
3. Zaynabidinov S.Z., Teshaboyev A. Yarimo'tkazgichlar fizikasi., T. O'qituvchi 1999y.
4. Волькенштейн В.С. Сборник задач по общему курсу физики М. Наука. 1990.
5. Chertov A. Varobev. Fizikadan masalalar to'plami. 1997 y.
6. Sultanov N. Fizika kursi. T. 2007.
7. Izbosarov B. F., I.R. Kamalov. Elektromagnetizm. T. 2006.
8. Bozorova S., N. Kamalov. Fizika. 2012
9. Musaev P.X. Statistik fizika va termodinamika. T. 2008.
10. Rasulov E., Begimqulov U. Kvant fizikasi. T. 2017.
11. Toshxonova J.A., O`lmasova M.N. va boshq. Fizikadan praktikum.T. 2006.  
K.F.Kuhn "Basic Physics a self – teaching guide.Constructio  
12.O`.N.Sultonova o`.n. Formation of basis competences for  
studentsbusolvingproblems in physics. Page-.:107-114 vol 7 no 11.2019

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JAMOASIDA SHAXSIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH**

*Yarmanova Yulduz Buriyevna*

Ma'lumki, har bir insonni shakllantirish muammosi o'zida u yoki bu tarzda ma'lum bir qadriyatlar tizimini aks ettiradi: dunyoqarashga asoslangan umuminsoniy, xususan-tarixiy ijtimoiy-madaniy, turmush tarzining tipik xususiyatlarini belgilovchi, jamoaviy, xatti-harakatlarni tartibga soluvchi, individual - shaxsni shakllantirishda ishtirok etadigan o'ziga xoslik.

Mazkur qadriyat yo'nalishlari jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarbdir, chunki ular bir vaqtning o'zida shaxsning mustaqilligini va uning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Zero, maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan qadriyatlar uning kelgusida shaxs sifatida rivojlanishini belgilab beradi, shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tarbiya sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida yosh avlodga bilim berish va ularda shaxs sifatlarini shakllantirish, sifatli kadrlar bilan ta'minlash va yetuk kadr bo'lib respublikamiz ravnaqiga xizmat qilishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Bunga asos sifatida quyidagi 2017 yil 9 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261-son, 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312-son, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarni keltirish mumkin.

Darhaqiqat, ijtimoiy va ma'naviy hayotdan faoliyat yuritishi uchun inson o'zgaruvchan dunyoda mo'ljalni olishi va harakat qilishi, axloqiy tamoyillarni, o'zini va boshqa odamlarni hurmat qilishni, o'ziga xosligini, bilish qobiliyatini yo'qotmasligi lozim. Shu bilan birga vaqtini his etish, u bilan birga harakatlanish, ya'ni o'tmish bilan bog'liqlik, tarixiy, madaniy xotiralar va urf-odatlarining mavjudligi, kelajakka intilish, hozirgi sharoitga individual ravishda moslashish qobiliyatini saqlab qolish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni tarbiyalash muayyan harakatlar majmui yoki katta avloddan yosh avlodga tajribani bir tomonlama yo'naltirish sifatida ko'rib chiqilishi mumkin emas, balki u kattalar va bolalarning birgalikdagi hayoti sohasidagi o'zaro munosabati va hamkorligi sifatida qaralishi mumkindir. Bu o'z davridagi boshqa odamlar orasida alohida hayot kechirayotgan bolalar va kattalarning yaxlit manzarasida aks ettirilgan faoliyatdir. Bunday holda, milliylik orqali yondashuv shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan subyektga ta'lim berishini ta'minlaydigan yetakchi usulga aylanishi kerak.

Aytilganlar asosida shaxsning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining asosiy shartlari, bizning tushunchamizga ko'ra:

Ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarida mujassamlashgan g'oyalar va qadriyatlar pedagogik hodisalarni tahlil qilishda asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida aks ettirilganlar uning mohiyati va tavsifi haqida fikr yuritishga imkon beradi. O'z navbatida, ijtimoiy va qadriyat mo'ljallari uning umumiy yo'nalishini ko'rishga imkon beradi. Qadriyatli yondashuv ta'lim muammolarini pedagogik jarayonni insonparvarlashtirish vazifalari pozitsiyasidan va avlodlar o'rtasidagi chinakam insoniy munosabatlarning xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, maktabgacha yoshda shaxsning asosi, poydevori shakllanadi. Ushbu muammoning murakkabligiga qaramay, bolalar o'zlarining histuyg'ularining chuqurligi, axloqiy g'oyalar va tushunchalarni tushunish bilan barchani hayratda qoldirishdan to'xtamaydilar.

Jamoaviy tarbiya sharoitida, har bir bola tengdoshlari jamoasiga kirishi, unda o'z o'rnini topishi va boshqalarni tan olishi kerak bo'ladi. Buning uchun bolada alohida fazilatlar shakllangan bo'lishi lozim, ular yordamida esa bola tengdoshlari bilan turli xil munosabatlarni o'rnata oladi. Agar maktabgacha yoshdagi bolaning individual xatti-harakatlari faqat unga tegishli bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar bilan aniqlash mumkin bo'lsa, unda ijtimoiy xatti-harakatlar, bolaga tengdoshlari jamoasiga erkin kira olishi va bolalikning mazkur muhitida

harakatlanishiga imkon beradigan maxsus fazilatlar bilan tavsiflanadi. Bolani ijobiy tavsiflovchi bunday fazilatlariga tashkilotchilik, tartib-intizomlilik, qiziqish kabilar kiradi, lekin bular hali bolani o'z tengdoshlari davrasiga qo'shib ketdi degani emas<sup>19</sup>.

Nazariya va amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalarning potentsiali ularga jamiyatning ma'naviy madaniyati va tarbiya jarayoni o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan axloqiy meyorlarni tushunishga hamda qabul qilishga imkon beradi. Masalan:

**Bolada bag'rikenglikni tarbiyalash** - boshqa kishining turmush tarzi, xatti-harakati, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalariga nisbatan bag'rikenglikni tavsiflovchi umuminsoniy sifatdir. Bag'rikenglik, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shaxsga ma'lum bir jamoaga mansubligini anglashga yordam beradi, milliy madaniyat qadriyatlarini (til, urf-odatlar, adabiyot, san'at, din), shuningdek boshqa millatlarning madaniy qadriyatlarini o'zlashtirishga imkon beradi. Ushbu fazilat odamga umume'tirof etilgan faoliyat usullarini, muloqotni egallashga yordam berib, o'zi va boshqa odamlarning tajribalarini, intilishlarini, ehtiyojlarini munosib aks ettiradi. Masalan, tajovuzga tajovuz bilan javob bermasdan, balki o'zaro tushunishni, murosaga kelgan holda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga harakat qilishlikdir.

**Axloqiy qadriyatlar** - Bola shaxs sifatida yaxlitning bir qismidir, u asta-sekin rivojlanib, ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, kattalarning yo'naltirilgan rahbarligi ostida do'stlik, o'zaro yordam va o'zaro tushunish tamoyillariga asoslangan jamoaga, bolalar uyushmasiga aylanishi mumkin bo'lgan jamoalarga qo'shiladi.

**Hamkorlik** - birgalikdagi harakatlarni muvofiqlashtirish, muloqot va o'zaro tushunishni tashkil etish maqsadida yuzaga keladigan individual va jamoaviy harakatchanlik.

Tavsifli jihati - ijobiy munosabat, hamdardlik va qayg'urishlik, sheriklik munosabatlari va o'zaro yordam nuqtai nazaridan kelajakka umumiy intilishdir.

Shunday qilib, bola shaxsining hissiy yo'nalishini, tengdoshni kuzatish va ko'rish qobiliyatini, uning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, asta-sekin rivojlantirib, bolalarni birgalikdagi faoliyatga jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mumkin bu jamoaviy munosabatlarni shakllantirishning eng muhim sharti, chunki, bunda bolada axloqiy hamdardlik, hamdardlik, o'zaro yordam kabi qadriyatlar namoyon bo'ladi. U holda pedagogik qo'llab-quvvatlash sharoitida qadriyatlar asosida tashkil etilgan faoliyat amalga oshirishning muhim sharti bo'ladi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2017 й. 1 январ, № 1-сон (32.216).

2. Эстетическое воспитание и развитие детей дошкольного возраста: Учебн. пособие/ Е.А. Дубровская, Т.Г.Казакова и др; Под ред. Е.А.Дубровской, С.А.Козловой. - М.: ИЦ «Академия». - 2012. - 256 с.

3. Yarmanova Y.B. Maktabgacha yoshdagi bolalar individualligini hisobga olgan holda jamoaviy munosabatlarni shakllantirish modeli. Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriu. Nekis-2019. №3.-140 b

4. Yu. B. Yarmanova Jamoaviy munosabatlarda shaxs sifatlarini tarkib toptirish. Rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlik sifatlarini shakllantirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax-2020 yil 22-may

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna**

Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta'lim

---

<sup>19</sup>Yarmanova Y.B. Maktabgacha yoshdagi bolalar individualligini hisobga olgan holda jamoaviy munosabatlarni shakllantirish modeli Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriu. Nekis-2019.N 3 , 140-bet

**Annotatsiya** ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining berilish tartibi, o'quvchi bilan mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar bilan ishlash hamda o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda mashqlar tahlili, so'zlar izohini yoritish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili va o'qish savodxonligi darsligi, mashqlar tahlili, tushunilishi qiyin so'zlar izohi, ijodiy fikrlash, yozma nutq.

### **Methodology of development of reading and writing skills of primary school students**

**Annotation** In this article, the order of giving elementary school mother tongue and reading literacy textbooks, independent work with the student, work with exercises of a creative nature that encourages thinking, and the analysis of exercises to improve the written literacy of students, and the explanation of words are discussed. .

**Key words:** native language and reading literacy textbook, analysis of exercises, explanation of hard to understand words, creative thinking, written speech.

### **Методика развития навыков чтения и письма у учащихся начальных классов.**

**Аннотация** В данной статье рассмотрены порядок предоставления в начальной школе учебников по родному языку и грамоте чтения, самостоятельная работа с учащимся, работа с упражнениями творческого характера, стимулирующими мышление, а также анализ упражнений по повышению письменной грамотности учащихся, а также объяснение слов обсуждается. .

**Ключевые слова:** учебник родного языка и грамотности чтения, анализ упражнений, объяснение труднопонятных слов, творческое мышление, письменная речь.

Bugungi kunda ta'limning sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Milliy o'quv dasturi ta'lim tizimini keng isloh qilish, fanga doir bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, ta'lim mazmunini tubdan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik tufayli xalqimiz yangi tarixiy davrga qadam qo'ydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning maqsad va vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etadi. "Ta'lim to'g'risida"gi hamda Xalq ta'limi vazirligining yangi darsliklar avlodini yaratish to'g'risidagi qarori va talablaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan yangi ona tili darsliklari nashr qilinmoqda. Ushbu darsliklar oldiga bir qator talablar qo'yilmoqda. Darsliklarning yangi avlodi, avvalo, unda berilgan o'quv topshiriqlari o'quvchini faol ishlashga, shuningdek, mustaqil va ijodiy fikr yuritishga o'rgatadigan shaklda tuzilmog'i zarur.

Hozirda amaldagi boshlang'ich sinf ona tili darsliklari zamon talablariga javob beradimi degan savolga javob izlash maqsadida mazkur darsliklarni tahlil etishni maqsad qildik. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarini tahlil qilishda Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursunlar hammuallifligida 2021 yilda chop etilgan 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan mavzular va ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qay tartibda berilganlik jhatlarini o'rganishda quyidagi holatlari kuzatildi:

1. Mundarija bo'yicha mavzularni yoritilishi;
2. Mantiqan o'ylantiruvchi matnlar savoliga e'tibor berish;
3. Darslikda keltirilgan muammolarni o'rganish;
4. Ona tili faniga doir mashqlarning berilishi;
5. Bir necha fanlarga oid ma'lumotlarning yoritilishi o'rganildi.

Darslikda o'quvchini mustaqil ishlash, fikrlashga undovchi ijodiy xarakterdagi mashqlar nihoyatda oz miqdorni tashkil qiladi. Negaki ona tili fanida o'quvchilarning yozma



savodxonligini oshirishda mashqlar bilan ko'proq ish olib borish yaxshi natija beradi. Ayniqsa, darslikda har bir bo'lim yuzasidan nomlanish maqsadga muvofiq, lekin o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda yetarli emas. Masalan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslikning 14-sahifasida berilgan "Katta bo'lsam nobel mukofotini olaman" 1-bo'limida berilgan topshiriq va savollar kichik yoshdagi o'quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Negaki o'quvchilarga har bir so'zlarning, ayniqsa, nobel, olim, mikroskop, soha, mutaxassis so'zlarining nima ekanligi haqida izoh berilmasligi ular uchun tushunarsiz bo'ladi. Ushbu bo'limlarda mashqlar yozish va uni to'g'ri bajarilishi haqida deyarli hech narsa kiritilmagan. Shu bois har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi qo'shimcha tarzda ma'lumotlarni to'g'ri yetkazish muhim sanaladi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib, unga o'z fikrini erkin bayon etish va yozishga imkoniyat beradi. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? Dastlab, o'quvchilariga yozma savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi. Masalan:

1. Qaysi gullarni yoqtirasiz?
2. Fasl nomlarini ayting.
3. Qushlar nomini bilasizmi?

Ushbu savollar orqali o'quvchilarning qiziqishi va ularning e'tibori jalb qilinadi. So'ngra dars jarayonida quyidagi "Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usul qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish va ta'lim jarayonining sermahsul, tartibli o'tishiga ko'mak beradi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning o'zida barcha g'oya hamda takliflarni yozib borish lozim.

"Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usul orqali o'quvchilarning zukkoligi, so'zlar tartibini to'g'ri qo'llay olishi e'tiborga olinadi. Bir necha xato so'zlar ekranda namoyish etiladi. Ularning to'g'ri variantlari o'quvchilar tomonidan doskada bajariladi: **Kitop – kitob, soat- sog'at, daftar – daptar, tabiat –tabiyat, ayna – oyna, stol – ustol, kata - katta, maktab- maktab**

Agar o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan vazifani bajarishdan maqsad nimaligini bilmasa, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaydi. Takomillashgan o'quv tizimida o'quvchi istaklari bilan tavsiya etilgan mavzu mos kelmasligi katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Ba'zida o'qituvchilar o'tayotgan darslarida dastur mavzularini o'quvchida boshlang'ich istak asoslariga mos ravishda amalga oshirishda qiynaladilar. Bunda innovatsion texnologiyalar ular uchun zaruriy ko'mak bo'lib xizmat qiladi. Uning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Bunday holatda qiziqarli innovatsion texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tili fanidan mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, darslik mazmunini tushunishga tayyorlashi, matnlar tahlilini tushunishi — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, mavzular yuzasidan chuqur mushohada yuritishga yo'naltiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish ham xuddi matn tahlilidagi kabi so'z, so'z birikma, gap va matnning tartibini o'rgangani singari amalga oshiriladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalqaro baxolash dasturi orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi bo'yicha jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyati, matnlar mazmunini turli xil shakllar yordamida o'zlashtira olishlarini baholashimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:



1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori
2. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11 sinf).2020.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 2-sinf uchun. K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. B. – 6.
4. To‘xliyev B., M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
5. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oqitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.(92, 352 b)
6. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.2010 y.

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

**Zulayxo Djo‘rayeva**

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM  
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus  
ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada akmeologiya va texnologiya tushunchalarining mazmun mohiyati batafsil o‘rganilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalarining muhim xususiyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** akmeologiya, texnologiya, inson resurslari, akme, akmeologik moyillik.

Hozirgi kunda pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish, milliy va jahon tajribasi asosida ta’lim berishning amalga oshirilishi muhim vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, yetuk professional kadrlarni axloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu mexanizmlardan biri — inson resurslarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo‘llarini izlab topish, ya’ni o‘ta muhim yechimlaridan biri — akmeologiyaning ijtimoiy-axloqiy muammolarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Shu bois, uchinchi ming yillik bo‘lag‘asida shiddatli kechgan intellektual izlanishlar davrida evriologiya, ergonologiya, refleksologiya bilan bir qatorda yuksak texnologiyalarni yaratish g‘oyalari, nafaqat an’anaviy ishlab chiqarish, balki insonning ijtimoiy-axloqiy faoliyatlarini o‘rganuvchi fan — akmeologiyaning ri- vojlanishi bilan bog‘landi.

Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga asos solgan psixolog B.G.Ananyev, «Insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so‘nggi ontogenez, «chetraqda» esa insonning ko‘proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo‘lishi mumkin», deb hisoblaydi.

Albatta, bu jarayonlarning barchasi, shaxsning individual-ruhiy rivoji haqidagi yagona ilmiy-nazariy g‘oyaning maxsus fundamental ishlab chiqarilgan, o‘smirlik va yetuklikning yosh psixologiyasi qismisiz mavjud bo‘la olmaydi, degan nazariyalar ham yo‘q emas. Shu bois, akmeologiyaning predmeti individ, shaxs individual faoliyatining barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo‘lmog‘i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshq), degan qat’iy konsepsiya yuzaga keldi.

Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho‘qqisi va individual faoliyat bilan bog‘liq ekan, demak and shu cho‘qqi yunonchada «akme» deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi.

Akmeologiya (yunoncha *akte* – *cho'qqi, kamolot, yuksalish, etuklik, logos – fan*) – ilmiy manbalarda professionalizm va ijod rivojlanishidagi qonuniyatlar va texnologiyani o'rganuvchi integrativ kompleks fandır. U kasb-kor faoliyatida yuksaklikka erishish uchun yangi yo'nalish va professionalizmning yuksak darajadagi muvaffaqiyatlar sari yo'naltirilgan samarador tizimlar darajalarini belgilash usullarini ishlab chiqadi va bu jarayonni tabiiy qonuniyatlarga tatbiq etadi deyilgan. Bizningcha, tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi haqidagi fandır va insonning etuklik bosqichida rivojlanish qonunlari va mexanizmini hamda asosan bundanda yuksakroq darajalarni egallash fenomenologiyasini o'rganadi. Ushbu atama biror kasbga, biror bir sohaga mehr qo'yib, bilim va tajribaga tayanib, maqsad sari intilib yashashni bildiradi. Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «*akmeologik moyillik*» iborasi bo'lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xususiyatini anglatadi.

Har qanday fan va amaliyot sohasi texnologiyadan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanadi: konseptual va instrumental. Birinchisi prinsiplar, tushunchalar, terminologiyani, toifalar tizimini, nazariyalarni, qonuniyatlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchisi ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan usul, texnika va texnologiyalardan iborat.

Texnologik daraja ijtimoiy amaliyotning ijtimoiy shartlangan tartibini keng ijtimoiy doirada amalga oshirishga imkon beradi.

Ilmiy adabiyotlarda texnika hodisasi tahlil predmeti sifatida bevosita texnologiyalarning turlarini aniqlaydigan aniq tadqiqot maqsadlariga bog'liqdir.

Zamonaviy texnologiyalarga yangi sivilizatsiya yaratadigan, global rivojlanish omili, jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi vazifasi sifatida qaraladi. Amaldagi texnologiyalar boshqaruvni ratsionalizatsiya qilish, innovatsion usullardan foydalanish va natijalarga erishish uchun eng aniq algoritmlarni tanlashda jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Bugungi kunda akmeologik texnologiyalar faol rivojlanmoqda.

"Texnologiya" hodisasini tahlil qilishga akmeologik yondoshish zamonaviy amaliyotda ta'kidlash va uning namoyon bo'lishining to'rtta asosiy shakli mohiyatini tahlil qilishga imkon beradi:

- ishlab chiqarish;
- fan sifatida;
- aloqa vositasi sifatida;
- inson faoliyati usuli sifatida.

Akmeologiya nuqtai nazaridan texnologiya faoliyat turi sifatida jarayonni optimallashtirish (ta'lim, tarbiya) vazifalari hal qilinayotgan barcha ijtimoiy sohalarda nisbatan mustaqillikka ega.

Texnologiyalar quyidagi sabablarga ko'ra akmeologik toifaga kiradi:

- texnologiyalarning maqsadli yo'nalishi va maqsadi ijtimoiy, shaxsiy, faoliyat muammolarini aks ettiradi va ularni muayyan jarayon va funksiyalar to'plami shaklida hal qilish yo'lini tavsiflaydi.

- texnologiyalardan foydalanish kasbiy faoliyat subyekti sifatida pedagoglarning muhim kuchlarini har tomonlama namoyon qilish va ko'paytirish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

- har xil turdagi texnologiyalar yordamida pedagogning kasbiy faoliyatini tashkil etish, shaxsiy va kasbiy darajasida har tomonlama o'zini o'zi anglashini ta'minlaydi.

Shunday qilib, texnologiya hodisasini akmeologik tahlil qilish pedagoglarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan texnologiyalarni ishlab chiqishda samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

Birinchidan, texnologiyalarni jarayon sifatida o'rganish (qo'llash) mumkin; fan (ta'lim) sifatida, ijtimoiy munosabatlar tomoni sifatida, faoliyat usuli (turi, jarayon) sifatida.

Ikkinchidan, texnologiyalarni nafaqat amaliy, balki belgilangan maqsadlarga ijodiy erishish vositasi sifatida qarash mumkin.

Uchinchidan, texnologiyaning ma'lum bir nuqtasi, usuli, usuli ma'lum bir texnikaning mazmuni va shakliga ega bo'lishi mumkin. Texnika ta'sir kuchi sifatida, uslub sifatida, boshqaruv sifatida ishlatilishi mumkin (vaziyat, harakatlar, holatlar).

Beshinchidan, texnologiyalarda qo'llaniladigan akmeologik bilimlar uning muhim proeksiyalari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum mezonlarga muvofiq texnologiyalashtirilishi kerak. Akmeologik texnologiyalar ichki salohiyatni rivojlantirishga, pedagoglarning kasbiy mahoratini va moslashuvchan qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ular fan yuzasidan bilimlarning butun majmuasini o'z ichiga oladi, bunday texnologiyalar akmeologik asosga ega bo'lib, shaxsning sintez qiluvchi ma'naviyatini to'liq ochib berishga qodir.

Xulosa shuki, akmeologik texnologiyalar "san'at", "mahorat" darajasida belgilangan maqsadlarga amaliy va ijodiy erishish vositasidir. Akmeologik texnologiyalarning maqsadli yo'nalishi ijtimoiy, shaxsiy, faoliyat muammolarini aks ettiradi, ularni muayyan protsedura va operatsiyalar to'plami shaklida hal qilish yo'lini tavsiflaydi. Akmeologik texnologiyalarni qo'llash, kasbiy faoliyat subyekti sifatida pedagogning muhim kuchlarini har tomonlama namoyon qilish va ko'paytirish uchun sharoit yaratadi. Akmeologik texnologiyalar yordamida pedagogning kasbiy faoliyatini tashkil etish, shaxsni hayot va kasbiy akma darajasida har tomonlama o'zini o'zi anglashni ta'minlaydi. Akmeologik texnologiyalar yordamida ongli faol rolni egallab, pedagog ijtimoiy-madaniy muhitning tashqi sharoitlariga, kasbiy faoliyati va maqsadlariga, kelajakka bo'lgan taxminlar va prognozlar tizimiga mustaqil ravishda ta'sir o'tkaza oladi, ularning yutuqlarini baholaydi va shu bilan o'zlarining rivojlanishi va o'zini o'zi anglash strategiyasiga ta'sir qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulxanova I.A., Anisimov O.S., Derkach A.A. va boshqalar. Akmeologiya. Darslik (yelektron). – M.: RAGS, 2004.
2. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.
3. Tillaeva S.N. Akmeologiya asoslari. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2014.
4. Кузмина Н.В. Основы акмеологии. – М., 2007.

#### **COLLECTION OF INFORMATION IN THE SYSTEM OF INTERNAL MANAGEMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTION AND ITS PEDAGOGICAL ANALYSIS**

KH.U.Panjiev a senior teacher of Termez Institute of Engineering and Technology in Termez city, in Uzbekistan

**Аннотация.** В данной статье раскрыт сущность сбор информации в системе внутреннего управления образовательного учреждения и ее педагогический анализ.

**Ключевые слова:** анализ, информация, система, управление, метод, образование, воспитание, контроль, администрация, степень.

**Annotation.** In this article it has been described the notion of collecting, information in the system internal heading of educational establishments and its pedagogical analyses.

**Key words:** analyses, information system, heading, method, education, upbringing, control, administration, degree.

The collection and analysis of information in the internal management system of an educational institution is an important condition and an effective method of management that facilitates the determination of solutions and activities aimed at improving educational and upbringing work.

In fact, the collection and analysis of information is considered an important condition for improving the activities of the educational institution when planning activities both from a scientific and methodological point of view, and from a pedagogical point of view. The

pedagogical significance of the collection and analysis of information in the internal management system of the educational institution is very wide.

For this purpose the links of the continuous education system and the heads of educational institutions should pay special attention to this issue.

The information accumulated in the internal management system of an educational institution can be divided into two groups:

1. Legislative information.
2. Information accumulated by control (information on the state of work).

Decrees and Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan in the system of continuous education, Decrees and orders of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan in the system of continuous education, various orders, methodical instructions of the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, as well as decisions and instructive and methodological instructions of the college in the system of continuing education are referred to the directive information.

This information is brought to the attention of every teacher, educator and technical workers of the administration and various public organizations of the educational institution. Arming the educational staff of the educational institution with directive information opens up great opportunities for the correct organization and improvement of the teaching and upbringing work of the educational institution, with increasing responsibility of each member of the pedagogical staff for their work. For this reason, the collection of directive information in the system of internal management of an educational institution and its training of the pedagogical collective is of great pedagogical importance.

The main purpose of collecting information for control purposes is to identify the state of practical implementation of instructions, instructive and methodological instructions of the administration of the educational institution, the state of the educational and upbringing level of students, the issues of improving the pedagogical skills of teachers and educators, their extracurricular work and work outside the educational institution and a number of other issues.

To fulfill the tasks facing the educational institution today, the pedagogical process should make an impact on the managerial activity of the head of the educational institution. For the correct and timely provision of influence, one should be aware of the daily state of this process. The head of an educational institution, like any other leader, can successfully carry out his activities only if he has reliable information, as well as its essence and content regarding educational and upbringing issues.

The head of the educational institution, armed with reliable information on the issues of teaching and upbringing work, will have the opportunity to analyze the expected results, and thereby outline measures to introduce changes in the pedagogical process and improve it.

Thus, the importance and usefulness of decisions and actions taken by the manager in the internal management system of an educational institution depends on the scientific, completeness and reliability of the information received by him. The degree to which the pedagogical process influences the educational process in the management system of the educational institution of the leader is largely determined by the correct organization by them of obtaining complete and reliable information on the state of work and the ability to correctly analyze it.

The information, which is directly related to the issues of the educational and material and technical base, teaching and upbringing work, extra-curricular activities and work of the out-of-school institution, pedagogical workers, as well as the financial and economic activities of the educational institution, are divided into three main types:

1. Written information.
2. Oral information.
3. Statistical information.

This information is the instructive instructions approved by the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, calculated for a certain period (weekly, monthly,

quarterly, semi-annual and annual) is accumulated, summarized and sent to the relevant parts of the education system. To do this, it is important that the head of the educational institution and his deputies must determine in advance the topics and sources of information.

We considered it expedient to indicate below the sources of this information:

1. Indicators of the national economy plan of the educational institution.
2. The activities of the educational institution in the implementation of general compulsory education.
3. The activity of the educational institution on the issues of educational-material and technical base.
4. Educational and educational work.
5. Extra-curricular work and work of an out-of-school institution.
6. The work of the information and resource center of the educational institution.
7. The activities of the educational institution in cooperation with families and the public.
8. The activities of the educational institution in cooperation with sponsored and production organizations.
9. The activities of the educational institution in cooperation with educational institutions on the scale of the district (city).
10. The activity of an educational institution in cooperation with urban or rural professional colleges.
11. The activity of the educational institution in cooperation with higher educational institutions.
12. Record keeping in an educational institution.
13. Financial and economic activity of the educational institution.
14. Work to provide students with hot food and tea (buffet and canteen educational institution).
15. Activities of the educational institution associated with the parent committee.
16. Agitation activities of the educational institution on the issue of education and upbringing.
17. Work on the organization of medical services for students.
18. Work on the organization of vehicles for students of an educational institution.
19. Work to improve the skills and retraining of teachers.
20. Activities of the educational council of the educational institution and other issues.

This source is in turn considered an internal source of the educational institution. From each given source, you can collect information on various issues based on a specific topic. Therefore, it is important that the head of each educational institution in the distribution of responsibilities among managers should develop in advance the topic of information and collect them within the prescribed time limit.

The degree of leadership of the head of the educational institution depends on the purposeful and timely collection of reliable information on the activities of each teacher, the quality of students' knowledge, their level of upbringing and discipline. An important means of collecting this kind of information is to exercise internal control of the educational institution by determining the state of educational work, which is, monitoring the lessons of teachers.

The pedagogical and general cultural potential of the teacher, the level of his knowledge and preparedness for the lesson, the expedient organization of mental work for students, the process of gaining knowledge of them can all be determined only by observing the lesson. Or, in other words, information on this issue can be collected by observing the lesson.

Another way to collect information about the state of teaching and upbringing work is to talk with teachers and students, get acquainted with the written documentation of the teacher (work plan, methodological developments, notes in class journals), daybooks, writing and other types of student work, use of statistical data, Pedagogical analysis, questioning of students and others. A great pedagogical significance is the operative analysis of the collected information on

the result of the educational work. In this case, it is necessary to indicate not only errors and omissions, but also comprehensively identify the causes of their occurrence.

This, in the first place, should be remembered especially when checking the quality of students' knowledge. Based on observations of lessons and findings on the results of the analysis of the information received on the level of knowledge of students, the number of assignments made and other relevant parameters to the leaders of educational institutions should outline urgent measures to improve the teaching and upbringing process. Since if every information is analyzed and no measures are taken on the basis of these analyzes to improve performance, then it should not be expected that such information collection and analysis will benefit. Therefore, the head of each educational institution should not leave this issue outside its field of vision.

After acquaintance with this information, the heads of educational institutions conduct an operative pedagogical analysis of these data, outline plans for improving the pedagogical activity of teachers and class leaders, and introduce them into the life of the educational institution in one form or another. Such internal management increases the effectiveness of the educational and upbringing activities of the educational institution.

The head of an educational institution is the only responsible state for the whole organization and quality of the educational and upbringing activity of the educational institution. The organizational activity of the head of the educational institution is multifaceted. He should guide the work of teachers, class leaders, manage financial and economic activities, know all the subtleties of this activity, and manage extracurricular work and the work of an out-of-school institution.

The head of the educational institution is very difficult to solve all urgent problems without his close associates. Therefore, when forming the younger generation, his assistants should give correct instructions to teachers, provide them with practical help, and keep an eye on the process of their activities.

#### Reference

1. f Advanced Researc Султонова Ў.Н. International Jurnal oh F CrossRef indexed. Independent learning of students on tihe bass of competence based approach isa guarentee of high efficiency.” Journal Impact Factor -:7.445 ; vol -:7 issue, 12 desember 2019 Res 7 (12) 16-22 Б. [www.journalijar.com](http://www.journalijar.com)

2. Sultanova. O‘.N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

<http://ijirce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf>

3. Sultanova O‘.N. “Based on students’ competency-based approach to physics colve experimental and graphical problems”. Impact Factor -7.472; In Volume 9, Issue 5, May, 2021. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/51/51>

4. Sultanova O‘.N. Technology for solving problems using graphical methods in mathematics lessons and circle lessons . Impact Factor -7.492; Vol. 10, Issue 11, November-:2020й,2265-2275.Б

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=11&type=to>

5. X.O‘.Panjiyev The Peerian Journal Open Access | Peer Reviewed. -ISSN (E): 2788-0303, 2022-yil. <https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/134>

**ELEKTROMAGNETIZM BO‘LIMIDAN MUAMMOLI MASALALAR ECHISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV**

*Termiz muxandislik-texnologiya instituti p.f.d.dots.O‘.N.Sultonova  
Termiz muxandislik-texnologiya instituti assistent. X.O‘.Panjiyev*

**Annotatsiya.** Bugun Oliy ta'lim tizimida katta islohotlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra tabalabalarga har bir fanning mazmunini chuqur singdirish va har bir fan doirasida malakali kadr tayyorlash masalalari ayni ustivor mavzulardan biridir. Ushbu maqolada muallif Oliy ta'lim muassasalarida fizika fanining o'qitilishi va har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, fizikani o'qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan foydalanish haqida batafsil bayon qiladi.

va ilmiy-tadqiqot muassasalarida fizika ta'limini rivojlantirish, fizikaning elektromagnetizm bolimini o'qitishda induksiya, deduksiya metodlaridan keng foydalanish, xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, takomillashtirish, fizika o'qitishda integrativ yondashish asosida ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ta'limda innovatsion axborot texnologiyasini joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

**Maqolaning maqsadi.** Texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnik muxandislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan, hamda o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabani shaxsiy maqsadlari va vazifalari bilan ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchisiga aylanadi. Ushbu yondashuv talabani faol, ongli faoliyatga jalb qilish, axborot, kommunikativ, ta'lim va bilish qobiliyatlarini, shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, o'z-o'zining qadr-qimmatini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Talaba qobiliyati uning kompetensiyasi orqali namoyon bo'ladi. Talaba fazilatlarini, motivatsiyasi, qobiliyati kombinatsiyasini quyidagicha vektor shaklida ko'rsatish mumkin va uning tarkibi, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya to'plami sifatida tahlil qilinadi.

Demak, kompetentlik bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy xususiyatlar yig'indisidan iborat. Talabalarda kompetensiyalarni shakllantirishni quyidagi uch turga bo'ladi:

1. Metapredmet kompetensiyalari (tayanch kompetensiyalar).
2. Predmet-lararo kompetensiyalar.
3. Predmetga oid kompetensiyalar.

Metapredmet kompetensiyalar – bu “predmetdan oldin”, “predmet ustida” degan ma'noni bildiradi. Buning sababi shundaki, inson jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi uchun ma'lum bir turdagi layoqatlarga, qobiliyatlarga, malakalarga ega bo'lishi kerak. Jumladan, o'z fikrini ravon tushunarli holda og'zaki va yozma tarzda bayon qila olishi, zaruriy axborotlarni izlab topa olishi va undan foydalanishi, jamiyatda faol bo'lishi, o'z-o'zini doimiy rivojlantirishi va h.k. xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar kompetentligi quyidagi uchta yo'nalishda erishgan natijalariga ko'ra baholansa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) shaxsiy natijalar; 2) tizimli faoliyatiga ko'ra; 3) o'quv fanlari bo'yicha. Bu esa ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishni taqozo etadi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlarini amaliyotga joriy qilish uchun zarur tizimli ishlarni hal etish lozim bo'lgan qator masalalar ham mavjud.

Talabalarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirishda amaliyotga yo'naltirilgan elektromagnetizm bo'limidan “muammoli masala”larni echish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fizik bilimlaridan foydalanib, kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni yechish bilan bog'liq tipik masalarni ajratib olish va ularni yechish metodikasini talabalarga o'rgatish kerak bo'ladi. Muammoli masala deyilganda, inson oldiga ma'lum hayotiy vaziyatlarda ko'p marta qo'yiladigan maqsad tushuniladi. Insonning kasbiy faoliyatida va maishiy sharoitda fizikadan egallagan bilimlarini qo'llab yechiladigan muammoli masalalarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

Masalani qo'yish jarayonida asosiy rol o'qituvchiga beriladi. Keyingi jarayonda esa talabalar goh adashib, goh to'g'ri yo'lga tushib o'z g'oyalarini taklif qiladilar. Auditoriya doskasida yoki flipchart qog'ozda rasmlarni, sxemalarni chizib muhokama qiladilar. Talabalar

tomonidan berilgan javoblar varianti ikki turga ajratiladi. Ular orasidan maqbulini ajratib oladilar. O'qituvchi mazkur jarayonda yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. O'qituvchi bergan to'g'ri yonalishlardan talabalar talabalarning unumli foydalanishi ta'minlanadi. Talabalar darslikda keltirilgan texnik ob'ektlarni eslab qolmasliklari bois, fizik bilimlar nafaqat kasbiy balki ko'pgina maishiy muammolarni echishda asos bo'lib xizmat qilishini anglab etmaydilar. Agarda kasbiy va maishiy masalalarni qamrab olgan tipik masalalarni ajratib olib, ularning yechish metodlari talabalarga bayon etilsa, amaliyotga yo'naltirib tayyorlash prinsipini samarali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim bo'ladi:

1. Inson o'z hayoti davomida uchraydigan qanday masalalarni fizikadan olgan bilimlarini qo'llab echishi mumkinligini aniqlash.

2. TOTMlarda fizika kursini o'rganish paytida tipik masalalarni echishni o'rgatish uchun masalalarni tanlab olish.

3. Har bir tipik masalani echish metodini o'rganib olish.

### **Konkret masalani yechish texnologiyasini ishlab chiqish.**

1. Faoliyatning maqsadini belgilab olamiz: Konkret masalani echish texnologiyasini ishlab chiqish.

2. Shakllantirilgan maqsad yuqorida keltirilgan elementlarni o'z ichiga olganligini aniqlaymiz: faoliyat ko'rsatilgan - ishlab chiqish; natijaviy mahsulot ko'rsatilgan -texnologiya (metod), ya'ni bajariladigan ishlar tizimi; natijaviy mahsulot xossasi bo'yicha maqsadni shakllantirish ravshan ko'rsatilmagan, ya'ni, harakatlar tizimini nima sababdan ishlab chiqish kerakligi aniq emas.

### **Tipik masalani echish metodini o'rganib chiqamiz**

1 . Uzunligi 30 sm bo'lgan solenoid 3000 o`ramga ega. Bitta o`ramning diametri 11 sm. Tok kuchi 1,5 A bo`lganda solenoid ichidagi magnit maydon induktsiyasini va o`ramlar yuzi orqali o`tuvchi magnit oqimini aniqlang. Agar solenoid ichiga temir karbid yasalgan o`zak joylashtirilsa, induksiya va magnit oqimi qanday o`zgaradi?

*Berilgan:*  $l=0,3$  m -solenoidning uzunligi;  $N=3000$  solenoiddagi o`ramlar soni;  $d=11 \cdot 10^{-2}$  m-bir o`ramning diametri;  $I=1,5$  A-tok kuchi; jadvaldan;  $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7}$  H/m-magnit doimiysi;  $\mu=3000$ -temir karbidning magnit singdiruvchanligi.

*Topish kerak:*  $B_1$  –o`zaksiz solenoiddagi magnit maydon induktsiyasini,  $B_2$  –o`zakli solenoiddagi magnit maydon induktsiyasini;  $F_1$  va  $F_2$  –oldingi shartlarga mos ravishda magnit oqimlarini.

*Yechilishi.* Solenoidning yetarlicha uzunligini hisobga olib, bir jinsli solenoid ichidagi o`q bo`ylab yo`nalgan magnit maydonni hisoblaymiz. Magnit maydon induktsiyasini quyidagi formula bo`yicha aniqlaymiz:

$$B = \mu_0 \mu \frac{IN}{l}.$$

O`zak bo`lmaganda  $\mu=1$  (havo uchun). U holda.

$$B_1 = 4\pi \cdot 10^{-7} \text{ H/m} \frac{1,5 \text{ A} \cdot 3000}{0,3 \text{ m}} = 1,9 \cdot 10^{-2} \text{ T}.$$

O`zak bo`lganda magnit maydon induktsiyasi  $\mu$  marta ortadi:

$$B_2 = 3000 \cdot 1,9 \cdot 10^{-2} \text{ T} = 57 \text{ T}.$$

Magnit oqimini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$F = BS \cos \alpha.$$

Berilgan misolda  $\alpha = 0$  va  $\cos \alpha = 1$ , yuza esa  $S = \frac{\pi d^2}{4}$ .

U holda:



$$\Phi_1 = B \frac{\pi d^2}{4}; F \Phi_1 = \frac{1,9 \cdot 10^{-2} T \cdot 3,14 \cdot 121 \cdot 10^{-4} m^2}{4} = 1,8 \cdot 10^{-4} \text{ Wb.}$$

O`zak mavjud bo`lganda

$$\Phi_2 = 3000 \cdot 1,8 \cdot 10^{-4} \text{ Wb} = 0,54 \text{ Wb.}$$

*javobi.* O`zaksiz solenoiddagi magnit maydon induktsiyasi  $1,9 \cdot 10^{-2} \text{ T}$  va o`zak mavjud bo`lganda esa  $57 \text{ T}$ ; yuqoridagi shartlarda magnit oqimi mos ravishda  $1,8 \cdot 10^{-4}$  va  $0,54 \text{ Wb}$  ga teng.

**2.misol.** Tokli o`tkazgich radiusi  $10 \text{ sm}$  bo`lgan aylana shakliga keltirildi. Bu holda konturning magnit momenti  $0,314 \text{ A} \cdot \text{m}^2$  ga teng bo`ldi. Konturdagi tok kuchini va  $5 \cdot 10^{-3} \text{ T}$  induktsiyali bir jinsli magnit maydon tomonidan ta`sir etuvchi maksimal aylantirish momentini aniqlang.

*Berilgan:*  $r=0,1 \text{ m}$  -bir o`ramning radiusi  $p_m=0,314 \text{ A} \cdot \text{m}^2$  -konturning magnit momenti;  $B=5 \cdot 10^{-3} \text{ T}$  -magnit maydon induktsiyasi.

*Topish kerak:* I-konturdagi tok kuchini;  $M_{\text{maks}}$ -maksimal aylantirish momentini.

*Yechilishi.* Konturning magnit momentini bilgan holda undagi tok kuchini aniqlaymiz:  $p_m=IS_1$  bunda  $S=\pi r^2$ . U holda  $p_m=I\pi r^2$ , bundan

$$I = \frac{p_m}{\pi r^2}; I = \frac{0,314 \cdot \text{A} \cdot \text{m}^2}{3,14 \cdot 10^{-2} \text{m}^2} = 10 \text{ A.}$$

Maksimal magnit momenti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$M_{\text{maks}}=r_m B; M_{\text{maks}}=0,314 \text{ A} \cdot \text{m}^2 \cdot 5 \cdot 10^{-3} \text{ T} \approx 1,6 \cdot 10^{-3} \text{ N} \cdot \text{m.}$$

*javobi.* Konturdagi tok kuchi  $10 \text{ A}$ ; maksimal aylantirish momenti taxminan  $1,6 \cdot 10^{-3} \text{ N} \cdot \text{m}$  ga teng.

**Xulosa.** Fizika va uni o`qitish metodikasi kafedrasida, fizika ta`limining axborot texnik ta`minoti, didaktik, interfaol vositalarini faollashtirish, modulli texnologiyasidan foydalanish, tayanch kompetensiyaning kommunikativ, shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirish, masalani echishda, dars samaradorligini oshirishda qo`llanildi. Fizika o`qitish samaradorligini oshirish oliy ta`lim muassasalarida bo`lajak texnik mutaxassislar tayyorlashning metodik tayyorgarliklarini bilim va kompetensiyaviy asoslarini oshirishda xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

6. f Advanced Researc Султонова Ў.Н. International Jurnal oh F CrossRef indexed. Independent learning of students on the bass of competence based approach isa guarentee of high efficiency.” Journal Impact Factor -:7.445 ; vol -:7 issue, 12 desember 2019 Res 7 (12) 16-22 Б. [www.journalijar.com](http://www.journalijar.com)

7. Sultanova. O`N. “The Place of Competent Approach in Interdisciplinary Relations is a Guarantee of High Efficiency”. In IJICCE, Impact Factor -:7.488 Volume 9, Issue 5, May 2021.

<http://ijirce.com/admin/main/storage/app/pdf/Sx97XFNk9dc709DHPqRISxu4gNd3dfKKSZYTV5ug.pdf>

8. Sultanova O`N. “Based on students`competency-based approach to physics colve experimental and graphical problems”. Impact Factor -7.472; In Volume 9, Issue 5, May, 2021. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/51/51>

9. Sultanova O`N. Technology for solving problems using graphical methods in mathematics lessons and circle lessons . Impact Factor -7.492; Vol. 10, Issue 11, November-:2020й,2265-2275.Б

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=11&type=toc>

10. X.O`Panjiyev The Peerian Journal Open Access | Peer Reviewed. -ISSN (E): 2788-0303, 2022-yil. <https://peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/134>

11. 11. N.Qodirova, O'.Sultonova, S.Jiyanova, X.Panjiev Muammoli masalalar  
echishda kompetensiyaviy yondoshuv. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7279632>  
2022 йил 15-19 бетлар

## O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH ISHLARI

Xalimov Hasan G'ulomovich  
Qashqadaryo viloyati PYAMO'MM Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish  
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada kasbga yo'naltirish ishlari va o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Kasb-hunar, kasbga yo'naltirish, texnologiya darslari, mehnat tarbiyasi, uzviylik.

O'quvchilarni mahalliy sharoitlardan kelib chiqib kasb tanlashga yo'llash uchun zarur bo'ladigan shahar, tuman va boshqa hududiy muassasalarning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji to'g'risida joriy va istiqbolli dasturlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan texnologiya ta'limi mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi mashg'ulotlaridagi (texnologiya va dizayn, servis xizmati, qishloq xo'jaligi bo'limlari)dagi amaliy ishlarni bajarish jarayonida, o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish hamda o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan so'rovnomalar o'tkazish orqali o'quvchilarning qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini aniqlagan holda ulardaga mazkur qiziqish, qobiliyat va moyillikdarini rivojlantirish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya ta'limi darslari va barcha shakllardagi ishlarning chuqur ichki mohiyati o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish, ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish hamda individual qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Respublikamiz ta'lim mazmuni tubdan isloh etilayotgan bugungi kunda o'quvchilarning texnik ijodkorlik mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar ham yangi asoslarda qayta ishlanmoqda. So'nggi yillarda, asosan, yangi va takomillashtirilgan ko'rsatmali qo'llanmalar va ta'limning texnik vositalari, maktab ustaxonalari uchun texnologik moslamalar, xomiy korxonalarda xo'jalik hisobidan amalga oshiriluvchi tadqiqot ishlari doirasida, amalga oshiriluvchi mavzular texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilar texnik ijodkorligining ob'yektlari bo'lmoqda.

Pedagog olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, biz quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik:

o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va moyilliklarini aniqlab ularni uyg'unlashtirib jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarni tanlab, ertangi kunda davlat va jamiyatning rivojlanishiga o'zlari ongli tarzda tanlagan kasblari bilan o'z hissasini qo'shishlari ularning o'zlari mustaqil tanlagan kasb-hunarlari doirasida faoliyat ko'rsatishlarida namoyon bo'ladi,

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida kasb-hunar tanlashda o'quvchilarning moyilliklarini aniqlab ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini uyg'unlashtirish katta hayotga kirib kelayotgan yoshlar kelajakda o'z kasblarining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlari, ertangi kunda o'quvchilar tanlagan kasblaridan afsus qilmaslikka va tanlayotgan kasblari yuzasidan rejalashtirayotgan g'oyalarini amalga oshirishda yordam berishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya ta'limi darslarini o'tish vaqtida amaliy ishlarni bajarish mobaynida o'quvchilarning amaliy pishiriqlarni bajarishlari natijasida qaysi kasblarga nisbatan qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklari borligini aniqlasa bo'lar ekan. O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'llash ishlarni uyushtirishda sinf rahbari, maktab

psixologi, o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi mutaxassis (o'qituvchi) hamda texnologiya fani o'qituvchisi asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Albatta, u o'z faoliyatini dastlab davlat ta'lim standartaari (DTS) asosida olib borishi talab etiladi. Zero, texnologiya ta'limining vazifalari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturida ifodalangan. Ushbu hujjatlarda maktabdagi mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi izchil ta'riflanib, uning mehnatga muhabbat va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirish, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport xizmat ko'rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirish, o'qish va foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va mahoratini hosil qilish, ongli tarzda kasb tanlash va boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iboratligi ta'kidlangan.

Texnologiya ta'limi darslarida mehnat ta'limi va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruhga birlashtirishni taqozo etadi. Jumladan:

Umumiy o'rta ta'lim vazifalar:

- o'quvchilarda xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi ishchilar, texniklar, muhandislar mehnat faoliyatining mazmuni haqidagi, asbob-uskunalar (mexanizmlar va mashinalar), texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarishning tashkil etilishi haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirish hamda chuqurlashtirish;

- o'quvchilarni texnikadagi ilg'or texnologik g'oyalar evolyusiyasining yo'llari, hozirgi zamon ishlab chiqarishida fan- texnika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni mamlakatimizda yoshlarning ommaviy, ilmiy va texnik ijodkorligining tashkil etilish shakllari bilan tanishtirish, texnika madaniyati malakalarini tarkib toptirish va takomillashtirish, ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ishlash qoidalari, o'quvchini qiziqtirgan fan, texnika va ishlab chiqarish, texnologik masalalar bo'yicha zarur ilmiy-texnik axborotlar olish yo'llarini tushuntirish;

- hozirgi zamon ishlab chiqarishida ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini tashkil etish asoslari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarni mazkur mintaqadagi hunar ta'limi tizimi, tuman(shahar)dagi ishchi kasbining qiziqarli jihatlari bilan tanishtirish kabilar.

Tarbiyaviy vazifalar:

- o'quvchilarda bilishga intilish, texnik havaskorlik va mazkur mintaqadagi texnika hamda ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

- mahalliy fabrikalar, korxonalar, qishloq xo'jaligi sohasida, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot instetutlarida faoliyat ko'rsatayotgan yuqori malakali ustalar, fan, texnika va ishlab chiqarishning taniqli mutaxassislariga chuqur hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

- o'quvchilarda hayotda, mehnatda, o'qishda, mustaqil bilim olishda, birga yashaydigan kishilarga, o'rtoqlarga munosabatda, mahalliy ishlab chiqarishdagi eng hurmatli mutaxassislarga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

- kishilar mehnati natijalariga ongli munosabat, isrofgarchilikka murosasizlik, tabiatga tejamli munosabatni tarbiyalash, iqtisodiy va ekologik tarbiya berish;

- mehnatga ijodiy munosabat, mahalliy ishlab chiqarishdagi ilg'orlarning mexnat usullari, mahalliy korxonalaridagi ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarining mavzular rejalari, mazkur mintaqa uchun yetakchi tarmoqlarda band bo'lgan kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalash; aniq ish o'rnida ishlashga ongli ehtiyojni oshirish;

- mahalliy korxonalar, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlar, mahalliy ishlab chiqarishdagi kasblar tarixi hamda mehnat faxriylariga hurmatni kuchaytirish.

Mana shu barcha pedagogik vazifalarni hal qilishda o'quvchilar bilan olib boriladigan dars va darsdan tashqari ishlar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning umumiy prinsiplari asosda yo'lga qo'yilishi kerak. Ushbu xususiyatlarning biri — dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning barchasi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning umumiy vazifalariga bo'ysunishi. Ularning boshqa bir xususiyati shundaki, o'quvchilar ko'pincha ancha kuch va

vaqtni talab qiladigan texnik ijodkorlik yoki qishloq xo'jalik tajribachiligida fan, texnika, ishlab chiqarishning biror tarmog'iga qiziqishlari tufayli vujudga kelgan o'z xohishlari bilan qatnashadilar, Shunga ko'ra ixtiyoriy tashabbus o'quvchilarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunar tanlashga yo'naltirishning eng muhim talablaridan biri deb hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.
2. Safarova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiq etish yo'llari. T.: Fan. 2005.
3. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.

#### **OILADAGI MEHNAT TARBIYASI VA KASBGA YO'LLASH OMILLARI**

Xalimov Hasan G'ulomovich  
Qashqadaryo viloyati PYAMO'MM Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish  
metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada jamiyatda oilaning o'rni va oilada mehnat tarbiyasini tashkil etish borasida ma'lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga yosh avlodni kasbga yo'llash omillari haqida fikr-mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Oila, ota-ona, tarbiya, farzand tarbiyasi, kasb, kasbga yo'naltirish, mehnat, mehnat tarbiyasi.

Sog'lom va oqila ona, tadbirkor va ibratli ota bo'lish, to'rt muchasi sog', aqlli, zukko farzandni tarbiyalash, unga hayotning barcha qirralaridan saboq berish, yomonliklardan, turli balo-yu qazolardan, xavf-xatardan, yot mafkuradan asrash, odamlar orasida ilmi, fozil, bo'lishga o'rgatishning o'zi bo'lmaydi.

Oila tarixiy ketegoriya sifatida kishilarni tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi bo'lib, uning xilma-xil shakllari va ko'p qirrali vazifalari mavjud ishlab tshiqarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga jamiyat ma'naviyatiga va madaniy taraqqiyotning darajasiga bog'liqdir. Oila ana shu asoslarga tayangan holda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatning ulug' kashfiyoti bo'ldi. Mashhur faylasuf Santayana aytganidek, «Oila- bu-tabiatning shox asarlaridanbiri» ga aylandi.

Oila juftlik qonuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoki bir ayolning o'zi oila bo'la olmaydi. Oila er-xotindan tashqari erning ota-onasi, farzandlari, uka-singillaridan iborat ko'p bo'g'inli xonadon. Uning har bir a'zosi o'z mavqeiga ega, shu oilaning ichki nizomiga bo'syunib yashaydi.

Shu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning o'z saltanati bor: bunda miglab tasodiflar jarayonida er-xotin muhabbati sinovidan o'tadi. Bunda ular bir-birini chuqurroq tushunadilar, qadrlashadi, ketshirimli bo'ladi. Er otaga, xotin onaga aylanadi, farzand tarbiyalanib, orzu havas quriladi. Shu ma'noda oila inson hayotiga to'kislik baxsh etadi, jamiyatning muqaddas maskani sifatida sadoqat sarchashmasiga aylanadi.

Oila jamiyat nizomlari asosida yashasada, oilaviy munosabatlar mustaqil xodisadir. Oila ishlariga bironing aralashuviga haqqi yo'q. Shu ma'noda oila jamiyatning muqaddas va daxlsiz mustaqil muxtoriyatidan iborat saltanatdir. Bu saltanatning podshohi-ota, vaziri-onadir. Oilaviy munosabatlar jamiyatiga mansub ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy munosabatlar zaminida va ta'sirida ketshadi: shu jarayonga xos o'zgarishlar asosida o'zgarib, takomillashib, tanazzulga utshrab boradi.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funktsiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funktsiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkintshi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimida oilaning o'rni, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoattshilik) funktsiyalarini hisobga olish lozim. Oila quyidagi asosiy

funktsiyalarni bajaradi: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, kommunikativ, regulativ (boshqaruv).

Albatta, bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy funktsiyalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom etirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam kabi funktsiyalar hozirgi zamon oilasining muhim funktsiyalari sifatida ko'rsatib o'tilsa, yana boshqa oilashunos mutaxassislar hozirgi zamon oilasi funktsiyalarini: inson zotini davom etirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik funktsiyalarini farqlaydilar. Shuningdek, oila funktsiyalarini: bolalarni dunyoga keltirish, xo'jalik-maishiy, tarbiyaviy, oila a'zolari dam olish va uni tashkil etish, ma'naviy muloqat, seksual, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yurutish uchun zarur vositalarni ia'minlash, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

Quvvatlash kabilardan iborat ekanligini ta'kidlovchi klassifikatsiyalar ham mavjud. Oiladagi mehnat tarbiyasi va kasbga yo'llash omillari. Bu borada ma'lum bo'lmoqdaki, mehnat ta'limining jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismi oiladagi mehnat tarbiyasi hisoblanadi. Sharoitlarning va turmush tarzining o'zgarishi bolalarni mehnatga tayyorlashda oilaning imkoniyatlarini ancha ko'paytiradi.

Ilgari agar oila bu masalada hal qiluvchi ahamiyatga ega va maktab ikkinchi darajada bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib, ularning imkoniyatlari taxminan tenglashadi.

Ushbu holat hamda har bir bolaga oilaning va maktabning ta'siridagi o'ziga xoslik ulardan, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni mehnatga tayyorlashda o'zaro mustahkam aloqada bo'lishni talab qiladi va ikkinchidan, ularning ikkinchisi ham ushbu masalani hal qilishda boshqa hech kim bilan almashtirib bo'lmasligini keltirib chiqaradi. Oilada bolani mehnatga bog'cha yoshidan boshlab o'rgatib borishga e'tiborini kuchaytirish lozim. Bu ishda quyidagi mazmunda bo'lishi ma'lum: o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini singdirish, uyda kuchi yetgan vazifalarni bajarish, kattalar bilan birga uydagi, bog'chadagi, dala hovlidagi mehnatda ishtirok etish.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda oila maktab bilan birga jiddiy mas'uliyatga ega. Oilada mehnatga munosabatda har qanday mehnat uchun zaruriy ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Ota-onalar bolalariga qaysi to'garakka qatnashishni tanlashda yordam berib, ularning barcha fikrlarini qunt bilan o'rganishlari va bolalarni bo'sh paytlarida har xil faoliyatlarga jalb qilib ularni turli mehnat va kasblar bilan tanishtirishlari hamda o'z kuchlari va qiziqishlariga xos mehnatda ko'rish uchun imkoniyat yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Oilada bolalarni mehnatga tayyorlashdagi imkoniyat afsuski, ko'p ota-onalar tomonidan faqat qisman foydalaniladi. Shaharda yashovchi bolalarning yarimiga yaqin oilada doimiy mehnat topshirig'iga ega emaslar.

Mehnatsevarlikni shakllantirish mehnatning har bir turi, bajarish qo'lidan keladigan hunarning mazmuniga qiziqishni rivojlantirish bilan chambarchas bog'langan. Muntazam qiziqish bolalarni faollikka, ijodiyotga, yaxshi sifatli natijaga erishish uchun kuchlar jamlashga undaydi. Kichik yoshdagi bolalarning mehnatini tashkil qilishda quyidagilardan kelib chiqish kerak. Mehnat ular uchun quvonchli hissiyotlar bilan to'la qiziqarli jarayon sifatida namoyon bo'lishi lozim; asta sekin ko'nikmalarni rivojlanishiga olib kelish lozim.

Ota-onalar bolalarning kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshligidan mehnatga chiniqtirib boradilar. Bolalarning mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida oiladagi ijtimoiy muhit katta rol o'ynaydi. Buning uchun ota-onalar, oiladagi katta avlod vakillari namuna bo'lib kelishadi. Odatda qizlar uy yumushlarini o'rganib, onalariga yordam berishadi. Uy va hovlini sarishta qilish, tikish –bichish, taom tayyorlashgan, ukalariga qarashgan. O'g'il bolalar esa ekin ekish, ularga qarash, hayvonlarni boqish, qurilish ishlarini bajarishgan.

Hayotimizda to'g'ri tarbiyaning eng ta'siri- mehnat hisoblanadi. Ota-onalar bolalarning mehnatiga hamma vaqt muhtoj bo'lavermaydilar, lekin ularni yoshligidan mehnatga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

O'zbek xalqi bolajon xalq, o'zbek oilalarida farzandlarining ko'pligi o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ko'p bolali oilalarda mehnat an'analari o'z mazmunini

tashkil etilishi bilan ulardan farq qiladi. Masalan, ko'p farzandli oilalarda jismoniy mehnatda barcha teng qatnashadi. Hamma qobiliyati va jismoniy rivojlanishiga ko'ra taqsimlangan ishni sifatli bajarishga intiladi. Bajariladigan ishlar nazorat qilib boriladi va ota-onalar tomonidan rag'batlantiriladi.

Yakka yoki bir-ikki farzandli oilalarda bolalarni mehnatga jalb etishda biroz ularni asrab-avaylash ko'zga tashlanadi. Lekin har bir bolaning bajargan ishiga ko'ra ota-ona rag'batlantiruvchi so'zlar bilan olqishlansa, bolalarning ruhiy dunyosi boyiydi, ko'ngli ko'tariladi. Masalan, "Barakalla, o'g'lim", "Sening katta bo'lganing his etdim", "Yasha, mening mehnatsevar qizim" kabi olqishlarni aytish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari ota-onalar yoki katta yoshli kishilar bolalarga mehnat haqidagi maqollar, ertaklardan aytishlari mumkin:

Harakating – sog'liging, mehnating-boyliging.

Hamma narsaning otasi-mehnat.

Mehnat va o'qish-og'a-ini.

Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, odam mehnati bilan.

Oilada mehnat an'analari bilan tarbiyalangan bolalar maktabda faollik ko'rsatadilar, mehnatsevarliklari, uddaburonliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar. Bunday bolalar tirishqoq, tartibli bolalar bo'ladilar. Abdurauf Fitrat ta'kiblab o'tganidek, ota-onalar farzandlarining hismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazishga va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishlariga g'amxo'rlik qilishga javobgar hisoblanadi.

Shunday qilib, oiladagi ko'p hollarda qo'l mehnatidan darslar jarayonidagi texnologiya ta'limi va uning zaminida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirilishini, ularni mehnatga tayyorligini integratsiyalashtirilgan jarayonda fanlar asoslarini uyg'unlashtirgan holda o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni mehnatsevar etib tarbiyalash va politexnika ta'limi asoslarida mehnat ta'limi va tarbiyasini kasbga yo'naltirish holatida – tajribalikka, ijodiy ijtimoiy foydali mehnat va ishlab chiqarish jarayonida ko'p ta'limiy va tarbiyaviy masalalariga yechimlar o'z aksini topgan. Ushbu jarayonlar bilan maktab va kasb-hunarga tayyorgarligi orasidagi bog'liqlik umumiy tarzda taraqqiy tavsifga ega bo'lib, ulardagi yangi iqtisodiy munosabatlarni va tarkibiy qismlar orasidagi huquqiy asoslarni ask ettiradi.

O'quvchilar mehnat ta'limi va kasb tanlashi o'qituvchi-murabbiy raxbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, buning natijasida ular mehnat fanlari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini davlat ta'lim standartini bajarish uchun amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydilar, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tezda qo'shilishlariga imkon beradigan shaxsiy sifatlarni va tafakkurni rivojlantiradi. Mehnat tarbiyasi – insonni mehnat faoliyati uchun zarur axloqiy sifatlarni mehnat yordami va mehnatga yangicha munosabatlar sharoitida mehnat ko'nikmalari va malakalarini inson ma'naviy qiyofasining asosi sifatida maqsadli shakllantirishda ongli va har tomonlama rivojlangan fuqaroni tarbiyalashning tarkibiy qismiga aylandi.

Bir so'z bilan aytganda, inson hayotini mehnatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun tariximizda, dastlabki odamlar toshlarga nari beri ishlov berib, ulardan sodda mehnat qurollarini yasashni o'rganishida ham mehnat qilish hamda kasb tanlashga zamin hisoblanadi.

Mehnat qilish jarayonida qo'l tobara takomillashib borgan. Mehnat qilish bilan dastlabki odamzotning ijod qilish qobiliyati ham tarkib topa boshladi. Yashash uchun zarur bo'lgan vositalarni qidirib topishda bolalar ham nisbatan yoshlik g'oyalarida qatnasha boshlaganlar. Shunday qilib mehnat tarbiyasini vujudga keltirishga asos bo'lgan.

Insonning mehnat jarayonida hosil qilgan dastlabki malaka va ko'nikmalari avloddan – avlodga o'tib kelgan. Mehnat faoliyati murakkablashib, mehnat sohasida tajriban to'planib borgan sari, keyinchalik atrof-tevarakdagi hayot to'g'risida bilimlar yig'ilib borgach, tarbiyaning mazmuni ham o'zgarib borgan. Tarbiya bilan eng tajribali, bilimdan kishilar shug'ullana boshlaganlar. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishalarda erkinlikka erishgandan so'ng uning

barcha jihatlarini, ayniqsa, yosh avlodni mehnat tarbiyasi hamda kasbga yo'naltirish tarixiy ildizlarga muvofiq boladi.

O'rta sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi "Avesto"da bolalar kamolotida mehnatning va kasb hunarning ahamiyati to'g'risida g'oya qiziq materiallar mavjud. "Avesto"da inson mehnati moddiy noz-ne'matlarni yaratish manbai bo'lganligi uchungina mehnat qilishga da'vat etilmoqda. Bunda mehnat axloqiy tarbiyaning asosiy vositasidir ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy boylik yaratish zaruridir deyiladi. Tarbiya mehnat faoliyati jarayonida amalga oshirib kelingan, vaqtlarida, odamlar mazkur qoidalarga amal qilib kelishgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.

2. Safarova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tadbiq etish yo'llari. T.: Fan. 2005.

3. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.

#### **TA'LIM OLUVCHILARDA YO'L HARAKATIDA XAVFSIZ ISHTIROK ETISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI:**

Umarov Farhodjon Ilhomovich  
QarshiDU tadqiqotchisi

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o'quvchilarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda ularning psixologik va fiziologik xususiyatlarining o'rni haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, psixo-fiziologik xususiyat, individuallik, yosh davrlari

#### **Annotatsiya**

В данной статье рассматривается роль психологических и физиологических особенностей студентов в обеспечении безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: личность, психофизиологические особенности, индивидуальность, возрастные периоды.

#### **Annotations**

This article discusses the role of psychological and physiological characteristics of students in ensuring road safety.

Key words: personality, psychophysiological characteristics, individuality, age periods.

Zamonaviy jamiyatda transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bularga, birinchi navbatda, yo'l jarayonini xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etish va ular tomonidan xavfsiz harakatlarni qat'iy bajarish uchun harakatning barcha ishtirokchilari ustidan nazoratni ta'minlash kiradi. Shuning uchun yo'llarda yo'l-transport hodisalarining oldini olish muammosini samarali hal qilish uchun kompleks yondashuv zarur. Shunday qilib, maktab o'quvchilarini yo'l harakatida xavfsiz ishtirok etishga tayyorlashning zaruriy shartlari:

1) bolalarning ko'chada, yo'lda va transportda noto'g'ri (xavfli) xatti-harakatlari asosiy sababi bo'lgan bolalarning yo'l-transport jarohatlarining yuqori darajasi;

2) "odam - transport - yo'l va atrof-muhit" mavjud tizim tufayli harakatning barcha ishtirokchilarining o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari;

3) yo'l harakatida xavfsiz ishtirok etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmunida tarmoqlararo omillarning (muhandislik, psixologiya, pedagogika va boshqalar) mavjudligi;

4) maktab o'quvchilarini yo'l jarayonida xavfsiz ishtirok etishga tayyorlash yo'l harakati xavfsizligining amaldagi "qonunlari" va ularga mos keladigan xavfsiz xulq-atvor

qoidalarini asosida, vaziyatni yoshga qarab idrok etishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi [1].

Shaxs rivojlanishining har bir bosqichi pedagogik ta'sirning turli shakllariga o'ziga xos moyilligi bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ish shakllari va usullari yosh davrlariga mos kelishi kerak. Bolaning rivojlanish jarayonida, ayniqsa, ajralib turadigan davrlar mavjud. Ular inqiroz davrlari deb ataladi.

Inson rivojlanishining ma'lum, tanqidiy lahzalari hamma uchun sodir bo'ladi, lekin ularning boshlanish vaqti турли odamlar uchun bir yildan uch yilgacha (qizlar uchun - ko'proq darajada) biroz farq qilishi mumkin. Bu irsiyat, ekologiya, bolani parvarish qilish va tarbiyalash sharoitlari tufayli individual farqlarga bog'liq. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun inqiroz davrlar 6-7 yosh va 10-11 yoshdir. Bu ikkala yosh ham boshlang'ich maktab yillariga to'g'ri keladi [2].

5 yoshli va 7 yoshli bolaning idroki va e'tiborining mexanizmlari sezilarli darajada farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bevosita idrok etish, diqqat ixtiyoriy emas. 7 yoshda emotsional idrokning roli saqlanib qoladi. Agar biz bolaning e'tiborini yo'l belgilariga, plakatlariga, o'yinlarga qaratmoqchi bo'lsak, ularni yorqin, bolaning hayoliy tafakkurini jonlantirishga qodir bo'lishimiz kerak. Bundan tashqari, 7 yoshli bolalar rangga mutlaq sezgirlikka ega. Мазкыр yoshning progressiv xususiyati - o'z-o'zini tashkil qilish qobiliyati, fikr va harakatlarda mustaqillikni namoyon etish. Bu qobiliyatlarning mavjudligi bola ko'chaning qatnov qismini kesib o'tganda muhim rol o'ynaydi.

Miya yarim korteksining funksiyalarini takomillashtirish tufayli bolalarda tanlangan diqqat, kiruvchi ma'lumotlarni differentsial tarzda idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Bundan tashqari, so'zga nisbatan sezgirlik kuchayadi. Bolaga ko'chada kerakli xatti-harakatlar qoidalarini singdirish, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish uchun imkoniyat mavjud [1].

Ta'lim jarayonida bolalar xavfsiz xatti-harakatlarning stereotiplarini o'rganadilar, ular faqat sinfda o'rganilgan holatlarga o'xshash vaziyatlarda amal qiladi. Ba'zi bolalar o'z rivojlanishida yoshga bog'liq ko'rgazmalarga rioya qilishadi. Ular vizual, vosita va eshitish ma'lumotlarini idrok etish qobiliyatini teng ravishda rivojlantiradilar. Boshqa bolalarda esa etakchi modallik yoki idrok etish tizimi rivojlangan. Bunday holda, bola vizual idrok orqali keladigan ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi. Ammo boshqa tomondan, tana orqali ma'lumot olish imkoni uning uchun kamayishi mumkin, unda tana hissi yo'q, harakatlar noqulay amalga oshadi. Yoki shunday bo'ladiki, bola ma'lumotni qulog'i bilan yaxshi qabul qiladi va uyda uni o'rgatishga majbur qilish qiyin. Lekin agar kimdir o'qishga ishtiyoqi bo'lsa, u zavq bilan tinglaydi. Demak, bu holda eshitish usuli yetakchi hisoblanadi. Agar vosita idroki etakchi bo'lsa, unda bolaning ko'rsatmalar, qoidalar va boshqa mavhum ma'lumotlarni o'rganishi qiyin. U o'z tasvirlarida osongina jonlanadigan so'zlarnigina idrok etadi.

Tushunish uchun bola ushbu og'zaki ma'lumot bilan bog'liq his-tuyg'ularga tegishi, his qilishi, hissiy va jismoniy his qilishi kerak. Bu holatda standart yondashuv bolaning o'zini o'zi rivojlanishiga to'siqlik qiladi. Ushbu xususiyatlarni bilib, bolaning rivojlanishi uchun bu imkoniyatdan oqilona foydalanish lozim. Yuqorida aytilganlarning barchasini hisobga olgan holda, bolalar bilan ishlashda iloji boricha texnikalar, shakllar va usullarni diversifikatsiya qilish kerak degan xulosaga kelish kerak. Faqat bu holatda biz kerakli ma'lumotlar barcha bolalarga (axborotni idrok etishning barcha turlaridagi bolalar) etib kelgan deb taxmin qilishimiz mumkin[3].

Afsuski, 7 yoshli bolaning e'tibori beqaror, u osongina chalg'iydi. Bu tananing ko'p funksiyalari shakllanish bosqichida emasligi bilan bog'liq. Markaziy asab tizimida axborotni qayta ishlash jarayoni ular uchun uzoqroq davom etadi. O'tkir signallar yoki avtomobilning kutilmagan ko'rinishi chalkashliklarni, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hissiy vosita reaksiyasini keltirib chiqaradi. Bu vaziyatda u tahlil qilinmaydi va shuning uchun harakatning maqbul yo'nalishi tanlanmaydi. Bola o'zini nazorat qilishni osonlikcha yo'qotadi.



Xavf manbasini payqagan bola, mashina undan qanchalik uzoqda ekanligini va u qanchalik tez yaqinlashishini darhol aniqlay olmaydi. Xavf signalini u harakat uchun signal sifatida qabul qiladi va tezroq qochishga intiladi. Ammo xavf ob'ektiga e'tibor qaratib, bola boshqa mashinani sezmasligi mumkin, buning uchun o'zi xavf manbai bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich maktab yoshi - bu faqat diqqatni shakllantirish davri. Bundan tashqari, bu yoshdagi bolalar tez-tez va osonlik bilan xavfli vaziyatlarga uchraydi. Bu tananing muvozanatini yoki uning tiklanishini ta'minlaydigan fiziologik mexanizmlarning nomukammalligi bilan bog'liq. Yiqilishga chidamlilik 12-14 yoshgacha rivojlanadi. 7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davrda harakatlarning fazoviy dasturini shakllantirish qobiliyatining rivojlanish davri mavjud.

Shuning uchun koordinatsiyani rivojlantiradigan va tanani boshqarish uchun ko'proq erkinlik beradigan bir qator o'yinlar, maxsus mashqlar va mashg'ulotlardan foydalaniish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, 7 yoshli bolada harakatlarning izchilligi va aniqligi faqat vizual nazorat orqali ta'minlanadi. Bu yoshda u harakatlarni hukm qilish uchun tekshirmasdan mavhum ravishda dasturlash imkoniyatiga ega emas.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матюхин В.А., Панченко О.Г., Рубин А.В. Методические рекомендации по обучению школьников Правилам дорожного движения / под общ. ред. А.В. Рубина. – Красноярск, Си- БЮИ МВД России, 2006. – 192 с.

2. Коган М.С. Правила дорожные знать каждому положено: Познавательные игры с дошколятами и школьниками/Авт.-сост. М.С. Коган. – Новосибирск: Сиб. унив. изд-во, 2006

3. Козлова М.А. Классные часы: внеклассная работа: 1-4 классы – М.: Издательство «Экзамен», 2009. – 317(3) с.

## SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM VA AXLOQIY MEZONLARNING AXBOROTLASHGAN JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Turapov Voxid Mamadiyorovich

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va axloqiy mezonlarning uzviyligi, hamda ularning o'zaro munosabatida texnika texnologiyalar taraqqiyotining ta'siri yoritilgan. Qadimdan shaxs ma'naviyati mohiyatan jamiyat mazmuni asosida rivojlanib kelgan, xattoki shaxs g'oyasi jamiyatni tubdan o'zgartirishga, taraqqiy ettirishga ta'sir etgan. Kishilik tarixida o'quv adabiyotlarda shaxs o'z yo'nalishi, tadqiqot ob'ekti va maqsadlarini ifodalagan holda turli talqinlarga ega bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviyat, inson, shaxs, jamiyat, ma'naviy salohiyat, yetuklik, axborotlashgan jamiyat, texnika, texnologiya, axloqiy mezonlar

**Abstract:** In this article, the integration of person-oriented education and ethical criteria in the development of the information society, as well as the influence of technical and technological development in their interaction, is highlighted. Since ancient times, the spirituality of a person has essentially developed on the basis of the content of society, even the idea of a person has influenced the radical change and development of society. In the history of personality, the person has different interpretations in academic literature, expressing his direction, object of research and goals.

**Key words:** Spirituality, man, person, society, spiritual potential, maturity, information society, technology, technology, ethical criteria

**Аннотация:** В данной статье выделена интеграция личностно-ориентированного образования и этических критериев в развитии информационного общества, а также

влияние технического и технологического развития в их взаимодействии. С древних времен духовность человека по существу развивалась на основе содержания общества, даже представление о человеке влияло на коренное изменение и развитие общества. В истории личности человек имеет различные толкования в академической литературе, выражающие его направление, объект исследования и цели.

**Ключевые слова:** Духовность, человек, личность, общество, духовный потенциал, зрелость, информационное общество, технология, технология, этические критерии.

Shaxs jamiyatning madaniy taraqqiyotida aqli va idroki bilan millat an'ana, turmush tarzi va tajribasini davom ettiradi. Shu sababli "shaxs" fenomeni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida tadqiqot markazida turgan. Sharq diyorida shaxs fenomeni axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy me'yorlar orqali tushunilgan va yuksak ma'naviyatga ega qadriyat sifatida qabul qilingan. Inson shaxs sifatida barkamollikka intiladi. Uning atrof muxitga munosabatida va ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi hisoblanadi. Bunday layoqatida biz shaxsning mustaqil fikrlashi, qarashlarida o'z nuqtai nazarini ximoya qila olishi, so'zi bilan ishi birligida ifodalanadigan xayotiy pozitsiyasi ko'rinadi.

Bugungi kunda xayotimizning turli sohalarida axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo'liga o'tishi jamiyatimizga ijobiy ta'sir qilmoqda. Natijada insoniyat axborotlashish sohasida inkilobiy o'zgarishlar davrini boshidan kechirmokda. Dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o'zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konferentsiyasi negizida axborotni uzatish va iste'molchiga yetkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotganini tashkil etadi. Oqibatda XXI asr –axborotlashgan jamiyat asri deb e'tirof etilmoqda.

Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga "ishlov berish", saqlash va jamiyat a'zolariga yetkazishga bog'liq ekanini anglatadigan tushuncha. Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni hozirgi kunda global xususiyatga ega bo'lib, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'zagini tashkil etmoqda. Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi bugungi ilm-fanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. U industrial (O.Kont, J.Mill va boshqalar) va postindustrial (R.Aron, U.Rostou va boshqalar) jamiyat konsepsiyasi o'rnini egallamoqda. Jamiyatni axborotlashtirish o'z bosqichlariga ega. Birinchi bosqich – jamiyatni elektronlashtirish. Bu bosqich yarim o'tkazgichlarni amalga joriy etish bilan bog'liq sof texnik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Navbatdagi – jamiyatni kompyuterlashtirish bosqichida eng yangi kommunikatsiyalar yordamida axborotlashtirishning texnik negizi shakllanadi. Jamiyatni axborotlashtirish bosqichi, o'z mohiyatiga ko'ra, inson va jamiyat manfaatlarini yo'lida axborot ishlab chiqarish va undan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy-texnik va ijtimoiy-madaniy jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, internet jamiyatning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayapti. Internet tarmog'ining imkoniyatlari naqadar keng va cheksizligi bugun barchaga ayon, u gazeta, radio va hatto televideniedan ham kuchliroq ta'sirga ega, axborot oqimi juda keng. Lekin uning o'ziga yarasha boshqa jihatlari ham mavjud, ya'ni, internetning ijtimoiy tarkibi turfa xil ekanligi qator salbiy holatlarni o'zida namoyon etib, bu o'z o'rnida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy, milliy, etnik va boshqa omillarning muvozanati muayyan darajada mavjud bo'lsa hamki, internet tarmog'ida bunday tenglikni ko'rib bo'lmaydi. Bunday holat ma'naviy va milliy an'analarga to'g'ri kelmaydigan, virtual olamning o'zigagina xos bo'lgan internet "madaniyat"ni yuzaga keltirib chiqardi. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlarni ko'rish mumkin. Internet nazoratsizlik tufayli giyohvand moddalarini targ'ib etib, axloqsizlik, zo'ravonlik, qotillik va terrorchilikka da'vat etuvchi g'oyalar bilan sug'orilgan resurslar to'lib-toshgan tajovuzkor axborot makoniga aylanib bormoqda. Tabiiyki, hali axborotga "o'ch

bo‘lgan” aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, “iste’mol” qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdan, bir so‘z bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Shuning asorati hozirgi kunda, ayniqsa, sezilmoqda. Bu ba‘zan yoshlarimizda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda. Endilikda ijtimoiy muhitda yangi axborot jamiyatini yaratish maqsadi muloqot jarayoniga o‘ziga xos xususiyatlar va o‘zgarishlarni olib keldi. Axborotning qimmatligi shaxsning sub’ektiv xulq-atvoriga ega ekanligi bilan izohlanadi. Agar inson maqsadiga yerishsa, u holda foydalanilgan axborot e’tiborga olinmaydi va o‘z qiymatini yo‘qotadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, qadriyatlar turlicha. Qiymat - bu ma’lumotning shaxsga maqsadga erishish yo‘lini tanlash jarayonida foydalanishga imkon beradigan xususiyatidir. Bu fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jamiyatda qadriyatga ega bo‘lgan ma’lumotlardan tashqari, umuman qadrsiz yoki salbiy qiymatga ega bo‘lgan ma’lumotlar ham mavjud. “Axborotlashgan jamiyat rivojlanishining muhim qismi sifatida quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: maqsadga erishish uchun axborotni tanlash imkonini beruvchi axborotning qiymati; ma’lum bir vaziyatga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydigan ma’lumotlarning foydaliligi; ma’lum vaqt davomida ma’lumotlarning buzilishi”

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo‘lmish “Internet” orqali ma’naviyatga salbiy ta’sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta’sir qiladi? Balki yoshlar ma’naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmikan? Bugungi kunda yoshlarimiz – turli xil G‘arb seriallari ta’sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o‘sayotganligi sababli ma’naviyatga chuqur e’tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o‘tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo‘lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishlariga, begona g‘oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e’tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkin, istalgan buzg‘unchi axborotlarga nisbatan mafkuraviy immuniteti shakllanadi, deb o‘ylaymiz.

Xulosa qiliv aytadigan bo‘lsak, Axborot jamiyatida shaxsning axborot madaniyatining shakllanishi uning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining quyidagi so‘zlarini orqali fikrlarimizga yakuni sifatida keltrishini lozim deb bildik: “Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo‘lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak” Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Axborot oqimining tarqalish tezligi ortgan va avj olgan bugungi zamonda ommaviy axborot vositalari davlat hayotida asosiy o‘rin egallamoqda. Ijtimoiy tuzilmada axborot jamiyatning muhim ijtimoiy quroli hisoblanadi. Ular fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini bilish, o‘z g‘oyalari va manfaatlarini himoya qilish, kundalik voqealar haqida o‘z fikrini shakllantirish imkonini beruvchi muhim institutlardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Veb-sayt:www.president.uz Shavkat Mirziyoyev: Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. 26.01.2022
2. Karimova G.A. O‘zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy-axloqiy jihatlari Fan doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati. Toshkent – 2020. –B.5.
3. Yaxshilikov J.Ya, Muhammadiev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B 503-504.
4. Bekmurodov M., Akhmedova F., Kadirova K. Study the process of harmonization formation of personal and professional qualities at students //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. S1. – C. 597-605.

5. Kadirova x. milliy identiklikga ijtimoiylashuv, madaniy, tarixiy meros va tilning ta'sir etish xususiyatlari //universiteti xabarlari, 2022,[1/9] ISSN 2181-7324. 15. Kadirova Y. LOVING THE COUNTRY IS FAITHFUL //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 420-423.

## FANLARNI INTEGRATSIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

*Yangi asr universiteti  
Umumta'lim fanlari kafedrasini mudiri  
Bekchonova Shoira Bazarbayevna  
e-mail: bshb79@mail.ru  
tel: 909341147*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada murakkab global muammolarni hal qilish va turli sohalardagi bilimlarni ilgari surish uchun fanlarni integratsiyalashda IT texnologiyalaridan samarali foydalanishni tadqiq qilish jarayonlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** IT texnologiya, fanlar, integratsiya, informatika, usul, foydalanish, onlayn platforma

### ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНТЕГРАЦИИ НАУК

**Аннотация:** В данной статье освещаются исследовательские процессы эффективного использования ИТ-технологий в интеграции дисциплин для решения сложных глобальных проблем и продвижения знаний в различных областях.

**Ключевые слова:** ИТ-технологии, науки, интеграция, информатика, метод, использование, онлайн-платформа.

Jahon olimlari murakkab global muammolarni hal qilish va turli sohalardagi bilimlarni ilgari surish uchun fanlarni integratsiyalashda IT texnologiyalaridan samarali foydalanishni tadqiq qilish va rag'batlantirish bilan faol shug'ullanmoqdalar. Olimlar fanlararo integratsiya uchun IT texnologiyasidan qanday foydalanayotganiga oid ba'zi misollar[1]:

1. Bioinformatika va hisoblash biologiyasi: Olimlar murakkab biologik hodisalarni tahlil qilish va izohlash uchun biologik ma'lumotlarni hisoblash usullari bilan birlashtirish uchun IT texnologiyasidan foydalanmoqda. Ushbu fanlararo yondashuv tadqiqotchilarga biologik tizimlarni modellashtirish, oqsil tuzilmalarini bashorat qilish va potentsial dori maqsadlarini aniqlash imkonini beradi, bu esa shaxsiylashtirilgan tibbiyot, genomika va dori-darmonlarni kashf qilishda yutuqlarga olib keladi.

2. Geoinformatika va atrof-muhit fanlari: Geoinformatika atrof-muhit tizimlarini tahlil qilish va boshqarish uchun geofazoviy ma'lumotlarni IT texnologiyasi bilan birlashtiradi. Olimlar iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va tabiiy ofatlar kabi hodisalarni o'rganish uchun geografik axborot tizimlari (GIS), masofaviy zondlash va fazoviy tahlil usullaridan foydalanadilar, bu esa ongli qarorlar qabul qilish va resurslarni barqaror boshqarishni osonlashtiradi.

3. Neyroinformatika va kognitiv fan: Neyroinformatika miya tuzilishi va funksiyasini tahlil qilish va modellashtirish uchun nevrologiyani IT texnologiyasi bilan birlashtiradi. Olimlar idrok, xulq-atvor va nevrologik kasalliklarni o'rganish uchun hisoblash modellari, miyani tasvirlash usullari va katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanadilar, bu esa miya funksiyasini tushunishga va nevrologik kasalliklar uchun innovatsion davolash usullarini ishlab chiqishga olib keladi[2].

4. Astrofizika va katta ma'lumotlar tahlili: Astrofiziklar koinotning tuzilishi va evolyutsiyasini o'rganish uchun teleskoplar va sun'iy yo'ldoshlardan olingan katta hajmdagi kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilish uchun IT texnologiyasidan foydalanmoqda. Katta ma'lumotlarni tahlil qilish, mashinani o'rganish va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish usullari olimlarga osmon jismlarini aniqlash, kosmik hodisalarni xaritalash va kosmosning tabiati haqida fundamental tushunchalarni ochish imkonini beradi.

5. Materiallar informatikasi va materialshunoslik: Materiallar informatikasi kerakli xususiyatlarga ega yangi materiallarni kashf etish va loyihalashni tezlashtirish uchun materialshunoslikni IT texnologiyasi bilan birlashtiradi. Olimlar materialning xatti-harakatlarini bashorat qilish, sintez jarayonlarini optimallashtirish va qayta tiklanadigan energiyadan biotibbiyot qurilmalarigacha bo'lgan ilovalar uchun ilg'or materiallarni ishlab chiqish uchun hisoblash modellashtirish, ma'lumotlarni qazib olish va yuqori mahsuldorlikdagi tajribalardan foydalanadilar[3].

6. Ijtimoiy tarmoq tahlili va sotsiologiyasi: Sotsiologlar ijtimoiy tuzilmalar, munosabatlar va insoniyat jamiyatlari dinamikasini o'rganish uchun ijtimoiy tarmoq tahlili (SNA) va IT texnologiyasidan foydalanadilar. Onlayn platformalar, aloqa kanallari va tashkiliy tuzilmalardan olingan keng ko'lamli ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilish orqali olimlar ijtimoiy hodisalar va odamlarning o'zaro ta'sirini tushunishimizga hissa qo'shadigan axborot tarqalishi, jamoaviy xatti-harakatlar va ijtimoiy ta'sir kabi hodisalarni tekshirishlari mumkin.

7. Raqamli gumanitar fanlar va madaniy tadqiqotlar: Raqamli gumanitar fanlar madaniy meros, adabiyot va tarixiy ashyolarni tahlil qilish va saqlash uchun IT texnologiyalari bilan gumanitar fanlarni birlashtiradi. Olimlar fanlararo hamkorlik orqali inson madaniyati va jamiyat haqidagi tushunchamizni boyitib, til naqshlari, madaniy yo'nalishlar va tarixiy hikoyalarni o'rganish uchun matn qazib olish, raqamlashtirish va raqamli arxivlardan foydalanadilar[4].

Ushbu misollar turli sohalardagi olimlar bilim, metodologiya va ma'lumotlarni sohalar bo'ylab integratsiya qilish uchun IT texnologiyalaridan qanday foydalanayotganini ko'rsatadi, bu esa yangi tushunchalar, innovatsiyalar va murakkab global muammolarga yechim topishga olib keladi. XXI asrda ko'p qirrali muammolarni hal qilish va ilm-fan taraqqiyotini rivojlantirish uchun IT-texnologiyalari yordamida yaratilgan fanlararo hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bekchonova Sh.B. Use of "cloud technologies" that store and transmit electronic information in distance l. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 19-23 p
2. Сляднева Н. А. Социальная киберпедагогика // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2012. № 3 (47). С. 148–153
3. Filippidis, A. P., Hilas, C. S., Filippidis, G., & Politis, A. (2018). Information security awareness of Greek higher education students - Preliminary findings. 2018 7th International Conference on Modern Circuits and Systems Technologies, MOCASST 2018, 1–4. <https://doi.org/10.1109/MOCASST.2018.8376578>
4. Wong, C.; Shih, Y. Enhance STEM Education by Integrating Product Design with Computer-Aided Design Approaches. CADandA 2021, 19, 694–711.

### **ADABIYOT FANIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI**

*Yangi asr universiteti  
Umumta'lim fanlari kafedrasini mudiri  
Bekchonova Shoirabazarbayevna  
e-mail: bshb79@mail.ru  
tel: 909341147*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot fanida axborot texnologiyalarini turli fanlarga samarali integratsiyalash o'quvchilarni jalb qiladigan va chuqurroq tushunishga yordam beruvchi innovatsion vositalar va resurslarni taqdim etish orqali o'qitish va o'rganish tajribasini oshirishi xamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish strategiyalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, adabiyot, strategiya, fan, integratsiya, ta'lim, samara, multimedia*

**СТРАТЕГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается эффективная интеграция информационных технологий в различные дисциплины литературоведения, улучшение опыта преподавания и обучения путем предоставления инновационных инструментов и ресурсов, которые привлекают студентов и способствуют более глубокому пониманию, а также стратегии эффективного использования информационных технологий.

**Ключевые слова:** *информационные технологии, литература, стратегия, наука, интеграция, образование, эффективность, мультимедиа.*

Axborot texnologiyalarini (IT) adabiyot faniga samarali integratsiyalash o'quvchilarni jalb qiladigan va chuqurroq tushunishga yordam beruvchi innovatsion vositalar va resurslarni taqdim etish orqali o'qitish va o'rganish tajribasini oshiradi. Adabiyot fanida mavzularni integratsiyalashda IT-texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ba'zi strategiyalar:

1. *Interfaol multimedia taqdimotlari:* O'qituvchilarni fan, matematika va tarix kabi fanlardagi murakkab tushunchalarni tushuntirish uchun interfaol taqdimotlar, videolar va animatsiyalar kabi multimedia vositalaridan foydalanishga undash. Masalan, fan darslarida simulyatsiyalar va virtual tajribalar talabalarga mavhum ilmiy tamoyillarni tasavvur qilishda yordam beradi, bu esa o'rgatilayotgan mavzularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi[1].

2. *Raqamli tadqiqotlar va hamkorlikdagi loyihalar:* Adabiyot, til san'ati, ijtimoiy tadqiqotlar va geografiya kabi fanlar bo'yicha tadqiqot loyihalarini osonlashtirish uchun onlayn ma'lumotlar bazalari, tadqiqot portallari va hamkorlik platformalari kabi IT vositalarini birlashtiriladi. Talabalar bloglar, veb-saytlar yoki raqamli plakatlar kabi multimedia formatlaridan foydalangan holda ma'lumot to'plash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va topilmalarni taqdim etish uchun raqamli resurslardan foydalanishlari mumkin.

3. *Ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya vositalari:* Haqiqiy dunyo ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish va vizual tasvirlarni yaratish uchun matematika, iqtisod va geografiya kabi fanlarda ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlari va vizualizatsiya vositalarini qo'shish. Talabalar tendentsiyalarni o'rganishlari, bashorat qilishlari va ma'lumotlarga asoslangan xulosalar chiqarishlari, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishlari mumkin[2].

4. *Kodlash va dasturlash:* Hisoblashda fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv rejasi bo'ylab kodlash va dasturlash faoliyatini joriy qilish. Talabalar Scratch, Python yoki JavaScript kabi platformalar yordamida til san'ati bo'yicha interaktiv hikoyalarni kodlashni, fanda simulyatsiya yaratishni yoki matematikada matematik modellarni ishlab chiqishni o'rganishlari mumkin.

5. *Raqamli hikoyalar va ijodiy ifodalash:* talabalarni raqamli hikoyalar va ijodiy loyihalar orqali mavzu haqidagi tushunchalarini ifoda etishga undash. Masalan, adabiyot darslarida o'quvchilar personajlar, mavzular va syujet elementlarini tahlil qilish uchun multimedia taqdimotlari, podkastlar yoki raqamli komikslar yaratishi, ijodkorlik va talqin qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin[4].

6. *Virtual dala sayohatlari va kengaytirilgan haqiqat (AR):* o'quvchilarni sinfdan chiqmasdan tarixiy diqqatga sazovor joylar, madaniy obidalar va tabiat mo'jizalariga olib borish uchun virtual sayohatlar va AR ilovalaridan foydalanish. Adabiyot, geografiya, tarix va atrof-muhit fanlari kabi fanlarni o'rganishni hayotga olib keladigan va o'quvchilarning atrof-dagi dunyo haqidagi tushunchalarini chuqurlashtiradigan immersiv tajribalardan foydalanishi mumkin.

7. *Moslashuvchan ta'lim platformalari va o'yinlashtirish:* o'rganish tajribasini shaxsiylashtirish va o'quvchilarni adabiyot fani bo'yicha rag'batlantirish uchun moslashtirilgan o'quv platformalari va o'yinlashtirilgan faoliyatdan foydalanish. O'quvchilarning malaka darajasiga qarab kontentni sozlaydigan va mukofotlar xamda qiyinchiliklarni taklif qiluvchi platformalar mavzuni o'zlashtirishni oshirishi mumkin.

8. *Onlayn baholash va fikr-mulohaza tizimlari:* o'quvchilar taraqqiyotini kuzatish va o'z vaqtida fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun onlayn baholash vositalari va qayta aloqa tizimlarini joriy etish. Shakllantiruvchi baholash platformalari o'qituvchilarga real vaqt rejimida

tushunishni o'lchash va ta'limni shunga mos ravishda moslashtirish, uzluksiz o'rganish va takomillashtirishga yordam beradi[3].

Ushbu strategiyalarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar fan integratsiyasini yaxshilash va o'quvchilar o'rtasida adabiyot fanida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantiruvchi dinamik, interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun IT texnologiyalari kuchidan foydalanishlari mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori. 2017 yil 20 aprel.
2. Aleroud, A., & Zhou, L. (2017). Phishing environments, techniques, and countermeasures: A survey. *Computers and Security*, 68, 160–196. <https://doi.org/10.1016/j.cose.2017.04.006>
3. Bekchonova Sh.B. Masofadan o'qitish texnologiyasining kamchiliklari va afzalliklari. ISSN 2181-9513. Doi Journal 10.26739/2181-9513 "Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar" Maxsus 2-son. T-2020 y. 5b
4. Pleshakov, V. A. 2010. Cyberontology and psychology of information security: the aspect of human cyber socialization in social networks of the Internet environment. Series IV *Pedagogy, Psychology*, 19, 131-137.

### **ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJI MAVJUD BO'LGAN BOLALARNI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR**

Alimova Dilfuza Aslanovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada psixik va jismoniy o'sishida kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitishdagi qiyinchiliklar, ularning rivojlanishidagi muammolar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Psixik va jismoniy o'sishi, kamol topish, shaxs, psixik jarayon, biologik faktorlar, ijtimoiy faktorlar, irsiy zamin, ixtiyoriy diqqat, faol eslab qolish, xotira.

Psixik va jismoniy o'sishida kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitishdagi qiyinchiliklar qay tariqa va nima uchun vujudga kelishini yaxshiroq anglab olmoq uchun avvalo, bolaning normal sharoitida kamol topib borishining asosiy qonuniyatlari bilan tanishib chiqish zarur. Chunki anomal holda kamol topishning asosiy, muhim xususiyatlari normal bolaning kamol topish qonuniyatlari bilan taqqoslanganda ravshan bo'ladi. Bolaning o'sish jarayonida kamol topib boradi, ammo bu kamol topib borish qonuniyatlarini tushunishda ko'pincha xato qilinadi.

Shaxsning kamol topib borishidek murakkab jarayonning sababi biologik faktorlar bilan ijtimoiy faktorlarning birligidir. Shu sababli, bolaning psixik jihatdan kamol topib borishi jarayonini to'g'ri anglamoq uchun shu faktorlardan har birining rolini va ahamiyatini o'qib olish muhimdir.

Har qanday psixik jarayonning kamol topib borishida irsiy zamin ham, muhit ta'siri ham ma'lum o'rin olgan bo'ladi. Ammo psixikaning turli tomonlarida, turli yoshlarida bu ta'sirlarning hissasi har xil bo'ladi. Bola hayotining ilk bosqichlarida tarkib topadigan oddiy harakat akti uning kamol topib borishida ko'proq biologik faktorlarga bog'liq bo'ladi. Inson psixikasining organik birligini va bu uning tarkib topish jarayonida turli bosqichlardan o'tishini e'tiborga olib shuni ta'kidlash zarurki, ixtiyoriy diqqat, faol eslab qolish, fikrlash faoliyati singari murakkab psixik jarayonlarning kamol topishi, shuningdek, tarkib topguncha uzoq yo'lni maktabgacha tarbiya, maktab, o'smirlik, yigitlik yoshini bosib o'tadigan xarakter va xulq-atvorning kamol topishi irsiyatga qaraganda beqiyos darajada ko'proq atrofdagi ijtimoiy muhitga, bolaga tarbiya va ta'lim berish sharoitiga, madaniy-maishiy muhitga, muomala xarakteriga, faoliyat ko'rinishlari va usullariga va shu singarilarga bog'liq bo'ladi.

Muhit bolaning kamol topib borishi uchun sharoit sifatidagina emas, balki manba sifatida ham namoyon bo'ladi. Bola dunyoga kelgan dastlab kunlaridanoq uni o'rab olgan ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatda va uning ta'siri ostida bo'ladi, bu muhit uning kamol topib borishini belgilab beradi. Bolaning kamol topib borish jarayonida bir xarakterli xususiyat borki, navbatdagi har bir yosh bosqichida o'zgarishlar ro'y beradi va shu bilan bir vaqtda shaxsning yangi xususiyatlari ham vujudga keladi. Ana shu yangilikning vujudga kelishi bolaning kamol topishidagi asosiy va muhim belgidir.

Kamol topib borish jarayonida psixik jarayonlarning o'zigina tarkib topib qolmay, balki bu jarayonlar o'rtasida murakkab o'zaro bog'lanish va o'zaro munosabatlar ham yuzaga keladi, bu esa umuman ong tarkibining rivojlanishini ta'minlaydi, ong darajasi esa o'z navbatida har bir psixik jarayonning bundan buyongi rivojlanishini va ongli faoliyatining ayrim formalarini belgilab beradi.

Har bir psixik funksiyalarning tarkib topib borishi jarayonida L.S.Vigotskiy ko'rsatib o'tganidek, kamol topishning o'z optimal bosqichi bo'ladi, bu bosqich esa ongdagi ana shu funksiyaning hal qiluvchi mavqeini tashkil qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning differensiallashmagan ongida avvalo idrok etish funksiyasi ajralib turadi. Idrok etish funksiya hali elementar effektiv reaksiyalar bilan qo'shilgan holda bo'lsa ham, lekin uning ajralib turishi bolaning chaqaloqlik yoshidagi kamol topib borishi uchun idrok funksiyasiga ustunlik mavqeini beradi.

Bola kamol topib borishida asosiy o'rinni egallaydigan nutq singari murakkab turiga ham yuqoridagidek taaluqlidir. Nutqning eng intensiv suratda o'sib borishidagi hal qiluvchi bosqich 1,5 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bola nutqi 1,5 yoshgacha muayyan darajada o'sib boradi. 5 yoshdan keyin nutq juda intensiv suratda va xilma-xil tarzda o'sib boradi, ammo uning o'sish sur'ati umr bo'yi 1,5 dan 5 yoshgacha bo'lgan darajaga hech qachon etmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshida boshqa psixik jarayonlar va xususan xotira rivojlanishda shunday ustun mavqeini egallaydi. Xotira shubhasiz maktabgacha tarbiya yoshigacha va undan keyin ham kamol topib boradi. Ammo u o'z kamol topib borishining eng yuksak darajasiga xuddi shu yoshda etadi.

Biror yosh davrida kamol topib borishning buzilishi kamol topishning navbatdagi davrlariga muqarrar suratda ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, psixik jihatdan kamol topib borish bir qator yosh davrlarini o'z ichiga oladi: 1 yoshdan 3 yoshgacha, maktabgacha tarbiya yoshi bosqichi – 3 yoshdan 7 yoshgacha, ilk maktab yoshi bosqichi – 7 yoshdan 11 yoshgacha, o'spirinlik bosqichi – 11 yoshdan 15 gacha va yigit-qizlar bosqichi 15 yoshdan 17-18 yoshgacha.

Ba'zi bir o'quvchilarning xul-atvoridagi o'zgarishlar va ularning o'zlashtirmasliklari og'ir psixik kechinmalar sababli vujudga kelishi mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki kechinmalar ko'p bo'ladi va ular bolaning kamol topishi jarayonida muqarrar ravishda ro'y beradi, bolalarning xatti-harakati va faoliyatida o'zgarishlarga olib kelavermaydi. Ammo og'ir kechinmalar normal psixik kamol topib borish jarayonining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bolaning psixikasiga yomon ta'sir ko'rsatadigan vaziyat oqibatida paydo bo'ladigan asab psixik buzilishlar reaktiv holat deyiladi.

Bolalarda reaktiv holatlar vujudga kelgan vaqtdagi asab psixik buzilishlar xilma-xil xarakterda va turli darajada namoyon bo'ladi, bu hol bolaning psixikasiga yomon ta'sir ko'rsatayotgan vaziyatning o'tkirligi va og'irligiga, uning qancha vaqt ta'sir ko'rsatib turganligiga, bolaning yoshiga, uning umumiy sog'ligiga hamda individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Reaktiv holat duduqlanishda, tananing turli joylari uchib turishda, siyg'oqliqda namoyon bo'ladi. Qattiq psixik ta'sir ko'rsatuvchi lat eyish paytlarida bolaning esi kirar-chiqar bo'lib qolish holatlari ham uchraydi, ya'ni bola shunday ish-harakat va qiliqlar qiladiki keyinchalik uni eslay olmaydi. Ayrim bolalarda ortiqcha besaranjomlik, behuda harakatlar, yarashmagan qiliqchar qilish orqali psixopatik asabiylik holati vujudga keladi. Boshqalarda esa aksincha tormozlanish reaksiyasi paydo bo'ladi. Ular bamisoli dong qotib qolganday bo'ladi.



Kichik yosh vaqtida ba'zi bir funksiyalarning bajara olmaslik, mutizm uchraydi, o'smirlarda esa reaktiv holat ancha murakkab tus olishi mumkin, qo'rqish, xavotirlanib yurish, ovqat emaslik. esankirash, tevarak atrofdagilarga telbacharcha munosabatda bo'lish va hokozo.

Maktab o'quvchilarining xulq-atvori va xarakteriga ayniqsa og'ir ta'sir qiladigan narsa enurez (siyg'oqchikdir). Bu hol, ko'pincha, bir vaqtlar qandaydir uzoq vaqt serdiqqat ish bilan shug'ullanish yoki hayajonlanish, bir narsadan qattiq qo'rqish, organizmni zaiflashtiruvchi biror somatik kasalga duchor bo'lishi natijasida, asabi buzilgan va jismoniy jihatdan zaiflashib qolgan bolalarda vujudga keladi.

Tengdoshlari bunday bolalarni masxara qilib kuladilar va ularga kishini xafa qiluvchi laqablar qo'yadilar. Maktab-internatlarda ko'pgina bolalar ular bilan bir xonada yashashni istamaydilar. Enurez kasaliga muhtalo bo'lgan deyarli hamma bolalarda o'zining to'la qiymatli emasligini his qilish vujudga keladi va bu narsa har xil namoyon bo'ladi. Bunday bolalar ba'zilari juda tortinchoq, uyatchan, qo'rqqoq, qat'iyatsiz bo'lib qoladilar, boshqalari esa aksincha qahrli, asabiy va agressiv bo'ladilar. Har ikkala turdagi bolalar ko'pincha qo'rqqoq bo'ladilar. Keyinchalik qo'rquv har xil tus ola boshlaydi: qorong'ilikdan qo'rqish, yangi ish oldida qo'rqish, yangi vaziyatdan, yangi kishilardan qo'rqish boshlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ko'p vaqtlar bolalar o'zlarining biror jismoniy kamchiliklaridan (cho'loqlik, g'ilaylik, ko'zi xiralik, bukrilik va hokazolardan), ma'lum bir asab kasalliklaridan (duduqlanish, biror a'zosining uchib turishi, qo'rquv va shu singarilardan) juda iztirob chekib yuradilar. Bolada ana shunday kamchiliklarning birortasi bo'lsa, unga atrofidaqilar noto'g'ri munosabatda bo'lgan taqdirda bola o'zining muhim emasligini his qiladi. Bu esa uni indamas bo'lib qolishga, yurish-turishidagi qiyinchiliklarga, ba'zi hollarda esa uning vazifalarni ulgurishi pasayib ketishiga olib keladi.

## **DEVIANT XULQ-ATVORLI BOLALAR ALOHIDA XUSUSIYATLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TASHXISI**

*Tog'ayeva Kamola Ismoilovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**ANNOTATSIYA.** Maqolada deviant xulq-atvorli bolalar alohida xususiyatlar, ulardagi uchraydigan muammolar haqida ma'lumotlar berilgan.

**KALIT SO'ZLAR.** deviant xulq-atvorli bolalar, tajanglik, tezkorlik, shaxs, arazlashuv, guruhlariga bo'linish, o'smirlar.

Psixologiya, pedagogikaga oid adabiyotlarda o'smirlarning 11-12 dan 15-16 yoshgacha bo'lgan davri jinsiy yetilish, faol jismoniy o'sish, shaxs sifatida shaklanishi davri deb sifatlanadi. Ayni shu davrda insonlarning fe'li, ijtimoiy munosabatlari sha-kllanib, odamlarga atrof voqealikka bo'lgan munosabatlari ham yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi.

Aytish joizki, aynan shu yoshdan boshlab, o'z-o'zini anglash, bolalik his-tuyg'ularini kattalar dunyoqarashiga o'zgarishi, shaxsni ichki «meni» va uni anglash davri boshlanadi. O'smirlik davri eng murakkab palla hisoblanadi.

Ularning jismi, aqli, ongida bo'layotgan o'zgarishlar bezovtalik, his- tuyg'ularning beqarorligi, ichki kurashlar sababchisi bo'lib qoladi. O'smirlar ko'p hollarda nafaqat jismoniy rivojlanishdan, balki bir qancha ijtimoiy insonlararo munosabatlarda ham bezovtalik, noqulayliklarni boshdan kechiradilar. Shaxsning kamol topishdagi asosiy bosqichlardan bo'lgan o'smirlik yoshi shu bilan ajralib turadiki, unda shaxs ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lib, jinsiy tomondan yetiladi.

Ba'zi o'smirlar tezroq, ba'zilar sustroq rivojlanishadi. Bu davr shunchalik qarama-qarshiliklar, keskinliklarga boyki, olimlarning ba'zilari bu davrni uzluksiz muammolar davriga tenglashtirishadi. O'smirlarning yosh davri xususiyatlari ular fe'lidagi xislatlarga chambarchas bog'liqdir. O'smirlarning bir-biridan farqi keskin namoyon bo'lmasligi mumkin.

Deviant xulqli o'smirlar uchun tartibbuzarliklar, yaqin insonlari bilan keskin muomala, «ko'cha» va turli to'dalarning ta'siriga oson berilishi kabilar xos. Oiladagi salbiy, beshafqat muhit, ma'lum turdagi o'smirlardagi qo'pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratadi, ular atrofdagilarga nisbatan qarama-qarshi ruhda harakatlanib, tajovuzkorona buzg'unchilik sifatlarini namoyon qilishadi. O'smirlar xulqidagi deviantlikning oldini olish, unga qarshi kurashish maqsadida ularning nafaqat yosh davri balki shaxsiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish davomida ular yuqoridagi xususiyatlariga ko'ra, 3 guruhga bo'linishi ma'lum bo'ladi.

1. Shaxsning ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish xususiyatlari, shuningdek, o'zaro muloqotga kirishish xossalari;

2. Shaxsning guruh ichidagi o'zaro munosabati va guruh uchun umumiy bo'lgan qadriyatlarni qabul ila olishi;

3. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvori, atrof-voqelikka bo'lgan nuqtai-nazari bilan bog'liq bo'lgan umumiy xususiyatlari. Uch guruhning ijtimoiy-psixologik xossalardan kelib chiqqan holda, deviant xulqli o'smirlarning ba'zi bir o'ziga xosliklarini aniqlash mumkin.

Ijtimoiy persepsiya - guruh ichida qabul qilingan o'zaro muomala meyorlari va xulq-atvor mezonlarini o'zlashtirish. Deviant xulqli o'smirlar guruh ichidagi ular uchun referent, ya'ni ahamiyatli hisoblangan guruh a'zolarining muomala, xulq-atvor, munosabat meyorlarini o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Ijtimoiy xayolot - o'zining hayotiy tajribasiga tayanib, shaxsiy va umuminsoniy qobiliyatlarga baho bera olish.

Ijtimoiy holat - deviant xulqli o'smirlarda juda zaif rivojlangan yoxud umuman bo'lmaydi. Ijtimoiy tafakkur - insonlarning o'zaro muloqot va ijtimoiy munosabatlardagi bog'liklariga ko'ra tushuna bilish qobiliyati. Bu qobiliyat ham zaif rivojlangan o'smirlarda ko'pgina hollarda mavjud emas.

Ijtimoiy faollik - deviant xulqli o'smirlar o'z tengdoshlari tomonidan bo'ladigan maqtovlardan manfaatdor bo'lsalargina o'zaro yordam ko'rsatib, javobgarlik hissini sezadilar.

Deviant xulqli o'smirlarga quyidagi xususiyatlar xosdir:

-lider fikriga buysinish va unga ishonish;

-o'zining guruhi o'smirlariga taalluqli bo'lgan muomala;

-muloqot meyorlarini qabul qilish.

Barcha ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, shaxs qobiliyatlari o'ziga xosdir, ularning muloqot, faoliyat va o'zaro muomala jarayonida rivojlanishi esa shaxsning jamiyatda, oilada, jamoada ijtimoiy faolligi yoki passivligini belgilaydi.

Yuqorida aytib o'tganimiz: «ijtimoiy xayolot», «ijtimoiy tafakkur» kabi xossalalar alohida ahamiyatga egadir. Ammo, aynan shu xossalalar deviant o'smirlar tabiatidagi eng kam o'rganilgan xossalardir. O'smirlar jinoyatchiligini o'rgangan psixolog A.I.Dolgovaning ta'kidlashicha, huquqbuzarlik qilishdan avval o'smirni xulq-atvorida meyordan keskin chekinishlar bo'lib o'tadi.

Deviant xulqli o'smirlar uchun xos bo'lgan 2 toifa me'yoriy chekinishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: zo'rma-zo'raki va xudbinona toifadagi o'smirlar o'zini kuchli, hozirjavob, tengdoshlariga yordamga shay qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Ammo bunday toifa o'smirlarning haqiqat haqidagi xulosasi jinoyatchi xulosadir. Ular xarakterida xudbinlik, zolimlik, jismoniy kuchga ishonish, noan'anaviy guruhlarni yoqlash kabi elementlar ustuvordir. Xudbinona toifalar uchun yakkalik, xudbinlik kabi buzilgan xususiyatlar xosdir. Barcha voyaga yetmagan jinoyatchilar umuminsoniy qadriyatlarni, jamiyat foydasiga mehnat qilishni, ijodiy faoliyatni tushunmasliklari, qadrlamasliklari bilan xarakterlanadi. Ularning qiziqishi moddiy boylik to'plashga, «xohlaganidek yashashga», «sof vijdon» prinsiplariga yo'naltirilgan.

V.V.Korolev o'smir yoshidagi huquqbuzarlikning psixologik holatlarini o'rganish davomida ularga xos bo'lgan quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni aniqlagan: odob-axloq, namunali xulq tajribalarining yo'qligi; do'stlik, sevgi, jasurlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilmasligi, ular haqidagi to'pori tushunchalar; o'z-o'zini o'ta past yoki juda yuqori

baholash; huquqiy va ma'naviy qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va ularga teskari munosabatda bo'lish; tashqi barcha ta'sirlarga beriluvchan bo'lish.

Y.V.Zaika, N.P.Kreydul, A.S.Yachina kabi tadqiqotchilar o'smir xulqidagi huquqbuzarlik, meyordan chekinish holatlarini o'rganishgan. Tadqiqotlarda maktab o'quvchilari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi ro'yxatidagi o'smirlar axloq tuzatish koloniyalaridagi yoshlar ishtirok etgan. Bunda asosiy e'tibor ular fe'lidagi nosozliklarga, meyoriy buzilish holatlariga qaratilgan.

Shaxsning rivojlanish jarayonidagi umumiy qiyinchiliklari va orqada qolayotganidan darak beruvchi xususiyatlari-kelajak haqidagi tasavvurining yo'qligi, oiladagi nosog'lom muhit, atrofda insonlar bilan kelisha olmaslik, o'zini hurmat qilmaslik.

Ularning ko'pchiligi kelajakka ishonmasligini ko'rish mumkin. Ular uchun shuhrat, moddiy boylik, zo'r do'st kabi tushunchalar qadrlidir. Ularning 80%i kelgusi rejaları yo'qligi, ko'pincha bunday o'smirlar nosog'lom muhitdagi oilada yashaydilar va doimo ota-ona, o'qituvchilari bilan janjanlashadilar.

Bundaylarning 56%ida boshqalar bilan muloqotga kirish xohishi umuman yo'q. 77% deviant o'smirlar jinoyatga moyil illatlarga ega bo'ladilar, bunday illatlarning barchasi o'smirlarning 40%ida ko'ringan bo'lsa, 17% deviant xulqli o'smirlarda jinoyatga xos bo'lgan ikkita xususiyat mavjud bo'ladi. Axloq tuzatish koloniyalarida jazoni o'tovchi o'smirlar uchun kelajakka nisbatan yaxshi tuyg'ularni o'yg'ota olmasalar, koloniyadagi buzilgan ma'naviy muhitni deviant xulqli o'smirlar juda ham osonlik bilan o'ziga singdiradilar.

Bunday o'smirlar shaxsini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu toifa o'smirlarning 96%i qo'pol huquqbuzarlik xislatlariga ega bo'ladi. Deviant xulqli o'smirlar maxsus ijtimoiy guruh sifatida quyidagilar bo'yicha asoslanadi: odatlari, urflari, an'analari. Bunday muhitda o'z maxsus madaniyati shakllanadi. Tashqi tomonidan kiyim-kechak, soch turmagi, jargonda so'zlashuv. Deviant o'smirlarni o'rganuvchi psixologlarning ilmiy ishlarida ularning umumiy psixologik va ijtimoiy xususiyatlari aniqlanadi.

D.I.Feldshteynning fikricha, deviant o'smirlar ijtimoiy sust, tajovvuzkor, qiziqqon, qo'pol, «ko'z yosh» to'kishga moyil bo'lib, ko'plari aldoqchi, mas'uliyatsizligi bilan ajralib turadi. I.A.Semikashevaning izlanishlari bo'yicha bunday guruh qatnashchilari ota-onaga o'xshash xislatlarga ega bo'lib, alohida insonlarni emas, o'zi mansub guruhni hurmat qiladi.

Bunday o'smirlar o'z xarakterlariga mas'uliyat sezmay, omma orasida ham-ma qatori harakatlanadi. S.A.Kulakovning ta'kidlashicha, bunday xulqli o'smirlar psixoterapevtlarning mijozidir, ularga aniq tashxis qo'yilmagandiru, ammo ularning ko'pgina xislatlari meyoriy jihatdan buzilgan. Affektiv sohada - bu hissiy bo'shanglik depressiya va hayajonga tez berilishdir. Ma'noni talab qilish sohasida erkinlik, himoyalanganlikka bo'lgan ehtiyojini yopib qo'yilishi, referent guruhiga xos bo'lishi, kognitiv sohada xulosa qilishni rad etish kuzatiladi. N.Y.Maksimovanning tadqiqotlaridan shu narsa aniqlandiki, og'ir tarbiyali o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida salbiy holatlarga olib keluvchi quyidagi ichki sabablar ham bor ekan, jumladan: sinfdoshlar bilan muloqotning qiyin olib borilishi, xulq-atvor meyorlarining shakllanmaganligi, ijtimoiy meyorlar va xulq-atvor qoidalarining qadrini tushunmasligi, inkor etish, o'zi atrof olamni birbutun deb tasavvur etaolmasligi, pedagoglarning talab va takliflarini inobatga olmaslik, o'z-o'ziga o'ta baland baho berish, ota-ona, o'qituvchi bilan kelishmaslik oqibatida ijtimoiy to'g'ri rivojlanmaslik. A.Ye.Lichkoning aytishicha, o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shu yosh uchun xos bo'lgan quyidagi xossalalar bilan bog'liq:

Tengdoshlari bilan birgalikda guruhlarga ajralish.

Vaqt o'tgan sari o'zlariga zarar bo'luvchi mojaro va sarguzashtlarga o'ralashib qolishlari. Achinarlisi, bekorchi o'smirlar bo'sh qolib, kayfiyatni ko'tarish uchun spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi. O'smirlar ba'zilar qiziquvchanlikdan «kattalardek bo'lish», boshqalari esa qolganlaridan qolib ketmasligi uchun ham ichishga odatlanadilar. Ular nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar ham bo'ladilar.

2. Immitatsiya (o'xshatish) bu doimo kimgadir taqlid qilishdir. Bunday o'smirlar o'z tengdoshlari yoxud kattalarning xatti-harakatini takrorlaydilar.

Atrofdagilardan birortasi spirtli ichimlik, giyohvand modda iste'mol qilsa, unga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Ko'pgina o'smirlar o'ziga "namuna" qilib kino qahramonini, aktyorlar, sozandalarni tanlaydilar va ularga taqlid qiladilar. Agarda taqlid qilinayotgan qahramon salbiy qahramon bo'lsa, unda ota-ona va pedagoglar turli noxushliklarga tayyor turishlari darkor. Ayniqsa, "namuna" uchun tanlangan inson real shaxs bo'lsa-yu, u ichkilikboz, giyohvand, jinoyatchi bo'lsa, undan juda katta kulfatlarni kutish mumkin, chunonchi, ko'pgina giyohvandlar, katta pul kerakligidan turli jinoyatlarga o'ralashib qolishadi.

3. Inkor reaksiyasi(qarama-qarshi tuyg'u). O'smirlar uchun xos bo'lgan tuyg'u. Xulqning qarama-qarshi xususiyatlari yaqinlarining dilsiyohligi, shaxsiyatni xafa qilishi, talablarning bajarilishida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshi ruhdagi harakatlar ko'pincha ota-ona, kattalarga qaratilgan bo'ladi. Oilada muammoli vaziyat yuzaga kelganda, bolaning ichki va tashqi "meni" kichik yoki bo'rttirilgan huquqbuzarliklar bilan namoyon bo'ladi. Bunday isyonkorlik ruhidagi harakatlarga ota-onalarning bolaga nisbatan loqaydligi, shaxs sifatida uni hurmat qilmasligi, qiziqishlariga to'sqinlik qilishi sabab bo'ladi. Ota-onaning bolasiga qo'ygan o'ta yuqori talablari, uni "vunderkind" – o'ta yuqori cho'qqilarni egallovchi shaxs qilishdek orzulari ham sababi bo'ladi. Dushmanlik hissini berkitib, o'smir kattalarga bo'lgan norozilik, xafaligini, undan ruhan begonasirashini namoyon qiladi. U o'ziga do'stlarni tashqaridan izlay boshlaydi va ko'pincha ichuvchi, chekuvchi to'daga kirib qoladi.

4. Rivojlanish tuyg'usi(emansipatsiya) - o'smirning o'z erkinligi, mustaqilligi uchun kurashi. U kattalar nazoratidan tezroq ozod bo'lishni xohlaydi. Uni qancha nazorat qilishsa, u shuncha erkinlikka talpinadi. Kattalarga u ataylab mustaqil harakatlarini namoyon qiladi. Ota-ona yoxud o'qituvchi unga biron harakatni maj-buriy singdirmasa, balki u o'zi ham ixtiyoriy ravishda shu harakatni bajargan bo'lar edi. Bu o'smirning qaysarligi bilan bog'liq. Ruhan sog'lom o'smirlardan o'ta qaysarlik xislatlari vaqti bilan o'tadi. Agarda kattalar o'ta shafqatsizlik va so'zsiz bo'ysunishni so'rashsa, unda o'smirlar o'ta keskin xarakter namoyon qiladilar. Eng xavotirga soladigani shuki, o'smirlarning xatti-harakati bunday holatlarda uydan qochish va daydichilik bilan tugallanadi.

5. Rad etish tuyg'usi - bu o'yinlarga, ovqat yeyishga, uy ishlari, jamoat ishlariga qo'shilishini inkor etish tuyg'usi. Bunday voqelikda ota-onalar o'smirlarning ba'zilariga ma'lum bir tengdoshlari bilan muloqot qilishni rad etadilar. Ota-ona o'z farzandini ichuvchi, chekuvchi tengdoshlaridan himoya qilish maqsadida boshqa maktabga, boshqa hududga ko'chirishga ham majbur bo'ladi. Natijada o'smir o'z ota-onasini tengdoshlaridan ajratganligida ayblab, ulardan arazlaydi.

## TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELEKTNI QO'LLASH

B.F.Mamatov

Qashqadaryo VPYMO'MM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi"

kafedrasi katta o'qituvchisi

S.M.Rasulova

Qashqadaryo VPYMO'MM

"Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi

### Аннотация

Ushbu tezisdagi sun'iy intellektning tarixi va rivojlanishi, yondashuvlar va texnologiyalar, hozirgi tendentsiyalar va muammolar shuningdek, bu usullar o'quvchilarning sun'iy intellekt bilan ta'limni joriy qilishlarida yordam berishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy intellekt, AI (Artificial Intelligence), etika, robototexnika.

### Аннотация

В этой тезисе представлена информация об истории и развитии искусственного интеллекта, подходах и технологиях, текущих тенденциях и проблемах, а также о том, как эти методы могут помочь ученикам реализовать образование с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, AI (Artificial Intelligence), этика, робототехника.

Sun'iy intellekt (AI) haqidagi suhbat o'nlab yillar mobaynida davom etmoqda va shu vaqt ichida katta miqdordagi tadqiqot va ishlanmalar amalga oshirildi. AI(Artificial Intelligence) kompyuter tizimlariga inson aqlini taqlid qilishga imkon beruvchi keng ko'lamli texnologiyalar, usullar va yondashuvlarni qamrab oladi.

### **Sun'iy intellektning tarixi va rivojlanishi:**

Avvalgi tadqiqotlar (1950-yillar): Sun'iy intellekt tushunchasi 1950-yillarda paydo bo'lgan. Ko'pgina asosiy g'oyalar 1956 yilda Dartmut maktabining mashhur konferentsiyasida shakllantirilgan.

Bilimlar davri (1960 - 1980 yillar): Bu davrda muammolarni hal qilishda ramziy usullar va ekspert tizimlaridan foydalanishga e'tibor qaratildi. Biroq, 1980-yillarning oxirida texnologiyaning cheklanganligi va mavjud ma'lumotlarning etishmasligi tufayli ishtiyoq susaydi.

Qayta paydo bo'lish (1990-2000-yillar): 1990 va 2000-yillarda mashinani o'rganish texnikasi va arzonroq hisoblash quvvati rivojlanishi tufayli o'sish davri kuzatildi.

Chuqur o'rganish davri (2010-yillardan hozirgi kungacha): Chuqur o'rganishdagi yutuq ma'lumotlarni qayta ishlash, vizual tanib olish, inson tilni qayta ishlash va boshqa sohalarda inqiloblarga olib keldi.

### **Yondashuvlar va texnologiyalar:**

Mashinani o'rganish: tizimlarga tajribadan o'rganish imkonini beruvchi sun'iy intellektga erishishning asosiy vositasi.

Chuqur o'rganish va neyron tarmoqlar: Bu usullar ma'lumotlarni tahlil qilish, tasvirni qayta ishlash va nutqni aniqlashda asosiy rol o'ynaydi.

Inson tili va nutqni qayta ishlash: kompyuterlarga inson tilini tahlil qilish va yaratish imkonini beruvchi texnologiyalar.

Robototexnika va avtonom tizimlar: turli vazifalarni bajarish uchun robotlar va avtonom qurilmalarni yaratishda AIdan foydalanish.

Etika va tushuntirish: texnologiyadan xavfsiz va mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash uchun axloq, shaffoflik va tushuntirish kabi sun'iy intellektni rivojlantirishning muhim jihatlari.

Sun'iy intellektni qo'llash:

Tibbiyot va sog'liqni saqlash: kasalliklar diagnostikasi, tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish, yangi dori vositalarini ishlab chiqish.

Moliya va biznes: bozor tendentsiyalarini prognoz qilish, moliyaviy jarayonlarni optimallashtirish, firibgarlikni aniqlash.

Transport va logistika: avtonom transport vositalari, marshrutni optimallashtirish, logistikani boshqarish.

Ta'lim: Shaxsiylashtirilgan ta'lim, intellektual ta'lim tizimini yaratish.

Sanoat: sanoat avtomatizatsiyasi, nuqsonlarni aniqlash, prognozli uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish.

### **Hozirgi tendentsiyalar va muammolar:**

Kichik ma'lumotlar bilan o'rganish: kamroq ma'lumot talab qiladigan o'rganish usullarini ishlab chiqish.

Ko'p tarmoqli yondashuvlar: muammolarni yanada samarali hal qilish uchun turli sohalardagi bilimlarni birlashtirgan tadqiqotlar.

Axloqiy muammolar va oshkoralik masalalari: texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanish uchun me'yoriy va axloqiy bazani ishlab chiqish.

Avtonomiya va xavfsizlik: avtonom tizimlarning xavfsizligi va ishonchligini ta'minlash.

Ijtimoiy integratsiya va sun'iy intellekt bilan o'zaro ta'sir: AIning jamiyatga ta'siri va odamlarning texnologiya bilan o'zaro ta'sirini o'rganish.

Sun'iy intellekt rivojlanishda davom etmoqda va tibbiyot va biznesdan tortib transport va ta'limgacha bo'lgan inson faoliyatining ko'plab jabhalariga katta hissa qo'shmoqda.

Sun'iy intellekt (AI) - kompyuter fanining sohasi bo'lib, u odatda inson aqlini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellektning ishi ko'plab yondashuv va usullarni o'z ichiga oladi, jumladan:

Mashina ilmi (Machine Learning): Bu kompyuter tizimlarini o'qitish usuli bo'lib, ularga tajribadan o'rganish imkonini beradi. Mashinani o'rganish neyron tarmoqlar, qarorlar daraxtlari, vektorli mashinalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa ko'plab usullarni o'z ichiga oladi. Mashinani o'rganish tizimlari yangi ma'lumotlarga va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslasha oladi.

Chuqur o'rganish (Deep Learning): Bu ma'lumotlarni tahlil qilish va tushunish uchun ko'p qatlamli sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanadigan mashinani o'rganish bo'limi. Chuqur o'rganish tasvirni qayta ishlash, nutqni aniqlash, matnni tahlil qilish va murakkab ma'lumotlarni tushunishni talab qiladigan boshqa vazifalar uchun asosiy usuldir.

Neyron tarmoqlar (Neural Networks): Bular inson miyasining ishlashidan ilhomlangan kompyuter modellari. Neyron tarmoqlar axborotni qayta ishlovchi va uzatuvchi ko'plab bog'langan tugunlardan (neyronlardan) iborat. Ular ma'lumotlarni qayta ishlashning ko'plab vazifalarida, jumladan tasniflash, regressiya, klasterlash va boshqalarda qo'llaniladi.

Inson tilni qayta ishlash (NLP – Natural Language Processing): Bu sun'iy intellekt sohasi bo'lib, u insonning inson tilini qayta ishlash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bu nutqni aniqlash va yaratish, mashina tarjimai, matn hissiyotini tahlil qilish va boshqalar kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Tushuntirish mumkin bo'lgan AI (Explainable AI): Bu sun'iy intellektning bo'limi bo'lib, u o'z xulosalari va qarorlarini tushuntira oladigan modellar va tizimlarni yaratishga intiladi. Bu AI tizimlarining qanday ishlashini tushunish va shaffoflikni ta'minlash uchun muhimdir.

Sun'iy intellekt ishlash uchun ma'lumotlar, algoritmlar va hisoblash resurslariga tayanadi. AI tizimining samarali ishlashi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlardan o'rganishi, bilimlarni yangi vaziyatlarga umumlashtira olishi va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishi kerak.

Maktab ta'limida sun'iy intellekt (SI) ni joriy qilishning bir necha yo'llari mavjud. Bu, o'quvchilarning kognitiv va muammolarni yechish, fikr yuritish va yechim topish, hisob-kitob qilish, shuningdek, texnologiyalardan foydalanish va ularni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

Maktab darsliklarida va o'qituvchilar tomonidan yaratilgan dasturlarda sun'iy intellekt asosida o'rganish materiallari qo'llanilishi. Bu dasturlar o'quvchilarga SI konseptlarini tushunish va ularni amaliyotga oshirishga yordam beradi.

O'quvchilar SI texnologiyalarini amaliyotda ishlatish orqali, ularning ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, o'quvchilar mashinalarning dasturlarini yozish, bu dasturlarni bajarish, axborotni taqdim etish, va boshqalar kabi mashqni bajarishlari mumkin.

O'quvchilar SI ni amaliyotda ishlatish uchun proyektlar va tadqiqot ishlari ustida ishlashlari mumkin. Bu, ularning muammolarni hal qilish, ma'lumotlar bilan ishlash, va taqdimotlar tayyorlashlari orqali SI ni o'rganishlari va uni joriy qilishlari mumkin.

Sun'iy intellektni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish. Masalan, matematika darslarida SI ni hisob-kitob qilish, dasturlash darslarida algoritmlarni yaratish, va til o'rganish darslarida SI-ni mavjud tillarni tushunish va tarjima qilishda qo'llash mumkin.

O'quvchilar uchun sun'iy intellekt tajribalar va laboratoriyalari tashkil etish. Bu o'quvchilarning SI ni amaliyotda ko'rish, sinash, va uni rivojlantirishlari uchun eng foydali usullardan biri bo'ladi.

Bu usullar o'quvchilarning sun'iy intellekt bilan ta'limni joriy qilishlarida yordam berish uchun ba'zi qulay yo'llar bo'lib, ularning siyosat va dasturlaridan foydalanib, o'quvchilarning SI da'vatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida har birini kombinatsiyalash tavsiya etiladi.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Ochilov Og'abek Narzullayevich  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti  
kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda o'yinlarning muhim o'rin tutishi hamda o'quvchilarning hulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi.

**Kalit so'zlar:** ijodiy qirra, ta'limiy o'yin, xotira, diqqat, psixologik to'siq.

**Аннотация:** В статье раскрывается важная роль игр в развитии творческой деятельности учащихся и развитии положительных сторон характера учащихся, укрепляться наблюдательность, память и внимание можно с помощью упражнений на положительное воображение, психологических препятствия устранены.

**Ключевые слова:** творческий потенциал, обучающая игра, память, внимание, психологический барьер.

Ta'limning dastlabki kunlaridanoq kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi.

Talablarning taboro ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi va shu rivojlanish zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi. Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining Rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi.

Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, rag'batlantirish va jazolash me'yorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'quvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi.

O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ruyobga chiqaruvchi mu'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obrusi oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchisining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni engish kabi fazilatlarini shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak. Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idrogi, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushurish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jaraenida ularning bilimlar ko'lamini kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini angalsh tuyg'ulari tarkib topadi.

O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni esdlab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rganishdan iboratdir. Bu vazifani eng avalo maktab psixologlari

qatorida boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan hoda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini -o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushurish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar.

Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushurish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomillashtiradi. Ijodiy tasavvur eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqoligi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayri tabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o'quvchidar hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi.

Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi. O'quvchilarni g'ar tomonlama barkamol shaxs sifatida kamolga etkazish uchun ularni boshlang'ich sinflardanoq ijodiy faoliyatini kamol toptirish zarur. Chunki boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning didi, dunëqarashi, salohiyati barcha psixik jaraenlar individual-psixologik xususiyatlari jadal shakllanadi.

Psixolog olimlar — S.A.Rubinshteyn, B.G.Ananev birinchilar qatorida umumiy, aqliy rivojlanish umumiy intellekt bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tdilar. Masalan, B.G.Ananev murakkab psixik xususiyatlarni tadqiq qilish bilan birga, o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyat ana shu xususiyatga bog'liqdir, — degan farazni ilgari suradi. Olim bu kategoriyalarni bilashga oid turli vazifalarning qo'yilishi va hal etilishi bilan bog'liq yo'llarini ko'rsatib beradi.

Keyingi yillarda muammoni turli yo'nalishlarda intensiv tarzda tadqiq etishga qiziqish uyg'ondi. Bu tadqiqotlar borasida N.S.Leytesning tadqiqotini qayd qilib o'tish muhim. Leytes avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar (garchi ular jiddiy rivishda iroda va emosional xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham) odamning nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab beradi,- deb ta'kidlagan. Odam intellekti uchun eng muhim narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoniyatini beradi.

N.S.Leytesning ko'rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida faollik va o'z -o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlari tarkib topishining muxim ichki shartlaridan biridir.

Hozirgi davrda psixologlar ta'lim jaraenida o'quvchilarda faol mustaqil ijodiy faoliyatni mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil holda bilimlarni egallashga yo'naltirishga harakat qilmoqdalar. O'quvchilarning bilish faolligini maksimal darajada faollashtirish, ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish maktab ta'limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda. Ta'limning asosi- o'qitishning o'quvchilarga etkazadigan mo'l — ko'l axborotni esda saqlab qolish emas (garchi bu muhim vazifa bo'lsa-da), balki bu axbortni qabul qilish jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishi, ularning mustaqil bilim olish qobilityaini asta-sekin shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda pedagog olimlar L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oya, ya'ni ta'lim berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini qo'llamasdan, o'quvchining tafakkuriga uning imkoniyatlarini birmuncha oshiradigan talablar qo'yilishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan anlitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak, degan qoidaga asoslanadilar.



A.S.Vigotskiy ta'limning aqliy rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim, deb hisoblagan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugullangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo unchalik tarkib topmagan va shunday ta'lim ta'siri asosida taraqqiyi etgan narsalarga tayanmog'i lozim.

Vigotskiy boladagi aqliy rivojlanishning ikki darajasi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Birinchi daraja, ya'ni Vigotskiy aytganidek, aktual rivojlanish darajasi o'quvchi tayergarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'qituvchining topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (Vigotskiy uni eng yaqin rivojlanish zonasi deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l yo'riq beruvchi savollar, aytib berishlar, ishora qilishlar) umumiy ko'rsatmalar ta'lim jarayonida aktual rivojlanish darajasiga o'tadi-deb ta'kidlagan edi. Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish. U. Nishonaliev aqliy rivojlanishning asosiy mezoni — to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati tuzilmasining (tarkib topgan o'quv faoliyati) hamda uning tarkibiy qismlarining to'g'ri rejalashtirilishidir, degan g'oyani ilgari suradi O. Hasanboeva kichik maktab yoshidagi kuvchilarning fikrlash faoliyatining quyidagi xususiyatlari: o'zlashtirishning tezligi yoki sustligi; fikrlash jaraenining o'zgargan sharoitlarga moslashtirish osonligi eki qiyinligi; fikrlash doirasining o'zaro bog'liqligi; analitik-sintetik faoliyatning turli darajalari sifatida qaraydi.

Ijodiy faoliyatda muamoli vaziyatlar yaratish bu muammoli vaziyatlani echishga o'quvchilarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda shaxsni rivojlantrishga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

1. Maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirish, uning qobiliyati, o'qishga qiziqishi, hohish va istagini shakllantirishi;

2. Axloqiy va estetik hissiyati tarbiyalash, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirish.

3. Bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalar, faoliyatning turli shakllarini egallab olish.

4. Bolalarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish.

5. Bola shaxsining individualligini himoya qilish. Zero, ta'lim faol, ijodiy, mahsuldor, intellektual faoliyatni o'zaro aloqadorlikda amalga oshiradi. Ijodkorlik boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyatining asosiy turi bo'lishi zarur. Muammoli vaziyatlar o'qitishning har qanday bosqichida ta'lim mavzusini tushuntirish, uni mustahkamlash, natijalarini nazorat qilishda ham yaratilishi mumkin. O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratar ekan, o'quvchilarni uning echimini yo'lashga yo'naltiradi. Shunday qilib, bola ta'limning sub'ektiga aylanadi va unda yangi bilimlar shakllanadi, u harakat qilishning yangi usullarini egallaydi.

Pedagogik o'yinlar ayniqsa, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Aynan shunday o'yinlar vositasida kattalar va kichiklar o'rtasida muloqot o'rnatiladi. Bu muloqotlar shaxsiy yondoshuv asosida qurilishi kerak. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O'yinlarda bolaning shaxsiy sifatleri boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning hulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi / Dorilfunun talabalari uchun qo'llanma. —T.: o'qituvchi 1990.-184 b.

2. Haydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik ëndashuvga tayyorlash. —Ped fanlari nom. yozgan avtoreferati. —T.: 2004.-23 b.
3. Hasanboeva O., Hasanboev J. Va boshqalar. Pedagogika —T.: Fan, 2006.- 282 b.
4. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. —T.: O'zginkomsentr, 2003.-103 b.
5. Hasanboeva O, Ne'matova A., Ibragimova G Odobnoma 4- sinf O'zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriëti — T.:2007.- 48-50 b.
6. Hasanboeva O., Ne'matova A., Turobova M.Odobnoma 3-sinf T., O'zbekiston 2007.- 69 b.

## **JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BO'LGAN BOLALAR UCHUN TASHKIL ETILGAN MAXSUS MAKTABLAR FAOLIYATI**

*Yaratov Hamid Muxtorovich  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM  
Pedagogika, psixologiya va ta'lim  
menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus maktablar, maqsadi va vazifalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalar, yordamchi maktablar, defektologiya, psixofizik rivojlanish.

Hozirda respublikamiz miqyosida jamiyatimiz ehtiyojlarini imkoniyat darajasida qondirib, samarali faoliyat yuritayotgan bir qancha yordamchi maktablarimiz mavjud. Shuningdek, jamiyatimizda ushbu sohaga yondosh bir qancha masalalar hal etilmoqdaki, bu respublikamizning ko'plab oliy o'quv yurtlarida defektologiya bo'limlari ochilmoq va ular nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi malakali kadrlarni etkazib chiqarish, bugungi kunda va kelajakda jamiyatimiz uchun foydali ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi insonlarni tarbiyalashda muhim vazifaning hal etilishini ko'zda tutadi.

Har bir bola o'rganilmagan va ochilmagan boylikdir, uni o'rganish muayyan bir yo'lga solsa, u ham o'z hayotini to'g'ri yo'lga qo'yib olishi, o'z imkoniyatini namoyon etishi jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi, hayotda yashash istagi bo'lmagan majruh bir qalbgga yo'lini yorituvchi chiroq orqali qalbiga "yorug'lik" va "baxt" olib kirish, adolatli fuqaroni, komil insonni tarbiyalovchi har bir jamiyatning mezoni bo'lishi tabiiydir.

Yordamchi maktablarda ta'lim jarayoni ta'lim prinsiplari asosida amalga oshirilgan ekan, ta'lim qoidalari, avvalo o'qitishning mohiyatini, ta'limning barcha tomonlari: mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllarini belgilab beruvchi asosiy manbalardan biridir.

Pedagogikada ta'lim qoidalari tarbiya bilan uzviy dialektik bog'liqlikda bo'ladi, chunki tarbiyasiz ta'limni, ta'limsiz tarbiyani amalga oshirish qiyindir.

Ta'lim qoidalari o'quvchilarning o'quv faoliyatlari xususiyatlarini psixologiya va sotsiologiya ma'lumotlariga asoslanib hisobga oladi. Pedagogikada ishlab chiqilgan didaktik prinsiplar yordamchi maktablarda aqli zaif o'quvchilarning psixofizik (ya'ni yunoncha physis – tabiat insonning psixik xususiyati va qonuniyatlarining fiziologik asoslarini o'rgandi) rivojlanish xususiyatlarini nazarda tutib amalga oshiriladi. Yordamchi maktablar o'qitish didaktikasida asosan quyidagi qoidalar qo'llaniladi: ta'limning tarbiyaviy xarakterdaligi, faollik va onglilik ilmiylik, tushunarliklik, tizimlilik va muntazamlilik, ko'rgazmalilik, o'quvchilarga differensial munosabat, nazariyaning hayot bilan bog'liqligi.

Umumta'lim prinsiplari aqli zaif bolalarni o'qitish masalasiga tadbiiq qilingan holda amalga oshirildi, aqli zaif bolalarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlardan kelib chiqadi. Aqli zaif bolalarni o'qitish prinsiplarini maxsus didaktika belgilaydi. U esa yordamchi maktabda umumiy didaktik prinsiplarni amalga oshirishning xususiyatini asoslab beradi.

Didaktik prinsiplar ta'limning maqsadlaridan kelib chiqadi va o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan qonunlarini aks ettiradi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, pedagogik-korreksion xususiyatni o'zida aks ettirgan har bir qoida aqliy jihatdan qoloq o'quvchilardagi har bir jarayonni aqliy jihatdan normal tengdoshlaridagi jarayonlar sodir bo'lishi bilan qiyoslagan holda yondashiladi.

Eng muhimi barcha prinsiplar kamol toptirishni maqsad qilar ekan, anomal va normal bolalarning kamol topishi uchun xarakterli bo'lgan umumiy qonuniyatlarni, shuningdek aqliy jihatdan qoloq bolalarning turli kategoriyalari uchun xos va tipik xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Faoliyat va psixika orasida murakkab o'zaro aloqalar mavjud. Bir tomondan, psixika xilma-xil, tobora murakkab shakllarga ega bo'lgan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va shakllanadi, ikkinchi tomondan faoliyat psixik aks ettirishning turli darajalarida uni tartibga solib turadi. Jumladan, sezish va idrok etish darajasida kuchning muskul dozirovkasi (qismlarga ajralish) va harakat belgisining dozirovkasi sodir bo'ladi.

Umuman olganda yordamchi maktablarda ta'lim prinsiplari aqliy jihatdan qoloq bolalarning anomal kamol topishi jarayonida sifat jihatdan o'ziga xos psixik jarayonlar, shaxsiy sifatlargina emas, balki faoliyatning o'ziga xos tuzilishi ham shakllanadi. Har bir psixik hodisa yaxlitlikda qaralmog'i lozim. Shaxsning xususiyatlari uning yo'nalganligi (faoliyatning motivasiyasini taqozo etadi), hayotiy tajribasi, psixik jarayonlarga o'ziga xos xususiyat bag'ishlaydi. Shaxsning hamma jihati o'zaro aloqada. Diqqatning rivojlanishi xarakterning irodaviy xislatlari shakllanishiga, tafakkurning rivojlanishi esa nutqning rivojlanishiga bog'liq. Anomal bolalarda yuqorida aytib o'tilgan sifatlarni rivojlantirishda tarbiyalovchi ta'lim prinsipi katta ahamiyatga ega.

Barcha ta'lim prinsiplari tarbiyalovchi ta'lim prinsipida bir butun sistemali tarzda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilarni mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishi o'quv va mehnat jamoasida fe'l-atvor malakasini tarbiyalash va shuning asosida vatan oldidagi o'z burchining zaruriy tasavvurlarini vujudga keltiradi.

Ularni jamoatchilik ishlariga jalb etish, hosilni yig'ishga, chorva mollarini boqishga zo'r qiziqish bilan ishtirok etishini ko'rishimiz mumkin. Ularni turli xil kechalar, yig'inlar, ertaliklar va shunga o'xshash turli xil tadbirlarni amalga oshirish, ularning qiziqish mayllariga qarab turli xil raqs dastasi, ansambllar, teatr, qo'g'irchoq teatr to'garaklari, san'atsevarlar to'garagi, texnikaga oid to'garaklarga jalb etish, ular o'z yo'nalganligini belgilab olish, o'zini sinab ko'rishi, o'z imkoniyatini shu asosda rivojlantirishga intilishi kelajakka zamin hozirlaydi. Ayniqsa ularni axloqiy jihatdan, jismoniy jihatdan tarbiyalanishida mehnat ta'limi muhim omil hisoblanadi. O'quv ustaxonalarida o'qish jarayonida ular mehnatga jamoat mulkiga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi.

Kuzatishlarga qaraganda, o'quvchilarning ko'pchiligi maktabni tugatib fabrika, zavod, ishlab chiqarish korxonalariga ishga joylashib, mehnatga nisbatan halol, jamoat mulkiga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladilar.

O'qishda bilimlarni puxta o'zlashtirish prinsipida o'quvchilarning qanchalik bilimlarni puxta o'rganganligi nazarda tutiladi. Yordamchi maktab o'quvchilarining bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga erishishning muhim sharti o'quv materialni ular tomonidan tushunishini ta'minlash lozim. Bu prinsip o'quvchilar bilimlarni ongli, tushungan holda, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarni uzoq muddat esda saqlashni talab etadi. Ular ta'riflar, ifoda, she'r va shunga o'xshash materiallarni mexanik yod olishi mumkin, katta qisimli materiallarni esa qisqacha ma'nosini aytib berishni o'rgatish zarur. Anomal bolalar ko'p hollarda o'quv materialning muhimligini ajrata olmaydi, bunday hollarda ularga o'qituvchi yordam berishi zarur.

Mustahkamlashning zaruriy sharti mashq qilish bo'lib, u quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

1. Mashqning maqsadini, qanday natijalarga erishish kerakligini aniq bilish zarur.

2. Bajarishning aniqligini maxsus kuzatish, agar xatolar paydo bo'lsa, ular mustahkamlanib qolmasligi uchun mashqlarning natijalarini kuzatish, o'z harakatlarini namuna bilan taqqoslash qanday muvoffaqiyatlarga erishib bo'linganini anglash, kamchiliklariga barham berish uchun ulardan qaysilariga diqqatni qaratish kerakligini bilib olish zarur.

3. O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga oid bilimlari malaka hosil bo'lishi uchun etarli bo'lishi lozim.

4. Mashqlar bir xildagi harakatlarning tasodifiy yig'indisidan iborat bo'lmasligi lozim.

5. Mashqlar bir qadar uzoq muddatga uzilib qolmasligi lozim.

Shuningdek, mashqlar, bilimlar takrorlanib turishi va mavzular bir-biriga bog'liq tarzda amalga oshirilishi kerak. Bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish o'quvchilarning o'zida ma'lum darajada mustaqillikka nisbatan qiziqish paydo bo'lmaydi. Bu narsa ko'pincha ommaviy maktab sharoitida o'qishga muvaffaqiyatsizlikka uchrashi natijasida bo'ladi. Buning ustiga o'qishga nisbatan salbiy munosabat ozmi-ko'pmi yangi sharoitda ham birmuncha vaqtgacha saqlanishi mumkin.

Aqli zaif bolalarda o'qishning ahamiyatini tushunish, birmuncha qiyin bo'lib, bu ancha kech hosil bo'ladi, shuning uchun o'qituvchi aqti zaif bolalarda o'qishga to'g'ri munosabatni shakllantirish kerak. Aqli zaif bola engilroq ta'limni o'zlashtirib, tushunib borishi, shubhasiz uning faoliyatida muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Shuningdek, aqli zaif o'quvchilarga taqqoslash, qiyoslash, tasniflash orqali o'quv materialini tushunish orqali, tafakkurning rolini oshirish, ta'limni ongli o'zlashtirib olishga zamin yaratadi.

O'quvchilarning materiallarni o'zlashtirish, o'zida mavjud imkoniyatlarga ishonch hissini o'yg'otish va uni yanada rivojlantirish va muvaffaqiyatlari unda ichki intilishni rivojlantiradi va o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashiga o'rgatib boradi. Endi o'quvchi o'qituvchi ko'rsatmalaridan chetga chiqa boshlaydi, unda ichki bir faollik o'yg'ona boshlaydi. U ta'limni tushunib esda qoldirib, ya'ni ongli faol harakat qila boshlaydi. Bu esa pedagog tomonidan qanchalik onglilik va faollik prinsipini tushunishi va amalga oshirilishiga bog'liq.

Yordamchi maktabda o'quv materialining tushunarligi, o'quvchilarning individual imkoniyatlari bilan ham belgilanadi va faollikni talab qiladi. O'quvchi ustida haddan tashqari uzoq va doimiy homiylik qilish, o'ziga ishonmaslik, jur'atsizlik hissini mustahkamlashi mumkin. Buning uchun ularga mustaqil ishlashga elementar mashqlarni berib borishdan boshlash zarur. Muayyan xatoliklarga yo'l qo'yilayotgan xatoning oldini olish, ularga og'zaki tez-tez ko'rsatma berib turish zarur. Anomal bolalar mustaqil ishlashi uchun o'qituvchi mustaqil ish haqida avval bilimlarini tekshirib ko'rish zarur.

Bu prinsipning mohiyati ta'limning mazmuni, hajmi, usullari bolalarning yoshi va aqliy rivojlanishiga, ularning bilim saviyasiga to'g'ri kelishi kerak. Bunda bola mexanik tarzda yodlab olishi, materialni tushunmasligiga, fanga nisbatan qiziqishlarining susayishiga, o'qishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishga olib keladi. O'qitishning tushunarli bo'lishida bolaning imkoniyatiga qarab, ya'ni tipologik xususiyatlariga, individual xususiyatlariga, yoshiga e'tibor berish zarur.

O'qitishda onglilik va faollik prinsipi materialni o'quvchilarning to'liq tushunishini ta'minlash kerak, o'quvchilarda o'qishga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash kerak, fikrlashda ijod va mustaqillikni hamda o'zlashtirilgan bilim, malakalarni amaliy faoliyatda faol ishlatish ko'nikmasini rivojlantirmog'i kerak. Yordamchi maktab sharoitida bu prinsipni amalga oshirishda o'qituvchi bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Aqli zaif o'quvchilar bilan tegishli tarbiyaviy ish olib borilmasa, ularda o'qish jarayonida, bir sinfning o'zida bir-biridan keskin farq qiluvchi o'quvchilar uchraydi. Ba'zilarni psixofizik kamchiliklar (ular ham turli xil) jismoniy kamchiliklar, hissiy irodaviy kamchiliklar, oson va qiyin o'zlashtirishi ularga individual munosabatda bo'lishini talab etadi. Pedagog o'quvchilarga individual yondashuv olib borgan holda, ularni frontal ishga, o'qishga jalb eta olishi zarur. Guruhda ta'limni yuqori, o'rtacha, passiv darajada differensiallashtirib, o'quvchilarning yutuq tomonlariga tayanib, kamchiliklarini bartaraf etishga va ularni aqliy rivojlantirishga hissa qo'shishi zarur.

## YOSH AVLOD TARBIYASIDA OILA VA UNING VAZIFALARI

*Otaqulova Sayyora Siropovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
21-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya.** Maqolada oilaning jamiyatdagi o'rni, farzand tarbiyasidagi ota-onaning vazifalari, mas'uliyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Oila, jamiyat, farzandlar tarbiyasi, aqliy tarbiya, kun tartibi, ma'naviy sifatlar.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi.

Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. CHunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini kurish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning etuk, barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi.

Oila tarbiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ota-onalar o'zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg'usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko'rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me'yorlarga og'ishmay rioya etish, sog'lom turmush tarzini yaratish, o'z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so'z va faoliyat birligini ta'minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko'rsatadi.

Shaxs shakllanishiga ta'sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o'ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to'qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mo'tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg'u xalqimiz ruhiyatidagi o'ziga xos xususiyatlardan biridir.

Oila tarbiyasida ob'yektiv va sub'yektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta'minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar

ob'ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o'zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub'ektiv omillar sirasiga kiradi.

Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo'lib, bu oia tarbiyasini muvafiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri yuritish ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari bo'yicha to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo'nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkmlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to'la orom olishini ta'minlaydi. Bu esa butun organizmning mo'tadil o'sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi.

Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. SHuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qg'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

## **PSIXOLOGIYADA MOTIV TUSHUNCHASI**

*Ergasheva Sayyora Raxmatovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya.** Maqolada motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati, motiv tushunchasining olimlar asarlaridagi ta'rifi, psixologiyada motiv tushunchasining talqini haqida

ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Motiv, ta'sir o'tkazish, psixologiya fani, shaxs, hissiyot, qobiliyat.

Motivlarning falsafiy-metodologik ahamiyati shundan iboratki, ular sabab-oqibat, ichki murakkab bog'lanishlar tuzilishini yuksak darajada rivojlangan tizim sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuv esa o'z navbatida materiya rivojlanishining oliy mahsuli ekanligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Chunonchi, maqsadga yo'naltirilgan va maqsadga muvofiqlashtirilgan har xil mazmundagi savollar, axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar kishilar faoliyatining ongli xususiyati ta'kidlab o'tilgan mulohazalar mohiyati tarkibiga kiradi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo'nalishga qaratish-inson shaxsiga motivatsion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulyativ ta'sir o'tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Insonning mehnat faoliyati tizimining murakkablashuvi ishlab chiqarishda axloqiy, ma'naviy, nafosat, ruhiy tarbiya jabhalari hamda radio, televidenie va targ'ibot-tashviqot ta'sirini samarali olib borishi, kasbiy tayyorgarlikning ekstremal va stress holatlarning sharoitlari barqarorlashuvi, takomillashuvi, yaxshilanuvi, maqsadga muvofiqlashuvi kabi omillarning barchasi shaxs motiv doirasining o'zgarishiga bog'liq. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funktsional imkoniyatlarida o'z aksini topadi.

Motivning tadqiqot tarixidan kelib unga yondashsak, bu holda u insonlar (goho hayvonlar xatti-harakati) hayoti va faoliyatining ruhiy jihatdan boshqaruvchisi sifatidagi talqinidan iborat o'ziga xos turidir. Motiv tushunchasi, asosan, sut emizuvchi hayvonlarga taalluqli ekanligi ilmiy manbalarda ta'kidlab o'tiladi. Insonlarga aloqador motivlar tushunchasi qo'zg'atuvchilar va qo'zg'ovchilarning barcha turlari (ko'rinishlari, modalliklari, shakllari) ni o'z ichiga oladi (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar).

Motiv keng ma'noda xulq-atvor determinatsiyasi belgilanishiga qaramay, ko'pgina chet el tadqiqotchilari shaxs motivlarini juda tor ma'noda talqin qilib, uni ilmiy jihatdan tekshiradilar, hattoki ular shartsiz reflektor aktlarining miqdorini, affektiv, stress va ekspressiv reaksiyalarni motiv tizimiga kiritmaydilar. Bir qator psixologlar motivni energetik, ma'noviy va ma'naviy tomonlarini o'zaro solishtiradilar, ular motivni sof ma'nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilib, uning ma'noviy va ma'naviy jabhalarini hisobga olmay turib, o'ziga xos ravishda tushuntirishga intiladilar.

Jumladan, Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv – bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv – bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'yektiv tarzda aks etish demakdir. Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvori (xulqi)ni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida (tarkibida) yetakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish (strukturaviy) tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning xarakteri, emotsional holati (his-tuyg'usi), qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi.

Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, xarakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi, degan ta'limot mavjud. Jumladan, xarakterning u yoki bu sifatlari sof dinamik xususiyatli tavsiflarni tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatinigina emas, balki uning ma'naviy va ma'noviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi.

Motiv hissiyot bilan ham bog'liq bo'lib, ular xulq-atvor mohiyatidan tashqarida bo'lmaydi, balki hissiy kechinmalar, motivlashgan omillar tizimi bilan uzviy aloqaga egadir. Hissiyotning eng muhim funktsiyalaridan biri shundan iboratki, unda inson uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi daqiqalar uning uchun qanchalik zaruriyat ekanligini belgilashga xizmat qiladi. Hissiyotning bu sohadagi boshqa bir funktsiyasi nisbatan umumiyroq bo'lib, odamning



tashqi olamga, shaxslararo munosabatga, his-tuyg`ularga negizlik muammosi hisoblanib, uning uchun ahamiyatli voqea va narsalarga nisbatan bog`lovchilik xususiyatiga ega bo`lgan muloqoti zaif emotsional holatlar doirasidan tashqariga chiqib, faol, barqaror, turg`un jarayonlarni o`z ichiga oladi.

Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, motivlar funktsional-energetik tomonlarini dinamik boshqarish vazifasini amalga oshiradi.

Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog`liq bo`lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik, ma'naviy ta'sir etish munosabatini o`zida aks ettiradi. Motiv bilan qobiliyatning munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarish negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo`ladi. Motivlashgan tizimning tarkiblarini amaliyotda ro`yobga chiqaruvchi nafaqat faoliyatnigina aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki faoliyatning keyingi istiqbol rivoji yoki uning boshqa sohalar bilan qorishib ketish ehtimoli darajasini ham belgilaydi. Lekin muayyan insonning funktsional imkoniyati, faoliyati va xuddi shu faoliyatning ob'yektiv tomonlarining yaqqol ro`yobga chiqishi motiv barqarorlashuvi, rivojlanish (takomillashuv) ga yo`nalganligi ham faoliyatning ob'yektiv shart-sharoitiga moslasha boradi.

Umuman shakllanish jarayoni, shaxsning rivojlanishi motivning faoliyatiga, faoliyatning esa motivga o`zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, bizningcha, mazkur ta'sirning ko`rsatkichi, mezoni vazifasini bajaradi. Motivlarning rivojlanishi tufayli tarbiyaviy talablarni anglashda, ehtiyojlarni ichdan qayta qo`rishda xulq-atvor qoidalari, mezonlari yordami bilan faoliyat doirasining kengayishida, shaxsning borliq bilan munosabati kabilarda o`zgarishlar sodir bo`ladi.

Shuni ham ta'kidlab o`tish kerakki, motivlarning rivojlanishi, motivlashgan yangi ma'lumotlarning paydo bo`lishi, faoliyat muhiti doirasidagi o`zgarishlar tufayli amalga oshiriladi. Motiv mexanizmi shaxs sifatlarini qayta qurish, ularni rivojlantirish jarayonining faollashuvi tarzida yuzaga chiqadi, shu bilan birga inson kamol topish jarayoniga, faoliyat muhiti va sharoiti asta sekin yoki tez o`zgarishi – motivlarning takomillashuvi, barqarorlashuvi kabi omillarga ta'sir etadi. Insonni mehnat faoliyatida qayta tarbiyalash va muayyan fazilatlarini shakllantirish yuqoridagi mulohazalar mohiyatidan iboratdir. Bu o`rinda faoliyat faol vaziyat hisoblanib, mavjud ehtiyojlar, qiziqishlar doirasidagi psixologik holatlardan uzoqlashib boradi, so`ngra yangi qiziqish, ehtiyoj va intilishlarni shakllantiradi, motivlar mohiyati va shakllarini o`zgartiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursunva boshq. Ona tili va o`qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta`lim markazi”, 2021. – 120
2. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o`qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta`lim markazi”, 2021. – 104 b.
3. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun, Ro`zmetova Z Ona tili va o`qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta`lim markazi”, 2022. – 144 b.
4. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o`qish savodxonligi 2-sinf o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma. – T.: “Respublika ta`lim markazi”, 2021. – 128 b.

#### **MILLIY O`QUV DASTURIGA ASOSLANGAN DARSLIK LARNI O`QITISH JARAYONIDA O`QUVCHILARIGA QO`YILADIGAN TALABLAR**

**Alimova Mavluda Adiz qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti, boshlang`ich ta`lim kafedrası  
tayanch doktoranti

**email:** [mavludaalimova0307@gmail.com](mailto:mavludaalimova0307@gmail.com)  
[alimovamavluda@buxdpi.uz](mailto:alimovamavluda@buxdpi.uz)



**Annotatsiya.** Yangi o'quv darsliklarining amalda joriy qilinishi o'quvchilar hamda o'qituvchilar zimmasiga yana yangi vazifalar, mas'uliyatlarni yukladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ham mana shu yangi darsliklar orasidan joy olgan bo'lib, haligacha bu darsni o'tishda pedagoglar ayrim qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu maqolada bu darsni o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning oldiga qo'yiladigan vazifalar va talablar aniq ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** darslik, milliy o'quv dastur, pedagog, o'quvchi, og'zaki nutq, malaka, lingvistik ko'nikmalar, boshlang'ich sinf, ona tili va o'qish savodxonligi.

**Annotation:** The practical introduction of new textbooks has placed new tasks and responsibilities on students and teachers. These new textbooks also include mother tongue science and reading literacy, and educators still face some challenges in getting through this lesson. This article clearly shows the tasks and requirements for the teacher and students during this lesson.

**Keywords:** textbook, national curriculum, pedagogue, student, speaking, competence, linguistic skills, primary school, mother tongue and reading literacy.

**Аннотация:** Практическое внедрение новых учебников возложило на учащихся и учителей новые задачи и ответственность. В эти новые учебники включены также наука о родном языке и грамотность чтения, и педагоги до сих пор сталкиваются с некоторыми трудностями при прохождении этого урока. В данной статье наглядно показаны задачи и требования к учителю и учащимся при проведении данного урока.

**Ключевые слова:** учебник, национальная учебная программа, педагог, ученик, говорение, компетенция, языковые навыки, начальная образование, родной язык и читательская грамотность.

Guvohi bo'lganimizdek, ta'lim sohasida juda ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, milliy o'quv dasturining joriy qilinishi e'tiborga molik samarali ishlardan biri bo'ldi. Pirovar maqsad esa bitta: o'quvchilarni rivojlanib borayotgan dunyoga raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash. Texnika asri rivojlanib ketayotgan bir davrda milliy o'quv dasturining joriy qilinishi, fanlarning takomillashishi o'quvchilar uchun ayni muddao bo'ldi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, Ona tili va o'qish savodxonligi fanining o'quv dasturiga kiritilishi boshlang'ich ta'lim sohasidagi eng katta burilishlardan biri bo'ldi. Bundan oldin boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish fanlari alohida qilib o'tilgan. Ular bir-biri bilan qanchalik bog'liq bo'lmasin, fanlar o'rtasidagi uzilishlar yaqqol ko'rinib, bilinib turardi. Yangi joriy etilgan bur darslikda mana shu kabi uzilishlarni bartaraf etishga harakat qilingan.

Biz bilganimizdek, Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi fanini o'qitishda e'tibor qaratiladigan asosiy 4 jihat bor: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish, grammatik savodxonlikni shakllantirish. Mana shu xususiyatlar bu fanni o'zlashtirish jarayonida asta-sekin shakllanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, ongillik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir

fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

5. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

6. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

8. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

9. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi. (Odatda bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida ushbu jihatlarga e'tibor qaratilgan: noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; syujetli rasmlar asosida matn yozish kabi).

10. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi.

Insonning til malakasi og'zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og'zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, ushbu darslikni yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o'qitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatdan nutqni tushunish va o'z nutqini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir. Til ko'nikma va malakalarini insonning farovon yashashini ta'minlashga xizmat qiladigan boshqa ko'nikmalardan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ularni rivojlantirishda inson hayotda uchraydigan vaziyatlardan foydalanishi muhim. Bu, birinchidan, o'quvchida dars jarayoniga nisbatan qiziqish va rag'batni kuchaytiradi; ikkinchidan, foydalanilgan nutq vaziyatning ichida bo'lgani uchun insonning xotirasida yaxshiroq saqlanib qolad. Ayni ana shu nutq esa o'zida har doim qandaydir grammatik bilimni ham tashiydi.

Avval grammatik qoidani berib, keyin mashq bajarish usuli uzoq yillardan beri ona tili o'qitishda qo'llanib kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog'lanmaganidir. Mazkur usulda mavzuni o'qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanini biladi, ya'ni gapdagi egani, uning qoidasini aytib bera oladi, ammo shu qoida qayerda, qaysi vaziyatlarda qo'llanishi haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Ma'lum vaziyatda qanday gapirish to'g'ri bo'ladi, ya'ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlari tushuntiriladi. O'rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi. Ya'ni bir qoidani o'zida tashigan turli vaziyatlar o'quvchi ko'z oldiga olib kelinadi. Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matnlar bilan cheklanib qolinmaydi. Darslar davomida tilning og'zaki va yozma shaklidan baravar foydalaniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursunva boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta’lim markazi”, 2021. – 120
2. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o'qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta’lim markazi”, 2021. – 104 b.
3. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun, Ro‘zmetova Z Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta’lim markazi”, 2022. – 144 b.
4. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: “Respublika ta’lim markazi”, 2021. – 128 b.

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGI**

*Berdinazarova Muhliisa*

*Shahrisabz davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi xususida bo'lib, unda kasbiy funktsiyaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari, pedagogika OTMlari talabalarining kasbiy tayyorgarlik faoliyatini takomillashtirish yo'llari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi talqin etilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kasbiy faoliyat, integral tavsif, kasbiy funktsiya, kasbiy-metodik kompetentlik.

### **Аннотация**

В данной статье речь идет о структуре профессионально-методической компетентности будущих учителей начальных классов, которая включает в себя основные черты профессиональной функции, пути совершенствования профессиональной подготовки студентов педагогических вузов, будущей начальной школы Структура профессионально-методической компетентности учителя интерпретируется.

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная деятельность, интегральное описание, профессиональная функция, профессионально-методическая компетентность.

### **Annotation**

This article is about the structure of professional and methodological competence of future primary school teachers, which includes the main features of the professional function, ways to improve the professional training of students of pedagogical universities, the future primary school The structure of professional and methodological competence of the teacher is interpreted.

**Keywords:** competence, professional activity, integral description, professional function, professional-methodical competence.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xosligi "o'quv faoliyati" bilan "ta'lim" tushunchalariga e'tibor qaratishni talab etadi. Ta'lim muayyan bilim, ko'nikma, malakalarni, xulq shakllari va faoliyat turlarini o'zlashtirish maqsadida faol gnostik (bilishga oid) faoliyatda ifodalanadi va unga asoslanadi. Ta'lim va o'quv faoliyatini tor ma'noda kichik maktab yoshiga xos bo'lgan yetakchi faoliyat turi sifatida talqin etiladi.

I.A.Zimnyaya o'quv faoliyatiga integral tavsif berib, bu "subyektning o'quv xatti-harakatlarining umumlashgan usullarini egallash va o'qituvchi tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, tashqi nazorat va baholash, maxsus qo'yilgan o'quv vazifalarini hal etish, o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha faoliyat" deb ta'kidlaydi. O'zining gnostik yo'nalganligini yo'qotmay, bir vaqtda pedagogik faoliyatga aylanadi, uning mazmuni ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatlarini amalga oshirish uchun optimal sharoitlarni yaratadi. U ta'lim oluvchi va o'qituvchi rivojlanishi hamda takomillashuvi uning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

O'qituvchi qo'llaydigan nazorat va baholash nafaqat ta'lim oluvchining o'quv faoliyatini rag'batlashtirish vositalari, balki shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirish omillari ham hisoblanadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilimlarni yetkazuvchi rolida xizmat qiladi, balki o'tmish ajdodlar madaniyati va tajribasining ifodasi sifatida ta'lim oluvchi uchun tarbiyachi va ustoz hisoblanadi. Natijada, o'quv faoliyati nafaqat o'qituvchilik, balki o'quv shaxsini shakllantiruvchi tarbiyaviy, ta'limiy – to'liq ma'nodagi pedagogik ishga aylanadi.

Pedagogika OTMlari talabalarining kasbiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab olish zarur:

talabalarining pedagogik va kasb darajasini oshirishda ularning nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan mutaxassislik fanlar bo'yicha innovatsiyalarni o'zlashtirish;

samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etgan holda OTM ta'lim yo'nalishi, mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv rejaları, dastur va uslublarini zamon talabi ehtiyoji asosida takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalari talabalarining global internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovasion pedagogika, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi;

bo'lg'usi pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish, o'z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanish;

ta'lim yo'nalishlarda uzluksiz malakaviy amaliyotni o'tkazish va tanlangan obyektlarda bitiruv malakaviy ishlarni tajriba-sinovdan o'tkazish;

magistrantlarni stajirovkalarda ilmiy faoliyat bo'yicha ish olib borishga, ilmiy adabiyotlarni taxlil qilishga, ilmiy ish bo'yicha o'tkazilgan tajriba sinovdan olingan natijalarni ilmiy asoslashga o'rgatish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini tashkil etish kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Pirovard natijada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va salohiyatini oshirishga erishiladi.

Inson faoliyatining boshqa ixtiyoriy maqsadga muvofiqlik, motivatsiya, fanga oidlik va mahsuldorlik kabi pedagogik faoliyat qator tavsiflarga ega. Muallifning fikricha, pedagogik faoliyat predmeti "ta'lim oluvchilarning rivojlanish asosi va shart-sharoitlari sifatidagi fanga oid ijtimoiy-madaniy tajribani egallashlariga yo'naltirilgan ularning o'quv faoliyatlarini tashkil etish" hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat vositalari ta'lim oluvchilarni shakllantiradigan ilmiy va amaliy bilimlari uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy-madaniy tajribani yetkazish usullari bo'lib didaktik usullar hisoblanadi. Pedagogik faoliyat mahsuli – ta'lim oluvchining shakllantiriladigan individual tajribasi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi bo'lib ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishi xizmat qiladi.

Kasbiy funksiyaning asosiy o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

*nisbatan mustaqillik.* Har bir kasbiy funktsiya pedagogik faoliyatmuayyan vazifasining yechimini ta'minlab, ba'zi prinsiplarning mustaqil tizimi bilan aniqlanadi;

*pedagogik jarayon doirasida boshqa kasbiy funksiyalar bilan bevosita aloqadorlik.* Hech bir funktsiya butun pedagogik jarayonga sababsiz olib tashlanmaydi;

*tashkiliy bo'linish imkoniyati.* Muayyan sharoitlarda u yoki bu kasbiy funksiyani bajarish alohida xodimga topshirilishi mumkin, ammo uning faoliyati boshqa vazifalarni amalga oshiruvchi xodimlardan uzilishda amalga oshirilishi mumkin emas.

Universal kasbiy kompetensiyalar, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarini sinergetik integratsiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasini aniqlashtirish imkonini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining muloqot samaradorligi tuzilmasi universal kasbiy, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarni axborotga sezgirlik, amaliyotga bo'lgan ijodiy munosabatiga aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

### Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-metodik kompetentligi tuzilmasi

Universal kompetensiyalar	kasbiy kompetensiyalar	Umumkasbiy kompetensiyalar	Maxsus kompetensiyalar
ijtimoiy		psixologik-pedagogik	fanga oid
kommunikativ		meyoriy-huquqiy	metodik
axborot		refleksiv	

Maktab ta'limining boshqa ahamiyatli buyurtmachisi - oila tomonidan ham o'qituvchi faoliyatiga talablar o'zgaradi. Bu o'zgarishlarni O'zbekiston jamiyatida so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida mentalitetdagi chuqur o'zgarishlari mazmunida qarash zarur.

Ta'lim mazmunini rivojlantirishda bugungi kunda bola o'zlashtirishi ijtimoiy buyurtmaga qanchalik javob berishi va bolaga keyinchalik nima berishiga asoslanilmoqda. Aynan boshlang'ich sinfdagi ta'lim o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishlari va o'quv faoliyatining barcha komponentlarini to'liq egallashlariga yo'naltirilgan. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar o'quv faoliyatining zaruriy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, nazariy fikrlash, madaniy nutq va xulq elementlarini, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallaydilar.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi doimo o'zining pedagogik mahoratini oshiradi, yangining ijodiy izlanishlarini olib boradi. V.I.Blinov hujjatlar tahlili asosida o'qituvchining tarbiyachi; o'qituvchi; bolalarning darsdan tashqari faoliyatlari tashkilotchisi; bola tarbiyasida oilaga yordam ko'rsata oladigan mutaxassis kabi asosiy funksional majburiyatlarini ajratadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, «Mazkur funksiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishni ma'lum bir shakl bilan cheklamagan holda, pedagogik faoliyat standartining tabiiy tuzilishini belgilaydi». Boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim pedagogik funksiyalari quyidagicha:

- «ta'lim va tarbiya» funksiyasi;
- «sog'liqni saqlash» funksiyasi;
- «ota-onalar bilan o'zaro munosabat» funksiyasi;
- mustaqil ta'lim;
- «ilmiy-metodik ish» funksiyasi.

Pedagogik funksiyalar pedagogik faoliyat tuzilmasida – ta'lim, tarbiya, muloqot, o'qituvchi shaxsining o'z-o'zi namoyon etishi, uning kasbiy o'sishida amalga oshiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asadov Y.M. va b. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari. – T.:Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2016
2. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. 2-kitob. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 860 b.

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

ToshDO'TAU ning 1-kurs doktoranti Abdiraimova Xusnobod  
Samat qizi

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbektili)

Tel:+998994284960

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qib tushunish, o'qishsavodxonli va o'qitiladigan yangi avlod ona tili darsliklarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshir va o'qib tushunish ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan metodlar va usullar haqida .

**Kalit so'z:** ona tili, o'qish savodxonligi, fan, boshlang'ich sinf, savodxonlik, dars samaradorligi.

**Abstract:** This article is about methods and methods aimed at improving reading literacy and strengthening the reading comprehension skills of students in the new generation native language textbooks for reading comprehension in primary grades.

**Key words:** mother tongue, reading literacy, science, elementary school, literacy, classroom performance.

**Kirish.** O'qituvchi degan ulug' kasbni nufuzini va pedagoglarning bilim va pedagogik mahoratini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablariga moslashtirish, xalq ta'limi muassasalarining xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish kunimizning eng ustuvor masalalari qatoriga kiradi. Shu maqsadda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026- yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

O'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PIRLS, PISA, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga doir ishlar olib borilmoqdi.

Maqola orqali o'qish nima, o'qib tushunish nima, o'qish savodxonligi nima va o'quvchilarda o'qish savodxonligini qanday qilib, qaysi metodlar orqali rivojlantirsak bo'ladi savoliga javob topamiz.

"Hayotim roman" deyishadi. Har insonning hayoti so'zlar bilan, yozuvlar bilan, o'qish qoidalari bilan bezatilgan romandir. Dars kitoblari, har inson kasbiga oid kitoblar, qiziqqan kitoblari, jurnal va gazetalar, internetdagi ma'lumotlari, hatto ishlatish uchun olgan uy jihozlirimizni ham yo'riqnomasidan foydalanish uchun ham o'qishimiz va tushunishimiz kerak bo'ladi. Bir insonni jamiyat uchun foydasi tegadigan shaxs bo'lib shakllanishi uchun o'qish va o'qiganini tushunishning o'zni beqiyos.

*O'qish:* boshlanishi, rivojlanish bosqichlari va natijasi bo'lgan jarayondir. O'qish jarayoni ko'z bilan ko'rish, miyada idrok etish, tushunish va miyada jonlantirish kabi turli funksiyalaridan iborat murakkab jarayon sifatida tasvirlangan. Bu jarayonning ishlashi quyidagicha izohlanadi: O'qish jarayoni chiziqlar, harflar va belgilarni idrok etishdan boshlanadi. Idrok etish jarayonidan so'ng diqqat qaratiladi, so'zlar va jumlar tushuniladi, tegishli va kerakli ma'lumotlar taqdim etiladi.

*Tushunish* tushunchasi keng doirani qamrab oladi. Bularni og'zaki tushunish, yozma tushunish, vizual tushunish, matematik tushunish kabilar sanab o'tish mumkin. Biroq, tushunish deganda, biz odatda o'qilgan matnni yoki yozma tushunishni tushunamiz. O'qilgan matnni tushunish uzoq tarixga ega. Yozuvning ixtiro qilinishi bilan bog'liq, tushunish tushunchasi vaqt o'tishi bilan "talqin va anglash" ma'nosida qo'llanila boshlangan. Tushunish jarayonlari. Tushunish modellari va turli tadqiqotlar asosida ko'plab olimlar tushunish jarayonining bosqichlarini va hosil qiladigan ko'nikmalarni aniqladilar. Tushunishga o'rgatishda qo'llaniladigan bu jarayonlar quyidagilardan iborat:

**1. Kichik til birliklarini tushunish:** Bular gapni va gapdagi ma'lumotlarni tushunish jarayonlari. Gap gap tarkibidagi so'z, so'z birikmasi, ibora va gaplarni tushunish. Bu bosqichda quyidagi ko'nikmalar hosil qilinadi.

*-So'zlarni aniqlash:* gapdagi so'zlarni tanib olish va ularning ma'nosini topish jarayonini o'z ichiga oladi;

-*Ibora va gaplarni tushunish*: Gapdagi ibora va gap bo‘laklarni tushunish uchun so‘zlar ma’noli birikadi. Keyin ibora va gaplarning ma’nosini kelib chiqarish;

-*Kichik jumalarda ma’lumot tanlash*: Ibora va gap bo‘laklaridagi ba’zi ma’nolarni tanlash, ularni muhimligiga ko‘ra tartiblash, ularni birlashtirish va gapga ma’no berish jarayonidir.

**2.Tushunchalarni birlashtirish**: Bu bosqichda gap bo‘laklari bog‘lanadi va gap ma’nosi keltirib chiqariladi. Gaplar ma’nosi birlashtirilib matn ma’nosi keltirib chiqariladi. Gap va ma’no o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi. Ular quydagilardan iborat:

*Gapda bog‘lovchilarni aniqlash*: Bu gaplar orasidagi bog‘liqlik va tushunish bilan bog‘liq jarayondir. Masalan: “va, bilan, ham” kabi bog‘lovchilarni bilish va tushunish;

-Mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash: U matndagi ma’no aloqalarini ta’minlovchi so‘zlarni tanib olish va tushunish jarayonini o‘z ichiga oladi. Masalan, “lekin, ammo, aksincha” kabi;

-Xulosa qilish: Bu matndagi ma’lumotlarga asoslanib, matnda berilmagan ma’lumotlarni topish va matn mazmunini kengaytirish jarayonidir. Xulosa qilish matndagi ma’lumotlardan “vaqt, soat, joy, fasl yoki voqea sodir bo‘lgan shaxsning his-tuyg‘ularini topish” matnda keltirilgan ishoralar asosida amalga oshiriladi.

**3.Asosiy matn ma’nosini tushunish**: Ushbu bosqich butun matnni tushunishga qaratilgan. Ushbu jarayonda quyidagi operatsiyalar bajariladi:

-*Asosiy g‘oyani aniqlash*: u matnning asosiy g‘oyasini aniqlash jarayonini o‘z ichiga oladi;

-*Matnni umumlashtirish*: Bu matnda keltirilgan ma’nolarni umumlashtirish;

-*Matn strukturasi aniqlash*: Bu tuzilishga rioya qilish orqali matn tuzilishini aniqlash va matnni tushunish. O‘quvchi uni yaxshi tushunish va ma’lumotni ongiga joylashtirish uchun matn tuzilishidan boshlashi kerak.

**4.Ma’noni yasash**: O‘quvchi matndan ba’zi ma’lumotlar va ma’nolarni tanlab oladi. U ma’no tanlashda tekshirish, taqqoslash, bog‘lash va so‘roq qilish kabi turli xil aqliy jarayonlardan foydalanadi. Bu jarayonlar matnda qayta ishlangan axborotni muhimligiga ko‘ra kuzatish, nazorat qilish, tanlash va tartiblashni tushunish uchun ham, o‘quvchi uchun ham osonlashtiradi. So‘ngra matndan tanlab olingan ma’nolar o‘quvchining oldingi bilimlari bilan birlashtirilib, ularning ongida qayta talqin qilinadi va tuziladi. Bu jarayon semantik tuzilish deb ataladi. Tushunish malakalarini oshirish uchun bu jarayon va malakalarga ahamiyat berish va tushunish malakalarini rivojlantirishni erta yoshdan boshlash kerak bo‘ladi.


**O‘qib tushunish** – bu matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga qarab qabul qilish va qayta ishlab, mazmunan anglashga doir nutqiy faoliyat turi. Real hayotda biz turli tarzda o‘qiymiz, o‘qish xususiyati bizning har bir alohida vaziyatda o‘qishdan ko‘zlaydigan maqsadimizga bog‘liq.

**O‘qish savodxonligi** -insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi, jamiyatda ishtirok etishlari va o‘z bilim va imkoniyatlarini rivojlantirishlari uchun matn ko‘rinishidagi ma’lumotlardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish, ular bilan ishlash va tushunish demakdir.

O‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun “Aylana davra” metodi. Ushbu metodni o‘qituvchilar sinfda, shuningdek, oila a’zolari o‘rtasida qo‘llashlari mumkin

Qo‘llash bosqichlari quyidagicha:

- 1.Munozara tashkil qilish va savollarni oldindan tayyorlash;
- 2.O‘quvchilar sinf o‘rtasida aylana hosil qilinadi ya’ni stullar aylana shaklda qo‘yiladi va aylana o‘rtasiga bo‘sh stul qo‘yiladi;
- 3.Kitob yoki matn haqida fikr bildirmoqchi bo‘lgan stulga o‘tirib o‘z fikrini bildiradi va aylanadan chiqib ketadi;
4. O‘z fikrini bildirmoqchi bo‘lgan boshqa odam aylana



1-chizma. “Aylana davra” metodi o‘tirish tartibi



5. Doiradan tashqaridagilar kuzatuvchilardir. Kuzatuvchilar tinglaydi, agar xohlasa, gapirayotgan odamga savol berishi mumkin;

6. Muhokama davomida kuzatuvchilar qayd qilib boradi. Oxirida kuzatuvchilar muhokamaning qisqacha mazmunini sinfga taqdim etadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qiymatga ega. Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Darsliklarda berilyotgan matnlar ham bola uchun qiziqarli va bugungi zamon talablariga javob beruvchi matnlar tanlangan. Matnlar yuzasidan berilayotgan topshiriqlar ham bolani fikrlashga, o'ylashga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Boshlang'ich sinf darsliklarida ham juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Darsliklar qayta –qayta ishlanib, rivojlangan davlatlar darsliklari bilan raqobat qila oladigan darsliklar yaratilmoqda. Ona tili darslarida berilayotgan matnlar ham bolani tanqidiy fikrlashga, kreativ fikrlashga, ijodiy fikrlashga, bola ongi va fikrlarini o'sishga sabab bo'lmoqda. O'quvchilarni xalqaro baholash PRLIS va PISAga tayyorlashda yangi darsliklarimizdan foydalanyapmiz.

Xulosa qilganda, ona tili qoidalarini va til sathlarini bolalarga o'rgatish orqali o'quvchilarni matni tushunishi rivojlantiriladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir o'quvchiga ona tili darslarida o'qish savodxonligini oshirishning ahamiyatini anglagan holda o'quvchilarga kerakli bilim va ko'nikmalarni bera olishi muhimdir. Shunda, o'quvchilar kelgusida og'zaki va yozma savodxonligi hamda o'qib tushunish, tinglab tushunish ko'nikmalarini oshirish va jamiyatda o'z o'rnini yetuk inson sifatida topishga katta yordam beradi. Bundan tashqari 4-sinflar uchun hozirgi kundagi xalqaro tadqiqotlardan biri bo'lgan PIRLS tadqiqotiga tayyorlashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 4-b.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni o'qish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari [Matn]: Mamaraximova N. I./Conference on universal science research 2023.24-27-b.

3. PISA 2018 o'qish savodxonligi qamrov doirasi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent-2021.

4. Okuma Alışkanlığını Geliştirme Yöntem, Teknik ve Modelleri. [Halit Karatay](#), [Esra Kūlah](#), [Seda Kaya](#). <https://doi.org/10.35233/oyea.707967>

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM**

Sultanova A. M.

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi” kafedrasida o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarga Integratsiyalashgan dars va fanlarning aloqadorligini inobatga olgan xolda berilgan, ularga ta'lim yangiliklarini berish va rivojlantirish juda katta mas'uliyat talab qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ta'lim-tarbiya, integratsiyalashgan dars, ilm-fan, integratsiya, o'zaro hurmat, ijodiy xamkorlik.

“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108 Farmoni va “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son hamda “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga ijodiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb yetadi. Bugungi kunga kelib, an'anaviy o'qitish o'rmini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar yegallamoqda. Shu nuqtai nazardan qayd yetish lozimki, XX asrning yakuni texnokratik taraqqiyotga nuqta quyib, gumanitar madaniyatning ibtidosiga yo'l ochdi. Kuch va qurquv mantig'ining ong va muhabbat falsafasiga almashingani XXI asrning o'ziga xos strategiyasidir. Demak, ta'lim-tarbiyada xam amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat kursatishi lozim. Bu o'rinda noan'anaviy o'qitish shakli integratsiyaning axamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo'llanilish texnikasiga kura, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi.

Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo'la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy xolatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqa o'luvchi faktor xisoblanadi. Integratsiya chukur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana o'luvchi, turfa xarakterdagi katta xajmli o'quv bulib, xozirgi kunda tobora ommalashib borayotgan bo'la shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalardir. Xususan, atrof muxitga jiddiy munosabatlarning po'ydevori boshlang'ich sinflarda o'rnatiladi. Inso'nning bilish qobiliyati, uni qo'rshab turgan tevarak olamga nisbatan sergak munosabatini tarbiyalash o'z-o'zidan shakllanib qo'luvchi jarayo'n bo'lmasdan, inso'nning ta'lim o'lish jarayo'nidagi ko'mpleksli rivojlanishini yextimo'l qiluvchi: mashg'ulotlarni darsning mundariyasi, mazmuniga muvofiq pedagogik texnologiyalarni tug'ri va ongli qo'llashni nazarda tutgan xolda tashkil yetish talab yetiladi. Bunda pedagog asosiy ye'tiborni ta'lim o'luvchining dunyoqarashini kengaytirish maqsadiga qaratadi. Bu ko'prok integratsio'n tipda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bo'lib, ularni tashkil yetishda o'qituvchi fanlararo integratsiyaga xos qator jixatlarni yaxshi o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

Ta'kidlash kerakki, integratsiya ayrim bo'laklarning yoki yelementlarning bir-biriga kushilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq olimlar izoxlgan yedi. Integrativ ta'limni yo'lga qo'yishdan oldin, uning tasnifi integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klassifikatsiya) borasida ma'lum tushuncha xosil qilish lozim bo'ladi. Pedagogika fanlari doktori, professor Kukushin B.C., Boldireva Varaksina A.V tomonidan izo'xlangan yedi va pro'fesso'r R.A.Mavlonovada bu tasnif kuyidagicha ifodalaydi:

- chegarado'sh fanlar asosida;
- asosiy fanlar asosida;
- umumiy ilmiy tushunchalar, qo'nuniyatlar, nazariyalar asosida;
- fan yevelyusiyasi bilan bo'g'liq muammolarni, tabiatni ilmiy nuqtai nazardan o'rganish uslublari, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosida;
- kompleks ob'ektlar asosida;
- turli muammolar asosida;
- faoliyat asosida.

Binobarin, mazkur tadqiqo'tda urg'u berib karalayotgan boshlang'ich ta'limdagi integratsiya o'z atrofida: o'kish, matematika, tabiatshunoslik, rasm, mexnat singari o'quv fanlari xamda ingliz tilini jamlaydi. O'z darsini integratsiyalashgan usulda tashkil yetayotgan o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi. Integratsion dars loyixasining tematikasi o'quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo'lishi mumkin, bunda aloxida qaralgan iqtidorli o'quvchilar va umuman, sinf o'quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o'rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi.

Integratsion dars odatdagi darslardan farqlanadi:

- aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining zich ko'lami;
- darsning xar bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining xar taraf lama mantiqiy shartlanganligi;
- berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamlil axborotga yegaligi bilan ajralib turadi.

Integratsiyalashgan darsda maqsadni bir necha fanlarning aloqadorligini inobatga olgan xolda belgilash lozim bo'ladi. Bunday mashg'ulotda o'quvchiga beriladigan to'pshiriqlarning optimal yuklama kulamini xisob-kitob qilib olish kerak. Mashg'ulotni olib boruvchi bir necha o'quv fanlari o'qituvchilarining darsdagi faoliyati, xatti-xarakati muvofiqlashtirilishi shart. Mazkur mashg'ulotlarning pirovard natijada xulosalanishi talab qilinadi. Integratsiyalashayotgan fanlarning bittasi asosiy deb olinishi darkor.

Misol uchun, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan mexnat darslari mundarijasida integratsiya jarayonini ko'rib o'sak. "Qog'ozdan savatcha yasash" mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish uchun o'qituvchi o'z ish faoliyatini quyidagi ketma-ketlikda rejalashtirarkan, bu bilan u ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarga mos keluvchi darsni loyixalashtirgan xisoblanadi. Ushbu mashg'ulotni tabiatshunoslik, matematika, odobnoma va informatika darslari xamda ingliz tili bilan uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. Boshlang'ich sinf mehnat darslarini integratsion interfaol shaklda tashkil yetishda, ko'relish konstruktorlik va texnik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, shu turdagi o'yinlar ko'magida o'qituvchi xamda o'quvchining kreativligi oshadi. Bunda texnik mo'slamalar, qurilish detallari to'plami, ko'nstruktorlar, mehnat o'yin quro'llarining ba'zi turlari, mexanik, magnit, yelektr, yelektron va boshqa qurilmalarga urg'u berilib qo'lmasdan, o'quvchilar ijodkorligi uchun audiovizual multimedia vositalari va texnik predmetlarga o'rin ajratiladi. Bunday o'yinlar bo'lalarning mazkur yosh xususiyatlariga muljallangan bulishi bilan birga, ulardan mustaqil syujetli o'yinlarda, o'quvchilarning tadqiqotchilik xususiyatlarini takomillashtiruvchi bilishga oid o'yinlarda foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xaqiqiy mexnat qilishga yordam beradigan o'yinlarga mo'ljallangan: bo'lalar tikuv, tukuv va tukimachilik mashinalari, bolalar qishloq xo'jaligi va maishiy mexnat kurollari, badiiy dekorativ va bosma ishlar to'plamlari xaqiqiy ma'noda mexnat darslarini maroqli va sevimli jarayonga aylantira oladi. Shuningdek, dars jarayonida muayyan mexnat to'pshirig'ini bajarish jarayoniga oid yelektron taqdimotlar, darsning integratsion kiyofasini ta'minlovchi: tabiatshunoslik, matematika, ona tili va odobnoma, jismoniy madaniyat singari fanlararo bog'liqlikka ishora qiluvchi turli videoroliklarni namoyish yetish o'rinlidir.

Masalan, qo'g'ozdan xar xil shakl va o'yinchoqlar yasash san'atiga doir mashg'ulotda shakli yasalayotgan jonivorga oid yertak, multfilm yepizodlari yekranda namoyish yetilishi, o'quvchilar tomonidan mavzuga oid she'r va maqollarning ifodali o'qib berilishi singari vositalar jarayonni tezlashtiradi, intensivlashtiradi. Qolaversa, tabiat jonzotlarini o'rganishga qaratilgan "Men kimman?", tikuv, yopishtirish, yasash, to'qish topshiriqlarini tez muddatda bajarishga o'rgatuvchi "Estafeta", ranglar va shakllarni o'rgatuvchi "Xo'p" kabi rivojlantiruvchi o'yinlarni o'tkazish xam darsning talab darajasida muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, integratsion ta'limning samarasi ta'lim shaklini to'g'ri, pedagogik asoslangan tarzda tanlash bilan keskin ravishda bog'liq bo'lib, bunda xar uch turdagi: ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur taxlili talab qilinadi. Fanlararo integratsiyani, shuningdek, sog'lom muxit, o'zaro xurmat va ijodiy xamkorlik xukm surgan pedagogik jamoadagina amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Integratsion darsning yutuqli jixatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu turdagi mashg'ulotlarda bo'la olamni bir butun, yaxlit xo'lda tasavvur yetishni bo'shlaydi.
2. Bola potensiali rivojlanadi, tevarak-atrofnii katta qizikish bilan o'rganishga kirishadi, xodisalar uning ongida mantiqiy shakillanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yerkini va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz. – T., O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston. 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini

## REZYUME

V dannoy state: Uchituvaya svyaz integrirovannykh urokov i predmetov, na uchashixsya nachalnoy shkoly vozlagaetsya bolshaya otvetstvennost za obespechenie i razvitie obrazovatelnykh innovatsiy.

### SUMMARY

In this article: Taking into account the connection between integrated lessons and subjects, elementary school students are given a great responsibility to provide and develop educational innovations.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDA IJTIMOY- PEDAGOGIK ZARURIYATI**

O'roqova Sharofatxon Saidqul qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi o'qituvchisi

Annotatsiya :Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning nazariy masalalari ko'rsatilgan bo'lib,bugungi kunda dolzarb masalalaridan ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar:intellekt,bilim,ekskursiya ,rioplanish,tabiiy fanlar,salohiyat.

Аннотация: В данной статье показаны теоретические вопросы интеллектуального развития учащихся младших классов на основе индивидуального подхода в образовательном процессе и отмечено, что это одна из актуальных проблем на сегодняшний день.

Ключевые слова: интеллект, знания, экскурсия, развитие, естествознание, компетентность.

Abstract: This article shows the theoretical issues of intellectual development of elementary school students based on an individual approach in the educational process, and it is mentioned that it is one of the current issues today.

Key words: intelligence, knowledge, excursion, development, natural sciences, competence.

Biz Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz.Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san'at va sport bo'yicha salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz.Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!Dunyodagi Top-500 ga kiradigan chet el oliygohlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma o'quv dasturi va "ikki diplomli tizim" joriy etiladi. Bundan tashqari, biotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda yiliga 500 nafar iste'dodli yoshlar eng nufuzli xorijiy oliygohlarga davlat hisobidan o'qishga yuboriladi. Buning uchun 200 million dollar yo'naltiriladi. Yoshlarimizning faolligi, Vatanimiz taqdiri va taraqqiyotiga befarq emasligi, ertangi kunga katta umid va ishonch bilan qarayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.Biz bugungi O'zbekiston bu — kechagi O'zbekiston emas, deb ko'p gapiramiz. Buning isbotini avvalo yoshlarimiz siyosida, ularning yutuq va g'alabalarida ko'ramiz<sup>20</sup>-deya O'zbekiston yoshlariga murojaat qildilar yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev saylovoldi so'zlagan nutqlarida.Shu munosabat bilan bugungi kunda ayniqsa,boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual yondashuv asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasining didaktik parametrlarini aniqlab,ularni ta'lim tizimiga joriy qilish bugungi kunda tarixiy-ijtimoiy zarurat bo'lib qolmoqda.XXI asrda intellektual salohiyat jadallik bilan rivojlanayotgan bir paytda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelajakda yetuk kadr bo'lib ta'lim bermoqlik alohida ahamiyat kasb etib,ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy

<sup>20</sup> <https://daryo.uz/>

fanlar misolida individual yondashuv asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan bugungi jarayonda jahonning eng ilg'or mamlakatlaridan Amerika Qo'shma Shtatlari, Finlyandiya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Nidarlandiyada o'quvchilarga bilim berishda individual yondashuvga alohida e'tibor bilan yondashilmoqda.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida o'sib kelayotgan yosh avlodning individual jihatdan har tomonlama sog'lom, keng fikrli bo'lishi uchun izlanishlar olib borilmoqda. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy fikrlash qobiliyati, atrof-olamni keng mushoda eta olish qobiliyati, o'quvchilarning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilib bormoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, umumta'lim maktablarining o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son farmoni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individual-lashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitish va baholash metodlari, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish belgilab berilgan[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni[3], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son[7], 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarorlari[8], 2018 yil 14 avgustdagi "YOshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli[6], 2019 yil 20 fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-sonli[5], 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni[2] hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.<sup>21</sup>

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirish maqsadida pedagogik jarayonning didaktik xususiyatlari yosh xususiyatlariga mosligi, bilim darajasiga muvofiq kelishi, topshiriqlarning ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi, faoliyat tajrib ta'lim jaryoni sub'ektlarini intellektual rivojlantirish mezonlari (motivatsion, kognitiv, kreativ) gomogen va geterogen guruhlarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayonning kooperativlik jihatining sub'ektivlik bilan ichki aloqadorligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

individual yondashuvga muvofiq boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modelining amaliy komponenti didaktik vaziyatlarni yaratish, ijodiy mayllarni hosil qilish, intellektual faoliyatni izchil tashkil etish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishga doir interfaol mashg'ulotlar tizimi adaptivligini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimning mantiqiy tuzilmasi shaxs rivojlanish sohalarining (motivatsion, intellektual, irodaviy) evristik o'qitish usullari bilan gorizontal va vertikal munosabatlarining qayta aloqaga kirishuv

---

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

darajasi produktivligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan. asini rivojlantira olishi pedagogik-psixologik tahlil asosida aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchisini har tomonlama rivojlantirish muammosining yechimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun bugungi kunga qadar ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan ayrim an'analardan voz kechish zaruriyati tug'ilmoqda. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy ta'lim jarayoni orasida mutanosiblikni ta'minlagan holda o'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud bo'lgan bilimlar paradigmasi hamda ular taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta'minlagan holda shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, ularning o'quv jarayonidagi taraqqiyotlari orasida dinamik aloqadorlikni ta'minlash lozim. O'quvchining intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo'lishga undash orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirish shuning uchun ham zarurki, bu jarayonda o'quv vaziyati barqaror rivojlanadi va o'quvchilarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga aksariyat hollarda e'tibor qaratmaydilar. Ikkinchidan, ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida o'quvchilarni intellektual rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirish masalasi o'tgan asrning 60 yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Biroq, bu masalaga hozirgi kunda yangicha pedagogik paradigma asosida yondashilmoqda. Jumladan, ushbu masalaga jamiyathunoslar va psixologlar birinchilardan bo'lib e'tibor qaratdilar. Biz so'ragan o'qituvchilarning 1,4% i o'quvchilarni intellektual rivojlantirish haqida tasavvurga ega ekanliklari ayon bo'ldi. Ularning juda kam qismigina bu masala haqida muayyan bilimga ega ekanliklari aniqlandi. Aksariyat o'qituvchilar o'quv predmetlaridan dars beradigan pedagoglarning o'quvchilarda intellektual faoliyat ko'nikmasini tarkib toptirishga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar, ayrimlari esa, bu sinf rahbarining vazifasiga kiradi deb hisoblaydilar. So'ralgan bir guruh o'quvchilar o'zlarining intellektual faoliyatlarini baholashlari, o'z bilimlarini tadbiiq etishga qiziqishlari aniqlandi. Ularning muayyan qismi o'zlarining intellektual o'ziga xosliklarini anglab yetishlari ayon bo'ldi. Bularning barchasi o'quvchilarga individual yondashgan holda ularni intellektual rivojlantirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatdi.

Ushbu bilimlar orqali tadqiqotimizning ilmiy yangiligi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi so'zlagan nutqidan <https://daryo.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi ni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Butayorova M. X. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O'quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.
4. Turobov M. O 'QUVCHILARINING MATEMATIK QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA IDROK ETISHNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 1. – №. 1.
5. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7023>
6. Sh, O'roqova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi // TAFAKKUR MANZILI – 2023. – T. №. 4.–C. 135-138.

## **GLOBALASHUV DAVRIDA FAN VA TA'LIMNING AVTOMOBILSOZLIK VA TARNSPORT LOGISTIKASIGA INTEGRATSIYASI**

Qarshiyeva Soxiba Uroq qizi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallashuv davrida fan va ta'limning avytomobilsozlik hamda transport logistik integratsiyasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Jarayon, tijoratchi, iqtisod, logistika, transport, jamiyat, ta'lim, ijtimoiy natija, islohot.

Jarayonlarni tashkil etishning logistik konsepsiyasini faqatgina logistika sohasida mutaxassislar tomonidagina amalga oshirib bo'lmaydi. Jarayonlarni tizimli tashkil etish falsafasi biznesning tayanch falsafasi bo'lishi lozim. Tijoratchilar, iqtisodchilar, turli tarmoq menejerlari logistika konsepsiyasini tushunishlari va qabul qilishlari, jarayonlarni logistik tashkil etishning asosiy usullarini bilishlari hamda erishiladigan samarani ko'zda tutadigan bo'lishlari kerak. Shuning uchun ham bugungi kunda logistika sohasidagi keng qamrovdagi oliy ta'lim vazifasi nihoyatda muhim hisoblanadi.

Shu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati ta'limning roli va ahamiyatini qayta ko'rib chiqish boshladi. Dastlab ta'limni isloh qilish ilmiy texnik inqilobning "ijtimoiy natijalari"dan biri sifatida ko'rila boshlandi. Ammo keyinchalik ta'lim iqtisodiy va ilmiy – texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti, jamiyat ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishning mexanizmi sifatida tan olindi.

O'zbekistonni yaratish, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'l-transport va kommunikasiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda oxirgi yillarda logistikani, klasterlarni, innovatsion faoliyatni, raqamlashtirishni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Bu esa o'z o'rnida raqamlashtirish mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, yoshlarni ish bilan bandligini taminlash, mehnat unumdorligini o'stirishdagi hissasi to'g'risida xulosa chiqarish uchun O'zbekistonning raqamli rivojlanishi bo'yicha to'la miqyosli uzoq muddatga ega bo'lgan strategiyali davlat innovatsion siyosatini rivojlantirishni va iqtisodiyotimizni raqamlashtirishni taqozo etmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki transport va logistika klasterlar tizimida yuklarni tashishda raqamlashtirishdan, ya'ni axborot kommunikatsion texnologiyadardan, innovatsion logistikadan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Tovarlar harakatini boshqarish tizimi eng kam xarajatlar bilan ko'ngildagidek ko'rsatish darajasiga erishishga xizmat qiladi. Bunda boshqaruv mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar ing aniq maqsadli ko'rsatmalarini amalga oshiradi. Masalan, eng kam varajatlarni bilan kerakli muddatda mahsulotni yetkazib berishni tam'inlash, xizmat ko'rsatishni tegishli darajada ushlab turish kabi ko'rsatmalar bo'lishi mumkin. Bunday holda boshqaruv mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyati bilan shug'ullanayotgan barcha ho'limlarni ma'lum darajada muvofiqlashtirishga yo'naltiriyadi. Tovarlar harakatini tashkil etishda marketing va ta'minot ma'lumotlari, ishlab chiqarish bo'limlari, transport, ombor xo'jaligi, olish xizmati ishtirok etadi. Mazkur bo'limlar ishida kelishmovchiliklar va ziddiyatlar yuzaga keladi. Boshqaruv tizimining ziddiyatlarning bartaraf etilishini va tovarlar harakatiga sharoit yaratilishini ta'minlovchi qarorlarni qabul qilishdadir. Logistikani boshqarish boshqaruv vazifalari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Transport koridorlarini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishidir. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari duch keladigan tashqi savdo yuklarini tashishni rivojlantirishda mavjud muammolarning hal etilishiga bog'liqdir.

Logistika tizimiga mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri, deya ta'rif berilishi bejiz emas. Boisi, samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xomashyo harakatini optimallashtirish orqali xaridorlarga tovar va xizmatlar qulay sharoit va arzon narxlarda etkazib



berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Avtomobilsozlik — fan va texnika taraqqiyotini o'zida mujassam etgan jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan sanaladi. Ushbu yo'nalish rivojlangan davlatlarda yetakchi, multiplikativ soha sifatida metallurgiya, neft-gaz va kimyo sanoati, elektrotexnika hamda boshqa turdosh sohalarda bitta ish o'rnida 7–8 ta ish o'rnini yaratishga majbur qiladi. Ayni jihatlarni anglagan holda, rivojlangan davlatlar orasida eng yuqori pog'onalarni egallash hamda ular darajasiga yetish uchun biz yangi milliy texnologiyalarni tadbiiq etamiz, ilmiy salohiyatni yuksaltiramiz va yaratamiz.

Mamlakatimiz dengizga chiqish uchun kamida ikkita davlat hududidan o'tishi kerak va bu jahon bozoriga chiqishda salbiy ta'sirga ega. Masalan, bugungi kunda o'zbekistonlik ishlab chiqaruvchi uchun jahon bozoriga chiqish Germaniyadagi ishlab chiqaruvchiga nisbatan 4 baravar qimmatga tushadi. Ammo buni transport xarajatlarini pasaytirish, tashuvlar tezligini oshirishga qaratilgan samarali transport siyosati yuritish orqali hal qilish mumkin. Shu bois, Markaziy Osiyo mamlakatlari transport logistikasi salohiyatini oshirish, tranzit qobiliyatini kengaytirishda mintaqadagi qo'shnilar bilan aloqalarni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash, bu boradagi ishlarni faol qo'llab-quvvatlash har qachongidan dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan radikal iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, ko'p jihatdan, muomala sohasining samarali faoliyati, ishlab chiqarish vositalari bilan ulgurji savdoning keng rivojlanishi, ishlab chiqarish texnikasiga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ri aloqalar, hududlarning xalq xo'jalik tarmoqlari, aksiyadorlar birlashmalari, turli mulk shakllaridagi ishlab chiqarish va tijorat sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi transportning sifati bilan ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rganish bilan birga vatanimizda logistika sohasida bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlari sohasida mahsulot harakatlarini optimallashtirishning ilg'or yo'nalishlaridan foydalanish ham ma'lum bir ahamiyatga ega bo'ladi. Logistika bo'yicha mutaxassislar moddiy - texnika ta'minoti, transport va tovar harakati haqidagi axborotlarni yagona tizimga integratsiyalashuvini ta'minlashga intilishmoqda, bu esa ushbu sohalarning har birini ish faoliyatining samarasi va tarmoqlararo samaraning ortishiga olib kelishi kerak. Chet ellarda nazariya sifatida logistika mustaqil fan bo'lib ajralib, oliy o'quv yurtlarida, izlanishlar sohasi hamda ilmiy ishlab chiqarishda o'rganilmoqda. Ko'pgina oliy o'quv yurtlarida boshqaruv xodimlarini tayyorlash uchun informatika va marketing bilan birga «logistika» mutaxassisligi mavjud va bitiruvchilarga mos mutaxassislik berilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kengaygan ishlab chiqarish va muomala sohalari uchun mutaxassis tayyorlashdagi o'quv jarayonlarini tashkil qilishga ta'sir o'tkazdi.

Logistikani fan sifatida, bilimlar tizimi, tamoyillari va usullari sifatida bilmaslik xodimning kasbiy kamchiliklarini tavsiflaydi, bu esa sub'yektning ishida (biznesda) ma'lum bir harajatlarning qo'shimcha sarflanishiga olib keladi. Shuning uchun bozor iqtisodiyotining markaziy ishtirokchisi - tijoratchini tayyorlashda logistikani o'qitish ahamiyatli o'rin egallaydi. Logistikani bilish iqtisodchilar uchun muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatini olib borishga asos sifatida zarurdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Q.Dadaboyev. Logistika. "Iqtisod-Moliya" 2007.
2. T.Ergashev. Globallashuv jarayonida siyosiy madaniyatning rivojlanishi.
3. D.M. Umarov. M.A. Bo'ronov. "Logistika". Cho'lpon-2016.
4. Sybetto A.I. Intellektualizatsiya obrazovaniya kak problema XXI veka // «Akademiya Tpinitarizma».- M., el № 77
5. M.N.Juraev, A.E.Yusupov. Transport logistikasi. Qarshi.2016

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA O'ZIGA XOS TRENINGLARNI AMALGA OSHIRILGANDA TA'LIM MUHITI

Qosimova Gavhar Islomovna

Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası dotsenti, P.f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning xususiyatlari ko'rib chiqiladi, bu esa quyidagilarga imkon beradi ta'lim natijalarini aniqlash, shuningdek, maktabning ta'lim muhitini ma'kon sifatida shakllantirish shaxsiyatni ijtimoiy, psixologik, pedagogik takomillashtirish va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining vakolatlarini shakllantirish.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, ta'lim muhiti.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarning ta'lim modelini rivojlantirishga turtki beradigan bir qator ta'lim yo'nalishlarini shakllantirildi. Axborot jamiyatning mavjudligi, tushunchasi va ko'payishining asosiy shakliga aylanadi. Ta'lim paradigmasi rasmiylashtirilgan o'quv jarayonidan shaxsning rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirish tushunchalariga o'tadi, shaxsga yo'naltirilgan va gumanistik yo'naltirilgan ta'lim yangilanadi. Ta'lim jarayonlari tobora universal, axborotlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan bo'lib bormoqda.

Integratsiya jarayonlari va kompetensiyaga asoslangan kampaniya barcha ta'lim sohalariga kirib bormoqda.

Axborot asrida aniq va chuqur bilimlar endi haqiqiy hayotda bitiruvchilar duch keladigan ko'plab muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon bermaydi. Biror kishi nafaqat maxsus ma'lumotlarga ega bo'lishi, balki axborot oqimlariga yo'naltirish, harakatchanlik qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak yangi hayotiy muhitlar, yangi texnologiyalarni tez o'zlashtirish, o'z-o'zini o'rganish, samarali bilimlarni yoki boshqa manbalarni topish. Shunday qilib, inson (talaba) ning hayotdagi (ta'lim muhiti) kompetensiyasi tushunchasi paydo bo'ladi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim natijalarini aniqlashga imkon beradi zarur shaxslar va zamonaviy jamiyat tomonidan talab katta. Talabalarning malakasini shakllantirish bugungi kunda ta'limning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv-bu sifatli ta'limni ta'minlash zarurati va axborot hajmini yanada oshirish orqali ushbu muammoni an'anaviy tarzda hal qilishning iloji yo'qligi o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish usuli, assimilyatsiya qilinishi kerak. Ushbu yondashuv ta'lim natijalariga qaratilgan bo'lib, ularni quyidagicha ko'rib chiqmaydi o'rganilgan ma'lumotlarning yig'indisi va turli xil qiyin vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati sifatida, ta'lim natijasi ta'lim tizimidan tashqarida ham ahamiyatli ekanligini hisobga olgan holda.

M. P. Skatkin, I. Y. Lerner, V. V. Kraevskiy, G. P. Shchedrovitskiy, V. V. Davidov kabi mahalliy pedagoglar. Ushbu yo'nalishda o'quv texnologiyalari ishlab chiqildi. Biroq, ushbu ishlanmalar qo'llanilmadi namunaviy o'quv dasturlari, standartlar, baholash protseduralarini tuzishda. Umumlashtirilgan bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'zlashtirish shartlari asosida qurilgan o'quv jarayoni hamma narsa dolzarb edi qaerda. Ta'limning rivojlanayotgan modellari ushbu umumlashtirilgan o'quv birliklarining o'quv mazmuni va texnologik bazasini namoyish etdi.

Vakolatlar va ta'limni bog'lash g'oyalari olimlar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar o'rtasida tortishuv va munozaralarga sabab bo'ldi. V. M. Shepelning asarlarida kompetensiyani aniqlashda bilim, ko'nikma, tajriba birligi, bilimlardan foydalanishga nazariy va amaliy tayyorgarlik kiritilgan [12]. B. C. Bezrukova belgilaydi. kompetensiya "professional vakolatli hukmlar, baholar, fikrlarni bildirishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish" sifatida [1]. V. A. Deminning fikricha, kompetensiya-bu mahorat darajasi muayyan vakolatlarga muvofiqlik darajasini aks ettiruvchi va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda konstruktiv harakat qilishga imkon beradigan shaxslar [4].



Biroz boshqacha tarzda N. V. Koryakovtseva tomonidan belgilanadi o'quv kompetensiyasi, o'z o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish, o'quv maqsadlari va vazifalarini belgilash, boshqarish usullarini tanlash qobiliyati sifatida va uning mahsuldorligining asosiy komponenti bo'yicha olingan natijalarni baholash [7, 42-65]. Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv har doim shaxsiy va kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan o'z kelajagini qurishga qaratilgan

"Boshlang'ich, asosiy va o'rta maktablardagi o'quv jarayoni. Eksperimental ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar"[8, 3] o'quvchining malakasi quyidagi qobiliyat sifatida belgilanadi o'z mahsulotingizni yaratish, boshqalar tomonidan idrok etishga yo'naltirilgan va taqdim etilgan inson tomonidan idrok qilinishi. Kompetensiyaning bunday formulasi ijtimoiy kompetensiyaga o'xshaydi, u quyidagilarni belgilaydi boshqa odamlarning pozitsiyasini, kommunikativ va ob'ektiv kompetensiyani hisobga olgan holda jamiyatda harakat qilish qobiliyati.

Ta'lim kompetensiyalari me'yoriy va har doim o'quvchilarning fazilatlarini modellashtiradi, ular realistik va shaxsga qaratilgan. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv talaba uchun jamiyat va ta'lim talablarini birlashtiradi. Ta'lim mazmuni o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy voqelikka muvofiq yangilanadi va natijada ushbu yangi voqelikka zarur ko'nikmalar, faoliyat shakllari va munosabat yuklari bilan kirishga imkon beradigan vakolatlarni shakllantirish zarurati tug'iladi. Haqiqiy hayotdan kelib chiqadigan ushbu yondashuv mavhum fazilatlarini emas, balki talaba faoliyatida talab qilinadigan Zunlarning haqiqiy zarur yukini baholashi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda yangi ta'lim muhiti shakllanmoqda, bu esa o'quvchining haqiqiy harakatlari makonini, kelajakda samarali o'quv ishlarining talabalar tashabbuslarini vujudga keltirishga imkon beradi ichki (maktab) va tashqi (jamoat) bozorda raqobatlashishi va baholanishi kerak

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quvchilarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida o'quv mazmunini yangilashga yordam berishi kerak. Asosiy vakolatlar integral tabiatga ega va ta'limning intellektual va mahorat tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ta'lim mazmuni amaliy, kognitiv, qiymatga yo'naltirilgan va kommunikativ vazifalar bilan to'ldirilishi kerak.

S. E. Shishovning asarlarida asosiy ta'lim kompetensiyalari quyidagicha ko'rib chiqiladi:

jihatlar:

- 1) motivatsion (talaba kompetensiyani ko'rsatishga tayyor);
- 2) kognitiv (talaba bilim va kompetensiya mazmuniga ega);
- 3) xulq-atvor (turlı sharoitlarda kompetensiyani namoyon etish tajribasi mavjud);
- 4) qiymat-semantik (talaba kompetensiya mazmuni va uning ob'ekti to'g'risida o'z fikriga ega ilovalar);
- 5) hissiy-irodali (talaba o'zboshimchalik bilan kompetensiya jarayoni va natijasini tartibga soladi).

Ko'plab zamonaviy o'qituvchi-tadqiqotchilar, kompetensiyaga asoslangan yondashuv g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus ta'lim muhitini tashkil qilmasdan, boshlang'ich o'quvchining asosiy kompetensiyalari tizimini shakllantirish bo'yicha barcha ishlar samarasiz bo'lishi mumkinligiga ishonishadi. Ta'lim muhiti unga kiritilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga xosdir. Agar biz kompetensiyaga asoslangan yondashuv haqida gapiradigan bo'lsak, unda ta'lim muhiti uni boshlang'ich ta'lim mazmunida samarali amalga oshirish uchun zarur pedagogik, psixologik, tashkiliy sharoitlarni yaratadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim muhitini o'zgartiradi va uni yosh o'quvchining asosiy kompetensiyalari tizimini samarali shakllantirish mumkin bo'lgan maxsus psixologik pedagogik, ijtimoiy va jismoniy makon sifatida shakllantiradi

Ta'lim muhiti boshlang'ich maktabning ichki hayotining ajralmas, sifat tavsifi sifatida taqdim etilishi mumkin:

- bolaning shaxsiy tajribasini, asosiy vakolatlar tizimini shakllantirishning maqsad va vazifalari aniqlandi;

-o'quv dasturlari darajasida o'quv-tarbiyaviy vazifalarni hal qiluvchi vositalar, darslarda ishlarni tashkil etish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turini tanlash, baholash sifati, bolalar o'rtasidagi norasmiy munosabatlar uslubi namoyish etildi;

- shaxsning rivojlanishi va uning tajribasiga ta'siri mazmunli baholandi

Agar boshlang'ich sinflarda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish maqsadi qo'yilgan bo'lsa, unda quyidagi bosqichlarda uning ta'lim muhitini rivojlantirish mumkin:

1. Dizayn bosqichi. Strukturani shakllantirishning kontseptual asoslarini shakllantirish ta'lim tashkiloti.

2. Modellashtirish bosqichi. Ta'lim sharoitlarining umumiy pozitsiyalarini konkretlashtirish va o'zaro bog'liqlik har bir sinfning imkoniyatlari.

3. Psixologik va pedagogik faoliyatni tekshirish bosqichi. Ta'limni tekshirish muassasalar uning dolzarb va loyihalashtirilgan holatlariga muvofiqligi to'g'risida.

Ta'lim muhiti o'quv jarayonining har bir ishtirokchisi tomonidan tuzatiladi va kompetentsiyaga asoslangan yondashuv atrof-muhitning yaxlitligi kabi sifat xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi ta'lim tashkiloti, ta'lim muassasasining avtonomiyasi, yangilik va ijtimoiy o'zgarishlarga ochiqlik. Keling, boshlang'ich maktabda ta'lim muhitini yaratishning asosiy tamoyillarini nomlaylik, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv asosida ishlaydi:

O'quvchining o'z ta'limi sub'ekti sifatida faoliyat printsiipi;

tabiatga muvofiqlik printsiipi;

tanlash erkinligi printsiipi;

ochiqlik printsiipi; gumanizm printsiipi.[2, 64-65].

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ta'limning zamonaviy ta'lim dasturlari bolada shaxsiyat tajribasining bir qismi sifatida asosiy vakolatlar tizimini shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega:

1. Zamonaviy pedagogikada kompetentsiyaga asoslangan yondashuv dunyodagi dolzarb tendentsiyalardan biridir ta'lim mazmunini qurish uchun. Bu shaxsda asosiy narsalarni shakllantirish g'oyasiga asoslanadi shaxsning o'ziga xos universal fazilatlar sifatida vakolatlar. Ushbu yondashuvda ta'lim natijalari bilim sifatida emas, balki turli xil sharoitlarda keng bilimlardan foydalangan holda harakat qilish qobiliyati sifatida muhimdir.

2. Kompetentsiya-bu bilim, ko'nikma, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar va tajriba tizimi sifatida ta'limning maqsadi.

3. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv ustun bo'lgan ta'lim mazmuni insoniyatning ijtimoiy-madaniy tajribasi sifatida shakllangan shaxsning o'z tajribasiga o'tish jarayonida qurilgan maxsus ta'lim muhiti.

4. Boshlang'ich ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirish shaxsni ijtimoiy, psixologik, pedagogik takomillashtirish va boshlang'ich maktab o'quvchilarining vakolatlarini shakllantirish maydoni bo'lgan ta'lim muhitini shakllantirishni talab qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

10. Богданова, Л.А. Модернизация содержания образования как фактор формирования личности младшего школьника: Дис. ... канд. пед. наук / Л.А. Богданова. – Кемерово, 2003. – 134 с.
11. Дахин, А.Н. Компетенция и компетентность: сколько их у российского школьника? // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2007. – № 2. – С. 42-47.
12. Демин В.А. Профессиональная компетентность специалиста: понятие и виды // Стандарты и мониторинг. – 2000. – №4. – С. 38.
13. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании / И.А. Зимняя. – М.:

Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2007. – 337 с.

14. Зимняя, И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 5. – С. 34-42.
15. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2005. – 104 b.
16. Shodiyev R.D, Qosimova G.I. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Qarshi: Nasaf, 2021. – 130 b.
17. Qosimova G.I. Didactic foundations of the integration of natural science knowledge in primary school as a mechanism of systematic cognition of the surrounding world // Angliya European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020. Part II. – P. 2056-5852.
18. Qosimova G.I. Features of the subject-object area of natural science knowledge at primary school // ISSN 2311-2158 The Way of Science International scientific journal. № 8 (78), 2020. ISSN 2311-2158. The Way of Scienc. – P. 37- 41.

### **BISHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA APPLIKATSIYA VA MOZAIKA BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

Zaripova Muslima  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya darslarida applikasiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga egaligi va applikasiya ijodni rivojlantirishda katta yordam berishi hamda tasavvurni boyitishi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtirilishi, irodani tarbiyalashi, chamalashni hamda rangni sezishni o'stirishi haqida ma'lumot berilgan.

**Tayanch so'zlar:** applikasiya, dekerativ, syujetli aplikatsiya, mozaika, kompozitsiya.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlarida ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvenirlar, devoriy gazetalar, stendlar va hokozalarni bezashda ishlatiladi.

Applikatsiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikasiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni o'stiradi.

Applikatsiya ishini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy ko'rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish applikasiyaning muvaffaqiyatining garovidir.

Tasvirlash lozim bo'lgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detaillarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi. Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Ko'pincha ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi. Applikasiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy tematik element bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida 1-sinf o'quvchilari 8-Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash ko'nikmalarini sinaydilar va rangli qog'ozdan ingichka oq va sariq to'g'ri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qog'ozdan doira qirqsa bo'ladi. Bolalar yasagan gullar turlicha bo'lishi mumkin. Novdalar ham qo'lda qirqiladi. Suhbatni o'qituvchi "8 Mart kuni" haqida olib boradi va bunda sovg'a masalasini eslatib o'tadi. Eng yaxshi sovg'a o'z qo'li bilan yasagan sovg'adir. Suhbatni mehribon buvijonlarimi onajaonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo'lishi mumkin. Shundan keyin namuna ko'rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

1. Tabriknoma uchun rangli qog'oz tayyorlanib u ikkiga buklanadi;
2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarimidan 2 sm atrofida kattaroq;
3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda halaqit bermasligi uchun bukish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;
4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;
5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;
6. Och ko'k va jigarrang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;
7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza bo'yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi. Mozaika monumental dekorativ sa'nat turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materialiga ko'ra ham, naqo' va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyo madrasalari, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental sa'natga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va halq amaliy sa'nati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sapol plitalaridan foydalaniladi. Loasda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathida ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sapo, gul tojibarglari, tuxum po'sti va shu kabilar) qo'yib chiqishdir.

1. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlari bilan kerakli ranglarga bo'yaladi.
2. Bo'yoq qurigandan keyin tuxum po'stini tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.
3. Tuxum po'stidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bo'g'rilari bo'lmasligi kerak.
4. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.
5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum po'sti terib siqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.
6. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tozalanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi.

Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin.

**Applikatsiya** tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya tushunchasi xususiyatlari va materiallariga ko'ra xilma-xil bajarilishi texnikasining o'xshashligi bilan birlashgan badiiy asarlarni yaratish usullarini o'z ichiga oladi. Har bir material applikatsiyasi bajarilish texnikasiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi xususiyatlarga ega, masalan, qog'oz, limon, daraxlar po'stlog'lari fonga turli yelimlar bilan yopishtiriladi.

**Applikatsiya** – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yin uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni yaratishdan keng qo‘llash imkonini beradi.

**Dekorativ applikatsiya** – u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo‘lishi mumkin.

Applikatsiya tasvirlash texnikasini turli formalarini qirqish va ularning fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi xalqlar orasida paydo bo‘lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turar joylarini bezatishda ishlatganlar.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po‘stlog‘dan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stlog‘dan qilingan applikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo‘yna ishlatishgan. Komi, qozoq, kalmik, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro‘zg‘or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikatsiya ishida asosiy material qog‘ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan bo‘lakchalardan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o‘simliklar, urug‘-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo‘ladi.

Qog‘ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan-barxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog‘ozni navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo‘l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o‘stiradi. Rangli kog‘oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo‘lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog‘oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga kuyish, yelimlash va nihoyat kuritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya ishlarini bajarishda asosiy e‘tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi uylangan kompozitsiya, ya‘ni tasvirlash lozim bo‘lgan narsalarni joylashtirish-applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilingan ornamental applikatsiyalardir.

Avval ornament eskizi tuziladi, so‘ngra kerakli detallar o‘lchami va miqdori hisoblanadi. Detailarni tayyorlab ma‘lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi.

Applikatsiyada avval eskizi tuziladi, so‘ngra kerakli detallar o‘lchami va miqdori hisoblanadi. Detailarni tayyorlab ma‘lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So‘ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnikasiga ko‘ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. 1 va 3 sinf o‘quvchilari geometrik shaklli applikatsiyani bajarishda quydagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to‘g‘ri burchak, uchburchak, aylanani qog‘oz bo‘lagidan va o‘lchov asboblari yordamida hosil bo‘lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

2. Badiiy didni o‘stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar tuzish bo‘yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

3. Ayrim predmetlarni detalma-detall tahlil qilib geometrik shakllarni to‘g‘ri idrok etishni o‘rganadilar.

4. Bolalarni “ko‘p, kam, uzunasiga, ko‘ndalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to‘rt qismga, teng qismlarga” kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unlagini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin. Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli o'lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo'yicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qo'lay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo'ylab tuziladi.

#### **Geometrik figuralardan predmetli applikasiyalar.**

Bolalarni predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Buni atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikasiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarni har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin.

#### **Geometrik figuralardan predmetli applikasiya yasash texnologiyasi**

- Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;
- Ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi;
- Applikasiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi;
- Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.
- Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzuga mos element bo'lishi kerak.
- Tasvirlash lozim bo'lgan materiallar yordamida figura va predmetlarning holati aniqlanadi;
- Tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi;
- Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak;
- Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi;
- Agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi;
- Detailarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz.
- Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartibli tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikasiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlari shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish

metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: TDPU. 2007-yil.

3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang'ich sinflarda qo'g'ozdan amaliy ishlar. O'quv-metodik qo'llanma. T.:Navro'z. 2013-yil.

## FANNI O'QITISHDA ELEKTRON DARSLIKlardan FOYDALANISH

Abduhakimova Mashhura Abdusattorovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
20-maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarda elektron darslik orqali o'quvchilarda o'zlashtirishi uchun hamda ko'nikma va malakalar orttirishida zarur bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo'lgan vosita bo'lib xizmat qilishi haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:**elektron darslik, ta'lim, axborot, o'quvchi, loyiha.

**Аннотация:** Статья представляет собой инструмент, предоставляющий структурированный и систематизированный материал в электронном виде, в котором представлена электронная версия учебника, в которой описаны знания, необходимые учащимся для обучения с помощью электронных учебников и развития навыков и умений.

**Ключевые слова:** электронный учебник, образование, информация, студент, проект.

**Annotation:** The article is a tool that provides structured and systematized material in electronic form, which presents an electronic version of the textbook, which describes the knowledge necessary for students to learn using electronic textbooks and develop skills and abilities.

**Key words:** electronic textbook, education, information, student, project.

Zamonamiz jamiyatni axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan ham o'ziga xosdir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalari qatorida ta'lim jarayoniga ham keng joriy etilib borilmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yangi imkoniyat hamda jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish — bu ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifatining oshishida namoyon bo'ladi hamda talabalarda ta'lim olishga intilishlarining kuchayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari tushunchasi mazmun-mohiyati bilan: «Turli predmet, obyektlar va hodisalar haqida axborot to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, tarqatish hamda foydalanish uchun yangi zamonaviy usul va mexanizmdir».

Zamonaviy ta'lim yuqori darajada axborotga boyligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi aynan shu jihatga asoslangan. Ta'limda yangi o'qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo'ldi. Elektron darslik o'zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. Elektron darslik — bu o'quvchilarda o'zlashtirishi uchun hamda ko'nikma va malakalar orttirishida zarur bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo'lgan vositadir. Unda o'quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o'ziga xosdir. Elektron darslik qog'ozli darslikka nisbatan quyidagi qator afzalliklarga ega:

- foydalanishda oddiyligi va qulayligi;
- elektron darslik resurslarini yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etish tezligini oshirish;
- axborotlarning to'liqligidan iborat.

Ta'limda elektron darslik kabi innovatsion texnologiyadan foydalanish, elektron darslikning ta'lim jarayonida tutgan o'rni, elektron darslik yangi axborot texnologiyalari vositasi sifatidagi mavzularda quyidagi olimlar: A. A. Kuznetsov, A. A. Grechixin, T. M. Lepsova, E. S.

Polat, V. A. Vul, V. M. Gasov, A. M. Siganenکو, V. N. Ageyev, M. M. Subbotin, Yu. M. Sivenkov, E. Yu. Semenov va boshqalar (Chervyakova Ya. I., Chibisova O. V. Elektron darslik yangi axborot texnologiyalari vositasi sifatida//Eksperimental ta'lim xalqaro jurnali — 2010. 4-son) ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Elektron darslik yaratish o'quv materialini yanada chuqurlashtirib o'rganish va uni kelgusida amaliy faoliyatda qo'llash zarurati bilan bog'liq. Elektron darslik ustida o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash talabalarga mustaqil ishlash va o'zini namoyon etish, tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi, talabaga bo'lajak mutaxassislik bo'yicha salohiyatli shaxs bo'lishiga imkon beradi. Bu talabalar shaxsini takomillashtirish, ijodiy tafakkuri va qobiliyatini shakllantirishni ta'minlovchi optimal sharoit yaratadi. Axborot jamiyati sharoitlarida ta'lim sohasida rivojlanishning zamonaviy odimlari, masalan, talabalar mustaqil ishlari sonining o'sib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalardan muntazam ravishda, bilimlari sifati va darajasini oshirishni talab etadi. Ta'lim jarayoni uchun o'quv materialini talabalar ishtirokida tayyorlash — o'quvchining ilmiy faoliyatining boshlang'ich bosqichida ularning tashabbuskorligi va mustaqilligini, o'z bilimi doirasini kengaytirishda mas'uliyatligini oshirish, ilmiy izlanish ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish yo'lidagi yordam beruvchi muhim bosqich bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'z oldimizga talabalar ishtirokida namunaviy elektron darslik yaratish loyihasini amalga oshirish vazifasini qo'ydik.

Elektron darslik ustida olib boriladigan ishlar bir necha bosqichdan iborat. Birinchi navbatda, uning rejasini tuzish masalasi turadi, unda talabalar mutaxassisligining o'ziga xosligi nazarda tutiladi. Reja quyidagilardan iborat bo'lishi shart:

- loyiha asosida maqsad va vazifalarni belgilash;
- axborot manbalarini aniqlash;
- amalga oshirish muddatlarini belgilash.

Loyihani amalga oshirishdan maqsad — talabalar seminar, sinov va imtihonlarga tayyorlanishida foydalanadigan qulay elektron ko'rinishda o'quv qo'llanmasini yaratishdan iborat. Maqsad quyidagi vazifalar bilan yanada aniqlashtiriladi: o'quvchilar lug'at boyligini oshirish; dunyoqarashni kengaytirish; kommunikatsion malakalarni rivojlantirish; kasbiy-mutaxassislik bilimlari darajasini oshirish va boshqalar. Elektron darslikni ishlab chiqish va nashr etishda asosiy bosqich turli manbalardan axborotlarni yig'ish va tahlil qilish bo'lib hisoblanadi. Darslikni yaratishda uning bo'limlariga chet el mualliflarining maqolalari, davriy matbuot va elektron resurslar materiallari ham kiritilishi zarur. Elektron darslikning asosiy tarkibiy qismi maxsus kompyuter dasturi yordamida talabalar tomonidan yaratilgan audioyozuvlar bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, elektron darslik shunchaki yozma materiallar jamlanmasigina emas, balki audio-qo'llanma bo'lib ham hisoblanadi, eshitish va vizual foydalanish uchun taqdim etishga mo'ljallangan axborot majmuasidir. Elektron darslikdan mustaqil foydalanish yoki ta'lim jarayonida talabalarga axborot muhitida yo'nalishni, qandaydir muammolar yechimini aniq topish imkonini beradi. O'quvchilarni zamonaviy ta'lim metodlaridan, aynan — elektron darslikdan foydalanib o'qitish ta'lim sifatini oshiradi, axborot olish jarayonini qisqartiradi hamda ularni ijodiy kamolotga yetaklaydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. —Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ. 2018.
2. Агеев В.Н. Электронная книга: Новое средство социальной коммуникации. М. 1997. 2.
3. Гречихин А.А., Древе Й.Г. Вузовская учебная книга: типология, стандартизация, компьютеризация. М. «Логос». 2000 г.
4. Норенков И.П. Концепция модульного учебника. Информационные технологии. 1996, №2. 6.Ретинская И.В., Шугрина М.В. «ИБМ и Макинтош в сфере образования». Мир ПК. №3.



5. Рузиев К.И. «Роль современного учебника в воспитании обучении современного поколения». Материалы международной конференции «Учебник третьего тысячелетия». Алматы. 2003 г.

6. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. Toshkent. "Sharq". 2002 yil, 2012 yil

## VIRTUAL REALLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMYIY RESURSLARNI YARATISH MUAMMOSINI TADQIQ QILISH YO'NALISHLARI

Xamrayev Nodir Zokir o'g'li

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti, katta o'qituvchi

Abdisoatov Og'abek G'ayrat o'g'li

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti "Axborot tizimlari va texnologiyalari" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Kompyuterlarni qo'llashdagi yangidan-yangi imkoniyatlarni aniqlash va ularni izchillik bilan amaliyotga tatbiq etib borish — ta'lim jarayonlarini taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichidagi muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida, kompyuter texnologiyalarining jadal taraqqiy etib borishi — ularni ta'lim jarayonlarida keng qo'llanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

**Kalit so'zlar.** virtual reallik, virtual texnologiyalar, virtual obraz, virtual obyekt, matematik modellashtirish, virtual ta'lim.

**Kirish.** Inson faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, ta'lim tizimida internetni jamiyatni taraqqiy ettirishning yetakchi omillaridan biri sifatida joriy etish, bilim oluvchilarning borliqni virtual vositalar asosida idrok eta olish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq masalalarning izchil hal etilishi dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, bu borada virtual reallikka asosgan ta'limiy resurslarni yaratish muammosi tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Virtual reallik — bu sun'iy hosil qilinadigan axborot muhiti bo'lib, u atrof-muhitning odatiy usuldagi tasavvurini — turli texnik vositalar asosida hosil qilinadigan axborotlar bilan almashtirishga qaratiladi. Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish — boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo'lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin.

"Virtuallik" atamasi lotincha "virtualis" so'zidan olingan bo'lib, "muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan", yoki mavjud bo'lmagan, lekin amalga oshish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayon kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu atama inson faoliyatining juda ko'p sohalarida uchraganligi uchun ham uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslar mavjud. Turli fanlarga oid tushunchalarni izohlashda bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, fizika fanida faqat boshqa zarrachalarning o'zaro ta'sirlashish holatidagina mavjud bo'la oladigan zarrachalar virtual zarrachalar (virtual foton, bozon va boshqalar) deb yuritiladi. Virtual zarrachalar tufayligina real elementar zarrachalarning o'zaro ta'sirlashuvi yuzaga keladi va bunda virtual zarrachalarning o'zaro almashinuvi sodir bo'ladi. Virtuallik tushunchasi meteorologiya sohasida ham qo'llaniladi. Ushbu sohada muayyan namlikka ega bo'lgan havo haroratining xuddi shu bosimga mos ko'rsatkichlaridagi quruq havo ko'rsatkichi virtual harorat deb yuritiladi.

Psixologiyada "virtual obraz", "virtual obyekt" atamalari ishlatiladi. Masalan, inson faoliyatining mashina bilan birlikda qaralishi virtual obyekt sifatida qabul qilinadi. Zero, bu virtual obyektning bevosita bajaradigan ishi na inson va na mashinaning funksiyasiga xos emas, bu obyektga xos xususiyat faqatgina inson bilan mashina birgalikda olinganida yuzaga keladi. Psixologik jihatdan virtual borliqning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi: hosil qilinganlik, dolzarblik, avtonomlik, interaktivlik. Psixologik virtual borliq inson psixikasining

mahsuli sifatida yuzaga keladi. Virtual borliq uni yuzaga keltiruvchi obyekt faol bo'lgan holatdagina mavjud bo'la oladi.

Kompyuterning tasavvur qilinadigan xotirasi — virtual xotira sifatida qabul qilinib, u fizik jihatdan hech bir alohida olingan xotira tashuvchisiga muvofiq kelmaydi, ya'ni, virtual xotira kompyuter elementlarining o'zaro funksional ta'sirlashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Shunday qilib, virtual xotirani yuzaga keltiruvchi dasturiy vositalar yordamida inson juda ulkan hajmdagi axborotlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amaldagi zamonaviy kompyuterlarning barchasi maxsus java virtual mashinasi bilan jihozlangan.

Ta'limda kinolavhalar hamda turli illyustratsiyalarga asoslangan virtual reallik elementlari ilgaridan qo'llanilib kelingan. Kompyuter texnikasi harakat va tovush bilan bog'liq axborotlarni yagona majmuaga biriktira olganligi, bilim oluvchilarga kuzatilayotgan jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish (muloqot qilish) imkoniyatlarini yaratishi bilan virtual reallikka asoslangan ta'lim resurslarini yaratishda sifat burilishini yasadi.

Bugungi kunda virtual reallikka asoslangan ta'lim resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- birinchi daraja — maxsus texnik vositalar (shlem-display, maxsus qo'lqop va boshqalar) vositasida to'la virtuallikka erishish;
- ikkinchi daraja — uch o'lchamli (yoki stereoskopik) monitorlar yoki proyektor va maxsus ko'zoynak yordamida hajmli tasvir hosil qilish;
- uchinchi daraja — kompyuterning standart monitori yoki proyeksiya vositasi asosida virtual reallikni namoyish qilish.

O'z navbatida, modellashtiruvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratish muammosi funksional nazariyalarni qo'llash va yanada takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

1) Virtual reallikni loyihalash falsafasi. Modellashtirish asosida beriladigan axborotlarni qabul qilish va uning reallik bilan mosligiga bilim oluvchini ishonтира olish muammolari.

2) Matematik modellashtirish. Ta'limiy maqsadlarda modellashtirishda matematik modellar xususiyatlarini tadqiq qilish muammolari.

3) Axborotlarni aks ettirish nazariyasi. Real sharoitlarda ishlayotganlik taassurotini hosil qiluvchi grafik mashinalarni boshqarish vositalaridan foydalanib, real tasvirlarni qurishga qaratilgan vizuallashtirish metodlarini qo'llash va takomillashtirish muammolari.

4) Kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi. Axborotlarning asosiy qismini televizor va kompyuter monitori orqali olishga ko'nikib qolgan zamonaviy yoshlar fikrlashidagi o'ziga xoslikni e'tiborga olish muammolari.

5) Virtual reallik ekologiyasi. Virtual reallik bilan o'zaro ta'sirlashuvning individual traektoriyasini tanlash muammolari.

6) Didaktikaning asosiy tamoyillari. Modellashtiruvchi dasturiy vositalarni ishlab chiqishda ta'lim amaliyoti tajribalari asosida shakllangan, o'zida o'quv jarayoni qonuniyatlarini aks ettiruvchi didaktik tamoyillar asos sifatida qabul qilinishi lozim. Real va modellashtiriluvchi shakllarda beriladigan bilimlarning o'zaro maqbul nisbatini belgilashning didaktik va metodik muammolari ham alohida tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Kompyuter bilan muloqot chog'ida yuzaga keladiga hissiyotlar (masalan, virtual shlemlar yordamida) insonning mavjud real borliq bilan muloqoti jarayonidagi tuyg'ulariga juda yaqin bo'lib, ba'zan ushbu hissiyotlar taqqoslanganda birinchisining usutunligi yaqqol sezilish hollari ham mavjud. Kompyuter o'yinlari texnologiyasidagi ongga chuqur kirib borishdagi maxsus ta'sir effektlaridan ta'lim jarayonida ham samarali foydalanish mumkin. Ushbu ma'noda, inson ongi turli vazifa, obraz hamda tasavvurlarni dastlab xayoliy amallar asosida talqin qilishi e'tiborga olinsa, uning o'zi qaysidir ma'noda virtuallik tabiatiga ega ekanligi anglanadi.

Bugungi kunda "virtual borliq" tushunchasining kompyuterli modellashtirishga nisbatan qo'llanilishi eng ommalashgan ko'rinishga ega. Bu sharoitda inson virtual amaliyotni yuzaga chiqarishda sun'iy uch o'lchamli yoki sensor muhiti bilan o'zaro ta'sirlashadi. Buning uchun u

muloqot uskunalari sifatida virtual shlem, maxsus qo‘lqop yoki yaxlit kiyiladigan kostyumdan foydalanadi. Mazkur jihozlar yordamida inson mashina tomonidan generatsiyalanuvchi muhitga tushib, unda turli yo‘nalishlarda harakatlanish, obyektlarni boshqarish kabi muayyan harakatlarni bajaradi hamda virtual voqealar ta‘sirida har xil hissiyotlarni boshidan o‘tkazadi.

Virtual borliq inson faoliyatining tibbiyot, biotexnologiya, loyihalash ishlari, marketing, san‘atshunoslik, ergonomika, ko‘ngilochar industriya singari ko‘plab sohalariga bevosita aloqadordir. Virtual borliq yaratish texnologiyasidan real va virtual jarayonlarni modellashtirishga katta ehtiyoj mavjud bo‘lgan kompyuter o‘yinlari, kosmik trenajyorlar, ko‘rgazma-savdo namoyishlarida samarali foydalanilmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan misollar “virtual ta‘lim” tushunchasiga oydinlik kiritish hamda uning virtuallik sifatlarini belgilash imkonini beradi. Virtual jarayonlarning bosh sababchisi — real mavjud obyektlarning o‘zaro hamjihatlikdagi harakati hisoblanadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchining ta‘lim jarayonidagi o‘zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyati virtual holatni yuzaga keltiradi. Real subyekt (o‘qituvchi-o‘quvchi)larning virtual holatdagi ichki o‘zgarishlari ta‘lim jarayoni va sifati bilan tasiflanadi.

**Xulosa.** Keng ma‘nodagi virtual ta‘lim deganda, uning asosiy subyektlari o‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi bevosita ta‘lim olish va berish paytidagi o‘zaro hamjihatligiga qurilgan jarayon va uning natijalari tushuniladi. Virtual ta‘lim makonini ta‘limning asosiy obyektlari bilan uning subyektlari sanaladigan o‘quvchi-o‘qituvchining aloqalarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ta‘limdagi virtuallik muhiti sinf xonalari, ulardagi jihozlar, o‘quv qo‘llanmalari yoki o‘qitishning texnik vositalari bilan emas, balki aynan ta‘lim jarayonida ishtirok etadigan obyekt va subyektlarning hamjihatligi orqaligina vujudga keltiriladi. Ta‘kidlash joizki, dasturlarda ba‘zi o‘rinlarda o‘quv materiallarini o‘quvchilarning real o‘zlashtirish darajasi, ta‘lim subyektlarining o‘zaro munosabatlari yetarli darajada inobatga olinmasdan, taqdim etilish hollari kuzatiladi.

Shunday qilib, virtual ta‘lim nafaqat masofaviy telekommunikatsiyagagina xos jihat bo‘lib qolmasdan, balki ta‘limning barcha, jumladan, kunduzgi shakllarida o‘qituvchi, o‘quvchi, o‘rganilayotgan obyektlarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘lish xususiyatiga ega. Masofaviy texnologiyalar virtual ta‘lim asosida kunduzgi ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Virtual ta‘limning asosiy maqsadi, insonning real borliqda tutgan o‘rnining tub mohiyatini anglab yetishdagi — uning virtual va boshqa imkoniyatlari uyg‘unligini ta‘minlashdan iboratdir.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. N.Z.Xamrayev. Oliy ta‘limda o‘qituvchilarning ta‘lim kredit texnologiyasida virtual ta‘lim muhitidan foydalanishning texnologik tayyorligini shakllantirish. “Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘” jurnali. Qoraqalpoq davlat universiteti. № 6/7 2022. ISSN: 2181-7138
2. N.Z.Xamrayev. Axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda virtual ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga oid adabiyotlar tahlili va metodlari. TA‘LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR. ISSN 2181-1709 (P). №6/2023 IYUN.
3. N.Z.Xamrayev. “Oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratish texnologiyalarining afzallik va kamchiliklari”. “O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” respublika ilmiy - amaliy anjumani. QarMII-2022. 3-4 iyun
4. KNZ Ugli. (2022). [Theoretical Analysis of Enhancing the Readiness of Teachers to use Virtual Environment in Credit Education](#). Eurasian Scientific Herald, 51-54
5. N Khamrayev. (2022). [The theoretical aspect of increasing the readiness of higher education teachers to use the virtual environment as an example of credit education](#). International Conference on Research in Humanities, 87-89
6. Abdisoatov Og‘abek G‘ayrat o‘g‘li. Harbiy sohada sun‘iy intellektni harbiy xizmatda qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklari. “Ta‘limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash afzalliklari, muammolari va yechimlari” respublika ilmiy-nazariy anjumanining materiallari to‘plami. **2024 yil 27- mart**

## TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
o`qituvchisi Qobilova Aziza Tursunovna*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola mazmunida talabalarning innovatsion kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari muammosi bugungi kunning asosiy masalalaridan biri ekanligi haqida so`z yuritilgan bo`lib, bu mavzuning tadqiqot metodologiyasi, mavzuga oid tahlil va natijalar hamda mavzuning xulosa va takliflari haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, ijodiy faoliyat, shaxsiy maqsad, ijodiy muvaffaqiyat, kasbiy mustaqillik

### **Аннотация**

В содержании данной статьи говорится, что проблема педагогических условий развития инновационных компетентностных качеств учащихся является одной из основных проблем современности, а методология исследования данной темы, анализ и результаты темы, и выделены выводы и предложения по теме.

**Ключевые слова:** инновация, инновационная деятельность, творческая деятельность, личная цель, творческий успех, профессиональная независимость.

### **Annotation**

In the content of this article, it is said that the problem of pedagogical conditions for the development of innovative competence qualities of students is one of the main issues of today, and the research methodology of this topic, the analysis and results of the topic, and the conclusions and suggestions of the topic are highlighted.

**Key words:** innovation, innovative activity, creative activity, personal goal, creative success, professional

Respublikamizda oliy ta`lim tizimi rivojlanishining hozirgi zamon bosqichi ta`lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonini tashkil etish, uning mazmuni va metodiksig va samaradorligini oshirishning pedagogik yo`llarini izlashga sifat jihatdan mutlaqo yangi talablar qo`ymoqda. Oliy ta`lim sohasidagi konstruktiv va real harakatlar strategiyasini jamiyatimizning kasbiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy rivojlanishi istiqbollarini hisobga olgan holda qurish taqozo etilmoqda.

Bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorlashning turli muammolari bo`yicha R. X. Djuraev, N. N. Azizxodjayeva, A. R. Xodjabayev, U. I. Inoyatov, N. A. Muslimov, Q. T. Olimov, E. O. Turdiqulov, M. B. O`razova, J. A. Hamidov, Z. K. Ismailova, X. F. Rashidov, O`. Q. Tolipov, Sh. S. Sharipov, D. O. Ximmataliev, B. S. Nuridinov, B. A. Nazarova va boshqalar samaralali izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy mamlakat olimlari J. D. Russell, P. Drapeau, G. Spenser, A. Blum, R. Mohan, H. Miyakawa, G. Kulanthavel kabi olimlarning tadqiqotlarida ta`lim jarayonida bo`lajak mutaxassislarning innovatsion kompetentligini shakllantirish, bo`lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish nazariyasi va amaliy yo`nalishlari bo`yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borishgan.

Hozirgi jamiyat, madaniyati va ta`lim taraqqiyoti bo`lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga bo`lgan ehtiyojini quyidagilar bilan o`lchaydi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta`lim tizimi, metodologiya va o`quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi, yangiliklarni yaratish, o`zlashtirish va foydalanishlardan iborat bo`ladi;

2. Ta`lim mazmunini insonpavlarlashtirish doimo o`qitishning yangi tanqidiy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

Pedagog innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga – yangilik – maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirishni belgilab beradi

V.A. Slastininning fikriga ko'ra innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon beradi, hamda quydagilarda aks etadi.

1. Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
2. Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik;
3. Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
4. Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Demak, pedagog innovatsion kompetentlik mazmunidan kelib chiqishiga ko'ra yangi pedagogik texnologiyalarning, nazariyalarning, konsepsiyalarning, tadqiqotlarning foydalanuvchisi, targ'ibotchisi va eng asosiysi muallifi sifatida namoyon bo'ladi.

Innovatsion faoliyatning eng muhim masalalaridan biri - o'qituvchi shaxsi: u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o'ch bo'lishi lozim. Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyalilik qismlardan tashkil topadi. Oliy ta'limda innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va ularning o'zlarini boshqa olishi alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlar, funksiyalar, mexanizmlar va uni amalga oshirish texnologiyalar va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Yevropa mamlakatlari o'qitish tizimida avj olgan kompetensiyaviy yondoshuv Rossiya pedagog olimlarini chuqur izlanishlar olib borishga chorladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natejasida kompetensiya masalasining dolzarbligi eng avvalo, o'qituvchi va pedagogning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish deb topildi. Agar biz AQSh oliy pedagogik ta'limi tizimi faoliyatiga nazar tashlamoqchi bo'lsak, B. D. Vulfson, T. N. Kurilova, Z. A. Molkova va boshqalarning ilmiy ishlarini, agar AQSh pedagogik ta'limining maqsadlari haqida bilmoqchi bo'lsak, N. D. Nikandorova, V. Ya. Pili povskiy, bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy pedagogik ta'limi bo'yicha G. G. Agapova, O. O. Borovikova, V. S. Budenko va boshqalarning ishlarini, AQSh o'qituvchilarining malaka oshirish tizimi haqida esa V. B. Gargay, N.I.Kustinova va boshqalarning ishlariga nazar tashlasak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning ilmiy ishlaridan Rossiya va AQSh ta'lim tizimi bir-birini to'ldirib boyitganligini tasavvur qilishimiz mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va bir qator Yevropa mamlakatlarida pedagogik kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimi yaratilganligi ko'zga tashlanadi va ular bu muammoni ma'lum bir tizimga solib keng o'rganayotganligini aytish mumkin.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligi Oliy ta'limdagi o'qitish, auditoriya va auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonlari natejasida paydo bo'ladi, hamda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi faoliyati vaqtidagi pedagogik jarayonni samarali boshqarish va boshqa xilma-xil faoliyatilari davomida rivojlanadi. Shu asnoda ularning inovatorligi amaliy ishlaridagi muvaffaqiyati uning bola xatti-harakatining sabablarini qanchalik to'g'ri aniqlanganligiga, xatti-harakat sabablaridan kelib chiqib, aniq pedagogik maqsadni qanchalik to'g'ri ifodalaganligiga, oldiga qo'ygan maqsadiga erishishning optimal usullarini qanchalik to'g'ri tanlanganligiga hamda ularni real pedagogik jarayonda mohirlik bilan qanchalik joriy qila olganiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy

tayyorgarliklar uzviyligi ko`zga tashlanadi. Bo`lajak tarbiyachi-pedagoglarning amaldagi innovatsion tayyorgarligida tashkiliy jihatlar, tanlangan shakllar va qo`llanilgan metodlar juda muhim hisoblanadi.

#### **Fodalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik kompetentlik uslubiy qo`llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet
2. Elmuratova D, Misirova N. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" O`quv qo`llanma "Guliston" 2021-yil 161 bet
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To`rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" T.: 2015-yil 120-bet
4. Saidahmedov N. «Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar». – T.: O`zMU OPI, 2003. – 68 b.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TILNING LUG'AT TARKIBINI O'RGATISHDA LUG'AT USTIDA ISHLASH YO'LLARI**

Babayeva Nodira Mahmudovna

Qashqadaryo viloyati,

Chiroqchi tumani 3-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilning lug'at tarkibini o'rgatishda lug'at ustida ishlash yo'llari, o'quvchilar uchun mazmuni noaniq so'zlarni tushuntirib berish haqida ma'lumotlar jamlangan.

**Kalit so'zlar.** So'z, til, nutq, lug'at, lug'at tarkibi, iboralar, so'z ma'nolari, ko'chma ma'noli so'zlar, lug'at ustida ishlash.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud boigan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksiko deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borilishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi, o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi.

Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi.

Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi.

Masalan, yil fasllariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi o'zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar bilan bog'liq tushunchalari shakllantirilsa, ma'naviyat, yaxshilik va yomonlik, do'stlik mavzularidagi asarlarni o'rganish orqali insoniy munosabatlar, axloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi.

Matnni o'qish jarayonida so'zning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o'quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg'itilmay, qisqa izoh berib o'tib ketiladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarning o'rganishi ko'zda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir. Boshlang'ich ta'limda lug'at ustida ishlashning umumiy yo'l-yo'riqlari, yo'nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo'lmaydi.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash o'quvchilar nutqini o'stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so'z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o'quv jarayonida davom ettiriladi.

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilning lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4—6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

O'quvchilar lug'ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi:

1. Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar.

Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushun-maydigan so'z ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nosi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo — shabada, mudofaa — himoya, sozanda — musiqochi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon kabi. So'zni sinonim tan-lash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha ~ boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'zboshimchalik — o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi; shim qor~ uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh -~ mol terisidan tikilgan idish; guldon - gul solib qo'yiladigan idish va boshq.

Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq — suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula - okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahra-monining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Lug'at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borilishi lozim. Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni to'g'ri uyushtirishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o'quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e'tibor, qat'iyatlik va sabot bilan ishlash zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2010.

2. Tajiyev M. Va boshqalar. Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga tatbiq'i. – Toshkent: “Tafakkur”, 2010.

3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.:Iqtisod-moliya, 2011.



4. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Tafakkur”, 2011.

## **OLIY TA'LIM MUASSASASI TARBIYAVIY FAOLIYATIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**BERDIYEVA SADOQAT ESHONQUL QIZI**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi  
[sadoqatberdiyeva0905@gmail.com](mailto:sadoqatberdiyeva0905@gmail.com)

Telifon  
910733313.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasasi tarbiyaviy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar mazmun mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Innovatsiya atamasi va olimlarning fikrlari orqali bugungi kunda innovatsion faoliyatni amalga oshirishda bo'lajak pedagoglar e'tibor berishi hamda amal qilishi kerak bo'lgan jihatlari qisqacha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, jamiyat, innovatsion faoliyat, ta'lim innovatsiyalari, innovatsionlik.

**Аннотация:** В данной статье кратко рассматривается содержание инновационных подходов к образовательной деятельности высшего учебного заведения. Через термин «инновация» и мнения ученых кратко поясняются аспекты, на которые будущим педагогам следует обратить внимание и следовать при осуществлении инновационной деятельности сегодня.

**Ключевые слова:** инновации, общество, инновационная деятельность, образовательные инновации, инновационность.

**Annotation:** In this article, the content of innovative approaches to the educational activity of the higher educational institution is briefly discussed. Through the term innovation and the opinions of scientists, the aspects that future pedagogues should pay attention to and follow in the implementation of innovative activities today are briefly explained.

**Key words:** innovation, society, innovative activity, educational innovations, innovativeness.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - Innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979-yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan [1].

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;

- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi. Ular quyidagilardir:

1. Muammoni tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion pedagogika termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida g'arbiy Evropa va AQShda paydo bo'lgan. Dastlab Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slastenin, A.I. Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda Innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayerz, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Yedem ishlarida Innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning " hayoti va faoliyati" uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etgan. V.A. Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. R.N. Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki tarbiyachining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Tarbiyachining Innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi. Tarbiyachining Innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga tarbiyachining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda rasional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida tarbiyachi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. Tarbiyachi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda tarbiyachining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi. Tarbiyachining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir. Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi Innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu tarbiyachi va talabning ijoddagi hamkorligidir. Hozirgi jamiyat tarbiyachi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda tarbiyachining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi.

Demak, tarbiyachi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini,

texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi. Yangilik pedagogik yangilik me'yorlari sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. **Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Pedagog, 2004.**
2. Azizxodjaeva N.N. Tarbiyachi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T., 2000
6. O'. Tolipov, M.
3. Usmanbaeva Pedagogik texnologiya, 2005.
4. Berdiyeva, S. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR CREATIVE ACTIVITY BASED ON FOREIGN EXPERIENCES. *Talqin va tadqiqotlar*, (28).
5. Nasiba, Q., & Berdiyeva, S. (2023). SIGNIFICANCE AND CONTENT OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC METHODS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS)*, 2(2), 51-53.
6. Berdiyeva, S. (2024). SINF VA GURUHLARDA INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH. *Talqin va tadqiqotlar*.

#### **SHAXS KAMOLOTIDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR HAMDA UNGA RAHBARLIK QILISH**

Raxmonova Sojida Muxammadovna  
Buxoro davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi,  
Idiyeva Oydin Sherali qizi  
Buxoro davlat Pedagogika Instituti talabasi  
[raxmonovasojida9@gmail.com](mailto:raxmonovasojida9@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari istirokchisi bugungi kun zamonaviy o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlari hamda qobiliyatlari, ta'lim muvaffaqiyatidagi o'rni, pedagogning kasbiy salohiyatini shakllantirish, bolalarning ijobiy shakllanishida muhitning ahamiyati, ijtimoiy tajribalarining oshishiga qaratilgan faoliyatlar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy faoliyat, kasbiy salohiyat, ijodiy izlanuvchanlik, faoliyat, mahorat, muvaffaqiyat, intellekt, barkamol shaxs, ijodiy qobiliyat.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, sifatini oshirish, jismoniy barkamol, intellektual salohiyatli komil shaxsni tarbiyalash, mehnat bozoriga raqobatbardosh yoshlarni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash, bugungi davr talabiga javob bera oladigan zamonaviy ta'lim tizimni yaratish ustuvor dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirmoqdi.. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalashda va maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va m'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi” deb alohida ta'kidladi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Tarbiya biz bilamizki, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi va eng muhim omil sanaladi. “Tarbiya” arabcha so'z bo'lib, o'stirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan ma'nolarni bildiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari bilan tarbiyachilar shug'ullanar ekan, eng avvalo ularning o'zi yuqori salohiyatli, kasbiy bilimga ega, intellektli shuningdek,

haqiqiy bola yetaklovchi, ziyo tarqatuvchi shaxs bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki o'qituvchining ta'lim-tarbiyadagi yo'l qo'ygan xatolari yillar o'tib bolada namoyon bo'ladi.

O'qituvchilik – bu san'at, ammo u tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyatga ega emas, balki uning zamirida tinimsiz izlanish, mashaqqat, hamda ijodiy mehnat yotadi. Pedagogning mahorati hamma xar xil bo'lib, u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tarkib topadi va rivojlanib mukammallashib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarda o'qituvchi bilan bolalar o'rtasida o'zaro samimiy, jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga qaratilgan yaqin hamkorlik o'rnatilishi ahamiyatlidir. Shundagina bola o'zligini namoyon qiladi, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishni boshlaydi. Bola mustaqil bo'lishga, erkin muloqotga, hamkorlikka, ijodkorlikka, o'zining faoliyatini nazorat qilishga, natijalar olishga o'rgana boshlaydi. Bu faoliyatlar esa bolaning keying ijtimoiy muhitlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Ta'limiy faoliyat samaradorligi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanib boradi, deb ta'kidlanadi.

Pedagogda quyidagi qobiliyatlar mavjud bo'lishi lozim;

- Akademik qobiliyati
- Didaktik qobiliyat
- Nutq qobiliyati
- Avtoritar qobiliyati
- Perseptiv qobiliyat
- Diqqatni teng taqsimlash qobiliyati
- Ijodiy qobiliyat
- Kommunikativ qobiliyat kabilar.

Shuningdek bolaning ijobiy shakllanishida muhitning ahamiyati beqiyosdir. Bola kamolotiga ta'sir etuvchi omillardan biri muhit sanaladi. Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi ro'y bergan muhitga mansubdir. Muhit - bu insonga tabiiy ta'sir etadigan vositalar, omillar majmui tushuniladi.

Insonning rivojlanishi juda murakkab va qarama-qarshiliklardan iborat jarayondir. Bola o'z rivojlanishi jarayonida turli xil faoliyat ya'ni o'yin, o'qish, sport turlariga hamda muloqatga kirishadi. Bu esa ularning ijtimoiy tajribalarining oshishiga yordam beradi. Bolaning dunyoga kelishidan tortib uning butun umri jarayonida yuqoridagi faktorlar ya'ni faoliyat va muloqat bir-birini to'ldirib bola shaxsining rivojlanishini ta'minlaydi. Bola rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchi-bu qarama qarshilikdir. U tashqi va ichki ta'sirlar orqali amalga oshiriladi. Tashqi ta'sirlarga insonni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyat kirsam, ichki ta'sirlarga biologik va irsiy faktorlar kiradi.

Shaxsni tarbiyalash, kamol toptirish ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni sanalib, shuning uchun qadimdan ushbu ma'suliyatli faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari jalb etilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o'qituvchi shaxsiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bolaning kamol topishida ijtimoiy muhitlar qanchali to'g'ri tashkil etiladigan bo'lsa, pedagogning ta'sir doirasi qanchali yuqori bo'ladigan bo'lsa, bola har bir faoliyatida muvaffaqiyatga erishadi. Muvaffaqiyat kaliti sifatida esa beixtiyor ijtimoiy pedagoglarga, ya'ni zahmatkash o'qituvchilarga murojaat qilalikni imkoni yo'q.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan bugungi kunning zamonaviy, bilimli, kasbiy salohiyatli o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglab olish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.X. To'xtaxodjaye vaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.

2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376

3. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.
8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet.
10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2017 y. -434 bet.
11. S.M.Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12  
<https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.

## **DARSLARNI SHARQ ALLOMALARI QARASHLARIDAN FOYDALANIB TASHKIL ETISH**

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna  
Annotatsiya

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma‘naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma‘lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta‘sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Tayanch so‘zlar: Sharq allomalari ,Abu nasr Forobiy , Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino,

Respublikamizda iqtisodiy va demokratik jarayonlarni rivojlantirish, fuqarolarning, ayniqsa jamiyatimizni buguni va kelajagini hal etuvchi yoshlarni iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy - madaniy, ijtimoiy, ilmiy faolligini oshirish eng avvalo ularning ta‘lim - tarbiyasiga bog‘liqdir. Respublikamizning kelajagiga g‘oyaviy asos bo‘ladigan milliy mafkurani shakllantirish va yosh avlodlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida ma‘naviyatli qilib tarbiyalashimiz hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning har tomonlama ravnaq topishi va islohotlarning muvaffaqiyati bo‘lajak kadrlarning, ayniqsa yosh avlodning aqliy, axloqiy, huquqiy bilimi, tarbiyasi, jismoniy sog‘lomligi, estetik madaniyati va ma‘naviyatining yuksak darajada shakllanganligiga bog‘liq. Respublikamiz yoshlarining har tomonlama kamolga erishishi, ma‘naviyatli barkamol shaxs sifatida shakllanishi va ularning jamiyatda faol ishtiroklari bevosita, ularga beriladigan maqsadli va to‘g‘ri g‘oyaviy ta‘lim - tarbiyaga asoslanadi.

Demak, inson o‘z hayoti va faoliyatini mazmunli o‘tkazish uchun avvalo o‘zini o‘rab turgan borliqni bilishi, yuksak aql va tajriba egasi bo‘lishi lozim. Chunki inson aqli va uning hayotida muxim o‘rin tutishi, aql-idrok tufayligina inson donolik, teran fikr, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, uzoqni ko‘ra bilish, nafsning ko‘yiga tushmaslik kabi hususiyatlarni amalga oshirishi mumkin. Xalqimizning –Aql insonning ko‘rkil,

Aql suvdan tiniq, oynaday ravshanl kabi naqlar bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham aql inson uchun g'oyat oliy ne'matdir. Aql bilan ilm-ma'rifat egallanadi, kasb xosil qilinadi, dunyo sirlari o'rganiladi. -Aql- yurak ichidagi nur, bu nur bilan haq yoki noxaq bilib olinadi, -Aql- jonning xayoti, jon esa jasadning hayoti, tan esa jasadning hayoti!, -Kishining nafi aql dan ustun bo'lsa, undan odamning hayvondan farqi yo'q.

Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy xaqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai-nazardan amal qilishdir.

Aql insonlarning piri komili, murshidi, yagonasidir. Rux ishlovi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodni mahkam qaladi, shariat hukmlariga bo'ysunadi. Insonlarning do'sti uning aqlidir. Dushmani esa uning nodonligidir.

«Ollox eng g'azab qilgan kishi ahmoqdir. Chunki u eng aziz narsadan maxrumdir». Olimlarning fikricha, aql ikki turli bo'ladi.. Insonni hayvondan ajratib turadigan tug'ma aqli tabiiy va kasbiy bu tabiiydir. Inson tabiatdagi aqlni o'tkirlash va o'stirish faoliyati bu kasbiydir. Bu esa aqlni ishlatish, tajriba va ilm olish bilan xosil bo'ladi. U aqlni rivojlantirish uchun ham xar bir kishi xayotdan tajriba orttirish va ilm ma'rifat o'rganishi zarur, xar kimki, aqlga oshno bo'lsa, u jamiki ayblardan poklanadi, xaqiqatni, anglab, kamolotga yetadi.

Abu nasr Forobiy yozadi: -Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zexn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkinl.

Bolalarning aqlli bo'lishida oila, maktab, keng jamoatchilikning ta'siri kattadir. Aqlli bolalar qaerda bo'lmasinlar doimo extiyotkorlik bilan bilim va tarbiyali ekanligini

namoyish etadilar. Ularni ko'rgan, suxbatida bo'lgan kishilar aqliga tahsin qilib rahmat aytadilar. Shu o'rinda 1447 yili Taft shahrida 5-6 yoshli Alisherning mashxur olim, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan bo'lgan uchrashuvini misol sifatida keltirish maqsadida muvofiqdir.

Bola mo'ysafidning savollari burro javob berar edi. Uning o'zini tutishi, odobi mo'ysafidga yoqib tushdi.

-Men chaqirganimda o'rtoqlaring qochib ketdi. Sen esa xuzurimga kelding, so'roqlarimga yaxshi javob berding. Shuning uchun senga raxmat, umring uzoq bo'sin, boshing omon bo'lsin. Olim, fozil, bo'lib, yaxshi obro'ga erishgaysan, - mo'ysafid uni duo qildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aqlli bolalar hamma joyda kamolu-ta'zim bilan salom beradilar. Odob bilan munosabatda bo'ladilar.

Xaqiqatdan ham, aqlni ishlatgan kishi hayotida faqat ezguliklar qiladi va ezgulik ko'radi.

Bizning bu boradagi eng asosiy vazifamiz yoshlarni ma'naviy barkamol, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan, yurt istiqboli uchun qayg'uradigan komil insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kamol zarur. Zebo, «Ilm, ma'rifat biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q yo'qolmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina oldimizga qo'ygan maqsadimizga erisha olamiz».

Sharq allomalari qarashlaridan foydalanish aytganlaridek, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Shuning uchun ham komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz.

Darhaqiqat ilm-ma'rifalilik kuch-quvvat manbai, qalbgga nur, o'ziga ziyo bag'ishlaydigan buyuk ne'matdir. Shu sababli ham inson hayotda qunt bilan ilmni o'rganishi tufayli aql-zakovati yuksaladi, baxtli hayot uchun kurashadi.

Bizga ma'lumki, inson hayoti uchun muhim bo'lgan ilm hikmatlarini o'rganishda otabobolarimizning faoliyati va ularning yoshlarga ko'rsatgan g'amxo'rliklari beqiyosdir.

Xalqimiz orasidagi quyidagi o'g'itlar insonlarni ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi buyuk kuchdir.

Inson uchun aql, eshik ochuvchi, axloqiy yo'l ko'rsatuvchidir. Yetuk axloq va odob

insonning ziynati, donolarning fazilatidir. Aqlli kishi ahloqli bo'lsagina, xalqiga, mamlakatiga, yoru do'stlariga naf keltiradi. Alisher Navoiy o'zining aqli, ibratli axloqi, odobi bilan mamlakatiga, xalqiga hech qachon so'nmaydigan buyuk meros qoldiradi. U o'zi hayot bo'lgan davrlardayoq, aqli va axloqi bilan xalqiga, mamlakatiga ko'p foyda keltirgan.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, *Abu Nasr Forbiy* inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

*Abu Nasr Forbiyning* e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi»<sup>2</sup>. Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolligini bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

*Abu Ali ibn Sino* o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki xunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, xunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani, axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

---

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir, Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz- o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi. Demak, yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob Alisher Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini sanaladi. g'anoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam,

muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy fazilatlarining odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u berib o'tadi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. Chunonchi, –qanoat – buloqdir – suvi olgan bilan qurimaydi.

Demak, o'qituvchi dars jarayonini yahshi tashkil qilishi uchun nafaqat bilimli, balki pedagogik mahorat va pedagogik texnikani yaxshi egallagan bo'lishi lozim. U o'quvchiga qachon va qanday ta'sir o'tkazishni bilishi, shu bilan birga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijaga erishish yo'llarini izlashi lozim.

O'quvchilarni bunday o'qitish orqali ulardagi fikrlash jarayonining boyishi aqliy tafakkurning o'sishini bitiruv malakaviy ishimizning amaliy qismini bajarish mobaynida amin bo'ldik

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992 22-55 betlar.  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## UMUMIY SEMIOTIKA VA LINGVOSEMIOTIKA TALQINI

Zarnigor Shoyimqulova

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

[zshoyimqulova@gmail.com](mailto:zshoyimqulova@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0005-2214-2987>

**Annotatsiya.** Maqolada semiotika fani yuzasidan qisqacha fikr-mulohazalar bildirildi. Semiotika va lingvistika fanining munosabatga kirishuvi natijasidagi ilmiy o'rganishlar tahlil etildi. Tilshunoslik sohasida qo'llanilayotgan belgilar tushunchasiga izoh berildi. Semiotika (yoki semiologiya) belgilar sistemasi haqidagi fandir. Shunga ko'ra semiotika belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni, jihatlarni o'rganadi. Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot sifatida belgilarni, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni tekshiradi.

Kalit so'zlar: *Semiotika. Lingvosemiotika. Tabiiy belgilar. Sun'iy belgilar. Ferdinand de Sossyurning belgilar sistemasi haqidagi qarashlari.*

Абстрактный. В статье даны краткие комментарии по науке семиотике. Проанализированы научные исследования в результате введения науки семиотики и лингвистики во взаимоотношения. Объяснено понятие знаков, используемых в области лингвистики. Семиотика (или семиология) — наука о знаковых системах. Соответственно, семиотика изучает общие черты и аспекты, характерные для знаковой системы. Семиотика как учение теории знаков исследует знаки, явления, входящие в систему знаков, их природу, сущность, виды, проявления и действия.

Ключевые слова: Семиотика. Лингвесемиотика. Природные знаки. Искусственные знаки. Взгляды Фердинанда де Соссюра на знаковую систему.

Abstract. In the article, brief comments on the science of semiotics were expressed. The scientific studies as a result of the introduction of the science of semiotics and linguistics to the relationship were analyzed. The concept of signs used in the field of linguistics was explained. Semiotics (or semiology) is the science of sign systems. Accordingly, semiotics studies the common features and aspects characteristic of the sign system. Semiotics, as a doctrine of the theory of signs, investigates signs, phenomena included in the system of signs, their nature, essence, types, appearances, and actions.



Key words: Semiotics. Linguisticsemiotics. Natural signs. Artificial signs. Ferdinand de Saussure's views on the sign system.

#### I. Kirish. Mavzuning dolzarbligi.

Semiotika, aytilganidek, belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot bo'lib, uning muayyan yo'nalishi sifatida tilshunoslik va semiotikaning o'zaro maqsadli aloqaga, munosabatga kirishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllanadi. Demak, til ikkilamchi belgilar sistemasi sifa-tida semiotikaning — lingvosemiotikaning tekshirish obyekti hisoblanadi, ya'ni lingvosemiotika tilning belgi tabiatiga egaligini, informatsiya uzatuvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ma'lumki, til — til (nutq) birliklari (so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar) muayyan belgilar sifatida ma'no, tushuncha, fikr ifodalaydi. Ular ma'no, tushuncha, fikr kabilarning simvoli (ramzi) yoki belgisi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra Ferdinand de Sossyur til g'oya, fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasidir, deydi.

Semiotikaning tekshirish obyekti jamiyat tomonidan faol qo'llanadigan belgilar sistemasidir. Semiotika grekcha semion, semiologiya grekcha sema va logos so'zlaridan iborat bo'lib, belgi va ta'limot, tushuncha demakdir.

Inson paydo bo'libdiki, jamiyatga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, belgilar sistemasi ham jamiyat kabi qadimiydir. Demak, belgilar sistemasi jamiyat bilan birga paydo bo'lib, jamiyat bilan birga «qadam tashlaydi». Chunki ular inson faoliyati tufayligina hosil bo'ladi; shu faoliyat orqali harakatga keladi, muayyan vazifa bajaradi, inson faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ma'lum bo'ldiki, semiotika belgilar haqidagi, belgilar nazariyasi haqidagi keng qamrovli nazariy — falsafiy fan bo'lib, tilni belgilardan iborat butunlik sifatida o'rganadi. Chunki til birliklari, tilning tarkibini tashkil qiluvchi struktural elementlar — morfema, so'z, so'z birikmasi, gap, matn va boshqalar muayyan informatsiyani berish, yetkazish — ijtimoiy vazifani bajarish uchun xizmat qiluvchi belgilar sistemasi sifatida tadqiq qilinadi. Shunga ko'ra til jamiyatda mavjud bo'lgan boshqa belgilar bilan umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'ladi. Shunga ko'ra til semiotika fanining — lingvosemiotikaning tadqiq qilish, o'rganish obyektiga aylanadi. Tilning tabiatini, mohiyatini, jamiyatdagi o'rni va rolini bilish uchun uni faqat u yoki bu til bilan qiyoslashning o'zigina yetarli bo'lmaydi. Aniqrog'i tilni-til sistemasi tarkibidagi turlicha birliklarni, belgi deb olingan elementlarni boshqa belgilar — nolisoniy belgilar sistemasi bilan ham, jamiyatga faol xizmat qilayotgan ramzlar (znaklar) bilan ham qiyoslash lozim.

#### II. Adabiyotlar sharhi.

Shveysariyalik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur Vilgelm fon Gumboldt, Filipp Fedorovich Fortunatov, Vasiliy Alekseyevich Bogoroditskiylar kabi tilni g'oya, fikr ifodalovchi belgilar sistemasi sifatida qayd etib, semiotika faniga asos soldi. U mazkur fanni semiotika yoki semiologaya deb atadi.

Semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilar farqlanadi, ya'ni tabiiy belgilar (yoki belgilar -priznaklar) va sun'iy belgilar (yoki belgilar - infor-matorlar).

Tabiiy belgilar (priznaklar) aslida belgi hisoblanmaydi. Ular u yoki bu narsa, predmet va hodisalarning muayyan bo'lagi, tarkibiy qismi bo'lib keladi. Masalan, darsga kirish yoki darsdan chiqish haqida xabar beruvchi qo'ng'iroq, poyezdning kelayotganligi yoki harakati yurishi boshlanayotganligi haqida darak beruvchi ovoz, gudok, yomg'ir yog'ishidan xabar beruvchi to'plangan bulutlar, shamolning esayotganidan darak beruvchi daraxt uchlarining qimirlashi, qordagi oyoq izi va boshqalar. Demak, ushbu tabiiy belgilar — alomatlar inson ongida xotirasida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi, «uyg'otadi».

Sun'iy belgilar shartli belgilar bo'lib, haqiqiy belgilar hisoblanadi. Ular tabiiy belgilardan - alomatlardan farqli muayyan xabarni — informatsiyani to'plash, saqlash va yetkazish uchun predmet va hodisalarni, tushuncha va hukmlarni tasavvur qilish, o'rnini bosish uchun xizmat qiladi. Demak, bunday hollarda ayni belgilar, tabiiy belgilardan — alomatlardan

farqli muayyan predmet, hodisa, tushunchalar o'rnida ishlatilsada, ammo ularning tarkibiy qismi, bo'lagi bo'la olmaydi. Shunga ko'ra bunday belgilar shartli belgilar hisoblanadi.

Jamiyatda qo'llaniluvchi kommunikativ — informativ belgilar-signallar, simvollar, belgilar — til belgilaridir. Ushbu informativ belgilar — shartli belgilar ichida haqiqiy belgi — kommunikativ belgi til belgisi - til birligi hisoblanadi. Boshqa belgilar esa til belgisi darajasidagi kommunikativ belgi bo'la olmaydi. Shunga ko'ra ular yordamchi, ko'makchi belgilar hisoblanadi, muayyan vaziyatdagina xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: temir yo'l signali, trevoga signali, tovush signali, tinchlik simvoli (kabutar), do'stlik simvoli (qo'l berish).

### III. Natija va takliflar.

Demak, simvollarida signallardan farqli obrazlilik bo'ladi, muayyan g'oya aniq ifodalanadi, situatsiyadan — vaziyatlilikdan holi bo'ladi. Shartli belgilardan — belgilarning belgisi bo'lgan til belgisi, signal va simvollaridan farqli, kommunikativ va informativ belgilarning eng assosiysi, eng muhimi bo'lib, ikki tomonlama birlik hisoblanadi. U qabul qilinish va o'zida mustahkamlangan informatsiyani tashish qobiliyatiga egadir.

So'z, so'z birikmasi, gap kabi nutq birliklari kommunikativ va informativ belgilarning eng asosiysi hisoblanadi. Ular nominativ va predikativ vazifani bajaradi, tilni tafakkur bilan, jamiyat bilan bog'laydi.

Kommunikativ belgi obyektiv borliqdagi muayyan narsa-predmet, hodisa haqida muayyan xabar, ma'lumot beradi, ya'ni u jamiyatda xabar berish vositasi, usuli sifatida ko'rsatiladi. Boshqacha aytganda, kommunikativ belgining asosiy xususiyati uning nimanidir anglatishida, nimanidir ifodalashida, muayyan ma'no bilan bog'lanishidir.

Kommunikativ belgi moddiy hodisa, moddiy birlik sifatida u yoki bu ma'no bilan bog'lanadi. Demak, har bir til belgisi ikki tomonning bog'lanishidan, munosabatidan iborat bo'ladi. Til belgisi moddiy va ma'noviy (ideal) tomonlarning bog'liqligidan, birligidan tashkil topadi.

Demak, kommunikativ belgi — til belgisi material va ideal tomonlarning- ikki jihatning munosabatidan tashkil topib, jamiyatda ijtimoiy xabar — informatsiya tashish uchun xizmat qiladi. Til belgisining psixik — ideal tomoni obyektiv voqelikni — predmetlar, hodisalar dunyosini inson ongida aks ettirishning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

### IV. Xulosa.

Aytilganlardan ma'lum bo'ldiki, jamiyatda belgilarning turli xillari, turlari bo'lib, ularning har biri, masalan, belgi-priznaklar (alomatlar), belgi — signallar (ishoralar), belgi — simvollar (ramzlar) va til belgilari — muayyan vazifani, o'ziga xos va mos vazifani bajaradi.

So'z asosiy belgi bo'lib, u tushunchaning vakili, ifodalovchisi, uning simvolidir.

So'z alohida belgi bo'lib, u faqat predmetnigina emas, balki, tushunchaning ham o'rinbosaridir.

So'z o'zining yetakchi, bosh vazifasini, asosan, gap tarkibida amalga oshiradi. Demak, gap ham asosiy kommunikativ belgi, nutq birligi hisoblanadi.

Xullas, til belgilar sistemasi bo'lib, uning belgilari so'z, so'z birikmasi, gap kabi birliklar va ularning turlicha bog'lanishidan tuziladigan konstruksiyalar lingvistik belgilar sifatida voqelashadi, jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизим сифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007.
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
3. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. -М., 1977.
4. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. -Тошкент: "Университет", 2002.
5. Тилшунослик назарияси ва методологияси. Тузувчи Х. Дадабоев. -Тошкент, 2004.

6. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари.- Андижон, 2006.
7. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. -Тошкент. Фан. 2008.
8. Shoyimqulova, Z. (2023). SURXONDARYO DEHQONCHILIK ETNOGRAFIKSEMANTIK TAHLILI. *Academic research in educational sciences*, 4(3), 452-458.

## **BOSHLANG‘ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA O‘RGANILADIGAN GEOMETRIK MATERIALNING MAZMUNI HAQIDA**

Boynazarova Marziya Najimovna Kitob tuman

12-

maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

I–V-sinflar uchun matematika kursi bo‘yicha geometrik materiallarni o‘rganish vazifalari. Geometrik mazmundagi masalalarni yechish, hisob-kitobga o‘rgatish davomida geometrik figuralardan, didaktik material sifatida foydalanish - bularning barchasi o‘quvchilarning geometrik taasurotlarini mustahkamlashga imkon beradi.

Tayanch so‘zlar: Interfaol, geometrik figuralar, didaktik, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PF-5538-son Farmoni, 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3931-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda xalq ta’limi xodimlarining boshqaruv, kasbiy va umumiy pedagogik mahoratlarini uzluksiz oshirilishini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

Ta’limning rivojlantiruvchi bosqichi birinchi o‘ringa chiqib bormoqdaki, bu narsa kichik yoshdagi maktab o‘quvchisining shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi va uning individual (shaxsiy) qobiliyatlarini ochilishini yuqori darajada ta’minlaydi.

Bu bilan bog‘lik holda kichik yoshdagi o‘quvchilarning umumiy ta’limda matematikani rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi rolini kuchaytirishga keng yo‘l ochilmoqda. So‘ngi yillarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan matematikaning qator yangi usullari taklif etildi, shu bilan bir qatorda geometrik mazmun bilan boyitilgan. Bu usullar ko‘proq kichik yoshdagi o‘quvchilarni rivojlanishi masalasini ko‘proq darajada amalga oshiradi, ularning xususan mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishga, fazoviy tasavvurlarini kengaytirishga ko‘proq diqqat-e’tiborini qaratishadi. Ularda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hamda imkoniyatlari to‘la-to‘kis hisobga olingan. So‘ngi yillar davomida boshlang‘ich matematika kursidagi geometrik material mazmunan va hajm jihatdan ham ancha o‘zgarishlarga uchradi. Bu haqda boshlang‘ich sinflar matematika darsida turli yillarda o‘rganilgan geometrik materiallarni qiyosiy o‘rganish natijalari mavjud.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining geometrik tayyorgarligi masalalasida bizning oldimizga qo‘ygan vazifalarni hal etish uchun bizning nazarimizda o‘tgan va hozirga davrda olib borilgan geometrik materialni boshlang‘ich sinflarda o‘rganishga bag‘ishlangan eng qiziqarli izlanishlarga kichik yoshdagi o‘quvchilarga nimaning o‘rgatamiz degan savolga javob berishga diqqatni qaratamiz.

I–V-sinflar uchun matematika kursi bo‘yicha geometrik materiallarni o‘rganish vazifalarini;

– Matematika boshlang‘ich kursiga kiritilgan geometrik xarakterdagi masalalarni hamda ularni o‘rganish tartibini;

– Geometrik materiallar bilan tanishuv tufayli o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi arifmetik masalalarni;

– Geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodlari va usullarini;

– O‘quvchilar tomonidan yechish jarayonida geometrik xarakterdagi

masalalarni o'zlashtirib olishga xizmat qiluvchi mashqlarni ;

– Geometrik materiallarni o'rganish davomida foydalaniladigan ko'rgazmali qo'llanmalar va didaktik o'yinlarni;

– Geometrik mazmundagi masalalarning o'zlashtirilishini tekshirishning turlicha ko'rinishlari, shakli va usullarini bilishi kerak.

– O'qitish davomida geometrik elementlar bo'lgan arifmetik materiallarning o'zaro aloqasining tatbiq etilishini bilishi;

– Geometrik tasavvurlarni shakllantirish metod va usullarini yo'naltirib, qo'llay olishi; maqsad sari

– Geometriya elementlari bo'lgan mashqlarni tanlab olabilishi va maqsad sari yo'naltira olishi;

– Geometrik misollarni o'rganishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali qo'llanmalar va didaktik o'yinlardan foydalana olishi;

– Geometriya elementlarini o'zlashtirishni tekshirishning turlicha ko'rinishlarini, shakl va usullarini qo'llay olishi;

– Tekshiruv maqsadlariga mos sinov topshiriqlari va mustaqil ishlarni tuza olishi kerak.

Geometrik material boshlang'ich sinflar uchun mustaqil bo'lim sifatida o'quv dasturiga kiritilmaydi. O'quv jarayonida geometriya elementlarini o'rganish bilan bevosita bog'lab olib boriladi.

Geometrik mazmundagi masalalarni yechish, hisob-kitobga o'rgatish davomida geometrik figuralardan, didaktik material sifatida foydalanish - bularning barchasi o'quvchilarning geometrik taasurotlarini mustahkamlashga imkon beradi.

Geometrik materiallarni o'rganish:

– Geometrik figuralar haqidagi tasovvurlar zahirasini to'plashga (kengaytirishga);

– fazoviy fikrlashni taraqqiy ettirish, tahlil qilish, umumlashtirish, tasovvur etish ko'nikmalarini shakllantirishga;

– muhim amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga;

– bolalarni keyinchalik geometriyani o'rganishga tayyorlashga xizmat qiladi.

«10 gacha bo'lgan raqamlarni raqamlash» mavzusini o'rganishda bolalar nuqta va kesmalar bilan tanishadilar, ulardagi uchburchak, to'rtburchak, beshburchaklar va boshqa ko'pburchaklar haqidagi tushunchalari kengayadi.

«100 raqamigacha bo'lgan sonlarni qo'shish va ayirish» mavzusini o'rganishda esa to'g'riburchak, to'g'riburchakli to'rtburchak, kvadratlar, ko'pburchaklarning bir ko'rinishi sifatida o'rganadilar.

2- va 3-sinflarda geometrik figuralari haqida tasavvur kengayadi va chuqurlashadi. Bunday tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

a) Geometrik figuralar va ularning elementlari chiziladi. (Bu holatda zaruriy atamalar o'rganiladi, geometrik figuralarni tanib olish va o'zaro farqlash ko'nikmalari shakllanadi.

b) Katak daftarda chizg'ich va uchburchak figuralarni yasash.

d) Figuralarni guruhlarga ajratish.

e) Figuralarni qismlarga ajratish va bu qismlardan boshqa figuralar yasash.

f) Turli predmetlar va ular qismlarining geometrik shaklni yaratish.

(3-sinfda) shartli belgilar yordamida geometrik chizmalarni o'qiy olish ko'nikmalarini shakllantirish.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida geometrik tasavvurni shakllantirish metodikasida ma'lum shakldagi real predmetdan uning tasviri tomon va aksincha, tasvirdan real predmet sari bormoq kerak.

Geometrik elementlarni o'rganishda quyidagi metodlardan masalan; geometrik modellashtirishdan foydalanish, qog'oz, cho'plar, plastilin va simlardan figuralarning modellarini yasash, qog'ozda geometrik figuralarni chizish - bolalar ongida geometrik tasovvurni rivojlantirishga omil bo'ladi. Bunday sharoitda materialning turi, rangi, o'lchamlari, tekislikdagi holatini nazarda tutmagan holda figuralarni shunday tanlash kerakki, bolalar ularning asosiy belgilarini (shakli, geometrik sifatlarini) aniqlay olsinlar. Shunga diqqat qaratish kerakki, o'quvchilar geometrik figuralarning barcha sifatlarini ajrata bilsinlar. Bu figuralar tasavvurning to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Masalan, to'g'ri burchakli to'rtburakni o'rganish jarayonida bolalar uning ikki asosiy sifati-to'rtburchak ekanligi va burchaklari to'g'ri ekanligini tushunib yetishlari kerak.

Geometriyaning maktab kursida uning asosiy tushunchalari sinfdan sinfga o'tgan sari o'zgarib boradi, Masalan, «kesma», «burchak» »ko'pburchak» kabi tushunchalar noaniq tushunchalar guruhiga kiradi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga «Uchburchak nima?» deb savol berish noto'g'ri bo'lar edi. Lekin bu savolni boshqa shaklda, «Uchburchak haqida nima deya olasiz?» degan savolga bolalar o'z bilimi doirasida javob bera oladilar (uchburchakning uchta burchak, uchta tomonlari bor).

Quyi sinf o'quvchilarini geometrik figuralar bilan tanishtirishni erta boshlashga bo'lgan harakat nafaqat dasturiy talablarni oshirishga, shu bilan birga materialni noto'g'ri o'zlashtirishga qadar xatolarga yo'l qo'yishga, masalan, o'quvchilar kvadratning to'g'ri burchakli to'rtburchak ekanligini sezmaydilar, ko'pburchakli figuralar hisobiga faqat besh-olti burchakli figuralarni kiritadilar. Ma'lumki, bolalarda geometrik tasavvurlarni shakllantirishga muhim ta'siri o'quvchilarning geometrik tasavvur shakllanishiga oid faoliyatlari muhim ta'sir ko'ratadi.

I-IV sinflarda geometriya elementlarini o'rgatish metodikasining muhim hususiyatidir. Albatta, predmetli harakatlarning zaruriyatini qabul qilgan holda o'quvchilarning aqliy faoliyatlariga maqsadga muvofiq rahbarlik qilish kerak bo'lib, bu o'rganilayotgan tushuncha va ular ta'riflarining muhim xossalarni kashf etilishiga yo'nalgan bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jumaev M.E. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakul'tativ mashg'ulotlarni tashkil etish. T.: «TDPU», 2012-yil.

2. Jumaev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi T.: «Arnoprint», 2013-yil.

3. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2015 2-3sonlari.

#### **O'QUVCHILARDA HIKOYA VA ERTAK O'QISH USTIDA ISHLASHNING METODIK ASOSLARI**

Raxmonova Ozoda Maxammadiyevna Kitob tuman  
10- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Xalq og'zaki ijodida hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir.

Tayanch so'zlar: Interfaol, didaktik, texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Ertakning pedagogik qimmatini, to'g'rilik, halollik.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlantirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun, bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish, uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli lug'at darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan tekstni qayta hikoyalash asosiy ish

turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakatini va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Buning uchun, so'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan daslabki savollardan maqsad, g'oya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, sharoitni, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishini jonlantiradi. Asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun tekst bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Ertak tahlili ustida amaliy ishlar

Ertak xalq og'zaki ijodida eng keng tarqalgan janr bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertak bilan amaliy tanishtiriladi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgu kuchning - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi, bolalarni o'ziga tortadi.

Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

Ertakning pedagogik qimmatini shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday bo'lishini istaydilar.

Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash ko'nikmasini o'stiradi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida qahramonlardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? Nima uchun? ... nima uchun jazolandi (yoki rag'batlantirildi)? Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi, ba'zilaridan esa, aksincha, yuz o'giradi? kabi savollarga javob berish uchun o'ylaydilar, ertak qahramonlarining xatti-harakatini muhokama qilib, uni baholashga o'rganadilar. Masalan, «Ur to'qmoq» ertagidagi asosiy fikr

yaxshilikka-yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, «Donishmand» ertagida ahillikka undashdan iborat.

Ertakda xalq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu-istaklarini bilib oladilar. Ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matnida bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ertakni juda qiziqib, obrazli ifodalarni va tasviriy vositalarni, shuningdek, ertakning o'ziga xos sintaktik qurilishini, gap tuzilishini shakllangan holda jonli aytib beradilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. Anvar Obidjonning «Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak», «Ko'zacha bilan Tulki», «Olapar, Mosh, Musicha» kabi ertaklar aniq-hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Matn bilan ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari savol tuzib, javob berishlari, so'z bilan grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalash, ertak aytish kabi turlaridan foydalaniladi. Bu ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birining mehmoniga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o'qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida «Ertakda sizga juda yoqqan joyini o'qing. Nima uchun yoqqanini ayting. Hayotingizda mana shu ertakdagiga o'xshash voqealar bo'lganmi?» kabi savol-topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Ertak o'quvchilar uchun ertakligicha qolishi va bolalar hayotidagi hodisalarga avtordek yondashishga o'rganishlari uchun shuning o'zi bilan kifoyalanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, «Davlat», «Tuz haqqi», «Ovchi, Ko'kcha va Dono», «Ilm afzal» kabi ertaklarni ham o'qiydilar.

O'quvchilarni bunday ertaklarni o'qishga tayyorlash ilmiy-ommabop maqolalarni o'qishga tayyorlash kabi bo'ladi (kuzatish, ekskursiya, predmet darslari), ertakni o'qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo'lib o'qiydilar.

O'quvchilar, 4-sinfda o'qiydigan «Davlat» ertagini olaylik, bu ertak oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakda fantastika bo'lganligi uchun o'quvchilarni ertakni o'qishga tahminiy tayyorlashni talab qiladi.

Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliq dunyoni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qishgagina emas, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak hajmi katta bo'lmasa) o'qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, ertakni izohli o'qish darsining ko'rinishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) o'quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;
- 2) o'qituvchining ertakni ifodali o'qishi, yod aytib berishi;
- 3) ertakni o'quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o'tkazish;
- 4) ertakni qismlarga bo'lib o'qish va tahlil qilish; undan ayrim tasviriy vositalar, sinonim so'zlarni topish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish;

- 5) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);
- 6) ertakni aytish;
- 7) umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);
- 8) ma‘lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qish;
- 9) vazifani tekshirish va yakunlash (Nima uchun ertakni qiziqib o‘qidik?);
- 10) uyda boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib ertakni o‘qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir—biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadilar va xulosa chiqaradilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jumaboyev M. “Bolalar adabiyoti” , “O‘qituvchi”, 2004.
2. Oripov O., Obidova M. Ifodali o‘qish. Qo‘llanma. “O‘qituvchi”, 2002.
3. Ubayxo‘jayeva R. A. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish. 2009. - 40 b.

## **SAVOD O‘RGATISH DAVRIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASH**

Qashqadaryo viloyati PYMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi Azizova Dilnoz Yo‘ldashevna

#### **Annotatsiya**

Savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash Savod o‘rgatish jarayonida “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘gin” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi.

Application of innovative technologies in the process of teaching literacy.

In the process of teaching literacy “words”, “sound”, “syllable” terminalaei to teach and become familiar with the proper pronunciation.

Применение инновационны технологий в процессе обучения грамотности.В процессе обучения грамотности “Слова”, “Звук”, “Ссылка ” чтобы ознакомитсья и учить правильное произношение.

Kalit so‘zlar: Innovatsion ,innovatsion texnologiya, tahlil-tarkib

Keywords:Innovative technlogy,innovative,assay-content.

Ключевые слова: Инновационны технологии, Инновации, анализа-содержание.

Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan,qat‘iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz.

( Mirziyoyev Sh.M. „Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.“)

Savod o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash eng ahamiyatga ega.Shu sababli yangi bilimlarga bo‘lgan yangi talab yangi “yangilik” ya’ni “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” tushunchalarini anglash talabi ortdi.



“Innovatsiya” so‘zi lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, yangilik kiritish degan ma‘noni bildiradi.

Savod o‘rgatish jarayonida “So‘z”, “Tovush”, “Bo‘gin” terminlari bilan tanishtirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatadi. Gaplar so‘zlardan tuzilishi haqidagi fikrga olib kelinadi. 2-4 so‘zlardan tashkil topgan gap tuzish, so‘zlarga ajratish o‘rgatiladi. Murakkab so‘zlarni bo‘g‘inga ajratish necha bo‘g‘in ekanligini aniqlash va bo‘g‘nlardan o‘zak so‘zlar tuzish o‘rgatiladi.

Savodga o‘rgatishning tahlil-tarkib usuliga ko‘ra matndan gap, gapdan so‘z, so‘zdan bo‘g‘in va tovush yoki, aksincha, tovush - bo‘g‘in, so‘z – gap – matn uzviy aloqada butundan bo‘lakka, bo‘lakdan butunga qarab tahlil va tarkib qilinadi.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar nutqining ravon bo‘lishida savol-javob usuli ham yaxshi natija beradi. Bu usul o‘quvchilarni faollashtiradi, nutqiy vaziyatga soladi. Biz bolalarga beriladigan savollarni shunday tuzishimiz kerakki, ularning javobi “ha” yoki “yo‘q” so‘zlaridan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Ularni o‘ylashga, mantiqiy fikrlashga majbur qiladigan vaziyatga olib kirishimiz kerak.

Savod o‘rgatish darslarida yana ko‘rgazmalilik usuli keng qo‘llaniladi. Bu usulni chex pedagogi Komenskiy ta‘limning asosiy qoidasi deb biladi. “Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi”. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishlari lozim: ko‘rish, eshitish, hatto ta‘m bilish sezgisi ham. Chunki ular aniq narsa, predmet va hodisaga qarab fikrlaydi.

Savod o‘rgatishda tushuntirish va bayon qilish usuli keng qo‘llaniladi. Bunda o‘qituvchi nutq madaniyatiga e‘tibor berishi, sodda ravon, ifodali qilib so‘zlashi kerak. Bola tabiati ortiqcha ko‘p so‘zlilikni yoqtirmaydi. Shuning uchun ularni tinglay olish imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Savod o‘rgatishda o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularni to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimni boyitish, mavhum tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas‘uliyatligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Tayorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin tayyorlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgarlar nutqini eshitish, diqqatini to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O‘qishga o‘rgatish uchun avvalo o‘quvchi tovush va harf bilan yaxshiroq tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo‘g‘indan, tovushdan ajratish tamoyiliga rioya qilinadi.

O‘qishga o‘rgatishda bo‘g‘in asos qilib olinadi. Buning uchun o‘qituvchida bo‘g‘in jadvali bo‘lishi lozim. Bo‘g‘in jadvali asosida o‘qish namunasi ko‘rsatiladi, ya‘ni harflab emas ichida birinchi harfni ko‘z bilan ko‘rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko‘rish va ikkalsini bog‘lab, unini mo‘ljallab ulab aytish tushuntiriladi.

O‘qishga o‘rgatishda so‘zlarni va gaplarni to‘ldirib o‘qish ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo‘naltiradi. O‘quvchi tushirib qoldirilgan harf va so‘zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e‘tibor beradi, o‘rtoqlariga nisbatan tez topib, o‘qituvchining rag‘batiga sazovor bo‘lishga intiladi. Har bir predmetda bo‘lgani kabi o‘qish darslarida ham ta‘lim-tarbiya birligiga e‘tibor beriladi. O‘qish darslarida tarbiya o‘qilgan matnning ongli o‘zlashtirilishiga bog‘liq. O‘quvchi matnga fikr nima haqida borayotganini anglasagina, o‘zida shunday hislatlarni shakllantirishga harakat qiladi. Ikkinchidan esa yaxshi inson bo‘lish uchun o‘qishning zaruriligini anglaydi.

Shuning uchun ongli o'qishni matn bilan ishlangan namunali rasmlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashtirishga, matn yuzasidan savollar berishga diqqat qaratish lozim.

O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning korgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bo'g'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi.

She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'qish darslarining 3/2 qismi o'qishni mashq qilishga ajratilishi lozim. So'zlarni tovushlarga ajratish.

I. So'zlarni tovushlarga ajratish tahlil qilinayotgan so'zlar tartibini aniqlash asosida quyidagilar o'rgatiladi.

- tovushlarga sifatli xarakteristika;
- unlilar;
- undoshlar (jarangli va jarangsiz undoshlar);
- qattiq va yumshoq talaffuzli so'zlar;
- aytilishi va ishlatilishida farqlash kerak bo'lgan harflar.

II. Tahlil qilinayotgan so'zdagi unli bo'g'inni topish, o'rnini aniqlash (bosh, o'rta, oxiri). Unli harflar bilan tanishtirishni davom ettirib ularni yozilish qoidalarini o'rgatish: o-a, i-e u-o' (lot. grefik.)

III. Undosh tovushlar bilan yozma tanishtirish. Kesma harflar bilan ishlash, so'zlar tuzish, bo'g'inlar hosil qilish (ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in)

O'qish. Alfavit matnlari asosida bolalarni sidirg'a bo'g'inlar o'qishga o'rgatish. Demak, so'roq undov gaplarning o'qilishini o'rgatish. Ongli ravishda o'qish malakasini hosil qilish borasida maxsus ish olib borish.

Termin: o'qitish davrida quyidagi terminlarni kiritish.

- |                     |                      |
|---------------------|----------------------|
| 1. Gap;             | 7. Jarangsiz undosh; |
| 2. So'z;            | 8. urg'uli bo'g'in;  |
| 3. Tovush;          | 9. urg'usiz bo'g'in; |
| 4. Unli;            | 10. Nuqta;           |
| 5. Undosh;          | 11. So'roq belgisi;  |
| 6. Jarangli undosh; | 12. Undov belgisi.   |

Natijada bolalar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

➤ o'qituvchining talabiga ko'ra yordamchi so'zlar ishtirokida 3-4 so'zli yoyiq gaplar tuzish;

- turli qiyinchilikdagi so'zlarni talaffuz qilish va tovush tahlili;
- kesma harflar asosida so'z tuzish;
- alfavit harflarni to'la bilish;
- kichik matnli tekistlarni bo'g'inlab o'qish.

Grafik malakalar va bosma yozuv.

I. Qo'l harakatini rivojlantirish, yozuv gegiyenasiga rioya qilgan holda, to'g'ri o'tirish, daftsr tutish, qalam ushlab, qog'oz varag'ida belgi va so'zlarni to'g'ri joylashtirishni o'rgatish davom etadi.

O'z oldiga maqsad qo'yish, maqsadiga erishish, vazifani bajarish jarayonini nazorat qilish, natijani baholash, diqqat va esda saqlab qolishni o'rganish kerak bo'ladi.

Belgi va nuqtalarga qarab, narsalarni rasmini chiziqalar yordamida (nuqtalarni) birlashtirib, bezak naqshlari hosil qilishni o'rganish kerak bo'ladi.

II. Alifbodagi yozma harflarni yozishni o'rganish. Bosh va kichik harflarni bosma usulida yozish, harflarni to'g'ri joylashtirish, so'z va gaplarni satr chizig'iga to'g'ri taqsimlab yozish o'rgatiladi. Mustaqil so'z va gaplar berilganiga ko'ra, bosma harfli matn tuzish, diktora orqali o'tilgan qoidalar asosida gap yozishni o'rgatish. Natijada bolalar katakli va chizikli daftar varag'ida to'g'ri joylashtirish malakasini hosil qilishlari, chetga chiqib

ketmasdan narsa rasmini parallel to'g'ri chiziqlar bilan chizish, qo'yilgan maqsadga erishish, natijani baholash, yozuv gegiyenasiga rioya qilish malakalarini hosil qilishlari kerak. Alfavit harflari barchasini (bosh va kichik) bosma usulda yozish, ulardan so'zlar tuzish, satr chizig'iga amal qilishni bilishlari kerak.

Savod o'rgatish darslari o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, ularda axloqiy va estetik tasavvurlarni shakllantirish, nafasat hissini tarbiyalash, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish, bilim manbai bo'lgan kitobni sevish kabi muhim masalalarni ham hal etishini nazarda tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Mirziyoyev Sh.M. „Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.“2016[15-16-b]

2.Q.Abdullayeva va boshqalar. “Savod o'rgatish metodikasi”. “O'qituvchi” 1996 [10-36-b]

3.T.Jabborova. X.G`ulomova. G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari2012[12-24-b]

4. G'afforova T. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, “Tafakkur”, 2012-yil. [22-41-b]

### **ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA INTEGRATSIYA ASOSIDA O'QISH DARSLARINING NOAN'ANAVIY USULLARI**

Azizova Dilnoz Yo'ldashevna  
Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Ilg'or pedagogik texnologiya va integratsiya darslarni tashkil etishda noan'anaviy darslardan foydalanish.O'quvchilarning o'qish faniga bo'lgan qizishlarini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish.

Innovations in technology and organization advanced use advanced use unconventional lessons.Readers have been increasing interest in method use sciense to read unconventional.

Инновации в технологии и передовой организации использования нетрадиционных уроков.Читателей растет интерес к использованию метода науки читать нетрадиционные

Tayanch so'zlar: Ilg'or pedagogik texnologiya, integratsiya, noan'anaviy,inovatsiya, an'anaviy.

Base words:Advanced technology,integration, unconventional, innovation, traditional.

Основа слово: Передовые технологии,Интеграция, нетрадиционные, инновации, традиционные

Biz yoshlarga doyr davlat siyosatini hech og'ishmasdan,qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib,dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'shkelaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtlibo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchva imkoniyatlarini safarbar etamiz.(Sh.Mirziyoyev,„Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.“).

Ilg'or pedagogik texnologiya va integratsiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.O'qish darslarining samaradorligi

ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, farning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda o'quvchilarga muayyan bilimlarni yetkazib berish, ular faoliyatini nazorat qilish va egallagan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni baholashga alohida e'tibor beriladi. Tabiiyki, ushbu jarayon o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlardan keng va har tomonlama foydalanishni taqozo etadi. Har bir pedagog ijodiy izlansa, ilg'or tajriba va metodlarni qo'llagan holda faoliyatini olib borsagina samarali natijalarga erishishi mumkin. Shu jumladan matematika fanidan dars o'tish jarayonida o'quvchilarni fanga qiziqtirish maqsadida o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llash zamon talablaridan biridir.

Noan'anaviy darsning maqsadi – o'quvchilarni shu fanga, mavzuga qiziqishlarini oshirishdir. Noan'anaviy darslarda o'quvchilar erkin, mustaqil bo'ladilar, darsga faolligi oshadi, ularga qo'yilgan muammoga ijodiy yondashadilar, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etadilar, boshqalar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini asoslay olishga o'rganadilar natijada darsning sifat samaradorligi oshadi. Noan'anaviy darslarning sayohat darsi, sahna ko'rinishi, raqobatlashuv darsi, konferensiya darsi kabi turlari bor. Noan'anaviy darslarda o'quvchilar zerikib qolmaydi, chunki bunday darslar har kungi ana'anaviy darslardan tubdan farq qiladi. Ayrim noan'anaviy usullar orqali tshkil etilgan o'yin - dars shakllari: -ishchanlik o'yini darsi – mavzu bo'yicha masalalarni hal qilish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish; -rolli oyin darsi –mavzu bo'yicha masalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

-teatrlashtirilgan dars- mavzu bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish;

-“Kim oshdi savdosi ” darsi- o'quv fani, ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarini har bir o'quvchi qanchalik ko'proq bilishini namoyish etish ;

-yarmarka darsi- mavzuni bo'laklarga bo'lish oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqatlari asosida qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan darslar ;

-o'yin darsi- mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

-itegral(integral)dars - boshqa darslarga bog'lab tashkil etishga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolligini taminlaylik.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda turli ko'rinishda va usulda ishlash talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini noan'anaviy usullardan sayohat, kichik guruhlarda ishlash, o'yin shaklida o'tkazish, yangi texnologiyalar yordamida guruhlar bilan ishlash, o'quvchilarning faolligi va qiziqishlarini, umuman badiiy, turli janrdagi asarlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni o'sishiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Mirziyoyev Sh.M. „Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.“2016[15-17-b]

2. Ubayxo'jayeva R. A. O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish. 1999. [40-53-b]

3. G'aniyeva T. Boshlang'ich sinflarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. 2012[11-57-b]

#### **JAMIYATNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH**

Qodir Eshonqulov Parmonqulovich

**Annatsiya:** Ushbu maqolada Jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirish. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi bilan tanishtirish, davlatimizning qonun va qarorlarini ommaga tadbiq qilish va yetkazish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, huquq, yangi, g'oya, balki, ta'sir, xil, ham, mumkin, ya'ni, modda, asosiy, rasmiy, oshirish, va, tarbiya, qonun, kabi.

Bugungi kunda dolzarb muamoga aylanib borayotgan, Jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirish, Jamiyki har bir inson o'zining o'z haq huquqini bilish va O'zbekiston Konstitutsiyasiga itoat etishi lozim. Hozirgi o'zbek jamiyati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli yuzaga kelgan chuqur axloqiy, estetik va ma'naviy inqirozni boshidan kechirmoqda. Inqiroz fuqarolarning huquqiy ongida ham kuzatilmoqda, zamonaviy jamiyatda huquqiy ta'lim va tarbiya madaniyatning yetishmasligi sabab bo'lmoqda.

“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va otadga aylanishi shart”  
Shavkat Mirziyoyev

Hozirda har bir fuqaroni ya'ni barcha jamiyat negizidagi insonlarni to'g'ri yo'lga boshqarish ayniqsa yoshlarni turli diniy ekstiristik oqimlarga kirib ketmasligi bo'yicha chora tadbirlar olib borilmoqda. Yoshlarni huquqiy ongini shakllantirishni birinchi oiladan boshlash kerak, har bir ota- ona bolasini yetuk shaxs, komil inson, qilib tarbiyalash uchun birinchi o'rinda o'zida huquqiy savodxonlikni shakllantirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi 7 bob 26- moddasida insonning sha'ni va qadr- qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas deb ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatimizda fuqarolarni qonunlar to'g'risida xabardor qilish va ularning huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotchilar, yuridik maslahatchilarni jalb qilgan holda ma'ruza va nashriyot ishlari xanuzgacha olib borilmoqda. Bugungi kunda advokatlarining huquqiy ta'lim va huquqiy targ'ibot ishlarida ishtirok etishi amalda ularning rasmiy burchi hisoblanmaydi. Amaldagi qonun hujjatlarini jamoatchilikka tushuntirish, ularda advokatlarining bevosita ishtirokida maslahatlar berish, ma'ruzalar o'qish, matbuotda, televideniya va radio orqali so'zlash huquqiy ta'lim tarbiya olib borish ham mumkin.

Yana bir narsani ta'kidlash joizki, Ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish

1. “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish” va “Inson huquqlarini o'rganish” maxsus o'quv kurslarini barcha ta'lim turlari bo'yicha tizimli o'rgatish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish va o'rgatishni tashkil qilish.

Maxsus kurslar yakuni bo'yicha o'quvchi va talabalar orasida sinovlar tashkil qilish.

2. Bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani va inson huquqlarini o'rganish bo'yicha ko'rgazmali qo'llanmalar tayyorlash va chop etish.

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilariga bolalar huquq va majburiyatlariga doir mashg'ulotlarni joriy etilish. Bundan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining huquq asoslari va bola huquqlari bo'yicha bepul malakasini oshirish hamda mashg'ulotlarini o'tkazish uchun turli innovatsion loyihalarni yaratish choralarini ko'rish.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga odob – axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o'rgatish bo'yicha namunaviy qo'llanma yaratish.

5. Yangi avlod huquqiy darsliklari va o'quv qo'llanmalari tizimini yaratish. Bundan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko'rgazmali o'rgatishga qaratilgan o'quv qo'llanmalarni, shuningdek, ta'lim muassasalari uchun huquq fanlari bo'yicha o'quv darsliklari va qo'llanmalarini tayyorlash choralarini ko'rish.

6. Yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmining o'rgatishga qaratilgan "Street law" ( Ko'cha huquqi – oddiy huquq ) loyihasini keng joriy qilish bo'yicha quyidagi tashkiliy chora – tadbirlar amalga oshirish.

Huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlari o'quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko'ngillilar (volonter) guruhini shakillantirish.

7. Ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalari orasida huquq fanidan respublika miqyosida quyidagi tanlovlarni tashkil qilish.

Umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida " Huquq – bu to'g'rilikdir" mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil qilish. Umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Mening huquqim va majburiyatlarim" respublika ko'rik- tanlovini tashkil etish hamda tanlov g'oliblarini rag'batlantirish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida "Siz qonuni bilasizmi" ko'rik- tanlovini tashkil qilish hamda tanlov g'oliblarini rag'batlantirish.

Oliy ta'lim muassasalarida " Huquq bilimdonlari" ko'rik tanlovini tashkil qilish va tanlov g'oliblarini rag'batlantirish kabi loyihalarni tashkil etish lozim.

Endi jamiyat orasida huquqiy savodxonligini oshirishda yuqorida ta'kidlab o'tgan, turli xil ma'ruzalar televideniya orqali yetkazish ham mumkin. Shundan tashqari davlat xodimlari jamiyatning, xalqning orasiga kirib, ilmiy holda emas balki, xalq va omma tilida aytganda sodda jo'n tilda tushuntirish ishlari olib borishni kuchaytirilsa maqsadga erishish insonlar ongini shakillantirish yanada oson bo'ladi. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat – davlat munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent N. Saburov fikricha, " huquqiy ong- bu ijtimoiy ongni shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq – targ'ibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular tassavurlar yig'indisidir" deb ta'kidlab o'tgan . Xulosa qilib o'tish kerakki Jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishning ya'na bir usuli ommaviy axborot vositalarini o'rni kengaytirish lozim. Qonunlar tuzulishida xalq fikrini bilish, ishlab chiqilgan qonunlarni xalqqa yetkazishni yaxshi yo'lga qo'yilgandagina xalqning, jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI "O'zbekiston" Toshkent -2023.
2. Saburov N , Saydullayev Sh. Davlat huquqi nazariyasi. Toshkent-
3. Lex.uz.tarmoq.

### **FIZIKA FANI TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA MASALALAR YECHISH ORQALI TALABALARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

TMTI assistenti Payanova F.K.

**Annotatsiya:** Bugungi kunda talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asoslanmasdan turib, xususan, fizika ta'limini takomilashtirish qator metodik qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin ekanligi haqida ko'plab fikr-mulohazalar mavjud. Shu munosabat bilan masalalar yechish to'garagining ta'lim jarayonida tashkil etilishiga yangicha yondashib ijodkorlik, bunyodkorlik, ta'lim samarasini yuqori darajaga ko'tarish, talabaning talabi, moyilligini, hohish-istaklarini imkoniyat darajasida qondirish lozim. Ushbu maqolada fizika fani to'garak mashg'ulotlarida masalalar yechish orqali talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka, ko'nikma, ijodiy fikrlash, grafik, jadval, diagramma, rasm, chizma, sxema.

Talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirishda fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, ularning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida qiziqarli masalalarni tanlashga alohida e'tibor berish lozim. Tanlangan masalalar aniq bir tizimli tashkil

qilishi va aniq bir maqsadga yo'naltirilishi kerak. Shuning uchun, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan ayrim mavzuga va bobga oid masalalarni tanlashga alohida ahamiyat berish zarur.

Masalalarni ularning mohiyatiga ko'ra, ikki turga ajratish mumkin. Ijodiy masalalar; ijodiy bo'lmagan masalalar. Ijodiy masala talabani mustaqil fikrlashga, mantiqan o'ylashga, masalaning mazmunini to'la-to'kis tushunib olishga undaydi, bu tipdagi masalalar boshqa tipdagi masalalardan murakkablik darajasi bilan ajralib turadi .

V.G.Razumovskiyning ta'kidlashicha, talaba uchun noma'lum bo'lgan masala – ijodiy masala hisoblanadi. Ijodiy masalani yechish jarayonida talaba mustaqil fikrlaganda masala sharti, talabi va yechimi uslublarini bir biridan ajratmasliklari lozim. Talaba mustaqil ravishda masala yechish uchun, oldin yechilgan masalalarga murojaat qiladi, agar uni aniq javoblar qanoatlantirmasa, yangi yechish metodini qidiradi, bu masala shartini o'zgartirib, maqsadga aniqlik kiritadi. Ijodiy masala, ijodiy bo'lmagan masaladan shu bilan farq qiladiki, talaba mustaqil ishlash jarayonida o'zi uchun yangi bo'lgan natijalarga erishadi, natijada quyidagicha fikrlash yangiligi paydo bo'ladi:

1. Talabalar masalani mustaqil yecha olishi uchun qanday bilimlarga ega bo'lishi.
2. Masala talaba uchun qiziqarli bo'lishi.
3. Masalada qanday tarbiyaviy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lishi.
4. Masalalar bir-biridan qanday farqlanishini bilish.
5. Har bir masala aniq maqsadga ega bo'lishi.
6. O'qituvchi talabaga qanday darajada yordam berishini bilishi.
7. Talaba ijodiy izlanib masalalarni yechishda qanday yutuqlarga erishganligini bilishi.
8. Masalalarning bir-biri bilan bog'liqligini bilishi.

Hatto o'quv materiallarini ongli, formal bo'lmagan holda o'zlashtirganda ham bilimlarni qo'llay olish mahorati o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bunga maxsus o'quv mashg'ulotlari kerak bo'ladi. Bilimlarni amaliy qo'llashga o'rgatishda fizikadan masalalar yechish muhim o'rin egallaydi. Masalalar yechishda qo'yiladigan asosiy maqsad, talabalar fizik qonunlarni chuqurroq tushunsinlar, ularni ajrata olsinlar va ulardagi fizik hodisalarni tahlil qilolsinlar, amaliy masalalar yechishga qo'llay olsinlar.

Mashg'ulot davomida har bir mavzuni o'rganishda, namoyish tajriba, laboratoriya ishlari va boshqa ko'rinishdagi o'quv mashg'ulotlari rejalashtirilgani singari masalalar yechish orqali ham aniq rejalashtirish lozim. Masalalarni tanlashda metodikaga mos keladigan aniq tizimni tashkil etish va o'qitishning ma'lum maqsadlariga javob berishi lozim. Rejalashtirish ma'lum mavzular bo'yicha mashg'ulotga tayyorlanib, o'qituvchi masalalar tanlaydi, ularni yechish ketma-ketligi va izchilligini aniqlaydi. Tanlangan masalalar qator talablarga javob berishi lozim. Masalada oddiydan asta-sekin murakkablashib borishi, har bir masalani tanlashda o'qituvchi mo'ljallagan maqsadni amalga oshirishi muhim. Har bir tanlangan masala talabalar bilimni oshirishga, kattaliklar orasidagi bog'lanishni tushunishni chuqurlashtirishga, bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Masalani yechishda sintetik va analitik metodlar birga ishtirok etishi zarur. Tahliliy metod masalalarni oddiy bo'laklarga ajratishdan iborat. To'garakda masalalar yechishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq: I bosqich. Masala shartini o'rganish. II bosqich. Masaladagi fizik hodisalar va jarayonlarni o'rganish. III bosqich. Masalalar yechishga fizik hodisa yoki jarayonlarni tavsiflovchi qonun, formula, qoidalarni qo'llash. IV bosqich. Tegishli formulalarning to'g'riligini aniqlash. V bosqich. Izlanayotgan kattalikning son qiymatini topish. Talabalarni masalalar yechishga o'rgatishda, masala mazmunini muhokama qilish davomida grafik, jadval, diagramma, rasm, chizma, sxemalarga katta e'tibor berish kerakki, u masalani to'laqonli yechishga yordam beradi. Masalalarni yechishda, natijani chiqarishga odatlanish kerak. Masala shartida berilgan kattaliklar bir xil birliklarda berilmagan bo'lishi mumkin, ularni bir xil birliklar tizimiga keltirish kerak bo'ladi.

Talabalarning fizikadan mustaqil ravishda masalalar yecha olishlarini yengillashtirish uchun ularga tarqatma material sifatida zarur tavsifli masalalar yechilishining namunalari berish mumkin. Masala yechishning tizimlashtirilgan namunalar bilan to'la tanishtirish talabalarning topshiriqlarni bajarishda ularning mustaqil ijodiy faoliyatlari

samaradorligini oshiradi. Dastlab yordamchi materiallardan foydalanib talabalar masalalarni yechadi. Natijada, ular tipik masalalar bilan birga mustaqil ijodiy yondashuvini talab etadigan masalalarni ham yechishga kirisha oladilar.


Talabalarga quyidagi masalalarni yechish metodikasi ko'rsatiladi.

**1-masala.** 1000 kg massali vagoncha qiyaligi  $\alpha = 30^\circ$  burchakni tashkil etuvchi temir yo'l bo'ylab tepalikka ko'tarilayotgan bo'lsa, vagoncha  $a = 0,2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakat qilganda, tortish kuchining  $s = 100 \text{ m}$  yo'lda bajaragan ishi qancha bo'ladi? Ishqalanish koeffitsienti 0,2 ga va erkin tushish tezlanishi  $10 \text{ m/s}^2$  deb olinsin. (1-rasm)

**Berilgan:**

$$m = 1000 \text{ kg} \quad \alpha = 30^\circ \quad a = 0,2 \text{ m/s}^2 \quad S = 100 \text{ m} \quad \mu = 0,2 \\ g = 10 \text{ m/s}^2$$

Topish kerak:  $A = ?$



**1-rasm.**

**Yechish:** Masalani yechish uchun chizma chizamiz (1-rasm). Vagonchaga  $F_m$  - tortish kuchi;  $P$  - og'irlik kuchining tashkil etuvchisi;  $F_N$  - bosim kuchi ta'sir etadi. Pastga tortuvchi  $F_0 = mg \sin \alpha = P \sin \alpha$  (1-1) va  $F_N = P \cos \alpha = mg \cos \alpha$  (1-2) tashkil etuvchi kuchlarni aniqlab, dinamikaning II qonunini qo'llaymiz, ya'ni,  $F_m = ma$  (1-3) bo'ladi. Ishqalanish kuchi chizmaga asosan  $F = \mu N = \mu mg \cos \alpha$  (1-4) bo'ladi. U holda quydagicha yozish mumkin:

$$ma = F_m - mg \sin \alpha + \mu mg \cos \alpha \quad (1-5) \quad \text{Tortish kuchi } F_m = ma + mg \sin \alpha - \mu mg \cos \alpha \quad (1-6)$$

bo'ladi.

$$\text{Bajarilgan ish } A = G'_m \cdot S = m(a + g \sin \alpha + \mu g \cos \alpha) \cdot s \quad (1-7)$$

Son qiymatini qo'yish orqali hisoblaymiz.

$$A = 1000 \text{ kg} \cdot \left( 0,2 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} + 10 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot \frac{1}{2} + 0,2 \cdot 10 \frac{\text{m}}{\text{s}^2} \cdot 0,8666 \right) \cdot 100 \text{ m} = 693 \text{ kJ}.$$

Javob:  $A = 693 \text{ kJ}$ .

**2-masala.** Tepalikka  $a = 1 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanib chiqayotgan Avtomobil motorining tortish kuchi  $F$  ni aniqlang. Tepalikning qiyaligi har 25 m yo'lda 1 m. Avtomobilning og'irligi  $P = 9,8 \cdot 10^3 \text{ N}$ . Ishqalanish koeffitsienti  $\mu = 0,1$ .

**Berilgan:**  $P = 9,8 \cdot 10^3 \text{ N}$ ,  $a = 1 \text{ m/s}^2$ ,  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ ,  $\sin \alpha = 1/25 = 0,04$ ,  $\mu = 0,1$ ,  $F = ?$

**Yechish:** Avtomobilning R og'irligini ikki tashkil etuvchiga ajratamiz. Avtomobilni tog'dan pastga harakatga keltiruvchi  $F$  kuch kuch tog' sirtiga parallel bo'ladi. Tog' sirtiga perpendikulyar bo'lgan  $N$  normal bosim kuchi:  $N = \mu mg \cos \alpha$  (2-1) Toqqa chiqayotgan avtomobil motori  $F_1$  va  $F_{\text{uuk}}$  kuchlarini yengib, avtomobilga tezlanish berishi kerak, ya'ni  $F = F_1 + F_{\text{uuk}} + F_{\text{mez}}$  (2-2)

tog'ning qiyaligi  $\alpha$  -  $F_1$  va  $P$  kuchlar orasidagi burchak bo'lgani uchun  $\sin \alpha = 1/25 = 0,04$  ga teng. Nyutonning II qonuniga ko'ra

$$F_{\text{mez}} = ma = \frac{P}{g} a \quad (2-10) \text{ ga teng. } F_{\text{ishq}} = \mu N = \mu R \cos \alpha \quad (2-3)$$

$$F = P \sin \alpha + \mu P \cos \alpha + P \frac{a}{g} = P \left( \sin \alpha + \mu \cos \alpha + \frac{a}{g} \right) = 2113 \text{ H}$$



Javob:  $F = 2213 N$ .

**Xulosa:** Auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilish davomida talabalarning nazariy bilimlari chuqurlashtiriladi, fanga bo'lgan qiziqishlari rivojlantiriladi. Bunda topshiriqlar har xil bo'lib, unda ijodiy, qiyinchilik darajasi har-xil masalalar yechiladi To'garak mashg'ulotlarida talabalarning turli fizik masalalarni mustaqil ravishda ishlashi ularning ijodiy fikrlashida tajriba va malakalari ortadi, bilimlari kengayib mustahkamlanib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Разумовский В.Г. Физика о'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish. //O'qituvchilar uchun qo'llanma. –T.: Ўқитувчи, 1989. -284 b.
2. Sul'tonova O'.N. Fizikadan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish individual va tabaqalashgan yondashuv. O'qitish muammolari. --Тошкент, 2008. –Б. 49-51.
3. Payanova.F.K. Kompetensiyaviy Yondashuv Asosida Talabalarning Mustaqil Ijodiy Faoliyatini Rivojlantirishda masalalarning ahamiyati.// TDPU Ilmiy Axborotlari. 2023.№10. B.4-11 ( 13.00.00.№32)

### **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANI O'QITILISHINING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI**

Abdiraimova Gulrux-Qarshi xalqaro universiteti  
“ Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida o'qituvchisi  
[gulruhabdiraimova@mail.com](mailto:gulruhabdiraimova@mail.com)  
Nabiyeva Gavhar-Qarshi xalqaro universiteti  
BT 129-22 guruh talabasi.

#### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang'ich sinflarda va interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlari, zamonaviy-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganilganini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan

**Kalit so'zlari:** Tarbiya, kompetensiya, tarbiya tamoyillari, tarbiyaning maqsadlari, interfaol metodlar

#### **ANNOTATION**

In this article, the use of pedagogical technology in the classroom, interactive methods and educational games in primary school, the use of modern information and communication technologies in teaching elementary education in primary school helps students to think independently, creative, research and logical thinking along with the expansion, ideas are articulated that help them relate what they learn in the lessons to life, increasing their interest.

**Key words:** education, competency, principles of education, the purpose of education, interactive methods

#### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье педагогическая технология учителя в преподавании педагогической науки в начальных классах, интерактивные методы и развивающие игры в младших классах, использование современных информационно-коммуникационных технологий помогает учащимся мыслить самостоятельно, расширять сферу творческого исследования и логического мышления, повышать интерес к применению в жизни того, чему они научились на уроках

**Ключевые слова:** воспитание, \_\_\_\_\_ компетентность, принципы обучения, цель обучения, интерактивные методы

Tarbiya-bu nima aslida? Tarbiya -bu bizni o'rab turgan jamiyatdir. Bizning tug'ilib umrimiz o'tgunga qadar bo'lgan davr bizning tarbiyamizdir. Shu xususida so'z yuritadigan bo'lsak, buyuk ma'rifatparvar ajdodimiz Abdulla Avlonig "Tarbiya biz uchun yo hayit-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"-deb tarbiyaga bergan ta'rifini

eslashimiz mumkin. So'ngi yillarda yurtimizda ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan bir necha yil muqaddam boshlang'ich sinflarda "Odobnoma" yuqori sinflarda "Vatan tuyg'usi" hamda "Milliy istiqlol" g'oyasi kabi darsliklar qo'llanib kelinardi. Endilikda esa bu darsliklar qaytadan yangilanib, barcha uchun "Tarbiya" fani taqdim etildi. Buning sababi nimada? Bunda sabab o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan katta e'tibordir. Biz rivojlanayotgan davlatga voyaga yetyapmiz, rivojlanish o'sgani sayin chet elga qiziqish ham ortib bormoqda.

"Tarbiya" fani O'zbekiston Respublika Prezidentining tashabbusi bilan umimiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarga "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy-ma'naviy hayotga tayyorgarlik, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. Ushbu fan darsliklari xalq ta'limi vazirligi rahbarligida professor - o'qituvchilar, amaliyotchi o'qituvchilar, psixaloglardan iborat muallimlar jamoasi bilan hamkorlikda yaratiladi. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Korea, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalaniladi. Ta'lim jarayonida nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolligiga ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy metodik mukammalligiga bog'liq.

Kompetensiya (lotincha :competence-shaxsning, munosibman, loyiqman.) muayyan davlat organlari (mahalliy, o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari huquq va burchlari doirasi.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motevatsiyaning uyg'unlashgan majmuini aks etadi.

Tarbiya tamoyillari: tarbiyaning maqsadga, yo'naltirilganligiga va g'oyaviyligi, tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustunligi, tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi, tarbiyada izchillik va tizimlilik, tarbiyani ijtimoiy hayot bilan uyg'un holda olib borish, tarbiyani mehnat faoliyati bilan bog'lash; tarbiyalanuvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;

jamoada yordamida tarbiyalash; tarbiyada tarbiyalanuvchi tamonlarini ijobiy sifatlarga tayanib salbiy tomonlarini yo'qotish.

Tarbiya-inson shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar tizimidir.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutaffakkiri Abu Nasr Farobiy "aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi. Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan zarar narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradi. Bunday kishilarni oqil deydilar; ular fikricha "Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganilgandir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va munosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlardan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy ,g'oyaviy,nafosat tarbiyasi beriladi.Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.Ma'lumki ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish,o'quv mashg'ulotlarining samaradirligini oshiribgina qolmay,ilm -fan yutuqlarini amaliyotlarda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan,har timonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan -kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishning sabablaridan biri,shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa ,zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish,mustaqil o'rganish va fikrlash,tahlil qilish,hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishiga o'rgatadi.O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi,shakllanishi,bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik,yo'naltiruvchilik ffunksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda "Aqliy hujum","Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar"metodi, "Sinkveyn","BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6","Baxsmunozara"kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarini mustaqil fikrlashga,ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bu birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga,qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlar samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim -tarbiya jarayoninisifatini kafolatlaydi.

Ta'limiy o'yinlarda qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga munosib bo'lishi kerak.
- 2.O'yinlar o'tilayotgan mavzu o'quvchilarning yosh xususiyatiga munosib bo'lishi kerak.
- 3.Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi kerak.
- 4.Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy ,ham tarbiyaviy ahamiyatga eha bo'lishi kerak.
- 5.Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Shavkat Mirzuyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va aliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz"
2. N.B.Adizova, G.E.Saidova. Boshlang'ich ta'limda tarbiya – o'quv-metodik majmua. Buxoro-2022 (4-8-betlar)
- 3.S.N. Djurayeva, N.S. Turdiyeva, A.I. Baxronova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Buxoro – 2021 (5-10-betlar)
4. D.Babayeva. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o'quv qo'llanma. Toshkent-2021 (5-22-betlar)
5. N.Ismatova va boshqalar. "1-2-3-4-sinflar uchun tarbiya fanidan darslik". Toshkent-2020

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA "TARBIYA" FANIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR**

Iroda Tojiyeva Sadatovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO`MM  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanida qo'llaniladigan metodlari to'g'risida ma'lumot beriladi

**Kalit so'zlar:** Tarbiya fani, interfaol usullar, interfaol metodlar, Topishmoqlar, Tez javob topish o'yini, Jumlani davom ettiring.

Fan-texnika rivojlanishi nafaqat ta'lim tizimiga balki ta'lim jarayoniga ham ta'sir o'tkazmay qo'yimadi. Hozirgi bolalar qo'lda yasalgan oddiy mozaika, yoki hayvon o'yinchog'iga qiziqmaydi. Balki, ularni raqamlashtirish, yangi dasturlar yaratish, robototexnika orqali noan'anaviy darslar o'tilishini xohlaydi. Bugun o'qituvchilarga ham shunga mos talablar qo'yilmoqda. O'qituvchi zamonaviy texnologiyalarni bilishi lozim, ulardan darsda unumli foydalanishi zarur. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi zamonaviy usul va metodlarni qo'llashni bilishi zarur [1;20].

Boshlang'ich sinflarda interfaol mashg'ulotlarni o'tkazishdan asosiy maqsad bolalarda mustaqil fikrlash, to'g'ri so'zlash, jonivorlar, narsa-buyumlarni to'g'ri nomlash, sanoq va miqdorni, katta va kichikni taqqoslash va farqlash, ular orasidagi o'zaro o'xshashlik va farqni ko'ra bilish, ularning lug'aviy ma'nolarini sharhlash kabi nutqiy-tafakkuriy ko'nikmalarni, ravon og'zaki nutqni hosil qilishdan iborat. Bu esa bolani intellektual rivojlanishga yo'naltiradi, hozirjavoblik, jadal fikrlashgaodatlantiradi.[2],[3].

Bunday ijodiy ishlar o'qituvchidan, o'z ish faoliyatini qiziqarli topishmoqlar, o'ylash va izlanishga yo'naltiruvchi lingvo didaktik va lingvo psixologik topshiriqlar bilan to'yintirish, lozim bo'lsa, shunday yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z mashg'ulotlarida qo'llashni taqozo etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy taraqqiyotini jadallashtirish, mustaqil faoliyatga yo'naltirishda tafakkur, idrok va xotirani rivojlantirish, nutqiy ko'nikmalarni mustahkamlash mashg'ulotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda va sinfdan tashqari dars-mashg'ulotlari ushbu metodda tashkil etilganda o'quvchilar erkin fikrlaydi, munozara-bahs yuritadi. Albatta, darsni bunday usulda tashkil etish oson kechmaydi. Bunda o'qituvchining tashkilotchiligi, chuqur bilimi, ziyrakligi, nazokat va muloqatga kirishuvchanligi hamda boshqa xususiyatlari qo'lkeladi.[4]

Interfaol usullarga asoslangan darslarning an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darslarda o'quvchiga erkinlik muhiti hamda o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyati yaratib beriladi. O'z fikrini erkin bayon etish imkoniyatining yaratilishi ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda zarur. Bu imkoniyat eng avvalo ularda o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini so'ng bilishga ehtiyojni shakllantiradi.

Xo'sh, bu imkoniyat qanday yaratiladi? Avvalo, o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi.[5]

Ilk boshlang'ich sinflarda Tarbiya fanini o'qitishda interfaol metodlarni tatbiq etish yo'llarini 1-sinf hamda 2-sinf Tarbiya fani dasturlaridan o'rin olgan ayrim mavzular misolida ko'rib chiqamiz.

1-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Vatan ishonchi" mavzusini o'qitishda rasmlardan foydalangan holda "**Tez javob**" o'yinidan foydalanish tavsiya etiladi.

Tez javob o'yinida o'qituvchi qator oralab yurib o'quvchilardan birini turg'azadi va qo'lidagi rasmini ko'rsatadi. O'quvchi bu rasmdagi predmetning nomini tez topishi va nima uchun bu predmet Vatan bilan bog'liqligini aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob bera olmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof – muhitni, sodir bo'layotgan voqea, hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Bu o'yindan "Vatan ishonchi" mavzusi o'tib bo'lingach, uni mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

1-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Salomlashish odobi" mavzusini o'qitishda O'qish kitobi, Ona tili, Matematika fanlari bilan fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish orqali ma'naviy mazmunga ega, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan topishmoqlari, tez aytishlari, maqollari kabi asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish asqotadi. Jumladan, topishmoqlar xalq pedagogikasida azaldan muhim tarbiyaviy qurol sanalgan. Topishmoqlar inson umrining oxirigacha, ya'ni dastlab oila, maktab, o'quv dargohlaridan tortib

jamoatchilik ichidan o'rganiladigan bilimlarini yanada aqlan chiniqtiradi, ruhiy estetik jihatdan boyitadi.

O'zbek xalq topishmoqlarining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, jumladan, dars mashg'ulotlarida ma'naviy-axloqiy ta'lim berishda topishmoqlarda mujassamlashgan xalq donishmandligi saboqlaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik xususiyatlariga doir qator maqolalar yozilgan bo'lsa-da, bu muammo haligacha fundamental tadqiq etilmagan.

Topishmoqlar bolaning o'ylash, qiyoslash-taqqoslash, hozirjavoblik, ziyraklik qobiliyatini shakllantirib so'z boyligini oshiradi.

Deyarli har bir topishmoq odob-axloq g'oyalarini tashiydi. Tarbiya fani darslarida bitta topishmoqning o'zi dars mavzusi bo'la oladi. Odob-axloq normalarining azaliy ifodasi aks etgan bunday topishmoqlar yoshlar xotirasida chuqurroq o'rinishadi va yaxshi ta'sir kuchiga ega bo'ladi:

*O'tda yonmas, Suvga botmas, Yerda chirimas (to'g'rilik).*

*Osmondan buyuk (maqsad).*

*Bir to'kilsa qayta to'lmas (obro', nomus).*

*O'zi farz, bebismillo (salom berish).*

*O't emas, kuydirar,*

*Pichoq emas, so'ydirar (yolg'on so'z).*

*Zarga sotilmas,*

*Zo'rga topilmas (vaqt).*

Qadimdan xalqimizda axloqiy tarbiyaga keng o'rin berilganligi tufayli, odob-axloq haqidagi dono fikrlar, g'oyalar topishmoqlar tarkibiga singib ketgan. Shuning uchun ham topishmoqlarni ta'lim modellarining hamma turida keng qo'llash maqsadgamuvofiq.

Ayniqsa, kichik guruhlariga bo'lib ishlashda, Aqliy hujum, bahs munozara, Charxpalak kabi usullardan foydalanilganda topishmoqlarni asosiy ob'ekt qilib olish mumkin. Qolaversa, diqqatni jamlash uchun ham sinfga jumboq tashlab samarali natijaga erishish mumkin.

1-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan yana bir mavzu "Sehrli so'zlar" mavzusini o'qitishda "**Hikoya**" usulini qo'llash maqsadga muvofiq. Ushbu mavzuni o'qitish jarayonini quyidagicha tashkil etish mumkin. Buning uchun avvalo sinf o'quvchilarini to'rt guruhga bo'lib olish tavsiya etiladi:

1- guruhga: —*Oila – qanday maskan?*

2- guruhga: —*Oilada ota va onaning o'rni*

3- guruhga:—*Oilada bobo va buvining o'rni*

4- guruhga: —*Oilada aka-uka va opa-singillarning o'rni* mavzulari topshirilib, muayyan vaqt ajatiladi va shu vaqt davomida o'z guruhiga berilgan mavzu bo'yicha har bir guruh a'zosining oilasi haqidagi hikoyasini jamlab turib hikoya tuzish topshiriladi. Vaqt tugagach guruh sardori kichik guruh hikoyasini aytib beradi. O'qituvchi har bir hikoyaga o'z munosabatini bildiradi va yakun yasaydi. Dars yakunida o'qituvchi bolalarning hikoyasidan kelib chiqqan holda nima uchun oila – baxt qo'rg'oni deb atalishi borasida xulosa qiladi. Mazkur metod o'quvchilarda eng avvalo o'z oilasidan faxrlanish, shu oilaga munosib bo'lish hislarini tarbiyalasa, ikkinchidan, o'quvchilarda fikrlash, mulohaza qilish, erkin mushohada yuritish qobiliyatining shakllanib borishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, o'quvchilar qanday sehrli so'zlarni bilib olganliklarini bilish uchun dars yakuniga yana bir marta mavzuni mustahkamlashga vaqt ajratiladi.

2-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Ziyorat odobi" mavzusini o'qitishda "**Tarmoqlar**" (Klaster) usulidan foydalanish mumkin. Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi bo'lib, klaster usuli 2-sinf o'quvchilarini ushbu mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. O'quvchilar klasterning maketini tayyorlab markaziga "O'tmishda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz" deb yozib qo'yadi. O'quvchilar navbat bilan o'zlari bilgan allomalarning nomini aytib tarmoqlashni davom ettiradilar. O'quvchilarning fikrlari jamlanib bo'lgach, o'qituvchi ushbu allomalar merosi haqida kengroq hikoya qiladi.

Bu usuldan biroz boshqacharoq tarzda ham foydalanish mumkin. Ya'ni doskaga tarmoqlash chizmasi chizilib, har bir tarmoqqa bittadan mutafakkirlarning rasmini joylashtiradi. O'quvchilar har qaysi allomaning ismini topishga va uning merosi haqida so'zlab berishga harakat qiladilar. O'quvchilarning javoblari tinglab bo'lingach, o'qituvchi ularni to'ldiradi.

Mazkur usul o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatish bilan birga ularning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun ham xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

2-sinf Tarbiya fani dasturidan o'rin olgan "Sog' tanda sog'lom aql" mavzusini o'qitishda xalq maqollaridan unumli foydalanib, maqollar asosida "**Jumlani davom ettiring**" usulini qo'llash tavsiya etiladi.

Ushbu usulni qo'llash jarayonida o'qituvchi sihat salomatlik, sog'liqni saqlash haqidagi xalq maqollarining birinchi qismini aytadi, o'quvchilar uni davom ettiradilar. Masalan: o'qituvchi: -Sog' tanda...desa o'quvchilar-sog'lom aql deya, -Salomatlik...desa -tuman boylig deya, Dorining achchig'i yaxshi desa so'zning-shirini deya davom ettirishlari lozim. Jumlani to'g'ri davom ettirgan o'quvchiga rag'bat kartochkasi berib boriladi. Eng ko'p rag'bat kartochkasi to'plagan o'quvchi g'olib chiqadi. Dars yakunida o'qituvchi dars davomida ishlatilgan maqollarning mazmunini tushuntirib beradi.

Bu metod o'quvchilarda ziyaklik, donolik va topqirlikni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda so'zlarning mazmun-mohiyatini anglab etish ko'nikmasining shakllanishiga va so'z boyliglarini oshirishga yordam beradi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchi-yoshlar dars jarayonida o'z fikrlarini, g'oyalarini aytishdan cho'chishmasa, serg'ayrat, shijoatli bo'lishsa, o'zgalarni fikrini hurmat qila olishsa darslar o'z samarasini berishi aniq.[6]

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr dagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-son qarori.

4. Pedagogika / A.Q.Munavvarovning tahriri ostida.-T.:O'qituvchi,1996-200.B.

5. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent, 2010.

6. Abdullayeva Sh. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2021.

#### **YANGI O'ZBEKISTON G'OYASIDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI**

Iroda Tojiyeva Sadatovna  
Qashqadaryo viloyati PYMO`MM  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston g'oyasida uzluksiz ma'naviy tarbiyaning me'yoriy huquqiy asoslari to'g'risida ma'lumot beriladi

**Kalit so'zlar:** me'yoriy-huquqiy hujjatlar, farmon, qaror, farmoyish, xalq ta'limi tizimi, ustuvor yo'nalishlar, ta'lim jarayoni, xalqaro hamkorlik.

Tan olib aytish kerak, bugungi jadal globallashuv, innovatsion taraqqiyot sharoitida dunyo hamjamiyati sahnida raqobatbardosh mamlakatga aylanayotgan, yangilanayotgan O'zbekiston davlati va jamiyati oldiga qator milliy va umuminsoniy vazifalarni yuklamoqda. Bu ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar singari, ta'lim-tarbiya borasiga ham bevosita tegishlidir.

Jumladan, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. [1]

Mazkur ezgu g'oyalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son [2] va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarorlari [3] hamda 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-422-sonli [4] qarorlari, davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida umumta'lim maktablarida Tarbiya fanini yanada kengaytirishga oid vazifalar belgilab berilgan bo'lib mamlakatimiz hukumati tomonidan ulkan sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Ushbulardan biri, shubhasiz, muhtaram Prezidentimizning bevosita tashabbuskorligida davr talabiga javob beradigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ta'minlangan, xalqaro tajriba va interfaol uslublardan unumli foydalanilgan Tarbiya fanining yaratilishi hamda undagi go'zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlarni yosh avlodga o'qitish va uqtirishdir.

Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehri va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qati'yatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish sanaladi.

Bunda Tarbiya o'qituvchilaridan yosh avlod ong-u shuurida:

- mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning yashirin salohiyatini yuzaga chiqarish;
- muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;
- burch va mas'uliyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, mustahkam ezgu e'tiqod, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik singari go'zal fazilatlarini shakllantirish talab etiladi.

Shu bilan birga, o'quvchilar o'rtasida kuzatilayotgan ayrim salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olishdagi ishlar samaradorligini oshirish ham nazarda tutiladi.

Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida odob-axloq borasida yagona Tarbiya fanining joriy etilishi barkamol avlod, vatanparvar fuqaroni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Aksincha, bunday tizimga ega bo'lmagan jamiyatda zo'ravonlik, axloqsizlik, razolat ildiz otadi. Va, oxir-oqibat, bu jamiyat tarbiyasizlik, tubanlik botqog'iga botadi.

Tarbiya fanini samarali o'qitishning turli innovatsion metodlari o'quvchilarni mustaqil faoliyati, erkin va tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini ravon ifoda etishiga zamin yaratishi juda muhim. Tarbiya o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirlarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetentsiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/docs/5841063>

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qarori.



3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabr*da*gi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-1059-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-422-son qarori.

## **TALABALAR RITORIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI**

Jo‘rayeva Mohira Yunus qizi

QDU o‘qituvchisi

[joraeva.mohira@mail.ru](mailto:joraeva.mohira@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nutqni rivojlantirishga tarixiy yondashuvlar tahlil qilinib, talabalarning ritorik ko‘nikmasini rivojlantirish o‘rganib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar.** Nutq, ritorika, nutqni rivojlantirish, nutqni anglash, pedagogik ritorika.

**Аннотация.** В данной статье анализируются исторические подходы к развитию речи и изучается развитие риторических навыков учащихся.

**Ключевые слова.** Речь, риторика, развитие речи, понимание речи, педагогическая риторика.

**Abstract.** This article analyzes historical approaches to the development of speech and studies the development of students' rhetorical skills.

**Key words.** Speech, rhetoric, speech development, speech comprehension, pedagogical rhetoric.

Bizning yurtimizda nutq o‘stirishning ahamiyatini anglash va uni o‘stirishga bo‘lgan harakatlar ancha ilgari boshlangan va ta’lim taraqqiyoti davrida hamisha dolzarb masalalardan bo‘lib kelgan. Jumladan, eski maktablarda qiroatxonlikning keng miqyosda yo‘lga qo‘yilishi hamda o‘qitishda usuli tahajji, usuli maddiya, usuli savtiyaga amal qilinishi nutq o‘stirishga xizmat qilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida usuli jadid maktablari uchun yaratilgan “Ustodi avval”, “Sabzazor”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Rahbari najot”, “Risolai asbobi savod”, “Qiroat kitobi”, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida ham nutq o‘stirish yetakchi o‘rin tutgan[1]. Maktabdor domlalar o‘z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga dars berganlar. O‘zbekistondagi o‘qitishning o‘ziga xos usullarining rivojlanib borishi silliq kechmagan. Ba’zi xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Shu jumladan, XX asrning 20- yillarida maktabni rivojlantirishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o‘rganish tizimi buzildi: Grammatik, orfografik ko‘nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o‘rgatishda yaxlit so‘z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta‘minlamadi, puxta, to‘g‘ri yozuv uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentyabr “Boshlang‘ich va o‘rta maktab haqida”gi, 1932-yil 25-avgust “Boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘quv dasturlari rejimi haqida”gi qarorlar yuqoridagi kabi yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o‘quv mashg‘ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o‘quvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi[2]. Shuningdek, bu haqida U.Dolimovning “Turkistonda jadid maktablari[3]” nomli kitobida qiziqarli dalillar keltirilgan. Ko‘rinadiki, nutq o‘stirish va uning asosida turuvchi savod o‘rgatish muammosi uzoq tarixga ega. Mamlakatimiz ta’lim va tarbiya berish tarixida savod chiqarish muammosi tabiiy sur‘atda hamisha ilg‘or fikrli ziyolilarning e‘tiborini jalb qilgan va keskin qarama-qarama qarshiliklar, turli yondashuvlar va izlanishlarga asos bo‘lgan.

Ritorikada hozirda **ikki muammo** mavjud: 1. Nutq madaniyati va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish; 2. Umumiy ritorika va uning turlarini o‘rgatish. Bu muammolarning birinchisi til bilimi va malakasi o‘rtasidagi bog‘liqlik bilan bog‘liq. Ritorik nuqtayi nazaridan til haqidagi bilim lingvistik birliklarni bilish sifatida ham taqdim etiladi va tilni o‘zlashtirish - nutq mazmunini hosil qilish, nutqni tartibga solish, stilistik nutq vositalarini



yaratish va ulardan foydalanish, nutqni ijro qilish va yozish qobiliyatidir. Nutq madaniyatiga o'rgatishning mohiyati bu talabani "critical thinking" ya'ni tanqidiy fikrashga va "creative thinking" ya'ni yaratuvchanlikka o'rgatgan holda nutqning kompozitsion shakllarini o'rgatishdan iborat. Y.V. Rojdestvenskiy Ritorik ta'limning ikkinchi muammosi ya'ni nutq madaniyatiga oid o'quv va metodik adabiyotlar yaratish bo'yicha uch toifali tuzilmani taklif qilgan. 1) umumta'lim tizimida nutq madaniyati; 2) maxsus ta'lim tizimida nutq madaniyati; 3) Oliy ta'lim tizimining filologik yo'nalishlariga nazariy fan sifatida. Shuningdek Y.V. Rojdestvenskiy fikricha pedagogik ritorika ikkita katta muammoni o'rganadi: 1. Ritorika maktabini yaratish; 2. Pedagoglar nutqini rivojlantirish. Ushbu dissertatsiya ishida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'quv adabiyotlar va metodik vositalar taklif qilinadi. Binobarin, bizning maqsadimiz pedagogik muloqot jarayonlari, dars mavzusi, maqsadi, darajasiga qarab nutq faoliyati mahsuloti sifatida muloqotning tarkibiy qismlarini yaratishda pedagogik kommunikativ ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, bo'lajak pedagoglarning nutq qobiliyatini lingvistik professional bilan birgalikda qobiliyatlariga muvofiq ravishda yuzaga chiqaruvchi asos bo'la oladigan pedagogik o'quv dasturi va metodlar majmuini yaratishdir.

Afsus bilan tan olishimiz kerakki, nutq ko'nikmasi nazariyasi va amaliyotining rivojlanishida biz Fransiya, AQSH, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlardan ortdamiz. Nutqni rivojlantirish va og'zaki nutq madaniyati rivojlanishi tarixan tarkib topgan ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liq edi. Hozirgi globalashuv jarayonida ritorika va nutq ko'nikmasiga katta qiziqish bildirilmoqda. Chunki insonlar nafaqat til haqidagi bilim, shu jumladan samarali muloqotning ahamiyatini tushunishlari ritorikaga professional bilimlar zarurligini angladilar. Buni nutqiy mahorat va nutq madaniyati muammolari bo'yicha olib borilayotgan izchil izlanishlar ham tasdiqlamoqda. Oliy o'quv yurtlarining nofilologik ta'lim yo'nalishi talabarlari uchun nutq madaniyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu jarayonda shakllanish va yangilanish davom etmoqda. Bo'lajak pedagoglarning nutqiy ko'nikmasini rivojlantirish o'quv jarayoni ya'ni darslarni sifat va mazmun jihatdan boyitishda muhim ahamiyatga ega. "Pedagog nutq madaniyatidan boshqa hech bir fan nutq kompozitsiyasini, nutq stilistikasini, nutq janrlarini, polemikani o'rgata olmaydi, kasbga oid muloqot madaniyatining shakllarini rivojlantirmaydi; ritorik nuqtayi nazardan muloqot madaniyatining shakllanganligi lingvistik matnlarni tahlil qila bilish, nutq mazmunini yaratish, nutqni tartibga solish, talaffuz qilish, eslab qolish, yozish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ritorik ta'limni til tartibiyasi bilan to'ldirib bo'lmaydi[5.37]".

Nutqni o'zlashtirish, nutqiy ta'sir qonuniyatlarini bilish, ularni qo'llay olish – shaxsning bo'lajak pedagoglarni o'z –o'zini kashf etish va rivojlantirish vositasidir. Ritorika maqsadga muvofiq, ta'sirchan nutq va muloqot madaniyati va san'ati – ritorik pedagogika sifatida azaldan mavjud bo'lgan[4.72]. Nutq bo'yicha o'rganishlar mazmuni quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi: 1. Nutqning maqsadiga ko'ra ommaviy nutq va notiqlik turlari; 2. Har hil turdagi muloqot ijrolarining tuzilishi haqida; 3. Lingvistik va ekstralingvistik ifoda vositalari haqida; 4. Muloqot jarayonida ijro texnikasi haqida; 5. Nutq san'ati tarixi haqida. T.K.Donskaya fikricha[61.164], har qanday mutaxassislik o'qituvchisi nutqining ta'sir etuvchi vazifasi "pedagog nutqi madaniyati tamoyillariga mos bo'lishi kerak. Uning mazmuni quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- 1) pedagogik muloqot psixologiyasi;
- 2) o'qituvchi nutqi faoliyati, o'qituvchi nutqining vazifalari;
- 3) muloqot uslublari, og'zaki aloqa vositalari;
- 4) og'zaki va yozma muloqot janrlari;
- 5) tarbiyaviy monolog va dialog, muhokama suhbatlari;
- 6) pedagogik notiqlik;
- 7) pedagogik etika va estetika – bularning barchasi birgalikda o'quvchilarning intellectual-nutq va intellectual- emotsional qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, yo'naltirish va ta'sir qilish jarayonida didaktik mantiqqa bo'ysunadi.

Zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga quyidagi tizimli yondashuv ularning nutqiy ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi – 1) oliy o'quv yurtlarida yozma va og'zaki nutq sohasida talabalarining kommunikativ ko'nikmalarini keng doirasini shakllantirish va takomillashtirishga e'tibor qaratish; 2) pedagogikaga nutqqa oid turlicha yondashuvlar shakllangan bo'lsada, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarining chet tilini o'rganish jarayonida nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha batafsil asos ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Darhaqiqat, ta'limiy g'oyalar tarixi taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o'stirishga alohida e'tibor berib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san'atining eng yuksak bosqichlar – qadimgi Rim va Gretsiyada yosh avlodni nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so'z kuchi yordamida ijtimoiy subyektlarga ta'sir o'tkazish, hatto, ijtimoiy guruhlarini ta'sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lishiga erishilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva F. N. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ilmiy-ommabor maqolalarni o'qitishning metodik imkoniyatlari Pedagogika fan. Bo'y. Fal. Dok. (RhD) ilmiy darajasini olish ushuni ...diss. - Bux. 2022.
2. “Она тили ўқитиш методикаси” фанидан маъруза матнлари / Тузув.: М.Тилавова, Б.Сапаева //www.google.co.uz\_strukturno-semanticheskie\_i\_kommunikativnye\_osobennosti\_passivnyx\_konstruktsij\_v\_tekste.pdf.
3. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: Университет, 2006. – 125 б.
4. Михальская А.К. О современной педагогической риторике //Педагогическое образование. -М.: МГПИ, 1990. Вып. 2. С. 72.
5. Горобец Людмила Николаевна. Формирование профессиональных коммуникативно-речевых умений студентов-нефилологов дисс. САНКТ-ПЕТЕРБУРГ 1998.

### **BOSHLANG'ICH SINIF TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA ASOSIY RANGLARNI BILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

Karimova Shaxlo Yo'ldoshevna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 3-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida asosiy ranglarni bilish kompetensiyasini shakllantirish borasida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich sinflar, rang-tasvir, **tasviriy san'at**, amaliy san'at asarlari, borliqni idrok etish, natura, rasm ishlash, bo'yoq.

Boshlang'ich sinflarda bolalar o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g'amgin, o'ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo'ladilar va ularni tasvirlaydilar. Boshlang'ich sinflarda borliq haqida suhbatlar o'tkazish o'quvchilarga hayotdagi ba'zi bir hodisalarni kengroq bilib olishlariga yordam beradi. Narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o'stirishga imkon yaratadi.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning maqsadi- boshlang'ich sinf** o'quvchilarida tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

-tasviriy va amaliy san'at asarlarini, badiiy hunarmandchilikni, me'morchilik va dizayn san'atiga oid tarixiy namunalarni hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga va amaliy faoliyatida qo'llashga o'rgatish;

-naturaning xarakterli jihatlarini ko'ra olishga, tahlil qilishga va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish;

-texnika va texnologiyalarning takomillashib borishi asosida fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda to'g'ri va ongli kasb tanlashga yo'naltirish;

-tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Tasviriy san'at fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishida umumlashgan holda, quyidagi tartibda o'qitiladi. 1 – 4 –sinf:

- tasvir ishlashga ijodiy yondashish;

- asosiy ranglar (qizil, sariq, ko'k)ni bilish;

- asosiy ranglardan hosila ranglarni hosil qilish;

- qalam, qog'oz, bo'yoq, mo'yqalam va loy, plastilin, stek (xaykaltaroshlik pichoqchasi)dan to'g'ri foydalanish usullarini bilish;

- tasvir mazmuniga ko'ra qog'oz holatini mos (tik yoki yotiq) tarzda tanlay olish.

Tasviriy san'at o'quv fani bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablar:

### **1. Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiya**

**A1.** naturaning shakli, hajmi, tuzilishini kuzata oladi;

sodda tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;

naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, amaliy ishda tasvirlay oladi;

tasviriy san'atning tur va janrlarini biladi hamda farqlay oladi;

perspektiva qoidalarini amaliy ishda qo'llay oladi.

**A1+** naturaning shakli, hajmi, tuzilishini tahlil qila oladi;

tasvir va haykallarni naturaning xarakterli jihatlarini asosida ishlay oladi;

naturaning xarakterli jihatlarini kuzata oladi, tahlil qila oladi; amaliy ishda tasvirlay

oladi.

### **Tasvir yoki haykalning bosqichlari ketma-ketligini to'g'ri bajarish kompetensiyasi**

**A1** - ish joyini to'g'ri tashkil eta oladi;

tasvirni qog'oz yuzasiga to'g'ri joylashtira oladi;

tasvirni ishlashda asosiy va hosila ranglarni to'g'ri qo'llay oladi;

sodda naturalarning shakl tuzilishi, rangi, olcham nisbatlari, fazoviy holatini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy ishda tasvirlay oladi.

**A1+** qog'oz, qalam va bo'yoqlarning bir-biriga mosligini to'g'ri tanlay oladi;

turli ko'rinishlar va holatlardagi chiziqni (shtrixni) chiza oladi;

sodda naturaning shakli, hajmi, tuzilishi, ishlashning o'ziga xos muhim tomonlarini ko'ra oladi va tasvirlash layoqatiga egallay oladi.

I-IV sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash, akvaril bo'yoqlaridan foydalaniladi va ularni esa aralashtirib ham ishlatish mumkin.

Dasturda qadimgi va hozirgi zamon o'zbek tasviriy san'atini o'rganishga alohida e'tibor berilgan bo'lib, u birinchi sinfdan boshlab oxirgi sinfgacha katta o'rinni egallaydi. Bunda har bir mashg'ulotda o'zber xalq amaliy san'ati, O'rta Osiyo va o'zbek tasviriy san'ati asarlari, hozirgi o'zbek tasviriy va amaliy san'ati namunalari keng foydalaniladi.

Mazkur o'quv predmetining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda amaliy san'at, xususan xalq amaliy san'tiga katta o'rin beriladi. Birinchi sinfdan boshlab turli naqsh namunalari chizdiriladi. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan naqsh sxemalari va elementlari asosida bolalar turli predmetlar uchun naqsh ishlaydilar. Mustaqil ravishda butunlay ijodiy naqshlar tuzadilar, dekorativ bezak ishlarini bajaradilar. Bu vazifalarni bajarishda bolalar asosiy e'tiborni dekorativ kompozitsiyalarni chiroyli ko'rinishda tuzish va rang-tuslarni to'g'ri tanlashga qaratadilar.

Borliqni idrok etish o'quvchilarning estetik didini, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari

odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkaziladi. Bunda mavzuga oid kompozitsiyaga tegishli muhim ob'yektlarni yaxshilab kuzatadilar.

Dasturda borliqni idrok etish mashg'uloti uchun maxsus o'quv soatlari ham ajratilgan. O'qituvchi o'z imkoniyati va sharoitidan kelib chiqib, darsni suhbat tarzida yoki amaliy mashg'ulot bilan qo'shib o'tkazishi mumkin.

Tabiat qo'yniga qilingan sayohat tarzidagi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ayrim ob'yektlarning xomaki rasmini oddiy qalamda yoki bo'yoqda ishlashlari mumkin. Mavzuli kompozitsiyalar ishlashda esa ana shu xomaki rasmlardan ham foydalaniladi.

Borliqni to'laqonli idrok etish, tevarak-atrofni, hayotdagi voqea va hodisalarni bevosita kuzatish asosida olingan taassurotlar, tushunchalar hamda atrof-muhitga nisbatan estetik munosabatda bo'lish singarilar bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich sinflarda bolalar o'simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlarni kuzatadilar, tabiatning turli fasllardagi ko'rinishlari, kayfiyati (quvonchli, g'amgin, o'ychan va hokazo) haqida tasavvurga ega bo'lalilar va ularni tasvirlaydilar. Boshlang'ich sinflarda borliq haqida suhbatlar o'tkazish o'quvchilarga hayotdagi ba'zi bir hodisalarni kengroq bilib olishlariga yordam beradi. Narsalarning shakli, tuzilishi, rangi kabilarni ma'lum miqdorda tahlil qilish va umumlashtirishdek muhim sifatlarni o'stirishga imkon yaratadi.

Naturaga qarab tasvirlash ikki turga bo'linadi:

a) naturaga qarab rasm ishlash; b) naturaga qarab haykal ishlash;

a) naturaga qarab rasm ishlash o'quvchilarda narsa va hodisalarning hajmi va fazoda joylashuvi, ularning bir muncha tirik belgilari haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, tasvirlash malakalarini o'stiradi.

Dars jarayonida o'quvchilar ishlanayotgan rasmning, tasvirlanayotgan narsaning mazmuniga mos kelishini e'tiborga olishlari, rasmda narsalarning o'lchov nisbatini, shaklini, rangini ko'ra bilish va to'g'ri aks ettira olishga, tasvirning estetik ifodaliligini his eta olishni o'rganib olishlari lozim. O'quvchilar rejaga qarab turli badiiy materiallardan foydalanishni bilishlari ham zarur.

I-II sinflarda asosiy vazifa o'quvchilarda narsalarni nisbati, tuzilishi, shakli, rang jihatdan tahlil qilish va tasvirlash malakasini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar avval tasvirlanayotgan narsaning umumiy va estetik jihatdan ahamiyatli tomonlarini aniqlab oladilar hamda narsaning qismlari va detallarni aks ettirishni o'rganadilar.

Naturaga qarab rasm chizish vazifalari 1-2 dars davomida qisqa muddatli (5-15 daqiqa davomida bajaradigan lavha va chizgilar) bo'lishi mumkin. Xomaki ish va chizgilar darsning muayyan mavzusidan kalib chiqib, darsning boshlanish qismi, o'rtasi yoki oxirida bajarilishi mumkin. O'quvchilarni ko'rib, eslab qolish qobiliyatini, makon haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish ularga eslab va tasavvur qilib rasm chizish bo'yicha ko'proq vazifa berishi kerak bo'ladi.

Naturaga qarab chizilgan rasmlarni bo'yash (ya'ni rang tasvir ishlash) ma'hg'ulotlarida bolalar e'tibori ranglar uyg'unligini idrok qilishni rivojlantirishga, akvarel va guash bo'yoqlari bilan asliga qarab, eslab qolib tassavvur qilib chizishga qaratilgan. Rang tasvir mashg'ulotlari o'quvchilarga idrok qilish orqali atrof- muhitning ranglarda ifodalangan go'zalligini bilish imkoniyatini berib, ularning ruhan o'sishiga ko'maklashadi, bolalarning estetik didini o'stiradi.

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida o'qituvchi bolalar e'tiborini tasvirlanayotgan ob'yektlarning nafis va go'zalligi, ranglarning hamohangligi, shakl munosabatligiga, tasvirlanayotgan buyumlar orasidagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik kabilarga qaratadi.

b) naturaga qarab haykal ishlash o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulot turi bo'lib, naturani ko'ra bilish, uning shaklini, hajmini, tuzilishi va o'lchov nisbatlarini to'g'ri olishga o'rgatadi. Shuningdek, bunday mashg'ulotlarda haykaltaroshlikda qo'llaniladigan material va asboblardan bilish yuzasidan muayyan bilim va malaka hosil qilinadi. Bulardan tashqari o'quvchilar tuzilishi jihatidan unchalik murakkab bo'lmagan haykallarni alohida-alohida va yaxlit loy bo'laklaridan ishlash yo'llarini ham o'rganadilar.

Bunday darslarda bololar hajmli va relyefli haykallar ishlaydilar. Natura uchun narsaning tuzilishi, rangi, proporsiyalari aniq ko'rinib turadiganlari tanlab olinadi. Natura chizish uchun qo'yilgach, uni har tomonlama diqqat bilan kuzatish, qismlarning o'zaro bog'liqligini va farqini taqqoslash orqali aniqlab olish zarur bo'ladi.

Haykaltaroshlik ishlarida natura hajmdor qilib tasvirlanayotganligi tufayli ish jarayonida turli tomonlarga aylantirib turiladi. Mashg'ulot o'tkazilatotgan xonada yorug'lik chap tomondan tushishi va naturaning shakli yaqqol ko'rinib turishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dars uchun kerakli natura topilmagan yoki uni sinfga olib kirish imkoni bo'lmagan taqdirda ularning rasmini ishlash, tashqarida kuzatish yoki rasmiga qarab amalga oshiriladi. Tasviriy san'atda, ayniqsa rang tasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmunini va g'oyasini ochilishiga uning tomoshabinga emotsional ta'sirini kuchaytirishga, shuningdek kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.

2. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.

## **KIBERPEDAGOGIKADA BULUTLI TEXNOLOGIYALARNING XUSUSIYATLARI**

### **ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КИБЕРПЕДАГОГИКЕ CHARACTERISTICS OF CLOUD TECHNOLOGIES IN CYBERPEDAGOGY**

Yangi asr universiteti

“Umumta'lim fanlari” kafedrasini mudiri

PhD, dotsent Bekchonova Shoira Bazarbayevna

e-mail: [bshb79@mail.ru](mailto:bshb79@mail.ru)

tel: +998(90)9341147

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning xususiyatlari, beriladigan imkoniyatlar, bulutli texnologiyalarning afzalliklari, kamchiliklari va ta'lim berish jarayonidagi pedagogika va kiberpedagogikadagi farqlari yoritib berilgan.

**Kalit soz'lar:** pedagogika, kiberpedagogika, xususiyat, kamchilik, afzallik, farq, ta'lim, talaba, bulutli texnologiya.

**Аннотация:** В данной статье освещены особенности облачных технологий в педагогике и киберпедагогике, преимущества и недостатки облачных технологий, а также различия педагогики и киберпедагогики в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** педагогика, киберпедагогика, особенность, недостаток, преимущество, отличие, образование, студент, облачные технологии.

**Abstract :** This in the article pedagogy and in cyber pedagogy cloudy of technologies features , cloudy of technologies advantages , disadvantages and education to give in the process pedagogy and in cyber pedagogy differences light up given

**Key words :** pedagogy , cyberpedagogy , feature , disadvantage , advantage , difference , education , student , cloud technology

Bulutli hisoblash 1990-yillarning boshlarida Internet joriy etilgandan beri eng muhim texnologiya transformatsiyasidir. Ko'proq kompaniyalar va ta'lim muassasalari bulutli IT infratuzilmasini o'zlashtirishni rejalashtirayotganligi sababli, bugungi mehnat bozori bulutli hisoblashni tushunadigan va bulutga asoslangan tarmoqlarni ishlab chiqishda amaliy tajribaga ega bo'lgan IT mutaxassislarini talab qiladi.

Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning integratsiyalashuvi ta'lim landshaftiga sezilarli yutuqlar va o'zgarishlar olib keldi. Ushbu ta'lim sohalarida bulutli

texnologiyalardan foydalanishda pedagogikada va kiberpedagogikada berilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar:

Pedagogika:

- *Kengaytirilgan foydalanish imkoniyati*: Bulut texnologiyalari ta'lim resurslarini talabalar va o'qituvchilar uchun qulayroq qilib, jismoniy sinflar doirasidan tashqarida o'rganish imkonini berdi.

- *Yaxshilangan hamkorlik*: virtual hamkorlik va bulutli platformalar yordamida amalga oshirilgan guruh loyihalari talabalar va o'qituvchilar o'rtasida jamoaviy ish va muloqotni yaxshiladi.

- *Masshtablilik va moslashuvchanlik*: Bulutli xizmatlarning kengaytirilishi ta'lim muassasalariga o'zgaruvchan ehtiyojlar asosida resurslarni moslashtirishga imkon beradi, o'quv dasturlarini yetkazib berish va talabalarni jalb qilishda moslashuvchanlikni taklif qiladi.

- *Iqtisodiy samaradorlik*: Bulutli texnologiyalar maktablar va universitetlar uchun infratuzilma xarajatlarini soddalashtirib, sifatli ta'limni taqdim etish uchun tejamkor yechimlar yaratish imkonini berdi.

Kiberpedagogika:

- *Masofaviy ta'lim imkoniyatlari*: kiberpedagogika onlayn platformalar va virtual sinflar orqali masofaviy ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish orqali ta'limda inqilob qildi.

- *Innovatsion ta'lim strategiyalari*: Bulut texnologiyalari o'qituvchilarga o'zgaruvchan sinflar, virtual laboratoriyalar va interaktiv simulyatsiyalar kabi innovatsion o'qitish strategiyalarini amalga oshirish imkonini berdi.

- *Shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribalari*: Talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv tajribalari bulutli texnologiyalar tomonidan quvvatlanadigan moslashuvchan o'quv platformalari orqali amalga oshiriladi.

- *Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish*: Bulutga asoslangan tahlil vositalari o'qituvchilar faoliyati haqida tushuncha beradi, bu esa o'qituvchilarga o'qitish amaliyotini yaxshilash uchun ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bulutli hisoblash tarmoqlari: nazariya, amaliyot va rivojlanish asosiy tarmoq va tizim boshqaruvi tushunchalarini hamda bulutli texnologiyani o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi.

Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalar sohasini o'rganuvchi olimlar va mutaxassislar tomonidan yozilgan bir nechta kitoblar mavjud. Mana bu sohadagi ba'zi mashhur kitoblar:

1. Meikang Qiu, Danda B. Rawat, Min Song tomonidan " Cloud-Based Technologies in Cyber Physical Systems (Kiber jismoniy tizimlarda bulutga asoslangan texnologiyalar)" - Bu kitob bulutli hisoblash va kiber-fizik tizimlarning ilovalarini muhokama qiladi, bu texnologiyalarning turli sohalarda, jumladan, ta'limda kesishishini o'rganadi[1].

2. Thirunarayanan Venkat Raman tomonidan tahrirlangan "Handbook of Research on Cloud-Based STEM Education for Improved Learning Outcomes (Takomillashtirilgan ta'lim natijalari uchun bulutga asoslangan STEM ta'limi bo'yicha tadqiqotlar bo'yicha qo'llanma)" – Ushbu qo'llanma bulut texnologiyalari STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini qanday yaxshilashi haqida tushuncha beradi va takomillashtirish strategiyalarini taklif qiladi. ta'lim natijalari[2].

3. Li Chaoning " Educational Cloud Computing: An Essential Guide to the Higher Education IT Marketing (Ta'lim uchun bulutli hisoblash: Oliy ta'lim IT marketingi uchun muhim qo'llanma)" - Bu kitob oliy ta'limda bulutli hisoblashni tatbiq etishga qaratilgan bo'lib, bulutli texnologiyalarni ta'lim sharoitlariga integratsiyalashning afzalliklari, muammolari va ilg'or tajribalari haqida batafsil ma'lumot beradi[3].

4. Wenhao David Huangning "Teaching and Learning with Technology: Beyond Constructivism(Texnologiya yordamida o'qitish va o'rganish: konstruktivizmdan tashqari)" asari - zamonaviy ta'limda raqamli vositalarning rolini ta'kidlab, an'anaviy konstruktivistik usullardan tashqari ta'lim va ta'lim yondashuvlarida bulutli texnologiyalarning integratsiyasini o'rganadi[4].

5. Bajrektarevic Anis X. va Ba Yu Kay tomonidan tahrirlangan " Cyber Education: The Future of Learning (Kiber ta'lim: ta'limning kelajagi)" - Bu kitob bulutli hisoblash, virtual sinflar va onlayn resurslarning ta'limga ta'sirini muhokama qilib, kibertexnologiyalar orqali ta'lim kelajagini o'rganadigan muhit[5].

Ushbu kitoblar bulutli texnologiyalar pedagogika va kiberpedagogikani qanday shakllantirayotgani haqida qimmatli tushuncha va istiqbollarni taklif etadi, o'qituvchilar va tadqiqotchilarga ta'lim sohasida raqamli vositalardan foydalanish uchun zarur bilimlar beradi.



Bulutli texnologiyalarning xususiyatlari

Masshtablilik  
Moslashuvchanlik  
Tejamkorlik  
Foydalanish  
imkoniyati  
Ishonchlilik  
Xavfsizlik  
Avtomatlashtirish  
Elastiklik  
Falokatni tiklash  
Hamkorlik

*1-rasm. Bulutli texnologiyalarning xususiyatlari*

Bu xususiyatlar zamonaviy IT muhitlarida bulutli texnologiyalarning mashhurligi va muvaffaqiyatiga yordam beradi. Tashkilotlar ushbu xususiyatlardan operatsiyalarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va raqamli davrda moslashuvchanlikni yaxshilash uchun foydalanadilar [6].

Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning xususiyatlari:


1. *Foydalanish imkoniyati:* Bulut texnologiyalari ta'lim resurslari va vositalariga istalgan joydan, istalgan vaqtda qulay foydalanish imkonini beradi.

2. *Hamkorlik:* Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida uzluksiz hamkorlikni ta'minlaydi, interaktiv va qiziqarli ta'lim tajribasini rivojlantiradi.

3. *Masshtablilik:* Bulutli platformalar moslashuvchanlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlab, ta'lim muassasalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda resurslarni kengaytira oladi.

4. *Ma'lumotlar xavfsizligi:* Bulut xizmatlari talabalarning nozik ma'lumotlarini himoya qilish va maxfiylik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash uchun mustahkam xavfsizlik choralarini taklif qiladi.

5. *Masofaviy ta'lim:* ma'ruzalar, topshiriqlar va virtual sinflar uchun onlayn platformalar taqdim etish orqali masofaviy ta'limni osonlashtiradi[8].



2-rasm. Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari

*Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning afzalliklari:*

1. *Tejamkorlik:* Ta'lim muassasalari uchun infratuzilma va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish.

2. *Moslashuvchanlik:* Turli xil o'qitish va o'rganish ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtiriladigan echimlar.

3. *Kengaytirilgan hamkorlik:* hatto virtual muhitda ham talabalar o'rtasida jamoaviy ish va guruh loyihalarini targ'ib qiladi.

4. *Resurslarga kirish:* Internetga ulangan istalgan qurilmadan o'quv materiallari, asboblari va ilovalariga osongina kirish imkoniyatini beradi.

5. *Ma'lumotlarni zaxiralash va tiklash:* Avtomatik ma'lumotlarni zaxiralash va tiklash imkoniyatlari o'qitish va o'quv faoliyatida uzluksizlikni ta'minlaydi.

*Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarning kamchiliklari:*


1. *Internetga ulanishga bog'liqlik:* Internetga ulanishga bog'liq, bu tarmoq qamrovi zaif hududlarda cheklov bo'lishi mumkin.

2. *Ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq muammolar:* Agar bulut xizmatlari to'g'ri ta'minlanmagan bo'lsa, potentsial xavfsizlik buzilishlari va maxfiylik muammolari.

3. *Texnik nosozliklar:* Ta'lim va o'qitish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki texnik muammolar.

4. *Integratsiya muammolari:* bulutli texnologiyalarni mavjud ta'lim tizimlari va amaliyotlari bilan integratsiyalashda qiyinchiliklar.





## 5. Ta'lim

ehtiyojlari: O'qituvchilar va talabalar bulutli vositalar va platformalardan samarali foydalanish uchun treningni talab qilishi mumkin.

*-rasm. Bulutli texnologiyalarda pedagogika va kiberpedagogika o'rtasidagi farqlar*  
*Bulutli texnologiyalarda pedagogika va kiberpedagogika o'rtasidagi farqlar:*

1. Pedagogika: An'anaviy o'qitish usullari va amaliyotlariga e'tibor qaratadi, sinfdagi o'zaro ta'sir va topshiriqlarni yaxshilash uchun bulutli texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

2. Kiberpedagogika: virtual sinflar, vebinarlar va raqamli baholashlar uchun bulut vositalaridan foydalangan holda onlayn ta'lim va o'rganishga urg'u beradi.

3. Pedagogika: bulutli platformalardan qo'shimcha onlayn resurslar bilan yuzma-yuz o'qitish markazlari.

4. Kiberpedagogika: Asosan virtual muhitda barcha o'quv va o'quv faoliyati uchun bulutga asoslangan ilovalardan foydalangan holda olib boriladi[7].

Bulutli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar an'anaviy pedagogik sharoitlarda yoki kiberpedagogika sohasida talabalar uchun dinamik va qiziqarli o'rganish tajribasini yaratishi mumkin.

- Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalardan foydalanish an'anaviy ta'lim chegaralaridan tashqarida bo'lgan dinamik va interaktiv o'quv muhitini ta'minladi.

- Bulutli texnologiyalar talabalar va o'qituvchilar uchun o'qitish va o'rganish tajribasini yaxshilaydigan kengaytirilganlik, foydalanish imkoniyati va hamkorlik xususiyatlarini taklif qiladi.

- Ta'limning kelajagi zamonaviy talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan qiziqarli, shaxsiylashtirilgan va moslashtirilgan o'quv muhitlarini yaratish uchun bulutli texnologiyalarning uzluksiz integratsiyasida yotadi.

Pedagogika va kiberpedagogikada bulutli texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanish orqali ta'lim muassasalari raqamli asrga moslashtirilgan, qulay, qiziqarli va yuqori sifatli ta'limni taqdim etish imkoniyatlari dunyosini ochadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Chong Li, Meikang Qiu. Reinforcement Learning for Cyber-Physical Systems. <https://doi.org/10.1201/9781351006620>. New York -2019.256 p

2. Lee Chao. Handbook of Research on Cloud-Based STEM Education for Improved Learning Outcomes. University of Houston - Victoria, USA-2016. 518 p
3. Lee Chao. Cloud Computing for Teaching and Learning: Strategies for Design and Implementation. University of Houston-Victoria, USA. SCOPUS. April, 2012. Pages: 357
4. Prof. Dr. Anis Bajrektarevic, Professor and Chairperson in International Law and Global Political Studies, International Institute IFIMES, Vienna. Cyberspace: Between Legal and Security Challenges, Socio-economic Opportunities and Moral Dilemmas. [https://www.thomas-schmitz-yogyakarta.id/Events/Guest-lecture\\_cyberspace-challenges.htm](https://www.thomas-schmitz-yogyakarta.id/Events/Guest-lecture_cyberspace-challenges.htm)
5. Melda Kamil Ariadno; Anis H. Bajrektarevic, Twinning Europe and Asia in Cyberspace: The EU legislation, ASEAN and its transformative power, AEI Insights 5 (2019). no. 1; Anis H. Bajrektarevic; Melda Kamil Ariadno, GDPR: Humanizing cyberspace, The Jakarta Post 02.01.2019, p. 6
6. Aufzählung Right to privacy in cyberspace: special website of the OHCHR, Resolution 68/167 of the UN General Assembly on "The right to privacy in the digital age", Juliane Damen; Lena Köhler; Sean Woodard, The Human Right of Privacy in the Digital Age, 2017
7. Lennon Chang, Cybercrime and Cyber Security in ASEAN, in: Jianhong Liu; Max Travers; Lennon Chang (editors), Comparative criminology, 2017, p. 135 ff.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIM VA TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Mamayeva Muxabbat Dilshodovna

Qashqadaryo viloyati,

Chiroqchi tumani 3-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annovatsiya.** Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida didaktik o'yinlarning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Didaktik o'yinlar, ta'lim samaradorligi, o'yin malakalari, o'quvchilar harakati, qiziqish.

Bolalarga har bir o'yinni o'rgatishda muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yinning o'tkazilish formalari va usullari bilan ta'limning boshqa turlaridan farq qiladigan o'yinlar ta'lim berish jihatidan ham katta ahamiyatga egadir.

Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan, biz «Jimjitlik» o'yinining 5—7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik; «Nima o'zgardi» tipidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi va hokazo. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan va shu singari o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning zehnan o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar

faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan o'ynaydilar, o'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Masalan, «Doiraviy misollar» o'yinida hamma bolalar masala yechadi, «Zanjircha»da 10, «Do'koncha»da 8—12 bola, «Narvoncha» da esa qariyb hamma o'quvchilar masala yechadilar va hokazo.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari bevosita ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar vositasida bivosita qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar, «Eng yaxshi hisobchi», «Kim aniqroq va tezroq» va shu o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar.

O'yin paytida bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning paydo bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Bu o'yinlarda bolalarning o'z-o'zlarini boshqara, bilishga o'rganishlarini ta'kidlab o'tgan edi. Bu o'yinlar bolalarni intizomli qiladi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. “Kim aniqroq va tezroq”, “Bo'sh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Ko'rganni eslab qolish diktanti” singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10—15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlarini bajonudil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatkashlik hissini tarbiyalash va taraqqiy ettirishga yordam beradi. “Kim turgan saf yaxshiroq”, “Zanjircha”, “Narvoncha”, “Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin” singari o'yinlar o'tkazilayotganda bolalar o'z o'rtoqlari, o'zi turgan saf va o'z sinflarining sharafi uchun kurashadilar.

Bir safga tizilganlar ikkinchi safda turgan o'quvchilar bilan musobaqalashayotganda topshiriqni saflardan birining bitta o'quvchisi yoki bir necha o'quvchilari, yoxud butun bir saf bajaradi. Odatda bolalar o'z sheriklariga dalda berib turadilar, agar o'rtoqlari topshiriqni to'g'ri bajarsa, o'ndan behad xursand bo'ladilar va u bilan faxrlanadilar. Shuni ham aytish kerakki, o'yin o'tkazilayotgan paytda bolalarda hasad, qizishib ketish singari salbiy xislatlar uchramaydi.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxs tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin, o'ning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi, uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik o'yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Masalan, “Doiraviy misollar” o'yinida oltita misolning hammasini yechish kerak, aks holda, oxirgi sonning

birinchisiga to'g'ri kelish-kelmasligini bilib bo'lmaydi. Ana shuning o'zi bolalarni aktivlashtirib yuboradi va ular misolni yechmay qo'ymaydilar.

“Do'koncha” tipidagi o'yinda o'yinchoqlar “sotib olish” ning o'zi bilan ish bitmaydi, balki bir necha o'yinchoqlar narxini hisoblab (qo'shib) chiqishga, necha pul “qaytarib” berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishga ham to'g'ri keladi. Bolalar “Qiziqarli kvadratlar” o'yinida murakkab matematik amallarni bajaradilar. Bunda o'quvchilarga bir yo'la bir necha amallarni bajarishga, chiqqan natijalarni taqqoslashga, bajarishilishi mumkin bo'lgan natijalar tug'risida o'ylab ko'rishga va noto'g'ri hisobdan voz kechishga to'g'ri keladi. Bularning hammasi tez, zo'r qiziqish va aqliy faoliyat bilan o'tadi. Katta, chiroyli to'pni ko'rgan o'quvchilarda tortinchoqlik yo'qola borib, ular dastlab qo'rqa-pisa, keyinchalik esa dadillik bilan sonlarni o'ylab topishga kirishadilar. O'yin jarayonida bolalarda tevarak-atrof haqida to'g'ri tushuncha paydo bo'lardi, bu esa bolalarga topshiriq mazmunini (mustaqil o'ylab topish paytida) xilma-xil qilishga yordam beradi. “Do'koncha”, «Nimani taqillatdim?», «Teatr», «Bolalar bog'chasida mehmondorchilikda» singari o'yinlarda bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, narsalarning sifatini, og'irlik o'lchovi, narx-navolar va boshqalarni bilib olardilar. Ularda fazoviy tasavvurlar mustahkamlanadi. Didaktik o'yinlar, ayniqsa bolalar ham, o'qituvchi ham uyinning qanday o'tishiga qiziqqan paytlarida o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi. O'qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yotsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar, ayniqsa dastlabki kunlarda bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi. Sinfdan tashqarida o'ynatiladigan o'yinlar bolalarning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish vositasidir. «Bo'g'inlar», «Sanayver», «Qiziqarli kvadratlar» kabi o'yinlarni o'ynaganlar, boshqa ko'pgina o'yinlardan esa qo'shimcha mashg'ulotlarda unumli foydalaniladi. Bolalar, jon-dillari bilan darsdan keyin qolishga rozi bo'ladilar va o'zlariga berilgan topshiriqni tezda bajaradilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2010.
2. Tajiyev M. Va boshqalar. Pedagogik texnologiya – ta'lim jarayoniga tatbig'i. – Toshkent: “Tafakkur”, 2010.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – T.:Iqtisod-moliya, 2011.
4. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Tafakkur”, 2011.

### **TEKNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Xalimov Xasan G'ulomovich  
QashqadaryoVPYaMO'MM amaliy fanlar  
va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi  
kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada kompetentsiyaviy ta'lim tushunchasi, texnologiya fani darslarida axborot texnologiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirish haqida ilmiy farazlar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar va tushunchalar:** kompetentsiyaviy ta'lim, kompetentlik, ijodiy faoliyat, mehnatsevarlik, axborot texnologiyalari.*

### **DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCE SKILLS FOR WORKING WITH INFORMATION IN TECHNOLOGY LESSONS**

**Abstract:** *This article describes the concept of competence education, scientific hypotheses about improving the quality of education using information technologies in technology classes and developing students' competence skills for working with information*

**Key words:** *competence education, competence, creative activity, hard work, information technologies.*

Zamonaviy ta'limning muhim jihati yosh avlodni o'zgarayotgan dunyoga mos barkamollik fazilatlarini bilan tarbiyalash bo'lib, innovatsion ta'lim metodologiyasida kompetensiyaviy ta'lim dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun esa o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish va qo'llash talab qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiyafani darslarida axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ishlari keng ko'lamda yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori asosida umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Bu qarorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashish, o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish masalalari asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ma'lumki texnologiya fani darslari maktab o'quvchilariga texnika, texnologiya, ishlab chiqarish asoslari haqida ma'lumot va tushunchalar berishda, ularni turli kasb-hunarlariga yo'naltirishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda maktablardagi barcha fanlar bo'yicha kompetensiyaviy ta'limning yangi pedagogik texnologiya metodlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarning yoshi, jinsi, qiziqishi kabi jihatlarni hisobga olgan holda tuzilmoqda va darslar tashkil etilmoqda. Shu ma'noda o'quvchilardagi texnologiya fani bo'yicha kompetensiyaviy talim texnologiyalari o'ziga xos jihati va xususiyatlari bilan mutaxassislarni qiziqitirib kelmoqda. Eng avvalo kompetensiyaviy ta'lim deganda o'quvchida mavjud vaziyatga qulay yo'l bilan moslashish, murakkab vaziyatdan chiqish uchun bir necha variantdan eng maqbulini tanlay olish layoqati, o'zaro munosabatlarda faol aloqaga kirishish va undan o'z manfaati erkinliklarini namoyish etish san'ati deb ham tushunish mumkin.

Texnologiya fani yoshlarning ma'naviy-ahloqiy sifatlarini, mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish, atrof- muhitga ongli munosabatini tarbiyalash, to'g'ri va ongli kasb-hunar tanlashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda texnologiya fani rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda, bu jarayonga har birimiz o'z hissamiz bilan ishtirok etishimiz mumkin. Zero, mehnat qilish hayotimizning ajralmas qismidir, mehnat jarayonida insonning qobiliyati va iqtidori namoyon bo'ladi, bilimlari yanada boyiydi, irodasi chiniqib boradi. Har bir o'quvchi maktab davridan o'zini mehnatga, bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlab bormog'i lozim. Buning uchun mehnatsevarlik, ijodkorlik, tirishqoqlik, intizomlilik, berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashish kabi sifatlarini o'quvchilarga tushuntirib, singdirib borish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir.

Kompetensiyaviy ta'lim – o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini o'zaro shaxsiy, ijtimoiy munosabatlarida amaliy qo'llash kompetensiyasiga yo'naltirilgan ta'limdir. Chunki, texnologiya fanidan olgan nazariy bilimlaridan hayotda foydalana olish layoqatiga ega bo'lmog'i kerak. Bolalar o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarga kirishishi, o'z mavqeini jamiyatda anglay boshlashi, aloqalar qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'z muammolarini yechimini topishi, eng kam sarf-harajat bilan yuqori foyda olishni,

sog'lom va qonuniy yo'lini aniqlash qobiliyati tayanch kompetentsiyalarga egaligini asosiy ko'rsatkichlaridir. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, uni bayon etish qobiliyati ijtimoiy faollik, ayniqsa tashabbuskorlik fazilatlarini, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, kasb-hunarga qiziqish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan o'quvchining madaniy qiyofasini yuksaltirishdan iboratdir. Bu mashg'ulotlarda tayanch kompetentsiyalar yordamida shaxsning kommunikativ qobiliyati, axborot bilan ishlash asosida o'z-o'zini rivojlantirish layoqati o'sadi. Chunki, o'quvchi fanning o'ziga xos kompetentsiyalarini egallab, murakkabroq ishlarni: gazlamalarning xususiyatlarini, ularga ishlov berishni, pazandachilik sirasrorlarini, qolaversa, qishloq xo'jaligi sohasiga oid ko'pgina bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. E'tirof etish lozimki, texnologiya fani kompetentsiyaviy ta'limi o'zga fanlar tizimi bilan uzviy aloqadorlik va rivojlanish holatida shakllanadi. Ushbu ta'limning yana bir jihati shaxsning mintaqaviy fikrlash qobiliyatini o'sishi, mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan fikriy bog'lash asosida fanning talablari darajasida malakalarni hosil qilish, soha bo'yicha kasb-hunarlarni ajrata olish ham muhimdir. Ikkinchi bir tomoni shuki, texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni to'la qamrab olish, interfaol usullardan foydalangan holda barcha o'quvchilarni jalb qilish ijobiy natija beradi.

Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalardan darslar davomida foydalanib borish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida muhim rol o'ynashi nazarda tutilmoqda. Darslar jarayonida o'quvchilar o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig'i asosida o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda shug'ullanishlari, shu bilan birga ularning o'z oldiga qo'yilgan maqsadiga erishishda ongli ravishda intilishlari talab etiladi. O'quvchilar ishlarini mustaqil nazorat qilishda boshqa nazorat usullari bilan birga olib borilsa, ancha yuqori natijalar kutilishi mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar ish jarayonida o'z xatolarini sezmaydilar, bunda xatolarni aniqlashda kompyuter vositasidan foydalanish ancha samarali kechadi. Ta'lim jarayonini yangi axborot texnologiya vositalari yordamida tashkil etish va o'quvchi shaxsi uning kompetensiyalari darajasini aniqlashda videokonferensiyalarni o'rni va roli beqiyosdir, maslahatlarni o'tkazishda esa elektron pochta qulay vosita sanaladi.

Elektron pochta yordamida amaliy darslarni tashkil etishda axborotlar almashinuvini yuzaga keltiradi. Bu o'quvchilar o'rtasida virtual guruhlarini shakllantirish va axborot almashishni yo'lga qo'yilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Darslar jarayonida o'quvchilarni o'quv- metodik materiallar bilan ta'minlashning samarali usuli o'qituvchi tomonidan tahlil etiladigan o'quv materiallar orasidan asosiylarini tanlash va ulardan nusxa olish shuningdek o'quv materiallarini tuzish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirishning muayyan tizimi yordamida amalga oshiriladi. Bunda ma'lumotlarni kompyuter vositalari yordamida to'plashga intilish, nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallashga diqqatni qaratish lozim. Shuningdek, axborot texnologiyalari majmuasini tashkil etuvchi vositalarning ko'pligi o'quvchini nafaqat qo'shimcha, balki doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash, hamda ularni bevosita ta'lim jarayonida qo'llashga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" T.: "O'zbekiston", 2021. – B. 457.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli Qarori //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarini to'plami, T., 2017 y., 2-bob 5-bandi, 3-bob 6-bandi.
3. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2007. B. 94.
4. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. - T., 2003.

5. Karimov I. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2020. – B. 194.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006.
7. Shodmonova Sh.S., Hikmatova Sh. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. - T., 2010.
8. Qo'ysinov O.A., Sattarov V.N., Yakubova H.S. "Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2011. - B. 102.

## **TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AMALIY DARSLARNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH**

Xalimov Xasan G'ulomovich  
*QashqadaryoVPYaMO'MM amaliy fanlar  
 va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi  
 kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** *amaliy mashg'ulot, darsni rejalashtirish, joriy yo'riqnoma, oraliq yoriqnoma, yakuniy yo'riqnoma, o'qituvchining vazifasi, xavfsizlik-texnikasi qoidalari.*

**Amaliy mashg'ulot** - aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan, aniq bir topshiriqni bajarish uchun kerakli nazariy darsda olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida olib boriladigan rejali didaktik harakatga aytiladi.

Amaliy mashg'ulot mehnat ta'limining tarkibiy qismi bo'lib, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o'quv poligonlarida ish o'rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan holda o'tkaziladi.

Texnologiya ta'limi tizimining xususiyati shuki, nazariya va amaliyot bir biridan alohida, ya'ni nazariy ta'lim o'quv auditoriyada, amaliy mashg'ulotlar ustaxona va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Nazariy darsda kerakli maxsus bilimlar amaliy darsga nisbatan ilgariroq berilishi ta'minlanishi kerak. Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim beruvchi ish o'rnida faqat ish topshiriqlariga tegishli qo'shimcha bilimlarni

**Darsni rejalashtirish** - kutilayotgan o'quv natijalariga erishish maqsadida o'quv jarayoniga tayyorgarlik ko'rish: ta'lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o'quv-didaktik vositalar tayyorlash.

Barcha imkoniyatlarni inobatga olgan holda, bir marta tuzilgan rejada o'zgarishlar bo'lmasligiga harakat qilish kerak. Ta'lim beruvchi uchun rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishda xatolarga yo'l qo'ymaslik deganidir. Ta'lim oluvchi uchun rejalashtirish, u bo'lajak o'quv jarayoni to'g'risida va ta'limdan nimalarni kutishi mumkinligi haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishi deganidir.

### ***Texnologiya fani o'qituvchisining amaliy darsga tayyorgarligi***

O'qituvchi navbatdagi mavzu bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarish protsessida o'quvchilar mehnatini rejalashtirish va uyushtirish shuningdek mehnat jarayonini borishini kuzatish, unga tuzatishlar kiritish hamda ro'y beradigan xatolarni bartaraf qilishga jalb etiladi.

O'quvchilarni aqliy faoliyatida amaliy darslarda ishtirok etish alohida ahamiyatga loyiqdir. O'quvchilar ustaxonalarida amaliy darslarda hal qilinadigan texnik masalalarni ikki tipga: konstruktorlik va texnologik masalalarga ajratish mumkin. Konstruktorlik masalalarini turlarini ko'rib chiqamiz.

Texnologiya ta'limi, o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi o'quv rejasini, texnologiya ta'limi va fanining o'quv dasturini va taqvimiy mavzuli rejani o'rganishdan boshlanadi. texnologiya ta'limi va o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi mehnat turlari bo'yicha

va qanday hajmda shakllantirish lozimligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari kerakligi, o'quvchilar texnologiya dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab qilinishini bilib oladi.

Texnologiya o'qituvchisi olingan ma'lumotlar asosida va texnologiya ta'limi dasturidan foydalangan holda ancha batafsil rejalashtiruvchi hujjatlarni, ya'ni taqvimiy mavzuli rejani va o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatini tuzib chiqadi. Shunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o'qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiy mavzuli rejasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilar foydalanishi uchun rejalashtirilgan buyumlarga texnologiya ta'limi o'qituvchisi texnikaviy hujjatlar ishlab chiqadi, zarur ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi, asbob-uskunalarining, o'quvchilar ish joyi va ish qurollarining texnikaviy holatini, shuningdek, o'quv ustaxonalarini binosining va ulardagi jihozlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq kelishini tekshirib chiqadi.

Darsga tayyorlanish vaqtida o'qituvchi o'tgan mashg'ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta'lim va tarbiya maqsadini to'g'ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqtni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo'riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o'ylab chiqishi kerak.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o'quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o'quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat'iy saqlanishiga, ishlarga baho qo'yish va ularni tahlil qilishga alohida e'tibor berishi kerak.

Zamonaviy darsning tarkibiy tuzilishi o'qituvchilarning boshqaruvchilik roli va o'quvchilarning anglash faoliyatlarini tashkil etishning o'ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi hamda o'quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog'liqdir.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanish jarayonida quyidagilarni hisobga olishi zarur:

Darsning maqsadi:

- a) darsning ta'limiy maqsadi: o'quvchilarda yangi atamalarga oid tushunchalarni shakllantirish;
- b) darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- c) darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, o'quv jarayonida ko'nikma, o'quv malakalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish;
- d) dars materialining murakkablik darajasini aniqlash: dars materialining amaliyot bilan va oldingi o'tilgan materiallari bilan bevosita bog'lanishini aniqlash, o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun vazifa berish dars jihozini tayyorlash, qo'shimcha beriladigan topshiriqlar hajmini aniqlash;
- e) darsning didaktik vazifasini, ya'ni maqsadga olib keluvchi masalalarning ketma-ketligini aniqlash;
- f) o'qitish usullarining optimal variantlarni tanlash;
- g) darsning tuzilishini aniqlash: darsni samarali boshlash va vaqtni to'g'ri taqsimlash, darsning rejasi va yaxlitligini, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uzviylikini ta'minlashdan iborat.

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Bu umumiy qoida texnologiya ta'limi o'qituvchisiga ham taalluqlidir. Texnologiya ta'limida vaqtning asosiy qismini o'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari egallashi o'qituvchining rolini yanada oshiradi. Chunki, hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'ylansa va yaxshi rejalashtirilsagina o'quvchilar mustaqil ishlari olishlari mumkin.



### **Texnologiya ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:**

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak ashg'ulotlarini tashkil qilish:
- o'quvchilarning bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizavn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'ilash; - muntazam ravishda malakasini oshirish.

**Texnologiya fani o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari.** Texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish bilan birga, mustahkam mehnat va kasb ko'nikmalari va malakalarini egallagan bo'lishi, ularni o'quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerak. Shu munosabat bilan o'z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo'lgan kishigina o'quvchilarga o'z ishini egallashda yordam bera oladigan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham texnologiya ta'limi o'qituvchisi o'zining metodika, pedagogika fani, texnika va ishlab chiqarish sohasidagi eng yangi yutuqlardan xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ilg'or mehnat usullarini ham bilishi zarur. Shu maqsadda mehnat ta'limi o'qituvchisi mehnat t'limi va tarbiya masalalari, kasbga yo'llash yuzasidan chiqarilgan psixologik, pedagogik va metodik adabiyot yangiliklarini, o'z ixtisosligi bo'yicha hozirgi zamon texnikaviy adabiyotini, ishlab chiqarish ilg'orlari, ixtirochilarning tajribasini o'rganadi, mehnat mashg'ulotlarining metodik jihatdan to'g'ri tuzilishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Texnologiya ta'limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur.

O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70-90 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun kollejning asosiy binosidan bir oz nariroqda quriladi.

O'quv ustaxonalari materiallar, yarim fabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblardan va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatiladigan bo'lishi me'yorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14-16<sup>0</sup> S, yoz davrida esa 20<sup>0</sup> S dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan shipi oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi ob'yektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalarini jihozlashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak.

Tikuv mashinalar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarning oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyenik talablariga rioya qilgan holda shart-sharot yaratilgan bo'lishi kerak.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Texnologik ta'limda amaliy mashg'ulotlar qanday tarzda tshkil qilinadi?
2. Joriy, oraliq va jakuniy yo'riqnomalarning o'tkazilish tartibini tushuntiring.
3. Texnologiya ta'limi o'qituvchisining darsga tayyorgarlik bosqichlarini ayting.
4. O'quv ustaxonasida qanday xavfsizlik-texnikasi qoidalariga amal qilish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

9. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" T.: "O'zbekiston", 2021. – B. 457.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli Qarori //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, T., 2017 y., 2-bob 5-bandi, 3-bob 6-bandi.
11. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2007. B. 94.
12. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. - T., 2003.
13. Karimov I. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2020. – B. 194.
14. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006.
15. Shodmonova Sh.S., Hikmatova Sh. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. - T., 2010.
16. Qo'ysinov O.A., Sattarov V.N., Yakubova H.S. "Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2011. - B. 102.

#### **TABIY FANLAR MAZMUNINI O'RGATISHDAGI UZVIYLIK TAMOYILLARI**

N.N.Djurayeva

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu makolada tabiiy(SIENS) fani mazmunini o'rgatishdagi uzviylikni ta'minlash shu fanga oid o'quv materiallarini monand ravishda tanlash, ularni maqsadli ketma-ketligi, bo'limlari uzviylik va izchillik asosida joylashtirish hamda ularni qisqa vaqt ichida o'quvchilar ongiga yetkazib berish jarayonida uzviylik tamoyilining asosiy o'rin tutishidagi muammolarni xal etish hozirgi kunning dolzarb masalasi ekanligi aytib utilgan

**Kalit so'zlar.** tabiiy(SIENS), pedagogik texnologiyalar, obyekt, komponent, induktivlik, deduktivlik, didaktik.

Uzviylik – ta'lim-tarbiya jarayonini muayyan ketma-ketlik asosida tashkil etilishini ifodalovchi muhim sifat bo'lib, ma'lum bosqichda avvalgi bosqich o'quv faoliyatining mazmunini tashkil etuvchi bilim, ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishi, kengaytirilishi va chuqurlashtirilishini ta'minlaydi<sup>22</sup>.

Uzviylik tushunchasi falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlariga ega.

Pedagogikada uzviylik ikki xil turda qo'llaniladi: birinchidan, ta'lim turlari (bo'g'inlari) orasidagi uzviylik;

---

<sup>22</sup> **Хасанбоев Ж., Тўракулов Х. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: «Фан ва технология», 2009.**

ikkinchidan, o'quv fanlar orasidagi uzviylik. Bu odatda fanlararo yoki predmetlararo bog'lanish orqali amalga oshiriladi.

Bulardan kelib chiqib, yana bir holat mavjudki, uzviylik ta'lim mazmunining muayyan ketma-ketlikda, tizimli joylashtirilishi, yangi mavzuni o'zlashtirishda mavjud bilimlarga tayanish, o'quv materialining ma'lum darajada navbatdagi bosqichlarda qo'llanilishini, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlarining davomiyligini ifodalaydi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'lim tizimi nuqtai nazaridan, uzviylik muammosining yechimini topish, uni amaliyotga tadbiiq etishning samarali usul va vositalarni ishlab chiqish zarurati vujudga keldi.

Bunda ta'lim oluvchilar yosh va dunyoqarashi xususiyalariga mos keladigan ta'lim mazmunini tanlash, tanlangan ta'lim mazmunini uzviylik tamoyiliga asosan joylashtirish va uni pedagogik jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega.

Tanlangan ta'lim mazmuni imkoniyatlaridan kelib chiqqan va ta'lim oluvchilar bilim darajasini inobatga olgan holda mavjud hamda yangi bilim, ko'nikma, malakalarni tizimli va uzviy ravishda shakllantirish ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ta'lim mazmunini uzviylik asosida joylashtirish nafaqat muayyan fanning o'quv dasturi va rejasining tuzilishiga, balki unga turdosh bo'lgan fanlar o'quv dasturiga moslashtirilishi orqali ta'lim samaradorligini oshirishga ham ta'sir etadi. Uzluksizlik tushunchasi esa ta'lim tarkibidagi bilimlarning birligi, o'zaro bog'lanishi va bir-birini taqozo qilishni anglatadi va uning barqarorligini hamda bo'linmasligiga asoslanadi. Ya'ni uzluksizlik ta'lim turlari orasidagi ta'lim-tarbiya tizimini bosqichma-bosqich amalga oshiradi.

Ma'lumki, tabiiy fanlarni o'qitish boshlang'ich sinflarda atrofimizdagi olam va tabiiy(SIENS) fanlaridan boshlanadi. Boshlang'ich sinf, 1-2 sinflarda «Atrofimizdagi olam» 3-4 sinflarda «Tabiiy(SIENS)» o'quv predmetlari o'qitiladi.

Oliy ta'limning 5111700-boshlang'ich ta'lim sport tarbiyaviy yo'nalishida boshlang'ich ta'lim mutaxassislari tayyorlanadi. Bu mutaxassislar umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida (matematika, ona tili, o'qish, mexnat, odobnoma o'quv predmetlari) barcha fanlari kabi 1-2 sinflarda «Atrofimizdagi olam» va 3-4 sinflarda «Tabiiy(SIENS)» o'quv predmetlaridan dars berishadi.

Tabiiy(SIENS) fani mazmunini o'rgatishdagi uzviylikni ta'minlash shu fanga oid o'quv materiallarini monand ravishda tanlash, ularni maqsadli ketma-ketligi, bo'limlari uzviylik va izchillik asosida joylashtirish hamda ularni qisqa vaqt ichida o'quvchilar ongiga yetkazib berish jarayonida uzviylik tamoyilining asosiy o'rin tutishi hozirgi kunning asosiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Tabiiy(SIENS) o'quv predmeti ham o'qituvchidan o'zida bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Bu esa o'qituvchidan malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish, ta'limning ilg'or shakl va usullari, zamonaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini olishga bog'liq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi «Tabiiy(SIENS)» o'quv fani bo'yicha oldin qanday bilim, ko'nikmalarga ega va malakasini oshirish jarayonida qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini aniqlab olish muhim hisoblandi.

Tabiiy(SIENS) kursi ta'limi tuzilishining bir qismi shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tabiiy(SIENS) kursining mazmuni talabalarga mos holda yaratilib, kursning ta'lim-tarbiyaviy masalalariga javob bera olish darajasida belgilanadi.

Ma'lumki, tabiiy(SIENS) o'quv fanida mavzular tabiiy fanlar (botanika, zoologiya, fizika, tabiiy geografiya, astronomiya va boshqalar) mavzulari tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, tabiiy(SIENS) va tabiiy fanlarining tuzilishida ham o'quv jarayonining mantiqiy davomiyligi, ya'ni mavzularning kurslar bo'yicha taqsimlanishi, mavzular tarkibi va bosqichlariga muhim ahamiyat berilishi lozim.

Tabiiy(SIENS) o'quv kursning tahlili ushbu fanlarning dasturni tuzishda ikki: induktiv va deduktiv yo'nalish mavjudligini inobatga olinishi lozim. Hozirgi zamon talablari darajasidagi

yangi dasturlarni tuzishda tabiiy ob'ektlarga xos «umumiy» va xususiy» munosabatlarni hisobga oluvchi pozitsiya qabul qilingan. Shuning uchun ham muammolarni, ob'ektlarni, voqea va hodisalarning «umumiy», shuningdek «xususiy» xususiyatlarni bilish asosli xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shu bois tabiiy(SIENS) o'quv kursi dasturining deduktivlik hamda induktivlik tamoyillari asosida tuzilishi muhim ilmiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Muayyan tabiiy ob'ektlar umumiy qonuniyatlarini tushunishda ushbu ob'ektning qaysi umumiy tushunchaga taalluqli ekanligini ko'rsatuvchi xossalarni bilish muhimdir.

Bunda aniqlanuvchi ikkinchi darajali xossalalar ob'ektining individual xususiyatlarini tavsiflab beradi. Shu asosda tuzilgan dastur tabiiy(SIENS) kursida olingan bilimlarning mantiqiy davomi sifatida, birinchi bosqichida umumlashtirish, ya'ni aniq ob'ektlar haqida tushuncha hamda ular o'rtasidagi aloqalarni o'rganish asosida shakllanadi.

Mazkur tushunchalarni shakllantirishda ob'ektlar tasvirini anglatuvchi ko'rgazma vositalari majmuasidan, shu jumladan: kino filmlar, fotosuratlar, shartli belgilar, xarakterlar, sxema hamda diagrammalardan va ularni tavsiflovchi ma'lumotlardan (hikoya, matn) foydalanish uchun dars samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, ular o'quvchilarning aniq ma'lumotlar asosida analitik-sintetik faoliyatlarini tashkil etish bilan umumlashtirishning birinchi bosqich tushunchalarini o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Tabiiy(SIENS) kursida talabalar o'qib o'rganishi jarayonida fikrlash faoliyati, tahlil va sintezlash, taqqoslash, umumlashtiriluvchi tushunchalarni aniqlash darajasini yanada oshiradi.

Demak, tabiiy obyektlar, voqealar hamda hodisalar o'yin va kuzatish asosida tavsiflanar ekan, talabalardan birinchi navbatda tabiiy termin tushunchalarni o'zlashtirishlar talab etiladi.

Komponentlar haqida tushuncha hosil qilishda ularni o'zaro tabiiy yoki tarixiy bog'liqliklardan, ayrim holda o'z ichki xususiyatlar va sabablariga ko'ra tahlil qilib, xulosa chiqarish lozim.

Ushbu uslubiy yondoshuv tabiiy(SIENS) ta'limning birinchi bosqichda «qism»larni o'rganishni ta'minlaydi. Tabiiy(SIENS) o'quv fani o'qitishda quyidagi uzviylik va uzluksizlikda o'qitish xususiyati birinchi o'quv faning xususiy jihatlari o'rganiladi va undan keyin umumiy jihatlari o'rganiladi. Chunki, boshlang'ich ta'limda boshqa o'quv (matematika, ona-tili, mehnat, husnixat va boshqa) o'quv fanlari umumdidaktik o'qitish metodikalari bilan bog'liqlik jihatlari yaqin va bir-birini to'ldiradi.

Tabiiy(SIENS) o'qitishda xususiy jihatlarni o'rganishda ham mavzularni ketma-ketligi orasidagi uzviylik va uzluksizlik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tabiiy obyektlarga doir tushunchalarni o'rganishda «geografik qobiq»ning qobiqliklaro bog'lanish xususiyatlari umumiy va xususiy holatlari talabalar tomonidan o'zlashtirilsa, amaliy faoliyatda talabalar o'z turar joylaridagi tabiiy xududiy majmualarining o'zaro aloqadorligi haqida ma'lumotlarni o'zlashtirishi oqibatida ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bularning barchasi talabalar bilim darajalarini induktivlikdan deduktivlikka olib chiqishga asos bo'ladi. «Tabiiy(SIENS) va uni o'qitish metodikasi» o'quv fani ikkita asosiy qismda o'qitiladi. Yangi o'quv dasturida birinchi xususiy tushunchalar mazmuni batafsil yoritib berilgan va keyin umumiy didaktik tushunchalar mazmuni ya'ni o'qitish metodikasi berilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanboyev J., To'raqulov X. Va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan va texnologiya», 2009.
2. Nuriddinova M. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 2005
3. Hamidov A., To'xtayev A. va boshqalar. Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1999.

#### **“ERTAKLAR MAMLAKATI” BO'LIMINI O'RGANISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI**

Ilmiy rahbar: Axmadaliyeva Mahliyo Sherali qizi  
CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ertaklar bo'limini o'rganishda texnik vositalardan foydalanish yo'llari o'rganiladi, etraklarni ilg'or texnologiyalardan foydalanib o'tish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ertakalar, nutq, kinofilmlar, ko'rgazmali qurollar.

**Аннотация:** В данной статье исследуются способы использования технических средств при изучении раздела сказок, а также выделяются способы прохождения сказок с использованием передовых технологий.

**Ключевые слова:** Сказки, речь, фильмы, наглядные пособия.

**Abstract:** This article explores the ways of using technical tools in studying the fairy tales section, and the methods of passing fairy tales using advanced technologies are highlighted.

**Key words:** Tales, speech, films, visual aids.

Ta'lim jarayoning sifatli bo'lishida ko'rish orqali narsa hamda uning tildagi ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonida kuzatishdan - hissiy aniq tasavvur hosil qilishga, undan grammatik tushunchalarni atroflicha o'zlashtirishga qarab boradi. Til o'rgatish jarayonida buyumlar, jadval, rasm, xarita va boshqa tasvir vositalaridan, diafilim, kinofilim va teleeshittirishlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilimini har tomonlama puxta bo'lishiga erishish mumkin. Bu tasviriy vositalar ona tilini o'rganuvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda ularni amaliy ko'nikmalarga aylantirishga, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Rasm bilan ishlash ongli faollikni shakllantiradi, o'rganilayotgan tilda fikrni mantiqan to'g'ri va keng bayon qilishga, nutqning rang-barang o'lishiga ko'maklashadi. Shu sababli til o'rgatuvchi turli manbalardan olingan rasmlar yordamida topshiriqli tarqatma materiallar tayyorlashi va mavzuning mohiyatiga qarab ulardan foydalanishi mumkin. Tarqatma materiallar uchun tanlanadigan rasmlarning mazmuni o'quvchilarning diqqatini torta oladigan bo'lishi, topshiriq shartiga muvofiq kelishi, mavzuni ochib berishga xizmat qilishi, bilimlarni ko'nikmaga aylantirishga amaliy yordam ko'rsatishi lozim. Kinofilimlarni namoyish etish orqali berilgan mavzu asosida savollar tuzish va ularga javob hozirlash yoki o'quvchilarning savol javoblarini o'tkazish, gap, hikoya matnini tuzish ustida ishlashini uyushtirish mumkin. Ona tili darslarida ko'rgazmali qurollardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo'ladi. O'quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida o'zlashtirilgan ma'lumotni xotiraga tushiruvchi ko'rgazmali quoldan foydalanilsa, yangi bilim berishda ko'proq izlanuvchanlikni talab qiladigan ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ammo shuni unutmaslik lozimki, ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanilsagina dars samarali bo'ladi. Darsning katta qismining ko'rgazmali qurollardan foydalanishga sarf etilishi yoki undan me'yordan ortiq foydalanish o'quvchilarning qiziqishini susaytiradi, toliqtiradi, zeriktiradi, darsning ilmiy jihatini kamaytirib oddiylashuvini, ya'ni fikrning dars mavzuidan va asosiy masaladan chetlashishiga sabab bo'ladi, oqibatda darsdan kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu bilan birga ko'rgazmali qurollardan foydalanishni bir me'yorda va tartibli, rejalashtirilgan va qat'iy vaqt taqsimoti asosida olib bormaslik mazkur darsda o'zlashtirishi mo'ljallangan o'quv materialiga qaratilgan vaqtning yetishmasligiga olib keladi. Og'zaki nutqni o'stirishda ko'rgazmali qurollar va texnik vositalardan samarali foydalanish talab etiladi. Ko'rgazmali qurollar yordamida:

- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar asosida suhbatlar uyushtiriladi;
- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar yuzasidan savollar tuzilib, ularga og'zaki javoblar hozirlanadi;

- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalarda tasvirlangan voqealar soʻzlab beriladi;

- ular asosida hikoya matni tuziladi va soʻzlab beriladi.

Televizor, kompiyuter va boshqa turdagi texnik vositalar yordamida:

- Matn ikki-uch marta eshittirilgach, uning mazmuni soʻzlab beriladi;

- matn asosida tuzilgan savollar va ularning javoblari eshittiriladi va oʻquvchi tomonidan takrorlash asosida oʻrganiladi;

- lugʻatlar yodlanadi;

- matnni tinglash orqali koʻchirib yozish, ular yuzasidan turli topshiriqlarni bajarish, jumladan, savollar tuzish va ularga javoblar tayyorlash, soʻngra magnitofonda yozilgan toʻgʻri tuzilgan savollar va ularga berilgan javoblar bilan qiyoslash imkoniyatiga ega boʻladilar. Agar yuqoridagi mashqlarning bajarilishi televizor yordamida koʻrsatiladigan boʻlsa, oʻquvchilarning mashqlarni bajarilish jarayonida ularning imloviy jihatlari ham eʼtibor qaratishlariga imkoniyat yaratiladi. Eshitish sezgilari qatorida koʻrish sezgilarining ham ishtirok etishi til oʻrganishda yaxshi samara beradi.

Mashqlar kompiyuter yordamida bajarilganda esa oʻquvchilar koʻrish va sezishdan, eshitishdan tashqari endi bu jarayonda oʻzlari ham ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Tayyor javoblarni toʻgʻridan-toʻgʻri qabul qilmasdan, ularning oʻzlari bu javoblarni tuzadilar yoki qidirib topadilar.

Mashqlarning rang-barangligi oʻquvchilarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mashqlarning turli-tuman va qiziqarli boʻlishi nazariy maʼlumotni oʻrganishni yengillashtirish bilan birgalikda oʻquvchilarga mashgʻulot davomida oʻtilgan Yangi soʻzlarni amalda qoʻllay olishga oʻrgatishga ham xizmat qiladi. Mashqlar samarali boʻlishi uchun oʻqituvchi oʻquvchi bilan oldindan tayyorgarlik koʻrishi zarur. Bu oʻrinda, dastlab, oʻquvchining mustaqil ishlarini oqilona uyushtirish lozimligini aytmoq kerak. Oʻzbek tilini davlat tili sifatida oʻrgatish boʻyicha oʻtkazilayotgan mashgʻulotlar jarayonida oʻquvchilarga mustaqil ish rejalari (savol va lugʻatni yod olish boʻyicha topshiriqlar, suhbat, ish yuritish hujjatlarining namunalari, tarjima matnlari, munozara va seminar uchun metodik yoʻl-yoʻriqlar va hokazo) aniq belgilab beriladi. Oʻquvchilar reja boʻyicha mashgʻulotlarga oldindan tayyorgarlik koʻradilar. Oʻqituvchi oʻquvchilarning tayyorgarliklarini kuzatadi tekshirib boradi, lozim boʻlganda amaliy savodxonlikka oʻrgatishning lisoniy asoslari;

- savodxonlikka oʻrgatishning ruhiy fiziologik asoslari;

- savodxonlikka oʻrgatish jarayonini tilning rivojlanishiga bogʻliqligi;

- harflar va harfiy birikmalar, tovushlarning umumiy sharhi, alifboning oʻziga xos jihatlari;

- savodxonlikka oʻrgatishning tovushli analitik- sintetik tahlili;

- savodxonlikni oʻrgatishning anʼanaviy va zamonaviy tashkiliy uslubiy tizimi;

- savodxonlikka oʻrgatishda oʻquvchining yoshiga koʻra darajalashtirilgan holda yondashish, oʻquv ishlarining mazmuni va tashkiliy jihatlari farqlanishi;

- savodxonlikni oʻquvchining ovozi qabul qilish va uning mazmunini toʻgʻri yozish asosida oʻrgatish;

- oʻquvchida imlo va ishorat qoidalarini toʻgʻri qoʻllay bilish koʻnikmasini hosil qilish;

- savodxonlikka oʻrgatish jarayonining oʻquvchining nutqini oʻstirish bilan oʻzaro aloqadorligi va boshqalar.

Darhaqiqat, savodxonlik oʻquvchini komil inson, yetuk mutaxassis, hamda yuksak madaniy-maʼnaviy saviyali barkamol shaxs darajasiga koʻtarishda asosiy omil hisoblanadi. Oʻquvchilarning 10000 ga yaqin soʻzdan iborat boʻlgan soʻz boyligini shakllantirish oʻzbek tilini oʻrgatishda muhim vazifa hisoblanadi. Oʻquvchilarning soʻz boyligi matnni tushunish va uning mazmunini soʻzlab berishda, gap va soʻz birikmalarini toʻgʻri tuza olish hamda olishda, ularning ogʻzaki nutqini shakllantirishda asosiy omil boʻladi. Oʻquvchilarning soʻz boyligi matnlar, suhbatlar tarkibidagi soʻzlarni oʻzlashtirib borish orqali hosil qilinadi. Oʻqish darslarida oʻrgatilayotgan asar hajmi, murakkabligi, zaruriy kabi xususiyatlariga koʻra mavzularning

ma'lum bir ketma-ketlikda joylashtirilishi alohida ahamiyatga egadir. Yangi so'zlarning mohiyatini anglash, uni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rgazmalilikni taqozo etadi. Til o'rganuvchi ko'rish orqali narsa hamda uning tildagi ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo'ladi. Bu tasviriy vositalar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda ularni amaliy ko'nikmalarga aylantirishga, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ertaklar mamlakatida bo'limi o'rganishda o'quvilar ko'proq voqealar rivoji, turli obrazlarning xarakter xususiyatlarni o'rganishlari asosida darslar tashkil qilinadi. O'quvchilarning bu yoshda ko'rgazmali obrazli xotirasini xisobga olganhold darslarni tashkil etishda yuqorida sanab o'tilgan texnik vositlardan foydalanish orqali o'rganilayotgan mavzu yuzasidan har tomonlama chuqur bilim olishlariga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Turli hil janrdagi asarlar matni ustida ishlashda asarining mazmuni, xarakteri va xususiyatlariga ko'ra texnik vositalarni tanlashimiz, ulardan foydalanish yo'llari vaqtini rejalashtirib olishimiz mumkin. Masalan ertak janridagi asarlarni o'rganishda ko'proq tasviriy vositalardan DVD pleyerlari yoki kompiyuter hamda proektorlardan foydalanish samarali natija beradi. Bunda ertak mavzusiga mos multafilmlar namoyishini amalga oshirish mumkin. O'qish kitobi darsligida berilgan barcha ertaklarning multifilim ko'rinishlari mavjud emasligi va ularni multafilim tarzida tayyorlash imkoniyatlari birmuncha cheklanganligi sabab, ko'proq mavjud multafilmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Turli hikoyalarni o'rganishda esa magnitafon yoki VSD disklariga yozilgan ovoqli matnlardan foydalanish mumkin. Masalan: 3- sinf O'qish darsligining 3- chorakda berilgan "Ayyor tulki" ertagini o'qituvchi oldindan ifodali tarzda yoki rollarga bo'lingan holda ovoqli matnini magnitafon lentasiga yoki VSD diskka yozib oladi. So'ngra yangi mavzuni bayon qilish jarayonida o'quvchilarga ushbu ovoqli matnni qo'yib eshittiradi. Ushbu ovoqli matnni tayorlashda qo'shimcha voqea holatiga mos tarzida musiqalardan foydalanish o'quvchilarni voqealar jaryoni va mohiyatini yaxshiroq tushunishlariga olib keladi. O'quvchilar hikoyani tinglash bilan birga darslikdan matnni ham kuzatib o'qib boradilar. Bu orqali o'quvchilarda ongli o'qish malakalarni rivojlantirib borishimiz mumkin bo'ladi.

O'tilgan yangi mavzuni mustahkamlashda ham ana shunday ovoqli matnlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilarga matndan parcha eshittiriladi va hikoyaning davomi haqida yoki eshitilgan parcha yuzasidan savol- javoblar o'tkazish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. U. Nishonova "O'zbek xalq ertaklari". "Sangzor" nashriyoti – 2013.
2. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. 1- sinf "O'qish kitobi". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019.
3. T. G'afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova; 2-sinf "O'qish kitobi". "Sharq" K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova va b. "Ona tili o'qitish metodikasi nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2018.
4. M. Umarova, X. Xamroqulova, R. Tojiboyeva; 3-sinf "O'qish kitobi
5. Matchonov S. va boshqalar "4- sinfga o'qish darslari", T., 2004 yil.
6. Shoazimova A. va boshqalar " O'qish kitobi ", 4- sinf , T., 2006 yil.
7. Axmadaliyeva, M. S. (2023). ZULFIYA QALBIMIZDA VA YURAGIMIZDA. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 13, 249-252.
8. Axmadaliyeva, M. S. (2022). LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDA BADIY VOSITALARNING O 'RNI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 44-46.

#### **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA NUTQ O'STIRISHNING METODIK SHARTLARI**

Xoliqulova Aziza Norqo'chqor qizi

**Annatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyat jarayoni hamda nutq o'stirishning metodik talablari haqida fikr yuritilgan, nutq o'stirishdagi mashqlarning izchilligi, xilma xilligi hamda mashq turlari haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq o'stirish metodik sharti, nutqiy faoliyat so'z ustida ishlash bog'lanishli nutq gap ustida ishlash.

### **МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация:** В статье рассматривается процесс речевой деятельности учащихся младших классов и методические требования речевого развития, даются сведения о последовательности, разнообразии и видах упражнений по речевому развитию.

**Ключевые слова:** методическое условие развития речи, речевая деятельность, работа над словами, связная речь, работа над предложениями.

### **METHODICAL CONDITIONS OF SPEAKING IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS**

**Annotation:** This article discusses the process of speech activity of elementary school students and methodical requirements of speech development, provides information about the consistency, variety and types of exercises in speech development

**Key words:** methodical condition of speech development, speech activity, work on words, connected speech, work on sentences.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 4884 sonli qaroriga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim o'quv dasturi va fanlarning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash hamda boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'inidir. "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi nizomda ta'kidlaganidek "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish uquvi, nutq va xulq atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'minlashga davat etilgan.

Nutq o'zaro aloqa va habar, o'z fikrini his hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish vazifasidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilida bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushiniladi. Grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari "Xat savod o'rgatish va nutq o'stirish", "O'qish va nutq o'stirish", "Grammatika, imlo va nutq o'stirish" deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir nechta shartlarga rioya qilish kerak.

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqining o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xoxishini va zaruriyatini yuzaga keltirgan vaziyat yaratishdir.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli va sifatli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchilar nutqini mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilishdir.



3. Fikr tinglovchi tushunadigan soʻz, soʻz birikmalari, gap, nutq birikmalari yordamida ifodalansagina tushunarli boʻladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirishdir. Oʻquvchilarga til namunalarini berish ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish kerak.

Nutqni eshitish va undan oʻz tajribasida foydalanish natijasida bolalarda taʼlim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “Tilni sezish” shakllanadi. Nutq oʻstirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, yaʼni birinchidan, yaxshi nutq namunasi idrok etish, ikkinchidan oʻrgangan til vositalaridan foydalanib oʻz fikrini bayon etish uchun sharoit yaratishdir.

Bola tilini nutqiy faoliyat jarayonida oʻzlashtiradi. Buning oʻzi yetarli emas. Chunki u nutqni yuzaki oʻzlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud.

1. Adabiy til meʼyorlarini oʻzlashtirish. Maktab oʻquvchilarining adabiy tilini soda soʻzlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga oʻrgatadi. Adabiy tilning badiiy, ilmiy soʻzlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir aʼzosi uchun zarur boʻlgan muhim nutq malakalarini, yaʼni oʻqish va yozish malakalarini oʻzlashtirish. Bu bilan oʻquvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning ogʻzaki soʻzlashuv nutqidan farqini bilish.

3. Oʻquvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning manashu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda oʻquvchilarning nutq madaniyatiga alohida eʼtibor berilishi.

Bu vazifalarni bajarish uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan rejali ish olib borish kerak. Buning uchun esa oʻquvchilar nutqini oʻstirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olishdir.

Nutq oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratilgan.

- 1) Soʻz ustida ishlash;
- 2) Soʻz birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) Bogʻlanishli nutq ustida ishlash;

Soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza boʻlib leksikologiya, (frazalogiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bogʻlanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslikka va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Koʻrsatilgan uch yoʻnalish parallel olib boriladi: lugʻat ishi gap uchun material beradi; soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi. Oʻz navbatida, bogʻlanishli hikoya va insho lugʻatini boyitish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish oʻz metodik vositalariga ega, oʻzining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bogʻlanishli nutq mashqlaridir. Nutq oʻstirishda izchillik toʻrt shartni, yaʼni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma xilligi, xilma xil mashq turlarini umumiy maqsadga boʻysundirish koʻnikmasini amalga oshirish bilan taʼminlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bogʻlanadi va keyingisiga oʻquvchilarni tayyorlaydi. Umumiy maqsadga boʻysungan holda yana qandaydir yangilik qoʻshadi. Maktabda oʻquvchilar nutqni oʻstirishga ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq oʻstirish faqat ona tili va oʻqish darslarininggina emas, balki oʻquv rejadagi barcha fanlarning shuningdek sinfdan tashqari oʻtkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Taʼlim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ 4884 sonli qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qoʻllab quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF 6260-son farmoni.
3. Ashrapov T, Odilova M “Nutq oʻstirish” oʻquv qoʻllanma. T – 2007.
4. Qosimova K, Mavlonova K, Qurbonov S va b. “Ona tili va oʻqish savodxonligi” 3 sinf oʻquvchilari uchun metodik qoʻllanma. T – 2022.

5. Hamdamov M, “1-2 sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tizimi” dissertatsiya pffd T – 2007.
6. Qosimova K, Matjonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh “Ona tili o‘qitish” metodikasi T – 2024.

## **MAKTAB JAMOASINI BOSHQARISH USULLARI**

Ibragimov Olimjon, A. Avloniy nomidagi  
milliy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi  
B2023.1.PhD/Ped4657

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta‘lim muassasasiga rahbarlik qilish, jamoa uchun ahamiyatli bo‘lgan va maqsadga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatning muhim tomonlariga taalluqli bo‘lgan samarali boshqaruv va rahbarning o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan qanday ish tutishi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, rahbar va pedagoglar ish faoliyatlari davomida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so‘zlar:** jamoa a‘zolari, hamkorlikdagi faoliyat, boshqaruv xodimi, jamoa, faoliyat, bilim, mas‘uliyat, faollik, ishonchlik.

Rahbarlik qilish – boshqaruv faoliyatining bir qismi bo‘lib, uning vositasida jamoa a‘zolari o‘rtasida ta‘lim muassasasi maqsadlariga erishishga maksimal darajada imkon yaratib beruvchi munosabatni va ularning tashkiliy xatti-harakatini shakllantirish ta‘minlanishi lozim.

“Jamoa” so‘zi turli kishilardan tashkil etilgan guruhni anglatadi va undan kunda foydalaniladi. Biroq bu ma‘noda qo‘llanish hamisha ham o‘zini oqlaydimi? Jamoani boshqa har qanday guruhdan ajratadigan chegara qaerdan o‘tgan?

Bu savollarga javob berishdan oldin malaka oshirish kursiga yoki ilmiy-amaliy konferensiyaga yig‘ilgan o‘qituvchilar guruhini tasavvur etaylik. Bir-biri bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan holda, ular muayyan vaqt oralig‘ida ko‘proq hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lgan: yoqtirish, yoqtirmaslik, befarqlik, mustaqillik, sustlik, faollik, bo‘ysunish, hujumkorlik va boshqa munosabatlar o‘rnatishadi. Odamlarning shaxslararo o‘zaro munosabatlar o‘rnatilgan, biroq birgalikda faoliyat ko‘rsatish uchun umumiy maqsad bo‘lmagan birlashuvi **tarqoq guruh** sanaladi. Tarqoq guruh a‘zolarida bir xil maqsadlar (masalan, qandaydir yangi ta‘lim texnologiyasini o‘zlashtirish) bo‘lishi mumkin, biroq umumiy maqsadlar bo‘lmaydi. Qorishma bilan undan undirilgan kristall o‘rtasidagi farq qanday bo‘lsa, jamoa bilan bunday guruhlar o‘rtasidagi farq ham, shunday bo‘ladi.

Jamoaning asosiy farqli belgilari – hamkorlikdagi harakatning umumiy va ijtimoiy muhim, ayni mahalda guruh a‘zolari uchun shaxsiy ahamiyatli maqsadlari mavjudligi (shuning uchun ham birlashgan tarzda faoliyat yurituvchi guruhlarini jamoa deyishmaydi), guruh a‘zolari o‘rtasidagi, ularning birgalikdagi faoliyati mazmuni, qadriyatlarini, tamoyillari, maqsadlari, vazifalari bilan bog‘langan munosabatlarning alohida tizimi mavjudligi.

Zamonaviy ilmiy tasavvurlarga ko‘ra, jamoada munosabatlar tuzilishi ko‘p darajalidir.

**Uning birinchi darajasi** rasmiy (reglamentlangan) munosabatlarni hosil etadi. Pedagoglar jamoasida bu munosabatlar ta‘lim muassasasi o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishda uning a‘zolari o‘rtasidagi mehnat taqsimoti hamda ularning rasmiy vazifalari, huquqlari bilan shart qilib qo‘yilgan. Jamoaning har bir a‘zosi bu tizim doirasida ma‘lum bir funksiyani bajara turib, boshqa a‘zolar bilan ham tegishli tarzda hamkorlikda harakat qilishi kerak. Bu bosqichda o‘zaro munosabatlar xarakteri ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xosliklari bilan ham, rasmiy nizomlarda, yo‘riqnomalarda, buyruqlarda va boshqa me‘yoriy hujjatlarda qayd etilgan ma‘muriy-huquqiy tartibga solish bilan izohlanadi.

**Tizimning ikkinchi bosqichini** jamoa a‘zolarining jamoa amalga oshirayotgan ta‘lim faoliyatiga, bu faoliyat asosini tashkil etadigan maqsadlarga, vazifalarga, tamoyillarga munosabati, faoliyat motivatsiyasi, uning har bir pedagog uchun ahamiyati bilan izohlanadi.

**Uchinchi bosqichda** esa, ta'lim jarayonining mazmuni, uning maqsadlari, vazifalari, o'qituvchilar jamoasida qabul qilingan tamoyillar va qadriyatlar yo'nalishi bilan shart qilib qo'yilgan shaxslararo munosabatlar berilgan.

**To'rtinchi bosqich** hamkorlikdagi faoliyat mazmuni belgilab berilmasligi sababli shaxslararo munosabatlar yoqtirish, yoqtirmaslik, hurmat yoki hurmatsizlik va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, pedagoglar jamoasi – bu, erishilishi har biri uchun shaxsiy ahamiyatga molik bo'lgan umumiy ta'lim maqsadlariga ega bo'lgan va umumiy maqsadlarga erishish imkonini beradigan shaxslararo munosabatlar hamda o'zaro munosabatlar tuzilmasini amalga oshiradigan, hamkorlikda ish olib boradigan pedagoglar guruhi.

Ko'plab ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda jamoaning rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichi sifatida qaraladigan bir qancha tavsiflari alohida ajratilgan. Bunday tavsiflarga quyidagilar kiradi:

\* jamoa a'zolarining, umuman jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan va maqsadga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatning muhim tomonlariga taalluqli bo'lgan ob'ektlarga munosabat bo'yicha bahosi va qarashlari mos kelishida namoyon bo'ladigan hamjihatligi;

\* jamoaning uyushganligi, bu uning noaniq vaziyatlarda, a'zolarining birdamligi bilan fikrlar va tashabbuskorlik shakllari xilma-xilligini muvofiqlashtirish orqali o'z barqaror tuzilmasini tuzishga va uni saqlab turishga qodirligida namoyon bo'ladi;

\* jamoaning faoliyat maqsadlari, asoslari, qadriyatlar yo'nalishi va normalarining ijtimoiy qimmatini aks ettiradigan yo'nalganligi;

\* jamoa a'zolari tomonidan uning maqsadlari, vazifalari, qadriyatlarining qabul qilinishida namoyon bo'ladigan jamoaviy o'z mavqeini belgilash;

\* jamoadagi uning har bir a'zosiga hamdard bo'la olishiga qodirligida namoyon bo'ladigan his-tuyg'u o'xshashligi;

\* Jamoa hamjihatligi, bu uning a'zolarini qovushtirishda va sub'ektiv jihatdan etarli bo'lgan qoniqish muhitida birgalikdagi harakatda eng kam his-tuyg'u va kuch-quvvat sarflagan holda birga ishlab, imkon qadar yuqori unumdorlikka erishishda ifodalanadigan o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi;

\* Intellektual kommunikativlik, bu – umumiy pozitsiyani, qarashlarni aniqlashda, guruhiy qarorlar qabul qilishda va boshqalarda o'zaro xabardorlikning oqilona yo'llarini yaratishga qodirlik.

Jamoaning integral tavsifi – rivojlanganlik darajasi (etuklik darajasi) – jamoaning dolzarb va haqqoniy maqsadlarni qo'ya bilishga, umumiy maqsadlar bilan uyg'unlashgan alohida maqsadlar tarkibini shakllantirishga, qo'yilgan maqsadlarga imkon qadar samarali erishishni ta'minlaydigan o'zaro ta'sir hamda o'zaro munosabatlar va ustalik bilan o'zgartirishga qodirlik sifatida belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamoani tavsiflovchi mumkin bo'lgan **barqarorlik** undagi ishning uning a'zolari uchun jozibadorligini anglatadi. U o'qituvchilarning doimiy tarkibini uzoq vaqt saqlab turishda namoyon bo'ladi. **Beqarorlik** esa, eng avvalo kadrlar qo'nimsizligida aks etadi. Qo'nimsizlikning yuqori darajasi – beqarorlikning eng muhim alomatidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar. Toshkent, Universitet, 2002.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol":2006
3. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent. "Adabiyot uchqunlari":2017

## **TENGLAMALAR SISTEMASINI GEOMETRIK USUL YORDAMIDA YECHISH**

*Eshqorayev Qaxramon Aburaxmatovich*

*Termiz davlat universiteti*

[eshqorayevqahramon87@gmail.com](mailto:eshqorayevqahramon87@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ba'zi chiziqli tenglamalar sistemasini geometrik shakllarning xossaligidan foydalanib yechish usullari o'rganilgan.

**Tayanch so'zlar:** Tenglama, algebraik tenglamalar sistemasi, vektor, funksiya va Dekart koordinatalar sistemasi.

## РЕШЕНИЕ СИСТЕМЫ УРАВНЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МЕТОДОМ

**Аннотация:** В данной статье изучаются методы решения некоторых систем линейных уравнений с использованием свойств геометрических фигур.

**Ключевые слова:** Уравнение, система алгебраических уравнений, вектор, функция и система координат Декарта.

## SOLVING A SYSTEM OF EQUATIONS BY THE GEOMETRIC METHOD

**Annotation:** This article studies methods for solving some systems of linear equations using the properties of geometric shapes.

**Keywords:** Equation, system of algebraic equations, vector, function and coordinate system of Descartes.

Bugungi kun bizdan ta'lim-tarbiya berishning yangi metodlarini ishlab chiqish, fanlararo bog'lanishni kuchaytirish, ijodkor va erkin hamda har tomonlama mustaqil fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashdek dolzarb vazifani talab etadi. Ushbu masalalarning ko'pchiligi matematika fanidan respublikamizning turli bosqich olimpiadalari masalasi sifatida keltirilganligi bois, ushbu usullardan dars davomida, ayniqsa matematik to'garaklarda, o'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlashda foydalansa yanada yaxshiroq samara beradi degan umiddamiz.

Geometrik bo'lmagan masalalarni geometrik usulda yechish o'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni teran tushunib yetadi, ilmiy tafakkuri, dunyo qarashi hamda ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Biz masalamizni quyidagi turlarga bo'lib ifodalaymiz.

1. Dekart koordinatasi sistemasi yordamida yechiladigan masalalar;
2. Pifagor hamda kosinuslar teoremasi yordamida yechiladigan masalalar;
3. Vektorlar yordamida yechiladigan masalalar.

Quyida bu holatlarning har biriga alohida to'xtalib, ularga oid masalalar yechimini keltirib o'tamiz

Umumtalim maktablarining algebra va geometriya fanlarida algebraik va geometrik masalalarni yechishda bir qator usullardan foydalaniladi. Bu maqolada algebraik masalalarni geometrik usulini qo'llab yechishni qarab chiqilgan. Bunda koordinatalar usulini qo'llab xar xil turdagi algebraik tenglamalar sistemasini yechish mumkin. Koordinatalar usulidan foydalanib tenglama, tenglamalar sistemasi va tengsizliklarni geometrik nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Shuning uchun, geometriyani algebra va analizga qo'llash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu turdagi masalalarda, grafikni tasvirlash orqali koordinatalar usuli tadbiq etiladi.

Masalan ikki nuqta orasidagi masofani topish formulasini koordinatalar orqali ifodalasak bo'ladi. Koordinatalar usuli yordamida tenglamalar sistemasining yechimlar sonini topish mumkin. Bizga ma'lumki, yuqori darajali algebraik tenglamalar sistemalarini yechishning umumiy usuli yo'q. Shuning uchun bunday masalalar ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Biz quyida chiziqli bo'lmagan tenglamalar sistemasining yechimlar sonini topish masalasini qaraymiz.

**1-masala.** Quyidagi masalalar sistemasi nechta yechimga ega?

$$\begin{cases} y + x^2 = 5 \\ x + y^2 = 3 \end{cases} \quad (1)$$

Yechish: Bu tenglamalar sistemasini algebraik usulda yechishga harakat qilib ko'raylik. Tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasidan  $y$  ni topib, ikkinchi tenglamaga olib borib qo'yamiz.

$$y = 5 - x^2 \quad (2)$$

(2) munosabatni (1) tenglamalar sistemasining 2-tenglamasiga qo'yganda, quyidagi tenglama hosil bo'ladi:

$$x + (5 - x^2)^2 = 3 \quad (3)$$

(3) ni soddalashtiramiz:

$$x + 25 - 10x^2 + x^4 = 3$$

$$x^4 - 10x^2 + x + 22 = 0 \quad (4)$$

Hosil bo'lgan (4) tenglama, 4-darajali tenglamadir. Bizga ma'lumki 4-darajali tenglamalarni yechishning umumiy usuli yo'q. Shuning uchun, uning yechimlari sonini topishning ham imkoniyati yo'q. Demak, algebraik usul yordamida, har doim ham masalani yechishga erisha olmas ekanmiz. 4-darajali tenglamalarni yechish qiyin bo'lganligi sababli va ularning yechimini hisoblashda qiyinchilik tug'durganlig'i uchun tenglamalar sistemasini yechish uchun tenglamalar sistemasini yechishda funksiya hosil qilinadi va hosil bo'lgan funktsiyani koordinatalar usuli yordamida yechish ancha qulayliklarga erishiladi shuning uchun yuqoridagi tenglamalar sistemasini koordinatalar usuli yordamida yechamiz. Buning uchun tenglamalar sistemasi qatnashgan har bir tenglamaning grafigini koordinatalar tekisligida tasvirlaymiz.

$$y + x^2 = 5$$

Yuqoridagi tenglamadan  $y$  ni topamiz va kvadrat funktsiyani xosil qilamiz. Hosil bo'lgan kvadrat funktsiyaning grafigini tasvirlaymiz.

$$y = -x^2 + 5, \quad (5)$$

Xuddi shunday (1) tenglamalar sistemasining 2-tenglamasidan  $x$  ni topsak quyidagi funktsiyani hosil qilamiz

$$x = 3 - y^2, \quad (6)$$

(5) va (6) funktsiyalar bizga ma'lumki kvadrat funktsiyalar. Bu funktsiyalarning grafigini bitta koordinatalar tekisligida tasvirlaymiz. Bizga maktab kursidan ma'lumki

$$y = ax^2 + bx + c, (a \neq 0) \quad (7)$$

funktsiyaning grafigini yasash uchun quyidagi amallarni bajaramiz.

a) (7) kvadrat funktsiya uchining koordinatalarini topamiz, ya'ni

$$x_0 = -\frac{b}{2a}$$


$$y_0 = -\frac{b^2 - 4ac}{4a}$$

b) Kvadrat funktsiyaning koordinatalar o'qlari bilan kesishish nuqtalarini topamiz. Ya'ni

$Ox$  o'qi bilan kesishgan nuqtasini topish uchun  $ax^2 + bx + c = 0$  tenglamani yechamiz.

$Oy$  o'qini kesish nuqtasini topish uchun  $x$  ning o'rniga  $0$  qo'yib  $y = c$  ni hosil qilamiz.

s) Aniqlik uchun  $x$  ning ba'zi bir qiymatlarida  $y$  ni topamiz. Yuqoridagi algoritmdan foydalanib (5) va (6) funktsiyalarning grafigini yasaymiz.



1 - chizma

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, (5) va (6) funksiyalarning grafigi 4 ta nuqtada kesishadi. Demak (1) tenglamalar sistemasining 4 ta yechimi bor ekan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, koordinitalar usuli yordamida, algebraik usul bilan yechish imkoniyati yo‘q bo‘lgan masalalarni xam ishlash mumkin.

#### Adabiyotlar

1.Mirzaaxmedov M. A., Rahimqorayev A. A. 6-sinf matematika//O‘qituvchilar uchun qo‘lanma, T:O‘qituvchi,2005.

2.Dodajonov N.D., Jo‘rayeva M. Sh. Geometriya, 1-qism, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.

3.Azamov A va boshkalar “Geometriya” darslik, Toshkent “Yangiyo‘l poligraf serves”,2009.

4.Toshboyeva N., “Geometrik muammoli masallalar asosida talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish”/Academic Research in Educational Sciences/ VOLUMEN 2/ CSPI CONFERENCE 3 2021.//Zamonaviy at`limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 182-185

5. Toshboeva, N., (2021). Development of creative ways with the help of geometric problems, ACTA NUUZ, 1.5.2, pp. 148-150.

6.Тошбоева,Н., Развитие творческих способов студентов с помощью нестандартных вопросов // Academic research in educational sciences. 2021. №NUU Conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiyetvorcheskih-sposobov-studentov-s-pomoschyu-nestandartnyh-voprosov>.

7. Toshboeva Nargiza, Geometric problem tasks as a factor in the development of creative competencies. Таълим ва инновацион тадқиқотлар, 2021 йил №5 -pp. 210-214.

8. Сейтов А. Ж., Кудайбергенов А. А., Хонимкулов Б. Р. Моделирования двумерного неустановившегося движения воды на открытых руслах на основе проекционного метода. сборник докладов Республиканской научнотехнической конференции «Инновационные идеи в разработке информационно-коммуникационных технологий и программных обеспечений» 15-16 мая 2020 года. САМАРҚАНД. Стр. 60-63.

9. А.СЕЙТОВ. Оптимальные методы управления водных ресурсов в крупных магистральных каналах ирригационных систем. AGRO ILM – O‘ZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI. Махсус сон. 2020. Ташкент. Стр. 84-86.

10. Aybek Jumabayevich Seytov, Mamatqobil Nurmamatovich Esonturdiyev, Obid Sherqul Ogli Qarshiboyev, Gulhayo Bahodirovna Quzmanova. academic research in educational

11. [www.a-geometry.narod.ru](http://www.a-geometry.narod.ru).

12. [www.exponenta.ru](http://www.exponenta.ru).

## **PEDAGOGIK AMALIYOTLAR TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH VOSITASI SIFATIDA**

*Shahrisabz davlat pedagogika institut o`qituvchisi  
Choriyeva Mehribonu Baxtiyorovna*

### **Annotatsiya**

Maqola mazmunida talabalarni pedagogik amaliyot vositasi orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy nazariy mohiyati yoritilgan bo`lib mavzuning metodologiyasida bu tushunchaning paydo bo`lishi va ommalashishga zamin hozirlovchi fikrlar tahlili berilgan.

**Kalit so`zlar:** kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv, faoliyat, pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot

### **Аннотация**

В содержании статьи освещена научно-теоретическая сущность подготовки студентов к профессиональной деятельности в педагогической практике, а в методологии темы дан анализ идей, подготавливающих почву для возникновения и популяризации данного понятия. .

**Ключевые слова:** профессиональная деятельность, профессиональная подготовка, социальная адаптация, деятельность, педагогическая практика, профессиональная практика.

### **Annotation**

In the content of the article, the scientific theoretical essence of preparing students for professional activity in pedagogical practice is highlighted, and in the methodology of the subject, an analysis of the ideas that prepare the ground for the emergence and popularization of this concept is given.

**Key words:** professional activity, professional training, social adaptation, activity, pedagogical practice, professional

Talabalar amaliyoti oliy kasbiy ta'limning asosiy ta'lim dasturining (OTM) ajralmas qismi bo`lib, u talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, bevosita pedagogik amaliy ko`nikma yoki ko`nikmalarga ega bo`lishini ta'minlaydi. Pedagogik nazariya g`oyalariga ko`ra shaxs kamolotida tarbiya va ijtimoiy muhit muhim o`rin tutadi. Jamiyatning a`zosi sifatida u ijtimoiy ahamiyatga ega muayyan vazifalarni bajaradi yosh jihatidan ulg`aygani sari u tomonidan bajarilayotgan ijtimoiy rollar shakli va mazmuni o`zgarib boradi qiziqishlari va qobiliyati darajasida atrofdegilar bilan munosabatga kirishadi. Mazkur jarayon o`z mohiyatiga ko`ra bevosita shaxsning ijtimoiylashuviga ta`sir ko`rsatadi. Shaxsning ijtimoiylashuvida esa ta'lim tizimi, unda ustuvor bo`lgan maqsad hamda ana shu maqsadni amalga oshirishga yo`naltirilgan pedagogik jarayonning sezilarli ta`siri va rolini inobatga olgan holda ta'limni shaxsga yo`naltirish talab etiladi. Bu esa o`z navbatida shaxsni shakllantirish jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi. Aslida bu masala bugungi kungacha ham adabiyotlarda va mutaxassislarining fikrida mavjud edi, Bunday fikrlarga misol sifatida quydagilarni ko`rsatamiz.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “ Ta`lim to`g`risida” gi qonunning yangi tahririda butun dunyo ta`lim me`yori asosida tuzilgan davlat ta`lim talablari darajasida, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida chet el ta`limi bilan raqobat qila oladigan, raqobat jarayonida Vatan sha`ni, manfaati va obro`sini munosib himoya qila oladigan milliy kadrlarni yetishtirish asosiy vazifa sifatida belgilangan. Bu muhim vazifani amalga oshirish yalpi ta`lim va tarbiya tizimini, uning murakkab qismlaridan biri pedagogik amaliyotni tashkillashtirishni tubdan isloh qilishni talab etmoqda. Chunki yangi zamon talablariga javob



beradigan kadrlar tayyorlash milliy modeliga mos yangi pedagogik xodimlarni avvalgi pedagogik texnologiya asosida tayyorlash aslo mumkin emas. Shu bois, kadrlar tayyorlash milliy dasturida yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va uni hayotga tadbiiq etishga talaba-amaliyotchilarni o`rgatish alohida ta`kidlangan.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeliga muvofiq pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Har bir talabaniing pedagogik faoliyatga ongli, qiziqvchanlik bilan;
2. Pedagogik yoki malakaviy amaliyotga qatnashishini shakllantirish;
3. Pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarashga o`rgatish;
4. Maxsus, pedagogik va psixologik fanlarni chuqur o`rganishga yordam berish;
5. Bo`lajak o`qituvchining yangi jamiyat talablariga moslashishiga ko`maklashish;
6. Bo`lajak mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga ega bo`lgan holda kasbiy mahoratni egallashiga yordam berish;
7. Talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash;
8. Yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish;
9. Talabalarni o`quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul metodlarni ko`rgazmali texnik vositalarni, an`anaviy va noan`anaviy dars va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish tayyorlash darajasini oshirish;
10. O`quvchilarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini, shakllanyirish va bilim o`rganish maqsadida talabalarning ular bilan o`zaro munosabatini tashkil qilishga jalb qilish, ularda pedagogik izlanuvchanlikka bo`lgan qiziqishni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Talabalar pedagogik amaliyot davrida xohlagan masala bo`yicha pedagogika institutining pedagogik amaliyot va tashkilot rahbariyatiga, o`quv o`rni amaliyotning tashkiliy masalalari bo`yicha tavsiyalar berish o`quv muassalaridagi bolalar va o`smirlar yoshlar va kasaba uyushmalarining konferensiya va yig`ilishlariga qatnashish kutubxona fan kabinetlaridan va mavjud o`quv-uslubiy qurollardan faoydalanish huquqiga ega. Bundan tashqari pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish bo`lajak mutaxassislar uchun foydaliligini ta`minlovchi omillar mavjud va bu omillarning quydagilari muhim.

-o`qituvchi va tarbiyachilariga murojaat qilishi, o`quv - tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;

-amaliyot bo`yicha rahbari, guruh rahbari, metodistlar, pedagogika va psixologiya o`qituvchilari, tashkilot rahbariyati va o`qituvchilarning topshiriqlarini ma`suliyat bilan bajarish;

-texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidasini qat`ian amal qilish;

-kamtarinlik, tashkilotchilik, tartib-intizom, odoblilik va mehnatsevarlilik kabi ijobiy jarayonlarda namuna bo`lishi;

- pedagogik amaliyot dasturlarida ko`rsatilgan barcha vazifalarni bajarish;

-bolalar bilan o`tkaziladigan o`quv-tarbiyaviy ishlarning tashkil qilinishi va uyushtirilishiga puxta tayyorlanish;

-ularning reja va dasturlarini, konspektlarini tuzishga, uni o`qituvchi, sinf rahbari va uslubiyotchiga tasdiqlatish o`rganish;

- dars jadvaliga muvofiq barcha o`quv tarbiyaviy ishlariga va ularning tahliliga faol qatnashish;

-amaliyot kundaligini yuritish va amaliyot yakunida guruh rahbariga hisobot berishi va amaliyot bo`yicha sinov topshirishi shartligini bilish;



Yuqorida e'tirof etilgan talablarni bajarmagan amaliyotchi pedagogik amaliyotdan chetlashtiriladi. Pedagogik amaliyotdan chetlashtirilgan yoki pedagogik amaliyot davridagi faoliyati uchun noloyiq baho olgan talaba ushbu semestrda o'quv rejasini bajarmagan hisoblanadi. Fakultet (Institut) kengashi qarori bilan unga o'qishdan uzluksiz ravishda takror pedagogik amaliyot belgilanadi.

### **Xulosa**

Biz yuqorida aytib o'tgan talabalarni pedagogik amaliyot davomida ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorlashning ba'zi muhim jihatlariga oid tahlillarimiz va chiqargan xulosalarimizdan ta'lim jarayonlarida samarali foydalanilsa o'ylaymizki, keng tafakkurli, mustaqil dunyoqarashga va nostandart fikrlaydigan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, har bir muammoga aql ko'zi bilan qaraydigan, intellektual jihatdan salohiyatli va mamlakatimiz barqaror taraqqiyotiga o'zining munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>.

3. A. Xodjaboyev, I. Husanov "Kasbiy ta'lim metodologiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti 2007-yil 192 bet.

4. I. M. Sirojiddinova "Kasbiy ta'lim metodikasi" o'quv qo'llanma Andijon "Noshirlik" nashriyoti 2021-yil 220 bet.

## **KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLA FOYDALANISH**

Termiz muxandislik –texnologiya instituti .O' .N.Sultonova

Raximberdiyev Otabek – Termiz muxandislik –texnologiya instituti 2-kurs talabasi

**Kalit so'zlar:** kompyuter, elektron aloqa, pedagogik axborot, o'quv materiallari. Integrative kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, shuni bilish mumkinki, bilimlar bazasining birlamchi bibliografik o'xshashliklari sifatida turli ensiklopediyalar, lug'atlar xizmat qiladi. Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o'quv materiallari, o'quv materiallari bo'yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo'yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar ta'lim mazmunini sezilarli o'zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi. Uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi XX asrning 30 yillarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida va AQSH da ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun harakatga kelgan davrda yuzaga keldi. Mazkur g'oya ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" ( ta'lim texnikasi) tushunchasining kiritilishi bilan asoslanadi. O'sha

davr adabiyotlarida "pedagogik (ta'lim) texnikasi" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etilgan. O'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarning olib kirilishi ulardan samarali, unumli foydalanish material mazmunini ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir, deya baholandi. XX asrning 50 yillariga kelib, ta'lim jarayoniga texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilovchi vosita, deb e'tirof etildi.[2,3]

Texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish axborot sig'imini kengaytirish va ularni uzatishni sifatli tashkil qilish, ta'lim olishni individuallashtirishga qaratildi. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalarning imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi. O'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi. 60 yillarga kelib, ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida qabul qilina boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarning alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Bu ish ilk bora AQSHda faoliyat yurita boshladi. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. [6,7]

Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekistonimizda ham ta'lim muassalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakat bir qator yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borilmoqda.(AXELS, IREXS, KOICA va boshqalar). Mazkur markazlar tomonidan tashkil etilgan ilmiy seminar, qisqa va uzoq muddatli kurslarda oily o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarning pedagogik xodimlari ishtirok etib, pedagogik texnologiya va undan ta'lim jarayonida foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'ldilar.[1,8]

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi Oliy maktab muammolari instituti, OzPFITI va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi markazda bu sohada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash ta'lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ularning pedagogic mahoratlarining takomillashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishga o'ziga xos vazifalarni qo'yadi:

— masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoa o'qituvchilar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birgalikda faoliyat olib borishni; [9,11]

— o'qituvchilar o'rtasida vazifalarning bir maromda to'g'ri taqsimlanganligini;

— ta'lim va tarbiya jarayonini yanada mukammal tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish monitoringini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Kompyuter texnologiyalari (kompyuter savodxonligi)dan foydalanishda o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

— multimedia texnologiyalarini qo'llash evaziga o'quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi.[4.6]

— bunda ta'limning interfaolliigi tufayli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o'quv materialini o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

— real holatlardan namoyish qilinishi yoki murakkab jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini berish bilan muhim ahamiyatga ega.

— o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilarning mantiqan erishish darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi.

— masofadan turib ta'lim olishni faqat o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun yoki internet ta'limi uchun tashkil etilmaydi. Balki sababsiz dars qoldirgan o'quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi.

— o'quvchilarga mustaqil izlashi uchun materiallarni topish hamda muammoli masalalarga jovob berish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi.[7.15]

— o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, axborot va ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi. Ta’lim tizimini takomillashtirishning bosh xususiyatlaridan biri kompyuter bilan muloqot jarayonida uning doimiy murojaat qilinadigan “qo‘llab quvvatlovchi axborot” ini ko‘paytirish, kompyuter axborot muhiti va hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan darajadagi axborot bazasining yaratilganligini, giper matn va multimedia o‘qitishda immitatsiya, kommunikatsiya tizimlari qabul qilingan. Ma’lumotlar bazasi deganda, axborotni kompyuter texnikasi yordamida kiritish, tizimlashtirish, saqlash va foydalanish uchun tavsiya qilish tushuniladi. Bir qator axborotlarni an’anaviy qayta ishlash uchun ularni tayyorlashning standart shakllari mavjud bo‘lib, ularga bibliografiya, statistik ma’lumotlar, referatlar kiradi. Ma’lumotlar bazasi axborot tarkibiga statistik, matnli, grafik va ko‘rinishli axborotlarni cheksiz ko‘p miqdorda va albatta, belgilangan ko‘rinishlarda qabul qiladi. Bilimlar bazasi esa yopiq tizimda mazkur mavzu bo‘yicha qo‘shimcha axborotlarga ehtiyoj sezmaganda va uning har bir elementi mantiq jihatidan bog‘langan boshqa elementlarga chiqa olish bo‘yicha axborotlashtirilgan tizimga ega bo‘ladi. Bunda ushbu bilimlar bazasiga kiritilmagan, ya’ni undan tashqi elementlarga murojaat qilinishiga imkon bo‘lmaydi. Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o‘quv materiallari, o‘quv materiallari bo‘yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo‘yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar ta’lim mazmunini sezilarli o‘zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi. Uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi.[12.13]

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, “Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari” Toshkent “Yangi nashr” 2018. Foydalanilgan adabiyotlar

1.СултоноваЎ.Н. Физикадан дарс ва тўғарак машғулотларида янги педагогик технологиядан фойдаланиш // Высшая школа. -2018. 23 декабрь. -С. 255-258.

2.Sultanova. O‘.N. Basad on students’ competency – based approach to physics solve experimental and graphical problems // International interdisciplinary research. In volume 9, May, 2021. -903-98 pp.

3.Sultonova O‘N. The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach” Vol 12 no 1 Jan-Feb-.: 2020 й, 52-57,Б [www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html](http://www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html)

4.Sultanova O‘.N. “Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training

5.султонова ў.н. galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)импакт фактори: 7.472 issn: 2347-6915ссылкаси: based on students' competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems 2021 y may

6.султонова ў.н. galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) импакт фактори: 7.47 issn: 2347-6915ссылкаси:<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/154/145>

improving the use of information technology in the process of studying mathematics in grades 5-620 21 y

7. Махмудов Ю.Ф.,Қосимов А.С. Инновацион таълим технологияларидан ўқув жараёнларидан фойдаланишнинг методик-дидактик асослари. Тошкент. 2018 й.196 бет.

8.Sultonova O‘N. “The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach” Vol 12 no 1 Jan-Feb-.: 2020 й, 52-57,Б [www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html](http://www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html)

9.Sultanova O‘.N. “Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training technical engineers)”.

10.Sultanova O'.N. Use of MathCad software in the preparation of students majoring in engineering. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 10, Issue 12, December -.:2020 й, 650-653 б. <http://gx.doi.org/>

11.Султонова Ў.Н. “Инновацион технология модели- таълимда юқори самарадорлик гаровидир.” Международной научной конференции “Актуальные вызовы современной науки”-.: 26-27 июня 2020 й, 407-409 б.

12.Султонова Ў.Н “Инновацион технология модели-таълимда юқори самарадорлик гаровидир” Международной научной конференции “Актуальные вызовы современной науки”-.:26-27 июня 2020г, 91-93Б.

13.Султонова Ў.Н. “Таълим технология инновацион модели”. “Техника ва технологик фанлар соҳаларининг инновацион масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжумани.-.: 2020 йил 22 сентябрь. 407-410.Б

## XALQ PEDAGOGIKASIDAN ZAMONAVIY MAKTABLARDA FOYDALANISHNING USUL VA YO‘LLARI

Sharq G‘arbning muallimidir.

(Xerler, olmon olimi)

Pardayeva Komila –JDPU Pedagogika  
ta’limi kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Аннотация.** Народная педагогика изучает передовой опыт нашего народа в области образования, что помогает подготовить будущих учителей к непосредственной практической работе, оросить систему образования народным духом.

**Ключевые слова:** Народная педагогика, этикет, этика, обычаи, приемы, приемы, фольклор.

**Annotation.** Folk pedagogy studies the best practices of our people in the field of education, which helps to prepare future teachers for direct practical work, to irrigate the education system with the national spirit.

**Keywords:** Folk pedagogy, etiquette, ethics, customs, methods, methods, folklore

Ma’naviy yangilanish va tub islohotlar kechayotgan yurtimizda barcha sohalar qatori xalq ta’limi tizimida ham o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mamlakatimizda ta’lim islohotidan so‘ng barcha fanlar qatori pedagogika faniga ham yangiliklar kirib keldi. Jumladan, tarbiyaning mazmuni tubdan **qayta** ko‘rib chiqildi. Qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz, an‘analarimiz, milliy istiqlol mafkurasiga xizmat **qilmoqda**. Aynan shu vaziyatdan kelib chiqib, xalq pedagogikasi, **xalq** donishmandligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatdagi ma’naviy yangilanish bevosita pedagogika faniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmokda, ta’lim-tarbiya sohasni, uning mazmuni, usullarini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Bunda biz xalqimizning boy madaniy merosidan foydalanamiz, albatta. Xalq pedagogikasi yosh avlodni tarbiyalashning tarixan tarkib topgan tajribasi, bolalarni xalqning ijodiy yutuqlari, an‘analari ruhida tarbiyalash tajribasidir. Hunar o‘rgatish, badiiy, axloqiy, estetik tarbiya, jismonan sog‘lom, matonatli avlod tarbiyasi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish xalq pedagogikasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xalq pedagogikasining asosiy manbalaridan biri xalq og‘zaki ijodidir. Xalq og‘zaki ijodi ta’lim-tarbiya targ‘iboti uchun ajoyib material, samarali vositasidir.

U — butun xalq yaratgan xazinadir. **Xalq** og‘zaki ijodida xalqning butun turmush tarzi, **qadimgi** urf-odatlar va marosimlar, bolalar tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad va vazifalar yaqqol ko‘rsatilgan, ota-onalarning bolalarga ta’sir ko‘rsatish yo‘llari va bunda qo‘llaniladigan vositalar ko‘rsatilgan. Unda haqqoniylik, sofdillik, rostgo‘ylik va boshqa olijanob g‘oyalar, turmushning turli tomonlaridan olingan insoniy bilimlarning yig‘indisi, his-tuyg‘ularning chuqurligi va

nozikligi ifodalangan. Zamonaviy pedagogika aynan ana shu xususiyatlarni o'ziga qabul qilib oladi. Xalq yosh avlodda mehnatsevarlik, sofdillik, haqqoniylik, xushmuomalalik, ota-onalarga, kattalarga hurmat, o'zidan kichiklarga g'amxo'rlik va yomonlikka nafrat singari muhim axloqiy sifatlarni tarbiyalagan.

Xalq pedagogikasi ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini qamrab oladi. Uning tarkibiga xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi, marosimshunoslik, diniy ta'limot kiradi.

O'zbek xalqining pedagogik qarashlari bizgacha alohida qo'llanma, dastur, darsliklar shaklida etib kelmagan. U uzoq asrlar davomida shakllangan, ya'ni turli janrdagi asarlar elshunoslik, qadrshunoslik va udumshunosliklarda saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Qur'oni Karim, Hadisi sharifda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar — ota-bobolarimiz uzoq o'tmishda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan otameros, SHarq xalqlarining boy va betakror odobnomasi va odatnomasi, xalq pedagogikasining eng yaxshi namunalari, oddiy xalq ijodkorlari — ijrochilarining bu boradagi sa'y-harakatlari bilan qo'shilgan holda shakllangan, rivojlangan. O'zbek xalq pedagogikasi o'zining yo'nalishi, ibratli xulosalarga boyligi, bebaho asarlari, ma'no-mantiqijihatidan mukammalligi, teranligi, uslubi bilan havas qilsa arziydigan buyuk merosdir. Zamonaviy pedagogika esa ana shu merosdan foydalanib, ta'lim-tarbiyaning yangi-yangi usullarini tajribada qo'llab kelmoqda.

Mustaqillikka erishgach, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarimizni chuqur anglay boshladik, ta'lim-tarbiya jarayonida bu qadriyatlarimizni asos, dasturilamal qilib oldik. Ma'lumki, bugungi kunda tarbiyaning bosh maqsadi yoshlarga milliy mafkurani singdirish. Bu mafkuraning pedagogik asosi – avvalo, yoshlarda insoniy g'ururni, mustaqil va erkin fikrlashga, o'zligini anglashga intilishni tarbiyalashdan iboratdir. Bu bebaho fazilatlarni tarbiyalashda biz birinchi navbatda xalq pedagogikasiga — xalq og'zaki ijodi, diniy ta'limot va sharq allomalarining asarlariga murojaat qilamiz. Masalan, yoshlarda insoniy g'urur, oriyat, or-nomus, hamiyat tuyg'ularini tarbiyalashda hech qaysi tarbiya vositasi dostonlarchalik samarali ta'sir ko'rsata olmaydi.

«Go'ro'g'li» dostonida Go'ro'g'li Vatanni dushmandan himoya qilishga o'tlanayotgan yigitlarga shunday shart qo'yadi: «Kim nomusi, ori uchun kurashmasa, o'zim uning jonini olaman!», «Alpomish» dostonida Alpomish Barchin uchun, xalqi uchun oriyat talashib Qalmoq yurtiga jo'naydi. 89 palvon bilan kuch sinashib, g'olib keladi. Zindonda yotganda ham ozodlikka chiqish uchun or-nomusini sotmaydi, g'ururini sindirmaydi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. «Shavla ketsa ketsin, obro' ketmasin» degan xalqimiz insoniy g'ururni butun saqlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Qur'on va Hadisda ta'kidlanishicha, Alloh kechirmaydigan gunohlardan eng ulug'i — iymonsizlikdir. Zero, iymoni yo'q odamda g'urur ham bo'lmaydi. Iymoni, g'ururi yo'q odam o'z sha'nini ham, yurt sha'nini ham, ozodligini ham himoya qila olmaydi.

Hazrat Alisher Navoiy bobomizning:

El nechuk topgay menikim, men o'zimni topmasam.

misrasida o'zlikni anglash g'oyasi tarannum etiladi. Ya'ni, o'zini-o'zi hurmat qilmagan, o'zini anglamagan kishini hech kim anglamaydi ham, hurmat ham qilmaydi, tan olmaydi ham.

Xalq pedagogikasidagi ana shunday g'oyalarni yoshlarda tarbiyalash orqali yoshlarga milliy mafkurani singdiramiz. Zotan, oddiy insoniy g'ururni tarbiyalamasdan turib, milliy g'ururni tarbiyalab bo'lmaydi. Yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatmasdan turib, ularga milliy g'oyani singdirib bo'lmaydi.

Demak, shunday sharafli vazifani bajarishning asosini ham xalq pedagogikasi tashkil etadi.

Pedagogika fani xalq pedagogikasi an'analariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatadi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning barcha masalalariga va muammolariga davr talablari asosida yondashadi.

Ilmiy pedagogika xalq pedagogikasi zaminida shakllandi. Xalq pedagogikasi eng

qadimgi ajdodlarimizning tarbiya sohasidagi tajribalari — donishmandlik pedagogikasidan boshlab to XX asr boshlaridagi ta'lim-tarbiya sohasidagi jadidchilik harakatigacha bo'lgan davr va undagi pedagogik qarashlarni o'z ichiga qamrab oladi. Xalq pedagogikasi eng qadimgi yozuv paydo bo'lishidan oldin shakllangan. Shunga ko'ra, u ilmiy pedagogikaning boshlanishi hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi o'z xususiyatlari bilan ilmiy pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq pedagogikasining ilmiy pedagogikadan farqi shundaki, u tarixiy, mantiqiy va qurilish jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega.

Ilmiy pedagogikaning bugungi kundagi asosiy vazifasi yoshlarning ong va tafakkurini mustahkamlash, ularda milliy g'oya va mafkurani shakllantirishdir. Ilmiy pedagogika bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odati va an'analari, xalq pedagogikasi aqidalariga asoslanadi. Ilmiy pedagogikaning nazariy asoslari xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutafakkir olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni **tarbiyalash** va o'qitishning qoida va qonuniyatlariga asoslanadi. Ilmiy pedagogika ta'lim-tarbiya masalalarini har bir millatning milliy merosi bilan umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarni bog'lagan holda amalga oshiradi.

Ilmiy pedagogikaning o'z ildizlari va sarchashmalari bor. Eng qadimgi manbalardan to keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarning asosida komil insonni tarbiyalash asosiy muammo — masala hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi didaktik asarlarining har biri o'zi bir darslikdir. Ilmiy pedagogika xalq pedagogikasi an'analari bilan bir qatorda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida, zamonaviy metodlar asosida shakllanadi va haqiqiy zamonaviy, milliy pedagogikaga aylanadi.

Pedagog olimlar o'z ilmiy nazariyalarini yaratishda xalq tajribalariga asoslanib, orttirgan an'ana-udumlarni ilmiy ravishda umumlashtiradilar. Ilmiy pedagogika kashfiyotlar asosida vujudga keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Munavvarov A.K., «Oila pedagogikasi», Toshkent 1994 yil ZunnunovA., «O'zbek pedagogikasi tarixi», Toshkent, «O'qituvchi» — 1997 yil, 272 — bet
2. «Pedagogika xrestomatiyasi», Toshkent, «O'qituvchi». 1993 yil. Musurmonova O.
3. «Hadislar — ma'naviyat manbai», Toshkent ,, 1992 yil Hoshimov K. va boshqalar, «Pedagogika tarixi» Toshkent, «O'qituvchi» — 1996 yil, 146 — bet.
4. Pardayeva K.U. *Абдулла Авлоний ижтимоий-педагогик фаолиятининг асосий ўйналишлари. Proceedings of 4th International Multidisciplinary Scientific Conference on Innovative Technology Hosted from San Fransisco, USA <https://conferencepublication.com> January, 31st 2021*
5. Pardayeva K.U Abdulla Avloniy faoliyatining ijtimoiy-ma'rifiy jihatlari. *Xalq ta'limi o'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. 2021 3-maxsus son Toshkent*

## **ЭЛЕКТРОПРОВОДНОСТЬ И ДИЭЛЕКТРИЧЕСКАЯ ПРОНИЦАЕМОСТЬ КОМПОЗИЦИОННЫХ ТЕРМОСТОЙКИХ ПОЛИМЕРНЫХ МАТЕРИАЛОВ СОДЕРЖАЩИХ НАНО – ЧАСТИЦЫ НИКЕЛЯ**

*Термезский инженерно-технологический институт  
ассистент Х.Ў.Панжиев*

В последние годы исследования в области создания материалов со специальными и практически важными электрофизическими свойствами на основе полимерных композитов содержащие нано-частицы металлов значительно расширились. Разработан комплекс методов, позволяющих формировать нано – частицы [1;2] .




Настоящая работа выполнена с целью изучения критического поведения электропроводности и диэлектрической проницаемости композиционных термостойких полимерных материалов на основе полиарилата и фенелона в зависимости от концентрации нано – частиц никеля.

Композиционные материалы, содержащие нано – частицы никеля были изготовлены путем разложения формиатов никеля в среде термостойких полимеров. Готовили 3-5% раствор полимера, в него добавляли порошки формиатов никеля. При постоянном перемешивании выпаривали растворитель. Во избежание агрегации частиц формиатов и выпадания их в осадок раствор до достижения высокой вязкости обрабатывали ультразвуком на диспергаторе УЗДН-1 с частотой колебания 22 кГц, мощностью 0,3 Вт. Затем полученную смесь сушили в вакууме при 373 К для выпаривания остатков растворителя. Далее температуру поднимали до 573 К и выдерживали при этой температуре до полного разложения формиатов никеля в среде полимера. Объемную долю никеля в композиции варьировали от 0,02 до 0,6. Методом малоуглового рентгеновского исследования показано, что диаметр металлических кластеров металлов в композитах  $\leq 30$  нм. Электрические измерения проводили на образцах цилиндрической формы (диаметр 15 и высота 2 ÷ 3мм), полученных горячим прессованием. Выбор оптимальных условий получения композиционных материалов определен по данным исследований их механических свойств.

Результаты измерений электропроводности ( $\sigma$ ) композитов в зависимости от объемной доли наполнителя ( $V_1$ ) представлены на рис 1. В области  $V_1 = 0,08-0,15$  наблюдается резкий рост  $\sigma$  от значений  $\sigma_2$  полимера до  $\sigma_1$  наполнителя. Критическая концентрация  $V_c$  (порог протекания), при которой впервые образуется бесконечный кластер из частиц наполнителя определена дифференцированием  $Lg\sigma$  композитов по  $V_1$  и для композиций на основе фенелона и полиарилата, содержащих нано – частицы никеля соответственно равна 0,105 и 0,125 (рис 1. а).

**Рис. 1** Зависимость электропроводности ( $\sigma$ ) от объемного содержания наночастицы никеля ( $V_1$ ) для композитов на основе фенелона (1) и полиарилата (2): 1; 2 -  $\sigma_{экс}$ ; 3; 4 -  $\sigma_{рас}$  по формуле (1) и 5 -  $\sigma_{рас}$  по формуле (2); а – зависимость  $dLg \sigma / dv_1$  от  $V_1$ .



Как видно из рис. 1 зависимость  $\sigma$  от  $V_1$  при  $V_1 > V_c$  рассчитанная по формуле

$$\sigma(V_1) = \sigma_1 \left( \frac{V_1 - V_c}{1 - V_c} \right)^t, \quad (1)$$

полученной в рамках теории протекания [3], хорошо совпадает с экспериментальными результатами. При этом критический индекс  $t$  был определен из угла наклона зависимости  $Lg \sigma$  от  $Lg (V_1 - V_c / 1 - V_c)$ , а  $\sigma_1$  путем экстраполяции прямолинейной участок, этой зависимости при  $V_1 \rightarrow 1$ .

Зависимость  $\sigma$  от  $V_1$  при  $V_1 < V_c$ , рассчитанная по формуле [3]


$$\sigma = \sigma_2 \left( \frac{V_c - V_1}{V_c} \right)^{-q}, \quad (2)$$

где  $q$ - критический индекс  $\sigma$  (для трехмерных систем  $q=0,98$ ), приведена на рис 1. Как вытекает из (2), значение  $\sigma$  систем при  $V_1 < V_c$  должно быть порядка значения  $\sigma_2$  непроводящего компонента. Несовпадение экспериментальных значений  $\sigma$  для металлополимеров с nano-частицами никеля с расчетными при  $0,05 \leq V_1 < V_c$  показывает, что хотя в них не образуется бесконечный кластер из частиц никеля, их  $\sigma$ , исходя из неоднородного распределения размеров nano- частиц и пространственного их распределения в таких системах[1,2], по-видимому, определяется туннелированием электронов от одного изолированного нейтрального зерна к другому. В пользу такого заключения говорит сильная температурная зависимость  $\sigma$  композитов, содержащих металл ниже критического значения.

В частотной ( $f$ ) зависимости диэлектрической проницаемости ( $\epsilon$ ) в исследованных системах имеется две области: при низких частотах ( $20 \div 1000$ Гц)  $\epsilon(f, V_1)$  уменьшается существенно, дальнейшее увеличение  $f$  до  $\sim 10^8$ Гц приводит к слабой зависимости  $\epsilon$  от  $f$ .

Значения  $\epsilon$  композитов, найденных путем экстраполяции низкочастотных данных к нулевой частоте, показаны на рис. 2.

**Рис. 2** Зависимость диэлектрической проницаемости композиций на основе полиарилата, содержащих nano-частицы (1) и высокодисперсный порошок никеля, от объемного содержания наполнителя ( $V_1$ ) 3 и 4- расчетные значения  $\epsilon$  по формуле (3).



Там же показаны результаты исследования  $\epsilon$  композиции на основе полиарилата и высокодисперсного порошка никеля, ( $1 \div 3$  мкм) полученной механическим перемешиванием компонентов в агатовой шаровой мельнице в течение 7 часов. Как видно из рис2 зависимость  $\epsilon$  для композитов, полученных перемешиванием компонентов, от  $V_1$  при  $V_1 < V_c$  хорошо описывается степенной формулой.

$$\epsilon = \epsilon_2 \left( \frac{V_c - V_1}{V_c} \right)^{-q}, \quad (3)$$

где  $\epsilon_2$ - диэлектрическая проницаемость полимера. Аналогичные результаты были получены в работе [4]. Как видно из рис2, экспериментальные значения  $\epsilon(0, V_1)$  композитов, содержащих наночастицы никеля при  $0,05 < V_1 < V_c$  не совпадают с расчетными по(3). При этом в формуле (3) были использованы значения  $V_c$  определенные из зависимости  $\lg \sigma / dV_1$  от  $V_1$  (рис1 а).

Изменение  $\epsilon$  композитов, содержащих высокодисперсные частицы никеля, от  $V_1$  обусловлено тем [5], что вблизи порога протекания толщина диэлектрической прослойки между островками металла уменьшается и одновременно увеличивается общая площадь поверхности таких «элементарных конденсаторов», что и приводит к резкому увеличению  $\epsilon$  композиции. В композиционных полимерных материалах, содержащих nano-частицы никеля вдали от порога протекания, как видно из рис2,  $\epsilon$  имеет достаточно высокое значение. Эти результаты показывают, что композиционные



полимерные материалы, содержащие нано частицы порошков металлов, могут быть использованы как новые материалы в электронике и СВЧ-технике.

#### **Литература:**

1. Губин С.П, Козинкин А.В, Афанасов М.И, Попова Н.А, Север О.В, Шуваев А.Т, Цирпин А.М, // Кластеры в полимерной матрице. III. Состав и строение Fe – содержащих нано – частиц в керамико образующих кремнийорганических полимерах.// Неорган. матер. 1999. 35. №2. С. 273-243.

2. Юрнов Г.Ю, Губин С.П, Панкратов Д.А, Кокиларов Ю.А, Козинкин А.В, Спичкин Ю.И, Недосейкина Т.И, Пирог И.В, Власенко В.Г

«Нано–частицы оксида железа (III) в матрице полиэтилена» Неорган. матер. 2002. 38. №2. С. 186-195.

3. Шкловский Б. И., Эфрос А.Л. Электронные свойства легированных полупроводников – М. Изд-во Наука. 1979. 406с.

4. Зайнутдинов А.Х., Касымов А.А., Магруппов М.А. Экспериментальное исследование изоформизма электропроводности, диэлектрической проницаемости и термо-эдс в композитах, предсказанного теорией протекания // Письма в ЖТФ, 1992г. 18, №.2. С.- 29-32.

5. Виноградов А.П., Лагарьков А.Н, Сарычев А.К. О возможной аномалии индуктивности композитных материалов // Письма в ЖЭТФ. – 1984. – 40. №.7. – С. 296-298.

6. Э.Тураев, О.Ниязова, Х.Панжиев // Studying the Charging State of Zinc Atoms in Silicon. // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology// Vol. 6, Issue 12 , December 2019 ISSN: 2350-0328

## **SHAXS KASBIY RIVOJLANISHINING ANDRAGOGIK ASOSLARI**

*Sattorova Shaxlo Axatovna  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

#### **Annotatsiya**

Maqola mazmunida shaxsni kasbiy rivojlanishining andragogik asoslari bugungi kunda ta'lim sohasining asosiy muammolaridan biri ekanligi haqida so'z yuritilgan bo'lib, maqolada mazkur mavzuning tadqiqot metodologiyasi, mavzuning tahlil va natijalari, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, mavzuning yakuni sifatida xulosa va takliflar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** androgogika, androgogik yondashuv, milliy tarbiya, fazilat, ezgu fazilatlar, o'zaro hurmat, ishonch, samimiylilik, jamoa orasidagi ahllik

#### **Аннотация**

Содержание статьи андрагогика профессионального развития личности. В качестве одной из проблем основ обсуждаются методология исследования данной темы, анализ и результаты темы, анализ литературы по теме, а также выводы и предложения как завершение темы.

**Ключевые слова:** андргогика, андргогический подход, национальное воспитание, добродетель, хорошие качества, взаимное уважение, доверие, искренность, нравственность в обществе.

#### **Annotation**

The content of the article is andragogic of personal professional development As one of the problems of the basics, the research methodology of this topic, analysis and results of the topic, analysis of the literature on the topic, and conclusions and suggestions as the end of the topic are discussed.

**Key words:** androgogy, androgogical approach, national education, virtue, good qualities, mutual respect, trust, sincerity, morality among the community

«Andragogika» tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog-tarixchisi A. Kapp tomonidan fanga kiritilgan. Agar bu so'z «Pedagogika» so'zi bilan yonma-

yon, o'xshash tarzda talqin etilsa kelib chiqishi grekcha so'zlardan (andros-erkak, odam; agogeyn-yetaklash) so'zlaridan iborat ekanligi oydinlashadi. Bu tushuncha so'zma-so'z tarjima qilinsa, andragogika bu - «katta odamni yetaklash» demakdir. Ushbu termin pedagogik voqelikka dahldorligi uchun, o'qitish yordamida yetaklash haqida ma'no anglatadi. "Pedagogika" (bolalarga ta'lim berish) hamda "andragogika" orasida katta farqlar mavjud. Pedagogikadagi metodik yondashuv andragogik ta'limda ijobiy natija bermasligi mumkin. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda soha doirasida olingan bilimlarni yangilab borilishi talab etilmoqda. Andragogik ta'lim orqali kadr nafaqat o'zi balki faoliyat yurutayotgan tashkilotini rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shayotgan bo'ladi. Yuqorida aytilganlarning barchasiga asoslanib kattalar auditoriyasida yangi ma'lumotni idrok etish va o'zlashtirish sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish kerak degan xulosaga keldik. Kattalar aniq maqsadga ega ekanligi yuqori motivatsiyadir boshqa tomondan o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi psixologik to'siqlar borligi ta'lim jarayonida yoshga oid xususiyatlar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Talabalarda kasbiy rivojlanishning andragogik asoslari, shaxsning maktab ta'lim tizimidan uzluksiz ta'limning keyingi bosqichiga o'tish davrida yuzaga kela boshlaydi. Ayrim o'quvchilar ta'limni kasb-xunar kollejida, ayrimlari akademik listeylarda yoki ixtisoslashgan maktab-internatlarda davom ettiradilar, so'ngra oliy ta'lim tizimiga qadam qo'yadilar. Mavjud ijtimoiy amaliyotga ko'ra muayyan bir kasbni egallash, kasbiy tayyorgarlik zinapoyalaridan (boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim) ko'tarilish, malaka oshirish, qayta tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

Har qanday kasbiy ma'lumot shaxsga nisbatan turli aspektlarda ko'rib chiqiladi:

**- bo'lajak mutaxassisni standart (model, professogramma) asosida tayyorlash;**

-shaxsning faoliyatga oid qobiliyatlarini boyitish jarayoni;

-kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil rivojlanish va o'sish;

-kasbiy ta'lim, dastlabki holatga bog'liq tarzda u yoki bu ixtisoslikni egallash mobaynida amalga oshiriladi.

-turli darajadagi amaliy vazifalarni bajarish uchun ko'nikma va malakalarni egallash;

-faoliyatni tashkil etish metodikalarini o'zlashtirish;

-nazariy ma'lumotlarni to'plash va yangilab borish;

**-kasbiy faoliyat mazmunini anglash va undagi ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishi;**

Har bir birimizda Oliy o'quv yurtidan so'ng mexnat faoliyati boshlanadi, ma'lum bir muddatdan keyin yana o'quv faoliyatiga murojaat etiladi. Chunki har qanday mutaxassis malaka oshirish va qayta tayyorlov kurslarida o'z kasbiy saloxiyatini oshirib borishi muhim sanaladi. Ishchi-xizmatchilar va xodimlar malakasini uzluksiz ravishda oshirib borishi kadrlar o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltiradi. Hozirgi kundagi taraqqiyot davrida bilim, ko'nikma va malakalar uch yoki besh yilda yangilab, boyitib boorish eng to'g'ri yo'ldir. Hozirgi kundagi jiddiy muammolardan biri, kishining uni o'rab turgan dunyo o'zgarishlarga moslashishidan orqada ekanligi, tezkor axborot oqimiga uning talablariga javob bera olinayotganidir. An'anaviy bazaviy ma'lumot, ijtimoiy va axborot o'zgarishlariga dosh bera olmayapti.

Shuning uchun mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini yangilab turish maqsadida malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari va institutlar tashkil etilgan. Mutaxassislarning malaka oshirishdan o'tish davriyligi ish beruvchi tomonidan belgilanadi:

Qisqa muddatli tematik o'qitish;

Tematik va muammoli seminarlar;

Uzoq muddatli o'qitish;

Mutaxassislarni qayta tayyorgarlikdan o'tkazish (ikkinchi mutaxassislik)ning maqsadi, yangi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berishdan iboratdir. Shaxsning hayot tarzi va egallagan kasbiy faoliyati o'zaro uyg'unlikda kechadi agar:

-Kishining egallagan sohasi uning hayotiy rejalari va qadriyatlari bilan bog'liq bo'lsa;

-Professional faoliyat uning ijodiy qobiliyatlari hamda imkomyatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqara olsa;

-Mexnat natijalari va malakani oshirib borish ijtimoiy jixatdan qo'llab-quvatlab turilsa;

-Professional faoliyatda kasb-mahoratini oshirish uchun yangi talabalar kuchayib borsa;

O'z kasbiy sohasida katta odam sub'ekt sifatida faoliyat olib boradi. Innovastion o'zgarishlar davrida xatto tajribali mutaxassis ham o'z bilim va malakasini oshirishga ehtiyoj sezadi. Bir necha yillardan buyon bir sohada mehnat qilayotgan, o'z kasbini ustasi bo'lgan mutaxassislar o'z xayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashishga, maslahat berishga, yosh mutaxassislarga kasbning sir-sinoatlarni ochib borishga intiladilar. Bu quvonarli hol, shuning uchun malaka oshirishda ularga o'z muvaffaqiyatlari sababini ko'rsatib berishga, kasbiy mahorat sirlarini yetkazib berishga imkoniyat berish lozimdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki shaxsni kasbiy rivojlantirishning andragogik asoslari muammosini ilmiy-nazariy tahlil qilish, androgogik yondashuv asosida talabalarning milliy tarbiyaga xos fazilatlarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishi olib boruvchilarning asosiy vazifasi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.A. X. Abdullaev, N. S. Raximov, M. O. Xadayev "Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam" T.: "CHASHMA" 2013-yil

2. O'. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva "Andragogika" o'quv qo'llanma Namangan 2014-yil

3. Z. T. Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darslik Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil 600 bet

4. I. Saifnazarov, A. Muxtarov, T. Sultanov, N. Nazarov, N. Raximbabayeva, X. Doniyorov, F. Usmonov "Falsafa" darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020-yil 424 b

## **KICHIK MAKTAB YOSHIDA MULOQOTNING RIVOJLANISHI**

G'ulamova Gulchehra Shodmanovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 44-maktab psixologi

Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan, ta'lim jarayonini mukammallashtirmay turib jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bo'lib, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish ta'limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta'lim jarayonida o'quvchi faollik ko'rsatmasa amalgam oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish ham muhimdir. Ta'lim jarayonida ular, maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit

yaratadi. Maktabga kelgach bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jahatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'y so'nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutiqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkam ma'suliyat hissini yuklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bolib yetishishi hozigi kunning muhim vazifadir. Ma'lumki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvallo ularning harakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakkama yakkama munosabatga kirishish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan tashqi tasurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotiningdastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rnatilib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar. U bergan topshiriqlarni bekamu-ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish, ijobiy his tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qullab-quvvatlash oson kechadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish, noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish, ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini, burch hissini tushuntirish, ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi shu ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishdagi koz'langan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologil xususiyatlarini xisobga olish shart

Ma'lumki oquvchilarning psixologik xususiyatlari har hilbo'lib bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlash o'quvchilarga yakkama-yakkama yondoshib amalgam oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mana shunday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davidagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish.

O'qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliigi pedagogik odobi o'z hatti harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvoffaqiyatlarning garovidir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar tobora boyib va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, xususan bilishga

bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarni ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. O'qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o'quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo'ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma –xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo'la boshlaydi. Ma'lumki, bu xususiyat I-II sinf o'quvchilarida hali yaqqol namoyon bo'lmaydi, o'quvchilar o'qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo'ladilar. O'zlari o'zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa sabablarni, qonuniyatlarni, hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o'quvchilarini “Bu nima?” – degan savol ko'proq qiziqтира, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun “Nima sababdan?” , “Qanday qilib?” degan savollar muhim bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga qiziqishyuzaga keladi. Dastavval kitob o'qishga, undan so'ng esa mazmuni o'tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan so'ng qiyin bo'lmagan ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi.

Ma'lumki I-II sinf o'quvchilarini o'zlashtirayotgan materialni mazmuni, o'qish ishlarining ayrim usullari o'ziga jalb eta boshlaydi. III va IV sinf o'quvchilarining mustahilligi o'sib boradi. Bu yoshdagi o'quvchilar aqliyfaoliyat usullari, o'z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o'stirish uchun bog'liq bo'lgan barcha ishlarga qiziq boshlaydi. IV sinfda o'quvchilar o'zlarining har xil fanga bo'lgan aniq belgilaydilar. Bu fanlardan ba'zilar ko'proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O'quvchilar qaysi ishdan ko'proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilish, buning uchun esa faqat g'ayrat – jijoat halollik ko'rsatish kerakligini anglashi kerak. O'quvchilarda ta'lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to'g'ri uyushtirilishi ham o'quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo'lishiga muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida bir hillik, uzoq cho'zilgan faoliyat ko'p hollarda bolani toliqtiradi, uning faolligini pasaytiradi va hali to'la belgilanib bo'lmagan qiziqishlarni so'ndiradi.

O'quvchilarni qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Bolalarni ijobiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag'batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarina payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o'ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o'qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir.

O'quvchi uchun o'qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o'qituvchi o'quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo'lishiga yordam beradi.

Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo'lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada o'z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular ha'qida ma'lumotlar to'play boshlaydilar.

Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishga bo'lgan izishni rivojlanishi to'g'ridan – to'g'ri ta'limning tashkil qilinishiga bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak.

O'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'quvchilarni ta'limni o'zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda faol harakt qilish katta rol o'ynaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xususan o'qituvchining tegishli bahosi bilan aniqlanadigan bolaning o'qishdagi o'z muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta ahamiyatga ega.

Barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin.

Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

Avvalombor shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiylarni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

O'quvchilarda aqliy taraqqiyot rivojlanishida bilish jarayonlariga e'tibor berish va rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish ham ta'lim jarayonida samarali vositalardan biridir.

#### **Adabiyotlar**

1. "Differensial psixologiya fanidan ma'ruza matni" TDPU.T: 2010 y
2. "O'smir psixologiyasi: yuz bilmagan jihatlar" SH.Mustafoeva. Farg'ona nashriyoti. T:2015.
3. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008
4. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. –192 b.
5. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
6. Djalalova D.X. Основные тенденции развития современной японской школы. Автореферат дис. к.п.н. 2004
7. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar YOsh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
8. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir SH. SHomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007. –120 bet.
9. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOB, 2009
10. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent.: Ilm-Ziyo, 2012
11. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2009
12. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
13. 3.Asadov Y., Musurmanov R. "O'smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)"-T., 2011

## KICHIK MAKTAB YOSHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Eshniyazova Dilafruz Jabborovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*

**Annotatsiya.** Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik va fiziologik xususiyatlari, bu davr bolalarining muloqot sifatleri, ular nutqi o'sishida psixologik ta'sir vositalarining o'rnini, axborot almashinishdagi ruhiy zo'riqlashlar, kichik maktab yoshi davrida maktab ta'limiga moslashish masalalari va boshqalar bayon qilingan.

Kichik maktab yoshi davri bolaning bevosita ijtimoiy hayotga kirib borishi bilan xarakterlanadi. Bu paytda bola mustaqil ravishda boshqalar bilan manfaatli va maqsadli munosabatlar o'rnatib, tafakkur yuritish, mustaqil fikrlash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bu esa bola organizmining anatomik va fiziologik rivojlanishi bilan ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda quyidagi anatomik va fiziologik xususiyatlarni kuzatish mumkin.

**Refleksiya** – bola o'z xatti-harakatlari, xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslash va o'zini xolis baholay olish xususiyatlari. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur - narsa va predmetlarning bevosita idrok etiladigan obrazlariga asoslangan tafakkur turi.

**O'quv situatsiyasi** – amaliy masalalarni yechish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirish.

**Anatomo-fiziologik xususiyatlari.** Umurtqa pog'onasining barcha bo'g'inlari shakllanadi, miyaning og'irligi 1400 gr.gacha etadi, uning analitik-sintetik faoliyati takomillashadi. Bolaning bo'yi va og'irligi, o'pkasi mutanosib o'sadi. Katta muskullar kichik muskullar sistemasidan avvalroq rivojlanadi. Shuning uchun serharakat, yugurib charchamaydigan, lekin yozuv mashqlaridan tez toliquvchan bo'ladilar. Shu sababli 1-2 sinflarda yozuv topshiriqlari juda ko'p bo'lmasligi kerak. Birinchi sinfda bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

1. Kun tartibi bilan bog'liq qiyinchiliklar. O'quvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq yangi kun tartibiga o'rganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qo'yiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.

2. Muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lib, ular o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o'rnatilishi zaruriyati bilan bog'liqdir.

3. Bu qiyinchiliklarni o'quvchilar o'quv yilining o'rtalarida his qila boshlaydilar. Birinchi sinf o'quvchilarida odatda maktabning tashqi atributlariga qiziqish mavjud bo'lib, o'quv materialining mazmuniga qiziqish esa zaif shakllangan. Shu sababli o'quvchida o'qishga qiziqish yo'qolishi, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga aktiv intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish, oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak.

### **O'quv faoliyati. U quyidagi struktura tuzilishiga ega:**

1) O'quv situatsiyalari. Unda o'quvchilar konkret amaliy masalalari echish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirishlari kerak. O'quvchi ularni shunday muammoli vaziyat sharoitiga qo'yish kerakki, unda o'quvchilar bu usullarni topa olishlari zarur.

2) O'quv harakatlari. Har bir o'quv predmetida o'quv masalalarini echish uchun bir nechta o'quv amallari va ularning ketma-ketligini bajarishni o'zlashtirish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi dars davomida o'quv harakatlarining mashqlar yordamida mustahkamlanishini ta'minlashi lozim.

3) O'quv faoliyati to'liq shakllanishi uchun yana bir komponent – nazoratning shakllanishi zarurdir. O'quvchi o'z harakatlarini va ularning natijalarini berilgan namunalar bilan taqqoslashi va baholay olishi kerak. Avval bu vazifani o'qituvchi bajaradi.

4) Baho – o'quv situatsiyasining talablariga erishilgan natijaning mos kelish-kelmasligi darajasini aniqlashdir. O'quvchining faoliyatiga qo'yiladigan baho sinf jurnaliga qo'yiladigan baho bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchi bilimini baholashning turli usullarini qo'llashi kerak.

### **Kichik maktab yoshi o'quvchilarida bilish jarayonlarining rivojlanishi va asosiy psixologik o'zgarishlar**

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi bilan ajralib turadilar. Buni ularda birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar idroki perseptiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarning diqqati yetarli barqaror emas. 3-4-sinf o'quvchilari esa butun dars davomida o'z diqqatlarini saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham dars davomida qisqa tanaffuslar foydalidir. Bolalarda birinchi signal sistemasi ustun bo'lganligi sababli mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali-harakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, turli mulohazalarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Uning rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq.

Kichik maktab yoshdagi tafakkurning xususiyatlaridan biri narsalarning ba'zi belgilari doimiyligini payqab olmaslikdir. Bolalar tafakkurining bu xususiyatini shveycariyalik J.Plaje o'rgangan. Narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlariga ko'ra muhim belgilarga asoslanib umumlashtirish xususiyati esa keyinroq shakllana boshlaydi. Bolalar ancha vaqtgacha predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini ajrata olmay qiynaladilar. Shuning uchun tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish kerak.

**Kichik maktab yoshi davridagi asosiy psixologik o'zgarishlar.** Bu yoshda yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim jarayoni psixikada yangi xususiyat va sifatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

1. Xatti-harakatlarning ixtiyoriy xususiyat bo'lib, o'quvchi ishlarini avvaldan rejalashtirish, ongli ravishda faoliyat maqsadlarini tanlashni o'rganadi.

2. O'quvchi biror masalani echish davomida har bir harakatning tartibi, variantlarini qidiradi, masalaning hal qilinishini nazorat qiladi, ya'ni o'quvchi xatti-harakatlarini ichki planda bajarishni o'rganadi.

3. Bola o'z xatti-harakatlarini va xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'zini xolis baholashni o'rganadi, ya'ni refleksiya rivojlanadi.

**Bola shaxsining rivojlanishi.** Bu yoshda xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar bu normalarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar. O'qituvchi ulardagi ijobiy-axloqiy sifatlarni rahbatlantirishi, salbiylari shakllanishining oldini olishi zarur. Bu yosh davridagi bolalarning o'zaro munosabatlari asosan tashqi hiyotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar bilan belgilanadi (bir partada o'tirishi, bir uyda yashashi va h.k.). Lekin o'qituvchi ular uchun eng asosiy hal qiluvchi, ya'ni refferent shaxs sifatida idrok qilnadi.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi – **o'qish** bo'lib qoladi.

7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Bog'chadan maktabga utishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Bolalarning maktabga utishlari, ularning yasliidan bog'chaga utishlariga qaraganda murakkab bosqichdir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga utishi bilan uning ijtimoiy xolatida



ham o'zgarish ro'y beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar bog'chada "katta" deb hisodlanar edilar. Maktabga utgach, ular yana "eng kichkinalar" qatoriga tushib qoladilar.

Bolalarning maktabga o'tishlari bilan yuzaga keladigan ana shunday jiddiy o'zgarishlarni nazarda tutib, ularni maktabdagi yangi hayotga har tomonlama tayyorlash kerak.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarga har tomonlama tarbiya berish, ularniig taraqqiyot darajalarini maktabda o'qiy oladigan qilishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida maktabdagi o'qitish ishlari bilan bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlari o'rtasida ma'lum izchillik bo'lishini talab qiladi.

### **Bolaning maktab ta'limiga tayyorlanishi.**

Bog'chada bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlariga qanchalik e'tibor berilsa, ularning aqliy va axloqiy o'sishlariga ham shunchalik e'tibor beriladi. Ularning maktabga chiqishlari doimo nazarda tutilib, o'tkaziladigan turli didaktik mashg'ulotlarda bolalarning idroklari, tasavvur va xotiralari, xayol hamda tafakkurlari, irodalari sistemali tarzda taraqqiy ettirib boriladi.

Bolalarni maktabdagi o'qish protsessiga tayyorlashda ularning nutqini o'stirish juda zarur shartlardan biridir. Shuning uchun katta guruh bolalarini maktabdagi o'qishga tayyorlashda o'z ona tillarini yaxshi o'rganishlariga, ya'ni so'z boyligini orttirishga, to'g'ri talaffuz va to'la hamda to'g'ri jumla tuza olishlariga ahamiyat berish kerak. Bolalarning tashqi olam haqida tasavvurlarini kengaytirish, boyitish ishlari ular nutqini o'stirish asosida olib borilishi kerak.

Shu yoshda bolalarda birmuncha makon tushunchalari (uzoq, yaqin, o'ng, chap, katta, kichik), dumaloq va doira haqidagi tushunchalar, vaqt (zamon, bugun, erta, indin, hozir) haqida tasavvur, shuningdek, axloq tushunchalari (yaxshi, yomon, rost, yolg'on, uyalish) paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bola jismoniy jixatdan ham o'sadi. Uning nerv sistemasi, miyasi, muskullari, qo'llari yanada yetiladi. Bu davrda bolaning xarakteri va o'ziga xos individual xususiyatlari ko'zga tashlana boshlaydi.

Shu narsa ham borki, hamma bog'chalardagi maktab yoshiga to'lgan bolalar maktabdagi o'qishga bap-baravar tayyor bo'lavermaydilar. Ayrim bolalar maktabga kelgach, yangi sharoitga tez kirishib keta olmaydilar. Ularda o'qish uchun qandaydir bir xususiyat etishmayotgandek ko'rinadi. Bu o'rinda shunday bir savol tug'iladi. Bolalarni qay paytda psixologik jihatdan maktabdagi o'qishga tayyor deb hisoblash mumkin. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jixatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jixatdan o'sgan bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Ayrim olimlar bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir deydi. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l quyishdan boshqa narsa emas.

Yetti yoshga yetish davri go'daklikning tugashi davriga to'g'ri keladi. Xuddi ana shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yetti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali suratda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir. K.D.Ushinskiyning fikricha, dastlab bolaning maktabdagi o'qish faoliyati tezda namoyon bo'lmaydi. Ularning maqsadlari ham juda tez o'zgarib turadi. Shuning uchun ular ko'pincha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmay, bir ishdan ikkinchi ishga o'tib ketaveradilar.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish haqida hali yetarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas.

Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini

tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishdagi psixologik xususiyatlarini o'rganishdan maqsad ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning o'zlashtirishga to'siq bo'lgan muammolarni aniqlashga qaratilgan ishda qo'llanilgan metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy darajalarini o'rganish uchun biz ilk yangilik sifatida metodikalardan foydalandik. Psixologik xodisalar o'zlashtirish jarayonida qanday bo'lishini aniqladik bevosita bu jarayonni aniqlashimizdan maqsad o'qituvchiga ham ma'lum bir yordam berishdir. Eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar, aktivlik darajasi, shuningdek ularning u yoki bu tezlikda ketishi nazarda tutilishi kerak. Jumladan bir xil o'quvchilarga sekinlik xos, boshqasi uchun esa tez harakat qilish xos. Ayrim o'quvchilarga esa bosiqlik, ko'zning imo-ishoralari, ma'nolilik, mimika, boshqalarining harakatlarida og'irlik, vazminlik alohida ajralib turadi.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etishi zarur.

### **Adabiyotlar**

14. "Differensial psixologiya fanidan ma'ruza matni" TDPU.T: 2010 y
15. "O'smir psixologiyasi: yuiz bilmagan jihatlar" SH.Mustafoeva. Farg'ona nashriyoti. T:2015.
16. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008
17. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. –192 b.
18. G'oziev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
19. Djalalova D.X. Основные тенденции развития современной японской школы. Автореферат дис. к.п.н. 2004
20. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar YOsh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.
21. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir SH. SHomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007. –120 bet.
22. Ziyomuxammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. T.:TIB-KITOB, 2009
23. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent.: Ilm-Ziyo, 2012
24. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2009
25. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
26. 3.Asadov Y., Musurmanov R. "O'smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)"-T., 2011

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA YETAKCHILIK FAZILATLARINING SHAKLLANISHIDA TA'LIM METODLARINING O'RNI**

Iqsodiyot va Pedagogika universiteti NTM  
assistent o'qituvchisi Ziyodullayeva S.Sh,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 122-guruh talabasi  
Ergasheva M.Q.

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida yetakchilik sifatlarini shakllantirishda zamonaviy ta'lim metodlarini o'quv jarayonida qo'llashga bag'ishlangan.

### Annotation

This article is devoted to the application of modern educational methods in the educational process in the formation of leadership qualities in primary school students.

### Аннотация

Данная статья посвящена применению в учебном процессе современных методов обучения в формировании лидерских качеств у учащихся начальных классов.

### **Kalit so'zlar:** lider, jamoa, yetakchi, ta'lim metodlari

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Boshlang'ich sinflarda har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan, interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Zero, o'yin faoliyatidan kirib kelgan 6-7 yoshli bolalar dars jarayoniga qiziqishining oshishi, darsni yaxshi o'zlashtirishi va eng asosiysi kelajakda ulardan salohiyatli rahbarlar yetishib chiqishi uchun darslarni oddiy an'anaviy usullarda emas balki ta'lim metodlaridan foydalangan holda tashkil etish ijobiy natija beradi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning oldiga maktabda o'qish, uyga vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur vazifalar qo'yiladi. Muhimi, bolaning o'yindan maktabga kundalik majburiyat va davomli mehnatga o'tishi bu bola hayotiga juda katta o'zgarish bo'ladi. Ayniqsa, maktabgacha ta'limga jalb etilmagan bolalarga bu birmuncha qiyinchilik uyg'otadi. Chunki, ulardan 40-45 daqiqa davomida darsga o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat qilish talab etiladi. Bu kabi holatlar bolani darsdan sovib ketishga sabab bo'ladi. Shuning uchun haqiqiy pedagog bolaning maktabdagi davrini qiziqarli tashkil etishi kerak. Bu kabi qiziqarli metodlar bolaning yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb qilish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bola diqqati to'liq jalb qilinadi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlarning har birini o'qituvchi, bolaning yosh xususiyatiga, o'zlashtirish sifatiga va eng asosiysi o'zining mahoratidan kelib chiqib tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlarning o'ziga yarasha pedagogik ahamiyati mavjud. Biz sinfda yetakchi o'quvchilarni shakllantirishimiz uchun ko'proq jamoa bo'lib ishlashga, jamoada bir-birini fikrini xurmat qilishga va o'z fikriga qat'iy turishga o'rgatadigan pedagogik ahamiyatga ega metodlardan foydalanishimiz kerak.

### **Arra metodi**

- 1) Pedagogik amalyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi.
- 2) Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi.
- 3) Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi.
- 4) Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha "mutaxassis"ga aylanadi.
- 5) So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhdagi o'quvchilar o'zlari biladigan ma'lumotlarni bir-biriga o'rgatadi. Shuning uchun bu metodlar juda yaxshi samara olamiz.

Pedagogik ahamiyati: Jamoa bolib shakllanishga yordam beradi, tafakkurni oshiradi, xotirani mustahkamlaydi, nutqni boyitishga xizmat qiladi.

### **"O'rtoqlik sudi" metodi**

Bu metod yordamida ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy soatlar o'tkazish vaqtda foydalanish yaxshi natija beradi. Bu metoddan uzluksiz foydalanish maqsadida

ommaviy – axborot vositalari, vaqtli matbuot nashrlari sahifalarida berilayotgan, yoshlar va ularning faoliyatlari masalasiga taaluqli bo‘lgan materiallarni o‘rganib, ularni mazmunini rolli jarayonini hosil etish orqali o‘quvchi – o‘quvchilarga namoyish qilish usulidan foydalaniladi. Har bir jarayonni o‘quvchini o‘zi boshqaradi, nazorat qiladi, savollar bilan murojaat qiladi. O‘qituvchi umumiy nazoratchi rolida faoliyat olib boradi. Bu o‘z navbatida sinf o‘quvchilarida liderlik sifatlarini shakllantirish uchun ko‘nikma hosil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dars jarayonida bu kabi qiziqarli metodlardan foydalanish ta‘limning an‘anaviy tizimidan farqli ravishda o‘quvchilar uchun juda samarali bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsni an‘anaviy darsdan farqi shuki bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib beradi. Pedagogik metodlardan foydalanishdan kutilgan natijalarga erishish uchun faqatgina o‘qituvchi emas o‘quvchilar ham foal qatnashishga harakat qilishlari lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. B.Ziyomammedov “Pedagogik mahorat asoslari”, 2019-yil.
2. G.Ochilova “Pedagogika”, T.2015-yil
3. Turdiqulova, L. (2023). Bo‘lajak maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish. ta‘lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 238-243.
4. Sa’dullaev, A. A,U. (2023). O‘smir sportchilarda irodaviy sifatlarini shakllantirish aspektlari. SCHOLAR, 1(8), 112–117. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>
5. Keldiyarovna, X. J. S. (2024). IMPROVING THE SYSTEM OF EXERCISES THAT DEVELOP DIVERGENT THINKING OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. Academia Repository, 5(02), 66-68.

### **TEZ O‘QISHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Achilova Zohida Eshniyozovna  
Nishon tuman 31-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Ushbu tezis boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tez o‘qishni rivojlantirish usullari, bolalarda tez o‘qish yoki o‘qish tezligi maxsus o‘qish texnikasi yordamida o‘qilgan narsalarning mohiyatini darhol tushunish qobiliyati ekanligi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qish, tinglash, analizator, xotira, tasavvur, fikrlash, muammo.

Dunyoda juda qiziqarli, kitoblar bor! Judayam ko‘p. Hattoki haftasiga bittadan kitob o‘qiganingizda ham barcha yaxshi kitoblarni o‘qib chiqishga ulgurmaydiz. Biroq, nima qilish kerak, kunni daqiqalar bo‘yab suratga olayotganda va biron bir adabiyotni o‘qish uchun bir kunni ajratish qiyin? Shuning uchun ham kitobni tez o‘qishni o‘rganib olish foydadan xoli bo‘lmaydi. Mukammallikka cheklovlar yo‘q va bundan tashqari, kitoblarni o‘qiyotgan kishilar har doim televidion eshittirishlarda “to‘xtab” o‘tirganlarni har doim boshqarishi haqida hech narsa deyishmaydi. Qanday turtki berish kerak, lekin bu iborada hayotda aniq bir haqiqat bor.

Tez va to‘g‘ri o‘qish – muvaffaqiyatli o‘qish uchun kalit. Tez o‘qish bu tez o‘qish qobiliyatini yaxshilash uchun ishlatiladigan bir necha usullardan biri. Sekin-asta o‘qiydigan bola saboq uchun yaxshi tayyorgarlik ko‘rishga qodir emas, ya‘ni erta-kechmi u barcha fanlardan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirib olishni boshlaydi.

Bugungi kunda o‘qishning qoniqarsiz usuli tez-tez uchraydi va yoqimsiz va jiddiy muammo bo‘lib xizmat qiladi. Bolaning uy vazifasi bo‘yicha ko‘p vaqt talab etiladi, bu sinflar samaradorligini pasayishiga olib keladi, maktabda ishlash kamayadi.

Muammoni yechish bolani tez o‘qishni o‘rgatadi.

Bolalarda tez o‘qish yoki o‘qish tezligi maxsus o‘qish texnikasi yordamida o‘qilgan narsalarning mohiyatini darhol tushunish qobiliyatidir. Maksimal tezlik bilan tez o‘qilishi

daqiqada olti yuz so'zgacha bo'lishi mumkin. O'rtacha o'qish tezligi daqiqada 200 ta so'z. Tezlik qanchalik yuqori bo'lsa, o'qish ma'nosini qanchalik kam tushunganligi tajriba asosida tasdiqlangan. Buning uchun qanday usul va texnik qo'llaniladi.

O'qishga e'tibor beriladigan joy – boshlang'ich maktab. Hayotning qolgan qismini o'qish muammolari odamlar birinchi sinfda o'qigan usullarini o'qib chiqishi bilan bog'liq. Shuning uchun bolalar va kattalarni tez o'qishni o'rgatish uchun mashqlar o'tkaziladi.

Bolaning so'zlari oxiri yutib yuborishi, harflarning o'zgarishi va qayta tashkil etilishi kabi xatolar o'qilayotganda qilish kerak. Bunday xatolar katta yoshliligiga yo'l qo'ymaslik uchun tezlikni o'rgatish o'qish qo'llaniladi. Tez o'qish ham ahamiyatga ega, chunki u ishlov berish vaqtini qisqartiradi. Shunday qilib, maktabni o'rganish uchun sarflangan vaqt juda kam, darslarning samaradorligi ortadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlarini o'zlashtirgan bolalarning ota-onalari bolani tez va yaxshi o'qishga o'rgatish uchun ko'pincha qiziqishadi. Ayni paytda, bir varaqdan ma'lumotni tezda o'qishni o'rganish harflarni va jummalarni oddiygina harflarga qo'yishdan ko'ra qiyinroq. O'qish, tinglash va analizatorlar, xotiralar, tasavvurlar, fikrlashlar va boshqa ko'plab narsalar. Bundan tashqari, o'qish tezligi nutq tezligi bilan solishtirish kerak.

O'qish va yozish malakasini o'zlashtirish maktabga endi kelgan o'quvchi uchun murakkab jarayon. Ayni davrda ayrim bolalar muvaffaqiyatli o'qishni uddalashsa, ba'zilari qiynaladi. Ayniqsa, alifboni o'rganib bo'lgan bola bo'g'inlarni qo'shib o'qish mashaqqatini yengib o'tishdek muammoga duch keladi. Bola matnni sekin o'qiganidan nima o'qiganini tushunmaydi. U asosiy fikrlarini jamlashga qiynalgani uchun savollarga javob berolmaydi. Shu bois matnni ko'p marta (uyga vazifa sifatida bitta matnni 20 marta o'qib kelish buyuriladi) o'qishga majburlaymiz. Natijada bola uyga vazifani soatlab bajarib charchaydi va qo'lga kitob olishni istamay qoladi.

Bolada juda kuchli xotira bor. Axborotni idrok qilish va bilim qobiliyatini faollashtirish uchun, o'quvchining tasavvurini rivojlantirish kerak, chunki yorqin tasvirlar materialni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Tayyorlangan bir tasavvur muvaffaqiyatli o'qish uchun muhim qadamdir.

Tarixga yuzlanadigan bo'lsak, Abu Rayhon Beruniy matematikaga oid 22 ta, astronomiya asboblari oid 10 ta, astrologik asboblarga oid 21 ta, turli fanlarga oid 38 ta kitob yozgan. 21 ta kitobni tarjima qilgan. Astronomik izlanishlarni 16 yoshida boshlagan. Tibbiyotga oid kitoblarida dorivor giyohlar nomini 30 tilga tarjima qilib yozib qoldirgan. Allomalarimiz bu qadar ko'p ilmiy meros qoldirish uchun qancha kitob mutolaa qilgan deb o'ylaysiz? Ha, ular juda ko'p kitob o'qishgan va ma'lumotlarni katta tezlikda qabul qilishni uddalashgan. XIX–XX asrda yashab o'tgan ko'plab ilm-fan namoyandalari ham tez o'qish san'atidan boxabar bo'lganligini tarixiy dalillar isbotlab turibdi.

Masalan, Maksim Gorkiy ham shunday qobiliyat egasi bo'lgan. S.Nobikov o'z xotiralarida shunday deydi: “Maksim qo'lidagi jurnalga qarardi-da, tepadan pastga qarab ko'z yugurtirib chiqardi. Birozdan keyin navbatdagi sahifaga o'tardi va bu harakatini bir necha soniya davom ettirardi. Ko'z oldimda bir necha daqiqa ichida jurnalni yopib qo'yardi.

Bugungi kunda farzandlarimiz o'z bobolariga xos bo'lgan ilm-ma'rifat yo'lidan borishlari uchun bugundan kitobga, mutolaaga muhabbat ruhida tarbiyalanishlari zarur. Ilmsiz hech qanday taraqqiyot bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi”. – T.: TDPU, 2009.
2. Boymurodova va boshqalar. 1-sinf “O'qish kitobi” metodik qo'llanma. –Toshkent. “Sharq” NMAK 2014-y.
3. G. Boymurodova va boshqalar. 2-sinf “O'qish kitobi” metodik qo'llanma. Toshkent. “Sharq” NMAK 2015-y.
- 4 G. Boymurodova va boshqalar.3-sinf “O'qish kitobi” metodik qo'llanma. –Toshkent. “Sharq” NMAK 2016-y.

5 G. Boymurodova va boshqalar. 4-sinf “O‘qish kitobi” metodik qo‘llanma. – Toshkent. “Sharq” NMAK 2017-y.

## **BO‘LAJAK SPORT MURABBIYLAR KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI**

Allayorov Muzaffar Mingalievich.  
Qarshi davlat universiteti  
Эл.адрес; [allayorovmuzaffar@gmail.com](mailto:allayorovmuzaffar@gmail.com)  
Тел:+998976728202

**Аннотация:** Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi inson o‘z ijtimoiy mohiyatini shakllantiradigan ikkita o‘zaro bog‘liq jarayonni o‘z ichiga oladi. Bu shakllanish jarayoni mehnat, ijtimoiy muhit, shaxsning o‘z-o‘zini tarbiya-lashi bilan aloqada bo‘ladigan faol harakatdagi mavjudot sifatida inson haqidagi fundamental fikrlar loyihaviy ta’lim vositasida bo‘lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyat-lar asosida rivojlantirish muammosi uchun muhim metodologik asos hisoblanadi.

**Калит so‘zlar:** Kommunikativ qobiliyat, umuminsoniy qadriyat, Loyihaviy ta’lim, tabiat, jamiyat, kommunikativ madaniyat, umuminsoniy qadriyat, qadriyat, Insonparvarlik qadriyat, intellektual etuklik, vatanparvarlik, milliy qadriyat, pedagogik texnologiya, ta’lim.

**Аннотация:** Социально-экономическое развитие общества включает в себя два взаимосвязанных процесса, посредством которых человек формирует свою социальную сущность. Этот процесс формирования, фундаментальных представлений о человеке как существе, находящемся в активном движении в контакте с трудом, социальной средой, самовоспитании личности, является важной методической основой проблемы развития коммуникативных способностей будущих спортивных тренеров. основу национальных и общечеловеческих ценностей посредством проектного образования.

**Ключевые слова:** Коммуникативная способность, общечеловеческая ценность, проектное образование, природа, общество, коммуникативная культура, общечеловеческая ценность, ценность, ценность гуманизма, интеллектуальное развитие, патриотизм, национальная ценность, педагогическая технология, образование.

**Annotation:** Socio-economic development of society includes two interrelated processes by which a person forms his social essence. This process of formation, the fundamental thoughts about a person as a being in active movement in contact with work, social environment, self-education of a person, is an important methodological basis for the problem of developing the communicative ability of future sports coaches on the basis of national and universal values by means of project education.

**Key words:** Communicative ability, universal value, project education, nature, society, communicative culture, universal value, value, Humanism value, intellectual development, patriotism, national value, pedagogical technology, education.

Loyihaviy ta’lim vositasida bo‘lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti shuni taqozo etadi.[1] Talabalarning ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish jarayonining metodologikasosi quyidagilardan iborat:

– loyihaviy ta’lim vositasida bo‘lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish ma’naviy-ijtimoiy munosabatlar jarayonida tarkib topib, ijtimoiy hayotga nisbatan yondashuvning mazmuni va darajasi sifatida namoyon bo‘ladi;

– loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy talablar asosida tashkil etiladigan faoliyat darajasi muhim omil sanaladi;

– loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarga ko'ra tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi;

– loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti bo'lib, istiqbolni oldindan ko'ra olish imkonini beradi.

Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

– bo'lajak sport murabbiylarining faolligini qaror toptirish;

– bo'lajak sport murabbiylarining faolligi darajasini izchil sur'atda oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

– davlatning yoshlarga oid siyosati mazmuni, mohiyati va ahamiyati borasidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash;

– ma'naviy-ijtimoiy mavzularga doir amaliy tadbirlar o'tkazib turish hamda jarayonda talabalar jamoasining har bir a'zosi faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish;

– milliy istiqbol mafkurasi g'oyalari asosida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy yo'nalishlardagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish hamda amaliy yordam ko'rsatish.[2]

Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishga madaniy-insonparvarlik yondashuvi hamda ta'lim-tarbiyaning milliy va metodologik asoslarini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish mazmunini tashkil etuvchi qism, tabiat, jamiyat, faoliyat usullari, insonning o'z atrofida qilishga, mehnatga, muloqot va boshqa shu kabilarga hissiy-irodaviy hamda qadriyat nuqtai nazaridan munosabati haqidagi bilimlar manbai tarzida namoyon bo'ladi.[3]

Ulkan hajmdagi tarixiy va madaniy merosimizning ba'zi namunalarini ajratib ko'rsatishga intilmagan holda shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy muqaddas kitobi "Avesto", xalq dostonlari, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandning diniy-ma'naviy merosi, Amir Temurning axloqiy o'g'itlari ijtimoiy-madaniy manbalar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqillik yillarida ma'naviy va madaniy hayotdagi faollikning ortishi: birinchidan, milliy madaniy qadriyatlarni qayta tiklash va targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar ochishi; ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarning kengayishi; uchinchidan, badiiy ijodning yangi mafkuraviy va demokratik asoslarining qaror topishi; to'rtinchidan, davlat siyosatining bozor iqtisodiyoti ma'naviy asoslarini rivojlantirishga yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'lib, bo'lajak sport murabbiylar kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish mazkur faoliyatda ijtimoiylik jarayonlari ustuvor sanaladi.[4]

Kommunikativ madaniyat, avvalo, jamiyat hayotini insonparvarlash-tirish, an'analarni tiklash, umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviy-estetik ideallarga intilishni kuchaytirish, ijodiy fikr erkinligini ta'minlashga qaratilganidir.

Sharq mutafakkirlari, fan va madaniyat namoyandalarning ilmiy-ma'naviy merosi mutaxassislarda milliy madaniyatni qadriyatlar asosida shakllantirish jarayonining (ayniqsa, kommunikativ madaniyat doirasida) ajralmas qismi hisoblanadi.[5] Bu o'rinda ta'lim-tarbiya berish, madaniyatga oshno qilishning zamonaviy yo'nalishlariga hamohang g'oyalarni ajratish mutafakkirlar ilgari surgan g'oya va qarashlarning talabalar tomonidan qadriyat darajasida o'zlashtirilishiga erishish maqsadga muvofiq.

Pedagogika fani va amaliyotining ta'lim-tarbiya sohasidagi zamonaviy yo'nalishlarga mos keluvchi quyidagi bir qator nazariyalarni ham alohida tizimlashtirish mumkin:

1. Forobiy, Navoiy, Behbudiyar tomonidan ilgari surilgan inson shaxsining yuksak qadr-qimmatini tan olish bilan tavsiflanadigan ijtimoiylik konsepsiyasi.

2. Insonparvarlik qadriyatlari – jismoniy va ma'naviy go'zallik, axloqiy va intellektual etuklik, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga so'diqlik va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlashning o'zaro uyg'un bo'lishi zaruratiga urg'u beruvchi konsepsiya.

3. Ta'limning ilg'or metodlari mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli ta'lim, bahs-munozara usul-larini qo'llashning ahamiyati haqidagi qarashlar.

4. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta'lim jara-yonida o'rinli foydalanish zaruratining ta'lim oluvchilarning qiziqish-larini oshirish, bilish faoliyati yuqori darajada bo'lishiga imkoniyat yara-tishi haqidagi qarashlar.

Bo'lajak sport murabbiylarni tayyorlashni yanada takomillashtirish muammosi ularni ta'lim jarayoniga tayyorlash muammosini hal etishga ham bog'liq. Chunki hozirgi davrda pedagogik faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi uni yanada mas'uliyatli faoliyat turiga aylantir-moqda. Shuning uchun ham pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayoni kasbga yo'llash; kasbga layoqatlilarni tanlash; kasbga tayyorlash ana shu umumiy vazifaga qaratilishi lozim. Bu juda murakkab jarayon bo'lib, u aniqlikni, mohirona boshqarishni va nazoratni talab etadi.

Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish ishlari bir butunlikda tashkil etilsagina bunday maqsadga erishish mumkin. Ya'ni kasbga yo'llash, shu sohaga layoqatlilarni tanlash va kasbga tayyorlash borasida olib borilayotgan barcha ishlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va shu tadbirlarning har biri bosqichma-bosqich bo'lajak sport murabbiylarni ta'lim jarayonini mohirona yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida aniq maqsadga erishiladi, uning ta'sirchanligi talabga javob beradi va nazorat qilish oson kechadi.

Loyihaviy ta'lim vositasida bo'lajak sport murabbiylarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish jarayoniga yaxlit tizim sifatida yondashish uning har bir elementi, ya'ni kasbga yo'llash, layoqatlilarni tanlash va tayyorlash kabi bo'g'inlar o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ularning bir bo'g'inidan ikkinchisiga ya'ni, kasbga yo'llashdan, layoqatlilarni tanlash va kasbga tayyorlashga o'tish mantiqan izchillik asosida bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda biz o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarning motivlar olamini rivojlantirish, pedagogik faoliyatining dastlabki bosqichida umumiy motivlarni shakllantirish, keyingi bosqichlarda uning yangi sifatli motivlarga, ya'ni texnologik yondashuvlarga aylanishi muhim ahamiyatga ega. Motiv-arni bunday rivojlantirish shuning uchun ham zarurki: birinchidan, tadqiqotlarimiz davomida shuni aniqladikki, motivlar pedagogik faoliyati bilan shug'ullanishda samarali yoki samarasiz natijaga erishish sohasida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, aynan shu sohada ta'lim jarayonini loyihalash jihatdan samarali tashkil etish yoki pedagogik amaliyot jarayonida ko'pgina kam-chiliklar borligini biz tadqiqotlarimiz davomida aniqladik.

Biz o'tkazgan tadqiqotlar shuni isbotlamoqdaki, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvning muhim ichki manbasi bu ta'lim jarayonini kasbga tayyorlashga qaratilishidir. Ya'ni talabalarni ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida tashkil etishga tayyorlash jarayoni, bu maktabda pedagogik kasbiga layoqatli o'quvchilarni tanlash va tayyorlashda bo'lajak sport murabbiylarni tanlab, uzluksiz bu faoliyatga tayyorlash tizimini o'z ichiga oladi. Bu tayyorgarlikning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi kommunikativ muloqotning turli nafis ma'naviy shakllarini qo'llashi, o'quvchilar bilan dildan aloqa qila bilish, o'zaro munosabatlarda soflik, erkinlikni vujudga keltirishi lozimki, bunda o'qituvchi bir tomondan



o'quvchilarda motivni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, o'z faoliyatini nazorat qilib, kamchiliklarini tuzata boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Белухин Д. А. Основы личностно ориентированной педагогики. – Воронеж: МОДЕК, 2005. – 286 с.
2. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Ped.fan. dokdiss. – T., 2010. – 332 б.
3. Quronov M., Qurboniyozova 3. Ijtimoiy pedagogika. – T.: PTM, 2002. – 134 б.
4. Mardonov Sh., Egamberdieva N. Sharq allomalari merosi – pedagog mutaxassislar tayyorlash asosi // Xalq ta'limi. – T., 2004. – № 2. – Б. 25
5. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999. – 200 б.

### **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

Nodira Zikirova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, motivatsiya, kasbiy motivatsiya tushunchalarining mazmun mohiyati batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, motivatsiya, kasbiy motivatsiya, intellektual kapital, kasbiy kompetensiya.

Jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblangan intellektual kapitalga qo'yilgan sarmoyalar uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy-ijtimoiy samara beradi. Bunday sharoitda ta'limning sifati shaxsning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari, madaniyatning umumiy darajasi, sanoatda, ishlab chiqarishda yangi usul va yo'nalishlarni topa oladigan nostandart, kreativ tafakkur, yangi sohalarining vujudga kelishi bilan bog'liq malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashning asosiy omili bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish darajasi bilan o'lchanadi.

Pedagoglarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi ularning mazkur faoliyatga nisbatan intilish, xohish yoki istaklariga bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda motivatsiya masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi sifatida qaraladi. Demak, motivatsiya – insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

Motivatsiya – murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zida mayillar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi.

Motivatsiya – insonni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi ma'lum savol psixologlar tomonidan ifodalab berilgan. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar [1; 3]. Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omildir. Chunki insonning har xil xatti-harakatlari ostida ushbu xatti-harakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi yotadi. Shuning uchun ta'lim jarayoniga faqatgina o'quv-biluv motivlarigina emas, barcha keng qamrovli motivlar o'z ta'sir doirasi bilan ta'sir etib turadi.

A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhga ajratgan:

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.
2. Boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sotsial) motivlari.

Bu motiv turlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlarning yana bir muhim xususiyati uning vujudga kelish tezligida ifodalanish va kuchida o'z aksini topadi. Bu xususiyat o'quvchi-talaba qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan natijaga erishish uchun bilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalar, egallashi zarur bo'lgan kompetensiyalar va ularda shakllanishi zarur bo'lgan kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi asosiy omillardan biri bu ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. O'qitish jarayonining rivojlangan darajasi "kasbiy faoliyat", "kasbiy sifatlar", "kasbiy kompetentlik", "metodik tayyorgarlik", "shaxsiy rivojlanish", "kasbiy rivojlanish", "uzluksiz kasbiy rivojlanish" tushunchalari kasbiy faoliyatni amalga oshirishga doir bilimlarning pedagogik amaliyotda ulardan foydalanish tamoyillariga asoslanganligi, umumiyligi, ijtimoiy rivojlanish talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning ta'lim natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ta'lim muhitidagi muhim omillardan biri bu o'qituvchining kasbiy kompetentligi va mahorat darajasi hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish uning dastlabki kasbiy tayyorgarligi jarayonida ham, oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida ham, auditoriyada va mustaqil ta'lim jarayonida ham amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. O'qitish jarayonining ishtirokchisi, ta'lim muhitining tashkil etuvchisi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy talab va ehtiyojlar, shuningdek, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Ta'lim, kasbiy bilim va ko'nikmalar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy muhim fazilatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning asosiy negizini tashkil etadi. Shaxsiy xususiyatlar insonning rivojlanish sur'ati va darajasiga ham inson sifatida, ham mutaxassis sifatida ta'sir qiladi. Bo'lajak o'qituvchining yetakchi shaxsiy xususiyatlariga uning munosabatlari, motivlari, aql-zakovati, hissiy-irodaviy doirasi kiradi. Ular bilvosita shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladi va asosan kasbiy rivojlanishni belgilaydi. Shaxsning kasbiy yutuqlari darajasi ham individual xususiyatlar, ham shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari ro'yxati: akmeologik mavqe, yutuqlar uchun barqaror motivatsiya, vaziyatdan moslashuvchan va moslashtirilmagan faoliyat, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat tajribasi, yuqori ish qobiliyati, mas'uliyat, o'z yutuqlarini boshqa xodimlar uchun odatiy holga aylantirish istagi, iroda va dam olish qobiliyati, kasbiy maqsadga erishish uchun barqaror istak va o'zini takomillashtirish.

Ko'rinib turibdiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish unda nafaqat kasbiy bilimlarni kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini-o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga to'g'ri yo'naltira bilish kabi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Chunki, aynan shu kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi zaruriy fenomenlar sifatida baholanadi. Bu esa, nafaqat kasbiy motivatsiyaning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini-o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga yo'naltira bilish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan pedagogika oliygohlaridagi o'quv-tarbiya

jarayonini modernizatsiyalash bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish jarayonining mazmuniga zaruriy o'zgartirishlarni kiritishni talab etadi va bu o'zgarishlar quyidagi aspektlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

nazariy – ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, tamoyillari, qonuniyatlari, ta'limotlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari xususidagi bilimlar;

metodik – o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va o'qitishning shakl, metod va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilish motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar;

texnologik – aniq ta'lim sharoitida pedagogik vazifalarni, vaziyatlarni yecha olish, rejalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar;

prognistik – ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishini oldindan loyihalashtira olish, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrli va ijodkor shaxsni tarbiyalashning ta'sir vositalarini oldindan bashoratlash bilan bog'liq bilimlar;

ijodiy-innovatsion – pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning yangicha shakl, metod va vositalarini yaratish bilan bog'liq amaliy bilimlar.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish jarayoni o'zaro bog'liq funksional elementlarni amaliyotda tatbiq etish, samaradorlikni ta'minlash, natijaga erishish bilan belgilanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jo'rayev N.S. "O'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish va o'rganishning psixologik xususiyatlari" Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2006. 107 b.

2. Jo'rayev N.S. "O'quv motivlarini shakllantirish" - Toshkent:TDPU.2008.-62 b.

3. Xaydarov F., Halilova N. "Umumiy psixologiya" Toshkent 2010. – 330b.

### **MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR –TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLOVCHI VOSITA SIFATIDA**

Ibragimova Dilnavoz Hazratqulovna,

Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti nodavlat ta'lim muassasasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlovchi vosita ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning turlari va ularni tashkil etish metodikasi keltirib o'tilgan.

Asosiy tushunchalar: qadriyat, umummilliy qadriyat, ma'naviyat, tadbir, davra suhbatlari, kechalar, axborot soatlari, ma'naviyat kunlari va boshqalar.

Аннотация: в данной статье поясняется, что духовно-просветительская деятельность является средством подготовки студентов к педагогической деятельности. Также в статье упоминаются виды духовно-просветительской деятельности и методика их организации.

Ключевые понятия: ценность, национальная ценность, духовность, мероприятие, круглый стол, вечера, информационные часы, дни духовности и т.д.

Abstract: this article explains that spiritual and educational activities are a means of preparing students for teaching activities. The article also mentions types of spiritual and educational activities and methods of their organization.

Key concepts: value, national value, spirituality, event, round table, evenings, information hours, days of spirituality, etc.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyotini yuksaltiradigan va uni dunyoga tanitadigan, iqtidorli va intellektual salohiyatga ega, albatta o'z tanlagan kasbiga fidoiy yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Ushbu zaruriyatni esa biz quyidagilar bilan izohladik:

1. Talabalarda kasbiy bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishlariga motivni hosil qilish uchun;

2. Talabalarda tanlagan kasbiga nisbatan qiziqish, ishonch, sadoqat, fidoiylik kabi sifatlarni shakllantirish maqsadida;

3. Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash yo'lida;

4. Birdam, ahil, inoq, shijoatli, tashabbuskor mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash va boshqalar bilan izohlanadi.

Bizga ma'lumki, talabalarda pedagogik faoliyatga qiziqishni shakllantirish tizimli ravishda amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u nafaqat o'quv mashg'ulotlari, balki, auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar, xususan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham amalga oshiriladi.

Auditoriyadan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarga: mavzuli kechalari, bahslashuvlar, uchrashuvlar, dam olish kechalari, munozara (disput), konferensiya, teatrlashtirilgan konsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayohat, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari mashg'ulotlari va boshqalarni kitish mumkin.

Talabalarda pedagogik faoliyatga qiziqishni shakllantirishda ushbu tadbirlarning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular bir-biridan o'tkazilish tartibi, shakli va boshqa jihatlari bilan farqlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar jarayonida quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- tadbirlar jarayonida talabani ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etish;
- tadbirlar jarayonida talabalarni o'z-o'zini tarbiyalashiga erishish;
- kasbiy faoliyat bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasini anglatish;
- talabalarda pedagogik bilimlarni tizimli o'zlashtirishiga erishish.

Bugungi kunda talabalar bilan tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning eng samarali shakllaridan biri – bu munozara (disput) dir. Ularni har qanday munosabatlar va mavzularga taalluqli, desak adashmaymiz. Eng muhimi disputlarda talabalar o'zlarini disputlarda erkin tutadilar.

Bir ko'rinishda disput qandaydir tortishuvga o'xshasa-da, biroq uning ta'sir doirasi juda kengdir. Disputlarda kishilarning bir-biri, ota-onasi, qarisdosh-urug'lari, mahalla bilan o'zaro munosabatlarini va ularning yechimini ko'rishimiz mumkin. Demak, disputlarni tarbiyaviy tadbirlar qatoriga kiritishimiz va vaziyatga ko'ra ularni ijodiy tashkil etishimiz lozim bo'ladi.

Har qanday ijobiy fazilat qarama-qarshi salbiy xislatlar bilan kurashda toblanadi va uning qadr qimmati oshadi. Odatda, bahsda har xil qarashlar, intilishlar, didlar, qadriyatlar, e'tiqodlar bir-biriga duch keladi, muammoli vaziyat hosil bo'ladi, bu, hammada qiziqish uyg'otadi. Disputning tarbiyaviy kuchi har xil nuqtai nazarlar, axloqiy his-tuyg'ular duch kelgan paytda har kim o'z nuqtai nazarini himoya qilishga intiladi, o'z fikrlarini atroflicha o'ylab, qarshi tomonning fikrlari xatoligi yoki xilma-xilligini isbotlashga harakat qilishadi.

Talabalar kasbiy e'tiqodini shakllantirishga yo'naltirilgan disputlarda har bir talabani xarakter xususiyati, dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, disputlar guruh talabalari jamoasining umumiy qarashlari, qiziqishlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga; har bir talabani insoniy munosabatlarini tarkib toptirish maqsadiga xizmat qiladi. Disput tugagach, uning ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirib kelgan savollarga javob topadilar.

Eng muhimi disputda ishtirok etish talabalarda mustaqil fikrlash va o'z g'alar fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Demak, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli yuqori bo'lib, shubhasiz bunday tadbirlar jarayonida talabalar kasbiy bilim sirlari bilan muntazam tanishib boradilar. Shuningdek, ularda pedagogik faoliyatga nisbatan ishtiyoq va qiziqish kuchayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Nurullayeva Sh.O'. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi. Ped. fanl. dokt. diss. ... – Qarshi: 2021. – B. 264. -59.

2.Oripova N.X. Variativ modellashtirish asosida talabalar pedagogik e'tiqodini shakllantirish nazariyasini tizimlashtirish (Boshlang'ich ta'lim ixtisosligi misolida). Ped. fanl. dokt. diss. ... – Qarshi: 2022. – B. 235. -41.

**3.Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. - T.: O'qituvchi, 1991.- 186 b.**

### **BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING KASBIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna**

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti (PhD)

E-mail: [xadicha20182020@gmail.com](mailto:xadicha20182020@gmail.com)

411- guruh talabasi Mamatova Munisa Davlatovna

**Annotatsiya:**Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari,nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** kasbiy rivojlanish, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish, kasbiy ehtiyoj, "hayot davomida o'qish" tamoyili.

#### **НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

В статье рассматривается важность совершенствования методической подготовки и повышения квалификации учителей начальных классов как научно-педагогическая проблема. Обобщены взгляды зарубежных и отечественных исследователей по теме. Научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты повышения квалификации учителей начальных классов.

ретические и педагогические аспекты повышения квалификации учителей начальных классов.

**Ключевые слова и понятия:** профессиональное развитие, саморазвитие, непрерывное обучение, профессиональная потребность, принцип «непрерывное обучение».

#### **SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS**

In the article is discussed the importance of perfection the methodological training and professional development of primary school teachers as a scientific and pedagogical problem. It summarizes the views of international and domestic researchers. The principles, theoretical and pedagogical aspects of

professional development of primary school teachers are scientifically based.

**Key words and concepts:** professional development, self-development, continuous training, professional, need, the principle of "lifelong learning".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarorida "Ta'lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, bitiruvchilarning bandligini ta'minlash, pedagog xodimlar va olimlarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan faoliyat ustidan ta'sirchan parlament nazoratini yo'lga qo'yish"<sup>23</sup> kerakligini alohida takildiganlar.

---

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son [Farmoni](#)

Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali kichik mutaxassis kadrlarni tayyorlash va mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan<sup>24</sup>

Shu bois, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yoshlarninig kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasbi bo'yicha bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uzluksiz ta'lim muassasalarining, xususan, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini ilg'or, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyot bilan amalda ta'minlash bu sohadagi echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri sifatida

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

- zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o'rtasida;
- boshlang'ich sinf o'qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida;
- o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta'limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o'rtasida;
- o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'rtasida.

Yuqorida qayd etilgan obyektiv va subyektiv ziddiyatlar pedagogik hodisaning mohiyatini – boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun pedagogik shartsharoitlarni aniqlashdan iborat bo'lgan tadqiqot

muammosini faollashtiradi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar va mavjud holat tahlilidan ko'rinadiki, quyidagilar o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, o'zini o'zi tahlil qilish va baholash, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

- ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari;
  - zamonaviy texnologiyalarning takomillashuvi;
- jamiyat ehtiyoji hamda ta'limga bo'lgan talabning o'sishi;
- jamiyat ehtiyoji va talablari asosida o'qituvchi rolining o'zgarishi;
- DTS va o'quv dasturlarining optimallashtirilishi.

Jamiyatdagi globallashtirishning keskin o'sib borishi, jahon miqyosida ta'lim tizimidagi islohotlar mazkur jarayonning faol ishtirokchisi va amaliyotga tatbiq etuvchi takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishni talab etadi. Buning uchun esa, dunyo ilm-fanida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ularni kasbiy rivojlantirish bo'yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan olg'a surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish lozim. Ammo, mazkur tadqiqotlar va boshqa pedagogikpsixologik ilmiy tadqiqot ishlarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish ilmiypedagogik

---

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2012 y. – 46 b.

muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Xususan:– ayrim tadqiqotlarda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish masalalari keng yoritilgan;– o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislar misolida o‘rganilgan;– geometriyani o‘qitish jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirish va

kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etish mazmuni, ko‘rsatkichlari, infratuzilmasi, dasturiy va metodik ta’minoti, axborot resurslarini shakllantirish tizimi, pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan;

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilmagan; – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish

muammolari alohida qayd etilmagan; – o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, mexanizmi, shart-sharoitlari va metodikasi mazkur

tadqiqotlarda yoritilmagan;– boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslanmagan.

Bu esa o‘z vaqtida o‘qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi: ● boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishga doir tizimli va uzviy amalga oshirish lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni aniqlash va belgilash; ● boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish omillari, o‘qituvchida professionallikni rivojlantirishga doir kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajalarini aniqlash va belgilash.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy pedagogik muammo sifatidagi ahamiyatini tadqiq qilish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslashdan iborat.

Yuqoridagi maqsadga erishish va tegishli vazifalarni bajarish uchun

pedagogik kuzatuv (qisqa muddatli), pedagogik monitoring, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurs tinglovchilari bilan suhbat usullaridan foydalanildi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo‘yilgan maqsad bo‘lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish uchun ma’lum darajada o‘z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga, shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi.

O‘qituvchilarda o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish yo‘nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim.

Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o‘qituvchilarda o‘z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga qiziqish shakllanadi, bu o‘z navbatida o‘qituvchilarda mustaqil ta’lim olish ya’ni mustaqil o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Jamiyatning ehtiyojlari, fan va amaliyotning rivojlanishi, inson shaxsini rivojlantirishga tobora ortib borayotgan talablar, o‘zgaruvchan ijtimoiy jarayonlar va vaziyatlarga tez va adekvat javob berish qobiliyati, o‘z faoliyatini qayta qurishga tayyorligi va yangi, yanada murakkab muammolarni mohirona hal qilishga tayyorligi bilan belgilanadi.

O‘z-o‘zini rivojlantirishning ma‘nosi bilim faoliyati qoniqishida, o‘qituvchining ortib borayotgan ehtiyojida, uzluksiz ta‘lim orqali o‘zini o‘zi anglashda namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini rivojlantirishning mohiyati aqliy mehnatning texnikasi va madaniyatini, muammolarni bartaraf etish, mustaqil ravishda o‘z ustida ishlash, shu jumladan kasbiy mahoratni o‘zlashtirishdir. Pedagogik faoliyatdagi boshqaruvchanlik, texnologik usul va uslublarni ishlab chiqish;– pedagogik faoliyatning har bir aniq turini loyihalash, tashkillashtirish va amalga oshirish;– o‘qitish jarayoniga mantiqiy yakunlangan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish;– pedagogik masalalarni ilgari surishda o‘quvchilarning ta‘limiy ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish;– o‘quvchilarning faoliyati natijalarini baholash va hisobga olish;– o‘quvchining motivatsiyasini rivojlantirish;– o‘quvchi bilan ta‘lim jarayonida o‘zaro munosabatlarni shakllantirish;– o‘quvchilarning ta‘limiy ehtiyojlarini va jamiyatning talablarini ko‘ra bilish;– kasbiy kompetensiyaning shakllanish istiqbolini belgilash va uni amalga oshirish;– o‘quvchining samarali ta‘lim olishi va natijaga erishishi uchun metodik tizim yaratish; o‘quvchilarning xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarligining metodik tizimini yaratish va amaliyotga tatbiq etish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi 5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari. Toshkent. 2018.08.25. 40 b. (3 b.)
3. Muslimov N.A. Kasb ta‘lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. –T.: 2007, -315 b.
4. Karlibayeva G.YE. Bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DsS) diss. avtoreferati. –T.: 2018. -58 b
5. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O‘QUVCHILARDAGI KITOBXONLIK MADANIYATI ORQALI ALTRUISTIK MOTIVLARNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.4.
6. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ДИДАКТИК ЖАРАЁНДА БОЛАНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.5.
7. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
8. . Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артикбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Science and Education*, 2(5), 578-582

#### **PEDAGOGLARNING INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI**

**Ismatova Shaxnoza Abdisolom qizi**

Xalqaro Nordic Universitetining  
“Ta‘lim muassasalari boshqaruvi” fakulteti  
1-bosqich magistranti



**Annotatsiya:** Maqola ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarishda, sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar hamda talabalar faoliyatini muvofiqlashtirishda pedagogning o'рни Shuningdek, pedagoglarning innovatsion yondashuvlar asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator tavsiyalar berib o'tgan.

**Asosiy tushunchalar:** Kompetentlik, innovatsion yondashuv, komponent, pedagogik jarayon, boshqarish, sifat, samaradorlik.

Bugungi davr talablariga mos ravishda zamonaviy globallashtirish, raqamli iqtisodiyot hamda yangi O'zbekiston qurish sharoitida rivojlangan mamlakatlar tajribasida innovatsion faoliyatni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish masalasi oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash hamda ularning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, zamonaviy texnologiyani mukammal o'zlashtirgan, xalq manfaati yo'lida bor kuch va salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yosh kasb egalarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son (2017 yil 5 iyul) farmonida belgilanganidek, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini, alohida qayd etish joiz".

Bugungi kunda, zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar, avvalo, inson faoliyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalaridan faol foydalanish bilan bog'liq va birinchi navbatda ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy innovatsion faoliyati tubdan boshqacha ma'no kasb etadi. Innovatsion faoliyatning mohiyati va mazmuni shundan iboratki, talabalar uchun ta'lim sohasidagi har qanday yangilik o'qituvchi tomonidan amalga oshirilganda yuzaga chiqadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida talabalarni ob'ektdan sub'ektga aylantirish, birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etgan.

Shuningdek "**innovatsiya**" – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni. aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas.

Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi." "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi (2020 yil 24 iyul) yangi O'zbekistonni qurishda muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishonchli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni innovatsion yondashuv asosida o'qitish, va mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish"ga qaratilgan. Shuning uchun, ta'lim tizimining

barcha bosqichlarida o'qituvchilar kompetentligini oshirish hamda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlashni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

**“Kompetentlik”** (inglizcha: **“competence” “qobiliyat”**) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Har bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish, loyihalash, hamda loyihalash madaniyatiga e'tibor qaratish kerak. **“Pedagogning loyihalash madaniyati”**: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi talabalarini loyihaviy faoliyatga doir bilimlarini takomillashtirish, pedagogik loyihalash bosqichlari va shakllarini o'zlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishdir.

Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kadrlar salohiyati, ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasi, mavjud ichki imkoniyat - ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining mavjudligi va joylashishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu esa, mazkur yo'nalishni ustuvor rivojlantirishga nisbatan alohida yondashuvini taqozo etadi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining **“Innovatsion faoliyat to'g'risida”**gi Qonunida **“innovatsiya”** va **“innovatsion faoliyat”**ga quyidagicha ta'rif berilgan: **“innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma”**, **“innovatsion faoliyat – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat”** deb, ta'rif berilgan

Ayni paytda innovatsion faoliyat bo'yicha bir qator kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. Birinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriyalar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi; ikkinchidan, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish past darajada ekanligi; uchinchidan, innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarining yetishmasligi; to'rtinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, byudjetdan tashqari va xususiy jamg'armalar mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi. Mazkur muammolarni bartaraf etish borasida Respublikada innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirishning huquqiy me'yoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining **“Innovatsion faoliyat to'g'risida”**gi Qonuni (24.07.2020 y., O'RQ-630), 2019 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi (21.09.2018 y. PF-5544-son), O'zbekiston Respublikasining **“Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida”**gi Qonuni (29.10.2019 y., N O'RQ-576) kabilar shular jumlasidan. **“Innovatsion faoliyat to'g'risida”**gi Qonunida innovatsiya, innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, innovatsiyalar yaratish uchun davlat buyurtmasi, texnologiyalar transferi, yangi ishlanma kabi tushunchalarga izoh beriladi. Jumladan, **“innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma”** deb, ta'rif berilgan bo'lsa, **“innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat”** deb, ta'riflanadi.

Bugungi zamon talabi har bir ta'lim sohasida, o'qitish, kasb-hunar o'rgatish yoki tarbiya berish bo'ladimi, dunyo talablariga javob beradigan, yuqori sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'qitishni yo'lga qo'yish va isloh qilishni talab etmoqda. Buning uchun esa ta'lim berishda yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uni amalda tatbiq etish zaruriyati tug'ilmoqda. Bu borada juda ko'p olimlar va yetuk pedagoglar katta ishlar qilmoqda. AQShning mashhur olimlari B.Blum, L.Larsen, B.Skinner, D.Finn, D.Kratval, R.Gane, L.Brig **«Pedagogik texnologiyalar»**ning nazariy masalalarini yaratishga munosib hissa qo'shganlar, ular pedagogik texnologiyalarning asoschilari hisoblanadilar Shuningdek, respublikamizning ko'zga ko'ringan

olimlari N.Saidaxmedov, B.L.Farbermen, K.Ishmatov, M.Kamoldinov, B.Vaxobjonov, U.Tolipov, N.N.Azizxo‘jaeva o‘z asarlarida pedagogik texnologiyaning yutuqlari va samaradorligi haqida yaxshi fikrlar bildirganlar. Shuningdek, ijodkor olimlardan U.N.Nishonaliev, B.Ziyomammedov, M.Tojiev, A.Abdukarimov, A.Pardaev, J.G‘.Yo‘ldoshev va R.Ishmuxamedovlar bu borada o‘z ilmiy imkoniyatlari bilan katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bugungi kunda ta‘lim-tarbiya jarayonini yangi zamonaviy texnologiyasiz tasavvur qilish mumkin emas, shunday ekan har bir ta‘lim jarayoni bevosita yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirish davr talabidir va u bugun zaruriy ehtiyojdir.

Uzluksiz ta‘lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biri – kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bosqichi bo‘lib, u ta‘lim tizimi isloh qilish jarayonida pedagog xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari ishtirokchilariga zaruriy va yetarli darajada shart-sharoitlarni yaratib berilishini ta‘minlaydi. Bundan asosiy maqsad – har tomonlama rivojlangan yangilanish jarayonlariga moslashuvchan, yuksak ma‘naviy va pedagogik madaniyatga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil fikrlash va innovatsion faoliyat ko‘rsata olish mahoratiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan o‘qituvchi shaxsini tarbiyalashdan iborat.

Ta‘lim tizimini isloh qilish jarayonida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga belgilanayotgan zamonaviy talablar shundan iboratki, ta‘lim va yoshlar to‘g‘risidagi qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ‘ibot qiladigan, o‘z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda talabalarning sub‘ektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan, o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, talabalar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta‘limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi. Shunday bo‘lsada, ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o‘qituvchining asosiy vazifalari – ta‘lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, talabalarga o‘rgatilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Demak pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

-o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta‘lim jarayonining ta‘lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

-maqsadga muvofiq ko‘zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo‘nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l yo‘riqlarni va qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

-vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko‘ra, talabalarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni avvaldan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga binoan taqsimlashni rejalashtirish;

-ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash;

-pedagogik jarayonda talabalarning sub‘ektivligini ta‘minlash

va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish;

-pedagogik jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash;

-pedagogik jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta‘minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

-maktab, oila va mahallaning o‘zaro aloqasini ta‘minlash;

-pedagogik jarayonlarda ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish; |

-DTS talablarini amaliyotda qo‘llash va uning monitoringini olib borish;

-talabalar o'rtasida anketa so'rovlari va suhbat o'tkazish asosida axborot to'plash va tahlil qilish;

-talabalar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko'rib chiqish, yangilash;

-DTS asosida mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etish;

-talabalarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

-talabalarining o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

Demak, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining o'z funksional vazifalarini amalga oshirish – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo'lib, pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo'nalishidagi sub'ekt (o'qituvchi-o'quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali sub'ektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, pedagoglarning funksional vazifalaridan biri – pedagogik jarayonlarda maqsadga erishish uchun ta'lim jarayoni sub'ekti sifatida talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirish va faolligini oshirishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida o'zini o'zi, o'z faoliyatini, bir so'z bilan aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradilar, mazkur faoliyat o'z navbatida o'qituvchilar va talabalarning do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ifodalaydi. Mazkur jarayonda do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon – bu pedagogik jarayonning ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish o'qituvchidan o'ziga xos bilim, ko'nikma va malaka, pedagogik va kasbiy mahorat, kasbiy tajriba va qobiliyat talab etadi. Do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari hisoblangan o'qituvchilar va talabalar faoliyatiga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, pedagogikada ko'zlangan natijalarga erishishda mazkur jarayonning samaradorligi pedagogning kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, har bir ijodkor pedagog bugun o'z kasbini ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarsiz tashkil etmasligi lozim. Bu borada o'ta dolzarb va zarur bo'lgan hamda eng ko'p samara beradigan, ta'lim berish jarayonida o'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llar, metod va uslublar, o'qitish shakllari, vositalarini o'qituvchining o'zi yaratadi, takomillashtiradi. Zero, o'qituvchiga kuch-g'ayrat beradigan asosiy manba - o'quvchidir. Ularning qiziqishlari, intilishlari va faolligi o'qituvchiga ruhiy madad, ilhom baxsh etadi. Natijada «Pedagogik texnologiya», «Pedagogik innovatsiya» atamaları yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy o'rinni, shubhasiz, ta'lim mazmuni egallaydi. B.L.Farbermenning fikricha: "Ko'p bosqichli ta'lim tizimi, yangi standart va o'quv dasturlari joriy etilayotgan hozirgi davrda o'qitishni eskicha uslub bilan olib borishga yo'l qo'yilmasligi kerak". Bugungi kunda turli ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'limning o'rni va darajasini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarda pedagogik texnologiyaning vazifalaridan kelib chiqib, uning imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Demak, o'quv-tarbiya jarayonini yangi prinsiplar va yangi mafkuraviy negizda, yangi ta'lim berish usullarida qayta qurish, ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish mumkin va bu zaruriy ehtiyojga aylanadi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, talabalar faolligini ta'minlash asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, pedagogni kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23.09.2020 yil O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-576-son.
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar.
5. Fatxutdinov R. Innovatsionnyy menejment. 6-ye izd. – SPb.: Piter, 2008.
6. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2004.
7. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. -T.: "O'qituvchi", 2000.
8. Ismatova Sh.A. Kompetentlik tushunchasi va uning pedagoglar faoliyatidagi o'rni.

ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE

International scientific-online conference 04.04.2024 yil  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10926694>.

## TA'LIM JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

*Abduraximov Zoxid Sobirovich*  
*Qashqadaryo VPYMO'M markazi*  
*"Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi*  
[zohidjonabduraximov@gmail.com](mailto:zohidjonabduraximov@gmail.com)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Multimedia-gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

➤ axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ruyxatdan utkazish va aks ettirishning turli qurilmalari,

➤ muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira,

katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi,

➤ "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

➤ multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

➤ Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81- yildagi yalpi oboroti 4 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki unumli va vaqtdan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkun bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika kurinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

- Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:
- a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
  - b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
  - v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
  - g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari.

Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizasiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan

qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);

- *ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;*
- *kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi; ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;*
- *ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;*
- *mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;*
- *ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.*

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedaning muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin.

Lekin multimediyadan foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimediyada taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi.

Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animasiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emosional darajani ta'minlab turishi mumkin.

Multimedia vositalari har xil ta'lim yo'nalishlari (stillari) uyg'unligida qo'llanilishi va ta'lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir hususiyatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta'lim oluvchilar bevosita o'qish orqali, ba'zilar esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko'rish orqali ta'lim olishni va bilimlarni o'zlashtirishni xush ko'radilar.

Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo'lgan ta'lim oluvchiga noan'anaviy qulaylik tug'diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'lim oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari o'sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual

o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi.

Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animasiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

#### **Адабиётлар**

6. Экономическая информатика -учебник / под ред. И.П. КосапеБ и Л.В. Еремина -М -Финансы и статистика, 2002, стр. 523-563

7. А.А.Козырев Информационные технологии в экономике и управлении. Учебник/ 2000

8. Б.Ю. Ходиев, А. А. Мусалиев, Б. А. Бегалов Введение в информационные системы и технологии -Учебное пособие. Т. -«ТГЕУ» 2002.-156с.

9. А.Г. Юркин. Задачник по программированию. Учебное пособие. Питер .Минск:2002.

10. Ричард, Хезфилд, Лоуренс-Кирби. Искусство программирования на С. ДиаСофт Питер:2001.

### **BOSHLANGICH MAKTABDA CHET TILINI O'RGANISH: MADANIY HAR-XILLIK KALITI**

Murtazina Diana Rahibovna

“Pedagogika tarixi va nazariyasi” 521-23-guruh magistri

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Murtazin Emil Rustamovich

Jizzax politexnika instituti

**Anotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rganishni madaniyatning tarqalish va muloqotning kalit elementi sifatida ko'rib chiqadi. Mualliflar talabalar o'rtasidagi intilish, farqliliklarga hurmat va akademik muvaffaqiyatning rivojlanishiga chet tillarini o'rganishning ta'siri haqida tahlil qilishadi. Bu maqsadlarga erishishga yordam beruvchi muvaffaqiyatli amallar va dasturlar misollarini ko'rsatishadi.

**Kalit so'zlar:** Chet tillar, boshlang'ich maktab, madaniyatning voziq, muloqotning ko'tarilishi, ta'lim dasturlari.

Zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyoda globalizatsiya har qanday bizning hayotimizning turli aspektlarini ko'rsatishga olib kela boshladi. Ushbu global haqiqatda bir nechta tillarda gaplashish bilan yangi imkoniyatlarga ochiladi, balki kashfiyot qilish va murakkab dunyo jamoasida mufassal adaptatsiyaga va aloqaga ega bo'lish uchun zarur bo'ladi. Shuning uchun chet tillarini o'rganganlik kritik ahamiyatga ega bo'lib, boshlang'ich maktab bu ko'ngilochar safarimizda ko'plik tillilik va madaniy muloqotlar olamiga tashrif buyurgan nuqtai nazardan bo'lib qoladi. Ushbu maqolada biz chet tillarini o'rgatishning boshlang'ich maktabda madaniy muloqotlar va muloqotning kalit elementi sifatida ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Biz bu amalni ta'minlovchi bir nechta omilga e'tibor qaratamiz, shuningdek dunyoda har xil dasturlarda va amallarda muvaffaqiyatli qarorlarni ta'minlovchi muvaffaqiyatli usullar va dasturlar misollarini keltiramiz [1]. So'nggi natijada, biz boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rganishni faqat akademik muvaffaqiyat emas, balki o'tkazgan vaqtda qiziqishlarni kengaytirish, intilishni rivojlantirish va zamonaviy ko'plik tillik dunyoda muvaffaqiy ishlash uchun kalit bo'lishini ko'ramiz.

#### **Madaniy muloqotlar rivojlantirish**

Chet tillarini boshlang'ich maktabda o'rgatishning asosiy afzalliklardan biri bolalarni boshqa mamlakatlar madaniyatiga hurmatli munosabatni rivojlantirishdir. Tilni o'rganish orqali



bolalar avtomatik ravishda tilni o'rgangan mamlakatning tarixi, traditsiyalari va madaniy xususiyatlari bilan tanishadi [2]. Ushbu jarayon ularning ko'nglari buzilib, boshqa xalqlarning madaniyati va adabiyotlaridagi farqlarni ochadi. Ular dunyoni faqat o'zining o'ziga xos madaniyati va tili mavjud bo'lgan joy sifatida ko'rmaydilar, balki farqliliklar va to'yibadagi barqarorlikni ko'rishlari mumkin.

### **Madaniy muloqotni oshirish**

Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rgatish muloqotni oshirishga yordam beradi. Bolalar boshqa tilda gaplashish va boshqa mamlakat madaniyatini o'rganishda, ular boshqalar ko'zidan dunyoni ko'rish, boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar [3]. Bu ularning farqliliklarni, qadriyatni va har xil madaniy tadbirlarni tushunish va qadr-qimmatini o'rganishlariga yordam beradi. Muloqotni oshirish muloqotni oshirish va madaniy ko'lamini oshirishning asosiy tizimidir.

Zamonaviy dunyoda bir nechta tillarni bilish shaxsiy va professional hayotda ham qobiliyatdir. Chet tillarini boshlang'ich yoshlarda o'rganish bolalarga kelajakda afzallik beradi, ular ish topish yoki karyerani shakllantirish uchun [4]. Bundan tashqari, ko'plik tillarining xalqaro ta'lim, madaniyat va biznes sohalarida yangi imkoniyatlarning ochilishiga imkon beradi.

Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rganish eng yaqqol tili til o'rganish emas, balki madaniy muloqot va madaniy ko'ramlarini rivojlantirishning muhim qismi bo'lib, bu madaniy kengayish va muloqotning kalit elementi sifatida ishlaydi [5]. Muhokama jarayonida biz bu faqat akademik fan emas, balki dunyo madaniyati, tillari va traditsiyalari bilan to'ldirilgan joylarni ochish uchun vositalar sifatida ham qaraymiz. Boshlang'ich yoshda chet tillarini o'rganish bolalarga ularning shaxsiy va professional rivojlanishlarida afzallik beradi, zamonaviy ko'plik tilidagi yangi imkoniyatlarning ochilishini yordam beradi. Shuningdek, bu, intilish, farqliliklarga hurmat va boshqa madaniy muloqotlarga oid tushunchalar rivojlanishiga yordam beradi, bu hamkorlik va doimiy muvozanatni shakllantirishda muhim omil bo'lib keladi.

Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rganishning potentsialini maksimal darajada amalga oshirish uchun sifatli ta'lim dasturlariga va maktab dasturi, ota-onalar va umumiy jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga ega bo'lish zarur [6]. Shunday qilib, biz boshlang'ich maktabda chet tillarini o'rganish dasturlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga davom etishni vaqtinchalik chaqirishni talab etamiz, shuningdek, bolalarga faqat til ko'nikmalarini emas, balki madaniy va fikriy fikri farqliliklarga hurmat va tushuncha berishni o'rgatishni talab etamiz, bu esa zamonaviy dunyoda juda muhimdir, chunki dunyomiz har safar globalizatsiyaga murojaat qilmoqda.

### **Adabiyot**

1. Murtazina, D. R. (2023). INGLIZ TILI O'QITISH VA O'RGANISH USULLARI. Fan va innovatsiya, 2(Maxsus 14 -son), 139-145.
2. Shakirova, L. F., & Murtazina, D. R. TINGLASHNI TA'LIMDA QO'LLANISH. XXI ASR OLIMI, 77.
3. Qo'ziev, B. N., Murtazin, E. R., Xolmo'minova, D. A. (2016). O'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish. 21-asr olimi, (3-1 (16)), 26-28.
4. Qo'ziev, B. (2023). TA'LIMDA SUN'IY INTELTEKT. Mexatronika va robototexnika : muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.
5. Qo'ziev, B. N. va Murtazin, E. R. (2023). TA'LIM VA SUN'IY INTELEKT. Iqtisodiyot va jamiyat, (5-2 (108)), 786-789.
6. Qo'ziev, B. N., Xolmo'minova, D. A., Murtazin, E. R. Elektron ta'lim o'quv jarayonining bir qismi sifatida. XXI asr olimi, 1, 43.

## **TA'LIM TIZIMIDA "YUSUF VA ZULAYXO" TURKUMIDAGI DOSTONLARNING O'RGANILISHI (Mirzo Olim Devonaning "Ravzayi asror" dostoni misolida)**

Murodova Ruxsora

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Mirzo Olim Devona va uning “Ravzayi asror” dostoni haqida so‘z boradi. Asarning qo‘lyozma nusxasi haqida ma‘lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** yusufnomalar turkumi, qo‘lyozma, Tavrot, Zabur, Qur‘oni Karim

Mustaqillik davri adabiyotshunosligida XIX asr oxiri- XX asr boshlarida ijod qilgan ma‘rifatparvar ijodkorlar adabiy merosini o‘rganish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, ammo bu davr adabiyotida tadqiqotchilarni kutayotgan mavzular talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Bu orqali Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “...Avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan” ana shunday ijodkorlardan biri Mirzo Olim Devona Samarqandiy hayoti va ijodiy merosi komunistik mafkura sharoitida xolis va to‘laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham qayta o‘rganilgan emas. Shu bois ham Mirzo Olim Devonaning “Ravzayi asror” dostoni qo‘lyozmalarini qiyosiy-matniy o‘rganish, dostonni adabiyotshunosligimiz erishgan bugungi yutuqlar asosida poetikasini tadqiq qilish va adabiyot ixlosmandlariga tanishtirish zarurati mavjud.

Mirzo Olim Devona XIX asrning ikkinchi yarmida Zarafshon vodiysida yetishgan iste‘dodli shoirlardan biridir. Ammo o‘tgan asr davomida uning nomi ham, asarlari ham turli sabablar tufayli noaniq va mavhum holda ilmiy jamoatchilik e‘tiboridan chetda qolib, keng kitobxonlar ommasiga noma‘lum bo‘lib keldi.

Olim Devona to‘g‘risida “O‘zbekiston RFA Sharq qo‘lyozmalari to‘plami ” ning VII jildida, “O‘zbek Qomusi”ning VIII jildida, Botirxon Valixo‘jayevning “O‘zbek epik poeziyasi tarixidan” hamda V.Abdullayev va B.Valixo‘jayevlarning “Miriyligi va uning zamondoshlari” kitoblarida Olim Devonaning mang‘it amirlaridan bo‘lmish Amir Muzaffar hukmronlik qilgan davr (1860-1885- yillar)da amirlikda miroxur lavozimida xizmat qilganligi va “Ravzayi asror” qissasining muallifi ekanligi to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar keltirilgan, xolos.

“Ravzayi asror” qissasining nusxasi bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular O‘zbekiston RFA Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida 1799- va 1338- raqamlar ostida saqlanmoqda. 1799- raqamli qo‘lyozma matni nastaliq xatida och sariq rangli yupqa qo‘qon qog‘oziga oddiygina bitilgan. Kitobning hoshiyalarida qo‘shimcha tuzatishlar mavjud. Qo‘lyozma 211 varaq, 422 sahifadan iborat bo‘lib, har bir sahifada 11 qatorda 22 misra ya‘ni 11 bayt ikki ustunda ixcham holda joylashtirilgan. Qo‘lyozma kotibi va ko‘chirilgan yili noma‘lum. Ammo qo‘lyozma XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida, ya‘ni asar yozilgan 1861-1862- yillarda kitobat qilingan degan xulosaga kelish mumkin.

Dostonning ikkinchi qo‘lyozma nusxasi 1904-yilda Sayyid Amir Abduaxadxonning homiyligida zeb-ziynatlangan nodir nusxada qo‘shimcha o‘zgarishlar bilan qayta kitobat qilingan. Bu 1338-raqamli noyob qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma qattiq karton bilan muqovalangan, o‘yma naqshlar bilan zeb-ziynat berilgan. Bezatilgan hamda yaxshi saqlangan. Qo‘lyozma 212 varaq, 424 sahifadan iborat. Sahifalar oltin va turli rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan. Asar nastaliq xatida qunt bilan qora siyohda bitilgan. Qo‘lyozma kotibi noma‘lum ammo matnda xatolarga yo‘l qo‘yilmagani va hoshiyalarda tuzatishlar ko‘zga tashlanmaganidan kotib o‘ta savodli bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin.

Asarning badiiy qiymati va syujetiga keladigan bo‘lsak Sharq adabiyotida IX asrdan boshlab “Yusuf va Zulayho” sayyor syujeti asosida 150 dan ortiq doston va qissalar yaratilgan, shundan turkiy adabiyotda “Yusuf va Zulayho” haqida 50 ga yaqin asar yozilgan. Qul Alining “Qissai Yusuf”, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom”, Durbekning “Yusuf va Zulayho” va Andalibning “Yusuf Zulayhoyi turkiy” asarlarini bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bizga ma‘lumki, Yusuf haqidagi qissalar genezisi ilohiy kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur‘oni Karimga bog‘lanadi. Yusuf a.s. haqidagi dastlabki ma‘lumotlar Tavrotning “Ibtido” nomli birinchi kitobida berilgan bo‘lib, u haqidagi asosiy voqealar “Yusufning ko‘rgan tushlari” qismida keltiriladi. E‘tiborlisi Tavrotidagi va turkiy yusufnomalardagi tush epizodlari o‘zaro muvofiq keladi. Bundan farqli o‘laroq ikkinchi ilohiy

manba – Zaburda aniq syujet tilga olinmasdan qissaga ma'lum bir ishoralar keltirib o'tiladi. Yusufnomalarning ilhom manbai bo'lib hizmat qiluvchi Qur'oni Karimning "Yusuf" surasida Misr hokimi bo'lmish Kutfiyning xotini Zulayho obrazi, uning Yusufga oshiq bo'lishi va visolga erishish yo'lida xatti-harakatlari boshqa manbalardagidan ko'ra ancha mukammal yoritilgan.

Adabiyot tarixida yaratilgan "Yusuf va Zulayho" dostonlari qiyosiy o'rganilganda, ular g'oyaviy jihatlari ko'ra ikki turga : 1) ishqiy-tasavvufiy va 2) ishqiy-sarguzasht dostonlarga bo'linadi. Abdurahmon Jomiy va biz o'rganayotgan Olim Devona Samarqandiy dostonlari ko'proq ishqiy-tasavvufiy sifati hamda tasvir xarakteriga ko'ra Zulayhoning Yusufga bo'lgan ehtirosli muhabbati tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi. Hozirgacha bu turkum dostonlar ilmiy tadqiqotlar doirasiga tortilmagan va o'rganilmagan.

Olim Devonaning turli janrda yaratilgan ming misradan ortiq nazmiy javohirlari, Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan 1 muxammasi, XIX asr o'zbek dostonchiligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib nazmiy qissasi adabiyot ixlosmandlariga hali notanish. Shunga ko'ra shoir nazmiy asarlari misolida ijodkorning hayoti va ijodi badiiyatini o'rganishga adabiyotimizda katta ehtiyoj bor. Shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda biz o'z tadqiqotlarimiz davomida dostonning quyidagi xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib oldik:

1. "Ravzayi asror"ning yusufnomalar tadrijiy takomilida tutgan o'rni
2. Asardagi hamd va na'tlar badiiyati
3. Asar syujeti va arxitektonikasi
4. Dostondagi obrazlar poetikasi

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi 2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish" to'g'risidagi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mirzo Olim Devona Samarqandiy va uning "Ravzayi asror" dostoni adabiyotshunosligimizning yangi ochilmagan bir sahifasi o'laroq o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзо Олим Девона Самарқандий. Равзаи асрор / Нашрга тайёрловчи И.Санаев. – Тошкент: Шарқ, 2019. - 343 б.
2. Жабборов Н. Жомийнинг "Юсуф ва Зулайхо" асари туркий таржимасига оид мулоҳазалар. /Абдурахмон Жомий. – Тошкент: Қўлёмалар институти, 1997, 172 -175-бетлар.
3. Санаев И. XIX асрнинг иккинчи ярми ва XX асрнинг бошларида Зарафшон водийси адабий муҳити. – Т.: Tafakkur, 2009.

#### UZLUKSIZ TA'LIMDA AYOL OBRAZINING O'RGANILISHI (XURSHID DAVRON LIRIKASI MISOLIDA)

Ziyodaxon Usmanova Ilxomjon qizi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya .** Badiiy adabiyotda ayol obrazi abadiy va o'lmasdir. Maqolada Xurshid Davron ijodida ayol obrazining badiiy talqini, unga singdirilgan ma'no-mazmun va yuklatilgan vazifalar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** lirika, ayol obrazi, lirik qahramon, his tuyg'u va fikr birligi.

Badiiy adabiyotda, xususan, she'riyatda ayol obraziga go'zallik, nafosat, yaratuvchanlik, mehr-muhabbat va sog'inch ramzi sifatida murojaat etiladi. Xalq og'zaki ijodida ayol avvalo ona, sevimli yor sifatida tasvirlansa, mumtoz adabiyotda Allohga bo'lgan ishqning bir ko'rinishi, ramziy tamsili o'laroq akslantirildi. XX asr she'riyatida ayol obrazi har qachongidan ko'ra o'zgacha mazmun-mohiyat kasb eta boshladi. Boisi, bu davrda ayol nozik hilqat bo'lish bilan birlikda sabr-qanoati, mehnati, irodasi tufayli jamiyatda o'z o'rniga ega shaxsga aylandi. Bu davrda yaratilgan ayol obrazlarining ruhiy dunyosi bilan bog'liq holatlarni

tahlil etish davomida ulardagi psixologik evrilishlarning asl sabablarini tadqiq etish imkoniga ega bo‘lamiz. II jahon urushi va uning oqibatlarini, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga birinchi bo‘lib aks-sado beruvchi lirikaning diqqat markazidagi mavzuga aylandi. A.Oripovning “Ayol”, X.Davronning “Tun, beva ayol va derazadagi soyalar” she‘rlari, B.Boyqobilovning “Sadoqat” oktavasi aynan urushning yosh juvonlar hayotida qoldirgan jarohatlari haqida hikoya qiladi. Har uch she‘rda ham Vatan himoyasiga otlangan yoridan qoraxat olgan navjuvon ayolning iztiroblari aks etadi. Ayniqsa, X.Davronning “Tun, beva ayol va derazadagi soyalar” she‘ridagi beva ayol va baxtdan masrur qo‘shni ayolning paralel tasviri tasavvurimizda aniq jonlanadi.

Asarda biz e‘tibor bermaydigan odatdagi beva ayolning nari borsa yarim soatlik o‘y-xayollari, iztiroblari qalamga olinadi. Aslida, ayol necha yillardan beri yolg‘iz, qo‘shni derazaga har safar boqqanida o‘zining kechmishini xotirlaydi.

Qarshida deraza so‘ylaydi ertak,  
Unda ikki soya baxtiyor, malul.  
Oh naqadar ulkan u sirli erkak,  
Qo‘llarida ayol sevgan qizil gul.  
Har bir harakati soladi larza,  
Nahotki, bu ertak also tinmasa.  
Buncha bashafqatsan qo‘shni deraza?![3.47]

She‘r ilmi lirik kechinma oniy hissiyot yoki juda uzoq davom etgan ruhiy holatni ifodalovchi voqeaband she‘rlarda epik asarlarga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Lekin voqeaband she‘rda voqea-hodisalar lirik qahramonning kechinmalarini ifodalash uchun bir vosita sifatida qo‘llaniladi. Shuning uchun bu turkumdagi she‘rlarda voqea batafsil yoritilmaydi, qahramonning tuyg‘ulari kulminatsion nuqtaga chiqqan o‘rinlar, uning hissiyotlariga ta‘sir o‘tkazgan detallarga alohida ahamiyat qaratiladi. Ammo tasvirlanayotgan hodisa kitobxonda qahramonning ruhiy dunyosiga ta‘sir o‘tkazuvchi kuchni his qilishi va holatni tasavvur etishi uchun lozim bo‘lgan barcha unsurlarni qamrab olishi darkor. She‘rdagi *sirli erkak, qizil gul, ertak va beshafqat qo‘shni deraza* detallari ayolning ancha vaqtdan beri yolg‘iz yashashiga ishora. Oradan qancha o‘tgani muhim emas, muhimi ayol uchun bu holat ertakka aylanib ulgurgan. She‘rdagi oqshom xronotopiga juda katta ma‘no singdirilgan. Kunning bu qismida hamma o‘z uyida oila davrasida oqshom dasturxoniga o‘tiradi. Ammo lirik qahramon bu baxtdan benasib. U uchun shom vaqti xotiralar bilan yolg‘iz qolib iztiroblar ichida ko‘milish chog‘i. Yoshlik gashtini sura olmagan kelinchakning farzandi yo‘q. U o‘zining baxtiyor oilasini faqat tushlaridagina ko‘ra oladi, faqat tushlaridagina chaqaloq hidiga to‘yib, oilaning to‘kis baxtini his qila oladi. Tush xronotopi ayolning orzu umidlari va armonlarini o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantiradi.

...Oramizda yotgan emish chaqaloq,  
Ko‘zlari seniki, labi meniki.  
Mitti oyoqchasi oy kabi oppoq,  
Ko‘rinib, ko‘rinmas emish kiprigi.  
Sen uxlar emishsan burkanib,  
Salqin shabadada sochlaring o‘ynar[3.48].

Tush zamirida makon va zamonning hamohangligini kuzatamiz. Makon orqali orzudagi hayotni yoki shirin armonlarni qalamga olish baraborida insonni, uning qiyofasini, davrning murakkab ziddiyatlarini talqin uchun asos qilib olgan. Hatto tushda ham ayolning uyg‘oqligi va uzoqlarda to‘ylarning bo‘g‘ilib kuylangan sadolari o‘quvchi diqqatini tortadi. Aslida to‘y o‘zbeklar uchun yangi bir oilaning vujudga kelishi, avlodning davomiyligini saqlagani uchun ham quvonchli hodisa, lekin ayol nazdida bu to‘ylarning quvonchli uzoqqa cho‘zilmaydi.

Bolishda yomg‘irning oq tomchilari –  
Beva ko‘z yoshlari nurda yaltirar.  
Qo‘shni derazada bir-birin quchar  
Navqiron, hamisha baxtli soyalar.  
Ko‘zni yumolmaydi va birdan turib

Eshikni ochadi. Salom, ey ko'cha!  
Bag'riga bosadi, uni entikib  
Erkakday chiroyli, baquvvat kecha.

Lirikada fikr va tuyg'u birligini me'yorda tuta olish muhim hisoblanadi. Lirik asar lirizm va epiklik unsurlaridan tashqari, dramatic turning xususiyatlariga ham ega: she'riy asarda, u hajman kichik bo'lsa ham, kishining o'tkir va jiddiy bir hissiy holati, hayajoni tasvirlanadi. Bu ham o'ziga yarasha dramadir[1.157].

Xuddi shu kayfiyat shoirning "Beva hovlisiga tun oldin kirar" she'rida ham aks etgan. Baxt va qayg'u, o'lim va hayot, armon va umid ikkiliklari ijodkor lirik olamining ajralmas qismlaridir. Xotiralar bilan yashash, baxtli kunlar sog'inchi, sevgiga sadoqat shoir "bevalari"ga xosdir.

Oqshomlari qiyin bo'lar bevaga:  
Xotiralar dilga kirar qayg'udosh.  
Og'ir bo'lsa hamki, tasvir bo'lsa ham  
Suratga jilmayar – ko'zlarida yosh [2.50].

Lirikada doimo qalb va aql uyg'unligi yetakchilik qilishi talab etiladi. "Urush xotiralari" turkumiga kiruvchi she'rlari xalqona pafos, betakror tashbehlar, his-tuyg'ularning yorqin ifodasi bilan o'quvchi qalbi va ongida uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Xotira o'ziga xos kompozitsiyaga ega, unga kiritilgan "Kuzatish", "Kutish" va "Sog'inch" alohida mustaqil asar bo'lmay, bir lirik qahramonning sevgan yorini urushga kuzatish, uni kutish va urushdan keyingi davrlarda u bilan bog'liq sog'inch holatlari mantiqiy izchillikda tasvirlanadi.

Shivirlagin: "Men qaytaman!"

Shivirla qayta-qaqytadan.

O'pgin meni to'yib-to'yib,

Mayli, yig'lay kuyib-kuyib.

Badiiy adabiyotda ma'noni kuchaytirish, qahramon ruhiy olamini kashf etish, kitobxonning ichki olamiga kirib borish uchun ham so'zlar takroriga asoslangan badiiy san'atlardan foydalaniladi. Bu holat lirik qahramon va o'quvchining birgalikdagi harakatini, satrlarga singdirilgan ma'noni uqishda hassoslikni ta'minlashga xizmat qiladi. She'rdagi "shivirlamoq", "to'yib-to'yib", "kuyib-kuyib" birliklari ham ayni maqsadni ko'zlaydi.

Shivirlama: "Meni unut!"

Shivirlagin: "Yodingda tut!" kabi satrlarda qat'iy talab qo'yayotgan qahramon yolg'izlikning uzun tunlarida yorning yulduzday ko'zlarini eslaydi, "Men qaytaman" degan so'zlarini xotirlab o'z ko'ngliga taskin beradi.

Yillar uzoq, yo'llar uzoq,  
Kutmoq qiyin, visol shirin.  
Mening yuzim – kuzgi yaproq,  
Aytib bo'lmas dardim sirin.

Asarda ayol ruhiyatining nozik qirralari, pokiza olamining rangin jilolari kitobxon yuragiga yaqin hislarni uyg'otadi, ichki kechinmalariga ta'sir o'tkazadi. Shoirning mahorati shundaki, u hayotning shafqatsiz o'yinlarini misralar qatiga mohirlik bilan singdirib, har bir fikrni badiiy-estetik bo'yoqlarda tasvirlaydi. Bu esa ijodkordan chinakam iste'dod, ijodiy izlanish va san'atkorona mushohadani talab etadi.

Xurshid Davron ijodida ayolning sadoqati, vafodorligi, mehr-muhabbati, sabr-bardoshini ulug'lovchi she'rlar salmoqli o'rin egalaydi. Zamonning notinchligi, fojialar, urush, xattoki, judolik ham irodasini sindira olmagan, sadoqat va matonatning ramziga aylangan o'zbek ayoli timsoli "Men sevaman", "Chol va kampir", "Ko'z yoshlaring" kabi she'rlarida ham talqin etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – T.: "O'qituvchi", 2005. 272-b.
2. Xurshid Davron. Bolalikning ovozi. She'rlar to'plami. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1986. 208-b.

3. Xurshid Davron. “Qadrdon quyosh”. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979, 55-b.

## CHET TILINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA O’RGATISHNING METODIK AHAMIYATI

Abduraxmonova Mavzuna Davronboy qizi, tayanch doktorant, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, [abduraxmonovamavzuna@gmail.com](mailto:abduraxmonovamavzuna@gmail.com). Tel.: +998936409530

**ANNOTATSIYA:** Til mahoratida integral o’qitish yondashuvida o’qituvchilar ham, talabalar ham o’z roliga ega bo’lishi kerak. Hozirgi integratsiyalashgan til ko’nikmalarini o’rgatish modellari o’quvchilarning nutqini ravonligi va aniqligini, shuningdek, ularning ijtimoiy-madaniy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada integratsiyalashgan til ko’nikmalarini o’rgatishda turli xil zamonaviy yondashuvlardan foydalanishning metodologik imkoniyatlari va ahamiyati muhokama qilinadi.

### ***Kalit so’zlar: integrativ yondashuv, til ko’nikmalari, til o’qitish texnologiyalari***

Respublikamizda so’nggi yillarda turli sohalarda zamonaviy, bilimli raqabatdosh kadrlarni tayyorlash jarayonini xalqaro malaka talablari asosida rivojlantirish, bo’lajak mutaxassislarni xorijiy tajribaga asoslangan holda tayyorlash, xorijiy tillarda benuqson muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlashda jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng ko’lamda foydalanishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Chet tillar... kabi boshqa muhim va talab yuqori bo’lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o’rganish, ... ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish”[2] vazifasi ustuvor etib belgilandi. Natijada, bu o’z navbatida oliy ta’limda talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” PF-60-son Farmoni [3], 2017-yil 7-fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” PF-4947-son [2], 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” PF-5847-son Farmonlari [1], 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son qarori [4], 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775 son, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida” [5], 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ta’lim sohasida madaniy kompetensiya va integrativ yondashuv o’z aksini ko’rsata boshladi. Qadam va qadam o’qituvchi va professorlarning ta’lim berish darajasi, ularning malakaviy dasturlarini oshira oldi deyish maqsadga muvofiq. Integrativ yondashuv haqida asoslar keltirar ekanmiz, avvalom bor integratsiya tushunchasiga to’xtalib o’tamiz. Integratsiya-bu (lotincha integratio so’zidan olingan) birlashish va qayta tiklash bo’yicha ta’lim tizimining bir-biridan ajratib turuvchi elementlarining yagona butunligiga birlashtirish o’zaro bog’liqlik va bir birini to’ldirish asoslari deb ta’riflanadi [8].

Myullarning yangi inglizcha va ruscha lug’atida ushbu termin quyidagicha ta’rif berilgan: “Integral”-1) muhim; 2) to’la, butun, yaxlit integrallashgan, integrativ-to’la va butun qilish, butunni tashkil qilish, o’rtacha qiymati yoki umumiy miqdorni aniqlash; 3)

mat.integrallashtirish. Integratsiya-1 mat. Integratsiya, integrallash; 2. Bir-biriga birlashtirish” [10] ma’nolarini ifodalaydi. “Macmillan English Dictionary for Advanced Learners” lug’atida esa quyidagicha izohni ko‘rish mumkin: Integral – 1. to‘liq bo‘lishi uchun biror bir qismni yaxlitlash; integratsiyalash (integrate)- 1. Ikki yoki undan oshiq narsalarni to‘liq tizim yoki bo‘lak bo‘lishi uchun birlashtirish. Integratsiya (integration)-narsalarni, odamlarni yoki turli xil fikrlarni bitta qilib jamlash [9] deb ko‘rsatiladi.

Ushbu ta’riflardan, “integral” matematik tushunchani, “integratsiya” esa o‘z navbatida “birlashtirish” ma’nosini beradi. Berilgan ta’riflarga nazar solgan holda integrativ yondashuv talabaga tegishli bo‘lgan barcha xususiyatlarni, shu asnoda, xulq-atvor, psixika, madaniyatni, ijobiy taqlidni va uslubni birlashtirib jamlab talabalarning madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari milliy va xorijiy tajribalarning integrativ xususiyatlarini analitik o‘rganish, integrativ xususiyatlarini e’tiborga olish hamda tili o‘rganilayotgan xalqlar urf odatlarini o‘rganadi va o‘z maqsadini ko‘rsata oladi. I.K.Bekasov integrativ yondashuv doirasida xorijiy til tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini Internet texnologiyalarni qo‘llash asosida ko‘rib chiqadi (programma Skype, video-konferens aloqa), u tilshunos talabalarning xorijiy tilda shu tilda so‘zlovchilari bilan haqiqiy muloqotini ta’minlaydi va muallif tomonidan xorijiy til kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishning optimal vositasi sifatida qaraladi [7].

OTMlarda talabalar til tayyorgarligi maqsadi ularda xorijiy tilda muloqot qilish kompetensiyalarini tarbiyalashga qaratiladi. Oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘li quyidagi vazifalarni bajarish asosida amalga oshiriladi: 1) xorijiy til tayyorgarliklari natijalari sifati monitoringini muntazam amalga oshirish, jumladan, OTMda tahsil oladigan talabalarga xorijiy til tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni bajarish sohasida xorijiy til tayyorgarliklarini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti sohasida ilmiy tadqiqotlarni bajarish; 2) kasbiy mutaxassis tayyorlash yangi talablari darajasiga mos tarzda talabalarning til tayyorgarligini rejalashtirish va amalga oshirish; 3) ta’lim oluvchilar tafakkuri, tasavvurlari, xotirasi, ijodiy tasavvurlari, dunyoqarashlari, shuningdek, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metod, shakl va vositalardan foydalanish; 4) ta’lim oluvchilarni xorijiy tillarni o‘rgatishda o‘rganilayotgan til egalarining madaniyati, tarixi, an’analari, madaniy merosi va shu tilning lingvistik xususiyatlari yuzasidan motivatsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli ishlarni amalga oshirish; 5) talabalarda mustaqil ishlarini takomillashtirish, lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘rganish amaliy ko‘nikmalarini o‘stirish, kasbiy faoliyatlarida, shaxsiy muloqot jarayoniga yaqindan yordam beradigan optimal ta’lim muhitini yaratish ustida ishlash [6].

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy, kasbiy, ta’limiy yoki professional imkoniyatlardan foydalanish uchun kommunikativ kompetensiya va ingliz tilidan foydalanish qobiliyati ingliz tilini asosiy til sifatida qo‘llaganligi sababli ingliz tilini o‘rganishning eng muhim maqsadlari bo‘lib kelgan. Agar integratsiyalashgan ko‘nikmalarni o‘qitish yaxshi amalga oshirilsa, u nafaqat talabalarning til ko‘nikmalarini va/yoki til komponentlarini yaxshilashda samarali bo‘ladi, balki talabalar va o‘qituvchilarni ingliz tilidagi o‘quv dasturidan unumli foydalanishlarini ham qo‘llab quvvatlaydi. Til ko‘nikmalarini o‘rgatishning integratsiyalashgan yondashuvidan foydalangan holda, o‘qituvchilar ham kompetensiyaga ega bo‘lishi va bu yondashuv haqiqatan ham samarali ishlashi mumkinligiga ishonishi kerak. Tilning barcha ko‘nikmalarini qamrab olgan holatda tashkil etilgan dars jarayonlari o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun birdek samarali bo‘lib, darsdan ko‘zlangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga asosiy omil hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60-son Qarori,
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18- son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.
6. Ахмедова Н.М. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларни касбий тайёргарлигини такомиллаштириш: Пед. фанл. ... фалс. д-ри PhD. – Т., 2020.
7. Бекасов И.К. Совершенствование иноязычной коммуникативной компетенции студентов-лингвистов с использованием Интернет-технологий: английский язык, продвинутый этап обучения: Дис. ... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2008. – 172 с.
8. Краевский В.В. Педагогика и ее методологи я вчера и сегодня // Интернет-журнал “Эйдос”. - 2003. - 2 декабря. <http://www.eidos.ru/journal/2003/0711-03.htm>. - В надзаг: Центр дистанционного образования “Эйдос”, e-mail: list@eidos.ru.
9. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Publishers Limited. – England. 2002. 1692 p.
10. Мюллер В. Новый англо-русский словарь. New English- Russian Dictionary. Издательский дом Диалог. – М., 2003. –895 б.

## **ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLI JIHATLARI**

**Kenjayeva Muhayyo Abdumurodovna**

Yangi asr universiteti Maktab va maktabgacha ta’lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Mirshavkatova Munisxon Shuxrat qizi**

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

### **Annotatsiya**

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsida ta’lim texnologiyalardan unumli foydalanish, “Ajoyib maktub”, “Xatolarni belgilayman” usullarining qo‘llanilish tartibi hamda o‘quvchilarning fikr va g‘oyalarini erkin bildirishi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ona tili, didaktik usullar va ularning ahamiyati, erkin fikrlash.

**Важные аспекты использования дидактических методов на занятиях родным языком**

### **Аннотация**

В статье рассматривается эффективное использование образовательных технологий на уроке родного языка начальной школы, метод использования методов «Удивительное письмо», «Отмечаю ошибки», свободное выражение мыслей и идей учащихся.

**Ключевые слова.** Родной язык, дидактические методы и их значение, свободомыслие.

### **Important aspects of using didactic methods in mother tongue classes**

#### **Annotation**

The article discusses the effective use of educational technologies in the native language class of the elementary school, the method of using the "Amazing letter", "I mark mistakes" methods, and the free expression of students' thoughts and ideas.



**Key words.** Mother tongue, didactic methods and their importance, free thinking.

Bugungi kunda ta'limning sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda. Milliy o'quv dasturi ta'lim tizimini keng isloh qilish, fanga doir bo'lgan kompetensiyalarni rivojlantirish, ta'lim mazmunini tubdan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarga tilni o'qitish orqali egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi[2;12]: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yori rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish ham nazarda tutilgan.

2020 yil 20 oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda o'zbek tili nufuzini oshirish va yozma savodxonlikni oshirish bo'yicha alohida e'tibor qaratilgan[1].

Ona tili fani o'quvchilarda fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishdan iborat. Ona tili nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. Aynan nutqiy kompetensiyani shakllantirishda yozma nutq malakasini oshirishda quyidagilar:

-o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;

-turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa-hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish[3;10];

-materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;

-yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish;

-matnning izchilligini ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;

-imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish ta'kidlab o'tilgan[4].

Ona tilining jamiyatdagi o'z qadri, mavqeyi hamda maqomiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish maqsadida o'rganish va o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj yanada oshirildi. Natijada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning diqqati kerak-kerak emas mavzular bilan chalg'itish emas balki, ona tili ta'limining hayotiy zaruratni oshirish va uni targ'ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu bois o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatli jihatlarni yoritishni maqsad qildik.

Ta'lim texnologiyaga asoslangan darslarining an'anaviy darslardan farqi nimada? Bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib, unga o'z fikrini erkin bayon etish va yozishga imkoniyat berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? Dastlab, o'quvchilariga yozma savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi. Masalan: 1. Qaysi fasllarni yo'qtirasiz? 2. Oy nomlarini ayting.3. Gullar nomini bilasizmi?

Ushbu savollar orqali o'quvchilarning qiziqishi va ularning e'tibori jalb qilinadi. So'ngra dars jarayonida quyidagi usullar qo'llaniladi. "Ajoyib maktub", "Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usullar o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish va ta'lim jarayonining sermahsul, tartibli o'tishiga ko'mak beradi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning o'zida barcha g'oya hamda takliflarni yozib borish lozim."Ajoyib maktub" usulida o'qituvchi o'quvchilarga o'z fikrini oq qog'ozga tushirib borishda namuna sifatida doskada keltirilgan so'zlarni shoshilmasdan, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qilgan holda tartib bilan yozishni eslatib o'tadi.

<b>So'z</b>	<i>Vatan, men, qadr, va, ko'z, qorachiq, asra. Onajon, men, qadrli, inson</i>
<b>Gap</b>	<i>Men Vatanimni qadrlayman va ko'z qorachig'imdek asrayman. Onajonim, men uchun eng qadrli inson.</i>
<b>Bo'g'i nga ajratish</b>	<i>Men, va-ta-nim-ni, qadr-lay-man, va ko'z qo-ra-chi-g'im-dek, as-ray-man. Ona-jo-nim, men, uchun eng, qadr-li in-son.</i>

Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtasidagi ma'lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirlashuv jarayonidir. Bu jarayon bir tizim deb qaraladigan bo'lsa, uni tashkil etuvchi elementlaridan biri baholashdir[5;27]. Har bir dars jarayonida o'quvchi faoliyatining to'g'ri va adolatli baholanishi uning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi, o'z ustida ishlashga undaydi.

"Xatolarni belgilayman" deb nomlangan usul orqali o'quvchilarning zukkoligi, so'zlar tartibini to'g'ri qo'llay olishi e'tiborga olinadi. Bir necha xato so'zlar ekranda namoyish etiladi. Ularning to'g'ri variantlari o'quvchilar tomonidan doskada bajariladi; Kitop – kitob, soat- sog'at, daftar – daptar, tabiat – tabiyat, ayna – oyna, stol – ustol, kata - katta, maktab- maktab

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda usullardan foydalanish va bu orqali o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lish ularning erkin fiklashini ta'minlash e'tiborga olinadi. Shuning uchun dars jarayonida qay usulda o'qitish, nima asosida ta'lim berish, ta'lim jarayonida qanday vositalardan foydalanish, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilarning ishtiroki e'tiborga olinadi. Darsda o'quvchining o'zi o'rganishi, izlanishi, mushohada yuritishi, mazkur jarayonning bevosita tashkilotchisi, o'qituvchi esa bu murakkab jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni // qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 21.10.2020 y. 06//20//6084//1398-son.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi. Toshkent.2020.
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017 yil 14 (774)-son, 230-modda. – 233 b.
4. O'quv dasturi. Davlat ta'lim standarti va ona tili o'quv dasturi //2017. 13-b.ona tili
5. Ishmuhamedov.R, M.Mirsoliyeva. "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari". "Fan va texnologiya" nashriyoti. Toshkent - 2014. - B.74

## **MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHDA MOTIVATSIYANI KUCHAYTIRISH ORQALI TALABALARNING O'Z-O'ZINI PERSONALLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL QILISH**

Hafizova Gulizoda Aktam qiz  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi  
Arziqulova Surayyo Fayzullayevna  
Shahrisabz davlat pedagogika institutida kafedra mudiri

### **Annotasiya**

Bu maqolada hozirgi kundagi ta`lim sohasidagi eng asosiy muammo ya`ni talabalarning ko`pchiliklarida ta`lim olish motivlarining yo`qligi shu bilan birgalikda ularning ta`lim sohasidagi asosiy ko`rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Talabalarda motivatsiyani kuchaytirish orqali ularda o`qishga bo`lgan mas` uliyati ortadi. Biz talabalarda motivatsiya berish orqali o`zlarida ishonch hosil qilishda katta yordam bergan bo`lamiz.

**Kalit so`zlar:** motivatsiya, bilim, ko`nikma, motiv, kreativlik, kredit-modul, motiv, personallashtirish

### **Аннотация**

В данной статье основной проблемой в сфере образования сегодня является отсутствие у большинства студентов мотивации к обучению, что вместе с этим приводит к снижению их основных показателей в сфере образования. Повышая мотивацию студентов, они становятся более ответственными к учебе. Мы помогаем студентам обрести уверенность в себе, мотивируя их.

**Ключевые слова:** мотивация, знания, умения, мотив, креативность, кредитный модуль, мотив, персонализация.

### **Annotation**

In this article, the main problem in the field of education today is that the majority of students lack motivation to learn, which, together with this, leads to a decrease in their main indicators in the field of education. By increasing students` motivation, they become more responsible for their studies. We help students gain self-confidence by motivating them.

**Key words:** motivation, knowledge, skill, motive, creativity, credit module, motive, personalization

Talabalarda motivatsiya hissini rivojlantirishning bir usuli ularda aniq maqsadni belgilash hisoblanadi. Ular ertalab darsga kelayotgan vaqtda o`zlarini maqsadlarini belgilab olishlari kerak. Berilgan vazifalarga chuqur intilish hamda kuch-g`ayrat bilan yondashish zarur. O`zlari tayyorlayotgan amaliy ishlari slayd, taqdimotlarni kamchiliklariz tayyorlashlari va ularni oliy saviya bilan taqdim etishlari lozim. Talabalar qilayotgan har bir ishlarida va obrazlarda o`zini ko`rsata olishi lozim chunki ular ko`rsatyotgan har bir obraz alohida dunyoga alohida harakteriga egadir. Talabalarda mustaqil ishining asosiy maqsadi bo`ladi ya`ni turli manbalardan yangi bilimlarni o`zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishidir. Bugungi kunda ta`lim tizimida katta e`tibor qaratilgan. Ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashni rivojlantirish individual ta`lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarni kreativ fikrlash amaliy ko`nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Hozirgi kunda Oliy ta`lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirish bosqichma-bosqich rejalashtirilgandir.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Talabalarining mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag`ishlangan tadqiqotlarda (L. G. Vyatkin, M. G. Garunov, B. P. Esipov, V. A. Kozakov, I. Ya. Lerner, M. I. Maxmutov, N. A. Polovnikova, P. I. Pidkasisty va boshqalar) umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy va faoliyati bu faoliyatning uslubiy mantiqiy va boshqa jihatlari ko`rib chiqiladi o`rganilayotgan muammoning ko`p jihatlari, ayniqsa, an`anaviy didaktik rejada ochib beriladi. Shu bilan birga, talabalarining individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim bo`lib, mustaqil bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta`minlash masalalari alohida e`tiborni talab qiladi.

Mustaqil ish - mustaqillik kabi shaxsning muhim xususiyatini shakllantirish vositasi, talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish shakli bo`lib, u faollik, fikr mustaqilligi, ijodkorlik, qat`iyat va topshiriqni bajarishda tashabbuskorlikni talab qiladi.

Talabalarining mustaqil ishlarining turli bosqichlarida ularning mustaqilligi oddiy takrorlash, taqlid qilishdan tortib, ijodkorlikka qadar turli yo`llar bilan namoyon bo`ladi. Bajarilgan vazifalarning murakkabligi ortib borishi bilan u paydo bo`ladi, rivojlanadi va murakkablashadi. Talabaning turli fanlar bo`yicha mustaqil ishining samaradorligi, avvalambor,

uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabatlari, xotira, diqqat, irodaviy sifatlar kabi aqliy sifatleri va boshqalarga bog`liq bo`lsa, unumli mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri uning shakllanishi va rivojlanishi hisoblanadi.

Talabalarining mustaqil ta`limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o`z-o`zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni egallash maqsadi bilan bog`liqlikda mustaqil o`quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko`nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo`larini izlab topishga qobiliyatli kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o`quv dasturini o`zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta`lim oluvchilarda bilim olishga doir mas`uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta`lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o`z-o`zini boshqarish va o`z-o`zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

### **Tahlil va natijalar**

Mustaqil ishni tashkil etishning muqobil usullari ya`ni muvaffaqiyatga erishishi yo`llarini ko`rsatuvchi motivatoridir. Ta`limning ma`nosi talaba shaxsining asosiy komponentidir. Psixologik ma`lumotlarga ko`ra, har qanday faoliyat muayyan motiv asosida vujudga keladi va yetarli shart sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta`lim jarayonida o`zlashtirish, egallash o`rganishni ta`minlash uchun talabalarda o`quv motivlari mavjud bo`lishi shart. Bilish motivlari talabaning maqsad sari ya`ni bilish maqsadini qaror toptirishga, bilim va ko`nikmalarni egallashga yo`naltiradi. Talabalar o`quv motivatsiyasi bilan yondosh bog`liq bo`lgan kasbiy motivatsiya ham rivojlanadi. Motivlar -insonni u yoki bu foaliyat bilan shug`ullanishiga majbur etuvchi ichki turki kuchidir. Talabalar muhim motivatsion omil - intensiv pedagogika. U ta`lim jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy-faol o`yinlarga asoslangan o`yin mashg`ulotlarini joriy qilishni o`z ichiga oladi. Bunday o`yinlarda faqat qaror qabul qilish ko`nikmalarini egallash emas, balki ob`ekt haqida bir tomonlama ma`lum bilimlardan ko`p tomonlama bilimga o`tish, uni yetakchi qarama-qarshiliklarni aniqlash bilan modellashtirish mavjud. Ushbu yondashuvdagi birinchi qadam biznes yoki vaziyatli o`rganish shakllari, shu jumladan kompyuterlardan foydalanadiganlardir. Talabalarining faol mustaqil ishi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo`lishi mumkin. Eng kuchli rag`batlantiruvchi omil - bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik. Talabalarining olgan bilimlari kelajakda samarali foyda beradi. Mustaqil ta`lim orqali o`zlarin yuksaltira oladilar. Talabalarda erkin fikrlash va fanga chindan dildan yondashish uchun ularga o`qituvchilar tomonidan mustaqil ta`lim beriladi. Mustaqil ta`lim mustaqil o`qib-o`rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo`yicha ko`rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan fan dastur (Sillabus)da o`z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o`quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo`lishi tavsiya etiladi. Ta`lim-o`quv materialini mustaqil o`zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo`lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil o`qib-o`rganish uchun taklif etilgan mavzular hamda mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo`yicha ko`rsatmalar talaba uchun ishlab chiqilgan fan dasturda o`z aksini topishi lozim. Mustaqil ish uchun taqdim etilgan o`quv topshiriqlari variativ tavsifga ega bo`lishi tavsiya etiladi. Talabalarining mustaqil ishini bajarishda ularga motivatsiya berish juda muhimdir. Ma`lumki, motivatsiya bu shaxsni ma`lum faoliyatni amalga oshirishda uni bajarishga undovchi omillar va harakatlar yig`indisi hisoblanadi. Shu bilan birga, faoliyat, qoida tariqasida, polimotivatsiyalangan, ya`ni bir vaqtning o`zida bir nechta motivlar tomonidan qo`zg`atiladi.

Motivatsiya harakatga nisbatan uchta tartibga solish funksiyasini bajaradi:

-Motivatsiya, ya`ni odamning harakatga kirishishi uchun vosita impulsi yoki motivini berish.

-Ma`noli, ya`ni faoliyatga chuqur shaxsiy tus berish ma`nosi

-Tashkil etish, ya`ni maqsadni belgilash asosida, ongli motivlar motiv maqsadga aylangan.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning maqbul shakllarini tanlab, o`qituvchi o`rganish uchun maksimal motivatsiyani ta`minlashga, topshiriq hajmini aniq belgilashga va har bir talabani individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirish uchun optimal vaqtni hisoblashga intiladi. Vazifaning hajmini ko`pligi va haddan tashqari yuqori talablar mashg`ulot samaradorligini keskin pasaytiradi.

Xulosa qilib shuni aytsa bo`ladiki, hozirgi kunda talabalarga bo`lgan e`tibor juda kattadir. Talabalar kelajakda yaxshi mutaxassis kadr bo`lib yetishishida davlatimiz barcha imkoniyatlarni yaratmoqda. Davlatimiz rahbari talabalarning muammolarini tinglash asnosida ham ularning ko`plab muammolarini hal qiladigan tizim yaratdi, keng qamrovli imkoniyatlar berdi. Jamiyat rivoji yo`lidagi shunday qadamlardan biri talabalarning o`qish davrida ishlashiga ruxsat berilishidir. Bir qarashda oddiydek tuyulgan bu islohot aslida jamiyat uchun ham, kelajagimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Buni, eng avvalo, talabani iqtisodiy erkinligi bilan bog`lashimiz mumkin. O`zbekiston Respublikasi prezidentning 2019-yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko`ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o`tishi rejalashtirilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli «Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi» to`g`risidagi Farmoni.

2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. /tuzuvchilar: Jamoa. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015-yil 368-b.

3. Xudayberdiyeva Janona “Ta`limda individuallashtirish g`oyasining rivojlanish genezisi” . <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467003>.

### **O`QUV MATNLARINI MODELLASHTIRISH ASOSIDA O`QUVCHILAR NUTQIY BOG`LANISHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (4-SINF O`QISH SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA)**

Qarshi davlat universiteti  
p.f.f.d .dotsent M.K.Kazakova

Qarshi davlat universiteti  
Ta`lim-tarbiya nazaryasi va metodikasi(sohalar bo`yicha)

Tayanch doktoranti Hamrayeva Muhayyo Erkin qizi

[Tel:99.3191893](tel:993191893)

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so`zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o`zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo`l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog`liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o`rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo`yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan rivojlanish tarzida ro`y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag`batlantiruvchi yoki unga to`sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko`zlagan holda pedagogik ta`sir ko`rsatishni tashkil etish kalitidir.

O`quv matnlarini modellashtirish orqali ta`lim berilsa ta`lim oluvchilarga ta`lim olish usullari osonlashmoqda. Bunda esa ta`lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kompyuter,

internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta'lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg'ulotlar o'tkazish ta'lim sifatini oshirishni ta'minlaydi. Onlayn darslarda raqamli ta'lim texnologiyalari bilan birga o'quv matnlarini modellashtirish asosida qo'llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma'lum. Masalan, yangi tahrirdagi Singapur ta'limi asosida chiqarilgan darsliklarimizda ko'plab matnlar, rasmlar va telivedinya orqali berib borilgan onlayn darslar ham o'quvchi yoshlarni tanqidiy va ijobiy fikrlashga undaydi. Hozirgi paytda bolalarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi bolalar o'quvini tashkil etishning maqbul shaklini qidirish ishlari olib borilmoqda. Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, bilimlari, qobiliyati va madaniyatining saqlovchisi bo'lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi – til orqaligina berish mumkin.

4-sinf savodxonligi darsligi bo'yicha "Arining qasosi" hikoyasi bo'yicha bir soatlik dars ishlanmasini tahlil qilib chiqamiz.

4-sinf o'qish savodxonligi darsligi III qism 7-bet.

I. Darsning borish: Tashkiliy qism: a) salomlashish

b) davomatni aniqlash

Darsning metodi: savol-javob, qayta hikoyalash, sahna ko'rinish, mavzu bo'yicha rasmni modellashtirish asosida chizish va izohlash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi

Darsning jihozi: darslik, mashq daftari

**II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:**

**"Qanday go'zal bu olam" she'ri berilgan bo'lib, ushbu rasm orasidan she'r muallifini toping.**



### III. Yangi

**mavzuning bayoni:**

**Arining qasosi (Muhabbat Hamidova)**

O'qituvchi tomonidan hikoya ifodali, rollarga bo'lib o'qib, tushuntirib beradi. O'quvchilar hikoyani diqqat bilan qarab boradi. O'qituvchi tomonidan bugungi hikoyaga oid savollar beriladi va hikoyani kim qanday tinglagan bo'lsa, savollarga bergan javobi orqali bilib olinadi.

**Savollarga javob berish orqali yuqorida keltirilgan matn qayta hikoya qilib beriladi.**

1. Hikoya nima haqida ekan?
2. O'tkir Sardorga qanday voqeani so'zlab berdi?
3. Sizningcha, nega qovog'arilar Sardorga e'tibor bermay, O'tkirning ortidan quvib ketdi?
4. Qovog'arilarning uchishi nimaga o'xshatilgan?
5. O'tkir arilarni qanday chalg'itdi?
6. Siz bolalarning o'rnida bo'lganizda nima qilgan bo'lardingiz?

**Quyidagi topshiriqlarni o'quvchilar dars davomida bajaradilar:**

1. Hikoyada Sardor va O'tkirning suhbatini o'qing.
2. Qovog'arining uchish holatlari tasvirlangan gaplarni topib o'qing.
3. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering. "Do'mbira qo'zi" iborasini izohlang.
4. Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.
5. Hikoyadagi voqealar rivojini davom ettiring.

Boshlang'ich ta'lim tamoyillari va mazmuniga doir nazariy ma'lumotlarni hamda o'quvchilar nutqiy ravonligini rivojlantirishga doir adabiyotlarni tahlili asosida boshlang'ich sinflarda didaktik o'yinlar orqali nutqiy ravonligini oshirish metodikasini ishlab chiqiladi.



Quvnoq daqiqa: 7 — qadam



ularning anjomlaridan juftliklar tuzing. Ustunlar va satrlar kesishgan kataklarda yotgan harflardan soʻz tuzing.

Dam olish daqiqasi.

Kayfiyat enerjdjayzeri

Bunda 7-raqamli o'quvchilar doska yoniga taklif qilinadi va sinfdoshlariga bir necha emotsiyalarni mimika va ishoralar bilan ko'rsatishi aytiladi. O'tirgan o'quvchilar qanday hissiyot ekanligini topishi kerak bo'ladi.

Qu

yida keltirilgan o'yinlar va

Futbol	A	S	H	J	T	N
Voleybol	B	U	F	Y	O	P
Tennis	I	V	Z	R	K	B
Basketbol	D	T	M	K	G	T
Regbi	K	I	E	O	E	I
Xokkey	L	X	G	P	S	Q

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:** O'quvchilar bilan hikoya yuzasidan sahna ko'rinish tashkillashtiriladi. Qatnashmagan talabalar mavzu bo'yicha rasm chizadilar va chizgan rasmlarini izohlab beradilar.

O'quvchilar hikoyaga tegishli matnni o'qish jarayonida tushunmagan so'zlarini daftarga yozib boradilar va o'qituvchi tomonidan so'zlarning izohi keltiriladi.

**Lug'at ishi**

**Eti junjikmoq**-salqindan qaltiramoq

**Yamlamoq**-chaynamoq, og'iz ichida aylantirmoq

**Pocha**-kiyimning tizzadan pastki qismi

**Karaxt**-harakatsiz

**Tixir**-o'jar, qaysar

**Tabiat bolasi**-tabiatda yashaydigan inson

V. Uyga vazifa berish.

VI. Baholash

O'quvchilarni o'quv matnlarini o'qish jarayonida bog'lanishli nutqni oshirish jarayonida nutqning ravonligini oshirish yo'llarini bir soatlik dars ishlanmasini ishlab chiqish orqali o'rganamiz va o'quvchilarga o'rgatamiz.

Boshlang'ich sinflar o'qish savodxonligi darslarida belgilangan muhim talablardan biri o'quvchining nutqini o'stirish. Chunki o'quvchining nutqi qay darajada ekanligi ularning o'qish va yozish malakalari, o'z fikr mulohazalari, tasavvur tushunchalarini boshqalarga yetkaza olishiga bog'liq. Nutqi rivojlangan o'quvchilar faqat o'quv yozuv darslaridagina emas, balki boshqa darslarni ham to'laqonli o'zlashtirishga erishadilar. Nutqi rivojlanmagan o'quvchilar esa, dars mavzularini o'zlashtirishda qiynaladilar. Shuning uchun o'qish savodxonligi darsligining barcha bo'limlariga nutq o'stirish vazifalari singdirilgan. Bu ma'suliyatli vazifani amalga oshirishda boshlang'ich sinflarda ta'lim tarbiyaning samaradorligini taminlash, jumladan, o'qish savodxonligi darslarida puxta bilim, ko'nikma va malakani hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. U.B. Aydarova, N.K. Azizova O'qish savodxonligi 4-sinf III-qism Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T: 2023 7-13-bet.

2. Qosimova K, S Matchonov Ona tili o'qitish metodikasi Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalar uchun darslik. - Toshkent. "Nosir" nashriyoti 2009.

3. M. Hamroev, D. Muhammedova Ona tili. - Toshkent, 2008.

4. Internet manbalari.

## **BOLALARNI TEJAMKORLIKKA, ISHBILARMONLIKKA O'RGATISH**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Abstract:** This article was prepared on the basis of the policy of our honorable President Shavkat Miramonovich Mirziyoyev regarding youth, his high attention and care, as well as his perspective. The goal is to teach a child to take an active part in raising a child, not only mentally and physically, but also to become a smart, economically mature educated person, from the age of kindergarten to independent life, with a deep sense of responsibility.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning yoshlarga ko'rsatayotgan siyosati, yuksak e'tibor va g'amxo'rliqi, istiqboli asosida tayyorlangan. Maqsad – bolani nafaqat aqlan, ham jismonan tarbiyalashda faol ishtirok etishga, balki bog'cha yoshidanoq mustaqil hayotga, chuqur tuyg'uga ega bo'lgan aqlli, iqtisodli, ma'suliyatli, yetuk bilimli inson bo'lib yetishishga o'rgatishdir.

**Kalit so'zlar:** Tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisod, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tarbiyachilar, o'qituvchilar, bolalar, maktab, bog'cha, darslar, mashg'ulotlar, axloq, tarbiya.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgan 1991-yil 31-avgustdan e'tiboran mamlakatda kichik va o'rta biznesga keng yo'l ochib berilishi natijasida bu borada yoshlar bilimni oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Maktab va oliy ta'lim tizimlarida biznes, raqobat, bankrot, ulush, foyda va ziyon kabi terminlar darsliklarda paydo bo'ldi.

2016-yil muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelgandan keyin moliya va iqtisodiyotni aniqroq qilib aytganda, iqtisodiy tarbiyani bolalar bog'chasidan boshlash kerak degan tashabbusni ilgari surdi. Shu bois davlat va xususiy nashriyotlarda iqtisodiyot sohasi bo'yicha fan arboblari va olimlarining yosh bolalarga mo'ljallangan iqtisodiy saboqlar mavzusida ko'plab o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Hatto mazkur yo'nalishda oliygoh magistrantlari ilmiy izlanishlar olib borib bolalar psixologiyasidan kelib chiqqan holda iqtisodiy tarbiya bilim va ko'nikmalarini shakllantirish borasida fan nomzodlik dissertatsiyalarini yoqlab ko'plab ibratli o'quv qo'llanmalari chop etishdi. Zero, tejamkorlik va ishbilarmonlik sir-sinoatlarini chuqur egallagan bolalar hayotda tez o'z o'rnini topa olishadi. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, tarbiyasi, tejamkor isrofgarchiliklarni yoqlamaydigan bo'lsa shu jamiyat va muhitda o'sayotgan bola shaxsi ham shunchalik tarbiyasi bo'lib yetishadi. O'z xatti-harakatlarimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish masalalarida muvaffaqiyatga erishish eng avvalo ko'p jihatdan iqtisodiy ta'limga bog'liqdir. Kishilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirmasdan turib, chuqur o'zgarishlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bolalarga maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish muammosi ko'pdan buyon pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir.

Avvalo, iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo'lmoq darkor. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitib kelindi. Chunonchi, Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga pishiq bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin. Abu Nasr al-Farobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligi va ularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilishni e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa



zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. Darhaqiqat, iqtisodiy aloqa o'rnatish uchun odamlar, davlatlar, jamiyatlar integratsiya yo'lida harakat qiladilar.

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi — bu o'quvchini ongli intizom ruhida tarbiyalashdan iborat. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Sifat — alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi kategoriya. Fazilat — alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi. Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamolot darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashganligi bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tish joizdir: Odob — har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishi. Axloq — jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuyi. Madaniyat — jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat — inson onginu aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi. Mushohada qilish aqlning

peşlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. Milliy istiqlol mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak axloqiy-ruhiy qadriyati shundaki, u hamma vaqt har qanday sharoitda kishini halollikka da'vat etadi. Zotan, uning siyosiy ahamiyati va ma'naviy qadriyati ham xuddi shu bilan belgilanadi. Tarbiyada vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifatdir. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati, uning ongi, qalbi, aqli va irodasiga bog'liqdir. Chunki insonning ichki ruhiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z qalbiga quloq tutib, irodasini ishga solsa, g'arazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik kabi g'ayriinsoniy illatlardan ustun chiqib, oqilona ish ko'rsa, uning vijdoniy sifati yuqoriligini ko'rsatadi. Inson qalbida g'ayriinsoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. Yoshlarda mustaqil fikrlay olish va o'zining shaxsiy, to'g'ri xulosasini chiqara olish fazilatini tarbiyalash, mustaqil fikrlash komillikning asosiy belgisidir.

Mustaqil fikrlash sarchashmasi fahmlash, ya'ni anglashdan, fikr yuritishdan boshlanadi. Anglash — biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish. Tafakkur — inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash. Amaliyotda qo'llash hayotda bir necha bor qo'llangan, o'zining ijobiy hosilasini bergan ishonchli muam m olar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib, yagona yechimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir. Inson mustaqil fikrlash orqali voqelikni umumlashtirib, bilvosita va bevosita aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki, murakkab bog'lanishlar, munosabatlar, xossalar, xususiyatlar hamda mexanizmlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va voqealarning vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rib turish imkoniyatiga egadir. Fikr — inson faoliyati, uning o'zligini, kuch-qudratini, o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifat. Yoshlarimiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga, ayniqsa, biz pedagoglar ko'proq mas'ulmiz. Bu vazifani muqaddas bilib, amaliy faoliyatimizda hayotga tatbiq etaylik. Barkamol avlod mustaqilligimizning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O'qituvchi», 2004.
6. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O'qituvchi», 2004.
7. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.
8. S.R. Baxadirova pedagogika va psixologiya asoslari Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

## TA'LIM JARAYONINING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRISH FUNKSIYALARI

Hayitova Umida Mardon qizi

Qashqadaryo viloyati Koson tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 81 - umumiy o'rta ta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika — ta'lim nazariyasi shug'ullanadi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar.** Didaktika, aqliy kamolot, bilish qobiliyati, analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish.

Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Ta'lim — insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyat. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga

aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. U mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganishi va baholashi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish — bularning barchasi ta'lim jarayonining asosiy vazifalari. Ta'lim jarayoni — ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'limning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyati. Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi, muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. O'qituvchi o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olishi zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham raqbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirilishiga erishadi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham g'amxo'rlik qiladi. O'qituvchi o'quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo, ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

1. Ta'limiy maqsad — o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olish.

2. Tarbiyaviy maqsad — fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad — ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi-talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Bu bog'liqlikni, avvalo, ta'limni amalga oshirish bosqichlarida ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat: Birinchi bosqich — o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi. Ikkinchi bosqich — ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada, ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar. Uchinchi bosqich — yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi. To'rtinchi bosqich — ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar. Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini

o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi.

1. O'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

2. Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va is'tedodlarini o'stirishga erishiladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchiga e'tibor bilan qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim. O'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

9. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O'qituvchi», 2004.

10. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O'qituvchi», 2004.

11. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.

12. S.R. BAXADIROVA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA ASOSLARI Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

#### **BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI RUHIY HOLATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Saydaliyeva Nilufar

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani

2- umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf

o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu malakaviy ish “ Boshlang'ich sinf musiqa darslarida o'quvchilarning ruhiy holatini rivojlantirish usullari” mavzusida bayon etildi. Malakaviy ishda boshlang'ich sinflarda Musiqa madaniyati darslarining o'ziga xos xususiyatlari, boshlang'ich sinflarda milliy kuy-qo'shiqlarda — Vatan madhi, boshlang'ich sinflarda marosim qo'shiqlarini kuylatish orqali milliy urf-odatlarini o'quvchilar onggiga singdirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy kamolotini rivojlantirishda musiqa san'atining o'rni haqida fikr bildirildi.

Malakaviy ish xulosalangan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirib o'tilgan.

#### **Mundarija**

- Kirish
- Asosiy qism
- Boshlang'ich sinflarda Musiqa madaniyati darslarining o'ziga xos xususiyatlari
- Boshlang'ich sinflarda milliy kuy-qo'shiqlarda- Vatan madhi
- Boshlang'ich sinflarda marosim qo'shiqlarini kuylatish orqali milliy urf- odatlarini

o'quvchilar onggiga singdirish

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhiy kamolotini rivojlantirishda musiqa san'atining o'rni.

- Xulosa va tavsiyalar
- Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

#### **Kirish**

Mavzuning dolzarbligi. Musiqa shunday vositaki, u yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir qiladi, tinglovchi dunyo qarashini shakllantiradi. Ayni choqda u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, his-tuyg'ularini boyitadi. Inson hayotida ham, ishda ham qo'shiqning o'z o'rni, vazifasi mavjud, u ermakka to'qilmagan, havasga aytilmagan, bekorchilikdan eshitilmagan: qo'shiq kishilarni yashashga kurashga chorlagan, mehnatga muhabbatga ruhlantirgan, dardu qayg'usiga malham,

baxtu quvonchiga sherik bo'lgan. Qo'shiqning xalq orzu-armonlari ifodasi, xalq ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundan. Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, manaviy barkamol inson haqida gapirib bo'lmaydi. Toki odamzod o'zini qurshab turgan tashqi olamda, o'zi yashayotgan jamiyatda, o'zi bilan muloqotda bo'ladigan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalarida mujassamlashgan go'zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma'naviy barkamol inson darajasiga ko'tarila olmaydi. Musiqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalash qudratli vositalaridan biridir. O'quvchilarda ong va milliy tafakkurni o'stirish uchun birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan asarlar repertuari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni o'quvchilarning qiziqishlari, bilim, ko'nikmalar darajasiga mos bo'lish, tematikaning rang-barangligi, g'oyaviy-badiiy sifati hamda pedagogik qiymati bilan belgilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mos keladigan o'tmish va hozirgizamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining forma va mazmuni bilan go'zal va hayotbaxsh, nafis va xushohang asarlar yangrashi lozim. Zero faqat shunday asarlarga o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg'ota oladi, ahloqiy estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'stirib boradi.

## **II. Asosiy qism.**

Boshlang'ich sinflarda Musiqa madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari Musiqa bilan shug'ullanish umumiy va maxsus qobiliyatlarning muayyan majmuini talab qiladi. Qobiliyat deganda kishining biror ijtimoiy foydali faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga layoqatini ifodalaydigan xususiyatlari yoki sifatleri tushuniladi. Qobiliyatlar muammosi psixologiyaning eng muhim muammolaridan biridir. Qator olimlar qobiliyatlari dialektik materialistik tushunishga tayanib ularni peshonaga yozilgani kabi loqayd talqin qilishga qarshi kurashib keladilar.

Ma'lumki, musiqiy qobiliyatlar barvaqt, ko'pincha bolalar musiqa bilan maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishni boshlashidan ancha ilgari yuzaga keladi. Mutaxassislar musiqa qalbimizga sokinlik va xotirjamlik olib kirib, aqliy faoliyatimiz va zehnimizga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanini ta'kidlashadi. Farzandlarimiz kelajakda qaysiki kasbni tanlashidan qat'i nazar, an'anaviy xonandalik, kuy-qo'shiq, raqs, xoreografiya, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlarini o'rganishlari foydadan xoli emas. "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020- yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida"gi qarorga muvofiq yurtimizda 2021- yilgacha 40 ta bolalar musiqa va san'at maktabi quriladi, 58 tasi esa ta'mirdan chiqarilishi ko'zda tutilgan.

## **Xulosa**

Xulosa o'rnida umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya tizimining bosh g'oyasi ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa tarbiyadan ajratish mumkin emasligida shart.

Demak, musiqiy tadbirlar pedagoglar uchun tarbiya vositasi sifatida ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T. "O'zbekiston", 2017y.-488-b.
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 5-son. 2017-y.

## **TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI**

Norqulova Ziyoda Normurodovna

Qashqadaryo viloyat Koson tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limga qarashli  
81 - umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta

’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining qanday bo’lishini, o’qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

**Kalit so’zlar.** O’qitish usul, bilim, ko’nikma va malakalar, kompetensiya, mahorat, qobiliyat, ta’lim metodlari, induktiv usul.

O’qitish usullari har ikkala faoliyatning o’qituvchi tomonidan o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirish; o’quvchilar tomonidan berilayotgan bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirish faoliyatida qo’llanadigan yo’llarni o’z ichiga oladi. Ta’lim berish o’qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo’lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta’lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o’z o’rnida foydalanadi. Ta’lim metodi ta’limning maqsadi va vazifalariga bog’liq. Metodlar o’quvchilarning yoshiga ta’limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi. Ta’lim mazmunini o’zlashtirishda o’quvchilarning bilim saviyasi, o’zlashtirish qobiliyati, ta’lim manbayi, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi metodlar qo’llaniladi:

- o’qitishning og’zaki metodi;
- o’qitishning amaliy ishlar metodi;
- o’qitishning ko’rgazmali metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- o’qitishning muammoli izlanish va reproduktiv metodi;
- o’qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o’qitishda rag’batlantirish va tanbeh berish metodi;
- o’qitishda nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish metodi.

O’quv informatsiyasini so’z orqali uzatish va informatsiyani eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo’yiladi?

O’qitishning og’zaki usullari uch turga:

- a) o’qituvchining hikoyasi;
- b) suhbat;
- d) ma’ruza shakliga bo’linadi.

Hikoya usuli boshlang’ich sinflarda qo’llansa, yuqori sinflarda ma’ruza usuli ko’p qo’llaniladi. Ta’lim mazmuni notanish bo’lsa hikoya va ma’ruza usullaridan foydalaniladi. Ta’lim mazmuni o’quvchiga qisman tanish bo’lsa, suhbat usuli qo’llaniladi. Og’zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o’qituvchining bayon qilishi va o’quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o’zlashtirishlari birligiga amal qilinadi. Hikoya maktab ta’lim tizimida eng ko’p qo’llanadigan usul bo’lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o’qitishda, maktab ta’limining hamma bosqichlarida qo’llaniladi. Boshlang’ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq, sinflarning o’rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo’ladi. Yuqori sinflarda hajmi katta bo’ladi, ma’ruzadagi kabi butun darsni band qilmaydi. Nutq madaniyatini o’stirishda hikoyaning o’rni katta. Shu jihatdan o’qitishning og’zaki usullari ta’limda doimo eng ko’p qo’llaniladi. O’quv ma’ruzasi — o’quv materialini og’zaki bayon qilish uchun mo’ljallangan. Uning hajmi hikoyadan katta bo’ladi. O’quv ma’ruzasi dars yoki mashg’ulotning barcha qismini egallab oladi. Ma’ruza, asosan, yuqori sinflar, kollej va oily o’quv yurtlarida qo’llanadi. Ma’ruzasi o’tilayotgan mavzuning haqiqiy ilmiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo’li bilan to’liq mashg’ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir. O’quv materialini og’zaki bayon qilish usuli bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo’llanadi.

1. Bayon qilinayotgan materiallar g’oyaviy jihatdan mazmunli nazariyani amaliyot bilan bog’lashga qaratilgan bo’lishi kerak.

2. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to’g’ri ko’rsatish orqali o’quvchiga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish.

3. Bayon qilishda o’quvchining nutqi yagona manba hisoblanadi va u nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.



4. Bayon qilishda o'qituvchi ishlatadigan ta'riflar, qoida va qonunlar kitob matnidan farq qilishi, mazmuniga mos bo'lishi kerak. Suhbat usuli — savol-javob usuli deb ham yuritiladi. O'quvchilar darsga yetarli darajada tayyor bo'lsa, o'qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o'zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evristik izlanish, axtarib topish xarakterida bo'ladi. O'qitish jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo'llanadi. Suhbatlar ayniqsa, o'qitishning tarbiyalovchilik xarakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo'l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o'quvchilarning ayrim guruhlar bilan ham o'tkaziladi. Suhbatlar orqali o'quvchilarning o'z hayotlarida uchratgan voqea-hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o'quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish, o'quvchilarning ilgari o'rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim, suhbat usuli bilan ish ko'rganda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. O'qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o'quvchilarining hammasiga taalluqli bo'lib, so'roq o'rta tashlanishi kerak.

2. O'quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

4. O'quvchilarning javobi qay darajada to'g'ri-noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar o'qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur. Ta'lim jarayonida turli ko'rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilinadi. Ko'rgazmali usulning muhimligi o'rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib m ushohada qilishga o'quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Ta'limda ko'rgazmalilik usuli namoyish etish, ilustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi. Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning xarakteriga — mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu xarakter ikki turlidir. Aslicha ko'rsatilishi mumkin bo'lgan buyum va narsalar: o'simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar. Tasviriy ko'rgazmali materiallar ikkiga bo'linadi: birinchidan, buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm, ikkinchidan buyum, narsa, voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar, geografiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar. O'qitilayotgan mavzuning xarakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerak? Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa-hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib, keyin o'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, o'quvchilar ekskursiya davomida obyektga oid ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan, zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar. O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni yakunlaydi. O'qitishning amaliy usullari doirasi keng. Bu usullarga: yozma mashq, tajriba, laboratoriya xarakteridagi mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish kabilar misol bo'ladi. Yozma mashqlar jarayonida olingan nazariy bilimlar bevosita amaliyotda qo'llanadi. Mashq qilish davomida ilmiy bilim va ma'lum ish-harakat o'zlashtiriladi, takomillashadi, ular aniq o'quv fanining xakteri hisobiga maqsadli, rejali tarzda amalga oshadi. Mashq davomida har bir mashq e'tiborga olinadi. Masalan, ona tilidan grammatik tahlil, matematikadan misol, masala yechish, tabiiy fanlardan ximiyaviy tenglamalar tuzish, koeffitsiyentlar tanlash, o'simliklarni turlarga ajratish. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi. O'quvchilarning o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida mashq qilishda muhim amallar quyidagicha: — mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o'quvchilarga aniq tushuntirilgan bo'lishi; — mashq ustidan sinf, o'quvchilar jam oasi va har qaysi o'quvchilarning shaxsiy

intilish, qiziqishini hisobga olishi; — topshiriq butun sinf o‘quvchilarining aktiv faoliyatini ta‘minlaydigan bo‘lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi. Mashq qilishda o‘quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o‘rin egallaydi. Yozma ijodiy mashqlar ona tili, adabiyot, tarix fanlarida ham qo‘llanadi. Ular insho, va‘z, referatlar yozish kabilarda o‘z aksini topadi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarga umumiy politexnik ta‘lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy usul bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchi ongida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, o‘quvchining faol fikrlash faoliyati, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirib olishlari haqida sharq pedagoglari qimmatli fikrlar aytib o‘tganlar. Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937—1048) didaktik qarashlarida o‘quvchilarni o‘qitish hamda tarbiyalash jarayonida birinchidan turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o‘quvchining zerikmasligini, zo‘riqmasligini ta‘kidlagan. Muammoli vaziyatda: — o‘quvchi uchun bilish qiyinchiligiga ega, ya‘ni o‘rganilayotgan muammo ustida fikr yuritish; — o‘quvchilarda bilishga qiziqish o‘yg‘otish; — tahlil jarayonida o‘quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish. Ta‘lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta‘lim tizimining har bir bosqichida o‘rganiladigan fanlarga xosdir. Muammoli vaziyat fanning mazmuni, o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, uni o‘rganish usullarini hisobga olgan holda yaratiladi. Ta‘lim jarayonida o‘qitishning induktiv va deduktiv usullariga ehtiyoj sezilmoqda. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo‘llash o‘rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma‘lum mantig‘ini — xususiyan umumiyga yoki umumiydan xususiya o‘tishni tanlashni anglatadi. Induktiv usullar texnik qurilmalarni o‘rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarishda keng qo‘llaniladi. Deduktiv usul o‘quv materialini tezroq o‘tishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faol rivojlantiradi. Nazariy materialni o‘rganishda anchagina umumiy holatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni yechishda deduktiv usulni qo‘llash foydalidir. O‘quv faoliyatini rag‘batlantirish deb, kishining aktiv faoliyatiga bo‘lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu sababli rag‘batlantirish o‘qituvchi faoliyatining omili hisoblanadi. Rag‘batlantirish kishining ichki mayliga ta‘sir qilganda real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O‘qishga qiziqishni rag‘batlantirish turlaridan biri o‘qishda ma‘lum qiyinchilik sezayotgan o‘quvchilarga muvaffaqiyatli sharoit yaratishdir. Rag‘batlantirish va tanbeh berish usullari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Rag‘batlantirish: baho bilan, imo-ishora bilan, mukofot bilan amalga oshadi. O‘qishga doir tanbehtar dars paytida, og‘zaki tanbeh berish, bahosini pasaytirib qo‘yish, ish daftariga yozish, xatolarni ko‘rsatish kabi usullar bilan amalga oshadi. Maktabda o‘quvchiga tan jazosi berish, o‘zlashtirmagani uchun haqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so‘kish aslo mumkin emas. O‘qitish tizimida nazoratning zarurligi shundan iboratki, butun o‘quv yurtlari tizimida samarali ishlayotganligi haqida axborot olishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj hisobga olinadi. Nazorat maktabdagi o‘qitish jarayoniga xos bo‘lgan: ta‘limiy, tarbiyaviy, rivojlantirishdek asosiy vazifalarni bajaradi. Nazoratni quyidagi turlarga bo‘lamiz. Og‘zaki nazorat — yakka va guruhiy so‘rash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Alohida so‘rashda o‘qituvchi ma‘lum vaqt davrida o‘quvchilar bilimlarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. O‘quvchilarning bilimi ona tili, matematika, fizika, kimyo fanlarida yozma tarzda ham baholanadi. Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Ba‘zida qisqa, ba‘zida esa to‘la dars davomida yozma ishlar o‘tkaziladi. Yozma nazoratda baholar obyektiv bo‘lishi va o‘quvchilarning tipik xatolari aniqlanib, kelgusida ularning bartaraf etilishi belgilab olinadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatining muhim elementidir. Nazorat kelgusidagi ishlarga reja tuzish, nimalarga e‘tibor berish kerakligini aniqlab beradi.

Ta‘lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo‘lida ta‘lim vositalaridan foydalaniladi. Ta‘lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ulardan o‘rinli foydalanish ta‘lim samarasini ta‘minlashga yordam beradi. Ta‘lim metodi mavzuning maqsadiga qarab tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O‘qituvchi», 2004.
2. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O‘qituvchi», 2004.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.

### MOTIVATSIYA VA EMOTSIYA PSIXOLOGIYASI

Saidniyozova Gulnora Boyqulovna

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
7- umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtayi nazardan yondoshish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o'ziga xos psixologik maktab vujudga kelgan bo'lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatidan farqlanuvchi g'oyalar va yo'-nalishlar mujassamlashadi.

**Kalit so'zlar.** Motiv va motivatsiya, motirovka, faoliyat, axloqiy hislar, motivlashtirish.

Insonning xatti-harkati va ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning faoliyat motivlarini o'rganish shaxsning ma'naviy-psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulq-atvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo'ladi. Bunday xatti-harakatlarning yana takrorlanishini oldindan ko'rish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo'llabquvvatlash mumkin. Ba'zilar mehnatga o'z ehtiyojlariga ko'ra sidqidildan munosabatda bo'lsalar, ba'zilar o'z burchlarini anglaganliklaridan, yana ba'zilar o'zlarining qabih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun'iy munosabatda bo'ladilar. Motivatsiya — odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuyi bo'lib, xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanadi, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Motirovka inson xulqatvorini tushuntirish bo'lib, «Nima uchun?», «Qanday maqsad bilan?», «Qanday ma'noda?» kabi savollarning motivatsiyasiga bog'liq.

Motivatsiya inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuyini bildiradi. Psixologiyada motivlashtirish deganda, psixologik hodisalarning o'zaro mustaqil bog'langan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan, nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi:

a) individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirish. Faollik holati paydo bo'lishining subyektiv ehtiyojlarini izohlab beradi;

b) motivlashtirish faollik kimga qaratilgani, boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo'nalishini tashkil etadi;

d) kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi. Ustanovkalar — yo'nalish, yo'naltirish ma'nosini anglatib, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga yoki obyektga nisbatan qanday munosabatda bo'lishini, ularni idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holat. Yo'naltirilgan faoliyat subyektning ma'lum vaziyatda faol yo'l topib keta oladigan harakatlari majmuyidir. Yo'nalish — tug'ilgan yo'l, maqsad sari shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'iy nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar majmuyi. Ular asosiy, yetakchi va bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, e'tiqod, dunyoqarashlar, yuksak g'oyalar bilan xarakterlanadi. Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir. Ehtiyoj — jonli mavjudotning hayot kechirishda konkret shartsharoitlarga qaramligini ifoda etuvchi va bu shartsharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holat. His-tuyg'u psixik jarayon bo'lib, bunda insonning borliqqa shaxsiy ichki subyektiv munosabati aks etadi. Emotsiyalar — lotincha so'zdan olingan (emovere) to'lqinlashtirish ma'nosiga ega. Ichki yoki tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga subyektiv holatda ifodalovchi javob reaksiyasidir. Ya'ni, hissiyot tashqi olamdagi narsa

va hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarni va munosabatlardan hosil bo'ladigan ichki kechinmalarni ongda aks ettirishdir. Hissiyot o'ziga xos aks ettirish jarayoni bo'lib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish jarayonidan hosil bo'ladigan ichki kechinmalari va munosabatlari aks ettiriladi. Hissiyot olamda sodir bo'layotgan narsalardan shaxs sifatida odam uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi. Ma'lum qo'zg'alishlar odam uchun xotirjamlik haqidagi signalga aylanadi. Hissiyotlarning boshqaruvchanlik funksiyasi shunda namoyon bo'ladiki, barqaror kechinmalar bizning xulqimizni yo'naltiradi va qarama-qarshiliklarni yengishga undaydi. Emotsiyalarni boshqaruvchi mexanizmi kuchli emotsional qo'zg'alishni kamaytiradi. Odamlarning hayotida bo'ladigan qayg'u, kulfat kabi psixik holatlar xavflidir. Odam ularni boshqarishi lozim. Axloqiy hislar — shaxsning, odamlarning xulqatvoriga emotsional munosabatida ifodalanadi. Shaxs bu hislarni kechirar ekan, ijtimoiy-axloqiy prinsiplar va normalarga asoslanib, boshqa odamlarning xatti-harakatlariga yoki psixik xususiyatlariga ham e'tibor beradi, namoyon etadi. Intellektual hislar aqliy faoliyat jarayonida hosil bo'ladigan kechinmalardir. Ushbu hislar haqqoniy, soxta, ajablanarli, shubhali yoki tushunib bo'lmaydigan, hayratda qoldiradigan fikrlarga bo'lgan munosabatlarda ifodalanadi. Intellektual hislarga ajablanishni kiritish mumkin. Ajablanish insonning bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo'lmagan, hayratda qoldiradigan narsaga e'tibor qaratish odamning bilish ehtiyojlarini qondirishga intilishdir. Ajablanish odamning bilish bilan bog'liq faoliyatini yuzaga keltirishga undovchi omillardan biridir. Estetik hislar: go'zallikni idrok qilish, zavqlanish, go'zallikni yaratishdan iborat bo'lishi mumkin. Estetik his hamma odamga xos bo'lgan hissiyotdir. Estetik hislarni yuzaga keltiruvchi manbalar juda ko'p va xilma-xildir. Iroda odamning biror maqsad yo'lida ongli ravishda qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Irodaviy faoliyatda odam o'zini, xususiy ixtiyorsiz impulslarni nazorat qiladi. Xulqning irodaviy boshqarilishi, ongli ravishda, aqliy va jismoniy kuchni maqsadga erishishga qaratilishi yoki aktivlikdan o'zini ushlab turishidir. O'quvchilar irodasini tarbiyalashda kattalar va o'qituvchilar to'g'ri talab qo'yishlari, bajarilishini nazorat qilib, uyushgan tartibda ma'lum maqsad sari intilmoqlari zarur. Ana shunday tarzda irodani taraqqiy ettirish mumkin. Insonni anglanilgan, maqsadli, ongli faoliyatga, xatti-harakatga undovchi sabablar majmuyi motivatsiyadir.

Ushbu mavzuning ahamiyatli jihati shundaki, odamning faoliyat motivlarini o'rganish, shaxsning ma'naviy-psixologik mohiyatini tushunishga yordam beradi. His-tuyg'ular odam uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar haqida darak beruvchi signallar hisoblanib, xotirjamlik va notinchlik borasida ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Estetik, axloqiy, intellektual hislar shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O'qituvchi», 2004.
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O'qituvchi», 2004.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.
4. S.R. BAXADIROVA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA ASOSLARI Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

#### **MULOQOT PSIXOLOGIYASI**

Kambarova Zebo Pulatovna

Qashqadaryo viloyat Koson tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 81-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojdir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzoqlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz.

**Kalit so'zlar.** Muloqot, kommunikativ, muloqotning interaktivligi, muloqotning perspektivligi, munosabat o'rnatish, tushunish.

Muloqot — bu ikki yoki undan ortiq kishilarning ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishi. Muloqot tizimida o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv.

1. Muloqotning kommunikativ jihati — bu muloqotdagi insonlarning o'zaro ma'lumot almashinishi.

2. Muloqotning interaktiv jihati — bu insonlar muloqotda, nafaqat bilim va g'oyalar, balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

3. Muloqotning perspektiv jihati muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir.

Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir. Muloqotning o'zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan ishtirokchilarning uning jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro idrok etishi yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq-atvoriga mo'ljal olamiz. Negaki, biz ularning tanqidiy ma'lumotlari mohiyatini go'yo o'qib, ya'ni mag'zini chaqamiz va shu yo'sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz». Bunday o'qish naridan beri tez yuz beradi, chunki tevarak-atrofdagilar bilan muomala jarayonida avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi. Muomalaning prioretiv jihati bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Identifikatsiyalash — bir kishi ikkinchi kishini uning ta'rifini o'z ta'rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa, xabar beruvchi funksiyani va o'zini o'zi boshqarish funksiyasini bajaradi. Stereotiplashtirish — xulq-atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma'lum va mashhur deb sanalgan, ya'ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo'li bilan ularning sabablarini o'zgartirishdan iboratdir. Ko'p hollarda, insonlarning bir-birlarini idrok etishlari «ijtimoiy persepsiya» sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotning bu jihati ijtimoiy persepsiya haqidagina emas, balki shaxslararo persepsiya haqida hamdir. Inson jamiyatda shaxs sifatida qabul qilingani sari muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo'ladi. S.L.Rubinshteyn aytganidek: «Biz insonni tashqi xulq-atvoriga qarab o'qiyamiz». «Boshqa odamni bila turib, o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanadi». L.S. Vigodskiy: «Insonni inson tomonidan idrok etilishida kamida ikki kishi jalb qilingan bo'lishi lozim, ularning ikkalovi ham faol subyektdir», degan edi. O'zini boshqa inson tahlil qilishi o'z ichiga identifikatsiya va refleksiyaning kiritadi. Odamlarda samarali muomala o'rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi. Maktab yoshidagi o'quvchilar xulq-atvori qoidalariga bag'ishlangan ommabop adabiyotlarni o'qir ekan, muloqot madaniyatining ba'zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarining maxsus o'rgatilishi alohida bir vazifa bo'lib, pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini trening, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial psixologik trening, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial psixologik trening mazmunan ikki xil vazifani: — muomalaning va shu jumladan pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini; — pedagogik kommunikatsiya texnologiyasini egallash, ya'ni professional pedagogik muomala va malakalar shakllanishini o'z ichiga oladi. Psixologik pedagogik trening shakllaridan yana biri — tipik pedagogik vaziyatlarning, misol uchun, imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlar. Muomala trening, ya'ni muomalani mashq qilish o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida pedagogik ishning yangi shakli bo'lib, pedagogik ta'lim uchun juda istiqbolli hisoblanadi. Bog'lanish munosabatga kiruvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatiga kirishuvi shaxslarning o'zaro bir-biriga hurmati va ishonchidan iboratdir. Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha prinsipial va talabchan bo'lgan taqdirda ham, uning eng arziyas tanbehilari ham ta'sirli bo'ladi. Munosabat

jarayonlari har doim va barcha vaziyatlarda ham sip-silliqqina va ichki qarama-qarshiliklarsiz yuz beradi deb tasavvur qilish yaramaydi. Ayrim vaziyatlarda bir-birini inkor etuvchi qadriyatlar, vaziyatlar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozitsiyalar antogonizmi yuzaga chiqadiki, ba'zan bu o'zaro adovatni keltirib chiqaradi, shaxslararo mojaro sodir bo'ladi. Mojarolarning kelib chiqishiga, shuningdek, munosabatga kiruvchilarning o'zaro birgalikda harakat qilishlariga g'ov bo'lgan va bartaraf etilmagan ma'naviy anglashilmovchiliklar ham sabab bo'ladi. Munosabatdagi ma'naviy anglashilmovchilik — bu aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma'nosi munosabat bog'lashga sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu hol ularning o'zaro hamjihatligi va birgalikda harakat qilishi uchun to'sqinlik tug'diradi.

Har qanday ma'lumotni belgilar, aniqrog'i, belgilar 81 tizimi orqali bilish mumkin. Kommunikativ jarayonda qo'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Bular verbal kommunikatsiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog'liq bo'lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir. Verbal kommunikatsiyada inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq inson tomonidan qo'llaniladigan tovushlar signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Bu jarayon til orqali amalga oshiriladi.

Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi. Nutqning o'ziga xos turlari mavjud — tashqi, ichki, og'zaki, yozma va hokazo. Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlari tushinishlari juda muhimdir. Buyuk fransuz yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi: «Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi», deb yozgan edi. So'zning mohiyati haqida Sa'diy Sheroziy: «Aqllimisan yoki ahmoq, kattamisan yoki kichik buni biror so'z aytmaguningcha bila olmaymiz» degan edi. Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlanishida, badiiy timsollarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Nutqni programmashtirish — nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzishda birinchi bosqich hisoblanadi, ikkinchi bosqich jumlaning sintaktik strukturasi tuzishdan iboratdir. Noverbal kommunikatsiyaga — belgilarning optik-kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pontomimika (qo'l-oyoq, tana harakatlari) kiradi. Jestlar — insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. Mimika — inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, xattiharakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolar namoyon bo'ladi. Pantomimika — inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

Muloqotning maqsadga ko'ra, 8 ta funksiyasi mavjud:

1. Kontakt.
2. Aloqa o'rnatish.
3. Undovchilik.
4. Koordinatsion.
5. Tushunish.
6. Amotiv (hissiy aloqa) hissiyotni o'zgartirish.
7. Ta'sir o'tkazish.
8. Munosabat o'rnatish, o'z o'rmini anglash.

Pedagogik munosabat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi, usullari va malakalari tushuniladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 1-kitob. — T.: «O'qituvchi», 2004.
2. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. 2-kitob, — T.: «O'qituvchi», 2004.
3. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — T.: TDPU nashriyoti, 2002.

## O'QUVCHILARDA SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ibragimova Mohinur Ixtiyor qizi

Qashqadaryo viloyati Koson tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli  
81-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'quvchilar so'z boyligini oshirishning ahamiyati, kichik yoshdagi bolalarga so'zlarni tushunishni o'rgatish usullari, kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda o'qituvchi va ota onalarning roli, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish yo'llari va uning pedagogik psixologik asoslari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar.** Muloqot, yozma va og'zaki nutq, dialog, leksikon, audio-kitoblar.

Nutqning go'zalligi va xilma-xilligi – kuchli qurol. Biz nutq orqali ta'sir ko'rsatish, boshqarish va yo'naltirishga qodirmiz. Aniq gapirish, noodatiy iboralarni qo'llay olish kishilarda doimo taassurot uyg'otadi.

Lug'at zaxirasi quyidagi guruhlariga ajratiladi. Faol – kundalik turmushdagi muloqot. U o'z ichiga yozma va og'zaki nutqni oladi. Passiv – odamga tanish bo'lgan kundalik dialoglarda qo'llaniladigan tushunarli atamalar. Zarur bo'lgandagina inson ulardan foydalanadi. Ayrim hollarda passiv leksikondagi so'zlarning ma'nosini eslashga harakat qilish kerak bo'ladi. Tashqi – ma'nosi tanish bo'lmagan so'zlar. Masalan, texnik so'zlar.

**Leksikonni qanday kengaytirish mumkin?** Ot so'z turkumidan iborat hikoya tuzdiriladi. Bunda hikoyada ma'no va mantiqiy rivojlanish mavjud bo'lishi lozim. Bu usulni fe'l va sifatlarga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Alifbe harflari. Hikoyani hosil qiluvchi ketma-ket so'zlar zanjiri. Bunda har bir keyingi so'z – alifbedagi keyingi harf. Bir harf. Shunday matn o'ylab topingki, unda har bir so'z yagona harf bilan boshlansin. Qo'shni so'zlar ma'no jihatidan bog'liq bo'ladi. Umumiy matn esa yo'q. Shunday qilib, ishlardan biroz chalg'ish va kutish vaqtlarida band bo'lish mumkin. Bunday o'yinlar bolalar uchun qiziqarli bo'ladi.

**Yana qanday mashg'ulotlar so'z boyligini oshirishi mumkin?**

Kitoblar. Albatta, kitoblar aqlni charxlaydi, tafakkur va so'z boyligini rivojlantiradi. Xilma-xil kitoblar o'qib, yangi atama va nutqning o'ziga xosliklarini eslab qolasiz. Turli adabiyotlarni o'qish muhim. Ana shunda natija sezilarli bo'ladi. Turli soha vakillari bo'lgan kishilar bilan muloqot qilish. Biror narsani o'rganishning eng samarali usuli bu – amaliyot. So'z boyligini muloqot, yangi nutq shakllarini qo'llash va o'zlashtirish orqali kengaytirish tezroq kechadi. Ko'pincha o'zimiz uchun odatiy kishilar doirasidagilar bilan muloqot qilamiz. Bu oila, do'stlar va hamkasblar. Agar ushbu muloqot doirasidan tashqariga chiqsangiz, o'zingiz uchun ko'plab yangi narsalarni kashf etasiz. Nafaqat so'z boyligi borasida. Rassom, texnik mutaxassislar, tor doiradagi mutaxassislar bilan muloqot qiling. Hozirda internet makoni yangi tanishlar orttirish imkonini beradi. Yangi joylar, ko'rgazmalar, namoyish va konferensiyalarga tashrif buyuring. Bularning bari yangi tanishlarni olib keladi va muloqot doirasini kengaytiradi.

Audio-kitoblar. Kitoblarni audio shaklda tinglash so'z boyligini kengaytirish uchun a'lo darajadagi variantga aylanadi. Aytishlaricha, bilimlar bizga aynan quloq orqali keladi. Aynan shu kanal orqali ko'proq ma'lumotni o'zlashtiramiz. Turli mavzulardagi ma'ruza va chiqishlarni tinglash ham foydali bo'ladi.

quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. SHundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda hamkorlikda o'qitish (R.Slavin, 1986). Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o'quvchidan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O'quvchilarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o'quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o'quvchi o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi. Psixolog A.V. Petrovskiy jamoadagi shaxslararo munosabatlar faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularni muloqotga ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi. O'zaro hamkorlikning muhim omili va o'quvchilarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligining shakllaridir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyati o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish ob'ektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi. Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak.

O'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi; o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. Pedagogika – psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud.

Ular quyidagilardan iboratdir: faoliyatga kirish; mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar; o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi; taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi); madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi); o'zini – o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi); o'zini – o'zi ko'rsatuvchi harakatlar; o'zini– o'zi uyushtiruvchi harakatlar. Interaktivlik – o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri. Hamkorlik faoliyatini takomil bosqichiga o'tish jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish harakatini baholashdan o'z-o'zini baholash darajasiga ko'tarilishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon hamkorlik dinamikasidan dalolat beradigan eng muhim omillardan biri vazifasini o'taydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

23. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) -Toshkent: 1995-yil
24. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
25. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

26. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, , Boshlang'ich ta'lim“ jurnali. 2019-yil. 12-son.
27. R.Ilashova. Amerika maktablarida.-, , Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019-yil. 3-son.;
28. Qosimova G. Boshlang'ich sinflarda Ona tili va Matematikadan sinfdan tashqari ishlar: o'quv qo'llanma. – T.: "Big makro world" MCHJ. 2023. -158 b.
29. Qosimova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish: monografiya. – T.: "Fan va ta'lim". 2023. -121 b.

**KIMYO YO'NALISHI TALABALARIGA MODDALARNI SIMMETRIK  
KO'RINISHLARGA AJRATISH ASOSIDA O'QITISH METODIKASI  
TAKOMILLASHTIRISH USLUBLARI**

*Xolmurodova Laziza Erkinovna  
Rasulova Oydinoy Rashidovna  
Shomirzayeva Charos Ixtiyor qizi  
Qarshi davlat universiteti Noorganik kimyo  
kafedrasida o'qituvchisi  
E-mail:l.xolmurodova@gmail.com,  
Tel: +998 91 471 31 58  
Qarshi davlat universiteti v.b professori  
k.f.d. E.Sh.Yakubov taqrizi asosida.*

**Annotatsiya.** Oliy ta'limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligi, tuzilmaviy tarkibi va taxlili, maqolada ana shu tamoyillar haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** kimyo, metodika, tizim, kasbiy-pedagogik, tamoyil, tarkibi va taxlili, ilmiylik, simmetriklik.

**Методика преподавания в общей химии и неорганической химии на основе разложения веществ на симметричные проявления методы совершенствования**

**Аннотация.** Профессионально-педагогическая направленность, структурный состав и анализ курса общей и неорганической химии в высшем образовании, эти принципы рассмотрены в статье.

**Ключевые слова:** химия, методика, система, профессионально-педагогическая, принцип, состав и анализ, научность, симметричность.

**Methods of improvement of teaching methods based on the separation of substances into symmetrical manifestations in general chemistry and inorganic chemistry**

**Annotation.** The professional-pedagogical orientation of the course of general and inorganic chemistry in higher education, its structural composition and planning, the article reflects on these principles.

**Keywords:** chemistry, methodology, System, Professional-pedagogical, principle, composition and Reasoning, Science, symmetricity.

- **Kirish (Introduction).** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

**to'g'risida"gi Farmonlari** mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilganligini ko'rsatadi.

**- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

Ushbu mavzu yuzasidan buyuk allomalarning ilmiy ishlarini kuzatishimiz mumkin. I.N. Borisov, X.T. Omonov, Sh.M.Mirkomilov, M.S.Hotamova, M.Nishonov, Sh.A.Mamajonov, N.X. Avliyaqulov, N. Boltayev, X.A. Mavlyanova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

MDH davlatlarida kimyo o'qitish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qo'llashga mo'ljallangan kimyoga oid o'quv materiallarining pedagogik samaradorligi oshirish bo'yicha A. A. Kuznetsov, A. A. Grechixin, T. M. Lepsova, E.S. Po'lat, V.A. Vul, V.M. Gasov, A.M. Sigantenko, V.N. Ageyev, M.M. Subbotin, Y.M. Sivenkov, E. Y. Semenov va boshq. (Y. I.Chervyakova, O.V. Chibisova Elektron darslik yangi axborot texnologiyalari vositasi sifatida Eksperimental ta'lim xalqaro jurnali - 2010. 4-son) ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda fan sohalarini o'qitishda elektron darsliklar, interaktiv multimedia, web-quest, intellektual o'yin texnologiyalaridan foydalanishga oid samarali tadqiqotlar B. Dogde, S. Goodman, R. Kozma, Zephrinus C, Njoku, Maria Limniou, Nikos Papadopoulos, David Roberts, N. Rizk, A. Sorgo, L.Masterman, T. March, Newton, J. Huppert, Ying Ouyang, Aleksey Porollo, Jaroslaw Meller, Milada Tepla olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida talabalarga o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan kimyo, psixologiya, pedagogika hamda metodikaga tegishli adabiyotlarni tadqiqot muammosi yuzasidan tahlil etish;

turli kurslarga tegishli noorganik moddalarni tarkibiy tuzilmasiga ko'ra simmetrik ko'rinishlarga ajratib talabalarga o'rgatish muammosi yuzasidan aniqliklar kiritish;

kimyo ixtisosliklari talabalari uchun noorganik kimyo fanidan moddalarni simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish modelini ishlab chiqish;

talabalar uchun kimyo elementlarini ta'lim mazmuniga ko'ra tanlash va moddalar tavsifini simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish metodikasini taqdim etish, mazkur metodikaning natijadorligini aniqlash.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). noorganik kimyo fanini o'qitish mazmuni o'quv kursining an'anaviy, tizimli-tuzilmaviy, tizimli-shajaraviy komponentlarini harakatlar sxemasini kontekstual yondashuvning izomorfeg, minimallashtirish, majmuaviylik kabi tahliliy mezonlar orqali algoritmini qurish asosida aniqashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o'qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari ta'limning ilmiy hamda amaliy xususiyatlarini tashxislovshi imkoniyatini hisobga olish kabi metodologik jihatlari urg'u beruvchi didaktik tizimning texnokratik komponentini faoliyatga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

noorganik kimyo fanini o'qitishda konseptual mezonlar asosida taklif etilgan funksional modelning mazmun komponenti kimyoviy elementlar, jarayonlar va reaksiyalarni simmetrik ko'rinishlarga singonik ajratish orqali o'qitish bosqichlarining muayyan iyerarxik tuzilmasini kognitiv o'quv jarayoniga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;


noorganik kimyo fanini o'qitish metodikasi invarianti, subinvariant hamda variativ elementlar tizimini simmetrik ko'rinishlarga ajratishga doir vizual o'quv materiallari, grafik organayzerlar va virtual o'quv materiallarini aralash ta'lim tamoyillariga ko'ra innovatsion muhitga integratsiyalash orqali takomillashtirilgan.

noorganik kimyo fanini o'qitish jarayoni kasbiy kompetensiyani rivojlantirish elementlari kimyo fanini o'qitishning izomorflik, minimallashtirish, ahamiyatlilik, xususiylilik, majmuaviylik va optimallik mezonlari asosida amalga oshiriladigan kognitiv ko'rsatkichlar, empirik ko'rsatkichlar, setodik ko'rsatkichlar tavsifi asosida takomillashtirilgan ma'lumotlardan "Umumiy va noorganik kimyo" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27 martdagi 68-sonli qaroriga asosan №68-717 son guvohnomasi). Natijada, kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish metodlarini kimyo elementlarini ta'lim mazmuniga ko'ra tanlash hamda kompetentlilik, aprobatson korreksiyalash va elementlarni faktologik tavsifiga ko'ra simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish imkonini beradi.

### Roven doirachalari

**Roven doirachalari asosida** bu ikki davr oralig'idagi qonuniyatlarni, holatlarni o'zaro taqqoslash va bu ikki davr xulosalarining o'xshashlik tomonini tahlil qilinadi.



Kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish metodlarini kimyo elementlarini ta'lim mazmuniga ko'ra tanlash hamda kompetentlilik, aprobatson korreksiyalash va elementlarni faktologik tavsifiga ko'ra simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish imkonini beradi.

1. Kov...
2. Ion bog...
3. Metall bog'lanish...
4. Vodorod bog'lanish (bog'lanishning o'ziga xos turi).
5. Donor – akseptor bog'lanish.

Atomlar orasida kimyoviy bog'lanish natijasida 3 turdagi bog' paydo bo'ladi

### “Nima uchun”– metodi.

“Nima uchun?” metodi – daslabki muammoning yechimini o'rganish uchun qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik metodlardan biri hisoblanib, tizimli, ijodiy,

2-rasm. Nima uchun sxermasi.

tahliliy, muhokama, mulohaza qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalar “Nima uchun?” sxemasini dars jarayonlarida qo'llashda dastlab uning qoidalari bilan tanishadi. Bu jarayon yakka tartibda hamda juftlikda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar tomonidan mavzu yuzasidan fikr bidiriladi va ushbu fikrga ketma-ket “Nima uchun?” savoliga javoblar berib boriladi. Bu jarayon muammoning asl yechimi topilmagunga qadar davom ettiriladi. Talabalar kichik-kichik guruhlarga ajratiladi. Jarayon davomida talabalar o'z ma'lumotlarini taqqoslaydi va qo'shimcha fikrlarini aytadilar. Jarayon oxirida fikrlar umumiyashtiriladi va natijalar taqdim etiladi:


1. “Nima uchun?” sxemasida piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllaridan foydalanishingiz mumkin bo'ladi.

2. “Nima uchun?” sxemasi tuzilishini chiziqqli, nochiziqqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) shakllarda ifodalash mumkin.

3. Jarayon davomida “Nima uchun?” savoliga javob berib boriladi va natijada dastlabki holatdan jarayon oxiriga qadar tahlil qilib boriladi. Bu metod yordamida dastlabki muammo yechiladi, talabalarda mavzu ushbu metod yordamida batafsil yoritib boriladi. Talabalarda fanga nisbatan qiziqishlar, ko’nukmalar yanada oshib boradi.

Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, oliy o’quv yurtlarida kimyo fani o’qituvchilarini tayyorlash amaliyotiga joriy etish uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqish quyidagi xulosalarga olib keldi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Shakllantiruvchi tadqiqotning



natijalari tahlili shuni ko’rsatayaptiki, invariantlar va subinvariantlarni ajratish asosida elementlar kimyosini o’rganishning taklif etilayotgan modeli o’rinli bo’lib, modda va u bilan bog’liq xossalarni tizim tavsiflashning umumlashma ko’nikmasini muvaffaqiyat shakllantirishni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, oliy o’quv yurtlarining boshqa o’qituvchilari ham ishlab chiqilgan metodikadan muvaffaqiyatli foydalana olishi uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi:

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston NMIU, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli farmoni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017. – № 6. 70-modda.
3. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni O’RQ-637-son. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami,- 2020y. 23-sentabr.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O’zbekiston NMIU, 2016. – B. 56.
5. Nishonov M., Teshaboyev S. Kimyoni o’qitishda didaktik o’yinlardan foydalanish// Bioorganik kimyo fani muammolari. Respublika yosh kimyogarlar konferensiyasi materiallari. -Namangan. -2014. -B. 226-229.

#### BOSHLANG’ICH SINIF DARSLARINI FANLARARO INTEGRATSIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISH

Bozorova Oydin Muradovna  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta’lim maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi



**Annotatsiya:** ushbu maqolada dars davomida qo‘llanilishi kerak bo‘lgan metodlar va ularning turlari, darsni tashkil etishda o‘qituvchining mahorati haqida bayon etilgan. Boshlang‘ich ta‘limda integratsiyani ijobiy tomonlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** metod, ta‘lim metodlari, integratsiya, ijobiy omillar, mantiqiy tushuncha, didaktik vosita, tarbiya metodlari, interfaol metodlar, pedagogik mahorat.

**Abstract:** this article describes the methods and their types that should be used during the lesson, the teacher's skills in organizing the lesson. The positive aspects of integration in primary education are highlighted.

**Key words:** method, educational methods, integration, positive factors, logical understanding, didactic tool, educational methods, interactive methods, pedagogical skills.

**Аннотация:** в данной статье описаны методы и их виды, которые следует использовать на уроке, умения учителя в организации урока, выделены положительные стороны интеграции в начальном образовании.

**Ключевые слова:** метод, методы обучения, интеграция, положительные факторы, логическое понимание, дидактический инструмент, методы обучения, интерактивные методы, педагогическое мастерство.

Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va ematsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Turli davrlarda ta‘lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish vazifasini Ya. A. Komenskiy, I. G. Pestalozsi, J.-J. Russo, L. N. Tolstoy, K. D. Ushinskiylar ilgari surdilar. Axborot hajmining tez o‘sishi sharoitida uni idrok etish va tushunish imkoniyati keskin kamayadi. Bundan chiqish yo‘li turli fanlarni sintez qilish, integrallashgan kurslarni ishlab chiqish, barcha maktab fanlarini o‘zaro bog‘lashda ko‘rinadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog‘lanish asosida ta‘lim jarayoni integratsiya yo‘llarida izlanishlar davom elmoqda. Olib borilayotgan ishning foydaliligini tan olgan holda uning xarakterini belgilab o‘tamiz. Bunday tarbiyaviy ish katta samaraga ega. Mazmun va ta‘lim maqsadi integratsiyasi bo‘yicha masala faqat ta‘lim falsafasi asosida yechish mumkin. Metodologik apparat asosidagi ta‘lim falsafasi boshida fanning ideal shakllari. universal toifalari turishi kerak. Integratsiya rusum ham, navbatdagi kompaniya ham emas. U shunday an‘analar aksiki, ular bugun inson faoliyatining barcha sohalarini ta‘riflab beradi. Bu faoliyat kengliklari o‘zgardi, davrning dolzarb muammolari tug‘ildi. Ular tabiat va inson yagona tizim va bog‘liqlikda mavjudligini yodga solib, inson yashashi uchun ilmiy asoslangan foydalanishning tashkilini talab qiladilar. Zamonaviy tabiatshunoslik va texnikaning insonparvarligini, odamzod faoliyatining barcha turlarini o‘z ichiga olgan bu fanlar metodologiyasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘lash kerak. Fanni anglash jarayonida ijtimoiy insonparvarlik, tabiiy-ilmiy, texnik bilim metodologiyalari o‘zaro bog‘lanishda ko‘rinadi. Aynan integratsiya asosida tabiiy fanlar bioolam ko‘rsatmalaridagi, inson faoliyatini o‘rganishdagi, davrning dolzarb muammolarini yechishda ko‘rinadi.

Integratsiyalashgan ta‘lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, O. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalossi, K. Ushinskiy va boshq.), didaktiklarning ( Zverev, MA Oanilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova, M.N. Skatkin va boshq.), psixolog olimlarning (E.N. KabanovaMeller, N.F. Talizina, Y.A. Samarina, G.I. Vergeles), medist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goreskiy, N.N. Svetlovskaya, Y.M. Kolagin, G.N. Pristupova) ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim darslarini o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ularda tashkil etiladigan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchiilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda

samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir: - boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish; - boshlang'ich ta'lim tabiat darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish; - ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish; - boshlang'ich ta'lim darslari pedagoglarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash; - boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish; - boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish; - boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining texnologik asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish; - boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini ta'minlash.

Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi-o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarador natijaga erishishdir.

Hozirgi zamon ilm berish sistemasi yuqori darajada fan asoslarini o'rnatishga, tafakkurni rivojlangan, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishga, tevarak atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglashga, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini umumiy o'quv predmetlari mazmuni va maqsadlarini ma'lum uzviylikda va o'zaro mantiqiy bog'langan holda tashkil qilish ta'limni sifat va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarni dunyoqarashini kengaytirib, ularni fikrlash olamini yorqin obrazlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Ta'lim mazmuni va ko'lamini optimallashtirish, o'quv jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitish, ta'lim mazmunini o'quvchi yoshlar ongi va tafakkurida hayotiy obrazlar vositasida gavdalantirishda ham predmetlararo aloqaning imkoniyatlari cheksiz.

Xulosa qiladiga bo'lsak, boshlang'ich sinflarda turli interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda bo'lgan savodxonlikni oshirishga yordam beradi. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlab uni amaliyotda qo'llash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darsda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Interfaol metodlar maqsadi esa olingan bilimlarni yanda mustahkamlash va o'quvchilarni ziyraklikka, topqirlikka va tanqidiy fikrlashga jalb etish hisoblanadi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot- kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim tarbiya jarayoni sifatini kafolatlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. A.I. Hayitov "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi (Uslubiy qo'llanma) Toshkent-2021.
2. Axmetjanov M.M., Tosheva G.DJ. "Zamonaviy pedagogning o'quv va metodik faoliyati" "Durdona" Buxoro-2020.
3. O'g'iloy Asqarova, Dilafro'z Muminova "O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar (o'quv qo'llanma) Namangan 2019 yil.
4. O'g'iloy Asqarova, D. Muminova. "O'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar." Namangan: 2019-y

# MANTIQUIY MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Diyorova Zilola Pardayevna  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta'lim maktabi boshlan'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** yangi avlod darsliklarida mantiqiy masalalarni o'rni ahamiyati, bolaga ijodiy-ijobiy kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, berilgan masaladan yangilik izlash yangilik yaratish, izlanish kabi ko'nikmalarni shakllantirish.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy fikrlash, yangilik yaratish, kreativ fikr, ijodiy yondashuv, integratsiya, axborot almashish kommunikatsiya.

**Аннотация:** значение роли логических вопросов в учебниках нового поколения, развитие у ребенка способности к творческо-позитивному творческому мышлению, поиск новизны в заданном вопросе формирование таких умений, как новаторство, поиск.

**Ключевые слова:** логическое мышление, инновации, креативное мышление, творческий подход, интеграция, обмен информацией коммуникация.

**Abstract:** the importance of the role of logical questions in textbooks of a new generation, the development of a child's ability to creatively positive creative thinking, the search for novelty in a given question, the formation of such skills as innovation, search.

**Keywords:** logical thinking, innovation, creative thinking, creative approach, integration, Information Exchange communication.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangiliklar hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu yo'nalishda oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarining zimmasiga ham yangi avlodga bilim berish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy va kreativ fikrlovchi, boy milliy meros, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli Vatanga sodiq ota-onaga muhabbat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan. Ta'limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy, ham pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy fikrlovchi pedagogik kadrlar tayyorlashga, o'quvchilarning ijodiy salohiyatining namoyon bo'lishi, individual is'tedodlarni va har bir o'quvchining qobiliyatini, bilim egallash jarayonida mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish. Matematika, ona tili, o'qish, tabiiy fan, tasviriy san'at, musiqa, mehnat, jismoniy tarbiya, tarbiya darslari integratsiyasi. Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda darsliklarda berilgan mantiqiy masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stiradi, mantiqiy zehni oshiradi bola mustaqil izlanadi, o'rganadi fikrlaydi va muammolarga yechim topa olsihga o'rganadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsliklarda berilgan masalalarni yechishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash boshlang'ich matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan

bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, kreativ fikrlash, izlanuvchanlik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni fikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng asosiylaridan yana biri masalalar yechish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi. Matematika tili rivojlanadi. Masala bu nazariya bilan amaliyotni bog'lovchi muhim vositadir. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar malakalarini va ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarni o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechishda o'quvchilarda hisoblash malakalarini o'stirish orqali matnli masalalar yechishdagi qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadida masalalar to'plamlari, multimedia va grafik vositalarni tayyorlash yo'lga qo'yilsa boshlang'ich matematik ta'lim samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich ta'limda matematika o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilar intellektual tafakkurini shakllantirish asosida o'quvchilar qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda arifmetik amallar tushunchasini mohiyatini va hisoblash usullarini yetkazish uslubiyatini ishlab chiqish o'z ichiga o'quvchilarda umuman boshlang'ich matematika asosiy tushunchalarni shakllantirish va ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

b) o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash;

d) o'quvchilarda matematik tafakkuri va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilarni atroflicha fikrlashga o'rgatish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni aqlan va ruhan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz mohiyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda ularda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy me'roslarini o'rganishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muxim rol o'ynaydi.

O'yinning eng muhim maqsadi - ko'nikmalar, zarur xususiyatlar, fazilatlar, qobiliyat va odatlarni rivojlantirishdir. O'yindan o'qitish usuli sifatida foydalanish darsda qulay sharoit yaratishga, o'quvchilarning o'z-o'zini anglashi, o'z fikrini erkin ifoda etishi, o'qishga qiziqishi ortishiga olib keladi. O'yinlar o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil ishlashga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. O'yinlar - o'quvchining zehrini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ularni o'rgatadi va rag'batlantiradi. O'yinlar o'quvchilarni bir-biriga yaqinlashtirish orqali ular o'rtasidagi muhitni yaxshilaydi. Har qanday o'quv intizomi, agar o'qituvchi o'yin uslubini o'zlashtirgan bo'lsa, ularni muntazam mashg'ulotga aylantirsa, intensiv o'yin shakliga aylanishi mumkin. O'yinlar ko'plab maktab o'qituvchilari tomonidan amalda qo'llaniladi. Shunday qilib, ushbu o'yin o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishga, bilimlarni yanada yorqinroq shaklda va qulayroq sharoitda taqdim etish, qo'llash va mustahkamlash imkonini beradi. Shu ma'noda o'yinlarni o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning samarali usuli sifatida ko'rish mumkin.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki o'qituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklardan o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi ijodkor va tashabbuskor bo'lishi, ta'lim jarayonini yangicha modellashtirishi, ishda innovatsiyalar asosida yangi o'qitish texnologiyasini joriy qilishi zarur.

Inteaktiv metoddan foydalanayotganda bir-biriga zid bo'lgan masalalar, hayotiy vaziyatlar modellashtiriladi, hamkorlikda yechish uchun muammoli vaziyatlar taklif etiladi. Shu tariqa interaktiv metod o'quvchi uchun guruhda hamkorlik va tushunish muhitini yaratish imkoniyatini beradi. Bunday muhit so'zlashuv madaniyatini tarbiyalash maqsadida yaratiladi va o'z navbatida bilish jarayonini nafaqat axborot orqali, balki sezgi va harakat orqali egallanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mantiqiy masalalarni yechishda interaktiv metodlar qo'llanilishi jarayonida o'quvchilar ruhan erkinlashtirish, faollashtirish, o'z fikrlarini erkin bayon etish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ayniqsa introvert ya'ni o'z fikrini boshqalar oldida bildirishga qiynaladigan bolalar uchun juda foydalidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasi. M. E. Jumayeva, Z. G'.Tadjiyeva "Fan va texnika" nashriyoti. Toshkent 2005.

2. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang'ich matematika tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent."Ilm-Ziyo " 2013 yil.

3. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Turon-Iqbol". 2012 yil.

4. Axmetjanov M.M., Tosheva G.DJ. "Zamonaviy pedagogning o'quv va metodik faoliyati" "Durdona" Buxoro-2020.

## **O'QUVCHILARNI O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA INNOVATSION YONDASHUV**

Obiddinova Feruza Diyorovna  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta'lim maktabi boshlan'ich sinf o'qituvchisi

**Annotasiya:** Maqola o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash xususida bo'lib, unda o'qish savodxonligini baholashning mazmun-mohiyati va o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена оценке читательской грамотности учащихся, в ней представлена информация о содержании оценки читательской грамотности и дидактических задачах, стоящих перед уроками чтения.

**Abstract:** The article is devoted to the assessment of students' reading literacy, it provides information about the content of the assessment of reading literacy and didactic tasks facing reading lessons.

**Калит so'zlar:** o'qish, matn, didaktik, savodxonlik, kitobxonlik, ta'lim, tushunish, anglash, baholash, izohli o'qish, reproduktiv.

**Ключевие слова:** чтение, текст, дидактика, грамотност, чтение, образование, работа, понимание, понимание, оценка, интерпретирующее чтение, репродуктивное.

**Keywords:** reading, text, didactics, literacy, reading, education, work, comprehension, understanding, appreciation, interpretive reading, reproductive.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasini alohida ta'kidlab o'tdi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Ushbu xalqaro tadqiqotlardan PIRLS xususida ma'lumot beradigan bo'lsak, PIRLS - (inglizcha –Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi xodimlar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

PIRLS - boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi. O'quvchilarning o'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy

vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta‘rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma‘no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqot doirasida asosiy e‘tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an‘anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.

PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishning ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma‘lumot olish va ulardan foydalanish uchun o‘qishdir. Yosh o‘quvchi uchun o‘qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o‘qish turini baholashda matnlarni teng bo‘lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko‘ra, o‘rtacha 500 dan 800 tagacha, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so‘zdan iborat bo‘ladi. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o‘quvchiga unchalik tanish bo‘lmaydi.

Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashlari uchun badiiy asar tahlili jarayonida butun asar mohiyatini birdaniga emas, balki asarning har bir qismi, agar u hajman katta bo‘lmasa, ma‘nosini ochib berishga harakat qilinadi. Badiiy asar tahlili mantiqan tugal qismlari bo‘yicha olib borilishi zarur.

Bugungi kunda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi va navbatdagi PIRLS tadqiqotlarida boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining natijali ishtirokini ta‘minlashga o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Ushbu vazifalar har bir o‘qituvchidan so‘nggi ta‘lim texnologiyalari bilan qurollanib ularni amalda kompetentli tarzda qo‘llashni talab etadi. Chunki, PIRLS o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash tizimi – bu o‘quvchilarning intellektual va kreativlik faolliklarini shakllantiruvchi mezon sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Ismailov, N.A.Karimova, B.Q.Haydarov, Sh.N.Ismailov. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” – T.: 2019
2. Shaxmurodova D.A. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslari orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish. Xalq ta‘limi №3. T.: 2021
3. [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

#### **ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM YO‘NALISHLARI**

Nahanova Kulфина Abdixashimovna  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta‘lim maktabi boshlan‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan interfaol usullarda o'rganish yuzasidan namunalar berilgan. Namunada keltirilgan usullar o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga ularni mustaqil ijodiy fikrlashga va so'z boyligini oshirishga yo'naltiradi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, gap, shakldosh, kasb-hunar, ibora, mustaqil fikr, ijodiy fikr, til sezgirligi, og'zaki, yozma nutq.

**Аннотация:** В данной статье приведены примеры обучения интерактивными методами, направленными на развитие устной речи учащихся. Представленные в примере методы помогают учащимся развивать устную речь, направляют их к самостоятельному творческому мышлению и увеличивают словарный запас.

**Ключевые слова:** речь, предложение, формотив, профессия, словосочетание, самостоятельное мышление, творческая мысль, языковая чувствительность, устная, письменная речь.

**Abstract:** This article provides examples of teaching using interactive methods aimed at developing students' oral speech. The methods presented in the example help students develop oral language, guide them towards independent creative thinking and increase their vocabulary.

**Key words:** speech, sentence, formative, profession, phrase, independent thinking, creative thought, language sensitivity, oral, written speech.

Jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Insonlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilishi zarur.

Ona tili mashg'ulotlari faqat nutqni egallash yo'llasrini emas, balki undan foydalanish madaniyatini ham tarbiyalaydi. Nutq madaniyati juda katta va keng soha bo'lib, u o'quvchining kundalik oddiy salom-aligidan tortib, kimga, nimani, qachon, qayerda va qanday so'zlashgacha bo'lgan barcha nutqiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitida mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbatini ham, so'zlayotgan kishining chaqirishi ham, san'atkorning sahnadagi monologi ham, o'quvchining sinfdagi javobi ham nutqning bir ko'rinishidir.

Maktabda fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchi nutqini rivojlantirish inson umrining boshqa davrlariga nisbatan ancha samarali kechadigan jarayon ekanligini hammaga ma'lum. Chunki har bir fan o'quvchi nutqini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u ona tilining boy imkoniyatlaridan nutqda keng foydalanishga yo'l ochadi. Ona tili esa fan sifatida ana shu imkoniyatlarni birlashtirib, tilning fikrning ifodalashdagi yangi rang-barang qirralarini ochib beradi, uni nutqning go'zal olamiga olib kiradi. Ona tili o'quvchi nutqini yaxshilaydi, boyitadi, unga badiiy bo'yoq beradi, nafosat bag'ishlaydi.

Kuzatishlarimdan kelib chiqib shuni ayta olamanki, aksariyat o'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlashlari, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olishlari quvonarli holatda emas.

Ona tili mashg'ulotlarida semantika va stilistikaga oid bir bechta amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirish haqida mulohazalar yuritsak:

1. O'quvchilarni ikki guruhga ajratgan holda, birinchi guruh o'quvchilariga bir ma'noli so'zlar doirasida xalq orasida ko'p ishlatiladigan so'zlarni topish va ikkinchi guruh o'quvchilariga esa birinchi guruh topgan so'zni xalq orasida kam ishlatiladigan ma'nodoshini topish vazifasi yuklatiladi. O'quvchilar bu o'yin orqali izlanadilar, mustaqil fikrlaydilar va o'zaro bellashadilar.

Ko'p ishlatiladigan so'zlar	Kam ishlatiladigan so'zlar
Yurt	Mamlakat



Ovqat	Xo‘rak, yemish
Tez	Shaxt
Xursand	Masrur
Yaxshi	Tuzuk
Son	Adad
Hamma	Bor-yo‘q
Salomlashmoq	Omonlashmoq

2. O‘quvchilarning o‘zlari bilgan ayrim kasb-hunarga oid so‘zlar lug‘atini tuzish orqali ulardagi kuzatuvchanlik, turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini va so‘z boyliklarini oshirish nazarda tutilgan. Og‘zaki nutqning rivojlanishida so‘z boyligining o‘rni muhim hisoblanadi.

Tikuvchilik kasbiga oid so‘zlar	Izoh
Angishona	Ish tikishda barmoq uchida kiydiriladigan metal buyum
Bazzoz	Gazlama sotuvchi savdogar, gazlamafurush
Adrasbof	Adras to‘quvchi usta kosib
Alacha	Qo‘lda to‘qilgan yo‘l-yo‘l ip yoki jun mato
Nina	Tikuvchilikda keng ishlatiladigan tikuv quroli

3. Lug‘aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so‘z o‘yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san‘atida ulardan o‘rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi. Masalan, Abdulhay Mahsum Navbahor payrovi bo‘yicha askiyada: “ikkovlarning ham o‘ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog‘ga kirib, daraxtlarni oqlaymiz”, desam “Bizni ish kam joyga yetaklang”, deysizlar. Bu o‘rinda ish kam “uzum ko‘tarib turiladigan moslama” va “ish kam” ma‘nolarini bildirish uchun qo‘llangan.

1-guruh	2-guruh
<i>Gap</i> desang – qop-qop, ish desang – Samarqanddan top	Kelasi gal <i>gap</i> siznikida bo‘ladi
Bir-ikki og‘iz <i>gapim</i> bor senda	Bu voqealar ular qatnashgan <i>gap</i> da sodir bo‘lgan edi.

Yuqori sinflarda badiiy asarlardagi notanish so‘zlarning izohli lug‘atini tuzish, asardagi frazeologik birikmalarni to‘plash va ularning ma‘nodoshlarini sharhlash kabi topshiriqlarni bajarish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida *aro‘s* (kelin, kelinchak), *aftodahol* (kambag‘al), *a‘yon* (baland martabali kishilar), *dasmoya* (mol-mulk), *domod* (kuyov), *zafar* (sariq tus), *zer-u zabar* (ostin-ustun), *kajrafdor* (teskari), *majnun* (devona, jinni), *mazhab* (o‘z diniy qarashlariga ega bo‘lgan guruh), *mohiyona* (oylik, maosh), *munaqqid* (tanqidchi), *surur* (shodlik), *qiblagoh* (ota, padar) kabi so‘zlar borki, ko‘pchilik o‘quvchilar ularning ma‘nolarini bilishmaydi. To‘garak mashg‘ulotlarida shu so‘zlarning izohli lug‘atini tuzishni topshirish, ularning ma‘nosini bilib olishga imkon beradi va natijada bu so‘zlar nutqda seriste‘mol so‘zga aylanadi.

1. O‘quvchilardan she‘riy asar mazmunini nasriy yo‘lda bayon etishni talab qilish ham ular nutqining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, “Uyushiq bo‘lakli gaplar” ni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertagidan olingan quyidagi parchaning mazmunini nasriy yo‘lda bayon qilish talab etiladi.

Bolalik kunlarimda,  
Uyqusiz tunlarimga,  
Ko‘p ertak eshitardim,  
So‘ylab berardi buvim.  
Esimda o‘sha damlar,  
O‘zi uchar gilamlar,

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,  
Oyni uyaltirgan qosh.

2. Matn mazmunini qisqartirib yoki kengayt irib bayon qilish ham o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga juda katta amaliy yordam ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilardan Alisher Navoiyning hikmatlari, xalq maqollari va matallari mazmunini kengaytirib bayon qilishni talab etsa bo'ladi. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatini o'qib, uning mazmunini kengaytirib bayon qilish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqlarini o'stirish mumkin.

Boshni fido qilg'il ato boshig'a,  
Jismni qil sadqa ano qoshig'a  
Tun-kununga aylagali nurposh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Shunday qilib, ona tili mashg'ulotlarida matn mazmunini qayta so'zlash, uni qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish, matnni ijodiy to'ldirish, uni rollarga bo'lib o'qish, so'zlarni ishlatish o'rnini bilish, uyadosh, shakldosh so'zlarga oid o'yinlar tashkil qilish, kasb-hunarga oid so'zlar lug'atini tuzish va badiiy asarlarda uchraydigan, ammo o'quvchilar uchun notanish hisoblangan, aslida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni o'rganish kabi mustaqil ish turlaridan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "Iml-Ziyo". 2015-y.
2. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati". Toshkent: "O'qituvchi" -2016
3. A.Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romani.
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [www.trm.uz](http://www.trm.uz)

### **O'QITUVCHI KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI**

Ochilova Feruza  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada o'qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtirishning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch tushunchalar:** pedagog, pedagogik mahorat, metodik mahorat, kasbiy mahorat, mas'uliyat, axloqiy fazilat.

**Аннотация:** В статье подчеркивается актуальность, научная и практическая значимость повышения профессионального мастерства учителя.

**Основные понятия:** педагог, педагогическое мастерство, методическое мастерство, профессиональное мастерство, ответственность, нравственная добродетель.

**Abstract:** The relevance, scientific and practical importance of improving the teacher's professional skills is highlighted in the article.

**Basic concepts:** pedagogue, pedagogical skill, methodical skill, professional skill, responsibility, moral virtue.

Zamonaviy o'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi lozim bo'lgan ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan quyidagi burch va mas'uliyatlar ulardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida roy berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi boyicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinni foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda kontselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi,

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmazligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida o'zida bir qator pedagogik sifatlarni tarkib toptirib borishi zarur.

14. O'qituvchi eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

O'qituvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va lo'nda bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan boshlamasligi, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularni yanada boyitishga ishonch bildirishi bilan muloqotni tashkil qilishi lozim. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga nisbatan qoyayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. Jamiyatning o'qituvchi oldiga qoyadigai asosiy talablari quyidagilar:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigienasidan o'z kasbiga doir bilimlarga mukammal bilishi;
- o'z kasbi boyicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, kompyuter va axborot texnologiyalari yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o'z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika ( mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Xulosa qilib aytganda pedagogning kasbiy mahoratni shakllantirish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida birinchi kunlardan kasb tarbiyasiga alohida e'tibor berilishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy o'rinni psixologik-pedagogik fanlar tizimi egallaydi (pedagogika nazariyasi va tarixi, yangi pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, psixologiya). Mutaxassislik fanlar fundamental bilim berish bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchini dunyoqarashini, metodologik bilimlarini shakllantiradi. Pedagogik mahorat rivojlanishida muhim o'rinni bo'lajak o'qituvchini ijtimoiy - pedagogik faoliyati bajaradi. Bu faoliyat qancha mazmunli va keng bo'lsa, shuncha uning samaradorligi oshadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, hech qanday oliy ta'lim muassasasi tayyor holda mahoratli pedagogni etkazib bera olmaydi. Mahoratga erishishning eng samarali va to'g'ri yo'li o'z-o'zini tarbiyalashdir. O'z-o'zini tarbiyalash usul va vositalari nihoyatda ko'p, qolaversa o'qituvchilikning o'zi ijodiy soha hisoblanadi kasbiy mahoratni rivojlantirish uchun izlanishni talab etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qoplonova M. Pedagogik jamoadagi Shaxslararo munosabatlar.–T.: “O'qituvchi”, 2005.
2. J.G'.Yo'ldoshev va S . Usmonovning “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent. 2006.
3. Ochilov. M, Ochilova. N. “O'qituvchi odobi” Toshkent “ O'qituvchi” 2000
4. Internet saytlari: Edu.uz. www. Ziyo net. Uz.

#### **TABIY FAN DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNI TABIATNI ASRASHGA O'RGATISH**

*G'apporova Fazilat Muhammadiyevna  
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani  
29-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada tabiiy fan darslari orqali o'quvchilarni tabiatni asrashga o'rgatish haqida bo'lib, unda tabiiy fan darslarini tashkil etish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fan, tabiat, geografiya, borliq, atrof-muhit.

**Аннотация:** В статье речь идет об обучении школьников охране природы посредством уроков естествознания, а также рассматриваются способы организации уроков естествознания.

**Ключевые слова:** естествознание, природа, география, существование, окружающая среда.

**Abstract:** The article is about teaching students to protect nature through natural science lessons, and it discusses the ways of organizing natural science lessons.

**Key words:** natural science, nature, geography, existence, environment.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiat to'g'risida, o'z joyi va barcha mamlakatning tabiiy boylklari

to'g'risida bir butun tasavvur shakllantirish lozim. O'quvchilar Vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari kerak. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir.

Umumiy o'rta ta'limda tabiiyot va geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari: o'quvchilarda atrofimizdagi olamga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish, tabiatni kuzatish, tahlil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limda tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o'quv faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, aholisi, xo'jaligi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global ekologik muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash mahoratini shakllantirish;

o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tabiatshunoslik tushunchalarining shakllanishi murakkab fikrlash jarayonining natijasidir. Bu jarayonni boshqara turib, o'qituvchi yorqin misollarda tabiat sirlarini ochib beradi, moddiy dunyoqarash asoslarini o'quvchilarga singdiradi.

Rejali ravishda asta-sekin tabiat bilan tanishtirib borish bu ish uchun poydevor yaratadi. Moddaning (qum va loyning, foydali qazilmalarning, suvning) xususiyatlari bilan tanishtira borib, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bilan o'qituvchi o'quvchilar tomonidan insonning tabiatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyatini tushunib olinishiga yordam beradi.

Bolalarni atrof tabiat va odamlar hayoti bilan tanishtira borib, o'qituvchi aniq misollarda tabiat hodisalarining sabablarini tushuntirib berishi kerak va o'quvchilarning bu hodisalar o'rtasidagi oddiy bog'lanishlarni tushunib olishlariga erishishi lozim. Natijada o'quvchilar tabiat-bir butunlik, unda jism va hodisalar biri-biri bilan uzviy aloqada, biri-biriga bog'liq ekanligini tushunib olishga imkon beradigan bilimlarni to'playdilar.

Tabiatshunoslik darslarida moddiy dunyoqarash asoslari o'qituvchi tomonidan rejali ravishda uzoq vaqt davomida olib boriladigan ishlar jarayonida shakllanadi. Tabiatshunoslikni o'rgana boshlashdanoq o'quvchilarda o'simlik va hayvonot dunyosi to'g'risida moddiy tushunchalarni shakllantirib borish, amaliy ishlarni bajarish, tajribalar, kuzatishlar, ekskursiyalar o'tkazish jarayonida esa olingan tushunchalar ilmiy nuqtai nazaridan tasdig'ini berishi kerak.

Tabiat hodisalarining o'zaro bog'lanishini (quyosh nuri energiyasi suvni qizdiradi, u bug'lanadi, keyin yog'in tarzida tushadi) ocha turib, o'qituvchi o'quvchilarda tabiatga munosabatni asta-sekin rivojlantirib boradi. Yakka tartibdagi bevosita kuzatishda o'quvchilar dastlab fahmlab olgan o'zaro aloqa barcha tabiat hodisalarini bir-biriga bog'lovchi, aniq namoyon bo'lgan qonuniyat xarakterini oladi.

Kichik yoshdagi maktab bolalari "Nima uchun yomg'ir yog'adi?", "Tog'lar qaerdan paydo bo'lgan?", "Nima uchun ko'katlar yashil, gullar esa har xil rangli?", "Nima uchun quyosh kechqurun botadi?" va boshqa ko'pgina savollar berib, goyo o'zlari uchun dunyoni ochadilar va bolalarda atrof hayotga bo'lgan qiziqish so'nmasligi uchun o'qituvchining ular oldida ajoyib va go'zal bo'lib ko'rinishi uning o'ziga bog'liq.

Atrof olamga bo'lgan bola qiziqishini quvvatlash uchun o'qituvchi barcha savollarga aniq-ravshan, muhimi qiziqarli va tushunarli qilib javob berishi kerak. Bolalar bilan ishni (kuzatish, tajriba, amaliy ish, ekskursiyalarni) shunday tashkil qilish kerakki, ularning

o'zlari tabiatning ayrim hodisalari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga, ularda borayotgan o'zgarishlarni payqashga o'rgansinlar. Shundagina ular "Nima uchun qushlar uchib keladilar va uchib ketadilar?", "Nima uchun hayvonlar qishki uyquga ketadilar?" va shunga o'xshash savollarga mustaqil javob bera oladilar.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun atrof olamni hayajon bilan qabul qilish xarakterlidir. Bolalar hamma narsani qarab chiqishlari, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, kattalarning tushuntirishlarini bajonidil tinglashlariga qaramay, atrofdagi hodisalarda ko'p narsalarni payqab ololmaydilar, chunki ular o'zlarining hissiyot va qiziqishlarini qo'zg'atuvchi ta'sirlarga e'tibor beradilar, muhim bo'lsa ham hayajon uyg'otmaydigan narsalarga e'tibor bermaydilar. Bolalarning kattalar e'tibor bermaydigan narsalar tafsilotini payqab olishlari shu bilan tushuntiriladi, chunki ular uchun bu jiddiy ahamiyatga ega. Shunga ko'ra bolalarni tabiatshunoslik obyektlari bilan tanishtirib borishda ularning jozibaliligiga, go'zalligiga alohida e'tibor bermoq zarur.

Tabiatga ekskursiyalar, olingan materiallarni to'plash va ishlash, tirik burchakdagi mashg'ulotlar, sinfdan tashqari ishlar tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarning estetik tarbiyasini to'ldirishi hamda chuqurlashtirishi kerak.

Estetik tarbiyada ko'rgazmali qurollarni (suratlar, sxemalar, jadvallar, mulyajlar, maketlar, gerbariyalar, hayvonlar tuxumlarini) to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Ular chiroyli, jozibador, qiziqishni qo'zg'atuvchan bo'lishi lozim. Bunday qurollardan foydalanish badiiy didu farosatni rivojlantiradi, materialni yaxshiroq o'zlashtirish va esda saqlab qolishga yordam beradi.

Estetik tarbiyaning samarali vositalaridan biri tabiatshunoslik darslarida mashhur rassomlar chizgan suratlarining nusxalaridan foydalanish va o'qituvchining badiiy asarlaridan parchalarni sharhlab tushuntirishidir, chunki tabiatni shoirona qabul qilish, uni chuqurroq tushunish hamda go'zalligini his etishga yordam beradi.

Insonning tabiatga chuqur va har taraflama ta'siri amalga oshayotgan bir paytdagi ilmiy-texnika inqilobi sharoitlarida inson va jamiyatning tabiatga bog'liqligini, uni saqlab qolish va yaxshilash zarurligini tushunadigan, atrofdagi go'zallikni qadrlay oladigan va tabiat holati uchun o'z zamondoshlari hamda kelgusi avlod oldidagi fuqarolik mas'uliyatiga ega bo'lgan har tomonlama rivojlangan shaxsning shakllanishini mo'ljallovchi umum ekologik tarbiya katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, kichik yoshdagi o'quvchilarda tabiat to'g'risida, o'z joyi va barcha mamlakatning tabiiy boyliklari to'g'risida bir butun tasavvur shakllantirish kerak. O'quvchilar Vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish muhimdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori

2. **A.A.Ismailov, G.Tog'ayeva, S.Akbarova, D.Asqarova. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash**

3. [www.trm.uz](http://www.trm.uz)

4. [www.miliy.dastur](http://www.miliy.dastur)

#### **O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH BUGUNGI KUN DAVR TALABI**

Vasiyeva Zulfizar Kamolovna

Qarshi shahar 25-umumta'lim maktabi O'IBDO

**Annotatsiya:** Maqolada kreativlik va uni rivojlantirish yo'llari, bugungi kun yoshlarda kreativ fikrlashlarini o'stirishning ahamiyatli ekanligi bayon qilingan.

**Kalit soʻzlar:** kreativ, ijodkor, gʻoya, zamonaviy, davr talabi, ehtiyoj, zaruriyat.

**Аннотация:** В статье описывается творческое начало и пути его развития, важность развития творческого мышления у современной молодежи.

**Ключевые слова:** креатив, творец, идея, современность, требование времени, потребность, необходимость.

**Abstract:** The article describes creativity and ways to develop it, the importance of developing creative thinking in today's youth.

**Key words:** creative, creator, idea, modern, demand of the time, need, necessity.

Dunyoda har tomonlama shaxs yaratuvchanligi mahsulining beqiyos va hayratlanarli namunalari uchun kelamiz. Jumladan, virtual olam, sensorli aloqa vositalari, turli rang va shakldagi meva-sabzavotlar va poliz ekinlari, tuproqsiz moʻl-hosil olish va boshqalar. Bularning barchasi shaxs tafakkurining oliy mahsulidir. Bugun biz uchun odatiy hisoblangan samolyot, vertolyot, kompyuter, telefon, hatto chiroqlar ham qachonlardir tasavvurda boʻlgan, keyinchalik aql-idrok, tafakkur samarasi natijasida yaratilgan. Gʻildirakning kashf etilishi insoniyat kreativligining muhim natijasi, desak adashmaymiz. Bugun bunday yangiliklar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratib, ogʻirimizni yengil, uzogʻimizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas boʻlagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab va ehtiyoj yuqori. Ushbu ijtimoiy eʼtijojdan kelib chiqib, yosh avlodni ham kreativ tafakkur yuritishga oʻrgatish dolzarb ahamiyat kasb etishini koʻrishimiz mumkin.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmuni ustida toʻxtalib oʻtamiz. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiroda originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli tomondan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, maʼnaviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega boʻlgan bilimlarning koʻpqirrali ekanligida emas, balki yangi gʻoyalarga intilish, oʻrnatilgan stereotiplarni isloh qilish va oʻzgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon boʻladi. YAʼni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib boʻlmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi gʻoyaning paydo boʻlishi asosiy shartdir. Koʻpincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Jahon taʼlimi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti taʼlimning takomillashishi va taraqqiy etishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu boisdan bizning taʼlim tizimimizda ham tezkorlik bilan islohotlar olib borilmoqda. Oʻzbekiston taʼlim tizimiga kreativlik haqidagi yondashuv va qarashlarning kirib kelishi uning jahon taʼlim tizimi bilan integratsiyalashib borayotganligidan dalolat beradi. Bugun boshqa sohalardagi kabi taʼlim tizimiga ham kreativlik tushunchasi kirib keldi. Ushbu tushunchani taʼlim tizimining har bosqichida tilga olmoqdamiz.

Demak, kreativlik individning yangi gʻoyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida kreativlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati maʼnosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, oʻtkir zehni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik kasbiy kompetentlikning muhim omili sifatida aks etadi.

Ken Robinsonning fikriga koʻra, “kreativlik – oʻz qiymatiga ega original gʻoyalar majmui” sanaladi. Gardner esa oʻz tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik–shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat boʻlib, u oʻzida muayyan yangilikni aks ettirishi va maʼlum amaliy qiymatga ega boʻlishi lozim”.

Emebaylning yondashuvi nuqtai nazarida ifodalanicha, kreativlik “muayyan soha bo’yicha o’zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko’nikmalarga ham ega bo’lish”demakdir. Ko’plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o’rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o’rtasida hech qanday bog’liqlik yo’q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog’liq ekanligini ta’kidlaydilar.

“Kreativlik” tushunchasi o’zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G’arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik yaratish hisoblanadi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg’usi va erkinlik mavjud bo’lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharq olimlari esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug’ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g’arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo’lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Xo’sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo’ladi? Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko’zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo’lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko’nikma, malakalarni o’zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag’batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Xulosa qilib aytganda, kreativ fikrlashni rivojlantirish kunning muhim vazifalaridan biridir.

Ayniqsa, asrlar davomida shakllangan barkamol shaxs tarbiyasi an’analari bugungi kunga qadar o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ulardan ta’lim jarayonida eng zamonaviy metod va usullar bilan uyg’un holda maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Креативный подход в командной работе *Нугае Дуде*.  
[ХТТПС://эсон.викирединг.ру/73799](http://эсон.викирединг.ру/73799)

2. Boymurodova, X.Sattorova, Sh.Muslimova, F.Karimova. 4-sinf o’qituvchilari uchun ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo’yicha metodik qo’llanma/– T.: “Sharq”, 2017/ – 240-b.

3. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” “Nihol” nashryoti, -T.2013 y.

## **ILMIY PEDAGOGIK TA’LIM JARAYONINI DINAMIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING BA’ZI KOMPONENTLARI**

Yo’ldoshev Rustam Elmurodovich  
tayanch doktorant(QarDU)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarni ilmiy pedagogik ta’lim jarayoniga tayyorlashda faol ta’lim metodlari va ba’zi komponentlardan foydalanishga doir tajribalar tahlil qilingan.

**Tayanch so’zlar:** Ilmiy pedagogik ta’lim, model, komponent, ta’lim, metod, magistr, individual, tadqiqot .



**Аннотация.** В данной статье анализируется опыт использования активных методов обучения и некоторых компонентов в подготовке студентов к процессу научно-педагогического образования.

**Ключевые слова:** Научно-педагогическое образование, модель, компонент, образование, метод, магистр, личность, исследование

**Annotation.** This article analyzes the experience of using active learning methods and some components in preparing students for the process of scientific and pedagogical education.

**Keywords:** Scientific and pedagogical education, model, component, education, method, master, personality, research

Mazkur maqolada talabalarni ilmiy pedagogik ta'lim jarayoniga tayyorlashda faol ta'lim metodlari va ba'zi komponentlardan foydalanishga doir tajribalar haqida tushuntirish berilgan. Tadqiqotimizning negizini bilimning turli sohalaridagi ilmiy ishlarda uzoq vaqt davomida foydalanib kelinayotgan metodlar va komponentlar tashkil etishini kuzatishimiz mumkin.

Ijodiylik uchun yaratiladigan muhitga insondagi moslashuvchanlik, fikrning tezkor va o'ziga xosligi, tanqidiy tahlilga moyillik, agglyutanizatsiya (turli mazmundagi manzaralarni umulashtirgan holda tasavvurda yaxlit manzara yaratish) va sxemashtirish qobiliyati, maqsadli idrok etish kabi sifatlar kiradi.

Ijodiy potensial (salohiyat) har bir insonda ma'lum darajada mavjud deb hisoblash qabul qilingan va aslida ham shunday. Ta'lim esa o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra, uning rivojlanishi uchun xizmat qilmog'i shart. Ta'limning har bitta komponentini loyihalashtirishda ta'lim jarayonidagilarining barchasidagi ijodiy qobiliyatning shakllanishini birma-bir qayd etish lozim.

Tadqiqotchilarning faoliyati uchun muhim omil hisoblanadigan tadqiqotchilik kompetensiyasining asosida turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan ijodiy qobiliyat yotadi.

Ta'lim muhitining komponentlari deb atrof-muhit, inson omili va o'quv dasturlarini tushunamiz.

Kommunikativ-ijodiy muhitni loyihalashtirishning yuqorida keltirilgan tuzilmasini tadqiqotchilar tayyorlashning tizimlari bilan birlashtirgan va mazkur jarayonga muvofiqlashtirgan holda, maqbul deb hisoblaymiz. Shuningdek, tavsif etilgan komponentlar ustida alohida to'xtalib o'tamiz.

Ilk komponent bu – kommunikativlik va ijodiylik muhitini shakllantirgan muhitdir. Kasbiy ta'lim magistrilarini tayyorlash uchun OTMda kompyuter xonalari jihozlangan va u yerda magistrantlarning masofaviy ta'lim olishlari elektron kutubxona resurrlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan ta'minlangan. Barcha auditoriyalar multimedia vositalari bilan jihozlanishi va loyihalar taqdimoti, yakunlash auditoriyalarda o'tishi zarur.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi o'quv-uslubiy portali auditoriya mashg'ulotlarida nazariy axborotlarni taqdim etish uchun sarf etiladigan vaqtni tejab qolish va buning evaziga amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ko'proq vaqt ajratish imkonini berdi. Magistrantlarning o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirishlari ularda bilish jarayonini mustaqil tashkil etish ko'nikmasining rivojlanishi uchun zamin yaratadi. O'quv-uslubiy portalda magistrantlarning o'quv topshiriqlarini bajarishlari uchun o'zlari to'plagan ballarni kuzatib borish hamda mazkur topshiriqlarning bajarilishi muddati aks etgan maxsus kalendar yordamida o'z ishlarini rejalashtirib borish imkoniyati mavjud. Kalendar boshqa muhim tadbirlarning sanalari ham ko'rsatib boriladi. Taqdim etilgan o'quv platformasi elektron kutubxonalar bilan bog'liq bo'lib, tadqiqotchilar u yerdan o'zlari uchun zarur bo'lgan axborot va ma'lumotlarni topishlari mumkin bo'ladi.

Shuningdek, magistrantlar olib boradigan ilmiy tadqiqotlar darajasiga muvofiq keladigan tashqi tashkilotlarda o'tkaziladigan amaliyotlarni ham ta'lim muhitining atrof tabiiy muhit komponenti tarkibiga kiritish mumkin.

Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillardan yana biri inson omilidir.

Inson omili – pedagogik jarayon asosiy ishtirokchilari, ta'lim subyektlari, tadqiqot jarayonining asosiy subyekti sifatida ham tavsiflanadi. Ta'lim subyektlari soni, yoshi, jarayondagi ishtiroki, vazifalariga ko'ra farqlanadi. Inson omilining talabalar tadqiqiy faoliyatiga va o'quv-biluv jarayoniga ta'siri ularning ijtimoiy faoliyati, bajaradigan vazifalari, individual sifatlari, kognitiv sifatlari, muayyan jamoadagi faoliyati, jarayondagi roli va rollarining almashinuvi, yosh xususiyatlari, tadqiqot obyektiga ta'siri orqali ifodalanadi.

Ta'lim muhitining "inson omili" komponenti ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi, tadqiqot o'tkazuvchi va respondent sifatida namoyon bo'ladi. Talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning dinamik modeli shaxsga yo'naltirilganlik tamoyiliga asoslanadi va unda asosiy e'tibor magistrantlarning o'qituvchi bilan teng munosabatlarini tashkil etishga qaratiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar, talabalar o'rtasidagi munosabatlar an'anaviy ta'lim jarayonida "subyekt-obyekt" modelida amalga oshiriladigan bo'lsa, innovatsion yondashuvda foydalaniladigan ta'lim texnologiyalari "subyekt-subyekt" modelida amalga oshiriladi. Ushbu modeldagi kommunikativ jarayonni tashkil etish uchun o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi:

o'quv materialini va talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar doirasi, fan sohasini chuqur bilish hamda ulardan o'rinli foydalana bilish;

metodik ko'nikmalarga ega bo'lish va ta'lim jarayonida foydalaniladigan o'quv materiallari va vositalarini tayyorlay olish va maqsadli foydalana bilish;

axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlash malakasiga ega bo'lish va ulardan, internetdagi axborotlardan pedagogik faoliyatda foydalana bilish;

adaptivlik – ta'lim muhitidagi o'zgarishlar, rivojlanish, islohotlar va yangiliklarni to'g'ri qabul qila olish hamda ushbu yangiliklarga moslasha bilish;

zamonaviylik – modernizatsiyalashgan ta'lim muhitiga moslashish, yangiliklarni qabul qila olish hamda ulardan o'rinli foydalana olish;

• menejerlik – ta'lim jarayonini, pedagogik jamoani va o'quvchilar jamoasini hamda o'z-o'zini boshqara bilish va ish faoliyatini, ish kunini to'g'ri rejalashtira bilish.

Ta'lim dasturi – talabalar tadqiqiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim dasturi va uning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi bilim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni qamrab olish bilan bir qatorda ularni tadqiqiy faoliyatga yo'naltirishga ham xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda ijtimoiy muhit (ta'lim muhiti) komponenti magistratura talabalarida tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini qayd etish bilan ibt qatorda, inson omili hamda o'quv dasturlarini ham muhim omillar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Ta'limiy muhit pedagogdan faoliyatda kerak bo'ladigan quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishni talab qiladi:

-o'z sohasini talab darajasida bilishi;

-ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishi;

-vatanparvarlik ruhida bo'lishi;

- faoliyatda ijodkor bo'lishi;

-o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati;

-jarayonni modellashtirish va natijani oldindan bilish;

-jarayonda ijodiylikni yaratish layoqati.

Magistratura talabalarning asosiy tadqiqot ishlari magistrlik dissertatsiyasi bo'lib, unga rahbarlik qiluvchining zaruriy malakalarga egaligi ishning to'g'ri tashkil etilishiga yordam beradi. Talabalarada tadqiqotchilik ko'nikmasi yaxshi shakllantirilishi uchun ilmiy rahbar quyidagi vazifalarni bajara olishi lozim:

• ilmiy rahbar magistrantga tadqiqot mavzusini to'g'ri tanlashga va tadqiqot ishiga doir individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishga yordam bera bilishi;

- talabalarni ilmiy sohaga doir yangiliklardan muntazam xabardor qilib tura olishi va ilmiy tadqiqot ishiga tayyorlashi;
- dissertatsiya tadqiqoti uchun tanlangan muammo yechimiga doir maslahatlar berib borishi;
- tadqiqot muammosiga doir pedagogik eksperiment o'tkazish uchun obyektlarni tanlashga amaliy yordam va maslahat bera olishi;
- magistrantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berish;
- talabalarning psixologik-pedagogik va texnologik tayyorgarligini qo'llab-quvvatlash.

Tadqiqotchi faqat ta'lim subyekti bo'libgina qolmasdan, balki pedagogik jarayon va pedagogik muhitning, markaziy komponenti, pedagogik tadqiqotlarning asosiy subyekti bo'lishi ham talab etiladi. Kommunikativ-ijodiy muhitning barqarorligi va samaradorligida aynan har bir tadqiqotchi shaxsining muhim faktor ekanligini magistrlar manfaatdorligi bilan tushuntirish lozim.

Magistraturaga tanlab olishda talabning nafaqat oldingi natijalari, balki uning tadqiqotchilik qobiliyatiga ham e'tibor qaratish lozim.

Magistrlarni tayyorlash jarayonini samarali yo'lga qo'yish uchun jamoaviy fikrlash faoliyatini tashkil etishga qarash zarur. Jamoaviy fikrlash yordamida magistrant o'z kommunikativlik sifatleri va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim muhitining bu xildagi komponenti (ya'ni jamoaviy fikrlash faoliyatining tashkil etilishi) inson omili komponenti kabi asosiy va ahamiyatli sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Краснов, Ю. Э. Введение в технологию игрового имитационно деятельностного обучения [Текст] : учеб.пособие для студентов магистратуры / Ю. Э. Краснов. – Мн. : БГУ, 2003. – 226 с.

2. Жукова, Н.М. Проблемы проектирования программ учебных дисциплин в вузе: история и современность [Текст] / Н.М.Жукова, В. П. Косырев, П.Ф. Кубрушко // Теория и практика профессионально педагогического образования :коллект. монография / под ред.Г.М.Романцева, В.А.Федорова, М.М.Дудиной. – Екатеринбург : РГППУ, 2013. – Т. 3. – С. 203–222.

3. Блохин, А. Л. Метод проектов как личностно-ориентированная педагогическая технология [Текст] :дис. канд. пед. наук :13.00.01 /А. Л. Блохин. – Ростов н/Д, 2005. – 154 с.

4.Yo'ldoshev R.E. Description of the principles and approaches used in the development of a dynamic model. UzMU xabarleri 2022 1/4 89-91P

5. Yo'ldoshev R.E. Structural components of the dynamic model of the system of training primary education masters. Eurasian scientific herald vol 12/ 21-23

6. Yo'ldashev R.E Principles of Educational Technologies and Modular Education in the Introduction of a Dynamic Model of the System of Training Primary Education Masters. Eurasian research bulletin vol 12/ 28-32

### **RAQAMLASHTIRISH TA'LIM SHAROITIDA INTERNET RESURLARINING OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI**

Rasulova Moxira Abdujalilovna,  
tayanch doktorant, Toshkent davlat pedagogika universiteti, [mokhira876@gmail.com](mailto:mokhira876@gmail.com). Tel.:  
+998946560289

Raqamli ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalaridan foydalanish vositasida talabalarning og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ta'lim berish metodlarini barchasini inobatga olish, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda internet resurslaridan samarali va o'rinli foydalanishga asoslangan holda og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish modeli borasida ushbu maqolada fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim , og'zaki nutq ,integrasiyalash

Ma'lumki, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ingliz tilini o'rgatish orqali talabalarining og'zaki nutq kompetensiyani rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'rni beqiyosdir. Zero, nutq faoliyati turlarini integrasiyalash til ko'nikmalarini va nutq faoliyatini takomillashtirib erkin muloqot yuritish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlarda og'zaki nutqni borasida juda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan va ularning har bir ishida ushbu soha uchun yangilik kiritilgan .Mahalliy tadqiqotchilarimizdan biri D.Po'latova o'zining ilmiy ishlarida, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarida kommunikativ kompetensiya jarayoni oldiga qo'yiladigan talablar, uning samaradorligini ta'minlashning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari ko'p jihatdan muloqotni intensiv o'qitish tizimiga kiritilgan va uning tamoyillaridan kelib chiqishi borasida aytib o'tgan[1].

O'zbek olimlarimizdan A.T.Nurmonov talabalarining samarali muloqot yuritishida nazariy, personologik, texnologik, individual, tabaqalashtirilgan, emosional, rasional, reproduktiv, produktiv, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarni muhim deb hisoblaydi[ 2].

B.Xodjaevning tadqiqot ishida kompetensiyaviy yondashuv doirasiga ta'limning uchta an'anaviy elementi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaga yana uchta unsurlar: amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya, kompetentlikning ilgari surilishi muayyan asosga egailmiy ishlarida keltirishicha, ilmiy tadqiqotning asosiy vositasi bo'lgan modellashtirish haqida chet tilini inovatsion texnologiyalari yordamida o'qitish samaradorligini yanada mustahkamlash, voqiylikni aniq ko'rinishda tasvirlash, talabalar mutaxassisligidan kelib chiqib chet tilini pedagogik texnologiyalari vositasida o'rganish hamda talabalarining og'zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirish bosqichida ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim shakllari va o'qitish shart-sharoitlarining funksional o'zaro aloqadorligini o'zining ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan [3].

J.Raven kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadini shaxsning shakllanishi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlari, iste'dodini ochish va rivojlantirishda ko'radi hamda bunday yondashuv talabalarga hayotda o'z o'rniga ega bo'lish, o'zini muntazam rivojlantirib borish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishini ta'kidlaydi[4]

M.Gulyamova o'z tadqiqot ishida ingliz tilini o'qitishda talabalarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammolari nutq faoliyati turlari integratsiya qilish orqali ochib bergan. Bundan tashqari tadqiqot ishida integrativ yondashuvda mutaxassislikka doir egallangan bilimlarni o'zaro bog'lashgina emas, balki nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish turlarini integratsiyalash ham tushunilishini bayon qilib o'tgan[5] Talabalarining bilimni shakllantirish maqsadida tuzilgan modelda tamoyillarining bajaradigan vazifalariga ko'ra quydaigi ko'rinishda ifodalanadi. Ilmiy ishlarida keltirishicha, ilmiy tadqiqotning asosiy vositasi bo'lgan modellashtirish haqida chet tilini inovatsion texnologiyalari yordamida o'qitish samaradorligini yanada mustahkamlash, voqiylikni aniq ko'rinishda tasvirlash, talabalar mutaxassisligidan kelib chiqib chet tilini pedagogik texnologiyalari vositasida o'rganish hamda talabalarining og'zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirish bosqichida ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim shakllari va o'qitish shart-sharoitlarining funksional o'zaro aloqadorligini o'zining ilmiy ishlarida ta'kidlab o'tgan.

Sh.Sharipovning fikricha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deganda, ko'proq talabalarining shaxsiy manfaatlari, ehtiyojlarini nazarda tutadi. Bunda ta'limning mazmuni o'quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo'naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo'llab-quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi [6]

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tamoyili talabalarining ingliz tilini o'rganish davomida o'zaro bir-birlarini tushunishda qo'llaniladigan vositalar hamda ta'lim jarayonida og'zaki nutq faoliyatida amalga oshadi.

K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, mashqlarning ma'lum tizim asosida bo'lishi ularning muvaffaqiyatli qo'llanilishining eng birinchi va asosiy xususiyatidir. Mashqlarning ko'p

vazifaliligi esa ko'p sonli, ko'p vaqt bajarilishi va mashqlarning talaba bilim darajasiga qarab talanmaganligi mashqlar to'plami natija bermasligining asosiy sababidir[7]

Ko'p vazifadoshlik tamoyiliga ko'ra raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishdagi samarali yondashuv bilan natija beradi. O'rganish jarayonida til ko'nikmalarini bir vaqtda parallel tarzda egallashni taqazo etadi. Samarali raqamli ta'lim jarayonini tashkil etish rolli tamoyili talabalarda dars jarayonida aniq rolni ijro etishda "o'z-o'zini namoyon etishi" yoki "berilgan rolga kirishib ketishi" mumkin bo'ladigan noformal, shaxsiy namoyon bo'lish yoki rolli o'yinlarning bog'lab ketish tarzida tashkil etiladi. Ushbu tamoyilning havola qilinishi talabalarga o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ijod qilib yaratish va uning takomillashishiga asos bo'ladi.

Havola etayotgan ushbu maqolada og'zaki nutqni rivojlantirishda eng so'nggi internet resurslari hamda ilovalarning avzalliklari e'tirof etiladi. Ana shunday tehnikalardan biri raqamli hikoyalardir. Raqamli hikoyalarning bugungi kun texnologiyalari yordamida yaratiladi. Shu bois, o'qituvchilar hamda talabalar axborot va kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi bo'yicha o'zlarining media va texnologiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun hamkorlik qilishlari darkor [8]. Raqamli hikoyalarni yaratishda hamkor guruhlardan ijodkorlik, tajriba va albatta yetarli darajada media va texnologiya savodxonligi talab etiladi ([Utellstory.com](http://Utellstory.com) - bu raqamli hikoyalar yaratish uchun foydalanadigan veb). Raqamli hikoyaning shakli 2-4 daqiqalik harakatsiz tasvirlar mos hissiy ohanglar bilan gavdalanirilgan raqamli videoklip bo'lib, asosan birinchi shaxsda ya'ni hikoya muallifi tomonidan voqealar bayon qilinadi.

O'yin "an'anaviy o'qitish turiga qarama-qarshi chiqmaydi, zamonaviy pedagogik nazariyalarga zid bo'lmaydi va kelajakda integratsiyalangan o'qitish shakllaridan biriga aylanishi mumkin bo'lib, unda barcha o'qitish turlari yanada yaxshi birlashishi kerak, bu esa o'qitish nazariyasi va texnologiyasida bo'lgan, mavjud va kelajakda ham mavjud bo'ladi" [9].

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra, shaxsni takomillashtirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shunday imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim interfaol ta'lim deb nomlanadi.[10].

Nutq faoliyatining istalgan turi o'yinlar, interfaol metodlar, qo'shiqlar bilan birga olib boriladi [11]. Tilni tayyorlash darajasini rivojlantirish muammosi uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinmoqda, mahalliy u bir necha bor mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida ko'tarilgan, bu yerda o'quv jarayonida turli uslubiy tamoyillarni hisobga olish zarurligi haqida savol tug'iladi. Masalan, o'qitishdagi sub'yekt –sub'yekt tamoyili bir vaqtning o'zida bilimdagi oldingi bo'shliqlarni to'g'rilash va bir vaqtning o'zida yangi materialni o'zlashtirish imkonini beradi, integratsiya tamoyili esa, bo'lajak o'qituvchilarning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun o'quv jarayoniga moslashtirish tartibini kiritadi. [12,13,14,15]

N.M.Axmedova tadqiqotida pedagogik amaliyot tahlili bo'lajak o'qituvchilar faoliyati davomida duch kelayotgan quyidagi xarakterdagi kommunikativ muammolar mavjudligini ko'rsatdi: ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy yo'nalishdagi tadbirlarni tashkil etishda bo'lajak o'qituvchi talabalarga o'zaro hamkorlikda ishlash maqsad va yo'l –yo'riqlarini shakllantirishning qiyinligini; ijtimoiy malaka hamda ko'nikmalarni yetarli darajada tarkib topmaganligi; pedagogik jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga tezlik bilan moslasha olish qobiliyatining takomillashmaganligi; bo'lajak o'qituvchi o'z kommunikativ xulq-atvorini nazorat qilishi bilan bog'liq muammolarning vujudga kelishi; nizoli vaziyatlarda muammoni hal qilish qobiliyatlarini yetishmasligidir. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorgarlik pedagogik va psixologik muammolarni ham inobatga olgan holda amalga oshirishlik maqsadga muvofiqdir [16]. Innovatsion texnologiyalar yordamida talabalarning og'zaki nutq kompetensiyalarini takomillashtirishdan ko'zlagan maqsadi va yakunida natijasining samarasi sifatida amalga oshishi hamda talabalarning og'zaki nutq kompetensiyaning ko'zlagan maqsadga erishish imkon beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, talabalarning og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy raqamlashtirish ta'lim sharoitida uslubiy fanlarining zamonaviy muammosidir. Bu talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasining rivojlanishi uchun zarur. Shaxsning asosiy xususiyati bo'lgan og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirish raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida individual hamda umumiy ko'nikma - bilimlarni egallash bilan bevosita bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Po'latova D.R. Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish. // ped.fan.dokt. ilmiy dar.uchun diss. -T.: 2022. - 143 b.

2. Nurmonov A.T Talabalarning samarali muloqot texnologiyasi va texnikasiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari(auditoriyadan tashqari mash-g'ulotlar misolida): ped.fan.dokt. ilmiy dar.uchun diss. -T.: 2017. - 143 b.

3. Jalolov J.J. "Chet tili o'qitish metodikasi", Toshkent, 1996 yil.

4.Равен Дж. Компетентност в современном обществе: выявление, развитие и реализация. / Пер. с англ. – М., 2002. – 396 с.

5.Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv// : Avtoref. dis. ... (PhD) ped nauk / Gulyamova M.X. – T.: 2019 .

6. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.: Ped. fan. dok. ... avtoref.-T.: 2012.-46 b.

7. Ушинский К.Д. О пользе педагогической литературы / К.Д. Ушинский. - М.: Педагогика, 1996. 178 с.

8. Hava, K. (2019). Exploring the role of digital storytelling in student motivation and satisfaction in EFL education. Computer Assisted Language Learning, 1-21. Khodabandeh, F. (2018). The Impact Of Storytelling Techniques Through Virtual Instruction On English Students's Speaking Ability. TeachingEnglishwithTechnology, 18(1), 24-36

9. Изаренков Д.И. Базисные составляющие коммуникативной компетенции и их формирование на продвинутом этапе обучения студентов-нефилологов / Д.И. Изаренков // Русский язык за рубежом. - М., 1990.- С. 255.

10. Muslimov N.A., Usmonboeva M., Mirsolieva M. Innovation ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016

11. Alimov F.Sh. Yozma nutqqa o'rgatishni nutqiy muloqot asosida tashkil qilish masalalari // Ёш олим – 2008: Resp. ilmiy-amaliy anjuman material. – T.: ЎзДЖТУ, 2008. – Б. 140-141.

12. Апатова Л.И. Текст как система ориентиров в процессе понимания иноязычной речи на слух // Лингвистика текста: Материалы научной конференции. – Ч. 1. – М.: МГПИИЯ им. Мориса Тореза, 1974. – С. 21., Я.М.Колкер

13 Колкер Я.М., Устинова Е.С. Практическая методика обучения иностранному языку. – М.: Академия, 2000. – 264 с, Н.Д.Лукина .

14. Лукина Н.Д. Практический курс фонетики английского языка. – 2-е изд., испр. и доп. – М., 2003. – 274 с. Э.А.Маслыко.

15.Маслыко Е.А. Учебное общение на уроке английского языка. – Мн.: Вышэйшая школа, 1990. – 317 с.О.В.Налиткина .

16. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fanl. ... фалс. д-ри PhD. – T., 2020.

### **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

Kuchkeldieva Umida, tayanch doktorant, Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
[Orezza918@gmail.com](mailto:Orezza918@gmail.com). Тел.: +998903370555

Bo'lajak o'qituvchilarning nutq faoliyati ularning til bo'yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir. Bo'lajak o'qituvchilarga til qurilishi bo'yicha berilgan bilimlar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilsa, bu ularning nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilgan bo'ladi. Og'zaki va yozma nutq rivojlanishi uchun foydali bo'lmagan bilimlar nutq faoliyati tarkibiga kirmaydi. Umuman olganda, amaliyot bilan bog'lanmaydigan, nutqiy malaka hosil qilmaydigan lingvistik bilimlar nutq faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq faoliyati, kommunikativ kompetensiya

Chet tili sohasidagi zamonaviy mutaxassisning nutq faoliyatini muvaffaqiyatli shakllantirish chet tilining kommunikativ kompetensiyasiga ega bo'lishni nazarda tutadi. Van Ek kommunikativ kompetensiyaning bir qismi sifatida quyidagi kichik kompetensiyalarni taklif qiladi: lingvistik (keng so'z boyligiga ega va grammatika qoidalarini bilish); sociolingvistik (qaysi til shakllarini bilishingiz mumkin vaziyatga qarab foydalaning); muloqot ( mantiqiy va mazmunli to'g'ri uyg'unlashtirish qobiliyati alohida); strategik (etishmayotgan bilimlarni qoplashning og'zaki va og'zaki bo'lmagan usullari); sosiomadaniy (ijtimoiy-madaniy kontekstni bilish); ijtimoiy (muloqotning boshqa ishtirokchilari bilan muloqot qilish uchun nutqiy vaziyatni boshqarish qobiliyati [1]. "Kommunikativ kompetensiya" atamasini kiritadi va kompetensiyalarning ikki turini belgilaydi: lingvistik va kommunikativ. Nutq faoliyati—bu tilning gchuqur tuzilmalarida yotadigan ma'lum qoidalar majmuasi bo'yicha olingan ichki bilimlar sifatida talqin qilinadi, ular esa o'z navbatida bevosita muloqotda turli xil bayonotlarga aylanadi [2]. S.Savignьon xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining piramida ko'rinishidagi modelini taklif qildi. Xorijiy tilini o'rganayotgan odam piramidaning yuzlari bo'lgan subkompetensiyalarining ishi tufayli asta-sekin kommunikativ qobiliyatini kengaytiradi [3].

Bugungi kunda zamonaviy nutq faoliyatining turli xil ta'riflari mavjud. E.N.Solovova nutq faoliyatini tilning turli tomonlari: lug'at, fonetika, grammatika bilan bog'liq bo'lgan ma'lum miqdordagi rasmiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish deb ta'riflaydi [4].

D.Sh.Yo'ldosheva kompetensiya tushunchasi quyidagi unsurlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi: bilim; maqsad; shaxsiy sifatlar; shaxsiy qadriyatlar; layoqat (ko'nikma, malaka, tajriba); iroda [5]. Tadqiqot ma'lumotlarini hisobga olgan holda, har qanday kompetensiyaning universal komponentlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: kognitiv, motivasion va operativ-faol, funksional-texnologik. Kognitiv komponent muvaffaqiyatli ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi. Motivasion komponent – bu bo'lajak o'qituvchining tegishli harakatlarni bajarishga tayyorligi, bu harakatlarni rejalashtirish, boshqarish va ularni takomillashtirish [6].

Operativ-faoliyat komponenti axborot-algoritmik komponent mazmunidan kelib chiqqan holda va motivasion maqsadga muvofiq amalda tegishli harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi. Chet tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz bo'lajak o'qituvchilarning nutq faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatamiz: muvaffaqiyatli chet tili muloqotini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan lingvistik bilimlarni o'z ichiga olgan kognitiv komponent; bo'lajak o'qituvchining lingvistik bilim va ko'nikmalarni egallashga va chet tilidagi muloqot faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi bilan bog'liq motivasion komponent; operativ-faollik komponenti, ya'ni chet tilida nutq faoliyatini amalga oshirish, o'z xorijiy tilining kommunikativ faoliyatini takomillashtirish uchun til bilimlari va ko'nikmalarini tahlil qilish qobiliyati [6].

Nutq faoliyatining kognitiv komponentini uning asosiy elementi sifatida ko'rib chiqamiz. Bo'lajak o'qituvchilar og'zaki va yozma lug'at va grammatikani to'liq bilsalar, muloqotda nutqda produktiv va reseptiv ko'nikmalardan foydalanish ancha samaraliroq bo'ladi. Masalan, bo'lajak o'qituvchilar o'qishning birinchi yili oxiriga kelib, o'rganilayotgan mavzular doirasida 1000 ga yaqin yangi leksik birliklar – o'rganilayotgan mavzular doirasida turli xil so'zlar va iboralar bir biriga moslashib ketadi, ulardan 100 ga yaqin idiomatik iboralar va 200 ga yaqin so'zlashuv so'zlari. Nutqning grammatik to'g'riligi, agar Yevropa miqyosida B2 darajasida baholansa, oddiy grammatik tuzilmalarni to'g'ri va batafsil ishlatishdan iborat. Biroq,



bo'lajak o'qituvchi odatdagi xatolarga yo'l qo'yishi mumkin (masalan, vaqtdan foydalanish, gap tuzish, grammatik shakllarni muvofiqlashtirish). Agar bir tomon boshqasini tushunmasa, murakkab kommunikativ vaziyat yuzaga keladi, uning yechimi bir necha omillarga bog'liq: suhbatdoshning og'zaki munosabati va kompensasion kompetensiyaga ega bo'lish, o'z vaqtida yetarlicha javob berishga yordam beradi; tomonlarning og'zaki xatti-harakatlarini og'zaki bo'lmagan tarzda mustahkamlash qobiliyati [6].

Agar yetarli tushuncha bo'lmasa, unda to'liq lingvistik aloqa bo'lishi mumkin emas. Aynan shu holatda, nutq faoliyatining leksikogrammatik komponenti to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaslik suhbatdoshning aloqa ishtirokchisi sifatida muvaffaqiyasizlikka olib keladi. Uning kommunikativ kompetensiyasi noto'g'ri shakllanadi yoki umuman shakllanmaydi. Mahalliy metodologiya nutq faoliyatining leksik va grammatik komponentlarini shakllantirish va rivojlantirishda katta tajriba to'playdi [7].

Yuqorida aytilganlarning leksik va grammatik ko'nikmaning o'ziga xos shakli bo'yicha ham, leksik va grammatik hodisaning funksional tomonida ham nutq faoliyatining ushbu komponentini shakllantirish va rivojlantirish zarurati deb hisoblanishi mumkin, nutq muloqot jarayoniga mos keladi. Leksik-grammatik komponent nutq faoliyatining asosiy komponentidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам. – М.: Просвещение, 1965. – 324 с.]. М.Н.Вятютнев [55. Van Ek, J.L.M.Trim – Waystage I. Strasbourg: Council of Europe Press, 1991. 154 p.

2. Van Ek, J.L.M.Trim – Waystage I. Strasbourg: Council of Europe Press, 1991. 154 p..

3. Riskulova K.J. Bo'lajak o'qituvchi sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirish tizimi: Ped. fanl. d-ri ... Дис. – Т., 2017. – 83 б..

5. Jumanazarov U. Ta'limda axborotlashtirish sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini frazeologik kompetensiyalarini rivojlantirish: Avtoref. dis. ... PhD. – Т., 2019. – Б. 67-68.

6.Баева И.В. Коррективно-корригирующая методика развития лингвистической компетенции студентов бакалавриата языковых факультетов: на материале английского языка: диссертация ... кандидата педагогических наук : 13.00.02 / Баева Ирина Владимировна; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т]. - Псков, 2016. - 238 с.

7.Тадқиқотчи В.П.Овчаренко [86. Муслимов Н.А. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Дис. – Т., 2007. – 349 б.

#### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA HAMKORLIK TEKNOLOGIYASINI AHAMIYATI**

QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrasini o'qituvchisi  
Rajabova Xurshida Hakimovna

**Annotatsiya:** Ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushunilishi haqida so'z boradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi hamkorligini tashkil etish samaraliroq bo'lishi haqida so'z boradi.

**Abstract:** Modern methods used in education are about the understanding of the joint activities of the teacher and students in the educational process aimed at achieving the expected goal. It is more effective to organize the cooperation of the student and the teacher in the educational process. it is said to be.

**Аннотация:** Современные методы, используемые в образовании, заключаются в понимании совместной деятельности преподавателя и учащихся в образовательном процессе, направленной на достижение ожидаемой цели. Говорят, что это так.



**Kalit soʻzlar:** oʻqitish shakllantirish, ijodkorlik va ijobiy fikrlashga oʻrgatish, taʼlim metodi, taʼlim usuli, interfaol metod, samaradorlik, metodika, texnologiya, didaktik vosita, taʼlimning texnik vositalari.

**Ключевые слова:** формирование обучения, обучение творчеству и позитивному мышлению, метод обучения, метод обучения, интерактивный метод, эффективность, методика, технология, дидактический инструмент, технические средства обучения.

**Key words:** formation of teaching, teaching creativity and positive thinking, educational method, educational method, interactive method, efficiency, methodology, technology, didactic tool, technical tools of education.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda jahon taʼlim sohasiga kirib borishga moʻljallangan yangi taʼlim tizimining shakllanish jarayoni kechmoqda. Ushbu davr oʻquv tarbiya jarayonining pedagogik nazariya va amaliyotida jiddiy oʻzgarishlar bilan kechmoqda: oʻqitishning mazmuni oʻzgaryapti, bilim berish jarayoniga boshqa yondashuv taklif etilyapti, boshqacha munosabatlar va oʻzini tutish tamoyillari shakllanyapti. Bularning barchasini bizning davrimiz XXI asr–yangi texnologiyalar va insonlar oʻrtasidagi yangicha munosabatlar asri taqozo etmoqda. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida darslarni hamkorlikda oʻtish jarayoni oʻziga nafaqat murakkab bilimlar tizimini oʻzlashtirishni, koʻpgina oʻquv va intellektual koʻnikmalarni shakllantirishni, balki bilib olish jarayonlarini: eʼtibor, xotira, ijodiy va ijobiy fikrlash va qobiliyatni rivojlantirishni ham kiritadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda oʻquvchilarning oʻquv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash borasida katta tajriba toʻplangan. Shulardan biri boshlangʻich sinflarda hamkorlikda oʻqitish texnologiyasidan foydalangan holda darslarni loyihalashtirishdir. Pedagogik texnologiya oʻz mohiyatiga koʻra subʼektiv xususiyatga ega.

“Bumerang texnologiyasi“, “Arra” metodi kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish oʻqish materiali – badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yoʻnaltirilishini, oʻquv harakatlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishini, taʼlim oluvchilarga individual yondashishni, guruhlarda ishlash, jamoada ishlash, oʻquvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni taʼminlaydi.

Taʼlim oʻqituvchi va oʻquvchilarning hamkorlikdagi faoliyati boʻlib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning maʼlumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Taʼlim olayotgan bolaga birgalikda tarbiya jarayoni ham hamkorlikda shakllantirilib boriladi. Darslarda oʻqituvchi oʻz bilimi, koʻnikma va malakalarini mashgʻulotlar vositasida oʻquvchilarga yetkazadi, oʻquvchilar esa uni oʻzlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega boʻladi. Oʻrganish jarayonida oʻquvchilar oʻzlashtirishning turli koʻrinishlaridan foydalanishadi, yaʼni oʻzlashtirilayotgan maʼlumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda oʻziga xos tafovutlarga tayanadi. Taʼlim jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning dars paytidagi hamkorligi, oʻquvchilarning mustaqil ishlashi, mustaqil tadqiqotchi sifatida ish olib borishi, sinfdan tashqari ishlar shaklida taʼlim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Hozirgi kunda taʼlim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday boʻlishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anʼanaviy taʼlimda oʻquvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topish, mustaqil oʻrganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashgʻulotlarida oʻyin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. Oʻyin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf oʻquvchilarining oʻyin-topshiriqlarni bajarishga oʻrgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, oʻrganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bogʻliq boʻlishi kerak. Taʼlimda oʻquvchi shaxsini fikrlashga,

o'zgarlar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda.

Ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir. Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning: a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish; b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyati boy bo'lgan ustozgina mavzuni talabalarga mahorat bilan yetkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalaniladi. Ta'lim metodi ta'limning maqsadi va vazifalariga bog'liq. Metodlar o'quvchilarning yoshiga ta'limning mazmuniga va funksiyasiga qarab tanlanadi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondashuvlaridan biri bu innovatsion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish sanaladi. Innovatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda uning

asosiy komponenti interfaol ta'lim metodlari hisoblanadi.

Barcha metodlar o'quv materialining didaktik vazifasi, shart-sharoitlar va vaqtni e'tiborga olgan holda tanlanadi. To'g'ri tanlangan uyg'unlashgan metodlar ta'lim oluvchining diqqatini uzoqroq saqlab turish va uning faolligini oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi

Ana shu maqsadda o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini keng qo'llash zarurati mavjuddir. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, darsni tashkil etish jarayonida barcha bilim oluvchilarga sodda, tushunarli va oson bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Pedagog ijodkorlik asosida darsni qiziqarli tashkil qila olsa, o'quvchi yoshlar ham fanga bo'lgan qiziqishi va sifatli, samarali bilim olishi oshib boraveradi. O'qituvchi tanlagan metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Innovasion ta'lim texnologiyalari Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari .O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini

o'shiring va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

4. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

5. N.M.Azizxo'jayev Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T., 2002 y.

## **TALABALARDA BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**Yunusov Odil G'aybullaevich**

Musiq ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Maqolada talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda oliy talim muassasalarida tashkil etilgan badiiy to'garaklarning muhim vazifalari, hamda badiiy to'garaklarda kechuvchi pedagogik jarayonlar talabalarning badiiy-estetik qadriyat va hodisalarni baholash va ifoda qilish, ularga faol munosabat bildirish malakalarini shakllantirish, badiiy to'garaklardagi tarbiyaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy to'garak, badiiy tafakkur, ijodiy tafakkur, san'at, musiqa, ta'lim va tarbiya, madaniyat, ma'naviyat.

Kirish. Bugungi kunda talabalarning badiiy tafakkurini o'stirish, estetik dunyoqarashini shakllantirish vazifalari dolzarflik kasb etmoqda. Jahonda ta'lim tizimlari bo'lajak kadrlarning ma'naviy va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi asosida muntazam takomillashtirib borilmoqda. Bu esa talabalarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, mafkuraviy sog'lomlashtirish, madaniy turmush tarzini muqobillashtirishga xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, «yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir»[1]. Shu o'rinda oliy ta'lim tizimida badiiy to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yilishi, ular tomonidan tashkil qilinayotgan madaniy tadbirlar, suhbatlar va dars mashg'ulotlarining samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy to'garaklar – talabalarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan guruhlar bo'lib, ular talabalarning bo'sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma'naviy, g'oyaviy-estetik, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, yoshlarning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ'ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, ixtiyoriy, baholanmaydigan mahsuldor (ijodiy) faoliyat shakli hisoblanadi. Oliy talim muassasalari badiiy to'garaklari oldida talabalarda mustaqil badiiy tafakkur qilish, estetik munosabatga kirishish; “ommaviy madaniyat”ning asl maqsad-mohiyatini tushuntirish; talabalarni yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi san'at namunalaridan himoya qilish; milliy g'oya ideallari asosida yashash va ishlashga o'rgatish; milliy urf-odatlarimiz va an'alarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma'naviyat va ma'rifatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish; ustozlarga hurmat, ularni e'zozlash, barcha jabhalarda talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'zozli munosabatini tarbiyalash kabi vazifalar yuklatilgan.

Talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishini rivojlantirishning ayrim psixologik jihatlari B.Abduraximov, M.Davletshin, V.Karimova, A.Leont'yev[3] tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, talabalarning ma'naviy, ijtimoiy-kasbiy va kommunikativ kompetentsiyasini takomillashtirish, ularning umuminsoniy va milliy badiiy qadriyatlarga qiziqishini rivojlantirishning pedagogik asoslari O.Musurmonova, Sh.Mardonov, A.Nurmanov[4] kabi olimlar tomonidan ilmiy-amaliy talqin etilgan.

Qayd etilgan tadqiqot ishlarida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishning ba'zi masalalari yoritilgan bo'lib, badiiy to'garaklar vositasida talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish masalasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida to'liq o'rganilmagan.

Nafosat tarbiyasi talabalarni voqelikdagi, san'at va tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, shuningdek, turmushidagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. «Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida ko'ra olish komil insonning eng zaruriy fazilatidir. Insonda go'zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odam-lar, atrof-muhit ta'sirida shakllanib boradi. Shunga ko'ra, insonning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog'langan.

Badiiy tafakkur tarbiyasi asosan ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo'ladi. Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini badiiy tarbiyalashdir[6.-B.58.]. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo'ladi, degan ma'noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo'lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to'ldiradi. Chinakam san'at asarida hissiyot chuqur g'oyaviy, aqliy mazmun bilan idrok qilish birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Badiiy tafakkur talabalarning ijtimoiy-estetik ehtiyojlarini qondirishga va manfaatlari sari yo'naltirishga xizmat qiladi. U rang-barang faoliyat hamda badiiy-estetik munosabatlar tizimi sifatida badiiy ijodning professional hamda havaskorlik turlari, san'at, ommaviy kommunikatsiya vositalari, badiiy-estetik idrok madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Bu yerda jamiyat uchun aksiologik ma'noda tushunarli hamda foydalaniladigan badiiy qadriyatlar nazarda tutiladi. Demak, talabalarning badiiy tafakkuri badiiy obrazlilik, estetik ong va munosabat, san'atning yuksak tafakkurda idrok etish asosida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasiga nisbatan ishlatiladi. Bu orqali talabalarning badiiy tafakkurini va badiiy-estetik qarashlari tizimini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda ularda badiiy qadriyatlarni qadrlash tuyg'usini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Badiiy qadriyatlar talablardagi san'at va badiiy ijodkorlikka shunchaki faoliyat turi emas, balki qadriyat sifatida baho berish vazifalarini yuklaydi. Zero, san'at, bir tomondan, davrning "ijtimoiy-tarixiy voqealari ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan, ikkinchi tomondan, milliy madaniyat va har bir san'atkorning estetik ehtiyojlarini aks ettiruvchi"[7.- B.94.] estetik idealni gavdalanitirishning asosiy sohasi bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning mohiyatmazmunini o'zlashtirish, ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilash maqsadlariga xizmat qiladi. Badiiy-estetik qadriyatlarni idrok etish kuchli g'oyaviy-emotsional ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lib, talabalarning olamni estetik o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, talabalarda badiiy qadriyatlarni qadrlash tuyg'usini shakllantirish, ularga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmasini rivojlantirish kerak bo'ladi. Chunki badiiy qadriyatlar ijtimoiy muhitning ehtiyojlari va ijtimoiy qiziqshlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib beruvchi va g'oyaviy-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lgan voqelikdir.

Havaskor badiiy jamoalar oliy ta'lim muassasalarida ham faoliyat ko'rsatishlari maqsadga muvofiq. Ularda havaskor yoshlar o'zlarining badiiy, estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bir vaqtda, yoshlarni har tomonlama rivojlangan komil inson sifatida tarbiyalash ishiga xizmat qilib, iqtidorlarini ro'yobga chiqarmoqda. Zero, "professional san'at ham, havaskorlik san'ati ham kishilarni tarbiyalashda umumiy maqsad va vazifalarga ega. Chunki san'at kishilarning quvonch va hayajonlari, ehtiroslarining manbai sifatida ularning hissiyoti, fikri, irodasini ifoda etib, shaxsni ma'naviy va g'oyaviy boyitishga xizmat qiladi".

Turli tadbirlarda qatnashish talabalarni tasavvur qilinaotgan holatlarda harakat qilishga, yangiliklar yaratishga undaydi, ularning ijodiy kuch-quvvatini yuzaga chiqaradi, g'oyaviy taassurotlarini uyg'otadi. Talabalar, ayniqsa, badiiy faoliyat jarayonida badiiy obrazlar yaratish

bilan bevosita bog'langan adabiyot, musiqa sahna asarlaridagi go'zallikni yaxshi his qiladilar. Bu esa, ularda badiiy tafakkurini rivojlantirib, notqlik madaniyatini namoyon qilishga, ijodkorlik ko'nikmalarini kasbiy faoliyatda ko'rsatib berishlariga turtki beradi.

Badiiy qadiryatlarni o'rganish talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksaltiradi, ularning evristik va kreativ qobiliyatini rivojlantiradi, ilmiy mushohada qilishga yordam beradi. Shuningdek, biz Cho'lponning «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirdg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir» kabi badiiylikka dahldor fikrlarihamma zamonlar uchun ham muhim va dolzarbligini etkaza olishimiz lozim[9.-B.40.]. Shunday ekan, badiiy to'garaklar oliy ta'lim tizimida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning texnologik segmenti hisoblanadi.

Badiiy to'garaklarda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishga texnologik yondashuv xarakteri to'garaklarning xususiyatlaridan kelib chiqishi talab etiladi. Shu sababli ushbu masalani hal qilishda hozirgi davrda amalda bo'lgan, qo'llanilishiga, qamrov hajmiga ko'ra umumiy pedagogik, xususiy pedagogik va modulli kichik universal texnologiyalar tasniflaridan kelib chiqib yondashildi. Ya'ni umumiy pedagogik texnologiyalar o'z ichiga yirik, ya'ni butun ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan masalalarni qamrab olishi, xususiy pedagogik texnologiyalar esa ma'lum fan doirasida qo'llanilishi inobatga olindi. Badiiy to'garaklar xususiyatidan kelib chiqib, suggestiv modulli kichik universal texnologik yondashuv tanlandi. Ma'lumki, ushbu yo'nalishdagi texnologiyalar tarbiyalanuvchilarda biror refleksi rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, qamrov va mazmun jihatlaridan badiiy to'garaklarda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnologiyalardir.

Xulosa qilib aytganda badiiy tafakkurni rivojlantirmasdan bo'lajak kadr shaxsining kamolotiga erishib bo'lmaydi. Badiiy to'garaklarda kechuvchi pedagogik jarayonlar talabalarning badiiy-estetik qadriyat va hodisalarni baholash va ifoda qilish, ularga faol munosabat bildirish malakalarini shakllantirish imkonini beradi. Badiiy to'garaklardagi tarbiyaviy texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari badiiy to'garaklarning boy pedagogik imkoniyatlarga egaligini ko'rsatib, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar, bayramlarda talabalarning badiiy-estetik tarbiyaning sub'ektlari sifatidagi chiqishlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –B. 303.
2. Mustafoev Sh. Globallashuv sharoitida talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash texnologiyasi (Badiiy to'garaklar faoliyati misolida)// Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Samarqand.: SamDU. 2018. –B. 48.
3. Abduraximov B. Sotsiodinamika xudojestvennoy kulturi Uzbekistana: Avtoref. diss. ... dokt.iskusstvoved.nauk. – Tashkent, 2000. - 44 s.; Davletshin M.G. Kobilyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.; Karimova V. Psixologiya.

### **IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA MUSIQA DARSLARINING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

**Syomkina Adiba Minggirova**

Musiqa ta'limi kafedراسi katta o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan, nogironligi mavjud o'quvchi yoshlarni inklyuziv ta'lim orqali musiqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** inklyuziv taʼlim, inklyuziya, musiqiy tafakkur, pedagogik tamoillar, mezonlar, natija, uslub, imkoniyati cheklangan oʻquvchilar.

Oʻzbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida mamlakatimizda boʻlayotgan oʻzgarishlar va yangilanishlar mustahkam maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapdi. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarini shakllantirishda, shu bilan birga, ularning maʼnaviy dunyoqarashini kengaytirishda taʼlimning oʻrni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

Xayotning murakkab sinovlariga bolaligidayoq uchrayotgan nogiron farzandlarimizga gʻamxoʻrlik qilishimiz lozimligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Ana shu haqiqatni amalga oshirish yoʻlida koʻplab loyihalar ishlab chiqilmoqda va u hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Ana shunday dastur-loyihalardan biri inklyuziv taʼlim loyihasi boʻlib u ijtimoiy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi hamda Shvesariya konfederatsiyasi Oʻzbekistondagi elchihonasi hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv yoki integratsiyalashgan taʼlim tushunchasi maxsus eʼtiborga muhtoj boʻlgan bolalarning umumtaʼlim maktablarida bilim olishlarini nazarda tutadi. Tadqiqotning asosiy gʻoyasi imkoniyati cheklangan bolalarning nozik ruhiyatiga uning nogironligi oʻlaroq salbiy taʼsir oʻtkazilishiga yoʻl qoʻymaslik, uning boshqa bolalar bilan bir qatorda taʼlim olishi uchun barcha kerakli imkoniyat va sharoitlarni yaratib berish omillarini ishlab chiqishdan iboratdir. Inklyuziv taʼlimni joriy qilish barobarida nogiron degan tushunchaning inkor etilishi va har bir bola teng huquqli ekanini imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari bilishlari zarurdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar taʼlim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida “Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy taʼlim loyihasi” asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son “Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga taʼlimtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori respublika boʻyicha rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarning inklyuziv taʼlimtarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan oʻquvchi yoshlarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga koʻra maxsus yoki umumtaʼlim tizimida taʼlim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv taʼlim siyosati amalga oshirilmoqda. Inklyuziv taʼlim alohida yordamga muxtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda boʻlishi, ijtimoiy muxit talablariga javob bera oladigan boʻlib ulgʻayishi, oʻz kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish koʻnikmalarini egallay olishi, hayotga moslashib, umumtalim maktablarida sogʻlom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda oʻqiy olishi, ular bilan oʻzaro doʻstona munosabatga kirishishi, topshiriqlarga masʼuliyat bilan yondashish uchun qulayliklar tugʻdiradi. Shuni nazarda tutib, ushbu tadqiqot ishimizda inklyuziv talim asosida oʻquvchilar musiqa madaniyatini shakllantirishning oʻziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni talim muassasalaridan boshlab oliy taʼlimgacha boʻlgan uzluksiz taʼlim jarayonida yoʻlga qoʻyish uchun zaruriy pedagogikpsixologik yondashuv yoʻllarini aniqlash koʻzda tutilgan.

Shunga koʻra bir qator maxsus institutlashtirilgan markazlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- 1) Oʻquvchilarning ijtimoiy muhitdan ajralib qolganligi;
- 2) Rivojlanib borayotgan jamiyatda oʻz oʻrnini topa olmasligi;
- 3) Ijtimoiy hodimlarning bu masalaga boʻlgan munosabatlarida ayrim kamchiliklar borligi shular jumlasidandir.

Demak, mamlakatda inklyuziv taʼlimni rivojlantirishga qaratilgan takliflar talab darajasida oʻrganilmayotganligi va unga yetarlicha eʼtibor qaratilmayotganligi mazkur

tadqiqotning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Shu bois imkoniyati cheklangan o'quvchi yoshlar ham sog'lom bolalar kabi jamiyatda o'z o'rni borligini xis etishlari jamiyatning ma'naviy yangilanishida ma'naviy taraqqiyotning tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Inklyuziv ta'lim – davlatimiz tomonidan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan asosiy masalalarning kun tartibidan o'rin olganligi bilan va bu jarayonning o'qituvchipedagoglar oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ekanligi, ta'lim yo'nalishini joylarda amalga oshirish o'zining yangiligi bilan namoyon bo'lib kelmoqda. Olib borilayotgan tadqiqot bugungi kun uchun yangi hamda o'z natijalarini ochish borasida o'qituvchipedagoglar oldida turgan muammolar yechimini isbotlashga qaratilganligi bilan diqqatlidir.

Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda joylardagi XTVning halqaro YuNESEF tashkiloti bilan hamkorlikda "Inklyuziv" ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat muhitini shakllantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, 11ta tumanda jami 110 ta maktabda 210 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv tarzda ta'lim olishi aniqlangan. Manitoring natijalarining tahlillaridan bilish mumkinki, hozirgi kunda inklyuziv sinflari mavjud maktablar soni mamlakatimizda 117 ta bo'lib, inklyuziv sinflardagi imkoniti cheklangan o'quvchilar soni 378 nafarga yetgan

G'arbiy Yevropa mamalakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar vujudga keldi. Bu nazariyalar ma'lum darajada imkoniyati cheklangan bolalarning pedagogik psixologiyasining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bu borada J.Bruner, J.Piaje, A.Vallon, S.Xoll, Ye.Meyerman, K.Byuler, Ye.Dyurkgeym, D.Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin.

Jumladan, amerikalik psixolog olim S.Xoll "Har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarur", - deb ataydi. J.Bruner esa "Shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi", - deb uqtiradi.

Shuningdek, rus olimlaridan L.S.Vigotskiy, I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikol'skaya, V.C.Manova-Tomova, Yu.S.Alyonina, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogikpsixologik korreksiyalash masalalari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar. O'rta Osiyo mutafakkirlari Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G'azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Avaz O'tar kabi allomalarning asarlarida oila va jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotida pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to'g'risidagi ilmiy va ilmiy pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan. Hozirgacha mamlakatimizda ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'limtarbiya berishda inklyuziv ta'lim muammolarini G'.B.Shoumarov, R.Shomahmudova, A.Berdieva, O.U.Ablaev, D.S.Qaxarova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida muammolar nazariy jihatdan o'rganilgan. Mazkur tadqiqot ishida esa ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Izlanishlarimiz natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchilarni inklyuziv ta'lim asosida musiqa madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlarini tadqiq qilinganligi, shuningdek, sog'lom va imkoniyati cheklangan o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirish orqali jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri, xususan O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichidagi ahamiyatini chuqur anglab yetishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga to'xtaldik:

- inklyuziv ta'lim asosida o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirish omillari nazariy va amaliy jihatdan aniqlandi;
- o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirishda inklyuziv ta'limning roli masalalari tadqiq etildi;
- milliy musiqa durdonalaridan unumli foydalanish sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning ma'naviy barkamol bo'lib tarbiya topishlarida muhim omil bo'lishligi tahlil qilindi.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosa, taklif va tavsiyalaridan yosh musiqashunos tadqiqotchilar, inklyuziv ta'lim bilan shug'ullanuvchi va shug'ullanayotgan mutasaddi tashkilotlar, ijodiy uyushmalar faoliyatini rivojlantirishda hamda inklyuziv ta'lim asosida o'quvchilarning musiqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tashabbuslarni tizimli asosda amalga oshirish ishlarini belgilashda amaliy ko'mak beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtoyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. Qaxarova D.S. Inklyuziv talim texnologiyasi. Monografiya –T.: 2014. –B. 9
3. A.Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" –T.: 2000 yil
4. Qahorova A.A. – Musiqa madaniyati. Toshkent 1996.

## **BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA MUSIQIY QOBILİYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK METODIKASI**

**Kimsanov Oxunjon Iloxomjon o'g'li**  
Musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy cholg'ular haqida tegishli ma'lumotlarni to'plab, ularni idrok etishga qaratilgan adabiyotlar haqida yaxlit ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek maqolada milliy cholg'ularning ijroviy shakli - tuzilish va ko'rinishi bilan bog'liq tomonlari, ijro uslublari va ularga tegishli janrlar hamda nufuzli ijrochilar haqida bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv talabiga mos holda umumlashgan ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** metodika, milliy cholg'u, dutor, rubob, ud, nay, g'ijjak, chang, qonun, doira.

Ma'lumki, musiqiy cholg'ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o'z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an'analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning milliy ma'naviyatiga xos yaratilgan amaliy san'at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg'u asboblari egadirlar. Milliy musiqiy cholg'ular olami bu xususda ma'nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang - barang ekanligini e'tirof etib o'tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma'naviyati yuksak bo'lsa, uning tarixi va unga mos merosi ham ulkandir. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalq cholg'ulari rang - barang tarzda, o'ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg'u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O'tmishning zabardast shoirlari o'z asarlarida musiqiy cholg'ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo'nalishlarida qo'llanilib kelingan. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud, ayni paytda ham iste'molda bo'lib keladi. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyliги bilan ajralib turadi.



Davrlar o'tishi bilan, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomillashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manbalarda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining avval ikki torli, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomillashishi bilan bog'liqdir. Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan. Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir. O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida qaror topgan.

Kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholg'ular bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularning rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan XX asrga kelib xalq ijrochilik amaliyotida ommalashgan cholg'ularni o'rganib tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Buni Abdurauf Fitrat o'zining ijodida boshlab berib, qimmatli ma'lumotlarni bayon etadi. Shundan so'ng musiqashunos olimlar cholg'ushunoslik ilmining rivojida bir qator samarali tadqiqotlar olib boradilar. V.Belyayev, F.Karomatov, T.S.Vizgo, A.Malkeevalar shular jumlasidan bo'lib, ular O'rta Osiyo musiqa cholg'ushunosligi sohasining rivojiga samarali hissa qo'shdilar. Ularning tadqiqotlarida an'anaviy cholg'ular musiqiy madaniyatning asoslaridan biri ekanligi va xalq ma'naviyatining go'zal an'analari o'zida mujassam etib kelayotganligi yoritilgan.

XX asrning 30-40 - yillariga kelib cholg'ularni takomillashtirish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Bu jarayon O'zbekistonda kompozitorlik ijodiyotining jahon andozalariga mos rivoji bilan bog'liq edi. Ijrochilik amaliyoti ham shunga moslashib, simfonik orkestr rusumi doirasida o'zbek xalq cholg'ulari orkestrining iste'molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Amaliyotda mavjud cholg'ularni orkestr tarkibiga moslash ishlari negizida bir qator cholg'ularning oilaviy namunalari yaratildi. Natijada, simfonik orkestrga muqobil xalq cholg'ulari orkestri yaratildi. Orkestrning rang - barang ovozi tarannumini ta'minlash uchun rubobning prima, alt, tenor; dutorning prima, bas, kontrabas; g'ijjakning alt, qo'biz bas, qo'biz kontrabas; changning - bas, tenor, alt namunalari yaratildi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z davri musiqa cholg'ularini ikki guruhga bo'ladi: Mizrobli, noxunli, (Borbadd, tanbur, rubob) va butun rezanator qapqog'i bo'ylab tortilgan ochiq cholg'u asboblari (shohrux, chiltor, lira), chang (arfa). Olim, ohangi inson ovoziga yaqin turadigan cholg'u asboblari ud, rubobni batafsil ta'riflagan XVII asrning mashhur ud va chang cholg'usi ijrochisi Darvish Ali o'zining risolasida o'sha davrda qo'llanilgan cholg'u asboblari haqida batafsil ma'lumot bergan. U udni cholg'ular "Shohi" deb ataydi. Udning juft sozlagan o'n ikki tori bo'lgan. Farobiy davridagi dastlabki uddan bir muncha farq qilgan. Risolada yozilishicha chang cholg'ular homiysi Zuhroga bag'ishlangan. Ta'riflangan changning yetti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va yetti pardasi bo'lgan. Nay ham qadimiy cholg'u sifatida tilga olinadi. Yana risolada qonun, rubob, qobiz, musiqor, enbon nayi (xitoyda tarqalgan) ruhavza (olti tordan iborat noxunli) kabi cholg'ulari to'g'risida yozilgan. Darvish Ali ta'rif bergan cholg'u asboblaridan yettisasi: tanbur, chang, ud, qonun, rubob, qobiz, g'ijjak, nay o'sha davrda juda keng tarqalgan edi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abdul-lohilor, Mavlono Merik changi Buxoriy, Mavlono Qosim-Rabboniy, Sulton-Ahmadiy "Devona", rubobchilar aka-uka Shayx Shamsi-Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustozlarning nomlari tilga olinadi. G'ijjak cholg'uchisi Shoh Quliy-G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib kuylar ijro etgan va uning yaratgan muhammas ritmidagi peshravi "Husayniy" alohida ajralib turadi.

Cholg'ushunoslik ilmi fanda « organologiya » deb yuritiladi va cholg'u sozlarning shakllanishi, amaliyotda qo'llanilishi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu

fanning rivojida bir qator Sharq va G'arb olimlari qatorida o'zbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholg'ular ko'proq tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan. Cholg'ularning ilk tasvirlari qadimgi odamlarning istiqomat joylari g'orlarda, qoya toshlarda o'yib chizilgan, imoratlarning peshtoqlari, saroylarning devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan. O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llani ladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'u asboblari -rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarining musiqaning saprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi.

Mashhur musiqachilar qatoriga Mavlono Miraki Changiy, Darvesh Ahmadi Qonuni, Shoh Quli G'ijjakiy, Alijon G'ijjaki, Ustad Zaytuni G'ijjaki, Ustad Amir Qulixon Tanburi, Yusuf Mavdudi dutori, Hofiz Tanish, Hofizi Poyandan Qobuzi, Mavlono Qosim Qonuni, Ustad Sulton Muhammad Tanburi, Ustad Huseyn Udi kabi o'z kasbining ustalari hamda ijroda mohirlikka erishgan allomalar haqida tegishli ma'lumotlar bayon etadi. Zamonaviy jarayonda xonanda va sozandalikda mohirlikka erishgan namoyandalarning ijodi alohida o'rganilib nashr etilishi ahamiyatlidir. Zero, sozanda va xonandalar ijodini yoritishga bag'ishlangan monografiyalarda ularning hayoti, ijodiy faoliyati, ustoz - shogirdlik sabog'i, ijrochilik uslubi va maktabi, bastakorlik ijodi hamda ulardan namunalari keltirish an'ana bo'lgan.

Ayni paytda benazir ustozlar, ijrochilik san'atining zabardast namoyandalari Hojixon Boltayev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hoji Abdulaziz Abdurasulov (Mahmud Ahmedov), To'xtasin Jalilov (Ikrom Akbarov), Yunus Rajabiy, Faxriddin Sodiqov (Ravshan Yunusov), Orifxon Xotamov (S.Begmatov) Turg'un Alimatov (R.Qosimov), Muxtorjon Murtazoyev (S.Begmatov, A.Zokirov) lar ijodiga bag'ishlangan monografiyalar nashr etilgan.

Musiqiy cholg'ularning ta'rifi ya'ni shakl - tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bog'liq ma'lumotlar, asosan O'rta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, O'rta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholg'ulari ijrochilik amaliyotida o'z o'mini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning e'tiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov «Maqomot» kitobida quyidagicha bayon etadi: «Cholg'ularga bunday atroflicha qiziqishlar zahirida musiqiy asboblari ijrochilik faoliyatini ob'ektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi.

Hozirgi davrga kelib o'zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo'nalishi, xalq mumtoz musiqa yo'nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo'nalishi. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatiga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan : rubob, nay, g'ijjak, chang va doyra cholg'u asboblari.

Qayd etish joizki, xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta olish xususiyati taqozo etiladi. Xalq mumtoz musiqa yo'nalishiga xos bo'lgan cholg'ular guruhlari ko'proq kamer xususiyat kasb etishlarini nazarda tutib, joy, sharoit va muhitga asoslanadi.

To'liq ansambl tarkibi esa barcha cholg'ularni qamrab oladi, hattoki, g'ijjak, dutor, tanbur cholg'ularidan qo'sh holatda foydalanish katta imkoniyatlarni hosil qiladi. Bunda ansambl zabardast ovoz imkoniyatiga ega bo'ladi. Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi.

Musiqqa ijodiyotidan o'rin olgan janrlar negizida cholg'ularning tarkibiy guruhlarini tashkil etilib, ijro etiladi. Unga ko'ra cholg'u duetidan toki xalq cholg'u asboblari orkestrigacha bo'lgan cholg'u asboblari tarkibi tuzilgan va ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi. Qayd etish lozimki, orkestrning to'laqonli ovoz imkoniyatlariga ega bo'lish yo'lida Yevropa cholg'ularidan ham keng foydalaniladi. Ijrochilik amaliyotida shakllangan barcha cholg'u asboblari o'z xususiyatlari doirasida uch turga bo'linadi.

Taraqqiyot jarayoni esa har bir xalqning o'z cholg'u asboblari yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Cholg'ularning kosaxonasi qaysi jihozdan va uning katta - kichiklik hajmi, dastasining uzun - qisqaligi hamda torlar soni va nisbati davrlar o'tishi bilan rivojlanib takomillashib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V. Belyaev "O'zbekiston musiqqa asboblari", M., 1933 y
2. Begmatov S. "Maqom surnay yo'llari" T. 2004 y.
3. T.S. Vyzgo "O'rta Osiyoning musiqqa asboblari", T., 1980 y.
4. Ikromov I. "Doyra darsligi", T. 1997 y. Karomatov P. "O'zbek cholg'u musiqasi" T., 1972 y

## **BOLALARDA MUSIQA TERAPIYASI ORQALI PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISH**

**Fatxullaeva Munisa G'ayrulbek qizi-**

Musiqqa ta'limi kafedrasini o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada musiqqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini va uning bir tarmog' sanaladigan kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqqa madaniyati, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

Umumiy o'rta ta'limda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Asosan amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan musiqqa madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lim maktablarida musiqqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafas va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir. "Musiqqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

- O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;
- O'quvchilarda musiqqa san'atiga mehr, qiziqishni o'stirish;
- O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash"[2, 10-11].

Demak, musiqqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini xurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"[8, 4] Yuqoridagi

kabi jihatlarni bolalarda shakllantirishda pedagog asosiy rol o'ynashini hisobga olsak, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash musiqa madaniyati fanlarining sifat ko'rsatkichini belgilab berishini anglash qiyin emas. O'qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta'limda kasbiy ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Pedagogika oliy dargohlarining fan dasturlari mazmuni bo'lajak o'qituvchilarga kasb bo'yicha bilimlar berish, pedagog faoliyat sirlarini o'rgatish va talabalarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik mahoratini shakllantirishga ahamiyat berish zarur. Zero o'qituvchi "pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi"[3,11] zarur. O'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Mahorat – bu "ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir"[5, 26]. Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. "Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis" [9, 11] dir. Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko'rsatkichi;
- O'z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;
- Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;
- O'quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati turli ko'nikmalarga egalik bilan yanada oshib boradi. Ya'ni musiqa o'qituvchida shakllanishi zarur bo'lgan quyidagi ko'nikmalarni tavsiflash orqali uning shakllanish jarayonini, pedagogik mahoratga erishish bosqichlarini yanada teranroq anglaymiz:

**Birinchidan**, u professional tarzda tashkiliy qobiliyatlar: pedagog sifatida har doim o'zini tahlil etib borish, bolalar faoliyati ustidan tezkor nazoratni ta'minlash, bolalarning pedagogik ta'sirga bo'lgan munosabatini hisobga olgan holda, o'z vaqtida o'quvchini yo'naltirish va berilgan pedagogik vazifalarni to'g'rilashni oqilona amalga oshirish, belgilangan vazifalarga erishish uchun ko'rsatmalarni bajarish, bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, bolalarning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini hisobga olgan holda faoliyatni rag'batlantirish, dars, o'zlashtirishdagi talablarning eng optimal shaklini topish va ularni bolalarning individual xususiyatlariga va muayyan pedagogik sharoitlarga qarab o'zgartirish, vazifalarni aniq, qisqa va oson tushuntirish kabilar.

**Ikkinchidan**, tahliliy qobiliyatlar: olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va qo'yilgan pedagogik vazifalar bilan solishtirganda tahlil qilish, musiqiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida o'z tajribasini pedagogik nazariya bilan bog'lash, pedagogik vazifalarni ilgari surish va asoslash. Pedagog "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish"[1, 37] i zarur.

**Uchinchidan**, muloqot qobiliyatlari: musiqa o'qituvchisi bolalar va ularning ota-onalari bilan munosabatlar o'rnatadi, bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalaydi, har bir bolaga individual yondashishni ta'minlaydi. Zero, musiqiy va tarbiyaviy faoliyatning asosi muloqotdir. Bolalar bilan muloqot qilish qobiliyati ularga muhabbatsiz rivojlanmaydi. Jamoadagi munosabatlar ko'p jihatdan tarbiya, ta'lim va o'qitishdagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Bu o'qituvchining muloqot qobiliyatining mazmuni va ahamiyatini belgilaydi.

**To'rtinchidan**, loyihalash qobiliyatlari: pedagogik faoliyat natijalarini loyihalash qobiliyati, ularni amalga oshirish yo'llarini rejalashtirish, har bir bolaning va guruhning musiqa fanini o'zlashtirishini loyihalash, tarbiya va ta'lim natijalarini, bolalarni musiqiy tarbiyalash va o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, aniq vazifalarni ajratib ko'rsatish va shakllantirish. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlaymizki,

bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyati – bu maxsus bilim, ko'nikma va malakalar, tashkilotchilik qobiliyatiga egalik, kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasi, kasbda o'z-o'zini anglash, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, muloqot qilish va har bir bolaga to'g'ri yondashuvni topish qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Bu uning ijodiga bo'lgan ulkan qiziqish, o'z oldida turgan vazifasini tushunish, san'atdagi o'rni, yuksak shaxsiy madaniyati va kasbiy ishtiyoqi orqali yo'lga qo'yiladigan pedagog sifatidagi kelajagi hisoblanadi. Biz pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini o'rganar ekanmiz, yuqoridagi barcha jihatlar musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga to'liq taalluqli ekanligiga amin bo'lamiz. Musiqa o'qituvchisida pedagogik mahoratni shakllantirish shaxs madaniyatiga, o'sib borayotgan shaxsning o'z vaqtida va to'liq ijtimoiylashuviga hissa qo'shishga, bolani ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilganidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. "Talqin" nashriyoti. Toshkent., 2008-yil.
2. Ho'jayeva M. "Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi" O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil.
3. Mavlonova R, Abdurahimova R. "Pedagogik mahorat". "Fan va texnologiya nashriyoti". T., 2009-yil
4. Makarenko A.S. "Pedagogicheskie sochineniya": V 8 t. M.: "Progress", 1983–1986.
5. Markova A.K. "Psixologiya professionalizma " – M.: "Znanie", 1996.
6. Umarov E., Karimov M., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. "Estetika asoslar". Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009-yil.
7. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat". "Iqtisod-moliya nashriyoti", Toshkent., 2011-yil.
8. Yusupova N. "Musiqa savodi, metodikasi va ritmika". "Musiqa" nashriyoti. Toshkent., 2010-yil

#### **NOTALASHTIRISH VA KOMPYUTER DASTURLARIDA ISHLASH FANINI O'QITISHDA SIBELIUS DASTURI ORQALI TALABALARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**Umarova Ayman Iles qizi**

Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim dargohlarida musiqa ta'limi fanlarini zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qitilishini samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Xususan, Sibelius nota muharririning o'qituvchi va talabalar faoliyatidagi o'rni va ahamiyati atroflicha ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa talimidagi axborot texnologiyalar, Sibelius, nota muharrir, kompyuter dasturi.

Hozirgi kunda musiqa bo'limlari talabalar tomonidan o'quv jarayonini intensivlashtirish, o'qitishni individuallashtirish, qayta aloqa o'rnatish, talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan materiallarni optimallashtirish uchun AKTdan yetarli foydalanilmayotganligi kuzatilmoqda.[3] Kompyuter bilan jihozlangan sinf xonalar nafaqat axborot texnologiyalarini o'rganish, balki ularni mutaxassislik fanlari, xususan, musiqiy ta'lim yo'nalishi predmetlarini o'rganishda qo'llash uchun ham zarur. Musiqa fanlari o'qituvchilari dasturchilar bilan doimiy muloqotida bo'lislari kerak.

Musiqa bo'limi talabalar va o'qituvchilari uchun "Encore", "Final", "Sibelius" kabi kuchli va ommabop musiqa dasturlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Sibelius musiqa nota muharriri 1986 yilda Ben va Jonatan Finnlardan tomonidan ixtiro qilingan va birinchi marta 1998

yilda ishlab chiqarilgan. Dasturning va uni ishlab chiqargan kompaniyaning nomi finlyandiyalik bastakor Yan Sibelius nomiga to'g'ri keladi. Bu nom kompaniya asoschilarining familiyasi – Finn bo'lgani uchun ham tanlangan degan fikrlar mavjud.

Sibelius nota muharriri - eng kuchli zamonaviy nota yozuvi tizimlaridan biridir. Unda 450 dan ortiq turli ish asboblari mavjudki, ularning har biri bilan turli kalitlarda yoza olish maxsus tizimlari ko'zda tutilgan.

Sibelius nota muharririni musiqiy ta'lim mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan institut talabalari tomonidan o'rganish tizimli, ilmiy, yaxlitlik, ko'p funkcionallik, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslangan.




Sibelius nota muharriri belgisi.

Ushbu dasturdan foydalanish usuli murakkablikni oshirib borish prinsipi va har bir talabaning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda bir necha ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- to'g'ridan-to'g'ri dasturning texnik elementlarini o'rgatish;
- maxsus musiqiy fanlarni o'rganishda dasturdan foydalanish;
- kasbga yo'naltiruvchi musiqa fanlarini o'rganish jarayonida dastur elementlarini joriy qilish;
- talabalarning kasbiy darajasini oshirish uchun dasturdan foydalanish;
- maktabda va bolalar bog'chasida pedagogik amaliyotni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun dastur elementlariga tayanish;
- musiqa talimi fanlarini pedagogika, psixologiya va boshqalar kabi umumta'lim fanlari bilan bog'lash uchun dastur elementlaridan foydalanish

Musiqa muharriri bilan tanishganidan so'ng talaba musiqa-kasbiy faoliyat sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun undan foydalanish tajribasini oladi, musiqiy kompyuter savodxonligi asoslarini o'rganadi, pedagogik va ijodiy faoliyatda innovatsion ko'nikmalarni qo'llashni, bolalar musiqa ijodiyotini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini o'rganadi.





Sibelius kompyuter dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, maxsus musiqiy fan darslarini o'qitish uchun mamlakatimizda yangi yondashuv ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Rossiyaning Sankt - Peterburg shahrida individual ta'lim darslariga nisbatan turli xil tembr, temp, aranjirovka ishlarini bajarish bilan kompyuter dasturlarini qo'llashning yangi usuli sinovdan o'tkazilgan. "Jo'navozlik", "Qo'shimcha cholg'u", "Cholg'u ijrochiligi va ansambl" fanlaridan kompyuter dasturidan foydalangan holda talabani musiqiy materiallaridan birgalikda foydalanish bo'yicha muvaffaqiyatli tadqiqotlar o'tkazilgan

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda, ayniqsa musiqa ta'limida, mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida zamonaviy kompyuter dasturlardan foydalanish zarur va muhim. Biroq, kompyuter - talaba, o'qituvchi, qolaversa insonning yordamchisi bo'lib qolishi yanada muhim. Uning ijodkor inson o'rniga ish bajaruvchi vositaga aylanishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari ko'nikmalarini va ularni qo'llash usullarini muvozanatini saqlash, o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muammoning to'g'ri yechimini topish o'qituvchining tajribasi, mahorati va shaxsiy insoniylik dunyoqarashlariga bog'liq.

#### Adabiyotlar:

1. Getman V.V. Musiqachi-o'qituvchi shaxsini shakllantirishning psixologik-pedagogik jihati // O'rta kasb-hunar ta'limi. 2018 yil 9-son.
2. Odinokova E.V. Texnik universitetning ta'lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari // O'rta kasb-hunar ta'limi. 2019 yil. 8-son
3. Antonov L. Yozuvlarni tiklash // "Yosh texnik", No 2. -M., 2016 yil.

### XORSHUNOSLIK FANINING O'QITILISHIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

**Xo'jamqulov Pirimqul**  
Musiq ta'limi kafedrasida dotsent v.b.  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab musiqa o'qituvchilariga xordirijyorligi bo'yicha qo'yiladigan pedagogik malaka talablari, sistemalilik va davomiylik prinsiplari, darsda o'quvchilarning onglilik va aktivligi, musiqa darslarida ko'rsatmalilik, musiqa materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi prinsipi, musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi prinsiplari keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Dirijyor, xor, vokal, standart, diksiya, intonatsiya, registr.

Maktabda musiqa fani musiqashunoslik va pedagogikada qo'lga kiritilgan yutuqlarga tayanadi. Bu prinsip o'quvchilarni hozirgi musiqa-pedagogikasida ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi. Shubhasiz, musiqa pedagogikasida va amaliyotida mavjud barcha bilimlarni bolaga berishning iloji yo'q. Biz o'quvchiga asosan o'zbek musiqasining boy imkoniyatlaridan va umumbashariy musiqa asarlaridan ayrim namunalardan nazariy hamda amaliy bilim-malakalarni berish imkoniyatiga egamiz, xolos. Ana shu ilmiy bilimlar ta'limning mazmunini belgilovchi muhim hujjatlar - musiqa madaniyati fanidan dastur va darsliklarda o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir dars o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi - musiqiy ta'limtarbiyada asosiy omildir.

Dars jarayonida o'quv materialining bolalar bilim va tajribasiga mosligi, bolalar ovozing rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarni bolalar fikriy qobiliyatiga mos tahlil etish va boshqalar - darsning ilmiylik prinsipini tashkil etadi.

Ilmiylikni sistemaliliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o'quv elementlari hamda keyingi darslarning ham o'zaro mantiqiy bog'lanishi - sistemalilikning asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bolalar bilim, malakalari aytm mashqlari darajasida xos tanlash va ularni soddadan - murakkabga, ma'lumdan-noma'lumga qarab o'zlashtirishni ta'minlash- sistemalilik demakdir.

Darsning har bir elementi, kelgusi mashg'ulotning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni amalga oshirilishi esa davomiylik demakdir. Darsdagi predmetlar aro aloqa (adabiyot, tasviriy san'at, tarix) mazkur prinsiplar asosida darsning unumli, samarali o'tishini ta'minlaydi.

#### 1. Sistemalilik va davomiylik prinsiplari,

ilmiylik va bilimlarning bolalar uchun tushunarli bo'lishi prinsiplari o'zaro uzviy bog'langan. Sistemalilik va davomiylik prinsipiga qat'iy amal qilish natijasidagina o'quvchilar musiqa fanidan bilimlarga ega bo'lishlari mumkin. Demak, ilmiylik sistemalilik va davomiylik musiqa ta'limining mazmunini belgilovchi hujjatlarda ham o'qituvchi faoliyatida ham o'z ifodasini topadi. Bu prinsipni amalda tadbqiq etish ta'lim mazmunini takomillashtiradi, o'quvchilarning musiqiy o'quv faoliyatini aktivlashtiradi.

#### 2. Darsda o'quvchilarning onglilik va aktivligi:

Onglilik ta'lim jarayonida o'quvchilarning faollik ko'rsatishi bilan bog'liq, chunki ta'lim jarayonida o'quvchilarni musiqiy bilish faoliyatini aktivlashtirmasdan turib, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishiga erishib bo'lmaydi. O'quvchi dars jarayonida ongli - emotsional o'zlashtirgan bilimlardangina amaliy faoliyatda bemalol foydalanishi mumkin. Ta'limda onglilik va aktivlik o'zaro uzviy bog'langan didaktik kategoriyalardir. Har qanday faollik asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik deganda biz o'quvchining ham o'qish, ham musiqiy faoliyatlarini nazarda tutamiz. O'quv faolligi umumiy faollikning ajralmas qismi bo'lib, u musiqiy bilimlarni egallash, bilishga, anglashga qaratilgan faoliyatdir. Demak, bilish faolligi bola faoliyatining mahsuli bo'lib, bilimlarni egallashda faol ishtirok etish, kuchaytirilgan faoliyat ko'rsatish demakdir.

Onglilik va aktivlik-didaktikaning yetakchi prinsiplaridan, chunki bilimni o'zlashtirish - o'quvchi amaliy faoliyatining asosiy sifati bo'lgan - bilish jarayoniga bog'liqdir.

Musiqa idroki kishi hayoti tajribasini boyitadi, voqelikni badiiy his etib, bilish qobiliyatini o'stiradi, fikrlash xususiyatini rivojlantiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, musiqa san'atlar ichida o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega. Musiqa tinglovchisi ham kuylovchisi, ijrochisi ham bastakor belgilagan sur'at (temp)ga sozlanishi, shu maromda kuylashi shart. Aks holda jaranglayotgan musiqa va uning tinglovchisi orasida uzilish hosil bo'lib, idrok buziladi. Ana



shuning o'zi ham musiqa mashg'ulotlarida, ayniqsa onglilik va aktivlik nihoyatda muhim rol o'ynaydi. Binobarin, o'quv materialini osondan-murakkabga va ma'lumdan-noma'lumga o'tish prinsipi asosida bolalarning ongli musiqa idrokini, aktivligini rivojlantirish yo'li bilangina ularning musiqa madaniyatini shakllantirish mumkin. Zero, mashhur pedagog - olimlarning «Bolalarni musiqaga qanday qiziqtirmoq kerak?» degan muammoni o'rtaga tashlashi bejiz emas. Darsda musiqa materialini ongli ravishda o'zlashtirishda ilmiylik muhim rol o'ynaydi, chunki u musiqa asarlarining nazariy asoslarini, ifoda vositalarini bilib olishga asosiy mezon hisoblanadi.

O'quvchilarning darsda onglilik va aktivligi ayniqsa, aytim malakalarini shakllantirish uchun zarur. Bunda o'qituvchining tushuntirish vositalari maqsadga muvofiqligi, aniq va ravshanligi, bolalar nutq boyligiga mosligi, qo'shiqlar esa ular ovozigga mos tushishi shart. Notalarni o'rganishda esa onglilik va aktivlik musiqaning nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri o'rganish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

### 3. Musiqa darslarida ko'rsatmalilik:

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok etsa, bilish shunchalik osonlashadi. Bu qonuniyat ancha ilgari Ya.A.Komeskiy, G.Pestolotsi, K.D.Ushinskiy kabi buyuk pedagoglar tomonidan asoslanib berilgan edi.

Ko'rsatmalilik musiqani o'qitishning ham muhim qonuniyati hisoblanadi, chunki bu fanning tabiati ko'rsatmalilikni ko'proq talab etadi.

Musiqa pedagogikasi fani namoyandalaridan biri N.L.Grodzenskayaning ta'kidlashicha: «Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Masalan, o'qituvchi mashq yoki qo'shiq ohangini chalib, kuylab ko'rsatganda ohang va so'z asosan quloq bilan «ko'rib» qabul etiladi. Musiqa tinglaganda ham asar tahlilida ham ohang ko'rgazma sifatida chalib «ko'rsatiladi».

O'qituvchining chalishdagi qo'l harakatlari, dirijyorligi, yuz ifodasi, doskaga ilingan qo'shiq plakati, mashq yozuvi ham ko'rgazmali vositadir, ammo u musiqa sadosi ko'rgazmaliligiga yordamchi, ikkinchi darajali vositadir. Buni shu bilan isbotlash mumkinki, musiqani ko'zi ojiz kishi idrok etadi; ammo u tasviriy san'atni idrok etolmaydi, tabiat go'zalligini ko'rolmaydi, ularni musiqa tasvirida tasavvur qilishi mumkin. Ammo boshlang'ich sinflarda asar syujetiga xos kartinalar asar badiiy mazmunini konkret tasavvur etib idrok etilishiga yordam beradi. Ayniqsa, doskaga ohangning grafik chiziqlar bilan ifodalanishi, klaviatura orqali musiqa tovushlarini chalib ko'rsatish dastlabki idrok malakalarini shakllanishiga muhim rol o'ynaydi. O'rta sinflarda esa ko'rgazmalilik nota yozuvlari orqali konkret va obsolyut sistemaga o'tadi.

### 4. Musiqa materialining bolalar bilimi va malakalariga mosligi prinsipi:

Mazkur prinsip asosan dasturdan o'quv materiallarini va bu materiallar asosida dars mazmuni tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfnig umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart.

Har bir sinf o'quvchilarining bilim va malakasini hisobga olib, darsning yillik taqvimiy rejasini tuzish uchun musiqa darslarining o'quv dasturida o'qituvchi uchun asarlarni tanlash imkoniyati beriladi. Mazkur xususiyat bilan ham musiqa darsi boshqa fan darslaridan farq qiladi. Bunda qo'shiq kuylash, tinglash uchun asarlar, vokal-aytim mashqlari, musiqa savodi materiallari, asarlar tahlili uchun atamalar va bastakorlar ijodiga xos ma'lumot hamda dalillar hayotiy misollar bilan bolalarning bilim, malakalariga mos holda tanlanadi hamda dars rejalari tuziladi.

Agar boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini mutaxassis o'qituvchi olib bormagan bo'lsa, tabiiyki dastur o'zlashtirilishi ko'pincha bir tomonlama - u ham bo'lsa, asosan qo'shiq o'rganish bilan kifoyalangandir. Demak, bolalarning bilim darajasi va musiqa malakalari orqada qolgan, shuning natijasida ular 5-sinf o'quv materiallarini o'zlashtirishga qiynaladilar. Bunday holda o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quv materiallarining eng asosiy va zaruriy qismlarini o'quv yilining birinchi yarmida «tezlashtirib o'qitish metodlari» bilan o'tib olib, so'ng 5-sinf materiallarini o'tishga boshlaydi.

Umuman olganda mazkur didaktik prinsip barcha sinflarda darsga tayyorgarlik ko'rish jarayoni va uni sinfda amalga oshirish vaqtida qo'llanilib boriladi.

5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustahkamligi prinsipi:

Mazkur prinsipni bilim va malakalarning chuqurligi, mustahkamligi va turg'unligiga erishish uchun ularning hayotiyligini ta'min etish lozim, ya'ni mazkur asar va uning ijro uslubi madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil etish lozim.

Ikkinchidan, asarlar tanlashda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

a) asarning bolalar badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi:

b) musiqa ta'limi, ya'ni bilim berilishiga bo'lgan xususiyati:

v) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqtirish va ularni to'la o'zlashtirishiga erishish.

Darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalar majmui uchun musiqa darsi amaliyotidagi takrorlanish va qaytarish xususiyati (qo'shiqni jumalarga bo'lib qaytarib-qaytarib o'rganish, keyingi darslarda kuylash, musiqa asarlarini qayta tinglash) muhim rol o'ynaydi. Shu bois musiqa darslarida o'quvchilar tomonidan daftar tutishga ham unchalik hojat yo'q, chunki barcha bilimlar asosan dars jarayonida olinadi. Kuylash va tinglash malakalari esa amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Darsda olingan har bir yangi bilim elementi dars faoliyatida kuylanib o'zlashtiriladi va u keyingi darslarda keng qo'llanib doimiy bilim-ko'nikmaga aylanadi. Bu xususiyati bilan ham musiqa darsi boshqa fanlardan farq qiladi.

Ta'lim prinsiplari o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiradigan didaktik kategoriyalardir. Respublika umumta'lim maktablarida musiqa ta'limtarbiya Konsepsiyasi musiqa ta'limi mazmunini yanada takomillashtirish, uni hozirgi davr talablari asosida qayta isloh etish, musiqa ta'lim-tarbiyaning milliy asoslari bilan boyitish, o'quv dastur amallari va darsliklarida ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni chiqarib tashlash, musiqiy o'quv materialining bolalar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash kabi muhim tadbir-yo'nalishlar alohida qayd etib o'tiladi. Shu bois, o'qituvchi umumdidaktik prinsiplar bilan bir qatorda musiqa ta'limining o'ziga xos prinsiplarini ham yaxshi bilishi va ta'lim jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

Biz yuqorida maktabda musiqa ta'limining umumdidaktik hamda o'ziga xos prinsiplari bilan tanishib, ularning ta'riflari haqida muayyan tushunchalarga ega bo'ldik. Ta'lim prinsiplari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, bir-birini to'ldiradigan yaxlit bir pedagogik hamda metodik talab bo'lib, ularga qat'iy amal qilish dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarni puxta musiqiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, musiqiyijodiy qobiliyatlari, imkoniyatlarini tobora kengaytirishga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda «musiqa madaniyati» predmeti o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq metodikasining o'ziga xos prinsiplarini ham ilgari suradi. Bular- emotsionallik va onglilikning birligi prinsipi, badiiy va texnik birlik prinsipi, lad, ritmik hissiyot va shaklni his etish birligi prinsiplari. Bu prinsiplar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, musiqaga qiziqish, did tarbiyasi va nihoyat musiqa madaniyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Qudratov I. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil qilish va ishlash metodikasi. - Toshkent, Fan va texnologiyalar nashriyoti 2006y. 126 b

2. Toshmatov E. Dirijorlik. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008y

3. G.Mansurova "Xorshunoslik va xor jamoalari ustida ishlash" T.:2008 Yangi nashr nashriyoti

4. Ro'ziev Sh. Xorshunoslik. T.; O'qituvchi. 1987.

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, shart-sharoitlari va uning mazmuni, mohiyati, ahamiyati va zaruriyatiga oid ma'lumrlaryoribib berilgan bzlib, kelajakda talabalarni pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish omillari sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, pedagogika, talaba, ustoz shogirt.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan xatti-xarakatlar shunga guvohlik beryaptiki, hozirgi kunda ta'lim olishga qaratilgan vaqtning katta qismi tushuntirish, yangi bilimlarni berishga sarflanadi. Ta'lim dasturlarini qayta qurish ushbu nuqtainazardan qaraganda birinchi navbatda ta'lim olish vaqtini qayta taqsimlashga, shuningdek pedagoglar tomonidan talabaga beriladigan ma'lumotning mazmuniga, uni o'zlashtirish va qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i bilan axamiyatli ekanligini ilgari surmoqda.

Mazkur jarayonda ta'lim olish jarayonini boshqarish va nazorat qilishga jiddiy e'tibor talab qilinadi. Birinchi navbatda ta'lim olishni nazorat qilishni tubdan o'zgartirish kerak, chunki u faqatgina baho qo'yish bilan cheklanadi xolos. Chunki baho qo'yish usulida asosiy e'tibor ta'lim berishdan maqsad ko'zlangan natijaga erishishga emas, yuqori baho olishga qaratiladi. buning natijadorligi mazkur jarayonda kreativ va kommunikativ yondashish bilan belgilanadi. Bu esa o'quv jarayonida motivatsiya masalasi bo'yicha jiddiy ishlash kerakligini talab qiladi. Ta'lim sohalari borasida kreativ va kommunikativ yondashish quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

- ilmiy tadqiqot o'tkazish tajribasiga ega bo'lish;
- fan sohasi bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;
- boshqaruv-menedjerlik tajribasiga ega bo'lish;
- konsalting ishi bo'yicha tajribaga ega bo'lish.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunday talablarga javob beradigan va yetarli tayyorgarlikka ega o'qituvchilarni topish oson emas. Bunday o'qituvchilarni tayyorlash uchun oliy ta'lim muassasalari tashkiliy jihatdan transformatsiya jarayoniga tortilishlari lozim. Transformatsiya jarayoni oliy ta'limda innovatorlik kompetensiyasini rivojlantirishga shart- sharoit yaratib beradi. Bu jarayonning o'ziga xos xususiyati shuki, u uzluksiz xarakterga ega bo'lmog'i kerak. Oliy ta'lim muassasalarini transformatsiya qilish uchun turli xil takliflar bildirilgan. Ularning ichida e'tiborga loyiqlaridan biri bo'lib Jeyms Dudershtadt tomonidan ishlab chiqilgan yondashuv hisoblanadi. U universitetlarga quyidagi yo'nalishlarda ishlashni taklif qilgan: transformatsiya jarayonida saqlanib qolishi kerak bo'lgan asosiy qadriyatlar va rollarni aniqlab olish. Masalan: rollarfundamental tadqiqotlar va ilmiy salohiyat, boshqaruvni taqsimlanishi. Qadriyatlar: akademik erkinlik, ta'lim oluvchilarga qo'yiladigan talabning to'g'ri asoslanishi, ta'limning o'z ustida ishlashga yo'naltirilganligi, tanqidiy yondashuv. Jamiyatga quloq solish va uning o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini tushunib yetish, olimlar jamoasini raqobat muhitiga tayyorlab borish.


Yuqorida qo'yilgan vazifalar oliy ta'lim muassasasiga loyihaga yo'naltirilgan kreativ ryondashuv asosida talabalarni prdagogik faoliyatga muhim ahamiyat kasb etishini belgilaydi.

Respublikamizda talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularda ijodkorlikni tarkib toptirish sohasida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirgan olim Sh.Sharipovning fikricha, ijodkorlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanib, uni quyidagi belgilariga ko'ra tasniflash mumkin: ijod turi (texnik, texnologik, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik, didaktik, kasbiy, aralash); ijod darajasi (mono ijod, multi ijod, mega ijod); ijod qamrovi (ixtisoslik, mutaxassislik, bilim sohasi, tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy, mintaqalararo, xalqaro); ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli); ijodning shakli (innovatsion, ilmiy-tadqiqotchilik, ta'limiy, investitsion, aralash); umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; yangilikni amaliy qo'llash); yaratilgan ijod mahsulining

ma'nosi va murakkabligiga ko'ra ratsionalizatorlik taklifi; ixtiro; kashfiyot o'ziga xos ahamiyatga ega sanaladi.

Kreativlikni tasniflashga doir yuqoridagi yondashuvdan ma'lum bo'ladiki, ijodkorlik hamma vaqt subyektning ijodiy faoliyatini talab etadi. SHu bilan birga mazkur tushunchaga berilgan ta'riflardan ijodkorlik hodisasini izohlash murakkab ekanligi anglanadi.

Kreativlikni rivojlantirish ijodiy jarayonni tashkil etish, shaxsning ijodiy salohiyati, ijodiy fikrlash, ijodiy faollik, ijodiy qobiliyat va ijodiy faoliyatni tarkib toptirish bilan o'zaro aloqador ekanligini ko'rsatdi (5-rasm).



1-rasm. Kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning tarkibiy qismlari

Ijodiy jarayon o'zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri – intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi – intuitiv fikrlash jarayonida qo'lga kiritirilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan va intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida mantiqiy fikrlash vositasida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko'rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog'liq shakllarida mutlaq o'z aksini topadi.

Ijodiy salohiyat – bu murakkab integral tushuncha bo'lib, o'zida ijtimoiy axloq me'yorlari va axloqiylik doirasida turli sohalarda faoliyatni amalga oshirishga doir shaxsning bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy intilishlari yig'indisini aks ettiruvchi tabiiy-genetik, ijtimoiy-shaxsiy va mantiqiy komponentlarni aks ettiradi. Bo'lajak defektologlarda ijodiy salohiyat shaxsiy qobiliyat, bilim, ko'nikmalar tizimi sifatida shaxsiy o'zlikning ahamiyatini anglash, o'quv faoliyatiga ijodiy yondashuv, o'z-o'zini namoyon etishga intilish, hayotiy maqsadlarning anglanganligi, ijodiy faoliyatga yo'nalganlikda namoyon bo'ladi.

Ijodiy fikrlash insonning muammoli vaziyat sharoitida obyektlar o'rtasidagi yangi aloqalarni izlab topish, mavjud tajribalarga asoslanib, yangi harakat usullaridan foydalanish, muvaffaqiyatli yechim topishi uchun zarur jarayon bo'lib, verbal-mantiqiy, ong osti va intuitiv-amaliy komponentlar birligini aks ettiradi. Ijodiy jarayon tuzilmasida ijodiy fikrlash motivatsiyasi asosiy o'rinni egallaydi. U bilish va subyektiv ahamiyatga ega motivlarda o'z ifodasini topadi. Ijodiy fikrlashning asosiy mexanizmi intellektual faollikdir. Intellektual faollik shaxs ijodiy salohiyatining muhim tayanch komponenti sifatida aqliy faoliyatning intellektual va motivatsion omillarini aks ettiradi. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda intellektual faollik uch darajada namoyon bo'ladi: reproduktiv, evristik va kreativ.

Ijodiy qobiliyat – bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oya farazini ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlardan foydalanish, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash hamda yechimini topish, natijada yangi original mahsulotlar yaratish (ilmiy kashfiyot, ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va boshqalar) sifatleri majmuidir.

P.Ergashev, G.Gozibekova, G.Baykunosovalar ta'kidlab o'tishganidek, shubxasiz yuksak ijodiy kobilyatlar qandaydir yagona va xatto bir necha omilning emas balki pedagogik-psixologik shart-sharoitlarning kattagina kompleksi maxsulidir. Biroq ushbu inkor etish kiyin bo'lgan mulohazani e'tirof qilish, birinchidan, kreativlikni rivojlantiruvchi bir kator omillarni sun'iy xosil kilishning iloji yo'q, degani emas, ikkinchidan, psixik taraqqiyotning kompensatsiya qonuniga ko'ra, muayyan omilning etishmayotgan ta'siri boshka omillar bilan muayyan darajada qoplanishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas.

Xususan, bir qator tadqiqotlarda maxsus uyushtirilgan mashg'ulotlar yordamida shaxs ijodiy qobiliyati taraqqiyotida ijobiy dinamikaga erishish mumkinligi isbotlanmoqda. Jumladan, o'quvchilar bilan art-terapiya va improvizatsiya usullari vositasida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilganda kreativlikning qator ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Ijodiy faoliyat – bu subyekt faoliyatining o'z mehnatiga (ishdan qoniqish, uni bajarish jarayonida yangilikka intilish, muammo yechimini topishda ijodiy motivatsiya) munosabati va masalani ijodiy hal etish (avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda faoliyat usullarini yangi holatga mustaqil ko'chirish, muammoli, ma'lum obyekttni yangi funksiyasini ko'ra bilish) jarayonidir.

Ijodiy faoliyat o'zida quyidagi muhim jihatlarni aks ettiradi: tizim ichida va tizim o'rtasidagi bilim va ko'nikmalarni yangi tizimga qisqa va uzoq muddat ichida o'tkazishni mustaqil amalga oshirish; kutilmagan vaziyatda (holatda) yangi muammoni ko'ra bilish; obyekt tuzilishini ko'ra bilish; muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish; yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma'lum bo'lgan usullari bilan uyg'unlashtirish; muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

Ijodiy faoliyat o'zida quyidagi muhim jihatlarni aks ettiradi: tizim ichida va tizim o'rtasidagi bilim va ko'nikmalarni yangi tizimga qisqa va uzoq muddat ichida o'tkazishni mustaqil amalga oshirish; kutilmagan vaziyatda (holatda) yangi muammoni ko'ra bilish; obyekt tuzilishini ko'ra bilish; muammoni hal etishda muqobillikni hisobga olish; yangi muammolarning yechimini izlab topishni ijodiy faoliyatning avvaldan ma'lum bo'lgan usullari bilan uyg'unlashtirish; muammolarni hal etishda butunlay yangicha yondashuvni qaror toptirish.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev.Sh.M Erkin va Farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston,2017 : Xalq so'zi 2016 yil 15 dekabr., 2017. № 247. – 2 b.

2. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston Respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1975, 71-72 b.

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I-t.Toshkent, 1968, 151 b.

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA MUSIQA MASHG'ULOTLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIB BORISH**

**Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna**

Musiqa ta'limi kafedراسi katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bu maqolada berilgan metodik tavsiyalar va musiqiy material maktabgacha ta'lim muassasalari - bolalar bog'chalarida bo'lajak musiqa rahbarlarining zamon talablari asosida musiqiy mashg'ulotlarni olib borishiga qaratilgan. Maqolada ilmiy, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar majmuasi bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko'nikma hamda malakalarni tarkib toptirishda yaqindan yordam beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktabi, o'qitish metodikasi, san'at va madaniyat, maktab musiqa fani, uslubiy tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi ekan, demak, ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni aynan maktabgacha ta'limdan boshlash lozimligi ko'p bora uqtirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391- son "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangidan rekonstruksiya qilindi, xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurildi, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi, ta'lim-tarbiya berish jarayoni jadallashdi, yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish samaradorligi oshirildi. Buning hammasi kelajak avlodning yaxshi ta'lim tarbiya olishi uchun.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy tarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimdagi olam kabi konkret mashg'ulotlarda bolalarning abstrakt fikrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o'sib borsa, musiqa mashg'ulotlarida obrazli fikrlashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go'zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi.

Turli uslublardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqiy mashg'ulot kichkintoylarda badiiy nafas zavqini uyg'otadi, musiqaga qiziqishini o'stiradi. Musiqa mashg'ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni musiqa mashg'ulotlarini o'qtishga doir metodik tavsiyalar, mashg'ulotlarning reja namunalari, bog'chalarda o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlar, tadbirlar senariylari batafsil yoritilgan ushbu usuldan unumli foydalangan holda amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz.

Kichkintoylarning musiqiy uquv va qobiliyatlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

- musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);
- tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash). Bolalarning musiqiy qobiliyatlari musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Bolalar bog'chalarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kichkintoylarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional histuyg'ularni hosil qilish yo'li bilan ularning musiqaga haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;
- bolalar ovozi tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish;
- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;
- musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish;
- musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlarimiz jo'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;
- musiqa mashg'ulotlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish.

Musiqa mashg'ulotlarida bola hayotni, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bog'chada musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan musiqa mashg'uloti kichkintoylarda badiiy-estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini shakllantiradi, ijodiy fikrlash qobiliyati va nuqtini o'stiradi. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanik malakalarini shakllantirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'lim,

tarbiyaviy ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarini bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. "Musiqqa rahbari tomonidan yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobiy ta'sir etadi. Bu ishda bolalar bog'chasi pedagogik jamoasining ishtiroki va faolligi juda muhimdir".

Bolalar bog'chalarida musiqqa mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda milliy musiqqa ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko'nikmalar tarkib toptiriladi. Bu mashg'ulotlardagi har bir faoliyat turi bolalarning musiqiy didini rivojlantiradi.

Musiqiy mashg'ulotlar oldiga qo'yilgan har qanday maqsad va vazifalarni amalga oshirish, avvalo, musiqqa rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bog'liq.

Musiqiy mashg'ulotlar bog'chada o'tiladigan boshqa mashg'ulotlardan ancha farq qiladi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- musiqqa mashg'ulotlari musiqqa savodi va ijrochilikka doir bir necha faoliyat turlaridan (qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish, musiqqa savodi, bolalar musiqqa cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish) tashkil topadi;

- bu mashg'ulotlar boshqa mashg'ulotlardan o'zining ifoda vositalari, ya'ni "tili" bilan farq qiladi. Tasviriy san'at ranglar bilan, adabiyot so'z bilan, musiqqa esa tovushlar orqali vujudga keladigan ohanglar vositasida insonga ta'sir etadi;

- musiqqa mashg'ulotlari bolalarning ruhiyatiga, emotsiyasiga faol ta'sir ko'rsatib, ularni quvontiradi, ijodiy kechinmalar hosil qilib, ma'naviy ozuqa beradi;

- musiqqa mashg'ulotlari jismoniy tarbiya, rasm, odobnoma, atrofimizdagi olam kabi mashg'ulotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqiy mashg'ulotlarni olib borishda musiqqa rahbari kichkintoylarning yoshi va qiziqishlarini e'tiborga olishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materiallarining mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'lim, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy saviyasi, bolalar yoshiga mosligining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa mashg'ulotlarining tuzilishi quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

1. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish.
2. Musiqqa tinglash.
3. Musiqqa savodi.
4. Qo'shiq kuylash.
5. Bolalar musiqqa cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish.

Endi har bir faoliyat turiga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

- musiqiy-ritmik harakatlar. Milliy ruhni o'zida aks ettirgan xalq qo'shiqlari, laparlari bolalarning olamni badiiy his etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Musiqiy obrazlarga muvofiq turh xarakterdagi harakat va raqslarni, turli obrazlarni tasvirlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ritmik harakatlar musiqiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishda juda muhimdir. Musiqiy-ritmik harakatlar bolalar ruhiyatiga musiqiy asarning mazmuni va kayfiyatini singdiradi, bu bolalarning jismoniy sog'lom bo'lishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- musiqqa tinglash - har bir bolaning musiqqa tinglash madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola, avvalo, musiqani idrok etib, so'ngra unga mos harakatlarni bajaradi;

- musiqqa savodi. Musiqqa mashg'ulotlarida bolalar qo'shiq kuylash, musiqqa tinglash bilan birga qo'shiqlar, musiqiy asarlarning tuzilishi, tempi, xarakteri, ladi, kuyi, ritmi, tovush balandligini ham ongli ravishda anglashlari lozim. Bu ularning aqliy salohiyati, musiqiy uquvi, xotirasi, nutqi, ongi va bilimni oshiradi;

- qo'shiq kuylash. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarning nutqi, musiqiy uquvi, musiqiy qobiliyati, xotirasi rivojlanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash bolalarni do'stlikka chorlaydi, ularning o'zaro hurmat, tabiatga va Ona-Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularini tarbiyalaydi;

- bolalar musiqiy cholgʻu asboblari joʻr boʻlish - musiqa mashgʻulotlarida eng qiziqarli, barcha bolalar sevib qatnashadigan faoliyat turidir. Bolalar musiqa cholgʻu asboblari orqali jonh ijro har qanday bolani oʻziga jalb etadi. Ularning musiqaga boʻlgan qiziqishlarini yanada oshiradi, ritm tuygʻusi, musiqiy uquvi, xotirasini mustahkamlaydi. Kichkintoylarda ajablanish, zavqlanish, hayratlanish, quvonish kabi ruhiy holatlamini vujudga keltiradi.

### JO'JALAR

*D. Omonullayeva musiqasi,  
Po'lat Mo'min she'ri*

Moderato, non troppo

Jo'-ja - lar ju - da qi - ziq,  
o - yoq - la - ri qil - ti - riq Chi - qi - shib - di  
tu - xum - dan op - poq kich - ki - na xum - dan.

Da capo

«Chip-chip» deya soʻzlashar,  
Oyisini izlashar.  
Tovuq soʻzin uqishdi,  
Yerdan uvoq choʻqishdi.

Adabiyotlar:

1. Qodirov V., Quronov M. va boshqalar. Baxtli bola ma'naviyati. - T.: Sanosnandart. 2018.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - T.: Ilm ziyo. 2006

**PEDAGOGIK TA'LIM KLASTRIDA MUSIQA FANNING BOSHQA FANLAR  
BILAN INTEGRATSIYASI**



**Annotatsiya:** maqolada boshlang'ich sinflarda "Bolalar musiqasi" mashg'ulotlarini klaster usulida o'tish masalasi tahlil qilingan va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich, bola, musika, mashg'ulot, klaster, usul, yondashuv, bilim, ko'nikma

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etish vazifasi birlamchi hisoblanadi [1]. Bunda o'ziga xos texnologiyalar, metodlar, tizimlar va yondashuvlarga asoslanish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda "Bolalar musiqasi" mashg'ulotlarini klaster usulida tashkil etish va uning samarasiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinflarda "Musika" o'quv fanining asosiy mashg'ulotlaridan birini (modulini) bolalar musiqasi tashkil etadi. Bolalar musiqasi-bu 7-11 yoshli shaxslarning aqliy va ruhiy imkoniyatlari hisobga olinib yaratilgan musika, qo'shiq va raqslar majmuidir [2]. Shu jihatdan bolalar musiqasi mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini quyidagilar bilan tanishtirishni asosiy maqsad deb biladi:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy, ruhiy imkoniyatlariga mos musika namunalari bilan tanishtirish va ularning musika tinglash madaniyatini shakllantirish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona, Vatan va tabiat to'g'risidagi bolalar qo'shiqlari bilan tanishtirish va ularni mazkur toifadagi qo'shiqlarni kuylashga o'rgatish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, aqliy va estetik xususiyatlariga mos raqslar bilan tanishtirish va o'ziga xos bolalar raqslarini ijro etishga o'rgatish.

E'tibor berilsa, bolalar musiqasi mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy, estetik va ijtimoiy shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlar boshlang'ich ta'limida bolalar musiqasi imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga diqqat qilinadi. Bu borada mamlakatimizda an'anaviy mashg'ulotlar tajribasi mavjud bo'lsa-da, ayni paytda boshlang'ich sinflarda bolalar musiqasi mashg'ulotlarini noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanib kuchaytirib borish taqozo etiladi. Klaster usuli ana shunday noan'anaviy o'qitish usullaridan bo'lib, unda hamkorlik va bog'liqlik tamoyillariga asosan mashg'ulotlarni o'tkazish birlamchi ahamiyatga ega ekanligi bilan e'tiborga loyiq [3]. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinflarda "Bolalar musiqasi" mashg'ulotlarini klaster usulida o'tkazish shakllariga tortamiz.

1. Musiqashunoslar ishtiroki. Respublikamizning barcha hududlarida bolalar musika va san'at maktablari faoliyat yuritmoqda. Mazkur maxsus ta'lim muassasalarida musiqashunos mutaxassislar mavjud bo'lib, ularning imkoniyatlaridan boshlang'ich sinflarda bolalar musiqasi mashg'ulotlarini tashkil etishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda musiqashunos mutaxassislar bolalarga bolalar musiqasi shakllarini sodda, aniq va tushunarli ifodalab beradi, ularning ijrosi bo'yicha tavsiyalarni taqdim etadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilari bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslarining ma'no-mazmunidan yetarli darajada xabardor bo'ladi. Hozirgi paytda maktabning musika o'qituvchilari mazkur masalada umumiy tushunsa berish bilan cheklanayotganligi ma'lum. Shu jihatdan boshlang'ich sinf musika mashg'ulotlarida musiqashunoslarning ishtirokidan unumli foydalanish ushbu o'quv fanining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Ijrochilar ishtiroki. Mamlakatimizning barcha hududlarida maxsus musika ta'limi olgan havaskor va professional musika ijrochilari faoliyat yuritmoqda. Misol uchun, bunday san'atkorlar mahalliy ansambllar hamda tuman madaniyat saroylarida, klublarida faoliyat yuritayotganligi ma'lum. Xavaskor va professional musika ijrochilari orasidan bolalar musiqasi, qo'shiqlari va raqslarini amaliys jihatdan yuksak ijro etuvchi mutaxassislar borligi muhim imkoniyat hisoblanadi.

Bolalar musiqa mashhulotlarini tashkil etishda ana shu mutaxassislarining ijrochilik mahoratidan oqilona foydalanish kutilgan samarani beradi. Bunda ijrochi mutaxassislar bolalarga har bir musiqaning bolalarbop ijro xususiyatlarini, bolalar qo'shiqlarini kuylashning yengil jihatlari va bolalar raqslarini ijro etishning o'ziga xos xatti-xarakatlarini o'rgatadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat musiqa, qo'shiq va raqsni ijro etish ko'nikmasi, balki ulardan ilxomlanish, ruhlanish va estetik zavq olish jihatlari paydo bo'ladi.

3. To'garaklar ishtiroki. Bugungi kunda mamlakatimizning har bir tuman va shaharlarida tashkil etilgan Madaniyat maskanlarida musiqa to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur to'garaklarning asosiy maqsadi bolalarni musiqa san'ati olamiga olib kirishdan iborat. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda bolalar musiqasi mashg'ulotlarini tashkil etishda ana shunday to'garaklarning yordami va hamkorligidan foydalanish qiziqarli va samarali bo'ladi. Bu to'garaklar bolalarni nafaqat musiqa san'atiga qiziqtirishi, balki ularni musiqa san'ati olamiga olib kirishi bilan muhim ahamiyatga ega

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinflarda bolalar musiqasi mashg'ulotlarini klaster usuli shaklida tashkil etishning imkoniyatlari keng. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish uchun maktab musiqa o'qituvchisi ana shu vositalardan foydalanishning rejasi, shakli hamda usullariga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Klaster usulining boshlang'ich sinflarda bolalar musiqasi mashg'ulotlarini tashkil etishning quyidagi imkoniyatlarini eslatish bilan cheklanamiz:

- Bu usul bolalarga aniq musiqiy-nazariy bilim beradi;
- Mazkur usul bolalarni musiqa san'atining amaliy ijrochiligi bilan chuqur tanishtiradi;
- Bu usul boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa san'ati vositasida tarbiyalashni chuqurlashtiradi va uni amaliyot bilan ta'minlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. –T., 2020.
3. Muhamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, talqin, tasnif. –Chirchiq, 2020.

### **BO'SHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI O'QITISH ORQALI O'QUV JARAYONINI TAKOMINLASHTIRISH**

Ilmiy rahbar Sultanova A. M.

ChDPU "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasida o'qituvchisi

2-kurs MBXT talabasi Tojimurotova Ma'mura

2-kurs MBXT talabasi Akromova Dilnoza

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv jarayonida axborot texnologiyalardan keng foydalanish ta'lim sifatini oshirish uchun taqdim etilgan imkoniyatlar va imkoniyatlar haqida ma'umot keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье сообщается о возможностях и возможностях, которые дает широкое использование информационных технологий в образовательном процессе для повышения качества образования.

**Annotatsiya:** This article reports on the opportunities and opportunities provided by the wide use of information technologies in the educational process to improve the quality of education.

**Tayanch so'zlar:** Axborot, raqamli texnologiya, jarayon, talaba, elektron darslik, o'quvchi.

**Ключевые слова:** Информация, цифровые технологии, процесс, студент, электронный учебник, учащийся.

**Key words:** Information, digital technology, process, student, e-textbook, learner.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrda PF-6108 Farmoni va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son hamda “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvarda PQ-4963-son.

Zamonaviy ilmiy-texnikaviy jarayonning sur’ati ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shunday ekan, zamonaviy ta’lim sohasida o‘qitishning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirmasdan turib, barkamol va har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib yetishib bo‘lmaydi. Yangi texnologiyani o‘zlashtirish o‘qituvchining ta’lim jarayonini tizimli tashkil etishda yordamchi vositadir. Shu bilan birga, bugungi jahon taraqqiyotining yangi pozitsiyalari ta’lim tizimidan kundalik iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga imkon qadar moslashishni taqozo etmoqda. Bugun dunyo “bilimlar jamiyati” va “bilimlar iqtisodiyoti”ni yaratish yo‘nalishida. Bu g‘oya butun ta’lim tizimini isloh qilish va modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Ayni paytda internet, mobil aloqa manbalari, faol taxtalar, raqamli texnologiyalar kabi yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Psixologlar V. Davydov, V. Rubtsovlar, yangi axborot texnologiyalari, inson yoshining rivojlanish jihatini hisobga olgan holda, kompyuter o‘qitish dasturining turli rasmiy mazmunida shaxsning yoshiga mos kelishi kerak. Talabalar texnologik taraqqiyotning barcha yangiliklariga juda qiziqishadi. Shuning uchun o‘quvchilarning qiziqishi va bilish faolligidan shaxsni rivojlantirish maqsadida foydalanish juda muhim rol o‘ynaydi. Ta’limning yangi raqamli texnologiyalarini o‘zlashtirish zamon talabidir. XXI asr axborot texnologiyalari asri. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ta’limni axborotlashtirish va fanlarni ilmiy-texnologik asosda o‘qitish maqsadlari ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim va raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish vazifasi belgilangan jamiyat va mehnat bozorining o‘zgaruvchan ehtiyojlari. Ayni paytda axborot makonini yaratish mamlakatimiz ta’lim tizimidagi yangiliklar sirasiga kiradi. Axborot sharoitida o‘quvchilar egallashlari kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar miqdori kundan-kun ortib, mazmuni o‘zgarib bormoqda. Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish va boshqalarning samarali usullaridan foydalanilmoqda. Ta’lim - kelajak yo‘nalishi, har qanday mutaxassis tayyorlaydigan ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri shaxsning kompetensiyasini rivojlantirishdir. Kompetensiya - bu o‘quvchining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qo‘ndirish uchun muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan ta’limga tayyorgarlikning ijtimoiy buyurtmasi. Kompetensiya ta’lim natijasi bo‘lib, u o‘quvchining harakat usullarini har tomonlama egallashida namoyon bo‘ladi. Axborot kompetensiyasi - bu shaxsning turli xil ma’lumotlarni olish, topish, saqlash va amalga oshirish va raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish qobiliyati. Kompetensiyani o‘quvchining fan bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalari yig‘indisi deb qaramaslik kerak. Bu yangi sifat bo‘lib, o‘rganish natijasida o‘zgaruvchan sharoitlarda olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash qobiliyatidir. Axborot kompetensiyasini shakllantirishning asosiy maqsadi o‘quvchilarni axborotni uzatish, o‘zgartirish va uni qo‘llash bo‘yicha bilimlar bilan qurollantirish, ularda kompyuter texnologiyalaridan o‘z xizmatlari uchun erkin va samarali foydalanish qobiliyatini shakllantirishdir. Ularga birinchi navbatda elektron nashrlar, elektron darsliklar, multimedia ta’lim vositalari va turli qurilmalarda (audio, videolarni) yozib olingan elektron yozuvlar kiradi. Har bir umumta’lim va kasbiy ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallarning ma’lumotlar bazalari elektron darslikda shakllantirilishi va mavjud kompyuter texnikasidan foydalangan holda darsda foydalanishi shart. XXI asrda jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida ta’lim sohasida quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutilgan.

Ular: ta'lim sifatini oshirish, internet resurslari, kompyuter tarmog'i orqali 3D-printerni boshqarish, elektron pochta va telekommunikatsiyalardan foydalanish, elektron ta'lim vositalarini raqamlashtirish, elektron ta'lim nashrlari va elektron darsliklar. Axborot sohasi kengayib, insoniyatning u bilan ishlash qobiliyati ortib borayotgan bugungi kunda muayyan fanni o'qitishni ma'lum bir darslik yoki o'quv uslubiy vositalar majmuasi bilan cheklab bo'lmaydi. Har bir fuqaroning o'z bilimini har tomonlama oshirish, kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishida maktabda o'qitiladigan har bir fanning oz bo'lsa-da hissasi bor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralish lozim. Axborot texnologiyalaridan bo'shlang'ich sinf o'qituvchilari barcha o'quv fanlarida samarali foydalanishi mumkin. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yerkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., O'zbekiston. 2016.

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston. 2016.

3. Begimqulov U.Sh., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.

4. A.A. Abduqodirov, A.X. Pardaev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. –T. Fan, 2009

5. Axmedov A, Taylaqov N. "Informatika".T.: O'zbekiston 2008 yil.

### **TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

*Xalimov Xasan G'ulomovich  
Qashqadaryo V.P.Ya.MO'MM amaliy fanlar  
va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kompetensiyaviy ta'lim tushunchasi, texnologiya fani darslarida axborot texnologiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va o'quvchilarning axborotlar bilan ishlash kompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirish haqida ilmiy farazlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar va tushunchalar:** kompetensiyaviy ta'lim, kompetentlik, ijodiy faoliyat, mehnatsevarlik, axborot texnologiyalari.

### **DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMPETENCE SKILLS FOR WORKING WITH INFORMATION IN TECHNOLOGY LESSONS**

**Abstract:** This article describes the concept of competence education, scientific hypotheses about improving the quality of education using information technologies in technology classes and developing students' competence skills for working with information

**Key words:** competence education, competence, creative activity, hard work, information technologies.

Zamonaviy ta'limning muhim jihati yosh avlodni o'zgarayotgan dunyoga mos barkamollik fazilatlarini bilan tarbiyalash bo'lib, innovatsion ta'lim metodologiyasida kompetensiyaviy ta'lim dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun esa o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim usullaridan unumli va oqilona foydalanish hamda bu usullarni takomillashtirish, yangilarini izlab topish va qo'llash talab qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiyafani darslarida axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish ishlari keng ko'lamda yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori asosida umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi. Bu qarorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumta'lim fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashish, o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish masalalari asosiy vazifa qilib belgilangan.

Ma'lumki texnologiya fani darslari maktab o'quvchilariga texnika, texnologiya, ishlab chiqarish asoslari haqida ma'lumot va tushunchalar berishda, ularni turli kasb-hunarlariga yo'naltirishda katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda maktablardagi barcha fanlar bo'yicha kompetensiyaviy ta'limning yangi pedagogik texnologiya metodlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarning yoshi, jinsi, qiziqishi kabi jihatlarni hisobga olgan holda tuzilmoqda va darslar tashkil etilmoqda. Shu ma'noda o'quvchilardagi texnologiya fani bo'yicha kompetensiyaviy talim texnologiyalari o'ziga xos jihati va xususiyatlari bilan mutaxassislarni qiziqitirib kelmoqda. Eng avvalo kompetensiyaviy ta'lim deganda o'quvchida mavjud vaziyatga qulay yo'l bilan moslashish, murakkab vaziyatdan chiqish uchun bir necha variantdan eng maqbulini tanlay olish layoqati, o'zaro munosabatlarda faol aloqaga kirishish va undan o'z manfaati erkinliklarini namoyish etish san'ati deb ham tushunish mumkin.

Texnologiya fani yoshlarning ma'naviy-ahloqiy sifatlarini, mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish, atrof- muhitga ongli munosabatini tarbiyalash, to'g'ri va ongli kasb-hunar tanlashga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda texnologiya fani rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda, bu jarayonga har birimiz o'z hissamiz bilan ishtirok etishimiz mumkin. Zero, mehnat qilish hayotimizning ajralmas qismidir, mehnat jarayonida insonning qobiliyati va iqtidori namoyon bo'ladi, bilimlari yanada boyiydi, irodasi chiniqib boradi. Har bir o'quvchi maktab davridan o'zini mehnatga, bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlab bormog'i lozim. Buning uchun mehnatsevarlik, ijodkorlik, tirishqoqlik, intizomlilik, berilgan topshiriqlarga ma'suliyat bilan yondashish kabi sifatlarini o'quvchilarga tushuntirib, singdirib borish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir.

Kompetensiyaviy ta'lim – o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini o'zaro shaxsiy, ijtomoiy munosabatlarida amaliy qo'llash kompetensiyasiga yo'naltirilgan ta'limdir. Chunki, texnologiya fanidan olgan nazariy bilimlaridan hayotda foydalana olish layoqatiga ega bo'lmog'i kerak. Bolalar o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarga kirishishi, o'z mavqeini jamiyatda anglay boshlashi, aloqalar qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'z muammolarini yechimini topishi, eng kam sarf-harajat bilan yuqori foyda olishni, sog'lom va qonuniy yo'lini aniqlash qobiliyati tayanch kompetensiyalarga egaligini asosiy ko'rsatkichlaridir. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, uni bayon etish qobiliyati ijtimoiy faollik, ayniqsa tashabbuskorlik fazilatlarini, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, kasb-hunarga qiziqish, ma'naviy-ahloqiy jihatdan o'quvchining madaniy qiyofasini yuksaltirishdan iboratdir. Bu mashg'ulotlarda tayanch kompetensiyalar yordamida

shaxsning kommunikativ qobiliyati, axborot bilan ishlash asosida o'z-o'zini rivojlantirish layoqati o'sadi. Chunki, o'quvchi fanning o'ziga xos kompetensiyalarini egallab, murakkabroq ishlarni: gazlamalarning xususiyatlarini, ularga ishlov berishni, pazandachilik sirasrorlarini, qolaversa, qishloq xo'jaligi sohasiga oid ko'pgina bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. E'tirof etish lozimki, texnologiya fani kompetensiyaviy ta'limi o'zga fanlar tizimi bilan uzviy aloqadorlik va rivojlanish holatida shakllanadi. Ushbu ta'limning yana bir jihati shaxsning mintaqaviy fikrlash qobiliyatini o'sishi, mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan fikriy bog'lash asosida fanning talablari darajasida malakalarni hosil qilish, soha bo'yicha kasb-hunarlarini ajrata olish ham muhimdir. Ikkinchi bir tomoni shuki, texnologiya fani mashg'ulotlarida o'quvchilarni to'la qamrab olish, interfaol usullardan foydalangan holda barcha o'quvchilarni jalb qilish ijobiy natija beradi.

Hozirda zamonaviy axborot texnologiyalardan darslar davomida foydalanib borish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida muhim rol o'ynashi nazarda tutilmoqda. Darslar jarayonida o'quvchilar o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig'i asosida o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda shug'ullanishlari, shu bilan birga ularning o'z oldiga qo'yilgan maqsadiga erishishda ongli ravishda intilishlari talab etiladi. O'quvchilar ishlarini mustaqil nazorat qilishda boshqa nazorat usullari bilan birga olib borilsa, ancha yuqori natijalar kutilishi mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar ish jarayonida o'z xatolarini sezmaydilar, bunda xatolarni aniqlashda kompyuter vositasidan foydalanish ancha samarali kechadi. Ta'lim jarayonini yangi axborot texnologiya vositalari yordamida tashkil etish va o'quvchi shaxsi uning kompetensiyalari darajasini aniqlashda videokonferensiyalarni o'rni va roli beqiyosdir, maslahatlarni o'tkazishda esa elektron pochta vositasi sanaladi.

Elektron pochta yordamida amaliy darslarni tashkil etishda axborotlar almashinuvini yuzaga keltiradi. Bu o'quvchilar o'rtasida vertual guruhlarni shakllantirish va axborot almashishni yo'lga qo'yilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Darslar jarayonida o'quvchilarni o'quv- metodik materiallar bilan ta'minlashning samarali usuli o'qituvchi tomonidan tahlil etiladigan o'quv materiallar orasidan asosiylarini tanlash va ulardan nusxa olish shuningdek o'quv materiallarini tuzish hisoblan. Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirishning muayyan tizimi yordamida amalga oshiriladi. Bunda ma'lumotlarni kompyuter vositalari yordamida to'plashga intilish, nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallashga diqqatni qaratish lozim. Shuningdek, axborot texnologiyalari majmuasini tashkil etuvchi vositalarning ko'pligi o'quvchini nafaqat qo'shimcha, balki doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash, hamda ularni bevosita ta'lim jarayonida qo'llashga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

17. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" T.: "O'zbekiston", 2021. – B. 457.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli Qarori //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, T., 2017 y., 2-bob 5-bandi, 3-bob 6-bandi.
19. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2007. B. 94.
20. Ishmuxammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. - T., 2003.
21. Karimov I. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2020. – B. 194.
22. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006.
23. Shodmonova Sh.S., Hikmatova Sh. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. - T., 2010.

24. Qo'ysinov O.A., Sattarov V.N., Yakubova H.S. "Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2011. - B. 102.

## **BOSHLANG'ICH TALIM DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH-ZAMON TALABI**

Azamat Sanayev  
Qashqadaryo VPyaMO'MM  
"Amaliy va ijtimoiy fanlarni  
o'qitish metodikasi" kafedrası  
texnologiya fani o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada, bugungi kunda umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari, zamon talabidan kelib chiqib, boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlari samaradorligini oshirishning usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqola materiallaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mamlakatimizda amalda bo'lgan boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining hal qiluvchi bosqichlaridan sanaladi. Chunki ushbu bosqich o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarga fan yo'nalishlari bo'yicha boshlang'ich bilimlar beradi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko'nikmalarini egallashlariga erishishi lozim. Shu boisdan ham boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikga barham berish dars jarayonini turli tumanligini, rang barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng joriy etishga mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish va tadbiiq qilish davr talabidir. Shu bilan birga dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, video lavhalardan, turli animatsion materiallardan foydalanib, o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. SHuningdek, dars davomida o'quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun musi qali dam olish daqiqalari ham tashkil etilganligi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday, boshlang'ich sinflarda texnologiya fani darslarida didaktik o'yin va boshqotirmalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quv jarayonini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda tashkillashtirish o'quvchiga o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil tarzda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish, o'quv masalalarini qo'yish, amaliy predmetli mazmunini aniqlash, har bitta alohida amallarning bajarilishi bo'yicha namunalarni ko'rsatib berish, har bir harakat va amallarning bajarilishini nazorat qilib borish, masalaning yechilganligini, tugallanganligini baholash, uzluksiz tarzda ketma-ket kechadigan jarayondir. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan:

-o'quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;

-mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;

-darsning samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirishini ta'minlaydi;

-har bir o'quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;

-sinfidagi barcha bolalarning faol ishlashi ta'minlanadi.

Innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash

mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog'liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga quyidagi talablarni qo'yadi:

-zamonaviy pedagog axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan muxirlik bilan foydalanishni olishi;

-kompyuter yordamida o'qitish vositalaridan foydalana olish va uni o'quv jarayoniga tadbii qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-o'z bilimni axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha doimo takomillashtirib borishi;

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori saiviyada tashkil qilishi, mashg'ulotlarni davlat ta'lim standartlariga muvofiq holda tashkil qilish va olib borishi, darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil qilishi, ta'limni tarbiya bilan uzviy holda olib borishi maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-214-son Qarori

5. Tohirov O'.O. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi. // O'quv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2023.-260 b.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

### **ZAMONAVIY KUTUBXONACHI VA UNING KASBIY FAOLIYATI**

Xasanova Gulnora Chorshanbiyevna,

Qashqadaryo VPYMO' Milliy markazi, "Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, tel.:919601774

**Annotatsiya:** ushbu maqolada umumta'lim maktab kutubxonalarida yangi sharoit va kutubxonachining chuqur bilim asosida ishlarini tashkil qilishi va ularga qo'yilgan talablar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch iboralar:** loyihalashtirish, muloqot ko'nikmalari, tashkilotchilik qobiliyatlari.



O'zbekiston Respublikasining «Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida»gi Qonunida e'tirof etilgan axborot-kutubxona sohasi oldidagi muhim vazifalardan biri bu – foydalanuvchilarning axborot-kutubxona resurslaridan foydalanishini ta'minlashdir. Ushbu vazifani bajarish mavjud axborot-kutubxona tizimini mukammallashtirishni, uni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni, xususan axborot-kutubxona paradigmasini zamonaviy kutubxona va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni mustahkam egallashga qodir axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlashga yo'naltirishni taqozo etadi.

Axborot makoni uzluksiz kengayib, axborot tarmoqlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda maktab kutubxonachilariga o'quvchi va o'qituvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi yuklanadiki, bu ularda doimiy ravishda malaka oshirib borish va o'zini kasbiy yuksaltirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Kutubxonachi - kutubxona fondini tashkil qilish, tizimlashtirish va boshqarish, tashrif buyuruvchilarga kitob va jurnallarni tanlashda maslahat beradigan, hujjatlarni to'ldiradigan va turli mavzuli tadbirlarni o'tkazuvchi xodim.

Zamonaviy kutubxonachidan nima talab qilinadi?

- kasbiy ta'lim;
- umumiy va professional madaniyat;
- shaxsiy-psixologik fazilat;
- axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik o'rni;
- ijodkorlik va fikrlash qobiliyati;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilim;
- kutubxona qidiruv va internet tizimining mohir foydalanuvchisi;
- ma'lumotning aniq va tez qidiruvini ta'minlovchi konsultant;
- elektron kutubxona va elektron baza bilan ishlay olish malakasi;
- kitob, elektron kitob va kerakli saytlarni topishda ko'maklashish ko'nikmasi.

Zamonaviy kutubxonachi-mutaxassisning axborot jamiyatiga moslashishini asosiy sharti doimiy ravishda kasbiy jihatdan mukammallashtirish va rivojlanish hisoblanadi. Kasbiy rivojlanish o'zida xodimlarning yangi ishlab chiqarish funksiyalarini bajarishga, yangi lavozimlarni egallash, yangi vazifalarni hal qilishga tayyorlik jarayonini o'zida aks ettiradi.

Rivojlangan jamiyatga zamonaviy maktab kutubxonalariga barcha kitobxonlar, shu jumladan o'quvchi va o'qituvchilarning ehtiyojlarini qondirish vazifasi yuklatildi. O'quvchilarning bilim olish va tarbiyalanish jarayoniga har taraflama yordam ko'rsatish maktab kutubxonasining asosiy vazifalaridandir. «Umumta'lim maktab kutubxonasi haqida Nizom»da ko'rsatilganidek, shaxsni har tomonlama kamol toptirish borasida maktab oldida turgan vazifalarni bajarar ekan, maktab kutubxonasi o'quvchilarning o'quv predmetlarini muvaffaqiyatli o'rganishlari, ta'limiy va siyosiy bilim asoslarini puxta o'zlashtirishlari maqsadida ularga mutolaani tashkil etishda yordam beradi, bolalarning axloqiy, jismoniy va badiiy jihatdan kamolotga erishuviga, ularning mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga nisbatan muhabbat ko'zi bilan qarashiga imkon to'g'diradi, kitob bilan mustaqil ravishda ishlashga, ma'rifiy kitoblarni ko'proq o'qishga da'vat etadi, har bir o'quvchini mustaqil ravishda va muntazam mutolaa qilishga jalb etadi.

Maktab kutubxonalarining ta'limni rivojlantirish dasturlari quyidagi sohalarda keng ko'lamli maqsadlarga erishish uchun hayotiy zarur vosita sifatida qaralishi lozim:

- bosqichma-bosqich rivojlanayotgan va maktab ta'limining hamma bo'g'inlarida tan olinayotgan barcha uchun axborot savodxonligi;
- hamma bosqichlarga o'quvchilarga uchun axborot resurslari mavjudligi;
- axborot va bilimlarning hamma toifalaridagi o'quvchilarga uchun erkin tarqalishi;

Kutubxonalarining yangi sharoit va kutubxonachining chuqur bilim asosida ishlarini tashkil qilishi o'sib kelayotgan yosh avlod, shuningdek keng aholining axborot olish madaniyati, kitob mutolaasi ko'nikmasini shakllantirib borishiga munosib hissa qo'shib boradilar. Bolalar kitobxonligini rivojlantirishda maktab kutubxonasi va kutubxonachisi alohida o'rin tutadi.

Umumta'lim maktab kutubxonachilari o'quv fanlari o'qituvchilari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun yo'naltirilgan dastlabki qadam sifatida avval nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar fondini yuzaga keltirish uchun maqsadli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Toki shunday fond mavjud ekan, kutubxonachi bilan o'qituvchi o'rtasida hamkorlik o'quvchilarni kitobxon sifatida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Kutubxonachi uchun yangi kasbiy tayyorgarlikni egallash murakkab jarayondir. Kutubxonachining axborot olish madaniyatini qay darajada egallashlari, kutubxonachilik asoslaridagi yangiliklardan qanchalik xabardorliklari, shuningdek, pedagoglar va o'quv fanlari o'qituvchilariga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishlari uchun mumkin bo'lgan xizmatlar doirasi haqida yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarga egaliklariga bog'liq.

Maktab kutubxonasi ishlarini mazmunli va samarali tashkil etish uchun maktab kutubxona xodimlari ham quyidagi zarur asosiy sifatlar, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

- loyihalashtirish qobiliyatlari (rejalar tuzishni bilish, kitobxonlar bilan ishlashning optimal yo'l va usullarini tanlay bilish);
- muloqot ko'nikmalari (faoliyat va muloqotning shaxsiy stili);
- tashkilotchilik qobiliyatlari (ijodiy salohiyat, ommaviy tadbirlar o'tkazish, artistizm, erudisiya va sh.k);
- konstruktiv qobiliyatlar (jamg'arma bilan ishlashning optimal yo'llari va usullarini tanlash);
- bilish qobiliyatlari (o'z bilimlarini muntazam to'ldirib borish);
- maktab jamoatchiligi ichidagi va undan tashqaridagi alohida shaxslar va guruhlar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyati;
- ta'lim metodikasi va pedagogik nazariyani bilish;
- kutubxona jamg'armasini tashkil qiluvchi materiallarni bilish va ularni topa olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- boshqaruv va marketing sohasidagi bilim va ko'nikmalar;

Ko'p narsa kutubxonachining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Ular bir tomondan axborot- kutubxona faoliyatida ishlash natijasida hosil bo'lgan umumiy xarakterlar: konservatizm, tartibni sevish, bilimlarni tizimlashtirish, avtoritetlarni hurmatlash, kasbi bilan faxrlanish, etikaga rioya qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan kutubxonachining individualligi, ichki qarashlar, qaror qabul qilishdagi qat'iylilik, jamoadagi muhit va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish kabilar kiradi. Shu bilan birga foydalanuvchilar bilan muloqotda kutubxonachilik odob-axloqi ham katta rol o'ynaydi. Kutubxonachining kasbiy odob-axloqiga kutubxonaga tashrif buyuruvchilar, ularning ijtimoiy statusi, egallab turgan mansabi, yoshi, tashqi ko'rinish va boshqalarga qaramasdan barchasiga birday samimiy va hurmat bilan muomala qilishga rioya etish kiradi.

Shu bilan birga, kutubxonachilik kasbiga xos xususiyatlarga ega bo'lishi vazminlik, ko'ngilchanlik, iltifotlilik, o'z fikrni aniq yetkazib berishni bilishi, kutubxonadan foydalanuvchini qiziqtirgan mavzuda suhbat olib bora olishi, o'z nuqtai nazarini asoslab bera olishi kerak.

Kutubxonachilik kasbi avvalo insonlarga muhabbat bilan qarashni taqozo etadi. Kutubxonachi har bir insonga mo'tabar deb qarashi, uni insoniylik qadrini hurmatlashi kerak. Har bir foydalanuvchi kutubxonaning sevimli mehmoni bo'lishi kerak. Kutubxonachi foydalanuvchning talabini ochiqyuz bilan bajarishi, unga xizmat qilayotganidan quvonishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda axborot-kutubxona muassasalariga katta e'tibor bilan qaralayotgan bir davrda maktab kutubxonachilari ishini ham tubdan takomillashtirish lozim. Maktab kutubxonasini tashkil etishda birinchi mo'him bosqich faoliyatni tashkil etish va uning ishlarini rejalashtirishni ta'minlashga qobiliyatli bo'lgan malakali mutaxassislar bilan ta'minlash hisoblanadi. Yosh kitobxonlarni maktab ostonasida har tomonlama fikrlaydigan, ma'naviy yetuk, har qanday axborotlarni aql bilan tahlil qila oladigan, o'z fikrini bildirib, uni himoya qila oladigan, tengdoshlariga olgan axborotlarini tushuntira

oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash o'qituvchilar bilan birgalikda maktab kutubxonachisining ham asosiy vazifasidir. Maktab kutubxonachisi-tarbiyachi, ruhshunos, bilim beruvchi, tashkilotchi, targ'ibotchi bo'lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori. – T.: "Xalq so'zi" – 2017 yil 14 sentyabr.

2. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. – T.: "O'zbekiston", 2003 yil.

3. G'aniyeva D.A. Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish / tuzuvchilar: D.A.G'aniyeva, R.I.Ratner. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

## TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA KITOBXONLIKNING AHAMIYATI

Xasanova Gulnora Chorshanbiyevna,

Qashqadaryo VPYMO' Milliy markazi, "Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, tel.:919601774

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada umumta'lim maktab kutubxonalarida yosh avlodni tarbiyalashda kitob va kitobxonlikning ahamiyati, kitobxonlikni rivojlantirishda interaktiv usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Tayanch iboralar:** *Barkamol avlodni tarbiyalash, Ta'lim-tarbiya yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish poydevoridir, kitob va kitobxonlik.*

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalaridagi kabi ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu hukumatimiz tomonidan barkamol avlodni tarbiyalash, mamlakat taraqqiyoti va istiqboli, xalq farovonligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Yoshlarimiz ham o'z iqtidori va ilmiy salohiyati bilan umumdunyo intellektual jarayoniga faol kirishmoqda.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya yosh avlodni shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiya takomilligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiya yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish poydevoridir, ularning mukammal ta'lim-tarbiya olishlari uchun asosiy e'tiborni qaratish muhim masalalardan biridir. Shuning uchun ham respublikamizda zamonaviy ta'limga e'tibor qaratilmoqda.

Kitobning inson hayoti kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish bilim berish bilan birga go'zallikga muhabbat o'yg'otish, undan zavqlanish yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini paydo qiladi. Kitob va kutubxonaga ajdodlarimiz javohirotda sandig'i deb qarashgan. Abu Ali ibn Sino haqidagi kitoblardan birida allomaga shoh saroyidagi rasadxonadan foydalanishga ruxsat berilgani hikoya qilingan. Buyuk tabib o'zining kitob mutolaa qilgan damlarini eng saodatli lahzalarim, deb ta'riflagan. U tongdan shomga qadar kitob o'qir, mag'zini chaqar, ayrim joylarini belgilab qo'yar, aql va bilim durdonasi yuksak tafakkur egasini kun sayin, oy va yillar osha kamolotga eltib borardi.

Jadal axborotlashayotgan jamiyatda shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish zarurati kitob va uning o'rni bosadigan bilim manbalarining shiddat bilan ortib borayotganligi, ushbu manbalar sirasiga internet tarmog'i kelib qo'shilgani bilan, mutolaa savodini egallash orqali qisqa vaqt sarflab, ko'p narsani bilib olish kerakligida o'z ifodasini topmoqda. Bunday vaziyatda o'quvchilarga ta'lim berishni emas, balki ta'lim olish yo'llarini o'rgatish ehtiyoji o'zini sezdirmoqda. Shunga ko'ra, mutolaaga qo'yiladigan talablar ham o'zgarmoqda: endilikda manbalarga murojaat etganda bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish saviyasi va undan foydalanish sifatiga erishish asosiy maqsadga aylanmoqda.

O'quvchi kutubxonaga a'zo bo'lgan dastlabki kundanoq kutubxonachi uning o'qishiga mas'uldir. Bolalar mutolaasi katta ahamiyatga ega, chunki bolalikda o'qilgan kitob bir umrga esda saqlanib qoladi va bolaning keyingi kamolotiga ta'sir ko'rsatadi. Bolani mulohazali mutolaa

qilish va o'qiganlaridan amaliy foydalanish san'atini egallashga o'rgatish lozim. Tavsiya etilgan adabiyot yordamida kutubxonachi o'z o'quvchilarida yuksak axloqiy, estetik sifatlarni tarbiyalaydi, ularning aqliy ong-bilim doirasini kengaytiradi, kitobxon-o'quvchilarning o'qishga va amaliy ijtimoiy faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.

Kitobxon bola ilmiy-ommabop asarlarni mutolaa qilar ekan, qiziqarli, ilm-fan olamiga, hayotga doir masalalar bilan tanishadi. Badiiy asarlar orqali esa qahramonlar sarguzashtlari, kechinmalari orqali ezgulik va yomonlikning farqiga yetadigan, kamtarlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sabr-toqatlilik kabi insoniy fazilatlar asosida ular ma'naviyati shakllana boradi. Badiiy adabiyotni o'qish bolaning shaxsiy talab va ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan erkin faoliyat sifatida anglashila boshlaydi.

Bugun kutubxonalar hamma uchun ochiq va kitoblardan foydalanish tekin. Demakki, kitob mutolaasi uchun hech qanday muammo yo'q. O'qish, yozish, uzatish, qabul qilish kabi har qanday ehtiyoj bir zumda qondiriladi, mushkullar oson hal etiladi. Yoshlarimizning texnika vositalarini bilishi, ulardan foydalana olishi bizning katta yutug'imiz. Texnika taraqqiyotini, uning hayotimizdagi ahamiyatini e'tirof etgan holda, ulardan foydalanishga o'rgatish bilan birga bolalarni turli tahdidlardan himoya qilish, yuksak ma'naviyatli, mustahkam irodali, barkamol shaxslar etib tarbiyalash uchun kitobning, badiiy asarning ahamiyatini anglatish barchaning burchidir. Kitob mutolaasi kishini fikrlashga undaydi, uning bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Mutolaa bilan mashg'ul, ziyo charshmasidan bahramand o'g'il-qizlar keng dunyoqarash, boy tafakkur va yetuk ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lib ulg'ayishadi. Kitobga oshnolik insonning o'zligini tanitadi. Demak, kitobning insonga uning o'zligini tanitishdagi, estetik didini shakllantirishdagi xizmati beqiyos.

O'quvchi shaxsini shakllantirishda unda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda o'quvchida kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi? – degan savol tug'ilishi mumkin. Umumta'lim maktab kutubxonalari o'quvchilarning yoshi, qiziqishi, talab va istaklarini hisobga olib adabiyotlarni taqdim etishlari, bolalarning o'qishiga rahbarlik qilishlari juda muhim hisoblanadi. Kitob oladigan o'quvchi qanday kitobni qaysi vaqtda, qaysi yoshda o'qishini kutubxonachi doimiy nazorat qilishi kerak. 1-2 sinfda o'quvchilarga ertaklar, masallar, she'rlar o'qish, 3-4 sinflarda ertaklar, masallar, kichik hikoyalar, she'rlar, dostonlar o'qish tavsiya etishlari kerak. Kichik yoshdagi kitobxonlar uchun kitob ko'rgazmalari muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Bunday ko'rgazmalarda bolalar uchun qiziqarli bo'lgan badiiy adabiyotlar, fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ish olib borib, barcha fanlardan reja dasturlariga kiritilgan mavzularga oid qo'shimcha adabiyotlar, ma'lumotlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqori sinfda o'qiyotgan o'quvchilarga kitoblarni targ'ib qilishda ko'rgazmalarning turli shakllari, adabiyotlar taqdimotlarini o'tkazish, bibliografik ma'lumotlar berish, turli ommaviy an'anaviy va noan'anaviy tadbirlar o'tkazish bilan bir qatorda, ularga xizmatlarning noan'anaviy shakllari - kutubxona elektron kataloglaridan foydalanish, internetga kirish, saytlarni bilish, axborotlarni topish, tanlash, maqsadli foydalana olish ko'nikmalarini singdirish, malakalarini shakllatirib borish o'ta zarurdir.

Bolaning qo'liga kitob olib o'qishi unchalik oddiy ish emas. Bu o'ta tarbiyaviy jarayon, jiddiy mehnat, har bir bolaning o'z kitobi bo'lishi lozim. Biz, kattalar, bolalardan kitob o'qish kerakligini talab qilamiz, ammo o'z kitobini o'qishi lozimpligi, kitob o'qilgandan so'ng o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, fikrini aniq va ravon bayon etib bilishiga ko'p ham e'tibor qaratmaymiz.

Maktab kutubxonalarida yosh kitobxonlarning kitobga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, tanqidiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan interaktiv ta'lim olishlariga ko'mak beruvchi innovatsion usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki innovatsiyalar axborot-kutubxona tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan hisoblanadi, ular kutubxona jarayonlarida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli-tuman tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi.

Innovatsiyalar tashabbuslar va yangiliklar asosida tugʻilib, kutubxona jarayonini rivojlantirishda istiqbolli ahamiyatga ega. Bunday innovatsion metodlarga kichik guruhlarda ishlashning quyidagi: “Eylar chizmalari”, “Aqliy hujum”, “Rolli oʻyinlar”, “Munozara ringi”, “Yechimlar daraxti”, “Ikki qismli kundalik”, “Sinkveyn”, “Klaster”, “Kubiklar”, “B-B-B”, “Veyn diagrammasi”, “Toʻxtamli oʻqish”, “Zig-zag”, “Keys”, “Pinboard” va boshqa shakllarini misol qilib koʻrsatish mumkin.

Maktab kutubxonasida quyidagi innovatsion usullardan foydalanish mumkin:

- bahs-munozara, debatlar, kichik guruhlarda ishlash, sinflararo musobaqalar uyushtirish;

- “Eng bilimdor oʻquvchi”, “Men sevgan yozuvchi”, “Kitobxon sinf”, “Kitobxon oila” kabi tanlovlarni oʻtkazish;

- “Sirli olma daraxti”, “Sehrli shakllar”, “Boshqotirmalar”, “Rangli roʻmolchalar” kabi treninglar oʻtkazish.

Bu kabi mashgʻulotlarni oʻtkazish kitobxonlarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga, guruhlarda ishlash qobiliyatini shakllantirishga, oʻrtoqlari fikrini hurmat qilishga oʻrgatish kabi hislatlarni rivojlantirish mumkin. Shuningdek, trening orqali oʻquvchi-kitobxonlardan qoʻyilgan muammoning yechimini izlash, ijodiy fikrlash, vaziyatdan zukkolik bilan chiqishni mashq qilish kabi hislatlar shakllantiriladi. Maktab kutubxonalarda mashgʻulot samaradorligini oshirishda xorij taʼlimi tajribalari, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, ilgʻor pedagogik texnologiyalar asosida ish tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolada kitob oʻqishga mehr, eng avvalo, oilada uygʻonadi. Buning uchun birinchi navbatda ota-onaning oʻzi kitobxon boʻlmogʻi lozim. Chunki bola dastlab ota-onaga taassub qiladi. Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uygʻotish, uni avaylab-asrashni tarkib toptirishdir. Buning uchun maktabda, oiladagi muhim vazifa kitobxonlikni inson hayotidagi zaruratga aylantirishdan iborat. Agar kitobxonlik zaruratga aylanmasa, oilada ham, maktabda ham unga mehr-muhabbat, eʼtibor kuchaytirilmasa farzandni kitobga boʻlgan munosabatini oʻzgartirish mumkin emas.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini qaror toptirish ularning maʼnaviyatini goʻzal boʻlishiga poydevordir. Kitob mutolaasi va kitobxonlik jarayonlarini optimallashtirish har qanday jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy va madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini oʻtaydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga koʻtarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekistonda erkin va farovon yashaylik. Toshkent-2021: Toshkent nashriyot uyi. 42-bet

2. Teshaboyeva U. Yangi tizim yoshlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. // jur. Kutubxona.uz №2 (49), 2019.

3. Yuldashv I., Oʻ. Nosirov. Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2020. 360 b.

## **OLIY TAʼLIMDA KIMYO FANI ASOSIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL-KREATIV IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasida assistenti Jonimqulov Toxir Ibragim oʻgʻli*

**Annotatsiya.** Oliy taʼlimda kimyo fani asosida talabalarning intellektual-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasi, tamoyillari, tarkibiy tahlili hamda ustivorligi haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch soʻzlar:** kimyo, metodika, tizim, intellektual-kreativlik, tamoyil, tarkibi, taxlili hamda ustivorligi.

## **Интеллектуально-творческая деятельность студентов на основе химии в высшем образовании методика развития потенциала**

**Аннотация.** В высшем образовании на основе химии были рассмотрены методика, принципы, структурный анализ и приоритеты развития интеллектуально-творческих способностей студентов.

**Ключевые слова:** химия, методология, система, интеллектуальный-креативность, принцип, состав, анализ и приоритет.

### **Intellectual-creative of students on the basis of chemistry in higher education capacity development methodology**

**Annotation.** On the basis of the science of chemistry in higher education, the methodology, principles, structural analysis and mastery of the development of intellectual-creative capabilities of students were considered.

**Base words:** chemistry, methodology, system, intellectuality-creativity, principle, composition, reasoning and primacy.

Texnik universitetda kimyo fanini o'qitishda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining funktsional-didaktik ahamiyatini, uning shaxsning umumiy holatini jadallashtirish, ilmiy tadqiqotlarda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining psixologik va pedagogik xususiyatlari yanda barqarorashtiradi. Kimyo fanini o'qituvchisiga hozirgi kunda talab juda yuqori sababi kimyo fanini yaxshi o'rgangan mutaxassis oziq-ovqat sanoatida, mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish texnologiyasida, ekologiyani muhofaza qilish tizimida, iste'mol qiladigan mahsulotlarimizni sifatligini aniqlashda hamda zavod-korxonalarda boradigan jaronlarning mohiyatini to'laqonli tushuna oladi.

Inson ongida idrok muammosiga L. S. Vigotskiyning yuqori aqliy funktsiyalarning madaniy va tarixiy nazariyasi doirasida bolaning aqliy (psixologik) rivojlanishi muammosi sifatida qaraladi. L. S. Vigotskiy bolaning aqliy rivojlanishining ikki darajasi to'g'risida muhim qoidalarni ishlab chiqdi: bu intellektual rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadigan, talaba mustaqil ravishda bajara oladigan masalalarni rivojlantirish darajasi va uning proksimal rivojlanish zonasini belgilab beradigan daraja.

I.A. Zimnaya "intellektual rivojlanish o'z-o'zidan emas, balki talabning boshqa odamlar bilan ko'p tomonlama o'zaro munosabati natijasida: mulohazada, o'quv faoliyatida" deb hisoblaydi. Intellektual rivojlanish darajasining muhim ko'rsatkichi - bu aks ettirish darajasi bo'lib, ya'ni o'z harakatlarini, o'zini, o'zining MENini anglash demakdir. "Bu shaxs rivojlanishining turli tomonlarini, shu jumladan intellektual rivojlanishni o'rganadigan asosiy mexanizmga aylanadi". "Idrok" toifasi rus va xorijiy psixologik-pedagogik qo'llanmalarda keng rivojlanadi. Biz tomonimizdan "idrok" tushunchasining muhim tahlili o'tkazildi, uning asosiy tarkibiy ko'rinishlari o'quv qo'llanmalarda, monografiyalarda aks ettirildi.

A. N. Leontiev idrokni rivojlantirishda faoliyatning yetakchi roli haqida gapiradi. A. R. Luriya idrokning madaniy tabiati haqidagi bayonotni tan oladi. V. P. Zinchenko idrokni bilish, muammolarni hal qilish, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatini aniqlaydigan va boshqa qobiliyatlarning ham asosida yotadigan umumiy qobiliyat deb biladi. Bir qator mualliflar idrok tushunchasiga hayotiy muammolarni hal qilishda inson tajribasi namunalarini o'zlashtirish va qo'llashga yo'naltirilgan qobiliyat sifatida qarashadi. Mazkur ko'rsatib o'tilgan ishlarda kimyoni qolversa oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyasida ham o'rganish, izlanish kabi metodikasini o'qitish masalalari bilan bir qatorda bo'lajak kimyo o'qituvchisining Oliy ta'limda kimyo fani asosida talabalarning intellektual-kreativ imkoniyatlarini rivojlantirish metodikasi, tamoyillari, tarkibiy tahlili hamda ustivorliklarini ko'rish mumkin.

Talabalarning intellektual qobiliyatining rivojlanish darajasi, o'z navbatida, kimyoviy bilimlarni, materialni qabul qilish, o'zlashtirish va qo'llashga ta'sir qiladi, shuning uchun kimyoviy materialni qabul qilinish darajasiga qarab tasniflash uchun asos mavjud. Shunday qilib, aniqlangan munosabatlar natijasida texnik universitetda kimyo fanini o'qitishda talabalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonini boshqarish va loyihalash mumkin bo'ladi. Psixologik pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, biz "shaxsni rivojlantirish",

"psixikani rivojlantirish", "madaniyat", "intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish", "shaxsning intellektualligi" tushunchalarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatamiz. Aqlning rivojlanishi inson psixikasi bilan birga sodir bo'ladi. Psixikaning rivojlanishi yetuklik, biologik qonunlar tufayli o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Aql madaniyat parametrlarida sintetik hisoblanadi.

Shaxsni rivojlantirishning o'ziga xos turi sifatida intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish shaxsning intellektual va kasbiy xususiyatlari va fazilatlarini shakllantirishga qaratiriladi, natijada shaxsning intellektualligini ta'minlanadi - bu esa umumiy madaniyatni sezilarli darajada boyitadigan texnik qatlam - mutaxassisning sifatini boyitadi. Texnik qatlam nafaqat "bilimdon", balki "fikrlaydigan" mutaxassislardir va bunda kelajakdagi mutaxassislarning intellektual rivojlanish yo'nalishlaridan biri ko'rinadi. Shunday qilib, psixologiya, pedagogika, metodologiya tarixida talabalarining intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi bo'yicha umumiy tan olingan nuqtai nazarlar mavjud emas. Bizning fikrimizcha, talabalik yoshi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ayniqsa qulaydir va kimyo fanini o'qitishda quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi:

\* shaxsning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish texnik universitetda talabalar rivojlanishining tarkibiy qismidir; ,

\* asos bo'lib fikrlash uslubini ta'minlaydigan kognitiv tajribani tashkil etishning o'ziga xos shakli xizmat qiladi;

\* asosiy harakatlantiruvchi kuch - bu shaxsning kimyo fanini o'qitishda intellektual faoliyatga bo'lgan ehtiyoji va uning intellektual tuzilmalarini shakllantirishning yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi;

\* shart va manba bo'lib "texnik universitet - sanoat korxonasi - jamiyat" integratsiyalashgan ta'lim makonining talabaning bilim tajribasini o'zgartirishga bo'lgan ta'siri xizmat qiladi;

\* intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish - kimyoni o'qitish jarayonida qiymat - maqsadli, ob'ektiv - mazmunli, operatsion - dinamik, shaxsiy tarkibiy qismlarning bosqichma-bosqich to'planishi demakdir.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni o'rganishda biz intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini faollashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqladik., OTMlarida maxsus fanlarning, birinchi navbatda kimyoviy majmuaga kiruvchi fanlarning o'quv mazmuni bilan ishlash metodikasi quyidagilar muhokama qilingan psixologik va pedagogik jihatlarni hisobga olgan holda biz texnik universitetda kimyo fanini o'qitishda intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonining mohiyati va mazmunini ochib boramiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniyev A.A., Ziyayev A. Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslarining o'rni haqida // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). Toshkent, -2009.31-33 б.
2. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития.//— Казань.: Изд. Центр инновационных технологий, -2000. —606 с.
3. Elizabeth Backer. Exploring meanings of professional development teacher perspectives. Doctor of Educational // Degree.- Unversity of Missouri-Kansas City.-2014. -P. 477.
4. Javier Garc'ia-Mart'inez and Elena Serrano-Torregrosa Chemistry // Education c 2015 Wiley-VCH Verlag GmbH & Co.KGaA, Boschstr.12, 69469 Weinheim,Germany. -P.795.

**NOORGANIK KIMYODA MODDALARNI SIMMETRIK KO'RINISHLARGA AJRATISH ASOSIDAO'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBLARI**

*Xolmurodova Laziza Erkinovna*

*Qarshi davlat universiteti Kimyo-biologiya fakulteti Noorganik kimyo kafedrasida o'qituvchisi E-mail: axroramerahmed8990@gmail.com, Tel: +998 91 471 31 58  
Qarshi davlat universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*Yuldashev Sodiq Norchayevich taqrizi asosida*

**Annotatsiya.** Oliy ta'limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo'naltirilganligi, tuzilmaviy tarkibi va taxlili, maqolada ana shu tamoyillar haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** kimyo, metodika, tizim, kasbiy-pedagogik, tamoyil, tarkibi va taxlili.

**Основы разделения мод в неорганической химии на симметричные пропорции методы совершенствования методики обучения.**

**Аннотация.** Профессионально-педагогическая направленность, структурный состав и анализ курса общей и неорганической химии в высшем образовании, эти принципы рассмотрены в статье.

**Ключевые слова:** химия, методика, система, профессионально-педагогическая, принцип, состав и анализ.

**In inorganic chemistry , the principle of separation of molecules into symmetrical representations methods of improving teaching methodology.**

**Annotation.** Professional and pedagogical orientation of the course of general and inorganic chemistry in higher education, structural composition and taxality, the article reflects on these principles.

**Keywords:** chemistry, methodology, System, Professional-pedagogical, principle, composition and nickname.

Hozirgi kunda noorganik kimyoni o'rganish uchun taqdim etilayotgan yechimlarning asosini fundamentallashtirish va pffessionallashtirish tashkil etadi. Fundamentallashtirish va pffessionallashtirish kimyoviy moddalarning hossalarni o'zlashtirishni asosi sifatida - umumiy kimyo kursining nazariy jihatlaridan nisbatan teran va tizimli tarzda foydalanishga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017- yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va farmonlariga ko'ra OTMda bo'ladigan jarayonlarni hamda talabalarning bilim saviyasini yanada oshirishni har taraflama chuququr o'rganilsh kerakligini qat'iy ta'kidlaydilar.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishni I.N. Borisov, X.T. Omonov, Sh.M.Mirkomilov, M.S.Hotamova, M.Nishonov, Sh.A.Mamajonov, N.X. Avliyaqulov, N. Boltayev, X.A. Mavlyanova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar olib borilganligi. MDH davlatlarida kimyo o'qitish metodikasini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini qo'llashga mo'ljallangan kimyoga oid o'quv materiallarining pedagogik samaradorligi oshirish bo'yicha A. A. Kuznetsov, A. A. Grechixin, T. M. Lepsova, E.S. Po'lat, V.A. Vul, V.M. Gasov kabi olimlarning asarlarida berib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Noorganik kimyo fanini moddalarni simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida talabalarga o'qitish metodikasi nuqtayi nazaridan kimyo, psixologiya, pedagogika hamda metodikaga tegishli adabiyotlarni tadqiqot muammosi yuzasidan tahlil etib borildi. Turli kurslarga tegishli noorganik moddalarni tarkibiy tuzilmasiga ko'ra simmetrik ko'rinishlarga ajratib talabalarga o'rgatish muammosi yuzasidan aniqliklar kiritilishi kerakligi o'rganildi. Kimyo ixtisosliklari talabalari uchun noorganik kimyo fanidan moddalarni simmetrik



ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish modelini ishlab chiqildi. Oliy ta'lim kimyo ixtisosliklari talabalarini noorganik kimyo fanidan o'qitish amaliyotiga tayyorgarligini amalga oshirishning mazmuni, shakli, metod va vositalaridan foydalanib o'rganildi.

Quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanilib psixologiya, pedagogika, metodika, kimyoga tegishli adabiyotlarni tahlil etish; simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida o'qitish yuzasidan ilg'or tajribalarni o'rganildi. Ta'lim natijalari ustida kuzatuvlar olib borildi. Anketa-so'rovnomalari o'tkazish; suhbatlar tashkil etildi., hamda tadqiqot ma'lumotlarini umumlashtirgan holda matematik-statistik qayta ishlashni amalga oshirildi.

Noorganik kimyo fanining moddalarini simmetrik ko'rinishlarga ajratish asosida talabalarga o'qitishda "Umumiy va noorganik kimyo" elektron dasturiy ta'minot hamda dastur orqali o'quv faoliyatini faollashtirishning samarali metodikasi ishlab chiqildi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning eng muhim kasbiy-pedagogik masalalaridan biri – maktabga mo'ljallangan va OTMda o'qitiladigan noorganik kimyo kursi o'rtasidagi nisbat va bog'liqliklarni ochib berishdan iboratdir. Bunda ikki holatni imkon boricha chetlab o'tish lozim:

- dasturdagi materialni yuqori nazariy darajada bayon qilish: bu orqali Oliy ta'lim muassasalarida kimyoni o'qitish bilan maktabda kimyoni o'qitish o'rtasida uzilish paydo bo'lishi kuzatiladi;

- OTMdagi kimyo kursini maktab kursiga haddan tashqari ko'p yaqinlashtirib yuborish: buning natijasida Oliy ta'lim muassasalari talabasi yetarli darajada o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmaydi.

Demak, noorganik kimyo kursini kasbiylashtirishning eng samarali usuli maktab kimyo kursida murakkab sanalgan mavzu va masalalarga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Noorganik kimyo kursining ilmiy diapazoni shunday bo'lishi kerakki, unda kimyo sohasidagi barcha asosiy qonunlar fanning so'nggi yutuqlari nuqtayi nazaridan qaralishi hamda dars jarayonida bo'lajak kimyo o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'z dunyoqarashi shakllanishi lozim. Shu bilan birga, noorganik kimyo fani mazmuni va uni taqdim etish shaklining bo'lajak o'qituvchida kasbiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qilishiga erishish muhim sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarida kimyoni o'rganish jarayonida talabalar faqat kimyo bo'yicha bilimga ega bo'ladilar, kimyo o'qituvchisida shakllanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kasbiy masalalarni hal etish malakalari yuqori kurslar uchun rejalashtiriladi.

Quyidagilar: turli umumlashma miqyosidagi xarita-rejalarni o'z ichiga oluvchi ham matnli, ham grafik shaklda taqdim etilgan maxsus didaktik materiallar tizimini ishlab chiqish; Noorganik kimyo kursida analitik, fizik va organik kimyo mazmunini noorganik kimyo mazmuniga integratsiya qilish; ham reproduktiv, ham qidiruv tavsifidagi metodik usullar tizimida Kaskad, Fishboun, A4 formati, Innavatsion simmetriya, 4 taraf, Global alifbo kabi zamoviy pedagogik metodlarini qo'llash; moddani tizimli tavsiflash ko'nikmalarini kursdan kursga, bosqichma-bosqich, sistematik o'zlashtirish noorganik kimyo bo'yicha tizimli bilimlarni shakllantirishning asosiy mezonini hisoblanadi. Yuqoridagi metodika natijadorligini aniqlash imkonini beruvchi adekvat nazorat metodlari va tashhishlash usullari tanlab olindi. O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, taklif etilgan metodik tizim talabalarda elementlar noorganik kimyosi fanidan tizimli bilimlar, modda va u bilan bog'liq kimyoviy jarayonlarni ham reproduksiya darajasida, ham ko'chirish va qisman bashoratlash darajalarida tavsiflash ko'nikmalarini shakllantirishiga zamin hozirlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. – № 6. 70-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni O'RQ-637-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,- 2020y. 23-sentabr.

4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti // - Toshkent. -2009 y. -28 b.

5. Abdug'aniyev A.A., Ziyayev A. Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslarining o'rni haqida // Innovatsiya o'quv jarayonida (tezislar to'plami). Toshkent, -2009.31-33 b.

6. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития.//— Казань.: Изд. Центр инновационных технологий, -2000. —606 с.

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMNI O'RNI**

Azamat Sanayev  
Qashqadaryo VPIYaMO'MM  
"Amaliy va ijtimoiy fanlarni  
o'qitish metodikasi" kafedrası  
texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, umumta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkinligi, muammoli vaziyatning ahamiyati, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni vujudga keltirish haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqola materiallaridan o'qituvchilar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Davlat ta'lim standarti, texnologiya, badiiy mehnat, hunarmandchilik, barkamol, shaxs, naqqoshlik, dizayn asoslari, ijodkorlik, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun maktab rahbariyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni aniq va ravshan bilishlari lozimdir. Boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan 1-4 sinflarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish dasturlar talablarida belgilangan, ammo amaliyotda o'qituvchilar har doim ham ularni qo'llayvermaydilar. Ayniqsa texnologiya darslarida badiiy mehnat rivojlanuvchi maqsad sifatida mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy, estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga katta e'tibor berilgan. Bu borada bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi asosiy mezon sifatida milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik belgilangan. Ayniqsa, umumiy va badiiy mehnat, naqqoshlik asoslari, dizayn asoslari, umumiy texnologiya asoslari va boshqalardan amaliy mashg'ulotlarda har xil materiallardan hunarmandchilik buyumlarini yasash, kashtachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, qo'g'irchoqlar tayyorlash, qo'g'irchoqlarga kiyimlar tikish, kashta gullari bilan bezash kabi o'quvchilarda ijodkorlik faoliyati rivojlana boradi. Haqiqatdan ham ijodkorlik faoliyati shaxsning dunyoni anglab olishining barcha shakllarini, aqliy faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantiradigan turi sanaladi. Texnologiya ta'limida loyihalangan topshiriqlarning o'quvchilarni darsga qiziqtirish yo'llari xilma-xil. Samarali shakllardan biri muammoli vaziyatni o'zida mujassamlantirgan topshiriqlarni yaratish va ularni baholash monitoringini tashkil qilish. Muammoli vaziyatlar o'zida o'quvchining muammoni qanday anglashini ifodalaydi va uni yechish yangi bilimlarni, yangi usul va harakatlarni izlab topishni talab etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilish faoliyatining bosqichlari bo'yicha rivojlanib, yoshi, hayot sharoitlari va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.

2. Muammoning qo'yilishi.

3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga, muammoga qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o'qitish metodlari samarali natijalarni beradi, ta'limda muammoli yondashish o'quv dasturlarida, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda, o'quvchilarning mustaqil ishlarida ham o'z aksini topadi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha uch bosqichli o'qitish modeli da'vat qilish, idrok qilish va fikrlash bosqichlaridan iborat: da'vat bosqichida o'quvchilarni darsga qiziqtirish, mavzu bo'yicha yangi bilimlar to'plash, axborotlar bilan tanishishlariga erishiladi. Idrok qilish pog'onasida mavzu yuzasidan o'z bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'laydi, taqqoslaydi va mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Mavzu o'quvchilar tomonidan to'liq idrok qilingandan so'ng bevosita fikrlash jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda olingan yangi g'oya va axborotlar o'quvchilar tomonidan tahlil qilinadi va matn mazmunini o'z tushunchalari asosida so'zlab beradilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda Xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" PF-134-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-214-son Qarori

5. Tohirov O'.O. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi. // O'quv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2023.-260 b.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

## **TURKISTONDA XIX ASRNING OXIRI XX ASRNING BOSHLARIDA O'ZBEK TILIDA YARATILGAN DARSLIK LARNING MAZMUNI**

**Buxoro davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich talim kafedrasini o'qituvchisi  
Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Turkistonda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o'zbek tilida yaratilgan darsliklarning mazmuni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** madrasa, maktabxona, darslik, o'quv qo'llanma, o'qish, yozish, arifmetika, tabiiyot, tarix, jo'g'rofiya, pedagogika, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, pedagogika, marifatparvar.

**Аннотация:** в данной статье размышляется о содержании учебников, созданных на узбекском языке в Туркестане в конце XIX – начале XX веков.

**Ключевые слова:** медресе, школа, учебник, учебное пособие, чтение, письмо, арифметика, природа, история, география, педагогика, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, педагогика, просвещение.

**Abstract:** this article reflects on the content of textbooks created in Uzbek in Turkestan at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century.

**Key words:** madrasah, school, textbook, study guide, reading, writing, arithmetic, nature, history, geography, pedagogy, moral education, aesthetic education, pedagogy, enlightenment.

Turkistonda XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida darsliklar yaratishga katta e'tibor berilgan. O'sha davrda ziyolilarning aksariyati darslik yaratishga kirishgan edi. Buning asosiy sabablaridan biri yangi ochilgan maktablarda darsliklar va o'quv qo'llanmalarga juda katta ijtimoiy-pedagogik ehtiyojning mavjudligida edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Elbek, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvarlar darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratish sohasida jonbozlik ko'rsatdilar. Ular yangi usul maktablari ochish bilan bir qatorda, ushbu maktablar uchun darsliklar yaratdilar. Ularning yozgan darsliklari madrasa va maktabxonalar darsliklaridan farq qilib, ularda darslik yaratish tamoyillariga, darslikning muayyan metodik maqsadlarga xizmat qilishi, ko'rgazmali bo'lishi, o'quvchilar yoshi va dunyoqarashiga mos bo'lishi zarurligi kabilarga amal qilingan edi. Yangi usul maktablarining savod o'rgatish davriga tovush-harf usuli kirib kelishi bilan hijja usuli inqirozga uchray boshladi. Rus-tuzem va yangi usul maktablarining ochilishi maktabxonalarining tugab borishiga, ularda yangicha ta'lim usullarining qo'llanishi esa ta'lim islohotining tezlashishiga sabab bo'ldi.

Yangi usul maktablaridagi o'quv dasturi turkiy yoki forsiy tilda o'qish, yozish, arifmetika, tabiiyot, tarix, jo'g'rofiyani o'z ichiga olardi. Mazkur o'quv dasturi asosida o'quvchilar nisbatan ancha keng bilimlarni egallardilar. Toshkentdagi madrasalardan birida dars beruvchi Munavvarqori yangi dastur mualliflaridan biri bo'lgan. Dastur quyidagi fanlardan iborat edi:

- 1) diniy ta'limot;
- 2) muqaddas an'analar;
- 3) islom ta'limoti tarixi;
- 4) arab grammatikasi;
- 5) meros huquqi;
- 6) arifmetika;
- 7) butun jahon jo'g'rofiyasi;
- 8) islom tarixi;
- 9) muqaddas tarix;
- 10) arabiy va turkiy imlo.

O'zbekistonda o'quv-metodik talablarga javob beradigan darslik yaratish sohasida ilk qadamni ilg'or pedagog Saidrasul Aziziy qo'ydi. U 1902-yilda o'zbek tilida yangi «savtiya» usulida «Ustodi avval» alifbesini yaratdi. Albatta, birinchi darslik bo'lganligi uchun unda bir qator kamchiliklar bo'lishi tabiiydir. Shundan so'ng Munavvarqori Abdurashidxonov 1907-yilda «Adibi avval» alifbe darsligini yaratdi. 1917-yilgacha Sayidrizo Alizodaning «Birinchi yil», Abdulvahob Ibodiyning «Tahsili alifbo», Rustambek Yusufbek o'g'lining «Ta'limi avval», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» kabi bir qator alifbe darsliklari nashr qilindi va maktablarda o'qitildi. Bizgacha alifbe darsliklarining mazmuni va didaktik asoslari pedagogika fanlari nomzodi M.Inoyatovanning «O'zbek alifbe darsliklarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va didaktik asoslari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida chuqur tahlil qilinganligi uchun alifbelarning didaktik qirralari haqida to'xtalishni zarur deb topmadik.

Ta'kidlash joizki, ma'rifatparvarlarning maktablarni o'quv qo'llanma va darsliklar bilan ta'minlashga qaratilgan harakatlari ona tili, o'qish, geografiya, tarix fanlaridan ilk darsliklar yaratishga ham qaratilgan edi.

XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyolilar darsliklardagi matnlarni o'z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she'r va to'rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, taniqli adib Sadridin Ayniy «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o'qish kitobini tuzgan bo'lib, uning birinchi nashri 1909-yil, ikkinchi nashri 1917-yilda chop etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega bo'lib, o'quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan. O'sha zamon sharoiti va talablariga ko'ra, kitobda diniy ma'lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo'y va vijdonli bo'lishga da'vat etadi: «Axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg'on gapirmaydi. Hamma vaqt chin so'z bo'ladi », - deb yozadi muallif. S.Ayniy darslikda: «O'qish yo'lida g'ayrat qil! Odam bo'l. Keyin kuching boricha o'z Vataningga, o'z xalqingga va o'z millatingga xizmat qil» deb o'quvchilarni ilmi bo'lishga chaqirdi, shu bilan ularda milliy iftixorni shakllantirishga harakat qildi.

Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, ota-onani hurmatlash to'g'risida fikr yuritilib, ushbu yo'nalishda yuksak badiiy saviyaga ega bo'lgan savol-javob shaklidagi she'r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo'lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalar bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o'yin faoliyati bilan bog'liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o'rni beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi.

Xalqimizning ma'naviy - pedagogik merosiga juda katta hissa qo'sha olgan ma'rifatparvarlardan biri Munavvarqori Abdurashidxonovdir. M.Abdurashidxonov 1904-1905-yillarda Toshkentning eski shahar qismida (Shayxontohur) ilk yangi usul maktabini tashkil qildi. Munavvarqori maktabida o'zining «Adibi soniy», «Xavoyiji diniya» (1-2-qism), «Tajvid», «Adabiyoti daxrun najat» o'qish kitobi, Hanofiyning «Tarixi anbiyo», «Muxtasar jug'rofiya», Shaposhnikov va Valsovlarning «Hisob masalalari» to'plamining tarjimasini, A.Maqsudovning «Dunyo ma'lumoti» (tibbiyot bo'yicha), Faxruddinovning axloqdan «Nasihati» darsligi, Mahmudovning «Durus shifaxiya» (arab tilida), A.Abdushukurovning «Jamaul hikoyati» (fors tilida) darsliklaridan foydalanilgan.

Toshkent jadidlariga ma'naviy rahbarlik qilgan taniqli ma'rifatparvar o'z amaliy faoliyati, darslik va maqolalarida, ta'limning tarbiyaga yo'naltirilishiga alohida e'tibor berdi, ko'rgazmalilikdan unumli foydalanishni tavsiya etdi. Darsliklarida o'quvchilar bilimni mustahkamlash maqsadida, takrorlash mashqlari berishni taklif qildi va bu tamoyildan o'zi unumli foydalandi.

M.Abdurashidxonovning «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk», «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Yer yuzi» (1916-17), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqlari» kabi bir qator darsliklari mavjud.

Ta'lim-tarbiya ilmidagi ulkan maktab yaratgan ma'rifatparvar pedagoglardan biri Abdulla Avloniydir. Ma'rifatparvarlar o'z davrida butunlay yangicha pedagogik g'oyalarni ilgari surdilar. Bu jarayonda Abdulla Avloniy o'zining shaxsiy o'qituvchilik tajribasi, dolzarb ilmiy pedagogik risolalari, darslik hamda o'quv qo'llanmalari bilan ishtirok etdi. U o'zbek ta'lim-tarbiya tizimiga birinchilardan bo'lib «pedagogiya», ya'ni pedagogika atamasini olib kirib, jadid tarbiyashunosligini tizimlashtirishga intildi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentdagi Mirobod, so'ngra Degrez mahallasida ochgan maktabida tovush usulida bolalarni o'qitdi hamda ularning yoshiga mos darsliklar yozdi. Uning «Birinchi muallim» darsligi boshlang'ich ta'limga qo'shilgan qimmatli hissa bo'ldi. Ulug' ma'rifatparvar 1908-1909 yillardan o'sha davrlarda darslik va o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj kattaligini hisobga olib, darslik yaratishga kirishdi. Uning bir qator darslik va o'quv qo'llanmalari, jumladan 1911-yilda «Birinchi muallim», 1912-yilda «Ikkinchi muallim», 1913-yilda «Turkiy Guliston yoxud axloq», 1909-1915-yillarda 4 jildli «Adabiyot yohud milliy she'rlar», 1915-yilda «Maktab gulistoni», 1917-yilda «Mardikorlar ashulasi» va 1933-yilda 7-sinf o'quvchilari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» kabi kitoblari shular jumlasidandir.

Pedagogning darsliklarida milliy iftixor, milliy tuyg‘u, milliy g‘urur yaqqol ko‘rinadi. Abdulla Avloniy darsliklarida milliylikka tayanib, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub va vositalarini qidirib topish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri deb hisoblaydi. Uning darsliklari o‘zbek milliy didaktikasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. U o‘z darsliklarida oddiydan murakkabga borish usuliga amal qiladi, o‘quv materiallarini oddiy tilda, yengil, qiziqarli bo‘lishiga e‘tibor beradi, matn tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi.

Ustoz yaratgan darsliklarning ijobiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning aksariyatida xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va topishmoqlar keltirilgan. Darsliklaridagi matnlar yoshlarni odob-axloqli, do‘st-birodar, to‘g‘ri so‘zli qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda ajdodlarimiz yaratgan darsliklar o‘zbek xalqining urf-odat, an‘analari, darslik yaratish sohasidagi tarixiy tajribasini bizgacha yetkazib betgan takrorlanmas ma‘naviy-pedagogik meros namunasidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан. Тошкент 2017.**
2. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.:Камалак, 1991.—Б. 161.
3. G.X.Shodiyeva “Boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni o‘qishning ahamiyati”. Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konfrensiyasi. 12-dekabr 2022-yil. 267-269-betlar.
4. Xayrullayevna, S. G. (2023). BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 106-106.
5. Xayrulloevna, S. G. (2022). BOSHLANG ‘ICH SINFLARDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING METODIK IMKONIYATLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 298-300.
6. Gaybulloeva, N. I., & Gulruh, S. (2022). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGY IN STUDENT SPEECH GROWTH IN PRIMARY SCHOOL LESSONS. *Open Access Repository*, 9(04), 121-125.
7. Madovich, K. K., & Khairullaevna, S. G. (2023, January). FACTORS OF INTEGRATED ORGANIZATION OF SMALL TEXT LECTURES IN PRIMARY GRADES. In *E Conference Zone* (pp. 44-49).
8. Shodiyeva, G. K. (2024). EDUCATION OF SOCIAL SCIENCES IN EASTERN MADRASAHs. “*TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE*”, 2(1), 32-37.
9. Шодиева, Г. Х. (2024). ВОСТОК В КОНЦЕ XIX-НАЧАЛЕ XX ВЕКА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 400-405.
10. Khairullayevna, S. G. (2024). LITERATURE LESSON IN THE EDUCATION OF BUKHARA MADRASAHs. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(01), 133-136.

#### BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA BUYUMLAR TAYYORLASHDA APPLIKATSIYA USULIDAN FOYDALANISH

Azamat Sanayev  
Qashqadaryo VPIyA MO‘MM  
“Amaliy va ijtimoiy fanlarni  
o‘qitish metodikasi” kafedrası  
texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, bugungi kunda umumta’lim maktablarida boshlang‘ich ta’limda, texnologiya fanidan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar buyumlar tayyorlashida dekorativ san‘at etakchi o‘rinlardan birini egallashi, amaliy-dekorativ san‘ati jonli tabiat bilan





chambarchas bog'liqligi, applikatsiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni dunyoqarashini rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqola materiallaridan o'qituvchilar o'z faoliyatlari davomida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** badiiy, dekorativ, estetik, san'at, haykaltaroshlik, rangtasvir, arxetektura, applikatsiya, suvinerlar.

Bugungi kunda, inson uchun zarur bilimlar miqyosi tobora kengayib borayotgani hozirgi sharoitda muayyan faktlar yig'indisini o'zlashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Shuning uchun o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda to'ldirib va boyitib borishni, o'zining diqqat e'tiborini ilmiy va siyosiy axborotlarning eng muhimlarinigina o'rgatish kerak. Bu vazifa o'quvchilarning texnologiya darslarida badiiy bezash ishlarini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Ma'lumki, dekorativ san'atning ko'p turlari mehnat bilan bog'lanib ketadi va shuning uchun o'quvchilarda ishga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi, ularni ma'naviy jihatdan boyitadi. Amaliy-dekorativ san'ati jonli tabiat bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiatdagi muhit insonni go'zallik qonuniyatlari asosida yashashga, hayotdagi rang-barang holatlarni ko'ra bilishga o'rgatish kerak. Texnologiya darslarida o'tiladigan mavzularning aksariyati amaliy mashg'ulot bilan bog'liq. Atrof-muhitning tuzilishi, jonli va jonsiz tabiatning uyg'unligidan ilhomlanib, o'quvchi yasayotgan buyumiga bezak beradi. Dekorativ amaliy san'at keng miqyosda rivojlanayotgan san'atimizning xalq amaliy ijodi turlaridan biridir. Unda kishining haqiqiy san'atiga estetik munosabati yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq amaliy san'atining bu turi haykaltaroshlik, rangtasvir, arxetektura, raqs va musiqa bilan hamohangdir. Dekorativ san'atning o'ziga xos estetik jihatlarni tushunish uchun uning mavzusi, mazmuni, asardagi tiplar, badiiy texnika vositalari diapazonining odatdan tashqari katta miqyosini nazarda tutib qarash kerak. Bu badiiy bezak o'ymakorligi turli xalqlarning milliy kiyimlari, so'zanalari, taqinchoqlari va istirohat bog'lari san'ati, devorlardagi dekorativ rasmlar, devoriy gazeta, tabriknomalarning bezaklari hamda jihozlardagi o'ymakorlik va boshqalardir. Shakllari bir-biriga o'xshagan bu asarlarning o'zaro biriktirib turgan jihati ularning asosiy vazifasi insonni qurshab turgan muhitni nafosat vositasida bezashdan iboratligidir. Dekorativ san'atda turg'unlik etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Texnologiya darslarida badiiy bezashning dekorativ amaliy san'at turlaridan naqqoshlik ko'proq uchraydi. O'quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda applikatsiya ishlari katta yordam beradi. Applikatsiya - badiiy asarlarni yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bunda tasvirning asosi sakllanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadidagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, suvinerlar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar, kartina pano naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo'llash imkonini beradi. Applikatsiya bilan shug'ullanish o'quvchilarni dunyoqarashini rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlikni diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, rangni sezishni o'stiradi. Har bir mashg'ulotga o'quvchilar oldindan tayyorgarlik ko'rishadi. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerak bo'ladigan narsalarni yozib oladilar. O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, vaqtidan to'g'ri foydalanishlari va ish joyini toza saqlashlari kerak. Barcha ish turlarini ish daftarining o'ng varag'iga bajarish tavsiya etiladi. Yelim bilan ishlash texnikasiga rioya qilish lozim. Texnologiya darslarida 1-4-sinflarda asosan qog'ozdan tayyorlanadigan dekorativ applikatsiya keng qo'llaniladi. Applikatsiyaning bu turi bilan tabriknomalalar, taklifnomalar bezatiladi.

Applikatsiya yasashda turli materiallardan foydalanish



	
<p>Qog'ozdan Urug'lardan</p> 	<p>Gazlamadan Barglardan</p> 


Applikatsiya usulida tabriknomani bezash.




1-4-sinflarda o'qitiladigan mavzularni amaliy mashg'ulot jarayonida dekoratsiya ishlarini amalga oshirish jarayonlaridan misollar keltiramiz. Masalan, 2-3-sinflarda kviling dekokativ-amaliy san'atining dastlabki bosqichlari o'rgatiladi. O'quvchiga o'qituvchi ishni borish tartibi bilan har xil metod, ko'rgazmali qurollar orqali tanishtirib bo'lgach, xavfsizlik texnikasi qoidalarini ham eslatib o'tadi. Mazariy olgan bilimlarini amaliy, mustaqil ijod qilishlariga sharoit yaratib beradi. O'qituvchining ko'rsatmasiga tayanib, o'quvchi mustaqil fikrlaydi. Buyum yasashga hosil bo'lgan moslashuvi natijasida yangi dekoratsiya ishlarini amalga oshiradi.

Kviling yordamida tabriknomani bezash.





Shardan archa o'yinchoqlarini yasash.



#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi “Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-214-son Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.

4. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2023.-260 b.

#### **Elektron ta’lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

## **OTM MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARIDA AN'ANAVIY XONANDALIKDAGI QOBILIYATLARINI PEDAGOGIK SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

**Mushev Norimbay Usmanovich**  
Musiq ta’limi kafedrasida katta o‘qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*Annotatsiya: Ushbu maqolada an’anaviy xonandalik yo‘nalishi bo‘lajak mutahassislarining pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish va bu jarayonda duch kelinadigan muammo va yechimlar hususida bo‘lib, maqolada keltirilgan fikr va mulohazalar muallifning ilmiy ish doirasida o‘rganilgan. Ma’lumotlar mavjud adabiyotlar, ilmiy ishlar, maqola va tezislarni o‘rganib umumiy xulosa asosida yozilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagogika, kompetensiya, mutaxassis, an'ana, milliy-mumtoz, musiqa, maqom, xonanda, shashmaqom, ustoz-shogird.*

Butun dunyoda kecha(tarix)dan to bugungi kunga qadar ta'lim tarbiya jarayonlari shu qadar rivojlanib keng ko'lamga ega bo'ldiki pedagog sifatida faoliyat olib borish anchayin murakkablashi o'z ustida ishlashning maksimal darajasini talab etmoqda. Ham milliy qadriyatlar hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida ish olib borish pedagoglarga qo'yilgan asosiy talablardan bo'lsa, nazariy bilimlarning amaliyot bilan turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. Ta'lim - tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi - talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Manan yetuk yosh avlodimiz ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi pedagog-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va salohiyatlari yanada zamonga xos va mos holda ijtimoiy-gumanitar fanlar uyg'unligida olib bormog'i maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu borada birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tadbiq etish taqozo etiladi. Asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizning o'rganish masalalari yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy san'at asarlarining xalq e'zoziga tushishi, maqom ashulalarining, katta ashulalarining va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shuningdek, har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir ekan, so'nggi yuz yillik mobaynida O'zbekiston musiqasining rivojlanishi nechog'lik murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda. Ma'lumki maqom ta'limotini o'rganish mazkur muhtasham san'at paydo bo'lishidan boshlab vujudga kelgan. Qolaversa maqom san'atini o'rgatilishi, ta'lim shakllari uzoq o'tmishdan shakllanib bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda.

An'anaviy xonandalik yo'nalishida bilim berish boshqa sohalarga nisbatan anchayin murakkab va uzoq vaqt talab etadi. Ushbu soha ustoz - shogird an'analari hamda asriy davom etayotgan ijro an'alariga taqlidni ham talab qiladi. Umuman olganda ta'lim berish jarayoni hech qachon onson kechmagan ham. Bugungi kun zamonaviy yondashuvda kompetensiya tushunchasi keng tarqalib har bir sohaning o'z kompetentligi mavjud. Hususan pedagogika sohasida ham pedagogic kompetensiya tushunchasi shakllanib bo'lgan. Har bir sohada bo'lgani kabi san'atning har javhasida hususan oliy ta'lim tizimida San'atshunoslik sohasida Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi bo'lajak mutahasislarining umummilliy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mustqali izlanuvchi sifatida pedagogic tehnologiyalarni ishlab chiqish izlanishlaridaman. Aslida kompetensiya nima? Uni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi? Qanday hollarda kompetentlik yaqqol namoyon bo'ladi? Kompetensiyani rivojlanish bosqichlari qandav va uni qanday amalga oshirish kerak degan savollarga Vokal san'ati. An'anaviy honandalik yo'nalishi misolida yechim qidiramiz. Kompetentlik ko'pincha shaxsning ajralmas sifati sifatida tushuniladi, u o'rganish va ijtimoiylashuv jarayonida olingan bilim, ko'nikma va tajribaga asoslangan faoliyatga umumiy qobiliyat va tayyorlikda namoyon bo'ladi va mustaqil va muvaffaqiyatli faoliyatga yo'naltirilgan. Kompetensiya - o'qituvchining o'quv tayyorgarligi normasi (talablari) bo'lib, u muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. O'qituvchi kompetensiyasi uch qismdan iborat: umumiy madaniy, kasbiy va ijtimoiy kompetentsiyalar. Kompetensiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi hamkorlikdir. Bu

talabalar va o'qituvchilarning birgalikdagi rivojlanish faoliyatining insonparvarlik g'oyasi bo'lib, o'zaro tushunish, ma'naviy dunyoga kirish, faoliyatning borishi va natijalarini jamoaviy tahlil qilish bilan muhrlangan.

An'anaviy xonandalik yo'nalishida ta'lim berar ekanmiz avvalo pedagogik kompetensiya jarayonida Ustoz-shogird an'alarini alohida aytib o'tish va aynan ushbu so'zga katta urg'u berish lozim. Shu o'rinda aytib o'tish shartki bugun Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "Ustoz-shogird" an'alarini tarkib toptirish va rivojlantirishga qadriyatli tus berildi. Masalan, har bir ta'lim muassasasining pedagog xodimlariga tahsil oluvchi o'quvchilar "Ustoz - shogird" an'analari asosida biriktirib chiqildi. Bu ayniqsa mumtoz xonandalik, maqom ijrochiligi yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun ayni muddao bo'lmoqda. Boshqa sohalardan farqli o'laroq An'anaviy honandalik yo'nalishi umummilliy urfodatlar, an'alar, nasriy qadriyatlar, milliy madaniy merosimizning amalda mavjud durdonalari asosida tarbiyalanadi. Avvalo ushbu soha vakillari musiqiy merosimizning amaliy jihatlarini va shu bilan birga nazariy jihatlarini ustozlaridan eshitish, tushunish va o'zlarida amaliy tahlil qilish jarayoni orqali pedagogik ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Biz san'atning qaysi bir sohasi bo'lmasin umumiy jihatni avval aniqlaymiz va shu jihatlarni talabaga singdiramiz. Biz maqola boshida pedagogik kompetensiya tushunchasiga urg'u berayapmiz va ustoz-shogird tushunchasini uning yoniga qo'yayapmiz. Nima uchun? Sabab shuki kompetensiya tushunchasi zamirida Zamonaviy ta'lim o'z-o'zidan kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv masalasini zaruriy qilib qo'ymoqda. Bu albatta, kasb jihatdan kompetentligi bo'lgan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashni talab qiladi. Ta'limning asosiy maqsadi talabada ijtimoiy zarur sifatlarini va kompetensiyani, shaxs sifatida o'zligini anglash, o'z bilimlarini doimiy oshirib borish, o'zini boshqarib borish va faollashib borishi zarur, chunki pedagog ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim.

Ustoz-shogird an'analari eng qadimgi davrlardan mavjud bo'lib, ularni mazmunmohiyati yillar o'tishi, jamiyat ijtimoiy formatsiyalarining o'zgarishi asosida o'zgarib davr talablariga moslashtirib boriladi. Bugungi kunda ustozlar an'anasini davom ettirishib, qator yosh san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan holda o'zlariga xos ijro yo'llari va uslublari bilan qo'shiqchilik xazinasiga sezilarli xissa qo'shmoqdalar. Ustoz-shogird an'analari deganda bir necha yillar emas, necha ming yillar, asrlar haqida fikr qilish lozim ya'ni milliy musiqa merosimizning ilk shakllardan ondan bugungi kunga qadar izlanish olib borgan olimlar, musiqashunoslar, asriy xofizlar va ularning og'izdan og'izga o'tib kelgan ijrochilik an'analari xususida so'z boradi. An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir. Musiqa merosimiz ustuni "Shashmaqom" (Sayfuddin Urmaviy) ungacha bo'lgan davrda "O'n ikki maqom" (Buxoro musiqashunos olimlari) tizimi, "Xorazm tanbur chizig'i" va undan ham ilgari saroy sozandalari hamda xofizlarining ijodi, xayot yo'llari haqida chuqurroq anglashga harakat qilsak ularning bilim va malakalari, Olloh in'om etgan qobiliyatlari va ushbu qobiliyatni qanday shakllantirib, rivojlantirib borganliklari haqida anglash oson kechadi. Ushbu jarayonlarni o'rganish jarayoni hamda o'rgatish jarayoni pedagogik tajriba va ko'nikmalarni mustahkamlovchi omillardan sanaladi. Maqom an'analari hamda uning kuylanish yo'llarini o'qib o'rganar ekanmiz sof ovoz, jozibali, mukammal talqin, keng diapazon, shunga xos ko'lam va mahoratda o'z ifodasini topadi. Bunga erishish uchun esa saboq, ilm, bilim, sabot hamda uquv lozimdir. An'anaviy xonandalik

bir qator uzluksiz rivojlanib boruvchi omillarga tayanadi: kuy, she'r matnini puxta o'rganish, ijro maqsadini imkon qadar to'la ochib berish, ovoz yo'nalishidagi omomentik qoidalarni aniq ifodalash ana shunday omillardandir. Milliy musiqiy bezaklar, ovozning o'zbekona tuslanishi va sadolanishini ta'minlash, ijro jarayonini to'laligicha va alohida-alohida holda uni o'rab turgan ijroviy-ijodiy, ilmiy-nazariy tomonlarini qiyosiy o'rganish san'atkorlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Ijroni qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, mohiyatini anglashda innovatsion vositalar, xususan ovozi yozuvlar va albatta ustozona jonli ijrolardan foydalanish talab etiladi. Ushbu jarayonlar negizida ham pedagogik mahorat yotadi aslida. Ko'rinishidan murakkab bo'lgan ushbu jarayonlar aslida tartibi, qonun qoidasi va boshlanish nuqtasini aniq olish va natija kutilganidan a'lo bo'ladi. Pedagogik kompetensiyalar ham shu jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Ta'lim tarbiya jarayonlari davlat nazoratidagi umummilliy masala hisoblanadi. Mamlakatimizda ta'lim, ya'ni o'qitishni tarbiya bilan uyg'unlikda olib boriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim jarayonini tubdan yaxshilashni talab qilar ekan, kompetentli pedagoglarni tayyorlashda ham ana shu talablardan kelib chiqqan holda yondashilishi ko'zga tashlanadi. Kompetensiyalik yoki juda mahoratlilik, oliy malakali pedagoglarni tayyorlash zamonamizning eng dolzarb masalasiga, aytish joiz bo'lsa, davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasiga aylangan. Bugungi kunda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yetuk mutaxassisga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Umumiy olib qaraganda har bir javhada kasbiy kompetensiya masalasida dunyo pedagoglari tajribasini tatbiq qilish yoki an'anaviy o'zbek pedagogikasi me'yorlaridan kelib chiqqan holda kompetensiya mezonlarini belgilashda fikrlar hilma-xil bo'lib, hali yechilmagan masalalar talaygina. Bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassisliklarga, fan taraqqiyotida, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilayotgani e'tiborga molik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. -T.: Book class servis, 2016
2. Farberman B. L, Musina R. G., F. A. Djumabaeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.-T.: 2002
3. M. Yo'lchiyev An'anaviy yakka xonandalik. o'quv qo'llanma Toshkent 2018.

### **SINF RAHBARINING OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIGI**

(bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun)

**Nurmanova Dilfuza Jamilovna**

Samarqand viloyati PYMO'MM, Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi [dilfuzanurmanova05@gmail.com](mailto:dilfuzanurmanova05@gmail.com)  
+998-93-665-56-60

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sinf rahbarlik faoliyatida uchrashi mumkin bo'ladigan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida allomalarimiz hamda zamon talablariga muvofiq tarzda yechimlar tavsiya etilgan. XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishini o'quvchilarning va ularning ota-onalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim-tarbiya, ota-ona, bola, jamoatchilik, bo'lajak sinf rahbar, farzand, ahloqiy, hayotiy.

**Аннотация:** Эта статья статье речь идет о проблемах, с которыми могут столкнуться будущие учителя начальных классов в управленческой деятельности класса, и их решениях, по мнению наших ученых, и рекомендуемых решениях в соответствии с требованиями времени. Подчеркивается, что на освоение жизненных навыков, необходимых в XXI веке, могут оказать положительное влияние учащиеся и их родители.

**Ключевые слова:** образование, родитель, ребенок, сообщество, будущий классный руководитель, ребенок, мораль, жизнь.

**Abstract:** This article is about the problems that the future primary education teachers may encounter in the classroom management activities and their solutions, according to our scholars and recommended solutions in accordance with the requirements of the time. It was highlighted that the learning of the necessary life skills in the 21st century can have a positive effect on the students and their parents.

**Key words:** education, parent, child, community, future class leader, offspring, moral, vital.

Ta'lim-bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga tayyorlashning asosiy vositasidir. Shu bois o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini hayoti davomida qo'llaydi.

Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Inson bilimga ega bo'lishni istasa avvalo tarbiyalanishi lozim. Tarbiyali inson esa mukammal ilm sohibi bo'ladi. Har bir mamalakatning buguni va ertangi kuni ta'lim-tarbiya sifatiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida ta'lim bilan tarbiya uzviyligini ta'minlash uchun o'qituvchi ayniqsa sinf rahbarlarning o'rni beqiyosdir. Maktab ta'limida o'quvchilarni ilk ta'limda moslashish davrida boshlang'ich sinf rahbarlarining xizmati katta. Bu borada qilinadigan ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'limning bakalavryat bosqichidagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ya'ni talabalar bilan ham anchagina salmog'li ishlarni tashkil qilish lozim. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishlash jarayonida bevosita sinf rahbarlik vazifasini bajarishadi. Shunga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sinf o'quvchilari, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan birgalikda ishlash bo'yicha ishlarni amalga oshirishda oliy ta'limda Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlarida yoki Tanlov fan (tashkilot ixtiyoridagi) soatlari hisobiga ota-onalar bilan ishlash yoki ota-onalarning mas'uliyatlarini oshirish bo'yicha ham ma'ruza, amaliy (seminar) dars mashg'ulotlarini ham kiritishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mehnat faoliyatini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga dars berish bilan boshlashadi. Ish jarayonida sinf o'quvchilarini maktab va dars mashg'ulotlarida faolligini ta'minlash maqsadida albatta ularning ota-onalariga murojaat qilishadi. Bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash ham hali tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchida ota-onalar bilan konflikt (nizo)lar yoki o'zaro tushunmovchiliklari sodir bo'lishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim-tarbiya uzviyligini nuqsonlarsiz tashkil qilishda o'quvchilarning ota-onalarini hamkorlikka chaqiradi. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "Kichik Vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatarga ega bo'lmog'i shart. Farzandiga o'zi na'munali fazilatlar ila o'rnak bo'la oladigan ota-onalarning bolani kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, jamiyatga foydasi tegadigan komil inson bo'ladi.

Pedagogikadagi mashxo'r A.S.Makarenkoning fikricha "..... tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyin tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" [1] ekanini qayd etib o'tgan. Aynan shu vaqt oralig'ida ota-onadan kata mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'illanishi kerak. Aynan shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Bu burchga mas'uliyat bilan yondoshishi kerak. "Kelajak kafolatlanishini istagan ota-onalar unga-bunga sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini

ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Boshqa yo'nalishlar uchun sarflangan mehnatlar bekor ketishi mumkin, ammo farzand kamoli uchun sarflangan mehnatlar bitmas-tuganmas xazinaga aylanadi" [2]. Farzand kamoli uchun sarflangan mablag' va vaqt ertangi farovon hayot uchun asos bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Aytaylik agar ota-ona o'z farzandiga e'tibor bermasa bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Bola tarbiyasida ularning yoshligidan befarq bo'lmay, uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tibor berishi kerak.

Har bir ota-onalar tarbiya berishda eng avvalo, salomlashishni, kattalarni hurmat qilishni o'rgatishi lozim. Tarbiyaning boshi salomlashishdan boshlanishi haqida "Gapning boshikalom, odob boshi-salom" degan xalq iborasi avloddan avlotga o'tib kelmoqda. Ajdodlarimiz azaldan yosh avlodni go'zal xulqli, odobli, ilmi, qobil farzand bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berishgan. Agar bola noqobil bo'lib ulg'aysa, undan faqat ota-ona emas, jamiyat ham aziyat chekadi. Shuning uchun ham oilaviy tarbiya muhim siyosiy ahamiyatga egadir. Bola dastavval tarbiyani oiladan oladi. Bolani tarbiyalash haqida xalqimiz orasida ko'plab afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ertaklar yurishi ham bejiz emas. Donishmandlar bolani ona qornidan boshlab tarbiya qilish kerak deyishadi. Qachonki, bola tarbiyasi u mukammal ilm sohibi, komil inson bo'la oladi. Demak ota-ona, oila, mahalla, maktablar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmi, tarbiyali qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. "Bir bolaning tarbiyasiga yetti mahalla ota-ona" – deganlari ham bejiz emas [4]. Bolani tarbiyalashda agar maktab yoshida bo'lsa ota-ona va maktab hatto mahalla ham doimo yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bolalar tarbiyasida mahallaning o'rnini kamayib borayotganligi, ma'naviyatimiz uchun eng katta xavf-aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganligini qayd etdilar [5]. Haqiqatdan ham kundan kunga bunday insonlarning sonlari ortib bormoqda. Shu o'rinda aholida ta'kidlab o'tmoq kerakki, hozirgi yoshlar ham kata yoshlilar nasixat berganlarda "Sizga nima?", "Bu meni ishim", "Menga sizning nasixatingiz kerakmas, ishingga aralashmang" kabi jimgalar orqali yoshlarning o'zidan katta yoshlarga gaplar aytilmoqda. Chunki, aynan bu kabi insonlar bugun ota-ona va ular farzandlariga ta'lim bilan tarbiya berayotgan maktab o'qituvchilariga ham bu kabi qo'pol gaplarni ishlatmoqdalar. Bu ham tarbiyasizlikning bir namunasidir. Aynan shu inson oilada noto'g'ri tarbiya topgan yoki tarbiyasining qaysidir joyida xatolik ketganki bugun u jamiyatda tarbiyasiz yoki madaniyatsiz degan nom olyapti. Bu esa yosh avlodga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umrini va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimiz asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilganlar. Jumladan, Imom al-Buxoriyning "al-Adab al-Mufrat" hadilar to'plami, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u blig", Kaykovusning "Qobusnoma", Husan Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Jaloliddin Doniyning "Ahloqi Doniy", Abu Lays Samarqandiyning "Bo'stonul-orifin" asarida tarbiya va tarbiyalanishning ma'nosi, "Tanbehul g'ofiliyn" asarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish hamda yana ko'plab mutaffakirlarimiz o'z asarlarida shu kabi g'oyalarni ilgari surganlar. Farzand tarbiyasida yo'l qo'yiladigan xato yoki kamchiliklar:

- Farzandni doimiy ravishda erkalatish uning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga, mustaqil qaror qabul qila olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada esa hayot yo'lida o'z o'rnini topolmasligidir.

- Bolalarni tinglanmasliklari, qo'llab-quvvatlanmasliklari ulardagi ishtiyoqning so'nishi va kelajakda odamlar orasida erkin bo'lolmasliklari hamda o'z fikrini aniq, ravon yetkazib beraolmasliklari bilan qiynalishadi.

- Bolalarning barcha istaklarini muhayyo qilaverish uning tarbiyasiz bo'lib ulg'ayishiga olib keladi.

- Bola tarbiyani dastavval oiladan keyinchalik maktab va jamiyatdan oladi. Xalqimizda shunday naql bor: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Demak biz bolaga tarbiya berishni istar ekanmiz avvalo o'zimiz tarbiyada o'rnak bo'lmog'imiz lozim. farzandingizga



nimanidir o'rgatmoqchi bo'lsangiz faqat gap bilan emas, unga amalda o'zingiz ham birgalikda bajarib ifoda etib bering. Har aytgan gapingizda qilgan amalingiz bilan o'rnak bo'ling. Shundagina so'zingizning qiymati ortadi.

- Haddan ortiq e'tibor berberish ham bolaning tarbiyasiga yomon ta'sir qiladi. Farzandingizga o'zi mustaqil bajara oladigan ishlarni qilishga imkon yaratib bering. Agar bolani o'zi imkoni yetadigan ishlarga ham ko'mak beraverilsa ota-onaning ko'magiga suyanib qoladi. Natijada bola ota-onasining ko'magisiz hech bir ishni qilmaydiga, boshqalarga tobe bo'lib qoladi.

- Farzandingizga asli tarbiyadagi jazoni "urib" bermang! Bu bolani kelajakda xato qilmaslikka o'rgatmaydi. Aksincha hayotga va jamiyatga nisbatan nafrat hissini ortiradi. Bu jarohatlar uning kelajakda ota yoki ona bo'lgan takrorlash ehtimolini oshiradi.

- Farzandni o'ta mustaqil qilish uning o'zboshimcha va hudbin bo'lishiga zamin yaratadi.

- Bolaga o'ta hushmuomalalik ham undagi kibrni ortdiradi. Tarbiyadagi bu kabi qisman og'ishlar ham farzand kelajagi uchun bazan yomon oqibatlariga sabab bo'ladi.

Farzand tarbiyasidagi ayrim xatoliklarni yuqorida sanab o'tdik. Zotan bola tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati qanchalik beqiyos bo'lsa ustozning ham o'rni shu qadar beqiyosdir. Chunki bola tarbiyasida bilim olishiga ham kata ta'sir qiladi. Ota-ona farzandini ilmiy komil inson qilib tarbiyalash istagini ustoz orqani mujassamlashtiradi. Demak ota-ona o'qituvchi bilan doim aloqada bo'lishi muhimdir. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. Farzandining kamolini ko'rishni istagan ota-ona barcha mas'uliyatni ustozga yuklamaydi, aksincha ustoz bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Ota-onalarning bu o'rinda farzandlariga o'qitirishi lozim bo'lgan ishlardan biri shuki, bola kamolotida ota-onaning o'rni qanchalik beqiyos bo'lsa, ustozning ham undan kam bo'lmagan qiymati bordir. "O'qituvchilar yomg'ir tomchisi bilan taqqoslanadi. Yomg'ir har bir donning hayotiyligini uyg'otar ekan, o'qituvchining asosiy maqsadi har bir o'quvchining ijobiy imkoniyatlarini ochib berishdir" [7] tomchi suvlar orqali suvga tashna o'quvchilarni kelajagi bor inson sifatida shakllanadi. O'qituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Hayotning past-ubalandi, oq-u qorasini ustoz tanitadi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabga birinchi kelgan o'quvchi birinchi ustozni yani boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidir. Ota-onalar farzandi maktabga chiqqanidan so'ng ustozni ayniqsa sinf rahbarlari bilan tez-tez uchrashib tursa, natijasi albatta go'zal bo'ladi. Bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan va bolasining tarbiyasiga befaqr bo'lmagan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nimalar bilan band bo'lishi haqida o'qituvchisini (sinf rahbarini) xabardor qilib turishi kerak [8]. Shunday ekan ular birgalikda harakat qilmog'lari kerak. "Ilm bahorda ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi" [9]. Ana shu yomg'ir orqali o'qituvchi o'quvchilariga ilm bulog'idan ularni sug'oradi. Bu ilm bulog'idan qonib-qonib ichihs o'quvchining o'ziga va oiladagi ota-onaning ustoz va maktabga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Shunday ekan bolani komil inson bo'lishi uchun o'qituvchi, ota-ona va bolaning o'zi ham harakat qilmog'i kerak. Hamkorlikda ish qilinsa, bolani kamolotga yetkazish yo'lida o'sish bo'ladi. Shu sababli farzandini kamolotini istagan ota-ona ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va nazorat qiladi. Uning tarbiyasiga ilm olishiga e'tibor qaratadi.

Farzandining kamolini ko'rish barcha ota-onaning orzu va buning uchun esa ota-onalar qo'llaridan kelgan barcha ishlarni amalga oshiradilar. Buning uchun eng qisqa yo'l maktab yani ustoz bilan hamkor qilishdir. shu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf rahbarlari uchun ota-onalar, sinf jamoasidagi o'quvchilar bilan quyida keltirilgan tavsiyaviy ishlarni amalga oshirsalar mehnat faoliyatida yaxshi natijalarni qo'lga kiritadilar.

### **O'qitishda interfaol metodlarini qo'shish.**



Bugungi kunda ta'lim berish tizimi har bir o'quvchining o'ziga xosligini inobatga olgan holda yondashishni talab etishini yaxshi biladi. Bitta yechim hammaga mos keladi deb o'ylay olmaysiz. Shuning uchun butun dunyo o'qituvchilari ko'plab o'qitish metodlarini sinab ko'rmoqda. Sinfni boshqarish onlayn yoki oflayn bo'ladimi, individual ta'lim, o'yinga asoslangan darslar, aylanma sinflar, loyihaga asoslangan topshiriqlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, jamoaviy faoliyat va hamkorlikda o'rganish o'qituvchilar tomonidan o'z sinf jamoalarining tarkibiga qarab qo'llanilmoqda. Turli xil o'qitish metodologiyalarini amalga oshirish siz tomondan samarali sinfni boshqarish ko'nikmalarini talab qiladi.

Sizning sinfingiz qanday o'quvchilardan iboratligini tahlil qilishingiz va ba'zi noan'anaviy o'qitish strategiyalarini sinfni boshqarish usullariga kiritishingiz kerak. Natijada o'quvchilaringiz dars vaqtida chalg'ishi, shivir-shivirlarga yoki boshqa ishlarga berilish ehtimoli kamayadi [10].

#### **Qiziqarli tadbirlarni rejalashtirish.**

Darslaringizda barcha usullardan foydalanishingizga qaramay hali ham sinfda o'qitilayotgan darslaringizga e'tiborsiz yoki qiziqishsiz o'tiradigan o'quvchilaringiz bo'lsa, siz sinfda qiziqarli tadbirlar usulida dars mashg'ulotlarini tashkil qiling. Masalan, mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'quv filmlari, videolar va enerjayzerlarni (tetiklashtiruvchi o'yinlar) qo'shishingiz mumkin. Agar siz ularning e'tiborini jalb qila olsangiz, sinfni boshqarish osonroq bo'ladi.

#### **Ideal xulq-atvor bilan na'muna bo'ling.**

Bolalar atrofda xatti-harakatlarga taqlid qiladilar. Shuning uchun ota-onalar va keksalar bolalar oldida doimo nutq va muomala madaniyatiga e'tibor berishlari lozim. O'quvchilaringiz oldida o'zingizning xulq-atvoringizni nazorat qilishdan tashqari yaxshi tomonlarini ko'rsata olishingiz kerak. Siz har doim maktab hududida nutqingiz va harakatlaringizga e'tiborli berishingiz kerak. Masalan: Siz dars o'rtasida telefondan foydalana olmaysiz va o'quvchilar ham xuddi shunday qilishdan tiyilishlarini kuta olmaysiz. Chunki o'quvchilaringiz o'zlari guvoh bo'lgan harakatlarini takrorlaydilar.

Shunday qilib, siz har doim o'quvchilaringizga ideal xulq-atvorni ko'rsatishingiz kerak. Bundan tashqari, ular qanday qilib xushmuomalalik bilan gapirishlari, fikrga hurmat bilan qarshi chiqishlari, diqqat bilan tinglashlari, boshqa odam gaplashayotganda diqqatli bo'lishlari va ko'z bilan aloqa qilishlari kerakliklari haqida ham aytib o'tishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Ijobiy fikr bildirish yoki mukofotlash.**

Ijobiy fikr-mulohazalar va mukofotlar har kimni har qanday ishda qo'lidan kelganini qilishga undaydi. Agar siz o'quvchilaringiz darsda ko'proq e'tibor berishlarini va sinfdagi mashg'ulotlarda qatnashishlarini istasangiz, ushbu yondashuvdan foydalaning. Doimo o'quvchilaringizning har qanday yutug'ini e'tirof eting.

Ota-onalarga qo'ng'iroq qilish va ularning farzandlarining sinfdagi faoliyati haqida ijobiy fikr bildirish uchun vaqt ajrating. Ushbu ijobiy harakatlar natijasida o'quvchilaringiz sinfda faolliklari ortadi. O'z vaqtida olingan fikr-mulohazalar, shuningdek, ota-onalarni o'z farzandlarining darslarni o'zlashtirishlarini nazorat qilish bilan shug'ullanish uchun majbur qiladi.

Ba'zan o'quvchilaringizni vaqti-vaqti bilan faolliklari uchun mukofotlang. Har qanday o'quvchi sinfda ideal xulq-atvorni namoyish qilsa, ularga bonus (qalam yoki shokolad) bering. Siz ko'proq o'quvchilarni ushbu harakat bilan rag'batlantirayotganini ko'rasiz va natijada sizdan mukofot yoki minnatdorchilik olish uchun ya'nada faolliklari ortadi.

#### **Sinf jamoasiga moslashuvchan bo'ling.**

Siz uchun ham, o'quvchilaringiz uchun ham har bir kun bir xil emas. Siz sinfning kayfiyatini his qilishingiz va shunga mos ravishda darsni o'tishingiz kerak. Agar siz uzoq vaqt sinfda qolsangiz, o'quvchilaringizni ochiq havoga olib chiqing va u yerda darsingizni davom ettiring. Shunday qilib, sinfni boshqarish nima degan savolga javob shundaki, sinfingiz o'quvchilarini tushunish va ularning holatlariga muvofiq boshqarish bu kuchli sinf boshqaruvining namunasidir.

Agar o'quvchilaringiz dars davomida zerikib qolgan bo'lsa, dars davomida tetiklashtiruvchi o'yinlar yoki nostandart savol-javoblar o'yinlaridan foydalaning. Siz vaqt talabiga moslasha olishingiz va ular uchun o'quv muhitini o'zgartirishingiz kerak. Ushbu strategiya o'quvchilaringizga mos keladi va vaqt o'tishi bilan ular sizning darslaringizda zerikmasliklariga ishonishni boshlaydilar. Ishonch samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlaridan biridir [10].

#### **Yomon xatti-harakatlarga darhol javob qaytaring.**

Ko'pgina o'qituvchilar dars boshlanishidan oldin doskaga chizilgan yoki yozib qo'yilgan noxush narsa va so'zlar, dars davomida tasodifiy hushtak yoki kulgilardan qochib, xatoga yo'l qo'yishadi. Buni kim va nima uchun qilganini so'rab vaqtni behuda sarf qila olmasligingiz tushunarli. Lekin, albatta, bunday hatti-harakat hal qilmasdan qoldirishga yo'l qo'ymaslik kerak. Bir hurmatsizlik yana bir boshqa harakatga olib keladi va siz buni bilishdan oldin butun sinf buday ishlarga qo'shiladi. Birinchidan, nima uchun bu holat sodir bo'lganligini tahlil qilib oling. Agar sizning dars berish uslubingiz ularning e'tiborini jalb qila olmaydi deb o'ylasangiz, hamkasblaringiz bilan darslaringizni qiyosiy taqqoslab ko'ring va ularning metodlaridan darsingizga foydalaning. O'quvchilaringiz bilan chegara saqlagan holda iliq munosabat o'rnatish hamda xushmuomalalik va mehribonligingizdan voz kechmagan holda yomon xatti-harakatlarga qat'iylik bilan munosabatda bo'ling [10].

Zero, siz har safar aybdorlarni ushlay olmaysiz, lekin har safar tartibsizlik vaqtida voqealarga e'tiborsiz bo'lmasligingiz va o'z munosabatingizni bazan sinfni ommaviy jazolash orqali namoyon qilganingizda, ular o'z xatolarini tushunishadi. Sinfni boshqarishning eng yaxshi ko'nikmalarini namoyish qilish uchun siz o'quvchilarning odob-axloq qoidalari va maqbul xatti-harakatlar chegaralarini kesib o'tishlariga yo'l qo'ymasligingiz kerak [10].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham kelajakda ham ustoz ham ota-onadirlar. Faoliyatining boshlanish va o'qituvchilik darvrida ta'lim-tarbiya uzviyligida maktab, o'quvchi va ota-onalarning hamkorligi muhim. Yosh avlodga ilm berish faqat ustozning vazifasi emas balki ota-ona, oilasi, atrof-muhit ham birdek mas'uldir. Ayniqsa bolaning tarbiyasida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-ona o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilmi, tarbiyasi bo'lishi shart. Farzandlarimizning ilmi va tarbiyasi bo'lishi uchun o'zimizni ma'naviy rivojlantirishimiz va bola tarbiyasiga befarq bo'lmasligimiz lozim.

Asosiysi, ota – onalarimiz farzandlarimiz taqdiriga befarq emas. Eng muhumi farzandlarini ma'naviy yetuk, barkamol qilib tarbiyalashni xohlaydi, shuningdek, ota-onalar farzandlarini turli tahdidlar va salbiy ta'sirlardan asrashni istaydilar. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy bug'ini sifatida bolalarning dunyoqarashi, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayet ehtiyejga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Shu sababdan yuqoriba berib o‘tilgan fikrlarni tavsiyaviy harakter xususiyati bilan kelajakda bo‘lajak boshlang‘ich sinf rahbarlari o‘z ish faoliyatlarida tadbiq etsalab foydadan holi bo‘lmaydi. Zero bir farzandning ta‘lim-tarbiyasi nafaqat ota-onaning balki butun bir jamiyat, millatning ertasidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Al-jome’ as-sahih” asari. Ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati to‘g‘risidagi hadislar to‘plami.
2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarni ijobiy faoliyatga yo‘naltirish metodlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN: 2181-2484, Volume 1. ISSUE 2 2021. 4-9 b.
3. Raximqulova M.B., Nurmanova D.J. // Boshlang‘ich ta‘limdagi va kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish kurslar misolida) // Uslubiy-qo‘llanma. Toshkent.-“Qamar-media” nashriyoti.-2022.-80 bet
4. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O‘quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishdolarb pedagogik muammo sifatida // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. –С. 956-962.
5. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish / International Scientific Practical conference “Topical Issues of Science” Xalqaro konferensiyasi. – USA: NEW York university
6. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabatni rivojlantirish // “Образование и наука в XXI веке” Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
7. Maktab oiladan boshlanadi. – T.: Yangi asr avlodi. 2013.
8. Salaeva M.S. O‘tmish mutafakkirlarimiz ota-ona va farzandlar munosabatlari xususida // Mahfitar yog‘dusi. № 3. 2000. – B. 76-80.
9. Salaeva M.S. O‘zbek oilalarida bolalarning o‘z oilasidagi hayotga munosabatlarining etno-psixologik xususiyatlari. / “O‘zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muamolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma‘ruzalari to‘plami. –TDIU. 24-25-may 2000 yil. –B. 81-82.
10. Nurmanova D.J. Sinf rahbarining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish // Ta‘lim, fan va inonatsiya. ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 89-92-betlar.
11. Nurmanova D.J. Xorij tajribalari asosida sinf jamoasini boshqarish usullari // Kasb-hunar ta‘limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma‘rifiy jurnal. Toshkent. – 2023-yil, 1-son. 28-31-betlar.
12. Nurmanova D.J. Boshlang‘ich sinf rahbarining innovasion kasbiy kompetentligini shakllantirish // Образование и наука в XXI века|Научно-образовательный электронный журнал (ISSN: 2658-7998) Випуск №10 (том 1) (январь, 2021) Ст. 92-97

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHINING KASBIY VA SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAHLILI**

Zikirova Nodira Yo‘ldoshevna  
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Pedagogika va o‘qitish metodikasi kafedrasida assistenti

### **ANNOTATSIYA.**

Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish omillari ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan. Kasbiy-metodik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ularda kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirish yo'l-yo'riqlarilari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Professional, pedagog, zamonaviy o'qituvchi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, shaxsiy sifatlar, komponent

#### ANNOTATION.

In the article of primary school teachers professional and personal qualities development factors its significance as a scientific-pedagogical problem has been studied. The theoretical and pedagogical aspects of the development of professional and personal qualities of primary school teachers are scientifically based. The correct organization of professional-methodical activities, guidelines for the formation of professional and personal qualities are discussed.

**Keywords:** Professional, pedagogue, modern teacher, self-development, self-improvement, personal qualities, component

#### АННОТАЦИЯ.

В статье исследуется значение факторов развития профессиональных и личностных качеств учителей начальных классов как научно-педагогической проблемы. Научно обоснованы теоретико-педагогические аспекты развития профессиональных и личностных качеств учителей начальных классов. Обсуждаются правильная организация профессионально-методической деятельности, направления формирования профессиональных и личностных качеств. **Ключевые слова:** Профессионал, педагог, современный педагог, саморазвитие, самосовершенствование, личностные качества, компонент

O'qituvchi - har doim talab qilinadigan kasb. Bu hamma tomonidan muhokama qilinadigan va qadrlanadigan faoliyat turi. Xo'sh, bugun qanday yaxshi o'qituvchi bo'lishi kerak? Haqiqiy professional zamonaviy o'qituvchi bu, birinchi navbatda, mohir o'qituvchi. U o'z kasbining asosiy vazifasini a'lo darajada bajaradi. Bu boshqalarga ta'lim berish uchun berilgan odam. Yaxshi o'qituvchi bolalarga ajoyib sifatni - dunyoni bilish va rivojlanish qobiliyatini beradi. U ma'lumotni idrok etish, qayta ishlash va mustaqil ravishda qo'llashni o'rgatadi. Bunga faqat quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi erishishi mumkin:

- bolalarni sevadi va ularga qiziqish bildiradi;
- bolalarning ichki dunyosiga kira oladi;
- turli yoshdagi maktab o'quvchilarining psixologiyasini biladi;
- bolaning shaxsiyatining o'ziga xosligini qadrlaydi;
- bolalarning xatti -harakatlarini kuzata oladi va xulosa chiqaradi;
- intellektual salohiyatni baholashi va bolaning individual rivojlanish strategiyasini tuzishi mumkin;

- bolalar bilan osongina muloqot qiladi, ularning sevgisi va hurmatiga erishadi;

- bolalar jamoasini muvaffaqiyatli boshqaradi;

- o'z fanini chuqur biladi va yetkaza oladi;

- o'z fani bo'yicha yangilikka tayyor va rivojlanishga intiladi.

O'qituvchi pedagogik faoliyat jarayonida ko'plab funktsiyalarni bajaradi. Ushbu funktsiyalarning muvaffaqiyati o'qituvchining shaxsiyati, uning kasbiy fazilatlarini bilan belgilanadi. Pedagogik ishning o'ziga xos xususiyati o'zi uchun, uning shaxsiyati uchun bir qator talablarni qo'yadi, ular professional ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar deb nomlanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini ro'yxatini ishlab chiqishga urinish uzoq tarixga ega. Yozuvchi, jurnalist va kitob noshiri N.I. Novikovning ta'kidlashicha, tarbiyachi quyidagi talablarga javob berishi kerak;

- to'g'ri va aniq fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lish;

- bolalarga murojaat qila olish;

mehribon bo'lish, xorijiy tillarni yaxshi talaffuz qilish;

yaxshi xulq-odob va munosib tashqi ko'rinish.

K. D. Ushinskiy "Har bir ustozda, ayniqsa quyi maktablar va davlat maktablariga tayinlangan ustozlarda nafaqat dars berish, balki xarakter, axloq va e'tiqod ham muhimdir ..." [1]. deb qat'iy ta'kidladi.

O'qituvchi, sinf rahbari, o'quvchining ideal modeli birinchi navbatda o'qituvchida bo'lishi kerak bo'lgan asosiy shaxsiy xususiyatlarni taqdim etadigan model, standart;

ikkinchidan, o'qituvchi funksiyalarini bajarish bo'yicha bilim, qobiliyat, ko'nikmalarga va professiogrammadir.

**Professiogramma** - bu kasb tomonidan insonga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir.

**Pedagogik professiogramma**-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar pedagogik professiogrammada keltirilgan ixtisoslik xususiyatlarini bilishlari lozim. Professiogramma quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

1. o'qituvchi shaxsi xususiyatlari;
2. o'qituvchining ruhiy-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
3. maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuni;
4. ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikni mazmuni.

ma'nosini ushbu tushunchaga asoslanib, biz shaxsni o'rganishning professiografik usuli haqida gaplashishimiz mumkin, unda o'qituvchining bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari u ideal modelga muvofiq bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar bilan taqqoslanadi. Ushbu usul o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishini loyihalashtirishga imkon berishini tasavvur qilish qiyin emas.

Shu bilan birga, o'qituvchining professiogrammasi o'qituvchiga uning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlariga, uning shaxsiyati, qobiliyatlari, psixofiziologik imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan to'liq malaka xarakteristikasini beruvchi hujjatdir.

Zamonaviy o'qituvchi uchun professiogramma yaratish zarurati bir qator sabablarga ko'ra belgilanadi:

ijtimoiy buyurtmaning maktab uchun ahamiyati, o'qituvchilik kasbi;

o'qituvchi shaxsiga jamiyatning o'sib borayotgan talablari;

ijtimoiy va ilmiy-texnik o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda uning kasbiy vakolatlari mezonlarining o'zgarishi.

O'qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo'nalishida quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Bolalarga mehr-muhabbat, kasbga bo'lgan qiziqish, ularda insoniy fazilatlarni tarbiyalash bilan bog'liq ijodkorlik;

2. O'qitishdagi qiyinchiliklar va muammolardan xabardor bo'lish;

3. O'qitish faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj;

4. Tanlangan kasb talablariga mos ravishda o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini anglash;

### **5. Doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish zarurati va pedagogik mahorat asoslarini egallashga intilish. [2].**

O'qituvchi shaxsining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatleri - bu shaxsning aqliy, emotsional-irodaviy va axloqiy tomonlarining xususiyatlari, bu o'qituvchining kasbiy va pedagogik faoliyatining samaradorligiga (muvaffaqiyatiga) ta'sir qiladi va uning individual uslubini belgilaydi.

Zamonaviy o'qituvchi modelining eng muhim professional tomonlari aks ettirilgan.

Fuqarolik (ijtimoiy mas'uliyat, shaxsning ijtimoiy muammolarni hal qilishga faol, g'ayratli hissa qo'shishga tayyorligi);

Bolalarga bo'lgan muhabbat (insonparvarlik, xayrixohlik, sezgirlik, sezgirlik, diqqatlilik, samimiylik, xushmuomalalik va boshqalar);

Optimizm (o'quvchining ijobiy rivojlanish kuchi va imkoniyatlariga ishonish);

Adolat (halollik, vijdonlilik, xolis ish tutish qobiliyati);

Hamjihatlilik (pedagogik takt, jamoatchilik);

Altruizm - fidoyilik (boshqalarning farovonligi uchun g'amxo'rlik); [3].

Qattiq irodali fazilatlar (chidamlilik, o'zini tuta bilish, vazminlik, matonat, kuch, qat'iyat, sabr-toqat, jasorat);

Aloqa qobiliyatlari guruhiga sezgi qobiliyatlari kiradi, bular muloqotning boshlang'ich bosqichida o'zini namoyon qiladigan qobiliyatlar, boshqa odamlarni (o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar) tushunish qobiliyati, shuningdek, pedagogik muloqot qobiliyatlari va pedagogik texnikaning mahorat va qobiliyatlari (to'g'ri uslubni tanlash qobiliyati) va ohang, diqqatni boshqarish, tezlikni his qilish, nutq madaniyatini rivojlantirish, tanangizni boshqarish, ruhiy holatingizni tartibga solish va hk.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy kompetensiyasining birlashishi asosida pedagogik mahorat - eng yuqori professionallik darajasi tug'iladi.

Pedagogik ishning ustasi bo'lish ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini chuqur anglash, ularni amalda mohirlik bilan qo'llash va o'qimishli shaxs shaxsini rivojlantirishda aniq natijalarga erishishni anglatadi.

1. Malaka oshirish kurslari. Hozirgi vaqtda bunday kurslar o'qituvchining o'zini o'zi rivojlantirishning muhim va asosiy bosqichi, o'ziga xos usuli hisoblanadi. Bunday kurslarga odatda ta'lim muassasasi rahbari rahbarlik qiladi;

2. Har bir o'qituvchi joriy yil boshida o'z-o'zini rivojlantirish dasturini tuzishi kerakligini belgilaydigan federal standartlar ham mavjud. Ushbu dastur bir yil oldin ishlab chiqilmoqda va o'z-o'zini rivojlantirish mavzusini ko'rsatib, aniq maqsadlarni belgilashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'qituvchi o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida foydalanadigan adabiyotlarni ko'rsatadi va o'z faoliyatining xulosalarini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi ma'lumotni chuqur o'rganish bo'lib, u keyinchalik malaka va umumiy kasbiy mahorat darajasini oshirish uchun asos bo'lishi mumkin.

### **Adabiyotlar**

1.K. D. Ushinskiy "Kishi—tarbiya asoschisi sifatida" 1867 yil

2.M.Ochilov "Muallim qalb me'mori" T. 2001

3. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. -T.2007

## **BOSHLANG'ICH SINFLARNING "TABIY FAN" MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANILADIGAN TA'LIM TAMOYILLARI**

**Sharopova Gavhar**

**Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani**

**2- umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanni tabiat bilan uzviy bog'lash, tabiat hodisalari o'rtasidagi bu bog'lanishlarni tabiat qonunlari va tamoyillari haqida fikr yuritilgan. Bunday umumiy didaktik tamoyillar har qanday mavzu, shu jumladan, butun atrof-olam bilan bog'liq materiallarni tanlashda kuzatiladi. Asosiy umumiy didaktik tamoyillar - ilmiylik, erkinlik, tizimlilik va izchillik, bog'liqlik tamoyillarini o'z ichiga oladi.

**Калит сўзлар:** ilmiy, olam, tamoyil, idrok, tushuncha, tabiat, tabiiy, tizimliqlik.

"Tabiiy fan" fan sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantirish va o'qitish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ushbu fan dars mazmuniga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'quv fanlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi

Ma'lumki, o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga biron bir fanni o'qitishdan oldin o'quv materiallarini tanlashi va taqdim etish ustida ishlashi kerak bo'ladi. Har qanday fan bo'yicha bilimlar hajmi juda katta va bu bilimlarning bir qismigina o'rta maktab doirasida taqdim etiladi. Xuddi shu vazifa, ya'ni o'quv materialini tanlash fan metodistlari zimmasiga yuklatiladi. Bunday holda materialni tanlash va taqdim etish bir qator pedagogik tamoyillarga rioya qilishni o'z ichiga oladi –umumiy pedagogika (didaktika), maxsus (uslubiy va biologik), umumiy uslubiy bo'lishi mumkin.

"Tabiiy fan" fanini o'qitish jarayonini tashkil etish tamoyillari biologiya kursini o'rganish tamoyillari bilan birlashtirilgan.

Umumiy didaktik tamoyillar har qanday mavzu, shu jumladan, butun atrof-olam bilan bog'liq materiallarni tanlashda kuzatiladi. Asosiy umumiy didaktik tamoyillar - ilmiylik, erkinlik, tizimlilik va izchillik, o'rganish va hayot faoliyati, ko'rish bilan ong o'rtasidagi bog'liqlik tamoyillarini o'z ichiga oladi.

Boshlag'ich sinflarda "Tabiiy fan" mashg'ulotlarida foydalaniladigan umumiy pedagogik (didaktik) tamoyillar:

- Asosiylik -boshlang'ich sinflarda atrofimizdagi olam yo'nalishini umumiy ilmiy jamiyatga ega bo'lgan tabiatshunoslik bilimlari, tushunchalari, nazariyalari, tamoyillari va boshqalarga asos soladi; keyingi sinflarda biologiyani o'rganish tizimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi;

- Ilmiylik – ilmiy bilimlar tizimini shakllantirish, qonunlar, dunyoqarashga hamda amaliy ahamiyatga ega va zamonaviy tasdiqlangan dalil va hodisalar, nazariya va tushunchalar kabi tabiiy fanlardir;

- Imkoniyat va paydo bo'ladigan qiyinchilik tamoyili. Tanlangan material juda murakkab ham, shuningdek juda engil ham bo'lmasligi kerak. Material o'quvchilar yoshiga mos, tushunishi uchun sodda bo'lishi kerak, ularni o'zlashtirishlarining umumiy darajasiga mos kelishi lozim;

- Olamning manzarasi –kichik yoshdagi o'quvchilar tafakkurining yoshga bog'liq xususiyatlarini inobatga olgan holda, atrofimizdagi dunyoni o'rganishda tabiiy va grafik ko'rinishidan ijodiy foydalana olishi;

- Tizimlilik va izchillilik: maqsadli tanlov va ta'limni o'rganishda mantiqiy ketma-ketlikni aniqlash boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun material, uni maktab darsliklari va ish daftarlarida tuzilishi;

- O'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning birligi –talabalarning yuqori bilim darajasiga erishish uchun o'quv jarayonini metodik ta'minlash tizimidan foydalanish, atrof-olamning yaxlit ilmiy tasavvurini shakllantirish, aqliy funksiyalarni rivojlantirish, ijobiy shaxsiy fazilatlar va shaxslik xususiyatlarini (insoniylik, mas'uliyat, axloq va boshqalar) tarbiyalash;

- Ta'limning hayot bilan bog'liqliligi –mavjud tajribaga tayanib eng yaqin tabiiy (maktab hududi, bog'lar, maydonlar, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va boshqalar) va ijtimoiy (teatrlar, muzeylar, sport markazlari, ijod uylari va boshqalar) o'ziga jalb etadigan tarixiy obidalarni o'rganishda bolalar mavzu doirasida darsdan va sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish uchun foydalaniladi;

- Nazariya va amaliyotning birligi –amaliy vazifalarni bajarish orqali nazariy ma'lumotlarni o'zaro bog'lash: geografik xaritalar va dunyo xaritalari bilan ishlash, diagrammalar va jadvallarni to'ldirish, to'plamlarni o'rganish, modellashtirish, loyihalash va shu kabilar;

- Insoniylik – bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish, shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ijodiy tashabbuskorlik, shaxsiy fazilatlar va boshqalar.;

- Integratsiyalashuv –turli tabiiy fanlarning o'zaro bog'liqligi boshlang'ich maktab uchun atrofda dunyo kurslari: astronomiya va geografiya, fizika va kimyo, tarix va iqtisodiyot, anatomiya va fiziologiya va shu kabilar.

Maxsus (uslubiy va biologik) tamoyillar quyidagilarni tashkil etadi:

- Tarixshunoslik -o'quvchilarda tabiatning evolyutsion jarayoni, uning o'zgaruvchanligi, tarkibiy qismlarining murakkabligi to'g'risida xabardorligini, insoniyat jamiyatining rivojlanish bosqichlarini, yutuqlarini yoritib beradi; inson ixtirolari, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlar; geografik va biologik kashfiyotlar tarixi bilan tanishish, turli olimlarning fan rivojiga qo'shgan hissalarini o'rganish;
- Tabiiy ko'rinishning samaradorligi -o'quvchilarni jonli tabiat ob'ektlari bilan va jonsiz tabiat ob'ektlari bilan ishlash imkoniyatini yaratadigan tabiiy ko'rinishning ustunligi;
- Tabiatga kirish –tabiat qo'yniga ekskursiyalar (o'rmon, dala, suvhavzasiga, botanika bog'iga va boshqalar) tashkil etish, tabiatda mashg'ulotlar tashkil etish va maktab tajriba uchastkalari, kuzatuvlar va amaliy ishlarga jalb etish;
- Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish -atrof-muhitga oid dastlabki tushunchalar bilan tanishish ekologik muvozanatni saqlash qoidalari, ekologik halokatlarning sabablari va oqibatlari va hokazolarni tashkil qilish mumkin, bolalarning ekologik faoliyati (ariqlar bo'yini tozalash, ko'chatlar ekish, gulzorlarni tashkil qilish, maktab hududini obodonlashtirish va shu kabilar);

#### Umumiy uslubiy tamoyillar:

- O'zaro bog'liqlik –jonsiz va jonli tabiatning barcha elementlarini o'zaro bog'liqligini o'rganish, ya'ni gidrosfera, litosfera, atmosfera, bosfefera haqidagi dastlabki tushunchalar;
  - Tabiat to'g'risida yaxlit bilim va uning jamiyat bilan o'zaro munosabati –tabiat qonunlarini, uning xilma-xilligini tushunish usullarini aniqlash, tabiatni va insonni saqlash va boyitish asosida o'zaro foydali "hamkorlik" usullari tabiiy resurslar–atmosfera ta'limi g'oyalarini amalga oshirish;
  - Tabiatning rivojlanish qonuniyatlarining ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlariga nisbatan ustunligi -insonning "tabiiy ildizlari", jamiyat, insonni tabiatning bir qismi, elementi sifatida ko'rib chiqish inson bilan tabiat birgalikda rivojlanishi.
- Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, kelajakning vorislari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, xususan tabiat bilan bog'liq bilimlarini asosli shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Fanni tabiat bilan uzviy bog'langan, bir-biriga sababchi bo'lgan jism va hodisalardan iborat deb qarash, tabiat hodisalari o'rtasidagi bu bog'lanishlarni tabiat qonunlari va tamoyillari tariqasida ifoda etiladi.

#### Adabiyotlarro'yxati

1. Е.Г. Новолодская “Методика преподавания предмета «Окружающий мир» в начальной школе” Учебно-методическое пособие 2016 г
2. Сурувикина С.А. Теоретико-методологические основы развития естественнонаучного мышления учащихся в процессе обучения физике //диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.02, Челябинск, 2006.
3. Шодиев Р.Д., Мухаммадиева М.М. Изучение окружающего мира учащимися начальных классов на основе гуманистической концепции развития личности.//Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. №2-3.2015.

#### **BO‘LAJAK MUTAXASSISNING INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dosenti  
 Xaydarova Oliya Kaxxarovna.  
 Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi  
 Karimova Farangiz Nomoz qizi

Ta'lim jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning muhim omili hisoblanib, uning taraqqiyotida inson ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarning asosini – bo'lajak mutaxassisni rivojlangan zamonaviy kasbiy tayyorlash tashkil etadi.



“Xalqimiz, shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”<sup>31</sup>

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajasidagi istiqbolini ta‘minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida katta o‘zgarishlar bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunday o‘zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma‘naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta‘lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Ta‘lim – taraqqiyot bosqichidagi eng muhim tizim. Jamiki o‘zgarishlar, yangilanishlar bevosita ta‘lim rivoji bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Toshkent shahrida “Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi” bilan tanishish davomida “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo‘lmaydi”,<sup>32</sup> deb ta‘kidlagan edilar.

O‘zbekistonning kelajagi, uning taraqqiyoti va ravnaqi ko‘p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi kasb tayyorgarligi, va ma‘naviy yetukligi, milliy-madaniy qadriyatlar va tarixiy merosga yangicha innovatsion yondashuviga bog‘liq.

Innovatsiya kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta‘sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy qilishda talabalarda motiv komponenti hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Motivlarni hosil qilishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- Berilgan bilim va ko‘nikmalarning zarurligini tushuntirish;
- Shaxsiy mas‘uliyat hissini yaratish;
- Jarayon vaqtida ishtirokchilarning qiziqishini uyg‘otish va saqlab turish;
- O‘rttirilgan bilimlardan hayotda qanday foydalanish mumkinligini tushuntirish;
- Ma‘qullash, e‘tirof etish, rag‘batlantirish;
- Sog‘lom raqobat;

• O‘lingan bilimlardan kelajakda talabalar qanday muvaffaqiyatlar qozonishilari mumkinligi haqida muloqot qilishga imkon berish;

- Tanlash imkoniyatini yaratish.

Shuni ta‘kidlash lozimki motivlar hosil bo‘lishi uchun talabalarda ehtiyoj tug‘ilishi lozim. Ehtiyojlarni e‘tiborga olishda quyidagi imkoniyatlar yaratilishi kerak:

1) fiziologik, ta‘lim jarayoniga xalaqit bermaydigan xona ya‘ni, talabalar uchun qulay sharoit yaratish;

2) xavfsizlik, (bu yerda nafaqat jismoniy, balki muloqot vaqtidagi xavfsizlik to‘g‘risida so‘z bormoqda) ya‘ni talabalar bemalol savol berish va baxslashish muhiti vujudga kelgan bo‘lsa.

Faqatgina ishonch va o‘zaro hurmat muhiti har bir talabaga samimiy bo‘lish, o‘z fikrlarini bemalol bayon etish hamda begona nuqtai nazarni egallash – o‘rganishga imkon beradi.

Hozirgi davr ta‘lim cohasida yangi-yangi vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab bermoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, o‘qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog‘liq. O‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog‘lik vijdon, aql va kasb mahorati bilan bajarishi jamiyat kelajagini ta‘minlovchi muhim omildir.

---

<sup>31</sup> (O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar)

<sup>32</sup> (Sh.Mirziyoev. “Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi” haqida. Xalq so‘zi. gazetasi 29 dekabr, 2018)

Innovatsion yondashuv asosidagi pedagogik mahoratni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

Birinchisi, innovatsion yondashuv asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar kontingentining yangicha va samarali ishlash sirlarini o'rganib chiqish.

Ikkinchisi, pedagoglarning innovatsion yondashuv faolligini oshirish va aksincha, unga to'sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlash, innovatsion yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo'llarini izlash. Mazkur masalalar bo'yicha to'plangan axborotlar maktab o'qituvchisi pedagogik faoliyatini innovatsion yondashuv elementlari bilan boyitishda va uning samarali bo'lishiga yordam beradigan bir qator chora-tadbirlarni belgilab olishga yordam beradi.

Uchinchisi, tajribali o'qituvchilarning innovatsion yondashuv asosida ishlash sirlarining o'ziga xosligi, tuzilishidagi farqlari va xarakter xususiyatlarini chuqur o'rganish. Buni bilish o'qituvchining innovatsion yondashuv faoliyatining motivli asosini "tasvirlab" berishga, uni o'z etaloni sifatida qabul qilishga, o'qituvchi kasbiga qiziqishning o'quv yurtidagi rivojlanish jarayonini bilish, yosh kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklarni ko'rish, ularning amaliyotini to'g'ri yo'lga yo'naltirishga yordam beradi.

Ta'lim sohalari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqlik, bir sohadagi innovatsiyalar, istalgan boshqa sohada innovatsiyalarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ta'limning ayrim komponentlarida innovatsiyalarning joriy etilishi, qo'llangan innovatsiyalarning umumiy samaradorligini aniqlashni talab etadi.

Ta'lim jarayoni innovatsiyalarini klassifikatsiyalashda (tasniflash) innovatsiya inson faoliyatining muhim ko'rinishlaridan biri ekanligini hisobga olish lozim. Bu faoliyat jiddiy chegaralar va bo'linishlardan holi. Innovatsiyaga ta'lim jarayonining hamma tushunchalari va aspektlarini kiritish va ularni bir tushunchaga mujassamlashtirish qiyin. Innovatsiya ta'lim mazmunini tashkil qilish jarayonida uning metodologiya va texnologiyasiga ta'sir qiladi. Lekin shunday bo'lsada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsiyani tasniflash zarur.

Bizning fikrimizcha birinchi asosiy mezon bu innovatsiyalarning qanday muhitda joriy qilishga bog'liq. Ikkinchi mezon innovatsiyani qo'llashning yo'llari, uchinchisi innovatsiya joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligi, to'rtinchi mezon – innovatsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'lgan asos.

Ta'limning qaysi sohasiga innovatsiyalarning kiritilishi va qo'llanilishiga qarab, birinchi mezonga quyidagi innovatsiyalarni kiritish mumkin: 1) ta'lim mazmunida, 2) texnologiyasida, 3) tashkil qilishda, 4) boshqarish tizimida.

Innovatsiyalarni joriy qilishning yo'llaridan qat'iy nazar ularni quyidagilarga ajratish mumkin:

a) tizimli, rejali, oldindan o'ylangan;

b) kutilmagan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan, to'satdan paydo bo'lgan. Innovatsiyalarni joriy qilish tadbirlarining kengligi va chuqurligidan qat'iy nazar ularning quyidagi turlarini sanab o'tish mumkin:

a) ommaviy, katta, global, tizimli, keskin, asosli, muhim, jiddiy, chuqur va boshqalar;

b) qisman, kichik, mayda.

Innovatsiyaning paydo bo'lish xususiyatiga qarab ularni quyidagicha birlashtirish mumkin: a) tashqi va b) ichki.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar ta'lim oluvchi manfaatdorligining yuksak darajasini belgilaydi, natijada ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi.

Shuni ham aytish kerakki, an'anaviy pedagogik faoliyat bilan innovatsiyalar asosida tashkil etilgan faoliyat o'rtasida juda katta chegara mavjud emas. Bu hol, ayniqsa, pedagogik jarayonni tashkil etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonini innovatsiyalar asosida tashkil etib ishlaydigan o'qituvchi o'z mehnatining samarasini, uning mohiyatini ochib bera oladi.

O'qitish jarayonini yangicha, innovatsion yondashuv asosida tashkil etish muammosi hozirgi zamonning eng muhim talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki ilmiy-texnika taraqqiyoti O'zbekistonning jahon miqyosida tan olinishi, ilg'or mamlakatlarning

fan-texnika, texnologiya sohasida erishgan yutuqlarining respublikamizga kirib kelishi o'qituvchidan o'z faoliyatini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishni talab qilmoqda.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri yangicha fikrlaydigan, pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni qo'llashga qodir, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasiga ega, fan va texnika taraqqiyoti natijalarini egallagan, raqobatbardosh pedagog kadrlarni yetishtirib berishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'limga innovatsion yondashuvga tayyorlashda quyidagi tavsiyalarni bayon qilamiz:

1. Oliy o'quv yurtlarining eng muhim vazifalaridan biri bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda, avvalambor, uning kasbiy tayyorgarligini hisobga olish.

2. Bo'lajak pedagoglar tayyorlash tizimini nazariy-metodik jihatdan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvga o'rgatishda oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishini ta'minlash mazkur muammoga doir ilmiy-metodik tavsiyalar, o'quv adabiyotlari yaratishni jadallashtirish talab etiladi.

4. Pedagogika turkumidagi fanlarni o'qitishning mazmunini bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayonini ilg'or innovatsion texnologiya asosida uyushtirishga yo'naltirish lozim.

5. Bo'lajak o'qituvchilarni nazariy jihatdan tayyorlashni amaliy tayyorgarlik bilan mustahkam aloqada yo'lga qo'yish taqozo qilinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar.

2. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot va yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: «O'zbekiston» NMIU. 2017, 124-b.

3. Sh.Mirziyoev. "Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi" haqida. Xalq so'zi. gazetasi 29 dekabr, 2018.

4. G'afforova T va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi.: Nasaf. 2003. -112 b.

5. Xaydarova O.K. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvga tayyorlash. Monografiya. –Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2020.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY (SCIENCE) FANLARNI O'QITISH METODIKASINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O'RNI**

**Djurayeva N.N.**

**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu makolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni hamda boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish, boshlang'ich sinflarda tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi fanini ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy (SCIENCE) fanlar, metod va uslublar, integratsiya (birlashish), sintez, yangi pedagogik texnologiyalar.

## **РОЛЬ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ.**

**Джураева Н.Н.**

Старший преподаватель Экономико-педагогического университета

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье освещены вопросы по реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» и других нормативно-правовых документах, а также образовательные, воспитательные и развивающие задачи методики преподавания естественных дисциплин (SCIENCE) в начальных классах.

**Ключевые слова:** естественные (SCIENCE) дисциплины, пути и методы, интеграция, синтез, новые педагогически технологии

## **THE ROLE OF THE METHOD OF TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY GRADES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

N.N. Djurayeva

Senior teacher of the University of Economics and Pedagogy

**Abstract.** In this article, issues and the implementation of the tasks specified in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 “On approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030” are resolved, and other regulatory and legal documents, as well as the methodology of educational, educational and developmental tasks teaching natural disciplines (SCIENCE) in private classes.

The educational, educational and developmental aspects of the language are explained.

**Keys words:** natural sciences, method and methodology, integration, synthesis, new pedagogical technologies.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi tufayli oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayoniga kompyuter texnologiyalari, ularning pedagogik dasturiy vositalarini keng ko‘lamda joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli Farmonida «ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish, raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish» kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. Shu bois, bugungi kunda ta’limni rivojlantirishning yangi pog‘onasida o‘qitishni texnik vositalarsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri – axborotlarni o‘quvchi yoshlarga uzatish tezligi aynan shu vositalar yordamida ta’minlanadi[6].

Fanning rivojlanishi bilan ilmiy – texnik taraqqiyot bir – birini taqozo etib ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonini axborotlar bilan ta’minlash, muayyan darajada boshqarish yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarga tabiiy (SCIENCE) fanlar haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.

2. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy (SCIENCE) fanlarni o‘qitish metodikasi fanini ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini yoritib berish.

3. O‘quvchilarga tabiiy (SCIENCE) fanlar fani bazasida zamonaviy pedagogik texnologiya haqida bilim berish.

4. O‘quvchilarni o‘quv metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o‘rgatish.

5. O‘quvchilarni tabiiy (SCIENCE) fanlarni o‘qitishning turli uslublari va yo‘llari bilan tanishtirish.

6. O‘quvchilarda mazkur fandan o‘qitishning turli tashkiliy shakllarini, uslublarini, zarur ko‘rgazmali qurollarni to‘g‘ri tanlash malakalarini hosil qilish.

7. Tabiiy (SCIENCE) fanlar muammolariga bag‘ishlangan hikoyalar va maqolalar yozishga o‘rgatish.

8. Maktabda tabiiy (SCIENCE) fanlar darslarini o'tishda ekologik va tabiatni muhofaza qilish jihatlarini ko'ra bilishga o'rgatish.

9. O'quvchilarni sharq mutafakkirlarining inson va uni o'rab turgan tabiat bilan aloqalariga bag'ishlangan asarlari, ularning dunyo qarashlari bilan tanishtirish, shuningdek, tabiatga oid aforizm, ruboiy va she'rlardan tabiiy (SCIENCE) fanlar darslarida foydalanishga o'rgatish ushbu fanning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Ammo, o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik metodlar bilan boyitish ta'lim tizimi va mantiqni buzmasligi kerak. Zamonaviy pedagogik metodlar o'quvchi yoshlarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu ma'lumotlar esa fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va metodlarni boshqarish imkoniyatlarni belgilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonning samarasi ko'p jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimi hamda uzluksiz bo'lishni taqozo etadi[5].

Tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi (SCIENCE) tabiiy fanlarni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuni va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandir. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetini o'qitish mazmuni hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi.

O'quvchilarga tabiatni o'rgatib borish bilan o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimni o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko'ra, tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi[3].

O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarni: predmet mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitish va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiiy (SCIENCE) fanlar mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin[4]. O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarni: predmet mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitishni va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi.

Tabiiy (SIENS) fanlarni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiiy (SIENS) fanlar mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiiy (SIENS) fanlarni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin. Tabiiy (SIENS) fanlar fanini o'qitilishining to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun maxsus o'quv moddiy bazaga, ya'ni o'quv qurollari bilan jihozlangan xona, tirik tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasiga ega bo'lishi kerak. Materialni o'ziga xos bo'lishi faqat tabiiy (SIENS) fanlarni o'qitish metodikasining o'ziga xosligini emas, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlarini ham belgilaydi.

Tabiiy (SIENS) fanlarni o'qitish metodikasi maktabda hamma tabiat haqidagi fanlarni o'qitishga oid masalalarni: o'qitishning g'oyaviy yo'nalganligini, o'qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlarining shakllari o'rtasidagi izchillikni va barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligini hamda rivojlanishini ko'rib chiqadi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi o'qituvchining tayyorlanishidan tortib, to o'quv materialini o'zlashtirish natijalarini, jumladan, sinfdagi, uydagi, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni hisobga olishgacha barcha o'qitish jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'qitish amaliyotini har tomonlama o'rgatish va natijalarni keyin ijodiy umumlashtirish asosida o'qitishning muayyan qonuniyatlari belgilanadi hamda uni yanada yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Chunonchi, o'rganilayotgan narsalarni (o'simlik va hayvonlarni) bevosita qabul qilish (bu to'g'ri tasavvur hosil bo'lishini ta'minlaydi) qonuniyati asosida predmetli o'qitishni

qo'llash bo'yicha aniq tadbirlar ishlab chiqiladi. Hozirgi kunda metodikaning fan sifatida qaror topishida integrasiya (birlashish), sintez – barcha ilmiy materiallarning muammolar bo'yicha to'planishi hamda tahlil qilinishi, umumlashtirilishi, tizimga solinishi va yagona ilmiy nazariyaga keltirilishi alohida o'rin egallaydi.

Metodika o'qituvchi ijodi uchun ta'lim va tarbiyaning boy xazinasidagi xilma-xil metodlar, usullar va vositalarni bilib olishga keng imkoniyatlar ochib beradi. Tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi, shuningdek, fiziologiya, anatomiya, gigiyena, botanika, zoologiya, geografiya, agrotexnika, meteorologiya, mantiq va psixologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu fanlar bilan bo'ladigan aloqa o'qituvchining o'sha fanlar asoslarini egallagan bo'lishida, ularning eng muhimlarini ajratib, materiallarni o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos holda tushuntira olish uquv faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Shaxsning kamol topishi va rivojlanishi uning ayrim ishlar, munosabat va xarakterni o'z ichiga olgan faoliyat jarayonida boradi. Bunda u yoki bu faoliyat turining - o'qish, mehnat, o'yin, muloqotlarning dalillari (motivlari) alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, tabiiy (SCIENCE) fanlarni o'qitish metodikasi fanining maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bugungi kun talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, yosh avlodga tabiiy (SCIENCE) fanlar fanini o'rgatishga tayyorlashdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzaxmatova SH., Po'latova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim (Uslubiy qo'llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 06/18/5538/1840-son, <https://lex.uz/docs/3893445>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi №PQ-3931 son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 y., 07/18/3931/1841- son , <https://lex.uz/docs/3893416>.

4. Abdullayeva B. S., Sadikova A. V. Ispolzovaniye elektronix trenajerov dlya obucheniya uchashixsya nachalnix klassov. 2015 g.

5. Sangirova Z.B. Umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim muhitini yaratishda o'quvloyiha ishlarining o'rni // O'zMU xabarлари//– Toshkent, 2021, №6. – B.181-183.

6. Sangirova Z.B. STEAM o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda vosita sifatida //Uzluksiz ta'lim//– Toshkent, 2020, №6. – B.54-57

7. Nuritdinova M. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 2005

8. Hamidov A., To'xtayev A. va boshqalar. Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1999.

## **MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONI UZVIYLIGINI TA'MINLASH ZARURIYATINING USTUVOR MASALALARI**

QVPYMO'MM Pedagogika ,  
psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası  
v/b dotsenti D.Usmonova

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashning zaruriyati, boshlang'ich ta'lim bosqichiga bola tayyorgarligining asosiy maqsadi va maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzluksizligi ta'minlashdagi ustuvor vazifalar va ularni xal qilish haqida fikrlar aks etgan.

**Kalit so'zlar** ; kognitiv rivojlanish, kompetensiya uzviylik, ta'lim-tarbiya, ko'nikma, intellektual rivojlanish, sog'lom turmush tarzi,



Bugungi zamonning o'ziga xos xususiyati jamiyat va davlatning ijtimoiy sohani faol rivojlantirishga intilishi bo'lib, uning bir qismi insonning butun xayoti davomida uzluksiz ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan har xil turdagi va shakldagi muassasalardagi ta'limdir. Maktab va bolalar bog'chasi ta'lim tizimining ikkita bog'liq bo'g'inidir. Ta'limning eng muhim vazifasi va uning asosiy natijasi - bu maktabgacha va boshlang'ich maktabda bolaning jismoniy, hissiy va intellektual rivojlanishi uchun umumiy qulay sharoit yaratadigan uzluksiz va uzviy ta'lim jarayoni hisoblanadi. Kompleks xalq etishni taqozo etuvchi eng muxim vazifalardan biri bu o'zaro uzviy yagona ta'lim jarayonini yaratishdan iborat. Uzluksizlik bu bilimlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi va chuqurlashishini, aqliy faoliyatga qo'yiladigan talablarning murakkablashishini, shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishini ta'minlaydi. Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Xususan, uzluksiz ta'limning 1-bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'limning tez sur'atlarda o'sib borishi ta'lim sifatini yanada takomillashtirib borishni zamon talabiga aylantirib qo'ydi. Har bir yosh avlodning sifatli ta'lim olishi hamda zamonaviy shart sharoitlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanishlari ta'lim tizimining yanada rivojlanishida turtki sifatida xizmat qiladi. Bu esa bola tarbiyasi uning kelajakda qanday shaxs sifatida yetishi, yoshlarga berilayotgan e'tiborning yaqqol namunasi hisoblanadi. Albatta, maktabgacha ta'lim bolalarni har tomonlama bilimli, zukko, ham ma'nan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalaydi. Boshlang'ich ta'lim esa 1-4-sinflarni qamrab oladi, mana shu davr bolaning bilimga chanqoqlik davri bo'lib, bu vaqt oralig'ida bolaga yetarlicha e'tibor berilmasa, u yuqori sinflarga o'tish jarayonida bilimlarni o'zlashtirishga qiynaladi. Ya'ni fikrlash layoqati, bilimining yetarlicha bo'lmasligi tufayli jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynaladi. Shuning uchun eng avvalo bola maktabga qadam q'yganda unga qiynalmasdan moslashib ketishi hamda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga ijobiy yondashishi uchun unda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'nikma hosil bo'lgan bo'lishi lozim. Mamlakatimizda bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanib maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha prezident qarorlar va farmonlari, qonun hujjatlari ishlab chiqilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida farmonini aytishimiz mumkin. Ushbu farmonning 39-maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish ta'kidlangan bo'lib, unda bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022 - 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish aytib o'tilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashni takomillashtirish jarayoniga katta e'tibor bilan yondashishimiz lozim.

Maktabgacha ta'lim guruhi va boshlang'ich maktab o'rtasida uzviylikni o'rnatish maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun sharoitlarni yaqinlashtirishga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, maktab bolalar hayotida keskin o'zgarishlar qilmasligi kerak. Bola o'quvchi bo'lsada, kechagi ishini bugun ham davom ettirishi kerak. Uning hayotida yangi bilimlar asta-sekin paydo bo'lishi muxim omillardan biri sanaladi. Boshlang'ich ta'lim bosqichiga bola tayyorgarligining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolada ta'lim faoliyatini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan fazilatlarini shakllantirish bo'lishi kerak. Masalan: qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o'zboshimchalik, bolaning o'zini ijodiy namoyon etishi va boshqalar. Ayni paytda, shuni yodda tutish kerakki, bog'cha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlikni faqat bolalarni o'rganishga tayyorlash deb tushunilmasligi kerak. Bolaning maktabda o'qishga maxsus va umumiy tayyorgarligini farqlash kerak. Umumiy tayyorgarlik uning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan belgilanadi. Jismoniy tayyorgarlik - bu bolaning sog'lig'ining yaxshi holati, chidamliligi, salbiy ta'sirlarga

chidamliligi; normal antropometrik ma'lumotlar (bo'yi, vazni, ko'krak atrofi), motorika sohasining yaxshi darajada rivojlanishi, qo'lning yozishni talab qiladigan kichik, aniq va xilma-xil harakatlarni bajarishga tayyorligi; madaniy va gigiyenik malakalarning yetarli darajada rivojlani va hokazo. Jismoniy rivojlangan bola maktabda tizimli ta'lim bilan bog'liq qiyinchiliklarni osonroq yengadi. Psixologik tayyorgarlik deganda, birinchi navbatda, aqliy rivojlanish darajasi tushuniladi. Katta maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar atrof-muhit, odamlar hayoti, tabiat to'g'risida sezilarli bilimlarga ega bo'ladilar. Ushbu bilimlarning ko'lami bolalar bog'chasi dasturi bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar alohida ma'lumotni emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan bilimlar tizimini o'zlashtirishlari muhim bo'lib, ularning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda bu katta ahamiyatga egadir hamda maktabda bolalarda turli xil ta'lim qiziqishlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolaning maktabda o'qishga psixologik tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi axloqiy va irodaviy tayyorgarlikdir. Ta'lim faoliyati ixtiyoriy diqqatni, maqsadli yod olishni, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini, intizomni, mas'uliyatni, mustaqillikni, tashkilotchilikni va hokazolarni talab qiladi. Axloqiy va irodaviy tayyorgarlik tushunchasiga axloqiy fazilatlar ham kiradi. Axloqiy fazilatlar esa bolaga yangi maktab jamoasiga kirishga, faol ishtirok etishga yordam beradi. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashning umumiy maqsadlari:

- ✦ axloqiy-barkamol shaxsni tarbiyalash;
- ✦ bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muxofaza qilish va mustahkamlash;
- ✦ bolaning individualligi, jismoniy va aqliy rivojlanishini saqlash va qullab-quvvatlash.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning uzluksizligi quyidagi ustuvor vazifalarni xal qilishi muhim ahamiyatga ega: Maktabgacha ta'lim darajasida:

- bolalarni sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini bilan tanishtirish;
- har bir bolaning hissiy farovonligini ta'minlash, uning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- tashabbuskorlik, qiziquvchanlik, o'zboshimchalik, ijodiy o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- atrofda dunyo haqida turli bilimlarni shakllantirish, turli xil faoliyatda bolalarning kommunikativ, kognitiv, o'yin va boshqa faolligini rag'batlantirish;
- dunyoga, odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatlar sohasida kompetensiyani rivojlantirish;
- bolalarni hamkorlikning turli shakllariga kiritish (kattalar va turli yoshdagi bolalar bilan).

Boshlang'ich ta'lim darajasida:

- o'quvchilarning fuqarolik o'ziga xosligi va dunyoqarashi asoslarini shakllantirish;

Pedagoglar jamoasi oldida turgan birinchi va asosiy vazifa bolani bolalar bog'chasidan maktab ta'lim muassasasiga o'tkazish jarayoni uchun qulay shartsharoitlarni yaratishdir. So'nggi paytlarda bolaning o'quv jarayoniga intellektual tayyorgarligining tarkibiy qismlari bo'yicha juda ko'p kelishmovchiliklar mavjud, shuning uchun olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlashni yaxshilash bo'yicha birgalikda ishlash ham juda dolzarb vazifadir. Shu bilan birga, bolalarning maktab hayotiga qiziqishini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ota-onalarga bir muassasadan boshqasiga o'tish bosqichida bolaga hamrohlik qilishdagi rolini tushunishga yordam berish maktab xodimlarining ham, bog'cha tarbiyachilarining ham yetakchi vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kundagi maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyati tahlili shundan dalolat bermoqdaki, eng yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini, yuqori darajadagi akselaratsiya jarayonlarining jadallashuvi sog'lom, faol, barkamol ijtimoiy moslashtirilgan bola shaxsini tarbiyalash, shuningdek kelgusidagi muvaffaqiyatli o'quv faoliyati uchun shartsharoitlarni yaratish va bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash masalasiga jiddiy



e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Buning uchun esa avvalo biz maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Ta'lim to'grisida"gi Qonun 2020-yil 23-sentabr
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712-sonli farmoni 2019-yil 29-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.
4. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802sonli qaror
5. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
6. Maktabgacha pedagogika . Sh.Sodiqova. Toshkent-2013.

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH DASTURINING YARATILISHI**

QVPYMO'MM Pedagogika ,  
psixologiya va ta'lim menejmenti  
kafedrası  
v/b dotsenti D.Usmonova

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'limning uzluksizligi ta'minlashdagi ustuvor vazifalar va ularni xal qilish haqida fikrlar aks etgan. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashning zaruriyati, boshlang'ich ta'lim bosqichiga bola tayyorgarligining asosiy maqsadi va maktabgacha.

**Kalit so'zlar:** ,programma, loyiha, xujjat, bog'cha, tarix, nazariya, bosqich, tarbiya rivojlanish.

Tarixdan ma'lumki, maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi bilan birgalikda tarbiyalash va tarixi dasturi ham takomillashib boradi. Maktabgacha muassasalar ishini tashkil etish, uning mazmuni va metodlari yuzasidan asosiy ko'rsatmalar 1919-yilda Maorif xalq komissariati maktabgacha tarbiya bo'limining vazifasi «Oila o'chog'i va bolalar bog'chasini yuritish yuzasidan instruksiya»da bayon qilib berilgan edi. Maktabgacha tarbiya sifatini yaxshilash uchun bolalar bog'chasi ishining ilmiy asoslangan dasturini yaratish katta ahamiyatga ega bo'ldi. «Programma»ga oid har bir hujjat muayyan tarixiy bosqichda vujudga keldi va maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining tegishli bosqichini aks ettirdi. «Programma»ning dastlabki loyihasi 1932-yilda chiqarilgan edi. Bu hujjat bolalar faoliyatining tegishli turlariga mos keladigan bilimlardan: ijtimoiy-siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, musiqaharakat tarbiyasi, tasviriy faoliyat, matematika, savod bo'limlaridan iborat edi. Unda bolalar bog'chasidagi bolalar bilan ishlash vazifalari va hajmini belgilashga urinib ko'rilgan edi. «Programm aking vujudga kelishi esa maktabgacha tarbiya muassasalari ishini tartibga solishga, tarbiyachi-pedagoglar faoliyatiga ko'proq yo'nalish va mazmun bag'ishlashga yordam berdi. 1934-yilda takomillashtirilgan «Tarbiyalash programmasi» nashr etildi. Unda bolalar bog'chasida bolalarning ko'p qirrali hayotini tashkil etish va uning mazmuni masalalariga katta e'tibor berildi. «Programma»da ijtimoiy tarbiya, jismoniy tarbiya, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, mehnat mashg'ulotlari, nutqni o'stirish, kitob va rasmlar bilan mashg'ulotlar,

tabiat haqidagi bilimlarning kurtaklari, dastlabki matematik tasawurlarni rivojlantirish, savod chiqarish mashg'ulotlari bo'limlari bor edi. Shu bilan birga unda muhim kamchiliklar mavjud edi, chunonchi, 35 murakkab bilish materialining kiritilganligi, bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinmaganligi, pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachining rahbarlik roliga yetarli baho berilmaganligi shular jumlasidandir. 1938-yilda «Bolalar bog'chasining tarbiyachisi uchun qo'llanma» nashr etildi. Unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash vazifalari to'g'ri yoritildi. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish haqida aniqroq gap yuritildi. «Qo'llanma»da ilgorigidek, bolalar bilan ishlash mazmunini yosh guruhlariga qarab emas, balki tarbiyaning ayrim bo'limlari bo'yicha belgilangan edi. Bu esa u yoki bu yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun dastur materialini tanlashda tarbiyachini qiyin ahvolga solib qo'yar edi. Jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyaning ko'pgina masalalari «Qo'llanma»da yetarli darajada o'z aksini topdi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish masalalari ilmiy asosda ochib berilgan, ota-onalar bilan ishlash ham yetarli yoritilgan edi. 1953-yilda bolalar bog'chasida ta'limning joriy etilishi munosabati bilan ta'lim-tarbiya ishlari sifatini oshirish va bolalarni maktabgacha tayyorlash maqsadlarida «Qo'llanma» qayta ishlab chiqildi. Unda tarbiyachining rahbarlik roli ta'minlangan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilim mundariyasi ancha aniq ko'rsatib berildi. 1959-yil may oyida «Maktabgacha tarbiya muassasalarini yanada rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish va tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Qarorda jumladan mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda bolalar muassasalarining ikki tipini — yasli va bolalar bog'chalarini yagona maktabgacha muassasaga (yasli bog'cha) birlashtirilishi hamda yasli va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish ko'zda tutildi. Yangi hujjatga maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va bolalarning o'sishini o'rganadigan yondosh fanlar to'plagan ma'lumotlar hamda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashning eng yaxshi usulini umumlashtirish asos qilib olindi. «Ilk yoshdan to maktabga kirish yoshigacha bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining yagona programmasi» birinchi marta 1962-yilda e'lon qilindi. «Programma»da e'tibor tarbiya jarayonida yosh davomiyligi o'rtasidagi aloqa uzilib qolishini tugatishga qaratilgan edi. Ilgarigi pro36 grammaning metodik jihatlariga qaraganda unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish masalalari ko'proq aks ettirildi. «Mashg'ulotlarda ta'lim berish» bo'limida taqdim etilgan material ta'lim berishda sistemalilikni amalga oshirish, bolalarning bilim minimumini to'la o'zlashtirish, ularning atrofdagi voqelik, predmetlar va hodisalarning o'zaro bog'liqligini anglay olishlari uchun qulay sharoitlar yaratdi.

«Programma», shuningdek, bola shaxsiyatini har tomonlama kamol toptirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar, yurish-turishdagi ijobiy odatlar, axloqiy fazilatlarini shakllantirishni ham ko'zda tutdi. Unga mashg'ulotlar, dam olish, ko'ngil ochish, uyqu, ovqatlanish, sayr qilish rejimi kiritilgan. Tarbiyachi «Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi»ga ko'ra, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga o'yinlar, ko'ngil ochish va mehnat orqali ta'lim berish, turmush jarayonida tarbiyalashning ko'p tomonlama vazifalari hal etilishini ta'minlamog'i kerak edi. 1969-yilda takomillashtirilgan «Bolalar bog'chasida tarbiya dasturi» chop etildi. U ilmiy tadqiqot va eng yaxshi ish tajribasidan foydalanish asosida tuzilgan bo'lib, maktablar boshlang'ich ta'limining yangi programmaga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan talablarni hisobga oldi. Shundan keyingi yillarda bu «Programma» ba'zi qo'shimcha va tuzatishlar bilan bir necha marta, masalan, 1978-yilda, 1988- va 1995-yillarda qayta nashr etildi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari ta'lim-tarbiyada ham ko'pgina yangilanishlarni amalga oshirish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun esa pishiq-puxta ishlangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dastur talab etilardi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat, jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog'lom, aqli, xushxulqli tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga yetishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Sogiom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo'-

nalishidir. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'yadi. Shunga ko'ra, «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari»ga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida 2002-yilda «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi o'zbek olimlari tomonidan yaratildi. Bugungi kunda respublikamizning qishloq joylarida maktabgacha yoshdagi bolalarning 17 foizi ta'lim-tarbiya muassasalarida, qolgan 83 foizi esa bevosita oilada tarbiyalanadi. Shu bois, taqdim etilgan dastur tarbiyachilar va ota-onalarga mo'ljallangan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni.

2. Maktabgacha ta'limning davlat standard. O'zPFITI. T., 1995. 10. P. Yusupova.

3. Maktabgacha pedagogika. T., «O'qituvchi», 1996. II. Milliy istiqbol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O'zbekiston», 2000.

4 Uchinchi ming yillikning bolasi. O'quv qo'llanma. T., «Ma'rifat — Madadkor», 2001.

#### TARBIYANING PSIXOLOGIK OMILLARI

Turobova M.A.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistenti

Jabborova L

«Xorijiy tillar va jismoniy madaniyat» fakulteti 1-bosqich talabasi

Jamiyatning ravnaqi uning o'sib kelayotgan yosh avlodga bo'lgan munosabati va ularga yaratayotgan imkoniyatiga bog'liq. Har qanday mamlakat sog'lom va barkamol, el-yurtiga sadoqatli, iymon-e'tiqodli farzandlari bilan faxrlanadi, ularga suyanadi. Shunday fazilatlariga ega avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qaraydi, istiqboli porloq bo'ladi.

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar zimmasiga barkamol farzandlar tarbiyalash vazifasini yuklaydi. Zero, jamiyat taraqqiyotida yosh avlodni har tomonlama sog'lom va ilmi, o'z yurtini sevadigan, ota-bobolarining ma'naviy va axloqiy yuksak qadriyatlarini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu vazifalarni bajarish maqsadida maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari belgilangan bo'lib, ular:

— bolalarning jismoniy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;

— ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

— nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik;

— bilish jarayoni va atrof-muhit to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishni nazarda tutadi.

Bola rivojlanishining ilk davridanoq kattalarning ta'siri uning aqliy va jismoniy faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, — deydi seminar qatnashchisi, MTM xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o'quv-metodika markazining ilmiy-metodik ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mavluda Rustamova.

Bolaning dastlabki olti yoshi uning keyingi rivojlanishi uchun juda muhim davr ekanligini ilmiy-tadqiqot natijalari asoslab beradi. Shunday ekan, MTM tarbiyachilari oldida ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, bolalarni har tomonlama bilimli bo'lishlarini ta'minlash vazifasi turadi. Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga bolalikning ilk davridan milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, o'zlikni anglash tuyg'usini rivojlantirish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usi, bola shaxsi asoslarini shakllantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish; bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish; bolalarni maktab ta'limga tayyorlash masalalari vazifa qilib belgilangan.

MTM pedagoglari ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning interfaol usullaridan, axborot texnologiyalaridan foydalanishlari, shuningdek, o'z mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari lozim.

Maktabgacha ta'limning samaradorligini tavsiflovchi eng asosiy ko'rsatkich 2 yoshdan 6—7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olishdir. Fanda ilmiy asoslangan shunday tushuncha borki, inson butun umri davomida oladigan axborot hajmini 100 foiz deb hisoblasak, 6—7 yoshiga-cha olgan ma'lumoti uning 50 foizidan ko'prog'ini tashkil qilgan ekan. Shu haqiqatni har bir oilaga, ota-onaga tushuntirib bera olsak, juda katta ishni amalga oshirgan bo'lamiz. Kuza-tishlar shuni ko'rsatadiki, bolada atrof-muhitga qiziqish uyg'ongan, sersavol davrida kun davomida 5000 tagacha savollar tug'ilar ekan. Lekin kattalar bolada paydo bo'lgan bu savollarga javob berish uchun o'zlarida sabr-toqat topa olmaydilar. Uning bilish ehtiyojini so'ndiradilar. Natijada bolalik davridayoq biz bolalarni befarq qilib qo'yar ekanmiz. Shuning uchun bola tarbiyasida nihoyatda e'tiborli va toqatli bo'lish lozim. Bilishga qiziqish paydo bo'lganda, uning qondirilishi odamda navbatdagi qiziqishni yuzaga keltirib chiqaradi. Bola savollariga javob topa borgan sari fikr doirasi kengayadi, onggi o'sadi, o'zini shaxs sifatida mukammal his etib boradi. O'zini mukammal his etayotgan shaxs-da hayotga va o'z-o'ziga ishonch shakllanadi va unda mustaqillik hissi uyg'onganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bizning maqsadimiz bolalarda shunday hislarni shakllantirish ekanligini unutmashimiz kerak.

Uzluksiz ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyati, yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi maktabgacha ta'lim muassasasida berilgan ta'lim-tarbiyaga bog'liq.

— maktabgacha ta'lim muassasasi pedagoglari ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalaridan foydalanishlari;

— har bir pedagog bolani o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli o'zlashtirishda mustaqil harakat qilishga undash;

— bolalarda o'z harakatlarini ongli ravishda bajara olish malakalarini shakllantirish;

— MTM tarbiyachilariga ta'limga doir farmoyishlar va qarorlarda belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish mas'uliyatini yuklash.

Shuningdek, uzluksiz ravishda o'z malaka, bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari davr talabi ekanligi muhimdir.

Bola tarbiyasi, uning barkamol voyaga yetishiga alohida e'tibor azaldan xalqimiz uchun dolzarb yumush sanalib kelgan. Bugun ham bolalarning rivojlanishi, har tomonlama barkamol bo'lib ulg'ayishlari uchun davlatimiz tomonidan ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bularning zaminida oila, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan kichiktoylarning har tomonlama ma'naviy, fiziologik va psixologik rivojlanishi yotadi.

MTM yoshidagi bolalarning psixologiyasida juda tez o'zgarishlar bo'lishini inobatga olgan holda, ularni 3 davrga: kichik maktabgacha (3-4yosh), o'rta maktabgacha (4-5yosh), katta maktabgacha (5-6yosh) yosh davrlariga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida narsa va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. U insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatni egallab olishni, faoliyat motivlarning rivojlanishi, qobiliyatlarni egallab olishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshiriladi. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bu davrda uning asosiy faoliyati o'yin hisoblanadi. Ular o'yinlar orqali o'z malakalaridan kelib chiqib har xil qiyofalarni aks ettiradilar, bu bola shaxsini rivojlantiradi.

Bola atrofdagi narsalarni bilish jarayonida ular bilan amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, u bilishga qiziquvchanligidan atrofdagi narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi yetmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishni xohlaydi. Masalan, bola avtomashina yoki tramvayni o'zi haydagisi, otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning biron-tasini ham qondira olmaydi.

Bolaning bu istagi faqatgina o'yin faoliyati orqaligina amalga oshadi. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

— birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati qandaydir moddiy mahsulot ishlab chiqarishga qa-ratilgan faoliyat emas. Shuning uchun kichkin-oylarni o'yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija emas, balki shu o'yin jarayo-nidagi turli harakatlarning mazmuniga bog'liqdir;

— ikkinchidan, ular o'yin jarayonida o'z ixtiyorlaridagi narsalarni, o'zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo'lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Kichkintoylarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va ruhiy jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan bir vositadir.

O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bo'lgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining hammasi o'yin faoliyatida aniq bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, o'yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vosi-tasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va sujetli o'yinlarda bolalarning barcha ruhiy jarayonlari bilan birgalikda ularning alohida xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, bog'chadagi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatim maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir. Shunday ekan, o'yin bolalar yarat-gan xayoliy narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o'zi, o'yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan ruhiy jarayondir. Bolalar o'zlarining turli o'yinlari jarayonida taqlid qilib, har xil xayoliy obrazlarni o'ylab topadilar (uchar ot, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli narsalarni o'ylab chiqarishlari, ular o'zlarining har xil o'yin faoliyatlarida faqat atrofda bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar.

O'yinlar jarayonida turli qiyofalarni yaratadilar. Bunda ular o'zlari bilgan, tanigan militsiya, doktor yoki o'qituvchigina emas, balki shu kabilar haqida o'zlari idrok qilgan xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib, o'yinlarda rollarini ijro etadilar. Bu bolalarning shaxsiy malakasi va dunyoqarashining mahsulidir.

Katta bog'cha yoshida rolli-sujetli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar orqali bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularning tashkilotchiligi va malakalari rivojlana boshlaydi.

Bog'cha yoshi davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlar va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag'ishlaydi. Bu yosh davrida ilk marotaba musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qiziqish paydo bo'ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Bolalar qo'shiq aytishga musiqa ostida turli ritmik harakatlarni bajarishga o'rganadilar.

3—7 yoshli davrida bolaning asosiy faoliyati quyidagi ketma-ketlikda kechadi:

- buyumlarni o'rganish;
- individual predmetli o'yinlar, jamoaviy sujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhiy ijod;
- musobaqa rollari;
- muloqot o'yinlari;
- uy mehnati.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyat ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ijtimoiy tajribani faol egallash uchun, avvalo, yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quv va sodda tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola yuqorida aytib o'tganimizdek, o'yin faoliyati orqali erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Xalq ta’limi” jurnali, 6-son, 2009 yil.
2. Robiya Otamurodova “Maktab yoshigacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash usullari” Qarshi 2005 yil.

3. "Uchinchi mingyillikning bolasi" tayanch dasturi. T. , "Ma'rifat-madadkor" 2002.
4. O.U.Hasanboyeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" Toshkent 2006 yil.

## **PEDAGOG FAOLIYATIDA TALABALARNI ADAPTATSIYAGA MOSLASHTIRISH**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası  
Katta o'qituvchisi Keldiyorova Manzura G'aybullayevna  
Tel:91.3201529

**Annotatsiya:** Muallif ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba yoshlarni adaptatsiya jarayoniga moslashtirish chora tadbirlari xususida fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: psixologiya , ruhiyat , yangilik , innovatsiya , tanqidiy fikrlash , ilmiy izlanish , muhit , jarayon , mahorat , tajriba almashish , bilim , salohiyat

**Abstract:** The author of this article reflects on measures to adapt young students studying in higher education institutions to the adaptation process.

Key words: psychology, spirituality, novelty, innovation, critical thinking, scientific research, environment, process, skills, experience exchange, knowledge, potential

**Аннотация:** Автор данной статьи размышляет о мерах по адаптации молодых студентов, обучающихся в высших учебных заведениях, к процессу адаптации.

Ключевые слова: психология, духовность, новизна, инновации, критическое мышление, научные исследования, среда, процесс, навыки, обмен опытом, знания, потенциал.

### **KIRISH**

Har bir yosh avlod vatan ertasi, kelajak umidi demakdir .XXI asr yoshlarini zamon talablariga mos holda tarbiyalab borilsa , vatanimiz kelajagi yo'lida o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shadilar. Yoshlarimiz oldiga qo'yilgan talablarga e'tibor berilsa , va shu yo'sinda ta'lim -tarbiya berib borilib ,milliy istiqloq g'oyasi tushunchasini yoshlar ongiga singdirilsa , birinchi prezidentimiz I.A.Karimov orzu qilganidek "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" bo'lishdan ezgu niyatlar amalga oshadi .Yoshlarning har tomonlama zukko va bilimdon bo'lib ulg'ayishida pedagog ,rahbarlarning o'rni juda katta.Pedagog deganda beixtiyor ko'z o'ngimizda har tomonlama yetuk, bilim saviyasi yuqori bo'lgan, ortidan boshqalarni ham ergashtira oladigan lider shaxs gavdalanadi .

Oliy o'quv yurtlarida, oliygohga qabul qilingan talaba yoshlarni zamon talablariga uyg'un tarzda yetishtirish, o'z kasbining yetuk kadri qilib tarbiyalash rahbar , pedagoglardan ancha ko'p mashaqqatni talab etadi . Pedagog faoliyatida talabalarni adaptatsiya jarayoniga moslashtirish bu muhim jarayon hisoblanadi.Adaptatsiya (lotincha "adaptio" -moslanmoq , sozlanmoq )- insonning tabiat yoki jamiyat hayotida yoki ruhiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biron -bir muhit yoki sharoitga , yangilikka moslashuvni anglatadi .Inson hayotidagi adaptatsiya jarayonining samarali kechishi ko'p jihatdan uning ruhiy va ma'naviy holatiga bog'liq.Moslashuvchanlik jarayoni har bir shaxsda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi .Ayrin insonlar adaptatsiya jarayoniga tez moslashsa,ayrimlarda esa bu jarayonga moslashish birmuncha qiyin bo'ladi.Chunki moslashuvchanlik , har bir shaxsning o'z ichki olami , dunyoqarashi va ruhiyati bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi.Tabiiyki , talabalar dunyoqarashini biror uslub yoki turli xil metodlar emas ,balki zamonaviy interaktiv usullar yordamida ularning fikrlash doirasini shakllantirish yaxshi samara beradi.Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri talabalar ilmiy dunyoqarashini , salohiyatini oshirish , mukammal mutaxassis darajasiga yetishtirishdir .Rahbar , pedagoglar dars jarayonlariga kreativ yondashgan holda yondashsalar , talabalar ongida yangilikka intilish va kreativ g'oyalar paydo bo'la boshlaydi.Asosan yoshlarni erkin , mustaqil fikrlashga o'rgatilsa, kashf qilingan turli yangiliklarga moslashish jarayoni oson kechadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida "Pedagogika" va "Psixologiya" sohasiga oid qo'llanmalardan va I.Karimov, Sh.Mirziyoyev asarlaridan va boshqa manbalardan foydalanildi.

### MUHOKAMA

Talaba yoshlarda o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini uyg'ota olish bu keyinchalik ular yuksalishi va rivojlanishi uchun muhim jarayondir. Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan yana biri yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonch hissini past ekanligi, o'ziga juda past baho berishi, ularning rivojlanishi uchun to'siq bo'lib kelayotgan omillardan biridir. Irodasizlik, ishonchsizlik oqibatida yuksalish va taraqqiy etish darajasi pastlashi kuzatiladi. Eng birinchi navbatda pedagog, yoshlarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi va o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishga ko'mak berishi lozim. Egallanayotgan bilim, ko'nikma malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish, qobiliyatini shakllantirish, talaba yoshlarni yanada o'qib, izlanishga o'z ustilarida tinimsiz ishlashga imkon yaratadi. Nazariya va amaliyotni o'zaro integratsiyalashuvi natijasida olingan bilim, ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayoni - bu ta'lim oluvchining aqliy intellektual salohiyatini yuksalishiga qaratilgan muhim jarayondir. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida uzviylik hamda uzluksizlik aloqadorlik ta'lim jarayonining muhim va asosiy komponentlari ekan. Har bir pedagog dunyoqarashi va fikrlash doirasi turlicha bo'lgan ko'plab talabalar bilan muloqot o'rnatadi. Muloqot jarayonida har bir talabaning psixologiyasidan kelib chiqqan holda, munosabat o'rnatilsa, talabalarning o'sha muhitga moslashish jarayoni oson kechadi. Demakki, har bir pedagog psixologiya fanidan ham yaxshigina xabardor bo'lishi lozim. Ilm-fanda adaptatsiya jarayonining quyidagi turlari mavjud: sensor adaptatsiya (lotincha - "sensiz" - his, tuyg'u, sezgi) - organizmning turli xil subyektiv o'zgarishlariga moslashuv jarayoni. Ijtimoiy adaptatsiya (lotincha - "adaptio" - moslashaman va socialis- ijtimoiy) - insonning ijtimoiy muhit sharoitlariga uzluksiz tarzda faol moslashuvi hisoblanadi.

Pedagog, rahbarlar talabalar adaptatsiya jarayoniga moslashuv jarayonini ilmiy ravishda ishlab chiqishlari kerak. Talabalar adaptatsiya jarayonini doimiy va oddiy holatdek qabul qilsalar, ro'y berayotgan turli o'zgarishlarga oson moslashadi. Bilamizki, ijtimoiylashuv jarayoni bir tempda bo'lmaydi. O'zgarishlar, yangilanishlar hayotimizning ajralmas bir bo'lagidir. Inson ijtimoiylashuv jarayonini ongli ravishda qabul qila olishi zarurdir. Hozirgi davrga kelib, innovatsion jarayonni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Yangi g'oyalarning paydo bo'lishi va yangilikni yuzaga kelishi bosqichi.
2. Kashf etish bosqichi, ya'ni yangilik yaratish.
3. Kashf qilingan yangilikni ommalashuv jarayoni.
4. Yangilikni tarqalishi, insoniyat tomonidan qabul qilinishi.

Talabalarni kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish vositasida ro'y beradigan adaptatsiya jarayonlariga oson moslashtirishga erishish mumkin. Dars jarayonlarini noodatiy tartibda olib borish va dars muhitiga yangilik olib kirish orqali talabalarni adaptatsiya jarayoniga moslashtirish mumkin bo'ladi. Dunyo miqiyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kashf qilinayotgan yangiliklar to'g'risida talabalarga axborot yetkazish, ularni zamon talablariga uyg'un tarzda ta'lim berish o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Talabalar ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirish lozim. Talabalar dunyoqarashini va fikrlash doirasini kengaytirishda, "O'qing qiziq", "Eng, eng, eng ..." kabi sarlavhalarda turli so'rovnomalar va qiziqarli viktorinalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Dunyoqarashni shakllantirishda intellektual o'yinlar "Zakovat", "O'yla, izla, top!" kabilarni talabalar o'rtasida tashkillashtirish yaxshi samara beradi. Umuman olganda barcha dasturlarda talabalarni dunyoqarashini shakllantirish mumkin. Bunda faqat o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi. Pedagog qancha malakali va tajribali chuqur bilim egasi bo'lsa, talabalarni o'sha muhitga moslashtiradi. Faqat buning uchun pedagoglardan o'zlarining ustilarida tinmay ishlab, mahoratlarini oshirib borish talab etiladi. Bularda muammoli ta'limga ko'proq e'tibor berib, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri

dars jarayonlarini o'zgacha , bir xillikdan qochgan holda olib borish .Dars jarayonlarining sifati qanchalik yuqori bo'lsagina, talabalar ilmiy salohiyati ham shunchalik oshib boraveradi. Pedagoglar, talabalar ongida shuni singdirishlari zarurki , hech qachon bir muhitda muallaq qotib qolish yaxshi emasligini ularning dunyoqarashiga singdirishi lozim.Chunki bir muhitda , bir tempda qotib qolish , harakat qilishdan bosh tortish orqaga ketish bilan barobardir .Zero , bu hayotda har bir inson doimo olg'a intilmog'i, izlanib yashamog'i darkor. Pedagog, talabalarga o'rnak bo'lishi ularni o'zining ortidan ergashtira olishlari muhim. Talabalar bilan do'stona munosabatda bo'lish ,ularning yuksalishi uchun katta ahamiyatga ega.Dars jarayonlarida ham fikr almashish erkin tarzda olib borilsa, talabalarda bo'lgan fikr va g'oyalar ham asta -sekin yuzaga chiqadi. Talabalar bildiradigan fikrlar xoh o'rinli bo'lsin yoki aksinchasi bo'lsa ham pedagoglar ularni har bir fikrlarini inobatga olib , ularni ruhlantirib borsa , talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishga erishish mumkin.

### **XULOSA**

Adaptatsiya jarayoniga moslashish , shaxsning o'z ichki psixologiyasi bilan ham uzviy bog'liq.Ayrim shaxslarda tabiatan moslashuvchanlik fazilati namoyon bo'lsa, yana ayrim shaxslarda buni aksini ko'rishimiz mumkin.Ayrimlar turli vaziyatlarga tez kirishuvchan, tirishqoq bo'lsa, ayrim shaxslar esa tortinchoq jamoat orasidan o'zini olib qochadi. Demak adaptatsiya jarayoniga moslashish shaxs tempramentiga va uning o'z ichki psixologiyasiga ham bog'liq.Lekin shunga qaramasdan pedagoglar barcha talablarni yaxshi fazilatlarini yuksaltirib ,sayqal berishi lozim. Ulardagi salbiy jihatlarni va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlamog'i zarur.Chunki oliy ta'lim davrida egallangan bilim , malaka va mahorat ertangi kasbiy faoliyatda asqotadi.Talabalar ruhiyatiga,psixologiyasiga, dunyoqarashiga samarali ta'sir o'tkazish pedagoglar oldidagi asosiy vazifadir.Olingan bilimlarni egallangan ko'nikmalarni amalda ham ifoda etib berishga talabalarni da'vat etishi muhimdir .Umumiy qilib aytganda oliy ta'lim davrida har bir shaxs haqiqiy ma'noda o'zligini to'la anglab yetgan , fikrlash doirasi va salohiyati keng jamiyatning muhim bir bo'lagi bo'lib shakllanadi. Jamiyat bo'lagi qanchalar mustahkam bo'lsa, vatan ertasi uchun , yurt ravnaqi yo'lida ko'pgina islohotlarni amalga oshiradi . Talabalar salohiyati jamiyatning yuksalishini belgilab beruvchi omildir. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Bizning farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli , bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart ".

Yoshlar salohiyatini oshirish , ularni dunyoga o'zgacha ko'z bilan qarashga o'rgatish pedagoglar oldidagi ulkan vazifa desak adashmagan bo'lamiz .Shunday ekan pedagog , rahbarlardan yanada mas'uliyatli bo'lish va o'z ustilarida tinimsiz ishlab, mahoratlarini oshirib borish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.Hasanboyev , X .A.To'raqulov , I.Sh.Alqarov , N.O'.Usmanov " Pedagogika"
- 2.R.Mavlonova , O.To'rayeva , K. Xoliqberdiyev "Pedagogika"
- 3.N. Islomova, D.Andullayeva " Ijtimoiy psixologiya" .
- 4.N.Xolyigitov , D.Abdumadjidova " Kasbiy psixologiya" .
- 5.I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"asari
- 6.Ziyonet tarmoqlari .

## **KASR TUSHUNCHASI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI (4-SINF MATEMATIKA DARSLIGI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA)**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi  
Solijonova Mavluda Zokir qizi

[Tel:91.4531334](tel:91.4531334)



**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarni kasr va kasrlarni o'qitish metodikalari ko'rsatilgan. O'quvchilarga kasr va kasr tushunchalarini o'rgatishning innovatsion usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasr, kasrning surati, kasrning maxraji, to'g'ri kasr, noto'g'ri kasr

**Аннотация:** В статье показана методика обучения дробей и дробей ученикам на уроках начальной математики. Освещены инновационные способы обучения студентов дробям и дробям.

**Ключевые слова:** дробь, изображение дроби, знаменатель дроби, правильная дробь, неправильная дробь.

**Abstract:** The article shows the methods of teaching fractions and fractions to students in elementary mathematics classes. Innovative ways to teach students about fractions and fractions are covered.

**Key words:** fraction, image of a fraction, denominator of a fraction, proper fraction, improper fraction

O'quvchilarni kasrlar bilan tanishtirish milliy o'quv dasturga binoan 2-sinfdan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar.

Boshlang'ich sinflarda kasrlar mavzusini tushuntirishning mazmun-mohiyati o'quvchilarni kasr tushunchasi bilan ularga tushunarli va o'zaro aloqador tarzda tanishtirishdan iborat. Buni ko'rgazmali qurollar, manipulyatsiyalar va hayotiy misollar yordamida o'quvchilarga kasrlarning kundalik hayotda qanday qo'llanilishini ko'rishga yordam berish mumkin. Boshlang'ich sinflarda kasrlarni tushuntirishning mohiyati o'quvchilarga kasr asoslari bo'yicha mustahkam asos yaratish va kasrlar qanday ishlashi haqida konseptual tushunchalarni shakllantirishga yordam berishdan iborat. Bu ularni ta'lim jarayonida rivojlangan kasrlar va matematikaning boshqa sohalari bo'yicha yanada ilg'or mavzularga tayyorlaydi.

Agar bitta butun nonni Aliga bersak, Ali bitta non oldi deb aytish mumkin. Agar bitta nonni 4 ta teng bo'lakka bo'lib, bo'laklardan birini Valiga bersak, Vali nonning "to'rt dan bir" qismini oldi deyiladi va buni qisqacha  $\frac{1}{4}$  shaklida yoziladi.

Ta'rif: Oddiy kasr deb,  $\frac{a}{b}$  ko'rinishda yoziladigan sonlarga aytiladi.  $\frac{a}{b}$  son "b dan a" yoki "a taqsim b" deb o'qiladi. a-kasrning surati, b- kasrning maxraji deyiladi. Chiziqcha esa kasr chizig'i deyiladi. Kasr chizig'ining matematik ma'nosi bo'lishdir.

Masalan:  $\frac{4}{5}$ ,  $\frac{9}{17}$ ,  $\frac{12}{12}$ ,  $\frac{23}{24}$  sonlar oddiy kasrlardir.

Surati maxrajidan kichik bo'lgan kasr to'g'ri kasr deb ataladi. To'g'ri kasr ko'rinishida ifodalangan qism 1 dan kichik bo'ladi.

To'g'ri kasrlar:  $\frac{7}{10}$ ;  $\frac{3}{8}$ ;  $\frac{41}{120}$ .

Surati maxrajidan katta yoki unga teng bo'lgan kasr noto'g'ri kasr deb ataladi. Noto'g'ri kasr ko'rinishida ifodalangan qism 1 dan katta yoki unga teng bo'ladi.

Noto'g'ri kasrlar:  $\frac{7}{4}$ ;  $\frac{8}{8}$ ;  $\frac{150}{37}$ .

4-sinf matematika darsligi bo'yicha "To'g'ri va noto'g'ri kasrlar" mavzusida quyidagi misol va masalalarni metodlardan foydalangan holda ko'rib chiqamiz

4-sinf matematika darsligi 27-bet.

Masala. Kafeda 30 turdagi pitsa taklif etiladi. Ularning  $\frac{1}{3}$  qismi achchiq sousli,  $\frac{1}{6}$  qismi zaytunli, qolganlari esa kolbasa va boshqa mahsulotli. Agar Aziza achchiq yoki zaytunni yoqtirmasa, u necha turdagi pitsani tanlashi mumkin?

Yechish: Jami 30 turdagi pitsa

$\frac{1}{3}$  qismi achchiq sousli (sonni qismga ko'ra topish qoidasidan foydalanib hisoblaymiz) buning uchun 30 sonini  $\frac{1}{3}$  qismini hisoblaymiz:  $30 \cdot \frac{1}{3} = \frac{30 \cdot 1}{3} = 10$

Demak achchiq sousli pitsa 10 turda ekan

$\frac{1}{6}$  qismi zaytunli (sonni qismga ko'ra topish qoidasidan foydalanib hisoblaymiz) buning uchun 30 sonini  $\frac{1}{6}$  qismini hisoblaymiz:  $30 \cdot \frac{1}{6} = \frac{30 \cdot 1}{6} = 5$

Demak zaytunli pitsa 5 turda ekan

Achchiq sousli va zaytunli pitsalar:  $10 + 5 = 15$  ta

Qolgan turdagi pitsalar:  $30 - 15 = 15$  ta

Aziza achchiq va zaytunli pitsani yoqtirmasa demak u 15 ta boshqa turdagi pitsani tanlashi mumkin.


Javob: 15 ta

4-sinf matematika darsligi III qism 50-bet.

Masala. Hunarmand bo'yi 2 m, uni esa bo'yidan 4 marta kichik bo'lgan gilam to'qishi kerak. Birinchi kun u butun gilamning  $\frac{1}{8}$  qismini, ikkinchi kun esa butun gilamning  $\frac{1}{10}$  qismini to'qidi. Hunarmand yana necha kvadrat santimetr gilam to'qishi kerak?

Yechish:

Bo'yi – b  
Eni – a bo'lsin.



$$b = 2 \text{ m} = 200 \text{ cm}$$

$$a = \frac{b}{4} = \frac{2}{4} = \frac{1}{2} \text{ m}$$

$$S = a * b = 200 \text{ cm} * 50 \text{ cm} = 10\,000 \text{ cm}^2$$

Birinchi kuni: butun gilamning  $\frac{1}{8}$  qismi

Ikkinchi kuni: butun gilamning  $\frac{1}{10}$  qismi to'qildi.

Birinchi kuni:  $\frac{1}{8} * 10\,000 \text{ cm}^2 = 1\,250 \text{ cm}^2$  gilam to'qildi

Ikkinchi kuni:  $\frac{1}{10} * 10\,000 \text{ cm}^2 = 1\,000 \text{ cm}^2$  gilam to'qildi

Hunarmand yana qancha gilam to'qishi kerak?

$$10\,000 \text{ cm}^2 - (1\,250 \text{ cm}^2 + 1\,000 \text{ cm}^2) = 7\,750 \text{ cm}^2$$

Javob: Hunarmand  $7\,750 \text{ cm}^2$  gilam to'qishi kerak.

Kasrlarni o'rganishda ko'rsatmalilik va ko'rsatma qurollar masalasi, ayniqsa muhimdir.

Kasrlarni o'rganishning bu bosqichida o'qitish to'la ko'rgazmali bo'lishi zarur.

Shuning uchun kasrlarning hosil bo'lish jarayonini ko'rilayotganligi munosabati bilan iloji boricha ko'proq turli aniq predmetlar: olma, lenta va boshqa har xil geometrik figuralarning modellarini teng bo'laklarga bo'lishga doir amaliy mashqlarni ko'proq o'tkazish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.V.Repyova Matematika 4-sinf III-qism Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik.T:2023 27-50-bet.

2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil.
3. Tadiyeva Z.G., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki.-T. "Turon-Iqbol" 2011. 336s.
4. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil. 20 b/t.
5. Internet manbalari.

## **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSIQA MADANIYATI FANINING AHAMIYATI**

Mehriniso Zoirova Xurshid qizi  
Xalqaro innovatsion universiteti  
[@mehrinisozoirova7@gmail.com](mailto:mehrinisozoirova7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu maqolada oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga tanlov fan sifatida o'tilayotgan musiqa metodikasi fani, musiqa va san'atning ahamiyati, o'quvchilar uchun qanchalik samarali ekanligi yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, eksperimental, innovatsiya, san'at, musiqa, muhit, ruhiyat, metodika, ma'naviyat, mahorat.

Innovatsiya- so'zining bundan 5 yil ilgari ham ta'limga kirib kelish salohiyati sanoqli uchrar edi. Qarangki bugungi Respublikamizdagi jadal o'sish va rivojlanishlar barcha sohada bo'lib, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar esa birinchi o'rinda ko'zga tashlanadi. Bu rivojlanishlar o'z-o'zidan innovatsiya so'zini va o'zini yanada targ'ib qilish imkonini yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim To'g'risidagi Qonunining PQ637- sonli 23.09. 2020 yildagi qarori 36-moddasida "Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarni ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayonini joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi". Yuqoridagi fikrlarimiz isbotini quydagi moddalarda ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik faoliyati yuqori o'rinda turadi va ko'proq vazifa Oliy ta'lim muassalaridagi o'qituvchilar va bo'lajak pedagog talabalarga borib taqaladi. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar turli xil yo'nalish, mutaxassisliklarda ta'lim olishadi. Har bir kasb egasi o'ta ma'suliyatli bo'lishi kerak, pedagogik kasbi ichida eng ma'suliyatni talab qiladigani esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishiga yordam beradigan faol texnologiyalarni izlashdan maqsad – yuksak ma'naviyatli, ijodiy fikr yuritadigan, har taraflama barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalash bo'lib, bu muammoga pedagogik jihatdan muhim deb qarashimizga imkon beradi. Ijtimoiy hayotimizdagi ko'ngilsizliklar, statistik tahlillar natijasiga ko'ra maktab faoliyati amaliyotida san'atning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani qayd etilmoqda.

San'atning bir necha xil turlari bo'lib ular shaxs tarbiyaviy ta'sirida samarasi yuqori. Asosiy mexanizmi esa badiiy tasvirlarni hissiy idrok etish, axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyat va imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olish va uni o'stirish, atrof muhitga bo'lgan voqeyliklarni ongli ravishda shaxsiy munosabat hosil qila olish kabi zaruriy hayotiy tajriba hosil qila olish imkonini beradi.

Yoshlarni axloqiy fazilatlarini san'at yo'li va vositalaridan foydalanishning samarali pedagogik shartlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda tajribani asoslash, sub'ektlar o'zaro ta'sirining ma'lum bir algoritmini, uni o'quvchilar ta'lim jarayoniga tadbiq etishni nazarda tutuvchi musiqa darslari vositasida axloqiy tarbiya modelini ishlab chiqish va dasturini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutiladi. San'at vositasidagi ta'lim jarayoni - o'quvchining erkin axloqiy munosabatlarini shakllantirishga hissiy jihatdan boy muhit yaratishga

hissa qo'shadigan innovatsion pedagogik texnologiya - san'at yordamida shaxsga ta'sir qilishning noan'anaviy yondashuv dasturidir. Shu bilan birga, musiqa darslari vositasida o'quvchi shaxsining axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda bir qator harakat vositalari bo'lmish, raqs, tasviriy san'at, musiqa va ularni umumlashtiruvchi unsur improvizatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Ekspressiv san'at vositalari bolalarga ongsiz ravishda ta'sir o'tkazishga imkon beradi, bu esa o'z-o'zidan o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, g'oyalari va hissiy reaksiyalarini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral "Ma'daniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ112-sonli qarori o'qituvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab quvvatlash qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan [33].

Oliy ta'limning bakalavriyat bosqichi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa o'qitish metodikasi" fani tanlov fan sifatida qo'yilgan. Dars jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, talabalar san'atga, madaniyatga qiziqishi mavjud ammo yetarlicha boshlang'ich bilimga ega emasliklari ma'lum bo'ldi. Buning asl xatosi maktabdagi musiqa madaniyati fanlariga borib taqaladi. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishda, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'plab tashkillashtiriladigan bayram ertaliklarda musiqiy bilim yetishmasa uni ko'ngildagidek o'tkazish biroz qiyin sanaladi. Shu sababli boshlang'ich va maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga qo'yilgan musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsadi talabalarni musiqa fanidan amaliy faoliyatga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish kelajak avlodning musiqiy madaniyati va ma'naviyatini musiqa vositasi orqali shakllantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijodiy mehnat talab etiladi.

Talabalarning aslida musiqa cholg'u asboblarga, raqslar, ko'ngilochar chiqishlarga yuqori darajada xohishlari mavjud. Bu ijodkorlik qobiliyati va iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida nafaqat musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalariga balki shu mutaxassislikka o'qimasada boshlang'ich va maktabgacha ta'lim talabalarining qiziqishlari inobatga olingan holda imkoniyat yaratilib tanlov fan sifatida bu fanlar va to'garak ishlari oliygo'hlarda tashkillashtirilgan.

Ta'lim muassasalarida musiqa fanlarini o'qitishda albatta, Sharq mutafakkirlari qarashlariga yuzlanmasak xato qilgan bo'lamiz. Jumladan, ulug' ajdodimiz Abu Ali ibn Sino musiqa inson ma'naviy qiyofasini yanada mukammallashtirishini ta'kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, navo jozibasini so'z bilan ifodalash qiyin. Mumtoz musiqalarimiz kishi ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi qudratga ega. Ular insonni ezgulikka da'vat etadi, tinglovchini borliq, hayotning mazmun-mohiyatini anglab yetishga, falsafiy mushohadaga undaydi [34].

Endi musiqa ta'limi bola shaxsida komil insonning qimmatbaho fazilatlaridan qattiyatlilik, iroda, kuchli xotira, abstartk fikrlash, miya yarimsharlarining tengdek shakllanishiga erishish natijasida tiniq tafakkur, zehn, nutqning ravonligi, chiqishimlilik, o'zaro fikr almasha olish kabi diplomatik xususiyatlarini o'zalashtiradi. Bu kabi xususiyatlarni shakllantira olishlik qobiliyati musiqa darslaridan boshqa hech bir sohada kuzatilmaydi. Bu nafaqat o'quvchilar balki har bir yosh qatlamini talabami, o'qituvchinimi shakllantirishda birdek xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda musiqa madaniyati fanining ahamiyati bo'lajak o'quvchilar

---

<sup>33</sup> "TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA DARSLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI"  
Dildora Abduvahobovna Djmalova O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February  
2023

<sup>34</sup> "TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA DARSLARINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI"  
Dildora Abduvahobovna Djmalova O'zbekiston davlat konservatoriyasi  
"Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February  
2023

o‘z o‘quvchilarini har sohada va jabhada salohiyatli va qobiliyatli kadr bo‘lib yetishib chiqishida xizmati yuqori darajadiligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zi shu bilimlarga salohiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini ham qadryatlarimizga, urf-odatlarimizga, an‘analарimizga va milliy musiqa me‘rosimizga, jamiyatga mehr- muhabbatli qilib tarbiyalaydi. Ham bo‘lajak pedagoglar ham ularning o‘quvchilari bu fan orqali jamoaviy va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda xohish-istaklarini amalga oshirilishi ta‘limda integratsiyalangan yondashuvni ta‘minlab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ta‘lim muassalarida musiqa darslarini o‘qitishning zamonaviy usullari” Dildora Abduvahobovna Djамalova O‘zbekiston davlat konservatoriyasi "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023
2. Ibrohimov O.A., Xudoev G.M. “Musiqа tarixi”. Toshkent-2018
3. “Musiqа o‘qitish metodikasi” Jo‘rabek Yarashev, Dilnavoz Muratova “Durdona” nashriyoti Buxoro – 2021.

#### TARBIYANING TA'LIM BILAN UYG'UNLASHUVI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda  
xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi talabasi  
Akramova Dilnoza  
Ilmiy rahbar Boshlang'ich ta'lim  
nazariyasi kafedrası o'qituvchisi  
Artikova Nargiz

Annotatsiya : Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning inson hayotidagi o'rni va unga izoh bergan sharq mutafakkirlarining fikrlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Annotation: This article discusses the role of education and training in human life and the opinions of the great scholars of the East who commented on it.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль образования и воспитания в жизни человека и мнения великих учёных Востока, комментировавших это.

Kalit so'zlar: Tarbiya, Ilm, adib, shaxsiyat, kamolot, vosita, tarbiyachi, renesans, ijtimoiy jarayon , bola, xulq;

Ilk renesans davrlaridanoq ilm egallashdagi tengsiz mahorat ustalarining yurti sifatida dunyoga tanilib kelayotgan, O'rta Osiyo xalqlari kundan kunga yanada rivojlanib bormoqda.Va albatta ta'lim va tarbiya bu rivojlanishning asosiy vositadir.Tarbiya inson kamolotiga va uning shaxsiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya-aniq maqsadlarni ko'zlab, sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarini tarkib toptirishi yo'lida, tarbiyachi rahbarligida va oila hamkorligida amalga oshirilib boriladigan, ijtimoiy jarayonlardan biridir. Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan bolani har tomonlama yetuk bo'lib yetishishi uchun berilayotgan tarbiyaga tashqi muhit ham o'z tasirini ko'rsatmay qolmaydi. Berilayotgan yoki bola tomonidan qabul qilinayotgan tarbiya orqali bolada yangi fazilatlar hosil bo'ladi va tug'ma ravishdagi kamchiliklarni ham bartaraf etsa bo'ladi. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Shu bilan birga tarbiya insonni xulqini go'zallashtiradi ,qadrini oshiradi.Chunki "Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshisidir". Shunday qilib Ilm shamchiroq qiyoslasak, uning nuri esa tarbiya deymiz. Qachonki odam shu ikkovini o'zida bir vaqtda jam qila olsa bu uning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun eng katta qadami hisoblanadi.Yuksak mahorat sohibi bo'lgan adib Abdulla Avloniy tarbiya haqida "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokatmasalasi-dir" deya ta'kidlagan bo'lsa, ilm to'g'risida esa "Ilm

dunyoning izzati,oxiratning sharofatidir.Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir.Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni o'ynay kabi ko'rsatur",-deydi.

Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta'limotining yirik namoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik,insonparvarlik, mehnatsevarlik,iymon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi . O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, "Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchunqanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.Milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish". Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko'rsatma san'atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega". Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak,zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohibchiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.intereuroconf.com> "Bola tarbiyasida odob-axloq va ta'lim tarbiya masalalari".
2. H.Hikmatullayev, A.Mansurov "Axloq-odobga oid hadis namunalarini".
3. A.Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-mutafakkirlarining-ta-lim-tarbiyaga-oid-ma-naviy-va-axloqiy-qarashlari/viewer>.
- 5.<https://cyberleninka.ru/article/n/abdulla-avloniy-asarlarida-ma-naviy-ma-rifiy-tarbiya-g-oyasining-aks-etishi/viewer>.

#### **PEDAGOGNING KREATIV SIFATLARI**

Xolmatova Guzal Islomovna

**Annotatsiya.** Kreativlik ta‘lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta‘lim jarayonini qurish, ta‘lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar.** Kreativlik, ixtiyorsiz kreativlik, ixtiyoriy kreativlik, aktualashtirish, ijodiy izlanish, kreativ layoqat, keyslar, ijodiy faoliyat, ijodiy intilish, ijodiy qobiliyat, kreativ maqsad.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta‘lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma‘noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Shaxsning o‘z-o‘zini aktualashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog‘langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o‘z-o‘zini aktualashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi – “ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi”, “ikkinchisi – ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta‘lim, kamolotga intiluvchanlik” . A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya‘ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma‘lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi, deb hisoblaydi,

Ta‘lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishda ta‘lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta‘lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– ta‘lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta‘lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta‘minlash;

– ta‘lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta‘lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlash, har bir ta‘lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini ta‘lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– ta‘lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda



tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o'tgan:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo'lgan moyillikni qaror toptirish, ta'limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g'oyalarning tug'ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta'lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko'nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta'lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta'lim – ta'lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini o'zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o'qitish metodlari tizimidir.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, quyida ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

– kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;  
– ta'lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

– ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

– ta'lim oluvchilarning kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini bilish, o'z mavqeyiga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;

– ta'lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

• ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

• tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;
- guruhviy ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud:

- kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi;
- kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi;
- kreativ sifatning shakllanganligi;



-amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish;

-ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib, o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir. O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi. Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlilikni belgilab beradi, “talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi”.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, bitiruv ishi doirasidagi “kreativlik”, “kreativ qobiliyat”, “pedagogik kreativlik”, “interfaol o'qitish”, “interfaol o'qitish sharoiti”, “talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish” kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2018-yil 21-sentabr, PF-5544-son Farmoni.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности - СПб.: СПГУТД, 2006.
3. Gonobolin Fedor Nikanorovich - Vospitanie shkolnika. - 1971. M
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue
6. Maslou A.G. Motivatsiya ilichnost. – SPb, 1999, -78s.,Maslou A.G. Samoaktualizatsiya // Psixologiya lichnosti: Teksty. –M.:, 1982.
6. N.A.Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015.

#### **MAKTABGACHA TA'LIM MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING ILK BO'G'INI SIFATIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Xakimova Nazira Rustam qizi  
BuxDPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash kerakligi, maktabgacha ta'limda tarbiyachi va ota-onalarning boshlang'ich ta'limga tayyorlashdagi o'rni qanchalik katta ekanligi haqidagi fikrlar aks etgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim - tarbiya, rivojlanish, uzviylik, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, pedagog., bilim, tarbiya.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat

ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, shuningdek Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun, maktablarda, maxallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular xaftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'priik vazifasini o'tashini, oila yoki MTTdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviylikini ta'minlash dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Biz bilamizki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich bosqichi bo'lmish maktabgacha ta'lim hozirgi kunga qadar tez sur'atlarda rivojlanib borishi orqali ta'lim sifati ham shunga qarab yanada takomillashib bormoqda. Bu esa har bir yosh avlodning sifatli ta'lim olishi hamda zamonaviy shart-sharoitlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanishlari ta'lim tizimining yanada rivojlanishida turtki sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim- tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Bunday ish bolalarni maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan o'tadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda o'yin va mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir. Faoliyatga qatnashish maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar o'yin faoliyatida bolalar jamoa bo'lib o'ynashni, bir- birini tushunishni, do'stona munosabatlarini qo'llab- quvvatlashni , mehnat faoliyatida esa o'z -o'ziga xizmat ko'rsatishni, do'stona ishlay olishlarini, mustaqillik, tirishqoqlik, uyushganlik va javobgarlik kabi hislarni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi bolalar aqliy, jismoniy, ruhiy jihatdan tarbiyalanib, maktab ta'limiga tayyor bo'lib borishadi. Bolalarni maktab ta'limiga aqliy jihatdan tayyorgarligining ahamiyati o'quv faoliyatining yetakchi turi hisoblanadi. Nutqning qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktab ta'limiga ruhiy tayyorgarlik tushunchasi bolaning o'qishga intilishi, o'quvchi bo'lish ishtiyoqida bilish faoliyati va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'luvchi asoslangan tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Jismoniy tayyorgarlik - bu bolaning sog'lig'ining yaxshi holati, chidamliligi, salbiy ta'sirlargachidamliligi, madaniy va gigiyenik malakalarning yetarli darajada rivojlanishi tushuniladi. Biz bilamizki, maktab ta'limidan oldin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim - tarbiya olibgina keyin maktab ta'limiga tayyor bo'lishadi. Har bir ota-ona bolasini bilimli, tarbiyali bo'lishini istaydi. Bu istakni maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar ota-onalar hamkorligida amalga oshiradi. Bu hamkorlik bo'lmasa hech qanday natija bo'lmaydi. Masalan, tarbiyachi tarbiyalanuvchi bolaga she'r yodlashni uyga vazifa qilib berganda , bola ota-onasi yordamida she'rni yodlamasa yoki ota-onasi bolasiga befarq bo'lsa, bola albatta she'rni yodlamaydi yoki chala yodlab keladi. Bu esa bolani boshqa bolalardan orqada qolishiga katta sabab bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda ona tilining boshlang'ich kursini o'qitishga bolalar nutqini har tomonlama rivojlantirib borish g'oyasi asos qilib olingan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida lug'atni rivojlantirish, tovush madaniyatini shakllantirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish, ijodiy va rasmga qarab hikoya qilishni o'rgatish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, o'qish va savodga tayyorlash , oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlangan lug'at boyligini yanada oshirish, nutqning ifodaliligi va mantiqiyliги ustidagi ish maktabda ham davom ettiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida „Ilk qadam“ davlat o'quv dasturiga muvofiq maktabgacha

tayyorlov guruhlarida ta'lim - tarbiya ishlari olib boriladi. Bu o'quv dastur asosida tarbiyachilarga tarbiyalanuvchi bolalarni ta'lim - tarbiya berishda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bir-biriga juda ham uzviy bog'liqdir. Ular bir- birlarini to'ldirib turadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar olgan bilimlarini maktab ta'limida yana yangi bilimlarni olishni davom ettiradilar va kelajakda Vatan ravnaqini oshirishda , xalq farovonligini ta'minlash kabi ishlarni amalga oshiruvchi komil insonlar bo'lib yetishadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni //O'RQ-637-son 23.09.2020.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son qarori.

4. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „ Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue:12. 5-9p

5. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi ,RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKALARINI TALIMDA BAHOLASH“.Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE.Part7 December 29th COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS MADRID 2023 97-100b. <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10145>

#### **UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING UZLUKSIZ TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

Rasulev T. Q. - *Qashqadaryo VPIYO'MM pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasi mudiri.*

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy ta'limning mamlakatimiz ta'lim sohasidagi o'rni va ahamiyati, huquqiy asoslari haqida yoritilgan bo'lib, aynan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida uzluksiz kasbiy ta'limni tashkil etishning huquqiy, pedagogic jihatlari yoritilgan.

**Tayanch iboralar:** Uzluksiz ta'lim, hayot davomida ta'lim, kattalar ta'limi, Milliy dastur, Finlandiya ta'limi, yangi avlod darsliklari.

#### **Абстрактный:**

В данной статье освещены роль и значение непрерывного профессионального образования в сфере образования нашей страны, правовые основы, а также правовые и педагогические аспекты организации непрерывного профессионального образования в системе дошкольного и школьного образования.

**Ключевые слова:** Непрерывное образование, непрерывное обучение, образование взрослых, Национальная программа, финское образование, учебники нового поколения.

#### **Abstract:**

This article highlights the role and importance of continuing professional education in the field of education in our country, the legal framework, as well as the legal and pedagogical aspects of the organization of continuing professional education in the system of preschool and school education.

**Keywords:** Lifelong education, lifelong learning, adult education, National program, Finnish education, new generation textbooks.

Uzluksiz ta'lim (angl. Lifelong learning) – shaxsni hayot davomidagi bilim (umumiy va kasbiy) darajasining ushish jarayoni bo'lib davlat va jamiyat tizimidagi ijtimoiy ta'lim muassasalari (institutlari)da shaxsning va jamiyat ehtiyojlari asosida amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim qadim filosoflar davrida ham mavjud bo'lib, "uzluksiz ta'lim" (neprerivnoye obrazovaniye) iborasi birinchi marta 1968-yilda YUNESKO konferensiyasi materiallarida qo'llanilgan edi. 1972-yil Parijda E. Fora komissiyasi ma'ruzasi e'lon qilingan va shu yili "Katta yoshlilar ta'limiga bag'ishlangan III Xalqaro konferensiya" (III Mejdunarodnaya konferensiya po obrazovaniyu vzroslix v kontekste neprerivnogo obrazovaniya) uzluksiz ta'lim olish masalasiga bag'ishlangan.

Keyinchalik, 1970-yil o'rtalariga kelib dunyoning ko'plab davlatlarida uzluksiz ta'lim masalasi qo'llab quvvatlandi va keng tarqaldi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi va yevropa davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari uchun uzluksiz ta'lim barcha sohadagi kasbiy tayyorgarlikning muhim vositasi sifatida qabul qilindi. Dunyo tajribasida uzluksiz ta'lim tuzulmasi (struktura) quyidagi elementlardan iborat:

1. Hayot davomida ta'lim (life-long learning education)
2. Kattalar ta'limi (adult education)
3. Uzluksiz kasbiy ta'lim (continuing vocational education and training)

Keyinchalik uzluksiz ta'limning har uchala elementi ham keng talqin qilindi va yangi tayanch tushunchalar kiritildi. Mustaqil ta'lim olish, o'z usti ishlash, malaka oshirish, qayta tayyorlovdan o'tish va boshqa shu kabi tizimdagi yangiliklar barchasi shaxsni uzluksiz ta'lim olishiga xizmat kilishiga qaratildi.

O'zbekistonda ta'lim xodimlarini uzluksiz ta'limiy rivojlanishlari uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori va Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori shular jumlasidandir.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan (75 moddadan iborat) O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni asosida amalga oshiriladi. Ushbu qonunning 2-bob 7-moddasida keltirilgan Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

Maktabgacha ta'lim va tarbiya;

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

Professional ta'lim;

Oliy ta'lim;

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

Maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekistonda uzluksiz ta'limning asosiy poydevori umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bo'lib, unda asosiy e'tibor umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Uch bosqichli umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar), boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) va o'rta ta'lim (X-XI sinflar) iborat qilib belgilangan. Bu sinflarda 2017-yili Vazirlar Mahkamasining 187-son qarori bilan tasdiqlangan DTS, 2022-yil 5-mayda qabul qilingan, PF-134-son farmon bilan tasdiqlangan, "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy Dastur va 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Finlandiya ta'lim tajribasi asosida boshlang'ich ta'lim uchun kiritilgan Yangi avlod darsliklarini o'qitish amalga oshirilmogda.

2022-yildan boshlab amaliyotga joriy etilgan xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini maqsadi – xodimlarning egallab turgan lavozimlari, mutaxassisligi yoki dars beradigan fanlari bo'yicha kasbiy va pedagogik mahorati doimiy ravshda o'sib borishini, ularning ilg'or pedagogik va axborat texnologiyalari, shuningdek, o'qitishning

interaktiv usullari bo'yicha kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlash hamda ularning davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim ta'lablari va sohaga oid qonunchilik bilan muntazam tanishtirib borishdan iborat edi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirishning vazifalarida xodimlarning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish bilan bir vaqtda ularni ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. So'ngi yillarda maktab ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan maqsad ta'lim sohasida samaradorlik va natijaviylikka erishishdan iboratdir. Ta'lim sohasida samaradorlikka erishish uchun har bir bosqichda uzviylik va uzluksizlik bo'lishi zarur. Bir o'quv yili, bir o'quv choragi, bir o'quv haftasi yoki hatto bir soatlik dars jarayonida ham uzluksizlik va uzviylik bo'lishi lozim.

Ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzvuyligi bu pedagogik qonuniyatlarda, ta'lim metodlari va ta'moyillarida ifodalanadi. O'quv yili yoki o'quv choragi boshidagi dars keyingi dars uchun zamin yaratsa, o'quv yili va o'quv choragi o'rtasidagi dars mashg'uloti oldingi darsni davomi, keyingi bo'ladigan dars mashg'ulotiga zamin yaratuvchi bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim jarayonini uzluksizligi ta'minlanadi. Bu butun bir sinf o'quvchilarida yoki alohida bir o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishida kuzatilishi mumkin. Hozirgi davrdagi ta'lim sohasida yuksak samaradorlikka erishilmayotganining sabablaridan biri esa maktab o'qituvchilarida o'qitishning zamonaviy modellari va strategiyalarining yetishmasligidir. Bu kamchiliklarning sababi bir nechta bo'lib asosiylari quyidagilarda bo'lishi mumkin:

1. Respublikada pedagogik kadrlar (maktab o'qituvchilari) tayyorlash o'quv rejasida pedagogika, psixologiya va xususiy metodikalarni o'qitish uchun yetarlicha soat kuzda tutilmagan universitetlarda amalga oshirilganligi;

2. Respublikada 2022-yilgacha bo'lgan davrda pedagogika institutlari soni keskin kamayib ketganligi;

3. Respublikada pedagogik kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan yagona Nizomiy nomidagi Toshkent DPU yetarli emasligi;

4. 2022-2023-yillarda Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etishda (onlayn, oflayn va masofaviy) yo'l qo'yilgan kamchiliklar, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorini joylarda to'liq bajarilmaganligi;

5. O'qituvchilarni mahalliy va xalqaro ilg'or tajribalarni mustaqil o'rganib bormayotganligi, ta'lim jarayoniga kreativ yondoshmayotganligi va boshqalar.

Maktab o'qituvchisining uzluksiz kasbiy rivojlanishini yo'lga qo'yish maqsadida ularning shaxsiy kasbiy salohiyatining individual va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda hayot davomida o'sishi jarayonini qamrab olgan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi orqali kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirish mexanizmi joriy qilingan bo'lishiga qaramay ba'zi bir o'qituvchilar e'tiborini faqat sertifikat olishga qaratayotgani ham ta'lim samaradorligini oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limim vazirligi tomonidan vazirlikni 2023-yil 15-dekabrda 70-XDFU-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining (tabaqalashgan) tayan o'quv rejalaridagi o'quv fanlari va modullari tarkibiga va namunaviy dasturlarida maktab ta'lim jarayoni bilan bogliq ta'limning ayrim pedagogik, psixologik qonuniyatlari, rahbar kurslarda esa umumiy o'rta ta'lim maktablari xujjatlarini yuritish, rasmiylashtirish va ijrosini ta'minlash yoki maktabni boshqarishda ichki nazoratni tashkil etish kabi dolzarb masalalarga o'rgatish ko'zda tutilmagan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 2024-yilda o'tkazilgan diognostika testda qatnashgan pedagoglarning natijasiga qarab 3 yillik malaka oshirish shakli bo'yicha rejasi quyidagicha belgilab berildi.

Unga ko'ra: 75 % dan yuqori bo'lsa, 3 yil ONLAYN

50 % dan yuqori bo'lsa, 2 yil ONLAYN, 1 yil OFFLAYN

25 % dan yuqori bo'lsa, 1 yil ONLAYN. 2 yil

OFFLAYN

25 % dan past olganlar 3 yil OFFLAYN o'qishi belgilandi.

Respublikadagi hududiy, pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari va ularning kafedralari tomonidan ishlab chikilgan Ishchi o'quv reja, Ishchi o'quv dastur va o'quv uslubiy majmualar, onlayn malaka oshirish kurslari uchun "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi uchun yaratilgan kontentlar barchasi tegishli tabaqalarga moslab tayyorlandi. Bu jarayon ham uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tartibli tashkil etish orqali uzluksiz ta'lim jarayonini yanada sifatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Kelajakda maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2024-yil 8-yanvardan boshlab, Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari o'qitishda o'tkazayotgan tajriba-sinov natijalaridan tegishli xulosa chiqarib, hududiy markazlar taklif va tavsiyalarini o'rgangan holda ta'lim xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirishlari lozim. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish yaxshi, ilmiy va pedagogik jihatdan asosli tashkil qilingan joyda uzluksiz ta'lim olish samaradorligi yanada oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4963-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 17 yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023 yil 15 dekabrda 70-XDFU-son buyrug'i
4. <https://onlinedu.uz/>

#### **MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI RAQAMLI SAVODXONLIKKA O'RGATISH**

Toyirova Dilrabo Sattorovna  
Mustaqil izlanuvchi, Maktabgacha ta'lim kafedrasini o'qituvchisi.  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Salimova Dilshoda  
II-bosqich talabasi

<https://orcid.org/0009-0000-5774-4850>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabga tayyorlov guruhlarining o'quv faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishi, bolalarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati, bugungi kunda bolalar raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda texnik vositalardan foydalangan holda o'quv faoliyatini olib borish usullari va mazmuni to'g'risidagi masalalar o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli savodxonlik, texnologiya, texnik vositalar, tarbiyalanuvchi, kompyuter savodxonligi, o'quv faoliyati, media savodxonlik, mazmun, standart, mezon.

Hozirgi zamonda biror-bir sohada ishni boshlash va uni boshqarishni kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. XXI asr savodxon kishisi bo'lish, axborot texnologiyalarini puxta egallamoq lozim. [Har bir mutaxassis](#), u qaysi sohada ishlashdan qat'iy nazar, o'z vazifasini zamon talabi darajasida bajarishi uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilishi va ularda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Shu sababli bugungi kunda mustaqil Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlarning mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari aniq belgilab olingan. [Jumladan](#), Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTIDA "Bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri." deb belgilab qo'yilgan.

Ta'lim tizimi butunlay yangi kasb etayotgan hozirgi davrda har bir faoliyatning mazmunini qayta

tahlildan o'tkazish ta'lim bosqichlari bo'yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash asosida tubdan isloh qilish va hayot bilan bog'lash nuqtai nazaridan yondashuv zarur bo'ladi.

Zamonaviy bola elektron madaniyat dunyosida yashaydi. Kompyuterlar tug'ilishdan boshlab kichik bolalarni o'rab oladi: uyda, bolalar bog'chasida va shifoxonada. Yangi ma'lumotlarning kuchli oqimi, reklama, televizor va kinoda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o'yin taqdimotlari, elektron o'yinchoqlarni tarqatish maktabgacha yoshdagi bolaning tarbiyasiga va uning atrofidagi dunyoni idrok etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 5-6 yoshli bola allaqachon shaxsiy kompyuter bilan erkin muloqot qiladi. Uning sevimli mashg'ulotining tabiati - o'yin ham sezilarli darajada o'zgaradi. Hozirgi bola faqat uni eng ko'p qiziqtiradigan, eng yaqin, tanish, yoqimli va qulay his-tuyg'ularni uyg'otadigan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolaning motivatsiyasini oshirish va ta'limini yaxshilash, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim faoliyati uchun ijobiy hissiy fon yaratish uchun noyob imkoniyatga ega bo'lgan vositalardan biri bu kompyuterdir. O'quv jarayoniga AKTni joriy etish bo'yicha pedagogik munozaralar anchadan beri davom etib kelmoqda. Ammo zamonaviy dunyoda bir joyda turish qiyin, shuning uchun biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, AKT maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim jarayoniga mustahkam kiritilgan. Kompyuter nafaqat kattalar hayotining zaruriy va muhim atributiga, balki bolalarni o'qitish vositasiga ham aylandi. Kompyuter texnologiyasi - bu bola bilan ishlashda uning rivojlanishiga yordam beradigan maxsus yo'nalish. Hozirda u mamlakatimizda hali yetarli darajada rivojlanmagan. Agar maktab faol rivojlanayotgan bo'lsa, kompyuterdan foydalanishning yangi texnologiyalari va usullarini joriy etsa, deyarli har bir maktabda kompyuter sinflari va interfaol doskalar mavjud bo'lsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida bu ish endigina boshlanmoqda va qoida tariqasida o'qituvchining shaxsiy qiziqishidir. O'qituvchi bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun zamonaviy metodlar va yangi ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishi kerak. Hatto e'tiborini uzoq vaqt ushlab turish juda qiyin bo'lgan giperaktiv bolalar ham katta ekranda taqdim etilgan ma'lumotlarni, hatto turli o'yinlar va musiqalar jo'rligida katta qiziqish bilan qabul qilishadi. Ta'lim amaliyotiga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Kompyuterni o'rgangan bolalar esa internetni ham o'zlashtira boshlaydilar. Bu hushyorlik talab etiladigan palladir. O'quv markazlarida bolalar uchun foydali va kerakli saytlar taqdim etiladi va o'quvchilarni unga jalb etib, keraksiz saytlarga qiziqishni kamaytirishadi. Bolalar kompyuterda kattalardan ko'ra kamroq shug'ullanishlari kerak, albatta. Sababi ularning o'sib kelayotgan suyaklari, ko'z nuriga zarar yetmasligi kerak. Raqamli savodxonlikni oshirish faoliyati ana shunday qoidalarga rioya qilgan holda tashkil qilinishi lozim. Ya'ni har yigirma daqiqada kichik tanaffus e'lon qilinadi, ko'zlar va mushaklar uchun mashqlar bajariladi. Bu bolalarda kompyuterdan foydalanish madaniyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari bolalar o'tiladigan bu mashg'ulotlar davomida quyidagi saboqlarga ega bo'lishadi:

- ✓ Kompyuterni yoqish-o'chirish, sichqonchani to'g'ri ishlatish, asosiy dasturlar haqida boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lish;
- ✓ Windows oynasida ishlash, masalan, yozish, chizish, hisoblash;
- ✓ Klaviatura bilan tanishish, harf terishni o'rganish;
- ✓ Paint dasturida turli suratlar yaratish;

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining hayotiga kompyuter va boshqa texnik qurilmalardan foydalanishni o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad - birinchi navbatda, ularning axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladigan jamiyatda hayotga psixologik tayyorgarligini shakllantirishdir. O'yin dasturlari raqamli texnologiyalar bozorining kengayishi bilan kompyuter o'yinlari bolaning hayotida tobora ko'proq joy egallaydi. Hozirgi vaqtda bozor tajovuzkorlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi o'yinlar bilan to'lib toshgan. Kompyuter o'yinlariga psixologik qaramlik bolaning ruhiy va somatik holatiga salbiy ta'sir qiladi. Bolani kompyuter o'yinlarining salbiy ta'siridan himoya qilish uchun o'yin dasturlarini tanlashni diqqat bilan kuzatib borish kerak.



Bola har doim ham butun dars davomida diqqatini uning mazmuniga jamlay olmaydi. Diqqat bir qator xususiyatlarga ega: konsentratsiya, barqarorlik, o'zgaruvchanlik. O'quv o'yin dasturlari bolaga e'tiborning ko'rsatilgan xususiyatlarini o'ynoqi tarzda rivojlantirishga imkon beradi, bu esa unga o'quv faoliyati jarayonida ko'proq tirishqoq bo'lishga imkon beradi. Bundan tashqari, bola xotiraning barcha turlaridan foydalanadi: majoziy, hissiy, vizual, eshitish, mantiqiy. Xotirani yaxshilashning asosiy amrlaridan biri bu takrorlashdir. Bolalar, qoida tariqasida, bir xil o'yinni ko'p marta katta qiziqish bilan o'ynaydilar va shu bilan ularning xotirasini mustahkamlaydilar. Darsdan darsga bolaga ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladigan turli didaktik topshiriqlar beriladi. O'yin jarayonida o'quv faoliyatiga qiziqish shakllana boshlaydi va bolaning o'yin motivatsiyasi asta-sekin o'rganishga o'tadi. Barmoqlarning mustaqil motorli ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kompyuterda faoliyatlar katta ahamiyatga ega, bu ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda muhimdir. Kompyuter vazifalarini bajarish jarayonida ular qo'yilgan vazifalarga muvofiq, barmoqlari bilan ma'lum tugmachalarni bosishni o'rganishlari, "sichqoncha" manipulyatoridan foydalanishlari kerak. Bundan tashqari, bolalarni yozishni o'zlashtirishga tayyorlashda muhim nuqta - bu kompyuterdan foydalangan holda darslarda muvaffaqiyatli erishiladigan vizual va vosita analazorlarining birgalikdagi muvofiqlashtirilgan faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bola ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlashning yangi, sodda va tezroq usulini o'zlashtiradi, texnologiyaning yangi sinfiga va umuman, ob'ektlarning yangi dunyosiga munosabatini o'zgartiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish hali ham noan'anaviy usul bo'lib qolmoqda, ammo u bolani maktabga tayyorlashga yordam beradigan ta'lim muammolarini yanada samarali hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Turli faoliyat jarayonida musiqadan foydalanish uchun magnitafon va CD-ROM; Rasmlar, harflar, raqamlar va boshqalarni chop etish uchun printer. Dars uchun turli didaktik materiallar (rasmlar, qog'oz rasmlari); Uyga vazifa va mukofotlashda rasmlardan foydalanish; Uy vazifasi asosiy jihatlardan biridir: u motivatsion faoliyatni, ijodkorlikni yaratishga ishonib topshiriladi, ya'ni. mustaqil ishlash, unutilganlarni qayta tiklash, o'zini faol shaklda saqlash qobiliyati. Uni amalga oshirishda bola ham, uning ota-onasi ham ishtirok etadi. Uy vazifasi sinfda nima sodir bo'lganligini tushunishga, darslarning mohiyatini aniqlashga, darslarning o'zi muhimligini his qilishga yordam berishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ergashev B. N. (2023) "Umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni rivojlanishi: afzallik va kamchiliklar". "Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishning zamonaviy holati va istiqbollari" Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami.

2. Mo'minov D.R. (2021) Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter savodxonlikni shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences

3. Rasulov O.N. (2004) Zamonaviy electron darsliklarning electron xususiyatlari. Kasb-hunar ta'limi. №2. 78-82 b.

4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. (2008), Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T.: Fan va texnologiya.

5. Abduqodirov A.A., Umarova G.U. (2016) Boshlang'ich sinflarda informatika elementlarini o'qitish metodikasi.-T.: "Fan va texnologiya"

### **QAYTA HIKOYALASH ORQALI O'QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI O'STIRISH**

Rayxon Rasulova, p.f.f.d (PhD)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yosh avlodning matn yaratish kompetensiyasini qayta hikooyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** matn, qayta hikoyalash, tafakkur, kommunikativ kompetensiya, ijod, badiiy mahorat, vatan ravnaqi, nutaq o'stirish, yoshlar dunyoqarashi.



Jahon ta'lim tizimlari amaliyotida o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari talabi asosida tayanch ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ortmoqda. Shaxsni rivojlantirishga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning yetakchi omili sifatida zarur kompetensiyalarni shakllantirish ta'limning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyoda o'qitishda innovatsion texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash va takomillashtirish, o'quvchi shaxsida tayanch ta'limiy kompetensiyalar, xususan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar fan va texnika, sport va intellektual salohiyat, kreativlik tafakkur va ijtimoiy-madaniy muloqot sohalarida dunyo miqyosida o'z tengdoshlari orasida raqobatlasha oladigan o'quvchi shaxsini tarbiyalashga qaratilgan. O'quvchilarning kommunikativ vaziyatlarda uchraydigan muammolarining namoyon bo'lishi, ularda adekvat muloqot ko'nikmalarining pastligi, muloqot uchun to'siqlarni yengish qobiliyati yetishmasligi o'quvchilar orasidagi shaxslararo munosabat orqali ta'lim samaradorligiga ham salbiy ta'sir etish ehtimoli yuqori. Mustaqil yurtimizda shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi.

Ayniqsa, ta'limning dastlabki bosqichlarida jiddiy va mas'uliyat bilan yondashilsa yosh avlodda nafaqat ta'limning keyingi jarayonlariga balki hayoti davomida zarur bo'ladigan ko'nikmalar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'lim murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lganligi sababli, darsda o'quvchilarning estetik, axloqiy va aqliy taraqqiyotiga, bilimlarni ongli, chuqur va puxta egallashlariga, ularda bilish va anglash ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradigan usul va uslublar qo'llaniladi. O'quvchilarda mustaqil hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish ham o'ta zarur ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ularni kitobxon sifatida tarbiyalab borish, o'qiganlariga munosabat bildira olish kabi xususiyatlar ham shakllantirilmog'i zarurdir. Masalan, o'qituvchi qayta hikoyalash asosida o'quvchilarning nutqiy savodxonliklarini oshirish bilan bir qatorda ularning matn yaratish kompetensiyalarini ham shakllantirish mumkin. Buning uchun, albatta, o'rganishning birinchi bosqichi-badiiy matnni o'zlashtirishdir. O'qituvchi o'quvchini badiiy asar orqali hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi. Ko'rish va anglash asarni chuqur, ijodiy o'zlashtirishning zaruriy shartidir.

O'quvchining shaxsiy ijodiy tajribasi, ifodali o'qish va qayta hikoyalash bu shartlarni amalga oshirishga katta yordam beradi. Ifodali o'qish so'zga, jumlagi, vaznga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Metodist olim M.Mirqosimova ko'rsatib o'tganiday: «Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi; o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi»[1,18].

O'quvchi badiiy so'zni tinglashni, qadrlashni, undan zavqlanishni, ifodali so'zlash va yozishni bilishi kerak. Ifodali o'qish ana shu ko'nikmalarni o'stirishni ta'minlaydi. O'quvchilarni ko'proq kitob o'qishga, o'qiganlarini qayta hikoyalashga o'rgatish va o'z xulosalarini matn ko'rinishida izohlashlari zarur. O'quvchilar tomonidan tuzilgan har bir matn mavzusiga muammoli ta'lim texnologiyasi asosida keys savollari bilan yondashish mumkin. Avvalo, tahlil samarali amalga oshirilgach o'qituvchi tomonidan muammoli savollar o'rta tashlanadi va o'quvchilardan o'z javoblarini matn ko'rinishida taqdim etishlarini tashkilashtiradi. Mustaqil yaratilgan matn o'quvchi tafakkur qobiliyati aks etishi, tugal mantiqli, falsafiy xulosaning kashf etilishi, yuzaga chiqishidir. Aynan mana shu kashfiyot shaxsni rivojlantirish kompetensiyasining bosh manbaidir. Bilim o'zlashtirish qobiliyati ijodkorlikni, yaratuvchanlikni yuzaga keltiradi. Mantiqiy fikrlashning xato qilmaslik talabi, o'quvchini izlanishga, kashf qilishga yo'naltiradi, shaxs sifatida o'zligini anglash, o'z bilim va iqtidorini o'zgalarga namoyish qilish istagini paydo qiladi. O'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uni yozma va og'zaki fikr ifodalash, fikrini asoslab berish, mustaqil matn yaratishga o'rgatish, o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. Kitobxonlik salohiyatlarni rivojlantirib, o'qishga ehtiyoj ortadi. Matnda

berilgan yaxshi xulqlar va yomon xulqlar qiyosiy tahlil qilinib, fikrlar umumlashtirilsa to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatlar ham shakllanadi. Adekvat mulohaza qilish kompetensiyasi shakllanib, o'zgarishlarni tushuna oladi.

O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va reja asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni matn yaratishga tayyorlaydi. Qayta hikoyalashning turlari xilma-xil bo'lib, har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan yangi matn yaratish mumkin. Mashq sifatida matn yaratishning ahamiyati katta: avvalo, bolalarda adabiy nutqni to'g'ri shakllantirishga yordam beradi, adekvat fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, badiiy uslubni singdiradi, tilga sezgirlikni oshiradi. Matn mavzusi o'quvchilarning bilish tajribasini kengaytirishi, ularning dunyoqarashini shakllantirishi zarur. Qayta hikoyalash va matn yaratishda bolaning tabiiy nutqi aks etishi, ya'ni berilgan matn quruq yodlamasdan, nutq birliklaridan foydalanish zarur. Til vositalari matn o'qish, suhbat, matn tahlili, matn yaratish jarayonida o'zlashtiriladi; matndagi so'zlar va nutq birliklari bolalarga tabiiy singib qoladi. Qayta hikoyalash jarayonida namunadagi gaplarni esga tushirishga harakat qiladi, o'zlashtirgan mazmunni to'liqroq, aniqroq berish uchun gaplar tuzadi, natijada mustaqillik darajasi va bilish faolligi o'sadi, ijodiy fikrlay boshlaydi. Qayta hikoyalashda izchillik, uzviylik saqlanishi, asosiy faktlar berilishi, ayniqsa, ilmiy matn qayta hikoyalashda muhim o'rinlar to'liq yoritilishi zarur. Qayta hikoyalashning to'liq, detallari bilan, tilning tasviriy vositalaridan foydalanib matnga yaqin qayta hikoyalash; tanlab (masalan, bir qatnashuvchi shaxsga tegishli o'rinlarinigina) yoki qisqartirib qayta hikoyalash kabi turlardan matn yaratishda unumli foydalanish mumkin. Buning uchun suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, matn tili ustidagi xilma xil ishlar, qayta hikoyalashda zarur bo'lgan so'z, nutq birliklari va gaplarni ajratish va aniqlash kabi jarayonlar uyushtiriladi. Qayta hikoyalashda ifodalilikni berish uchun ifodali o'qishni puxtalash ham muhim. Jumladan, hikoyani mantiqiy va kompozitsion qismlarga bo'lish, har bir qismga sarlavha topish, matn qayta hikoyalashga mo'ljallangan rejani tuzish, matn qismlarini qayta hikoyalash, uning kamchiliklarini tahlil qilish kabi topshiriqlarni bajarish ham matn yaratishda kerakli ko'nikmalarni shakllantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida hayotiga bog'lash (o'rni bilan), ya'ni o'qilgan matn mazmuniga bog'liq holda o'quvchilarning shaxsiy tajribasida uchraydigan va uchragan holatlarga e'tibor qaratish ham zarur. Har bir darsda ma'lum ta'lim maqsadi asosida matn yaratishga muntazam o'rgatib borish zarur. Buning uchun qayta hikoyalashning barcha turlaridan o'rni bilan foydalanish talab etiladi. To'liq yoki matnga yaqinlashtirib o'qilgan matn butun detallari va bog'lanishlari bilan bolalar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini o'zlashtirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Bunda tez yodlab oladigan kichik matn, she'riy misralarni buzmaslik uchun she'rni, ayniqsa, butun bir poetik obrazni tasvirlovchi lirik she'rni hikoya qilish tavsiya etilmaydi. To'liq hikoya qilishda aniq syujetli hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi, keyin bolalar hikoyaga tasviriy (tabiat tasviri, kishilar va boshqa predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri) va muhokama elementlarini kiritishni o'rganadilar. Hikoya qilishga o'rgatish vaqtida o'quvchilarni "Bu fikrni yozuvchi qanday ifodalangan?" savoliga javob berishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Hikoyani sinfdagi barcha bolalar eshitishini ta'minlash juda muhim bo'lib, bunday hikoyalash jonli va qiziqarli bo'ladi. Hikoya qilishga o'quvchilarning qo'shimchasi, ma'lum qismini qayta hikoya qildirish, hikoyachini rag'batlantirish sinfdagi ijodiy muhitni vujudga keltiradi. Matnga yaqin hikoya qilishda savollar matn mazmunigagina qaratilmasligi, o'quvchilar mustaqillik darajasini pasaytiradigan matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollarni kamaytirib borish, bolalarni kengroq, umumiyroq savollarga javob berishga o'rgata borish zarur. To'liq hikoya qilishda hikoyani qanday boshlashni bilmaslik, ya'ni boshlanishi berilgan matn mazmunini davom ettira olmaslik, to'liq bayon qila olmaslik yoki noto'g'ri bayon qilish, lug'at boyligining kamligi kabi kamchiliklar uchraydi. Hikoya qilishdagi kamchiliklarni yo'qotish, uning oldini olish uchun matn butunicha puxta tahlil qilinadi, ko'pincha asosiy mazmunni ifodalaydigan qismi alohida tahlil qilinadi. Bunday kamchilikni yo'qotishga matn qismlarga bo'lish va sarlavhalar topish, reja tuzish va reja asosida hikoya qilish ham yordam beradi. Bunda tanlab hikoya qilish (hikoya qilishning o'zaro uzviy bog'langan boshqa turlari ham) yordamchi vazifani

bajaradi. Buning uchun lugʻat, tasviriy vositalar va gap ustida izchil ishlab borish talab etiladi. Toʻliq yoki matnga yaqin bayon yozish savod oʻrgatish davridanoq boshlanishi zarur. Bolalarni oʻz fikrini mustaqil ifodalashga oʻrgatishni, iloji boricha, erda boshlash maʼqul. Buning uchun oʻquvchilar ogʻzaki hikoya qilayotganda qoʻllagan alohida soʻzni yozishdan gapni yozishga, soʻng matn qismlarini yozishga va maxsus tanlangan kichik matn asosida bayon yozishga oʻrgatiladi. Ish quyidagicha uyushtiriladi: bayon uchun tanlangan matnni oʻquvchilar bir-ikki marta oʻqiydilar (oʻqituvchi oʻqib berishi ham mumkin); bolalarning matn mazmunini ongli tushunganligini aniqlash, oʻqilgan matnni, uning gʻoyaviy mazmunini, qismlari orasidagi bogʻlanishni toʻliq bilib olishga qaratilgan suhbat oʻtkaziladi; matn rejasi tuziladi (reja suhbat vaqtida tuzilishi ham mumkin); lugʻat ishi oʻtkaziladi (soʻzning maʼnosi va yozilishi tahlil qilinadi), muhimroq sintaktik tuzilmalarga va tilning tasviriy vositalariga diqqat jalb qilinadi. Ayrim gaplar yoki matn qismlari tuzdiriladi. Oʻquvchilar yozgan bayon muhokama qilinayotganda, ular yozgan matnni bayon matniga qiyoslash maqsadga muvofiq boʻlib, bu ish yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Tanlab hikoya qilish va shu asosda matn yaratishda matnning tor mavzusini, oʻqituvchining topshirigʻiga oid qismini tanlab qayta hikoya qilinadi. Masalan, oʻqilgan matndan faqat personajning tashqi koʻrinishinigina qayta hikoya qilish, faqat ikki personajning uchrashish jarayoni, faqat tabiat tasvirini hikoya qilish va boshqalar. Tanlab qayta hikoyalashning quyidagicha turlari mavjud: 1. Oʻqilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish. 2. Topshiriq yoki berilgan savol asosida alohida lavhani hikoya qilish. 3. Berilgan mavzu boʻyicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni hikoya qilish. Bu ish tanlab hikoya qilishning murakkabroq turi hisoblanadi. Tanlab hikoya qilish uchun oʻquvchi matnni boshidan oxirigacha qayta oʻqib chiqishga yoki yodga tushirishga, kerakli materialni yigʻishga toʻgʻri keladi. Buning uchun oʻquvchilarga matnni ichda oʻqish topshiriladi yoki ovoz bilan tanlab oʻqish topshirigʻi beriladi. Bunday tanlab hikoya qilish baʼzan yozma bayon sifatida ham oʻtkaziladi. Qisqartirib qayta hikoyalash va matn yaratish murakkab mantiqiy usullardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u toʻliq yoki matnga yaqin qayta hikoyalashga nisbatan qiyin. Bunda matndan ikkinchi darajali oʻrinlarni tushirib qoldirib, asosiy, muhim oʻrinlarga eʼtibor qaratib, hikoya qilinadi. Buning uchun oʻquvchining oʻzi matnning asosiy mazmunini aniqlashi, bogʻlanishli, izchil qayta hikoyalashi, uning hikoyasi matnni qisqartirish tarzida boʻlmasligi, oʻzlashtirilgan matnning muhim qismini ajrata olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga oʻrgatish uchun matn mazmunini qisqartirib tuzish oson boʻlgan hikoya tarzidagi matn tanlash tavsiya etiladi. Oʻqilgan matnni tahlil qilish jarayonida oʻquvchilardan uning bir qismini qisqa aytish soʻraladi. Keyin oʻquvchilarga matnning boshqa qismlarini ham, nihoyat, butun matnni qisqartirib qayta hikoyalash tavsiya etiladi. Oʻquvchilar matnni toʻliq qayta hikoya qilishga oʻrganganlaridan soʻnggina matnni qisqartirib qayta hikoyalashga oʻrgatiladi. Baʼzan oʻquvchilar asarning asosiy mazmunini (gʻoyasini) qisqa, bir gap bilan ifodalashga oʻrgatilgach, matn rejasini tuzishga, keyin matnni qisqartirib qayta hikoyalashga, undan soʻng matn mazmunini toʻliq qayta hikoya qilishga oʻrgatilishi ham mumkin. Qayta hikoyalash bogʻlanishli nutqni oʻstirishning zaruriy bosqichidir. Qisqartirib bayon yozish uchun oʻqituvchi yoki oʻquvchilarning oʻzlari matnni bir-ikki marta oʻqiydilar, soʻng matn mazmuni yuzasidan suhbat oʻtkaziladi va yoziladigan asosiy fikr hamda tushirib qoldiriladigan oʻrinlar ajratiladi.

Ijodiy qayta hikoyalash va matn yaratish. Metodikada ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi ajratiladi. 1. Shaxsini oʻzgartirib qayta hikoyalash. Masalan, I shaxs tilidan berilgan hikoyani III shaxs tilidan qayta hikoya qilishdan koʻproq foydalaniladi, bunda oʻquvchilar hikoyadagi gaplarni qayta tuzadilar. 2. Hikoyada ishtirok etuvchi biror personaj tilidan qayta hikoya qilish. 3. Matnni ijodiy toʻldirib qayta hikoyalash va matn yaratish. 4. Soʻz bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish. Ijodiy qayta hikoyalashning bu turi savollar yoki quyidagi kabi topshiriqlarni bajartirish asosida oʻtkaziladi: “Siz bunday vaziyatda oʻzingizni qanday sezasiz? Shu voqealar koʻz oldingizdan oʻtyapti, siz koʻryapsiz, eshityapsiz va oʻzingiz tasvirleyapsiz deb oʻylang”. Oʻquvchilarga topshiriq sifatida matndagi tabiat tasviri, qahramonlarning tashqi koʻrinishi, portretini soʻz bilan tasvirlash berilishi topshiriladi.

Matn yaratishda muvaffaqiyatga erishish o'qituvchining qayta hikoyalash turlarini mukammal bilishi, ularni to'g'ri saralab tanlay olishi va o'z o'rnida qo'llay olish mahoratiga bog'liq. O'quvchi faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, balki o'qituvchi tomonidan qiziqitira olish yaxshi natijalar beradi. O'quvchilar uchun qiziqarli, maroqli usullarni qo'llash doimo samarali kechgan, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yaratiladigan matnlarida maqol va matallardan foydalanish jarayonning rang-barangligini ta'minlaydi hamda ko'zlangan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari.- Toshkent, Fan, 2006, 18-bet.

2. Rayxon Rasulova "Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatlarini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish", Ta'lim, fan va innovatsiya, 2020.2,b.37-40

3. Rasulova R. B. (2021). Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodini o'qitishning samarali uslublari va yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirish. SCIENCE and Yedikationce SCIENTIFIK Journal // PUBLISHED IN VOLUM #1. SPECIAL ISSUE #3 ISSN 2181-0842 -P. 174-181 Novembe, 2020.

## **INSON KAMOLOTIDA TARBIYA TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI**

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM  
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Xaydarova Oliya Kaxxarovna

Taraqqiyotning hozirgi darajasida yoshlarning tarbiyasi muammosi, ularda milliy ong, milliy tuyg'uni shakllantirish eng muhim muamolardan biridir. Bu masalaning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish ham pedagogika fani oldida turgan vazifalardan biridir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida "Ta'lim-tarbiya — bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi, shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz", deya ta'kidladi.

Har bir davlatning bugungi taraqqiyotini belgilashda, shu kunga qadar bosib o'tgan yo'li, tarixi, turmush va tafakkur tarzi xalq an'analari va urf odatlariga nazar tashlash lozim. O'zbek halqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida ko'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar yetishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta foyda keltirishi mumkin.

O'zbek xalqining ulug' allomalari merosiga nazar tashlasak, unda inson kamolotida tarbiyaning ahamiyatiga nihoyatda yuqori baho berilganligini anglashimiz mumkin.

Tarbiya har qanday muammolarning yechimini topishga, hayotning va shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'tmishda bolani hayotga tayyorlashda tarbiyaning va va uni amalga oshiruvchi ustozning mahoratiga yuqori baho berilgan. Bu baho pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri ekaniga shubha yo'q. Chunki tarbiyaga e'tibor kuchli bo'lgan davlatda ma'naviyat, aql-idrok, zehn, iymon-e'tiqod vijdon, poklik, Vatanga, insonlarga sadoqat, madaniyatga intilish, rivojlanish, taraqqiyot, yangiliklarni o'rganish va ularni joriy etishga keng yo'l ochiladi.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nars Forobiy shunday deydi: "Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn-idrok bo'lishi bilan birga fazilatli ham bo'lsin.

Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan saqlanishga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim".<sup>35</sup>

Yosh avlodga kasb hunarni va tadbirkorlikni yoshligidan boshlab o'rgatish masalasi Kaykovusning "Qobusnoma" asaridan katta o'rin olgan.

"Ey farzand, ogoh bo'lki xunarsiz kishi xamisha foydasiz bulur va hech kimga naf' yetkurmas. Bilursanki, xori mug'ilon (tikanli bo'ta)ning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ilon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur".<sup>36</sup>

Ulug' shoir Alisher Navoiy bola tarbiyasidek murakkab ishda o'qituvchining o'rni haqida shunday fikr bildiradi: "Insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi. Maktabdor domla esa, bir to'da bolaga ilmi-adab o'rgatadi. Bunga ne etsin! Lekin shunisi ham borki bolalar orasida faxmu idroki ozlari bo'ladi. Muallim bu kabi yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda, bolalarda uning haqi ko'p; agar shogird ulg'aygach, podshoxlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulliq qilsa arziydi. Binobarin, shogird shayx ul-islom va qozilik darajasiga ko'tarilganda ham ustozidan undan rozi bo'lsa, tangri rozi bo'ladi".<sup>37</sup>

Tarbiya aniq maqsadga qaratilgan shaxsni ma'naviy va jismoniy kamol toptirish jarayonidir. Alisher Navoiy "Tarbiya ulug' ish, odob urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi"-degan edi. Tarbiyaga ilmiy yondashish-malakaviy (professional) yondashishdir. Zero, tarbiyaning vazifasi, mazmun ko'lami kun sayin oshib bormoqda. Pedagogik texnologiyagina bu jarayon modelini yaratishi, serqirra jarayonni aniq tizimini ishlab chiqishi va samaradorligini ta'minlashi mumkin. Demak, tarbiya texnologiyasini yaratish hayot taqazosini bo'lib, ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tarbiyaviy ish texnologiyasida quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Tarbiyaviy vazifalarni aniqlash-samaradorlik shartlarini belgilash. Bu vazifalar mahorat bilan asoslangan bo'lishi va o'quvchilarga tushuntirilishi shart. O'z fikrini o'tkazmaslik, bolalarni o'z ishi singari qabul qilish va zaruriy echimini topishi.

2. Har qanday tarbiyaviy ish kompleks munosabat asosida loyihalaniishi. Avvalo tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, tashabbuskorlik bilan faoliyati, ularning izchil xarakter. Ikkinchi, pedagogning har bir ishda har tomonlama natijaga erisha olishi;

3. Asosiy vazifani bajarishni optimallashtirish.

4. Shart-sharoitni hisobga olgan holda tarbiya mazmunini belgilash. Tarbiyachi o'quvchilarning qiziqishi, yo'nalishi, hohish irodasini tarbiyalanganlik darajasini hisobga olishi;

5. Tarbiya jarayonining har bir bosqichida samarali metod, usul, vositalarni qo'llashni loyihalashtirish. Tarbiyalanuvchilarning faolligi, mustaqilligini ta'minlash. Agar zarur bo'lsa qaysi metodika qulayligini ularning o'zidan so'rash;

6. Tarbiya ishida yuqori tashkilotchilikka erishish, jamoani shakllantirish;

7. Tarbiya ishida andoza bo'lmasligi, vaziyatga qarab o'zgaruvchanlik.

8. Tarbiya ishi xislatiga ta'sir etuvchi ulkan qudratga ega bo'lishi. Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllantirish, hayot yo'lini tanlashga yordam berishi.

Pedagogik texnologiya tarbiya jarayonini loyihalash ekan unda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

-tarbiyalanuvchilarning tayyorligini, yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish. Bolalarning qiziqishini uyg'otish, o'z-o'zini tarbiyalash motivi tarkib toptirish;

-tarbiyaviy ish ko'p hollarda jamoada olib borilishi, jamoani, har bir bolani tarbiya jarayonini loyihalashda, rejalashtirishda faol ishtiroki;

<sup>35</sup> Abu nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 82-bet.

<sup>36</sup> Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent. "Istiqlol". 1994. 26-bet

<sup>37</sup> Alisher Navoiy "Mahjub ul-qulub", "Qalblar sevgisi" T., "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. 28-29-b.

-maqsadni aniqligi, boshidan oxirigacha faoliyati, vosita va shaxslarni belgilanishi;

-har bir tarbiyalanuvchining vazifasi aniqligi, ma'sulligi.

Pedagogik texnologiyaning afzal jihatlaridan biri shundaki, tarbiya jarayonida o'quvchining faolligi, motiviga asoslanadi. Bilim olish motivi ta'lim jarayonida qanchalik ahamiyat kasb etsa, tarbiya jarayonida hayot yo'nalishining shakllanganligi shunchalik qimmatga ega. Ya'ni bir tomondan hayot yo'nalishini tarkib toptirish tarbiyaviy ishning maqsadi bo'lsa, ikkinchi tomondan bolani tarbiyalanganlik darajasi, xayot nuqtai nazari, yo'nalishi tamal toshi tarbiyaviy ishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shaxsning bolaning hayot yo'nalishi, uning dunyoqarashi, axloqiy ruhiyati va ma'naviyatiga asoslangan jamiyatga munosabati, nuqtai nazari. Hayot yo'nalishi faol (aktiv) va loqayd (passiv) bo'lishi mumkin. Faol hayot yo'nalishida borliqqa qiziqish, doimo uni o'zgartirishga intilish. Loqayd yo'nalishda har bir masalaga o'zi bo'larchalik nuqtai nazaridan yondashish, tayyor fikrlarni qabul qilish.

Hozirgi taraqqiyot ham tarbiyaning muhim masalalarini birinchi o'ringa qo'ymoqda, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, tarbiya berishning mazmunini milliyashtirish, uni takomillashtirish, nazariy va amaliy masalalarini hal qilishga yangicha yondashish, texnologiyalashtirish metodologiyasi ustida ko'proq fikr yuritishni talab qilmoqda.

Shuningdek, tarbiya muammosi hozirgi davrdagi eng muhim muammolaridan biri bo'lib, uning davr talabiga javob berishi milliyligi, umuminsoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilish, tarbiyaviy materiallarini tashkil qilish va tanlash prinsiplariga mos bo'lishi kabilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida so'lagan nutqi.

Abu nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 82-bet.

2. Kaykovus "Qobusnoma". Toshkent. "Istiqlol". 1994. 26-bet

3. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub", "Qalblar sevgisi" T., "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983. 28-29-b.

## **ALOHIDA TA'LIM EXTIYOJIGA EGA O'QUVCHILAR MUSIQA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Asadullayeva Mastura Abduavaxobovna  
Musiqqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan, nogironligi mavjud o'quvchi yoshlarni inklyuziv ta'lim orqali musiqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogikpsixologik xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, inklyuziya, musiqiy tafakkur, pedagogik tamoillar, mezonlar, natija, uslub, imkoniyati cheklangan o'quvchilar.

O'zbekistonning yangi taraqqiyoti bosqichida mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapti. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarini shakllantirishda, shu bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda ta'limning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi

Xayotning murakkab sinovlariga bolaligidayoq uchrayotgan nogiron farzandlarimizga g'amxo'rlik qilishimiz lozimligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Ana shu haqiqatni amalga oshirish yo'lida ko'plab loyihalar ishlab chiqilmoqda va u hayotga izchillik bilan tatbiq

etilmoqda. Ana shunday dastur-loyihalardan biri inklyuziv ta'lim loyihasi bo'lib u ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Shvesariya konfederatsiyasi O'zbekistondagi elchihonasi hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv yoki integratsiyalashgan ta'lim tushunchasi maxsus e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida bilim olishlarini nazarda tutadi. Tadqiqotning asosiy g'oyasi imkoniyati cheklangan bolalarning nozik ruhiyatiga uning nogironligi o'laroq salbiy ta'sir o'tkazilishiga yo'l qo'yimaslik, uning boshqa bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishi uchun barcha kerakli imkoniyat va sharoitlarni yaratib berish omillarini ishlab chiqishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni joriy qilish barobarida nogiron degan tushunchaning inkor etilishi va har bir bola teng huquqli ekanini imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari bilishlari zarurdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limtarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda imkoniyati cheklangan o'quvchi yoshlarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarning atrofdegilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muxit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallay olishi, hayotga moslashib, umumtalim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish uchun qulayliklar tug'diradi. Shuni nazarda tutib, ushbu tadqiqot ishimizda inklyuziv talim asosida o'quvchilar musiqa madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos samaradorlik belgilarini asoslash, uni talim muassasalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayonida yo'lga qo'yish uchun zaruriy pedagogikpsixologik yondashuv yo'llarini aniqlash ko'zda tutilgan.

Shunga ko'ra bir qator maxsus institutlashtirilgan markazlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- 1) O'quvchilarning ijtimoiy muhitdan ajralib qolganligi;
- 2) Rivojlanib borayotgan jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi;
- 3) Ijtimoiy hodimlarning bu masalaga bo'lgan munosabatlarida ayrim kamchiliklar borligi shular jumlasidandir.

Demak, mamlakatda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan takliflar talab darajasida o'rganilmayotganligi va unga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi mazkur tadqiqotning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Shu bois imkoniyati cheklangan o'quvchi yoshlar ham sog'lom bolalar kabi jamiyatda o'z o'rnini borligini xis etishlari jamiyatning ma'naviy yangilanishida ma'naviy taraqqiyotning tarkibiy qismi sifatida maxsus tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi

Inklyuziv ta'lim – davlatimiz tomonidan yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan asosiy masalalarning kun tartibidan o'rin olganligi bilan va bu jarayonning o'qituvchipedagoglar oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ekanligi, ta'lim yo'nalishini joylarda amalga oshirish o'zining yangiligi bilan namoyon bo'lib kelmoqda. Olib borilayotgan tadqiqot bugungi kun uchun yangi hamda o'z natijalarini ochish borasida o'qituvchipedagoglar oldida turgan muammolar yechimini isbotlashga qaratilganligi bilan diqqatlidir

Inklyuziv ta'limni o'rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma'lum bo'ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo'tadil bo'lishi, hamisha alohida e'tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda joylardagi XTVning halqaro YuNESEF tashkiloti bilan hamkorlikda "Inklyuziv" ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat muhitini shakllantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, 11ta tumanda jami 110 ta maktabda 210 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv tarzda ta'lim olishi aniqlangan. Manitoring natijalarining tahlillaridan bilish mumkinki, hozirgi kunda inklyuziv sinflari mavjud maktablar soni mamlakatimizda 117 ta bo'lib, inklyuziv sinflardagi imkoniti cheklangan o'quvchilar soni 378 nafarga yetgan.

Izlanishlarimiz natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchilarni inklyuziv ta'lim asosida musiqa madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik jihatlarini tadqiq qilinganligi, shuningdek, sog'lom va imkoniyati cheklangan o'quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllantirish orqali jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri, xususan O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichidagi ahamiyatini chuqur anglab yetishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga to'xtaldik:

- inklyuziv ta'lim asosida o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirish omillari nazariy va amaliy jihatdan aniqlandi;
- o'quvchi yoshlarning musiqa madaniyatini shakllantirishda inklyuziv ta'limning roli masalalari tadqiq etildi;

- milliy musiqa durdonalaridan unumli foydalanish sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarning ma'naviy barkamol bo'lib tarbiya topishlarida muhim omil bo'lishligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosa, taklif va tavsiyalaridan yosh musiqashunos tadqiqotchilar, inklyuziv ta'lim bilan shug'ullanuvchi va shug'ullanayotgan mutasaddi tashkilotlar, ijodiy uyushmalar faoliyatini rivojlantirishda hamda inklyuziv ta'lim asosida o'quvchilarning musiqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan tashabbuslarni tizimli asosda amalga oshirish ishlarini belgilashda amaliy ko'mak beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. Qaxarova D.S. Inklyuziv talim texnologiyasi. Monografiya –T.: 2014. –B. 9

3. A.Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" –T.: 2000 yil

## **DARSDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA SHAKLLARI**

Temirova Muqaddas Azamotovna  
SHDPI o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiyaning turlarini yosh avlodga singdirish, asoslangan, turli tadbirlarda, to'garaklar faoliyati ilmiy nazariy tahlillangan.

**Kalit so'zlar:** estetik, ekologik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, , folklor, maqom, axloqiy, yetuklik.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, qobiliyatlar o'z-o'zidan rivojlanib, yetilmaydi, uning shakllanishi bola hayotiy tajribasi orqali uning ongiga singib boradigan yangi-yangi tushunchalarning tarkib topib borishiga bog'liq. Shu hayotiy tajriba bolada qancha oldin paydo bo'lsa, bu uning rivojlanishi uchun shuncha yaxshi bo'ladi.

O'rta ta'lim jarayonida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad - bu bolalarga estetik, ekologik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va shunga o'xshash



boshqa turdagi tarbiya turlarini shakllantirishdan iboratdir. Tarbiyaning ushbu turlarini yosh avlodga singdirish uchun avvalo maktabda o'tkaziladigan, o'quvchilar his-tuyg'usini shakllantirishga asoslangan turli tadbirlarda, to'garaklar faoliyatida milliy-madaniy, tarixiy an'analarga, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Masalan, estetik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish maqsadida bolalar saroylari, bolalar va o'smirlar ijodiyot markazlarida doirachilar, raqs, vokal-cholg'u, folklor, maqom, karnay-surnaychilar, ashula va raqs, o'zbek xalq cholg'u dastalari, xor studiyasi, qo'g'irchoq teatri, drama to'garagi, san'atsevarlar klublari tashkil etiladi.

To'garak a'zolari ushbu dasta, to'garak va klublarda san'atni sevishtirishga, ardoqlashga, san'at orqali go'zallikni ko'ra bilishga, shu go'zallik orqali o'z ona yurtini ulug'lashga, undagi go'zallikni, chiroyli asrab qolishga intiladi.

Estetik yo'nalish buyicha tahsil olgan to'garak a'zolari quyidagilarni bilishi lozim:

- raqs san'atining mashhur namoyandalari hayoti va ijodini;
- kuy tinglash, uning mohiyatini tushunib, raqs harakatlari orqali ifodalashni;
- turli millat va elatlar raqslari harakatlarini, uni ijro etishni;
- doiraning yaratilish tarixini, uning keksa namoyandalari ijodiy yo'lini, doirani ushlab qoidalarini o'rganadi.

Shuningdek, estetik ta'lim tasviriy va xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi to'garaklar mashg'ulotlari orqali ham o'quvchilar qalbiga singdiriladi. Bu o'rinda bolalar ijodiyoti uylari, saroylarida tashkil etilgan «Tasviriy san'at», «Haykaltaroshlik», «Kulolchilik», «Milliy kashtachilik», «Naqqoshlik», «Yog'och o'ymakorligi», «Ganch o'ymakorligi», «Yosh ta'mirlovchilar» tugaraklari ayni maqsadni doimiy va uzluksiz amalga oshiradi.

Sayyohlik tugaraklariga talabalar ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda keng jalb qilinadi.

To'garakka qabul qilinayotgan talaba yoshlar avvalo sayyohlik tugaraklarining biror bir yo'nalishiga qiziqqan, sayyohlik ekspeditsiyasi to'g'risida tasavvurga ega bulgan, sog'lom bo'lishi kerak.

Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha qatnashadigan talabalar birinchi o'quv yilidan keyin quyidagilarni bilishi lozim:

- yurtimiz haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- yurtimizning tarixini, qadimiy obidalarini, ular haqidagi afsona va rivoyatlarni bilishi;
- ma'lum joy, o'lkani o'rganish bo'yicha reja va yunalishlarni ishlab chiqish;
- sayohat davomida kuzatuvchanlikni bilish, sayyohlikka oid materiallarni o'rganish;
- turli xildagi sayyohlikka oid adabiyotlar bilan doimiy tanishib borishi va ularni bilish kerak.

Ekologik tabiatshunoslikdan tashkil qilingan to'garaklarning asosiy maqsadi yoshlarda jonli va jonsiz tabiat haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, tarbiyalanuvchilarni o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish. To'garak a'zolarida o'simlik va hayvonlarni himoya qilish kerakligi to'g'risida tasavvur hosil qilish, to'garak a'zolari o'quv bilim yurtlarida yer maydonlarida va tirik tabiat burchagida o'simlik va hayvonlarni parvarish qilgandagina, yaxshi hosil olish mumkinligiga ishonch hosil qilishdan iboratdir.

To'garak a'zolariga birinchi o'quv yili oxirida quyidagi talablar qo'yilishi lozim:

- jonli va jonsiz tabiat haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- jonli va jonsiz tabiatni bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini;
- yoz, kuz, qish va bahorning asosiy belgilarini;
- yilning turli fasllarida odamning yashab turgan joyidagi mehnati va ularning turlarini;
- o'simlik nomlari, ildiz, poya, barg, meva va urug'larini;
- o't o'simliklar, daraxtlar nomini;
- meva va manzarali daraxtlarni va ularning bir biridan farqlarini;
- uchib ketuvchi va qishlovchi qushlarning hayoti va xususiyatlarini;
- tabiat bilan inson orasidagi qonun-qoidani doimo muvozanatda saqlashni bilgan, kuzatgan ishlari yuzasidan hisobot yoza bilishni, ma'ruza qilishni bilishlari kerak.

Darsdan tashqari ta'lim jarayonida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, klub va to'garaklar faoliyatida - Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda yurtimiz madaniyati tarixi, ularning muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'rni, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'g'risida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg'urish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi uqtiladi. Shu nuqta nazardan asosiy maqsad - komil insonni tarbiyalash amalga oshiriladi.

Darsdan tashqari ta'lim jarayonida, shuningdek, o'quvchilarga huquqiy bilimlar, ijtimoiy hayot me'yorlari va qoidalari to'g'risida keng ma'lumotlar berib boriladi. Huquqiy ta'limning mazmuni mustaqil O'zbekiston davlatining iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Darsdan tashqari ta'lim jarayonida iqtidorli bolalar va iste'dodli o'quvchilarning o'ziga xos psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olib turli tugaraklarga jalb etish «Respublika iste'dod markazi» xodimlari bilan hamkorlikda va ularning ilmiy amaliy tajribalaridan foydalangan holda iste'dodlarini aniqlashga mo'ljallangan texnologik diagnostik tadbirlar asosida amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hashimov K., Nishonova S. "Pedagogika tarixi" II qism, Alisher Navoiy. 2006. nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent, 2005-yil. Respublika ta'lim markazi." Pedagogika tarixi". Toshkent. O'qituvchi 1997.

2. Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. Monografiya va maqolalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.

3. Isimova A.B "Darsdan tashqari ta'lim – tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari" nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2004.

4. Ibroximov A. Bizkim, uzbeklar. "Sharq", T: 2011.

Imom Abu Homid Muhammad Ibn Muxammad al-G'eazzoliy. "Idyou ulumid- din", T: "Movarounnahr", 2003.

5. Abu Ali ibn Sino. She'rlar. Nashrga tayyorlovchi A.Irisov. 1965,

6. Ahmedova M.E."Pedagogika nazariyasi va tarixi". Toshkent. Tafakkur. 2011.

#### HAYOT DAVOMIDA BILIM OLIISH MUVAFFAQIYATGA ERISHISH VOSITASI

*Meyliyeva Lobar Nurmatovna*

*Qashqadaryo VPIYaMO'MM*

*Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada hayot davomida bilim olishining ahamiyati, uning taqdim etadigan imkoniyatlari yoritilgan. YUNESKO tomonidan hayot davomida o'qish asosida shaxsa rivojlantirishi zarur bo'lgan ko'nikmalar izohlangan.

**Kalit so'zlar:** *uzluksiz ta'lim, hayot davomida bilim olish, bajarishni o'rganish, bilishni o'rganish, yashashni o'rganish.*

**Аннотация.** В статье подчеркивается важность обучения на протяжении всей жизни, возможности, которые оно предоставляет. ЮНЕСКО объяснила, какие навыки необходимо развивать человеку на основе обучения на протяжении всей жизни.

**Ключевые слова:** *непрерывное обучение, обучение на протяжении всей жизни, учиться делать, учиться познавать, учиться жить.*

**Annotation.** The article highlights the importance of learning throughout life, the opportunities it provides. UNESCO has explained the skills that a person needs to develop on the basis of lifelong learning.

**Keywords:** *continuous learning, lifelong learning, learning to do, learning to know, learning to live*

XXI asrda insoniyat qashshoqlikni kamaytirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, tenglikni targ'ib qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va demografik o'tish, migratsiya, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarni hal qilish kabi qator vazifalarni hal qilishi kerak bo'ladi. Bu vazifalar turli darajalarda: xalqaro, mintaqalar va mamlakatlar, mahalliy, alohida fuqarolar darajasida hal qilinishi kerak.

Uzluksiz ta'lim deganda bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish hamda shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish hamda bandlikka hissa qo'shish maqsadida doimiy ravishda olib boriladigan har qanday maqsadli ta'lim (rasmiy, norasmiy, formal/informal) tushuniladi.

YuNESKO har qanday yoshdagi (bolalar, yoshlar, kattalar va keksalar, qizlar va o'g'il bolalar, ayollar va erkaklar) barcha hayotiy sharoitlarda (oila, maktab, jamiyat, ish joyi va boshqalar) uchun o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim va hayotning integratsiyasi orqali o'rganishni belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim rasmiy ta'lim tizimi ichida ham, tashqarisida ham turli xil yangi kontekstlarda o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, asosiy mahorat - bu odamning yangi bilimlarni izlab topish qobiliyati va hokazo.

Biroq, bu ikki atama o'rtasida tub farq bor, chunki umrbod ta'lim: kengroq ma'noda ko'rib chiqiladi va kelajak ta'limining to'rtta "ustunlari"dan kelib chiqadigan ta'limning turli jihatlarini o'z ichiga oladi:

***Bilishni o'rganish (Learning to know)*** - juda keng umumiy madaniyatni cheklangan miqdordagi fanlar bo'yicha chuqur ishlash imkoniyati bilan birlashtirish. Shuningdek, ta'lim hayot davomida taqdim etadigan imkoniyatlardan foydalanish uchun o'rganish qobiliyati hisoblanadi.

***Bajarishni o'rganish (Learning to do)*** - nafaqat kasbiy malakaga, balki kengroq ma'noda buni amalga oshirishga imkon beradigan kompetentsiyaga ega bo'lish uchun turli xil vaziyatlarni engish va guruhda ishlash. Bundan tashqari, turli xil ijtimoiy yoki ishlab chiqarish sharoitlarida ishlashni o'rganish kerak.

***Birgalikda va boshqalar bilan yashashni o'rganish (Learning to live together, and with others)*** - boshqasini tushunish va o'zaro bog'liqlik tuyg'usini rivojlantirish, umumiy loyihalarni amalga oshirish va plyuralizm, o'zaro tushunish va tinchlik qadriyatlarini hurmat qilish sharoitida nizolarni hal qilishga tayyor bo'lish.

***Yashashni o'rganish (Learning to be)*** - o'z shaxsiyatining gullab-yashnashiga hissa qo'shish va mustaqillik, mustaqil fikrlash va shaxsiy mas'uliyatni namoyon eta oladigan harakat qilish uchun. Buning uchun ta'lim sohasida har bir shaxsning potentsial imkoniyatlarini: xotirani, fikrlash qobiliyatini, estetik his-tuyg'ularini, jismoniy qobiliyatlarini, muloqot qilish qobiliyatini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

XXI asr - bilim, axborot va kommunikatsiyalar asri, texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadigan davr. Ertangi kasblar bugungi ta'lim tizimidan ko'ra ko'proq ko'nikma va bilimlarni talab qiladi. Bu voqelik mamlakatlardan jamiyatning barcha a'zolariga (yoshidan qat'iy nazar) bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan tinchlik muammolarini yengish imkonini beradigan shunday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini berish uchun uzluksiz ta'limni rag'batlantiruvchi samarali milliy ta'lim tizimini yaratishni talab qiladi. Qolaversa, xalqaro tajriba ko'rsatganidek, ma'lum inqiroz yoki turg'unlik davrlaridan so'ng islohotlar, modernizatsiya yo'lga o'tgan va inkor etib bo'lmaydigan muvaffaqiyatlarga erishgan barcha mamlakatlar uchun jamiyat va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lganini ham unutmaslik kerak.

Uzluksiz ta'limning zamonaviy konseptsiyasi insonning ta'lim faoliyatini har qanday yoshdagi hayot tarzining ajralmas va tabiiy qismi sifatida e'lon qiladigan ta'lim

amaliyotiga qarashlar tizimini ifodalaydi. Uzluksiz ta'lim shaxsning ijodiy salohiyatini izchil rivojlantirish va uning ma'naviy dunyosini har tomonlama boyitishni ta'minlaydigan yaxlit jarayon sifatida, shaxsning ijtimoiy mavqeini o'zgartirishni ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan tadqiqotlar darajasining izchil yuksalishidan iborat.

YuNESKO tashkilotining materiallari bo'yicha, kattalar ta'limining ustuvor vazifasi – insonni zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda ijodiy faoliyat va quvonchli hayot uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi bilan ta'minlashdir. Bunda so'z insonni mehnat qiluvchi, fuqaro, shaxs sifatida uning butun umri davomida to'xtamasdan rivojlanishi to'g'risida ketmoqda. XX asrning o'rtalariga kelib, kattalar ta'limi to'g'risida maxsus fanni yaratishga bo'lgan ehtiyoj sezila boshlaganda, bu vaqtga kelib, dunyoning turli mamlakatlarida kattalar ta'limini tashkil etishda katta amaliy tajriba, katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning alohida xususiyatlari va ularni o'qitish jarayoni to'g'risida kuzatuvlar to'plangan edi. Ana shundagina ta'lim sohasida yangi ilmiy fan – andragogika, kattalar ta'limi muammolari bilan shug'ullanuvchi fan shakllana boshladi. Xodimlarning bilim va malakalarini doimiy ravishda yangilab turish tizimisiz innovatsion iqtisodiyotni qurish mumkin emasligini anglash katta yoshdagi aholining o'quv dasturlarida (raqobatbardosh ta'lim muhitini rivojlantirish, o'quv dasturlarida) ommaviy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Uzluksiz ta'lim infratuzilmasini yaratish, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali katta yoshdagi mutaxassislarni kasbiy qayta tayyorlash kurslari ahamiyati katta.

Uzluksiz ta'lim tizimiga ochiq tizim fazilatlarini berish uning xususiyatlarini ta'limni rejalashtirish, joy, vaqt va sur'atni tanlashda, "hayot davomida ta'lim" tamoyilidan o'tishda katta erkinlik yo'nalishida tubdan o'zgartirishga olib keladi.

Qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan "Yasha va o'rgan!" shiori uzluksiz ta'lim mohiyatini ifodalash uchun ideal – "hayot davomida ta'lim" – "Life long learning".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. "Концепция продвижения обучения на протяжении всей жизни в Узбекистане". ЮНЕСКО, Ташкент, - 2018
2. Браун, Л. Имидж - путь к успеху / Л. Браун. - СПб.: Питер-Пресс, 1996.

### **INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJIDAGI MUNOSABATLAR**

*Meyliyeva Lobar Nurmatovna*

*Qashqadaryo VPIYaMO'MM*

*Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ma'lumki oxirgi yillarda ko'plab sa'y-harakatlarga qaramay inklyuziv ta'lim bo'yicha qilinayotgan ishlar ko'zlangan natijani bermayabdi. Bunga asosiy sabablardan biri odamlarning nogironlik fenomeniga bo'lgan munosabati desak xato bo'lmaydi. Chunki bu munosabatlar asrdan asrga, avloddan avlodga o'tib, nogironligi bo'lgan insonlar hayotini zaharlamoqda. Muayyan tarixning ijtimoiy-madaniy sharoitiga qarab, turli davrlarda nogironlarga bo'lgan munosabat turlicha bo'lgan. O'zining uzoq tarixi tufayli nogironlik qadim zamonlardan beri jamiyatning asosiy muammosi bo'lib kelgan, u miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Nogironlarga munosabat xalq, millat va davlatning mentaliteti, urf-odat va an'analari bilan asrlar davomida shakllanib kelgan.

**Kalit so'zlar:** *Nogironlar, Nogironlik tarixi, Avesto, Konfutsiy, Antik davr, Platon, Rennans.*

Nogironligi bor shaxslarga nisbatan munosabatlar ma'lum bir tarixiyning ijtimoiy-madaniy kontekstiga qarab turli davrlarda turlicha shakllangan.

Nogironlik uzoq tarixga ega bo'lgani uchun ham qadim zamonlardan bu masala jamiyatning asosiy muammolaridan biri bo'lib kelgan va uning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Nogironlarga g'amxo'rlik, nogironlikning oldini olish, uni davolash masalalari

har bir xalqning mentalitetidan, davr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli davrlarda turlicha xarakter kasb etgan.

Nogironligi bor shaxslarga nisbatan dastlabki munosabatlar diniy mifologik qarashlar zaminida shakllangan. Bu tabiiy hol edi, chunki afsonaviy dunyoqarash bilan falsafiy tafakkur o'rtasida qator umumiylik mavjud va bu antik davr mutafakkirlarining qarashlarida namoyon bo'lgan. Tug'ma nogironlik diniy an'analarga binoan jamiyat tomonidan qoralangan va bu narsaga noxushlikning belgisi sifatida qaralgan. Masalan, Omen Seriyes Summa Izbu (miloddan avvalgi 2000 yy) bashoratlarida qadimgi Mesopotamiyada inson yoki hayvonlarning biron jismoniy kamchilik bilan tug'ilishi holati bilan bog'liq vaziyatlarni tasvirlagan. Unda yozilishicha, "Agar bir ayol kar bola tug'sa, qirol taxtdan ajraladi. Agar saroydagi ayol 6 ta barmog'i bor bola tug'sa, dushman qirol mulkini talon-toroj qiladi, agar saroydagi ayol pakana bola tug'sa, noxushliklar bo'ladi, agar saroydagi ayol sog'lom o'g'il bola tug'sa, davlat gullab yashnaydi" deyilgan. Shuning uchun zaif yoki biron jismoniy nuqson bilan tug'ilgan bolalar nobud qilingan.

Qadimgi Markaziy Osiyo davlatlari tarixi haqida ma'lumot beruvchi ilk yozma manbalardan biri -"Avesto"da ham nogironlik masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu o'rinda, Avestoda eronlik Nuh bilan dialog berilgan: "Axura-Mazda Yimaga shunday degan:" va siz yugurish (uzunlik o'lchovi) hajmida Var (g'ishtli qal'a) qurasiz. U yerga eng katta, eng yaxshi va eng go'zal bo'lgan barcha erkak va urg'ochilarni olib keling. U yerga, bu yer yuzidagi eng baland va xushbo'y o'simliklarning urug'ini olib keling. U yerda, na mayib, na aqldan ozgan, na tug'ma belgili, na yovuz, na kasal, na qiyshiq, na chirigan tishlar, na moxovlar bo'lmasin. Shuningdek Angra-Manyu belgilariga xizmat qiladigan boshqa illatlar bo'lgan odamlarni ajratib ularni qal'aga kirgizmaslikni aytadi" Avestoda nogironlikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish uchun naslning asl bo'lishi omillariga ham alohida ahamiyat berilgan. Birinchidan, oila quradigan yigit va qizlarning har jihatdan benuqson, sog'lom bo'lishi hisobga olingan.

Ikkinchidan, homilador ayollar iztirob chekmasligi, asabiylashmasligi, ko'proq meva, go'sht iste'mol qilishi, faqat halol mehnat evaziga topilgan rizqni yeyishi uqtirilgan.

Qadimgi Xitoyda bo'lsa, nogiron insonlarning ijtimoiy mavqei falsafiy tahlil qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Konfutsiyning qarashlarida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning vafotidan so'ng shogirdlari tomonidan jamlanib yagona kitob holiga keltirilgan "Lun Yuy" kitobida yozilishicha, "Jismoniy nuqson inson qadr-qimmatini belgilashda asosiy rol o'ynamaydi, balki uning aqli va ma'naviy dunyoqarashi muhim ahamiyat kasb etadi" deyilgan. Unda yozilishicha, uning oldiga bir inson kelib: "Talabalarga ustozlik qilayotgan odam badbashara ekan, lekin shunga qaramay talabalar uni ustoz deb chaqirishayapti" desa, Konfutsiy: "Hayot va o'lim mavjud vaziyatlarni o'zgartira oladi. Lekin bu narsa uning aqlini o'zgartira olmaydi. Shaharlar vayron bo'lishi mumkin, uylar buzilib ketishi mumkin, lekin uning aqli abadiy qoladi", deb javob berdi. Bu bilan u insonning qadr-qimmatini tashqi ko'rinishi bilan emas, balki uning ma'naviyati bilan belgilashni nazarda tutgan.

Antik davrida nogiron odamlarga munosabat juda yomon bo'lgani bilan ajralib turadi. Qadimgi Yunon va Rim davlatlarida nogironligi bor odamlarni tug'ilishi bilan qoyadan uloqtirilganligini yoki ota-onasi tomondan uyida izolyatsiyada ushlanganini ko'rish mumkin. Antik davr madaniyatiga ko'ra insonlar xudolar kabi go'zal va shu bilan bir qatorda jismonan va ruhan sog'lom bo'lishlari kerak deb hisoblashgan ya'ni boshqacha ko'ringan har qanday odamlar qoralangan. Shuning uchun kasal bo'lib tug'ilgan bolalar sog'lom tengdoshlaridan ajratib, yo'q qilingan yoki o'zlarini boqish uchun biron tog'toshda qoldirilgan. Antik davr faylasuflarida ham diskriminatsiyaga moyillikni bir nechta o'z davrining yetuk faylasuflari fikrlaridan anglab olish qiyin emas.

Shunday faylasuflardan Seneka nogiron bolalarni yo'q qilish haqida shunday yozadi "Biz g'alati narsalarni o'ldiramiz va dunyoda xunuk, zaif va buzilib tug'ilgan bolalarni g'arq qilamiz. Biz buni g'azab va nafrat tufayli emas balki, aql qoidalariga asoslanib, yaroqsizni sog'lomlardan ajratish maqsadida qilamiz".

Plutarxning ta'kidlashicha, esa Spartada, u yoki bu mezon bo'yicha pastroq (nogiron) deb tan olingan bolalar (bunday qarorni oqsoqollar qabul qilgan), tiriklayin tubsizlikka

tashlashgan. Uzoq vaqt davomida tarixshunoslik ushbu bayonotni imonga asoslanib qabul qilganini yozadi .

O'rta asrlarga kelib nogiron insonlarga bo'lgan munosabatning shakllanishida dinning ta'siri yanada kuchayadi. Ayniqsa Yevropada diniy qarashlar va ruhoniylar ta'siri natijasida nogironlar shayton malayi sifatida e'tirof etilgan. Ularning fikricha, aqli zaiflik bu inson ongining har xil yovuz kuchlar yordamida boshqarilishi natijasida yuzaga keladi, deb ta'riflagan. Shuning uchun tanasida biror illati bor odamlar jodugarlar bilan bir qatorda inkvizitsiya sudi qarorlariga binoan olovda yoqib o'ldirilgan. Hatto nogironligi bor shaxslarni jamiyatdan ajratuvchi markazlar tashkil qilinishi oqibatida ular daydi va nochor hayot kechirishgan. Parij, Venetsiya va Shtrolzun teatrlarida nogironlar va ko'zi ojizlarni masxara qiladigan har xil tomoshalar uyushtirilgan. Shaharlarda ko'zi ojizlar va hayvonlar o'rtasida har xil musobaqalar tashkil qilingan. Ba'zida bunday musobaqalar ko'zi ojizlarning vafoti bilan yakunlangan.

Uyg'onish davrida ham nogironlarni jamiyatdan ajratish o'ta kuchli darajada bo'lganini o'z davrining yetuk namoyandalari asarlaridan o'qib olish mumkin, bunday tushunchalar mavjudligini Shekspirning "Tempest" dagi (IV akt, I sahna) Kalibanni quyidagicha ta'riflagan satri tasdiqlaydi: "Iblis, tug'ma shayton, uning tabiatiga tarbiya ta'sir o'tkaza olmaydi". (Iblis, tug'ma iblis, uning tabiatiga tarbiyasi hech qachon yopishib olmaydi) . O'shandan beri ingliz tilida so'zlashadigan dunyoda nogironlar, irsiyat va ijtimoiy omillarning shaxsiyat shakllanishidagi o'rni, tabiati va tarbiya borasidagi ramziy belgisini olganini va boshqa adiblar asarlarida ham nogironlarga munosabat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa Yuqorida keltirilgan misollar yordamida nogironlarga nisbatan qoralash ularga past nazar bilan qarash odamlar ongida, kundalik hayotida, odamlarning o'zaro munosabatlarida azaldan singib ketganligini ko'rishimiz mumkin. G'arb mamlakatlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan munosabatlar qanchalik og'ir bo'lmasin ular asrlar davomida munosib kurashgan va o'zlari yashab turgan jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'lishgan, Osiyoda esa aksincha nogironlikga doimi ravishda rahm-shafqat ko'zi bilan qarab kelishgan. Shu va shunga o'xshash bir qator sabablar tufayli nogironligi bo'lgan bolalar nogironligi bo'lmagan bolalar bilan bir qatorda turishi, birga bir joyda o'tirib ta'lim olishi kabi fikrlar, eski diniy g'oyalarni har narsadan ustun qo'yuvchi sharaq xalqlari hayotiga g'arbg'a nisbatan bir necha asr kech kirib kelishiga sababchi bo'lmoqda, haligacha atrofda insonlar nogironligi bo'lgan bolalarga rahm-shafqat bilan qarashi ularni o'zlarining sog'lom farzandlari bilan bir qatorga qo'ymasligi oqibatida mamlakatimizda inklyuziv ta'lim bo'yicha qilinayotgan ishlar o'z samarasini bermayabdi. Bu esa davlat va jamiyatning har taraflama rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Leichty, Erle. The Omen Series Summa Izbu. Locust Valley, New York: Augustin. 1970.P.70-71
2. Журнал «Нева, Летний Сад». 1998 г.
3. Legge, James., The Chinese Classics: Analects of Confucius. Oxford, UK: Clarendon Press. 1861. – P 176.
4. Чернокозов А.И. История мировой культуры. Ростов - на - Дону. «Феникс», 1997.
5. Фуко М. История безумия в классическую эпоху. С.- П. Университетская книга. 1997
6. Археологи доказали: спартанцы не сбрасывали детей со скалы. NEWSru.com (11 декабря 2007). Дата обращения: 17 марта 2019
7. Shakespeare, William, 1564-1616. The tempest. — London. — xx, 366 pages c. — ISBN 9781903436080.

## **ZAMONAVIY TA'LIM KOMPLEKSI O'QITUVCHISI FAOLIYATIDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH**

*Meyliyeva Lobar Nurmatovna*

**Annotatsiya.** Self menejment – “o‘z shaxsiyati”, “shaxsan o‘zi” ya’ni, o‘zo‘zini boshqarish. Bu yo‘nalish ham yaxlitlik, ham ko‘p qirrali o‘ziga xoslik bilan ajralib turadi. Shaxsiy menejmentni shakllantirish va rivojlantirishda

muvaffaqiyatli shaxsning bir qator yorqin ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni amalda qo‘llash kerak. Maqolada uzluksiz ta’limning ajralmas qismi o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat, XXI asrda shaxsda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan ko‘nikmalar haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Self menejment, o‘z- o‘zini boshqarish, XXI asr ko‘nikmalari, motivatsiya, uzluksiz ta’lim.*

**Аннотация.** “Self”- это “собственная личность”, “сам, лично”. То есть self-менеджмент - это управление собой. Это направление отличается как целостностью, так и многогранностью. При формировании и развитии личностного менеджмента необходимо выработать ряд блестящих навыков успешной личности и применить их на практике. В статье освещается неотъемлемая часть непрерывного образования-деятельность учителя, направленная на самообразование, навыки, необходимые для развития у личности в XXI веке.

**Ключевые слова:** *self management, самоконтроль, навыки 21 века, мотивация, непрерывное образование.*

**Annotation.** Self management – “own personality”, “personally” that is, selfmanagement. This direction is characterized by both integrity and multifaceted originality. In the formation and development of personal management, it is necessary to develop a number of vivid skills of a successful person and put them into practice. An integral part of continuing education in the article is the activity of the teacher aimed at self-education, the skills necessary to develop in a person in the 21st century.

**Keywords:** *Self management, self-management, 21st century skills, motivation, continuing education.*

Hozirgi zamondagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarning mavjud tendentsiyalari mutlaqo yangi ta’lim paradigmasining rivojlanish tendentsiyalarini aniq belgilab berdi, bu o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi roli va funktsiyalarining ijrochi roldan ijodiy sub’ekt roliga o‘zgarishi bilan sezilarli darajada tavsiflanishi mumkin. Shu munosabat bilan, bugungi kunda har qanday ta’lim muassasasi doirasida o‘quv jarayonini tashkil etish o‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirmasdan deyarli mumkin emas, bu ham XXI asr kompetensiyalardan kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashni amalga oshirish qobiliyati, keyingi ta’lim yo‘nalishlari va kasbiy martaba, pedagogik dasturlar doirasida rivojlanishga yordam beradi.

Uzluksiz ta’lim kontsepsiyasi ijodiy tashkil etilgan uslubiy ishlar orqali amalga oshiriladi, bu o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun alohida ahamiyatga ega. Uzluksiz ta’limning ajralmas qismi o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan faoliyatidir. “Faoliyat, deb yozgan S. L. Rubinshteyn, “insonning atrofidagi dunyoga, boshqa odamlarga, hayot unga qo‘yadigan vazifalarga u yoki bu munosabatni amalga oshiriladigan jarayon”.

Pedagogik ijodkorlik bilimga bo‘lgan ehtiyojni ro‘yobga chiqarish sifatida ta’lim va kognitiv motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Aynan shu sohada sifatli o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi, bu esa kognitiv qiziqishlar sohasining kengayishiga, o‘zgaruvchan fikrlash qobiliyatiga va o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorlikka olib keladi.

“O‘z-o‘zini rivojlantirish” - atamasi ikki xil yondashuvni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, bu bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, ya’ni tor, amaliy ma’noga ega bo‘lgan “o‘z-o‘zini o‘rganish”, “o‘z - o‘zini o‘rgatish”. Ikkinchidan, o‘z - o‘zini tarbiyalash kengroq

gumanistik ma'noda uning shaxsiyatini shakllantirish sifatida tushuniladi va bu "o'z - o'z ini tarbiyalash" so'ziga yaqinroq.

Shaxsiy menejmentni shakllantirish va rivojlantirishda muvaffaqiyatli mutaxassisning kamida beshta yorqin ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni amalda qo'llash kerak.

Xullas, 5 ta ko'nikma nima?

To'g'ri rejalashtirish mahorati .

Bu murakkab emas aslida. Asosiysi, strategiyaga ega bo'lish! Agar u to'g'ri bo'lsa, unda har qanday qoniqarli taktika muvaffaqiyatli bo'ladi. Albatta, birinchi bo'lish uchun siz boshqalardan ko'ra ko'proq ishlashingiz kerak. Ammo agar dastlab tanlov to'g'ri amalga oshirilsa, muvaffaqiyat kafolatlanadi. Bu sizning professional va shaxsiy hayotingizning turli sohalariga tegishli. Har doim maqsad va unga erishish uchun qadamlarni aniq belgilash kerak. Bundan tashqari, maqsad aniq bo'lishi, amalga oshish vaqti aniqlangan va haqiqatda amalga oshirish mumkin bo'lgan reja belgilanishi zarur.

Muzokaralar olib borish ko'nikmalari . Har kuni odam ishdagi hamkasblari, mijozlari, do'stlari, qarindoshlari va boshqalar bilan muloqot qilishi kerak. Ehtimol, siz sherik bilan bir nechta shartnoma tuzgansiz va uni yaxshi bilasiz. Uning zaif va kuchli fazilatlarini, muzokaralar qanday sharoitlarda o'tishini bilasiz. Muayyan muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarni oldindan ko'ring va ularni bartaraf etish yo'llarini tasavvur qiling. Ba'zi masalalar bu sherik bilan umuman ko'tarilmasligi kerak. Bunday ma'lumotlar muayyan muzokaralar strategiyasini qurish, ya'ni muzokaralarda asos bo'lib xizmat qiluvchi nima va qanday harakat qilish rejasini ishlab chiqish zarur. Agar siz muzokaralarda birinchi marta uchrashayotgan bo'lsangiz, faqat sherikning shaxsi, muzokaralar shartlari haqida ilgari olingan ma'lumotlarga tayanishingiz mumkin. Bunday holda, noaniqlik darajasi ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda siz moslashuvchan strategiyani tuzasiz, uning doirasida muzokaralar jarayonida kutilmagan burilishlarga moslashish osonroq bo'ladi. 4 ta aniq belgilangan muzokaralar strategiyasi mavjud. Ulardan biri "G'alaba - g'alaba". Bu strategiya odamlarning o'zaro munosabatlarining eng muhim tamoyillaridan birini amalda amalga oshirishdir. Muzokaralar kontekstida ushbu strategiya shartnomalar va qarorlar barcha manfaatdor tomonlar uchun bir xil darajada foydali ekanligini anglatadi. Bunday holda, har ikki tomon ham qarordan mamnun va uni amalga oshirish uchun bor kuchini sarflashga tayyor. Shunday qilib, g'alaba qozonish strategiyasi biznes birinchi navbatda kurash maydoni emas, balki hamkorlik ekanligini tushunishga asoslanadi. Albatta, suhbatni darhol konstruktiv va har ikki tomon uchun o'zaro manfaatli yo'nalishga yo'naltirish kamdan-kam hollarda mumkin. Bu muzokaralarning butun jarayonini va uning xususiyatlarini tushunishni, shuningdek, suhbatdoshni kerakli yechimga undaydigan to'g'ri savollarni berish qobiliyatini talab qiladi.

Vaqtning boshqarish mahorati .Vaqtning boshqarishni ustuvorlik qilish qobiliyati deb ham atash mumkin. "Ustuvorlik" – "prioritet" so'zining o'zi lotincha "prio" prefiksini o'z ichiga oladi, bu "oldin, ilgari" degan ma'noni anglatadi. Maqsadlaringizga erishish uchun birinchi navbatda nima qilish kerakligi haqida har kuni qaror qabul qilganingizda ustuvorlik hisoblanadi. Eyzenxauer printsipi sizning vazifalaringizni boshlashga va ustuvorliklaringizga muvofiq ishlashga yordam beradi. Buning uchun birinchi navbatda o'zingizga savol bering: bular muhimmi yoki shoshilinchmi?

Pareto printsipiga ko'ra, bizning vazifalarimizning 20 foizi har tomonlama muhim bo'ladi. Bu kulgili, lekin ularning aksariyati ham shoshilinch. Muhim ishlarni bajarish sizni ko'zlangan maqsadga yaqinlashtiradi. Shoshilinch vazifalar sizning e'tiboringizni o'ziga qaratadi, lekin maqsadlaringizga katta ta'sir qilmaydi. Muvaffaqiyatga va maqsadlarga erishishga olib keladigan eng muhim vazifalar hech qanday holatda ahamiyatsiz, ammo shoshilinch ishlar bosimi ostida orqaga surilmasligi kerak. Ammo, afsuski, barchamiz mayda, ahamiyatsiz narsalardan, ta'bir joiz bo'lsa, "kichik narsalarga almashish"dan boshlaymiz. Ish stolida yotgan bosma shakllar biz uchun bir necha kundan beri qoldirayotgan muhim loyihaga qaraganda ancha jozibali ko'rinadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, muvaffaqiyatingizga eng ko'p ta'sir qilishi



mumkin bo'lgan vazifalarga e'tibor bering. Bunda sizga ustuvorliklar yordam beradi va agar xohlasangiz, ularni to'g'ri aniqlash qobiliyatini o'rganishingiz mumkin.

Yetakchilik mahorati. Bir narsa aniq, kimlardir yetakchi bo'lishni xohlasa, boshqalari yo'q, deydi. Ular nima uchun yetakchi bo'lishni istamasligi sabablarini to'liq ro'yxatini aytib beradilar. Ammo, shunga qaramay, ular ba'zan o'zlarining aql-idroklarini ko'rsatishni yoki ajoyib tarzda amalga oshirilgan muhim bitim uchun rahbariyatdan minnatdorlikni (bonus bilan) olishni yaxshi ko'radilar.

Siz eng yaxshi qaror qabul qilishingiz shart emas – vaziyat yana takrorlanishi mumkin va sizda yaxshiroq yo'l topish imkoniyati bo'ladi. Afsuski, ko'pchiligimiz noto'g'ri bo'lishdan qo'rqamiz, shuning uchun noto'g'ri qaror qabul qilish bizni qo'rqitadi. Ko'pchilik kulgili ko'rinishdan yoki biror narsada aybdor bo'lishdan qo'rqishadi, ular tanqid yoki masxara bo'lishdan qo'rqishadi. Boshqacha qilib aytganda, xatoning psixologik oqibatlarini amaliydan ko'ra yoqimsizroq bo'lishi mumkin. Ba'zida qarorlardan qochish xato qilish qo'rquvi bilan bog'liq. Biz hammamiz xatoga yo'l qo'yishimiz, xatolarni qabul qilishni o'rganishimiz va xatolarimizdan saboq olishimiz kerak. Darhaqiqat, xatolar bebaho kuch manbaidir: xatoga yo'l qo'yib saboq olganimizda, biz mushaklarni kuchaytirayotgan sportchiga o'xshab ketamiz.

O'z-o'zini rag'batlantirish, O'zingizni ish uchun qanday sozlash mumkin? Bu vazifani qanday bajarish kerak? Ehtimol, siz o'zingizga bu savollarni tez-tez so'raysiz va javob topa olmaysiz. Shunday qilib, o'zingizga motivatsiya berish vaqti keldi. O'z-o'zini rag'batlantirish - bu sizning alohida qiziqishingizni uyg'otmaydigan narsalarni qilishga o'zingizni rag'batlantirish qobiliyati. Bu o'zini ijobiy ish energiyasi bilan to'ldirish qobiliyati va doimiy va charchagan holda o'ylamasdan ish muammolarini hal qilish qobiliyatidir.

Biroq, bu hech qachon siz uchun odatiy bo'lgan narsa endi to'satdan eng qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylandi degani emas. Muayyan xat yozish vazifasi siz uchun qiziq emasdek tuyulishi mumkin. Biroq, siz o'zingizga ijobiy turtki berishingiz mumkin, masalan: "Ushbu xatni yozish orqali men mavjud muammolarni hal qilaman va undan qandaydir foyda ko'raman" yoki "Xatni tezda yozib, o'z vaqtida jo'natsam, o'zimga ham, boshqalarga ham o'z sohamning professional ekanligimni isbotlayman". Agar siz tez-tez siz uchun qiziq bo'lmagan ishlarni qilish kerak bo'lsa, unda sizga foyda keltiradigan jihatlarga ko'proq e'tibor bering. Bu o'z-o'zini rag'batlantirishning dastaklaridan biri - odatdagidan foyda olish qobiliyati. Yana bir rag'batlantiruvchi omil - bu ishni tugatgandan so'ng o'zingizni va yaqinlaringizni taqdirlashdir. Shuning uchun, o'zingizni kerakli bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish va o'z ishingizni qilish rejasiga muvofiq aniq bo'lish qoladi. Va nafaqat sovrinni, balki professional kabi o'ziga ishonchni ham oling. Bunday mutaxassislar har doim juda qadrlanadi.

O'z-o'zini rivojlantirishning muhim sharti to'g'ri tashkil etilgan va olib borilayotgan uslubiy ishdir. U o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil qilishni moslashuvchan qiladigan va o'qituvchiga o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha barcha ishlarni tashkilotning pedagogik jarayoniga faol kiritishga imkon beradigan quyidagi printsiplarga asoslanadi. Har bir o'qituvchi uslubiy rivojlanish mavzusi, o'rganish uchun adabiyotlar, tadbirlarda ishtirok etish, malaka oshirish shakllarini ko'rsatadigan uzoq muddatli rejani tuzadi. O'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha mustaqil ish sizning bilimlaringizni yangilash va aniqlashtirish, bolalar bilan ishlashda yuzaga keladigan vaziyatlarni chuqur va batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Tajribali o'qituvchi bilimlar bankini to'ldirish, bolalar bilan ishlashning samarali, dastlabki usullarini topish, boshlang'ich diagnostika va tadqiqot faoliyatini o'zlashtirish imkoniyatiga ega. O'qituvchilar ishining natijalari:

- dasturlarni ishlab chiqish;
- didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- ochiq tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish;
- ochiq darslar, mahorat darslarini ishlab chiqish va o'tkazish.

Kasbiy kompetentsiyani oshirish uchun ijodiy hisobotlarni yaratish, materiallarni saytga joylashtirish, tanlovlarda ishtirok etish, o'z ishlanmalarini taqdim etish va boshqa

o'qituvchilar tomonidan muhokama qilish orqali kasbiy faoliyat tajribasi almashinuvini tashkil etishni ta'minlaydigan axborot sharoitlari yaratilgan. Faqat harakat qilsa kifoya.

Shunday qilib, bizning tashkilotimizda "O'z-o'zini rivojlantirish" moduli tinglovchilarga uzluksiz mustaqil malaka oshirish zarurligi, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'z ustida ishlashga oid tavsiyalar beriladi. An'anaviy malaka oshirish o'z-o'zini rivojlantirishning samarali shakli hisoblanadi, chunki u har bir o'qituvchiga ijodiy fikrlash va pedagogik mahoratni namoyish etish, o'zaro tajriba almashish imkoniyatini beradi.

1. Орешкин В.Г. Self-менеджмент: Установление позитивных межличностных отношений : Учебное пособие. — СПб.: Университет при МПА ЕврАзЭС, 2018.

2. А. А. Симонова, С. Л. Фоменко Современный менеджмент: проблемы, модели, перспективы, 2018

## **BOSHLANG'ICH SINIF DARS JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLARNING O'QITUVCHILAR TOMONIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI**

*QVPYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich  
va maxsus ta'lim kafedrasida o'qituvchisi  
Rajabova Xurshida Hakimovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda maktablarda yangi avlod darsliklarini o'qitishda mukammal o'rgatish va o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy metodlar hamda ulardan keng foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** hamkorlik, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, zamonaviy metodlar, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi.

**Abstract:** This article describes modern methods necessary for perfect teaching and learning in schools of the new generation of textbooks in our country, as well as the importance of their wide use.

**Key words:** cooperation, innovative technology, technological tools, modern methods, teacher-student cooperation.

**Аннотация:** В данной статье описаны современные методы, необходимые для совершенствования преподавания и изучения в школах учебников нового поколения в нашей стране, а также важность их широкого использования.

**Ключевые слова:** сотрудничество, инновационные технологии, технологические инструменты, современные методы, сотрудничество преподавателя и ученика.

Bolalar zo'ravonlik va ekspulatsiya qilinishdan ximoyalangan bo'lishlari shart. Bu borada quyidagi muammolarga ya'ni: qochoq bolalar muammosi, adliya tizimidagi zo'ravonliklar, bolalarni qurolli nizolarga jalb etish muammolariga, bolalalar mehnatiga; balog'at yoshiga etmaganlarni seksual ekspulatsiya qilish va o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilish muammolariga alohida e'tibor bo'lishi kerak.

Ishtirok etish huquqi: bolani jamiyat va mamlakat hayotida faol ishtirok etishga chorlaydi. Bu toifa bolalarning hayotiga taalluqli bo'lgan muammolar bo'yicha jahonshumul yig'ilish va tadbirlarda ishtirok etish huquqini va o'z fikr-mulohazalarini aytishda erkin bo'lish kabi huquqlarni belgilaydi. Bolalar ulg'ayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha paydo bo'luvchi imkoniyatlarning xammasiga ega bo'lib borishlari , hamda hayotiy muhim echimlarning mas'uliyatini his qilgan holda ularni o'z zimmlariga olishga tayyor bo'lishlari kerak.

Butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, “O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi” kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha , barcha bolalar , shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topib ketish huquqlariga egadirlar. Bola huquqlari haqidagi Konvensiyaning 19 moddasiga ko'ra “ Bola ota-ona yoki har qalday boshqa shaxs tomonidan haqoratlanishi, qo'pol muomilada bo'lishdan himoyalaniishi huquqiga egaligini inobatga olib, ayrim mamlakatlarda ilgari ishlatiladigan atamalardan “defektologiya”, “anomal bolalar”, “aqlan zaif” kabi va boshqklardan voz kechmoqdalar. XIX asrning 20 yillaridan beri defektologiya fani – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar talim tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan sifatida o'rganilib kelmoqda. Xozirgi kunda bu fan «korreksion pedagogika» deb ham yuritilmoqda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni xaqoratlamaslik uchun Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti “Korreksion pedogogika ilmiy tadqiqot instituti” deb nomlanmoqda. Defektologiya fanining predmeti- anomal bolalar. jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar anomal ( yunoncha anomalos- odatdan tashqari ), norasao degan ma'noni bildiruvchi so'zi bilan yuritiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda Defektologiya —maxsus yordamga muxtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Defektologiya so'zi lotincha defekt — kamchilik, nuqson, yunoncha logos — ta'limot, fan, urganish degan so'zlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yu odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos so'zidan olingan). Defektologiya fanining mavzu bahsi anomal maxsus yordamga muxtoj bolalardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010,- 400 b.

2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.254-263b
3. Xasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi.-T.: "G'.G'ulom, 2004.
4. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: 2005.

## **TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA'NAVIY QIYOFASI**

**Baratova Nasiba Turopovna**

**Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM**

**Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada maktab rahbarlari oldiga yangi vazifalar, xodimlarni o'rganishi, rahbar faoliyati haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Maktab rahbarlari, xodimlar, ma'lumotlar, rahbar psixologiyasi, pedagogik jamoa, uyushqoqlik.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda xalq ta'limi sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida maktab rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki, inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolatiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishi lozim. Har bir pedagog o'z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoa tashkilotchilari bo'lgan insonlar ta'sirida amalga oshiradi. Pedagogning faoliyatiga ta'lim muassasidagi bugungi sharoit va jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarni amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamoadagi ruhiy muhit o'z hukmini o'tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo'lagi sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. G'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir.

Ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchi rahbarlar 3 yo'nalishdagi bilim va ma'lumotlarni chuqur egallashlari lozim.

1-yo'nalish bilimlar. Rahbar psixologiya fanining ob'yektiv qonuniyatlarini yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. Bular jumladan quyidagilar:

- shaxsni o'z-o'zini himoya qilish qonunini muntazam haraktda ekanini bilish;
- rahbar eng avvalo tinglay bilish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'zgalar fikrini hurmat qilishi kerak;

- xodimlar mehnatini qadrlay bilishi, zarur bo'lganda uni e'tirof etishi kerak;
- xodimlarni yaxshi bilaman deyishga shoshmaslik kerak, chunki har bir xodim jamoadan yoki rahbardan nimanidir yashiradi va sir tutadi. Masalan tarjimai holga oid ma'lumotlarni, odamlar yoki voqealarga oid bo'lgan ma'lumotlarni yashiradi.

- psixologik xususiyatini ochishga qodir bo'lgan bilimlari va odamlarga bo'lgan munosabatini yashiradi.

2-yo'nalish bilimlar. Rahbar o'z-o'zini psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Bu quyidagilardan iborat:

O'z-o'zini bilishi va o'z-o'zini himoya qilishi. Shaxsni o'zini boholashi 3 xil bo'ladi: meyorda (normada), miyordan past, miyordan yuqori. Rahbar odamlarga, xodimlarga va hatto o'z farzandlariga ham to'g'ri boho berishi qiyin.

3 yo'nalish bilimlar. Rahbar boshqalarni psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Rahbar xodimlar bilan muloqotda ularning munosabatlarini tashqi belgilaridan yoki jamo faoliyatidagi istrogidan bilib olishi muhim hisoblanadi.

Rahbarlikda asosiy funksiya (vazifa) ijtimoiy ta'sir ko'rsatish va hukm o'tkazish sanaladi. Ijtimoiy ta'sir deganda bir yoki bir necha rahbar xodimning (ma'muriyat) jamoadagi ma'naviy ruhiy muhitni o'zgartirish jarayoni tushuniladi.

Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta’sir o’tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruvning tarkibiy qismidir. “Boshqaruv” tushunshachi, “raxbarlik” tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy-pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi va hokazo. SHuning uchun ham rahbar yosh pedagogning o‘zi tanlagan kasbga mexr qo‘yishi, o‘qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o‘rganishi va unda o‘z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg‘ulari rivojlanishiga ko‘p qirrali ta’sir qiladi, deyishimiz mumkin. O‘z navbatida rahbar jamoada o‘z o‘rniga ega bo‘lib, u bilimi, muomilasi, ilmiy dunyoqarashi, pedagogik hodimlar bilan o‘zaro munosabatlar, maqsadga intilish, ijtimoiy xulq va boshqalarda jamoa a’zolariga namuna bo‘lishi zarur, bundan jamoaning har bir a’zosi o‘ziga xos ta’sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o‘zaro ta’sirning ikki yo‘nalishini, pedagogning jamoaga va jamoaning pedagogga ta’sirini va bu o‘zaro ta’sir ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Pedagogning jamoaga ta’siri uning obro’si, bilimi, dunyoqarashi, o‘zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o‘z fanini puxta bilishi, o‘quvchilar bilan munosabati, o‘z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi va tashabbuskorligi singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Uning obro’si deganda jamoa o‘qituvchini mutaxassis sifatida tan olishi, sub’ektiv sifatning jamoa faoliyatining ob’yektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda mutaxassisning bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi, kasb mahorati, uddaburorligi, tadbirkorligi va ijodkorligi uning boshqalardan ko‘ra ko‘proq ko‘zga tashlanishiga va obru orttirishiga sabab bo‘ladi.

Obro‘ga ega bo‘lgan mutaxassis shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo‘ladi, jamoada uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, undan maslahat so‘raydilar, uning nuqtai nazari bilan hisoblashadilar. Ammo obro‘ orttirishda shaxsiy sifatlarining o‘zigina etarli bo‘lmaydi, u yoki bu mutaxassis haqidagi jamoatchilik fikri ham sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham mutaxassisning jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo‘q, bu esa jamoaning pedagogga bo‘lgan ta’siridir. Ya’ni, jamoa pedagogning ayrim sa’i-harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi, aksincha bundan saqlanishga intilishi mumkin.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamoa bilan mutaxassisning o‘zaro ta’siri ikki xil, ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijobiy ta’sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta’lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagan holda, qo‘l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyat hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, xodimlarni ismini aytib hurmat bilan murojaat qilishi (har kimga o‘z nomini boshliq og‘zidan eshitish yoqimli bo‘lishini esda tuting), mutaxassislarga nisbatan diqqat-e’tiborli bo‘lishi, suxbatdoshini o‘zi haqida gapirishga ruxlantirishi, oshkora axborat almashishdan cho‘chimasligi, xodimga uning shu jamoa uchun kerakli ekanligini s’ezdirishi, har bir xodimning kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e’tirof etishi va boshqa shu kabi raxbarlikning eng maqbul uslublarini o‘z faoliyatiga tadbiiq etishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shamsiev V. va boshqalar Ta’lim tizimi muassasalari rahbarlari: o‘qing, o‘rganing, amal qiling. T.: Fan va texnologiya, 2008.
2. Ishmuhammedov R. va boshqalar. Direktorning ish kitobi, (amaliy tavsiyalar) T.: Fan va texnologiya, 2007

## **KASBIY PEDAGOGIKADA TA’LIMNING FAOL METODLARI**

**Berdiyeva Lobar Norqobulovna**

**Qashqadaryo viloyat PYaMO’MM**

**Pedagogika, psixologiya va ta’lim menejmenti kafedrasida katta o‘qituvchisi**



**Annotatsiya.** Maqolada kasb pedagogikasida foydalaniladigan ta'limning faol metodlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga ta'limning faol metodlaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Kasb, kasb-hunar, ta'lim oluvchilar, amaliy ko'nikmalar, ta'lim metodlari, mutaxassislar, kasbiy bilim.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bilan bog'liq. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni asosida yangi turdagi – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi shakllantirildi. Hozirgi paytda yuqori malakali va madaniyatli, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash bo'yicha muhim ahamiyatga ega molik ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda bilimlarni mustaqil egallash va muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlari ham shakllanishi kerak. Ushbu xususiyatlarni shakllantirishda ta'lim oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv biluv faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim oluvchilarining o'quv-bilish faoliyatlarini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarni mustaqil va ijodiy yondoshgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lim metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Ta'lim metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va metodikalar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarni ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo'llashni talab etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv materiali mazmuniga ham bog'liq bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. O'quv faoliyatida ta'lim maqsadning barcha jihatlari amalga oshar ekan, turli ta'lim metodlarni birgalikda qo'llash zarur. Shuning uchun, ta'lim metodini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Faol metodini tanlashda uning samaradorlik darajasini e'tiborga olish ham ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv materiali og'zaki bayon etilganda talabalar ma'lumotning 5-10 % ni eslab qoladilar. O'quv adabiyotlaridan mustaqil o'qish ma'lumotning 10-15 % ni, ko'rgazmali materiallarsa ma'lumotlarning 20-25 % ni o'zlashtirishga imkon beradi. Amaliy metodlar eng samarali metod hisoblanib, talabalar ongida ma'lumotning 75 % i saqlanib qoladi. Lekin, o'quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o'zlashtiriladi va ko'nikma shakllanadi. Demak, talabalarni mustaqil o'rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ta'sirlariga yo'naltirilgan faol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

O'qitish jarayonida guruhidagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadallashtirish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, faol metodlardan foydalanish unga yaxshi natija bermaslik mumkin. Talabalarning har biri bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi.

Faol ta'lim metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish imkoniyatlarini, ya'ni ularning yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda, jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini ham inobatga olish muhim. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz, albatta, talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatini hisobga olishimiz lozim. Fanga tegishli mavzularining o'qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga

ta'sir ko'rsatadi. Faol metodlarning ba'zilar talabalarni faollashtirishga qancha ko'p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlari bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O'quv mashg'ulotda vaqi shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, qo'llashda ko'p vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanishi imkonini bermaydi. Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz kerak.

Ta'lim oluvchilarning soni. O'quv guruhidagi ta'lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni jadal sura'tda olib borish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, agar siz faol metodlardan o'zini oqlamagan darajada ko'p foydalansangiz, ularning har biriga yetarli e'tibor berish uchun vaqtingiz yetishi amri mahol. Katta guruhlar uchun o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari ko'proq mos keladi.

Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari. O'qitish metodlarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligini. Talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va uni e'tiborga olish muhimdir. O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik vaqtida, ta'lim metodini tanlayotib, biz albatta, talabalarning ish qobiliyatini hisobga olamiz. Talabalarning bir xaftalik ish qobiliyatini o'sish sur'atini aks ettiruvchi jadvalni keltiramiz.

Ta'limning davomiyligi. Dasturning yoki o'quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ba'zilar talabalarni tayyorlashga qancha ko'p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt talab qiladigan metodni siz o'ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu metodlarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llashingiz mumkin.

Vaqt – u yoki bu metodni amalga oshirishga ketgan mehnatingiz nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi metodlar sizdan boshqalariga nisbatan sizdan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun bunday metodlarni qo'llashni rejalashtirayotib, siz faoliyatni tashkil qilishning ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch yetarlimi, deb o'zingizga savol berishingiz kerak.

O'quv-moddiy sharoitlari. Ba'zi metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilanmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona. Agar siz, maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo'lsangiz, ularning naqdligini ta'minlashingiz kerak.

**“To'rt pog'onali” metod** – amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonining to'rt pog'ona doirasida kechadigan metodidir.

Bu metod ta'lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo'l ko'nikmalarini tez va mukammal o'rganib olishlariga yordam beradi. “To'rt pog'onali” metod qo'llanilganda, ta'lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so'ng uni takrorlaydilar va to mukammal o'zlashtirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

“Tushuntirish” bosqichida muhandis-pedagog ta'lim oluvchilarga avval oddiy operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.

“Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish” bosqichda muhandis-pedagog ta'lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko'rsatib beradi.

Uchinchi bosqichda ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog ko'rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarini to'g'rilab turadi.

“Mashq qilish” bosqichida ta'lim oluvchilarning hatti-harakati muhandis-pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta'lim oluvchilar ish amallarini mukammal o'zlashtirganlaridan so'ng, uni mustaqil bajaradilar.

“To'rt pog'onali” metodning asosiy belgisi-ta'lim oluvchilarning harakatlari muhandis-pedagog ko'rsatib bergan harakatlar loirasi bilan cheklanganligidadir.

“To'rt pog'onali” metodning afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati mavjud;
- oddiy ish bosqichlarini o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi.

“To'rt pog'onali” metodning kamchiliklari:

-ta'lim oluvchilarning harakatlari ta'lim beruvchi ko'rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanib qoladi;

-ta'lim oluvchilar yakka tartibda o'rganishga yo'naltiriladilar, lekin mustaqil fikrlash imkoniyati chegaralangan bo'ladi;

-ish bosqichlarini amalga oshirishda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'yilmaydi.

### **Laboratoriya metodi**

Laboratoriya metodi – bu shunday ta'lim metodiki, unda ta'lim oluvchi o'qituvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni anglaydi va tushunib yetadi.

Laboratoriya metodining asosiy funksiyasi - o'rgatish va rivojlantirishdan iboratdir.

Bu metodni qo'llash bilan, biz ta'lim oluvchilarni quyidagi imkoniyatlar bilan ta'minlaymiz:

-asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini egallash;

-mustaqil tadqiqotning yangi yo'llarini tanlash va ma'lum bo'lganlarini tekshirish;

-amaliy malakalarni egallash: o'lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va igrigi olinganlari bilan taqqoslash.

Ayniqsa, muammoli (tadqiqiy) laboratoriya metodi samaralidir, bunda ta'lim oluvchilar o'zlari gipotezani ilgari suradilar, uni amalga oshirish yo'lini aniqlaydilar, kerakli asbob-uskunalar va materiallarni tanlaydilar.

Laboratoriya ishi vaqtida ta'lim oluvchilardan namoyish metodiga qaraganda ancha katta faollik va mustaqillik talab qilinadi, ular bu yerda sust kuzatuvchi bo'lib emas, tadqiqotlarning qatnashchisi va bajaruvchisi sifatida harakat qiladilar.

Laboratoriya metodi murakkabdir. U, maxsus va ko'pincha qimmat uskunalar bo'lishini, sizni va ta'lim oluvchilarni puxta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi. Undan foydalanish juda ko'p energiya va vaqtni sarflash bilan bog'liq. Shuning uchun, laboratoriya metodini rejalashtirgan paytingizda, mustaqil tadqiqotning samarasi, oddiy va tejamkor yo'l bilan ta'lim olishdan yuqori bo'lishi yoki bo'lmasligiga aniq ishonch hosil qilishingiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Avliyaqulov N.X., Namozova N.J. Muammoli o'qitish texnologiyalari. T. Fan va texnologiyalar. 2008. - 80 b.

2. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. «Pedagogik texnologiyalar» - T. «Fan va texnologiya». 2008. -164 b.

3. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasb pedagogikasi. O'quv uslubi qo'llanma. Toshkent, 2007.-96 b

4. Raximov B.X., Mavlonov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar., 2009. -124 b.

## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR**

Berdiyeva Lobar Norqobulovna

Qashqadaryo viloyat PYaMO'MM

Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinif ona tili fanidan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Sinfdan tashqari ishlardan namunalari keltirilgan.

**Kalit soʻzlar.** Sinfdan tashqari ishlar, ona tili darslari, izlanuvchanlik va ijodkorlik, doimiy tadbirlar, mavsumiy tadbirlar.

Sinfdan tashqari ishlarining maqsadi – ona tili darslarida olgan bilim, koʻnikma va malakalarini takomillashtirish, ona tilining fonetika, grammatika, morfemika, sintaksiz, soʻz birikmasi, soʻz, gap kabi tushunchalari bilan yaqindan tanishish, muntazam ravishda ona tiliga muhabbatni uygʻotish va uni amalda toʻgʻri qoʻllay oladigan ongli komil insonni tarbiyalashdir.

Sinfdan tashqari ishlar oʻquv dasturi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, unda koʻzda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun oʻquvchilarda izlanuvchanlik va ijodkorlik darajasiga koʻtarish talab qilinadi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari ishlar darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari ishlar 1-2 -sinfdan haftada 1 marta, 3-4-sinfdan 2 haftada 1 marta oʻtkaziladi. Savod oʻrgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17 -20 daqiqasi ajratiladi.


Sinfdan tashqari ishlar bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod oʻrgatish davriga toʻgʻri keladi. Unga darsning bir qismi 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun “STI mashgʻuloti” deb yuritiladi.

2. Boshlangʻich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga toʻgʻri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga toʻgʻri keladi. Bu davrda oʻquvchilarning oʻqish malakalari mustahkamlanadi. Bunda oʻquvchilarning sinfdan tashqari oʻqiganlari baholanadi.


Ona tilidan sinfdan tashqari olib boʻladigan ishlar ham taʼlimiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni koʻzlaydi. Uning taʼlimiy ahamiyati shundaki, oʻquvchi bu jarayonda qoʻshimcha bilim, malaka va koʻnikmalarga ega boʻladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat koʻrsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda oʻz ifodasini topadi.



Doimiy tadbirlarga toʻgʻarak mashgʻulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan oʻtkaziladigan tadbirlarga kiradi. Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini oʻstirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qoʻshimcha maʼlumotlar manbai hisoblanadi.

Sinfdan tashqari ishlarining taʼlimiy ahamiyati – oʻquvchilarga qoʻshimcha bilim, malaka va koʻnikmalar berish.

Tarbiyaviy ahamiyati – oʻquvchilarning ijodiy faoliyat koʻrsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.



#### Adabiy kechalar

Adabiy kechalarga misollar “Navoiyxonlik”, “Boburning tavallud kuniga bag’ishlangan kecha” va h.k

#### Ekskursiya

Ekskursiya ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va ekskursiyadan oldin o'quvchilarga topshiriqlar beriladi

1. Muzeylarga ekskursiyaga borish; Metro bekatlari bo'ylab sayohat;
2. Davlat kutubxonalariga tashrif; Teatr va kino va h.k

#### Bayram va tadbirlar

Bunga mavsumiy bayramlarni kiritishimiz mumkin:

1. Bayram va tabriklar ssenariy asosida tashkil etiladi.
2. Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar.

Uchrashuv jonli muloqot tarzida tashkil etiladi.

3. Uchrashuvga o'quvchilar yaxshi biladigan shoir va yozuvchilarni taklif etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Mehmon bolalar adabiyot vakili bo'lishi lozim.

#### Ko'rik - tanlovlari

Bu ko'rik tanlovlari sinflar ichida yoki sinflararo bo'lishi mumkin. Masalan: “Yilning eng bilimdon o'quvchisi”.

#### To'garaklar

To'garaklar ma'lum bir fan asosida tashkil etiladi. To'garak uchun yillik ish reja tuziladi. Masalan: “Yosh xattot”, “Ona tilim – jon-u dilim”

Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o'quvchining diqqati oshib xotirada saqlash qobiliyati o'sadi. Hatto sahnalashtirish o'quvchini har tomonlama yo'naltiradi, ya'ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarga ilk tasavvurlarni o'rgata boshlaydi. Asarni sahnalashtirish davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi.

O'quvchilar ifodali, obrazli, shuningdek qahramonlar harakatini to'g'ri bajarishlari, o'qishlari o'quvchilarda zavq-shavq uyg'otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinf tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar

yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borishi lozim. Q.Muhammadiy, P.Mo'min, Z.Diyor, A.Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishi shart. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh qilishga uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirishi, yorqin obrazlar yaratishi bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Safarova R. Fanlar chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi. T.: Sano-standart. 2012 yil.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.–T.: Noshir, 2009. – 163 b.
3. Yusupova M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – T.: O'qituvchi, 2008. – 67 b
4. Roziqova O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.

### GIPERBILIK TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASI

Termiz muxandislik texnologiya instituti assistenti  
M.N.Samatova

#### ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada buziluvchan giperbolik tipdagi tenglamalar uchun Koshi masalasini korrektiligini o'rganish keltirilgan. Giperbolik tipdagi tenglamalarga qo'yiladigan asosiy masalalar va ularni yechish usullari keltirilgan.

#### ANNOTATION.

This article presents a study of the correctness of the Cauchy problem for equations of perturbable hyperbolic type. The main problems for hyperbolic type equations and their solution methods are given.

**Tayanch so'zlar:** giperbolik tenglama; Koshi masalasi; Gauss Ostrogradskiy formulasi; Gipergeometrik funksiyalar.

**Keywords::** hyperbolic equation; Cauchy issue; Gauss Ostrogradsky formula; Hypergeometric functions.

1. Ta'rif. Koshi masalasining qo'yilishi:

$$Au_{xx} + 2Bu_{xy} + Cu_{yy} + F(x, y, u, u_x, u_y) = 0 \quad (1)$$

kvazichiziqli differensial tenglamani qaraymiz, bunda A, B va C,  $\bar{D}$  yopiq sohadagi x va y lar nisbatan uzluksiz funksiyalar. Bundan tashqari A, B va C lar berilgan  $\bar{D}$  sohadagi hech qanday nuqtalarda bir vaqtda nolga aylanmaydi va ikkinchi tartibli uzluksiz xususiy hosilaga ega.

Agar  $B^2 - AC > 0$  shart bajarilsa, bu holda D sohada (1) giperbolik tenglama deb ataladi.

$\varphi(x, y) = const$ , egri chiziqlar, bunda  $\varphi(x, y)$

$$A\varphi_x^2 + 2B\varphi_x\varphi_y + C\varphi_y^2 = 0$$

tenglamani yechimlari bo'lib, xarakteristik egri chiziqlar deb ataladi (yoki xarakteristikalar) (1) tenglama uchun,  $\frac{dy}{dx} \equiv \lambda(x, y)$  esa

$$A dy^2 - 2B dx dy + C dx^2 = 0$$

tenglama bilan aniqlangan bo'lib, (1) tenglamaning xarakteristik yo'nalishi deb ataladi. Giperbolik tenglamalar uchun ikki xil haqiqiy xarakteristikalar bor.

D sohada (1) giperbolik tenglama berilgan bo'lsin. Agar  $\bar{D}$  yopiq sohaning chegarasida, yoki chegaraning biror qismida  $B^2 - AC = 0$  bo'lsa, bu holda bunday tenglamani buzilishga ega bo'lgan giperbolik tenglama deb ataymiz.

Buzilishga ega bo'lgan chegara qismini buzilish chizig'i, yoki parabolik chiziq deb ataymiz. Bunda ikki holat qaraladi:  $\gamma: B^2 - AC = 0$

1)  $\gamma$  parabolik chiziqqa o'tkazilgan urinma to'g'ri chiziq (1) tenglamaning

$$A dy^2 - 2B dx dy + C dx^2 \neq 0$$

yo'nalishlar ustma-ust tushmaydi. Bu holda  $\gamma$ - (1) tenglamaning xarakteristikalar qaytish nuqtalar to'plamidir.

2)  $\gamma$  parabolik chiziqning barcha nuqtalarda o'tkazilgan urinma to'g'ri chiziq (1) tenglamaning yo'nalishlari bilan ustma-ust tushadi va

$$A dy^2 - 2B dx dy + C dx^2 = 0$$

tenglik o'rinlidir.

Birinchi holatda (1) tenglamani birinchi tur uzilishga ega bo'lgan giperbolik tenglama, ikkinchi holatda esa ikkinchi tur tenglama deb ataymiz.

$$K(y)h(x,y)u_{xx} - u_{yy} + a(x,y)u_x + b(x,y)u_y + c(x,y)u = f(x,y) \quad (2)$$

tenglamani qaraymiz.

Bunda  $(h(x,y) > 0, K(0) = 0$  va  $y > 0$  da  $K(y) > 0)$

$y > 0$  yarim tekislikda,  $y=0$  to'g'ri chiziq bo'ylab buzilishga ega.

(2) tenglama,  $y > 0$  bo'lganida ikkita har xil haqiqiy xarakteristikalar to'plamiga ega

$$\frac{dy}{dx} = \frac{1}{\sqrt{K(y)h(x,y)}}, \quad \frac{dy}{dx} = -\frac{1}{\sqrt{K(y)h(x,y)}}.$$

x o'qining  $[a, b]$  kesma,  $A(a,0)$ ,  $B(b,0)$  nuqtalardan chiquvchi  $l_a$  va  $l_b$  (2) tenglamaning xarakteristikalar bilan (ular c nuqtada kesishadi) chegaralangan D soha berilgan bo'lsin.

(2) tenglamani qanoatlantiruvchi va D sohada ikkinchi tartibli uzluksiz xususiy hosilaga ega bo'lgan funksiyani (2) tenglamaning regulyar yechimi deb ataymiz.

Koshi masalasi: D sohada

$$u(x,y) = \tau(x), \quad \frac{\partial u(x,0)}{\partial y} = v(x), \quad a < x < b, \quad (3)$$

Boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi (2) tenglamaning regulyar yechimi topilsin, bunda  $\tau(x)$  va  $v(x)$ - berilgan funksiyalar.

2. Protter teoremasi.

Teorema 1.1 (Protter).

1)  $\bar{D}$  yopiq sohada  $h(x,y) > 0$  funksiya ikkinchi tartibgacha uzluksiz hosilaga ega;

2)  $K(y)$  –uzluksiz va o'suvchi funksiya, va  $K(0)=0$

3)  $\bar{D}$  yopiq sohada  $a(x,y), b(x,y), c(x,y)$  va  $f(x,y)$  funksiyalar x bo'yicha uzluksiz xususiy hosilaga ega (ikkinchi tartibgacha)

$$4) \lim_{y \rightarrow 0} \frac{y a(x,y)}{\sqrt{K(y)}} = 0 \quad \text{shart bajariladi.} \quad (4)$$

Bu holda D sohada, (3) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi (1) tenglamaning yagona regulyar yechimi mavjuddir, bunda  $\tau(x)$  va  $v(x)$ - berilgan funksiyalar Lapshits shartni qanoatlantiruvchi Koshi masalasi (1), (3) korrekt qo'yilgan. Keyinchalik ko'rsatilgan misol, masalaning korrekt qo'yilganligini ko'rsatadi.

$$y^m u_{xx} - u_{yy} + a y^{\frac{m}{2}-1} u_x = 0 \quad (m \geq 2), \quad (5)$$



tenglamani qaraymiz, bunda  $a \neq 0$  –haqiqiy o'zgarmas. Osonlikcha ko'rish mumkinki (4) shart bajarilmaydi.  $|a| < m/2$  ga (5) tenglama uchun Koshi masalasi korrekt qo'yilganligini ko'rsatamiz.

$$\xi = x - \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2}, \quad \eta = x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2}$$

xarakteristik koordinatalar yordamida (5) tenglama quyidagi

$$\frac{\partial^2 u}{\partial \xi \partial \eta} - \frac{\alpha}{\eta - \xi} \frac{\partial u}{\partial \eta} + \frac{\beta}{\eta - \xi} \frac{\partial u}{\partial \xi} = 0, \quad (6)$$

Eyler-Darbu tenglamaga keltirish mumkin, bunda

$$\alpha = \frac{m-2a}{2(m+2)}, \quad \beta = \frac{m+2a}{2(m+2)}, \quad \alpha + \beta = \frac{m}{m+2}.$$

Agar  $|a| < m/2$  bo'lsa  $0 < \alpha < 1$ ,  $0 < \beta < 1$  bo'ladi va (6) tenglama yechimi quyidagi ko'rinishga ega.

$$u(\xi, \eta) = (\eta - \xi)^{2/(m+2)} \int_0^1 \Phi[\xi + (\eta - \xi)t] t^{-\alpha} (1-t)^{-\beta} dt + \int_0^1 \Psi[\xi + (\eta - \xi)t] t^{\beta-1} (1-t)^{\alpha-1} dt,$$

bunda  $\Phi$  va  $\Psi$ -ixtiyoriy funksiyalar. Bundan, eski  $(x, y)$  o'zgaruvchilarga qaytsak (5) tenglamaning yechimini topamiz.

$$u(x, y) = \int_0^1 \Psi \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] t^{\beta-1} (1-t)^{\alpha-1} dt + \left( \frac{4}{m+2} \right)^{2/(m+2)} y \times \times \int_0^1 \Phi \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] t^{-\alpha} (1-t)^{-\beta} dt. \quad (7)$$

Boshlang'ich (3) berilishga ko'ra

$$\Psi(x) = \frac{\Gamma(\alpha + \beta)}{\Gamma(\alpha)\Gamma(\beta)} \tau(x),$$

$$\Phi(x) = \left( \frac{m+2}{4} \right)^{2/(m+2)} \frac{\Gamma(2-\alpha-\beta)}{\Gamma(1-\alpha)\Gamma(1-\beta)} v(x). \quad (8)$$

Endi (8) ni (7) ga qo'ysak, Koshi masalasining yechimini topamiz:

$$u(x, y) = \frac{\Gamma(\alpha + \beta)}{\Gamma(\alpha)\Gamma(\beta)} \int_0^1 \tau \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] t^{\beta-1} (1-t)^{\alpha-1} dt + \frac{\Gamma(2-\alpha-\beta)}{\Gamma(1-\alpha)\Gamma(1-\beta)} y \times \times \int_0^1 v \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] t^{-\alpha} (1-t)^{-\beta} dt. \quad (9)$$

(2.1.9) yechim yagonadir, buni ko'rsatish uchun Riman usuli bilan foydalanish mumkin. Ravshanki (9) yechim (3) boshlang'ich berilishlarga bog'liqdir.

$a = m/2$  holatda (5) yechim quyidagi

$$u(x, y) = \Psi \left( x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} \right) +$$

$$+ \left( \frac{4}{m+2} \right)^{2/(m+2)} y \int_0^1 \Phi \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] \times \times (1-t)^{-m/(m+2)} dt,$$

ko'rinishga ega. Bunda (3) dan foydalanib quyidagi natijaga erishamiz,

$$u(x, y) = \tau \left( x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} \right) + \frac{2y}{m+2} \times$$



$$\int_0^1 v \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] (1-t)^{-m/(m+2)} dt.$$

$a = -m/2$  holat uchun, shunga o'xshash quyidagini topamiz

$$u(x, y) = \tau \left( x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} \right) + \frac{2y}{m+2} \times$$

$$\int_0^1 v \left[ x + \frac{2}{m+2} y^{(m+2)/2} (2t-1) \right] (1-t)^{-m/(m+2)} dt.$$

Bu esa (3) shartlarni qanoatlantiruvchi (5) tenglamaning yagona bitta yechimidir.

$$y^m u_{xx} - u_{yy} + a(x, y) u_x + b(x, y) u_y + c(x, y) u = f(x, y) \quad (10)$$

tenglama uchun (2.1.4) shart, sodda ko'rinishga

$$\lim_{y \rightarrow 0} y^{1-\frac{m}{2}} a(x, y) = 0. \quad (11)$$

$0 \leq m < 2$  bo'lganida (3) shartni qanoatlantiruvchi (10) tenglama uchun Koshi masalasi korrekt qo'yilgan, chunki (11) shart ixtiyoriy  $a(x, y)$  chegaralangan funksiya uchun bajariladi.

$m \geq 2$  bo'lganida, agar (11) shart bajarilmasa Koshi masalasi nokorrekt bo'lib qoladi.

Agar  $a_0(x) = \lim_{y \rightarrow 0} y^{1-\frac{m}{2}} a(x, y)$  – chegaralangan bo'lib va  $a, b, c$  – koeffitsentlar, (10)

tenglamaning  $f(x, y)$  o'ng qismi va  $\tau(x)$  va  $v(x)$  x bo'yicha

yeterli tartibgacha differensiallanuvchi ( $\max |a_0(x)|$  ga bog'liq) bo'lsa, bu holda (10),

(3) Koshi masalasi korrekt qo'yilgan. Masalan ,

$$y^2 u_{xx} - u_{yy} + a u_x = 0 \quad (y > 0), \quad (12)$$

tenglamani qaraylik, bunda  $a = 4n + 1$  ( $n \geq 0$  butun son). (12) tenglamaning

$$u(x, 0) = \tau(x), \quad \frac{\partial u(x, 0)}{\partial y} = 0, \quad 0 \leq x \leq 1, \quad (13)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi yagona yechim, quyidagi

$$u(x, y) = \sum_{k=0}^n \frac{\sqrt{\pi} y^{2k}}{k! (n-k)! \Gamma(n + \frac{1}{2})} \frac{\partial^k}{\partial x^k} \tau \left( x + \frac{y^2}{2} \right).$$

Bu formula boshlang'ich (13) berilishlar va  $a$  miqdorning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Мирсабуров М., Салахитдинов М.С. Об аналоге задачи Бицадзе-Самарского для одного класса уравнений гиперболического типа // Докл. РАН 1999, No 1. с.10-12.

2. Салахитдинов М.С., Мирсабуров М. О некоторых краевых задачах для гиперболического уравнения вырождающегося внутри области // Дифференциальные уравнения. 1981, т 17, No 1. с. 129-136.

3. Нахушев АМО некоторых краевых задачах для гиперболических уравнений и уравнений смешанного типа // Дифференциальные уравнения 1969-Том 5 No1 С 44-59.

4. Нахушев АМО некоторых краевых задачах для гиперболических уравнений и уравнений смешанного типа // Дифференциальные уравнения 1969-Том 5 No1 С 44-59.

## BO'SHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Turayeva D.E. Iqtisodiyot va pedagogika  
universiteti NTM katta o'qituvchisi*

Uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim

umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I - IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V - IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X - XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchilik faoliyati, boshlang'ich maktablar hamda boshlang'ich ta'lim bilan bog'liq tarixiy jihatlar azaldan mavjud bo'lib, rivojlanib kelgan. Boshlang'ich maktabda yoshga mos xususiyatlar ishlab chiqildi. "Ona tili maktabida ichki his-tuyg'ular, ijro organlari – qo'l va til bilan tasavvur va xotira kuchi ko'proq o'qish, yozish, rasm chizish, kuylash, sanash, o'lchash, tortish, turli materiallarni yodlash va hokazolar orqali amalga oshiriladi", - deb yozgan Komenskiy. Maktabning maqsadi bolalarning butun hayotini uzaytiradigan narsalarni o'rgatishdir.

Yan Amos Komenskiy "yoshlar mehribonlik fazilatlariga tarbiyalanadi" sifatida maktabni qabul qilgan, ta'lim-tarbiyaga beparvolik va tarbiyaviy vazifalarga e'tiborsizlik esa qat'iy jazolangan.

Har bir sinf uchun Yan Amos Komenskiy alohida o'rganib yaratish intildi. U o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar bilan boyitdi, masalan, boshlang'ich maktabda o'qitishning asosiy tamoyili – ko'rgazmalilik tamoyiliga mos keladigan "suratlarda sezuvchi narsalar dunyosi" kitobini yaratdi. Yan Amos Komenskiyning o'z ona tilida dars olib borish talabi ham o'sha davr uchun asosiy ahamiyatga ega edi.

Hozirgi davrda boshlang'ich ta'limda muhim o'zgarishlar ro'y berdi. XVII asrda Yevropada ta'lim muassasalari yetarli emas edi va ta'lim darajasi past edi. 1642 yilda Germaniyadagi boshlang'ich maktablar dasturlariga asos bo'lgan "Got maktab Nizomi" yozildi. Unga muvofiq quyi, o'rta va oliy maktablarda ta'lim rejalashtirilgan edi. Birinchi ikki katexizm o'rgatgan edi (savol-javob shaklida nasroniy imon qisqa bayonot), ona tili, hisoblash va cherkov qo'shiq va katta sinfda ular bojxona o'rganish qo'shildi, tabiyot tarixi va mahalliy geografiya. Quyi sinfda bolalar 5 yoshdan qabul qilingan, ular imtihonlardan o'tgunlariga qadar o'qishgan, ammo 14 yoshdan oshmagan. Lekin maktablarda professional o'qituvchilar yetarli emas edi. Faqat XVII asrning oxirida Fransiyada o'qituvchilar tayyorlash Sankt-Charlz seminariyasida tashkil etildi, bu har yili 20-30 o'qituvchilardan oshmasligi kerak edi.

Ayni paytda diniy jamoalar tomonidan tashkil etilgan maktablar bilan oddiy maktablar o'rtasida qarama-qarshilik shakllanadi. Aholi ustidan o'z nazoratini saqlab qolishdan xavotirga tushgan cherkov boshlang'ich maktablarda ta'limni tashkil etishga, undagi diniy mazmunni faol o'z ichiga olishga harakat qildi. Biroq dunyoviy boshlang'ich maktablar soni tobora ko'payib, savodli aholi soni ortib borardi. Dastlab bunday maktablarda ta'lim mazmuni siyraklashgan (qadimgi tillar, adabiyot), lekin asta-sekin tabiatshunoslik sikli mavzulari bilan to'ldirila boshlagan

Angliyada reformatsiya davrida (XVII–XVIII asrlar) kambag'allar uchun xayriya va yakshanba maktablari tashkil etila boshlandi, so'ngra Germaniyadagi shahar maktablari va gimnaziyalar modelida tashkil etilgan mashhur grammatika maktablari vujudga keldi.

XX asr oxirida iste'dodli bolalar va aksincha, aqliy va jismoniy rivojlanish qiyinchiliklari bo'lgan bolalarni tarbiyalashga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Xuddi shu davrda yangi yo'nalish kompensatsiyalovchi trening paydo bo'ladi, bu esa muvaffaqiyatsizlikka uchraganlarning qiyinchiliklarini yengishga imkon beradi. Shu munosabat bilan bolalarni maktabga erta tayyorlash nafaqat maxsus tashkil etilgan guruhlarda, balki ommaviy axborot vositalari (bolalar uchun TV dasturlar) yordamida ham boshlanadi, sinflardagi bolalar soni kamayadi, o'quvchilarga to'g'ri yordam berish uchun ota-onalar bilan muloqot tashkil etiladi,

vaqtinchalik moslashish darslari yaratiladi va ta'limda psixologik xizmatlar tizimi rivojlantiriladi.

Asrning boshida an'anaviy dasturlarga muvofiq o'qishni niyat qilmaganlar uchun muqobil ta'lim paydo bo'ladi. Masalan, Epltonda boshlang'ich ta'lim uch yillik va ikki yillik davrlarga bo'linib, sinflarni bartaraf etdi. Ta'lim oluvchi boshqalarning o'quv jarayonida bosib o'tishi yoki orqada qolishi mumkin edi, eng asosiysi, muddatni qondirish edi. Fransiyada bolalar o'qituvchilar bilan birgalikda ota-onalar tomonidan o'qitiladigan Amerikadagidek yovvoyi maktablar ham bor edi, ularning ayrimlar davlatlar tomonidan qisqartirildi va boshqalari esa o'quv yilini uzaytirdi.

Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat, shaxsiy sifatlar, o'quvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash layoqati kabi mavjud ijtimoiy talablarga mos bo'lishi zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tayyorgarlik darajasi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, zamonaviy pedagogik va axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikma, malakalarni rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy hayotidagi va uning ta'lim sohasidagi demokratik o'zgarishlar - demokratlashtirish, ta'lim muhitining diversifikatsiyalash, ijtimoiy ta'lim buyurtmasining dispersiyasi, turli-tuman dasturlar, darsliklar, o'quv rejalari, ta'lim muassasalarining yuzaga kelishi O'zbekistonda o'qituvchilar tayyorlash tarixidagi ahamiyatli o'xshashliklari to'g'risidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O'RQ-637 son Qonuni.

2. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU, 2002. – 146 b.

3. Masharipova U. Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi: Dis. ... ped. fan. nom. – T., 2017. – 163 b.

4. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2018. – 144 b.

5. Bonimar T. Afalla, Fitzgerald L. Fabelico. Pre-service teacher's pedagogical competence and teaching efficiency // Journal of Critical Reviews. – Vol 7. – Issue 11. – 2020. – P. 223-227.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MAS'ULIYAT HISSINI TARKIB TOPTIRISH**

**Xudoyberdiyeva Shoxista Boymurodovna**

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 48-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyat hissini tarkib toptirish, ta'limga nisbatan mas'uliyatni shakllantirish borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim jarayoni, yosh o'quvchilar, mas'uliyat, e'tibor, qiyinchilik, qiziqarli materiallar.

Bolaning ta'lim jarayonida beparvo e'tibor qaratiladi. Maktab o'quvchilari uni qiziqtiradigan narsaga tez javob beradilar, shuning uchun tarbiyalash juda muhimdir. Yosh o'quvchilarga ko'ngilli e'tiborni rivojlantirish ta'limga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarni

rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq. Mas'uliyat hissini olmaydigan o'quvchilar mas'uliyat bilan faqat qiziqarli materiallar bilan ishlashadi.

Yosh maktab yoshidagi o'zboshimchalik bilan o'rganish ta'limning rivojlanish sabablari bilan birga rivojlanadi. Boshlang'ich maktab yoshidagi e'tiborni voliylik bilan tartibga solish imkoniyatlari cheklangan. o'smirlik yoki katta maktab o'quvchisi o'zimni kelajakda kutilayotgan natija uchun qiziqarli va qiyin ish haqida o'ylash uchun olib kelishi mumkin bo'lsa yaqin motivatsiya bor bo'lsa, u holda bir kichik o'rta maktab o'quvchisi odatda jamlangan mumkin ish faqat (istiqbollari olish uchun "besh", o'qituvchilar maqto'v loyiq). Ixtiyoriy e'tiborni jalb qilishda yosh o'quvchilarni tarbiyalash bolalar yaqinligi va yaqinlashib kelayotgan maqsadlarni bir-biri bilan bog'lash orqali yoshlarning xususiyatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Misol uchun, eng uzoq maqsadi (jamiyat uchun foydali inson bo'lish) yanada yaqinroq bo'lishiga bog'liq - keyingi sinfga muvaffaqiyatli o'tish. Oxirgi sabab, o'z navbatida, eng yaqin niyat bilan bog'liq bo'lishi kerak - o'qituvchini yuqori baholash.

Birinchi sinf o'quvchilari tormoz jarayonining yoshga bog'liq zaifligidan kelib chiqqan holda kichik e'tibor qaratishadi. Birinchi sinf o'quvchilarining mas'uliyat-e'tiborini 30-35 daqiqaga tejash mumkin.

Kichik o'quvchilar ham mas'uliyatini bir ob'yektdan ikkinchisiga tezda qanday qilib almashtirishni bilishmaydi. Biroq, boshlang'ich maktabning oxiri bu e'tiborni yaxshilaydi.

Kichik maktab o'quvchilarining shaxsiyati mas'uliyat e'tiboriga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, mo'tadil mo'jizalarning farzandlarida, haddan ortiq faollikda ko'rinmas noqulaylik paydo bo'ladi. Tezkor, tashvishsiz, gapiradi, lekin darslarga bo'lgan javoblari u sinf bilan ishlayotganligini ko'rsatadi.

Flegmatik va melankolik passiv, asossiz, e'tiborga loyiq emas. Aslida esa, ular o'rganilayotgan mavzuga e'tibor berishadi, chunki ular o'qituvchining savollariga javob berishgan. Ba'zi bolalar mas'uliyatli emas. Buning sabablari boshqacha: ba'zilar onaning ishtiyoqi, boshqalari esa ta'limga jiddiy munosabatda bo'lmaydilar, boshqalari esa markaziy asab tizimining qo'zg'aluvchanligi kuchayib,

Yaxshi ishlab chiqilgan xususiyatlar va uni tashkil etish maktab yoshidagi ta'lim muvaffaqiyatining to'g'ridan-to'g'ri belgilanadigan omillardir. Shu bilan birga, maxsus tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli mavzulardagi ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishiga e'tibor berishning turli xususiyatlari mavjud. Shunday qilib, matematika o'zlashtirilganda, etakchi rol mas'uliyatga sazovordir; rus tilini mukammal egallashning muvaffaqiyati e'tiborni taqsimlashning to'g'riligiga va e'tibor barqarorligi bilan o'qishni o'rganish bilan bog'liq. Bundan xulosa shundan dalolat beradiki, mas'uliyat e'tiborining turli xususiyatlarini rivojlantirish orqali maktab o'quvchilarining turli mavzulardagi rivojlanishini yaxshilash mumkin.

Biroq, qiyinchilik, turli xil xususiyatlarni turli darajalarda rivojlanishga mos kelishi bilan bog'liq. Mas'uliyat va barqarorlik xususiyatlari ularning spontan rivojlanishining oldini olish uchun o'qitilishi mumkin va o'qitilishi kerak bo'lsa, e'tibor miqdori eng kam ta'sir ko'rsatadi.

E'tiborga olingan ta'limning muvaffaqiyati asosan individual-tipologik xususiyatlar, xususan, yuqori nerv faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi. Asab tizimining xususiyatlarining turli xil kombinasyonlari, aksincha, mas'uliyat xususiyatlarining maqbul rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkinligi aniqlandi. Xususan, kuchli va ko'chma nerv tizimiga ega bo'lganlar barqaror, osongina taqsimlangan va o'zgartirilishi mumkin bo'lgan e'tiborga ega. Inert va zaif nerv tizimiga ega bo'lganlar uchun beqaror, yomon taqsimlanmagan va o'zgaruvchan e'tibor ko'proq xarakterlidir. Ishsizlik va kuchning kombinatsiyasi bilan barqarorlik indikatorlari kuchayadi, kommutatsiya va tarqatish xususiyatlari o'rtacha samaraga erishadi. Shunday qilib, har bir ma'lum bolaning individual-tipologik xususiyatlari uning e'tiborini muayyan chegaralar doirasida o'qitishga imkon berishini inobatga olish kerak. Biroq, mas'uliyat xususiyatlarining nisbatan zaif rivojlanishi halokatli noqulaylikning omili emas, chunki har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda hal qiluvchi rolni e'tiborga olishni tashkil etadi. o'z e'tiborini boshqarish qobiliyati, uni to'g'ri darajada saqlab turish, amalga oshiriladigan faoliyatning o'ziga xos xususiyatiga qarab uning xususiyatlarini moslashuvchan tarzda boshqarish.

Uning ishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, psixolog kundun-kunga, turli saboqlar va turli xil tabiiy holatlarda, bolalarning xatti-harakatlari, ularning ta'lim va ta'lim faoliyati. Natijada, u maktab o'quvchilarining e'tiborini to'liq, yaxlit ko'rinishga ega bo'lish imkoniga ega.

Shu bilan birga, ixtiyoriy e'tiborni muayyan yuksak aqliy funktsiya sifatida ifodalash, nazorat qilish, ishlashning tartibini va natijalarini tartibga soluvchi qobiliyatini namoyon etadigan bo'lsa, bolalar e'tiborini rivojlantirish uchun maxsus ishlarni olib borish zarur. O'rta asr yoshidagi etakchi yoshlardagi tarbiyachilik faoliyati va shuning uchun bu yoshga xos rivojlanish vazifalarini amalga oshirish, bolalarning to'liq e'tiborini shakllantirish bo'yicha "ish" larini ko'paytiradi. Biroq, ushbu faoliyatning o'zi amalga oshirish uchun ixtiyoriy e'tiborni shakllantirishning dastlabki darajasini talab qiladi. Uning etishmasligi, odatda, maktabda o'quvchilarning o'qitishda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, bu esa bu yo'nalishda maxsus psixologik va pedagogik rivojlanish ishlariga ehtiyoj tug'diradi. Shu munosabat bilan, e'tiborning ayrim o'ziga xos xususiyatlariga va umuman olganda ko'ngilli ahamiyatga ega bo'lgan talablarga yuqori talab qo'yadigan ma'lum kasb turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular maxsus topshiriqlarni, mashqlarni, sinfda ishlatilishi mumkin bo'lgan o'yinlarni o'z ichiga oladi. Ularning tizimli qo'llanishi boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning e'tiborini jalb qilish uchun psixologik va pedagogik ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2003-yil. 174 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O'quv qo'llanma). – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y. – 160 b.

### **ADABIYOT FANINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYALAB O'QITISH METODIKASI**

**Boboqulova Nafosat Qaxorovna**

Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan  
maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada badiiy asarni tahlil qilish jarayonida fanlar bilan o'zaro bog'liqlikda integratsiyalab o'rganish ko'zda tutilgan. Buning uchun tarix, ruhshunoslik, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni puxta o'rganishni dastlab bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratidan boshlash lozimligi aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar.** Badiiy asar, tahlil, bilim, ko'nikma, integratsiya, fanlararo aloqa, tarix, biologiya, geografiya, pedagogik mahorat.

**Связь литературы с другими дисциплинами и процесс интегрированного обучения**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается интегративное исследование произведения искусства во взаимосвязи с предметами в процессе его анализа. Для этого отражено, что углубленное изучение истории, психиатрии, географии, биологии и других наук необходимо начинать с педагогического мастерства будущих учителей.

**Ключевые слова.** Художественное произведение, анализ, знания, навыки, интеграция, междисциплинарная коммуникация, история, биология, география, педагогическое мастерство.

**The relationship of literature to other disciplines and the process of integrated learning**

**Annotation.** This article covers the integration and study of the work of art in the process of its analysis in relation to the sciences. To do this, it is reflected that a thorough study of history, spiritualism, geography, biology and other subjects should initially be started with the pedagogical skills of future teachers.

**Keywords.** Work of art, analysis, knowledge, skills, integration, interdisciplinary communication, history, biology, geography, pedagogical skills.

Adabiyot va madaniyatni rivojlantirishga qaratilayotgan sa'y-harakatlar bugungi kunda o'z samarasini berayotganligi ko'zni quvontiradi. Bunday targ'ibot va tashviqot ishlari ta'lim sohasida ham sezilarli darajada o'z natijasini ko'rsatmoqda. Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishlari buyuk mutafakkirlarimiz ijodiga bo'lgan hurmat va e'tibor tuyg'ularini shakllantirib kelmoqda. Jumladan, bu kabi sa'y-harakatlar bo'lajak o'qituvchilar uchun ham unib-o'sib kelayotgan yosh avlod bilan ishlashda katta mas'uliyat ekanligini bilgan holda astoydil intilayotganlari o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy sababi shundaki, ularning bilim va salohiyatlari qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, o'quvchilarning ham fikrlay olish darajasi yanada yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerakligini unutmasligimiz lozim. Bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning har jabhada faol bo'lib, o'z ustida tinmay ishlashi kerakligini anglatadi. O'zbek adabiyoti ta'limida mazmuniy uzviylikni ta'minlashda tabiiyki, o'quv-uslubiy adabiyotlar, darsliklar sifatini yaxshilash, adabiyot fanidan beriladigan bilimlarning bosqichlararo uzluksizligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning yosh xususiyatini ham hisobga olish zarur. Chunki o'quvchilarning barchasi badiiy asarni o'qib, tahlil qila olishlari lozimdir. Ushbu masalaning samarali yechimlari — adabiyot fanlarini integratsiyalash va uzviylikka yordam beradigan o'qitish turlarini aniqlashda ham aks etadi. Davlat ta'lim standartida o'quvchi badiiy asarni to'liq o'qishi ko'nikmasini shakllantirishni alohida qayd etilgan. Bunda o'qituvchilarga o'quvchilar o'qishi uchun tavsiya qilingan mualliflar va asarlar ro'yxati beriladi. O'qituvchi tavsiya qilingan ro'yxatdagi adiblar va asarlarni o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'zi tanlaydi. Bunda o'quv yili davomida o'tilgan asarlar soni muhim rol o'ynamaydi, tanlangan asarlar to'liq o'qiladi va badiiy matn atroflicha tahlil qilinadi.

Adabiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro chamcharchas ekanligini, qolaversa, o'sha fanlarni chuqur bilish lozim. Adabiyot tarix, geografiya, musiqa, biologiya, zoologiya, ruhshunoslik kabi bir nechta fanlar bilan uzviy bog'langan holda muhokama qilinadi. Badiiy asarlarning mazmun mohiyatini anglab yetish uchun ushbu fanlarga murojaat qilinadi. Bunday jarayon esa o'z navbatida integratsiyalab o'rganish usuli deyiladi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etish ko'zda tutiladi. Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil ma'no anlatadi. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishiga imkon berish maqsadida o'quv fanlari orasida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlarga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalar hamda hodisalarni o'quvchilar ongiga mukammal tarzda namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari adabiy ta'limi jarayonini integratsiyalashning quyidagi bosqichlarini ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi (o'zaro bog'liqlik);
- oliy o'quv yurti va maktab tizimi integratsiyasi (o'zaro hamkorlik);
- adabiyot o'qitish metodikasi kafedra va maktab o'quvmetodik birlashmalari integratsiyasi;
- ilmiy-o'quv va amaliy markazlar integratsiyasi (bilim, amaliyot va ko'nikma);
- talabalarni ma'lum yo'nalishlarga individual tayyorlash integratsiyasi;
- mutaxassislar va talabalarining ijodiy jamoasi integratsiyasi bugungi kunda amaliyotda samarali tarzda qo'llanib kelinmoqda.



Integratsiyalab o'rganish Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini o'tishda tarix fani; O'.Hoshimovning «Dunyoningishlari» qissasini o'rganishda ruhshunoslik fani; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini o'rganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o'rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq» hikoyalari, erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o'rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi kabi adabiy asarlarning ichki olamiga kirishda zoologiya fanlaridan olgan bilim va ko'nikmalarga tayanish, ya'ni barcha fanlarni puxta o'rganish orqali adabiyot olamida yaratilgan barcha asarlarni integratsiyalagan holda sinchiklab o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, G'afur G'ulomning "Shum bola" asarini mushohada qilish jarayonida bevosita tarix, geografiya va psixologiya bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bosh qahramon olamining atrofida ro'y berayotgan voqealarni zukko kitobxon anglashi yanada oydinlashadi. Yozuvchi o'sha davrda ro'y berayotgan voqealarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish bilan bir qatorda o'smir yoshdagi bolaning boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, uning ruhiyatidagi holatlarni tasvirlash jarayonida satira va yumorga boy holda aks ettirar ekan uning asl mohiyatini o'quvchining o'zi tahlil va talqin qilishiga imkon beradi. O'smir yoshdagi bolakay ruhiyatidagi holatni hayotiy misollarda aks ettirilishi esa yozuvchi mahoratini ko'rsatadi.

Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida fanlar bilan bog'liqligini inobatga olgan holda o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, asar mohiyatini to'la anglab yetish uchun o'quvchidan barcha fanlarni puxta o'rganishlari yuqori saviyadagi tahlillar jarayonini taqdim etishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunday natijaga erishishda esa bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratlarini to'la namoyon etish uchun turli metodlardan unumli foydalanishlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini yanada samarali bo'lishiga sabab bo'ladi. Chunki, yosh avlodning iste'dodi va iqtidorini to'la namoyon etishda, dastlab pedagogik faoliyatlari jarayonida ular bilan do'stona munosabat o'rnatish orqali ham katta natijalarga erishishga olib keladi. O'quvchilarning kitobga mehr qo'yishlari ham o'qituvchining bilim salohiyatini belgilab beradi. Shunday ekan zamonaviy o'qituvchidan bilim, iste'dod, qobiliyat va tafakkurini o'z ish faoliyatlarida o'quv-tarbiya jarayonlarining insonparvarlashuviga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda yondashishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 20.02.2018-y. 06/18/ 5349/0792-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF – 5812-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari milliy bazasi.

3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi: an'anaviylikdan zamonaviylikka. Toshkent – 2020. 160 bet.

4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T: Yangi asr avlodi. 2010. 157 bet.

5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T. 2018. 351 bet.

6. Mavlonova R. Umumiy pedagogika, T: Fan va texnologiya.- 528 bet.

7. Mavlonova R. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent. 338 bet.

8. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qish metodikasini takomillashtirish. T. 2019. – 112 bet.

9. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. Boshlang‘ich sinf uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 118 bet.
10. National curriculum: Secondary curriculum. Department of Education. Crown Copyright, 2014.
11. <http://dic.academic.ru/>

## **KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI VA VAZIFALARI**

Kalonova Dilbar Elboyevna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 48-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada kichik yoshdagi o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘llari va vazifalari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Nutq, nutq o‘stirish, o‘qituvchi nutqi, aniqlik, adabiy til me‘yorlari, nutq madaniyati.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta‘sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta‘lim olish qurolidir.

Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. Shunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti — nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta‘lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda “tilni sezish“ shakllanadi.

Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya‘ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan til vositalaridan foydalanib, o‘z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi. Buning o‘zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o‘zlashtiradi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me‘yorlarini o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchilarini adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o‘rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so‘zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.



2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish vayozi malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi. Bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq mazmunsiz chiqadi.

Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunni ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinli takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyligi narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqni til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi

zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo'yib bo'lmaydi, ammo o'qituvchi o'quv ishlarida ularning so'z boyligini oshirib borishni har vaqt ko'zda tutishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so'zlardan xoli bo'lishini taqozo etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Maktab o'quvchilari uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos va to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yusupova M. O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – T.: O'qituvchi, 2008. – 67 b
2. Roziqova O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
3. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

### **$G = Sim(1, L)$ GRUPPA UCHUN $G$ -TENGLIK PROBLEMASI**

Termiz muhandislik texnologiya instituti(stajyor)  
Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna

**Annotatsiya:** Maqolada  $Q$  ratsional sonlar maydoni ustida

$$L = Q(\sqrt{3}) = \{a + b\sqrt{3}, a, b \in Q\}$$

shakldagi ikki o'lchovli maydon ta'riflanadi. Bu  $L$  maydon ustida ushbu  $\langle x, y \rangle_1 = x \cdot y$  shakldagi bichizikli forma olinib,  $\{L, \langle x, y \rangle_1\}$  bichizikli metrik fazoning geometriyasi o'rganiladi. Bu fazoda  $\langle x, y \rangle_1$  bichizikli forma yordamida  $G = O(1, L)$ , ortogonal gruppaga ta'riflandi.  $N$  natural sonlar to'plami va  $m \in N$  bo'lsin. Yuqoridagi  $G$  gruppalar uchun  $L$  fazosidagi  $m$  ta nuqtadan iborat bo'lgan tartiblangan to'plamlarning (qisqacha,  $m$ -ketma-ketliklarning)  $G$ -ekvivalentlik problemi yechildi. Yuqoridagi har bir  $G$  gruppaga uchun bu problemalarning yechimini beradigan to'la  $G$ -invariant funksiyalar sistemalari topildi.

**Kalit so'zlar:** maydon, skalyar ko'paytma, ortogonal akslantirish, invariant funksiya, ketma-ketlik, kompozitsiya

**Аннотация:** Статья посвящена области рациональных чисел.

$$L = Q(\sqrt{3}) = \{a + b\sqrt{3}, a, b \in Q\}$$

определено двумерное поле вида. Над этой областью  $L$  принимается билинейная форма этой формы и изучается геометрия билинейного метрического пространства. Ортогональная группа была определена с использованием линейной формы в этом

пространстве. быть набором натуральных чисел и Для указанных групп решена проблема -эквивалентности упорядоченных множеств (сокращенно -последовательностей), состоящих из  $m$  точек пространства. Для каждой из перечисленных групп найдены системы вполне -инвариантных функций, обеспечивающие решение этих задач.

**Ключевые слова:** поле, скалярное умножение, ортогональное отражение, инвариантная функция, последовательность, композиция.

**Abstract:** The article is about the field of rational numbers

$$L = \mathbb{Q}(\sqrt{3}) = \{a + b\sqrt{3}, a, b \in \mathbb{Q}\}$$

a two-dimensional field of the form is defined. A bilinear form of this shape is taken over this area  $L$ , and the geometry of the bilinear metric space is studied. An orthogonal group was defined using a linear form in this space. be the set of natural numbers and For the above groups, the -equivalence problem of ordered sets (in short, -sequences) consisting of  $m$  points in the space has been solved. For each of the above groups, systems of fully -invariant functions that provide solutions to these problems have been found.

**Key words:** area, scalar multiplication, orthogonal reflection, invariant function, sequence, composition

Bu gruppaga ko'ra  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$  va  $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ -ketma-ketliklar  $G$  – ekvivalent bo'lsin, ya'ni shunday  $g \in G, r \in \mathbb{Q}, r > 0, a \in L$ , mavjudki, barcha  $i = 1, \dots, m$  lar uchun  $y_i = grx_i + a$  tenglik o'rinli bo'lsin: shunday  $c \in \mathbb{Q}, c \neq 0, a \in K$  mavjudki, barcha  $i = 1, \dots, m$  lar uchun  $y_i = cx_i + a$  tenglik o'rinli.

**1-tasdiq.**  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$  va  $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ -ketma-ketliklar  $x : y$  bo'lishi uchun,  $u = (x_1 - x_m, \dots, x_{m-1} - x_m)$  va  $v = (y_1 - y_m, \dots, y_{m-1} - y_m)$   $m-1$ -ketma-ketliklar  $u : v$  bo'lishi zarur va yetarli.

**2-tasdiq.**  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$   $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ - ketma-ketliklar va  $u = (x_1 - x_m, \dots, x_{m-1} - x_m)$  va  $v = (y_1 - y_m, \dots, y_{m-1} - y_m)$   $(m-1)$ -ketma-ketliklar berilgan bo'lib,  $D(u) = 0$  bo'lsin.

(1). Agar  $x : y$  bo'lsa, u holda  $D(u) = D(v) = 0$  bo'ladi.

(2). Aksincha, agar  $D(x) = D(y) = 0$  bo'lsa, u holda  $x : y$  bo'ladi. Bu holda  $y = F(x)$  tenglikni beruvchi  $F \in Sim(1, L)$  larning umumiy ko'rinishi quyidagichadir:  $y_i = cx_i + a, \forall c \in L, c \neq 0, \forall i = 1, \dots, m$ , bu yerda  $a = y_m - cx_m$ .

**Isbot:** (1).  $x : y$  bo'lsin. U holda 1-tasdiq ga ko'ra  $u : v$  ekanligi olinadi. Bundan va 1-tasdiqdan  $D(u) = D(v)$  olinadi. Bu tenglikdan va  $D(u) = 0$  tenglikdan  $D(u) = D(v) = 0$  kelib chiqadi.

(2). Aksincha,  $D(x) = D(y) = 0$  bo'lsin. Bu holda  $u$  va  $v$   $(m-1)$ -ketma-ketliklarning barcha elementlar nolga teng bo'ladi. Bundan  $u : v$  kelib chiqadi. Bundan va 1-tasdiqdan  $x : y$  olinadi. Bu holda  $u$  va  $v$  ketma-ketliklar uchun  $u = gv$  tenglikni har qanday  $g \in LSim(1, L)$  qanoatlantiradi. Bundan barcha  $i = 1, \dots, m$  uchun

$y_i - y_m = c(x_i - x_m), \forall c \in L, c \neq 0$  tengliklar olinadi. Bu tengliklardan  $y_i = cx_i + (y_m - cx_m), \forall c \in L, c \neq 0$ , tengliklar olinadi. Ushbu  $y_m - cx_m$  ifodani  $a$  bilan belgilaymiz. U holda yuqoridagi tengliklardan  $y_i = cx_i + a, \forall c \in L, c \neq 0, \forall i = 1, \dots, m$ , tengliklarni olamiz. Tasdiq isbotlandi.

Shunday qilib,  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ ,  $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ - ketma-ketliklar va  $u = (x_1 - x_m, \dots, x_{m-1} - x_m)$  va  $v = (y_1 - y_m, \dots, y_{m-1} - y_m)$   $(m-1)$ -ketma-ketliklar berilgan bo'lib,  $D(u) = 0$  bo'lgan hol tekshirildi.

Endi,  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$   $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ - ketma-ketliklar va  $u = (x_1 - x_m, \dots, x_{m-1} - x_m)$  va  $v = (y_1 - y_m, \dots, y_{m-1} - y_m)$   $(m-1)$ -ketma-ketliklar berilgan bo'lib,  $D(u) \neq 0$  bo'lgan holni tekshiramiz..

**3-tasdiq.**  $G = Sim(1, L)$  gruppasi,  $x = (x_1, x_2, \dots, x_m)$ ,  $y = (y_1, y_2, \dots, y_m)$   $m$ -ketma-ketliklar,  $u = (x_1 - x_m, \dots, x_{m-1} - x_m)$ ,  $v = (y_1 - y_m, \dots, y_{m-1} - y_m)$   $m-1$ -ketma-ketliklar berilgan bo'lib,  $D(u) = k$  bo'lsin, bu yerda  $k \neq 0$ ,  $k \in N_m, k < m$ .

i)  $x \stackrel{Sim(1,L)}{:} y$  bo'lsa, quyidagi tengliklar o'rinli

$$D(u) = D(v), \frac{y_i - y_m}{y_k - y_m} = \frac{x_i - x_m}{x_k - x_m}, i = k + 1, \dots, m - 1. \quad (1)$$

ii) Aksincha, (1) tengliklar bajarilgan bo'lsa,  $x \stackrel{Sim(1,L)}{:} y$  bo'ladi. Bu holda yagona  $a \in L$  va yagona  $c \in Q, c \neq 0$ , mavjudlarki,  $\forall i = 1, \dots, m$ , lar uchun  $y_i = cx_i + a$  tenglik o'rinli. Bu yerda  $c \in Q$  va  $a \in L$  quyidagi ko'rinishda  $c = \frac{y_k - y_m}{x_k - x_m}$ ,  $a = y_m - x_m \frac{y_k - y_m}{x_k - x_m}$  bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Spisok literatury / References

1. А.Г.Курош. Олий алгебра курси. Тошкент, Ўқитувчи 1976. 15б
2. Ональных чисел, Итоги науки и техн. Сер. Современ. Мат. И её прил. Темат. Обз., 2021, том 197,46-55, DOI:https://doi.org/10/36535/0233-6723-2021-197-46
3. Ж.Хожиев, А.С.Файнлеб Алгебра ва сонлар назарияси курси Тошкент, Ўзбекистон 2001, 46б
4. Р.И.Искандаров, Р.Назаров Алгебра ва сонлар назарияси Уқитувчи Тошкент, Ўқитувчи 1977
5. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev, F.H.Naydarov Algebra va sonlar nazariyasi Toshkent, Tafakkur – bo'stoni 2019
6. Sh.A.Ayupov, B.A.Omirov, A.X.Xudoyberdiyev Abstrak algebra, Fan Toshkent, Fan 2022
7. Djavvat Khadjiev, Idris Oren, Omer Peksen, Global invariants of paths and curves for the group of all linear similarities in the two-dimensional Euclidean space, International Journal of Geometric Methods in Modern Physics Vol. 15, No. 6 (2018) 1850092 (28 pages). 23b
8. Дж. Хаджиев, Г.Р. Бешимов, Инварианты последовательностей для группы SO(2, Q) двумерного билинейно-метрического пространства над полем рациональных чисел. Abstracts of the conference of young scientists mathematics, mechanics and intellectual technologies., 21-22 April 2022, Tashkent, pp. 43-44.

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITUVCHILARNING O'ZINI O'ZI KASBIY RIVOJLANTIRISH TRAYEKTORIYALARINI LOYIHALASH TEXNOLOGIYALARI VA UNI QO'LLASH METODIKASI

A.G'.Suyunov  
Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida o'qituvchilarning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalash texnologiyalari va uni qo'llash metodikasi batafsil bayon etilgan. Shuningdek, integrativ ta'lim muhitining dinamik sharoitida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalash texnologiyalaridan namunalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** integrativ yondashuv, integrativ ta'lim muhiti, dinamik sharoit, o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalari, loyihalash texnologiyalari.

Bugungi globallashtirish jarayonida o'qituvchilarning o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish – bu ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlash, shu orqali inson kapitalini oshirish va innovatsion iqtisodiyotning raqobatbardoshligini shakllantirish omili hisoblanadi.

Integrativ yondashuv asosida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish jarayoni maqsadga muvofiq xarakterga ega bo'lib, quyidagi pedagogik talablarga rioya qilgan holda intensiv va muvaffaqiyatli amalga oshiriladi: barcha kasbiy faoliyatni o'qituvchining yangi ehtiyoj va talablarni o'z vaqtida anglash, shunga ko'ra o'z maqsad va ehtiyojlarini belgilash uchun sharoit yaratishga yo'naltirish; o'qituvchilar o'rtasidagi kollaboratsiyani ta'minlash va hamkorlikni takomillashtirish; har bir o'qituvchining turli xil ijtimoiy va akmeologik pozitsiyalarda, har xil tarkib va sharoitda o'z maqsad va kasbiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish istagi hamda tayyorligini shakllantirish; o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayonining individualligini hisobga olgan holda diagnostika va shakllantiruvchi yondashuvlarning birligi.

Integratsiyalashgan ta'lim muhitining dinamik sharoitida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalash texnologiyalarini takomillashtirish maqsadida aniqlashtirilgan “dinamik sharoit” va “tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalash” imkoniyatlarini o'rganish natijalari bizga tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish kompetentligini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni quyidagicha tadqiq etish imkonini berdi.

“Problematic educational” technologies (“Muammoli ta'lim” texnologiyalari).  
Qo'llanilishi: o'qituvchining ishtirokiga ko'ra Individual va jamoaviy ta'limga mo'ljallangan texnologiyalar (“Individual and collective educational technologies”) hisoblanadi. O'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlariga ko'ra “Rasmiy” shaklida qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Maqsadi: tinglovchi-o'qituvchilarning bilish faolligi hamda ijodiy mustaqilligini oshirish.

Mohiyati: tinglovchi-o'qituvchilarga ularda yangi bilimlarni o'zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masalalarni maqsadga muvofiq, ketma-ketlikda berib borish.

Mexanizmi: tadqiqotchilik metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni yechish; muammoni bayon etish – andragog-o'qituvchining tinglovchi-o'qituvchiga qo'yilgan muammoni hal qilishning ilmiy-mantiqiy yechimini namoyish etishi; qisman-izlanish faoliyati – andragog-o'qituvchi tomonidan maxsus savollar berish orqali tinglovchi-o'qituvchida muammoni yechishga qaratilgan mustaqil fikrlar va savollarning javobini topish bo'yicha faol harakatni uyg'otish; tadqiqiy faoliyat – muammoni hal qilish usullari va yo'llarini tinglovchi-

o'qituvchi tomonidan to'liq mustaqil izlanishini tashkil etish. Mazkur jarayonda tinglovchi-o'qituvchilarga muammoli vaziyatlarni bayon etib, uning yechimiga qaratilgan murakkab va mini keyslar taqdim etish tavsiya etiladi.

Bunda murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi: pedagogik annotatsiya; kirish; keys (muammo)ning bayoni; keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar; foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati; metodik ko'rsatmalar; keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish); keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish; keys yechimini tahlil qilish; o'qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir: keys (muammo)ning bayoni; keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar; foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati; metodik ko'rsatmalar; keysni yechish jarayoni; keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish; keys yechimini tahlil qilish; o'qituvchi (keysolog)ning yechimi.

“Smart-education” texnologiyalari – bu interaktiv ta'lim texnologiyalari hisoblanib, tarix o'qituvchilarining nosarmiy ta'lim sharoitida kichik guruhlarda va jamoaviy shaklda amalga oshirishga mo'ljallangan harakatlar majmuini ko'zda tutadi. Bu turdagi texnologiyalarga “Project educational technologies” (“Loyihaviy ta'lim” texnologiyalari), “Ubiquitous-learning” texnologiyasi (“Valpi ta'lim” texnologiyasi)ni misol qilib ko'rsatish mumkin.

“Project educational technologies” (“Loyihaviy ta'lim” texnologiyalari).

Qo'llanilishi: o'qituvchining ishtirokiga ko'ra Individual va jamoaviy ta'limga mo'ljallangan texnologiyalar (“Individual and collective educational technologies”) hisoblanadi. O'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlariga ko'ra “Norasmiy” shaklida qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Maqsadi: o'qituvchi nazoratida yangi mahsulot va xizmatlar yaratish jarayonida ta'lim oluvchining intellektual va jismoniy imkoniyatlarini, mustaqillik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'li orqali shaxsning o'z qobiliyatlaridan to'liq foydalanishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning amaliy ahamiyat kasb etuvchi, subyektiv va obyektiv yangiliklarga ega moslashuvchan modeli va o'qitish tizimini yaratish [4].

Mohiyati: yangi mahsulot yaratishga yo'naltirilgan tadqiqiy-ijodiy faoliyatni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Mexanizmi: loyihani yaratish jarayoni – ehtimol qilingan yoki yaratilishi lozim bo'lgan obyekt namunasi, holati: 1) Loyiha mavzusini tanlash. 2) Loyiha turini tanlash. 3) Qatnashchilar sonini aniqlash. 4) Belgilangan mavzu doirasida muammo variantlarini o'ylash va belgilash. 5) Guruh bo'yicha vazifalarni taqsimlash, tadqiqot usullarini muhokama qilish, ma'lumotlarni izlash, ijodiy qarorlar qabul qilish. 6) Loyiha ishtirokchilarini o'zlarining shaxsiy yoki guruhiy tadqiqot va ijodiy vazifalari bo'yicha mustaqil ishlashi. 7) Olingan ma'lumotlarni guruhda oraliq muhokamasi (mashg'ulotda, ilmiy to'garaklarda, axborot resurs markazlarida guruhiy ishlash davomida va b.). 8) Loyiha himoyasi va tanqidiy muhokama. 9. Yakunlash, tashqi baholash, olingan xulosalar va natijalarning kelajkdagi o'rnini belgilash, rivojlanishini oldindan baholash.

“Professional development planning” (“Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish”) texnologiyasi. Qo'llanilishi: o'qituvchining ishtirokiga ko'ra Individual ta'limga mo'ljallangan texnologiyalar (“Individual educational technologies”) hisoblanadi. O'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning pedagogik shart-sharoitlariga ko'ra “Informal” shaklida qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Integratsiyalashgan ta'lim muhitining dinamik sharoitida tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish trayektoriyalarini loyihalashda o'qituvchining o'zi tomonidan kasbiy rivojlanishni rejalashtirishi ko'zlangan natijaga erishish imkonini beradi. Shunga ko'ra biz tadqiqotimiz muammosi mohiyatini yoritish maqsadida “Professional development planning” (“Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish”) texnologiyasini ishlab chiqdik. Tarix o'qituvchilarining individual kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va rejalashtirish tajribasini tizimlashtirishga yo'naltirilgan mavjud tajribalardan kelib chiqib, o'qituvchilarning “Individual kasbiy rivojlanish

dasturi”ning mazmun-mohiyatini aniqlashtirdik. Mazkur jarayon o‘qituvchining mustaqil ta’limi jarayonida kechadigan jarayon hisoblanadi.

Har qanday o‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga hatto juda kuchli intilishi bo‘lsa ham, o‘zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarsiz belgilay olmaydi. Bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining o‘z ustida ishlashga tayyorgarligi, o‘z-o‘zini tahlil qila olishi, o‘z-o‘zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog‘liq. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida shaxsning o‘zini o‘zi anglash muammosi mehnat samaradorligi mezonlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. An’anaviy mezonlardan (tezlik, aniqlik, samaradorlik) tashqari, uning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda shaxsning shaxsiy salohiyatining ishtirok etish darajasini aks ettiruvchi ichki, psixologik mezonlarni ham hisobga olish muhimdir. Shaxsning o‘zini anglash mazmuni faoliyat va vaziyatga subyektiv munosabat orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini takomillashtirish motivlarini belgilaydi. Shuning uchun, o‘z-o‘zini rivojlantirish sifatida o‘zini anglash – bu inson sifatida o‘zini to‘liq ochib berishga qaratilgan ongli inson faoliyati hisoblanadi.

O‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishi taraqqiyotning ijtimoiy ahvolidan o‘zgarishi, yetakchi faoliyat tarkibining o‘zgarishi, kasbiy xatti-harakatlarning rivojlanishi yoki o‘zlashtirilishi demakdir. Bu bosqichlardagi yetakchi faoliyat sifatli o‘zgarishlarga uchraydi: motivatsiya, rejalashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish usullari va boshqalar qayta tiklanadi, bu kasbiy rivojlanishning ko‘plab muqobil trayektoriyalarini keltirib chiqaradi. Bu esa tarix o‘qituvchilarining davlat va jamiyat ehtiyojlari va zamonaviy talablar, o‘zi faoliyat olib borayotgan ta’lim muassasasining rivojlanish dasturi, o‘z kasbiy ehtiyojlari asosida o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishi uchun individual ta’lim muhitini yaratish ehtiyojini belgilaydi.

Individual ta’lim muhiti – bu shaxs uchun o‘zining davom etayotgan ta’lim tajribasining raqamli artefaktlariga kirish, jamlash, sozlash va manipulyatsiya qilish uchun vositadir. Bunda o‘qituvchining kasbiy faoliyatini o‘zini o‘zi rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlarini amalga oshirish maktabda samarali pedagogik ishlarni qurish bo‘yicha faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va mazmuni yoritilgan dastur sifatida taqdim etilishi mumkin. Bunday dasturning asosiy maqsadi nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirishga, balki uning shaxsiy va kasbiy o‘shining yuqori darajasiga olib keladigan o‘qituvchining harakatlari tizimini yaratish bo‘lishi mumkin.

Ko‘rinadiki, tarix o‘qituvchilarining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishini tashkil etishida individual ta’lim trayektoriyasi muhim hisoblanadi. Tahlillar va amaliy tajribalar individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini – o‘qituvchining o‘zini ta’lim olish, rivojlanish subyekt sifatida tushunishi, shaxsiy-kasbiy qadriyatlarini anglashi, kognitiv imkoniyatlarini kengaytirish asosida salohiyatini qo‘llay olishi, kasbiy takomillashuvi, o‘zini namoyon qilishiga doir belgilagan va refleksiv tajribalariga tayangan o‘ziga xos alohida harakat yo‘li tarzida talqin etishga imkon berdi [3].


“Individual kasbiy rivojlanish” dasturi o‘qituvchilarga professional yordam ko‘rsatadi, o‘qituvchi shaxsining o‘zini o‘zi anglashi, uning pedagogik uslubi, o‘z-o‘zini rivojlantirish mazmuni, yo‘nalishlari, shakllarini tanlash, muallifning metodik tizimini yaratishdan oldingi pedagogik mahorat darajasidan professional o‘sh uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi. Individual kasbiy rivojlanish dasturi – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur. Ushbu farazni maqsad sifatida ko‘rib chiqsak, mazkur dastur quyidagi vazifalarning bajarilishini ko‘zda tutishi lozim: o‘qituvchining barqaror motivatsion sohasini shakllantirish; individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish; pedagogik muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish; o‘qituvchining mustaqil malakasini oshirish (o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirish).

Dastur o‘qituvchi kasbiy o‘shining bosqichma-bosqich tamoyiliga asoslanadi. Bunda o‘qituvchi ketma-ket qadamlardan o‘tib, yakuniy maqsad va natijaga erisha oladi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishini quyidagicha ifodalash mumkin: pedagogik faoliyatning

individual uslubining mavjudligi; mualliflik dasturi, metodikasi, texnologiyasini ishlab chiqish; o'qituvchining uslubiy, psixologik, ilmiy-pedagogik, texnologik madaniyati; muallifning pedagogik, diagnostik, o'quv, metodik tizimi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tarix o'qituvchilarining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish jarayoni o'z ehtiyojlari va ta'limiy maqsadlariga ko'ra "Individual kasbiy rivojlanish" dasturini tuzish orqali amalga oshiriladi.

"Professional development planning" ("Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish") texnologiyasi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish uchun asosiy to'siq va imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: maqsadlar tizimini aniqlashtirish; belgilangan maqsadga erishish bosqichlari va ustuvorliklarini belgilash; belgilangan maqsadga erishishning optimal usul va intensiv yo'llarini aniqlash; vazifalarni hal qilish uchun amaliy harakatlar tizimini shakllantirish. Mazkur texnologiya o'zini o'zi rivojlantirishning mohiyatini, uning mexanizmlari va protsessual asoslarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning barcha bosqichlarida – motivatsiyadan tortib o'z rivojlanishini aks ettirishgacha bo'lgan jarayonni tashkil etadi.

Mazkur jarayonni amalga oshirishda manfaatdor tashkilotlar (hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, belgilangan "Tayanch maktab", "Mahorat maktabi", "Tajriba maktab"lari, o'qituvchi faoliyat olib borayotgan maktab) va tegishli mutaxassislar (andragog-o'qituvchilar) tomonidan maslahat va amaliy-metodik yordam ko'rsatish, o'qituvchining o'zini o'zi kasbiy rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-metodik hamrohlik qilish samarali hisoblanadi. Integral ta'lim muhitida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishini qo'llab-quvvatlashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: "Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish" texnologiyasiga asoslangan o'zini o'zi rivojlantirishning individual trayektoriyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda amaliy-metodik yordam ko'rsatish; o'qituvchiga o'z rivojlanish jarayonini diagnostika qilish va uning natijalarini tahlil qilishda yordam berish.



**1-rasm. "Professional development planning" ("Kasbiy rivojlanishni rejalashtirish") texnologiyasining sxemasi**

Yuqoridagi o'zaro bog'liqlikda va ketma-ketlikda amalga oshirilgan texnologiya asosida egallangan yangi bilim va tajribadan pedagogik faoliyatda samarali foydalanish



(translyatsiya) bilan natijalanadi. Bundan ko‘zlangan natijani monitoring qilish va baholash yangi rivojlanish yo‘nalishini tanlash imkonini kengaytiradi. Bu muhitda anglash, o‘qish, tafakkur qilish, yangi g‘oyalar, kreativlik, tashabbuskorlik pozitsiyalarini uyg‘otish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Innazarov M.A. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan. bo‘y. fals. dokt. diss. ... (PhD). –T.: 2020. – 45 b.
2. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik (o‘quv-uslubiy majmua) / Tuzuvchi-mualliflar: N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, M.Mirsoliyeva. – T.: 2016. – 147 b.
3. Ibragimov A.A. Xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish: ped. fan. dokt. diss. ... (DSc). –S.: 2022. –243 b.
4. Shodiyeva M.J. Andragogik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fanl. dokt. ... diss. (DSc). – T.: 2022. – 248 b.

### **TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI**

Azamat Sanayev  
Qashqadaryo VPyamo‘MM  
“Amaliy va ijtimoiy fanlarni  
o‘qitish metodikasi“ kafedrasini  
texnologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, umumta‘lim maktablari ta‘lim jarayonini samaradorligini yanada takomillashtirishda yosh barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalashda zamonaviy o‘qitish usuli hisoblangan interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu maqola materiallaridan o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so‘zlar:** axborot kommunikatsiya texnologiyalari, internet, intellektual, texnik, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya.

Bugungi kunda zamonaviy ta‘lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta‘lim tizimini takomillashtirishga, ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta‘lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo‘ymoqda. Shuning uchun milliy istiqloq g‘oyasiga sodiq, yuksak intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi pedagogik ta‘limni axborotlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta‘lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta‘lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni o‘zaro faolligini oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma‘ruzalar soni kamligi, lekin amaliy mashg‘ular soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruhlar ishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa

metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ta‘limda turli xil innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilishni talab qiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qituvchilarni yanada izlanishga o‘z ustida ishlashlariga sabab bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogic jaraon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik va o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosiy interfaol usullardan to‘liq foydalaniladi. Interfaol metodlar dars jarayonida o‘quvchiga pedagogik ta‘sir etish usuli bo‘lib, ta‘lim mazmunining o‘ziga xosligi shundaki, pedagogik-texnologik jarayon o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta‘limiy hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Ta‘lim samarali bo‘lishi hamda darsda oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun eng avvalo o‘qituvchilar dars jarayonida yangi pedagogic texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalana olishlaridadir. Pedagogik texnologiya nafaqat o‘qitishning texnik vositalari, balki, ta‘lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan barcha usul va metodlar yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta‘sir ko‘rsatish mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir. Ta‘lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘qituvchi ta‘lim oluvchi shaxsning rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Umumta‘lim maktablari ta‘lim jarayonini samaradorligini yanada takomillashtirishda yosh barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalashda zamonaviy o‘qitish usuli hisoblangan interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim tajriba va interfaol usullar yosh bilimga chanqoq o‘quvchilarni yetuk malakaga ega mutaxassislar bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etilishi, mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni o‘zaro faolligini oshirish orqali, ularning bilimlarni o‘zlashtirilishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda Xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi “Xalq ta‘limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-214-son Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
5. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: Toshkent shahar XTXQTMOHM, 2023.-260 b.

#### **Elektron ta‘lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)

### **VOYAGA YETMAGAN O‘QUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA SUISTID HOLATLARINI OLDINI OLISH**

Nazarova Muxabbat Juraboyevna  
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani 23-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya.** Maqolada o‘z joniga qasd qilish holatlarining sabablari, o‘smirlar va o‘spirinlarning bunday holatlarga yo‘l qo‘yishlari haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Shu bilan birga voyaga yetmagan o‘quvchi yoshlar o‘rtasida suistid holatlarini oldini olish borasida amalga oshiriladigan ishlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** O‘z joniga qasd qilish, voyaga yetmagan yoshlar, ta‘sir jarayonlari, sabablar, psixolog, ota-ona, ruhiy o‘zgarishlar.

So'nggi vaqtlarda nafaqat xorijiy o'lkalarda, balki O'zbekistonda ham o'zini osib qo'ygani, yoqub yuborgani xususida xabarlar elas-elas qulog'imizga chalinmoqda. Xususan, Xorazm viloyatida, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysida shunday holatlar ko'payib bormoqda. O'z joniga qasd qilganlarning ayrimlari tirik qolgan bo'lsa, boshqalari Alloh bergan ulug' ne'matlardan biri tiriklikdan o'z qo'llari bilan mahrum bo'lishdi.

O'zbekiston Musulmonlari idorasi Masjidlarda bo'limi xodimi Ishoqjon Begmatov tomonidan yozilgan maqolasida jamiyatdagi o'z joniga qasd qilishdek muammoning bir qancha sabablari va ularning yechimiga doir fikrlar keltirilgan.

Suitsid holatlari sabablariga quyidagilar keltirilgan:

- dinsizlik;
- ma'rifatsizlik;
- to'qchilik;
- yo'qchilik;
- shahvoniy, nafsoniy sevgi;
- o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish;
- o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do'zaxdagi azob-uqubatlardan bexabarlik;
- ruhiy xastalik.

O'z joniga qasd qilish 15 dan 29 gacha bo'lgan yoshlar orasidagi o'limga sabab bo'luvchi ikkinchi yirik omildir. Lekin shunga qaramay, jamiyatlarda bu mavzu deb hisoblanadi, ya'ni ochiq-oshkor gapirilmaydi. Hozirda mutaxassilar virtual dunyo orqali ro'y berayotgan tahdid-haqoratlar va ijtimoiy tarmoqlar vositasida tarqayotgan g'oyalar muammoni chuqurlashtirib yuborganligini aytib, hukumatlarni bunga e'tibor qaratishga da'vat qilmoqdalar.

**Suitsid** – qasddan o'limga olib keluvchi shikast etkazish (o'z joniga qasd qilish). Bunday psixologik holatning paydo bo'lishi, ko'pincha, insonning jazavaga tushish, emotsional tuyg'ularning yo'qolishi, irodasizlik kabilarni o'z ichiga oladi.



#### **Suitsidal xulq-atvorning sabablari:**

Suitsidning sabablari juda murakkab va ko'pchilikni tashkil qiladi. Buning sabablari insonning biologik, genetik, psixologik va ijtimoiy tomonlaridan izlash mumkin. O'smirlar bunga qaramasdan ekstremal vaziyatlarda – jamoat oldida kamsitish, o'qishdagi muammolar, sotqinliklar natijasida– suitsidga qo'l uradilar. Ko'pchilik ekspertlarning taxminicha, bu suitsid uchun sababdan ko'ra bahona bo'ladi.

**Suitsidda umumiy qo'zg'atuvchi sabab chidab bo'lmaydigan psixologik (qalban) og'riqlar hisoblanadi.**

Bu og'riq, qiynalish, azoblanish, qalban aziyat chekishda ko'rinadi. Chidab bo'lmaydigan qalban og'riqlar o'sha narsadan qochish, qutulish hisoblanadi. Hech kim xursandchilikdan suitsidga qo'l urmaydi.

#### **Suitsid oldi davri quyidagicha ta'riflanadi:**

Odamda avval ahamiyatsiz fikrlar tug'iladi, hayot qadrini o'ylamaydi, "yashash kerak emas, hayotdan charchadim", "bularning hammasi qachon tugaydi?" "hammasi jonga tegdi" va shunga o'xshash fikrlarni o'ziga shior qilib oladi. Ular o'lim haqida aniq tasavvurga ega emas, lekin yashashni inkor qiladi. Bunday suitsidal usul u yoki bu vaziyatlarda hamma odamlarda uchrab turadi.

#### **Suitsid oldi davri quyidagicha ta'riflanadi:**

- Agar jarayon davom etsa, keyingi bosqichlarda passiv suitsidal fikrlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish mavzusidagi fantaziyalar bilan tavsiflanadi. *Masalan:* "uyquga yotsang-u, hech qachon uyg'onmasang", "bironta qo'rqinchli kasal bilan kasallansang" va shunga o'xshash insonning suitsidga ichki tayyorligi aks etadi.

- Uchinchi suitsid oldi bosqichida o'lish istagi tan olinadi. Bu davr uchun rejalangan suitsid xosdir. Bu vaqtda suitsid rejasi ishlab chiqiladi, usullari o'ylab topiladi, vaqt va joy tanlanadi.

- Suitsidal harakatlar, fikrlar, tayyorlik, tahdidlar va boshqa davrlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish qarori qabul qilingan davr – suitsidal davr deb nomlanadi.



Suitsidning 800ga yaqin ko'rinishlari mavjud: вжуд. Ulardan: Улардан

- - 41% - noaniq etiologiyaga ega;
- - 19% - jazodan qo'rqish;
- - 18% – ruhiy kasalliklar;
- - 18% - oilaviy muammolar;
- - 6% - hissiyotlar;
- - 3% - moliyaviy yo'qotishlar;
- - 1,4% - hayotiy to'yinish;
- - 1,2% - turli kasalliklar.

**Suisidal xulq-atvor**-bu suisidal faollikning - o'y – hayollar, niyatlar, mulohazalar, tahdidlar, urinishlar, o'zini o'ldirishga harakat qilish kabilarning yuzaga chiqishidir.



**Suisidal xulq-atvor, odatda uch guruhga bo'linadi:**

- Haqiqiy suitsid;
- Namoyishkorona suitsid;
- Yashirin suitsid.

Voyaga yetmaganlar bilan to'g'ridan-to'g'ri oshkora jamoat oldida suitsidal hodisalar haqida munozara qilish mumkin emas. Ko'p hollarda, bunday tadbirlarning ahamiyati

katta (ota-onalar majlisi, sinf soatlari) – o'smirlardan birining hayoti, shuningdek, o'smirlar o'rtasida taqlid qilish, yuqtirish, norozilik mexanizmi bo'yicha takrorlanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, suistid holatlarini oldini olish uchun nafaqat psixolog, balki ota-onalar ham o'z farzandlari bilan doimiy ishlab borishlari lozim. Farzandlaridagi ruhiy o'zgarishlarni sezib, ular bilan suhbatlashish, ularni tinglash lozim. O'z vaqtida ularga malham bo'lish, yordam qo'lini cho'zish lozim. Samimiyluk va haqoratsiz nasihatlar juda muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shamshetova A. Ta'lim muassasalarida suistidning psixoprofilaktik chora-tadbirlarini tashkil etish. O'quv-qo'llanma. T. 2015.
2. Xalilova Sh. Ijtimoiy psixologiya. T.Fan. 2013.
3. Xalilova Sh. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash metodikasi. T. Ma'naviyat, 2015.

#### OROL DENGIZINING KECHAGI VA HOZIRGI HOLATI HAQIDA AYRIM FIKRLAR

Qarshi tumani 35-maktab  
Geografiya fani o'qitvchisi,  
Rasulova Navbahor Normahmatovna

**Annotatsiya:** Keyingi yillarda O'zbekistonda va butun dunyoda dolzarb muommoga aylanib kelayotgan Orol muommosi Global ekologik muommolar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda. Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

**Kalit so'zlar:** Orol, atmosfera, inson, iqlim, komponentlar.

**Abstract:** The island problem, which has become an urgent problem in Uzbekistan and the whole world in recent years, is one of the global environmental problems. Today, significant changes in the environment are taking place on our planet as a result of the negative impact of human activity. In particular, climate changes and various natural disasters are felt in all latitudes of the planet. As a result, the areas covered by forests are shrinking, the atmosphere, water and lithosphere are being polluted. Changes in the state of the natural environment due to human influence, strong anthropogenic impact on living and non-living components cause local, regional and global environmental problems.

**Key words:** Island, atmosphere, human, climate, components.

**Orol dengizi** – O'rta Osiyodagi eng katta berk ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbga cho'zilgan, uz. 428 km, eng keng joyi 235 km (45° shahrik.) bo'lgan. Havzasining maydoni 690 ming km<sup>2</sup>, suvining hajmi 1000 km<sup>3</sup>, o'rtacha chuq. 16,5 m atrofida o'zgarib turgan. Havzasining kattaligi uchun dengiz deb atalgan. Orol dengizi yuqori plitsenda Yer po'stining egilgan yeridagi botiqda hosil bo'lgan. Tubining relyefi (g'arbiy qismini hisobga olmaganda) tekis. Orol dengizida juda ko'p yarim orol va qo'ltiqlar bo'lgan. Shimol qirg'oklarida eng katta qo'ltiqlaridan Chernishev, Paskevich, Sarichig'anoq, Perovskiy, janubi-sharqiy va sharqiy qirg'oqlarida Tushbas, Ashshibas, Oqsag'a, Suluv va boshqa, Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladigan joylarida Ajiboy,

Tolliq, Jiltirbas qo'ltiklari, Qulonli va Mo'ynoq yirik yarim orollari bo'lgan. Orol dengizida qadimdan suv sathi goh ko'tarilib, goh pasayib turgani ma'lum. Keyingi geologik davrda Sariqamish va O'zbo'y orqali Orol dengizi suvi vaqt-vaqti bilan Kaspiyga quyilgan, suv sathi ancha baland bo'lib, jan.vajan.-sharqidagi bir necha ming km<sup>2</sup> maydonli sohil suv ostida bo'lgan. Orol dengizi unchalik chuqur emas. Chuqur joylari Orol dengizining g'arbiy qismida. Qoraqalpog'istonning shimoliy qismi Ustyurt tegisligi yonida chuqurligi 69 m gacha yetgan. Ko'lining sayoz joylari uning janubiy, janubi-sharqiy va sharqiy qismlariga to'g'ri kelgan.

Orol dengizi qirg'oklarining morfologik tuzilishi juda murakkab. Ular bir-biridan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Shimoliy qirg'og'i baland, ayrim yerlari past, chuqur qo'ltiqlar bor. Sharqiy qirg'og'i past; qumli, juda ko'p mayda qo'ltiq va orollar bo'lgan. Janubiy qirg'og'i Amudaryo deltasidan hosil bo'lgan.

G'arbiy qirg'og'i kam qirqilgan va Ustyurt chinkidan iborat. Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo'lgan. Ularning 80% dengizning janubi-sharqiy qismida. Eng kattalari Ko'korol (273 km<sup>2</sup>), Vozrojdeniye (216 km<sup>2</sup>) va Borsakelmas (133 km<sup>2</sup>) edi. Dengizga Amudaryo bilan Sirdaryo quyiladi. 60-yillargacha yiliga Amudaryo Orol dengizi ga 38,6 km<sup>3</sup>, Sirdaryo esa 14,5 km<sup>3</sup> suv olib borgan. Suv balansida yog'inlar ham muhim o'rin egallagan. Dengiz akvatoriyasiga yiliga 82–176 mm yog'in yog'adi. Atrofdan dengizga yiliga 5,5 km<sup>3</sup> yer osti suvlari qo'shib turgan. Mutlaq dengiz sathi 2000-yillarning boshlarida 22-yillarning oxiridagi darajadan 1950 m pastroqda 31 m gacha pasayib ketdi. 2001-yilda Buyuk Orol dengizi (Janubiy) G'arbiy va Sharqqa bo'lingan. 2001-yilda. 2003-yilda dastlabki maydonning to'rtidan bir qismi Orol dengizi va 10% ga yaqinini dengiz suvi qoplagan. Bugungi kunda eski chuqur dengiz o'rniga umumiy maydoni 38000 km<sup>2</sup> bo'lgan yangi qum va tuzli cho'llar mavjud.

Dengiz cho'l zonasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'lanadi. Bu esa keyingi davrda dengizga daryolar olib kelgan suv, yog'in va yerosti suvlaridan ortiqdir. Shuning uchun iqlimiy o'zgarishlar natijasida Orol dengizi suvining sathi yillar davomida o'zgarib turgan. Mas, 1785-yildan dengizda suv sathi ko'tarila boshlagan bo'lsa, 1825-yildan pasaygan, 1835—50 yillarda yana ko'tarilgan, 1862-yil kamaygan. Ko'korol 1880-yilda yarim orolga aylanib qolgan. 1881-yil suv sathi pasaygan. 1885-yildan Orol dengizida suv sathi yana ko'tarila boshlagan. 1899-yilga kelib Ko'korol yarim orol orol bo'lib qolgan. 1919-yil dengiz maydoni 67300 km<sup>2</sup>, suv miqdori 1087 km<sup>3</sup> bo'lgan bo'lsa, 1935-yilga kelib maydoni 69670 km<sup>2</sup>, suvning miqdori 1153 km<sup>3</sup> ga ko'paydi. Keyingi bir yarim asr mobaynida dengiz suvi sathi ancha o'zgaragan.

Orol dengizida suv sathining yil davomida o'zgarib turishi Amudaryo va Sirdaryoning bahor-yoz paytlarida toshishi bilan bog'liq. Bahorgi yomg'irdan ham dengiz sathi ko'tariladi. Suvi sathining yil davomida o'zgarish amplitudasi urtacha 25 sm ga teng bo'lgan. Suvining sho'rliigi o'rtacha 10—11‰". Suvdagi tuzlarning ko'p qismini osh tuzi va sulfatli magniy tuzi tashkil etgan. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, suvi Kaspiy dengizi suviga o'xshash. Orol dengizi suvining tarkibidagi tuz 11 mlrd. t ga yaqin deb baholangan. Bu tuzlar sanoat ahamiyatiga ega. Dengiz suvi, ayniqsa, markaziy qismida juda tiniq. Suvi, xususan, qishda tiniq bo'ladi. Yoz oylarida ham 24 m chuqurlikkacha dengizning tubi ko'rinadi. Suvining rangi ko'pgina qismida ko'k, qirg'oklariga yaqini ko'kimtir tusda. Amudaryo bilan Sirdaryoning quyilish joyida suvi loyqa. Dengiz dekabr o'rtalaridan mart oxirigacha muzlaydi. Yozda suvning yuqori qismidagi temperaturasi 27° ga yetadi. Chuqurlik ortishi bilan temperatura tez pasayadi. Yozda 1 m chuqurlikda temperatura 8°ga o'zgaradi. Dengiz ustida havoning urtacha temperaturasi yozda 24—26°, qishda —7°, —13,5°. Orol dengizi sazan, cho'rtan, so'v'yan, sudak, oqchavoq, laqqa, taran (leshch), pilmay Orol dengizining kosmosdan olingan surati (2002-yil).

Dengizda navigatsiya mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo'ynoq kabi yirik portlari faoliyat ko'rsatgan. Orol dengizi atrofida aholi kam bo'lgan. Aholi, aso-san, baliqchilik bilan va, qisman, chor-vachilik, ondatra urchitish va sabzavot-polizchilik bilan shug'ullangan. O'tgan asrning 90-yillarigacha dengizdan baliqovlangan. Aralsk va Mo'ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko'p sonli baliq ovlash xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan, Amudaryo deltasida,




Avan posyolkasida (Ko'korol o.), Bugun po-syolkasida (sharqiy sohil), Uyali va Uzunqir orollarida baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan.

Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848—49 yillarda tadqiq etgan va xaritaga tushirgan.

Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'likligidan, bu ikki daryo suvi sug'orishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildanyilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi.

Orol dengizida suv sathi pasayishining uning suv yuzasi va suv sig'imiga ta'siri Orol dengizi da suv sathining pasayishi suv balansi elementlarining qiymatlariga ham keskin ta'sir ko'rsatdi: 1911—1960-yillarda dengiz sathi o'rtacha 53,04 m ni tashkil etib (Boltik, sistemasida), daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km<sup>3</sup>, dengiz yuzasiga yog'gan atmosfera yog'inlari miqdori esa 9,1 km<sup>3</sup> ga teng bo'lgan. Sarflanish, ya'ni chiqim esa, asosan, bug'lanishdan iborat bo'lib, shu davrda o'rtacha 66,1 km<sup>3</sup> ni tashkil etgan. Shu davr ichida suv balansida salbiy farq qayd etilgan: dengiz har yili 1 km<sup>3</sup> dan, 1911—1960-yillar davomida 50 km<sup>3</sup> hajmdagi suvni yo'qotgan.

Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo'lakka bo'lingan: birinchisi – kichik va sayoz shimoliy qismi (sho'rliqi – 8—13g/l); ikkinchisi – nisbatan kattaroq maydonga ega bo'lgan va sayoz sharqiy qismi (sho'rliqi – 69— 72 g/l); uchinchisi – eng chuqur hisoblangan g'arbiy qismi (sho'rliqi – 68-69 g/l). Rossiya konferensiyasi Orol dengizi qurishi sekinlashganini xulosa qilib uni shu holatda saqlashga chaqirdi.



Orol dengizining bugungi holati (oktabr 2008)

**Orol dengizi** (qoz. *Aral Teñizi*, *Aral Tengizi*, qor. *Aral ten'izi*) O'rtasiyoda joylashgan yopiq suv havzasidir. Shimoldan Qozog'iston, janubdan Qoraqalpog'iston (O'zbekiston) yerlari bilan o'ralgan.

1960-yillargacha maydoni 68,000 km<sup>2</sup> bo'lib, dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi ko'l bo'lgan. Biroq, uni ta'minlovchi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining ko'p miqdorda irrigatsiyaga sarflanishi uning hajmini keskin kamaytira boshladi. 2007-yilga kelib, Orol dengizi maydoni 50 yil avvalgiga nisbatan 90 % qismini yo'qotib, uchta alohida ko'lga aylandi.<sup>[1]</sup> Sho'rlik oshishi Orol dengizi va atrofidagi nabotot va hayvonot qirilishiga sabab bo'ldi. Mahalliy iqlim o'zgardi; yoz issiqroq, qish esa quruq va sovuqroq bo'la boshladi. 2010-yil ma'lumotlariga ko'ra Orol dengizi maydoni 13,900 km<sup>2</sup> dir.

Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblanib, unda baliqchilik, ovchilik, transport va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga quyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, er osti suvlari hamda atmosfera yonilg'ilari tushishi va yuzadan suvning bug'lanishi tashkil etadi. qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 – 2,10 o'zgarishi tabiiy iqlim hususiyati bilan bo'liq bo'lib, suvning hajmi 100—150 kub km, suv sathi maydoni – 4000 kv, km ni tashkil etgan. Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida su'orilishga foydalaniladigan qaytmas suvlar va quruqchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga quyiladigan suv miqdori kamaydi. Orol dengizining qurishining asosiy sababi bu xo'jalik ehtiyojlariga ishlatilishi ya'ni paxta, bug'doy sug'orilishiga Amudaryo va Sirdaryodan foydalanganliklari uchun Orol dengiziga suv kam yetib kela boshlagan. Shu tufayli Orol dengizi sekin-asta quriy boshlagan. Bir paytlar dengiz va unga tutash daryolar, yaylovlar odamlarga rizq ulashgan, ish, daromad manbai bo'lgan. Lekin tabiat qonunlariga aralashish, Amudaryo va Sirdaryo suvini to'sish dunyodagi og'ir ekologik halokatlardan birini yuzaga keltirdi. Mintaqamizda cho'llanish va sho'rlanish darajasi keskin ortdi. O'simlik va yovvoyi hayvonlar turi kamayib ketdi.

Global isish muammosi kuchayib, yog'ingarchilik kamayayotgan bugungi asrimizda Orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz bo'lib bormoqda. Bunday sharoitda yagona yo'l - borini asrab qolish, fojia ta'sirini kamaytirish, odamlar hayotini osonlashtirish.

Hozirgi kunda Orol dengizining qurishi mamlakatimiz aholisi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ammo bu muammolarni bartaraf qilish uchun Prezidentimiz bir qator ishlarni amalni oshirishda boshchilik qilmoqda. Xususan, shaxsan o'zlari Orol dengizining qurigan joyiga borib, vaziyatni ko'rgani fikrimizning dalilidir.

Davlatimiz rahbari bu bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi sessiyalarida gapirdi, xalqaro sammitlarda muhim takliflarni ilgari surdi. Shu bilan birga, o'z imkoniyatlarimizga tayanib, amaliy ishlar ham olib borilmoqda», deyiladi prezident matbuot xizmati xabarida.

Xususan, Orol dengizining qurigan tubidan millionlab tonna chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, katta hududga tarqalar edi. Shavkat Mirziyoyev 2018-yili Mo'ynoqqa tashrifi chog'ida olimlar bilan maslahatlashib, u yerda sho'rga chidamli o'simliklar ekish vazifasini belgilagan edi.

O'tgan yillarda dengizning suv qurigan qismida 1 million 524 ming gektar to'qayzor barpo etilgan. Buning uchun saksovul, qorabo'roq, qandim, cherkez kabi cho'l o'simliklaridan qariyb 6 ming tonna urug' tayyorlanib, qiyin sharoitlarda ekilgan. Bu ishlarda 4 mingdan ziyod ishchi qatnashib, 1 ming 600 dona texnika, samolyotlar jalb etilgan.

Bu xayrli, dolzarb harakat davom ettirilmoqda. Joriy yilda 100 ming gektar maydonda «yashil qoplama» barpo qilish rejalashtirilgan. Bugungi kunda shundan 26 ming gektarida ish boshlangan, 562 tonna urug'lar tayyorlangan. Shuningdek, 100 gektar maydonda ko'chatxona tashkil qilinmoqda.

Prezident bu yerda ekologlar va o'rmon xo'jaligi mutaxassislari bilan suhbatlashdi.

«Biz shu murakkab sharoitda ekish bo'yicha katta tajriba orttirdik. Bu yerga o'zim kelishimdan maqsad - endi bu ishlarni ilmiy asoslangan tarzda davom ettiramiz», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ilmiy izlanishlar qilib, hudud tuprog'iga mos navlar yaratish, keyingi bosqichda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Orolbo'yining flora va faunasini yaxshilash bo'yicha 5 yillik milliy dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Bir paytlar bu yerda moviy kenglik ohista chayqalar, ba'zan suv ko'kka ko'tarilib o'zini zaminga qayta tashlar edi. Dengiz, qushlar va qirg'oqdagi baliqchilarning shovqini bir-biriga qorishib ketardi. Bir qarashda bularning yuraklari bittaday, bir butunday tuyulardi.



Uncha uzoq bo‘lmagan davrlarda xalqning rizqu nasibasi bo‘lgan Orolimiz bugun xasta. Dardiga malham qo‘yishga harakat qilayotganlarni jim kuzatmoqda.

Suvi tortilib ketgan maydonlardan ko‘tarilayotgan qum, tuz, chang zarrachalari atrofga sochiladi. Yer qor yoqqanday oqarib qoladi. Bir vaqtlar bilib-bilmay tabiatning tartib-qoidalariga aralashildi, daryolar suvining yo‘li to‘stildi. Oqibatda dengiz bizdan uzoqlashdi. Chekingan dengizga esa ortiq shunchaki qarab turib bo‘lmasdi. Biz bunday yo‘l tutmadik.

### **Himoya o‘rmonzorlari barpo etish ishlari qizg‘in davom etmoqda**

Bu yil yuz ming gektar maydonda yashil qoplamalar hosil qilish maqsad qilingan. Odatdagiday joriy yilda ham minglab texnikalar, to‘rtta kichik aviatsiya transporti, ikki ming besh yuzdan ortiq odam o‘rmonlashtirish yumushlarini amalga oshirmoqda.

Bu ish uchun to‘rt yuz yigirma tonna saksovol, qandim, qoraburoq kabi cho‘l o‘simliklarining urug‘i jamg‘arilmoqda. Yuz gektar maydonda esa saksovol va boshqa cho‘l o‘simliklaridan ko‘chatxonalar tashkil etilganini alohida ta‘kidlash kerak.

Orolning qurigan maydonlarida bu yilgi saksovol ekish mavsumi fevral oyidan boshlab yuborilgan. Bugun esa bu yerda o‘rmon plantatsiyalarini yaratish jarayoni qizg‘in pallada.

O‘rmonlashtiriladigan hudud juda katta, buni hisobga olgan holda asosiy ishlar bir qator resurslar imkoniyatidan keng foydalangan holda bajariladi. Ish jarayoniga aviatsiya, qishloq xo‘jaligining zamonaviy texnikalari jalb qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari mutaxassisleri, olimlar ish jarayonini nazorat qilmoqda.

Bu xayrli ish uchun keng jamoatchilik vakillari, turli idora va muassasa xodimlari, yoshlar ko‘mak berishni istashadi. Bugun Orolbo‘yi kengliklarda ko‘ngilli hasharchilarni uchratish tabiiy xolga aylangan.

Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi a‘zolari, bir qator oliy ta‘lim muassasalari talabalari keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari markazida bo‘lishdi. Bu yerga kelganlar yashil qoplamalar hosil qilishdek ezgu tashabbusga o‘z hissalarini qo‘shishdi.

– Biz, yoshlar bu yerga tez-tez kelishga harakat qilamiz, – deydi Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi Aygerim Eltayeva.

– Orolning qurigan kengliklarida juda katta jamoa, kuch ishlamoqda. Urug‘lar asosan samolyotlarda sepilayotganini ko‘rib turibmiz. Aytishlaricha, bir parvozning o‘zida yuzlab gektar maydonga urug‘ qadalmoqda. Ko‘chatlarni qo‘lda ekishning ham samarasi katta ekanini yaxshi bilamiz. Bu jarayonda biz ham qatnashyapmiz. Yaxshi ishga bosh qo‘shayotganimizdan xursandmiz. Ekayotgan ko‘chatlarimiz tabiatni, odamlar salomatligini asrashga xizmat qilishini his etish zavqli. Kelgusida bu mehnatlar o‘z samarasini berishiga ishonamiz.

Shavkat Mirziyoyev 2018 yil Mo‘ynoqqa tashrif buyurdi. O‘shanda olimlar bilan maslahatlashildi. Orol dengizining suvi qurigan kengliklarida sho‘rga chidamli o‘simliklar ekish vazifasi belgilagandi. Buni xayrli ishning start olgan yili deyish mumkin.

Bugungacha suvsiz, Orolqum deb atala boshlangan 1 million 700 ming gektar maydonda o‘rmonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borildi.

### **Xalqaro minbarlarga olib chiqilgan ezgu tashabbus**

Davlatimiz rahbari 2017 yil Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Orol fojiasiga dunyo hamjamiyatining e‘tiborini qaratdi. Qator tashabbuslarni ilgari surdi. Yaxshi niyatlar esa xalqaro darajada qo‘llab-quvvatlandi. Bir yil o‘tib Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosidagi trast fondiga asos solindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil BMT Bosh Assambleyasining videokonferensiya shaklida o‘tgan 75-sessiyasidagi nutqida ham Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik muammoga to‘xtaldi. Davlatimiz rahbari o‘shanda Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e‘lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etgan edi. Ushbu rezolyutsiya 2021 yil oltmishta davlat tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

Bundan tashqari, xalqaro sammitlarda bu bo‘yicha muhim takliflar o‘rtaga tashlandi. Ichki imkoniyatlarimizga tayangan holda amaliy ishlar olib borilishiga e‘tibor qaratildi.

Mintaqadagi ekologiya shu muammoga bevosita bog‘liq ekani kundek ravshan. Tabiat bilan hisoblashmaslik, unga quloq tutmaslik nima oqibatlariga olib kelishini Orol fojiasi yaqqol ko‘rsatdi. Ikki yirik suv manbai – Amudaryo va Sirdaryo suvining to‘silishi bizni Orol dengizidan uzoqlashtirib yubordi. Cho‘llanish tezlashib, o‘simlik va hayvonot dunyosi kamayib ketdi. Odamlar turmush-tarzi qiyinlashdi.

Orolbo‘yidagi ekologik muammolarni yumshatish, aholi yashash sharoitini yaxshilash masalasi davlat rahbarining bejiz e‘tiborida emasligini anglash qiyin emas.

O‘tgan yilning fevral oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev Orol dengizining qurigan joyiga shaxsan o‘zi bordi. U yerdagi vaziyatni ko‘rdi, amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev o‘shanda murakkab sharoitda ekin yetishtirish bo‘yicha katta tajriba orttirilgani, endigi ishlarni ilmiy asoslangan tarzda davom ettirish lozimligini ta‘kidlagandi.

Shundan kelib chiqib, istiqbolda bu yerda hudud tuprog‘iga mos navlar yaratish, keyingi bosqichda chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy ishlar qilinadi.

Yaqinda BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida tuzilmaning Suv masalalari bo‘yicha konferensiyasi o‘tkazildi. Unda 2030 yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari yo‘lida obihayot orqali dunyoni birlashtirish, sayyoramiz farovonligida dengiz va okeanlarning ahamiyati, bu boradagi global tashabbuslar ilgari surildi. Bu tashabbuslar esa BMTga a‘zo barcha mamlakatlar, ixtisoslashgan idoralar tomonidan nufuzli spikerlar ishtirokida ko‘rib chiqildi.

Konferensiya ishida tuzilmaga a‘zo mamlakatlar qatorida yurtimiz delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Yuqori darajadagi yalpi majlisda mamlakatimiz delegatsiyasi a‘zosi Saida Mirziyoyeva nutq so‘zladi. BMT minbaridan Orol dengizi fojiasining oqibatlari, ularni yumshatish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar va bu boradagi xalqaro sa‘y-harakatlarni birlashtirishda mamlakatimizning yetakchiligi xususida so‘z yuritildi.

### **Ezgu tashabbusning ko‘lami kengayib bormoqda**

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil hududlarni kengaytirish ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Xususan, Qoraqalpog‘istonda ham muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish doimiy e‘tiborda. Shu maqsadda Qo‘ng‘irot tumani hududidan maydoni 280 ming gektarlik “Borsakelmes” davlat buyurtma qo‘riqxonasi, Mo‘ynoq tumani hududidan maydoni 1 million gektar bo‘lgan “Aralqum” milliy tabiat bog‘i tashkil etildi. Natijada muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning umumiy maydoni 3,5 million gektarga yetkazildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida esa Qoraqalpog‘istonda jami 14 million 300 tupdan ortiq daraxt hamda butali o‘simliklar ko‘chati ekildi. Tumanlarda 16 ta o‘rmon xo‘jaligida 250 gektar maydonda ko‘chatxona tashkil etildi.

Nukus shahri va tumanlarda qariyb 65 gektar maydonda yashil bog‘lar, 101 gektardan ortiq maydonda yashil jamoat sayilgohlarini tashkil etishga kirishilgani quvonarli.

Orol dengizini yana suvga to‘ldirish imkonsiz bo‘lishi mumkin, lekin qolganini asrash, ekologik muvozanat yaratish, odamlar turmushini yaxshilash bo‘yicha juda katta ish ketayotgani quvonarli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Berg L. S, Aralskoye more, SPB,1908; Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;

2. Rafikov A. A.,Tetyu yan G. F., Snijeniye urovnya Aralskogo morya i izmeneniye prirodnix usloviy nizovyev Amudari , T., 1981

3. Glazove kiy A. F., Aralskiy krizis, M., 1990; 4. Akramov 3., Rafikov A. A., Proshloye, nastoyasheye i budusheye Aralskogo morya, T.,1990; UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 №4 132

5. Xikmatov B. F., Izucheniye dinamiki elementov vodnogo balansa i mineralizatsii Aral'skogomorya, Dissertatsiya na soiskaniye akademicheskoy stepeni magistra gidrologii, T., 2003.

## **РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ МУЗЫКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ИХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ**

### **DEVELOPMENT OF PUPILS' CREATIVITY IN MUSIC LESSONS AS CONDITION FOR FORMATION OF THEIR MUSICAL CULTURE**

**Raximova Feruza**  
**Qashqadaryo viloyati Muborak tumani 28-maktab**  
**o'qituvchisi**

**Abstract:** the development of students' creative abilities in music lessons at school occurs organically, as they immerse themselves in the subject, as students' artistic thinking is formed. Creativity is potentially inherent in all people and can be developed in all children to one degree or another. It is important to awaken the need for their development in time.

**Keywords:** school, music lessons, pupils culture.

**Аннотация:** развитие творческих способностей учащихся на уроках музыки в школе происходит органично, по мере погружения в предмет, по мере формирования художественного мышления учеников. Творческие способности потенциально свойственны всем людям и в той или иной степени их можно развить у всех детей. Важно вовремя пробудить потребность в их развитии.

**Ключевые слова:** школа, уроки музыки, культура школьника.

The ability to create is formed and developed on the basis of mastering existing standards of music and requires the manifestation of creative activity of students. This means that achieving the goal of musical education, focused on the formation of the musical culture of students, is possible through their direct involvement in this very creative process, that is, in musical activity. Creative tasks activate students' creative thinking. Their implementation is not limited to a certain search framework. The requirement for completing such tasks is the originality of the result and its persuasiveness. Creative tasks are fundamentally feasible for students, regardless of the degree of difficulty. They should be of interest and relevant to students.

Creativity is the ability to produce unusual creative ideas, deviate from standard patterns of thinking and behavior, and quickly and correctly solve problems and problematic situations. Creativity allows a person to constantly search and find the optimal way out of a situation, overcome or reconstruct it. It is music lessons that can contribute to the development of creativity in schoolchildren. By its amazing ability to evoke creative activity in a person, art takes first place among all the diverse elements that make up the complex system of human upbringing. An integrated approach to the education of a creative personality covers a wide range of issues related to the problems of general aesthetic and moral education.

The inextricable unity of the ideological, worldview, spiritual and artistic is an essential condition for the personality of a growing person, the versatility and harmony of its development. The value of creativity, its functions, lie not only in the productive side, but also in the creative process itself. Each historical period of our country is associated with glorious creative people. Society's need for creative, active, gifted and spiritually developed citizens is relevant and significant today. This is confirmed by the modern CONCEPT of teaching the subject area "Art" in educational organizations of the Russian Federation. It states that art has the ability to indirectly transmit spiritual, moral, aesthetic and artistic traditions, contributing to the development of the artistic culture of students and the value perception of works of art and objects of artistic culture.

The study of academic subjects within the subject area “Art” is aimed at introducing students to the sphere of spiritual life of society, at developing artistic and value orientations in the surrounding world, spiritual and moral principles and the ability to creatively master the environment. The relevance of creativity in the pedagogy of the Russian school is also observed in “21st Century Skills”, where a different set of elements is identified, but the general direction can be clearly traced: these are universal competencies associated with the ability to think critically and creatively.

Pedagogically significant guidelines for the education of a creative personality are concentrated in such characteristics as developed abilities, needs for transformative activities, a sufficiently large amount of acquired knowledge and skills, a combination of analytical and intuitive thinking, the ability and desire for life creativity and research. Finding methods and techniques for developing creativity in music lessons identified the problem of pedagogical experience. A creative person is a person who has flexible thinking, free imagination, fantasy, intuition in any field of activity, which is the main goal of modern education - the formation of a socially active personality of a schoolchild, capable of fully realizing himself in new life conditions.

The concept of “creativity,” in my opinion, includes the following key principles, without which the development of students’ creativity is impossible. Constructiveness. The result of creative activity can be used both by the student himself for his subsequent work, and by the teacher as didactic material for younger students: drawings, projects, essays, slide shows, brochures about composers and musical instruments will enliven a music lesson, make it more vibrant and interesting, crosswords, puzzles, can be used as final works. Children always complete tasks done by students like themselves with much greater interest. Seeing other students' work in class stimulates them well

own creative activity. The joy of discovery. Creative activity allows the student to express himself, to recognize himself as the creator of his activity, it increases his self-esteem. The child feels like an individual, which becomes an excellent incentive for his further creative activity. Unity between student and teacher. A teacher who wants to develop creativity in his students must be a creative person himself. When communicating with a child, he must show him examples of creative behavior and activity. In the process of this activity, an amazing unity between teacher and child occurs, which allows the student to see the teacher as an adviser and assistant. Activity. The ability to produce new ideas and find unconventional ways to solve problems, think independently, and make decisions are the main features of creative behavior. Without them there cannot be a creative person.

Internal motivation, internal motivation, and cognitive interest are very important here. If a child is not interested, it is impossible to force him to be active and there can be no talk of any creativity. Talent. Every child is talented, talented in their own way. The teacher needs to be able to recognize this talent in time and create favorable conditions for its development. Ingenuity. Ingenuity can manifest itself in everything: in an unusual form of presentation of musical material, non-standard musical thinking, a wealth of ideas, and a variety of ideas. Creative people must take risks because they are forging a new path - a path untrodden by anyone in the past. Inspiration. It is impossible to conduct creativity lessons without inspiration. This process is interpenetrating: it goes from teacher to student and from student to teacher. Inspiration is manifested through the atmosphere, views, remarks, actions. It is on the wave of inspiration that students develop to their maximum height. Novelty. Often this is not just the creation of something new, but the creation of something new for given difficulties in work, uncertainty, and gaps in knowledge. Sometimes creativity begins with a new vision of a known problem situation. Originality. A creative person almost always and everywhere strives to find his own, different from others, solution (be it simply his own, different from others, interpretation of a piece of music). Originality of thought, the possibility of obtaining answers significantly different from the usual, non-standard thinking and perception of the world - this is what needs to be developed in students.

